


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
TARIX INSTITUTI

---

# QADIMGI DUNYO TARIXI

(maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, abituriyentlar va  
tarix fani o'qituvchilari uchun qo'shimcha qo'llanma)

- MA'RUZALAR
- CHIZMA-JADVALLAR
- TARIXIY SHAXSLAR
- ATAMA VA TUSHUNCHALAR
- GEOGRAFIK NOMLAR
- TARIXIY SANALAR
- TESTLAR
- KROSSVORDLAR



922935

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPAANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2011

УДК 94.(575.1)  
ББК.63.2y7

## **T u z u v c h i - m u a l l i f FARHOD SULTONOV**

**O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti Ilmiy kengashi, tarixiy adabiyotlarni nashrga tayyorlash va chop etish bo‘yicha davlat ekspert guruhi hamda Respublika Ta‘lim markazi tarix fani o‘quv-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.**

Tarix fanlari doktori, professor **D.A. Alimova** ilmiy tahriri ostida

### **T a q r i z c h i l a r:**

- A. Otaxo‘jayev** — tarix fanlari nomzodi
- M. Is‘hoqova** — tarix fanlari nomzodi
- S. Mahkamov** — pedagogika fanlari nomzodi
- N. Ismatova** — Respublika Ta‘lim markazi ijtimoiy fanlari bo‘limi boshlig‘i
- Q. Karimbekov** — O‘zbekiston teleradiokompaniyasining siyosiy sharhlovchisi
- M. Mo‘ydinova** — TSHPXQTMOI kafedra mudiri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta‘limi xodimi
- L. Ahmedova** — Toshkent shahar O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi boshqarmasining bosh mutaxassisi

Qadimgi dunyo tarixi: (maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, abituriyentlar va tarix fani o‘qituvchilari uchun qo‘shimcha qo‘llanma). / Tuzuvchi-muallif F.Sultonov. O‘zR xalq ta‘limi vazirligi, Respublika Ta‘lim markazi, O‘zR FA Tarix instituti. —T.; “Sharq”, 2010, — 464 b.

Sarl. oldi O‘zR Xalq ta‘limi vazirligi, Respublika Ta‘lim markazi, O‘zRFA Tarix in-ti.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligiga qarashli Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san‘at litseyi tomonidan tayyorlangan ushbu qo‘shimcha o‘quv qo‘llanma o‘quvchilarni qadimgi dunyo tarixidan mukammal bilimlarga ega bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Qo‘llanma eng qadimgi davr tarixini davrlashtirish masalasini yorituvchi, qadimgi odamlarning hayoti, ular yashagan manzilgohlar, ushbu davr manbalari va tarixchilari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga boydir. Ushbu qo‘llanmani tayyorlashda yoritilgan davr va mavzular bo‘yicha yangi pedagogik texnologiyalar asosida test savollari, boshqotirmalar va ilova-jadvallar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘quvchining yoritilayotgan mavzularni tushunish va eslab qolish imkonini oshirishga xizmat qiladi.

УДК 94.(575.1)  
ББК.63.2y7

ISBN 978-9943-00-557-0

© Farhod Sultonov, 2010  
© “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2011

## MUNDARIJA

<i>Kirish</i> . . . . .	5
-------------------------	---

### I b o b. Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari

Eng qadimgi odamlar . . . . .	6
Eng qadimgi davr . . . . .	9
Qadimgi davr odamlari . . . . .	13
Ilk temir davriga o'tilishi . . . . .	16
Chizma-jadvallar . . . . .	18
Tarixiy shaxslar . . . . .	39
Atama va tushunchalar . . . . .	42
Geografik nomlar . . . . .	54
Tarixiy sanalar . . . . .	62
Testlar . . . . .	65
Krossvord . . . . .	77

### II b o b. Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo

Qadimgi Misr . . . . .	80
Qadimgi Mesopotamiya . . . . .	84
Finikiya va Falastin . . . . .	86
Xett va Urartu . . . . .	87
Qadimgi Eron. Elam va Midiya . . . . .	89
Qadimgi Hindiston va Xitoy . . . . .	91
O'rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlar . . . . .	94
Zardushtiylik . . . . .	97
Chizma-jadvallar . . . . .	100
Tarixiy shaxslar . . . . .	125
Atama va tushunchalar . . . . .	145
Geografik nomlar . . . . .	174
Tarixiy sanalar . . . . .	191
Testlar . . . . .	207
Krossvord . . . . .	241

### III b o b. Qadimgi Yunoniston

Eng qadimgi Yunoniston . . . . .	244
Yunon-Eron urushlari. . . . .	248
Afinada demokratiyaning yuksalishi. . . . .	249
Peloponnes urushi . . . . .	250
Aleksandr Makedonskiy istilolari . . . . .	251
Qadimgi yunon madaniyati va dini . . . . .	252
Chizma-jadvallar . . . . .	255
Tarixiy shaxslar. . . . .	259
Atama va tushunchalar. . . . .	270

Geografik nomlar . . . . .	283
Tarixiy sanalar . . . . .	285
Testlar . . . . .	291
Krossvord . . . . .	310

#### **IV b o b. Miloddan avvalgi VI–milodiy IV asrlarda O‘rta Osiyo**

O‘rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari . . . . .	314
O‘rta Osiyo aholisining yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi . . . . .	315
Salavkiylar davlati . . . . .	317
Yunon-Baqtriya podsholigi . . . . .	317
Qadimgi Xorazm . . . . .	318
Qang‘ davlati . . . . .	319
Farg‘ona davlati . . . . .	320
Kushon davlati . . . . .	321
Buyuk Ipak yo‘li . . . . .	322
Chizma-jadvallar . . . . .	324
Tarixiy shaxslar . . . . .	336
Atama va tushunchalar. . . . .	342
Geografik nomlar . . . . .	346
Tarixiy sanalar . . . . .	352
Testlar . . . . .	355
Krossvord . . . . .	378

#### **V b o b. Qadimgi Rim**

Qadimgi Rim . . . . .	382
Rim saltanati . . . . .	387
Rim imperiyasi milodiy asr boshlarida . . . . .	389
Qadimgi Rim madaniyati va dini . . . . .	391
Chizma-jadvallar . . . . .	393
Tarixiy shaxslar . . . . .	396
Atama va tushunchalar . . . . .	408
Geografik nomlar . . . . .	417
Tarixiy sanalar . . . . .	418
Testlar . . . . .	426
Krossvord . . . . .	447
Test va krossvordlar javobi . . . . .	450
<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati . . . . .</i>	<i>460</i>

## K I R I SH

Sizga tavsiya qilinayotgan tarixga oid ushbu o'ziga xos ensiklopedik ma'lumotnoma Davlat ta'lim standartlariga to'la mos bo'lib, 6-sinf hajmidagi tarix darsligi asosida yaratilgan. Qo'llanmada darslikda uchraydigan tarixiy shaxslar, asosiy atama va tushunchalar, geografik nomlar hamda xronologiya batafsil yoritilgan. Bundan tashqari mavzular bo'yicha ma'ruzalar, ularga mos bo'lgan chizma-jadvallar ham berilganki, bu darsliklardagi mavzularni o'zlashtirishni osonlashtiradi va o'quvchilarning zehnlari mustahkamlaydi. O'quvchilar olgan bilimlarini tekshirib ko'rishlari uchun har bir mavzu bo'yicha test savollari va boshqotirmalar berilgan. Test va boshqotirmalar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tashkil etgan tender g'olibi bo'lgan darsliklar asosida tuzilgan.

Prezidentimizning *“Avvalo, yoshlarimiz tarixni chuqur o'rganishlari lozim. Negaki, o'z tarixini bilmagan jamiyat istiqboliga eltuvchi yo'lni topa olmaydi. Tarixga bepisand xalqning kelajagi yo'q... Kechagi kunidan xulosa chiqarib ish tutgan jamiyat kelajakka ishonch bilan qadam qo'yadi. Ayni chog'da, yoshlar nafaqat tarixni puxta o'rganishi, balki shu buyuk o'tmishimiz bilan g'ururlanib yashashi kerak... G'ururli, mard yoshlarimiz buyuk tarixni yaratgan ajdodlarning vorislari sifatida “Men kelgusi avlodga o'zimdanda nimalar qoldirayapman?” degan tushuncha va intilishni ong-u shuuriga joylab yashashi shart. Erishilgan yutuqlarimizni yanada rivojlantirish bilan birga, boshqalardan o'zishga intilmoq kerak. Ana shunda buyuk kelajagimizni ta'min etgan bo'lamiz. Aslida, biz hech qachon hech kimdan kam bo'lmaganmiz, kam emasmiz va kam bo'lmaymiz ham, degan davlatning mazmun-mohiyatida ayni shunday intilish mujassamdir”* degan so'zlari tarixni o'rganayotgan o'quvchi uchun katta ahamiyatga egadir.

Ta'lim sohasidagi islohotlar o'quvchilarni har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishini taqozo etmoqda. Tarixga oid nashr etilgan ko'plab kitoblar mavjud. Tarixchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan voqea va hodisalar, ilmiy muammolar turli kitoblarda o'z aksini topgan. Izlanuvchan o'qutuvchi va o'quvchilar ana shu kitoblarni topib o'qishga harakat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada qadimgi davrda yashab o'tgan tarixiy shaxslar va voqea-hodisalar bilan bog'liq atama va tushunchalarni bir kitobga jamlashga harakat qilindi. Tarixni chuqurlashtirilgan holda o'qitilayotgan maktab va akademik litsey o'quvchilari uchun ushbu o'quv qo'llanma katta ahamiyat kasb etadi. Nafaqat chuqurlashtirilgan guruhlar uchun, balki repititorlik qilayotgan tarix o'qituvchilari, talabalikka da'vo qilayotgan abituriyentlar uchun ham muhimdir. Chunki o'quv qo'llanmadagi boy materiallarni o'zlashtirgan o'quvchilar har qanday muammolarga yechim topa oladi.

Qo'llanma maktab o'quv dasturi talablaridan kelib chiqilgan holda yaratilgan. Asosiy e'tibor maktab dasturida berilgan tarixiy shaxslar, atama va tushunchalar qo'shimcha ma'lumotlar asosida batafsil ochib berishga harakat qilingan.

Ishonchim komilki, tarixni o'qib uning mag'zini chaqa olmayotganlar, fan olimpiadasida qatnashib yuhori sovrinli o'rinlarni olishga ishtiyoqi bo'lganlar, abituriyentlikdan talaba bo'lishga intilayotganlarga, albatta, ushbu qo'llanma madadkor bo'ladi.

Mazkur o'quv qo'llanma kelgusida tarix fanidan yaratilajak milliy ensiklopediyaning poydevori sifatida xizmat qiladi degan umiddaman. Ilmiy-ijodiy ishlarimizni davom ettirgan holda tez orada *“O'rta asrlar tarixi”, “Yangi davr tarixi”, “Tarixiy sanalar”, “Tarixiy shaxslar”, “Tarixiy atama va tushunchalar”, “O'zbekiston hukmdorlari”* va *“O'zbekistonning me'moriy obidalari”* nomli o'quv qo'llanmalarni ham keng ommaga taqdim etmoqchimiz.

**Farhod Sultonov,**  
oliy toifali tarix o'qituvchisi

I BOB. ENG QADIMGI TUZUMDAN  
SIVILIZATSIYA SARI

## ENG QADIMGI ODAMLAR

**Qaysi davrni biz qadimgi dunyo deb ataymiz?**

Insoniyat tarixi juda qadimiylidir. Agar odamzodning yer yuzida yashay boshlagan vaqtini olib uni bir sutka, ya'ni 24 soatga qiyoslasak insoniyatning ongli faoliyat davri, so'nggi soatning, so'nggi choragiga, aniqrog'i 15 minutga to'g'ri keladi. Uni tarixga qiyoslasak ota-bobolarimiz, bizning zamondoshlarimiz "*Avesto*" davrini o'tgan haftada ro'y bergan deb aytish joiz bo'lar edi.

Tarix uchun asr va mingyilliklar misoli bir daqiqadir. Lekin insoniyatning uzoq o'tmishini o'rganishda ma'lum yil boshi, sanoq zarurligi tabiiydir. Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida *xristian-grigorian kalendar*i – taqvimi ishlatiladi. O'zbekiston tarixshunosligida ham ushbu taqvimdan foydalaniladi. Undagi yil sanog'i milodiy birinchi, ya'ni Iso payg'ambar tavallud topgan yilidan boshlanadi. Shu sababdan biz ushbu sanadan keyingi voqealarni *milodiy* deb ataymiz va unda yillar o'sib, ko'payib boradi. Undan oldingi voqealarni esa miloddan avvalgi (qisqacha mil. avv.) deb nomlaymiz va unda yillar ko'pdan kamayib borish xususiyatiga ega.

**Tarix manbalari**

Tarixning qadimgi davri **moddiy** va **yozma** manbalar asosida o'rganiladi. **Tarixiy manbalar** – inson faoliyati yoki ta'siri natijasida yaratilgan barcha ashyolardir. **Moddiy manbalarga** imoratlar, suv inshootlari, uy-ro'zg'or asbob-anjomlari, aloqa vositalari, mehnat qurollari, qurol-aslaha va inson uchun kerak bo'ladigan barcha buyumlar kiradi. **Eng qadimgi yozma manbalarga** dastlabki yozuvlar va hujjatlar, qadimgi mualliflar asarlari kiradi.

Eng qadimgi davr tarixini **arxeologiya**, **antropologiya**, **etnografiya**, **xronologiya**, **lingvistika**, **genologiya** fanlari erishgan yutuqlari asosida o'rganiladi.

Moddiy tarixiy manbalar asosida odamlar hayotini o'rganuvchi fan **arxeologiya** deb ataladi, bu "*qadimgi zamon haqidagi fan*" degan ma'noni bildiradi. Qazilma ishlarini olib boradigan va moddiy manbalarni o'rganadigan olimlar **arxeologlar** deb ataladi.

**Antropologiya** qadimgi odam qiyofasini tiklovchi fan bo'lib, u inson, uning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni beradi.

Turli xalqlarning hayotini o'rganuvchi fan **etnografiya** deyiladi, bu "*xalqlarni tasvirlash*" degan ma'noni bildiradi.

**Xronologiya** taraqqiyot bosqichlarining vaqtini (tartibini) aniqlaydi.

**Lingvistika** tilshunoslik bo'lib, eng qadimgi tillarni o'rganadi.

**Genealogiya** alohida insonlarni kelib chiqishi, qarindoshlik aloqalari, bir oila ajdodlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

**Tarix fani** ajdodlarimiz hayotini, ularning mustaqillik uchun olib borgan kurashlarini, o'tgan mingyilliklarda odamlar qanday yashaganligini, ular hayotida qanday voqealar sodir bo'lganligini o'rganadi.

'**Tarix** arabcha so'z bo'lib, "*voqealar haqida hikoya qilish*" degan ma'noga ega. Bu ma'noni anglatuvchi so'z yunonchada "*istoriya*" bo'lib, "*tekshirish*" degan ma'noni anglatadi. Yunon tarixchisi **Gerodot** tarix fanining asoschisi hisoblanadi.

Ma'lumki, ibtidoiy odamlar o'zlarining hayoti va turmush tarzi haqida yozma ma'lumotlar qoldirmaganlar. Shunga qaramasdan, eng qadimgi odamlar vakillari va ular madaniyatining nomlari bizga ma'lum, olimlar bu nomlarni qadimgi odamlar va ularning madaniyatlari qoldiqlari topilgan joylar nomlari asosida belgilaydilar.

### Yozma manbalar

Tarixiy manbalar O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy yozma madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biri ekanligidan dalolat beradi. O'rta Osiyo xalqlari yozma madaniyati tarixining yoshi 2300–2700 yillar atrofida deb hisoblanadi. Mil. avv. 1-mingyillik o'rtalari O'rta Osiyoda **oromiy yozuvi** keng tarqalgan edi. Ana shu yozuv zaminida keyinchalik **xorazm, baxtar, sug'd, parfiyon yozuvlari** shakllandi. O'rta Osiyoni makedoniyalik Iskandar bosib olgach, bu o'lkaga **yunon yozuvi** kirib keldi.

Bundan tashqari tosh, sopol, kumush, yog'och va charm buyumlarga bitilgan turli xil ma'lumotlar tarixiy manbalar sifatida qimmatlidir.

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi – bu xumning sirtida tasvirlangan xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. U **Katta Oybuyirqal'a** shahar xarobasida topilgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, bu yozuv mil. avv. V–IV asrlarga tegishlidir. Mil. avv. IV–III asrlarga oid yana bir qadimgi Xorazm yozuvi **Qo'yqirilgan qal'a**da topilgan sopol idishning sirtiga yozilgan. Bu manba yagona **“asparak” – “otliq”, “chavandoz”** so'zidan iborat. Qadimgi Xorazm yozuvi **oromiy** alifbosiga asoslangan. **Oromiylar** – mil. avv. 1-mingyillikning boshlarida Mesopotamiyadagi qadimgi xalqdir. Mil. avv. VI–IV asrlarga kelib, 22 harfdan iborat bo'lgan oromiy alifbosi O'rta Sharqning idora qilish, ish yurituvchi va ma'muriy tili vazifasini bajargan.

**Baqtriya yozuvi** ikki xil – oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslanib rivojlangan. Baqtriya tili va yozuvlari uncha yaxshi o'rganilmagan. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriya so'zlari yetib kelgan. Baqtriya yozuvi topilmalari asosan milodning I asrlariga taalluqlidir.

Milodiy I–IV asrlardan boshlab, **sug'd yozuvlari** keng hududda tarqalgan. Bu jarayon sug'dlarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning **“Buyuk ipak yo'li”**dagi harakatlari bilan bog'langan. Shuning uchun ham sug'd tilidagi yozma yodgorliklar **O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston** va **Mo'g'listonda** topib o'rganilgan. **Sug'd yozuvi** ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi **uyg'ur, mo'g'il** va **manjurlar yozuvlari** paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

**Sak tilida** yoritilgan eng qadimgi manba Olmaota atrofida joylashgan Issiq qo'rg'onda topilgan kumush idishdagi yozuvdir. U mil. avv. V asrga tegishlidir. Tilshunoslik fanlarida ushbu yozuviga o'xshagan belgi yozuvlari **“noma'lum xat”** deb ataladi. Sak tillarida yozilgan hujjatlarning asosiy qismi Sharqiy Turkistonning Xo'tan vohasidan topilgan. Ular VII–X asrlarga oiddir.

O'zbekistonda tillarning vujudga kelishi: bir necha ming yillar bilan bog'lanadi. Yozma manbalarga ko'ra yurtimizdagi eng qadimgi mahalliy tillar: **turkiy, fors, arab** va **eski o'zbek** tillaridan joydalanishgan. Ular ma'muriy, adabiy mahalliy til vazifasini bajargan.

O'zbekistondagi ilk yozma manbalar – **“Avesto”, Behistun yozuvlari** va **qadimgi dunyo (yunon-rim)** tarixchilarining asarlarida o'lkamizda yashagan qadimgi xalqlarning nomlari, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llarning, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlari, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

O'zbekiston tarixi bo'yicha eng qadimgi manba zardushtiylarning muqaddas kitobi **“Avesto”**dir. Unda yurtimizning tarixiy viloyatlari, ajdodlarimizning madaniy tarixi o'z ifodasini topgan.

Qadimgi davr tarixiga doir muhim yozma manbalardan biri **Behistun yozuvlaridir**. Bu yozuv Erondagi **Kirmonshoh** shahri yaqinidagi **Behistun qoyalarida** joylashgan bo'lib, u fors shohi

**Doro I** buyrug'iga ko'ra uch tilda: *qadimgi fors, elam va bobil tillarida* yozilgan g'alaba yodgorligidir. Unda mil.avv. 523–522-yillari Ahamoniylar saltanatini larzaga keltirgan **Gaumata, Frada, Skunxa** boshliq xalq harakatlari hamda **Doro I** zabt etgan **Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya** va **sak** qabilalari haqida yozilgan.

**Persepol, Suza** va **Ekbatan** shaharlari va ularning atroflaridan topilgan mixat yozuvlar ham Ahamoniylar davriga oid muhim yozma manbalardir. **Suzada** topilgan mixsimon yozuvda **Doro I** mil. avv. 494–490-yillarda Suzada bunyod etilgan saroyning qurilish tafsilotlari yozilgan. Unga ko'ra, **Lidiya** bilan **Baqtriya**dan oltin, **Sug'diyonadan** qimmatbaho toshlar, lazurit, qizg'ish rangli tosh, **Xorazmdan** firuza keltirilgan.

**Persepol**da topilgan yozuvlar va tasviriy rasmlar katta ilmiy ahamiyatga ega. Suratlarida Ahamoniylarga tobe bo'lgan satrapdan o'lpon olib kelgan kishilar qiyofasi tasvirlangan. Bular orasida **baqtriyaliklar** (turli idishlar, teri, mo'yna va tuya bilan), **sug'dliklar** (turli mato, teri va qo'ylar bilan), **saklar** (ot va chakmonlar bilan), **parfiyaliklar** (idishlar va tuya bilan) va **xorazmliklar** (ot va qurol-aslaha bilan) tasvirlangan.

**Persepol** atrofida topilgan **Naqshi Rustam** mixsimon yozuvida ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplik va xalqlarning to'la ro'yxati yozilgan, shuningdek, **Doro I** ning 19 marta qilgan harbiy yurishlari va u asirga olgan 9 podshoning nomlari qayd etiladi.

Mil. avv. V asrda qadimgi yunon tarixchisi **Gerodot** turli mamlakatlarga sayohat qilib, 9 kitobdan iborat "**Tarix**" asarini yozdi. Bu asar umumiy tarix yo'nalishida yozilgan birinchi asar hisoblanadi. Shu bois ham **Gerodot, Sitseronning** so'zlari bilan aytganda, tarix fanining "**otasi**" hisoblanadi. Bu asarda **Gerodot** O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari, ularning turmushi, urf-odatlari hamda qo'shni mamlakatlar haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Yunon tarixshunoslari **Ksenofont** va **Ktesiy** asarlarida (mil. avv. V–IV asr) ham yurtimiz tarixi haqida ayrim ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Yunon tarixchisi va geografi **Strabon** "**Geografiya**" nomli asarida ko'plab mamlakatlar xalqlari madaniyati va tarixiy voqealari haqida ma'lumotlar keltiradi.

Mil. avv. II asr oxiri–I asr boshlarida qadimgi Xitoy tarixchisi **Sima Szyanning** "**Tarixiy yilnomalar**" nomli asarida yurtimizning qadimgi aholisi va davlatlari to'g'risida ma'lumotlar bor.

Rim tarixchisi **Kvint Kursiy Ruf** "**Buyuk Aleksandr tarixi**" nomli asarida (milodiy I asr) makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Yunon tarixchisi **Arrian Flaviyning** (taxm. 95–175-yillar) "**Iskandarning harbiy yurishlari**" asarida Iskandar Zulqarnaynning O'rta Osiyoga qilgan istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan.

Eng qadimgi odamlar rivojining ilk davrlari

› Odamzodning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayoni tarix fanida **antropogenez** deb ataladi. Tarix fanida odamning kelib chiqishi va rivojlanishi **arxeologiya** va **antropologiya** ma'lumotlariga, topib va tekshirilgan turli xil qadimgi manbalarga asoslanib o'rganiladi.

Insoniyatning dastlabki vakillariga taalluqli qazilma qoldiqlar Sharqiy Afrikadagi **Olduvoy darasida** 1959-yilda topilgan **zinjantrop**, Indoneziyaning **Yava orolida** 1890-yili topilgan **pitekantrop**, Pekin shahri yaqinida 1927–1937-yillari topilgan **sinantrop**lar hisoblanadi. Ular fanda **ibtidoiy odamlar** deb nomlanadi. **Arxantrop**lar ("**eng qadimgi odamlar**")ning aqliy imkoniyatlari maymunnikiga nisbatan yuqoriroq bo'lsa-da hali ularda nutq shakllanmagan va ular o'zaro imo-ishoralar orqali muomala qilishgan. Eng qadimgi odamlar tashqi qiyofa jihatidan ham zamonaviy kishilardan keskin farq qilishgan.

Ilk paleolit davrida "**ishbilarmon odam**"larning vakillari zinjantrop va avstralopiteklar bundan



3–2 mln yillar avval, pitekanthrop mil. avv. 700–600 ming yillar, sinantrop mil. avv. 600–500 mingyillar ilgari yashagan.

**Zinjanthrop avstralopitek**lar oilasining eng qadimgi vakili hisoblanadi. Ular eng sodda mehnat quollarini yasay olganligi sababli “**Xomo habilis**” – “*ishbilarmon odam*”lar deb nom olganlar.

Zinjanthrop, pitekanthrop va sinantrop ilk paleolit davri odamlari hisoblanadi. Mehnat quollarini yasab ishlata olishlari ularni hayvonot olamidani ajratib turgan. **Sinantrop**lar murakkabroq mehnat quoli yasay bilgan va tabiiy olovdan ham foydalanganlar. Ular **Janubiy-Sharqiy Osiyoning** qadimgi odamlaridir. Bu davrda yer yuzi ob-havosi nisbatan iliq bo‘lganligi sababli odamlar manzilgohlari daryo yoki anhor bo‘yidagi tepaliklarda joylashgan.

Olimlarning fikricha, **neandertallar** hozirgi qiyofadagi odamga o‘tish bosqichi hisoblanadi va ular o‘rta paleolit davrida (mil. avv. 100–40-mingyilliklar) yashagan. Neandertallar yashash uchun g‘orlarni o‘zlashtirganlar, qo‘l cho‘qmori va nayza uchlarini yasaganlar, hayvon terisidan o‘zlariga kiyim qilganlar, tabiiy olovdan foydalanganlar, mamont va boshqa yirik muzlik davri hayvonlarini ovlaganlar.

**Kromanyon odamlar** so‘nggi paleolit davrida (mil. avv. 40–12-mingyilliklar) yashagan bo‘lib, ular hozirgi qiyofadagi odamlardan farq qilmaganlar.

Eng qadimgi odamlar mehnat quollarini yasay olishlari va ulardan tirikchilik uchun foydalana olishlari bilan hayvonot olamidani ajralib turardi.

### ENG QADIMGI DAVR

Eng qadimgi davr shunday bir davrki, bunda barcha mehnat quollari umumiy foydalangan bo‘lib, qabila a‘zolari baravar ishlagan. Biroq bu davrda odamlarning turmushi ancha og‘ir bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, ular doim mehnat qilib tabiat qiyinchiliklarini yengib, taraqqiy etib borganlar.

Eng qadimgi davr tarixiy va arxeologik jihatdan tasnivlashtiriladi. Tarixiy davrlashtirishda kishilik jamiyatining rivojlanishiga ko‘ra eng qadimgi davr ikki davrga: **ibtidoiy to‘da** va **urug‘ga** bo‘linadi.

**Ibtidoiy to‘da** eng qadimgi odamlarning ulkan jamoasidan iborat bo‘lgan. Bu jamoada turmush va mehnat umumnegiz asosida birlashgan. Eng qadimgi odamlar vahshiy hayvonlar oldidagi o‘zilik, mehnat quollarining soddaligi tufayli birgalashib ov qilishgan.

Keyinchalik ibtidoiy to‘da **urug‘ jamoasiga** aylangan. **Urug‘** – birgalikda yashab, mehnat qilgan, umumiy mehnat quollari va qurol-yaroqqa ega bo‘lgan qarindoshlar jamoasidir. Bir necha urug‘ urug‘ jamoasini tashkil qilgan. O‘z navbatida urug‘ jamoasi davri ikki davrga bo‘lingan: **matriarxat** (ona urug‘i) va **patriarxat** (ota urug‘i).

**Matriarxat** – qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilangan, urug‘ va oila boshlig‘i ayol bo‘lgan davrdir. Bu davrda qadimgi odamlarning asosiy mashg‘uloti termachilik va ovchilik bo‘lgan. Ayol jamiyat hayotida asosiy o‘rinni egallagan. Ayol o‘choqlarni saqlagan, bolalarni tarbiyalagan va ovqatni taqsimlagan.

Mehnat quollari va xo‘jalik shakllari takomillasha borib, keyinchalik jamoaga erkak kishi bosh bo‘lgan. Bu davr **patriarxat** deb atalgan. Patriarxat davrida jamoa hayotida erkak asosiy o‘rin tutadi, qarindoshlik ota tomonga qarab belgilangan.

Qadimgi odamlarning **to‘daga** yoki **urug‘ jamoasiga** birlashib yashagan hayot tartibi **ibtidoiy jamoa tuzumi** deb ataladi.

Ibtidoiy tuzum tarixini **davrlashtirish** mehnat quollarini tayyorlash uslubi va xomashyoning farqlanishiga asoslanadi. Ibtidoiy davrda har qanday rivojlanishga asos bo‘ladigan jarayon bu aql bilan bajariladigan mehnatdir, zero mehnat odamni hayvonot dunyosidan ajratib turadi.

Eng qadimgi davr tarixini o'rganishda arxeologiya yodgorliklari – moddiy madaniyat obidalari yagona manba hisoblanadi. Olimlar mehnat qurollari va ularning ishlash texnologiyasiga qarab eng qadimgi davrni arxeologik jihatdan davrlarga bo'ladilar. Olimlar eng qadimgi davrni uch davrga: tosh davri, bronza (brinj, jez) va temir davriga bo'ladilar. Eng qadimgi odamlarning mehnat qurollari deyarli toshdan yasalganligi sababli insoniyatning ilk davri **“tosh davri”** deb ataladi. Tosh davri o'z navbatida quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- ◆ **Qadimgi tosh davri – paleolit;**
- ◆ **O'rta tosh davri – mezolit;**
- ◆ **Yangi tosh davri – neolit;**
- ◆ **Mis-tosh davri – eneolit.**

**Qadimgi tosh davri** odamzod tarixining juda katta davrini (99%) o'z ichiga oladi. Olimlar odamlarning avval shag'al, so'ng chaqmoqtoshlarga ishlov berishining takomillashib borishiga qarab paleolitni uchta: **ilk**, **o'rta** va **so'nggi davrlarga** bo'lishadi. Paleolitning har uchta davriga xos umumiy xususiyat ibtidoiy to'da erkaklarining birgalikda yirik hayvonlarni ovlashi edi. Ov o'ljalari insonning aqliy imkoniyatlari o'sishidagi ahamiyati qanchalik katta bo'lmasin terimchilik o'zlashtirish xo'jaligining asosiy turi bo'lib qoladi.

Paleolit davri mehnat qurollari ilk topilgan joy nomlari bilan atalgan. Dunyoda eng qadimgi tosh qurollari va eng qadimgi odamlarning makonlari dastlab **Olduvoy** – Sharqiy Afrikadagi daraning nomi va **Ashel** – Fransiyaning *Sent-Ashel shahri* chekkasidagi mavzedan topib tekshirilgan. **Olduvoy, Ashel, Muste, Orinyak, Solyutre** va **Madlen** madaniyatlari paleolitning turli bosqichlariga oid madaniyatlaridir. Eng qadimgi odamlarning to'da-to'da bo'lib yashashi paleolitning ilk va o'rta bosqichlari uchun xosdir.

**Ilk paleolit** yoki **ashel davri** 1 mln.–100 mingyilliklarni, O'zbekistonda esa bu davr **mil. avv. 700–500–100- mingyilliklarni** o'z ichiga oladi. Odamlarda mehnat qurollarining paydo bo'lishi bu davrning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ilk paleolitda **“bilag'on odam”**, ya'ni **“xomo habilis”** yashagan. Olimlarning taxminicha, mazkur qadimgi odamlar **sinantropga** yaqin qarindoshlik urug'idan bo'lgan. **“Xomo habilis”**ning o'rtacha umri davomiyligi 20–30 yoshlar atrofida bo'lgan. Ular xo'jalikning termachilik va ovchilik turi bilan kun kechirgan. Eng qadimgi odamlar mahsulotlarni o'zlari yetishtirmaganlar, balki tabiat in'om qilgan narsalarni yeganlar. Shu sababli ibtidoiy odamlarning bunday mashg'ulotini olimlar **o'zlashtiruvchi xo'jalik** deb atashgan. Eng qadimgi odamlarning mehnat qurollari **o'tkir qirrali tosh, yer kovlaydigan tayoq** va **so'yil** bo'lgan. Bu davr madaniy yodgorliklari kamroq o'rganilgan bo'lsa-da, shu davrga oid yodgorliklar topilgan. Bu yodgorliklarning madaniy qatlamlariga tegishli ashyolar, xususan mehnat qurollari o'zining soddaligi, qo'polli bilan keyingi davrlarning mehnat qurollaridan farq qiladi.

Ilk paleolit davri madaniy yodgorliklari Toshkent viloyatidan 1963-yili topilgan **Ko'lbuloq** va Farg'ona vodiysidan 1985-yilda topilgan **Selung'ur** manzilgohlaridir. O'zbekistondagi eng qadimgi mehnat qurollari shu yerlardan topilgan. Ular qo'pol daryo tosh qurollari bo'lib, bir tomoni o'tkirlashtirilgandir. Bunday usulda yasalgan tosh qurollarini olimlar **chopperlar** deb atashgan. Ko'lbuloq madaniy yodgorligi MDH miqyosida eng qadimgi madaniy yodgorlik hisoblansa, Selung'ur madaniy yodgorligi ibtidoiy odamning suyak qoldiqlari topilishi bilan ahamiyatlidir. Ilk tariximizning tamal toshlari dastlab ajdodlarimiz tomonidan Selung'ur g'orida qo'yilgan bo'lib, uning yoshi **1 mln 200 ming yil** bilan belgilanadi. Bizning tariximiz Selung'ur g'orida paydo bo'lgan **arxantrop**lardan boshlanadi. O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari dastlab Farg'ona vodiysida paydo bo'lgan va azaldan ularning avlodlari uzluksiz yashab kelmoqda. Ilk paleolit davrida odamlar ob-havo iliq bo'lganligi sababli kichik daryo bo'ylari va buloqlari yonida o'zlariga makon qurib yashaganlar. Iqlim issiq

bo'lganligidan kishilarning boshpana – turar joy va kiyimga ehtiyoji bo'lmagan. Yirtqich hayvonlardan o'zlarini muhofaza etish va birgalikda ovqat topish uchun odamlar **to'da-to'da** bo'lib yashagan. Bu eng qadimgi odamlar **jamoa birlashmasi** deyilgan. Bu jamoa birlashmasi doimiy bo'lmagan. Bu davrda yozda iqlim iliq va quruq, qishda esa sovuq va namchil bo'lgan. Davr oxirida havo o'zgarib, hamma joylar muzliklar bilan qoplagan.

### O'rta paleolit

**O'rta paleolit** yoki **muste davri** (*Fransiyadagi Muste g'ori* nomidan) mil. avv. 100–40-mingyilliklarni o'z ichiga oladi. O'rta paleolit **buyuk muzlik davrida** odamlar g'orlarda yashashga, olovni doimo asrab, undan keng foydalanishga, yovvoyi hayvonlar terilaridan kiyim-bosh tayyorlashga majbur bo'ladilar. Insonni turli kashfiyotlarga undagan narsa eng avvalo tabiatdagi keskin o'zgarishlardir.

O'rta paleolitda iqlim sovib ketganligi sababli olovga ehtiyoj sezildi. Bu davrning o'ziga xos xususiyati tabiiy olovdan foydalanilishning kashf qilinishi bo'ldi. Muzliklar O'zbekiston hududining hayvonot va o'simlik dunyosiga qattiq ta'sir qiladi. Pomir va Tyan-Shan tog'laridan haddan tashqari ko'p qor va muzlik zaxiralari to'plandi. Ularning erishi oqibatida Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari hosil bo'ladi. Kaspiy va Orol dengizlarida suv ko'payadi. Havo soviydi va namgarchilik kuchayadi. Qattiq sovuq odamlarni boshqa joylarga ko'chishga majbur qiladi. Qadimgi odamlar tog' yonbag'irlaridagi g'orlarni makon qila boshlaganlar. Tekislik va daryo vodiylari yovvoyi hayvonlar: yilqi, karkidon, ho'kiz podalari, tog'larda arxar va kiyiklar tomonidan o'zlashtiriladi, ya'ni ushbu hududga yovvoyi hayvonlar migratsiyasi boshlanadi. Mamont va karkidon suyaklarini arxeologlar Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasidan topganlar. Yovvoyi hayvonlarning O'zbekiston hududida ko'p bo'lganligi qadimgi odamlar turmushini birmuncha yengillashtiradi.

O'rta paleolit odamlari **neandertallar** (*Germaniyadagi Neandertal vodiysi* topilmasidan) kalla suyagi katta, miya qutisi cho'ziq, peshanasi qiya bo'lib, hali qosh osti bo'rtmasi saqlanib qolgan edi. Ular qadimgi odamlardan zamonaviy qiyofadagi kishilarga o'tish bosqichida bo'lishgan. Neandertallarni olimlar **“aql-idrokli”**, ya'ni **“homo sapiens”** deb ham atashadi. Neandertal odamlar O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan. Olimlarning fikricha, o'rta paleolitda toshdan pichoqlar, keskichlar, qirg'ichlar yasay boshlagan, dastlabki suyak qurollari paydo bo'lgan. Terimchilik yetarlicha mahsulot bermaydigan hududlarda ovchilikka e'tibor kuchayib, ov qurollari uchli suyak va tosh paykonlar bog'langan nayzalardan keng foydalana boshladi. O'rta paleolit odamlari o'z jamoasida qazo qilgan odamlarni ko'ma boshlagan, ya'ni dafn qilgan.

Bu davr madaniyatini o'rganish O'zbekistonda 1938-yildan boshlangan. Ana shu yillar orasida 100 dan ortiq yodgorliklar topildi. O'zbekistonda eng mashhur o'rta paleolit davrining yodgorliklariga **Teshiktosh, Obirahmat, Xo'jakent, Ko'lbuloq, Omonqo'ton, Takalisoy** nomli makonlarni kiritish mumkin. Manzilgohlardan tashqari eng qadimgi ustaxonalar – tosh konlari aniqlangan. Bular Zarafshon vodiysidagi **Uchtut** va **Ijond** tosh konlaridir. 1938-yilda Surxondaryoning Boysuntov tog'idagi **Teshiktosh g'oridan A.P.Okladnikov** dafn etilgan eng qadimgi bolaning qoldiqlarini topadi. Uning rivojlanish davri mil. avv. 100–40-mingyilliklar bilan belgilanadi. Antropolog **M.M. Gerasimov** qayta tiklagan Teshiktoshdagi neandertal bolaning tashqi qiyofasi o'z ajdodlaridan farq qilar va ko'proq hozirgi qiyofadagi odamlarga o'xshab ketardi. M.M. Gerasimov qazilmalardan topilgan suyaklar orqali odam qiyofasini tiklash uslubini ishlab chiqdi. Teshiktoshliklarning asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lgan.

### So'nggi paleolit

**So'nggi paleolit** yoki **Orinyak, Solyutre, Madlen** davri mil. avv. 40–12-mingyilliklarni o'z ichiga oladi. Mehnat qilish jarayoni va go'shtning pishirib yeyilishi ibtidoiy odamlarni takomillashib borishiga va **so'nggi paleolitda kromanyon** (*Fransiyadagi g'or* nomidan) odamini vujudga keltiradi. Ularning o'rtacha umri davomiyligi 30–32 yosh bo'lgan. **Homo sapiens** – **aqli odam** paydo bo'lishi bilan inson

qo'li bilan yaratilgan moddiy madaniyat ashyolaridan farqli ma'naviy madaniyat ham shakllanadi. Insonda til, ong e'tiqod (sig'inish) vujudga keladi.

So'nggi paleolitda odamlarning olamni anglashga intilishi ularni yangi ixtirolarga yetaklaydi: sun'iy olov olish, yerto'la va chaylalar ko'rinishidagi turar joylar qurish, ibtidoiy san'at va musiqa asboblari ushbu davr kashfiyotlaridir. Bulardan tashqari: irqlar, urug'chilik jamoalari, matriarxat, juft oilalar paydo bo'ldi. Mehnat qurollari yasash va ulardan xo'jalik yuritishda keng foydalanish paleolit davri ibtidoiy jamoa xo'jaligi rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etgan omil hisoblanadi. So'nggi paleolit davrida mukammal kesuvchi, arralovchi va burg'ulovchi mehnat qurollari paydo bo'ldi, odamlar taqinchoqlar: munchoq, tumor, bilaguzuklar yasay oladigan bo'ldilar.

Ayol uy, o'choq va muqaddas olovning egasi hisoblanib, uy xo'jaligida, bolalar tarbiyasida, o'choqda o'tni saqlashda, ovqat pishirishda, ro'zg'or buyumlarni va mehnat qurollarni qo'riqlashda, uy-boshpanani asrashda muhim vazifalarni bajargan.

So'nggi paleolit davri jamoalari orasida mehnat taqsimoti sodir bo'lishi natijasida erkaklar faqat ov bilan, ayollar esa faqat uy yumushlari bilan mashg'ul bo'la boshladilar. Yer yuzidagi barcha xalqlar o'z boshidan kechirgan urug'chilik davrining ilk bosqichida qon-qarindoshlik jamoalari hukm surib u bir ota-onadan tarqalgan urug'doshlar jamoasi bo'lgan. Jamoalarda hamma bir kishi uchun va bir kishi hamma uchun qoidasi hukm surib, jamoa uyi, gulxani, oziq xaxiralari, ovlangan hayvon go'shti, suyaklari va hatto terisi uning barcha a'zolariniki hisoblangan.

Arxeologlar so'nggi paleolit odamlari manzillaridan suyakdan yasalgan garpunlar, qarmoqlar, sanchqilarni ko'plab topishgan bo'lib, ular ushbu davrda o'zlashtirish xo'jaligining yana bir turi baliqchilikning keng yoyilganligidan dalolat beradi.

Ajdodlarimiz o'zlari yashagan tabiiy muhitda ko'plab tabiat hodisalariga duch kelganlar. Nega chaqmoq chaqib, momaqaldiroq bo'ladi? Nega kun va tun mavjud? Nega yozda issig'-u, qishda sovuq bo'ladi? Inson nimaga tush ko'radi? Odamning tug'ilishi va o'limining sabablari?

Natijada odamlarda g'ayritabiiy jon va ruhlarga ishonish e'tiqodi shakllanib u fanda **animizm** deb nomlanadi. Qadimgi odamlar inson vafot etganida, uning joni "*narigi dunyo*"da yashashda davom etishiga ishonganlar. Animizmdan tashqari urug'chilik jamiyatida turli xil diniy e'tiqod va marosimlar: **totemizm** (ajdodlar ruhiga sig'inish), **magiya** (sehrgarlik), **fetishizm** (jonsiz narsalarga ishonish va ularga topinish) keng yoyildi.

Insonlarning tushunchasida "*ruh*" va "*jon*"lar "*yovuz*" yoki "*saxiy*" bo'lishi mumkin edi. O'z tushunchasida eng ulug', boshqalardan ustun bo'lgan ruhlarni keyinchalik **xudolar** deb atay boshladilar. O'z ishlarida omad so'rab ularga duolar bilan murojaat qilish, iltimoslarini xudolar rad etmasliklari uchun ularga sovg'alar, qurbonliklar keltirish boshlanadi. Odamlar turli ashyolar: yog'och, loylardan xudolar va ruhlar siymolarini yasab ularga topina boshlaydilar. Bunday narsalar **but** yoki **sanamlar** deb nomlanadi. Qadimgi odamlar ibtidoiy rassomlar tomonidan chizilgan hayvonlar va ularning suratlari orasidagi g'ayritabiiy aloqaga ishonganlar. Ular ovdan avval kiyik yoki yovvoyi bug'uning tasvirini tushirib uni nayza bilan nishonga olinsa ovda omadlari keladi deb o'ylaganlar. Shu maqsadda Ispaniyaning **Altamir g'orida** hozirdan 14–17 ming yil avval ov tasvirlari tushirilgan **petrogliflar** (*qoyatosh suratlari*) yaratilgan. Bu davrga oid qoyatosh suratlari **Kapova** (Boshqirdiston) va **Lasko** (Fransiya)da ham topib o'rganilgan. O'rta Osiyoda qoyatosh suratlari mezolit davrida vujudga kela boshlagan. 1912-yilda **I.Fyodorov** tomonidan Surxondaryoning **Zarautsoy** degan joyida dunyoga mashhur qoyatosh suratlari topilgan. U yerdagi rasmlar tosh davriga mansubdir. Unda yovvoyi ho'kiz va ov manzarasi tasvirlangan. Odamlar

chizilgan suratlar bo'lajak ovga yordam berishiga ishonganliklari sababli qoyatosh suratlarda ko'pincha hayvonlar va ov manzarasini tasvirlaganlar. Bunday suratlar Farg'ona vodiysidagi **Soymolitosh** manzilgohida ham topilgan. Ibtidoiy tasviriy san'at rivojiga insonning atrof muhitni bilish yoki dunyoni anglashga intilishi asos bo'ldi.

O'zbekistonda **so'nggi paleolit**ga oid dastlabki yodgorlik 1939-yili **N.G. Xarlamov** tomonidan Samarqand shahridan o'tgan qadimiy **Siyobcha soyi** yoqasidan topilgan. U yerdagi urug' jamoasi hayvon va baliq ovi bilan shug'ullangan.

## QADIMGI DAVR ODAMLARI

### Ilk dehqonlar va chorvadorlar

Bundan 15–13 ming yil avval yer yuzida havoning isiy boshlashi muzliklarning chekinishiga sabab bo'lgan. Natijada sersuv va sertoshqin daryolar, ko'llar vujudga kelib ularning sohillarida ko'plab yovvoyi boshqoli o'simliklar paydo bo'lgan. O'rmonlar sero't dashtlarning paydo bo'lishi esa mayda va o'rta hajmdagi yovvoyi hayvonlar: qulon, tur, kiyik podalarini shakllantiradi. Havoning isishi yirik mamontlar kabi hayvonlarni shimolga chekinishiga sabab bo'ladi. Tez harakatlanuvchi hayvonlarni ovlash zaruriyati esa insonni o'q-yoy, ya'ni kamonni kashf etishiga turtki beradi. Bu davrning xo'jalik tarixidagi yangi xususiyatlaridan biri – o'q-yoyning kashf etilishi munosabati bilan yakka ovchi ahamiyatini o'sishidir. O'q-yoy insonning kundalik hayotida bir necha yuz mingyilliklar davomida hukmronlik qilib kelayotgan yirik hayvonlarni tik jarlarga haydash, ularni o'rab olib tutish ovchiligiga barham berdi. Ov jarayoni ko'pchilik tomonidan yirik hayvonlarni tutishga qaratilmay, mayda hayvonlarni tutishga moslashtirilgan. Ovdan keladigan daromad ham ko'paydi, u bilan bog'liq holda mehnat qurollari ham takomillashib bordi.

Dehqonchilik – yovvoyi boshqoli donlarni terib iste'mol qilish jarayonida ularning kulbalar tevaragida bexosdan to'kilishi, sochilishidan o'sib hosil berishidan boshlangan. Dehqonchilikda, yerga dastlab yog'och so'qa, uchi o'tkir tayoq yordamida ishlov berilib, yog'och yoki suyak soppa, dastaga o'tkir toshlar joylashtirilib tayyorlangan o'roqdan pishgan donni yig'ishda foydalanilgan. Yapaloq toshlardan yasalgan yorg'uchoqlarda donni maydalab un tayyorlashgan.

Ilk dehqonchilik **mil. avv. 9–8-mingyilliklarda Mesopotamiyada** vujudga kelganligi olimlar tomonidan tasdiqlangan. Chorvachilik dehqonchilik bilan bir paytda shakllanib uning paydo bo'lishiga kamondan foydalanish natijasida yakka ovchilikning rivojlanishi, mahsuldorlikning keskin o'sishi asos bo'lgan. Natijada yaralanib qo'lga olingan hayvonlar, yoki hayvon bolalarining xonakilashtirilishi orqali chorvachilik paydo bo'ladi. Inson dastlab qo'lga o'rgatgan hayvonlar it va mushuk bo'lgan. Ayrim olimlar it va mushuk bilan deyarli bir vaqtda shimol bug'usi ham qo'lga o'rgatilganligini ta'kidlaydilar. Itlarning qadimgi suyak qoldiqlari Old Osiyoda topilgan bo'lib, mil. avv. 10-mingyillikka oid.

O'zbekistonda o'rganilgan mezolit davri yodgorliklarini yoshi bir xil emas. Olimlar yodgorliklarda topilgan tosh qurollariga qarab, ularni uch guruhga bo'lishgan: 1) **Qo'shilish yodgorligi** (Toshkent)– mil. avv. 10–9-mingyillik; 2) **Obishir yodgorligi** (Farg'ona vodiysi) – mil. avv. 9–8-mingyilliklar; 3) **Machay madaniyati** (Surxondaryo) – mil. avv. 12–6-mingyillik.

Dehqonchilik va chorvachilikka asos solinishi **mezolit** davrida bo'lsa-da, uni ishlab chiqarish sohasiga aylanishi **neolit**da – **yangi tosh** davrida (mil. avv. 6–4-mingyilliklar) ro'y bergan. Olimlar bu davrni **neolit inqilobi** deb bejizga aytishmagan. Endilikda dehqon va chorvador iste'mol qilinishi zarur bo'lgan mahsulotlarni o'zi yetishtirishi imkoniyati vujudga keladi. Natijada odam hayoti faqat tabiat in'omlariga emas uning o'z mehnatiga bog'liq bo'la boshlaydi.

Kishilik tarixining neolit davri qurollarini ishlash texnikasida **silliqlash, pardoqlash, arralash**

va **parmalash** usullarining ixtiro etilishi tufayli kelib chiqdi. Toshni ishlash texnikasida bunday yangi usullarning kashf etilishi ibtidoiy ishlab chiqarish kuchlarining oldingi davrlarga nisbatan tezroq rivojlanishiga olib keldi. Bu davrning muhim xususiyatlaridan biri hisoblangan **toshni pardozlash usuli** tosh qurollarning barcha turlarini ishlab chiqarishga qo'llanavermagan.

Mezolit va neolitda odamlar toshdan mayda mehnat qurollari – **mikrolitlar** yasashni o'zlashtiradilar. Toshni **silliqlash, qirtishlash, burg'ulash** o'zlashtirilib, tosh boltaga sop solinishi bilan daraxt tanasini o'yib qayiqalar yasash ixtiro qilinadi. Tosh qurollar orasida **tosh boltalar, tosh teshalar, uskunalar** paydo bo'ldi. Yevropa olimlari neolit davrini **boltalar asri** deb atashni taklif etganlar.

Yangi tosh asrida **kulolchilik, to'qimachilik** kashf etiladi. Odamlarda zig'irpoya va jundan to'qilgan gazlamalardan tikilgan kiyimlar paydo bo'ladi. Bu davrda bo'lajak hunarmandchilik xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan **sopol buyumlar** ishlab chiqarish paydo bo'ldi. Sopol xumlarda g'alla saqlangan, qozonlarida esa qaynatma ovqat pishirilgan. Bundan avval idishlar yog'ochdan tayyorlangan. **Sopol kulolchilik davri** paydo bo'lishi neolit davrining ulkan kashfiyoti bo'lib, ayrim arxeologlar hatto bu davrni **sopol kulolchilik** (keramika) asri deb atashni taklif qilganlar. Neolit davrida odamlarning o'rtacha umr davomiyligi ortib, 35–40 yoshni tashkil etdi. O'troq dehqonlar va chorvadorlar qabilalari aholisi dastlab ko'p sonli bo'lmasdan, ular bir-birlariga yaqin tillarda so'zlashganlar. Keyinchalik aholi ko'payib yangi joylarga ko'chib o'tib, turli tillarda gaplashadigan etnoslarga asos solishadi.

O'rta Osiyoda aholining asosiy mashg'uloti ov, baliqchilik va termachilikdan iborat bo'lgan. O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa rivojlanishining ikki ko'rinishi mavjud edi: O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida, hozirgi **Turkmanistonning Kopetdog' tog'oldi** vohalarida neolit davri odamlari mil. avv. 6–5-mingyilliklarda ilk dehqonchilik bilan band bo'lgan bo'lsa; **O'rta Osiyoning o'rta, shimoliy va sharqiy** viloyatlarida bu vaqtda odamlar **ovchilik, baliqchilik va termachilik** bilan shug'ullanar edi. Neolit davri jamoasining bunday mintaqalararo rivojlanishi har bir viloyatning mavjud tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqar edi. Dehqonlarning dastlabki manzilgohlari daryo jilg'alari bo'ylab joylashgan edi. **Chaqmoqli va Joytun** manzilgohlari O'rta Osiyodagi dastlabki dehqonchilik manzilgohlaridir. **Chaqmoqli madaniy** yodgorligi Ashxaboddan 40 km shimoliy g'arbda joylashgan. 1952-yilda arxeologlar qidiruv ishlarini olib borib, bu tepalikni neolit davri dehqon jamoalarining qarorgohi ekanligini aniqladilar. 1956–1957-yillarda arxeolog **V.M. Masson** shu hududda qazishmalar olib borib muhim natijalarga erishdi. Qazilma paytida guvaladan yasalgan bir xonali devor kulbalar ochildi. Mil. avv. 6–5-mingyilliklarga oid **Joytun yodgorligi** topildi. Shunday qilib, O'rta Osiyoliklarning ilk dehqonchilik qarorgohi fan olamiga **"Joytun madaniyati"** nomi bilan kirdi. **Joytun madaniyati** yodgorliklari asosan Turkmanistonning janubiy-g'arbiy mintaqalarida uchraydi. Ular bilan yoshi teng va unga o'xshash yodgorliklar O'rta Osiyoning boshqa joylarida uchramaydi.

O'rta Osiyoning o'rta, shimoliy va sharqiy mintaqalarida ovchilik, baliq ovi va termachilik bilan shug'ullanuvchi neolit davri jamoalari ham xuddi shu davrda istiqomat qiladilar. Bu yodgorliklarni qadimiy Xorazm yerlarida topib o'rgangan **S.P.Tolstov** ularni fanga **"Kaltaminor madaniyati"** nomi bilan kiritgan. Bu madaniyat mil. avv. 5–4-mingyilliklarga tegishli. Bu yodgorlikning yaxshi saqlangan manzilgohlaridan biri **Jonbos-4** dir. Shunga o'xshash madaniy yodgorliklar Zarafshon vohasida, Amudaryo quyi oqimida, Qizilqum sahrosida uchraydi. Zarafshon vohasidagi **Darvozaqir va Sazag'on makoni** ham **Kaltaminor madaniyatiga** tegishlidir. Neolit davrida Zarafshon daryosi Amudaryoga quyilgan. Uning eng katta o'zani **Mohandaryo** deb atalgan. Zarafshon vohasining Qoratov yonbag'irlarida joylashgan **Uchtut yodgorligi** tog' sanoati hunarmandchiligining namunasi ham buyuk xo'jalik kashfiyoti hisoblangan.

**Aholining ijtimoiy toifalarga bo'linishi**

O'troq dehqonchilik aholisi orasida **yangi tosh asrida** o'zlashtirilgan hunarlardan biri **kulolchilik** bo'lgan. Dastlab turli sopol buyumlarni qo'l yordamida loy tasmalaridan bir-biriga yopishtirib yasalganidan u mo'rt va qo'pol bo'lgan. Keyinchalik **kulolchilik charxining** kashf etilishi sopol buyumlarni olovda pishirish, idishlar turini ko'paytirish va sifatini oshirish imkonini beradi. Hunarmandchilik turlari ko'payib borgan, mil. avv. 4-mingyillikda Old Osiyoda ilk ma'dan – **misga** ishlov berish boshlangan. Mis qattiq bo'lmaganligi sababli undan kamdan kam mehnat qurollari yasalgan, ko'proq bezaklar tayyorlangan. Shuning uchun misdan foydalanish katta o'zgarishlarga olib kelgani yo'q va toshga bo'lgan talabni kamaytirmaydi. Shu sababli misni qo'llash bu davrni **eneolit**, ya'ni **mis-tosh asri** deb ataladi.

**Eneolit davrida** O'rta Osiyoning janubida **sug'orma dehqonchilik**, markazida esa dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'ldi. O'zbekistonda dehqonchilik tabiiy-geografik sharoiti qulay bo'lgan tog' etaklarida yuzaga keldi. O'zbekistonning ilk dehqonchilik xo'jaligi vujudga kelishi mumkin bo'lgan yerlari Nurota tog'ining Qizilqumga qaragan shimoliy yonbag'irlarida va Farg'ona vodiysining shimoliy sharqidagi tog' etaklarida joylashgan. Ibtidoiy dehqonchilik vujudga kelgan boshqa joy bu tekis oqib o'tuvchi daryolar va uning qurib qolayotgan shoxobchalarining havzasidagi yerlardir. Agar O'rta Osiyoning janubiy tog'oldi mintaqalarida dehqonchilik oziq-ovqat topish (yovoyi o'simliklarni yig'ish) negizida vujudga kelgan bo'lsa, tekislikda oqib o'tuvchi daryolarning vohalarida dehqonchilik O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarining dehqonlar bilan shimoliy viloyatlarning ovchi-baliqchilari o'rtasidagi yaqin aloqalar o'rnatilishi natijasida yuzaga keldi. Chorvachilik va dehqonchilikni birinchi bor ayollar kashf etganlar.

**Eneolit davri** manzilgohlari Janubiy Turkmanistonda (**Anov, Namozgoh va Oltintepa**), Zarafshonning yuqori oqimida va Orol bo'yining sharqida (**Saksovol**) topib o'rganilgan. **Saksovol makonida** topilgan uy hayvonlarining suyaklari O'zbekistonda chorvachilikning paydo bo'lishi ilk dehqonchilik bilan birga paydo bo'lganligini isbotlaydi.

Hunarmandchilikning taraqqiyoti ishlab chiqarishda mehnat taqsimotiga yo'l ochib berdi. Kulol va to'quvchilar o'zlari yasagan buyumlariga ziroatchi qo'shnilaridan: don, sabzavot; chorvadorlardan teri va sut ola boshladilar. Shu tariqa ilk mol ayirboshlash vujudga keladi. Mil. avv. 3-mingyillikda Mesopotamiyada yog'och omochdan foydalanishga o'tiladi. Ho'kizlar qo'shilgan omochlar yordamida yer haydash, ekinzorlarni kengaytirish imkonini beradi. Hosildorlik oshib aholi soni ko'payib, qishloqlar kengaya boradi.

Qishloqlarda asta-sekin yangi tartiblar o'rnatila boshlanadi. Jamoalar yirik **patriarxal (ota boshqaruvi)** oilalariga bo'linadi. Yer esa jamoa mulkidan ayrim oilalar mulkiga aylanib, to'plangan hosil ham uni yetishtirgan oilalar omborida jamg'ariladi. Ayrim oilalar boyib, boshqalari turli sabablarga ko'ra kambag'allashib boradi. Shu tarzda **mulkiy ijtimoiy tabaqalanish** va **tengsizlik** paydo bo'ladi.

Yirik aholi manzilgohlarida qon-qardoshlik jamoasidan turli urug' vakillari yashaydigan qo'shnihilik jamoasiga o'ta boshlangan. Mol-dunyoning, oilalar mulkining paydo bo'lishi esa qo'shnilarning qo'qqisidan hujumlarini himoyalash uchun qishloqlarni devorlar bilan o'rab olish zaruriyatini tug'diradi. Harbiy harakatlarni olib borish uchun qabilaga **harbiy yo'lboshchi** saylangan. Harbiy yo'lboshchilar, ularning do'stlari va hamkorlari shuhrat topib, ularni mashhur jangchilar, zodagon kishilar sifatida ulug'lashgan. Ular va ularning farzandlaridan qabila sarkardalari saylay boshlangan. Urushda asir olinganlar qabila boshliqlari zodagon kishilar qullariga aylana boradi. Keyinchalik qabila boshliqlari yangi vujudga kelgan davlatlar hukmdorlari, podsholarga aylanadi.

Mil. avv. 3-mingyillikda Old Osiyoda yangi ixtiro – misga ruh, qo'rg'oshin yoki qalayni qo'shilishidan olinadigan **jez (bronza)** kashf qilinadi. Jezning ixtiro qilinishi, toshdan yasalgan

mehnat quollarini xo‘jalikdan surib chiqara boshlaydi. Bronza davri O‘rta Osiyoda **3-mingyillik o‘rtalarida** boshlandi va **mil. avv. 3-mingyillikka** kelib o‘z rivojining yuksak darajasiga yetdi. Bu davrda sug‘orma dehqonchilik xo‘jaligi keng yoyiladi, kulolchilik charxi, qo‘l tegirmoni, g‘ildirak, arava va yuk tashish vositalari kashf etiladi, xom g‘isht va paxsa uylar paydo bo‘ladi, katta inshootlarni qurish ishlari amalga oshiriladi, qoramol, yovvoyi ot, tuyalar qo‘lga o‘rgatiladi va xonakilashtiriladi, chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqadi. Shu davrda jamoada ota huquqi qaror topadi va mustahkamlanadi, qarindoshlik otaga qarab olib borish boshlanadi. Dehqonchilik qilish, chorvachilik va hunarmandchilikning vujudga kelishi bilan urug‘ni yetarli mahsulot bilan ta‘minlash erkaklar qo‘liga o‘tadi. Mehnat quollarini bronzadan yasalishi mehnat unumdorligi oshishiga olib keldi, bu esa o‘z navbatida ortiqcha mahsulotlarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Natijada chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi, ya‘ni birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti sodir bo‘ldi.

**Bronza davriga** oid madaniy yodgorliklar **Zarafshon, Surxondaryo, Xorazm, Farg‘ona** va **Toshkent vohalarida** topib o‘rganilgan. O‘zbekistondagi ilk dehqonchilik manzilgohi Zarafshon vohasida mil. avv. 3–2-mingyillikka oid **Zamonbobo** madaniyatidir. Xuddi shu davrga oid manzilgoh – Zarafshon daryosining yuqori qismidagi **Sarazm** madaniyati topib o‘rganilgan. Bu madaniy yodgorlik Tojikiston hududida joylashgan.

Mil. avv. 2-mingyillikka oid madaniy yodgorliklar Surxondaryo vohasidan topib o‘rganilgan. Ular **Sopollitepa** va **Jarqo‘ton madaniyatlaridir**. Bu madaniyatlarining ahamiyatli tomoni shundaki, **Sopollitepa** ipakchilik va paxtachilik tarixi O‘zbekistonda 3,5 mingyillikni tashkil etishini, **Jarqo‘ton** esa O‘rta Osiyodagi eng qadimgi shahar xarobasi ekanligi fan olamida isbotlangan.

Xorazm vohasidagi mil. avv. 2-mingyillikning o‘rtalariga tegishli madaniy yodgorlik **Tozabog‘yob madaniyatidir**. Bu madaniy yodgorlik Amudaryo havzasidagi dehqonchilik va chorvachilik madaniyati sifatida fanga kiritilgan. Shu zamindagi X–VIII asrga oid **Amirobod madaniyati** ham topib tekshirilgan. Bu madaniyatga tegishli **Yakka Parson-2, Tagiskent yodgorliklari** ham o‘rganilgan.

Mil. avv. 2-mingyillikning oxiri – 1-mingyillikning boshidagi madaniy yodgorliklar Farg‘ona vodiysidagi **Chust madaniyatiga** tegishlidir. Bu madaniyatga oid manzilgohlar Samarqanddagi **Afrosiyob, Yerqo‘rg‘on**, Shahrisabzdagi **To‘rtko‘l**, Surxon vohasidagi **Kuchuktepa, Maydontepa, Buyracha** va **Qizilcha manzilgohlari** misolida o‘rganilgan.

Toshkent vohasidagi ilk dehqonchilik madaniyati **Burg‘uluq madaniyati** misolida o‘rganilgan. Bu madaniyat mil. avv. IX–IV asrga oiddir.

## ILK TEMIR DAVRIGA O‘TILISHI

O‘zbekistonda **temir davriga** o‘tish mil. avv. IX–VIII asrlarda, **ilk temir davri mil. avv. VII–IV asrlarda** sodir bo‘lgan. Odamlar mil. avv. 1-mingyillik boshlarida temirdan mehnat quollari va yarog‘lar yasashni o‘rgandilar. Temirdan biror buyum yasash ko‘p mehnat talab qilgan. Temir 1500°, mis 1000°, bronza 300° eriydi. Shunga qaramasdan temir ularga qaraganda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lib, ulardan qattiqroq edi. Dastlab temir buyumlardan xettlar mil. avv. XIV–XII asrlarda foydalanishgan. Temirdan dastlab zeb-u ziynat buyumlar sifatida foydalanishgan. Bunday bezaklar dastlab Misr fir‘avni **Tutanxamon maqbarasidan** va Kavkazdagi **Maykop qo‘rg‘oni** yodgorliklaridan topilgan. Temirning ishlab chiqarishda qo‘llanilishi ibtidoiy jamoa tarixida buyuk texnik inqilob bo‘ldi. Temirdan ishlangan mehnat quollari mehnat unumdorligini oshirishga imkon yaratdi, temir aslaha tayyorlovchi **temirchi** paydo bo‘ldi. Ayniqsa, temirning ahamiyati dehqonchilikda va hunarmandchilik xo‘jaligining rivojlanishida katta edi. Temir ibtidoiy tuzumni buzib yubordi va xo‘jalikda tabaqalanishni tezlashtirdi. Temir chorvachilikni dehqonchilikdan uzil-kesil ajratdi,





ko'plab hayvonlarning egasi bo'lgan aslzodalar paydo bo'ldi. Xususiyl mulkchilikni mustahkamladi, ijtimoiyl tabaqaviyl jamiyatni keltirib chiqardi. Temirning ishlab chiqarishda kengroq qo'llanilishi tufayli xo'jalikda ikkinchi ijtimoiyl mehnat taqsimoti yuz berdi, ya'ni hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Hunarmandchilikning qator sohalarida ixtisoslashuvning sodir bo'lishi natijasida ilk shaharning belgilaridan biri sifatida bozor paydo bo'ldi, tovar ayirboshlash yuz berishi natijasida ayrim shaxslar qo'lida boyliklar to'plana boshladi.

O'rta Osiyoda eng qadimgi temir buyumlar **Dalvarzintepa** (Farg'ona vodiysida), **Anov** (Turkmanistonda), **Qiziltepa** (Surxon vohasida), **Daratepa** (Qashqadaryo vodiysida) kabi manzillardan topilgan. Ularning eng qadimgisi mil. avv. IX–VIII asrlarga oiddir. Lekin buyumlarning ko'pchiligi mil. avv. VII–VI asrlarga taalluqlidir.

O'rta Osiyoda Yevropadan farqli ravishda dehqonchilik sun'iy sug'orish asosida taraqqiy etdi. Turkmanistonda mil. avv. 4–3-mingyilliklarga oid anhor qoldiqlari, O'zbekistonda esa mil. avv. 2-mingyillikka oid topib o'rganilgan. Bu davrda O'zbekistonning tog'oldi viloyatlarida asosan mayda sug'orish tarmoqlari keng tarqalgan. Yerosti suvlaridan foydalanish uchun **korizlar** – yer osti kanallari qurganlar.

Urug' jamoasi **hududiy qo'shni jamoasiga** aylandi. Qabilaviyl harbiyl ittifoqlar tashkil topa boshladi. Bu harbiyl ittifoqlarning asosiy maqsadi qabila chegaralarini qo'riqlash, yangi yerlarini o'zlashtirish va boshqa qabilalar ustiga yurish qilish edi. Qabilaviyl harbiyl ittifoqlarni obro'li kishilardan saylanadigan urug' yoki qabila boshliqlari boshqargan. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va mol ayirboshlashning rivojlanishi to'q oilalarning vujudga kelishiga olib keldi. Mil. avv. 1-mingyillik boshlarida O'rta Osiyo aholisi 4 guruhga bo'lingan: **zodagonlar**, **harbiylar**, **ziroatchilar** va **hunarmandlar**. Doimiy bo'lib turadigan harbiyl to'qnashuvlar natijasida qabilalar **harbiyl demokratiya** tamoyillari asosida yashay boshladilar va bunda urug'-qabila boshliqlarining ta'siri kuchaydi. **Harbiyl demokratiya** – davlatga o'tish davrining boshqaruv shaklidir. Uni harbiylar va qabila boshliqlari boshqargan. O'zbekistonda **mil. avv. IX–VIII asrlar** ilk davlat birlashmalari rivojlanishining boshlang'ich davri edi. Bu jarayon aholi joylashgan yerlarni, dehqonchilik bilan mashg'ul vohalarni dushmandan himoya qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy rivojlantirish va nazorat qilish zaruriyatidan kelib chiqqan. Vujudga kelayotgan davlat tuzilishiga **aholining hududiy belgilar bo'yicha bo'linishi** asos bo'lgan.





qadim    fan  
**ARXELOGIYA**

xalq    tasvir  
**ETNOGRAFIYA**

odam    fan  
**ANTROPOLOGIYA**

vaqt    fan  
**XRONOLOGIYA**

tilshunoslik  
**LINGVISTIKA**

shajara    fan  
**GENEALOGIYA**


fan  
**NUMIZMATIKA**


Biniu  
**EPIGRAFIKA**

**TARIX FANI  
O'RGANADI**

- ▶ Ajdodlarimiz hayotini
- ▶ Ajdodlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlarini
- ▶ O'tgan mingyilliklarda odamlar qanday yashaganligini
- ▶ Ular hayotida qanday voqealar sodir bo'lganligini

**Gerodot** – tarix fanining asoschisi (tarix otasi)  
**“Tarix”** so‘zi – arabcha – “voqealar haqida hikoya qilish”,  
 yunoncha – “tekshirish” ma’nosini beradi.





**O'RTA OSIYODAGI ENG QADIMGI YOZUVLAR**

**Oromiy yozuvi**

Messopotamiyadagi xalqning 22 harfdan iborat bo'lgan alifbosi  
O'rta Sharqni idora qilish, ish yuritish yozuvi

**Xorazm**

**Katta Oybuyirqal'a**  
mil. avv. V–IV a.  
**Qo'yqirilganqal'a**  
mil. avv. IV–III a.

**Sak**


Issiq yozuvi (Olmaota)  
«Noma'lum xat»  
mil. avv. V a.

**Sug'd**

mil. avv. III–II a.  
Markaziy Osiyo, Sharqiy  
Turkiston, Pokiston,  
Mo'g'iliston

**Baqtriya**

I a.



**ENG QADIMGI ODAMLAR  
3–3,5 MLN YIL ILGARI PAYDO BO‘LGAN**

**Farazlar:**

1. **Kosmogonik** – boshqa sayyoradan kelgan
2. **Ilohiy** – xudo tomonidan yaratilgan
3. **Ilmiy** – odamzod yerda paydo bo‘lgan

**Dastlab Afrika, Janubiy, Janubiy-sharqiy Osiyoda paydo bo‘lgan**

**Afrika  
Zinjantrop**

**3–2 mln y. ilgari**

- ◆ Sharqiy Afrikaning Olduvay darasi
- ◆ Keniyaning Koobifor ko‘li
- ◆ Habashistonning Turkona ko‘li
- ◆ Tanzaniyaning Zinj qishlog‘i

**Osiyo**

**Pitekantrop va sinantrop  
1,5 mil – 400 ming y.**

- ◆ 1890–1891-y. E. Dyubua Yava orolining Trinil manzilidan
- ◆ 800 ming yil ilgari yashagan
- ◆ 1950–1960-y. – Yava orolining Mojokerto manzilidan
- ◆ 1,5–1,2 mln yil ilgari yashagan
- ◆ Xitoyning Chjoukodyan g‘oridan
- ◆ 1963–1964-y. Xuanxe sohilidan
- ◆ 600–500 yil ilgari
- ◆ O‘zbekiston: Selung‘ur, Ko‘lbuloq, Bo‘riqazigan, Tandirqazigan, Guldara
- ◆ 1 mln. y. – 400 ming y. ilgari

**Yevropa  
Geydelberg**

**2 mln y. – 100 ming y.**

- ◆ 1907-y. Germaniyaning Geydelmberg sh. va Mauer qishlog‘i
- ◆ 1958-y. Fransiyaning Vallon g‘oridan
- ◆ Vengriyaning Verteshselleh g‘oridan
- ◆ Chexoslovakiyaning Prjeziyatitsa g‘oridan

## ENG QADIMGI ODAM EVOLYUTSIYASI

**Antropogenez – odamning kelib chiqishi va rivojlanish jarayoni.**

**Arxeologiya va antropologiya – odamning kelib chiqishi va rivojlanishini o‘rganadi.**


№	Nomi	Topilgan yili va joyi	Yashagan davri	Bosh miya hajmi va bo‘yi	Ahamiyati
1.	Driapitek «Daraxtda yuruvchi maymun»	1858-y. Avstriyaning Yuqori Goronna	5–12 mln. yil ilgari	600–680 sm <sup>3</sup>	Hayvonot olamidani ajralib chiqqan
2.	Avstralopitek «Janub maymuni»	1924-y. Jan. Afrika	3–4 mln. yil ilgari	700 sm <sup>3</sup> 120–140 sm	Odamzodning hayvonot olamidani odamlar dunyosiga o‘tishdagi qo‘yilgan dastlabki qadam
3.	Zinjanthrop «Ishbilarmon odam»	1959-y. Sharqiy Afrikaning Olduvev darasi	3–2 mln. yil ilgari	850 sm <sup>3</sup> 135–150 sm	Toshni toshga urib mehnat quroli yasashi
4.	Pitekanthrop «Maymunsimon odam»	1890-yili E.Dyubua Yava orolidani topgan	700–600 ming yil ilgari	900 sm <sup>3</sup> 170 sm	Maymunsimon odamlardan uzoqlashgan
5.	Sinantrop «Xitoy odami»	1927–1937-y. Pekin atroflaridan	600–500 ming yil ilgari	1100–1200 sm <sup>3</sup> 150–160 sm	Olovning kashf etilishi, odamning biologik, jismoniy tuzilishida hozirgi odam tomon o‘zgarishi
6.	Geydelberg	1907-y. Geydelberg sh. yaqinidagi Mauer qishlog‘i	400 ming yil ilgari	–	–
7.	Neandertal	1856-yili Germaniyaning Neandertal g‘oridan topilgan	100–40 ming yil ilgari	1400 sm <sup>3</sup> 156–165 sm	Aql-idrokliligi
8.	Kromanyon	1868-yili Fransiyaning Kromonyon g‘oridan topilgan	40–12 ming yil ilgari	1590 sm <sup>3</sup> 180 sm	Odamlar biologik, jismoniy tuzilishi hozirgi zamon odamidani farq qilmaydigan holatga kirishi


\* Hozirgi zamon odamining bosh miya hajmi 1400–2000 sm<sup>3</sup>



**ODAMNING EVOLYUTSION BOSQICHLARI**


<b>Kosmik evolyutsiya, yerda hayotning paydo bo'lishi</b>	<b>Bir necha yuz mln. yil davom etgan va asosan mil.av. XVII–XII a. tugagan</b>
<b>Odamning biologik evolyutsiyasi</b>	<b>Taxminan 3 mln. yil avv.</b>
<b>Odamning madaniy evolyutsiyasi</b>	<b>Taxminan 45 ming yil avv.</b>
<b>Madaniy evolyutsiyasi jarayonida odamning sivilizatsion rivojlanishi</b>	<b>Taxminan mil. avv. 8 ming yil avv.</b>





## ENG QADIMGI DAVR

### ARXEOLIGIK DAVRLASHTIRISH




**DAVRLASHTIRISH** – insoniyat tarixining bir-biridan tubdan farq qiluvchi davrlarga bo‘linishi

Qadimgi tosh asri madaniyatlari o‘sha davr mehnat qurollari dastlab topilgan joy nomlari bilan atalgan

## IBTIDOIY JAMOA TUZUMI

MIL. AVV. 3,5 MLN. – 1 MING Y.



**RIVOJLANISHI ASOSIDA  
AQL + MEHNAT**

## O'ZBEKISTON ILK PALEOLIT DAVRIDA

ILK PALEOLIT – ASHEL  
MIL. AVV. 700–500–100-MINGYILLIKLAR

- ▶ ODAM P.B. «BILAG'ON», HOMO HABILIS
- ▶ O'RTACHA UMRI – 20–30 YOSH
- ▶ BO'YI 135–150 SM, MIYA HAJMI 850 SM<sup>3</sup>
- ▶ SINANTROPGA YAQIN QARINDOSHLIK URUG'IDAN BO'LGAN
- ▶ IQLIMI YOZDA ILIQ, QISHDA SOVUQ VA NAMCHIL, DAVR OXIRIDA SOVIGAN
- ▶ KICHIK DARYO BO'YLARI VA BULOQLARI YONIDA O'ZLARIGA MAKON QURIB YASHAGANLAR
- ▶ TURAR JOY VA KIYIMGA EHTIYOJ BO'LMAGAN, MASHG'ULOTI: TERIB–TERMACHILIK VA OVCHILIK

### O'ZLASHTIRUVCHI XO'JALIK

- ▶ TOSH QUROL
  - ▶ TAYOQ
  - ▶ SO'YIL
  - ▶ CHOPPER
  - ▶ KO'LBULOQ MAKONI (1963-y. M.R.QOSIMOV)
  - ▶ SELUNG'UR G'ORI (1985-y. U. ISLOMOV)
  - ▶ FERGANTROP
- } MEHNAT QUROLLARI

**MADANIY QATLAM** – arxeologik yodgorliklarida odam faoliyati izlari bo'lgan barcha qadimgi manzilgohlardagi yerosti qatlamlari

**ARXEOLOGIK MADANIYAT** – ma'lum bir tarixiy davrga oid, ammo turli hududlarda joylashgan arxeologik yodgorliklarning umumiy belgilarini ifodalovchi tushuncha

## O'ZBEKISTON O'RTA PALEOLIT DAVRIDA

O'RTA PALEOLIT – MUSTYE  
MIL.AVV.100–40-MINGYILLIKLAR

- ▶ NEANDERTAL–«AQL–IDROKLI»–HOMO SAPIENS
- ▶ SOVUQ IQLIM (MUZ DAVRI)
- ▶ TABIIY OLOVDAN FOYDALANILISHI
- ▶ POMIR VA TYAN-SHANDA KO'P QOR VA MUZLIK ZAXIRALARINING TO'PLANISHI
- ▶ ULARNING ERISHI OQIBATIDA AMUDARYO, SIRDARYO VA ZARAFSHON DARYOLARINING HOSIL BO'LISHI
- ▶ KASPIY VA OROL DENGIZLARIDA SUVNING KO'PAYISHI
- ▶ YOVVOYI HAYVONLAR, YILQI, KARKIDON, HO'KIZ PODALARI, ARXAR VA KIYIKLARNING PAYDO BO'LISHI
- ▶ MAMONT VA KARKIDON SUYAKLARINING FARG'ONA VODIYSI VA TOSHKENT VOHASIDAN TOPILISHI
- ▶ G'OR VA UNG'URLARNING MAKON (BOSHPANA) QILINISHI
- ▶ DASTLABKI SUYAK QUROLLARNING PAYDO BO'LISHI
- ▶ MEHNAT QUROLLARI: SIG'CHA TOSH, QIRG'ICH, PICHQQ
- ▶ KESKICH ASBOBLAR: KESISH, TARASHLASH, MAYDALASH
- ▶ KO'MISH MAROSIMINING PAYDO BO'LISHI
- ▶ TESHIKTOSH MAKONI (SURXONDARYO)
- ▶ OBIRAHMAT G'ORI (TOSHKENT)
- ▶ XO'JAKENT (TOSHKENT)
- ▶ BO'ZSUV MAKONI (TOSHKENT)
- ▶ OMONQO'TON G'ORI (SAMARQAND)
- ▶ QAL'ACHA VA SO'X MAKONLARI (FARG'ONA)
- ▶ TOSH KONLARI: UCHTUT VA IJOND (BUXORO)

## O'ZBEKISTON SO'NGGI PALEOLIT DAVRIDA

**SO'NGGI PALEOLIT – ORINYAK, SOLYUTRE, MADLEN  
MIL.AWV.40–12-MINGYILLIKLAR**

- ▶ KROMANYON–HOMO SAPIENS–ONGLI
- ▶ O'RTACHA UMR DAVOMIYLIGI 30–32 YOSH,
- ▶ BO'YI 180 SM, MIYA HAJMI 1590 SM<sup>3</sup>
- ▶ IQLIM O'ZGARISHI (SOVISIHI)
- ▶ OLOVNING SUN'IY HOSIL QILINISHI
- ▶ IRQLAR PAYDO BO'LDI: YEYROPA, NEGR, MO'G'UL
- ▶ MATRIARXAT DAVRINING BOSHLANISHI
- ▶ AYOL – UY, O'CHOQ VA MUQADDAS OLOVNING EGASI
- ▶ AYOL VAZIFASI: UY XO'JALIGI, BOLALAR TARBIYASI, O'CHOQDA O'TNI SAQLASH, OVQAT PISHIRISH, RO'ZG'OR BUYUMLAR VA MEHNAT QUROLLARINI QO'RIQLASH, UY–BOSHPANANI ASRASH
- ▶ MURAKKAB QUROLLARNI YASASHI: PICHQOQ, QIRG'ICH, TO'G'NOG'ICH, O'Q-YOY UCHI, GARPUN
- ▶ MASHG'ULOTI: OVCHILIK, TERMACHILIK, BALIQ OVLASH
- ▶ MEHNAT TAQSIMOTINING PAYDO BO'LISHI NATIJASIDA ERKAKLAR FAQAT OV BILAN, AYOLLAR ESA FAQAT UY YUMUSHLARI BILAN MASHG'UL BO'LA BOSHLADILAR
- ▶ YIRIK HAYVONLARNI OV QILISH MUHIM AHAMIYAT KASB ETISHI
- ▶ MUKAMMAL KESUVCHI, ARRALOVCHI VA BURG'ILOVCHI MEHNAT QUROLLARNI PAYDO BO'LISHI
- ▶ TAQINCHOQLAR YASAY OLIHLARI: MUNCHOQ, TUMOR, BILAGUZUKLAR
- ▶ JUFT OILALARNING PAYDO BO'LISHI
- ▶ TURAR JOY QURISH: YARIM YERTO'LA VA CHAYLA
- ▶ DUNYO QOYATOSH TASVIRLARINING PAYDO BO'LISHI: ALTAMIR (ISPANIYA); KAPOVA (BOSHQIRDISTON); LASKO (FRANSIYA)
- ▶ MUSIQA ASBOBLARI PAYDO BO'LDI
- ▶ DINIY E'TIQOD: TOTEMIZM, ANIMIZM, MAGIYA, FETISHIZM
- ▶ MADANIY YODGORLIKLAR: O'RTA OSIYODA 30 GA YAQIN SIYOBCHA MAKONI (1939-y., SAMARQAND), KO'LBULOQ VA OQTOSH MAKONI (TOSHKENT)



## O'ZBEKISTON MEZOLIT DAVRIDA

**MEZOLIT  
MIL.AW.12-7-MING Y.**

- ▶ IQLIMNING SERNAM BO'LISHI
- ▶ O'Q-YOYNING KASHF ETILISHI
- ▶ OV – HAYOT MANBAYIGA AYLANISHI
- ▶ YAKKA OVCHI AHAMIYATINING ORTISHI
- ▶ MAYDA HAYVONLARNI OV QILISH
- ▶ HAYVON BOLALARINI QO'LGA O'RGATISH
- ▶ IT – DASTLABKI UY HAYVONI
- ▶ MIL. AVV. 10-MING Y. OID ITLARNING QADIMGI SUYAKLARI OLD OSIYODA TOPILGAN
- ▶ DAVR OXIRIDA OLD OSIYODA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIKNING PAYDO BO'LISHI
- ▶ MURAKKAB MEHNAT QUROLLARINING VUJUDGA KELISHI
- ▶ MIKROLIT QUROLLAR
- ▶ SAVATLAR TO'QISH
- ▶ QO'SHILISH (TOSHKENT, 1967-Y., MIL. AVV. 10-9-MING Y.)
- ▶ OBISHIR G'ORI (FARG'ONA, 1970-1980. U. ISLOMOV, MIL. AVV. 9-8-MING Y.),
- ▶ MACHAY G'ORI (SURXONDARYO, 1930-Y, G.V. PARFIYONOV, 1970-71-Y. U. ISLOMOV, MIL. AVV. 7-6-MING Y.)
- ▶ ZARAUTSOY (SURXONDARYO, 1912-Y. I.FYODOROV)
- ▶ SOYMOLITOSH (FARG'ONA)
- ▶ PETROGLIF – TOSHGA O'YIB TUSHIRILGAN RASMLAR
- ▶ IBTIDOIY TASVIRIY SAN'AT RIVOJIGA INSONNING ATROF-MUHITNI BILISH YOKI DUNYONI ANGLASHGA INTILISHI ASOS BO'LDI

## O'ZBEKISTON NEOLIT DAVRIDA

**NEOLIT**  
**MIL. AVV. 6-4-MING Y.**

- ▶ SOPOL BUYUM (KERAMIKA) PAYDO BO'LISHI
- ▶ BOLTALAR ASRI
- MEHNAT QUROLLARI YARATISHNING YANGI USULI {
  - ▶ SILLIQLASH
  - ▶ PARDOZLASH
  - ▶ QIRTISHLASH
  - ▶ BURG'ILASH
  - ▶ CHAQMOQTOSHDAN PARRAKCHALAR CHIQRISH
- ▶ O'TROQ HAYOTGA O'TILISHI
- ▶ ISHLAB CHIQRISHGA O'TILISHI
- ▶ KICHIK OILALARNING AJRALIB CHIQISHI
- ▶ MATRIARXATNING GULLAB-YASHNASHI
- ▶ GUVALADAN UYLAR QURILISHI
- ▶ KULOLCHILIK, TIKUVCHILIK, TO'QUVCHILIK PAYDO BO'LISHI, TO'R TO'QILISHI, QAYIQSOZLIKKA ASOS SOLINISHI
- ▶ MASHG'ULOTI: OV, BALIQ., TERMA.,
- ▶ JAN. VIL.-ZIROATCHILIKKA O'TISHI
- ▶ MARK., SHIM., SHARQ. VIL.- OV VA BALIQCHILIK
- ▶ MADANIY YODGORLIGI:  
MIL. AVV. 6-5 MING Y. OID: CHAQMOQLI VA JOYTUN-MARK. OSIYODAGI DASTLABKI QISHLOQ
- ▶ MIL. AVV. 5-4 MINGYILLIKKA OID  
KALTAMINOR MADANIYATI  
ZARAFSHON, AMUDARYO QUYI OQIMI,  
QIZILQUM SAHROSIDA UCHRAYDI  
JONBOS-4, DARVAZAYI QIR, SAZOG'ON
- ▶ ZARAFSHON DARYOSI AMUDARYOGA QUYILGAN  
MOHONDARYO - ZARAFSHONNING KATTA O'ZANI

## O'ZBEKISTON ENEOLIT DAVRIDA

**E N E O L I T**  
**MIL. AVV. 4-3-MING Y.**

- ▶ MISNING KASHF ETILISHI
- ▶ 1000°C DA ERIGAN
- ▶ MISDAN ASOSAN ZEB-ZIYNAT BUYUMLARI ISHLANGAN
- ▶ MANZILGOHLARI JAN.TURKMANISTON VA ZARAFSHON YUQORI OQIMIDA TOPILGAN
- ▶ XOM G'ISHTDAN KO'P XONALI UYLAR QURILDI
- ▶ SOPOL IDISHLAR, HAYVON, QUSH, O'SIMLIK SHAKLIDAGI NAQSHLAR BILAN BEZATILDI
- ▶ QADIMGI SHARQDA DAVLATLAR, MARK. OSIYODA SUG'ORMA DEHQON. P.B.
- ▶ ANOV, NAMOZGOH, OLTINTEPA

## O'ZBEKISTON BRONZA DAVRIDA

**B R O N Z A**  
**MIL. AVV.3-2-MINGYILLIKLAR**

- ▶ MIS+QALAY+QO'RG'OSHIN=BRONZA
- ▶ 300°C DA ERIGAN
- ▶ MEHNAT QUROLLARI VA YAROG'LAR YASASHDA ASOSIY XOMASHYO
- ▶ ORTIQCHA MAHSULOTNING PAYDO BO'LISHI

**CHORVACHILIKNING DEHQONCHILIKDAN AJRALIB  
CHIQISHI**

### 1-YIRIK MEHNAT TAQSIMOTI

#### PATRIARXAT DAVRINING BOSHL.:

- ▶ SUG'ORMA DEHQONCHILIKNING KENG YOYILISHI
- ▶ KULOLCHILIK CHARXI VA G'ILDIRAK P.B.
- ▶ KATTA INSHOOTLARNI QURISH
- ▶ QORAMOL, OT, TUYANI XONAKILASHTIRISH
- ▶ KENOTAF-MAYITSIZ QABR
- ▶ ZAMONBOBO (BUXORO), SARAZM (TOJIK.)
- ▶ SOPOLLITEPA, JARQO'TON (SURXON.)
- ▶ TOZOBOG'YOB, KO'KCHA MAKONI, QAVAT-3, AMIROBOD MADANIYATI, YAKKA PARSON-2, TAGISKEN (XORAZM)
- ▶ CHUST MADANIYATI, DALVARZINTEPA, ASHKOLTEPA, CHIMBOY (FARG'ONA)
- ▶ KUCHUKTEPA, BANDIXON, QIZILTEPA, BUYRACHA (SURXONDARYO)
- ▶ SANGIRTEPA, YANGITEPA, YERQO'RG'ON (QASHQADARYO)
- ▶ BURG'ULUQ MADANIYATI (TOSHKENT)

## O'ZBEKISTON ILK TEMIR DAVRIDA

- ▶ MIL. AVV. IX–VIII A. – O'TISH DAVRI
- ▶ MIL. AVV. VII–IV A. – ILK DAVRI
- ▶ 1500°C DA ERIYDI
- ▶ MIL. AVV. XIV–XII A. – XETTLAR KASHF QILGAN
- ▶ DASTLAB ZEB-ZIYNAT BUYUM SIFATIDA FOYDALANILGAN

### HUNARMANDCHILIKNING DEHQONCHILIKDAN AJRALIB CHIQISHI

#### 2-IJTIMOY MEHNAT TAQSIMOTI

- ▶ KORIZ – YEROSTI KANALLAR
- ▶ HUDUDYIY QO'SHNICHILIK JAMOALARI
- ▶ QABILALAR HARBIY ITTIFOQI
- ▶ QABILA BOSHLIQLARINING AJRALIB CHIQISHI
- ▶ AHOLINING 4 GURUHI:
  1. ZODAGONLAR
  2. HARBIYLAR
  3. ZIROATCHILAR
  4. HUNARMANDLAR
- ▶ QABILA–URUG' – HUDUDYIY QO'SHNICHILIK JAMOASI
- ▶ NMANA–VIS–VARZANA–ZANTU–DAH'YA
- ▶ OILA–URUG' – HUDUDYIY QO'SHNICHILIK JAMOASI, QABILA-QABILALAR ITTIFOQI
- ▶ HARBIY DEMOKRATIYA
- ▶ BOSHQARUV TIZIMI:
  1. OQSOQOLLAR KENGASHI
  2. XALQ YIG'INI
  3. VILOYAT, TUMAN HUKMDORLARI
- ▶ MADANIY YODGORLIKLARI:
  - DALVARZIN (FARG'ONA)
  - ANOV (TURKMANISTON)
  - QIZILTEPA (SURXONDARYO)
  - DARATEPA (QASHQADARYO)

ILK TEMIR  
MIL.AVV.IX – IV A.

Davr	Yili	Iqlimi	O'ziga xos xususiyati	Boshqa xususiyatlar	Mehnat va ov qurollari	Boshqa ixtirolar	Ibt. odam va ularning jamoasi	Mashg'uloti	Madaniy yodgorliklari
<b>Ilk paleolit</b>	mil.avv. 700-100-ming y.	nam	mehnat qurollari paydo bo'lishi		tosh, tayoq, so'yil, chopper		"Bilag'on" Homo habilis, to'da	terib-termachilik, ovchilik	Ko'lbuloq, Selung'ur
<b>O'rta paleolit</b>	mil.avv. 100-40-mingyilliklar	sovuq	tabiiy olovdan foydalanish, ko'mish marosimi paydo bo'ldi	suyak qurol paydo bo'ldi	sig'cha toshlar, qirg'ich, pichoq, o'tkir paykon	keskich asboblari teridan qilingan kiyim bosh	Neandertal "aql-idroklil" odam, to'da	terib-termachilik, ovchilik	Teshiktosh, Obirahmat, Xo'jakent, Bo'zsu, Omonqo'ton, Qalacha va So'x, Uchtut va Ijond
<b>So'nggi paleolit</b>	mil.avv. 40-12-mingyilliklar	sovuq	olovning kashf etilishi, irqlar p.b.	yirik hayvon ov qilish, hayvon-turar joy qurish, diniy e'tiqod	navza, nayza uchi, garpun, murakkab qurollarni yasashi	mukammal kesuvchi, arralovchi, burg'lovchi mehnat qurollari p.b., taqinchoqlarni yasay olishlari	Kromanyon, Homo sapiens-aqli odam, matriarxat, juft oila	terib-termachilik, ovchilik, baliqchilik	Siyobcha makoni Ko'lbuloq, Oqtosh makoni
<b>Mezolit</b>	mil.avv. 12-7-mingyilliklar	sernam	o'q-yoyning kashf etilishi ov - hayot manbayi qo'ylar tosh sur'at p.b.	mayda hayvonlarni ov qilish, hayvonlarni qo'lga o'rtish, daydi hayot	mikrolit qurollari, murakkab mehnat qurollarining p.b.	savat	matriarxat	terib-termachilik, ovchilik, baliqchilik	Qo'shilish, Machay g'ori, Obishir g'ori, Zarautsoy, Soyamolitosh
<b>Neolit</b>	mil.avv. 6-4-mingyilliklar	iliq	sopol buyumlar, to'qimachilik, tikuvchilik, to'r to'qish, kemasozlik	o'troq hayotga o'tish, guvaladan uylar qurilishi	toshni pardoqlash, toshbolta, toshtesha	chaqmoqtoqshdan parrakchalar chiqarilgan	matriarxatning gullab-yashnashi, kichik oilalarning ajralib chiqishi	terib-termachilik, ovchilik, baliqchilik	Chaqmoqli, Joyitun, Kaltaminor, Jonbas-4, Darvozayi Qir, Sazagon, Uchtut
<b>Eneolit</b>	mil.avv. 4-3-mingyilliklar	hozirgi iqlimga yaqin	dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi	mis kashf etilishi, sug'orma dehqon. paydo bo'ldi, xom g'isht-dan ko'p xonali uylarni qurilishi	motiga, omoch, o'roq, belkurak	misdan yasalgan buyumlar, blaguzuk, munchoq, sirg'a	matriarxat	dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik	Saksovil, Anov, Namozgoh, Oltintepa
<b>Bronza</b>	mil.avv. 3-2-mingyilliklar	hozirgi davr iqlimga o'xshash	chorvachilikning dehqonchilikdan ajrashi	bronza kashf etilishi, sug'orma dehqon. keng yoyilishi	motiga, o'roq, belkurak, kulolchilik charxi	qo'l tegirmoni, arava, g'ildirak, yuk tashish vositalari	patriarxat	dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik	Zamonbobo, Sarazm, Sopolitepa, Jarqo'rg'on, Toza-bog'yob, Ko'kcha, Qavat-3, Amirobod, Yakka Parson-2, Tagisken, Chust
<b>Ilk temir</b>	mil.avv. VII-IV a.	hozirgi davr iqlimga o'xshash	hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajrashi	temirning kashf etilishi	omoch, o'roq, belkurak	temirdan yasalgan buyumlar	patriarxat, harbiy demokratiya	dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik	Dalvarzin, Qiziltepa, Daratepa Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Talashgantepe, Ko'zaliqir

## TARIXIY SHAXSLAR

**ARRIAN Flaviy (Arrianos) (taxm. 95–175-yillar oʻrtasi)** – yunon tarixchisi va yozuvchisi. Kichik Osiyodagi Nikomediya shahrida tugʻilgan; yunon faylasufi Epiktet qoʻlida oʻqigan. Rimda yashab, harbiy taʼlim olgan. 131–137-yillarda Kappadokiya voliysi boʻlib, alanlar hujumini qaytargan. Arrian senator, elchi va kohin ham boʻlgan. Falsafa, tarix, geografiya, harbiy va boshqa masalalarga oid asarlar yozgan (koʻpi bizgacha saqlanmagan). Uning bizgacha yetib kelgan eng qimmatli asari Aleksandr (Iskandar Maqduuniy)ga bagʻishlangan 7 kitobdan iborat “Iskandarning harbiy yurishlari” nomli kitobidir. Asarda Aleksandr Makedonskiyning Eron, Oʻrta Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon etilgan. Arrianning “*Hindiston*”, “*Nearxning harbiy yurishi*”, “*Epiktet haqida esdaliklar*” hamda Epiktet taʼlimotiga bagʻishlangan “*Qoʻllanma*” kabi asarlari ham saqlangan. Uning “*Parfiya tarixi*”, “*Alanlar tarixi*”, “*Vifiniya tarixi*” va “*Aleksandrdan keyingi ishlar*” nomli asarlaridan ham parchalar yetib kelgan. U Oʻrta Osiyo toʻgʻrisida ham qimmatli maʼlumotlar yozib qoldirgan. Arrian Flaviyning “*Iskandarning harbiy yurishlari*” asari nemis hamda rus tillarida nashr etilgan.

**BERNYE F. (1625–1688-yillar)** – fransuz olimi; 1675-yilda birinchi boʻlib irq tushunchasini qoʻllagan.

**BLEK** – kanadalik arxeolog olim. Xitoylik arxeolog olim *Chjun (Pen-Ven)* bilan birgalikda Xitoyning Chjoukodyan gʻoridan arxantropplarga mansub qazilma odamlarning qoldiqlari, makonlari va mehnat qurollarini topgan.

**DIODOR (mil. avv. 90–21-yillar)** – yirik tarixchi olim; asli Sitsiliyaga qarashli Argiriya shahridan. Diodor “*Tarixiy kutubxona*” nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiy tarix yoʻnalishida yozilgan bu asar asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan toʻmilodning I asr oʻrtalarigacha boʻlgan tarixini yoritadi. Asarda Sharq xalqlari, shuningdek, Oʻrta Osiyo va Oʻzbekistonning qadimiy xalqlari (skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar va boshqalar), Oʻrta Osiyo – Eron munosabatlari haqida qimmatli maʼlumotlar bor. Diodorning mazkur asari koʻp jihatlari bilan koʻchirma hisoblanadi. Muallif *Efor, Polibiy* asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, koʻp hollarda bayon etilayotgan voqealar uzviy bogʻlanmay qolgan. Shunga qaramay, Diodorning “*Tarixiy kutubxona*”si dalillarga boy va ilmiy ahamiyatga egadir. “*Tarixiy kutubxona*” toʻla holda bizning zamonamizga yetib kelmagan. Uning faqat 15 kitobi – Qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya

qiluvchi 1–5 kitoblari, Yunoniston hamda Rimning, Yunon–Eron urushlari (mil. avv. 500–449-y.)dan toʻmil. avv. 301-yilgacha boʻlgan tarixini oʻz ichiga olgan. 11–20 kitoblarigina saqlangan, xolos.

**DYUBUA (Dubois) Ejen (1858–1940)** – golland shifokori, antropolog; 1890–1891-yillarda Indoneziyaning Yava orolidagi *Trinil mavzeyi* yaqinidan pitekantropning bosh, boldir suyaklari va ikkita jagʻ tishini topgan. Olimlarning fikricha, Dyubua topgan pitekantrop 800 ming yil ilgari yashagan.

**GERASIMOV Mixail Mixaylovich (1907-yil 2(15)-sentabr, Peterburg – 1970-yil 21-iyul, Moskva)** – antropolog, arxeolog va haykaltarosh; odamning kalla suyagi asosida qiyofasini tiklash ilmiy maktabi asoschisi. Tarix fanlari doktori (1956). Oʻrta Osiyoga uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalarda qatnashgan. Sibirdagi Malta, Surxandaryo viloyatidagi Machay gʻori, Teshiktosh gʻori, Toshkent viloyatidagi Obirahmat gʻori kabi ibtidoiy makonlarni tekshirgan. Gerasimov oʻzi ishlab chiqqan usul bilan qadimgi odamlar (pitekantrop, sinantrop, neandertal) qiyofasi (mas., Teshiktosh gʻoridan topilgan Mustye odamining yuz tuzilishi)ni va bir necha tarixiy shaxslar (Yaroslav Mudriy, Ivan Grozniy, Amir Temur, Ibn Sino, Rudakiy, Shiller, Shohruh, Ulugʻbek va boshqalar) haykal – portretini yaratgan.

**GERODOT (Xeradot, Herodotos) (mil. avv. 490 va 480-yillar orasi, Kichik Osiyoning janubi-gʻarbidagi Galikarnas – mil. avv. 425-yil, Afina yoxud Furiya, Janubiy Italiya)** – mashhur Rim notigʻi *Sitseron* soʻzlari bilan aytganda “*Tarix otasi*” deb nom olgan yunon tarixchisi. Yoshligida mustabid hokimiyat (tiraniya)ga qarshi faol kurashgan va Galikarnasda shunday hokimiyat oʻrnatilgach, vatanini tark etishga majbur boʻlgan. Bir necha vaqt *Samos orolida* yashagan. Mil. avv. taxminan 455–447-yillarda butun Kichik Osiyo, Misr, Bobil, Finikiya, Kirena, Yunonistonning Bolqondagi shaharlari, Qora dengiz sohillari boʻylab sayohat qilib, skiflar haqida maʼlumot toʻplagan. Uzoq muddat Afinada yashagan; Gerodotning Afina demokratiyasining yoʻlboshchisi *Periklga* yaqinligi uning siyosiy qarashlariga kuchli taʼsir qilgan. Gerodot taxminan 443-yilda Afinadan Furiyaga koʻchib oʻtgan. U oʻz kitobidagi maʼlumotlarni toʻplash uchun bir qancha vaqt Samos orolida yashagan. Gerodotning asari shartli ravishda “*Tarix*” deb nom olgan boʻlib, yunonlar tarixining eng muhim siyosiy voqeasi *Yunon-Fors urushlari* (mil. avv. 500–449-yillar)ga bagʻishlangan. Keyinchalik aleksandriyalik olimlar Gerodot asarini muzalar soniga qarab 9 kitobga ajratganlar, har bir kitob

muzalar (*Klio, Evterna, Taliya, Melpomena, Terpsixora, Erato, Poligimniya, Uraniya, Kalliopa*) dan birining nomi bilan atalgan. Gerodot "*Tarix*"ning asosiy g'oyasini yunon dunyosining Sharq dunyosi bilan kurashi tashkil qiladi. Gerodot Yunoniston, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Bobil, Eron, Turon tarixi, tabiiy sharoiti va murakkab hayoti, aholisining o'tmishi, dini, o'ziga xos urf-odatlarini hamda madaniy yodgorliklarini ustalik bilan bayon etib, tarixiy voqealarni keng tahlil qilgan. Asarning beshinchi kitobida Gerodot o'zining asosiy maqsadi – yunon-fors urushlari tarixini bayon qilishga kirishgan. Antik adabiyotda birinchi bo'lib skiflarning hayoti va turmush tarzlari Gerodot asarida tadrijiy suratda bayon etilgan. Xususan, Gerodot O'rta Osiyoda yashagan massagetlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirib, massagetlar malikasi *To'maris*ning ahamoniylar podshosi *Kir II* bilan bo'lgan jangini yuksak mahorat bilan bayon qilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Gerodot o'zining mashhur "*Tarix*" asarini *Olimpiya* shahrida o'qib bergan.

**KSENOFONT (Xenophon) (mil. avv. taxm. 430–355-yillar yoki 354-yil)** – qadimgi yunon tarixchisi va davlat arbobi. Afinada boy oilada tug'ilgan, *Sugroming* shogirdi. Mil. avv. 401-yilda Eron taxti da'vogari *Kichik Kirning* Bobilga yurishida qatnashgan. Kir halok bo'lgach, Kichik Osiyo, Qora dengiz sohillariga chekinayotgan 10000 kishilik yunon qo'shiniga rahbarlik qilgan (bu voqealarni u "*Anabasis*" asarida tasvirlagan). Ksenofont yunon tarixchisi *Fukidid* asarining davomi bo'lgan "*Yunoniston tarixi*" (7 kitobdan iborat) hamda iqtisod, falsafa va harbiy sohaga oid asarlar yozgan.

**KTESIY Knidlik (mil. avv. V asr oxiri, Knid shahri – IV asrning I yarmi)** – yunon tarixchisi. *Gerodot, Gippokrat, Ksenofont*larning zamondoshi. U qadimgi fors shohi Artakserks II saroyida 17 yil tabiblik qilgan. 401-yil Kunaks ostonasidagi jangda yaralangan Artakserksni davolagan. Qolgan umrini ona shahri Spartada o'tkazgan. Ktesiy "*Eron*", "*Hindiston*", "*Daryolar haqida*", "*Tog'lar haqida*", "*Osiyo atrofidagi dengiz sayohati*" nomli asarlar muallifi. Bulardan eng muhimi "*Eron*" – 23 kitobdan iborat bo'lib, uning dastlabki 6 kitobi Ossuriya va Midiya tarixiga, keyingi 7 kitob Eron tarixiga (*Kir II, Kserks I* ning o'limigacha), qolgan 10 kitob Eronning 398-yilgacha (Ktesiy forslar saroyini tark etgunigacha) bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan. Ktesiyning bu asarida O'rta Osiyoda yashagan qadimgi xalqlar, ularning urf-odatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, harbiy san'ati haqida ham bir talay qimmatli ma'lumotlar bor. U yana Baqtriyani Ossuriya bilan aloqalari haqida ham yozib qoldirgan.

Ktesiy Suzada bo'lgan davridan foydalanib, fors tili og'zaki va yozma manbalari bilan tanishgan. Yunonlarga uzoq Sharq davlatlari, Eron shohlari va Yunon-Eron urushlari to'g'risida ko'p ma'lumotlar yetkazgan.

**KVINT KURSIY RUF (milodiy I–II asrlar)** – Qadimgi Rim tarixchisi va ritor (notiqlik san'atini o'rgatuvchi muallim). Kvint Kursiy Rufning qachon tug'ilgani va vafot etgani noma'lum. Asarlarining tiliga qarab tarixchilar uni imperator *Klavdiy* yoki *Avgust* hukmronligi davrida yashagan deb taxmin qiladilar. Kvint Kursiy Ruf *makedoniyalik Aleksandr* va uning harbiy yurishlariga bag'ishlangan, harbiy texnika tarixi nuqtayi nazaridan tarixiy ahamiyatga ega 10 ta kitobdan iborat "Buyuk Aleksandrning tarixi" nomli katta asarning (taxminan milodiy 50-yil yoxud II asr o'rtasi) muallifi. Muallif *Ptolemey Lag* va Aleksandr Makedonskiyning safdoshlari *Onesikrit* va *Kallisfenning* xotira va asaridan keng foydalangan. Asarning 8 ta kitobi saqlangan.

**KYUVYE Jorj (1769-yil 23-avgust, Monbelyar, Elzas – 1862-yil 13-may, Parij)** – fransuz tabiatshunos olimi. Parij FA (1796-yildan) va Fransiya akademiyasi (1818-yildan) a'zosi, davlat arbobi. Kyuvye solishtirma anatomiya, *paleontologiya* va hayvonot dunyosi sistematikasi bilan shug'ullangan. 1800-yilda *sariq (mongoloid), oq (yevropoid), qora (negroid)* irq tushunchasini fanga kiritgan. Kyuvye hayvonlar tanasi, xususan, asab tizimi tuzilishining o'xshashligi asosida hayvonot dunyosi shajarasi to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. Organlar tuzilishini o'rganishda solishtirma anatomik prinsipni qo'lladi; *korrelyatsiya* hodisasini ochdi, ko'plab qirilib ketgan hayvonlarni tavsiflab berdi; zoologiyaga "*tip*" tushunchasini kiritdi. Kyuvye yerda hayotning rivojlanishi borasida o'zining "metafizik katastrofalar nazariyasini" ilgari surdi. Tirik tabiatning o'zgarishi to'g'risidagi *J. Lamark* va organizmlar tuzilishining o'xshashligi to'g'risidagi Sent-Iler ta'limotlariga qarshi chiqdi. Kyuvye ishlari *evolyutsion ta'limotni* yaratish uchun asos bo'ldi.

**POLIBIY (mil. avv. 201–120-yillar)** – 40 kitobdan iborat "Umumiy tarix" asari bilan mashhur bo'lgan yunon tarixchisi. Polibiyning tilga olingan asari *Yunoniston, Makedoniya, Karfagen, Misr, Suriya* va *Rimning* 220–146-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Asar umumiy tarix yo'nalishida yozilgan. Afsuski, uning katta qismi saqlanmagan – bizgacha faqat 1–5 kitoblarigina yetib kelgan, xolos. Polibiyning "Umumiy tarixi" daliliy ma'lumotlarga boyligi, voqealarning nisbatan xolisona yoritilishi bilan alohida ahamiyatga egadir. Mazkur asarda *Oks* (Amudaryo) va *Yaksart* (Sirdaryo) haqida, *Antiox I*



ning Baqtriya podshosi *Yevtidemga* qarshi harbiy yurishi haqida muhim ma'lumotlar bor.

**POMPEY Trog (milodgacha I – milodning I asrlari o'rtasi) – “Filipp tarixi”** asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy Ossuriya podsholari zamonidan to Rim imperatori *Avgust* (mil. avv. 63- milodiy 14-yil) davrigacha dunyoda bo'lib o'tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Yunonistonning makedoniyalik *Filipp II* (mil. avv. 359–336-yillar) va *Aleksandr Makedonskiy* davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan. Mazkur asarning qimmatini shundaki, u bir talay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan; Rim, Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo'lishi va tarixini keng yoritib bergan. Shuni ta'kidlash kerakki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Lekin, Pompey Trogning tarixiy jarayon va uning taraqqiyotiga qarashlari idealistikdir, chunki u tarixni harakatga keltiruvchi kuch urf-odat va taqdir deb hisoblagan. “*Filipp tarixi*”da skiflar, Baqtriya, Aleksandr Makedonskiy davrida Baqtriya va Sug'dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Aleksandr Makedonskiy vafotidan keyin yuz bergan voqealar, parfiyaliklarning kelib chiqishi, Parfiya podsholigining tashkil topishi, parfiyaliklarning urf-odatlari; Baqtriya, Parfiya va Midiyaning o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud. Pompey Trogning mazkur asari *Justin* (II–III asr) tarafidan qisqartirilib qayta ishlangan shaklda bizgacha yetib kelgan.

**PTOLEMEY Klavdiy (taxm. 90–160-yillar) –** Aleksandriyada yashab ijod etgan mashhur qomusiy olim. Ptolemey astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid yirik asarlar yozib qoldirgan. Ptolemeyga shon-shuhrat keltirgan asarlari “*Almagest*” (“*Al-majastiy*”) va “*Geografiya*”dir. Ptolemeyning “*Geografiya*”sida Girkaniya, Marg'iyona, Baqtriya, Sug'diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va Sug'diyonaning mashhur shaharlari, shuningdek, o'sha mamlakatlar va ular bilan tutash o'lkalar va ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

**SIMA SZYANG (Simo Chyan)** (Bolalik davridagi ismi – *Zichjang, Shyayang*) (mil. avv. 145-yil, hozirgi Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)ning Shensi o'lkasi, Xanchen shahri – mil. avv. taxm. 90-yil) – Qadimgi Xitoy tarixshunoslarining “*otasi*”; Xitoyning birinchi umumlashgan tarixi – “*Shi szi*” (“*Tarixiy yilnomalar*”) asarining muallifi. Xon saroyining bosh voqeanavisi – *Sima Txanning* o'g'li. Yoshligidan mamlakat bo'ylab safar qilib tarix, urf-odatlar va

xalq hayotiga oid ma'lumotlar, rivoyatlar va hikoyalar yig'ish bilan shug'ullangan. Mil. avv. 108-yilda Xan imperiyasi saroyida kotiblar mahkamasi boshlig'i (*tayshilin*) lavozimida ishlagan. Mil. avv. 100–97-yillar oraliqida xunlar asiri bo'lgan *Li Lin* ismli amaldorni jazodan qutqarish masalasida o'rtaga tushganligi tufayli qamalgan. Mil. avv. 96-yilda qamoqdan ozod etilgan. Shundan so'ng u xoqon uchun tayyorlanadigan hujjatlarni yozish bilan shug'ullanuvchi saroy kotibiyati mahkamasi boshlig'i (*chjungshulin*) lavozimiga tayinlangan. Saroyda ishlab yurgan chog'ida otasi bilan tarixiy asarlar yozish bilan shug'ullangan. Mil. avv. I asrning 90-yillarida – “*Shi szi*” (“*Tarixiy yilnomalar*”) asarini yozib tugatgan. Asar 130 bobdan iborat bo'lib, Xitoyning qadimdan mil. avv. II asrning oxirigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Uning bir bo'limi osmon jismlari masalasiga bag'ishlanganligi diqqatga sazovor. Sima Szyang Xitoyda 1-bo'lib voqealarni xronologik bayon etish (“*Annallar*”), jamiyat hayotining turli tomonlarini mavzuli yoritish (“*Traktatlar*”) va biografik janrlarni uyg'un holda kompleks o'rganish tamoyilini qo'llagan.

**STRABON (mil. avv. 64/63 – milodiy 23/24) –** atoqli yunon geografi va tarixchisi. Asli amosiyalik (Pont podsholarining qarorgohlaridan); mo'tabar va badavlat oiladan chiqqan; mashhur yunon faylasufi Aristotelning shogirdi; qariyb 80 yil umr ko'rgan. Ko'p sayohatlar (Yunoniston, Kichik Osiyo, Italiya va Misr) qilgan. Antik davr geografik bilimlari yakuni bo'lgan “*Geografiya*” (mil. avv. 7-yil, 17 kitobdan iborat) va “*Tarixiy xotiralar*” degan (bizgacha yetib kelmagan) asarlarining muallifi. Asarda G'arbiy va Markaziy Yevropa, Kichik Osiyo, Shimoliy va Sharqiy Qora dengiz sohillari haqida geografik ma'lumotlar to'plangan. Shu bilan birga asarda ko'plab tarixiy, etnografik maishiy tafsilotlar keltirilgan, xususan, Qrim yarim oroli va Dnepr bo'yiga kelib joylashgan qabilalar, *skiflar, roksolanlarning* xo'jaligi va maishiy turmushi haqida, Shimoliy va Sharqiy Qora dengiz sohillarida joylashgan antik shaharlarning qurilishi, turmushi, xo'jaligi, tarixi, Bospor davlatining tarixi va xo'jaligi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. “*Geografiya*”da, shuningdek, qadimgi O'rta Osiyo geografiyasi, unda yashagan qabilalar (*saklar, parfyanlar, baqtriyaliklar, dahlar* va b.) va ularning urf-odati, tili, Buyuk ipak yo'li o'tgan joylar haqida ma'lumotlar ham juda qimmatlidir.

**CHJUN (Pen-Ven) –** xitoylik arxeolog olim. Kanadalik arxeolog olim *Blek* bilan birgalikda Xitoyning *Chjoukodyan g'oridan* arxantropolarga mansub qazilma odamlarning qoldiqlari va mehnat qurollarini topgan.

## ATAMA VA TUSHUNCHALAR

**ANIMIZM** (lotincha *anima* – *arvoh, ruh*) – arvoh va ruhlar borligiga ishonish. Ibtidoiy davrda paydo bo'lgan. Ibtidoiy odamlar tabiat kuchlariga qarshi kurashda o'z hayoti va tanasidagi turli hodisalar (tush ko'rish, gallyutsinatsiya, o'lim va hokazo)ni tushunmagan. Ular jon tana bilan bog'langan u tanadan chiqib keta oladi, deb hisoblaganlar. Insonda asta-sekin abstrakt tafakkur rivojlanishi bilan moddiy narsalarga bog'liq ruh to'g'risidagi tasavvurlar paydo bo'lgan. Ruhlar yaxshi, saxiy hamda yomon, yovuz ruhlarga bo'lingan. Ruhlar odamlar hayotiga, turmushiga ta'sir ko'rsata oladi deb tasavvur qilingan. Shu sababli zarur paytlarda ularga *qurbonliklar* qilganlar.

**ANTROPOGENEZ** – odamning kelib chiqishi va rivojlanish jarayoni.

**ANTROPOLOG (odamshunos)** – qadimgi odamlarning qoldiqlarini sinchiklab tekshirib ko'rib, ularning tashqi ko'rinishini qaytadan yaratishga, ming yillar davomida kishilarning tashqi qiyofasida ro'y bergan o'zgarishlarni o'rganadigan olim.

**ANTROPOLOGIYA (“odam haqidagi fan”)** – eng qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari asosida ularning qiyofasi, kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganuvchi fan.

**ARAVA** – yuk va odam tashish uchun mo'ljallangan, ulov qo'shib ishlatiladigan qadimgi transport turi. Aravaning ilk namunalari mil. avv. 3-mingyillikning oxirlariga to'g'ri keladi. Yevrosiyo va Shimoliy Afrika hududlaridan arava tasvirlari ko'plab topilgan. Jangovar aravalar qadimgi Sharq davlatlari – Babil, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakat qo'shinlarida bo'lgan. Qadimgi hind qahramonlik eposi “Mahabharat” (mil. avv. X–VIII asrlar)da bayon qilinishicha, Shimoliy va Janubiy Hindiston xalqlari ishtirok etgan buyuk jangda jangovar aravalarda jang qilingan. Aleksandr ham o'z yurishlarida aravalardan keng foydalangan. Misrliklar ikki g'ildirakli bir kishilik aravalarda jang qilishgan. O'zbekiston hududidan sopoldan ishlangan to'rt g'ildirakli (Oltintepa, mil. avv. 4-mingyillik-2-mingyilliklar), qo'shma oltindan mo'jaz ishlangan ikki g'ildirakli (Amudaryo xazinasi, mil. avv. IV–II asrlar) aravalar topilgan, Afrosiyob devoriy rasmlarida jangovar aravalar tasvirlangan.

**ARXANTROPLAR** (yunoncha *archaios qadimgi* va *anthropos* – *odam*) – evolyutsion taraqqiyoti darajasi va madaniyati xarakteriga ko'ra o'zaro yaqin bo'lgan qadimgi qazilma odamlar (Pitekantrop va sinantrop va boshqalar.). Bu odamlar bundan 800–1mln yil ilgari yashagan.

**ARXEOLÓG (qadimshunos)** – moddiy manbalar asosida tarixni o'rganadigan olim.

**ARXEOLÓGIK MADANIYAT** – bir tarixiy davrga oid, ammo turli hududlarda joylashgan arxeologik yodgorliklarning umumiy belgilarini ifodalovchi tushuncha. Ayrim yoki bir qancha belgilarga, xususan, sopol buyumlarning shakli, naqshi, marhumlarning dafn etish tartibi, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlariga ko'ra belgilanadi. Yodgorliklar qayerdan topilsa, shu joyning nomi bilan yuritiladi. Arxeologik madaniyatni o'rganish yozma tarixiy manbalar topilmasdan oldin yashagan qabila va xalqlarning tarixini yozish uchun imkoniyat yaratib beradi.

**ARXEOLÓGIYA** (yunoncha *arxeos* – *qadimgi, logos* – *fan*, ya'ni “qadimiylikni o'rganadigan fan”) – tarixni ashyoviy manbalar asosida o'rganuvchi va ular bo'yicha tarixiy o'tmishni qayta tiklovchi qadimiyat to'g'risidagi fan. Arxeologiya so'zini mil. avv. IV asrda *Platon* (Aflotun) qadimgi voqealar ma'nosida ishlatgan. Ilmiy maqsadlardagi dastlabki arxeologik qazishlar XVIII asr boshidan boshlangan. XIX asr yirik arxeologik kashfiyotlar davri bo'lib, arxeologiya fan sifatida shakllanib bordi.

**AVSTROLIPITEK (janub maymuni)** – odamsimon maymunlarning qirilib ketgan kenja oilasi. 3-4 million yil ilgari yashagan. 3 turi – *zinzantrop, parantrop, pleziantrop* ma'lum. Suyak qoldiqlari dastlab 1924-yilda Janubiy Afrikaning Qalaxara sahrosidan, keyinroq markaziy Afrikaning Oldovay darasi (Tanzaniya), Omo daryo vodiysi (Efiopiya), Rudolf ko'li va Xadar degan joy yaqinida (Kenya) topilgan. Avstrolipitekning bo'yi 120–130 sm, tana massasi 30–40 kg, miyasining hajmi 500–600 sm<sup>3</sup> bo'lgan, ikki oyoqda tik yurgan, to'da bo'lib yashagan. Avstrolipitek o'zlarini himoya qilish yoki hujum qilish uchun tosh, tayoq va suyaklardan foydalangan, degan taxminlar mavjud. Ko'pchilik antropologlarning fikricha, eng progressiv avstrolipitek (prezinzantrop) eng qadimgi tosh qurol yasagan, odamlarning dastlabki ajdodi hisoblanadi. Avstrolipitekning qadimgi odamlarning bevosita ajdodi ekanligi uzil-kesil hal etilmagan.

**ASHEL MADANIYATI** – quyi paleolit davri madaniyati. Shu davrga oid tosh cho'qmor, bir yoki ikki tomoni uchirilib, o'tkir qilingan turli shakldagi chaqmoq toshlardan iborat qurollar dastlab Fransiyaning Amyen shahri yaqinidagi Sent-Ashelda topilgan va bu madaniyat shu joy nomi bilan atalgan. Ashel madaniyati davri odamlari ibtidoiy jamiyat tuzumining quyi bosqichida g'orlarda, daryo bo'y-

laridagi pana yerlarda to‘dalashib yashab, ovchilik bilan hayot kechirgan. Olovdan foydalangan. Ashel madaniyati G‘arbiy va Sharqiy Yevropada, Kavkaz, Old Osiyo, Afrikada tarqalgan. O‘rta Osiyoda Ashel madaniyatiga oid qarorgohlar Janubiy Qozog‘istonda (*Qoratov*), Toshkent vodiysida (*Selung‘ur*) va boshqa joylarda uchraydi. Bu davrda O‘zbekiston hududida eng qadimgi odamlarning tarqalishi paytida tabiiy sharoit yozda havo iliq va quruq, qishda esa sovuq va namchil bo‘lgan. Ashel davri oxirlarida iqlim tamoman o‘zgaradi. Bu hamma joyning muzliklar bilan qoplangani tufayli edi. Muzliklar bu hududning hayvonot va o‘simlik dunyosiga qattiq ta‘sir qiladi. Pomir va Tyan-Shan tog‘larida haddan tashqari ko‘p qor va muzlik zaxiralari to‘planadi. Ularning erishi oqibatida Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari hosil bo‘ladi. Kaspiy va Orol dengizlarida suv ko‘payadi. Havo soviydi va namgarchilik kuchayadi. Qattiq sovuq odamlarni boshqa joylarga ko‘chishga majbur qiladi. Ular g‘orlarni boshpana (makon) qila boshlaydilar. Odamlar sher va g‘or ayiqlariga qarshi jang qilishga majbur bo‘lganlar. Tekislik va daryo vodiylarida yovvoyi hayvonlar, yilqi, karkidon, ho‘kiz podalari, tog‘larda arxar va kiyiklar paydo bo‘ladi. Mamont va karkidon suyaklarini arxeologlar Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasidan topganlar. Yovvoyi hayvonlarning O‘zbekiston hududida ko‘p bo‘lganligi qadimgi odamlar turmushi yengil bo‘lganligidan dalolat. Bu hududlar eng qadimgi odamlarning shakllanishi jarayonini boshidan kechirgan joylaridandir.

**ASHYOVIIY MANBALAR** — ko‘hna manzil-makon, qabr, rasm va boshqa buyumlar (yodgorliklar), turli mehnat qurollar, ro‘zg‘or buyumlar, taqinchoqlar, ziynat buyumlar, sopol idishlar va ularning parchalari, shuningdek uy-joy qoldiqlari kiradi.

**BIBLIYA** (yunoncha *Biblia* — *kitoblar*) — yahudiylik va xristianlikda muqaddas hisoblangan diniy kitoblar va risolalar majmuasi. Bibliya ikki asosiy qismga — *Qadimgi ahd* va *Yangi ahdga* bo‘linadi. "*Ahd*" so‘zi xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini ifodalaydi. Qadimgi ahd yahudiylikda ham, nasroniylikda ham muqaddas sanaladigan va eng qadimgi davrlarda yaratilgan diniy adabiyotlardan, Yangi ahd esa faqat nasroniylar muqaddas deb biladigan, ular dinni shakllanishiga aloqador diniy asarlardan iborat. Bibliya mil. avv. VIII asr va milodiy II asr oralig‘ida oromiy hamda yunon tillarida yozilgan. Bibliya eng qadimgi adabiy yodgorliklardan biri bo‘lib, diniy pand-nasihatlar, aqidalar, bashoratlar, duolar, solnomalar, masallar, ishqiy va falsafiy dostonlar, hikoyat, rivoyat va maktublardan iborat. Bibliya tarkibiga

kirgan *Tavrot* — *Muso* alayhissalomga, *Zabur* — *Dovud* alayhissalomga, *Injil* — *Iso* alayhissalomga nozil qilingan. Milodiy 364-yili Laodika sobori nasroniylikda muqaddas va ilohiy deb topilgan asarlardan iborat Bibliyani rasman tasdiqladi. Unga kiritilmagan yoki undan farqlanadigan barcha diniy kitoblarni soxta deb e‘lon qildi va ularni o‘qishni taqiqladi. Jami 70 kitob (bo‘lim)ni o‘z ichiga olgan bibliyaning hozirgi matni XIII asrda kardinal **Stefan Lengton** uning matnlarini boblarga ajratganidan keyin yuzaga kelgan. XVI asrda matbaachi Rober Stefan bu boblarni bandlarga ajratib, unga so‘nggi tartib raqamlarini qo‘ygan. Bibliyaning asosiy ko‘rsatmalaridan biri kishilarni yakkaxudolikka targ‘ib qilishdir. Bibliya jahon bo‘yicha keng tarqalgan, asrlar mobaynida ko‘pgina xalqlarning axloqi, ma‘naviyati, madaniyati, adabiyoti, musiqa va rangtasvir san‘atiga barakali ta‘sir ko‘rsatgan. U XIX asrgacha 400 dan ziyod, XX asr mobaynida esa yana 1400 (jami 1978) tilga to‘liq yoki qisman o‘g‘irilgan. O‘zbek tilida ayrim qismlari 1891, 1913-yillarda Leypsig shahrida arab imlosida, 1981, 1983, 1986, 1990-yillarda Bibliyani tarjima qilish instituti Stokgolm tomonidan kirill yozuvida chop ettirilgan. 1992-yilda mazkur institut Injil va Zaburni to‘liq holda va Tavrotidan "Ibtido" qismini bir kitobga jamlab so‘z boshi, lug‘at, jadvallar, xaritalar hamda rangli fotosuratlar bilan chop etgan.

**BRONZA DAVRI** — ibtidoiy jamoa davrida jezdan mehnat qurollari ishlangan tarixiy bosqich. Ibtidoiy odamlar bir necha yuz va ming yillar davomida mehnat qurollarini faqat toshdan yasab keldilar. Mil. avv. 4-mingyillikning boshlariga kelib, ayrim joylarda (O‘zbekiston yerlarida mil. avv. 3-mingyillik oxiri — 2-mingyillikda) turli zeb-ziynat bezaklarini, ba‘zi mehnat qurollarini misdan yasay boshlaydilar. Bu davrda misdan yasalgan mehnat qurollari mo‘rt va yumshoq bo‘lganligidan mustahkamroq qotishma olish uchun izlanish davom etgan va ma‘lum davrdan so‘ng qalayni misga qorishtirib bronza (jez) kashf etildi. Natijada mehnat quollarining turi ko‘paydi, bronzadan keskirroq tig‘li qurol-yarog‘lar yasala boshladi. Ovchilik va terimchilik ijtimoiy va iqtisodiy hayotda o‘zining dastlabki ahamiyatini yo‘qotdi. Ot, eshak, tuya va ho‘kizdan transport vositasi sifatida foydalanildi. Hayvonlarga qo‘shiladigan aravalar vujudga keldi. Bu davrda xo‘jalikning, asosan, yaylov chorvachiligi va dehqonchilikka asoslangan ishlab chiqarish shakli qaror topdi. Amudaryo va Zarafshonning quyi qismi, Farg‘ona vodiysining shimoli-sharqiy qismi va janubiy Surxon vohasi tabiiy geografik jihatdan qadimgi dehqonchilikning kelib chiqishi va rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan. Bu davrda O‘zbekiston janubi va Afg‘oniston shimolida rivoj-

langan *Baqriya* dehqonchilik madaniyati vujudga keldi. O'zbekistonda 3 ta asosiy dehqonchilik vohasi — *Sherobod*, *Sho'rchi* va *Bandixon* shakllangan. Bu joylarda qadimgi ilk shahar madaniyati shakllana boshlagan. Bronza davriga mansub *Sopollitepa*, *Mirshodi*, *Mo'lali*, *Jarqo'ton* kabi urug' jamoasining turar joylari — qishloq qo'rg'onlari, ilk shaharlari va qabrlar topilgan. Xorazmda mil. avv. 2-mingyillikning 2-yarmida bronza davrining *Tozabog'yob madaniyati* mavjud bo'lgan. Bu madaniyat Burgut qal'a vohasidagi *Tozabog'yob* kanali yaqinidan topilgan. Bu madaniyat dehqonchilik va irrigatsiya tarmoqlari ancha rivojlanganligi bilan farq qiladi (*Ongqa-2*, *Qavat-3 makonlari*, *Ko'kcha-3* va boshqa mozorqo'rg'onlar). Bu davrda metall quyish texnikasi yuksak bo'lgan. Yassi tubli chizma boshloqsimon naqshlangan idishlar topilgan. Bronza metallurgiyasi rivojlangan. Xorazmda so'nggi bronza — ilk temir davriga *Suvyorgan* (mil. avv. 2-mingyillik) va *Amirobod* (mil. avv. 1-mingyillik boshi) madaniyatlariga mansub. *Suvyorgan* madaniyati 3 bosqichni (*Qamishli*, *Bozorqal'a*, *Qovinchi*) o'tgan. Urug' jamoalari ovchilik, podachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ijtimoiy hayotda dastlab ona urug'i an'analari kuchli bo'lgan, lekin keyingi ikki bosqichda erkaklarning jamoadagi mavqeyi ortgan. Ayollar erlarga iqtisodiy jihatdan qaram bo'la bordi. Katta oila jamoalarida ota huquqi qaror topib mustahkamlandi. Endi qarindoshlik otaga qarab belgilandi, urug'lar ichidagi munosabatlar otaning iqtisodiy va huquqiy hukumronligi asosida qurilib, bolalar ota mulkiga merosxo'r bo'la boshladi. Farg'ona vodiysida so'nggi bronza davriga mansub *Chust madaniyati* aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik, chorvchilikdan iborat bo'lgan. Quyi Zarafshonning *Zamonbobo madaniyati* so'nggi bronza davrining *Andronovo madaniyatiga* juda yaqindir. *Andronovo* madaniyatining yuqori bosqichiga mansub yodgorliklar Xorazmda, Toshkentdagi *Ko'kcha mozorida*, Buxoro viloyatining *Qorako'l* tumanida, Urgut tumanining *Mo'minobod* qishlog'ida, Chirchiq daryosi bo'yida — *Achchiqko'l* va *Sergeli* tepalarida topilgan. Toshkent vohasida so'nggi bronza davri *Burganli* madaniyatida aksini topgan. Bu vaqtda ibtidoiy jamoa shiddat bilan yemirilib, qabilalar o'rtasida dastlabki sinfiy munosabatlar vujudga keldi. Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, mil. avv. 2-mingyillikning oxiri va 1-mingyillikning birinchi choragida O'rta Osiyo hududida dastlabki qadimgi davlat tuzilmalarining paydo bo'lishi kuzatiladi.

**CHOPPERLAR** — uchi bir tomonga qarab o'tkirlangan qo'pol toshqurollar.

**DAHYA** — qabilalar ittifoqi (“Avesto”).

**DAVRLASHTIRISH** — insoniyat tarixining bir-biridan tubdan farq qiluvchi davrlarga bo'linishi.

**ENEOLIT** (lotincha “eneus” — “mis” va yunoncha “paleos” — “tosh”) — mis-tosh asri. Mil. avv. 4–3-mingyilliklarda tosh bilan birga misning ishlatilgan davri. Eneolit davrida metall ishlab chiqarish odamlarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga katta ta'sir qildi. Mil. avv. 4-mingyillikda Qadimgi Sharqda shahar va davlatlar, O'rta Osiyo janubida esa sug'orma dehqonchilik vujudga keldi. Xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshladi; sopol idishlar hayvon, qush, o'simlik shaklidagi naqshlar bilan bezatildi. Eneolit davrining ko'plab manzilgohlari Turkmaniston janubi (*Anov*, *Namozgoh*, *Oltintepa*)da va Zarafshonning yuqori oqimlarida topib o'rganilgan. Eneolit davri yodgorliklaridan qazish paytida pishirilgan loydan yasalgan ko'plab ayol haykalchalari (ma'budalar) topilgan. Bu eneolit davrida hali ona urug'i (matriarxat) bo'lganligidan dalolat beradi.

**ENG QADIMGI URUG'CHILIK TUZUMI** — insoniyat tarixining barcha mehnat qurollari umumiy bo'lgan, hamma odamlar hamkorlikda mehnat qilgan davr.

**EPIGRAFIKA** (yunoncha *epigrahe* — *bitik*) — qadimgi bitiklarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi yordamchi tarix fani.

**ETNOGRAFIKA (elshunos)** — hozir ham barhayot qabilalar va xalqlarni, qadimgi odamlarning saqlanib qolgan ko'pgina udumlari, xo'jalik va madaniy an'analarni o'rganuvchi olim.

**ETNOGRAFIYA** — elshunoslik, ya'ni o'tmishda va hozirda yashayotgan odamlarning urf-odatleri, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganuvchi fan. Etnografik bilimlar qadim zamonlardan paydo bo'lgan bo'lsa-da, lekin mustaqil fan sifatida XIX asrning o'rtalarida shakllanib bo'ldi. Dastlab, bu atamani XVI asrning oxirida nemis yozuvchisi *I. Lummer* ishlatgan, keyin esa XVIII asr oxirlarida va 1808-yilda maxsus jurnallar shu nom bilan chiqa boshlagan. Etnografiya so'zi mashhur fransuz tabiatshunosi va fizigi *Jan Jak Amper* taklifi bilan Parij antropologlari kongressida alohida fan sifatida qabul qilingan.

**FARG'ONATROP** — olimlar Farg'onaning *Seleng'ur g'oridan* topilgan odam suyagi qoldiqlariga shunday nom berishgan. Ilk tariximizning tamal toshlari ilk bor ajdodlarimiz tomonidan *Selung'ur g'orida* qo'yilgan bo'lib, uning yoshi 1 mln 200 ming yil bilan belgilanadi. Bizning tariximiz *Selung'ur g'orida* paydo bo'lgan arxantroplardan boshlanadi. O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari ilk bor Farg'ona vodiysida paydo bo'lgan va azaldan ularning avlodlari uzluksiz yashab kelmoqda.

**FETISHIZM** (portugalcha *fetico*, fransuzcha *fetiché* — *sehrli narsa, tumor*) — g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar — fetishlarga sig'inish. Sig'inish obyektlari, ya'ni fetishlar — tosh, tayoq, ko'zmunchoq, tumor va har qanday buyum bo'lishi mumkin. Fetishizm dinning qadimgi unsurlaridan biri. Barcha ibtidoiy xalqlarda bo'lgan.

**GENEOLOGIYA** — alohida insonlarni kelib chiqishi, qarindoshlik aloqalari, bir oila ajdodlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

**GEYDELBERG ODAMI** — 1907-yili Germaniyaning *Geydelberg* shahri yaqinidagi *Mauer* qishlog'idan topilgan *pitekantrop*larga yaqin bo'lgan qazilma odam. Qadimligi 400 ming yilga yaqin. Unda iyak bo'lmay, tuzilishi xuddi maymunnikiga, ammo tishlarining tuzilishi odamnigiga o'xshaydi. Jag' suyagi bilan birgalikda sut emizuvchi hayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan.

**HARBIY DEMOKRATIYA** — ilk davlatchilikka o'tish davrida qabilaga harbiy sardorlar boshchilik qilgan bir boshqaruv shakli.

**HOMO HABILIS** — “*ishbilarmon odamlar*”. *Zinjanthrop*lar eng sodda mehnat qurollarini yasay olgani, ya'ni toshni-toshga urib mehnat qilgani uchun unga olimlar ushbu nomni berishgan. *Homo habilis* ilk paleolit davrida yashagan eng qadimgi odamdir.

**HOMO SAPIENS** — “*aql-idrokli, ongli odamlar*”. Ushbu nom so'nggi paleolit odami *kromanyonga* berilgan. Ularning ongi, tili rivojlangan bo'lib, birlari bilan burro-burro so'zlashganlar.

**IBTIDOIY E'TIQOD** — ibtidoiy jamoa tuzumi davri e'tiqodi. Ibtidoiy odamlar o'z faoliyatlari davomida juda ko'p voqealarning guvohi bo'lganlar. Ular o'ziga tushunarli bo'lmagan hodisalar (kun bilan tun almashuvi, fasllar, vulqon otilishi, zilzila va h.) ustida bosh qotirib, tushunib yetmay, tabiat kuchlari (momaqaldiroq, yashin, shamol, yomg'ir)ga sig'inganlar. Ibtidoiy odamlar nima bilandir tabiat kuchlarining g'azabini qo'zg'atdim, shuning uchun sovuq, jala, ovdagi falokat sodir bo'ldi, yirtqich hayvonni, kasallik yoki o'limni yubordi, deb o'ylaganlar. Asta-sekin odamlarda odam o'lgach o'zga olamga tushib qoladi va yashashda davom etadi, degan aqida paydo bo'la boshlaydi. Ibtidoiy e'tiqodning kelib chiqishi bir jihatdan qo'rquv bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan ibtidoiy kishilar bilim darajasining pastligi bilan bog'liqdir. Diniy tasavvur kurtaklari va afsungarlik so'nggi paleolitda, eng qadimgi dafn tartiblari esa o'rta paleolit davrida vujudga kelgan. Ibtidoiy diniy e'tiqodlar xilma-xil bo'lib, u davrda *totemizm*, *animizm*, *fetishizm*, *sehrgarlik* va boshqa e'tiqod shakllari keng tarqalgan. Ibtidoiy odamlarda

diniy e'tiqodning paydo bo'lganligini so'nggi paleolit davriga doir tog' qoyasida chekilgan tasvirlar ham isbot qildi. Eng qadimgi qoya tasvirlari Ispaniyaning *Altamir* va Boshqirdistonning *Kapova g'oridan* topilgan.

**IBTIDOIY MADANIYAT** — insoniyat yashagan eng qadimgi davr madaniyati. Ibtidoiy madaniyatning kelib chiqishi va rivojlanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ibtidoiy madaniyat eng qadimgi odamlarning o'z faoliyatlari davomida qo'lga kiritgan yutuqlarining natijasi hisoblanadi. Ibtidoiy madaniyat bir-biri bilan bog'langan moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi.

**IBTIDOIY MEHNAT QUROLLARI** — ibtidoiy odamlar tomonidan yasalgan mehnat qurollar. Odamlar tomonidan yaratilgan buyumlardan eng qadimgisi *tosh qurollar*dir. Ibtidoiy odamlar eng avval oddiy tosh, yog'och va shox-shabbalardan qurol sifatida foydalanganlar. Olimlarning aytishlaricha ibtidoiy odamlar yasagan qurollarning eng qadimgisi *tosh cho'qmor* ekan. Tosh cho'qmor bundan 3–3,5 million yil ilgari yaratilgan deb taxmin qilinadi. Tosh cho'qmorning yaratilishi moddiy madaniyatga qo'yilgan dastlabki qadam edi. Keyinchalik esa odamlar mis, bronza va temirdan har turli qurollar, shuningdek *omoch tishi*, *o'roq*, *tesha*, *ketmon* va boshqa buyumlar ishlaganlar. Tosh yog'och, suyak, shox, tish, mis, bronza va temirdan yasalgan qurollar eng qadimgi kishilar yaratgan moddiy madaniyat buyumlari hisoblanadi.

**IBTIDOIY SAN'AT** — ibtidoiy jamoa tuzumi davri san'ati. Ilk namunalari hozirgi tipdagi odam paydo bo'lgan so'nggi paleolit davri (taxm. mil. avv. 30-mingyilliklar)ga mansub. Ibtidoiy san'atning ilk namunalari ovchilik bilan shug'ullangan inson o'z muhitini — ov manzaralarini aks ettirib g'orlarning devorlariga, qoyatoshlarga ishlangan tasvirlarida (bo'yab, bo'rtma hosil qilib ishlangan), loydan tayyorlangan, toshni yo'nib ishlangan haykallarida ovlanadigan hayvonlar, odamzodlarni ifodalagan (Fransiyaning *La-Ferrasi*, *Lasko g'orlari*, Ispaniyaning *Altamir g'ori*, Sahroi Kabirning *Tassilin-Ajar* degan joyidagi qadimgi odamlar yashagan qarorgohlar). Misr, Hindiston, Old, Kichik va O'rta Osiyo, Xitoyda dehqonchilik afsonalari bilan bog'liq san'at keng tarqalgan, bezak naqshlar bilan bir qatorda mayda haykaltaroshlik rivojlangan. Me'morlik jamoa manzilgohlari qurilishida namoyon bo'lgan. O'rta Osiyo va Ikki daryo oralig'ida ko'p xonali uylar xom g'ishtli, novdalardan yig'ilgan sinchli, poli loy suvoqli qilib qurilgan. Neolit davrida yirik toshlardan iborat megalitli qurilmalar paydo bo'lgan. So'nggi jez davri va temir davrining boshlarida hayvonlarni tasvirlash uslubi shakllangan. Yunonistonning Sharq va Xitoy bilan aloqalari yangi mazmun, obraz va

tasviriy vositalarni paydo bo'lishini ta'minlagan. Ibtidoiy san'atning keyingi davrlari ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, mehnat taqsimotining rivoji, ibtidoiy jamoa tuzumini sinfiy jamiyatga bo'linishi bilan bog'liq. Bu davrda qal'alar qurilishi, dinlar taqozosi bilan yangi-yangi tasviriy san'at asarlari vujudga keldi, ibodatxona, maqbaralar bezatildi. Badiiy hunarmandchilik rivojlandi. O'zbekiston hududidan mezolit davriga mansub *Zarautsoy rasmlari* tasvirlari topilgan. Musiqa ijodiyotining ilk ko'rinishlari ham ibtidoiy jamoa davrida, asosan ovchilik va termachilik bilan kun kechirgan odamlarning mehnat va marosimlari jarayonida yuzaga keladi.

**IBTIDOIY TO'DA** – turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan qadimgi odamlar jamoasi. Ilk va o'rta paleolit davri ibtidoiy to'daga xosdir.

**ISHLAB CHIQUVCHI XO'JALIK** – ancha vaqt urug'ni o'simlik va hayvon yegulik mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan ziroatchilik va chorvachilikdir. Ziroatchilik termachilikdan boshlangan, chorvachilik esa ov va hayvonlarni qo'lga o'rgatishdan kelib chiqqan. O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jalikka neolit davrida o'tiladi.

**JARQO'TON OTASHKADASI** – Surxondaryo viloyati Jarqo'ton shahri xarobasidagi otashparastlar ibodatxonasi. O'rta Osiyo va O'rta Sharqdagi eng qadimiy otashkada hisoblanadi. Jarqo'ton otashkadasida *A.Asqarov* rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya tadqiqot ishlarini olib borgan (1973-yildan). Jarqo'ton otashkadasining tarhi to'g'ri to'rtburchak bo'lib, devor (qalinligi 4,5 m) bilan o'ralgan. Unda doira shakldagi 6 sajdagoh, 5 muqaddas quduq, tabarruk ashyolar saqlanadigan maxsus xona boshqa xo'jalik xonalari bo'lgan.

**KANNIBALIZM** (*fransuzcha cannibale* – *odamxo'r*) – odam go'shtini odam yeyishi. Tosh davrining eng qadimgi bosqichida yashagan ibtidoiy odamlarga xos. Keyinchalik, oziq-ovqat resurslari ko'paygach, ocharchilik vaqtlaridagina kamdan kam uchraydigan hodisa sifatida saqlangan. Diniy kannibalizm ancha vaqt saqlanib, odamlar o'ldirilgan dushmanlar, o'lgan qarindoshlar jasadining turli qismlarini yeyishgan; Bunda odamlar o'likning kuch-quvvati va boshqa xususiyatlari uning go'shtini yegan odamga o'tadi degan tasavvurlardan kelib chiqishgan.

**KOHINLAR** – qadimda diniy marosimlarni olib borgan, xudolar va odamlar o'rtasida vositachi hamda qurbonlik bag'ishlaydigan ruhoniylar.

**KROMANYON** (“*homo sapiens*” – “*ongli odam*”) – so'nggi paleolit davrining hozirgi ko'rinishida (neantropalar) bo'lgan qazilma odamlarning umumlashma nomi. 40–12-ming yil ilgari

yashagan. 1868-yilda Fransiyaning g'oridan topilgan (nomi shundan). Dunyoning barcha qismida kromanyonga oid suyak qoldiqlari topilgan. Kromanyonning yuz tuzilishi hozirgi zamon odamiga o'xshaydi. Ular taxm. 140 ming yil muqaddam yashagangan.

**KROMLEX** (bretoncha *crom* – *doira* va *lech* – *tosh*) – neolit va, asosan, bronza davriga oid megalitik inshootlarning bir turi. Balandligi 6–7 m gacha bo'lgan yirik tosh ustunlar ustiga tosh taxtalar qo'yilib, aylana (doira) shaklida qurilgan (diametri 100 m gacha), ichiga *dolmenlar* va *mengirlar* o'rnatilgan. Kromlexlar quyoshga sig'inish bilan bog'liq bo'lib, quyosh ibodatxonasi qasri sifatida xizmat qilgan. Kromlex Osiyo va Amerikada keng tarqalgan. Qrim va Kavkazda kromlex namunalari saqlangan.

**LINGVIST** – tilshunos olim, u yoki bu hozirgi zamon tili qay yo'sinda shakllanganini tushunish maqsadida qadimgi tillarni tadqiq etuvchi olim.

**LINGVISTIKA** – qadimgi va hozirgi tillarni o'rganuvchi tilshunoslik fani.

**MADANIY QATLAM** – arxeologiya yodgorliklarida odam faoliyati izlari bo'lgan barcha qadimgi manzilgohlardagi yerosti qatlamlaridir.

**MADLEN MADANIYATI** – Yevropadagi so'nggi paleolit davri (mil. avv. taxm. 15–8-mingyilliklar) madaniyati. Fransiyadagi La-Madlen (La Madeleine) g'ori nomi bilan atalgan. Tosh keskichlar, suyak va shoxdan yasalgan mehnat qurollari, g'or devorlariga solingan suratlar, suyak o'ymakorligi va b. Xo'jaligi – ovchilik, baliqchilik.

**MANBALAR, tarixiy manbalar** – o'tmishda odamzod qo'li bilan bunyod etilgan tarixiy jarayon izlarini o'zida aks ettiruvchi va kishilik jamiyati tarixini o'rganish imkonini beruvchi hozirgi kungacha saqlangan har qanday osori atiqqa, yozma manba, ma'naviy qadriyatlar. Manbalar tarixiy tadqiqotlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Manbalarning xili nihoyatda ko'p, ammo ma'lum darajada aniq va to'la ma'lumotlarga ega manbalar majmuasi cheklangan. Yozuv hali yuzaga kelmagan ibtidoiy jamoa davridan faqat moddiy madaniyat qoldiqlari saqlangan xolos. Yozma tarixiy manbalar, shubhasiz, kishilik jamiyatining ijtimoiy va shaxsiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Manbalar shartli ravishda 8 turkumga bo'linadi: yozma, ashyoviy, etnografik, lingvistik, toponimik, og'zaki (folklor), kino, fono va fotomateriallar.

**MANBASHUNOSLIK** – tarixiy manbalarni izlab topish, qayd etish, to'plash, o'rganish va qo'llanish nazariyasi va amaliy usullari haqidagi fan. Manbashunoslik ko'p asrlik tarixga ega. Amaliy man-

bashunoslik dastavval Sharqning Misr va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniyat o'choqlarida qadimgi podshohliklar (*Misr, Shumer, Akkad va Ossuriya*) va ularning boshqaruv tizimlari shakllanayotgan davrlarda yuzaga keldi. Manbashunoslikning ilk omillari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq kabi xo'jaliklarning kengayib rivojlanishi natijasida hayotiy ehtiyojlar yaratgan eng qadimgi yozuvlar (*Misr iyerogliflari, Mesopotamiya mixxati*) kashf etilishi, ilmiy-amaliy bilimlarning vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ldi. Manbashunoslikning asosi hisoblangan ilk yozuvlar mil. avv. 4-mingyillikda shakllandi. Eng qadimgi hujjatlar tosh, sopol, po'stloq, xom g'isht, yog'och, teri, papirus poyasiga bitilgan. Dastlab ularda eng muhim voqea va hodisalar, nasihatnoma va diniy she'rlar yozilgan bo'lsa, keyinchalik podshohliklar tashkil topgach, podshoh qonunlari (*Xammurapi*, mil. avv. 1792–1750-yillar, Xett, mil. avv. 2-mingyillik – qonunlari to'plami), madhiya (gimn)lar, davlatlararo bitimlar (mil. avv. 1280-yilda *Xattusili III* va *Ramzes II* larning tinchlik shartnomasi) kabi tarixiy hujjatlar bitilgan hamda yillik taqvim va o'lka xaritalar (*Misr, Urartu, Bobil* va ularning tevarak atroflari) chizilgan. Haqiqiy tarixiy hujjat tusini olgan bunday qadimgi lavhalar mil. avv. 4-mingyilliklarda ko'chirilib, o'ziga xos kitoblar yaratilgan va ularni saqlash uchun kutubxona va arxivlar tashkil etilgan (*Ur, Nippur, Nineviya, Bobil, Ashshur shaharlari*). Masalan, birgina Ossuriya podshohi *Ashshurbani palning* Nineviyadagi kutubxonasida 30 mingdan ortiq xatli lavhalar saqlangan. O'sha davrlardayoq Shumer, Akkad va Ossuriya maktablarida hujjatli lavhalardan nusxalar ko'chiruvchi va ularni jamlab saqlovchi davlat kotib (mirzo)lari tayyorlanib, amaliy manbashunoslikka asos solingan. Mesopotamiya arxivi va kutubxonalaridan esa hatto mil. avv. 3-mingyillikka mansub mamlakat tarixi va geografiasiga oid ma'lumotlar topilgan. Tarixiy hujjatlar va yozma manbalarga tanqidiy yondashish, ularda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va asarlar yaratishda manbalardan foydalanish yo'llari qadimgi dunyo tarixchilarining nomi va tarixnavislik ijodi bilan bog'liqdir. Dastlab yunon muarrixi *Gerodot* ayrim yozma manbalarga shubha ko'zi bilan boqqan bo'lsa, *Polibiy, Liviy, Tatsit, Iosif Flaviy* kabi tarixchilar o'z asarlarida manbalarni tanqidiy ajratish, bir-biriga zid ma'lumotlarni solishtirish bilan tarixiy manbalarni tekshirib ko'rish yo'lini qo'llaganlar. O'zbekistonda amaliy manbashunoslikning yuzaga kelishi va rivoji, agarda arxeologik topilmalarga asoslanilsa, bir necha mingyillik tarix bilan uzviy bog'lanadi. Zardushtiylik

dining muqaddas kitobi *Avestoning* charmga bitilgan ilk nusxalari hamda qadimgi *Niso* va *Tuproqqal'a* shahar xarobalaridan topilgan charm, yog'och va sopol bo'laklariga yozilgan xo'jalik hujjatlarining guvohlik berishicha, qadimgi Turon hududlarida ilk qo'lyozma manbalar mil. avv. 1-mingyillikda yuzaga kelgan. Ular shahar ibodatxonalarini va poytaxtlarda qad ko'targan podshoh qarorgohlarida saqlangan. Masalan, *Ko'hna Niso* xarobalarida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida 2 mingdan ortiqroq sopol bo'laklariga *parfiya yozuvi* bilan bitilgan xo'jalik hujjatlarini topilgan. Ularda Nisoning 17 bog'dorchilik tumani va 10 ta qishlog'idan qaysi yilda qancha miqdorda musallas keltirilib topshirilgani qayd etiladi. Xorazmshohlarning qadimgi poytaxti *Tuproqqal'a* xarobalaridan qazib ochildigan podshohlik arxividan esa teri va yog'ochga yozilgan 100 dan ortiq kiritim hujjatlarini topilgan. Ularda podsho xazinasiga tushgan soliqlarning nomi, miqdori va qayerdan keltirilgani belgilangan. Yog'ochga bitilgan hujjatlarida esa, ozod, qul, xizmatkor, malika cho'rilari, shahzoda xizmatkorlari, qullari kabi qadimgi Xorazmda hukm surgan ijtimoiy hayot bilan bog'liq tabaqalarni belgilovchi atama va iboralar tilga olingan. O'zbekiston hududida qayd etilgan bunday yozma yodgorliklar va ularning ibodatxona va podsho saroylarida saqlanishi, shubhasiz, bu hududda *Baqtriya*, *Sug'd* va *Xorazm* kabi dehqonchilik vohalarida ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar (ziro-atkorlik, chorvachilik, hunarmandchilik) va savdo-sotiq munosabatlarining kengayishi oqibatida tashkil topgan qadimgi davlat birlashmalarining va ularda boshqaruv tizimlarining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq tarzda yuzaga kelganidan dalolat beradi.

**MARHUMLAR KITABI** – qadimgi misrliklar tarixini bayon etuvchi yozma manba.

**MATRIARXAT** (*lotincha mater* – *ona* va *yunoncha arche* – *ibtido, hokimiyat*) – eng qadimgi tuzum rivojidagi bir bosqich bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilangan, uruqqa va oilaga ayol kishi sardorlik qilgan.

**MA'NAVIY MADANIYAT** – amaliy bilimlar ya'ni til, tafakkur, axloq, fan, san'at, huquq va din tushuniladi. Moddiy madaniyatga nisbatan ancha keyin paydo bo'lgan va rivojlangan. Ma'naviy madaniyat dastlab juda sodda bo'lib, u kishilarning mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'liq edi.

**MEZOLIT** (“*mezos*” – “*o'rt*a” va “*litos*” “*tosh*”) – *o'rt*a tosh asri; Paleolitdan neolitga o'tish davri (mil. avv. 12–7-mingyilliklar). Mezolitda hayvonot dunyosi, landshaftlar muzlik davridan

xalos bo'lib hozirgi tabiiy sharoitga moslashgan. Muzlik davriga moslashgan yirik hayvonlar (mamontlar) yo'q bo'lib, yangilari paydo bo'lgan. Inson hayotida katta o'zgarishlar sodir etilgan. Mezolitda o'q-yoyning kashf etilishi bilan yakka oila bo'lib yashash imkoniyati tug'ilgan. Tosh, suyak, yog'ochdan *mikrolit qurollar* (pichoq, qirg'ich, bolta) kashf qilingan. Bu qurollar yordamida odamlar yakka holda ov qilish imkoniga ega bo'lishgan. Shu tariqa jamoa bo'lib yashashga barham berilgan. Mezolit davri odamlari ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan shug'ullanganlar. Mezolit davrida O'rta Osiyo tabiatida muzlik davri tugaganligi sababli iqlim sernam bo'ldi. Bu davr xo'jaligi tarixidagi yangi xususiyatlaridan biri o'q-yoyning kashf etilishi munosabati bilan yakka ovchilari rolining o'sishidir. O'q-yoy insonni kundalik hayotida bir necha yuz mingyilliklar davomida hukmronlik qilib kelayotgan yirik hayvonlar tik jarlarga haydash, ularni o'rab olib tutish ovchiligiga barham berdi. Ov jarayonida ko'pchilik tomonidan yirik hayvonlarni tutishga qaratilmay, mayda hayvonlarni tutishga moslashtirilgan. Ovdan keladigan daromad ham ko'paydi, u bilan bog'liq holda mehnat qurollari takomillashib bordi. Oqibatda xo'jalikning yangi turi paydo bo'ldi. Masalan: hayvon bolalarini qo'lga o'rgata boshladilar. Bu jamoaning xaziradagi ov o'ljasi edi. Birinchi uy hayvoni it edi. Ayrim olimlar it bilan deyarli bir vaqtda shimol bug'usi ham qo'lga o'rgatilganligini ta'kidlaydilar. Itlarning qadimgi suyak qoldiqlari mil. avv. 10-mingyillikka oid bo'lib, Old Osiyodan topib o'rganilgan. Mezolit davrida odamlar daraxtlarning egiluvchi novdalaridan turli xil savatchalar to'qishib, ulardan baliq tutishda foydalana boshladilar. Bu davrda iqlimning iliqlashib, sernam bo'lishi odamlarning hayotidagi doimiy o'troqlik turmush tarzi o'rnini daydi hayot egallashiga olib keldi. Bu davrda murakkab mehnat qurollari vujudga keldi. O'zbekistonda o'rganilgan mezolit davri yodgorliklarini yoshi bir xil emas. Olimlar yodgorliklarda topilgan tosh qurollariga qarab, ularni uch guruhga bo'lishgan: 1) *Qo'shilish yodgorligi* (Toshkent) – mil. avv. 10–9-mingyillik; 2) *Obishir yodgorligi* (Farg'ona vodiysi) – mil. avv. 9–8-mingyilliklar; 3) *Machay madaniyati* (Surxondaryo) – mil. avv. 12–6-mingyillik. 1912-yilda I. Fyodorov tomonidan Surxondaryoning *Zarautsoy* degan joyda dunyoga mashhur qoyatosh suratleri topilgan. U yerdagi rasmlar tosh davriga mansubdir. Unda yovvoyi ho'kiz va ov manzarasi tasvirlangan. Odamlar chizilgan suratlar bo'lajak ovga yordam berishiga ishonganliklari sababli qoyatosh suratlarida ko'pincha hayvonlar va ov manzarasini tasvirlaganlar. Ibtidoiy tasviriy

san'at rivojiga insonning atrof-muhitni bilish yoki dunyoni anglashga intilishi asos bo'ldi.

**MIKROLITLAR** – mezolit va neolit davrida odam tomonidan yasalgan kichik tosh plastinkalar. Mezolit davrida mikrolitlar paykon, suyak yoki shoxdan yasalgan qurollarning tig'i sifatida ishlatilgan.

**MODDIY MADANIYAT** – ibtidoiy odamlar qo'li bilan yaratilgan *mehnat qurollar, uy-joy, g'ormakonlar, kiyim-bosh, oziq-ovqat* mahsulotlari va inson uchun zarur buyumlar tushuniladi.

**MONGOLOID IRQI** (*Osiyo-Amerika irqi*) – insoniyatning eng katta irqalaridan biri. Bug'doy rangligi, qalin qora sochi, yuz va badanida tukning kamligi, kichik burni, yonoq suyaklarining bo'rtib chiqqanligi, yuzi yumaloqdan kelganligi, qisiq ko'zligi bilan xarakterli. Sharqiy Osiyo, Indoneziya, Markaziy Osiyo, Sibir, Amerikada tarqalgan.

**MUSTE MADANIYATI** – o'rta paleolit davri madaniyati (mil. avv. 100–40-mingyillik). XIX asrning 60-yillarida fransuz arxeologi *G. Mortilye* Fransiyaning janubi-g'arbidagi *Le-Muste* (Le Moustier) g'oridan suyak va tosh qurollar topganligi uchun shu nom bilan yuritiladi. Bu davrda yashagan odamlar *neandertallar* nomi bilan fanga kirgan. Muste madaniyati uchun gardishsimon *nukleus* va uch-burchakli tosh parrakchalar xos bo'lib, ular yog'och yo'nish, ishlash, kiyim va qurol tayyorlashda ishlatilgan. Muste davrida nayzasimon tosh qurol, o'roq, randa, qumtosh yoki ohaktoshdan yasalgan sharlar, Muste madaniyatining oxirida esa keskich asboblar – qirg'ich, pichoq hamda suyak qurollar paydo bo'lgan. Muste davrida odamning jismoniy qiyofasi takomillasha borgan. Qadimgi odam (pitekantrop va sinantrop) o'zgarib, hozirgi tipdagi odamga yaqinroq bo'lgan neandertal shakliga kiradi. Bu odam miyasida nutq markazi yuzaga keladi hamda uning jismoniy qiyofasi o'zgara boradi, bu uning ish vaqtida erkin harakat qilishini ta'minlaydi. Olovni saqlab qo'yishdan uni ishqalash yo'li bilan hosil qilishga o'tilishi Muste davrining muhim yutug'idir. Toshni ishlashda levallua texnikasidan foydalanilgan. Muste madaniyatida g'or va ochiq manzilgohlarda neandertal odamlar yashab, mamont, ayiq, shimol bug'usi kabi hayvonlarni ovlab, iste'mol qilishgan hamda terimchilik bilan shug'ullangan. Muste davri qarorgohlarida o'choq, kuygan suyak va qabrlar uchraydi. Qabrlar va ulardan topilgan buyumlar dafn marosimlarida diniy e'tiqodlar tug'ila boshlaganini ko'rsatadi. Muste madaniyati yodgorliklari Yevropa, Afrika, Yaqin Sharqda, Rossiyaning Yevropa qismida, Kavkaz, O'rta Osiyo va Qozog'istonda topib o'rganilgan. O'zbekistonda – Surxondaryo (*Teshiktosh g'ori*), Samarqand



(*Omonqo‘ton g‘ori, Qo‘turbuloq makoni, Zirabuloq, Xo‘jamazgil makoni*), Toshkent viloyati (*Obirahmat g‘ori, Ko‘lbuloq makoni, Xo‘jakent makoni, Paltov*), Farg‘ona vodiysi (*Qal‘acha makonlari, So‘x daryosidagi makonlar*), Navoiy viloyati (Uchtud) da Muste madaniyati yodgorliklari o‘rganilgan. Hozirgi vaqtda O‘rta Osiyoda neandertal zamondoshlari yashagan makonlar 90 dan ortiq joyda topilgan.

**MUZLIK DAVRI** – yerning geologik tarixida nisbatan uzoq davom etgan davr. U davrda iqlimning umumiy nisbiy sovishi natijasida juda sovuq bo‘lgan vaqt (bunda yirik materik muzliklari vujudga kelgan) iliq iqlimli vaqt bilan ko‘p marta almashinib turgan. Iqlim iliqlashganda (muzliklararo davr) materik muzliklarining ko‘p qismi erib ketgan. Shimoliy Amerikaning quyi proterozoyida, Afrika va Avstraliyaning yuqori rifeyida, Osiyo va Shimoliy Amerikaning vendida, Afrikaning ordovikida, Gondvana materigining karbon oxiri va perm boshida aniqlangan. *Pleistotsen muzlik davri* eng ko‘p o‘rganilgan.

**NEANDERTAL ODAM** – qadimgi qazilma odamlar, paleoantroplarning bir guruhi. O‘rta paleolit davrida – mil. avv. 100–40 ming yil ilgari yashagan. Neandertal skelet qoldiqlari (bosh miya qutisi, qovurg‘alarning bo‘laklari, yelka hamda son suyaklari va boshqalar). 1856-yilda Neandertal vodiysida (Germaniya Federativ respublikasining Dyusseldorf shahri yaqinida; nomi shundan olingan), shuningdek, Osiyo va O‘rta Osiyo (*Teshiktosh odami*) va Afrikada topilgan. Neandertal bo‘yi uncha katta bo‘lmagan (160 sm ga yaqin), miyasi yirik (1700 sm<sup>3</sup>), lekin hozirgi odamlarnikiga nisbatan sodda tuzulgan, ko‘zining ustida qalin bo‘rtig‘i bo‘lgan. Neandertal bundan 200–35 ming yil avval – vyurm muzligi davrida G‘arbiy Yevropada yashaganlar. Neandertal yashash uchun g‘orlarni o‘zlashtiradi, qo‘l cho‘qmor va nayza uchlarini yasaydilar; o‘zlariga hayvon terisidan kiyim qiladilar, olovdan foydalanadilar, mamont va boshqa yirik muzlik davri hayvonlarini ovlaydilar (*Muste madaniyati*). Olov yoqishni va undan foydalanishni bilishgan, to‘da bo‘lib yashashgan. Neandertallar hozirgi qiyofadagi odamga o‘tish bosqichidir.

**NEANTROPLAR, yangi odamlar** – zamonaviy qiyofadagi qadimgi odamlar. Ularning dastlabki qazilma suyaklari va makonlari Fransiya janubidagi *Kro-Manyon* qishlog‘i yaqinidagi g‘ordan topilgan. Shuning uchun olimlar unga *kromanyon* odam deb nom berganlar. Keyingi bir asr mobaynida arxeolog-antropolog olimlar tomonidan Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyaning ko‘p joylaridan kromanyonlarning juda ko‘p makonlari va suyaklari topilgan.

**NEGROID IRQI** – katta ekvatorial (*negr-avstraloid*) irqqa kiradi. Tanasining qoraligi, jingalak sochligi, burnining kengligi, lablarining qalinligi, prognatizm (jag‘ suyaklarining oldinga turtib chiqishi) xosdir. Afrikada, Sahroi Kabirning janubida tarqalgan. “negroid irqi” termini ba‘zan ekvatorial irqining sinonimi sifatida qo‘llaniladi.

**NEOLIT (“neos” – “yangi” va “litos” – “tosh” – yangi tosh)** – O‘rta Osiyoda neolit davri mil. avv. 6–4-mingyilliklar bilan belgilanadi. Arxeologlar neolit davrining boshlanishi sopol idishlar yasashning kashf etilishi bilan belgilaydilar. Mezolit va neolit davrida odamlar mikrolit – toshdan mayda mehnat qurollari tayyorlashni o‘rganadi. Shuningdek toshga ishlov berishning ilgari noma‘lum bo‘lgan usullari: silliqlash, qirtishlash va burg‘ilashni ham o‘rganadi. Ular endi mehnat qurollari yasashning yangi usullarini, chaqmoqtoshdan parrakchalar chiqarishni ham kashf etadi. Endi toshning keraksiz tomonlari urib tushirilmasdan, undan pichoqqa o‘xshagan parrakchalar, qirg‘ich, nayza uchlarini charxlab olingan. Neolit davrida qabilalarning o‘troq hayot tarziga o‘tadi, doimiy yashash uchun manzilgohlar qura boshlaydilar. Guvaladan uylar qurish boshlanadi. Urug‘ jamoasining qarorgohlari shakllanadi. O‘troq hayot tarzi va mehnat qurollarining takomillashuvi jamoalarning ziroat va chorvachilikka o‘tishiga olib keladi, hunarmandchilikning rivoj topishiga asos bo‘ladi. Neolit davri muhim kashfiyotlaridan biri kulolchilik, tikuvchilik va to‘quvchilik bo‘ldi. Neolit davrida aholining asosiy mashg‘uloti ov, baliqchilik va termachilikdan iborat edi. O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlarida mil. avv. 6–5-mingyilliklarda neolit davri qabilalari ziroatchilikka o‘tadi. Markaziy, Shimoliy va Sharqiy viloyatlardagi qabilalar esa ov va baliqchilik bilan shug‘ullanishda davom etadilar. Ziroatchilarning dastlabki qarorgohlari jilg‘alar bo‘ylab joylashgan. Shunday qadimiy makonlardan biri *Chaqmoqli* deb ataladi. Chaqmoqli O‘rta Osiyoning aholisi ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘tgan dastlabki qishloqlaridan biri hisoblanadi. Neolit davri ilk dehqonlarining ikkinchi qarorgohi *Joytun* hisoblanadi. Joytun Turkmaniston janubidagi mil. avv. 6–5-mingyilliklar makonidir. Bu manzilgohning ziroat usullari sodda bo‘lishiga qaramay O‘rta Osiyo ziroatchiligi taraqqiyotiga asos bo‘ldi. Neolit davri ovchi va baliqchilarning qadimgi yodgorligi *Kaltaminor*dir. Kaltaminor mil. avv. 5-mingyillikning oxiri – 4-mingyillikning boshlariga oid. Bu yodgorlikning ancha yaxshi saqlangan manzilgohlaridan biri – *Jonbos-4* dir. Kaltaminor yodgorliklari xos mehnat qurollari va kulolchilik buyumlari Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi hududlarda: Zarafshon va Amudaryoning

quyi oqimlarida hamda Qizilqum sahrosida uchraydi. Neolit davrida matriarxat jamoasi gullab yashnagan. Urug'chilik tuzumidagi ayolning rahbarlik maqomi oilasining oziq-ovqat, turmush va farzandlar tarbiyasini ta'minlashdan iborat edi. Urug' ayollari termachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishgan.

**NMANA** – katta patriarxal oila (“*Avesto*”).

**NUMIZMATIKA** (lotincha **numisma** – *tanga*) – tangalarni tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi fan; tangalarning tasvirlari, yozuvlari, og'irligi, qanday metallardan yasalganligi, pul muomalasidagi darajasi va tanga zarb qilinish tarixini o'rganadi. Numizmatika tushunchasiga yana qog'oz pullarni o'rganish (bonistika) va medal, jeton, orden hamda nishonlarni o'rganish (faleristika) ham kiradi. Birinchi metall tangalar mil. avv. VII asrda Kichik Osiyoning *Lidiya* davlatida zarb qilingan. O'rta Osiyoda birinchi tangalar (kumushdan) mil. avv. III asrda chiqarilgan. Uning yuza qismi (aversi)ga podshoning surati, orqa tomoni (reversi)ga esa har xil xudolar, muqaddas hayvonlar tasviri solingan yoki podsholarning nomi yozilib, tamg'asi tushirilgan. Numizmatika numizmatik kolleksiyadan farq qiladi. Tangalarni kolleksiya qilish XIV–XV asrlarda Italiyada paydo bo'lgan. Ilmiy numizmatika fani XVIII asrning 2-yarmida venalik *Y. X. Ekkel* tomonidan asoslangan. Numizmatika shartli ravishda Antik davr, Vizantiya, Sharq (Osiyo va Afrika mamlakatlarida, shuningdek, O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrim, Volga bo'yida o'rta asrlarda chiqarilgan tangalarni o'z ichiga oladi), g'arb (G'arbiy Yevropa hamda AQSH, Kanada va Lotin Amerikasida chiqarilgan tangalar) va rus numizmatikasiga bo'linadi. Sharq numizmatikasiga *X. D. Fren* asos solgan.

**O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI DASHT QABILALARI MANZILGOHLARI** – Nomozgohtepa, Oqtqepa, Qavat-3.

**O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI O'TROQ DEHQONCHILIK MANZILGOHLARI** – Anov, Ashkaltepa, Bandixon, Bo'yracha, Bomi, Burgumoq, Chimboy, Chust, Dalvarzintepa, Jarqo'ton, Kuchuktepa, Izzatquli, Oltintepa, Qiziltepa, Sangirtepa, Sarazm, Sopollitepa, Tohirboy-3, Yangitepa, Yerqo'rg'on, Yoztepa, Zamonbobo.

**O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI PALEOLIT YODGORLIKLARI** – Ijont, Jebel, Ko'lbuloq, Kuy-Bulyel, Obirahmat, Omonqo'ton, Qayraqqum, Qo'shilish, Qopchigay, Qora Bo'ra, Selung'ur, Siyobcha, Teshiktosh, Uchtut, Xojikent.

**O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI QADIMGI QABRISTONLARI** – Arpa, Karamko'l, Ko'kcha, Yangi qal'a, Qayroqqum, Tagisken, Tov Tari, Tulxar, Urgut, Vuodil, Zamonbobo.

**O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI ENG QADIMGI TEMIR BUYUMLAR TOPILGAN MANZILGOHLAR** – Dalvarzin, Anov, Qiziltepa, Daratepa.

**O'ZLASHTIRUVCHI XO'JALIK** – eng qadimgi odamlarning mashg'uloti bo'lib, tabiat in'om etgan narsalarni terib-termachilik yoki ovchilik orqali iste'mol qilganlar. O'rta Osiyoda o'zlashtiruvchi xo'jalik bilan qadimgi odamlar yangi tosh davrigacha mashg'ul bo'lgan.

**PALEOBOTANIKA** – qadimgi o'simliklar dunyosini o'rganuvchi fan. Ushbu fan ibtidoiy va qadimgi davr tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**PALEOLIT** (yunoncha “*paleos*” – “*qadimgi*” va “*litos*” – “*tosh*”) – qadimgi tosh davri. Eng qadimgi ibtidoiy odamlarning ilk zotlari hayot kechirgan ulkan tarixiy zamon. Eng qadimgi odamlar yasagan qurollar asosan, toshdan bo'lgani uchun insoniyat tarixining dastlabki bosqichi shu nom bilan atalgan. *Paleolit* – qadimgi va *neolit* – yangi tosh asrlariga bo'lib o'rganish dastlab 1865-yilda ingliz arxeologi *J. Lebbok* tomonidan fanga kiritilgan. Paleolit 3 davrga: **ilk paleolit** (*Olduvoy* – mil. avv. 3–2 mln. yillar; *Ashel* – mil. avv. 1 mln. – 100-mingyilliklar), **o'rta paleolit** (*Muste* – mil. avv. 100–40-mingyilliklar), **so'nggi paleolit** (*Orinyak*; *Solyutre*; *Madlen* – mil. avv. 40–12-mingyilliklar) bo'linadi.

**PALEOZOLOGIYA** – qadimgi hayvonot olamini o'rganuvchi fan.

**PATRIARXAL OILA** – erkak boshchilik qiladigan oila. Matriarxatdan patriarxatga o'tish davrida vujudga kelib, birgalikda xo'jalik yurgizuvchi qarindoshlarning bir qancha avlodidan tashkil topgan. Patriarxal oila, asosan, ilk xo'jalik jamoasi bo'lgan, uning iqtisodiy asosini yerga va ishlab chiqarish qurollariga umumiy egalik (ishlab chiqarishga ham, iste'molga ham) tashkil etgan. “*Avesto*”da “*nmana*” deb atalgan.

**PATRIARXAT** – eng qadimgi jamoa tuzumining bir davri bo'lib, unda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo'lgan, qarindoshlik munosabatlari ham ota tomonga qarab belgilangan. Patriarxatning xo'jalik faoliyati: omoch bilan yer haydash, chorvachilik, metallga ishlov berish. Bu davrda ibtidoiy jamiyat yemirilib, uning so'nggi bosqichida mulkiy tabaqalanish va davlat yuzuga kelgan.

**PETROGLIF** (yunoncha *petros* – *tosh*, *glife* – *o'yish*) – toshga o'yib tushirilgan rasmlar.

**PIKTOGRAFIYA** – rasmiy yozuv turi.

**PIRAMIDALAR MATNLARI** – qadimgi misrliklar tarixini bayon etuvchi yozma manba.

**PITEKANTROP** (yunoncha *pithekos* – *maymun*)

va **anthropos** – **odam**) – eng qadimgi qazilma odamlar. Ilk paleolit davrida – 700–600 ming yil ilgari yashagan. Neandertallardan oldin yashaganlar. Ilk paleolit madaniyatini yaratganlar. 1890–1891-yillarda golland shifokori *Ejen Dyubua* Indoneziyaning Yava orolidagi *Trinil mavzeyi* yaqinidan 4-qatlam quyi yotqiziqalarida odamning eng qadimgi ajdodiga mansub bosh miya qopqog‘i, son suyagi va uchta tishini topgan. 1973-yilda suyak bo‘laklari va yigirmaga yaqin alohida tishlar topilgan. Pitekanthrop bosh miya qopqog‘i va shakli kattaligiga ko‘ra odam va odamsimon maymun oralig‘ida turadi. Pitekanthropning miya hajmi 900 sm<sup>3</sup>ga yaqin (gorillaniki 500 sm<sup>3</sup>, hozirgi zamon odamlarida o‘rtacha 1400 sm<sup>3</sup>). Uning peshonasi nishab bo‘lib, shimpanzenikiga o‘xshaydi. Pitekanthropning topilishi antropologiyada muhim voqea bo‘ldi. Pitekanthrop qo‘lda murakkab harakatlar bajarishgan va poda-poda bo‘lib yashagan. Qo‘lda murakkab harakatlar qilish mehnat harakatiga, poda-poda bo‘lib yashash esa, jamiyatning ilk kurtagiga aylangan.

**QADIMGI DUNYO TARIXI** – jahon tarixini davrlashtirishda, asosan, *tarix fanida* yer yuzida odam paydo bo‘lganidan to 476-yilgacha, ya‘ni G‘arbiy Rim imperiyasining qulashigacha bo‘lgan davrning nomlanishi. Qadimgi dunyo tarixidan keyin o‘rta asrlar tarixi davri keladi. O‘zbekiston tarixining qadimgi dunyo tarixi davri ham taxminan shu paytni, ya‘ni Turonning eng qadimgi davlatlari tarixidan boshlab *Kushon podsholigining* tugashigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu davr har bir xalq yoki davlatning taraqqiyot qonuniyatlaridan kelib chiqib xronologik jihatdan o‘zgarishi ham mumkin.

**RIGVEDA** – Qadimgi Hindiston yozma adabiyotining qadimgi yodgorligi – *Vedalar*ning bir qismi. Vedalar 4 ta qismdan: “*Rigveda*” (qasida, madhiya, duolar to‘plami), “*Samaveda*” (qo‘shiqlar to‘plami), “*Ayurveda*” yoki “*Yajurveda*” (qurbonlik qilish yo‘llari), “*Atharvaveda*” (sehrli duolar to‘plami) yetib kelgan. Vedalar ichida eng qadimgisi bo‘lmish *Rigveda* 10 kitob (mandala)dan iborat. Bunda tabiatdagi narsa va hodisalar ilohiy kuchlar sifatida gavdalantirilib, ular sharafiga qo‘shiqlar, madhiyalar, to‘qilgan, ularga qurbonliklar keltirilgan. Insoniyat hayoti, uning baxt-saodati ana shu kuchlarga bog‘liq holda tasavvur qilingan., Rigvedaga ko‘ra, *Indra* – momaqaldiroq ilohi, *Mitra* – Quyosh tangrisi, *Varuna* – Osmon ma‘budi, *Agni* – Olov ma‘budi, *Yama* – ajal, o‘lim keltiruvchi, *Sama* – Oy ma‘budasi, *Rita* – Koinot tartibini anglatadi. “*Rigveda*” qo‘shiqlarini to‘plovchilar *rishi* (ilohiy qo‘shiqlarni to‘quvchi donishmand)lar deb atalgan. Regveda kitobida

qadimgi dunyo falsafiy tafakkurining o‘ziga xos badiiy ifodasi ko‘rinadi. Unda qadimgi hindlar olam sirlari haqida fikr yuritadi. Masalan, hech narsaga tayanmagan va yopishtirilmagan Quyosh nega qulab tushmaydi? Kechasi Quyosh qayoqqa ketadi, u qayerda? Shamol qayerda tug‘ilib, qayerga boradi? Olamning asosini nima (yoki nimalar) tashkil etadi? Rigvedada bu va boshqa ko‘plab bunday muammolar ko‘tarilgan.

**SINANTROP** (lotincha **Sina** – **Xitoy** va yunon **antropos** – **odam**) – eng qadimgi odamlar (arxantrop)ga mansub qazilma odamlar. Ilk paleolit davrida – mil. avv. 600–500 ming yil oldin yashagan. Ular Janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyoning qadimiy odamlari hisoblanadi. O‘rta pleystotsen qoldiqlaridan ilk bor 1927–1937-yillarda Xitoydan topilgan (nomi shundan olingan). Sinantrop morfologik jihatdan pitekanthroplarga yaqin, lekin ulardan miya hajmining kattaligi (1000 sm<sup>3</sup> ga yaqin), peshonasining birmuncha kengligi bilan birga ular foydalangan, ilk paleolit davriga mansub sodda tosh qurollar, ularning olovdan foydalanilganiga guvohlik beruvchi kul va hayvonlarning kuygan suyak qoldiqlari topilgan.

**SIVILIZATSIYA** – eng qadimgi shaharlar va davlatlarning tashkil topish davri; odamlar belgilangan qonunlarga rioya qilib yashagan shaharlar va davlatlar rivojlangan davrda moddiy va ma‘naviy madaniyatning ancha yuksak darajasidir.

**SOLYUTRE MADANIYATI** – Fransiya va Shimoliy Ispaniya hududidan topilgan so‘nggi paleolit (taxm. mil. avv. 18–15-mingyilliklar)ga oid madaniy yodgorlik. Uning nomlanishi dastlab topilgan joy Fransiyaning Solyutre (Sona va Luara departamenti) manzili nomidan olingan. Bu davrning asosiy xususiyati chaqmoqtoshdan nayza uchining yasalishi edi. Xo‘jaligi ovchilik bo‘lgan.

**SUG‘ORMA DEHQONCHILIK** – O‘rta Osiyo janubida (irrigatsiya asosida) vujudga kelgan dehqonchilikning turi. Eneolit davrining kashfiyoti.

**TARIX** – “*Istoriya*” degan yunoncha so‘zning arabcha aytilishi bo‘lib, uzoq-yaqin o‘tmishda sodir bo‘lgan “*tadqiqot*”, “*voqealar bayoni*” degan ma‘noni bildiradi. Tarix fani qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davrlarga bo‘lib o‘rganiladi.

**TEMIR ASRI** – insoniyatning ibtidoiy jamoa va ilk ishlab chiqarish xo‘jaligi shakllanayotgan tarixidagi davr. Fanda tosh va jez deb yuritilgan davrlardan so‘ng insoniyat hayotida sodir bo‘lgan tarixiy bosqich. Bu davr xo‘jalikda temir metallurgiyasining yuzaga kelishi, tarqalishi va temir qurollar ishlatilishi bilan belgilanadi. “Temir davri” atamasi, garchi antik dunyoda tosh, jez asri tushunchalari qatorida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, fanda XIX asrning o‘rtalarida

daniyalik arxeolog *K. Y. Tomsen* tomonidan kiritilgan. Rudadan temirni ajratib olish usuli dastlab Misr va Mesopotamiyada (mil. avv. 3-mingyillikning 1-yarmida) kashf etilgan. Keyinroq (mil. avv. 2-mingyillikning oxirida) bu usulni yunonlar bilib olishgan. Mil. avv. XI asrdan boshlab Falastin, Suriya, Kichik Osiyo, Kavkazorti, Hindiston va Xitoyda xo'jalik va harbiy qurol-aslahalar yasashda temirdan keng foydalanganlar. Mil. avv. IX–VII asrlarga kelib metallga termik usul bilan ishlov berish kash etilib, uni po'latga aylantirilishi yangi material – temirning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda temir davriga oid yodgorliklarni sanalashtirish va dastlabki turkumlarga ajratilishiga doir tadqiqotlar S.P.Tolstov, A.I.Terenojkin va Y. G'ulomovlar tomonidan amalga oshirilgan. O'zbekiston hududida temir davri yodgorliklari mil. avv. VIII–VI asrlarga mansub. Ular Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Toshkent viloyatlari va Farg'ona vodiysida o'rganilgan; *Ko'zaliqir*, *Qal'aliqir* va *Dilgilja* singari qadimgi qal'a va qishloq, shahar xorabalari, Tagisken va Uygarak qabriston-qo'rg'onlari, *Bo'kantov* qoyatosh sur'atlari tekshirilgan. Temir davrida qadimgi Xorazm hududlarida dastlabki yirik sug'orish inshootlari vujudga kelgan. 1960–1970-yillarda Surxondaryoda *Kuchuktepa*, *Jondavlat* va *Qiziltepaning* quyi qatlamlari, Pachmoqtepa, Qizilchatepa yodgorliklari o'rganildi. L.I.Albaum *Kuchuktepa*dan mil. avv. VI–IV asrlarga oid uy-joy qoldiqlari, kulolchilik, temirdan yasalgan uy-ro'zg'or va dehqonchilik buyumlarini topgan. 1960-yillarda Buxoro viloyatida *Xazora* yodgorligi va *Sarmichsoy* petrogliflari tekshirildi. Qashqadaryoda temir davriga oid *Chimqo'rg'on* yodgorligi (1972-yilda) o'rganildi. 1973-yilda *Chordara* istehkomi (Konimex tumani) va Romushtepa (Jondor tumani) tekshirildi. Temir davriga mansub arxeologik yodgorliklar Toshkent viloyatida *Burganliktepa*, *Qovunchitepa*, *Tuyabo'g'iztepa* va *Burchmulla* xazinasi, Farg'ona vodiysida esa, *Eylaton* yodgorligi va Oqtosh qabristoni asosida o'rganilgan. 1980–1990-yillardan *Ko'ktepa* (Samarqand viloyati), *Yerqo'rg'on* va *Uzunqir* (Qashqadaryo viloyati) kabi mil. avv. VII–VI asrlarga oid nodir obidalarda arxeologik qazishmalar o'tkazildi.

**TESHIKTOSH ODAMI** – Surxondaryodagi Teshiktosh g'oridan topilgan *neandertallar* vakilining suyak qoldig'i. *A.P.Okladnikov* o'rgangan (1938–1939-yillar). Ko'pgina tadqiqotchilar fikricha, Teshiktosh odami suyak qoldiqlari 8–9 yoshdagi bolaniki bo'lgan. Bola dafn qilingan joy atrofida tog' echkisining bir necha juft shoxi yotgan. Marhumni qabrga turli buyumlar bilan ko'mish, dastlabki diniy

tasavvurlarning paydo bo'la boshlaganligidan dalolat beradi. Teshiktosh odami kalla suyagining hajmi katta (1490 sm kub), uning qopqog'i pitekanthrop yoki sinantropnikiga nisbatan balandroq. Biroq hozirgi bolalarnikidan pastroq. *M.M.Gerasimov* kalla suyagi asosida Teshiktosh odamining yuz tuzulishini tiklagan (1949-yillar). 1973-yilda antropolog *V.P.Alekseyev* Teshiktosh odamini to'la o'rganib, skelet qiz bolaga tegishli bo'lib, u inson evolyutsiyasining neandertal fazasiga mansub ekanligi va Yevropa yoki Old Osiyo guruhiga kirishini bildirgan.

**TOTEMIZM** (Shimoliy Amerika hindylarining *ojibve qabilasi* tilidagi “*ototem*” – “*uning urug'i*” so'zidan) – ibtidoiy diniy e'tiqodlarning ilk shakllaridan biri. U kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari (ba'zan tabiat hodisalari, jonsiz narsalar) o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor degan e'tiqodga asoslanadi. Hayvonlar, o'simliklar, jonsiz predmetlar *totem* hisoblangan. Totemlar (ko'pincha hayvonlar) ov qilinmagan, o'ldirilmagan, go'shti yeyilmagan, ular go'yo kishilarning qudratli himoyachisi hisoblangan. Qabila, urug' har bir a'zosining hayoti va farovonligi totemga bog'liq deb qaralgan. Ular o'z totemini qarindoshi, akasi, otasi, do'sti deb hisoblagan. Har bir qabila, urug' o'z totemining nomi bilan atalgan. Totemistik e'tiqod va marosimlar muayyan ko'rinishda ko'p xalqlarda, ayniqsa, Avstraliyadagi qabilalarda saqlanib qolgan.

**TAKATOSH RASMLARI** – Molguzar tog'ining shimoliy yon bag'ridagi Takatosh dara qoyatoshlariga o'yib ishlangan tasvirlar. 1956-yilda *A. Muham-madjonov* tomonidan topilgan; 1970–1971-yillarda arxeolog *A.Kabirov* tomonidan o'rganilgan. 1000 dan ortiq rasmlar jez davrining so'nggi davri (2-mingyillik 2-yarmi – 1-mingyillikning boshi)ga mansub (keyingi davrlarda ishlanganlari ham bor), tosh, bronza va temir buyumlar bilan urib, sxematik, kontur, soya uslubida bezakli qilib o'ziga xos ishlangan. Takatosh rasmlarida qurollangan kishilarning yovvoyi hayvonlarni ov qilishi, diniy marosimlar ijrosi haqida turli manzaralar, ko'plab odamlar, yovvoyi va uy hayvonlari, turli buyumlar tasvirlangan. Takatosh rasmlari ibtidoiy va qadimgi san'atning nodir namunasi, shuningdek, muhim madaniy va tarixiy manba sifatida qimmatlidir.

**URUG'** – birgalikda yashagan va hamkorlikda mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yarog'ga ega bo'lgan qarindoshlar uyushmasi.

**URUG' JAMOALARI** – so'nggi paleolitning kashfiyotlaridan biri bo'lib, unda odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlariga bo'lingan. Bu urug'ga oqsoqol sardorlik qilgan, urug' a'zolari bitta manzilgohda yashagan.

**URUG'CHILIK JAMIYATI** – matriarxat (ona urug'i) va patriarxat (ota urug') davrlari. Bunda asosiy ishlab chiqarish vositalari bo'lgan yer, yaylov, ov qilinadigan joy va shu kabilarga qon-qardoshlik jamoasi egalik qilgan.

**VARZANA** – hududiy qo'shniçilik jamoasi ("Avesto").

**VIS** – urug' jamoasi ("Avesto"). "Avesto" da yozilishicha, katta patriarxal oila – "nmana"lar visni tashkil etgan.

**XO'JAKENT RASMLARI** – Chotqol tog' tizmasining g'arbiy yon bag'ridagi qoyatoshlarga ishlangan rasmlar. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani hududi 1949–1950-yillarda arxeolog X. Alpisboyev topgan, A. Kabirov (1970-yillar), M. Xo'janazarov (1980-yillar) tomonidan o'rganilgan. Bu noyob qoyatosh yodgorligi o'zining mazmuni, mavzusi, uslub xususiyatlari va tuzilishi jihatidan rang-barangdir. Ularning ishlanish texnikasi, uslubi, saqlanishi hamda joylanishi, shuningdek, rasm sirtining kuyish darajasi, ba'zi rasmlarning ustiga boshqa rasmlarning ishlanganligiga ko'ra, ular bir vaqtda emas, balki bir necha tarixiy davr mobaynida vujudga kelganligi aniqlandi. Demak, Xo'jakent rasmlarining eng qadimgisi mil. avv. 4–3-mingyillikka mansub, mil. avv. 1-mingyillikning 2-yarmi va milod boshlariga taalluqli rasmlar ham mavjud. Xo'jakent rasmlarida odam, it, ho'kiz, arxar, tog'echkisi, kiyik, ot, o'q-yoy, handasiy shakl va betlar tasvirlangan bo'lib, ular qattiq buyum (tosh, temir) bilan soya, oddiy chiziqlar, shakl ko'rinishi uslubida urib cho'kichlab ishlangan; rasmlar orasida boshsiz va qo'lsiz qilib ishlangan uch ayol tasviri realistik tarzda nozik ishlangan. Qadimgi san'atda ayollar tasviri va haykalchalari juda kam uchraydi. Neolit va eneolit davriga oid arxeologik yodgorliklarning ko'pchiligidan ayollar haykalchalari topilgan, lekin shu davrga oid qoyatosh rasmlarida ayol tasvirlangan yodgorlik deyarli uchramaydi. Shu sababli Xo'jakentdan topilgan uch ayol tasviri Markaziy Osiyoda neolit va eneolit davri uchun yagona va juda nodir hamda qimmatlidir. Rasmlarning aksariyati yaxshi saqlangan, ayrim rasmlargina tabiat hodisalari oqibatida yemirilgan, sinib tushgan va yorilgan. Xo'jakent rasmlari arxeologik yodgorlik, qadimgi xalq hayotining ba'zi tomonlarini hamda shu joylarning hayvonot olami tarixini o'rganishda tarixiy manba va ibtidoiy odamlarning tasviriy san'ati sifatida muhim ahamiyatga ega.

**XRONOLOGIYA** (yunon. "xrono" va "logiya") – tarixiy voqealarning davriy tadrijiyligi va vaqt o'lchovi haqidagi fan; turli-tuman voqealar sanasi xronologiya yordamida aniqlanadi va aniqlashtiriladi. Arxeologik

ma'lumotlarga asoslangan xronologiya yuz va mingyilliklar bilan o'lchanadi. Bobil, Misr, Yunoniston va Rimda shakllangan xronologiya o'rta asrlarda Turonda rivojlangan. Beruniyning 1000-yilda yozilgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida jahondagi turli xalqlar tarixi va madaniyati ixcham tarzda o'z aksini topgan. Xronologiyadagi tarixiy izchillikni fanga XVI asrda fransuz J. Skaliger kiritgan.

**YEVROPOID IRQI (Yevrosiyo irqi)** – insoniyatning asosiy katta irqalaridan biri. Terisining tiniqligi, baland bo'yi, uzunchoq boshi, ko'k ko'zi, mayin va jingalak sochlari, serjunligi (erkaklarda), oldinga turtib chiqqan ingichka burni, yupqa labi, ortognatizm (yuz va jag' suyaklarining oldinga turtib chiqmaganligi) va boshqa belgilari bilan ajralib turadi. Yevropa, Shimoliy Afrika, Old Osiyo, Shimoliy Hindistonda tarqalgan; yevropaliklarning ko'chib borishi natijasida Amerika, Avstraliya va Janubiy Afrikaga ham tarqalgan.

**YOZUV** – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400–500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4–5 ming yillar bo'lgan). Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vasitasi bo'lsa-da, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba-bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib boradi. *Rasm yozuv*, ya'ni *piktografiya* yozuv yaratish yo'lidagi birinchi qadam bo'lgan. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy san'at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Toshlariga, suyaklarga, g'or devorlariga o'yib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar – bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir. Rasmlar yordamida muayyan fikr-axborotni ifodalash, yuborish mumkin ekanligini odamlar juda qadimgi davrlarda anglab yetganlar. Shuning uchun ham rasmlar yozuv (piktografiya) dunyodagi mavjud barcha yozuvlarning kelib chiqishi uchun asos bo'lgan deyish mumkin. Rasmlarning soddalashuvi, ularning o'zlari ifoda etgan buyumlarning nomiga, ramziga aylanishi va asta-sekin bu ramzlarning og'zaki til bilan doimiy bog'lanishi yozuvning takomillashib borishini belgilab beradi. Yozuv belgilari ideografik, iyerogifik belgilar

sifatida muayyan soʻzlarning ifodachilariga aylanadi, bu yozuv “soʻz yozuvi” yoki “logografik yozuv” nomi bilan umumlashtiriladi. Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari (misr iyeroglifikasi, shumer mixxatlari, xitoy iyeroglifikasi va b.) mil. avv. 4-mingyillikning oxiridan 2-mingyilliklarning boshlarigacha boʻlgan davrda shakllangan. Yozuv tizimlari dastlab Qadimgi Sharqda vujudga kelgan. Yozuvning keyingi taraqqiyot bosqichi *boʻgʻin yozuvi* boʻlib, u mil. avv. 2-mingyilliklarning oʻrtalarida paydo boʻlgan. Tildagi soʻzlar soniga qaraganda boʻgʻinlar soni ancha kam, shuning uchun ham boʻgʻin yozuvi logografik yozuvga nisbatan sezilarli darajada oz belgilar tizimi bilan ish koʻradi. *Harf-tovush yozuvining* shakllanishi butun yozuv taraqqiyoti tarixida inqilob boʻlgan. Bu yoʻnalishdagi ilk yozuv *finikiy yozuvidir*. Finikiy alifbosining paydo boʻlishi insoniyat uchun yozuvni takomillashtirish borasida olgʻa qoʻyilgan qadam boʻlgan. Birinchi marta sof tovush yozuvi, sanoqli harflardan iborat mukammal alifboning yuzaga kelishi jamiyatdagi yozuvni biladigan kishilar doirasini kengaytirib yuborgan. Shuning uchun ham finikiy yozuvi juda tezlik bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqalgan. Bu jarayon mil. avv. IX asrdan boshlangan. Finikiyaliklar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada boʻlgan qoʻshni xalqlar mazkur yozuv bilan tanishib, tez orada uni oʻz tillariga moslashtirib olganlar. Hozirgi kunda bizga maʼlum boʻlgan harf-tovush tizimidagi yozuvlarning 4/5 qismidan koʻprogʻi finikiy yozuvidan kelib chiqqan.

**ZANTU** – qabila (“Avesto”).

**ZARAUTSOY RASMLARI** – Oʻzbekiston hududidagi eng qadimgi qoyatosh rasmlari. Hisor tizmasining janubi-gʻarbida. Koʻhitang togʻining sharqiy yon bagʻridagi Zarautsoy darasidagi ungir va kamar toshlariga ishlangan ibtidoiy sanʼatning nodir namunalari. Surxondaryo viloyatida, Termizdan 100–110 km shimoli gʻarbda. 1912-yilda *I. Fyodorov* tomonidan topilgan. Arxeolog *G. Parfyonov* (1940–45), keyinchalik *A. Roginskaya* (rassom), *A. Formozov*, *A. Kabirovlar* tomonidan

oʻrganilgan. 200 dan ortiq rasmlar mezolit, neolit va keyingi davrlarga mansub. Rasmlar chizma tarzida kontur va soya uslubida qizil angob (oxra) bilan chizilgan. Zarautsoy rasmlarida odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Hayvonlar (yovvoyi buqa, it, tulki, yovvoyi choʻchqa, burama shoxli echki, hasharot va b.), turli buyumlar (oʻq-yoy, nayza, oʻroqsimon qurollar), niqoblangan odamlar va boshqa oʻziga xos tarzda hayotiy qilib ishlangan Zarautsoy rasmlari ibtidoiy sanʼatning noyob yodgorligi sifatida yodgorliklarni muhofaza qilish “qizil kitob”ga kiritilgan.

**ZINJANTROP (*ishbilarmon odam*)** – ilk paleolit davrida – 1,5–2 million yil avval yashagan avstrolipiteklar oilasining eng qadimgi vakili. Zinjantropning bosh skeletini ilk bor arxeolog *Luis Liki* 1959-yilda **Olduvoy darasi** (*Tanzaniya*)dan topgan. Liki uning ensa qismi va kesmasi tuzilishiga koʻra dastlab *Homo* urugʻiga kiritgan va ekspeditsiya uchun mablagʻ ajratgan Boysi sharafiga **Boysi zinjantrop** deb atagan. Lekin zinjantropning morfologik tuzilishi uning hatto tosh qurol ham yasashi mumkin emasligini koʻrsatdi, shuning uchun uni Boysi “janub odami” (*Zinjanthropus boisei*) deb nomlagan. Zinjantropning bosh skeleti boʻylab pushtacha oʻtgan, kichik oziq tishlari yirik oziq tishlariga nisbatan mayda boʻlgan. Dagʻal oʻsimlik bilan oziqlangan. Olimlar zinjantropga “*Homo habilis*” – “*Ishbilarmon odam*” deb nom berganlar. Chunki u eng sodda mehnat qurollarini yasay olgan, yaʼni toshni-toshga urib mehnat qila boshlagan.

**ORINYAK MADANIYATI** – Gʻarbiy Yevropadagi soʻnggi paleolit davri madaniyati. Fransiyadagi (Yuqori Garonna departamenti) Orinyak (Aurignak) gʻori nomidan olingan. Orinyak madaniyatida tasviriy sanʼatning eng qadimiy turi *haykaltaroshlik* paydo boʻlgan. Orinyak madaniyatining ilk davrida yorma texnika takomillashgan. Ushbu davr odamlari hozirgi zamon odami tipiga (*Homo Sapiens*) tegishli boʻlgan.

## GEOGRAFIK NOMLAR

**ALTAMIR GʻORI** – Ispaniyadagi gʻor boʻlib, bu yerdan soʻnggi paleolitga oid bir necha qoya suratları topilgan.

**AMIROBOD MADANIYATI** – Qadimgi Xorazmning soʻnggi jez (bronza) davri madaniyati (mil. avv. X–VIII asrlar). *S.P. Tolstov* rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Qoraqalpogʻiston Respublikasidagi Amirobod kanali atrofidan topib tekshirgan (1937–1940). Amirobod

madaniyati *Suvyorgan madaniyati* va *Tozabogʻyob madaniyati* uygʻunlashuvi natijasida shakllangan. Bu madaniyatni yaratgan xalqlar urugʻ jamoalariga birlashib obikor dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullangan. Amirobod madaniyatining noyob yodgorliklari *Yakka-Porson 2* va *Qubod 2* yodgorliklaridan sirtiga turli shakllar chizilgan sopol idishlar, shuningdek, marjon va chigʻanoq shodalari, jezdani yasalgan taqinchoqlar, bigizlar, oʻroq hamda

o'q uchlari va ularning qoliplari topilgan. Jez ashyolarining ko'plab topilishi o'sha davrda metall quyish texnikasining rivojlanganligini, xalq xo'jaligidan tosh qurollarning mehnat qurollari sifatida siqib chiqarilganligini ko'rsatadi.

**ANOV MADANIYATI** — Ashxobod yaqinidagi Anov qishlog'i atrofida joylashgan ilk eneolit va so'nggi jez davrlariga oid qadimgi dehqonchilik manzilgohlari va shahar xarobalari. Eneolit va jez davri manzilgohlari saqlanib qolgan shimoliy va janubiy Anov tepaliklari, ayniqsa, dunyoga mashhur. Anov madaniyatini dastlab amerikalik geolog *R. Pompelli* va ingliz arxeologi *Shmidt* tekshirgan. Anov madaniyati qatlamlaridan xom g'ishtdan qurilgan binolar qoldiqlari, turli mis va temir buyum hamda zeb-ziynatlar, tosh yorg'uchoqlar, sirtiga rang-barang naqshlar ishlangan sopol idishlar hamda jamiki borliqni vujudga keltiruvchi qudrat timsoli hisoblangan ayol haykalchalari topilgan. Arxeologik qazishlar va aerofotosuratlar eneolit davridayoq O'rta Osiyo hududidagi ilk sug'orish inshootlari barpo bo'lganligini ko'rsatadi. Eneolitdan bronza davriga o'tish bosqichida sopol buyumlarga naqsh ishlash bilan birga inson va hayvonlar shaklini ham chizish keng tus olgan. Anov madaniyati yodgorliklarini boshqa mintaqa topilmalari bilan qiyosiy o'rganilishi natijasida bronza davrida, mil. avv. 3–2-mingyillik oxirlarida O'rta Osiyo janubida ilk shahar madaniyati, qadimgi Sharq tipidagi mahalliy madaniyat vujudga kelgan deb hisoblanadi.

**ASHKOLTEPA** — Chust madaniyatiga oid dehqonlarning qadimgi manzilgohi (mil. avv. 2-mingyillikning oxiri-1-mingyillikning boshlari).

**BANDIXON** — Surxondaryo vodiysidagi qadimgi yodgorlik. Bu manzilgohning dastlabki dehqonlari mil. avv. 1-mingyillikning boshlarida yashagan. U yerda ko'p xonali inshoot, bronza buyumlar, kulolchilik charxida yasalgan sopol buyumlar topilgan. Odamlar sopol idishlarni qo'lda ham yasaganlar. Bu yodgorlik aholisi ziroatchi va chorvador bo'lgan. Ularning binokorligi va hunarmandchiligi yuqori darajada bo'lgan.

**BURG'ULUQ MADANIYATI** — Toshkent vohasidagi ilk dehqonchilik manzilgohi (mil. avv. IX–IV asrlar). Bu madaniyatga tegishli yodgorlik dastlab Toshkent dengizi atrofidagi Burg'uluqsoy bo'ylab topilgani uchun Toshkent vohasidagi qadimgi dehqonchilik madaniyatiga shu nom berilgan. Manzilgohda ilk bor 1940-yilda *A. I. Terenojkin* qazish ishlarini olib borgan. Burg'uluq madaniyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida vohaning qadimgi shaharlari tashkil topgan. Burg'uluq manzilgohi Chust yodgorligiga yaqin. Bu yer aholisi yerto'lalarda

yashaganlar. Ularning qurol-yarog'lari jez va toshdan yasalgan. Burg'uluq madaniyati yodgorliklari Farg'ona vodiysidagi *Chust madaniyati*, Surxondaryodagi *Kuchuktepa*, Mirshodi, *Bandixon*, *Jarqo'ton*, Janubiy Turkmanistondagi *Yoztepa* va Shimoliy Afg'onistondagi *Tillatepa* yodgorliklariga ko'p jihatdan o'xshashdir. *A.A.Asqarov* va *M. Filanovich* Shosh moddiy madaniyat tarixini *Shoshtepa* materiallari asosida 2 bosqich — Burg'uluq madaniyatining tugallanish bosqichi (mil. avv. VI–IV asrlar) va Burg'uluq madaniyatining *Qovunchi madaniyatiga* o'tish bosqichi (mil. avv. III–II asrlar)ga ajratadi.

**DALVARZINTEPA** — so'nggi bronza davriga oid qishloq xarobasi (mil. avv. X–VIII asrlar). Chust madaniyatining eng yirik yodgorligi. Andijon viloyatining Oyim qishlog'i yonidan topilgan. Aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Donni qayta ishlash uchun yorg'uchoqdan foydalanilgan. Dalvarzintepadan topilgan temir pichoq va temir parchalar qadimgi Farg'ona aholisi metallga ishlov berish bilan ancha ilgari tanish bo'lganini ko'rsatadi. Topilmalar orasida to'qimachilikning ancha taraqqiy etganligini darak beruvchi materiallar (jez igna, bigiz, urchuq) bor.

**DARVOZAQIR** — Zarafshon daryosining quyi havzasidagi neolit davri (mil. avv. 4–3-mingyillik)da yashagan ovchi qabilalarining manzilgohi. O'. Islomov tomonidan ochilgan (1961). Bir necha qatlamdan iborat. Chaylalardan birining burchaklaridan 4 ta kattagina chuqurcha topilgan. Qazishma ishlarida topilgan har xil hayvon va qush suyaklari Darvozaqirda odamlar ov bilan shug'ullanganini ko'rsatadi. Kundalik hayotda toshdan yasalgan qurollar muhim rol o'ynagan. Darvozaqirliklarning sopol idishlari ancha mustahkam, osti yassi, tuxumsimon shaklda bo'lib, sirtiga turli xil naqshlar solingan. Darvozaqir yodgorligi ba'zi xususiyatlari bilan Xorazmdagi Kaltaminor madaniyatiga o'xshab ketadi.

**IJOND TOSH KONI** — Zarafshonning yuqori oqimidagi muste davri tosh koni.

**IYERIXON** — O'lik dengizning shimoli-g'arbida, Iordan daryosi vodiysida joylashgan shahar. Mil. avv. 7–2-mingyillikda falastindagi eng qadimiy dehqonchilik manzilgohi. Neolit va bronza davriga oid manzilgoh qoldiqlari, mustahkam qo'sh devori bo'lgan shahar xarobasi (mil. avv. XVIII–XVI asrlar), maqbaralar ochilgan. Mil. avv. 2-mingyillikning oxirlarida yahudiy qabilalar tomonidan vayron qilingan. Bibliya rivoyatiga ko'ra, Iyerixonning devorlari dushman karnaylari sadosidan ("Iyerixon karnaylari") qulab tushgan.

**JARQO'TON** — qadimgi shahar xarobasi (mil. avv. 2-mingyillikning 2-yarmi). Sherobod tumani (Sherobod daryo irmog'i Bo'stonsoy o'zaning chap sohili)da joylashgan. Sopoli madaniyatiga mansub qabilalarning jez davri yodgorligi. Jarqo'ton aholisi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining A. Asqarov rahbarligida ekspeditsiyasi qazish ishlari olib borgan (1973-yildan). Jarqo'ton (maydoni 100 ga) mudofaa devori bilan o'ralgan markaziy qo'rg'on, otashparastlar ibodatxonasi, qabriston (maydoni 20 ga), bir necha dahlardan iborat bo'lgan. Jarqo'tonda turar joy qoldiqlari, ibodatxona, kulolchilik mahallasi, metall eritiladigan ustaxonalar, 100 dan ortiq qabrlar ochib o'rganilgan. Jarqo'ton ashyolariga o'xshash yodgorliklar Surxondaryo viloyatidan tashqari Janubiy Tojikiston, Turkmaniston, Shimoliy Afg'oniston va Eron hududlarida uchraydi.

**JONBOS - 4** — O'zbekistonda birinchi topilgan neolit davriga (mil. avv. 4-3-mingyillik) oid Kaltaminor madaniyatining eng nodir va muhim yodgorligi; ovchilar va baliqchilar makoni. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tekshirgan (1938-40, 1945). Bu yerda olib borilgan qazish ishlari paytida toshdan yasalgan ko'plab mehnat qurollari va sopol idishlar topilgan: uy o'rtasida katta o'choq, uning atrofida devor bo'ylab oilaviy o'choqlar bo'lgan. Ana shunday uyda qariyb 100-120 kishi yashagan.

**JOYTUN MADANIYATI** — O'rta Osiyoning neolit davriga oid eng qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri (mil. avv. 6-5-mingyillik). Ashxoboddan 30 km shimolda joylashgan qadimgi o'troq dehqonlar qishlog'i xarobasi nomidan olingan. 1952-yildan Janubiy Turkmaniston arxeologiya kompleks ekspeditsiyasi qazish ishlari olib borgan. 10 dan ortiq yodgorliklar (*Chag'illitepa, Pessejiktepa, Cho'pontepa, Bami, Chaqmoqli, Nayzatepa, Joytun* va b.)ni tekshirgan. Bu urug'doshlik manzilgohlarining har biri 0,5-2 ga maydonni egallagan. 3 madaniy qatlamdan iborat Joytun manzilgohi (Joytun madaniyati shu nomdan olingan) to'la o'rganilgan. Uning maydoni 0,5 ga, yuqori qatlami 35-40 xonadan, o'rta qatlami 29 xonadan iborat. Joytun madaniyati Kaspiy bo'yidagi mezolit davri madaniyati asosida vujudga kelgan. U ibtidoiy dehqonchilik madaniyatining jahondagi noyob obidalaridan biri.

**KALTAMINOR MADANIYATI** — O'zbekistonda neolit davriga oid birinchi topilgan arxeologik madaniyat (mil. avv. 5-mingyillikning oxiri — 4-mingyillikning boshlari); qadimgi ovchi va

baliqchilarning Xorazmdagi neolit davri manzilgohlaridan iborat. Kaltaminor ko'li yonidan topilgan. 1939-1940-yillar va 1945-yillarda Xorazm arxeologik-etnografiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Kaltaminor yodgorliklariga *Jebel, Barok Tom, Qavat, Lavlakon, Beshbuloq, Tuzkon* yodgorliklari kiradi. Kaltaminorliklar asosan baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Tikuvchilik, kulolchilik ham rivoj topgan. Sopol idishlar qo'lda yasalgan. Odamlar daryo bo'ylarida yashaganlar. Daryo o'z oqimini o'zgartirgach, ular yangi daryo va ko'l bo'ylariga ko'chishgan. Baliqni to'r, garpun, tosh paykonlar yordamida tutganlar. Kaltaminor yodgorligiga xos mehnat qurollari va kulolchilik buyumlari Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hududlarda: Zarafshon va Amudaryoning quyi oqimlarida hamda Qizilqum sahrosida uchraydi.

**KAPOVAYA MAG'ORASI** — Boshqirdistondagi eng qadimgi davrga oid qoya rasmlar saqlanadigan manzilgoh.

**KUCHUKTEPA** — so'nggi bronza va ilk temirga mansub qo'rg'on xarobasi (mil. avv. X-V asrlar) Surxondaryo vodiysidagi Ko'hitang tog'ining janubiy yon bag'rida, Ulanbuloqsoy bo'yida, Murzarobod qishlog'i yaqinida joylashgan. Umumiy maydoni 0,5 ga. Yodgorlik 1962-yilda L. I. *Albaum* tomonidan aniqlangan. Arxeologik tadqiqot ishlari A. A. *Asqarov* tomonidan 1963-1984-yillarda olib borilgan. Kuchuktepadan qo'lda va kulolchilik chaxida tayyorlangan sopol idishlar, o'roqsimon tosh pichoqlar, bolg'alar, yorg'uchoqlar, jez pichoqlar, bigizlar, paykonlar, xanjar va suyak bigizlar topilgan. Kuchuktepa O'rta Osiyoning shimoliy hududlaridan ko'chib kelib, o'troqlashgan chorvadorlarning mudofaa devorlari bilan o'raglan manzilgohidir. Ular o'z taraqqiyotida mahalliy dehqon aholining madaniy yutuqlaridan keng foydalanganlar. Kuchuktepada hayot uzluksiz 400-500 yil davom etgan. Uning aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

**KO'KCHA MAKONI** — Tozabog'yop madaniyatiga mansub bronza davri makoni (mil. avv. XIII-XI asrlar). Xorazmdagi Ko'kcha tog'i atrofida joylashgan. 1954-1959-yillarda S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi topib o'rgangan. Ko'kcha makonida 10 ta yarim yerto'lardan iborat uy o'rinlari qazib ochildi. Yerto'lalar to'g'ri burchakli yoki dumaloq shaklga yaqin qurilgan. Yerto'lalarning sathlariga qator tik yog'och ustunlar o'rnatish uchun chuqurchalar o'yilgan. Ular ustunli yengil uy tizimini hosil qilgan. Yerto'lalardan hayvon suyaklari, o'choq qoldiqlari,



sopol idishlar va bronzadan ishlangan qurollar topilgan.

**KO'LBULOQ MAKONI** — qadimgi tosh (paleolit) davriga tegishli ko'p madaniy qatlamli yodgorlik. Ko'lbuloq makoni Qizilolmasoyning Jarsoy o'zani sohiliga joylashgan Ko'lbuloq yaqinidan (1962-yilda) topilgan. Ko'lbuloq makonini arxeologik jihatdan o'rganish ishlari 1963–1983-yillarda arxeolog *M. R. Qosimov* tomonidan davomli, keng ko'lamda olib borilgan. Uning madaniy qatlamlari 19 m gacha chuqurlikda o'rganib chiqilsa-da, qazishmalar zarang qatlam (materik)gacha yetkazilmagan. Shunga qaramay, Ko'lbuloq makoni ajdodlarimizning qadimgi tosh davrida bir necha yuz ming yillar davomida uzluksiz yashagan turar joy makoni bo'lib, u faqat O'rta Osiyoda emas, balki O'rta Sharq mintaqalari yodgorliklarining yoshini aniqlashda noyob tayanch yodgorlik hisoblanadi. Ko'lbuloq makonining yuqori qatlamlari 1,5–2 m qalinlikda so'nggi paleolit davriga oid bo'lib, u 600 m<sup>2</sup> maydonda o'rganilgan. Qazishma chuqurlashgan sari uning maydoni qisqarib borgan. Ko'lbuloq makonining yaqin 11 m qalinlikdagi o'rta qatlamlari must'ye davriga oid bo'lib, uning ostidan 0,7–0,8 m qalinlikdagi toza qumli loy qatlami topilgan. Uning ostidan esa 5 m qalinlikdagi ashel davriga tegishli quyi qatlam ochilgan. Tadqiqotchilar fikriga qaraganda, Ko'lbuloq makonida, ajdodlar hayoti quyi paleolitning so'nggi bosqichidan to yuqori paleolitning oxirigacha davom etgan, ya'ni Ko'lbuloqda hayot bundan rosa 600–700 ming yil avval boshlanib, to mil. avv. 40-mingyillikkacha davom etgan. Ko'lbuloq makonining har bir davr qatlamlaridan juda boy tosh qurollar va tegishli hayvon suyaklari topilgan. Muste va yuqori paleolit qatlamlaridan esa o'choq qoldiqlari, kuygan hayvon suyaklarining parchalari topilgan. Tosh qurollarga berilgan ishlov texnikasiga ko'ra, Ko'lbuloq tosh "industriyasi" o'ziga xos sifatlarga ega bo'lib, paleolitshunos mutaxassislar unga *Ko'lbuloq makonustaxonasi* maqomini berganlar.

**LANTYAN** — Pekin shahri yaqinidan 900 km janubi-g'arbda, Xuanxe sohilida joylashgan mavze. 1963–1964-yillarda xitoylik arxeologlar tomonidan topilgan. Bu yerdan olimlar sinantropga mansub makon topganlar.

**LASKO** — so'nggi paleolit davriga oid qoya tosh suratlar (*petrogliflar*) topib o'rganilgan Fransiyadagi g'or.

**MACHAY G'ORI** — Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida joylashgan ibtidoiy odamlar manzilgohi (mil. avv. 12–6-mingyilliklar). Ko'hitang tog'i yaqinida, Machay daryosining o'ng qirg'og'ida

joylashgan. O'.*Islomov* tomonidan o'rganilgan (1970–1971). Machay g'orining balandligi 3,5–4 m, uzunligi 8 m, kengligi 10 m ga yetadi. Ikki madaniy qatlamdan iborat: ustki qatlam mezolit davriga, tepa qatlam so'nggi mezolit va ilk neolit davriga oid. Machay g'oridan mehnat qurollari, yovvoyi hayvonlarning suyaklari, oziq-ovqat qoldiqlari chiqqan; ushbu madaniy qatlamning qalinligi 40 sm ga yetadi, bu esa shu g'orda uzoq vaqt davomida ibtidoiy odamlar yashaganidan dalolat beradi. Mehnat qurollari tayyorlashda yovvoyi hayvonlarning suyaklaridan foydalanilgan. Qurollarni (teshkichlar, kamon o'qlari) tayyorlash jarayoni birmuncha tezlashdi. Bundan tashqari, toshdan tayyorlanishi juda qiyin bo'lgan teshikli igna, ponasimon va tishli asboblardan foydalaniladigan bo'lgan. Tosh qurollar, paykonlar, botiq tig'li qurollar, keskichlar va boshqa qurol turlarining soni ortgan.

**MAYKOP QO'RG'ONI** — Kavkazda joylashgan qo'rg'on bo'lib, undan temirdan yasalgan bezaklar topilgan.

**MOJOKERTO** — bundan 1 mln 500–1 mln 200 ming yil ilgari yashagan pitekanthropning bosh suyagi, bosh suyak qopqog'i, son, jag' suyaklari va tishlari topilgan Indoneziyadagi manzilgoh.

**NAMOZGOHTEPA** — eneolit va bronza davriga oid qishloq xarobasi. Janubiy Turkmanistonning Kopetdog' etaklarida joylashgan. Maydoni 70 ga. 1949–1952-yillarda professor *B.A. Kuftin* boshchiligidagi arxeologlar guruhi qazishmalar olib borgan va butun O'rta Osiyo eneolit va bronza davriga tegishli arxeologik davriy sistemasi ishlab chiqilgan. 1950-yillarning o'rtalaridan boshlab yodgorlikni keng ko'lamda o'rganish ishi bilan *V.M. Masson* boshchiligidagi Sankt-Peterburg arxeologlar guruhi shug'ullanib kelgan. Namozgohtepa madaniy qatlamlari 6 ta xronologik bosqichlarga (*Namozgoh 1–6*) bo'lingan. Ulardan *Namozgoh 1–3* eneolit davriga, *Namozgoh 4–6* esa jez davriga oiddir. *Namozgoh-1* (ilk eneolit) davrida aholi xom g'ishtdan qurilgan bir xonali uylarda yashagan. *Namozgoh-2* (o'rta eneolit) davriga kelib, uy-joy qurilishida ko'p xonali uylar paydo bo'ladi, bu davr qishloqlarining atrofida mudofaa devorlari qad ko'tara boshlagan. *Namozgoh-3* davriga kelib (so'nggi eneolit), qishloqlarning hududi ancha kengayadi, uy-joy majmualari qoshida hovlilar paydo bo'lgan. *Namozgoh-4* davri majmualari Namozgohtepada ilk jez davrining boshlanishidan guvohlik beradi. Dehqonchilik va xonaki chorvachilik xo'jaligi, hunarmandchilikning turli sohalarida keng rivojlanadi. *Namozgoh-4* davrining so'nggi bosqichida kulollik

charxi kashf etiladi. Natijada sopol ishlab chiqarish sohasida shunday sezilarli o'zgarishlar yuz beradiki, oqibatda O'rta Osiyoning janubiy rayonlari o'z taraqqiyoti bilan ko'p jihatdan Qadimgi Sharq madaniyatiga yaqinlashib qoladi. *Namozgoh-5* bosqichida bronza davrining gullagan pallasi bo'lib, har sohada rivojlanishning yuksak darajasi kuzatiladi. Sopol idishlarning turi va xili ko'payadi. Sopolarning mutlaq aksariyati naqshsiz ishlab chiqariladi. Me'morchilikda monumental inshootlar qurish keng tus oladi. Tom ma'nodagi ilk shahar shakllanadi. *Namozgoh-5* davrida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar *Namozgoh-6* davrida yanada kengroq va chuqurroq davom etadi. Namozgohtepada so'nggi davr qatlamlari kam uchratildi. Buning boisi, aynan shu davrdan e'tiboran metropoliyalardagi shahar hayoti yangi mintaqalarga ko'chadi (mas., Murg'ob vohasi va Qadimgi Baqtriyaga).

**OBIRAHMAT G'ORI** – Muste madaniyatiga oid qadimgi manzilgoh. Toshkentdan 100 km shimoli-sharqda, Ko'ksuv tizmasi etagidagi Paltovsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Obirahmat g'orini *A.R. Muhammadjonov* va *S.K. Nasriddinov* topgan (1962-yilda). *R.H. Sulaymonov* tekshirgan. Obirahmat g'ori keng yoysimon shaklda bo'lib, eni 20 m dan ortiq; u quruq va yorug', sharqiy chekkasidagi qiyadan chuchuk suvli shalola oqib tushadi. G'orning og'zi janub tomonga qaragan. Obirahmat g'orida uzoq vaqt davomida hosil bo'lgan 21 madaniy qatlamning umumiy qalinligi 10 m. Obirahmat g'oridan nayzasimon qurollar, nukleuslar, turli xildagi tosh keskichlar, ponasimon qurollar, bigizlar topilgan. Topilmalar O'rta Osiyoda tosh davrining eng boy kolleksiyalaridan birini tashkil qiladi.

**OBISHIR G'ORLARI** – mezolit davriga oid g'orlar (mil. avv. 9–8-mingyilliklar). Farg'ona viloyati hududidagi So'x daryosining qadimgi o'zani Obishir soyning o'ng qirg'og'ida joylashgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining Farg'ona paleolit otryadi 5 ta g'orni tekshirgan (1966-yilda). Obishir-1 va Obishir-5 da qazish ishlari olib borilgan. Ularning sanasi mil. avv. 8-mingyillikka oid. Obishir-1 ning eni 25,5 m bo'lib, balandligi 12. G'ordan tosh qadama pichoqlar, mikroplastinkalar, parmalar, bigizlar, qirg'ichlar, nukleuslar topilgan. Obishir-5, Obishir-1 dan 200 m g'arbda. Uning eni 8 m, balandligi 10 m. G'orda 3 madaniy qatlam mavjud. Quyi qatlam antik davrga oid, qalinligi 1–1,20 sm. Undan so'ng qalinligi 30–40 sm lik mezolit davriga tegishli qatlam boshlanadi, unda tosh qurollar va hayvon suyaklari ko'plab uchraydi. Uchinchi qatlam ham shu davrga taalluqli bo'lib, qalinligi 3–4 m. Bu yerda tosh qurollar nisbatan ancha kam.

Obishir-5 g'ori yashash uchun qulay bo'lganligidan unda qadimda odamlar yashagan.

**OLDUVOY (Olduvay, Oldoway)** – 1959-yilda amerikalik arxeolog *Luis Liki* tomonidan topilgan Sharqiy Afrika (Tanzaniya)dagi dara. L. Liki bu yerdan *zinjantrop* odamining bosh suyagi bilan birga mayda hayvon suyaklari, to'ng'iz, antilopa suyaklari va tosh qurollarini topdi. Zinjantrop avstrolipiteklar oilasining eng qadimgi vakili bo'lib, u 1,5–2 million yil avval yashagan. Olimlar zinjantropga "*Homo habilis*" – "*Ishbilarmon odam*" deb nom berganlar. Chunki u eng sodda mehnat qurollarini yasay olgan, ya'ni toshni toshga urib mehnat qila boshlagan.

**OLTINTEPA** – bronza davriga oid shahar xarobasi (mil. avv. 3–2-mingyillik). Turkmaniston janubidagi Meana qishlog'i yaqinida joylashgan. 1929-yilda A.A. Semyonov topgan. 1930–yillarda A.A. Marushenko, 1949-yildan M. E. Masson boshchiligidagi ekspeditsiya tekshirgan. Oltintepa shimoli sharqdan janubi g'arbga cho'zilgan bo'lib, balandligi 20 m ga yetadi. Oltintepa qadimgi dehqonchilik madaniyatiga oid yodgorlikdir. Maydoni 60 ga dan ortiq. Manzilgohning atrofi qalinligi 2 m g'isht devor bilan o'ralgan bo'lib, ichida aholi yashaydigan massivlar, kulolchilik mahallasi bo'lgan. Oltintepa manzilgohida olib borilgan qazishma ishlari natijasida keng va uzun yo'llar, bir necha xumdonlar, mahobatli uy qoldiqlari, diniy inshootlar, zikkurat, mozarlar, ho'kiz va bo'ringa oltin boshi, aravaga qo'shilgan tuyaning haykalchalari, loydan yasalgan aravacha nusxasi topilgan. Bu topilmalar qadimgi O'rta Osiyoda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq qabilalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

**OMONQO'TON G'ORI** – Muste davriga oid g'or. Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi Omonqo'ton qishlog'idan 2 km sharq tomondagi Bulbulzorsoyning baland sohilida joylashgan. Arxeolog *D.N. Lev* 1947–1957-yillarda tekshirgan. 2 ta madaniy qatlam aniqlangan. Omonqo'tan g'orida yashagan odamlarning mehnat qurollari chaqmoqtoshdan yasalgan qirg'ichlar, tig'i qirali qo'pol pichoqlar, nayzasimon tosh qurollar va nukleuslardan iborat. G'ordan ko'plab hayvon (arxar, qo'ng'ir ayiq va b.) suyaklari chiqqan; suyaklar uzunasiga yorilgan, ularda olovda kuyganlik izlari bor. Omonqo'tan g'ori O'zbekistondagi eng qadimgi manzilgohlardan bo'lib, fan uchun ahamiyati katta.

**PRJEZLYATITSA** – *Praga shahri (Chexiya)* yaqinidagi manzilgoh. Bu yodgorlikdan arxantropning tishi, qadimgi hayvonlarning suyaklari va oddiy tosh qurollari topilgan.

**QAVAT-3 MAKONI** – Tozabog'yop madani-

yatiga mansub bronza davri makoni. Bu makondan bronzadan qurollar yasash ustaxonasining izlari topilgan (qoliqlar, ma'dan parchalari, qurollarning siniqlari).

**QO'SHILISH** – Bo'zsuv kanali bo'yi (Toshkent shahri hududi)dan topilgan mezolit davriga oid yodgorlik (mil. avv. 10–9-mingyilliklar).

**SANGIRTEPA** – Kitob-Shahrisabz vohasida joylashgan qadimgi manzilgoh (mil. avv. 1-mingyillik boshlari). Sangirtepa 3 gektarga yaqin hududda, atrofi mudofaa paxsa devori bilan o'ralgan. Bu yerdan ko'p xonali inshoot qoldiqlari topilgan. Ular xom g'ishtdan qurilgan. Bronza mehnat qurollari, kulolchilik charxida va qo'lda yasalgan sopol buyumlar, arpa, tariq donalari topilgan. Mahalliy aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

**SARAZM** – Zarafshon vodiysining *eneolit* va *ilk bronza davriga* oid qadimgi dehqonchilik madaniyatiga tegishli arxeologik yodgorlik (mil. avv. 3–2-mingyillik). Uning asosida keyinchalik Sarazm qishlog'i tarkib topgan. U Zarafshon daryosining tog'lar orasidan keng vodiya chiqish joyida, Oyimko'l yonida joylashgan. Sug'dshunos olim *V.A.Livshits*ning fikriga ko'ra, "*Sarazm*" atamasi sug'dcha "*sarizamin*", ya'ni "*yerning boshlanishi*", "*vohaning boshlanishi*" demakdir. Yodgorlik yassi tepachalar ko'rinishida, 100 gektarga yaqin joyni egallagan. Unda 1976-yildan tadqiqot ishlari olib boriladi. Arxeologik tadqiqot natijalariga qaraganda, Sarazm Zarafshon vodiysining eng qadimgi bobo dehqonlari maskani bo'lib, bu joyda hayot eneolitning rivojlangan bosqichidan to ilk jez davriga qadar (yaqin 1,5 ming yil) davom etgan. Sarazmda arxeologik qazish ishlari olib borish natijasida va 10 nuqtada qadimgi qishloq hayotining davomiyligini o'rganish uchun shurflar qazildi. Natijada yodgorlikda 4 ta tarixiy bosqich aniqlandi. Arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, 1-bosqich (*Sarazm-1*) mil. avv. 3400–3200-yillar, 2-bosqich (*Sarazm-2*) mil. avv. 3200–2900-yillar, 3-bosqich (*Sarazm-3*) mil. avv. 2900–2700-yillar, 4-bosqich (*Sarazm-4*) mil. avv. 2700–2000-yillar bilan belgilandi.

**SELUNG'UR G'ORI** – Farg'ona vodiysi So'x tumanidagi qadimgi manzilgoh. Selung'ur g'ori Farg'ona shahridan taxminan 100 km janubi-g'arbida, Haydarkonning g'arbiy chekkasida joylashgan. Bu ulkan g'orning chuqurligi 120 m, kengligi 34 m va balandlig 25 m. Arxeologik qazish ishlari 1980-yildan buyon olib borilyapti. G'orda 20–40 sm qalinlikdagi beshta madaniy qatlam aniqlandi. Ular biron arxeologik qoldiqlarsiz toza qatlamlar (30–100 sm) bilan bo'lingan. Bu shundan dalolat beradiki, ibtidoiy odamlar mazkur g'orda 5

marta yashaganlar va vaqt-vaqti bilan o'z maskanlarini uzoq muddatga tark etishgan. Bu yerdan tosh qurollar, hayvon suyaklari qoldiqlari va arxantrop tipidagi odam qoldiqlari (10 ta tish va yelka suyagining bo'lagi)ning boy kolleksiyasi topildi. Ushbu kolleksiyada qo'l cho'qmori, yirik tosh qirg'ichlar va pichoqlar, ko'p miqdorda o'yib-kertib ishlangan tishsimon qurollar mavjud. Ular, asosan, yashma, kremniyli chaqmoqtosh, kremniyli ohaktoshlardan tayyorlangan. Madaniy qatlamlardan 32 turdagi yirtqich, tuyoqli, mayda sut emizuvchi va kemiruvchi hayvonlarning suyak qoldiqlari topilib, tadqiq etiladi. Tadqiqotlar natijasida qadimgi davr tabiiy sharoiti, iqlimi xronologik davrini aniqlashga erishildi. Selung'ur g'oridan topilgan materiallar kompleks o'rganilib, pastki qatlamlarining sanasi 1,5 mln yil deb belgilanadi. Bunga qadar O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixi o'rta paleolit davridan (mil. avv. 100 ming yildan) boshlanardi.

**SIYOB MAKONI** – Samarqand shahridagi Siyob anhuri chap qirg'ogida joylashgan so'nggi paleolit davriga oid qarorgoh. O'zbekiston FA ning arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan topilgan (1969). Siyob makonni qazish natijasida bir necha joydan so'nggi paleolit davriga oid ko'pgina tosh qurollar chiqqan. Mehnat qurollarining barchasi chaqmoqtoshdan tayyorlangan. Qirg'ich, pichoq, chopqich, to'g'nag'ich shular jumlasidandir. Yirik toshlardan yasalgan o'choq, gulxan qoldiqlari, yarim yerto'la va yerto'la ko'rinishida makon qoldiqlari topilgan. Manzilgoh odamlari yovvoyi ot, ho'kiz, sayg'oq, kiyiklarni ovlaganlar. Arxeologlar bu yerda bir necha madaniy qatlamlarni topganlar. Qadimgi odam bir necha bor bu manzilni tark etib, yana qaytib kelgan.

**SOPOLLITEPA** – Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidan topilgan bronza (jez) asri dehqonlari manzilgohi (mil. avv. 2-mingyillik). U 1968-yilda arxeolog *L. Albaum* tomonidan topilgan. 1969–1974-yillarda *A. Asqarov* tomonidan o'rganilgan. Sopollitepaning maydoni taxminan 3 gektar. Uning 1 gektarga yaqin markaziy qismi 3 qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devorning qalinligi 2 m gacha boradi. Manzilgoh to'rtburchak shaklda bo'lgan. Arxeologlar tomonidan qal'aning ko'plab xonalari, xo'jalik bo'linmalari aniqlangan. Ularda kulolchilik kuldonlari, bronzadan yasalgan mehnat qurollari, yarog'lar, taqinchoqlar topildi. Tadqiq etish natijasida shu narsa aniqlandiki, Sopollitepa aholisi "u dunyo"ga ishonishgan. Marhumning jasadini uning shaxsiy buyumlari bilan dafn etganlar. Agar inson bedarak yo'qolsa, uning ruhini dafn etganlar. Qabrga sopol idishlar va bronza buyumlar qo'yilgan. Bunday qabrni olimlar *kenotaf*

deb ataganlar. Vaqt o'tishi bilan Sopollitepaning aholisi ko'payib, bir qismi yangi yerlarga ko'chib o'tadi. Hozirgi Sherobod yaqinida ular yangi manzilgoh quradilar. Bu manzilgoh xarobalari *Jarqo'ton* nomi bilan mashhur. Sopollitepa manzilgohidan arxeologlar oltin va bronzadan yasalgan taqinchoqlar; sirg'a va munchoqlar, tumorlar va bronzadan yasalgan oynalarni topishgan.

**SUVYORGAN MADANIYATI** – Xorazm vohasining cho'l zonasiga oid bronza davri arxeologik madaniyati (mil. avv. 2-mingyillikning 1-yarmi–1-mingyillik boshlari). Amudaryoning qadimgi deltasi o'ng tomondagi cho'l ichiga yorib kirgani uchun Suvyorgan nomi bilan atalgan. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (*S.P. Tolstov, Y. Gulomov, M. A. Itina* va b.) tomonidan tadqiq etilgan (1945–1946-yillar). Suvyorgan madaniyati qabilalari, *S.P. Tolstovning* fikricha, O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy viloyatlaridan Xorazmga kelgan yangi etnik guruh bo'lib, ularning moddiy madaniyati Janubning o'troq dehqonchilik madaniyatiga o'xshash bo'lgan. Suvyorgan madaniyati o'z taraqqiyotida 3 bosqichni (*Qamishli, Bozorqal'a, Qovunchi*) bosib o'tgan. Suvyorgan madaniyatiga oid sopol idishlar yaxshi pishirilib, sirti qizilga bo'yalgan, sirtiga to'q qizil rang gul solingan sopol parchalari, tosh yor-g'uchoqlar va dehqonchilik qurollari ham uchraydi. Ammo sopollarning sirti janubning qadimgi dehqonchilik qabilalarining sopol buyumlaridan farq qilib, asosan, to'rsimon chizma naqsh va sxematik boshoq tasviri bilan bezatilgan. Bu topilmalar mil. avv. 2-mingyillikning o'rtalarida O'rta Osiyo qabilalarining yirik ko'chishlaridan dalolat beradi. Janubiy va Janubi-Sharqiy yo'nalishlardagi 2-yirik ko'chish mil. avv. 2-mingyillikning oxiri – 1-mingyillikning boshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqichda Suvyorgan madaniyati jamoalari bo'lgan qabilalar ham faol ishtirok etgan. Arxeologik topilmalar ushbu shimoliy chorvador qabilalarning O'zboy, Atrek, Tajan, Murg'ob, Amudaryo va Sirdaryo irmoqlari bo'ylab harakat qilganliklarini ko'rsatadi. Mil. avv. 1-mingyillikning boshlariga kelib, Suvyorgan madaniyati o'rniga *Amirobod madaniyati* paydo bo'lgan.

**TAGISKEN MAQBARASI** – so'nggi bronza davriga oid arxeologik yodgorlik (mil. avv. X-VIII asrlar). Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan. 1959-yilda topilgan. 1960–1963-yillarda *S.P. Tolstov* rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Bu yerdagi maqbaralar xom g'ishtdan qurilgan. Qadimda bu maqbaralar talangan va yondirilgan. Ulardagi buyumlarning juda oz qismi, ya'ni sopol idishlar,

oltin taqinchoqlar, bronza buyumlarigina saqlanib qolgan. Bu o'rinda mulkiy tengsizlik izlari hamma narsalarda ko'rinib turadi. Chunonchi, qabila boshlig'i qabridan oltin buyumlar, oltin sirg'alar topilgan. Qabila boshlig'i bilan birga uning oila a'zolari bilan chokarlar dafn etilgan. Oddiy urug' qabrlaridan esa sodda mehnat qurollari va mis taqinchoqlari topilgan.

**TAKALISOY G'ORI** – muste davriga oid g'or (mil. avv. 40–30-mingyillik). Samarqanddan 50 km janubi sharqda, Taxtaqoracha dovonida joylashgan. Arxeolog *D.N. Lev* 1951-yilda tekshirgan. Takalasoyni g'orining uzunligi 25 m, kirish qismining balandligi 2 m. Kiraverishda 9 m<sup>2</sup> maydonchani qora tuproqli loy qatlami orasidan suyak parchalari, ko'mir qoldig'i, 3 dona uzunchoq oq tosh parrakchasi va bir qancha tosh siniqlari topilgan.

**TESHIKTOSH G'ORI** – muste madaniyatiga mansub neandertallarning makoni. Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi Turgandaryoning Zovtalashgansoy darasida, dengiz sathidan 1500 m balandlikda joylashgan. G'orning shipi teshik, nomi ham shundan, kirish qismi shimoli sharq tomonga qaragan bo'lib balandligi 7 m, eni 20 m, uzunligi 21 m. Uning umumiy maydoni 300 kv. m bo'lib, shundan 100 kv. m joyi neandertallar yashaganligidan guvohlik beruvchi arxeologik materiallarga ega. Teshiktosh g'ori yashash uchun qulayligi tufayli g'orni vaqti-vaqti bilan suv bosib turishiga qaramasdan neandertal odamlar uni butunlay tark etmaganlar. G'orni birinchi marta 1938–1939-yillarda *A.P. Okladnikov* o'rgangan. Teshiktosh g'ori 5 ta madaniy qatlamdan iborat bo'lib, bu manzilgoh bir necha marotaba tark etilganidan dalolat beradi. G'orning har bir qatlamida bittadan va ba'zilarida ikkitadan gulxan qoldiqlari saqlanib qolgan. Gulxanlar atrofida ko'plab tog' echkisi, bug'u, sirtlon, ayiq, quyon va har xil qushlarning suyak qoldiqlari, 3000 ga yaqin tosh buyum, tosh uchirindisidan tayyorlangan uchburchak shalkdagi 24 ta qurol, qirquvchi va tarashlovchi sifatida ishlatilgan 65 ta qirg'ich, paykonlar, tosh pichoqlar topilgan. Teshiktosh g'ori topilmalarining eng qimmatlisi 25 sm chuqurlikdan topilgan 9 yoshli Teshiktosh bolasidir. Bola jasadi g'orda qoidali qilib ko'milgan. Jasad atrofiga arxar shoxlari qadab chiqilgan. Odamlar e'tiqodicha, bu shoxlar bolani narigi dunyoda muhofaza qilgan. Bu qadimgi tosh asri qabrlaridan biri edi. Antropolog *M. M. Gerasimov* kalla suyagi asosida Teshiktosh bolaning yuz tuzulishini tiklagan (1949-yillar).

**TOZABOG'YOP MADANIYATI** – Xorazmdagi bronza davriga oid arxeologik madaniyat (mil. avv. 2-mingyillik o'rtalari va 2-yarmi); Tozabog'yop kanali

bilan atalgan. 1938-yilda *S.P. Tolstov* ushbu kanal yaqinidan bu madaniyatga oid manzilgohlarni topgan. Keyinchalik *Y.G'ulomov*, *M.A Itina*, *A. Asqarovlar* o'rgangan. Hozirgi kungacha 50 ta makon tekshirilgan. Tozabog'yop madaniyati Janubiy Orolbo'yi hududida mahalliy va Janubiy Ural oldidan kelgan qabilalar aralashuvidan shakllangan. Kelgindi qabilalar ta'siri antropologik tiplarda va tozabog'yopliklarning moddiy madaniyatida ko'zga tashlanadi. Ular tomi qamish bilan yopilgan kulba va yerto'lalarda yashaganlar, atrofida kanallar va qadimgi sug'orish maydonlari topilgan. Tozabog'yop madaniyati Amudaryo deltasi, Quyi Zarafshon va Qayroqqum cho'l zonasida tarqalgan. Bu hududlardan yuzlab makon va o'nga yaqin qabriston aniqlangan. Asosiy mashg'ulotlari – sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik, mehnat va harbiy qurol-aslahalar bronzadan, ba'zan toshdan yasalgan. Oyboltaquyish uchun tayyorlangan qoliplar topilgan. Tuvaksimon sopol idishlarning tagi yassi, qo'lda yasalgan, o'yma va qolipli geometrik naqsh berilgan. Tozabog'yop madaniyati kishilari urug'chilik jamiyatida yashaganlar, matriarxat an'analari saqlangan. Tozabog'yop makonlari mil. avv. 2-mingyillik o'rtalari va 2-yarmida rivoj topgan.

**TRIPOLE MADANIYATI** – *eneolit* davriga oid arxeologik madaniyat. Kiyev yaqinidagi Tripole qishlog'i nomi bilan atalgan. Sharqiy Karpat yoni va O'rta Dnepr bo'ylarida tarqalgan. Ruminiyada Kukuteni madaniyati deb yuritiladi. Tripole madaniyati yodgorliklarini XIX asrning oxirida arxeolog *V.V. Xvoyko* ochgan. Arxeolog *T.S. Passek*ning davrlashtirishi bo'yicha Tripole madaniyati 3 ta bosqichga: ilk (mil. avv. 4-mingyillik), o'rta (mil. avv. 4-mingyillik oxiri – 3-mingyillikning 1-yarmi), so'nggi (mil. avv. 3-mingyillikning 2-yarmi)ga bo'linadi. Tripole madaniyati qishloqlari doira yoki tuxumsimon shaklda joylashgan bo'lib, markazida qolgan ochiq joy mollar uchun qo'ton vazifasini o'tagan. Turar joylar ko'ndalang to'siqlar bilan alohida xonalarga ajratilgan. Xonalardan don yanchayotgan ayol haykalchasi, yorg'uchoq, bug'u shoxidan yasalgan motiga (ketmonsimon asbob), yirik xumlar, tandir va boshqa xo'jalik anjomlari, naqsh solingan sopol idishlar, mis buyumlar (bolta, to'rt qirrali bigiz, qarmoq, xanjar) topilgan. Tripole madaniyati vakillari misni Bolqon y.o. dan olib kelishgan. Tripole madaniyati vakillari, asosan, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, ovchilik va baliq ovlash bilan shug'ullangan.

**UCHTUT CHAQMOQTOSH KONLARI** – ashel, muste va yuqori paleolit davrlarida tayyorlangan tosh qurollari uchun xomashyo manbalari. Uchtut chaqmoqli konlari mil. avv. 5–4-mingyilliklarga oid.

1958-yilda Buxoro viloyati Navoiy tumanining Uchtut qishlog'i yaqinidan *Y.G'ulomov* rahbarligidagi Mohondaryo ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan topilgan va shu qishloq nomi bilan atalgan. 1961–1967-yillari *M.R. Qosimov* va 1967–80-yillar *T. Mirsoatov* tomonidan o'rganilgan. Konning umumiy maydoni 8000 m<sup>2</sup> bo'lib, shundan 1000 m<sup>2</sup> qazib o'rganilgan va 32 ta chaqmoqtosh koni ochilgan. Uchtut chaqmoqtosh konlarining tuproq qatlamidan bug'uning kurak suyagi, yog'och qurollarning izlari, shaxtalar ichidan uchi sil-liqlangan hayvon shoxlari topilgan. Chaqmoqtoshlarni tosh qurollar bilan kavlab tog' jinsidan ajratib, so'ngra og'ir vazndagi qayroq toshlar bilan urib, bir necha bo'laklarga bo'lganlar. Nam tortgan chaqmoqtosh mo'rtroq bo'lib, qurol yasash oson bo'lgan. Odamlar kon yaqinida chaqmoqtoshlardan qurollar yasab, ibtidoiy ustaxonalar vujudga keltirishgan. Bunday toshga ishlov berish joylari Qizilqumning boshqa mintaqalaridan ham topilgan. Bunga Amudaryo bo'g'ozi yaqinidagi Sultonuizdog' tosh kon makoni misol bo'la oladi. Hozirgacha Uchtut chaqmoqtosh konlaridan 35 xil tosh hamda hayvon shohidan yasalgan qurollar topildi. Bular qadimgi odamlarning Uchtut chaqmoqtosh konlaridan uzoq muddat davomida xomashyo manbai sifatida foydalanganini ko'rsatadi.

**VALLON** – 1958-yili hayvon suyaklari, tosh qurollar va ularning parchalari topilgan Fransiyadagi g'or.

**VERTESHSELLESH** – arxantropning tishi, qadimgi hayvonlarning suyaklari va oddiy tosh qurollari topilgan Budapesht (Vengriya) shahri yaqinidagi voha.

**XO'JAKENT MAKONI** – muste (o'rta paleolit) davri g'orlari. Hozirgi Xo'jakent qishlog'i (Toshkent viloyati) yaqinidagi qoyatoshlar orasidan topilgan (1957-yilda). Bir-biriga yondosh 2 ta ungurdan iborat. 1-ungurdan 36 m kvadrat maydon ochilib, uning 1–2-qatlamlari ilk o'rta asrlarga oid sopol idishlarning siniqlari va bir necha tosh qurollar, 3-quyi qatlamidan esa, Muste davriga oid sariq harsangtosh bo'laklari va ko'pgina tosh qurollar topilgan. 10 dan ortiq yirik tosh, shuningdek, mayda nukleuslar uchraydi. Xo'jakent makonidan tosh parrakcha, qirg'ich, o'choq o'rni, uning atrofida qoraygan toshlar va qadimgi hayvonlarning suyak qoldiqlari, 2-ungurdan esa har xil tosh qurollar va hayvon suyaklari topilgan. Xo'jakent maydonida yashagan neandertallar ovchilik va termachilik bilan kun kechirgan.

**YAKKA PORSON** – Xorazm dehqonlarining mil. avv. IX–VIII asrlar manzilgohidir. Bu yerdan

yarim yerto'la shaklidagi uylar, mehnat qurollari, sopol buyumlar va taqinchoqlar topilgan.

**YANGITEPA** – Qashqadaryo vohasidan topilgan manzilgoh (mil. avv. 1-mingyillik boshlari).

**ZAMONBOBO** – so'nggi bronza davriga oid mil. avv. 2-mingyillikda yashagan qadimgi chorvador o'troq dehqonlar manzilgohi va qabristoni. O'zbekiston hududidagi dastlabki qishloq xarobasi. Buxoro viloyati Qorako'l tumani markazidan 15 km shimoli g'arbda joylashgan Zamonbobo ko'li sohilidagi makon. *Y. G'ulomov* (1950–1951, 1953–1954-yillar), *A. Asqarov* (1961, 1964-yillar) arxeologik qazish ishlari olib borgan. Qazuv ishlari natijasida yarim yerto'la chayla-uy qoldiqlari, uy hayvonlari va yovvoyi hayvon suyaklari, bug'doy, arpa donalari, toshdan yasalgan yorg'uchoqlar, chaqmoqtoshdan yasalgan o'troq va sopol idishlar topilgan. Ilk bor bu yerdan mis ko'zgulari va taqinchoqlar topilgan. Bu topilmalar bronza davridayoq odamlarning dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangani, qoramol, tuya, ot, qo'y, echkilarni qo'lga o'rgatishganidan dalolat beradi. Zamonbobo makoni atrofida qabriston topilib, 45 dan ortiq qadimgi qabr ochilgan. Erkaklar qabrlaridan olingan topilmalar orasida ko'proq sopol idishlar, chaqmoqtoshdan ishlangan o'q uchlari va nayza paykonlari uchraydi. Ayollar qabrlaridan qimmatbaho toshlardan yasalgan munchoqlar va marjonlar, mis ko'zgulari topilgan.

**CHAQMOQLI** – neolit davri makoni (mil. avv. 6–5-mingyillikka oid). Ashgabaddan 40 m chaqirim yerda topilgan. Tadqiqot ishlari natijasida bu yerdan paxsali bir xonali uylar topilgan. Uylar ichidan chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollari, sopol parchalari topilgan. Chaqmoqli O'rta Osiyoning aholisi ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tgan dastlabki qishloqlaridan biri hisoblanadi.

**CHIMBOY** – Chust madaniyatiga oid dehqonlarning qadimgi manzilgohi (mil. avv. 2-mingyillikning oxiri–1-mingyillikning boshlari).

**CHJOUKODYAN** – arxeologlar kanadalik *Blek* va xitoylik (Pen-Ven) *Chjun* tomonidan arxantropolarga mansub odamlarning qoldiqlari, makonlari va mehnat qurollari topilgan Xitoydagi g'or.

**CHUST MADANIYATI** – Farg'ona vodiysidagi qadimgi dehqonchilik madaniyati (mil. avv. 2-mingyillik oxiri–1-mingyillik boshlari). Dehqonlar suv bo'yidagi unumdor yerlarni o'zlashtirishiga qarab alohida voqa yoki guruh tarzida joylashganlar. Chust madaniyati yodgorliklari, asosan, Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy tumanlarida uchraydi, ularning soni hozirda 80 dan ortiq. Bu madaniyatga oid birinchi yodgorlik 1950-yilda toshkentlik arxeologlar *M.E. Voronet* va *V.I. Speshevskiy*lar tomonidan hozirgi Chust shahri yaqinidan topilgan. Madaniyat nomi shundan (mahalliy aholi bu onamozor deb ataydi). 1953–1961-yillarda *V.I. Speshevskiy* Chust madaniyatida muntazam arxeologik tekshirish ishlari olib borgan. Ziroatchilarning dastlabki manzilgohlari Dalvarzintepa, Ashkoltepa, Chimboy yodgorliklarida o'rganilgan. Dalvarzin va Chust mudofaa inshootlari bilan o'ralgan yodgorlik bo'lgan. Andijon viloyati Jalaquduq tumanidagi Dalvarzin vodiysidagi ilk shahar va o'ziga xos markaz bo'lgani (mil. avv. XII–VII asrlar) arxeologik jihatdan isbot qilingan. Hozirgi kunda Chust madaniyatida 3 xil turdagi yashash joylari kavlangan: Chaylaga o'xshash yengil uylar; yerto'lalar; g'isht-paxsadan qurilgan uylar. Chust madaniyati sohiblari asosan, ilk sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, metal (jez)ga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik bilan shug'ullanganlar; ovchilik, baliq ovlash ham xo'jalikda muhim rol o'ynagan. Chust yodgorligining dastlabki ziroatchi qabilalari turmushi, hunarmandchiligi yuqori darajada bo'lgan. Bronza o'roqlar, pichoq, bigiz, ko'zgulardan bundan guvohlik beradi. Ular tosh qurollardan ham foydalanganlar. Bu davrda chustliklar sopol buyumlarni kulolchilik charxida emas, qo'lda yasashgan. Yodgorliklardan arpa, bug'doy, tariq donlari va ular uchun kovlangan o'ralar topilgan. Hozirda Chust madaniyatining o'ziga xos mahalliy xususiyatlari va qo'shni hududlar Toshkent vohasidagi Burg'uluq madaniyati, Janubiy O'zbekistonning Kuchuktepa bilan aloqalari o'rganilmoqda.

## TARIXIY SANALAR

**3–3,5 mln yil ilgari** – mil. IV–V asrgacha – eng qadimgi davr tarixi.

**3–3,5 mln yil ilgari** – yer yuzida odamzod paydo bo'ldi, tosh cho'qmor quroli yaratilgan.

**Mil. avv. 3–2 mln yilliklar** – *Olduvay davri*.

**2,5 mln yil avval** – Afrika hududida (Tanzaniya)

eng qadimgi odam (*xomo xabilis*) suyaklarining topilishi.

**2 mln – 100 ming yil** – Yevropa arxantropolari yashagan.

**1 mln 500 – 1 mln 200 ming yil ilgari** – *Mojo-kertodan* topilgan pitekantrop bola yashagan davr.

**1 mln – 400 ming yillar oralig‘i** – O‘zbekistonning *Seleng‘ur, Ko‘lbuloq, Bo‘riqazigan, Tandir-qazigan, Guldara* va boshqa joylaridan odamlarning suyak qoldiqlari va tosh qurollari topilgan.

**700–600 ming yil ilgari** – *pitekantrop*lar yashagan davr.

**Mil. avv. 700/500–100-mingyilliklar** – O‘rta Osiyoda ilk paleolit davri. O‘rta Osiyo hududida odam hayotining ilk qadamlari aniqlangan.

**Mil. avv. 700-mingyillik** – Yevropada ibtidoiy odamning paydo bo‘lishi.

**Mil. avv. 600–500-mingyilliklar** – Xitoydagi *Chjoukoutyan* g‘oridan sinantrop suyaklarining topilishi.

**Mil. avv. 200-mingyillik** – *Ko‘lbuloq manzilgohida* ibtidoiy odamlar yashay boshladi.

**Mil. avv. 1 mln – 100- mingyilliklar** – ilk paleolit davri.

**Mil. avv. 100–40-mingyilliklar** – o‘rta paleolit davrida *neandertal* qiyofali odamning tarqalishi. Odam tabiiy olovdan foydalanishni o‘rgandi.

**Mil. avv. 40–35-mingyilliklar** – urug‘ jamoasi paydo bo‘ldi, Yer yuziga tarqalgan odamzod uchta katta irqqa – qora, sariq va oq irqqlarga bo‘lingan.

**Mil. avv. 40–12-mingyilliklar** – so‘nggi paleolit davrida toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollari yasash usullari o‘zgardi. Eng qadimgi diniy tasavvurlar paydo bo‘ldi va irqqlar vujudga keldi. Bu davrda hozirgi qiyofadagi odam – *kromanyon odami* yashagan. So‘nggi paleolit davri odamlarining muhim ixtirosi bu – turar joylar qurilishidir. Inson bu davrda hayvonlar terisidan kiyim-kechak tayyorlashni, olovni sun‘iy tarzda hosil qilishni o‘rganib oldi.

**Mil. avv. 35–30-mingyilliklar** – *ona urug‘i (matriarxat)* davrining boshlanishi.

**Mil. avv. 35–12-mingyilliklar** – tasviriy san‘atning vujudga kelishi.

**Mil. avv. 25–30-mingyilliklar** – odamlar ancha takomillashgan kesuvchi, arralovchi, parmalovchi mehnat qurollari va taqinchoqlar: munchoqlar, tumorlar uzuklar yasay boshladilar.

**Mil. avv. 12–7-mingyilliklar** – mezolit (o‘rta tosh) davri boshlandi. Mezolit davrining boshlanishi iqlim ancha ilishiga va odamlar turmushida ancha o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. O‘q va yoy kashf etildi. O‘q va yoyning kashf etilishi bilan chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyati paydo bo‘ldi. It birinchi bo‘lib uy hayvoniga aylandi. Mezolit davrining oxirida Old Osiyoda xo‘jalikning yangi tarmoqlari – ibtidoiy omochli ziroatchilik va ibtidoiy chorvachilik vujudga keldi.

**Mil. avv. 10–6-mingyilliklar** – Yevropada mezolit davri. O‘q-yoyning kashf etilishi.

**Mil. avv. 9–8-mingyilliklar** – Old Osiyoda dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi. Falastinda joylashgan *Iyerixon* dehqonchilik manzilgohi eng qadimiylardan biri hisoblanadi.

**Mil. avv. 6–4-mingyilliklar** – neolit (yangi tosh) davrida inson ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka – ziroatchilik va chorvachilikka o‘tdi. Ziroatchilik vujudga kelgan, loydan idish-tovoqlar yasalgan. Neolit davrida aksariyat qabilalar o‘troq turmush tarziga o‘tib, doimiy turar joylar qura boshlagan. Paxsa imoratlar qurish boshlandi. Asta-sekin urug‘ jamoalarining o‘troq manzilgohlari shakllanib bordi. O‘troq turmush tarzi va mehnat qurollarining yanada takomillashishi jamoalarning ziroatchilik va dehqonchilikka o‘tish imkoniyatini vujudga keltirdi. O‘troqlikka o‘tilishi hunarmandchilik rivojiga zamin yaratdi.

**Mil. avv. 6-mingyillik** – O‘rta Osiyo (Janubiy Turkmaniston)da dehqonchilik va chorvachilik vujudga keldi. Sopol buyumlar yasash boshlandi.

**Mil. avv. 6–5-mingyilliklar** – *Joytun madaniyati*. O‘rta Osiyoda qadimgi dehqonlar va chorvadorlarning dastlabki o‘troq makonlari. O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlarida aholi ziroatchilikka o‘tdi.

**Mil. avv. 5-mingyillik oxiri – 4-mingyillik boshlari** – Xorazmdagi neolit davri qadimgi ovchi va baliqchilarning manzilgohi *Kaltaminor madaniyati*.

**Mil. avv. 4-mingyillik** – Qadimgi Sharqda ilk davlatlar va shaharlar vujudga kela boshladi. O‘rta Osiyo janubida sug‘orma dehqonchilik (irrigatsiya asosida) vujudga keldi, xom g‘ishtdan qurilgan ko‘p xonali uylar qurila boshlandi, buyumlarni pishirish uchun *kulolchilik xumdonlaridan foydalanishga* kirishildi. Sopol buyumlar hayvonlar, qushlar va o‘simliksimon naqshlar (yaproqlar, gullar) bilan bezatiladigan bo‘ldi.

**Mil. avv. 5–4-mingyilliklar** – O‘rta Osiyo aholisi Qadimgi Sharqning turli o‘lkalari bilan yaqin aloqalarda bo‘lishi.

**Mil. avv. 4–3-mingyilliklar** – eneolit (mis tosh) davrida misdan yasalgan mehnat qurollari, yirik manzilgohlar va bir xonali uylar paydo bo‘ldi. *Anov madaniyati* (Janubiy Turkmaniston): dastlabki xom g‘ishtdan qurilgan uylar; dehqonlarning dastlabki ibodatxonalari; kulolchilik xumdonlari va naqshli sopol buyumlar (qush, hayvon va o‘simlik naqshlari).

**Mil. avv. 3-mingyillik** – Ukraina hududida dastlabki ziroatchilar makonlari (*Tripolskaya* madaniyati).

**Mil. avv. 3-mingyillik o‘rtalari** – janubiy-g‘arbiy Eron, Mesopotamiyada jez qurollardan foydalanishning boshlanishi.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri–2-mingyillik** – Suriya, Kichik Osiyo, Kipr va Kritdajez qurollardan foydalanishning boshlanishi.

**Mil. avv. 3–2-mingyilliklar** – O‘zbekiston aholisi bilan Qadimgi Sharq qabilalari o‘rtasida keng madaniy aloqalar boshlangan.

**Mil. avv. 3–2-mingyilliklar** – bronza davrida kulolchilik charxi va g‘ildirak kashf etildi, ot xonakilashtirildi. Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi Zamonbobo ko‘li bo‘ylarida yashagan chorvadorlar va dehqonlarning qadimiy madaniyati – *Zamonbobo* hamda qadim ziroatchilarining manzilgohi *Sarazm* yodgorligi.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – *patriarxat* davri boshlandi.

**Mil. avv. 3-mingyillik o‘rtalari** – bronza asosiy xomashyoga aylanib qoldi. *Chorvachilik dehqonchilikdan* ajralib chiqdi. O‘rta Osiyoning janubida dehqonchilik, shimolda chorvachilik rivojlandi. Odamlar termachilik va ovchilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o‘tdilar.

**Mil. avv. 2-mingyillik** – *Sopollitepa, Jarqo‘ton, Tozabog‘yob* kabi yirik manzilgohlarning tashkil topishi; O‘zbekiston hududida ziroatchilikning joriy bo‘lishi, xom g‘isht va paxsa manzillar qurilishi, ziroatchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi.

**Mil. avv. 2-mingyillik** – jezdani Misr, Yevropa va Hindistonda foydalanish boshlangan.

**Mil. avv. XIV–XII asrlar** – temirdan birinchi bo‘lib Kichik Osiyodagi xetlar, so‘ngra qo‘shni mamlakatlar (Mesopotamiya, Eron va Kavkazorti) xalqlari foydalana boshladi.

**Mil. avv. 1-mingyillik** – Sharqda qadimgi dunyoning yirik davlatlari gullab yashnagan kezlarda, O‘rta Osiyo xalqlari bilan madaniy ta‘sir va ayirboshlash ayniqsa, kuchayadi.

**Mil. avv. 1-mingyillik boshi** – O‘rta Osiyoda aholi 4 guruhga ajragan: *kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar*.

**Mil. avv. 1-mingyillik boshlari** – temirdan mehnat qurollari yashash imkoniyati paydo bo‘ldi.

**Mil. avv. X–VIII asrlar** – *Amirobod madaniyati*.

**Mil. avv. IX–VIII asrlar** – O‘rta Osiyoda temir davri boshlanishi. Eng qadimgi temirdan yasalgan buyumlarning uchrashi. Ko‘chmanchi chorvador qabilalarning ajralib chiqishi.

**Mil. avv. IX–IV asrlar** – *Burg‘uluk madaniyati*.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – O‘rta Osiyoda dastlabki temirdan yasalgan buyumlarning topilishi.

**Mil. avv. VI–V asrlar** – Kichik Osiyo shaharlarida yashagan yunonlar yurtimizning aholisi, viloyatlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lganlar.

**Mil. avv. 521–518-yillar** – Shoh *Doro I* farmoni bilan Erondagi Kirmonshoh shahri yaqinida qoyatoshga *Behustun bitiklarining* chekilishi.

**Mil. avv. 490–424-yillar** – Qadimgi yunon tarixchisi, forsalar, yunonlar, misrliklar, skiflar va

O‘rta osiyolik xalqlar tarixiga oid “*Tarix*” asari muallifi *Gerodotning* hayot faoliyati.

**Mil. avv. V–IV asrlar** – O‘rta Osiyo xalqlari yozuvlarining yaratilishi. Xorazm yozuvlari shakllangan.

**Mil. avv. IV asr** – Qadimgi yunon tarixchisi *Ktesiyning* hayot faoliyati.

**Mil. avv. III–II asrlar** – Sug‘d yozuvi shakllangan.

**Mil. avv. II asr oxiri–I asr boshlari** – xitoylik tarixchi, “*Tarixiy yilnomalar*” asarining muallifi *Sima Szyangning* hayot faoliyati.

**Mil. avv. I asr** – Qadimgi yunon geografi va tarixchisi, “*Geografiya*” asarining muallifi *Strabonning* hayot faoliyati.

**Mil. avv. I asrlar – milodiy I asrlar** – O‘zbekistonda ko‘plab tangalar topilishi.

**Milodiy I asr** – Qadimgi Rim tarixchisi, “*Buyuk Aleksandr tarixi*” asarining muallifi *Kvint Kursiy Rufning* hayot faoliyati.

**Milodiy I–IV asrlar** – Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida yaratilgan madaniyat sug‘diylarning yangi yerlarni o‘zlashtirish faoliyati va sug‘d savdogarlarining Buyuk Ipak yo‘lidagi harakatlari bilan bog‘langan.

**Milodiy 95–175-yillar** – Qadimgi Rim tarixchisi, “*Iskandarning harbiy yurishlari*” asarining muallifi *Arrianning* hayot faoliyati.

**Milodiy 476-yil** – G‘arbiy Rim imperiyasi quladi va qadimgi dunyo tarixi nihoyasiga yetdi.

**1675-yil** – fransuz olimi *F. Bernye* ilk bor irq tushunchasini qo‘llagan.

**XIX asr** – Belgiya, Ispaniya va Germaniyadan qadimgi odamlarning manzilgohlari topilgan.

**1800-yil** – fransuz tabiatshunos olimi *Jorj Kyuvye* fanga oq (yevropoid), sariq (mongoloid) va qora (negroid) irq tushunchasini kiritdi.

**1890–1891-yil** – golland shifokori *Ejen Dyubua* Indoneziyaning Yava orolidan pitekanthrop odamini topdi.

**1907-yil** – *Geydelberg* shahri va *Mauer* qishlog‘idan ehg qadimgi odamning suyaklarini topilishi.

**XX asrning 2-yarmi** – Sharqiy Afrikada insoniyatning dastlabki vakillarining qoldiqlari *Olduvoy* darasidan, Keniyaning *Koobifor*, Habashistonning *Turkona* ko‘li, *Omo* daryosi sohilidan topilgan.

**1938-yil** – arxeolog Okladnikov *Teshiktosh* g‘oridan 8–9 yoshli neandertal bolaning suyaklarini topdi. Neandertal bolaning suyaklarini antropolog *M.M. Gerasimov* tikladi.

**1958-yil** – Fransiyaning Vallon g‘oridan hayvon suyaklari, tosh qurollar va ularning parchalari topilgan.



## TESTLAR

- 1. Qadimgi bitiklar bilan qaysi fan shug'ullanadi?**  
 A) numizmatika  
 B) arxeologiya  
 S) antropologiya  
 D) epigrafika
- 2. Numizmatika – bu ...**  
 A) tilshunoslik fani  
 B) tangashunoslik fani  
 S) qazishmalar fani  
 D) bitikshunoslik fani
- 3. Eng qadimgi shaharlar va davlatlar tashkil topish davrini olimlar nima deb ataydilar?**  
 A) sivilizatsiya  
 B) diktatura  
 S) demokratiya  
 D) respublika
- 4. Dastlabki sivilizatsiya tarixi qayerdan boshlangan edi?**  
 A) Qadimgi Yunoniston  
 B) Qadimgi Rim  
 S) O'rta Osiyo  
 D) Qadimgi Sharq
- 5. Qadimgi dunyo tarixi qaysi voqeagacha davom etgan?**  
 A) Garbiy Rim imperiyasining qulashi  
 B) Sharqiy Rim imperiyasining qulashi  
 S) Yer yuzida odamning paydo bo'lishi  
 D) Eng qadimgi shaharlar va davlatlarning tashkil topishi
- 6. Qadimgi dunyo tarixi qaysi manbalar asosida o'rganiladi?**  
 A) arxeologik va antropologik  
 B) etnografik va lingvistik  
 S) numizmatik va yozma manbalar  
 D) arxeologik va yozma manbalar
- 7. Qadimgi dunyo tarixini o'rganishda qaysi yozma manbalar katta ahamiyat kasb etadi?**  
 A) O'rta Osiyo tarixchi va geograflarining asarlari  
 B) Hind va Xitoy tarixchi va geograflarining asarlari  
 S) Yunon va Rim tarixchi va geograflarining asarlari  
 D) Yunoniston, Rim imperiyasi va Xitoy tarixchi va geograflarining asarlari
- 8. Qadimgi dunyo tarixi qanday yozma manbalarda o'z aksini topgan?**  
 A) Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim saroy ayonlari va podsholarining turli yilnomalari, qonunlar majmui, biografiyalarida  
 B) Qadimgi Sharq saroy ayonlari va podsholarining turli yilnomalari, qonunlar majmui, biografiyalarida
- 9. Qadimgi dunyo tarixining yozma manbalarida nimalar haqida hikoya qilinadi?**  
 A) yurishlar va janglar haqida hikoya qilinadi  
 B) ibodatxonalar, saroylar va qal'alar qurilishi haqida hikoya qilinadi  
 S) qadimgi fanlar va san'at haqida hikoya qilinadi  
 D) yurishlar va janglar, ibodatxonalar, saroylar va qal'alar qurilishi, hunarmandchilik va dehqonchilik, qadimgi fanlar va san'at haqida hikoya qilinadi
- 10. "Marhumlar kitobi" va "Piramidalar matnlari" qaysi xalq tarixi haqida hikoya qiladi?**  
 A) yahudiylar tarixi  
 B) hindlar tarixi  
 S) O'rta Osiyo xalqlari tarixi  
 D) misrliklar tarixi
- 11. Quyida ko'rsatilgan manbalardan qaysi biri yahudiylar tarixi haqida ma'lumot beradi?**  
 A) "Avesto"  
 B) "Bibliya"  
 S) "Rigveda"  
 D) "Marhumlar kitobi"
- 12. "Rigveda" – bu ...**  
 A) hindlar tarixidan hikoya qiluvchi yozma manba  
 B) misrliklar tarixidan hikoya qiluvchi yozma manba  
 S) yunonlar tarixidan hikoya qiluvchi yozma manba  
 D) yahudiylar tarixidan hikoya qiluvchi yozma manba
- 13. Quyida ko'rsatilgan manbalardan qaysi biri O'rta Osiyo xalqlari haqida hikoya qiladi?**  
 A) "Bibliya"  
 B) "Rigveda"  
 S) "Marhumlar kitobi"  
 D) "Avesto"
- 14. Yilnomalar – bu ...**  
 A) urushlarni qayd etib borilishi  
 B) voqealarni yilma-yil qayd etib borilishi  
 S) hukmdorlarni qayd etib borilishi  
 D) sulolalarni qayd etib borilishi
- 15. Qazishma ishlarini olib boruvchi olimlar nima deb nomlanadi?**  
 A) arxeolog  
 B) antropolog

- C) etnograf  
D) lingvist
- 16. Antropolog olimlar qanday ishlar bilan shug'ullanadi?**  
A) qadimgi odamlarning suyaklarini tiklaydi  
B) qadimgi odamlarning yashash joylarini aniqlaydi  
S) qadimgi odamlarning tillarini o'rganadi  
D) qadimda tangalarni o'rganadi
- 17. Qadimgi odamlarning urf-odatlarini o'rganuvchi fan nima deb ataladi?**  
A) antropologiya  
B) arxeologiya  
S) etnografiya  
D) lingvistika
- 18. Qadimgi tillarni o'rganuvchi olimlar – bu ...**  
A) etnograflar  
B) antropologlar  
S) arxeologlar  
D) lingvistlar
- 19. Quyidagi qaysi javob moddiy manbalarga taaluqli emas?**  
A) sopol idishlar  
B) mehnat qurollari  
S) zeb-ziynat buyumlari  
D) kitoblar
- 20. O'zbekiston tarixining eng qadimgi yozma manbasini aniqlang.**  
A) Behistun yozuvlari  
B) "Avesto" kitobi  
S) Gerodotning "Tarix" kitobi  
D) Strabonning "Geografiya" asari
- 21. Ma'lumki, fors shohi Doro I o'zining Behistun bitiklari orqali o'rta osiyoliklar haqida xabar bergan. Bu yozuvlar yozilgan Behistun qoyalari qayerda joylashgan?**  
A) Erondagi Kirmonshoh yaqinida  
B) Erondagi Tehron shahri yaqinida  
S) Iroqdagi Basra shahri yaqinida  
D) Iroqdagi Bag'dod shahri yaqinida
- 22. Doro I o'zi yozdirgan Behistun bitiklari qaysi tillarda yozilgan?**  
A) fors, arab, bobil  
B) fors, bobil, oromiy  
S) fors, arab, yunon  
D) fors, bobil, elam
- 23. Gerodot nechanchi asrda yashab o'tgan?**  
A) mil. avv. IV asr  
B) mil. avv. V asr  
S) mil. avv. VI asr  
D) mil. avv. III asr
- 24. Buyuk yunon tarixchisi Gerodotning mashhur asarini aniqlang.**  
A) "Umumiy tarix"  
B) "Tarix"  
S) "Buyuk Aleksandr tarixi"  
D) "Tarixiy yilnomalar"
- 25. Mil. avv. V–IV asrlarda yashagan tarixchilarni aniqlang.**  
A) Ktesiy va Sima Szyan  
B) Ksenofont va Strabon  
S) Sima Szyan va Gerodot  
D) Ktesiy va Ksenafont
- 26. Strabonning eng mashhur asarini aniqlang.**  
A) "Geografiya"  
B) "Umumiy tarix"  
S) "Tarix"  
D) "Buyuk Aleksandr tarixi"
- 27. Strabon nechanchi asrda yashab o'tgan?**  
A) milodiy I asr oxiri  
B) milodiy I asr o'rtasi  
S) milodiy I asr boshi  
D) mil. avv. I asr oxiri
- 28. Quyidagi qaysi asar buyuk xitoy tarixchisi Sima Szyan qalamiga mansub?**  
A) "Geografiya"  
B) "Umumiy tarix"  
S) "Tarix"  
D) "Tarixiy yilnomalar"
- 29. Mashhur Xitoy tarixchisi Sima Szyanning "Tarixiy yilnomalar" nomli asari yurtimiz haqida qanday ma'lumotlarni beradi?**  
A) yurtimizning qadimgi aholisi haqida ma'lumotlarni beradi  
B) yurtimizning qadimgi davlatlari haqida ma'lumotlarni beradi  
S) yurtimizning tabiati haqida ma'lumotlarni beradi  
D) yurtimizning qadimgi aholisi va davlatlari haqida ma'lumotlarni beradi
- 30. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufning asarini belgilang.**  
A) "Geografiya"  
B) "Umumiy tarix"  
S) "Tarix"  
D) "Buyuk Aleksandr tarixi"
- 31. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf nechanchi asrda yashagan?**  
A) mil. avv. IV asr  
B) mil. avv. V asr  
S) mil. avv. VI asr  
D) milodiy I asr
- 32. Yunon tarixchisi Arrianning yozgan asarini aniqlang.**  
A) "Buyuk Aleksandr tarixi"  
B) "Tarix"

- S) "Umumiy tarix"  
 D) "Aleksandrning harbiy yurishlari"
- 33. Yunon tarixchisi Arrian nechanchi asrda yashagan?**  
 A) milodiy I asr  
 B) milodiy II asr  
 S) milodiy III asr  
 D) milodiy IV asr
- 34. Quyidagi qaysi tarixchilar Makedoniyalik Aleksandrning Markaziy Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni beradi?**  
 A) Ksenofont va Ktesiy  
 B) Kvint Kursiy Ruf va Arrian  
 S) Gerodot va Strabon  
 D) Strabon va Kvint Kursiy Ruf
- 35. "Avesto", Behistun bitiklari va yunon-rim tarixchilarining asarlarida o'lkamiz haqida qanday ma'lumotlar beriladi?**  
 A) o'lkamizda yashagan qadimgi xalqlar, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llar, afsonaviy qahramonlar va podsholar nomlari, mamlakatimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risida  
 B) o'lkamizda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar haqida  
 S) o'lkamiz madaniyati, san'ati va ilm-fani haqida  
 D) o'lkamizning tabiati, qadimgi xalqimizni urfodatlar haqida
- 36. Qadimgi so'g'd yozuvi qaysi asrlarda shakllangan?**  
 A) mil. avv. V-IV asrlarda  
 B) mil. avv. IV-III asrlarda  
 S) mil. avv. II-I asrlarda  
 D) mil. avv. III-II asrlarda
- 37. O'zbekiston hududida qadimgi davrga oid topilgan tangalar qaysi asrlarga tegishli?**  
 A) mil. avv. III asr va milodiy I asr  
 B) mil. avv. II asr va milodiy III asr  
 S) mil. avv. III asr va milodiy III asr  
 D) mil. avv. IV asr va milodiy II asr
- 38. O'lkamiz tarixiga tegishli eng qadimgi yozma yodgorliklar qanday buyumlarga bitilgan?**  
 1) tosh; 2) sopol; 3) papirus; 4) kumush;  
 5) qog'oz; 6) yog'och; 7) shisha buyumlar; 8) charm buyumlar  
 A) 1, 2, 3, 7  
 B) 2, 3, 5, 6, 8  
 S) 1, 2, 4, 6, 8  
 D) 1, 2, 4, 6, 7
- 39. Qachondan boshlab Kichik Osiyo shaharlarida yashagan yunonlar yurtimizning aholisi, viloyatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lganlar?**  
 A) mil. avv. VI-V asrlardan  
 B) mil. avv. IV-III asrlardan

- S) mil. avv. VIII-VII asrlardan  
 D) mil. avv. VII-VI asrlardan
- 40. Qadimgi yozma manbalarda O'zbekistonning ayrim viloyatlari qanday nomlar bilan mashhur bo'lgan?**  
 1) "Ikki daryo oralig'i"; 2) "Ming shahar o'lkasi"; 3) "Yuksak bayroqli go'zal mamlakat"; 4) "Qora tuproq yerli o'lka"; 5) "Saklar mamlakati"; 6) "Buzoqchalar mamlakati"; 7) "Sayhun va Jayhun oralig'i"; 8) "Serquyosh o'lka"  
 A) 1, 2, 5, 8  
 B) 1, 2, 3, 7,  
 S) 2, 4, 5, 6  
 D) 2, 3, 8
- 41. Qaysi qadimgi dunyo tarixchisi "baqtriyaliklar qadimlikda mirsliklar bilan baxslasha oladilar" deb xabar qilgan?**  
 A) rimlik tarixchi Pompey Trog  
 B) yunon tarixchisi Gerodot  
 S) Xitoy tarixchisi Sima Szyang  
 D) Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf
- 42. Qachondan boshlab O'zbekistonning qadimgi aholisi bilan Qadimgi Sharq elatlari o'rtasida keng madaniy aloqalar boshlagan?**  
 A) mil. avv. 3-2-mingyillikdan  
 B) mil. avv. 4-mingyillikdan  
 S) mil. avv. 1-mingyillik  
 D) mil. avv. VI-IV asrlardan
- 43. Qaysi asrlardan boshlab Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida yaratilgan madaniyat so'g'dlarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va so'g'd savdogarlarining Buyuk Ipak yo'lidagi harakatlari bilan bog'langan?**  
 A) mil. avv. I - milodiy II asrlar  
 B) mil. avv. III-II asrlar  
 S) mil. avv. II-I asrlar  
 D) milodiy I-IV asrlar
- 44. Sog'd tilidagi yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston zaminidan topib tekshirilishining sababini aniqlang.**  
 A) Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida yaratilgan madaniyat so'g'dlarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va so'g'd savdogarlarining Buyuk Ipak yo'lidagi harakatlar bilan bog'lanishi  
 B) Buyuk Ipak yo'lidagi mamlakatlarda so'g'd tilining qo'llanilishi  
 S) So'g'd olimlarining Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston zaminida faoiyat ko'rsatganliklari  
 D) Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston zaminidan ko'plab ilm toliblarining So'g'diyonada o'qiganliklari tufayli

**45. Turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasi nima deb nomlanadi?**

- A) matriarxat
- B) urug'
- S) ibtidoiy to'da
- D) patriarxat

**46. Urug' – bu ...**

A) birgalikda yashagan va mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yarog'larga ega bo'lgan qarindoshlar jamoasi

B) turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasi

S) eng qadimgi tuzum rivojidadagi bir bosqich bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilanib, urug' va oila boshlig'i ayol kishi bo'lgan davr

D) insoniyat rivojining shunday bosqichidirki, unda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ham ota tomonga qarab belgilangan davr

**47. Insoniyat tarixining barcha mehnat qurollari umumiy bo'lgan va hamma baravar ishlagan davr nima deb ataladi?**

- A) matriarxat
- B) ibtidoiy to'da
- S) eng qadimgi urug'chilik tuzumi
- D) patriarxat

**48. Qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilanib, urug' va oila boshlig'i ayol kishi bo'lgan davr qanday nom bilan ataladi?**

- A) ibtidoiy to'da
- B) patriarxat
- S) eng qadimgi urug'chilik tuzumi
- D) matriarxat

**49. Erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ota tomoniga qarab belgilanadigan davr nomini aniqlang.**

- A) matriarxat
- B) harbiy demokratiya
- S) eng qadimgi urug'chilik tuzumi
- D) patriarxat

**50. Eng qadimgi urug'chilik tuzumi qaysi davr kelishi bilan nihoyasiga yetdi?**

- A) harbiy demokratiya
- B) matriarxat
- S) eneolit
- D) patriarxat

**51. Ma'lumki, eng qadimgi odamlar dastlabki mehnat qurollarini toshdan yasagan. Bunday davrni arxeologlar qaysi nom bilan atashgan?**

- A) mis-tosh asri
- B) paleolit

S) neolit

D) tosh asri

**52. Tosh asri arxeolog olimlar tomonidan necha bosqichga ajratiladi?**

- A) to'rtta
- B) uchta
- S) ikkita
- D) beshta

**53. Yer yuzidagi odamlar qaysi xususiyatlari bilan hayvonot dunyosidan ajralib turgan?**

A) yozishni bilganligi va mehnat qurollari bilan ov qilishi bilan

B) turar joylarda istiqomat qilganligi bilan

S) yuz-tuzilishi va ongi bilan

D) qaddi-qomatini tik tutib yurishi, mehnat qurollarini yasash va ularni ishlatishni bilishi bilan

**54. O'ta oddiy tosh qurollari yasashni biladigan eng qadimgi odam suyaklari qoldiqlarini olimlar jahonning qaysi hududlaridan topib tekshirishgan?**

1) Janubiy Afrika; 2) Sharqiy Afrikaning Zinj vodiysi; 3) Angliya; 4) Xitoy; 5) Avstraliya; 6) Germaniya; 7) Amerika qit'asi; 8) Farg'ona vodiysi; 9) Yaponiya hududi; 10) Afrikaning Madagaskar oroli; 11) Fransiya; 12) Indoneziyaning Yava oroli.

A) 1, 2, 4, 6, 8, 11, 12

B) 1, 3, 4, 5, 7, 9, 10

S) 1, 2, 5, 6, 8, 9, 12

D) 2, 3, 4, 6, 7, 9, 11, 12

**55. Avstralopitek suyak qoldiqlarini olimlar qayerdan topib tekshirgan?**

A) Sharqiy Afrika

B) Indoneziya

S) Farg'ona vodiysi

D) Janubiy Afrika

**56. Sharqiy Afrikaning Olduvay darasidan topilgan odam suyak qoldiqlari qanday nomlanadi?**

A) Sinantrop

B) Pitekantrop

S) Kromanyon

D) Zinjantrop

**57. Indoneziyaning Yava orolidan topilgan odam suyak qoldiqlarini olimlar qanday odam suyaklari deb nomlashgan?**

A) Zinjantrop

B) Pitekantrop

S) Kromanyon

D) Neandertal

**58. Sinantrop odam suyak qoldiqlari jahonning qaysi hududidan topib o'rganilgan?**

A) Xitoy

B) Afrika

S) Germaniya

- D) Farg'ona
- 59. Germaniya hududidan qaysi odam suyak qoldiqlari topilgan?**
- A) Kromanyon  
B) Zinjanthrop  
S) Neandertal  
D) Pitekanthrop
- 60. Hozirgi qiyofadagi odam suyak qoldiqlari dastlab jahonning qaysi hududidan topib o'rganilgan?**
- A) Afrika  
B) Fransiya  
S) Indoneziya  
D) Germaniya
- 61. O'ta oddiy tosh mehnat qurollari yasashni biladigan eng qadimgi odam nomlari ketma-ket berilgan javobni aniqlang.**
- 1) zinjanthrop; 2) avstrolipitek; 3) neandertal;  
4) pitekanthrop; 5) sinantrop; 6) kromanyon
- A) 1, 2, 4, 5, 3, 6  
B) 2, 1, 5, 4, 6, 3  
S) 2, 1, 4, 5, 3, 6  
D) 4, 1, 2, 5, 3, 6
- 62. Ilk paleolitning dastlabki davrlarida yer yuzida iqlim iliq bo'lgan kezlarda eng qadimgi odamlar manzilgohlari qayerlarda joylashgan edi?**
- A) kichkina daryolar va soylar yaqinidagi tepaliklarda  
B) unumdor yerlar va o'rmonlar atrofida  
S) suvli jilg'alar va soylar atrofida  
D) unumdor yerlar va tog'larda
- 63. Eng qadimgi davrda ro'y bergan buyuk muzlanish davri qaysi davrdan boshlangan?**
- A) ilk paleolit boshlarida  
B) o'rta paleolit o'rtalarida  
S) ilk paleolit oxirida  
D) so'nggi paleolit
- 64. Toshidan yasalgan eng qadimiy mehnat qurollari, chopperlar O'zbekistonning qaysi hududlaridan topib o'rganilgan?**
- A) Farg'ona vodiysi va Amudaryo bo'ylaridan  
B) Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysidan  
S) Surhondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan  
D) Buxoro va Surhondaryo hududlaridan
- 65. O'zbekistondagi qaysi qadimgi manzilgoh qoldiqlari topib tekshirilganda toshdan yasalgan eng qadimiy mehnat qurollari va chopperlar topilgan?**
- A) Ko'lbuloq va Teshiktosh  
B) Qo'shilish va Machay  
S) Seleng'ur va Ko'lbuloq  
D) Zarautsoy va Seleng'ur
- 66. Arxeologiya fanida chopperlar nima?**
- A) o'tkir qirrali tog' toshlar

- B) o'tkir uchli ixcham dengiz toshlari  
S) ildiz kovlash uchun qo'llanilgan tosh qurol  
D) uchi bir tomonga o'tkirlangan qo'pol tosh qurol

**67. Quyidagi qaysi mashg'ulotlar eng qadimgi odamlarning o'zlashtiruvchi xo'jaligiga mansub?**

- A) natural xo'jalik va ovchilik  
B) termachilik va ovchilik  
S) dehqonchilik va chorvachilik  
D) ovchilik va dehqonchilik

**68. Ma'lumki, eng qadimgi odamlar tabiat nimani in'om etsa, shuni olgan, topgan yeguligi bilan qanoatlangan. Bu qadimgi mashg'ulot nima deb nomlanadi?**

- A) natural xo'jalik  
B) ishlab chiqaruvchi xo'jalik  
S) o'zlashtiruvchi xo'jalik  
D) termachilik

**69. O'zbekistondagi qadimgi yodgorlik Teshiktosh g'oridan qanday buyumlar topilgan?**

1) tosh qurollari; 2) sopol buyumlari; 3) hayvon suyaklari; 4) dehqonchilik qurollari; 5) qoyatosh rasmlari; 6) inson suyaklari

- A) 1, 2, 5  
B) 2, 4, 5  
S) 1, 4, 6  
D) 1, 3, 6

**70. O'zbekistondagi qadimgi madaniy yodgorlik Teshiktosh g'ori nechanchi yilda topib tekshirilgan?**

- A) 1938-yilda  
B) 1935-yilda  
S) 1939-yilda  
D) 1941-yilda

**71. O'zbekistondagi qadimgi Teshiktosh madaniy yodgorligi o'zining qanday xususiyati bilan jahonga mashhurdir?**

- A) ko'plab turli-xil tosh qurollarining topilishi bilan  
B) hayvon suyaklarining topilishi bilan  
S) 8-9 yashar neandertal bolaning suyak qoldiqlari topilishi bilan  
D) eng qadimgi qoyatosh rasmlarining mavjudligi bilan

**72. Quyidagi madaniy yodgorliklardan qaysi biri O'zbekistondagi dastlabki diniy e'tiqodlar bilan bog'liq?**

- A) Seleng'ur  
B) Ko'lbuloq  
S) Teshiktosh  
D) Obishir

**73. Insonni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonish fanda nima deb ataladi?**

- A) animizm
- B) fetishizm
- S) totemizm
- D) magiya

**74. Ma'lumki, eng qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni bartaraf etishiga e'tiqod qilganlar. Bu e'tiqod fanda qanday nomni olgan?**

- A) magiya
- B) totemizm
- S) fetishizm
- D) ibtidoiy e'tiqod

**75. Ma'lumki, eng qadimgi odamlar yil fasllari almashinuvi, momaqaldiroq, bo'ronni ruh mujassamlashgan tabiat kuchlari harakati deb tushuntirganlar. Bunday e'tiqodlar fanda qanday nomlanadi?**

- A) totemizm
- B) sehrgarlik
- S) fetishizm
- D) animizm

**76. Ma'lumki, eng qadimgi odamlarning qoyatosh rasmlarida ov manzaralari tasvirlangan. Buning sababi nimada edi?**

A) o'zlarini yovuz ruhlardan saqlaydi deya ishonishi.

B) o'zlarini tajribalarini keyingi avlodlarga qoldirish.

S) ov qiladigan hayvonlarni bir joyga to'plash maqsadida

D) odamlarning rasmlar bo'lajak ovda o'zlariga yordam beradi deya ishonishi.

**77. Insoniyat tarixida diniy e'tiqodlar kurtaklari va marhumlar ko'milgan eng qadimgi qabrlar qaysi davrda vujudga kelgan?**

- A) o'rta paleolit
- B) so'nggi paleolit
- S) mezolit
- D) neolit

**78. Jahonning qaysi hududlaridan dastlabki va eng qadimiy qoyatosh rasmlari topilgan?**

1) Ispaniya; 2) Fransiya; 3) Afrika; 4) Boshqirdiston; 5) Angliya; 6) Germaniya

- A) 2, 3, 6
- B) 3, 4, 5
- S) 1, 3, 5
- D) 1, 2, 4

**79. Jahonning qaysi yodgorliklaridan eng qadimgi qoyatosh rasmlari topilgan?**

1) Geydelberg; 2) Altamir; 3) Lasko; 4) Zaratsoy; 5) Kapovaya; 6) Moxenjadaro

- A) 1, 4, 6
- B) 2, 3, 5

S) 2, 4, 6

D) 1, 3, 5, 6

**80. Eng qadimgi odamlarning tasviriy san'ati rivojiga asos bo'lib xizmat qilgan omilni aniqlang.**

A) odamning ov vaqtida olgan taassurotlari

B) odamlar rasm orqali o'zaro bir-birlari bilan muloqot qilishlari.

S) odamlarning rasmlar bo'lajak ovda o'zlariga yordam beradi deya ishonishi

D) odamning o'zini qurshab turgan tevarak dunyoni tushunishga intilishi

**81. So'nggi paleolit davri qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?**

A) mil. avv. 100–40–mingyillik

B) mil. avv. 40–12–mingyillik

S) mil. avv. 12–7–mingyillik

D) mil. avv. 6–4–mingyillik

**82. So'nggi paleolit davrida qanday odamlar yashagan?**

A) pitekantroplar

B) sinantroplar

S) neandertallar

D) kromanyonlar

**83. So'nggi paleolit davrida yashagan odam manzilgohlari O'zbekistonning qaysi hududlaridan topilgan?**

A) Farg'ona va Surhondaryo hududlaridan

B) Samarqand, Qashqadaryo va Surhondaryo hududlaridan

S) Surhondaryo va Qashqadaryo hududlaridan

D) Samarqand, Farg'ona va Toshkent hududlaridan

**84. Qachondan boshlab odamlar kesuvchi, aralovchi, parmalovchi mehnat qurollari yasaydigan bo'lishgan?**

A) 25–30 ming yil avval

B) 7–12 ming yil avval

S) 12–16 ming yil avval

D) 5–6 ming yil avval

**85. Odamlar tosh asrining qaysi davridan boshlab taqinchoqlar – munchoqlar, tumorlar va uzuklar yasay boshladilar?**

A) ilk paleolit

B) o'rta paleolit

S) so'nggi paleolit

D) mezolit

**86. Qaysi davrda odamlar urug' jamoasiga birlashdilar?**

A) so'ngi paleolit

B) mezolit

S) neolit

D) eneolit

- 87. Qadimda qabila qay tariqa shakllangan?**  
 A) har joyda yashab turgan bir qancha oilalardan tashkil topgan.  
 B) bir joyda yashab turgan qo'shni urug'lardan tashkil topgan.  
 S) turli joyda yashab bir tilda gaplashuvchi urug'lardan tashkil topgan.  
 D) bir joyda yashab turgan bir qancha urug'lardan tashkil topgan.
- 88. So'nggi paleolit davri odamlarining muhim ixtirosini ko'rsating.**  
 A) mikrolit qurollarning paydo bo'lishi  
 B) o'q-yoyni kashf etilishi  
 S) hunarmandchilikka asos solinishi  
 D) turar joylarni qurilishi
- 89. Ma'lumki, odamlar so'nggi paleolitda sun'iy tarzda olov hosil qilishni o'rganib olgan edi. Odam olovni qay tarzda hosil qilgan?**  
 A) yog'ochni bir-biriga ishqalash orqali  
 B) chaqmoqtoshni bir-biriga urish orqali  
 S) vulqon yoki chaqmoq chaqishi natijasida  
 D) yog'ochni bir-biriga ishqalash va chaqmoq-toshni bir-biriga urish orqali
- 90. Mezolit davri qaysi yillarni o'z ichiga oladi?**  
 A) mil. avv. 100–40-mingyilliklarni  
 B) mil. avv. 40–12-mingyilliklarni  
 S) mil. avv. 12–7-mingyilliklarni  
 D) mil. avv. 6–4-mingyilliklarni
- 91. Qaysi davr boshlanishi bilan Muzlik davri poyoniga yetdi?**  
 A) paleolit  
 B) mezolit  
 S) neolit  
 D) eneolit
- 92. Inson o'q-yoyni qaysi davrda kashf qilgan?**  
 A) mezolit davrida  
 B) neolit davrida  
 S) paleolit davrida  
 D) eneolit davrida
- 93. Insonning qaysi kashfiyoti qadimgi davrda odam ixtiyorida chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyatini yaratdi.**  
 A) to'rni kashf etilishi  
 B) mikrolitni kashf etilishi  
 S) nayzaning kashf etilishi  
 D) o'q-yoyni kashf etilishi
- 94. Qaysi davrdan boshlab inson tomonidan hayvonlar qo'lga o'rgatila boshlandi?**  
 A) mezolit davrida  
 B) neolit davrida  
 S) paleolit davrida  
 D) eneolit davrida
- 95. Qaysi davrda tiriklayin tutib olingan hayvonarni odamlar o'ldirmasdan yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo'yadigan bo'lishdi?**  
 A) mezolit davrida  
 B) neolit davrida  
 S) paleolit davrida  
 D) eneolit davrida
- 96. Mezolit davri oxirida ...**  
 A) inson hayvonlarni qo'lga o'rgata boshladi, ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik vujudga keldi  
 B) o'q-yoy kashf etildi  
 S) sopol buyumlarni ishlab chiqarishga o'tildi  
 D) ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tildi
- 97. Mezolit davriga oid O'zbekistondagi manzilgohlarni aniqlang.**  
 A) Obishir, Qo'shilish, Jarqo'ton  
 B) Teshiktosh, Ko'lbuloq  
 S) Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo'ton  
 D) Obishir, Qo'shilish, Machay
- 98. Mezolit davriga oid manzilgothlar qaysi hududlarda ko'plab uchraydi?**  
 A) Farg'ona vodiysining tog'oldi va tog'liq tumanlarida hamda O'zbekistonning shimolida  
 B) Qashqadaryo vodiysining tog'oldi va tog'liq tumanlarida hamda O'zbekistonning g'arbida  
 S) Farg'ona vodiysining tog'oldi va tog'liq tumanlarida hamda O'zbekistonning janubida  
 D) Zarafshon vodiysining tog'oldi va tog'liq tumanlarida hamda O'zbekistonning janubida
- 99. Qaysi davrdan boshlab Amudaryo va Sirdaryo qirg'oqlari, O'zbekiston hududidagi ko'llar va daryolar sohili ovchilar va baliqchilar maskanlariga aylanadi?**  
 A) paleolit davridan  
 B) mezolit davridan  
 S) neolit davridan  
 D) eneolit davridan
- 100. Qaysi davrda ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik vujudga keldi?**  
 A) eneolit davri oxirida  
 B) tosh davri oxirida  
 S) mezolit davri oxirida  
 D) neolit davri oxirida
- 101. Ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik dastlab qayerda paydo bo'lgan?**  
 A) Old Osiyo  
 B) Yaqin Sharq  
 S) Janubiy-Sharqiy Osiyo  
 D) O'rta Osiyo
- 102. Quyidagi qaysi mashg'ulot ishlab chiqaruvchi xo'jalikka taalluqli?**  
 A) ziroatchilik va termachilik  
 B) chorvachilik va ovchilik

- S) termachilik va ovchilik  
D) ziroatchilik va chorvachilik
- 103. O'rta Osiyoda neolit davri qaysi yillarni o'z ichiga oladi?**  
A) mil. avv. 100–40–mingyilliklarni  
B) mil. avv. 40–12–mingyilliklarni  
S) mil. avv. 12–7–mingyilliklarni  
D) mil. avv. 6–4–mingyilliklarni
- 104. Arxeologlar neolit davri boshlanishini qaysi voqea bilan belgilaydilar?**  
A) sopol idishlar yasashning kashf etilishi bilan  
B) ziroatchilik va chorvachilikka o'tilishi bilan  
S) doimiy turar joylar qura boshlanishi bilan  
D) mikrolit qurollar yasashni qo'llay boshlashlari bilan
- 105. Mezolit va neolit davrida odam ...**  
A) mikrolitlar yasashni organib oldi  
B) toshga ishlov berishning silliqlash, arralash, sirlash va teshikchalar parmalashni o'rganib oldi  
S) mikrolitlar yasashni, toshga ishlov berishning silliqlash, arralash, sirlash va teshikchalar parmalashni o'rganib oldi  
D) paxsa imoratlar qurishni o'rganib oldi
- 106. Qaysi davrda aksariyat qabilalar o'troq turmush tarziga o'tib doimiy turar joylar qura boshlagan?**  
A) paleolit davrida  
B) mezolit davrida  
S) neolit davrida  
D) eneolit davrida
- 107. Paxsa imoratlar qurish qaysi davrdan boshlangan?**  
A) qadimgi tosh davridan  
B) o'rta tosh davridan  
S) yangi tosh davridan  
D) mis-tosh davridan
- 108. Neolit davrida hunarmandchilik rivojiga zamin yaratgan omilni aniqlang.**  
A) toshga ishlov berishning silliqlash, arralash, sirlash va teshikchalar parmalashni o'rganib olishi  
B) paxsa imoratlar qurishni o'rganib olishi  
S) sopol idishlar yasashni o'rganib olishi  
D) o'troq turmush tarziga o'tilishi
- 109. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik – bu ...**  
A) termachilik va ovchilikdir  
B) ziroatchilik va chorvachilikdir  
S) baliqchilik va ovchilikdir  
D) ziroatchilik va termachilikdir
- 110. O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida aholi qachondan boshlab ziroatchilikka o'tgan?**  
A) mil. avv. 2–1–mingyilliklar boshlaridan  
B) mil. avv. 3–2–mingyilliklar boshlaridan  
S) mil. avv. 4–3–mingyilliklar boshlaridan  
D) mil. avv. 6–5–mingyilliklar boshlaridan
- 111. Mil. avv. 6–5 mingyilliklar boshlarida O'rta Osiyoning markaziy va shimoliy o'lkalarida aholi qanday mashg'ulot bilan shug'ullangan?**  
A) chorvachilik va ovchilik bilan  
B) ziroatchilik va chorvachilik bilan  
S) ovchilik va baliqchilik bilan  
D) termachilik va ovchilik bilan
- 112. Ma'lumki, ziroatchilik termachilikdan boshlangan. Chorvachilik esa ...**  
A) doimiy turar joylar qura boshlanishidan kelib chiqqan  
B) o'troq turmush tarziga o'tilishidan kelib chiqqan  
S) hayvonarni qo'lga o'rgatishdan kelib chiqqan  
D) ovchilik qilish va hayvonlarni qo'lga o'rgatishdan kelib chiqqan
- 113. Loydan ishlangan va olovda pishirilgan idishlar yasash sohasi nima deb atalgan?**  
A) sopolchilik  
B) xumsozlik  
S) kulolchilik  
D) sopolchilik va kulolchilik
- 114. Tolalar va jundan kiyim-kechak tayyorlash tarmog'i – bu ...**  
A) to'quvchilik  
B) tikuvchilik  
S) hunarmandchilik  
D) keramika
- 115. Neolit davri oxirida odamlar ixtiro va kashfiyotlari orasida eng buyuklaridan birini aniqlang.**  
A) kulolchilikning kashf etilishi  
B) to'qimachilikning vujudga kelishi  
S) g'ildirakning kashf etilishi  
D) misdan foydalanish
- 116. Eneolit – bu ...**  
A) qadimgi tosh asri  
B) yangi tosh asri  
S) mis-tosh davri  
D) o'rta tosh asri
- 117. Eneolit davri qaysi mingyilliklarni o'z ichiga oladi?**  
A) mil. avv. 12–7–mingyilliklar  
B) mil. avv. 6–4–mingyilliklar  
S) mil. avv. 4–3–mingyilliklar  
D) mil. avv. 3–2–mingyilliklar
- 118. Qadimgi davrda nima sababdan misdan yasalgan qurollar keng tarqalmagan edi?**  
A) juda kam miqdorda bo'lganligi uchun  
B) faqat zeb-ziynat buyumlari tayyorlanganligi uchun  
S) temirdan yasalgan qurollar keng tarqalganligi uchun



- D) mustahkam bo'lmaganligi uchun
- 119. Bronza qaysi metallar qorishmasidan tayyorlanadi?**
- A) mis, qo'rg'oshin, temir  
B) qalay va mis  
S) kumush, mis, qo'rg'oshin  
D) mis, qalay, qo'rg'oshin
- 120. Mil. avv. 4-mingyillikda sodir bo'lgan voqealarni belgilang.**
- 1) xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshladi; 2) g'ildirak kashf etildi; 3) O'rta Osiyo janubida sug'orma dehqonchilik vujudga keldi; 4) idishlarni pishirish uchun kulolchilik xumdonlaridan foydanila boshlandi; 5) kulolchilik vujudga keldi; 6) sopol idishlar hayvonlar naqshi bilan bezatila boshlandi; 7) bronzadan mehnat qurollari yasala boshlandi; 8) dehqonchilikdan chorvachilik ajralib chiqdi; 9) Qadimgi Sharqda ilk shaharlar vujudga keldi
- A) 1, 2, 5, 7  
B) 1, 3, 4, 6, 9  
S) 2, 3, 5, 8  
D) 1, 3, 5, 7, 9
- 121. Qachondan boshlab bronza mehnat qurollari, qurol-yarog'lar va zeb-ziynat tayyorlashda ishlatiluvchi asosiy xomashyo bo'lib qoldi?**
- A) mil. avv. 3-mingyillik boshlaridan  
B) mil. avv. 3-mingyillik o'rtalaridan  
S) mil. avv. 2-mingyillikdan  
D) mil. avv. 2-mingyillik oxirlaridan
- 122. Odamlar ixtiyorida ortiqcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining vujudga kelishi sababini aniqlang.**
- A) mehnat qurollarining bronzadan yasalganligi  
B) hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqqanligi  
S) ziroatchilik va chorvachilikning vujudga kelishi  
D) mehnat qurollarining temirdan yasalganligi
- 123. Qaysi davrda chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi?**
- A) mezolit davri  
B) neolit davri  
S) eneolit davri  
D) bronza davri
- 124. Nima sababdan chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi?**
- A) odamlarni o'troq turmush tarziga o'tishi  
B) ortiqcha mahsulotlarning vujudga kelishi  
S) mehnat qurollarining temirdan yasalganligi  
D) patriarxat davrini boshlanishi
- 125. Ma'lumki, bronza davrida O'rta Osiyo janubida dehqonchilik, shimolida esa ...**
- A) baliqchilik rivojlandi  
B) ovchilik rivojlandi

- S) kulolchilik rivojlandi  
D) chorvachilik rivojlandi
- 126. Qaysi davrdan boshlab patriarxat davri boshlangan?**
- A) mil. avv. 3-mingyillik boshlaridan  
B) mil. avv. 3-mingyillik o'rtalaridan  
S) mil. avv. 2-mingyillikdan  
D) mil. avv. 3-mingyillik oxirlaridan
- 127. Ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topgan qarindoshlar jamoasi nima deb ataladi?**
- A) matriarxat oila  
B) patriarxal oila  
S) urug'  
D) ibtidoiy to'da
- 128. O'rta Osiyodagi bronza davri dehqonlarining manzilgohlarini aniqlang.**
- 1) Zamonbobo; 2) Oltintepa; 3) Ko'lbuloq; 4) Siyob; 5) Namozgoh; 6) Machay; 7) Qo'shilish; 8) Sarazm; 9) Zarautsoy; 10) Sopollitepa; 11) Kaltaminor; 12) Jarqo'ton
- A) 1, 2, 5, 8, 10, 12  
B) 1, 3, 7, 11, 12  
S) 2, 4, 5, 8, 10, 12  
D) 1, 3, 6, 7, 9, 11
- 129. O'zbekiston hududidagi mil. avv. 2-mingyillikka oid dehqonchilik va chorvachilik manzilgohlarini ko'rsating.**
- 1) Zamonbobo; 2) Zarautsoy; 3) Oltintepa; 4) Sopollitepa; 5) Kaltaminor; 6) Jarqo'ton
- A) 2, 4, 6  
B) 1, 3, 5  
S) 2, 3, 6  
D) 1, 4, 6
- 130. Zamonbobo manzilgohi O'zbekistonning qaysi hududidan topib o'rganilgan?**
- A) Buxoro viloyati  
B) Samarqand viloyati  
S) Surxondaryo viloyati  
D) Qashqadaryo viloyati
- 131. Surxondaryodan topib o'rganilgan bronza davriga oid manzilgohlarni aniqlang?**
- A) Oltintepa va Zarautsoy  
B) Sopollitepa va Kaltaminor  
S) Jarqo'ton va Namozgoh  
D) Sopollitepa va Jarqo'ton
- 132. Quyidagi qaysi manzilgohdan bug'doy, arpa saqlangan yirik-yirik xumlar topib o'rganilgan?**
- A) Zamonbobo  
B) Jarqo'ton  
S) Sopollitepa

- D) Oltintepa
- 133. O'zbekistondagi qaysi madaniy yodgorlikdan ilk ibodatxona qoldiqlari topib o'rganilgan?**
- A) Zamonbobo  
B) Jarqo'ton  
S) Sopollitepa  
D) Oltintepa
- 134. O'zbekistondagi mazilgohlardan qay birida shaharning ilk alomatlari ko'zga tashlanadi?**
- A) Oltintepa  
B) Sopollitepa  
S) Sarazm  
D) Jarqo'ton
- 135. Qaysi davrda odamlar kulolchilik charxi va g'ildirakni kashf qildilar?**
- A) mezolit davrida  
B) neolit davrida  
S) eneolit davrida  
D) bronza davrida
- 136. Bronza davrida quyidagi ko'rsatilgan kashfiyotlardan qaysilari yuz bergan?**
- 1) g'ildirak ixtiro qilindi; 2) kulolchilik vujudga keldi; 3) o'q-yoy kashf etildi; 4) kulolchilik charxi ixtiro qilindi; 5) nayza kashf qilindi; 6) arava kashf qilindi
- A) 1, 4, 6  
B) 2, 4, 6  
S) 1, 3, 5  
D) 1, 2, 6
- 137. Temirdan mehnat qurollari yasash imkoniyati qachondan paydo bo'ldi?**
- A) mil. avv. 2-mingyillikning o'rtalarida  
B) mil. avv. 1-mingyillikning oxirlarida  
S) mil. avv. 3-mingyillikda  
D) mil. avv. 1-mingyillik boshlarida
- 138. Temir necha gradusda eriydi?**
- A) 1200°C  
B) 1500°C  
S) 1400°C  
D) 1600°C
- 139. Temir qadimda odamlar foydalangan qaysi metallarga nisbatan qattiqroq bo'lgan?**
- A) kumush va qalaydan  
B) mis va bronzadan  
S) bronza va kumushdan  
D) qalay va qo'rg'oshindan
- 140. Temirdan birinchi bo'lib kimlar foydalangan?**
- A) xetlar  
B) yunonlar  
S) forslar  
D) rimliklar
- 141. Temirdan qachondan boshlab foydalana boshlaganlar?**
- A) mil. avv. IX–VIII asrlardan  
B) mil. avv. XI–IX asrlardan  
S) mil. avv. XIV–XIII asrlardan  
D) mil. avv. XII–XI asrlardan
- 142. Temirdan tayyorlangan zeb-ziynat buyumlari qaysi yodgorliklardan topilgan?**
- A) Zamonbobo va Sopollitepadan  
B) Moxenjodoro va Xarappadan  
S) Ispaniyadagi Altamir va Fransiyadagi Lasko g'orlaridan  
D) Tutanxamon maqbarasi va Kavkazdagi Maykop qo'rg'onidan
- 143. Qadimda qaysi omil dehqonchilik texnikasi rivojiga ta'sir o'tkazdi?**
- A) patriarxat davrining boshlanishi  
B) odamlarni o'troq turmush tarziga o'tishi  
S) ziroatchilik va chorvachilikning vujudga kelishi  
D) mehnat qurollarining temirdan yasalishi
- 144. Katta-katta maydonlarda ziroatchilikni rivojlantirishga imkon yaratib bergan omilni aniqlang.**
- A) odamlarning o'troq turmush tarziga o'tishi  
B) O'rta Osiyoda sug'orma dehqonchilikning vujudga kelishi  
S) temir uchli omochlar, temir boltalar va omochlarning paydo bo'lishi  
D) suv tegirmoni, chig'ir va charxpalaklarning kashf etilishi
- 145. O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan buyumlar qaysi asrlarga oid?**
- A) mil. avv. IX–VIII asrlar  
B) mil. avv. VIII–VII asrlar  
S) mil. avv. X–IX asrlar  
D) mil. avv. XI–X asrlar
- 146. Qanday omil qadimda mehnat unumdorligini oshishiga zamin yaratib berdi?**
- A) davlatning vujudga kelishi  
B) o'troq turmush tarziga o'tish  
S) temir qurollarning keng tarqalishi  
D) jez qurollarining keng tarqalishi
- 147. Temir davrida urug' jamoasi o'rnini qanday jamoa egallay boshladi?**
- A) patriarxat  
B) alohida tumanlar  
S) qabilalar ittifoqi  
D) hududiy qo'shnichilik jamoasi
- 148. Mil. avv. 1-mingyillik boshlarida O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan to'rt guruhning ketma-ketlik bilan berilgan qatorni aniqlang.**
- A) aslzodalar-jangchilar-dehqonlar-hunarmandlar  
B) kohinlar-jangchilar-dehqonlar-chorvadorlar  
S) kohinlar-zodagonlar-jangchilar-dehqonlar-hunarmandlar

D) kohinlar-jangchilar-dehqonlar-hunarmandlar  
**149. Qadimgi davr ijtimoiy tuzum taraqqiyotining ketma-ketlik bilan berilgan qatorni aniqlang.**

A) xalq yig'lishi-qabila-qabilalar ittifoqi-davlat  
 B) oqsoqollar kengashi-xalq yig'lishi-qabila-qabilalar ittifoqi-davlat

S) urug'-urug' jamoasi-hududiy qo'shnichilik jamoasi-alohida tumanlar-viloyatlarning hukmdorlarlari

D) urug'-urug' jamoasi-hududiy qo'shnichilik jamoasi-qabila-qabilalar ittifoqi-davlat

**150. Ilk davlatchilikka o'tish davrida qabilaga harbiy sardorlar boshchilik qilgan boshqaruv shakli nima deb atalgan?**

- A) respublika
- B) monarxiya
- S) harbiy demokratiya
- D) demokratiya

**151. "Avesto"da O'rta Osiyo jamiyatining negizi nima deb ataladi?**

- A) "dah'ya"
- B) "nmana"
- S) "vis"
- D) "zantu"

**152. Bir necha patriarxal oilalar urug' jamosini tashkil qilgan. Bu urug' jamoasi "Avesto"da nima deb atalgan?**

- A) "vis"
- B) "varzana"
- S) "zantu"
- D) "nmana"

**153. "Avesto"da hududiy qo'shnichilik jamoasi nima deb atalgan?**

- A) "nmana"
- B) "dah'ya"
- S) "varzana"
- D) "vis"

**154. "Avesto"da "zantu" – bu ...**

- A) urug' jamosi
- B) qabilalar ittifoqi
- S) hududiy qo'shnichilik jamoasi
- D) qabila

**155. "Dah'ya" – bu ...**

- A) hududiy qo'shnichilik jamoasi
- B) qabilalar ittifoqi
- S) patriarxal oila
- D) qabila

**156. "Avesto"ga ko'ra, jamiyatni idora qilishning qanday tizimi mavjud bo'lgan?**

- A) oqsoqollar kengashi
- B) respublika
- S) xalq yig'lishi
- D) oqsoqollar kengashi-xalq yig'lishi-alohida

tumanlar-viloyatlarning hukmdorlarlari

**157. Xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) hunarmandchilik va termachilik
- B) termachilik va ovchilik
- S) dehqonchilik va chorvachilik
- D) dehqonchilik va termachilik

**158. Eng qadimgi dehqonchilik manzilgohini belgilang.**

- A) Iyerixon
- B) Chaqmoqli
- S) Zamonbobo
- D) Oltintepa

**159. Iyerixon manzilgohi qayerdan topilgan?**

- A) Suriya
- B) Finikiya
- S) Eron
- D) Falastin

**160. Xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari qachon va qayerda dastlab vujudga kelgan?**

A) bundan 9–10 ming yil avval; Janubiy-g'arbiy Osiyoda

- B) bundan 10–11 ming yil avval; Old Osiyoda
- S) bundan 11–12 ming yil avval; O'rta Osiyoda
- D) bundan 12–13 ming yil avval; Kavkazortida

**161. Kichik Osiyo, Misr, Bobil, Kavkazorti, Eron va O'rta Osiyoda dehqonchilik tarqalishiga sabab bo'lgan omilni aniqlang.**

- A) yangi suv manbalari va serhosil yerlarni izlash
- B) temirni xo'jalikda qo'llanilishi
- S) ko'chmanchi qabilalarning doimiy hujumi
- D) davlatlarning vujudga kelishi

**162. Ilk to'qnashuvlar – kichik urushlar qadimda kimlar o'rtasida va nima sababdan kelib chiqar edi?**

A) qabilalar o'rtasida hududlar uchun

B) dehqonlar va hunarmandlar o'rtasida soz yerlar ustida

S) choponlar va dehqonlar o'rtasida suv manbalari va soz yerlar ustida

D) choponlar va hunarmandlar o'rtasida soz yerlar ustida

**163. Ilk sivilizatsiya davrida aholining aralashib, ittifoqlarga uyushishiga qanday omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan?**

A) ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari

B) qurilish va hunarmandchilik rivojlanishi

S) xo'jalik hayotiga rahbarlik qiluvchi oqsoqollar ajralib chiqishi

D) dushmanlardan himoyalaniish hamda o'zga hududni egallab olish zarurati

**164. Ilk sivilizatsiyaning vujudga kelish davrida diniy marosimlar kim tomonidan ado etilardi?**

A) rohib

- B) kohin
- S) monastir
- D) cherkov

**165. Odamlar belgilangan qonunlarga rioya qilib yashagan shaharlar va davlatlar rivojlangan davrda moddiy va ma'naviy madaniyatning ancha yuksak darajasi fanda qanday nom bilan ataladi?**

- A) progress
- B) demokratiya
- S) sivilizatsiya
- D) respublika

**166. Quyidagi qaysi sohalarning yuqori darajasi qadimgi davrdagi ilk sivilizatsiyalarga xosdir?**

- 1) hunarmandchilik; 2) qurilish; 3) shaharsozlik;  
4) arxitektura; 5) davlatchilik; 6) ayirboshlash;  
7) kemasozlik; 8) savdo-sotiq.
- A) 2, 3, 4, 6, 8
  - B) 1, 3, 5, 7
  - S) 1, 2, 3, 5, 6

- D) 1, 2, 4, 6, 8


**167. Ilk sivilizatsiyalar qanday joylarda vujudga keldi?**

- A) savdo-sotiq rivojlangan joylarda
- B) unumdor va hosildor tuproqli yerlarda
- S) chorvachilikka xos yaylovlarda
- D) sug'orish inshootlari qurish zarur bo'lgan joylarda

**168. Quyidagi qaysi hududlar qadimgi tuzumda eng dastlabki sivilizatsiya markazlari bo'lgan?**

- 1) Nil daryosi vodiysi; 2) Apennin yarimoroli;  
3) Periney yarimoroli; 4) Dajla va Frot daryolari oralig'i; 5) Sirdayo va Amudaryo vodiylari;  
6) Kavkazorti
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6
  - B) 1, 4, 5
  - S) 1, 2, 6
  - D) 2, 3, 5

**KROSSVORD**  
(ismlar bo'yicha)




**BO'YIGA:** 1. "Tarix" asarining muallifi. 2. Maqbarasiga temirdan bezak ishlatgan Misr fir'avni.  
3. Yunon tarixchisi. 5. Yurtimiz tarixi haqida ma'lumot bergan yunon tarixshunosi.

**ENIGA:** 3. "Buyuk Aleksandr tarixi" asari muallifi. 4. Yunon tarixchisi va geografi. 6. "Aleksandr harbiy yurishlari" asarining muallifi. 7. Rimlik tarixchi. 8. "Tarixiy yilnomalar" asarining muallifi.

## KROSSVORD

(atama va tushunchalar bo'yicha)




**BO'YIGA:** 1. Eneolit davri manzilgohi. 3. Erondagi qadimgi shahar. 4. O'rtta tosh davri. 5. Tangashunoslik fani. 6. Yava orolidan topilgan eng qadimgi odam. 7. O'zbekistondagi ilk dehqonlar manzilgohi. 9. Strabon asari.

**ENIGA:** 2. O'zbekistondagi qadimgi ziroatchilar manzilgohi. 4. Hindistondagi eng qadimgi sivilizatsiya. 8. Mayda tosh quroli. 10. Eng qadimgi, hozirgi qiyofadagi odam. 11. "Avesto"da patriarxal oila. 12. Ota urug'i davri. 13. Zardushtiylarning muqaddas kitobi. 14. Qadimgi tosh asri. 15. Eng qadimgi qoyatosh rasmlari topilgan manzilgoh.

## XRONOKROSS


(Rim raqami hisobida asr va mingyilliklar bo'yicha)



**BO'YIGA:** 1. Qadimgi Sharqda ilk shaharlarning vujudga kelishi. 2. Yunon tarixchisi Arrian faoliyati. 3. Kichik Osiyoda xetlarning temirdan foydalana boshlashi. 5. O'rta Osiyodan topilgan temir buyumlarning davri. 6. Behistun yozuvlari. 8. Yunon tarixshunosi Ktesiyning vafot etishi. 11. O'rta Osiyoda sug'orma dehqonchilikning vujudga kelishi. 13. O'zbekistonda ilk temir buyumlardan foydalanilishi.

**ENIGA:** 1. Patriarxat davrining boshlanishi. 3. Dunyo bo'yicha ilk bor temir buyumdan foydalana boshlanishi. 4. Eneolit davrining boshlanishi. 7. O'zbekistonda ilk bor tangalardan foydalanilishi. 9. Sug'd yozuvi shakllanishining dastlabki davri. 10. Forslar tomonidan O'rta osiyoliklar haqida ma'lumot qoldirilishi. 12. Sopollitepa manzilgohining rivojlanishi.

## QADIMGI MISR



Jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik va chorvachilik kabi ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar paydo bo'lgan joylarda shakllandi. Ming yillar davomida faqat termachilik va ovchilik hisobiga yashab kelgan, dehqonchilikni bilmagan ko'pgina qabila va elatlar davlatchilik bosqichiga ko'tarila olmadilar.

Dehqon o'z mehnati bilan ovchi qo'lga kiritadigan o'ljaga qaraganda ko'proq mahsulot ishlab chiqaradi. Dehqonchilik odamlarni o'troq hayot kechirishga, hunarmandchilikning shakllanishiga, mahsulot

ayirboshlash va savdo-sotiqqa asos soldi.

Eng qadimgi davlat mil. avv. 4-mingyillikda **Ikki daryo oralig'i** va **Misrda** paydo bo'ldi. Bundan 10 ming yillar ilgari bu yerda dehqonchilik va chorvachilikka o'tish boshlandi. Asta sekinlik bilan dehqonchilik bu yerdan qo'shni hududlar (Kavkazorti, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy)ga tarqaladi. Mil. avv. 3-2-mingyillikdayoq Qadimgi Sharq aholisi o'rtasida zich tarixiy madaniy aloqalar mavjud edi.

Qadimgi Misr Afrikaning shimoliy-sharqida, Nil daryosining toshqinidan hosil bo'ladigan serunum vohada mil. avv. 6-5-mingyilliklarda shakllangan dehqonchilik va chorvachilik asosida vujudga keladi. Misrliklar toshqin natijasida paydo bo'ladigan va quyoshda qoraygan loyqa rangidan vatanlarini **kemet "qora tuproq"** deyishgan. Misrni dunyoga tanitgan yunon tarixchilari esa uni **Xekau Ptax (qadimgi poytaxt)** nomining buzib aytilishidan **"Yegipet"** deb ataganlar. Yozma manbalarda qayd etilishicha mil. avv. 4-mingyilliklar boshlarida Misrda 42 nomlar, kichik davlatchalar bo'lib ularni boshqargan **"nomarx"**lar: ma'muriy, harbiy va diniy vazifalarni bajargan.

Misrda **ilk podsholik davri** mil. avv. 3100-2800-yillarni o'z ichiga oladi. Undagi o'zaro urushlar natijasida dastlab **Yuqori** va **Quyi Misr davlatlari** shakllanadi. Mil. avv. 3000-yili Yuqori Misr podshosi **Mina** (yunoncha **Menes**) shimoldagi yerlarini bosib olib yagona davlat tuzadi. U **Peryo**, ya'ni **"baland uy"** **"saroy egasi"** unvonini olib, bu so'z keyinchalik **fir'avn** - hukmdor ma'nosini anglatuvchi atamaga aylanadi. Mina Quyi Misrda yangi poytaxt **Memfis ("Oq devorlar")** shahrini qurdirgan. Ilk podsholikni boshqargan 1-2 sulola fir'avnlari janubda Nubiyaga, shimoliy-sharqda Sinay yarimoroliga qadar bostirib kirib u yerlardan ko'plab asirlar va o'ljalar bilan qaytganlar.

Keyingi 3-10-sulolalar podsholigi hukmronligi davri **Qadimgi Misr podsholigi** deb ataladi. Bu paytda Misrning istilochilik urushlari kuchayadi, xususan 4-sulola fir'avni **Snofru** boy mis konlari bo'lgan **Sinay yarimorolini** o'z davlatiga qo'shib oladi. Uning qo'shinlari sharqda Falastin, janubda Nubiya, g'arbda Liviya qabilalariga qarshi urushlar olib boradi.

**O'rta podsholikdagi** 11-13-sulola fir'avnlari Misrni mil. avv. 2250-1750-yillari boshqargan. Bu davrda mamlakatda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo yuksalgan. Poytaxt uchun maxsus muhtasham **Itaun shahri** barpo etilgan. Ammo og'ir soliqlar mil. avv. 1750-yili Misrda yirik xalq qo'zg'oloniga sabab bo'lib, u haqda o'sha zamonda yaratilgan **"Ipuser so'zlari" yodgorligida** yozib qoldirilgan. Mamlakatning zaiflasha borishi uni sharqdan kelgan ko'chmanchi **giksoslar** tomonidan istilo qilinishiga olib keladi. Natijada mil. avv. 1710-1580-yillari Misrni 15-16-giksoslar sulolalari boshqarib, unda **Xianning** fir'avnligi davrida nisbatan yuksalish kuzatiladi.



Giksoslar hukmronligi paytida mamlakat janubidagi **Fiva nomligi** o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Uning hukmdori **Kamesu** Misr ozodligi uchun boshlagan kurashni, **Yaxmos I** davom ettirib giksoslarni **Falastinga** surib chiqaradi.

Giksoslardan keyin Misrni 18–20 sulolalar boshqarib, bu davr **yangi podshohlik** (mil. avv. 1584–1085-mingyilliklar) deb nomlanadi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilib – **vazir** bu ishga mutassadi etib tayinlanadi.

Savdo va hunarmandchilik yuksaladi. Savdoda suv yo'llaridan tashqari, Old Osiyodagi Nineviya, Karxemish, Damashq shaharlarini Quddus orqali Memfis bilan bog'laydigan quruqlik karvon yo'li ham katta ahamiyat kasb etgan.

Yangi podshohlikning eng yuksalgan davri **Ramzes II** (mil. avv. 1301–1235-y.y) fir'avnligi paytiga to'g'ri keladi. Uning davridan bizga ilk tinchlik va do'stlik sulhi hujjati saqlanib qolgan bo'lib u mil. avv. 1280-yilgi **Misr-Xett sulhi** bo'lib **Ramzes II** va **Xettusili III** lar tomonidan imzolangan.

Misr **so'nggi podshohlik davrida** (mil. avv. 1085-yil mil. avv. IV asrlar) zaiflasha borib yollanma qo'shin asosini tashkil etgan **liviyaliklar** (mil. avv. 950–730-y.y), so'ng **efiopl** (mil. avv. 715–664-y.y), **ossurlar** va nihoyat **Sais sulolasi** (663–525-y.y) uni boshqaradi. Mil. avv. 525-yili Misrni **Eron** bosib oladi.

#### Hukmdorlar va fuqarolar

Misrni **fir'avn** boshqargan. Uning yonida ayonlari, amaldorlari, lashkarboshilari va kohinlari bo'lib, ular hukmdorga so'zsiz bo'ysunganlar. Bizga qadar yetib kelgan suratlarda fir'avn taxtda, qo'lida **jezl** yoki **qamchi** bilan tasvirlangan. Bundan uning qo'lida fuqarolarni boshqarishgina emas jazolash huquqi ham mavjudligi ko'rinadi. Fir'avn cheksiz hokimiyatga ega bo'lib fuqaro va xizmatchilar unga ta'zim bajo aylash uchun yaqinlashganda qo'llarini ko'tarib olqishlashdan boshlanib so'ng, yotib, u bosgan yerni o'pish bilan yakunlangan. Misrdagi ko'plab yer-mulklardan tashqari deyarli barcha konlar ham fir'avnga tegishli bo'lgan. Saroydagi a'yon va amaldorlar ibodatxona ruhoniylarining ham ko'plab yer-mulklari, chorvalari, hunarmandchilik do'konlari bo'lgan.

Mamlakatni boshqarish uch pog'onali bo'lib: markaziy, nom va mahalliy davlat tashkilotlaridan iborat edi. Fir'avn va a'yonlar xizmatida bir qator mirzolar ham bor edi. Hukmdor qudratini ko'p sonli qo'shini himoya qilgan. Misrda saqlanib qolgan erkin dehqonlar tabaqasi yetishtirgan hosilning, chorvadorlar mollarni bir qismini davlat xazinasiga soliq tarzida to'laganlar.

Ekinzorlarni sug'orish uchun misrliklar katta-kichik kanallar va ularni toshqindan asrash uchun Nil sohilida tuproqdan uzun ko'tarmalar qurishgan. Toshqin paytida suv chiqmagan yerlarni pastdan baland yerlarga suv ko'taruvchi moslama – **shaduf** yordamida sug'orilgan.

Misrliklar xurmo, bug'doy, arpa, uzum yetishtirganlar. Zig'irpoya ekib, uning tolasidan mato to'qishgan. Gazlama qimmat bo'lganidan faqat boy-badavlat kishilar, uzun kashtalar bilan bezatilgan kiyimlar kiyishgan. Aholining qolgan qismi esa belbog'chalar yoki kalta ko'ylakchalarda yurganlar.

Aholining uy-joylari ham juda sodda qurilgan bo'lib, devorlari loydan tiklanib, tomlari palma daraxtining katta yaproqlari bilan yopilgan. Xonalarning sahniga qamishdan to'qilgan bo'ya to'shalib, o'choq oldida sopol idishlar saqlangan. Misrliklar kiyimlari kam bo'lsa-da, ularning har biri yomon ko'zdan, yovuz ruhlardan asranish uchun ko'plab tumorlar, marjon-u ko'zmunchoqlar, o'yib ipga tizilgan turli rangdagi mayda toshlar-u chig'anoqlarni taqib yurganlar.

Misrliklar xonakilashtirilgan hayvonlar va parrandalar qatorida: g'oz, o'rdak, antilopa va ov burgutlari bo'lgan. Ot va tuyalar esa Misrga keyinchalik **giksoslar** tomonidan keltirilib turli sohalarda qo'llaniladigan bo'ladi. Ammo aholi otni minish yoki unga omoch qo'shib yer haydashda deyarli foydalanmagan.

Misrda hunarmandchilikning: zargarlik, kulolchilik, ko'n-terichilik, to'qimachilik, kemasozlik,

duradgorlik, sangtaroshlik (toshga ishlov berish), metallurgiya sohaları yaxshi rivojlangan. **Yangi podsholik davridan** jezdan mehnat va jang qurollari, oltin va kumushdan, qimmatbaho toshlardan ajoyib zargarlik buyumlari, taqinchoqlar yasashgan. Zamondoshlaridan biri hunarmandlar mehnatini quyidagicha tasvirlaydi: *“Temirchini ish jarayonida kuzatdim. Uning qo‘llaridagi qadoqlar timsoh terisini eslatadi... Sangtarosh doim qattiq tosh bilan mashg‘ul... Sartarosh tungacha soch olib faqat ovqatlangan paytdagina tirsaklariga suyanib tin oladi... Qayiqchi o‘z mehnati uchun haq olish maqsadida suzsa.... To‘quvchi kun davomida tizzalari bilan bukilib o‘tirib toza havoda bo‘lmaydi... Etikdo‘z teriga ishlov berishda ming azoblar chekadi”*.

Zodagonning hayoti tamoman o‘zgacha bo‘lgan. Uning katta hashamatli uyi, bog‘da mevali daraxtlar va gullar orasida joylashgan. Zodagon kishilar chiroyli kiyimlar kiyib qimmatbaho zeb-ziynat buyumlarini taqishib, turli noz-ne‘matlar, to‘kin dasturxonlar tevaragida bazmlar uyushtirishgan. Ularning uylarini qimmatbaho yog‘ochlardan, fil suyagidan o‘yib yasalgan o‘rindiqlar-u karavotlar, nafis did bilan tayyorlangan sandiqchalar-u, idishlar bezab turgan. Misrda dunyoning boshqa mamlakatlarida deyarli uchramaydigan mo‘miyolash udumi shakllanganidan fir‘avnlr, a‘yonlar hali hayotligi paytidayoq toshdan maqbaralar qurdirib, ularning devorlarini rangli rasmlar, o‘ymakor naqshlar, chizmalar bilan bezatishgan. Ushbu lavhalar, uning hayoti davomida erishgan muvaffaqiyatlarini o‘zida namoyon etgan. “Narigi dunyo”ga ishongan misrliklar maqbarada: yashayotgan uyi o‘zi, xotini, bolalari va hatto buyumlarini chizdirgan. Undagi xizmatkorlarning mayda haykalchalari u dunyoda tirilib xo‘jayinga xizmat qilishi mo‘ljallangan.

#### Ehromlar vatani

A‘yonlar, zodagonlar o‘zlari uchun maqbaralar qurdirsa-da, Misrdagi eng g‘aroyib inshootlar Misr fir‘avnlari uchun bunyod etilgan. **Qadimgi podsholik davrida** fir‘avnlr maqbaralari **ehromlar** tarzida qurilgan.

Dastlabki ehrom **fir‘avn Joserga** bag‘ishlab, uning eng oliy a‘yoni, o‘z davrining mashhur me‘mori, tabib va donishmand **Imxoteb** tomonidan mil.avv. 2880-yili bunyod etiladi. Eng baland ehrom esa **Xufu** (yunoncha **Xeops**) davrida mil.avv. 2600-yili bunyod etilib, yunon tarixchisi **Gerodotning** yozishicha, balandligi 150 metrli bu inshoot 30 yil davomida 100 ming kishining doimiy ishtirokida qurilgan. Xeops ehromi bugungi kungacha **“yetti mo‘jiza”**ning biri hisoblanadi.

Ehromlar joylashgan Nilning g‘arbiy sohili **Gizada** tanasi sher, boshi odamniki butun boshli qoyadan o‘yib yasalgan **sfinks Xafraning** haykali mavjud. Bu ajoyib yodgorliklarning barchasi hozirgi kunda UNESCO himoyasida.

Mil. avv. 2-mingyillikdan boshlab misrliklar ehromlar qurmasdan fir‘avnlarni qoyalar va yer ostida maxsus qurilgan xilxonalarda dafn eta boshlaydi. Maqbaralarning asosiy ko‘pchiligi qadim zamonlardayoq talangan bo‘lsa-da, arxeologlar **fir‘avn Tutanxamonning** tobuti va mumiyosini topishgan va u hozirda **Qohira muzeyida** saqlanmoqda.

Qadimgi Misrlik rassomlarning ishlarini ma‘lum xususiyatlariga qarab farqlash mumkin. Bu rasmlar inson tanasining yuqori qismi: yelkalari, qo‘llari – ularga oldindan; oyoqlari – yondan; qarayotgandek chizilgan. Boshi yonidan, ko‘zlari esa unga to‘g‘ri yuziga qarayotganimizdek tasvirlangan. Erkaklar qoramtir, ayollar nisbatan oqish, xudolar tanasi kattaroq chizilgan. Fir‘avn, a‘yonlaridan, ular esa oddiy insonlardan kattaroq tasvirlangan. Qadimgi rassomlar suratlarini, o‘zlari tasvirlangan kishilarga o‘xshatishga intilganlar.

#### Madaniyat va din

Qadimgi misrliklar bundan 6–7 ming yil avval yuksak madaniyat yaratganlar, yozuv ilm-fan va madaniyat ishlab chiqarish xo‘jaligi, hunarmandchilik ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo‘lsa, ular o‘z navbatida keyingi takomillashgan mehnat qurollari sifatida ishlab chiqarish sohalarining keyingi yuksalishiga xizmat qiladi.

Misrliklarning eng qadimgi yozuvlari belgi-rasmlar **iyerogliflar** (**“toshga chekilgan muqaddas bitiklar”**) deb nomlangan. Misr yozuvida 750 ta iyeroglif bo‘lib: quyosh deb yozish uchun doira

chizilib o'rtasiga nuqta qo'yilgan. Kamon ko'tarib turgan kishi - jangchini anglatgan va h.k.lar. Nil sohilida o'sadigan qamish-papiruslardan yupqa kesib yelimplab yozish uchun foydalanilgan. Papirusdan 35–40 metrli o'ramlar va *Mesopotamiya*dagi "*loy taxtachalar*"da bitilgan ma'lumotlarni olimlar *ilk kitoblar* deb nomlashadi. Misr maktablarida faqat o'g'il bolalarga xat-u savodga o'rgatilgan. Unda kichik yoshdagi bolalar sopol sathiga, katta yoshdagilar esa papirus varaqlariga yozishgan. Papirusga qora va qizil ranglar bilan ingichka tayoqcha yordamida yozilgan. Misrdagi oliy va o'рта maktablarning aksari qismida mirzolar tayyorlanganidan ular "*Mirzolar maktabi*" deb atalgan. O'sha zamondagi "Nasihatnoma"da: "*Ey mirza, dangasalik qilma yo'qsa jazoga duchor bo'lasan. Qo'lingdagi kitobni doim o'qigin. Vazifani jimgina yechgil, sening og'zingdan butunlay ovoz chiqmasin. Biror kuningni ham bekor o'tkazma, aks holda kaltak yeysan. Bolaning qulog'i yelkasida bo'ladi, qachon ursang shunda qulog'iga gap kiradi*" deb yozilgan edi.

Shu davrda vujudga kelgan misrliklar adabiyoti namunalari: "*Isida va Ossiris haqida*", "*Gor bilan Set janjali*", "*Sinuxet hikoyasi*" afsona va ertaklari bizga qadar yetib kelgan. Misr astronomlari eng qadimgi, 365 kundan iborat taqvimni yaratganlar. Ular yaratgan yulduzlar osmonning xaritasi *Senmut maqbarasi*, *Edfu* va *Dender ibodatxonalari* shiplariga tushirganlar. Misrliklar eng qadimgi *suv va qum soatlarini* ham ixtirochilaridir. Misr geograflari o'z mamlakatlari, *Sinay yarimoroli* va *Arabistonning xaritasini* chizganlar. Ularning xaritalarida Sinaydagi boy mis konlari, oltin konlari, ehromlar uchun toshlar olinadigan joylar tasvirlangan.

Misrliklarning xotirjam hayoti Nil suvlari bilan bog'liq bo'lgan. Shu sababdan Nil xudosi *Xapi* asosiy xudolardan biri hisoblangan. Undan ham muhimroq narsa, barcha mavjudotlarga issiqlik va yorug'lik beruvchi Quyosh xudosi *Ra* edi. Uning boshqa nomlari *Amon* va *Amon-Ra* ham bo'lgan. Yangi podsholik davrida *fir'avn Amenxoteb IV* yagona din quyoshga *Aton xudosisiga* sig'inishni joriy etishga uringan. Fir'avn bu borada yangi poytaxt "*Axetatton*"ni qurib, o'z ismini *Exnaton*, ya'ni "*Quyosh shu'lasi*" deb o'zgartirgan ham edi. Ammo keyingi fir'avnlarda davrida avvalgi dinlarga qaytiladi.

Misrliklar oddiy odamlar ko'ziga ko'rinmaydigan xudolar, ular uchun maxsus qurilgan ibodatxonalariga kelib yashaydi deb ishonganlar. Ibodatxonada xudolarning katta haykallari, jez va sopolidan yasalgan kichik haykalchalarini o'rnatganlar. Sig'inuvchilar xudolar shu haykallar ichida joylashib, ularning arzlarini eshitib, in'omlarini qabul qiladi deb tushunganlar. Xudolarga xizmat qiluvchi kohinlar shu ibodatxonalarda yashagan. Bosh kohin muqaddas udumlarni bajarish — haykalni xushbo'y suyuqliklar bilan artib-tozalash, kiyintirish, tansiq taomlar berishga javobgar edi. Ishlar bitganidan so'ng xudoga hurmat bajo etib kohin orqasi bilan yurib uzoqlashgan. Kohinlar fir'avnlarda kabi xalq orasida katta hokimiyatga ega edilar. Sababi aholi ularni xudolar nomidan gapiradilar deb ishonishgan.

Misrda ibodatxonaga eltuvchi yo'lning ikki tomoniga sfinkslar haykallari o'rnatilgan. Darvozaning ikki tomonida salobatli, toshdan o'yib yasalgan bo'rtma tasvirlar tushirilgan minoralar bo'lgan. Ularning oldida granit toshdan o'yib yasalgan fir'avning taxtda o'tirgan haykali o'rnatilgan. Ibodatxona ichida maxsus xona xudoning haykalchasi saqlangan. Unga yaqin xonada "*Muqaddas qayiq*" bo'lgan. Bayram kunlari haykalcha qayiqqa o'rnatilib kohinlar tomonidan ibodatxona hovlisiga xalqning oldiga olib chiqilgan.

Xudolar haqida afsonalar yaratilgan, masalan "*Osiris haqidagi afsona*"da: Misr podshosi bo'lgan dehqonchilik homiysi *Osiris*ni ukasi sariq sochli, qizil ko'zli, eshak boshli *Set* hasad qilib o'ldirishi hikoya qilinadi. Osirisning singlisi va xotini *Isida* o'g'li *Gorni* asrab avaylab o'stiradi va keyinchalik uni *Setni* yengishiga ko'maklashadi. Nihoyat, *Isida* *Osiris*ni mo'jizali tiriltirishi va uni yerda qolishni istamay "narigi dunyo"da fir'avn hamda qozi bo'lishi hikoya qilinadi. *Gor* fir'avnlarda, *Isida* esa barcha ayollar va onalar homiysiga aylanadi.

Qadimgi misrliklar fir'avnga ham xudo sifatida munosabat bildirishgan. Uni "*quyoshning o'g'li*" deb atashgan.

## QADIMGI MESOPOTAMIYA

## Shumer

Qadimgi Mesopotamiya, ya'ni "**Ikki daryo oralig'i**" kishilik madaniyati erta rivojlangan o'lkadir. Arxeologlar bu yerdan paleolit davridan boshlab (70–80-mingyilliklar) odamlar yashab kelayotganligini aniqlaganlar. **Frot** va **Dajla daryolari** toshqinlari sababli vohada aholi faqat mil. avv. 9–8-mingyilliklardan yashay boshlagan. Shu vaqtdan dastlabki to'g'onlar, sug'orish inshootlari qurila boshlagan.

Mesopotamiyaning janubiy qismi past tekistlikdan iborat bo'lgan. Shimoldagi o'lkada esa o'rmon va tog'lar ko'p bo'lib, janubliklar bu yerlarga yog'och keltirish maqsadida yurishlar uyushtirib turganlar. Janubiy Mesopotamiya unda yashaydigan aholi nomidan – **Shumer**; shimoldagi o'ika esa undagi **akkad qabilalari** nomidan **Akkad** deb atalgan. Ikki daryo oralig'ida mil. avv. 6–5-mingyilliklarda vujudga kelgan obod qishloqlar hunarmandchilik va savdoning yuksalishidan juda tez shaharlarga aylanadi. **Eredu, Uruk, Ur, Larsa, Lagash, Umma, Isin** va boshqalar – **Shumerda; Mari, Nineviya, Karxemish, Ashshurlar** – Akkada yoki shimolda mil. avv. 4-mingyillikning 2-yarmi – 3-mingyilliklarning boshlarida tashkil topadi. Shumerlar o'z shaharlarini katta quyoshda quritilgan xom g'ishtlardan qurgan. Xudolar haykallari esa maxsus keltirilgan toshlardan o'yib yasalgan. Shahar-davlatlar "**en**" deb atalib, ularni oliy ruhoniylar – "**lugal**" boshqargan. Enlar unchalik katta bo'lmagan, jumladan, Urning maydoni 20 gektar, aholisi esa 4 mingga yaqin edi, xolos. Har bir shahar davlatni qo'shini bo'lib, ular ikki qismga bo'lingan. Qo'shinning bir qismini, nayza va sanchqilar bilan qurollangan, eshak qo'shilgan jang aravali askarlar tashkil qilgan. Ikkinchi qismi jang boltasi, xanjar, nayzalari bo'lgan og'ir qurollangan piyoda jangchilar bo'lgan. Jangchilar dubulg'a, zirxli qalqonlar bilan ta'minlangan.

## Akkad davlati

Ikki daryo oralig'i shahar davlatlari uzoq asrlar davomida o'zaro urushlar olib borgan. Mil. avv. 2316-yili Akkad podshosi **Sargon I** Mesopotamiyadagi 50 ta shahar-davlatni birlashtirib, yirik davlat tuzadi. Afsonalarga qaraganda Sargon tashlandiq bola bo'lib keyinchalik ma'buda **Ishtar**ning homiyligida yuksala borib taxtga o'tiradi. Ikki daryo oralig'ini istilo qila boshlagan. Sargon **Lugal zaggisini** asirga olib, xudo Enlila sharafiga qurbonlik keltiradi. U Elam, Mesopotamiya, Old Osiyoni egallab, o'zini "**to'rt iqlim podshosi**" deb e'lon qilgan. Sargon I podsholigi Janubiy-G'arbiy Osiyodagi dastlabki eng yirik quldorlik davlati edi. Undan keyin Mesopotamiyada turli hukmdorlar: **Naram-Suen, Shulgi, Gandash, Agumlar** ham o'zlarini "to'rt iqlim podsholari" deb atashgan. Sargonning vorislari davrida Akkad kuchsizlana borib, ko'chmanchi **gutey qabilalari** tomonidan istilo qilinadi. Guteylar Mesopotamiyada 125 yil hukm surganlar. Mil. avv. XXII asr oxirida **Ur podsholari** Mesopotamiyani guteylardan ozod qiladi.

## Qadimgi Babil podsholigi

Mil. avv. 2-mingyilliklar boshlaridan Mesopotamiyaga shimoliy-g'arbdan **amoriy qabilalari** bostirib kirib: **Larsa, Isin, Mari, Ashshur, Eshkun** shahar-davlatlarini bosib oladilar. Ular o'z poytaxtlari **Bab-Ilu** ("**Xudo darvozasi**")ga asos soladilar. Yunonlar bu shaharni **Babil** degan nom bilan tarixga kiritadilar. **Qadimgi Babil podsholigi** asoschisi **Sumuabum** bo'lib, sulola vakillari mil. avv. 1894–1595-yillarda mamlakatni boshqargan. Podsholikning eng yuksalgan davrida **Xammurapi** (mil. avv. 1792–1750-y.) hukmdorlik qilgan. Uning davrida tuzilgan 247 moddadan iborat qonunlar mixxat yozuvida **bazalt tosh** sathida bitilgan. Qonunning kirish qismida uni chiqarishdan maqsad, mamlakatda adolat o'rnatishdir deb yozilgan. Qonunda:

- Ibodatxona mulkini o'g'irlagan kishi o'limga hukm etilgan;
- Agar biror kishi eshak, qo'y yoki qulni o'g'irlasa, u o'g'ri o'ldirilishi lozim;


- Agar o'g'il otasini ursa, uning qo'lini kesib tashlash kerak;
- Agar biror kishining tishi urib sindirilsa, gunohkorning ham tishi sindirilishi;
- Agar birovning ko'zini ko'r qilgan bo'lsa, aybdorning ham ko'zini o'yib olish;
- Kimki qochoq qulni yashirsa, o'limga hukm etilishi;
- Kimki o'zidan yuqori mansabdagi kishini ursa, ho'kiz terisidan to'qilgan darra bilan 60 darra kaltaklanishi lozim.

Qonunlarda adolat mezoni aybdorga nisbatan u yetkazgan zarar darajasida jazo berish hisoblanadi. Xammurapiga qadar qarz olib to'lamagan kishi umrbod qullikka berilgan. U esa qarz evaziga 3 yil ishlab berish, so'ng ozod etish haqida qonun qabul qilib erkin fuqarolarni qullikka tushirishdan himoya qiladi.

Xammurapi vafotidan so'ng taxtga o'g'li **Samsuilun** (1749–1712-y.y) o'tirgan. Amoriylar sulolasi so'nggi vakillari paytida Bobil kuchsizlanib Sharqdan bostirib kirgan ko'chmanchi **kassit qabilalari** uni mil. avv. 1595-yildan boshqara boshlaydi.

**Mesopotamiyada  
madaniyat va din**

Faqat ilk davlatlarga emas, ilk yozuv ham mil. avv. 4-mingyillikda Janubiy Mesopotamiyada kashf qilingan. Mesopotamiyada savodxonlik Misrga nisbatan keng tarqalib unda hatto cho'ponlar ham qo'ylarni hisoblashni bilishgan. Ikki daryo oralig'ida dastlab **iyerogliflardan** foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik **mixxat yozuvi** ham shakllanadi. Mesopotamiyada yozish uchun **loy taxtachalardan** foydalanilgan. **Ur, Nippur, Nineviya, Bobil, Ashshur** va boshqa shaharlarda loy taxtachalar to'plangan kutubxonalar bo'lgan.



Bobilda astronomiya yuksak rivojlangan. Olti-yetti qavatli observatoriyalar – **zikkuritlar** qurilib osmon jismlari, oy va quyoshning harakatlari kuzatilgan. Ular oy yili 354, quyosh yili 365 kun ekanligini bilganlar. Qadimgi Mesopotamiyadan bizgacha soatni 60 minutga, minutni 60 sekundga bo'lish yetib kelgan. Nineviyadagi **Ashshurbanipal kutubxonasidan Misr, Urartu, Bobilning xaritalari** topilgani geografiyaning ham yuksak rivojlanganidan dalolat beradi. Ular **Hindiston (Melaxa) Ispaniya (Tarsisa), Afg'oniston** haqida ma'lumotlarga ega bo'lganlar.

Mesopotamiya adiblari "**Dunyoning yaratilishi haqida**", "**Dunyoni suv bosishi (to'fon) haqida**" kabi eng qadimgi afsonalarni yaratganlar. Ikki daryo oralig'ida yaratilgan eng mashhur asarlardan biri "**Gilgamish haqida doston**" bo'lib, unda **Gilgamish va Enkidu**larning do'stligi, sarguzashtlari va qahramonliklari haqida hikoya qilinadi.

Mesopotamiyaliklar diniy e'tiqodi tabiat kuchlari, osmon jismlari asosida shakllangan. Xudolar dastlab ayollar qiyofasida, keyinchalik erkaklar siymosida tasvirlangan. **An – osmon, Ki – yer xudosi** hisoblangan. Ular er-xotin bo'lib, farzandlari havo xudosi **Enlil** o'sib ulg'aygach **Yerni** idora qila boshlab, xudolar sulolasiga asos soladi. **Quyosh xudosi** shumerliklarda **Utu** akkadliklarda **Shamash** bo'lgan. **Oy xudosi** shumerliklarda – **Ninnar**, akkadliklarda – **Sin** deb atalgan. Shumerliklar **Zuhro yulduzini – Ianna** deb atashib (akkadliklarda **Ishtar**) u **hosildorlik va muhabbat ma'budasi** hisoblangan. Bobil yuksalgan paytida uning xudosi **Marduq** mamlakatning **oliy xudosisiga** aylanadi. Ko'p xudolik hukm surgan Mesopotamiyada dastlab xudolar sharafiga odamlar qurbonlik qilingan bo'lsa, keyinchalik ularni turli hayvonlar bilan almashtirganlar.

**Ossurlar hukmdorligi  
va Yangi Bobil  
podsholigi**


Bobildan shimolroqda Dajla daryosi havzasida mil. avv. 3-mingyillik oxiri – 2-mingyillik boshlaridan *Ashshur shahar-davlati* joylashgan. Bu hududlarda yashagan *semitlar, xurritlar subariylarning* aralashuvidan *ossur xalqi* shakllangan. Ashshur atrofidagi tog‘li hududlarning boy temir konlariga ega bo‘lishi uning keyingi ravnaqini ta‘minlagan. Mil. avv. VIII asrda ossuriyaliklar dunyoda eng ko‘p sonli kuchli qo‘shin tuzadi. Jangchilar qilich, jang boltalari, qalqon, uchqir dubulg‘a, zirxli kiyimlar bilan ta‘minlangan. Ossuriyaliklar birinchi bo‘lib *otliq qo‘shin*dan keng foydalana boshlaydi. Ossuriya qo‘shinlari o‘zining shafqatsizligi bilan ajralib turgan. Ularda harbiy intizom qattiq edi. Ossuriyaliklar asirlarning tiriklayin terisini shilib olish, ko‘zini o‘yish sahnalarini tasvirlash orqali, ossur qurolining yengilmasligini namoyish qilganlar.

Mil. avv. VIII–VII asrlarda *Tiglatpalasar III, Salamansar V, Sargon II, Sinaxerib, Asarxadon va Ashshurbanipallar* davrida Ossuriya qo‘shinlari Misr, Suriya, Finikiya, Bobil, Urartuda urushlar olib boradi. Ossurlar u yerdan ko‘plab boylik va asirlar olib qaytganlar.

Ossuriya hukmdorlari saroyi *Nineviyada* sun‘iy tepalik ustida qurilib, qal‘a ko‘rinishida bo‘lgan. Uni atrofi qalin, mustahkam o‘q otish tuynuklari bilan ta‘minlangan oq devor bilan o‘ralgan. Kirish darvozasining har ikki tomonida saxiy ruhlarning – odam boshli tanasi esa qanotli ho‘kizlar ko‘rinishidagi katta haykallari o‘rnatilgan. Oxirgi hukmdorlardan biri *Ashshurbanipal* 30 ming loy taxtachalar to‘plangan kutubxona tashkil etgan. Kutubxona qoldiqlarini arxeologlar XIX asrda topishgan bo‘lib, shu “kitoblardan” olimlar Gilgamesh, Shumer xudolari va Bobil podsholigi tarixiga oid ma‘lumotlarni olishgan. Ashshurbanipalning o‘limidan so‘ng Mesopotamiyada ossurlar hukmdorligiga qarshi qo‘zg‘olon boshlangan. Zaiflasha borgan ossurlar poytaxti “*Sherlar makoni*” Nineviyani mil. avv. 612-yili *Bobil* va *Midiya* qo‘shini bosib olib, talab vayron qilgan.

*Yangi Bobil podsholigi* mil. avv. 628-yili ossurlarga qarshi qo‘zg‘olon boshlig‘i *Nabopalasar* tomonidan tuziladi. Uning vorisi *Navuxodonosar II* davrida Bobil Mesopotamiyada o‘z hukmronligini to‘liq o‘rnatadi. Bobil Osiyoning eng yirik va mashhur shahriga aylanadi. Unda “*yetti mo‘jiza*”ning biri “*Semiramida osma bog‘lari*” bunyod etiladi. *Navuxodonosorning* nomi esa yahudiylar va xristianlarning diniy kitoblaridan joy oladi. Zaiflasha boshlagan Bobil keyinchalik ahamoniylar Eroni tomonidan bosib olinadi.

## FINIKIYA VA FALASTIN



O‘rtayer dengizining sharqiy sohillarida *Finikiya* va *Falastin* joylashgan. Dengiz suvlari va Livan tog‘lari oralig‘idagi ensiz vohada kemalar to‘xtashi uchun ko‘plab qulay ko‘rfazlar bo‘lib, xuddi shu yerlarda keyinchalik Finikiya shaharlari barpo etiladi. Unumdor yerlari kam bo‘lganidan aholi asosan uzum va zaytun yetishtirgan. Qadimdan Finikiya o‘zining kemalar qurish uchun ishlatiladigan sifatli yog‘ochlari bilan shuhrat qozongan. *Tir, Bibl, Sidon, Arvad shaharlari* Mesopotamiyadan savdo yo‘llari kelib tutashgan. Geografik jihatdan qulay joyda vujudga kelgan. Finikiya shaharlarida savdogarlar uchun a‘lo sifatli kemalar, dengizchilar, qul eshkakchilar doimo tayyor turganlar.

Shaharlarda hunarmandchilik yuksalib zargarlar: yog‘och, fil suyagidan ajoyib o‘ymakorlik buyumlari yaratishgan. Shisha oyna ixtiro qilingan. Mil. avv. 2-mingyillikdan Finikiya shaharlari misrliklar ta‘siriga tushib qoladi. Asrlar o‘tib Misr va Xett davlatlari kuchsizlangan paytda mil. avv. XI–IX asrlardan Bibl, Sidon va Tir shahar-davlatlari yuksaladi. Tir podshosi *Xiram I* (965–936-yillar) qo‘shinlari Shimoliy Afrikadagi Utika, Kipr orolini bosib olgan. Shu paytdan finikiyalik dengizchilar o‘zlari ko‘p borib turadigan o‘lkalarda, manzilgohlar – koloniyalar barpo eta

boshlaydilar. Mil. avv. X–VI asrlarda O'rtayer sohillarida finikiyaliklarning ko'plab koloniyalari bunyod etiladi. Tirlıklar mil. avv. 814-yili asos solgan **Karfagen** keyinchalik Shimoliy Afrikadagi kuchli qulchilik davlati poytaxtiga aylanadi. Dengizchilar uzoq mamlakatlarga safarlarga chiqib Shimoliy Yevropadan qahrabo va qalay keltirganlar. Finikiyalik dengizchilar Misr fir'avni **Nexo** taklifi bilan 3 yilda Afrika qit'asini aylanib chiqishgan. Iqtisodiyot taraqqiyoti fan va madaniyatni ham yuksaltirgan. Finikiyaliklar qulay va sodda yozuv yaratganlar. Ular har bir belgisi tovushga mos bo'lgan 22 ta harfli alifboni kashf qilganlar. Finikiyaliklar yozuvi keyinchalik: **yunon, lotin, kirill alifbolariga** asos bo'lgan. Keyinchalik Finikiya ham eronliklar ta'siriga tushib qoladi.

#### Injil rivoyatlari

Falastin O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi yana bir mamlakatdir. Undagi serunum tuproqli Saron pasttekisligi xristianlarning muqaddas kitobi "**Injil**"da **Edemga**, ya'ni "**jannat bog'i**"ga qiyoslangan. Misrliklar **Xanaan** deb atagan bu o'lkada qadim zamonlardan aholi zich yashagan. Falastinning eng qadimgi aholisi **filistimlar, moavlar, xananeylar** haqidagi ma'lumotlar yahudiylarning "**Tavrot**" kitobida ham mavjud. Falastin nomi yahudiy tilida, ularni "**peleshet**" deb atashlaridan kelib chiqqan. Mil. avv. 3–2-mingyilliklarda chegaralarida bu hududda **Quddus (Iyeruesalim), Gezer, Megiddo, Laxish** kabi shahar-davlatlar paydo bo'lgan.

Misr, Falastin va Babil oralig'idagi Zagros tog'lari va dashtlarda mil. avv. 3–2-mingyilliklarda yashagan qabilalar orasida **yahudiylar** ham bo'lgan. Rivoyatlarga qaraganda, Misrdagi to'q va farovon hayot haqida eshitgan yahudiylar dastlab, u yerga ko'chib borganlar. Ammo zamonlar o'tib fir'avnlr yahudiylarga zulm o'tkaza boshlaydilar. Yahudiylarni Misr tutqunidan Moiseyning (Muso payg'ambarning) halos etishi va "**bani isroilni**" 40 yil cho'l-u biyobonlarda olib yurgani haqidagi rivoyat esa musulmonlarning muqaddas kitobi "**Qur'on**"da ham mavjud.

Uzoq davom etgan sarson-sargardonliklardan so'ng mil. avv. XIII asrda yahudiylar Misrdan Falastinga ko'chib kelganlar. Keyingi paytda o'troqlasha boshlagan yahudiylar mil. avv. XI asr oxirida davlat tuzib **Saul** ismli qabiladoshlarini hukmdor etib saylashgan. Saul va uning o'g'illari filistimliklarga qarshi kurashib halok bo'lganlaridan so'ng, podsholikka uning kuyovi **Dovud** (1000–965-y.y) saylanadi. Dovud esa Isroil bilan Yahudiyni qo'shib, **Isroil-Yahudiy podsholigiga** asos soladi. Uning qo'shinlari **Gat shahri** yaqinidagi jangda mahalliy filistimlarni yengib, mamlakatdan haydab chiqariladi. **Quddus shahri** davlat poytaxtiga aylantiriladi.

Dovuddan so'ng taxtga kelgan **Sulaymon** (965–935-y.y) mamlakatni har tomonlama yuksaltirgan. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo rivojlanadi. Yirik inshootlar barpo etilgan Sulaymon o'zining donoligi va boyligi bilan shuhrat topadi. Lekin davlat mustahkam bo'lmay uning vorisi **Rovoam** davridayoq parchalana boshlaydi. Dastlab misrliklar Isroilning shahar va qishloqlarini talaydilar. So'ngra Ossuriya podsholari bosqinlari boshlanadi. Xususan **Sargon II** mil. avv. 722-yili Samariya shahrini olib podsho **Osiya** va 27 mingdan ortiq isroillikni Ossuriyaga asirlikka olib ketadi. Isroil podsholigi mil. avv. VII asrdan Misr ta'siriga tushsa, mil. avv. VI asr boshlarida Babil podshosi **Navuxodonosor II** Quddusni olib vayron qilgan, aholisining katta qismini asirlikka haydab ketadi. Mil. avv. VI asr o'rtalaridan Palastin hududlari ham Old Osiyoning boshqa mamlakatlari qatorida **Ahamoniylarga** tobe bo'lib qoladi.

## XETT VA URARTU

#### Qadimgi Xett podsholigi

Kichik Osiyo yarimoroli qadimdan qulay geografik sharoitga ega bo'lgan; Unda **xetlar, kashklar, xurritlar** yashagan; Xettlarning kelib chiqishi Kavkazdanmi yoki G'arbiy Yevropadan ekanligi olimlar tomonidan hozirga qadar hal etilmagan muammodir. Mil. avv. 2-mingyillikning 2-yarmi Kichik Osiyoga Bolqondan

*axeylar*, keyinchalik *frigiylar*, shimoliy-sharqdan *kimmeriylar* kelib joylashgan. Ular Kichik Osiyoning g'arb qismida yunon madaniyatiga oid: *Troya, Lidiya, Frigiya* kabi shahar davlatlarini yaratishgan. Kichik Osiyoning sharqiy xududlarida mil. avv. 2-mingyillik boshlarida: *Nesa, Kanish, Burusxand, Kussar, Xattusa shahar-davlatlari* tashkil topgan. Ushbu mayda davlatlar asosida tuzilgan. *Qadimgi Xett podsholigi* mil. avv. 18–16 asrda hukm surgan. Davlatning uzil-kesil tashkil topishi *Labarna* davriga to'g'ri kelib u Xett hududlarini birmuncha kengaytirib, poytaxtni *Xattusa* shahriga ko'chirgan. Keyingi podsholar *Xattusili I* va *Mursili I* lar davrida Xett qo'shinlari Suriya, Bobil va boshqa mamlakatlarga istilolar uyushtirgan.

Mamlakatning eng yuksalgan payti *Mursili II* (1340–1305) davriga to'g'ri kelib Old Osiyoning buyuk davlatiga aylanadi va *Yangi Xett podsholigi* nomi bilan shuhrat qozonadi. Mil. avv. 1280-yili *Misr-Xett sulhiga* binoan Falastin, Finikiya yerlari bu ikki davlat orasida bo'lib olinadi. Shundan so'ng g'arbdan "*dengiz xalqlari*" hujumlariga uchragan Xett kuchsizlanib mil. avv. XII–IX asrlarda mayda davlatlarga bo'linib ketadi.

Xett aholisi qo'shni mamlakatlar xalqlari ta'sirida yuksak madaniyat yaratgan. Xettlarning *iyeroglif* va *mixxat yozuvlari shumer-akkad yozuvi* asosida yaratilgan. Xett me'morlari xudolar, podsholar, jangchilarning haykallarini yuksak mahorat bilan ishlaganlar. Manbalarda "*mamlakatning 1000 xudosi*" ko'p tilga olinadi. *Teshub tog' cho'qqilari, momaqaldiroq, yog'ingarchilik va hosildorlik xudosi* bo'lgan. Xettlarda podsholar ham xudolar darajasiga ko'tarilib, aholi ularga "*quyoshim*" deb murojaat qilishgan. Xudolarga bag'ishlab ajoyib tasviriy san'at asarlari yaratganlar.

Urartu Kichik Osiyoning Sharqiy qismida, Kavkaz ortida Frot va Dajla daryolari boshlanishidagi yerlarni egallagan davlat. Bu yerlarda yashagan qadimgi aholi *urartlar* bo'lib, ular hozirgi *armanlar* va *gruzinlarning* ajdodlari hisoblangan. Urartlar *xett-xurrit* qabilalariga qardosh bo'lganlar. Urartuda hunarmandchilikning: kulolchilik, zargarlik, misgarlik, sangtaroshlik, me'morchilik turlari yaxshi rivojlangan. Savdo-sotiq ancha erta taraqqiy eta boshlagan.

Dastlabki qabilalar uyushmalari – davlatchalar mil. avv. XIV–XIII asrlarda Van Sevan va Urmiya ko'llari atrofida tashkil topgan. Ular orasida Urartu ham bor edi. Mayda davlatlarni birlashtirilishi mil. avv. X–IX asrlarda bo'lib, markazlashgan, Urartuning birinchi hukmdori *Aramu* (864–845) Ossuriya podsholarining hujumlarini qaytarish uchun urushlar olib borgan. Keyingi hukmdor *Sarduri I Tushpa shahrini* poytaxt qiladi. U Ossuriyaga qarshi kurashishda davom etib, qator mustahkam qal'alar bunyod ettirgan. Sarduri I davrida janubda *Mana podsholigi* zabt etiladi.

Urartuning yanada kuchayishi *Menua* (810–786) davriga to'g'ri kelib, uning qo'shinlari Araks daryosi vodiysiga, Frotning yuqori oqimidagi yerlarga zafarli yurishlar uyushtiradi. "*Menua kanali*" qurdiriladi. Uning vorisi *Argishti I* davrida Urartu Janubi-G'arbiy Osiyodagi eng qudratli davlatga aylanadi. Ossuriya qo'shinlari mag'lub etilib, uni Yaqin Sharqdagi ikkinchi darajali davlatga aylinishida Urartuning roli katta bo'lgan. Urartu qo'shinlari Dajlaning irmog'i, Diala daryosi vodiysiga, Kichik Osiyoning sharqiy o'lkalariga kirib boradi. *Sarduri II* davrida Kavkazorti mamlakatlaridan Eriaxiga, g'arbda Shimoliy Suriyaga yurishlar qilinib, barcha urushlardan: oltin, kumush, jez, qimmatbaho ma'danlar, chorva mollari olib kelishgan. Yengilgan mamlakatlar aholisidan olingan asirlar, qulga aylantirilgan. Sarduri II hukmronligi so'ngida zaiflasha boshlagan Urartu, *Rusa I* davrida Ossurlar podshosi *Tiglatpalasar III* qo'shinlaridan yengiladi. Urartu podshosi Rusa I *Musasir shahri* ossurlar tomonidan olinib talanganini eshitib o'zini-o'zi o'ldiradi. Keyinchalik *kimmeriylar* va *skiflar* hujumlariga uchrab kuchsizlana borgan Urartu mil. avv. 590-yili Midiya davlati tomonidan uzil-kesil bosib olinadi.

Urartlar Ossuriya, Mesopotamiya va Xettlar madaniyati asosida yuksak madaniyat yaratganlar.



Unda yaratilgan mix-ponasimon yozuvda bitilgan ma'lumotlar arxeologlar tomonidan Urartuning ko'plab joylaridan topilgan. Yuksak me'morchilik namunalari *Teyshebaning qal'asi* bo'lsa, *Arnerd qal'asi*dan *Argishti I* va *Sarduri II* larning ismlari yozilgan, naqshli rasmlar tushirilgan lavhalar chiqqan. Lavhalarda hukmdorlarning zafarli yurishlari hikoya qilingan. *Nard dostoni*, *Dovud Sosoniy haqida dostonlarda*, *arman yozuvchisi Moisey Xoren* asarlarida qadimgi Urartu tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolgan.

## QADIMGI ERON. ELAM VA MIDIYA

### Qadimgi Eron

Osiyoning janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Uning Behistun degan joyidan arxeologlar o'rta paleolitda (mil. avv. 70–50-mingyilliklar) yashagan aholi manzilgohlarini topishgan. Eronning janubi-g'arbiy hududlarida yashagan *elamliliklar* mil. avv. 4-mingyillik boshlarida sug'orma dehqonchilikka o'tib, 3-mingyilliklar boshlarida poytaxti *Suza* bo'lgan davlatlarini tuzganlar. Elam mil. avv. XXII asrga qadar *Shumer-Akkad davlatlariga* qaram bo'lib kelgan. Shu asr boshlaridan *Kutik Inshushinak* Elamni mustaqil davlatga aylantiradi. Lekin ko'p o'tmay mamlakat dastlab *ko'chmanchi g'uteylar*, so'ng Mesopotamiya ta'siriga o'tgan. Mil. avv. XXI–XVIII-asrlarda Janubiy Shumerda o'z ta'sirini o'tkazgan elamliliklar, u yerdan Bobil podshosi *Xammurapi* tomonidan surib chiqariladi. Mil. avv. XV asrda esa Elamni *Bobil kassitlari* bosib olgan. Mil. avv. XII asr boshlarida Elam podshosi *Shutruk-Naxunta I* mamlakatni kassitlardan ozod qiladi. Mamlakatning yuksalgan davri mil. avv. 1155–1115-yillarga to'g'ri kelib, Bobil va Shimoliy Eron yerlari bo'ysundiriladi. Elamliliklar Mesopotamiyadan olib kelgan o'ljalari ichida "*Xammurapi qonunlar*"i yozilgan tosh ham bo'lgan. Shundan so'ng Bobil podshosi *Navuxodonosor I* qo'shinlari elamliliklarni yengib, unda o'z davlatining 3 asrlik hukmronligini o'rnatadi. Keyinchalik Elam Ossuriya, so'ng yana Bobil va mil. avv. IV asr o'rtalarida Kir II tomonidan bosib olinadi.



### Qadimgi Midiya

Hozirgi Eronning shimoli-g'arbiy hududlarida mil. avv. VII–VI asrlarda vujudga kelgan qadimgi davlat. Midiyani birlashtirgan hukmdor *Kashtariti* (672–653) ossurlarga qarshi kurashishga to'g'ri kelgan. Uning vorisi *Kiaksar* davrida mamlakat yuksalib mil. avv. 614-yili Ossuriya qo'shinlarini yengib undan behisob boyliklar va ko'plab asirlarni olib qaytgan. Keyinchalik midiyaliklar *Yangi Bobil podsholigi* bilan hamkorlikda *Ossuriya davlatini* batamom qulatadi. Kiaksar davrida Fors, Parfiya, g'arbda Kichik Osiyoga qadar hududlar Midiyaga o'tgan. Mamlakatning so'nggi hukmdori *Astiyag* bo'lib (585–550) uning qo'shinlarini yenggan Kir II, poytaxt *Ekbatanni* mil. avv. 550-yili bosib olgan.

### Ahamoniylar saltanati

Dastlab Urmiya ko'lining janubida yashagan *parsua qabilalari*, keyinchalik Elam yerlariga borib joylashadi. *Ahamoniy urug'i* sardori *Kayxusrav I* tevaragida birlashgan parsualar dastlab *ossurlarga*, *Kambiz I* (600–559) podsholigi davrida esa midiyaga itoat etgan. Davlatning yuksalishi *Kayxusrav II* (559–530)dan boshlanadi. Uning qo'shinlari mil. avv. 550–545-yillari Midiya, Elam va Bobilni bosib oladi. Shundan so'ng Kir II ning ot va tuya mingan qo'shinlari, Kichik Osiyoning g'arbidagi poytaxti *Sardi* bo'lgan *Midiya davlati* hukmdori *Krez* lashkarini Galis daryosi bo'yidagi jangda yengib uni ham istilo qiladi.

Mil. avv. 545–540-yillari ahamoniylar O'rta Osiyoning katta qismini egallab Hindistonga qadar borib yetadi. Shu tariqa Hindiston haqidagi ilk ma'lumotlar bilan forslar tanishadilar. Mil. avv. 530-yili Eron shohi Kir II O'rta Osiyoda massagetlarga qarshi urushda halok bo'ladi. Uning o'g'li *Kambiz II* (529–522) davrida Misr istilo qilinib, Eron shohi fir'avn deb e'lon qilingan.

Ammo shohning taxtni olishda akasi **Bardiyani** o'limiga sababchi bo'lgani ma'lum bo'lib, mil. avv. 522-yili Eronda zardushtiylik kohini **Gaumata** boshchiligida qo'zg'olon boshlanadi. Bu xabarni eshitgan Kambiz Misrdan Eronga qaytishida yo'lda o'ldirilgan. Gaumata esa 7 oy taxtda o'tirganidan so'ng fitna qurboni bo'ladi.

Eron taxtiga yana ahamoniylar sulolasi vakili **Doro I** (522–486) keladi. Doro I o'z podsholigini Bobil, Midiya, Elam, Misr, O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy hududlari, Sharqiy Erondagi qo'zg'olonlarni bostirishdan boshlaydi.

Ahamoniylar dunyodagi dastlabki ko'plab mamlakatlar va xalqlarni birlashtirgan saltanat tuzgan edilar. Doro I yirik saltanatni boshqarish islohotini o'tkazib uni 20 ta satraplikka – viloyatga bo'lib, ularning har biriga noib tayinlangan. Satraplar faqat shohga bo'ysunib, o'z viloyatini boshqarishda mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan. Doro I davrida mamlakatning turli viloyatlari orasida har 20–30 km da bekatlari bilan tosh yo'llar qurilgan. U **“Shoh yo'li”** deb nomlangan. Soliqlar tartibga keltirilib, oltin va kumush pullar zarb qilingan. Erondan boshqa barcha viloyatlarda, **xiroj solig'i** joriy etiladi.

Doro I davrida Hindiston, O'rta Osiyo, Shimoliy Qora dengiz bo'yi skiflariga qarshi urushlar olib boriladi. Eron mil. avv. V asr boshlarida Yunonistonda urush harakatlarini boshlaydi. **Yunon-Eron urushlari** Doro I ning vorisi **Kserks** davrida ham davom etib, mamlakatga hech qanday shuhrat keltirmaydi

Ahamoniylarning so'nggi vakili **Doro III** (336–330) davrida Eronga Aleksandr Makedonskiyning istilolari boshlanib, mamlakat avval **yunon-makedonlar**, so'ng **salavkiylar** hukmida bo'ladi.

#### Parfiya va Sosoniylar davlati

Mil. avv. III asrda zaiflashib qolgan **Salavkiylar davlatidan Parfiya** va **Yunon-Baqtriya** ajralib chiqadi. Mil. avv. 250-yili salavkiylarning Parfiya viloyati satrapi **Andragor** o'zini podsho deb e'lon qildi. Ammo mil. avv. 247-yili Parfiyani istilo qilgan sak qabilalariga mansub **parn-daxlar** sardori **Arshak** taxtni egallaydi.

Parfiyaning kuchaygan davrida **Mitridat I** (171–138) dastlab Midiyani, so'ng Bobilni bosib oladi. Keyinchalik **Mitridat II** davrida salavkiylar qo'shini mag'lub etiladi. Eron va Messopatamiya to'lig'icha egallanib Mitridat II **“ulug' shahanshoh”** unvonini oladi. Mil. avv. I asrda **Rim imperiyasi** bilan urushlar, o'zaro nizolar Parfiyani kuchsizlantira boradi.

Mil. avv. III asrdan boshlab podsholikni janubi-g'arbdagi **Parsua viloyati** yuksala boshlaydi. Deyarli 5 asr hukm surgan Parfiya III asrning 20-yillarida **Sosoniylar davlati** tarkibiga qo'shib olinadi. **Ardasher I** (224–239) poytaxtni **Staxr** shahridan **Ktesifonga** ko'chiradi. **Sosoniylar Eroni** III asrning 2-yarmi va IV asrda Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanadi. Jumladan, **Shopur I** davrida Suriya, Mesopotamiya, Armaniston, Xuroson va Marg'iyona bosib olingan. Hukmdor **“shahanshoh”** unvonini joriy etadi. Kushonlar, xioniylar, kidariylarga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib borgan Eron, V asrning o'rtalarida Eftallardan mag'lubiyatga uchrab unga boj to'lab turishga majbur bo'ldi.

#### Madaniyat va din

**Qadimgi elamliliklar** mil. avv. 3-mingyillikda 150 ta belgisi bo'lgan mustaqil yozuv yaratganlar. Mil. avv. VI–V asrlarda **oromiy harfiy yozuvi** keng tarqaladi. **Shumer-Akkad madaniyati** ta'sirida Elamda haykaltaroshlik, kulolchilik yuksak rivojlanadi. Uning Eron madaniyatining keyingi taraqqiyotiga hissi katta bo'lgan. Midiya davrida Eron va Turon xalqlarining umumiy bayrami **“Navro'z”** ning nishonlanishi kuzatilsa, ahamoniylar davrida u umumdavlat bayramiga aylantiriladi. Sosoniylar davridan **zardushtiylik ibodatxonalari** qurilishi keng yo'lga qo'yilgan. Zargarlar oltin, kumush va misdan ajoyib zeb-ziynat buyumlari, sharob ichish uchun ajoyib qadahlar – ritonlar yasaganlar. Sosoniylar davrida amaliy san'at ham yuksak rivojlangandi.

Eronda diniy e'tiqodlar qadimdan ancha kuchli bo'lgan. Elamliklar *xudolar onasi Pinekrni*, *yerosti xudosi* va *Suza ma'budi Inshunakni* ulug'langani ma'lum. *Naxunt quyosh va adolat xudosi* hisoblangan. Zardushtiylikning yuksalishi Midiya podshosi *Astiag* davrida boshlanadi. *Kserks* (486–465) *Ahuramazdani* eronliklarning *yagona samoviy tangrisi* deb e'lon qiladi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi esa "*Avesto*" bo'lgan.

*Moniy diniy* ta'limoti asoschisi, *Moniy ibn Fatak* (216–276) asli *Bobilda* tug'ilgan. Moniyning o'zi ajoyib rassom bo'lib, uning ta'limotida tasviriy san'at orqali insonlarda ma'naviy go'zallikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Oddiy mehnatkash xalq manfaatlarini ifodalagani sababli moniylik keyinchalik Eron va O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy hududlarida keng tarqaladi. Eronda V–VI asrlarda *mazdakiylik ta'limoti* ham yoritiladi. Uning asoschisi *Mazdak ibn Hamadoniy* (470–529) g'oyalarida mulkiy tenglik targ'ibot etilgan. Eron va O'rta Osiyoda keng yoyilib mazdakiylik xalq qo'zg'olonlariga ham olib kelgan. Qadimgi Eron madaniyati, Yaqin Sharq mamlakatlari madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

## QADIMGI HINDISTON VA XITOIY



Hindiston Osiyo qit'asining janubida joylashgan. Uning g'arbiy, sharqiy va janubiy tomonlari Hind okeani suvlariga tutashib turadi. Shimolda dunyoning eng baland *Himolay* tog'lari tabiiy chegara hisoblanadi. Hududda yilning asosiy qismi issiq bo'lib, faqat iyul-avgust oylaridagi yomg'irlar tez-tez takrorlanib turgan daryolar toshqiniga sabab bo'ladi. Hindiston yarimorolidagi eng yirik daryolar – *Hind* va *Gangadir*, lekin Hindistondagi ilk dehqonchilik *Sind* daryosi vodiysida mil. avv. 6–5-mingyillikda shakllangan. Mil. avv. 5–4-mingyillikda Hind daryosi vodiysida sun'iy sug'orish dehqonchiligi paydo bo'ladi. Hind dehqonlari: sholi, paxta, shakar-qamish yetishtirganlar. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida Hind vohasi, xususan Panjob vohasida qishloqlar, so'ng shaharlar tarkib topadi. Mulkiy tabaqalanish kuchayib, mil. avv. 3-mingyillikda eng qadimgi davlatlar vujudga keladi. Bu davlatlarning Mohenjodaro va Xarappa kabi katta shaharlari bo'lib ularning xarobalari arxeologlar tomonidan topib o'rganilgan.

Hindistonga mil. avv. 2-mingyillik o'rtalaridan shimoli-g'arbdan Eron va O'rta Osiyo tomondan oriy qabilalari kelib Panjob viloyatida joylashgan. Hindlarning "*Mahabharat*" va "*Ramayana*" dostonlarida mahalliy hindlarning oriylar bilan olib borgan, qonli janglari tasvirlangan. O'troqlashuvi davomida mahalliy xalq bilan aralashib, aholi kasta-varna (toifa)larga bo'lingan knyazliklar tashkil etishadi.

Har bir hind tug'ilgandan boshlab 4 ta, ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan toifaga birlashtirilgan. Kohinlar-braxmanlar; jangchilar-kshatriyalar; dehqon va savdogarlar-vayshilar; hunarmand va xizmatkorlar-shudralarga kirgan. Braxmanlar va kshatriyalar kastalari oliy hisoblanib. Faqat oriylardan iborat bo'lgan.

Kastalar orasidagi munosabatlar cheklangan. Xususan shudra toifasidagi kishi, vayshiga tegishi yoki uning buyrug'isiz u bilan so'zlashishi man etilgan, o'limga mahkum etilishi xavfi bo'lgani sababli braxmanlarga ham taqiqlangan edi. Kasta a'zolarini ularning kiyimidan ajratish mumkin bo'lgan. Braxman – oq; kshatriyalar – qizil; dehqonlar – sariq; xizmatkorlar esa – qora kiyim kiyib yurishgan. Hindlarda 4 toifaga kirmagan "chandallar", ya'ni xazar qilinadigan – daxlsizlar guruhi ham bo'lib, ularga hatto qishloqlarda yashash taqiqlangan. Biror kishi ularga tegib ketmasligi uchun chandallar maxsus kiyim kiyib yurishlari lozim bo'lgan.

Mil. avv. VI asrda Shimoliy Hindistonda 20 dan ortiq mayda davlatlar bo'lgan. Ulardan nisbatan yiriklari: Magadxa, Anga, Shaxya, Kashala, Gandxar, Malla, Kashilar edi. Bu davlatlar orasidagi o'zaro urushlarda g'olib chiqqan Magadxa podshosi **Bimbisara** (543–491) Ganga daryosining quyilishi, Bengal qo'ltig'igacha bo'lgan yerlarni bosib oladi. Uning vorisi **Ajatashatru** esa Ganga vohasi va Markaziy Hindistonni, Magadxaga qo'shib oladi. Mil. avv. 345-yili Magadxa va uning taxtini qo'shni Nand podshosi **Ugrasin** egallaydi. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyo istilolaridan so'ng mil. avv. 327-yili Shimoliy Hindistonga o'tib u yerda eng ta'sirli podsholardan biri **Porning** qarshiligi mardligiga qoyil qolgan Aleksandr keyinchalik uni taxtida qoldirishga qaror qildi. Hindistonda kichik bir qo'shinni qoldirgan Iskandar mil. avv. 325-yil Bobilga qaytadi.

Shundan so'ng qarshi kurashga boshchilik qilgan hind sarkardalaridan biri **Chandragupta** Magadxa taxtini egallab (317–298) **Maurya davlatiga** asos soldi. Uning vorislari **Bindusara** va **Ashokalar** davrida Hindiston kuchli davlatga aylandi. **Ashoka** (268–231) davlatni boshqarish, din va madaniy sohalarda islohotlar o'tkazib, mamlakat rivojiga katta hissa qo'shgan. Ashokaning vafotidan so'ng kuchsizlana borgan Hindiston shimoldan Yunon-Baqtriya qo'shinlari hujumlari ostida parchalanib ketadi. Keyinchalik O'rta Osiyoda yuechji qabilalari asos solgan Kushon podsholigi Hindistonni ham istilo qiladi. **Kadfiz I** va **Kadfiz II** lar, shuningdek **Kanishkalar** (78–123) davrida O'rta Osiyo hamda Hindistonni birlashtirgan **Kushon saltanati** o'zining eng yuksalغان davrini boshdan kechirgan.

**Qadimgi hindlarning madaniyati va dini**

Hind madaniyati mil. avv. 3–2-mingyillikdan ancha yuksaladi. Mil. avv. 2-mingyillikda iyeroglif yozuv yaratilib, uning o'qilishi olimlar tomonidan hozirgacha kashf qilinmagan. Hozirgi alifbo mil. avv. VII–VI asrlarda vujudga kelgan. Qadimgi hindlar ajoyib dostonlar: **“Ramayana”**, **“Mahabxarat”**, masallar to'plami **“Panchatatra”**, dramatik asar **“Shakuntala”**ni yaratganlar. Hindlar yaratgan falsafa, **Charvak ta'limotining** asosi, ilm va bilimning bosh manbayi tajriba ekanligini e'tirof qiladi. Hindistonlik olimlar biz bugungi kunda ishlatayotgan raqamlarni ham ixtiro qilishgan. Keyinchalik Yevropaga arablar orqali o'tgan bu raqamlar, asli qadimgi hindlarniki ekanligini arablarning o'zlari ham e'tirof qilishadi. Qadimgi hindlar kashf qilgan shaxmat o'yinida **“qo'shinning to'rt turi”** o'z aksini topgan. Qand ham ilk marotaba Hindistonda shakarqamish sharbatidan tayyorlangan.

Hindlar dastlab tabiat kuchlari, turli hayvonlarga e'tiqod qilganlar. Ularning tasavvurida xudolar yirtqich sher yoki mug'ombir maymun qiyofasida bo'lishi mumkin edi. Asosiy xudolardan biri donishmand **Ganesh** fil boshli etib tasvirlangan. Hindlar sigirga alohida ehtirom bilan qaraganlar. Shuning uchun undan olinadigan barcha narsa muqaddas va shifobaxsh deb hisoblangan. Hindlar gunohlaridan forig' bo'lish uchun sigirga xizmat qilish lozim deb hisoblashgan.

**Braxmanizm** mil. avv. VIII–IX asrlarda vujudga kelgan. **Braxma** olamni va odamni yaratuvchi hisoblanib, kohinlarning ta'biricha xudo odamlarni o'z tanasining turli qismlaridan yaratgan. Braxmanlarni – og'zidan, kshatriylarni – qo'llaridan, qovurg'a va sonlaridan – dehqonlar bilan hunarmandlarni, loyga belangan oyoqlaridan esa shudralarni, ya'ni xizmatkorlarni yaratgan.

**Buddizm** mil. avv. VI asrda shakllangan. Rivoyatlarga ko'ra uning asoschisi **Siddhartha Gautama** shahzoda bo'lgan va saroyda lazzatli hayot kechirgan. Kunlardan birida u saroydan tashqariga chiqib qarigan kishini ko'radi va qarilikning muqarrarligini tushunadi. Kasalmand kishini uchratib, sog'lik umrboqiy emasligini anglaydi. O'lim haqida o'yga tolgan shahzoda tarkidunyo qilishga qaror qilib, odamlardan uzoqlashadi. Uzoq yillar sarson-sargardonliklar, ochliklarni boshdan kechirgan Gautama kunlardan birida katta daraxt ostida o'tirib o'y-fikrlar dunyosiga sho'ng'iganda, donishmandlikka erishadi. O'sha paytdan u **Budda** – **“donishmand”** nomini oladi. Braxmanizmdan farqliroq buddaviylikda barcha kishilar tengligi e'tirof etiladi. Ta'limotda odamning joni abadiy

ekanligi, kishining vafotidan so'ng u biror hayvon yoki jonivor qiyofasiga kirishiga ishonch mavjud. Shuning uchun buddizmida barcha jonivorlarga nisbatan mehr-shafqatli bo'lish targ'ib qilinadi.

**Buyuk Xitoy devori ortida**

Osiyo qit'asining sharqida, ikki buyuk daryo **Xuanxe (Sariq daryo)** va **Yanszi (Ko'k daryo)** havzasida eng qadimgi davlatlardan biri Xitoy joylashgan. Undan arxeologlar mil. avv. 500–600 ming yillarda yashagan **sinantrop** va **lantyan** odamlari suyaklarini topishgan.

Ishlab chiqarish xo'jaligi, dehqonchilik Xitoyda mil. avv. 5–3-mingyillikda Xuanxening sertoshqin o'rta oqimida vujudga kelib, mil. avv. 2-mingyillikdan boshqa hududlarga ham tarqala boshlaydi. Chorvachilik esa mamlakatning g'arbiy hududlarida, **Tibet** tog'lari etaklarida ayniqsa, keng tarqaladi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi aholi orasida mulkiy tabaqalanishni kuchaytirib davlatni vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi.

Tarixchilarning e'tirof etishicha Sharqiy Xitoydagi ilk davlatga mil. avv. 2-mingyillik boshlarida Sya xonadoni asos solgan. Mil. avv. XVIII asrda Shan qabilasidan bo'lgan **Chen Tan** ismli kishi Sya o'rnida yangi **Shan** davlatini tuzadi. Keyinchalik bu davlat **In**, ba'zida **Shan-In** deb nomlanib, poytaxti Shan shahri bo'lgan. Mil. avv. XIII asr oxiri – XII asr boshlariga qadar hukm surgan bu davlatning yetuk hukmdori **U Dinning** vafotidan so'ng, u kuchsizlanib Chjou qabilalari tomonidan bosib olinadi.

Chjoular tuzgan davlatning poytaxti **Xao** shahrida bo'lganida mil. avv. XII–VIII asrlar u harbiy **Chjou**, so'ng poytaxt sharq tomondagi **Loyan** shahriga ko'chganidan so'ng mil. avv. VIII–III asrlarda **Sharqiy Chjou** deb atalgan. Sharqiy Chjou podsholigida hukmronlikni qo'lga kiritish uchun undagi mayda podsholiklar orasidagi uzoq davom etgan o'zaro urushlarda **Sin podsholigi** g'olib chiqadi.

Sin davlatining kuchayishi mil. avv. IV asrning 2-yarmidan **Sao Gun** podsholigidan boshlanadi. Bu davrda nufuzli amaldor **Shan Yan** islohotlari o'tkaziladi. Unda yerni xususiy mulkka aylantirish, hosil solig'ini yer solig'iga almashtirish amalga oshiriladi. Mamlakat 36 ta viloyatga bo'linib, uni podsho tomonidan tayinlangan amaldorlar idora qiladigan bo'ladi. Islohot maorif va harbiy sohalarda ham o'tkaziladi.

Sharqiy Xitoy yerlari **In Chjen** (246–210) davrida birlashtirilgan. U o'zini **Sin Shixuan**, ya'ni **“Sinning birinchi hukmdori”** deb atay boshlaydi. In Chjen davrida qo'shni davlatlar istilo qilinib, janubda dengizga chiqiladi. Shimolda esa xitoyliklar **syunnu** deb atagan xunn qabilalariga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib boriladi.

Tarixda **“Saddi Chiniy”** deb nom olgan, Buyuk Xitoy devori mil. avv. IV asrda xunnlardan himoyalanih, qisman savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida qurila boshlangan. **Sin Shixuan** davrida bu ishga katta e'tibor qaratilib, millionlab kishilar jalb qilinadi. Devor tosh, g'isht va loydan bunyod etilgan. Uning balandligi 2–3 qavatli uyga, kengligi esa uning tepasida ikki aravani yonma-yon o'tishiga imkon bergan. Minglab kilometr masofaga cho'zilgan devorning tepasida o'q otish tuynuklari, atrofni kuzatish uchun tirqich qoldirilgan.

Sin imperiyasining yirik qo'shinni saqlashi, katta mablag'larni talab qilgan. Natijada Xitoy dehqonlari yetishtirgan hosilining 2/3 qismini soliqqa berib, o'zlari yarim och yashashga majbur bo'lganlar. Sinda odamni kichkina gunohi uchun ham bambuk tayoqlari bilan tovonlariga kaltaklab yoki burnini kesib tashlab jazolaganlar. Agar jinoyat jiddiy bo'lsa gunohkorni tiriklayin qozonda qaynatganlar. Bir kishining gunohi uchun butun oilasi, qarindoshlari, bir necha qo'shnilari jazolangan. Ularning barchasi qul kabi tamg'alanib Xitoy devori qurilishiga yuborilgan.

Sin Shixuan vafotidan so'ng taxtga kelgan o'g'li o'z boshqaruvini ukalari va mashhur lashkarboshilarni qatl etishdan boshlaydi. Ammo sabr-toqati tugagan xalq qo'zg'olon ko'tarib,

uning yakunida hokimiyatga kelgan yangi sulola Xan podsholari aholiga qator yengilliklar bergan.

Xitoyliklar bundan 4–3,5 ming yil ilgari o'z yozuvlarini yaratib undan hozirgacha foydalanib kelmoqdalar. Yozuvdagi har bir iyeroglif butun bir so'zni ifoda etgan. Jumladan, bir shoxcha “daraxt”, ikkitasi “O'rmon” so'zini, uchta esa “chakalakzor” ma'nosini anglatgan. Xitoyliklar ipak, chinni va qog'ozni ham ixtirochilaridir. Qog'ozni milodiy I asr arafasida: latta, po'stloq va bambuk aralashmasidan tayyorlaganlar. Qadimgi Xitoyda: tibbiyot, matematika, astronomiya, geografiya, tarixga oid ilmiy bilimlar yuksalib, ular asosida kitoblar yozilgan. Eng mashhur tarixiy asarlar **Sima Szyanning** “*Tarixiy yilnomalar*” va **Ban Guning** “*Xan podsholigi tarixi*” asarlaridir.

Qadimgi Xitoyda diniy e'tiqod juda erta shakllangan. Aholi dastlab tabiat kuchlariga, ruhlarga sig'insa, keyinchalik totemizm, fetishizm, sehrgarlik kabi diniy tasavvurlar ham paydo bo'lgan.

Dastlab Hindistondan O'rta Osiyoning janubiga tarqalgan buddizm diniy ta'limoti, keyinchalik Xitoyga ham yetib boradi. Asrlar o'tib buddaviylik mamlakatning asosiy diniga aylanadi.

### Xunlar va Yevropa

Oltoy, Janubiy Sibirning keng xududlarida qadimdan turkiy qabilalar yashab kelgan. Markaziy Osiyo deb nomlangan bu xududning ilk qabilalaridan biri xunlar mil. avv. 3-mingyillikning oxiri – 2-mingyillik boshlaridan oddiy chorvachilik va dehqonchilikka o'ta boshlaydilar. Keyinchalik ko'chmanchi chorvachilik ularning xo'jaligi asosiga aylanadi.

Xitoy tarixchisi Sima Szyanning yozishicha mil. avv. VII–VI asrlarda Markaziy Osiyoda: **jun**, **janjun** va **dunxu** qabilalari ham yashab, keyinchalik ular xunlar tomonidan bo'sundirilgan. Xunlar davlati mil. avv. III asr oxirlarida tashkil topib, **shanyular** (harbiy sardor) **Maodun** va uning vorisi **Laoshin** davrida keng hududlarni, jumladan Xitoyning shimolini istilo qiladilar. Xuddi shu paytlarda xunlar mag'lub etgan yuechjilar O'rta Osiyoga o'tib, keyinchalik **Kushon davlatiga** asos soladilar.

Keyinchalik Xitoyning Xan imperiyasi kuchayib, imperator **U Di** (140–87) qo'shinlari xunlarni qator janglarda yengib, Dovonga (Farg'ona) qadar, kirib keladi. Bu mag'lubiyatlardan so'ng xunlar Sharqiy Qozog'iston va Yettisuvda, katta guruhi, Shimoliy Qozog'istonda joylashadi. Xuddi shu Shimoliy Qozog'istonda yashagan xunlar, ugor va sarmatlar bilan aralashib IV asrning 60–70-yillarida g'arbga yurish boshlaydi. Xunlar sardori **Balamber** lashkari 375-yili Qora dengiz bo'yida **got** qabilalarini yengadi. “**Xalqlarning buyuk ko'chishlari**” shu tariqa xunlarning yurishlaridan boshlanadi. Xunlar Pannoniya (hozirgi Vengriya) yerlarida joylashib **Atilla** davrida (434–453) Yevropaning ko'plab xududlariga bosqinlar uyushtirganlar. Shimoliy Xitoydan Markaziy Yevropagacha masofani bosib o'tgan xunlar ittifoqi keyinchalik zaiflashib, aholisi mahalliy xalqlar bilan aralashib ketgan.

## O'RTA OSIYODAGI ENG QADIMGI DAVLATLAR

O'rta Osiyoda dastlabki davlatlar qadimgi sug'orma dehqonchilik vohalarida paydo bo'lgan. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatmoqdaki, qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlangan. O'rta Osiyodagi eng qadimgi ilk davlat uyushmalari haqidagi dastlabki ma'lumotlar “**Avesto**”da, yunon olimlari **Gerodot**, **Gekatiy**, **Ktesiy** va boshqalarning asarlarida berilgan. Ahamoniylar davri yozuvlarida O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida turli xil ma'lumotlar bor. Bu yozuvlar mil. avv. VI–IV asrlarga oid bo'lib, **Behistun** va **Naqshi Rustam** qoyatoshlarida, **Suza**, **Persepol** va **Hamadon** shaharlarida topib tekshirilgan.

“Avesto”da davlatchilikning shakllanishi quyidagicha bayon qilingan: **nmana-vis-varzana-**

**zantu-daxyu**, ya'ni, **oila-urug'-hududiy qo'shnicilik jamoasi-qabila-qabilalar ittifoqi**. Vujudga kelayotgan davlat tuzilishiga **hududiy belgilar** bo'yicha bo'linish asos bo'lgan.

Ilk davlatlarning tashkil bo'lishiga, jamiyat rivojining ichki qonuniyatlaridan tashqari boshqa sabablar — kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshilik va harbiy to'qnashuvlar ham ta'sir qildi. O'zbekiston hududida ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayoni quyidagi davrlar bilan belgilanadi:

**1. Bronza davri.** Mil. avv. 2-mingyillikning o'rtalari va ikkinchi yarmi. Unchalik katta bo'lmagan dehqonchilik vohalari asosida ilk davlatchilik tizimiga o'tish davri.

**2. Bronza davridan temir asriga o'tish davri.** Mil. avv. IX–VIII asrlar. Mayda davlat tashkilotlarning rivojlanishi va yirik harbiy-siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi.

**3. Ilk temir davri.** Mil. avv. VII–VI asrlar. Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya misolidagi yirik davlat uyushmalarining paydo bo'lishi.

Mil. avv. VII–VI asrlarda O'rta Osiyo va Qozog'istonning ko'pgina tog' va dasht hududlarida yilqichilik va ko'chmanchi chorvachilik keng tarqaldi. Ko'chmanchilar yarog'-aslahalari taraqqiyotida katta yutuqlarga erishib, qudratli harbiy kuchga aylandi. Uyushgan ko'chmanchi qabilalarning o'troq dehqonchilik vohalarga xavfli tahdid sola boshladi. O'troq aholi uchun keng ko'lamdagi va ishonchli himoyani tashkil qilish zarur bo'lib qoldi. Shuning uchun ham *Xorazm*, *Baqtriya*, *Marg'iyona* va *So'g'diyona*dagi o'troq aholining harbiy-siyosiy ittifoqi shakllanishida, uyushgan ko'chmanchi qabilalardan kutilayotgan harbiy xavf-xatar hamda, Midiya podsholigining O'rta Osiyoning janubiy chegaralarigacha bo'lgan hududiy bosqini sabab bo'lgan.

Marg'iyona va So'g'diyona ham Baqtriyaning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun u qadimda bir-biriga qarindosh bo'lgan elatlarning davlat birlashmasi deyilgan. Mil. avv. VII–VI asrlarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar **Qadimgi Baqtriya davlati** ta'sirida bo'lgan. *Qiziltepa*, *Uzunqir*, *Yerqo'rg'on* va *Afrosiyob* o'rnida Baqtriya va So'g'dning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlar O'zbekiston hududida eng qadimgilari bo'lib, ularning yoshi 2700 yildan kam emas.

Yana bir qadimiy davlat **Xorazm** hududida tashkil topgan. Bu davlat Xorazmdan tashqarida bo'lgan yerlarni ham birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri *Ko'zaliqir* shahri bo'lgan. U qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Uning dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholisi turli xil uy-ko'rg'onlarda va qishloqlarda yashagan. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan.

Mil. avv. IX–VIII asrlarda O'zbekiston hududida ilk temir asriga o'tish boshlangan. Mil. avv. VII–VI asrlarda bu yerda qadimgi yirik davlatlar mavjud bo'lgan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo taraqqiy etgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalar o'rnatilgan. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga asoslangan edi.

Ilmiy adabiyotlarda O'rta Osiyoda Ahamoniylar davrigacha mavjud bo'lgan quyidagi davlat uyushmalari haqida so'z yuritiladi:

**Aryoshayyona** — *O'rta Osiyodagi qadimgi viloyatlarning uyushmasi.*

**Aryonam Vayjo** — *Katta Xorazm.*

**Qadimgi Baqtriya.**

**Qadimgi Xorazm** va **Qadimgi Baqtriya** O'zbekistonning mil. avv. VII–VI asrda tashkil topgan eng qadimgi davlat birlashmalaridir. Eng qadimgi davlat birlashmalari quyidagi hududlarni o'z ichiga olgan:

**Qadimgi Xorazm** — Amudaryoning quyi oqimi, Qoraqalpog'iston, Xorazm va Toshovuz viloyatlarini o'z ichiga olib, "**Avesto**"da bu davlat *Xvarizam*, Behistun yozuvlarida *Xvarazmish*, Arrian va Strabon asarlarida *Xorasmiya*, so'g'd yozuvlarida "**quyoshli o'lka**" tarzida uchraydi.

**Qadimgi Baqtriya** – Marg‘iyona va So‘g‘diyona ham uning tarkibiga kirgan bo‘lib, Surxondaryo viloyati, janubiy Tojikiston, shimoliy Afg‘onistonni o‘z ichiga olgan. Yozma manbalarda **Baxdi** (Avesto), **Baqtrish** (Behistun yozuvlari), **Baqtriana** (yunon-rim) shaklida uchraydi. Bundan tashqari “Avesto”da “*baland bayroqli o‘lka*”, yunon-rim asarlarida “*ming shaharlar mamlakati*” sifatida ham tilga olinadi.

**Sug‘diyona** – Baqtriya tarkibida bo‘lib, Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini o‘z ichiga olgan. Yozma manbalarida **So‘g‘da** (Avesto), **Sug‘uda** (Behistun yozuvlari), yunon-rim asarlarida **So‘g‘diyona** (Arrian, Strabon, Kursiy Ruf) shaklida tilga olingan.

**Qadimgi Xorazm, So‘g‘diyona va Qadimgi Baqtriya** aholisining asosiy mashg‘uloti sug‘orma dehqonchilik bo‘lib, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan ham mashg‘ul bo‘lganlar.

#### Sak va massagetlar

**Sak va massagetlar** – nisbatan ko‘p sonli bo‘lgan ko‘chmanchi chorvador xalqlardir. O‘z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun ular mil. avv. VI asrda harbiy-qabila ittifoqiga birlashadilar.

“Avesto”da ko‘chmanchi qabilalarni “*tur*” deb, ularni yashaydigan joyni esa “*turon*” deb atashgan. Saklar O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning tog‘lari, dashtlari va cho‘llarida yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalardir. Ahamoniylarning yozuvlarida saklar kelib chiqishiga ko‘ra quyidagi guruhga bo‘lingan:

1. **Saka tigraxauda** – “*uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar*”, ular Toshkent viloyati va Janubiy Qozog‘iston yerlarida yashagan.

2. **Saka tiay-tara-daraya** – “*daryoning nariyog‘ida yashovchi saklar*”, ular Orol dengizi bo‘ylarida, Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar.

3. **Saka xaumovarka** – “*xaomoni ulug‘lagan saklar*”, ular Pomir va Farg‘onada yashagan.

Saklarning yodgorliklari – qadimgi qabristonlar va mozor, qo‘rg‘onlar juda keng hududda topib tekshirilgan (Kaspiy, Orol dengizi atrofida Balxash ko‘ligacha, Pomir va Tangritog‘ o‘lkalarida, Quyi Zarafshon, Amudaryo, Sirdaryo yerlarida). Saklar xo‘jaligida chorvachilik katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Saklarning yodgorliklarida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi.

Cho‘llar va Amudaryo bo‘ylarida ko‘chmanchi **massaget qabilalari** yashaganlar.

Mil. avv. I-mingyillikning I-yarmida yashagan xalqlarimiz qon-qarindosh elatlar bo‘lib, ular bir-biriga o‘xshash tilda gaplashgan va yaqin madaniy an‘analariga ega edilar.

#### Qadimgi shaharlari

Ilk davlatchilik taraqqiyoti qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog‘liq. Ko‘plab arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, bu shaharlarning ba‘zilarini yoshi 2700 yildan kam emas. Ularga **Afrosiyob, Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on va Ko‘zaliqir** kiradi.

Mil. avv. 3–2 mingyilliklarda O‘rta Osiyo xalqlari Qadimgi Sharq davlatlari o‘rtasida keng madaniy aloqalar boshlangan. Bunday holat qadimgi shaharlar rivojlanishiga imkon bergan. Qadimgi shaharlar mil. avv. VII–VI asrlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida yuzaga keldi. Ular hunarmandchilik va savdo markazlari edilar.

Eng qadimgi shaharlarga xos asosiy belgi ularning mudofaa devorlari bilan o‘ralganligidir. Devorlar esa suv to‘ldirilgan chuqur xandaq bilan o‘ralgan. Bu mudofaa tizimi ancha mustahkam qal‘alarda bo‘lib, ichki qal‘a, aholi guzarlari, hunarmandchilik ustaxonalari va savdo rastalari joylashgan qismlardan iborat bo‘lgan. Shahar atrofida soy va anhor bo‘ylarida dehqonlarning uy qo‘rg‘onlari joylashib, ular bog‘lar, ekinzorlar bilan o‘ralgan edi. Bunday uy-qo‘rg‘onlar Xorazmda (**Dingilja**), Surxondaryoda (**Qiziltepa**) va Samarqand atrofida (**Qo‘rg‘oncha**) topib tekshirilgan.

Mil. avv. VII–VI asrlarga oid shaharlar orasida **Afrosiyob** maydoni jihatidan katta bo‘lgan. Uning maydoni 219 ga bo‘lib, sug‘diylar unga mil. avv. VI asrda asos solganlar. Sug‘diylar



shaharning nomini dastlab “**Smarakansa**” deb ataganlar. **Smarakansa** – sug’dcha so‘z bo‘lib, “*anjumanlar, uchrashuvlar o‘tkaziladigan joy*” degan ma‘noni bildirgan. Yunonlar “**Marokanda**”, Xitoylar “**Kan**” deb atashgan. XI asrdan boshlab “**Samarqand**” deb atala boshlangan. 1220-yili Chingizxon bu shaharni vayron qilgan. 1370-yili Amir Temur bu shaharni shimoli sharq qismida qayta bunyod etadi. XVII asrdan boshlab sharq mualliflarining asarlarida qadimgi shahar xarobalarini “**Afrosiyob**” yoki “**Ko‘hna qal‘a**” deb atay boshlaganlar.

## ZARDUSHTIYLIK

**Zardushtiylik** dini mil. avv. 1-mingyillik boshlarida O‘rta Osiyo va qadimgi Eronda yuzaga kelgan dindir. Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi **Zardusht** ismidan olingan. Zardusht (mil. avv. taxm. 618-yil Xorazm – 554-yil Balx) Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining 1-voizi, ilohiyotchi, faylasuf, shoiridir. **Zaratushtra** nomi qadimgi Eron “**Zarushtra**” so‘zidan kelib chiqqan. “**Zar**” – bu oltin, “**ushtra**” – tuya yoki 3 xil ma‘noda – “**Oltintuyali**”, “**Oltintuya egasi**”, “**Tuyalar yetaklagan odam**” deb tarjima qilinadi. Qadimgi pahlaviy tilida “**Zardusht**” so‘zi “**Magupta**” deb atalgan. Pahlaviy tilidagi yodgorliklarni arab tiliga tarjima qilgan olimlar uni “**majus**” shaklida qo‘llagan. Natijada o‘rta asrlardan beri “**Zardusht**” “**majus**”, “**zardushtiylik**” “**majusiylik**” sifatida qo‘llanib kelingan. **Zardusht** Spitama urug‘ining raisi Purushasp xonadonida tug‘ilgan. Onasining ismi **Dug‘dova**. **Zardusht** 15 yoshgacha zamonasining donishmandi **Barzin Kuras** qo‘lida diniy qonunlar, tabiatshunoslik, voizlik, kalomi badi‘ fanlari bo‘yicha ta‘lim oladi, harbiy hunarlarni o‘rganadi. 16 yoshida Turon-Eron urushida qatnashadi. O‘z qavm va qabilalarining ko‘pxudolik udumlariga qarshi harakatiga qo‘shiladi va 19 yoshida yakka tangrining kashf etish maqsadida **Sablon tog‘iga** chiqib ketadi. 20 yil g‘orda yashaydi. Rivoyatlarga ko‘ra, **Zardusht** navro‘z kunlarining birida kohinlar boshchiligida muqaddas ichimlik – “**Xum**” tayyorlashga kirishgan. Erta tongda u daryodan suv olish uchun qirg‘oqqa tushgan. Ko‘ziga qirg‘oqda turgan porloq xil-qat – “**Vohumana**” ko‘rinadi va uning sehrli nuriga ergashadi. U ezgu va ulug‘ xudo **Ahuramazda** huzuriga boradi. Shu kundan boshlab **Zardusht payg‘ambarga** aylanadi. U bu paytda 40 yoshda bo‘lgan. **Payg‘ambar** forscha so‘z bo‘lib, “**savobli ishlar xabarchisi**” ma‘nosini anglatadi. **Zardusht** o‘z ta‘limotini Xorazmda targ‘ib qilgan. **Zardusht** O‘rta Osiyodagi ko‘p xudolikka asoslangan qadimiy diniy tasavvur va e‘tiqodlarni isloh qilib, yangi dinga asos soldi. Mil. avv. 1-mingyillik boshlarida tarqoq qabilalarni bosqinchilarga qarshi birlashtirish zaruriyatidan bu ta‘limotga asos solindi. **Zardusht** o‘z ta‘limotida qabilalarni birlashtirishga chorladi. Biroq, Zardushtning vatandoshlari unga ishonmaydilar va uning ta‘limotini qabul qilmaydilar. Zardusht vatanini tark etib, qo‘shni davlat – Eronga ketadi, u yerning shohi **Gushtasp** va uning donishmand vaziri **Jomaspni** xayrixohligiga erishadi, ular Zardusht ta‘limotini qabul qiladilar. Natijada bu ta‘limot xalqlar o‘rtasida keng tarqala borgan. Yunonistonda uni alloma-munajjim sifatida ulug‘lab, Zoroastr deb, uning ta‘limotini zoroastrizm deb ataganlar.

Eron hukmdori **Gushtasp** farmoniga ko‘ra, shahar va qishloqlarda yangi ibodatxonalar – **otashkadalar** qurila boshlanadi. **Zardusht** Balxda shunday qurilgan ibodatxona ochilishida ishtirok etadi va ibodat qilayotganda 77 yoshida g‘animlari ko‘pxudolik tarafdori **Bratarvaxsh** tomonidan o‘ldirilgan. **Zardushtning Istavatr, Uravatr, Puruchitro** ismli o‘g‘illari, **Frini, Trini, Purichisto** ismli qizlari bo‘lgan. Sahobalar uning ta‘limotini kitobga joylab, “**Avesto**”, ya‘ni “**Qat‘iy qonunlar**” deb ataydilar. “**Avesto**” o‘n ikki ming qora mol terisiga tilla suvi bilan bitilgan.

“**Avesto**” – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, shu dindagi xalqlarning shariat qonunlari majmuidir. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, “**Avesto**” O‘rta Osiyo, xususan Xorazmda mil. avv. 1-mingyillikning 1-yarmida vujudga kelgan. “**Avesto**”da keltirilgan geografik

nomlar buni tasdiqlaydi. “Avesto”dagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo‘lgan. “Avesto” uzoq vaqt davomida shakllangan. Unda keltirilgan ma’lumotlarning eng qadimgi qismlari mil. avv. 2-mingyillikning oxiri-1-mingyillik boshiga oid bo‘lib, og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tib kelgan. Keyingi asrlarda “Avesto” tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalari qo‘shilib borgan. “Avesto”ni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. “Avesto” **Persepolda** saqlangan. **Aleksandr Makedonskiy** istilosi davrida (mil. avv. IV asrda) “Avesto”ning 3/5 qismi yo‘qolib ketgan. Dastlab Arshakiylardan **Vologes I** (51–78-yillar) davrida “Avesto” qismlarini to‘plash boshlangan bo‘lib, qayta kitob holatiga keltirilgan, lekin u saqlanmagan. Keyinchalik Sosoniylar (III–VII asrlar), ayniqsa **Shopur I** (243–273-yillar) davrida yaxlit kitob holatiga keltirilgan. “Avesto”ning ana shu to‘ldirilgan nusxasining 2 to‘liq qo‘lyozmasi Hindistonda saqlanadi. Zardushtiylikning g‘oyalari matnlari mil. avv. IV asrda to‘planib, 21 kitob qilinadi. Ular “Avesto” asosini tashkil etgan. Matnlarga yozilgan tafsirlar “**Zand**” deb atalgan. “Avesto” hajmi katta kitob bo‘lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli – “**Kichik Avesto**” yaratilgan. Zamonamizga yetib kelgan “Avesto” boblari “**pahlaviy**” – o‘rta fors alifbosi asosida 48 ta belgili yozuvdan iboratdir. Yevropalik olimlardan dastlab fransuz olimi **Anketil Dyuperron** 1755–1761-yillarda “Avesto”ni tadqiq qiladi va 1771-yili 3 jildlik tarjimasini e‘lon qiladi. “Avesto”ning eng qadimgi 1288-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasi bizgacha saqlangan. **Meri Boys** ham o‘z tadqiqotlarini “**Zardushtiylar. E’tiqodlari va urf-odatlari**” asarida e‘lon qiladi. Bizgacha “Avesto”ning to‘rt qismi yetib kelgan:

1. **Yasna** – “qurbonlik keltirish”, 72 bob.
2. **Visparat** – “hamma hukmronlar”, 24 bob.
3. **Videvdat** – “devlarga qarshi qonun”, 22 bob.
4. **Yasht** – “qadrlash”, 21 bob.

“Avesto”ning bu nusxasi 27 jildidan iborat bo‘lib, asarning 7/1 qismidir. “Avesto” O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma’naviy madaniyatlari o‘rtasidagi muhim va yagona manbadir.

Zardushtiylikning eng muqaddas sanalgan ilohalari **Ahuramazda, Mitra, Anahita** bo‘lgan.

■ **Ahuramazda** – ezgulik, buyuk va mutafakkir iloh, Zardushtning homiysi, nurdan yaratilgan.

■ **Ahriman** – yovuzlik va o‘lim ilohasi, nurdan yaratilgan.

■ **Mitra** – quyosh va yorug‘lik ilohasi, dehqonlar va chorvadorlar himoyachisi, hosil, ma’murchilik, va to‘kin-sochinlik ta‘minlovchi. **Ahuramazda** bilan odamlar o‘rtasidagi asosiy vositachi, jangovar yigit siymosida tasvirlangan. **Ahrimanga** qarshi chaqmoqlari bilan kurashgan, kamalakka **Mitr**aning kamoni, o‘q otuvchi yoyi deb sig‘inganlar.

■ **Xumo, Farna, Anqo** – baxt va boylik ilohasi, jannat qushi deb hisoblaganlar, chiroyli qush siymosida tasvirlangan.

■ **Anaxita, Nohid, Nana** – hosildorlik, suv, farovonlik ilohasi, bir qo‘lida anor yoki olma tutgan go‘zal ayol siymosida tasvirlangan.

■ **Mirrix** – urush va g‘alaba ilohasi, qurollangan jangchi siymosida tasvirlangan.

■ **Xubbi** – suv ilohasi, qayiqchilar va miroblar homiysi, zabardast yigit siymosida tasvirlangan.

Zardushtiylik ta‘limotining asosi olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan. Yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va qorong‘ilik, hayot va o‘lim o‘rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni **Ahuramazda** va barcha yomonliklarni **Ahriman** ifodalaydi.

**Ahuramazda** insonlarga ezgu ishlarni bayon etib, ularga amal qilishni, yomon ishlarni bayon etib, ulardan saqlanishni buyuradi. Zardushtiylikda “otash” va “quyosh” tangri **Ahuramazdaning**

o'g'li deb hisoblanadi. "Nur" va "otash" Zardushtiylikning ramzi, timsolidir. Zardushtiylikda **Ahuramazda** oliy xudo hisoblanganligi uchun Zardushtiylik – **mazdaizm** yoki **mazdaiylik** deb atalgan.

Zardushtiylikda iymon 3 narsaga asoslangan: "ezgu fikr", "ezgu so'z", "ezgu amal". Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i kerak. Yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq. Inson hayot yo'lini o'zi belgilaydi.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turgan. Ularda dunyodagi 4 unsur – **suv, olov, yer va havo** ulug'langan.


Zardushtiylik ta'limotida behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Bu ta'limotda ko'chmanchilik va dehqonchilik hayot tarzi o'rtasidagi qarama-qarshilik bayon etiladi, ko'chmanchilikka hamma yovuzliklarni keltirib chiqaradigan hayot tarzi deb qaraladi va u qoralanadi, dehqonchilik esa yaxshilik belgisi sifatida rag'bantiriladi. Zardusht o'z ta'limoti bilan insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. Har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha jannatga yoki do'zaxga tushadi, degan g'oyaga asoslantirgan.

Yer yuzida eng yovuz va yomon narsa o'limdir. Odam o'lganidan keyin uning vujudini yovuz kuchlar egallaydi. Jasadni qushlarga yoki kuchuklarga yedirganlar. Suyaklar tozalanib, qurib qolgach, ularni maxsus idish "**ossuariy**" – "suyakdon", "ostadon"larda saqlaganlar. Ular "**nous**" deb ataluvchi maxsus binolarga qo'yilgan.

Olamning yaratilishi haqida "**Avesto**"da shunday deyilgan: Azaldan nur paydo bo'ldi. Nurdan **Ahuramazda** va **Ahriman** yaraldi. **Ahuramazda** 6 farishtani yaratdi va uni odamlar orasiga jo'natdi. Ular poklik va barkamollik ramzi hisoblanganlar. Har bir odam uchun ruh yaratdi. Birinchi inson **Govamard** (ho'kiz-odam) bo'lib, undan barcha kishilar tarqalgan. Birinchi shoh **Yima** davri oltin davr hisoblangan, chunki unda o'lim bo'lmagan. **Ahuramazda** unda doimiy bahor yaratgan. Kishilar bekam-u ko'st, baxtiyor yashagan. 900 yil o'tgach shoh **Yima** g'ururga berilib, man etilgan sigir go'shtini yeydi va yovuzlik ramzi **Ahriman** hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi. Olamni muzlik qoplaydi. **Yima Ahuramazda** amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo'rg'on qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtiradi. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, **Hayr** bilan **Sharr** (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi kurash davri bo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda **Ahuramazda** g'alaba qilib, ezgullik saltanati barqaror bo'ladi, o'lganlar tiriladi. O'n ikki ming yildan so'ng ezgullik va hayrli ish qilganlar yovuzlik ruhlaridan qutuladilar, yer yuzida abadiy jannat yaratiladi.

Zardushtiylik arshakiylar va sosoniylar davrida hukmron dinga aylangan va 13 asr davomida ajam mamlakatlarida hukmron din bo'lib kelgan. Arablar Eron va O'rta Osiyoni istilo qilgach (7–8 asrlar), zardushtiylik quvg'in qilingan. Hozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar soni keskin kamayib ketgan. Ular Eronning Yazd va Gilon viloyatlarida (100 ming) hamda Hindistonning Maharashtra va Gujarot shtatlarida (115 ming) saqlanib qolganlar. Bombayda zardushtiylikning madaniy markazi **Koma nomidagi institut** faoliyat olib boradi.

O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan 1999-yilning noyabrida UNESKO Bosh konferensiyasi 30- sessiyasi "**Avesto**" yaratilganining 2700 yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi. 2000-yil 29-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Avesto"ning 2700 yilligini nishonlash tadbirlarini belgiladi. Unga ko'ra 2001-yil oktabrda O'zbekistonda xalqaro ilmiy konferensiya va tantanali bayram tadbirlari o'tkazildi.



□ **Siyosiy tarixi:**

- ◆ 4-sulola podshosi Snofru Nubiya, Sinay yarimoroli, Falastin va Liviyaga yurish qilishi
- ◆ 4-sulolaning so'nggi davri — qo'zg'olonlarning boshlanishi
- ◆ 5-sulola ahvolidning yaxshilanishi mavqevini pasayib ketishi
- ◆ **Mil. avv. XXIII a. o'rt.** — davlatning parchalanishi

□ **Siyosiy tarixi:**

- ◆ **Mil. avv. 4-ming y. 2-yarmi** — Yuqori Misr va Quyi Misr davlatlarining tashkil topishi
- ◆ Yuqori Misr podshosi *Narmerning* Quyi Misr ustidan g'alaba qozonishi
- ◆ Yagona davlat tuzish uchun kurashning qizg'in tus olishi
- ◆ **Mil. avv. 3000-y.** — Yuqori Misr podshosi *Mina* Quyi Misrni o'z davlatiga qo'shib olishi
- ◆ Dastlabki Misr davlatining tashkil topishi
- ◆ **Fir'avn** — «*buyuk av*», II sulola davrida podsholarning nomi

□ **Siyosiy tarixi:**


- ◆ Misrni qaytadan birlashtirish uchun shim. (*Gerakleopol*) va jan. (*Fiva*) o'rt. kurashi
- ◆ **Xeti I** — Misr hukmdori
- ◆ **Mentuxatep** — 11-sulola asoschisi
- ◆ **Mil. avv. 2050-yil** — mark. Misrning qayta tiklanishi
- ◆ **XII sulola davri** — Misr Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanishi, Nubiya, Finikiya, Falastin, Frot sohilining bo'ysundirilishi
- ◆ **XIII sulola davri** — o'zaro urushlarning boshlanishi, tushkunlikning kuchayishi
- ◆ **Mil. avv. 1750-yil** — oddiy xalq bilan qullar qo'zg'oloni, g'iksozlarning shim. Misrni egallashi
- ◆ **G'iksozlar** — aslida «*xekou xasut*», «*cho'ponlarning hokimlari*», «*cho'l mamlakatining hukmronlari*», semit va xurrit naslidan
- ◆ **Mil. avv. XIX a.** — Arabistonning shim.-sharqida g'iksozlarning harbiy itirfoqining tashkil topishi
- ◆ **Mil. avv. 1710–1580-yillar** — g'iksozlarning Misrda hukmronligi
- ◆ **15–16-sulola** — g'iksoz namoyandalari
- ◆ **Xian davri** — g'iksozlarning eng gullab-yashnagan davri
- ◆ **Mil. avv. XVI a.b.** — g'iksozlarga qarshi kurashning boshlanishi
- ◆ **17-sulola davri** — Fiva podsholari bu kurashga rahbarlik qilishi kuchayishi
- ◆ **Kamesu I** davri — g'iksozlardan batamom ozod bo'lishi


□ **Siyosiy tarixi:**

- ◆ **Yaxmos I** — 18-sulola asoschisi.
- ◆ **Amenxotep IV** — diniy islohot o'tkazishi «*Amon*»-«*Aton*»
- ◆ **Xorenxeteb** — 19-sulola asoschisi.
- ◆ **Ramzes I** (1338–1337) harbiy islohot o'tkazilishi.
- ◆ **Seti I** (1337–1317) Misrning yuksalishi.
- ◆ **Ramzes II** (1301–1235) obodonchilikka katta e'tibor berilishi.
- ◆ **Mil. avv. 1296-yil** — xetlardan mag'lubiyatga uchrashi.
- ◆ **Mil. avv. 1296–1280-yillar** — Misr va Xett o'rtasida janglar bo'lib o'tishi.
- ◆ **Mil. avv. 1280-yil** — Misr va Xett o'rtasida sulh tuzilishi. **Ramzes II** va **Xettusili** o'rt. tinchlik va do'stlik bitimi tuzilishi.
- ◆ **Merneptax** (1235–1215) — Misrning kuch-qudrati susayadi, g'arbiy cho'l qabilalari va «dengiz xalqlari»ning bosqini, ularni Misr qo'shinlari tomonidan qaytarilishi, suriyalik *Iruu* boshchiligidagi qo'zg'olonning bo'lib o'tishi.
- ◆ **Setnaxt** (1200) — 20-sulola asoschisi, Misrda ahvol yaxshilanishi.
- ◆ **Ramzes III** (1198–1166) — armiya kuchaytirilgan, xo'jalikni tiklash uchun tadbirlar ko'rilgan.
- ◆ **Mil. avv. 1166-yil** — suiqasd natijasida fir'avning o'ldirilishi.
- ◆ **Mil. avv. 1085-yil** — Ramzes IX vafotidan so'ng Misr fir'avnlarning 20-sulolasi tugatildi, Misr ikkiga bo'linib ketadi: Janubiy Misr Fiva hokimlari, Shimoliy Misr 21-sulola asoschisi Tanis hukmdori **Smendes** qo'liga o'tishi.

□ **Siyosiy tarixi:**

- ◆ **Mil. avv. 950-yil** — ijiyolik *Sheshonk I* hokimiyatni qo'liga olib, 22-sulolaga asos soldi.
- ◆ **Mil. avv. 950–730-yillar** — Ijiyaliklar hukmronlik qilgan.
- ◆ **Mil. avv. 853-yil** — *Qarqara sh.* yonida Suriya-Falastin-Misr qo'shinlarining Ossuriyadan yengilishi.
- ◆ **Petubastis** o'zini Misr fir'avni deb e'lon qilib, 23-sulolaga asos solishi. Misrdagi ahvoldning yomonlashuvi.
- ◆ **Mil. avv. 721–715-yillar** — 24-sulola vakili *Bakxoris* davrida inqirozdan chiqish uchun bir qator islohotlarning o'tkazilishi, islohotlarning muvaffaqiyat keltirishligi, Misrning bir qancha mayda nomlarga bo'linib ketishi.
- ◆ **Mil. avv. 740–720-yillar** — Efiopiya podshosi *Pianxt* va *Shabaka* davrida Misr Efiop qo'shinlari tomonidan bosib olinishi.
- ◆ **Mil. avv. 715-yil** — Misr qo'shinlari Efiop qo'shinlaridan yengilishi, fir'avn *Bakxors* asirga olinib, tiriklayin o'tga tashlanishi.
- ◆ **Mil. avv. 720-yil** — Efiopiya podshosi *Shabaka* Misrni bosib olishi, 25-sulolaga asos solinishi.
- ◆ **Mil. avv. 715–664-yillar** — Misrni *Kush* (Efiop) podsholigi boshqarishi.
- ◆ **Mil. avv. 671–655-yillar** — Ossuriya hukmronligi ostida.
- ◆ **Mil. avv. 663-yil** — Ossuriya-Efiopiya qo'shinlarini yengishi va 25-sulolani tugatishi.
- ◆ **Mil. avv. 663–525-yillar** — *Sais* sulolasining hukmronligi.
- ◆ **Psammetax I** 26-sulola asoschisi.
- ◆ **Nexo I** davrida *O'rayer dengizidan Qizil dengizgacha* 84 km kanal qazilishi
- ◆ **Mil. avv. 605-yil** — *Karxamesh yonida* Bobil qo'shinlaridan yengilishi
- ◆ **Mil. avv. 525-yil** — Eron tomonidan bosib olinishi; Eron shohi *Kambiz* o'zini Misr fir'avni deb e'lon qilishi; 27-sulolaga asos solinishi.
- ◆ **27–30-sulola** misrliklardan iborat bo'lgan.
- ◆ **Mil. avv. 332-yil** — Yunon-makedon ta'sirida.







- ◆ **Sumuabum** – amoriy qabilasi asoschisi
- ◆ **“Bobil”** – “xudo darvozasi”
- ◆ **Xammurapi davri (1792–1750)** – davlatning ravnaq topishi
- ◆ 247-moddadan iborat qonunlar orqali davlatni boshqarish
- ◆ **Mil. av. 1595-yil** – **kassitlar** bostirib kirishi
- ◆ **Mil. av. 1518–1204-yillar** – **kassitlarning** hukmronligi
- ◆ **Mil. av. XIV a. oxiri–XIII a.** – **kassitlar** saltanatining kuchsizlanishi
- ◆ **Mil. av. XII a. o'rt.** – podsholikning barham topishi

- ◆ **Nabopolassar** – Xoldey hukmdori, davlat asoschisi
- ◆ **Mil. av. 605-yil** – **Karxamesh sh.** yonida **Navuxodonosor II** Misr va Ossuriya birlashgan qo'shinlarini tor-mor etishi
- ◆ **Mil. av. 556–539-yillar** – ruhoniylar vakili **Nabonid** davrida fitna va qo'zg'olonlar avj oladi, davlat kuchsizlanadi
- ◆ **Mil. av. VI–IV-a.** – Eronga
- ◆ **Mil. av. 330-yil** – yunon-makedonlarga tobe

- ◆ **Sargon I (2316–2261)** – davlat asoschisi, “To'rt iqlim podshosi”
- ◆ Jan.-G'arb. Osiyodagi eng yirik ilk quldorlik davlat barpo etgan
- ◆ Elam, Mesop., Old Osiyoni o'z ichiga olgan
- ◆ **Mil. av. 2261–2200-yillar** – vorislari – **Rimush, Manishtush, Karamsin, Naram-Suen, Sharkamisharri**
- ◆ **Mil. av. XXIII a. oxiri–XXII a. b.** – **guteylar** Mesop.ga bostirib kirishi
- ◆ **Guteylar** – Mesop. Sharq. Zagros tog'larida yashagan
- ◆ 125 y. davlatni mahalliy amaldorlar orqali boshqargan
- ◆ **Gudea** – **Lagash** hokimi, **Shumerni guteylar** nomidan 20 y. boshqargan
- ◆ **Mil. av. 2109-yil** – **Uruk** podshosi guteylardan mamlakatni ozod qilishi
- ◆ **Ur-Nammu** – 3 sulola asoschisi
- ◆ **Mil. av. XX a. oxiri – XIX a. b.** – amoriy va elam qabilalarini bostirib kelishi

- ◆ **70–80 ming yil ilgari** – Dajla daryosining Zab irmog'i bo'yida odamlarning o'rnatilishi
- ◆ **Mil. av. 9–8-mingyilliklar** – vohaga odamlarining kelib joylashuvi
- ◆ **Mil. av. 6–5-mingyilliklar** – qishloqlari p.b.
- ◆ **Mil. av. 5–4-mingyilliklar** – **Eredu, Uruk, Ur, Larsa, Lagash, Umma, Isin, Shuruppak** qishloqlarining p.b.
- ◆ **Mil. av. 4-mingyil.** – jan. Mesopotamiyaga **shumerlarning** kelib o'rnatilishi
- ◆ **Mil. av. 4–3-mingyil.** – Eng qadimgi davlatlarning vujudga kelishi
- ◆ **“En”** – **“tagal”**


- ◆ **Mil. av. 3-mingyil. 1-yarmi** – **Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Lagash, Umma, Shuruppak, Isin, Nippur, Kish, Ashshur, Mari, Nineviya** shahar-davlatlarning mavjudligi
- ◆ **Eredu, Sippar, Shuruppak** – eng qadimgi shahar-davlatlar
- ◆ **Mil. av. XXVIII–XXVII a.** – **Kish** shahar-davlatining kuchayishi
- ◆ **Mil. av. XXVII a. oxiri** – **Uruk** shahar-davlati qudratining oshishi
- ◆ **Mil. av. XXVII–XXVI a.** – **Gilgamesh** davrida **Urukning** kuchayishi, unga **Lagash, Nippurni** itoat etishi
- ◆ **Mil. av. XXV–XXIV a.** – **Ur** shahar-davlatining kuchayishi
- ◆ **Mil. av. XXIV a. oxiri** – **Umma** shahar-davlatining kuchayishi
- ◆ **Ur, Uruk, Larsa, Adab, Nippur** shahar-davlatlarini o'ziga itoat ettirilishi
- ◆ **Shumer** podsholigini tashkil etilishi





## Qadimgi Suriya va Finikiya Mil. av. 3-2-ming y. – mil.av. VIII a.

Kichik Osiyo



O'rtayer dengizi

Falastin

**Hurriylar, xanaanlar, somiylar** – tub aholisi.

*Mamlakatning boshida qish, kaftida kuz, oyog'ida esa doim bahordir*

### DASTLABKI SHAHAR-DAVLATLAR

- **Mil. av. 8-7-mingyillik** – O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi o'lkalarda ilk o'troq dehqonchilik madaniyati, chorvachilik va savdo-sotiq qaror topdi
- **Mil. av. 6-4-mingyillik** – xo'jalik yanada rivojlanib, o'lkada qishloqlar paydo bo'ldi. Aholi orasida xususiy mulkchilik, tabaqaalanish boshlanib, odamlar boy va kambag'allarga bo'лина boshladilar
- **Mil. av. 4-3-mingyilliklar** – *Ugarit, Avad, Bibl, Sidon, Tir, Damashq, Kadesh, Ebla* shahar-davlatlari Suriya va Finikiyada tashkil topdi
- **Mil. av. 3-2-mingyilliklar** – *Ugarit* shahri taraqqiy etishi
- **Mil. av. 2-mingyillik boshi** – *Xalpa* (Suriya), *Bibl, Sidon, Tir* shahri (Finikiya) yuksalishi
- **Mil. av. XX–XVI a. b.** – Finikiya va Suriyaning ayrim shahar-davlatlari, xususan *Bibl* Misrga tobe bo'lgan
- **Mil. av. XIV a. oxiri** – shimoldan *xetlilar* Shimoliy Suriyaga bostirib keldilar
- **Mil. av. XIV–XIII a.** – Finikiya va Suriyani talashib Misr bilan Xett davlati o'rtasida qattiq janglar bo'lib o'tishi
- **Mil. av. 1280-yil** – Misr bilan Xett o'rtasida-gi sulhga ko'ra, Falastin, Suriya va Finikiyani o'zaro bo'lib olinishi
- **Mil. av. XIII a.** – g'arbdan "*dengiz xalqlari*" ning istilosi boshlanib, Suriya va Finikiyaning qirg'oq bo'yi shaharlari talandi va vayron qilindi
- **Mil. av. X–IX a.** – *Bibl, Sidon, Tir* sh. davlatlarni mustaqillikka erishuvi va yuksalishi
- Finikiyada 22 ta undosh harfi alifboining yaratilishi
- **Tir-Sidan podsholigini** (Finikiya) tashkil topishi
- **Mil. av. 965–936-y.** – *Xiram I davri: Tir-Sidan* podsholigi ravnaq topadi. *Kipr, Unika* (Shim. Afrika)ni bosib olinishi, qo'shimlar *Sitsilia, Malta* va *Ispaniyaga*cha suzib boradilar
- **Karfigen** shahri (Shim. Afrika)ga asos solinishi
- Misr fir'avni *Nexo II* ning taklifi bilan finikiyaliklarni Afrika sohillarini aylantirib chiqishi

### Yaxmad davlati mil. av. XVIII–XV a.

- **Mil. av. XVIII a.** – *amoriy* qabilalarining Shimoliy Suriyaga bostirib kirishi, ularning sardori *Sumuepax Yaxmad davlatini* tuzib o'zini podsho deb e'lon qilishi
- **Mil. av. XVIII a.** – *Yaramlim* davri: u **Bobil podshosi Hammurapi** va **Mari podshosi Zimrilimiga** zamondosh bo'lgan, poytaxt *Xalap* shahri bo'lgan
- **Mil. av. XVIII a. oxiri** – Yaxmad davlati yemirilib o'z mustaqilligini yo'qotadi
- **Mil. av. XVIII–XVII a.** – Yaxmaddan janubdagi yerlarda *giksoslar harbiy ittifoqi* tashkil topadi
- **Mil. av. XV a. b.** – Misr fir'avni *Tutmos III* qo'shinlari giksoslarni yengib, Falastin, Suriya va Finikiyada o'z hukmronligini o'rnatadi

### DAMASHQ PODSHOLIGI mil. av. XX a. – mil. av. 732-y.


- **Mil. av. 2-mingyillikning oxiri** – *aramey* qabilalari Suriyaga bostirib kirib, Damashq podsholigini tuzishi
- **Mil. av. IX a. 2-yarmi** – Damashq podshosi *Gazail* Isroilning Suriyaga tutash yerlarini bosib olishi, Gat sh. bosib olishi
- **Benzadad III** davrida Suriyaning ko'p viloyatlari Damashqqa itoat ettiriladi, biroq *Xamad podsholigidan* yengilib, o'z mavqeyini yo'qotadi
- **Mil. av. IX a. oxiri** – Ossuriya qo'shinlarining bostirib kirishi
- **Mil. av. 732-yil** – Ossuriya tomonidan uzil-kesil tor-mor etilishi
- **Bobil-Eron-Yunon-Rim** ta'sirida

### DINIY E'TIQOD

- Suriya va Finikiyada tabiat hodisalariga, qoyatoshlarga va hayvonlarga, ayniqsa dehqonchilikka e'tiqod qilingan
- **Vaal** – o'luvchi va tiriluvchi tabiat xudosi
- **Aliyyan** – Vaalning o'g'li
- **Mot** – o'lim xudosi
- Suriya va Finikiyada dindor kishilarni xudolarga qurbon qilganlar
- **Mil. av. III a.** – Kartagendagi xudo *Molox* sanam haykali oldida bolalarni gulxanga tiriklayin tashlab, kuydirib qurbon qilganlar

### MADANIYATI

- **Mil. av. 2-mingyillik** – Suriyada **Bobil** – mixxati asosida tuzilgan 29 belgidan iborat alifbo kashf etilgan.
- **Mil. av. IX a. oxiri – VIII a. b.** – Finikiyada 24 belgidan iborat yozuv alifbo kashf etishgan (keyinchalik 24 belgidan alifbo isloh qilib, 22 belgidan iborat alifbo kashf etilgan).
- **Mil. av. VI a.** – Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, shu asrda yashagan millatlik mashhur matematik, fizik, astranom va faylasuf **Fales** asli finikiyalik bo'lgan.
- Sidonlik faylasuf **Max Yunon** faylasuf-matematiklaridan ancha oldin **atomlar** haqidagi nazariyani yaratgan edi.



**QADIMGI FALASTIN**

mil. avv. 3-ming y. - mil. avv IV a.

Suriya-Finikiya

O'rtayer dengizi

Suriya-Mesopotamiya dashti

Misr

**Xananey** - tub aholi

**MANBALAR**

- *Finikiya, Falastin, Suriya-Xanaan, Amurru, Frakiya* (yunoncha)
- Tavrotda ma'lumotlar mavjud
- **1940-1960-yillar** - *Qumron* g'oridan Tavrotning qadimiy qo'lyozmalari topiladi
- Fransuz *Jan Fstryuk*, nemis *Y. Belgauzen* tadqiqotlar amalga oshirgan
- *Gerodot, Katta Pliniy* asarlarida ma'lumotlar bor
- **Mil. avv. I a.** - yahudiy *Iosif Flaviy* grek tilidagi "*Yahudiylarning qadimgi yodgorliklari*"
- **1920-y.** - *Ugari* sh. (mil. avv. 3-2-ming y.) *Megiddo* qal'asi (mil. avv. XV a.), *Yerixon* sh. (mil. avv. VII a.) topib o'rganilgan

**FALASTIN**


mil. avv.3-2-ming y. - XIII a.

- **Bundian 80-90 ming y. ilgari** ibtidoiy odamlar yashagan.
- *Saron, Yerixon* serunum bo'lib, *Saronni* "*Jannat bog'*"ga qiyos qilganlar
- **Falastin** - yahudiycha *peleshet* so'zidan kelib chiqqan
- **Xanaan** - misrliklar Falastinni shunday ataganlar
- **Filistimlar** - *Egey* qabilasi, O'rtayer dengiziga yondosh yerlarda yashagan
- **Mil. avv. 3-2-ming y.** - *Gezer, Megiddo, Laxish, Iyerusalim* shahar-davlatlarning mavjudligi
- **Mil. avv. XIX-XVII a.** - Falastin gullab-yashnagan


**ISROIIL-YAHUDIY PODSHOLIGI**

mil. avv.XI a - VII a.

- **Mil. avv. XIII a.** - Frot daryosi ortida yashagan ko'chmanchi *yahudiy* qabilalari Falastinga bostirib kirganlar. Podsho *Saul Isroiil davlatini* tuzib, *fiistimlar* va *moavlar* bilan urush olib borgan
- **Mil. avv. 1000-965-yillar** - *Dovud davri*: Saulning kuyovi bo'lib, uning o'limidan so'ng Falastinni birlashtirib markazi *Xevron* bo'lgan *Yahudiy podsholigini* tuzgan va Saulning o'g'li *Ishvaa'lanni* yengib markazi *Quddus* bo'lgan *Isroiil-Yahudiy podsholigini* tuzgan
- **Mil. avv. 965-935-yillar** - *Sulaymon davri*: Isroiil-Yahudiy podsholigi kuchayadi. *Iyerovoam* boshchiligida yangi soliqlarni joriy qilinishiga qarshi qo'zg'olon bo'lib o'tadi
- **Mil. avv. 935-930-yillar** - *Rovoam davri*: Mamlakatda vaziyat yomonlashadi. *Iyerovoam* Misrdan katta qo'shin bilan qaytib, Rovoam qo'shinlarini yengadi va Isroiil podsholigini tiklaydi
- **Mil. avv. 930-yil** - Misr fir'avni *Sheshonk* qo'shinlari Falastinga bostirib kirib, shahar va qishloqlarni talab, ularni vayron qiladi
- **Mil. avv. 722-yil** - Ossuriya podshosi *Sargon II Samariya* shahrini bosib olib Isroiil podshosi *Osiyani*, 27290 isroillikni asir qilib olib ketib, Midiya va Mesopotamiyaga joylashtiradi. Isroiilga esa *arameylarni* joylashtiradi. Shu tariqa Isroiil podsholigi barham topadi
- **Mil. avv. VII a. oxiri** - Falastin misrliklar tomonidan bosib olindi
- **Mil. avv. 597-586-yillar** - Falastin Bobil podshosi *Navoxodonosor II* qo'shinlari tomonidan istilo qilinadi. *Quddus* shahri vayron etilib, aholining ko'p qismi Ikki daryo oralig'iga haydab ketiladi
- **Mil. avv. VI-IV a.** - Falastin Eron ta'sirida
- **Mil. avv. IV a.** - Falastin yunon-makedon ta'sirida



**Qadimgi Xett podsholigi**  
mil. av. XVIII a.b. - XII a.b.



**MANBALAR**

- 1906-yil - nemis **G. Vinkler** Bo'g'ozqo'ya tepaligida (Anqara shartida) **Xattusa** xarobalarini topadi
- 1915-yil - chex **B. Grozniy** xett yozuvini o'qish kalitini topadi
- Nesti tili - davlat tili bo'lgan, abxaz-adeigiy tilida so'zlashgan

**QADIMGI XETT PODSHOLIGI**  
mil. av. XVIII a. b. - XV a. o'rtasi

- Mil. av. 2-mingyillik 2-yarmi - Yarimorol (Kichik Osiyoga **axeylar.dengiz xalqlari** va **firig'iyalar, kimmeriyalar, eroniyalar, yunonlar** va **rinitiklar** kirib kelib joylashganlar
- Mil. av. 3-mingyillik oxiri - 2-mingyillik boshlari - Kichik Osiyoda **Nesa, Kanish, Buruxvand, Kassar** va **Xattusa** kabi shahar-davlatlarning tashkil topishi
- Mil. av. 18-a. b. - **Kassar** hukmdori **Pitsan** yarimorolning sharqiy qismini birlashtirib, o'zini podsho deb e'lon qiladi. Uning o'g'li **Anitta** uzoq davom etgan janglardan so'ng **Nesa, Xattusa** va **Zalpuva** kabi shahar va davlatlarini bosib olib, **Xett podsholigiga** asos soladi va **Nesa** uning poytaxtiga aylantirildi
- Mil. av. 1680-1620-yillar - **Labarnam**ning hukmronlik davri: mamlakatni birlashtirish oxiriga yetkazilgan, mamlakatning ko'p joylari va Qora dengizning janubiy sohillariga cha istilo qilgan. Poytaxtni **Nesadan Xattusaga** ko'chirgan
- Mil. av. 1650-1620-yillar - **Xattusii I** hukmronlik davri: podsholikning kuchaygan davri, Xett qo'shinlari Shimoliy Suriyadagi **Xalpa** va **Bibi** shaharlarini bosib oladilar, **Xattusii I** o'z kuyovni tomonidan o'ldirilishi
- Mil. av. 1619-1590-y.y. - podsho **Mursiit I davri**: podsholikning kuchaygan davri. Xett qo'shinlari Shimoliy Suriyadagi **Xalpa** va **Bibi** shaharlarini bosib oladilar
- Mil. av. 1520-1490-yillar - podsho **Telepen davri**. Xett podsholigi biroz kuchaygan

- **Din va e'tiqod**:  
**Ulug' ma'buda** - tabiat onasiga e'tiqod kuchli, u ayol qiyofasida tasvirlangan.
- Teshub** - bosh xudo, "**Osnon podshosi, Xett mamlakati homiysi**", tog' cho'qqilari, momaqaldiroq, yashin, yog'ingarchilik, hosildorlik xudosi
- Quyosh xudosi** - **Teshubni** xotini, mamlakat homiysi, malikalarning homiysi.
- Podsho-xudo** - "**quyoshim**"
- "**mamlakatning 1000 xudosi**"
- Telepin** - ko'klam xudosi, Navro'zga o'xshaydi

- Mil. av. XVI a. oxiri-XV a. - **Telepen** vaftidan keyin o'g'illari o'rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlanishi
- **O'ria Xett podsholigi** davrida podsholik kuchsizlandi.
- **Mitanni** davlati kuchayib, **Kilikiyaning** bir qismini bosib oladilar. Shimoldan esa Qora dengiz sohillarida yashagan **kask** qabilalari xettlar yurtiga hujum qilib, **Xattusa** shahrini bosib olib, uni vayron qiladilar. Kambag'allar va qullar qo'zg'oloni kuchaytib ketgan
- Saroyda toj-u taxt uchun kurash qizg'in tus olgan. Tashqi dushmanlarning hujumi, ichki g'alayonlar va zodagonlar orasidagi o'zaro kurashlar podsholikni halokat ostonasiga olib kelib qo'yadi


**YANGI XETT PODSHOLIGI**  
mil. av. XIV a. oxiri - XII a.

- Mil. av. XIV a. b. - Xett davlati taxtiga **Suppilium** o'tiradi. U senga'yrat lashkarboshi, mohir diplomat, uzoqni ko'ruvchi dono siyosatdon edi. Xett podsholigi Qora dengiz bo'yalaridan Falastin, Bobil va Ossuriya chegaralarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi
- Mil. av. 1340-1305-yillar - **Mursiit II** davri: Xett davlati Old Osiyodagi buyuk davlat
- Mil. av. 1280-y. - **Misr-Xett sulhi** bilan Misr va Xett urushlarining yakunlanishi
- Mil. av. XIII a. oxiri - g'arbdan Kichik Osiyo, O'rtaer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar va Misrga "Dengiz xalqlari" hujum boshlaydilar
- "**Dengiz xalqlari**" - **axeylar, sardlik sherdonlar, tursha-etrusk** qabilalari ittifoqi
- Mil. av. 1190-yil - "**Dengiz xalqlari**" ning lashkarlari Xett podsholigi markazi **Xattusani** ishg'ol qilib, uni vayronnaga aylantiradi. Shu bilan Xett podsholigi barham topadi
- Mil. av. XII-VIII a. - Xett podsholigi mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketishi

**Xettlar, xurritlar, ossurlar, kask**

**MADANIYATI**


- **Xett davlati** - quldorlik davlati
- Mil. av. 3-mingyillik oxiri - 2-mingyillik b. - Kichik Osiyoda shahar-davlatlar tashkil topgan
- **Tabarna** o'zini "**Ulug' podsho**" deb e'lon qilgan, keyinchalik uni nomi podsholik unvoniga aylangan
- **Telepen** davrida Xett davlati tashkil topadi va taxt vorisligi tartibga keltiriladi
- Dehqonchilikning 2 turi rivoj topgan - **sug'orma dehqonchilik** va **lalnikor dehqonchilik**
- Mil. av. 2-mingyillik - Kichik Osiyoda yilqichilik va otlarning turli zotlarini yetishtirish rivojlanirilladi
- **Tog'-kon sanoati, temirchilik, qurolsozlik, qishloq xo'jalik qurollarini** ishlab chiqarish rivojlangan
- Shumer-akkad yozuvi asosida **Xett iyeroglif** va **mixsimon** yozuvlarini yaratganlar
- "**Ulilikumin haqida go'shiq**", "**Telepen haqida afsona**" va "**Illyvanke haqida afsona**"lar Xett adabiyotining ajoyib namunalari hisoblanadi
- "**Suppilium I solnomasi**", "**Mursiit II solnomasi**" va "**Xattusii III tarjimaiyoli hoi'**" kabi tarixiy asarlar yaratilgan
- Yangi podsholik davrida mesopotamiyaliklarning "**Gilgamesh haqida doston**", Gesiodning "**Teogoniy**", kabi asarlari xett tiliga tarjima qilinishi



**QADIMGI ERON**

mil.av. 3-ming y. – 330-y.

Elbrus, Turkman-Xuroson, Hindiqush  
tog'lari



Fors qo'ltig'i

**Elam, lulubey, kassit, gutey, midiya, fors, aramey, xabash**

**Elam, lulubey, kassit, gutey, midiya, fors, aramey, xabash**

**QADIMGI ELAM**


mil.av. III ming y. – 549 y. Suza


- ◆ 70–50 ming yillardan beri – Eronda aholi yashab keladi
- ◆ Mil. avv. 6-mingyillik – Eronning janubi g'arbiy burchagida xo'jalik rivojlanib, xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish sodir bo'ldi
- ◆ Mil. avv. 3-mingyillik b. – Elamda davlatning vujudga kelishi.
- ◆ Mil. avv. XXI asrgacha – Shumer va Akkadga qaram
- ◆ Mil. avv. 2230-yil – Elam hukmdori *Xira* Akkad podshosi *Naram-Suen* bilan do'stlik haqida shartnoma tuzadi
- ◆ Mil. avv. 22-a. b. – *Kutik-Inshushinak* Elamni birlashtirishi va mustaqil davlatga aylantirishi, Elamga shimoldan guteylar bostirib kirib, uni o'zlariga tobe qilib oladilar.
- ◆ Mil. avv. XXI a. – Elam kuchayib, mustaqillikka erishib, Urni o'ziga qaratadi va Janubiy Shumerni bosib oladi
- ◆ Mil. avv. 1730–1700-yillar – Elam qo'shinlari Mesopotamiyaga bostirib kirib, Akkadgacha bo'lgan yerlarni bosib oladilar
- ◆ Mil. avv. XIV asrgacha – Elam o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Keyinchalik Elam bobilliklarga tobe bo'lib qoladi.
- ◆ Mil. avv. XXI–XVIII a. – Elamning kuchayishi
- ◆ Mil. avv. 1180-yil – Elam shohi *Shutruk-Naxunta I* Bobil qo'shinlarini haydab chiqarishi, Hammurapi qonunlari yozilgan toshni Suzaga olib kelinishi
- ◆ Mil. avv. 1155–1115-yillar – davlatni kuchaygan davri, *Shutruk-Naxunta I* va *Kutir-Naxunta II* Bobil, shim. Eronni bosib olishi, Bobil, Sippar, Kish, Opis sh. talashi
- ◆ Mil. avv. 1115-yil – Bobil podshosi *Navoxodonosor I* Elam qo'shinlarini tor-mor etishi
- ◆ Mil. avv. VIII a. – Elamning yana tiklanishi
- ◆ Mil. avv. 720-yil – Elam qo'shinlari *Der yaqinidagi* jangda ossurlarni tor-mor etadilar
- ◆ Mil. avv. 596-yil – Bobil podshosi *Navoxodonosor II* Elamni bosib olishi
- ◆ Mil. avv. 549-yil – Elamning *Kir II* tomonidan bosib olinishi va Eron tarkibiga qo'shib ketishi
- ◆ Mil. avv. 539-yil – Ossuriyadan mag'lubiyatga uchrashi

**AHAMONIYLAR DAVLATI**  
mil. av. VIII a. – 330-y.  
Pasargad, Persepol

- ◆ Mil. avv. X–IX a. – Urmiya ko'lining jan. Qismida *parsua* qabillarining istiqomat qilishi
- ◆ Mil. avv. VIII–VII a. – Elamga borib ularning joylashuvi tengsizlik va tabaqalanish sodir bo'ldi
- ◆ Mil. avv. VIII a. oxiri – parsualarning *axmon* sardori atrofida birlashuvi
- ◆ Mil. avv. 639-yil – Parsua podshosi *Kayxusrav I* Ossuriya hukmronligini tan olishi
- ◆ Mil. avv. 600–559-yillar – *Kambizi* Midiyaga itoat etishi
- ◆ Mil. avv. 559–530-yillar – *Kayxusrav II davri*: davlatni kuchayishi; poytaxt *Pasargadni* qurilishi
- ◆ Mil. avv. 553–550-yillar – *Midiyaga* qarshi urush va uning bo'ysundirilishi.
- ◆ Mil. avv. 549-yil – *Elamni* bo'ysundirilishi
- ◆ Mil. avv. 545–539-yillar – Hindiston va Turon chegarasigacha yerlarni bosib olishi
- ◆ Mil. avv. 530-yil – Turonga bostirib kirishi va vengillishi
- ◆ Mil. avv. 529–522-yillar – *Kambiz II davri*: Eronga bo'ysundirilgan mamlakatlarda qo'zg'olonlarning boshlamishi va ularni bostirilishi
- ◆ Mil. avv. 521-yil – Misrni bosib olishi
- ◆ Mil. avv. 522-yil – *Kambizi* o'ldirilishi
- ◆ Mil. avv. 522-yil fevral – 29-sentabr – *Guamanting* hukmronligi
- ◆ Mil. avv. 522–486-yillar – *Doro I davri*: davlatni 20 ta satraplikka bo'lib idora qilishi, skiflarga, Turon va Yunonistonga qilgan yurishi muvaffaqiyatsiz chiqishi
- ◆ Mil. avv. 490-yil – *Marofon jangida* yunonlardan mag'lubiyatga uchrashi
- ◆ Mil. avv. 486-yil – Misrda qo'zg'olon
- ◆ Mil. avv. 486–465-yillar – *Kserks davri*: *Bolgonga qarshi* harbiy yurishlar uyushtirishi; *Pleiya, Salamin, Mikalida* mag'lubiyatga uchrashi
- ◆ Mil. avv. 465-yil – *Kserksni* o'ldirilishi
- ◆ Mil. avv. 460–424-yillar – *Artakserks davri*
- ◆ Mil. avv. 460–454-yillar – *Inar* boshchiligidagi misriklarning qo'zg'oloni
- ◆ Mil. avv. 449-yil – *Suzada* yunonlar bilan *Kaliy* tinchlik bitimini tuzilishi
- ◆ Mil. avv. 424–401-yillar – *Kir kichkina* va *Artakserks II* o'rt. toj-taxt uchun janglar bo'lib o'tishi
- ◆ Mil. avv. 401-yil – *Artakserks II* taxtiga o'tirish
- ◆ Mil. avv. 336–330-yillar – *Doro III davri*: Eron Sharqda eng qudratli davlatga aylanishi
- ◆ Mil. avv. 334–332-yillar – *Iskandarning* Kichik Osiyoga bostirib kirishi
- ◆ Mil. avv. 331-yil IX. – *Gargamel* yonida eronliklarning mag'lubiyatga uchrashi
- ◆ Mil. avv. 330-yil – Eron davlatining qulashi

- ◆ Mil. avv. IX a. – Midiyada mayda davlatchalar mavjud bo'lib, ossurlar midyaliklarni talab, ulardan xiroj undingantlar
- ◆ Mil. avv. VIII a. oxiri – kimmerylarning bostirib kelishi
- ◆ Mil. avv. VII a. b. – skiflarni bostirib kirishi
- ◆ Mil. avv. 672-yil – *Kashartiti* boshch. Ossurlarga qarshi qo'zg'olon, midyaliklarni birlashtirishga kirishadi
- ◆ Mil. avv. 653-yil – *Kashartiti*ning Ossuriyaga qarshi qo'shin tortishi
- ◆ Mil. avv. 653–625-yillar – Skiflarning hukmronligi
- ◆ Mil. avv. 625-yil – *Kiaksar* skiflarni tor-mor etishi, Midiyaning kuchli davlatga aylanishi
- ◆ Mil. avv. 614-yil – Ossuriyani talon-taraj qilinishi
- ◆ Mil. avv. 612–609–605-yillar – Ossuriyani bobilliklar bilan hamkorlikda tor-mor etishi
- ◆ Mil. avv. 585–550-yillar – Astiag davrida Bobil bilan ittifoqni buzilishi va o'zaro janglar bo'lib o'tishi
- ◆ Mil. avv. 550-yil – *Kir II* Midiyani o'z davlatiga qo'shib olishi





**SOSONIYLAR DAVLATI**  
224–661-yillar

□ **Siyosiy tarixi:**

- ◆ 224–239-yillar – *Ardasher davri*: parfiyaliklarni yengishi
- ◆ 226-yil – Poytaxtni *Staxrdan Ktesifonga* ko'chirishi
- ◆ 230-yil – Suriya va Kichik Osiyoga bostirib kirishi
- ◆ 232-yil – Rim imperatori *Al. Sever* qo'shini bilan urushlar olib borilishi
- ◆ 243–273-yillar – *Shopur I davri*: Sosoniylar "*shahonshoh*" unvoniga ega bo'lishlari
- ◆ Sosoniylar davlati *Eronshahr* – oriylar podsholigi yoki Eroniylar shohlighi – davlatning nomi
- ◆ 244–251-yillar – Jan. Armaniston, Ossuriyani bosib olinishi
- ◆ Suriya va Frot daryosi bo'yidagi rimliklarning 36 qal'a va shaharini bosib olinishi
- ◆ Rim imperatori *Gordianning* halok bo'lishi
- ◆ *Valerian* Edess bo'yidagi jangda asirga olinishi
- ◆ 363-yil – Rim hukmdori *Yulianning* halok bo'lishi
- ◆ III a. 2-yarmi – IV a. – Sosoniylar davlatining eng kuchaygan davri
- ◆ V a. o'rt. – kuchsizlanishi
- ◆ III–V a. – Sosoniylarning dastlabki davri

- ◆ Qadimgi Eron, Parfiya, Bobil, Ellin madaniyatining ta'siri kuchli bo'lgan
- ◆ "*Avesto*" – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi, O'rta Osiyo va Eronning tabiati, aholisi, geografiyasi, tarixi va madaniyati haqida ma'lumotlar beradi
- ◆ *Moniy ibn Fatak* (216–276) – Moniy dini asoschisi
- ◆ *Mazdak ibn Xamadoniy* (470–529) – mazdakchilik oqimiga asos solgan



**QADIMGI HINDISTON**  
mil.av. 4-mingyillik – mil. IV a.

**Manbalari**

- ◆ *Vedalar*, *Maxabxarata*, *Ramayana* – she'riy asarlar
- ◆ *Vedalar* – gimnlar, qo'shiqlar, afsunkor va diniy duolardan iborat katta to'plamdir
- ◆ *Rigveda*, *Samoveda*, *Yajurveda*, *Axaraveda* deb atalgan to'plamlari saqlangan
- ◆ Eng qadimgi qismi 2-mingyillikka oid
- ◆ *Maxabxarata* (*Bxarta* avlodlarining buyuk urushi) – muallifi *Yayasa*, mil.av. I ming y. o'rt. yozilgan
- ◆ *Bxarta* podsho urug'ining 2 avlodi – *Kauravlar* va *Pandavlar*ning to'qnashishi hikoya qilinadi. I-avlod *Xastinapur* sh. idora qilgan, 2-esa hokimiyatni uning qo'lidan tortib olishga uringan va bu urinish g'oyat xunrezlik urushiga olib kelib, unda jang qilganlarning juda ko'pchiligi halok bo'lgan
- ◆ *Ramayana* – muallifi *Valmiki*, mil.av. I-mingyillik o'rt. yozilgan
- ◆ O'gay onasining ta'qiblariga chiday olmay, *Ayodxiya* sh. tashlab ketgan shahzoda *Ramaning* g'urbatda kezb yungani hikoya qilinadi. *Ramaning* xotini *Sitani* Lanka (Seylon) orolidagi devlar o'g'irlab ketgan bo'ladi. U xotinini qutqarish uchun ayiq va maymunlardan iborat qo'shinga bosh bo'lib, orolga boradi va dushmanlarini yengadi. U o'z vatanga qaytib, otasining taxtini egallaydi
- ◆ *"Manu qonunlari"* – (mil.av. III a. – mil. III a.) 5 kitob qonunlarga o'xshagan sof diniy huquqlar yodgorligi
- ◆ *"Arxashastra"* – muallifi *Kautiye*, davlatni idora qilish haqidagi asar
- ◆ Podsho *Ashoki* farmonlari – (mil.av. III a.) oid qoyalarga o'yib yozdirilgan
- ◆ *Gerodot* (mil.av. V a.), *Arrian* (mil.av. II a.)
- ◆ XIII a. *Marko Polo*, XVI a. *Afanasiy Nikitin* – sayyohlar
- ◆ XVIII a. Hindistonning yodgorliklarini o'rganish boshlangan
- ◆ *U. Jovs* "Manu qonunlari" ingliz tiliga tarjima qilishi
- ◆ XIX a. *F. Bopp* hind-yevropa tilshunoschiligining asoschisi, sanskritni o'rganishni kuchaytishi

Himolay tog'lari



Arabiston dengizi



Hind okeani

**DRAVID, ORIY, BENGAL, BIXAR, GUJORAT, ASSOM**


- ◆ 300–500 ming y. ilgari – odamlar yashagan
- ◆ Mil. av. 4–3-mingyillik – eng qadimgi hind madaniyati tarkib topishi
- ◆ *Mohinjio Doro* (Sind) – 270 gk iborat sh.
- ◆ *Xarappa* (Panjob)
- ◆ mil. av. XVI–XIII a. – eng qadimgi davr inqirozga uchragan


**QADIMGI HINDISTON**  
mil.av. XIII–VII a.

- ◆ Mil. av. 2-mingyillik – Oriylarning kelib joylashuvi
- ◆ *"Oriy"* – olijanob, ulug'vor, yaxshi oiladan va aslzoda
- ◆ Mil. av. 1-mingyillik 1-yarmi – davlatlarning tashkil topishi
- ◆ *Varna* – braxman, kohin, kshatriya, vaysi, shudra
- 1. *Braxman, kohin* – hind ruhoniylari, xudo braxma og'zidan chiqqan
- 2. *Kshatriya* – jangchi kishilar, xudo Braxma qo'llaridan yaratilgan
- 3. *Vayshi* – dehqon va hunarmandlar, ular xudoning qovug'asidan yaratilgan
- 4. *Shudra* – bo'ysundirilgan ajnabiylar, qullar, o'z urug' va qabilalaridan ajralib qolgan kishilar. Ular xudoning tovonidan yaratilgan. Ular zoti past bo'lib, jamoaga yaqinlashitirilmagan
- ◆ *Chandallar* – xazar qilmadiganlar

**Mil.av. VI a. – mil. V a.**

- ◆ Mil.av. VI a. – Shim. Hindistonda 20 dan ortiq davlatlarning mavjudligi
- ◆ *Magadxa*, *Anga*, *Shaxya*, *Kashala*, *Gandxar*, *Malla*, *Kashi* – yirik davlatlar
- ◆ Mil.av. 643–491-yillar – podsho *Bimbhasara* davrida *Magadxaning* kuchayishi
- ◆ *Ajatashatri* davrida Gang vohasi va Mark. Hindiston markazlashgan davlatga birlashtirilgan
- ◆ Mil.av. 345-yil – *Ugrasen Magadxa* podshosini yengib, taxtni egallashi
- ◆ *Nand* podsholigini vujudga kelishi
- ◆ Mil.av. VI–V a. – Panjob vil., Hind daryosining o'rti va quyi oqimidagi yerlar Eronga qo'shib olinishi
- ◆ Mil.av. 327-yil – *Iskandar*ning Hindistonga bostirib kirishi
- ◆ Panjobda *Por* qo'shininig mag'lubiyatga uchrashi
- ◆ Mil.av. 325-yil – *Iskandar*ning Hindistonni tark etishi
- ◆ Mil.av. 317-yil – yunon qo'shinini Hindistonni tark etishi
- ◆ *Chandragupta* – hind sarkardasi, yunonlarga qarshi xalq harakatining rahbari
- ◆ *Maurya* davlatining asoschisi
- ◆ Mil.av. 317–180-yillar – *Maurya* davlatining faoliyat ko'rsatishi
- ◆ *Patalaputra* sh. – poytaxt
- ◆ *Bindusara* davrida (mil.av. 293–268) va *Ashoka* davrida (mil.av. 268–231) Hindiston qudratli davlatga aylanishi
- ◆ Mil.av. 180-yil – *Magadxada* hokimiyat tepasiga *Shunglar* sulolasi kelib, davlatni 68 yil boshqarishi
- ◆ Mil.av. 68-yil – *Kalvatar* sulolasi hokimiyat tepasiga kelishi, 45-yil davlatni boshqarishi
- ◆ Mil.av. 23-yil – Gandxara va Panjobda *Hind-Sak* davlatini tashkil topishi
- ◆ III-IV a. – *Guptalar* hukmronligi
- ◆ *Gupta* – davlat asoschisi
- ◆ *Chandragupta I* (320–335), *Samudragupta* (335–380), ayniqsa *Chandragupta II* (380–415) davlatining kuchayishi





**SIN PODSHOLIGI**  
mil. av. IV–III a.  
Syanyan sh.


- ◆ Mil.av. V–IV a. – xo'jalikning inqirozga uchrashi
- ◆ Mil.av. IV a. oxiri – Sharqiy Xitoyda yagona davlat tuzish uchun **Chu** va **Sin** podsholiklari o'rtasidagi kurash
- ◆ Bu kurashda **Sin** podsholigining g'alaba qozonishi
- ◆ Sin podsholigi **Vey** havzasida joylashgan
- ◆ Mil.av. IV a. o'rt. – Sin podsholigining kuchayishi
- ◆ Podsho **Sya-gun** davrida (361–338) davlat amaldori **Shan Yan** tomonidan yer, davlat boshq., maorif va harbiy sohalarida islohotlarni o'tkazilishi
- ◆ Yerni istagancha xususiy mulk qilib olish, uni erkin sotish va sotib olishga ruxsat berilgan
- ◆ Davlat 36 viloyatga bo'lingan
- ◆ Qo'shin qayta tuzilib qurollantirilgan
- ◆ Podsho **In Chyen** davrida (241–210) Sharqiy Xitoy yerlarining birlashtirilishi
- ◆ U **Sin Shi Xuandi** – Sinning I-podshosi nomini olishi
- ◆ Sharqiy Xitoydagi 6 podsholikni o'ziga bo'ysundirishi
- ◆ **Syuni**(xunn) qabilalariga qarshi zafarli urushlar olib borishi
- ◆ Mil.av. IV a. – **Buyuk Xitoy devori** – **Saddi Chinni** xunn qabilalaridan himoya qilish maqsadida qurilishi: **Shanxaydan Dunxuangacha** 5000–6000 km
- ◆ Mil.av. 209–202-yillar – qishloq oqsoqoli **Lyu Ban** boshch. qo'zg'olonni bo'lib o'tishi
- ◆ Mil.av. 202-yillar – Sin sulolasining tugatilishi


**XAN PODSHOLIGI**  
mil. av. 206-y. – mil. 25-y.  
Chanan sh.


- ◆ **Lyu Ban** – markazlashgan davlatga aylantirishga harakat qilishi
- ◆ **U Din** davrida (140–87) Sin Shi Xuandi davridagi istibdodni qayta tiklagan
- ◆ Mil.av. 138–125-yillar – Turonga **Chjan Syanni** yuborishi
- ◆ Uning **Qang', Kushon, Farg'ona, Baqtriyada** bo'lishi
- ◆ Mil.av. 123-yil – Xitoy qo'shinlari **syunnularni** Xan saltanatidan surib chiqarilishi
- ◆ Mil.av. 121–119-yillar – Dunxuangacha bo'lgan yerlarni bosib olinishi
- ◆ Mil.av. 102-yil – Farg'onaga bostirib kelishi
- ◆ Mil.av. II a. – G'arbiy Xitoy Xan saltanati tarkibiga kiritilib, Turon bilan dastlabki aloqalarning bog'lanishi
- ◆ **Buyuk Ipak yo'lga** asos solinishi
- ◆ Mil.av. 119–109-yillar – Janubiy Xitoyni Xan tarkibiga qo'shib olinishi
- ◆ Mil.av. I a. 2-yarmi – ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'tkazilishi
- ◆ **Dun Chjun-shu, Van Chun va Van Man** islohotlari
- ◆ **Dun Chjun-shu** islohoti: katta yerlarni bir kishi qo'lida bo'lishni taqiqlashni, tuz va temirga yakka hokimlikni bekor qilishni taklif etgan, qullarni o'ldirishni bekor qilib, qullikni bitirishni, soliqlarni kamaytirishni, harbiy va ortiqcha mehnat majburiyatlarini yengillashtirishni talab qilgan
- ◆ 8-yil – **Van Man** yirik yer egalarining yerlarini musodara qilinishi, barcha yerlar podsho yeri deb e'lon qilishi
- ◆ **qullar shaxsiy qarami kishilar** deb atalgan
- ◆ Xitoyda qulehlikni bekor qilishdagi ilk qadam qo'yilgan
- ◆ 18-yil – Shandunda **Fan Chun** boshch. «**qizil qoshlar**» qo'zg'olonining boshlanishi
- ◆ 22-yil – Janubda **Lyu Syuan** boshch. «**yashil o'rmon qo'shinlari**» qo'zg'olonining boshlanishi
- ◆ 23-yil – **Chanan** sh. «**yashil o'rmon qo'shinlari**» egallashi, **Van Man** qati etilishi
- ◆ 24-yil – **Lyu Syuan** o'zini podsho deb e'lon qilishi
- ◆ 25-yil – **Fan Chun** boshch. «**qizil qoshlar**» **Chanan** sh. egallashi, **Lyu Syuan** o'zini o'zi o'ldirishi
- ◆ «**Yashil o'rmon qo'shinlari**» bilan «**qizil qoshlar**» o'rt. jang bo'lib o'tishi
- ◆ «**Qizil qoshlar**»ning yengilishi, **Fan Chun**ning halok bo'lishi


**SHARQIY XAN**  
**PODSHOLIGI**  
25-y. – 220-y.  
Loyan sh.

- ◆ 25-yil – **Lyu Syu** o'zini podsho deb e'lon qilishi va poytaxtni **Loyanga** ko'chirishi
- ◆ **Syu Lyu** – **Guan U-di** nomi bilan davlatni boshqarishi
- ◆ Quillarni o'ldirish, ularga tamg'a bosish man etilgan
- ◆ 184–204-yillar – **Chjan Syao** boshch. «**sariq ro'molilar qo'zgaloni**» bo'lib o'tishi
- ◆ III a. – Xan podsholigi **Vey, Shu, U** kabi davlatlarga bo'limib ketishi
- ◆ **Uch podsholik** davrining boshlanishi

















## AHOLINING ETNIK TARKIBI

**Dehqonchilik vohalari**  
**Xorazmliklar**

**Baqtriyaliklar**  
**Sug'diylar (Baqtriya tarkibida)**  
**Chochliklar**

**Parkanaliklar**  
**Usturshonaliklar**

**Sak, Massaget**  
**Tur, Turon**


**1. Saka tigraxauda**

**2. Saka-tiay-tara-darayya**

**3. Saka-xaumovarka**

**Mil. avv. VI a.**

- – Bronza davrida, 2,5 ming yil avval shakllangan
- Amudaryo quyi oqimi
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Toshovuz viloyati
- Surxondaryo vil., Jan. Tojikiston, Shim. Afg'oniston
- Qashqadaryo va Zarafshon vohalari
- Toshkent vil., Chimkent vil., Sirdaryoning o'rtahavzasi
- Farg'ona vodiysi
- Samarqand va Xo'jand oralig'idagi yerlar
- Dasht aholisi, chorvachilik bilan shug'ullangan
- «Avesto»da chorvador aholi
- uchli qalpoq kiyib yuruvchi saklar
- Toshkent viloyati, Janubiy Qozog'iston
- daryoning narigi tomonida yashovchi saklar
- Orol dengiz bo'ylarida, Sirdaryoning quyi oqimi
- xaumoni tayyorlovchilar
- Pomir, Farg'ona
- saklar harbiy-qabila ittifoqini tuzadilar



## TARIXIY SHAXSLAR

**AGAMENNON** — yunon mifologiyasida Miken yoki Argos podshohi. Mil. avv. 1260-yilda yunonlarning Troya ustiga yurishida yunon shahar-davlatlarining floti va qo'shiniga boshliq bo'lgan. "**Iliada**" dostonida tasvirlanishicha, Troyani qamal qilayotganda mardlik va jasorat ko'rsatgan, biroq shuhratparasligi (kohin **Appoloni** haqorat qilishi, **Axillis** bilan arazlashuvi) umumiy ishga katta ziyon keltirar edi. Troya yengilgandan keyin troyalik malika **Kassandra** unga o'lja bo'lib tegdi va Agamennon unga uylandi. Lekin yurtiga qaytganida uni xotini **Klitemnestra** va uning yori **Egisf** Agamennonni o'ldiradilar. Agamennon obraziga ko'pgina yozuvchilar (Esxil "**Agamennon**" fojiaivi asari, Yevripid vab.) murojaat etishgan.

**AGUM** — o'zini "**to'rt iqlim podshosi**" deb e'lon qilgan Bobil podshohi. Uning davrida Bobil podshohligi ravnaq topgan.

**AJATASHTRU** — Qadimgi Hindistondagi Magadxa davlati hukmdori. Podsho **Bimbasaraning** vorisi. U butun Gang vohasi va Markaziy Hindistonda markazlashgan yirik davlat tashkil etdi. Uning hukmronlik yillarida mamlakat ilm-fan borasida yuksak cho'qqilarga chiqdi. Mamlakatda farovon hayotni bir qadar yo'lga qo'ydi.

**AKKI** — rivoyatlarga ko'ra, Akkad davlatiga asos solgan **Sargon I** ni (2316–2261) tashlandiq ahvolda yotganida topib olib, uni tarbiya qilgan suv tashuvchi meshkob.

**AMENEMXET I** — mil. avv. taxm. 2000–1970-yillarda hukmronlik qilgan Misr fir'avni. 12-sulola asoschisi. Markazlashgan davlat hokimiyatini kuchaytirish yo'lida kurashgan. Uning o'g'li **Senusertga** bag'ishlangan "**Pandnoma**"si saqlangan.

**AMENEMXET III** — mil. avv. taxm. 1849–1801-yillarda hukmronlik qilgan Misr fir'avni. 12-suloladan. Yunon manbalariga ko'ra, Amenemxet III Fayyumdagi "**Labirint**" deb nom olgan ulkan binoni bunyod etgan.

**AMENXOTEP II** — Yangi podshohlik davrida hukmronlik qilgan Misr fir'avni. Uning davrida Misr Yaqin Sharqdagi qudratli davlat bo'lgan.

**AMENXOTEP III** — Yangi podshohlik davrida hukmronlik qilgan Misr fir'avni (mil. avv. 1455–1419), 18-suloladan. Uning davrida qadimgi Misr o'z taraqqiyotining yuksak bosqichiga ko'tarilgan. U o'z hukmronligi davrida tinchlik siyosatini qo'llab, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona savdo va madaniy aloqalarni kuchaytirgan. Hukmronligining oxirida Misrning bosib olgan mamlakatlar ustidan o'rnatilgan ta'siri susaya boshlagan. Finikiya va Falastin Misrga itoat qilmay qo'ygan. Uning davrida Luqsorda

**Amon-Ra ibodatxonasi** va Amenxotep III ning ulkan haykallari — "**Memnon ustunlari**" bilan bezalgan ibodatxona qurilgan. Amenxotep III keyingi ibodatxonaga dafn etilgan.

**AMENXOTEP IV** — Yangi podshohlik davrida hukmronlik qilgan Misr fir'avni (mil. avv. 1419–1400), **Amenxotep III** ning o'g'li. Uning davrida Misr davlati kuchsizlanib, qaram mamlakatlar uning ta'siridan chiqib keta boshlagan. Ko'chmanchi qabilalar Misrga bostirib kirganlar. Fiva kohinlari va eski zodagonlarning qudratini sindirish maqsadida ko'p xudolikni cheklab, yakka xudolikni joriy qilishga uringan. U diniy islohotchi sifatida chiqib Amon xudosisiga sig'inishni bekor qilib, **Aton** — **quyoshga** sig'inishni joriy qilgan. Shu munosabat bilan Misrda yangi poytaxt — **Axetaton** shahri (hozirgi **Amarna**)ni bunyod etgan. Bu shahar "Exnaton" deb atalgan. Uning ma'nosi quyosh shu'lasini demakdir. Amenxotep IV ham o'zini **Exnaton** nomi bilan atashni buyurgan. U yangi din — Quyosh ruhoniysi bo'lib olgan. Ammo yangi din eski din ruhoniylari va aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan.

**ANDRAGOR** — Salavkiylarning Parfiyadagi noibi. U o'zini **Parfiya podshohi** deb e'lon qilgan. Lekin Andragorning podshohligi uzoqqa bormagan.

**ANITTA** — Nesa, Xattusa, Zalpuva kabi davlatlarni bosib olib, **Xett podshohligiga** asos solgan hukmdor.

**ARAMU** — Urartu davlatining birinchi hukmdori (mil. avv. 864–845-yillar). U Ossur podshohi **Salamansar III** ning Urartuga bostirib kirgan qo'shinlariga qattiq zarba bergan. Uning hukmdorligi davrida Urartu mil. avv. IX asr o'rtalarida mustaqil davlat darajasiga ko'tarilgan.

**ARDASHER I (Ardasher Papakon) (taxm. milodiy 180–239)** — Erondagi **sosoniyalar sulolasi** asoschisi va dastlabki shohi. 224–239-yillarda hukmronlik qilgan. Ardasher I ning bobosi Soson Fors poytaxti — **Istaxr** shahridagi bosh ibodatxonaning kohini bo'lgan. Ardasher I Parfiya podshohi **Artabon V** (209–224-yillar) ning vassali **Darabgird** (Forsdagi qal'a) hokimi saroyida xizmat qilgan. Taxminan 200-yilda ushbu qal'a hokimi bo'lgan; tez orada butun Fors, Kirmon va Gey (hozirgi Isfahon)ni o'ziga tobe etgan hamda zodagonlar va ruhoniylar madadiga tayanib Artabon V ga qarshi chiqqan. 224-yil 28-aprelda **Ormizdagon tekisligida** parfiyaliklarga qaqshatqich zarba bergan, Parfiya podshohligi shundan so'ng tugatilgan. 226–227-yilda shahanshoh unvoni bilan toj kiygan. **Alarix I** ning Mesopotamiya va Armanistonga egalik qilish

uchun Rim bilan Sharqda olib borgan urushlari natijasida Sosoniylar davlati hududi ancha kengaydi.

**ARDIS** – mil. avv. 654–605-yillarda hukmronlik qilgan Lidiya podshosi. Podsho *Giges*ning o‘g‘li. Uning davrida Lidiya nozik siyosat qo‘llab, kimmeriylar bosqini va Ossurlar asoratidan qutuladi. U Egey dengiziga chiqish uchun kurashlar olib borgan.

**ARGISHTI I** – mil. avv. 786–764-yillarda hukmronlik qilgan Urartu davlati hukmdori. Podsho *Menua*ning o‘g‘li. Uning davrida Urartu podsholigi Old Osiyoda birinchi darajali eng kuchli va qudratli davlatga aylangan. Argishti I boshchiligida Urartu qo‘shinlari Diyala daryosi sohili va Bobil chegarasigacha kirib borganlar. Janubi g‘arb tomonda esa Frot daryosining yuqorisidagi mamlakatlar va Shimoliy Suriyaga yurish qilgan. Argishti I qo‘shinlari shimolda Sevan ko‘li bilan Qora dengiz oralig‘idagi mamlakatlarni o‘ziga tobe ettirgan. Uning davrida Kavkazortida yirik qal‘alar – Yerebuni (Yerevan yaqinida) va *Argishtixinili* bunyod etilgan. Argishti I ning *xor-xor yozuvi* diqqatga sozovar.

**ARYAPXATA** – Qadimgi hind astronomi. U V asrdayoq yerni sharsimon ekanligini va yerning o‘ziga tortish qonunini, ayni paytda u o‘z o‘qi atrofida aylanishini aytgan.

**ARSHAK (? – mil. avv. 248–147)** – mil. avv. 247-yilda salavkiylar noyibi Andragorning armiyasini tor-mor etib, Parfiyani bosib olgan parn-dax qabilalarining sardori va *Arshakiylar sulolasining* asoschisi. Parfiyada parn-dax qabilalarining hukmronligi o‘rnatilganidan so‘ng u *Arshak I* nomi bilan Parfiya taxtiga chiqadi (250–248–247-yillar). Rim tarixchisi Pompey Trog ma‘lumotlariga ko‘ra, Arshakning kelib chiqishi saklardan bo‘lib, o‘ta jasur va mard odam bo‘lgan ekan. Arshak aslida qabila boshlig‘iga berilgan unvondir. “Ar” (er) so‘zi botir, mard, bahodir, pahlavon demakdir; Arshak esa *“shaklarning botiri”* ma‘nosini anglatadi. Ba‘zi tarixchilar (V. G. Lukonin) Arshakni qadimiy pahlaviycha Kavi Arshan – bahodir kamonchi nomi bilan bog‘laydilar. Arshak o‘z hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podshosi *Feodot I* bilan harbiy ittifoq tuzib, salavkiylar qo‘shinini tor-mor etadi.

**ASARXADON** – Ossuriya podshosi (mil. avv. VII asrning I yarmi). Uning davrida Ossuriya qo‘shinlari Misrga 3 marta bostirib kirganlar, aholini qirg‘in qilib, Misr boyliklarini talab, aholining bir qismini haydab ketgan. Asarxadon Efiopiya-Misr podshosi *Taxarkani* yengib, o‘zini Ossuriya-Misr podshosi deb e‘lon qilgan. Shu tariqa Misrda ossurlarning hukmronligi o‘rnatilgan. Ossur podsholarining Misrda hukmronligi mil. avv. 671–655-yillarni o‘z ichiga oladi.

**ASTIAG** – Midiya hukmdori *Kiaksar*ning o‘g‘li.

Mil. avv. 585-yili Kiaksar vafot etganidan so‘ng, Midiya podsholigi taxtini egallagan. Uning davrida Bobil bilan Midiya o‘rtasidagi munosabat buzilib, qonli janglar bo‘lgan. Bu urushlar har ikki tomonni zaiflashtirdi. Forslar *Kayxusrav II (Kir II)* boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarib, mil. avv. 550-yili Astiag qo‘shinlarini tor-mor etadilar. Midiya davlati Eronga qo‘shib olinadi va barham topadi.

**ASHOKA** – Qadimgi Hindistonning *Maurya sulolasidan* bo‘lgan podshohi (mil. avv. 268–231-yillar). Ashoka davlati deyarli butun Hindiston, hozirgi Afg‘oniston va Pokistonning bir qismini qamrab olgan. Buddizmga homiylik qilgan. Ashokaning hozirgacha saqlanib qolgan qoyatoshlarga, ustunlar va g‘or devorlariga o‘yib yozdirgan shaxsiy farmonlari (*“Ashoka yozuvlari”*) qadimgi Hindiston tarixini o‘rganishda muhim tarixiy manba bo‘lib hisoblanadi.

**ASHSHURBANIPAL** – mil. avv. 669–633-yillarda hukmronlik qilgan Ossuriya podshosi. Misr, Elam, Bobil bilan urush olib borgan. Ashshurbanipal hukmronligi yillarida *Nineviyada* Old Osiyodagi eng yirik, sopol taxtachalardan iborat bo‘lgan kutubxona jamlangan. *“Ashshurbanipal kutubxonasi”* 1849–1854-yillarda Nineviya joylashgan yerdan topilgan. Kutubxonadan nafaqat 30 ming nusxadan iborat lavha kitoblar balki, *Misr, Urartu, Bobil* kabi davlatlarning xaritalari topilgani diqqatga sazovordir.

**BAKXORIS** – mil. avv. 721–715-yillarda hukmronlik qilgan Misr fir‘avni, 24-sulola vakili. Misrni inqirozdan chiqarish uchun bir qancha islohotlar o‘tkazgan. Bu islohotlar Misrdagi ahvolni yaxshilay olmagan. Mamlakatda ahvol yomonlashib Misr mayda hokimliklarga – nomlarga bo‘linib ketgan. Efiopiya podshosi *Pianxi* va uning vorisi *Shabaka* davrida Misr Efiop qo‘shinlari tomonidan bosib olinadi. Mil. avv. 715-yilda Misr va Efiop qo‘shinlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jangda Misr qo‘shinlari tor-mor etilgan. Bakxoris asirga olinib, tiriklayin o‘tga tashlab kuydirilgan.

**BAN GU** – milodning 32–92-yillarida yashab ijod etgan mashhur xitoylik tarixchi. U *“Xan podsholari tarixi”* asarini yozgan. Unda Katta Xan podsholigi tarixi bayon etilgan hamda ushbu kitobda 783 yulduzning nomi keltirilgan.

**BAN SIO** – Qadimgi Xitoylik mashhur tabib. U tabobatga oid *“Qiyinchilik haqida kitob”* degan asar yozgan. U bemorlarni davolashda meva, o‘simlik va hayvonlarning ayrim qismlaridan tayyorlangan sodda va murakkab dorilardan foydalangan.

**BIMBASARA** – mil. avv. 543–491-yillarda hukmronlik qilgan Magadxa davlati hukmdori. Uning davrida Magadxa kuchayib Gang daryosidan Bengal qo‘ltig‘i bo‘lgan hududlarni egallagan.

**BINDUSARA** — mil. avv. 293–268-yillarda hukmronlik qilgan Maurya davlati hukmdori. Uning davrida Maurya davlatining chegaralari kengayib, qudratli davlatga aylanadi.

**BOBAK** — Parfiya podshohligining tanazzulidan foydalanib, Eronning *Staxr* shahrida hokimiyatni o'z qo'liga olgan fors qabilalarining sosen urug'idan bo'lgan hukmdori.

**BOYS MERI** — *Zardushtiylik dini* haqida fundamental tadqiqotlar o'tkazgan olim. Ko'p yillar davomida Hindistondagi zardushtiylik jamoalari hayoti va urf-odatlarini o'rganagan. Meri Boys zardushtiylik bundan 3500 yillar ilgari Osiyo cho'llari zaminida paydo bo'lgani va boshqa dinlarning shakllanishi va rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siridan tashqari, olijanob din ekanligini, asrlar mobaynida quvg'inlikka uchrasada, unga e'tiqod qo'rganlar sa'y-harakati tufayli bizgacha yetib kelganligini ta'kidlaydi. Bu haqda u o'zining 4 tomlik "*Zardushtiylik. E'tiqodlari va urf-odatlari*" kitobida hikoya qiladi.

**BUDDA** (sanskritcha — *xotirjam, nurlangan, oliy haqiqatga erishgan*) — *Buddizm asoschisi*, bu dunyo tashvishlarini tark etib, "*oliy haqiqatga erishgan*" *Siddhartha Gautama* (mil. avv. 623–544-yillar)ning ismi. Buddizmga taalluqli kitoblarda *Gautama* barcha xudolar, ruhlar va tabiat kuchlari ustidan hukmron buyuk va qudratli zot sifatida ta'riflanar ekan, uning bosib o'tgan yo'li bir emas, bir necha hayotlardan iborat bo'lgan deb uqtiriladi. Rivoyatlarga ko'ra, Gautamani Hindiston va Nepal chegarasidagi *Kapilavastu* shahri podshohining xotini *Maxamayya* ilohiy homiladorlikdan tuqqan. Dunyoga kelgan farzand shu zahotiyog: "*Men barcha jonli maxluqlarning eng buyugiman. Bu mening oxirgi tug'ilishim*", deb xitob qiladi. Buddizm diniy kitoblarida aytilishicha, Maxamayya o'g'li Gaumatani tug'ilgach, yetti kundan so'ng vafot etgan va xudolar osmonlaridan birida qayta tug'ilgan. Shahzoda Gautama pahlavon bo'lib o'sadi. 16 yoshida uni *Yashodxaraga* uylantiradilar. Ammo to'q, farovon turmush uni qoniqtirmaydi. 29 yoshida Gautama xotini va yaqindagina tug'ilgan o'g'lini tark etib, sayyor darveshlar — *shraman*larga qo'shiladi. U 6 yil Ganga daryosi qirg'oqlarida zohidlik bilan hayot kechiradi va tana faolligini so'ndirish aqlning ozishiga olib kelishini anglagach, 35 yoshida 4 hafta (yoki 7 hafta) davomida meditatsiya (butun ongini oliy haqiqatga erishish g'oyasiga qaratish) holatiga kiradi. Nihoyat, u maqsadiga erishadi va koinotning barcha sirsroridan voqif bo'lgan Buddaga aylanadi. Budda insoniyat boshiga tushadigan azob-uqubatlar sabablarini o'rganish va insoniyatni ulardan xalos qilish uchun harakat qiladi. Shundan so'ng Budda

45 yil davomida qadimgi hind davlatlari *Koshala* va *Magadxa* bo'ylab o'z ta'limotini targ'ib qiladi va 80 yoshida vafot etadi.

**DARETE** — yunon shoiri *Gomergacha* Frigiya "*Iliada*"sini yozgan frigiylar shoiri.

**DOVUD** — 1000–965-yillarda hukmronlik qilgan Isroil podshohi. Isroil davlatini tuzgan *Saul*ning kuyovi. U dastlab Falastinni birlashtirib *Yahudiy podshohligini* so'ngra, Saulning o'g'li *Ishvaa'lamni* yengib *Isroil-Yahudiy podshohligini* tuzgan. Uning davrida Isroil-Yahudiy podshohligi kuchayib, ravnaq topgan.

**DYUPERRON Anketil (1734–1805-yillar)** — "*Avesto*"ni ilmiy tadqiq etish va *avestoshunoslikni* boshlab bergan fransuz olimi. U Parijdagi Sharq tillari maktabida tahsil ko'rgan. Muqaddas Avestoning sirli olamini o'rganish ishtiyogida Hindistonga borgan. Hindistondagi parsalar qavmi orasida 1755-yildan boshlab yashay boshlaydi. Hozirda Hindistondagi Bombay shahri yaqinida port shahar Suratda "*Avesto*" kitobidan ko'chirma olib 1761-yilda Parijga qaytib keladi. U Oksforddagi (Angliya) *Bodelian kutubxonasi*da saqlanayotgan pahlaviy tilidagi "*Avesto*" nusxasini o'zi olib kelgan nusxalar bilan solishtirib chiqib o'z tadqiqotlarining yakuniy hisobotini 1762-yilda Parijdagi qirol kutubxonasiga (ya'ni hozirgi Fransiya milliy kutubxonasiga) topshiradi. Hindistondan yashirincha olib kelingan nusxaning fransuzcha tarjimasini "*Zent-Avestoning taxminiy tarjimalari*" nomi ostida (uch qismdan iborat) 1771-yilda chop ettiradi.

**DUN CHJO** — Xan podshohligining so'nggi hukmdori.

**DUN CHJUN-SHU** — mil. avv. I asrning 2-yarmida Xan podshohligida bir necha islohotlar o'tkazgan islohotchi. Katta yer egalari qoralagan. Tuz va temirga nisbatan davlatning yakkahokimligini bekor qilishni taklif etgan. Yana u qullikni bekor qilishni, soliqlarni, harbiy va ortiqcha mehnat majburiyatlarini kamaytirishni talab qilgan. Biroq *Dun Chjun-shu islohotlari* aslzodalarning qarshiligiga uchrab amalga oshmagan.

**EANNATUM** — Lagash hukmdori. Uning zamonida butun Shumer Lagash hukmronligiga o'tadi. Eannatum Elam ustidan ham g'alaba qiladi. Mamlakatning Lagash qo'l ostida birlashtirilishi xo'jalikning rivojlanishiga yordam bergan bo'lsa ham, miloddan avvalgi XXIV asr oxiriga kelib mamlakatdagi tinimsiz urush, og'ir soliqlarda aholining noroziligi kuchaygan. Natijada Lagashda davlat to'ntarishi bo'lib, hokimiyat tepasiga Urunimgin keladi.

**FALES** — mil. avv. VI asrda yashagan miletlik

mashhur matematik, fizik, astronom va faylasuf. Yunon tarixchisi **Gerodot**ning ma'lumotiga ko'ra u asli finikiyalik bo'lgan.

**FAN CHUN** — milodiy 18-yilda **Shandunda** boshlangan "**Qizil qoshlilar**" qo'zg'oloniga rahbarlik qilgan. Qo'zg'olonga Xitoyda qurg'oqchilik va chigirtka bosishi natijasida sodir bo'lgan hosilsizlik sabab bo'lgan. Fan Chun boshchiligidagi qo'zg'olonga Podsho **Van Man** islohotidan norozi bo'lgan aslzodalar va katta yer egalari ham qo'shilganlar. Fan Chun o'z odamlarini podsho askarlaridan ajratish uchun qoshlarini qizil rangga bo'yatgan. Shu tufayli Fan Chun boshchiligidagi boshlangan qo'zg'olon "**Qizil qoshlilar**" qo'zg'oloni nomini olgan. 22-yilda Van Man qo'zg'olonchilar ustiga yuz ming kishilik qo'shin yuborgan. Hal qiluvchi jangda Fan Chun qo'shinlari podsho qo'shinlarini tor-mor etib, Xuanxe daryosining o'rta oqimidagi yerlarni ishg'ol qilgan. Shu vaqtda mamlakat janubida ham qo'zg'olon boshlangan. Ular o'zlarini "**Yashil o'rmon qo'shinlari**" deb ataganlar. 24-yilda Lyu Syuan boshliq "**Yashil o'rmon qo'shinlari**" Chanan shahrini egallagan. Bunga qarshi Fan Chun 25-yilda Chananga yurib, Lyu Syuan qo'shinlarini tor-mor etgan. Shu yili (25-yil) "**yashil o'rmon qo'shini**" **Lyu Syu** boshchiligidagi Chananga qarab yo'l olganlar. Qizil qoshlilar esa Chananni bo'shatib Shandunga chekinganlar. Yo'lda Fan Chun hamda Lyu Syu qo'shinlari to'qnashgan va qizil qoshlilarning mag'lubiyati bilan yakunlangan. Fan Chun jangda halok bo'lgan.

**GANDOSH** — o'zini "**to'rt iqlim podshosi**" deb e'lon qilgan Kassit hukmdori.

**GAUMATA** (sohta **Bardiya**) — midiyalik mubod (kohin), Ahamoniylar podshosi **Kambiz** (Kir II ning o'g'li) ga qarshi chiqqan. U o'zini Kambiz tomonidan yashirin ravishda o'ldirilgan Kirning kenja o'g'li — **Bardiya** deb atab, mil. avv. 522-yil taxtni egallab olgan. **Doro I** rahbarligidagi fitnachilar tomonidan taxtdan ag'darilib, qatl etilgan.

**GIGES** — mil. avv. 692–654-yillarda hukmronlik qilgan Lidiya podshosi. U o'z hukmronligi davrida Lidiyaga Frigiyaning bir qismi, Kari, Troada va Misiyani qo'shib oladi. Giges Lidiyani Egey dengizi sohillari bilan bog'lash uchun Milet va Smirna ustiga yurish qiladi. Ossurlar bilan ittifoq tuzib, Kappadokiya kimmeriylar ustidan g'alaba qozonadi. Ossuriya shu yo'l bilan Lidiyani o'ziga tobe qilishga uringan. Giges tobelikdan qutulish uchun Misr va Bobil bilan ittifoq tuzadi. Vaziyatdan foydalangan kimmeriylar Lidiya ustiga yurishi qilgan. Jangda Giges halok bo'lgan.

**GILGAMISH** (shumerchasiga **Bilga-mis**) —

**Urukning** yarim afsonaviy hukmdori. Shumer va Akkadning epik an'analarining qahramoni. Epik hikoyalarda aytilishicha, Gilgamish **Luganbandining qahramoni** va **Ninsun xudosining** farzandi hisoblanadi. "**Nippurdagi podshohlar ro'yxatida**" ("Ikki daryo oraliqidagi sulolalar ro'yxati") Gilgamishning hukmronligi **Urukning** birinchi sulola davriga kiritiladi (mil. avv. XXVII–XXVI asrlar). Gilgamish bu sulolaning 5-podshosi hisoblangan. Shuningdek, Gilgamishni xudoning farzandligiga ishora qilinadi, uning hukmronligi "**podsholik ro'yxatida**" 126 yilni tashkil etgan. Uning nomi Nippurdagi **Tummal qabristonidagi** yozuvda eslatiladi. Gilgamishning qilgan qahramonliklari haqida Shumerda yaratilgan 5 ta dostonida o'z ifodasini topgan. Gilgamish hukmronligi davrida Uruk kuchayib, Kish hukmronligidan ozod bo'lgan. Gilgamish va uning vorislari davrida Lagash, Nippur kabi shahar-davlatlar Urukka itoat etganlar. Gilgamishning hayoti ko'plab afsonalarga burkangan. Afsonalarning birida aytilishicha, Gilgamish dunyoga kelganidan keyin mamlakat hukmdori bo'lmish bobosi nevarasi undan taxtni tortib olishidan qo'rqib, Gilgamishni jarga otib yuborishga buyruq beradi. Ammo jarga uchib ketayotgan Gilgamishni burgut tutib olib, bir bog'bonga eltib beradi, bog'bon uni mehr bilan parvarishlab tarbiyalaydi. Balog'atga yetgan Gilgamish bobosidan hokimiyatni tortib oladi, o'zi Uruk shahrini boshqara boshlaydi.

**GORDIYA** — Frigiya podsholigi hukmdori. Gordiya oddiy dehqon oilasidan chiqqan bo'lib, hukmdorlar sulolasiga mansub bo'lmagan. Shunga qaramasdan Gordiya frigiyaliklarning faxr-iftixoriga sazovor bo'lgan.

**GUDEA** — Shumeri guteylar nomidan 20 yil boshqargan Lagash hokimi.

**IEROVOAM** — Isroil-Yahudiy podsholigi hukmdori **Sulaymon** davrida isroilliklar ko'targan qo'zg'olon rahbari. Sulaymonning qurilish, davlat xarajatlari va qo'shin uchun soliq joriy qilishi qo'zg'olonga sabab bo'lgan. Ierovoam boshchiligidagi qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirilgan. Ierovoam Misr fir'avni **Sheshonk** huzuriga qochib ketishga majbur bo'lgan. Mil. avv. 935-yilda Sulaymon vafot etadi va uning podsholik taxtiga uning o'g'li **Rovoam** o'tirgan. Ierovoam Misrdan katta qo'shin bilan qaytib kelib, Rovoam qo'shinlarini yenggan va **Isroil podsholigini** tiklaydi.

**IMXOTEP** — Qadimgi Misrning afsonaviy tabibi. Mil. avv. 3600-yilda Memfis shahrida uning sharafiga maxsus ibodatxona qurilgan. Bu yerda bemorlarga tibbiy yordam berish uchun alohida xonalar ajratilgan.

**IROU** — Misr fir'avni **Merneptax** hukmronligi davri (1235–1215)da Misrda qullar va osiyolik



yollangan jangchilarga tayanib qo'zg'olon ko'targan suriyalik sarkarda. Irou boshchiligidagi qo'zg'olonchilar boylar va ibodatxonalarining mulklarini talaganlar. Qo'zg'olon Misr qo'shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Qo'zg'olonchilar qattiq jazolangan.

**ISHPUINI** – mil. avv. 825–810-yillarda hukmronlik qilgan Urartu hukmdori. Podsho **Sarduri I** ning o'g'li. Ishpuini Van ko'li shimolidagi joylarni Urartuga birlashtirgan. **Muassir davlatini** podsholikka qo'shib qo'ygan. Urmiya ko'lining janubi sharqidagi Manna podsholigini bosib olib, Ossuriya chegaralariga xavf solgan.

**ISHVAA'LAM** – Isroil davlati hukmdori **Saul** ning o'g'li. Otasi vafot etgach, Dovud bilan bir necha bor jang qilgan. Bu janglarda **Dovud** Ishvaa'lamni mag'lubiyatga uchratib, **Isroil-Yahudiy podsholigini** tuzgan.

**JER** – ilk podsholik davrida hukmdorlik qilgan Misr fir'avni. Uning davrida Misr qo'shinlari Nubiya, Sinay yarimoroliga bir necha marta bostirib kirganlar. Ular bu mamlakatlardan ko'plab asir va behisob boyliklar olib qaytganlar.

**JOSER (Jeser)** – mil. avv. 2780–2760-yillarda hukmronlik qilgan Misr fir'avni. 3-sulola asoschisi. Yuqori va Quyi Misrni birlashtirib, qudratli saltanat tuzgan, poytaxti Memfis shahri. **Sakkara shahrida** zinapoya shaklida ehrom bunyod etgan. Joser ehromidan keyin, Misr ehromlarini qurish boshlangan.

**KAMBIZ I** – parsua qabilalarining hukmdori (mil. avv. 600–559-yillar). Ahamoniylar sulolasidan. Uning davrida parsua qabilalari Midiya podsholigiga itoat etganlar. Kambiz bilan Midiya shohi **Astigning** qizi o'rtasidagi nikohdan **Kayxusrav II (Kir II)** dunyoga kelgan.

**KAMBIZ II (Kambis, Cambyses; forschada Kamubjiya)** – mil. avv. 529–522-yillarda Eron hukmdori. Ahamoniylar sulolasidan. Kambiz II o'zining faoliyati davrida itoat ettirilgan mamlakatlar va Erondagi isyonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. U mil. avv. 525-yilda **Pelusiya jangida** Misr qo'shinlarini tor-mor etgan va Misrni o'ziga tobe qilib olgan. Shu vaqtdan boshlab Kambiz II 27-sulolaga asos solib o'zini ham Eron podshosi, ham Misr fir'avni deb e'lon qiladi. Uning Efiopiyaga uyushtirgan harbiy yurishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Kambiz II Misrdaligida o'z akasi **Bardiyan** o'ldirib, hokimiyat tepasiga qonunsiz kelgani oshkor bo'lib qoladi. Bu holdan foydalangan zardushtiylar kohini **Gaumata** o'zini Bardiya deb e'lon qiladi va uni podsho qilib ko'taradilar. Bundan xabar topgan Kambiz II isyonni bostirish uchun Eronga qay-

tayotganida mil. avv. 522-yili Gaumataning tarafdorlari tomonidan yo'lda o'ldiriladi.

**KAMESU** – 17-sulolaga mansub Fiva hukmdori. Uning davrida Misrning **giksoslarga** qarshi ozodlik kurashi kuchayadi. Kamesu misrlik amaldorlarni o'z saroyiga chaqirib, ularga giksoslarni mamlakatdan haydash kerakligini uqtirgan. U amaldorlar oldida nutq so'zlab, oxirida **“Mening maqsadim Misrni qutqarish va osiyoliklarni yer bilan yakson qilishdir”**, deb xitob qilgan. Kamesu boshlagan kurash ozodlik urushiga aylangan va ayovsiz janglardan so'ng Misr qo'shinlari giksoslar ustidan g'alaba qozongan. Og'ir janglar vaqtida Kamesu juda ko'p tan jarohati olgan. O'sha vaqtdagi solnomalarda Kamesu Misrni giksoslar zulmidan ozod qilish uchun kurash olib borgan qahramon sifatida madh etiladi.

**KAYXUSRAV I** – parsua qabilalarining dastlabki hukmdori. Uning davrida parsua qabilalari **Ossuriya podsholigiga** qaram bo'lgan.

**KASHTARITI** – mil. avv. 672-yilda ossurlarga qarshi kurashda midiyaliklarga rahbarlik qilgan sarkarda. U ossurlarni Midiyadan haydab chiqargan. Kashtariti Midiyadagi mayda davlatchalarni birlashtirib yagona davlat tuzishga bel bog'lagan va qo'shni davlatlarga istilochilik yurishlarini uyushtirgan. U mil. avv. 753-yilda ossurlar ustiga qo'shin tortgan. Ossurlar skiflarni unga qarshi kurashga ko'ndiradilar. Midiya qo'shinlari ossur va skiflarning ikki tomondan yuz bergan zarbalariga bardosh bera olmay yengiladilar. Bu jangda Kashtariti halok bo'lib, Midiya mil. avv. 653–625-yillar orasida skiflar ta'sirida qoladi.

**KIAKSAR** (yunoncha **Kuaxares**, eroniycha – **Uvaxshaqtra**) – Shimoliy Eron va Eron Ozarbayjoni hududida shakllangan **Midiya davlatining** podshohi (mil. avv. 625–585-yillar). Kiaksar davrida Midiya Old Osiyoning yirik davlatiga aylangan. Skiflarning Old Osiyo shimolidagi hukmronligiga barham bergan. Bobil bilan ittifoqda Ossuriya davlatini yo'q qilgan (612–605-yillar); Mani, Urartu yerlarini va Kichik Osiyo sharqiy qismini (509–585-yillar) Midiya hududiga qo'shib olgan. Lidiya bilan urush olib borib, mil. avv. 585-yilda sulh shartnomasini tuzgan. Unga ko'ra, Midiyaning g'arbiy chegarasi Galis daryosi (hozirgi Qizil Irmoq) bo'ylab belgilangan.

**KLARK D. D.** – mashhur arxeolog. Uning ma'lumotlariga qaraganda, Misrda ibtidoiy odamlar 80–90 ming yildan beri yashab kelar ekan.

**KOLIDASA** – V asrda yashab ijod etgan Qadimgi hind dramashunosi. U yozgan drama asarlaridan eng mashhuri **“Shakuntala”**dir.

**KONFUTSIY, Kun Futzi, Kun-szu, Kun Syu, Kun Chjinni** (mil. avv. taxm. 552 – Syuyfu shahri, **Xitoyning Shandun viloyati – 479)** – qadimgi Xitoy

faylasufi, *konfutsiychilik* asoschisi, siyosiy arbob. Kambag'allashib qolgan aristokrat va harbiylar oilasida tug'ilgan. 22 yoshida ta'lim berish bilan shug'ullanib, Xitoyning eng mashhur o'qituvchisi sifatida shuhrat qozongan. Konfutsiy o'zi ochgan maktabida 4 ta fan: axloq, til, siyosat va adabiyot o'qitilgan. 50 yoshida Konfutsiy siyosiy faoliyatini boshlab, Lu davlatida yuqori amaldor bo'lib xizmat qiladi. Fitnalar natijasida xizmatidan ketadi, 13 yil mobaynida Xitoyning turli o'lkalariga boradi, biroq u joylarda o'z g'oyalari qo'llay olmagach, mil. avv. 484-yilda Luga qaytib keladi. Ta'lim berishdan tashqari qadimgi Xitoyning 5 ta mumtoz asari – "*Shutszin*", "*Shitszin*", "*Itszin*", "*Yuetszin*" va "*Litszi*"ni to'plash, tahrir qilish, tarqatish bilan shug'ullanadi. Konfutsiy ta'limoti uning "Lun yuy" ("Suhbatlar va mulohazalar") kitobida bayon etilgan. Bu kitob aslida Konfutsiyning fikrlari va suhbatlari asosida shogirdlari va izdoshlari tomonidan yaratilgan. Konfutsiy o'zi uchun, avlodlari, yaqin shogirdlari uchun alohida ajratilgan qabristonga dafn etilgan; uning uyi Konfutsiy ibodatxonasiga aylantirilgan, bu joy ziyoratgoh bo'lib qolgan.

**KREZ (Croesus) (mil. avv. 595–546-yillar)** – Lidiya podshohligining so'nggi hukmdori (560–546). Krez yunonlarning Efes, Milet va boshqa shaharlarini va Galis daryosigacha bo'lgan Kichik Osiyoning deyarli butun g'arbiy qismini bosib olgan uchun podshohlik hududi anchagina kengaygan. Krezning boyligi tillarda doston bo'lgan, u haqida ko'plab afsonalar yaratilgan. Krez ellinlar (yunonlar)ni juda qadrlagan, shu tufayli Yunon ibodatxonalariga (Delfa, Efes) behisob sovg'alar yuborib turish bilan Lidiyani Yunon madaniyatiga qo'shishga intilgan. Krez eroniyar bosqinidan ximoyalanish uchun Yunonlar, Misr va Bobil bilan ittifoq tuzadi. Forslar shohi Kir II bilan **Pteriya yaqinida (Kappadakiya)** bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragan, Lidiya poytaxti Sardi bosib olingan, Krez esa asir tushgan (546-yili). Krez davlati Ahamoniylar davlatiga qo'shib olingan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra (Gerodot va boshqa ko'pgina yunon tarixchilari), Krez gulxanda yondirishga hukm qilingan, biroq Kir II tomonidan afv etilgan; boshqa xabarlariga ko'ra (qadimgi sharq mixxat manbalari), qatl etilgan.

**KUTIK-INSHUSHINAK** – mil. avv. XXII asr boshlarida Elamni birlashtirib, uni yagona davlatga aylantirgan Elam hukmdori.

**LABORNA (Taborna)** – mil. avv. 1680–1650-yillarda hukmronlik qilgan Xett podshosi. U Qora dengizning janubiy sohillarigacha bo'lgan yerlarni istilo qilib, mamlakatni birlashtirishni oxiriga yetkazgan va poytaxtni *Nesadan Xattusasga* ko'chirgan.

**LAO-SZI (xitoycha, aynan – keksa ustoz) (mil. avv. 604, Chu podshohligi, Xenan viloyati – Xitoydan tashqarida juda keksayib vafot etgan)** – xitoy faylasufi *Li Erning* faxriy nomi. U *daosizmga* asos solgan. *Konfutsiy* bilan bir qatorda turadigan buyuk xitoy mutafakkiri hisoblanib, uni yo'l va yaxshi fazilatlar haqidagi qadimgi xitoy risolasi – "*Lao-szi*" ("*Dao de szin*") muallifi deb biladilar. Bu kitob qadimgi xitoy asarlariga qaraganda eng ko'p chet tillarga tarjima qilingan. Unda Lao-Szi *daoni* inson his-tuyg'ulari bilan bilib bo'lmaydigan hamma narsaning asosi deb hisoblaydi. Lao-Szi ta'limotida tabiatdagi barcha narsalar o'zgarib turadi, lekin muayyan bosqichga erishgach, o'zining aksiga qaytadi. Binobarin, kishilar xatti-harakat, intilish, kurashlardan voz kechishlari, ortiqcha sarf-xarajat, hashamatga yo'l qo'ymasliklari, yashash tarzini esa oddiylik, soflik belgilashi lozim.

**LUGAL-ZAGGISI** – Shumer podshohligining asoschisi. Dastlab Shumerdagi Umma shahar-davlati hokimi bo'lgan. So'ngra u katta qo'shin to'plab Ur, Uruk, Larsa, Lagash, Adab hamda Nippur kabi shahar-davlatlarni o'ziga itoat ettirib **Shumer podshohligini** tashkil etgan. Uning davrida mamlakat xo'jaligi ancha ravnaq topgan. Ammo Shumer podshohligining mustaqilligi uzoq davom etmagan. Akkadda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan *Sargon I* (2316–2261) Shumer shaharlari ustiga katta qo'shin bilan bostirib kirgan. Sargon I qo'shinlari Lugal-zaggisi va uni quvvatlagan 50 hukmdor qo'shinlarini tor-mor etgan. Jangda Lugal-zaggisi asir olinib, Nippurga keltirilgan va xudo Enlila sharafiga qurbon qilingan.

**LYU BAN** – mil. avv. 207–206-yillarda **Qadimgi Sin podshohligida** boshlangan dehqonlar qo'zg'olonining rahbari; **Xan saltanati hukmdori**. Lyu Ban boshchiligidagi qo'zg'olonchilar mil. avv. 207-yilda Sanyan shahrini ishg'ol qilgan, mil. avv. 206-yili uni "*Xan hokimi*" – "*Xan vani*" deb e'lon qiladilar. Qattiq janglar natijasida har ikki tomondan ham ko'p odam o'lib, yarador bo'ladi. *Sin Shi Xuandining* o'g'li qo'zg'olonchilar qo'liga asir tushib, o'ldirilgan. Shu davr ichida Xan saltanatini egallash uchun Lyu Ban bilan *Syan Yuy* o'rtasida qonli janglar boshlanadi. Nihoyat, mil. avv. 202-yilning yanvarida *Gaysya* yonidagi jangda *Lyu Ban* qo'shinlari *Syan Yuy* qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi. Shu bilan Xitoyda Sin saltanati tugatilib, Xan saltanati o'rnatiladi. Lyu Ban Xan taxtiga o'tirgach, o'zini *Gao-Szu* deb atashlarini buyuradi. U o'z boshqaruvining dastlabki yillarida xalqqa ko'p yengilliklar bergan. Keyinchalik esa u sinlarning boshqaruv tizimidan foydalanadi. U Xanga itoat etmagan

podsholliklar bilan qattiq kurash olib boradi. Mil. avv. 200-yilda u o'z qo'shinlari bilan xunlar ustiga bostirib borgan. Uning qo'shinlari xunlardan mag'lubiyatga uchragan. Lyu Ban-Gao-Szuning o'zi asir tushib, asirlikdan mo'jiza tufayli qochib qutulgan.

**LYU SYU** – Xan podsholigi hukmdori (milodiy 25-yildan). Xan podsholigida “*Yashil o'rmon qo'shinlari*” ko'tarilgan qo'zg'olon natijasida taxtga o'tirgan. U o'zini podsho deb e'lon qilganidan so'ng poytaxtni *Chanandan Loyanga* ko'chirtirgan. Xan sulolasiga mansub bo'lgan. Lyu Syudan boshlab kichik Xan sulolasi davri boshlangan. Bu sulola 25–220-yillar orasida Xitoyda hukmronlik qilgan. Lyu Syu *Guan U-Di* nomi bilan podsholikni 25–57-yillarda boshqargan. U aholiga ko'p yengilliklar berib, soliqlarni kamaytirgan va ko'plab qullarni ozod etgan. Uning davridan boshlab qullarni behuda o'ldirish va tang'a bosish bekor qilingan. Lyu Syu va uning vorislari mamlakatda osoyishtalik o'rnatib, xunlarga qarshi g'olibona yurish qilganlar.

**LYU SYUAN** – milodiy 22-yilda Xan podsholigi janubida boshlangan qo'zg'olon rahbarlaridan biri. Qo'zg'olonchilar o'zlarini “*Yashil o'rmon qo'shinlari*” deb ataganlar. 24-yilda Lyu Syuan o'zini podsho deb e'lon qilib, Chanan shahrini egallagan. 25-yilda “*qizil qoshlilar*” Chananga yurib, Lyu Syuan qo'shinlarini tor-mor etganlar, Lyu Syuan o'zini o'ldirgan.

**MANISHTUSU** – Akkad podsholigi hukmdori (mil. avv. ?-2237-yillar). Sargon I ning o'g'li. Akasi Rimush a'yonlari tomonidan o'ldirilgach, taxtga chiqqan. U dastlab Elamdagi qo'zg'olonni bostirib, u yerdagi 32 shahar hokimlari ittifoqi qo'shinlarini tor-mor etgan. U yerdan juda ko'p boylik va asirlar olib qaytgan. Manishtusu Shumer va Elam ruhoniylariga katta-katta hadyalar berib, ularni o'ziga ag'darib olgan. Akkad, Shumer aslzodalari va o'z askarlariga yerlar bo'lib bergan. Shu yo'llar bilan u markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilgan. Manishtusu davrida ham Akkad podsholigi o'z kuch-qudratini saqlab qolgan. Ammo Manishtusu fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

**MAODUN** – xun sardorlaridan biri. Maodun ichki dushmanlarini yenggach, dunxu qabilalari ustiga katta qo'shin bilan bostirib boradi. Shiddatli va ayovsiz jang oqibatida dunxular tor-mor etiladi. Maodun dunxular hukmdorini o'ldirib, ko'p odamlarni asir olib, podalarini haydattirib ketadi. Mil. avv. 203–202-yillarda Maodun Sayan, Oltoy va Yenisey (Enasoy) daryosining yuqori oqimidagi joylarini bosib oladi. Mil. avv. 200-yilda Xan podshosi *Lyu Ban* xunlarni ustiga qo'shin tortadi. Maodun harbiy

hiyla ishlatib, qo'shinlari bilan Baydan tog'lariga chekinadi. Lyu Ban esa bir guruh tezkor jangchilari bilan xunlarni ta'qib qilib borib, asosiy qo'shinlaridan uzoqlashib ketadi. Xunlar Lyu Ban qo'shinlarini qurshab olib, ularni qirib tashlaydilar. Lyu Ban asir tushadi. U juda ko'p mol-mulk va qizini Maodunga berish sharti bilan asirlikdan ozod bo'ladi. Lyu Ban va'dasini bajarmay, qizini Maodunga yuborishni paysalga soladi. Maodun katta qo'shin bilan Xan chegaralaridan o'ta boshlaydi. Bu xabarni eshitgan Lyu Ban katta mol-mulk bilan qizini xunlar hukmdoriga uzatishga majbur bo'ladi. Shundan keyin ikki o'rtada tinchlik sulhi tuziladi. Sulhdan so'ng ikki davlat o'rtasidagi do'stlik 40 yil davom etadi.

**MAOSHIN** – mil. avv. 174–161-yillarda hukmronlik qilgan xunlar davlati hukmdori. Podsho *Maodun*ning o'g'li. Uning davrida xunlar yuechjilar bilan 25 yil davomida urush olib boradilar. Urushda yuechjilar yengilib, ularning sardori halok bo'ladi. Maoshin yuechji sardorining bosh chanog'ini kesdirib olib, undan sharob kosa yasattirgan. Urush xunlarning g'alabasi bilan yakunlangan. Yuechjilar Pomir va Farg'ona orqali Baqtriyaga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Shundan keyin xunlar O'rta va Sharqiy Osiyodagi eng kuchli davlatga aylangan.

**MARDUQAPLAIDDIN II** – Xoldey hukmdori. Bobilni egallab, o'zini podsho deb e'lon qilgan. U elamliklar bilan ittifoq tuzib, ossurlarga qarshi kurash boshlagan. Mil. avv. 720-yilda Elamning *Der qal'asi* yonida bo'lgan jangda Marduqaplaiddin qo'shinlari Ossur qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratgan. Mil. avv. 710–709-yillarda esa Ossur podshosi *Sargon II* Bobilni egallagan. Mil. avv. 703-yilda Marduqaplaiddin ossurlarga qarshi zarba berib, Bobilni ulardan ozod qilgan.

**MEDAS** – Frigiya podsholigi hukmdori. Podsho *Gordiyani*ning o'g'li. Medas podsholik chegaralarini kengaytirish uchun sharq tomon yurish qilgan. Medas qo'shinlari Sargon II qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchragan va Ossur shohiga o'lpon to'lashga majbur bo'lgan. Mil. avv. XIII asrda qo'shni qabilalarning to'xtovsiz hujumlaridan mag'lubiyatga uchragan va o'z joniga qasd qilgan.

**MENES (Mina)** – Birinchi Misr sulolasiga asos solgan Yuqori Misr podshosi. Qadimgi Misr davlatining ilk podshosi. Mil. avv. 3000-yilda Yuqori Misr bilan Quyi Misrni birlashtirib, yagona **Misr davlatiga** asos soladi. Quyi Misr chegarasida *Memfes* shahrini bunyod etgan.

**MENKAURA** (qadimgi misrcha **Raning** og'ishmaydigan egizagi: yunoncha **Mekeren**) – Misrda **Qadimgi podsholik davrida** mil. avv. 2494–2471-yillarda hukmronlik qilgan fir'avn. 4-suloladan bo'lgan.

**Xafra** (*Xefren*) ning vorisi. Antik mualliflarning yozishicha, ungacha o'tirgan Misr hukmdorlarining buyuk ehromlar qurilishida amalga oshirgan zulmni kamaytirgan. Menkauraning o'zi bunyod ettirgan **Giza shahridagi** ehromining balandligi 62 metr, tomonlari asosi esa 108,4 metrni tashkil etadi. Gizadagi ehrom va ibodatxonadan tashqari **Abu-Roash qishlog'i** atrofida ham uncha katta bo'lmagan ehrom bunyod etgan va shu yerda dafn etilgan.

**MENTUXATEP** — 11-sulolaga mansub Fiva hukmdori. U Gerokleopol podshohlariga qarshi kurashib, Yuqori va Quyi Misrni birlashtirib Markazlashgan Misr davlatini qayta tiklagan. **Fiva shahri** Misr davlatining poytaxti bo'lgan. Bu davrda 11–13 sulola vakillari Misrda podsholik qilgan. Bu Misr tarixida **O'рта podsholik** nomi bilan mashhur bo'lgan va mil. avv. 2050-yildan 1750-yilgacha hukm surgan.

**MENUA** — mil. avv. 810–786-yillarda hukmronlik qilgan Urartu davlati hukmdori. Podsho **Ishpuining** o'g'li. U qo'shinni qayta tuzib, shimolda Araks daryosi vodiysi, janubi g'arbda Frot daryosining yuqorisidagi mamlakatlar ustiga yurish qilgan. Tushpa shahri yaqinida 70 km. uzunlikdagi **“Menua kanali”**ni qurdirgan.

**MERNEPTAX** — Misrdagi Yangi podsholik davrida mil. avv. 1235–1215-yillarda hukmronlik qilgan fir'avn. Misr fir'avni **Ramzes II** (1301–1235)ning o'g'li. Merneptax davrida Misrning kuch-qudrati susayadi. Bundan foydalangan g'arbiy cho'l qabilalari Misrga bostirib kirib, Memfis shahrini qamal qiladilar. Shimoldan **“dengiz xalqlari”** Misrga bostirib kiradi. Misr qo'shinlari qabila va xalqlar hujumini qaytaradi. Uning davrida Suriyada Misrga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Misr qo'shinlari Suriya shaharlaridagi qo'zg'olonlarni qiyinchilik bilan bostiradilar. Misrning o'zida suriyalik **Irou** boshchiligida qullar va osiyolik yollangan jangchilarga tayanib, qo'zg'olon ko'taradi. Bu qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostiriladi, qo'zg'olonchilar qattiq jazolanadi.

**MITRIDAT I** — mil. avv. 171–138-yillarda hukmronlik qilgan Parfiya shohi. U Salavkiylar hukmdori **Antiox III** ning vafotidan foydalanib, Midiya bilan Bobilni bosib olgan va mil. avv. 141-yilda o'zini **“Bobil podshosi”** deb e'lon qiladi.

**MITRIDAT II** — Parfiya shohi (mil. avv. 123–87). Uning davrida Parfiya qo'shinlari salavkiy qo'shinlarini yengib, Eron va Mesopotamiyani ishg'ol qiladilar. Mitridat II **“ulug' shahanshoh”** degan unvonga ega bo'ladi.

**MOX** — yunon faylasuf-matematiklaridan ancha oldin atomlar haqidagi nazariyani yaratgan **sidonlik faylasuf**.

**MURSILI I** — mil. avv. 1619–1590-yillarda hukmronlik qilgan Xett podshosi. Uning davrida xett qo'shinlari Shimoliy Suriyadagi Xalpa va Bibl shaharlarni bosib olgan. Mamlakatda qullar va kambag'allar qo'zg'oloni bo'lib o'tgan.

**MURSILI II** — mil. avv. 1340–1305-yillar hukmronlik qilgan Xett podshosi. Uning davrida Xett podsholigi qo'shinlari Kichik Osiyoning janubi g'arbga yurish qiladi. **Valma shahri** yaqinida xettlar bilan **Arsava ittifoqchi qo'shinlari** o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Jangda ittifoqchilar qo'shini yengiladi. Xett qo'shinlari **Apasu (Efes)** shahrini egallab, Egey dengizi sohillariga chiqadi. Shundan keyin **Arsava davlati** Xett podsholigiga qaram bo'lib qoladi. Kichik Osiyo yarimorolining katta qismi xettlar ixtiyoriga o'tadi. Bu davrda **Xett podsholigining** harbiy kuch-qudrati eng yuqori darajaga ko'tariladi.

**NABONID** — mil. avv. 556–539-yillarda hukmronlik qilgan Bobil podshosi. Ruhoniylar tomonidan taxtga o'tqazilgan. Nabonid hukmronligi davrida Bobil Eron shohi **Kir II (Kayxusrav)** tomonidan bosib olingan (mil. avv. 539-yil). Janglar vaqtida Nabonid asir tushgan.

**NABOPALASAR** — Xoldey hukmdori. Ossurlarning Bobildagi jabr-zulmiga qarshi mil. avv. 628-yilda qo'zg'olon ko'targan. U ossurlarni Bobildan haydab chiqarib, **Yangi Bobil podsholigiga** asos solgan. Mil. avv. 605-yilda vafot etgan.

**NARAM-SUEN** — Akkad podsholigi hukmdori (mil. avv. 2236–2200-yillar). **Sargon Ining** o'g'li. Akasi Manishtusu fitnachilar tomonidan o'ldirilgach, taxtga chiqqan. Uning davrida Akkad podsholigi o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqqan. U mamlakatda ko'tarilgan qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostirgan. Suriya, Falastin, Subarti, Elam va Fors qo'ltig'i sohilidagi mamlakatlarni o'ziga itoat ettirgan. U **“to'rt iqlim podshosi”** unvonini olib, o'zini xudo darajasiga ko'targan.

**NARMER** — Misrda yagona davlat tuzish uchun kurash olib borgan Yuqori Misr podshosi. Yilnomachilarning ma'lumotlariga ko'ra, Narmer Quyi Misr yerlariga bostirib kirgan. Uning qo'shinlari Shimoliy Misr podshosi qo'shinlari ustidan g'alaba qozongan. G'alabadan so'ng u 6000 kishini asirga olib, juda ko'p o'ljalalar bilan qaytgan. Shundan so'ng Misrda yagona davlat tuzish uchun kurash qizg'in tus olgan.

**NAVUXODONOSOR I** — mil. avv. 1126–1105-yillarda hukmronlik qilgan **Isen shahri** hokimi. U elamliklarni Bobildan quvib chiqargan.

**NAVUXODONOSOR II** — Yangi Bobil podsholigi hukmdori (mil. avv. 605–562-yillar). Mil. avv. 605-yilda **Karxemish** yaqinidagi bo'lgan jangda Misr-

Ossuriya qo'shinlari ustidan g'alabaga erishgan, Suriya hududini bosib olib, misrliklarni O'rtayer dengizining sharqiy sohilidan siqib chiqargan. Mil. avv. 598-yilda esa Shimoliy Arabistonga yurish qilgan. Dastlab mil. avv. 597-yilda, so'ngra mil. avv. 587-yilda (boshqa ma'lumotlarga ko'ra, mil. avv. 586-yilda) Falastinni bosib olgan, qo'zg'olon ko'targan Quddus shahrini vayron qilgan. **Yahudiya (Iudeya) podshohligiga** barham bergan va Yahudiyaning aksariyat aholisini asir qilib olib ketgan. Uning davrida Bobilda yuksak bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi. U xotini **Semiramidaga** atab "**Bobil osma bog'lari**"ni va shu bilan birgalikda mashhur "**Bobil minorasi**"ni bunyod ettiradi. Turar joy binolari va mudofaa devorlari qurilishida pishgan g'isht ishlatish to'g'risida farmon chiqaradi. U hukmronlik qilgan davrda Bobilning 8 darvozasi bo'lgan, ulardan har biri mamlakat bosh xudolari birining nomi bilan atalar edi. Ayniqsa, iloha **Ishtar** nomidagi darvoza chiroyli va nafis bo'lgan.

**NEFERTITI** (qadimgi misrcha — "**sohibjamol kelmoqda**") — mil. avv. XIV asr boshidagi Misr malikasi (podshosi), **Amenxotep IV** ning xotini. Eri o'tkazgan diniy islohotlarda ishtirok etganligi taxmin qilinadi; uning ismi islohotlardan so'ng **Nefer** — **Neferu** — **Aton** ("**Atonning go'zallar go'zali**") deb o'zgartirilgan. 1912-yilda Amarnada Nefertitining haykaltarosh usta **Tutmes** tomonidan nafis ishlangan haykallari topilgan (Qohira va Berlin muzeylarida saqlanadi).

**NEXO** — Qadimgi Misrning So'nggi podshohlik davrida hukmronlik qilgan Misr fir'avni. Fir'avn **Psammetix I** ning o'g'li. U Misrni kuchli davlatga aylantirish uchun harakat qilgan. Nexo Palastin va Suriya janubida Misr ta'sirini qayta tiklamoqchi bo'lib, Frot daryosigacha siqib borgan. **Karxamesh yonidagi jangda** uning qo'shinlari bobilliklardan yengilgan. Uning davrida obodonchilik va xo'jalikning rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Nexo davrida Qizil dengiz bilan O'rtayer dengizini birlashtiradigan 84 km uzunlikdagi kanal qazilgan. Kanal qurilishida asirlar, qullar va oddiy aholi ishlagan. Qurilish vaqtida 120 mingdan ortiq odam o'lib ketgan. Uning buyrug'i bilan, Finikiya dengizchilari Afrika atrofini aylanib chiqqanlar. Mil. avv. 569-yilda taxtdan ag'dariladi.

**NIN** — qadimgi yunon tarixchisi **Ktesiy** (mil. avv. V—IV asrlar)ning ma'lumotlariga qaraganda, Baqtriyaga yurish qilgan Ossuriya podshosi.

**OKSIART** — Ossuriya podshosi Nin uyushtirgan harbiy yurishni qaytargan Baqtriya hukmdori. Qadimgi yunon tarixchisi **Ktesiy** (mil. avv. V—IV asrlar) Oksiartning xazinasi haqida ma'lumot qoldirgan.

**OROD** — mil. avv. 55—37-yillarda hukmronlik qilgan Parfiya podshosi. Orod davrida Parfiya qo'shinlari bilan mashhur sarkarda **Krass** boshliq Rim qo'shinlari o'rtasida ko'plab janglar sodir bo'ladi. Mil. avv. 53-yili **Karri shahri** yaqinidagi dahshatli jangda rimliklar yengilib, Krass halok bo'ladi. Bu g'alabadan so'ng parfiyanlar katta o'ljaga ega bo'lib, juda ko'p Rim askarlari asirga tushadi. Asirlar Marg'iyonaga haydab ketilib o'sha yerga joylashtiriladi. Bu g'alabadan keyin Parfiya poytaxti **Gekatompildan** Mesopotamiyadagi **Ktesifonga** ko'chiriladi. Bu davrda Parfiya o'z kuch-qudratining eng baland cho'qqisiga ko'tariladi. Parfiya qo'shinlari Sharqdagi Hind daryosigacha, g'arbda esa O'rtayer dengizi va Kichik Osiyo chegarasigacha bo'lgan yerni egallaydilar.

**OSIYA** — Isroil podshosi. Uning hukmronligi davrida Ossuriya podshosi **Sargon II** Isroilga bir necha bor istilochilik yurishlarini uyushtirgan. Shunday yurishlarning birida Sargon II mil. avv. 722-yilda Samariya shahrini bosib olgan va Osiyani o'ziga asir qilgan.

**PETUBASTIS** — mil. avv. 853-yili Qarqara shahri yaqinida Suriya-Falastin va Misrning birlashgan qo'shinlari ustidan g'alaba qozongan **Ossuriya** hukmdori. Bu g'alabadan so'ng Petubastis o'zini Misr fir'avni deb e'lon qilgan va 23-sulolaga asos solgan.

**PIANXI** — Efiopiya (Kush) podshosi. Uning davrida Efiopiya davlati ravnaq topgan. U Qadimgi Misrga qarshi bosqinchilik urushlarini olib borgan.

**PIN-VAN** — Chjou podshohligi hukmdori. U mil. avv. 770-yilda yarim ko'chamanchi jun qabilalarining hujumidan bezor bo'lib, podshohlik poytaxtini **Xaodan Loyanga**, ya'ni Sharqqa ko'chiradi. Shu tufayli Pin-Van hukmronligidan boshlab podshohlik **Sharqiy Chjou** nomi bilan atalgan. Sharqiy Chjou podshohligi mil. avv. VIII—III asrlar orasidagi davrni o'z ichiga oladi.

**PITXAN** — mil. avv. XVIII asr boshlarida Kichik Osiyo yarimorolining sharqiy qismini birlashtirgan **Kussar** hukmdori.

**POR** — Qadimgi Panjobdagi eng kuchli podshohlardan biri. **Aleksandr Makedonskiy**ning zamondoshi. Mil. avv. 327-yilda Aleksandr Hindikush va Sulaymon tog'laridan oshib o'tib, Panjob viloyatiga bostirib kirganida unga qarshi kurashgan. Por ixtiyorida 30 ming piyoda, 4 ming otliq askar, 3000 jang arava va 200 jangovar fil mingan jangchilar bo'lgan. Ikki shoh askarlari o'rtasida shiddatli jang bo'lgan. Porning o'zi jangovar fil ustida dushmanlar bilan qahramonlarcha kurashib 9 joyidan yarador bo'lgan. Bu ayovsiz janglarning birida Porning ikki o'g'li va bir qancha sarkardalaridan ajraladi. Ammo shunga qaramay urush maydonini, askarlarini tark etmay,

jangni davom ettiradi. Urush Aleksandr qo‘shinlarining g‘alabasi bilan tugaydi. Jangda Aleksandr ham ko‘p jangchilaridan ajraladi. Sevimli jangovar oti *Butsefal* ham janglarning birida tig‘ tegib halok bo‘lgan. Iskandar halok bo‘lgan oti sharafiga Hind daryosi bo‘yida *Butsefaliya shahrini* bunyod ettirgan. Aleksandr Porning jasoratiga va irodasiga qoyil qolib, uni o‘z saltanati podshosi qilib qoldiradi.

**PRIAM** – mil. avv. 1260-yilda boshlangan *Yunon-Troya urushi* davrida **Troya podsholigining** hukmdori.

**PSAMMETIX I** – Nil tarmog‘ining g‘arbiy qismida joylashgan *Sais shahrining* hukmdori. U Lidiya, Yunoniston va Bobil bilan ittifoq bo‘lib, Misrdan efiofiyalik va ossuriyaliklarni surib chiqargan. Shundan so‘ng u Janubiy Misrda ham o‘z hokimiyatini mustahkamlab, mamlakatni birlashtirgan. U 26-sulolaga asos solib, bu sulola mil. avv. 663–525-yillarda hukmronlik qilgan. Psammetix I mamlakat obodonchiligi va xo‘jaligini rivojlantirish ishlariga homiylik qilgan.

**RAMZES I** – Qadimgi Misrdagi Yangi podshohlik davrida mil. avv. 1338–1337-yillarda hukmronlik qilgan fir‘avn, 19-sulola vakili. Uning davrida Misr harbiy va iqtisodiy jihatdan kuchayib yuksalgan.

**RAMZES II** – Qadimgi Misrdagi Yangi podshohlik davrida mil. avv. 1301–1235-yillar hukmronlik qilgan fir‘avn, 19-sulola vakili. Misr fir‘avni *Seti I* (1337–1317)ning o‘g‘li. U Misrda 66 yil hukmronlik qilib, mamlakat obodonchiligiga katta e‘tibor beradi. Uning davrida yangi yerlar o‘zlashtiriladi, sug‘orish tarmoqlari kengaytirilib, dehqonchilik rivoj topadi. Ramzes II O‘rtayer dengizi sharqiy sohilidagi mamlakatlarni bosib olish uchun Kichik Osiyodagi xetlar bilan qattiq kurash olib boradi. U mil. avv. 1296-yilda bo‘lib o‘tgan jangda xetlardan yengilib, asir tushishiga oz qoladi. Uning davrida mil. avv. 1296–1280-yillarda Misr bilan Xett davlati o‘rtasida janglar bo‘lib o‘tadi. Mil. avv. 1280-yilda Ramzes II bilan Xett podshosi *Xettusili III* o‘rtasida tinchlik va do‘stlik bitimi tuziladi. Sulhga ko‘ra, ikki davlat podsholari bir-birlariga har tomonlama yordam berishga kelishib olinadi. Ana shu bitimning *Misr* va *akkad tillarida* yozilgan nusxasi bizgacha yetib kelgan. Bitimga mingta Xett va mingta Misr xudolari garov qilib qo‘yilganligi bayon qilingan. Bitimga muvofiq Suriyaning shimoli Xett davlatiga, Janubiy Suriya, Palastin va Finikiya sohillarining katta qismi Misrga o‘tgan. Uning davrida Misr qo‘shinlari Nubiyaga qarshi harbiy yurishlar uyushtirganlar. Misr qo‘shinlari u yerdan juda ko‘p boylik va o‘ljalar bilan qaytganlar. Ramzes II davrida Misrda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq

yuksalgan. Misr harbiy jihatdan Sharqning eng qudratli davlatiga aylangan.

**RAMZES III** – Qadimgi Misrdagi Yangi podshohlik davrining fir‘avni, mil. avv. 1198–1166-yillarda hukmronlik qilgan. Misr fir‘avni *Setmaxtning* o‘g‘li. Uning davrida Misr xo‘jaligining tiklashga katta e‘tibor berilgan. Misr qo‘shini kuchaytirilib, intizom yaxshilangan. U mamlakat ichidagi nizolarga qarshi kurash olib borgan. Liviyaaliklar va *“dengiz xalqlari”*ning Misrga qilgan hujumlari qaytarilgan. U Suriya va Palastinga g‘olibona yurishlar olib borib, u yerda Misrning avvalgi ta‘sirini tiklagan. Ammo Ramzes III hukmronligini oxirlarida u bilan ruhoniylar, nom hokimlari va ayrim amaldorlar o‘rtasida nizo chiqqan. Fitnachilar Ramzesga suiqasd uyushtirib mil. avv. 1166-yilda uni o‘ldirganlar.

**RAMZES IX** – Qadimgi Misrdagi Yangi podshohlik davrining fir‘avni, 20-sulola vakili. U mil. avv. 1085-yilda vafot etgan va shu bilan Misr hukmdorlarining 20-sulolasi ham tugagan.

**RIMSIN** – Qadimgi Elam podshosi (mil. avv. 1822–1763). U Shumerni istilo qilib, Larsani o‘zining harbiy istehkomiga aylantirgan. Uning davrida elamliliklar Shumerda kanallar qazib, hashamatli saroylar va ibodatxonalar bunyod etganlar. Ibadatxonalariga Shumer va Elam xudolarining oltin va misdan quyilgan haykallari o‘rnatilgan. Ammo Rimsinning Shumerda hukmronligi uzoqqa bormagan. Qadimgi Bobil podshohligi hukmdori *Xammurapi* Rimsinni yengib Shumerni Bobilga qo‘shib olgan.

**RIMUSH** – Akkad podshohligi hukmdori (mil. avv. 2260-?). *Sargon I* ning o‘g‘li. Rimush taxtga o‘tirgach, Shumer va Elamdagi qo‘zg‘olonlarni shafqatsizlik bilan bostirgan. U Elam va Shumerni Akkadga bo‘ysundirgan, O‘rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlarni ham Akkadga itoat ettirgan va *“Kish podshosi va Elam xo‘jasi”* degan nom olgan. Rimush davrida Akkad podshohligi har jihatdan kuchaygan. Lekin shunga qaramay Rimush mamlakatda tamomila osoyishtalik va tinchlik o‘rnata olmagan. Taxt atrofi va saroyda uning dushmanlari ham bo‘lgan. Rimushga qarshi a‘yonlar fitna qo‘zg‘ab, uni tosh muhrtamg‘alari bilan urib o‘ldirganlar.

**ROVOAM** – Isroil-Yahudiy podshohligi hukmdori. Mil. avv. 935-yilda otasi *Sulaymon* vafot etganidan so‘ng podshohlik taxtiga chiqqan. Rovoam hukmronligi davrida otasi Sulaymon davrida qo‘zg‘olon ko‘tarib Misrga qochib ketgan *Ierovoam* Misrdan katta qo‘shin bilan qaytib keladi. Jangda Rovoam qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchraydi va Ierovoam **Isroil podsholigini** qayta tiklaydi.

**RUSA I** – mil. avv. 735–712-yillarda hukmronlik qilgan Urartu hukmdori. *Sarduri II* ning o‘g‘li. Rusa

I hukmronligining dastlabki yilida mamlakatda g'alayonlar va fitnalar boshlangan. Rusa I bu ichki nizolarni bartaraf etgan. Uning qo'shinlari Kavkaz va Sevan atrofidagi 23 podsho ustiga yurish qilib, g'alaba qozongan. Mil. avv. 714-yilda Ossur podshosi Sargon II Rusa I ustiga qo'shin tortgan. Urmiya ko'li atrofida bo'lgan Jangda Rusa I mag'lubiyatga uchragan. Ossurlar Musasirga ham yurish qilib, u yerni ham vayron qilgan. Shundan so'ng Rusa o'z joniga qasd qilgan.

**RUSA II** – Urartu davlati hukmdori. Uning davrida Urartu o'z mustaqilligini saqlab qolgan bo'lsa ham avvalgi shon-shuhratini boy bergan. Rusa II Ossuriya bilan osoyishta va tinch-totuv yashashga harakat qilgan.

**SALAMANSAR I (Salmanasar I)** – Ossuriya hukmdori (mil. avv. 1280–1260-yillar). Uning davrida **Ossuriya podsholigi** o'z ravnaqining yuqori cho'qqisiga erishib, Mitanni davlatini bosib oladi. Mil. avv. XIII asrda Ossur qo'shinlari Bobil va Elam ustiga bir necha bor talonchilik urushlarini uyushtiradi.

**SALAMANSAR III (Salmanasar III)** – Ossuriya hukmdori. Uning davrida ossur qo'shinlari O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar, Bobil va Urartu bilan tinimsiz urush olib borganlar. Urushda goh u, goh bu tomon g'olib chiqqan yoki mag'lub bo'lgan.

**SAMSUILUN** – mil. avv. 1749–1712-yillarda hukmronlik qilgan Bobil podshosi. *Xammurapining* o'g'li.

**SAMUDRAGUPTA** – milodiy 335–380-yillarda hukmronlik qilgan Magadxa davlati hukmdori. *Chandragupta I* ning o'g'li. *Guptalar sulolasidan*. Uning davrida Magadxa davlati ancha kuchayib, Himolay tog'laridan Madras shahri oralig'idagi yerlarni bosib oladi.

**SAO-CHUN** – mil. avv. 361–338-yillarda hukmronlik qilgan Sin podsholigi hukmdori. Uning davrida amaldori *Shan-Yan* xo'jalik va mamlakatni boshqarish sohasida bir necha islohotlar loyihasini ishlab chiqqan. Islohotga ko'ra yerni istagancha xususiy mulk qilib olish mumkin bo'lgan. Yerni erkin sotish va sotib olishga ruxsat berilgan. Ilgari hosildan olinadigan soliq yer solig'i bilan almashtirilgan. Davlatni boshqarishda ham qator ishlar qilingan. Butun podsholik 36 viloyatga bo'linib, uni podsho tayin etgan yangi amaldorlar idora qilganlar. Eski amaldorlar ishlaridan chetlashtirilgan va mamlakatda kuchli nazorat o'rnatilgan. Podsholik maktab va maorif ishlariga katta e'tibor berib bu sohada ham islohotlar o'tkazilgan. Sin qo'shinlari qayta tuzilib mustahkamlangan. Islohot natijalari podsho hokimiyatini ancha kuchaytirgan.

Ammo o'tkazilgan islohotlar eski zodagon, xalq ommasi, konfutsiychi oqim namoyandalari va qullarning qarshiligiga uchragan.

**SARDURI I** – Urartu hukmdori (mil. avv. 835–825). O'zini *“ulug', qudratli, jahon va Nairi mamlakatining podshosi-shahonshohi”* deb e'lon qilgan. Ossuriya va qo'shni qabilalar ustidan bir necha bor g'alaba qozongan. Ossuriya podshosi **Salmanasar III** ning zamondoshi; mil. avv. 833-yil voqealari haqidagi bitiklarda **Seduri** nomi bilan qayd etilgan. Sarduri I davrida mamlakat poytaxti **Tushpa shahriga** ko'chirilgan, Urartu podsholigi kuchli davlatga aylangan.

**SARDURI II** – mil. avv. 764–735-yillarda hukmronlik qilgan Urartu davlati hukmdori. Podsho **Argishti I** ning o'g'li. U mamlakatda otasining siyosatini yuritib, iqtisoslashgan doimiy qo'shinni kuchaytiradi. Muntazam qo'shinga tayangan Sarduri II Kavkazortiga, xususan, Eriax mamlakatiga bostirib boradi. G'arbda esa u Shimoliy Suriyaga qo'shin tortadi. Ossuriya qo'shinlariga qaqshatqich zarba beradi. Sarduri II davrida Urartu davlatining chegaralari boshqa mayda davlatlar hisobiga kegaytiriladi.

**SARGON I Sharrukin (“Haqiqiy podsho” degani)** – mil. avv. 2316–2261-yillarda hukmronlik qilgan **Akkad davlatining** asoschisi. Rivoyatga ko'ra, Sargon I tashlandiq bola bo'lgan. Uning onasi kambag'al ayol bo'lib, o'g'lini boqa olmay qamishdan to'qilgan savatga solib Frot daryosi bo'yidagi changalzorga tashlab ketgan. **Akki** degan suv tashuvchi meshkob uni topib olib tarbiya qilgan. Ma'buda xudo **Ishtar** Sargon I ni yaxshi ko'rib qolib, mil. avv. 2316-yili uni Akkadga podsho qilib qo'ygan. Kuchli qo'shin to'plab Kishni bosib olgan, o'zini **“Kish va Akkad podshosi”** deb e'lon qilgan. Shumer shaharlari ustiga katta qo'shin bilan bostirib kirgan. Umma hokimi **Lugal-zaggisi** va uni quvvatlagan 50 hukmdorning qo'shinlarini tor-mor etgan. Jangda Lugal-zaggisi asir olinib, Nippurga keltirilgan va xudo **Enlila** sharafiga qurbon qilinadi. Shumerning Uruk, Ur, Lagash va Umma kabi shaharlarini vayron qilib butun Shumeri egallagan. Elamning bir qancha shaharlarini ham bosib olgan. Sargon I Fors qo'ltig'igacha g'olib chiqqanligini nishonlab “qilichini dengiz suvida yuvgan” ekan. Uning qo'shinlari Suriya, Falastinni bosib olib, O'rtayer dengizi sohillarigacha chiqib borgan. Qadimgi yozuvlarning birida Sargon I *“g'arbdagi dengizni kechib o'tdi, G'arbda 3 yil turdi, mamlakatni bo'ysundirdi va birlashtirdi, unda o'z haykallarini o'rnatdi, dengizdan va qirg'oqdan asirlar olib keldi”* deyilgan. Sargon I Elam, Mesopotamiya va Old Osiyoni o'z ichiga olgan katta davlat barpo etdi. O'zini **“to'rt iqlim podshosi”** deb e'lon qilgan.

Bu janubi g'arbiy Osiyodagi eng yirik dastlabki quldorlik davlati edi. Sargon I davlatining poytaxti **Akkad shahri** bo'lgan. U 55 yil podsholik qilgan. Bu davrda yirik sug'orish inshootlari qurilib, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan. Suv va quruqlikdagi savdo yo'llari tartibga keltirilib, qo'shni mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Sargon I hukmronligi davrining oxirlarida qo'zg'olonlar bo'lgan, ammo qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan.

**SARGON II** – Ossuriya hukmdori (mil. avv. 722–705). Salamansar V taxtdan ag'darilgach, hokimiyat tepasiga kelgan. O'z siyosatida kohinlar hamda Ossuriya va Bobilning imtiyozli shaharlari manfaatlarini harbiylar manfaati bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Mil. avv. 722-yilda Samariya shahrini bosib olib Isroil podshosi Osiyani, shuningdek 27290 isroillikni asir olib ketgan va ularni Midiya va Mesopotamiyaga joylashtirgan. Isroilga esa aramey fuqarolarini joylashtirgan va shu tariqa Isroil podsholigiga barham bergan. Suriyaga yurish qilib uni ham bosib olgan (Karxemishning egallanishi, mil. avv. 717); mil. avv. 714-yilda Urartu podshosi Rusa I ni tor-mor etgan, Kichik Osiyo yarimorolining sharqidagi, shuningdek, Midiyadagi bir qancha viloyatlarni bosib olgan; 710–709-yillarda Bobilni egallagan.

**SAUL** – mil. avv. XIII asrda Falastinga bostirib kirgan ko'chmanchi **yahudiy qabilalarining** hukmdori. U **Isroil davlatini** tuzib, **filistimlar** bilan kurash olib borgan. Filistimlar bilan bo'lgan janglarning birida Saulning uch o'g'li halok bo'lgan. Bu fojiani eshitgan Saul o'zini qilich tig'iga tashlab o'lgan.

**SEMIRAMIDA** (*yunoncha Shammuramat, ossuriycha – Sammuramat*) – Ossuriya podshosi (malikasi) (mil. avv. IX asr oxiri). Asli Bobildan. Uning hukmronligi davrida shimoldagi xalqlar va midiyaliklar bilan tez-tez urushlar sodir bo'lib turgan. Shu tufayli mazkur xalqlarda Semiramida haqida afsona to'qilgan. Unga ko'ra, Semiramida va uning eri Nin Skifiya, Eron, Arabiston, Baqtriya, Hindiston, Misr va boshqa mamlakatlarga ulkan harbiy yurishlar qilishgan, *Nineviya* va *Bobil* kabi poytaxt shaharlar bunyod etishgan. Semiramida Hindiston yurishidan qaytib kelgach, Nin tomonidan uyushtirilgan fitnadan xabardor bo'ladi va o'z ixtiyori bilan unga taxtni topshirib kaptarga aylanadi va bir gala kaptarlar bilan saroyini tark etib uchib ketadi. Unga atab mil. avv. 600-yil Bobil podshosi Navuxodonosor tarixga **“Bobil osma bog'lari”** nomi bilan kirgan bog'ni bunyod etgan. Bog' to'rt qavatli bo'lgan. Osma bog' **“dunyoning yetti mo'jizasi”**dan biri deb tan olingan.

**SETI I** – Qadimgi Misrdagi Yangi podsholik

davrida mil. avv. 1337–1317-yillarda hukmronlik qilgan fir'avni, 19-sulola vakili. Misr harbiy va iqtisodiy jihatdan kuchayadi. Uning davrida Misr qo'shinlari Suriya, Palastin va Finikiya ustiga bostirib borib, Tir, Megiddo, Kadish kabi shaharlarni bosib oladilar. Palastindagi hokimlar qo'zg'oloni bostiriladi. Harbiy yurishlar natijasida Misrning O'rtayer dengizi Sharqiy sohilidagi mamlakatlar ustidan bo'lgan ta'siri kuchaydi. Natijada u mamlakatlar bilan Misrning aloqasi izga tushiriladi. Misrda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlanadi. Seti I mil. avv. 1301-yilda vafot etgan.

**SETNAXT** – Qadimgi Misr fir'avni (1200-yildan), Yangi podsholik davrida hukmronlik qilgan. U ancha tadbirkor bo'lib, Misrdagi mushkul ahvolni ancha yaxshilashga erishadi. Mamlakatdagi qo'zg'olonlar bostirilib, tartib o'rnatiladi.

**SIN SHIXUANDI** (haqiqiy ismi: **In Chjen**) (mil. avv. 249–210-yillar) – **Sin saltanati** podshosi (mil. avv. 246–221), **Xitoy imperatori** (mil. avv. 221–210). Sin hukmdorlari xonadoniga mansub bo'lgan. Xitoydagi oltita podsholikni bosib olib, mil. avv. 221-yilda yagona markazlashgan Sin imperiyasini barpo etgan va o'zini **birinchi Xitoy imperatori** – **“Sin Shixuandi”** deb e'lon qilgan. Taxtga o'tirganidan so'ng, mamlakat hududini 36 viloyatga taqsimlagan va ularning har biriga o'z noiblarini tayinlagan. Uning davrida mil. avv. 215–214-yilda **Buyuk Xitoy devorini** ilgari mavjud bo'lgan chegara istehkomlari bilan yaxlit holga keltirish jarayoni boshlangan. Sin Shixuandi qo'lida qonun chiqarish, oliy ijroiya va sud hokimiyati to'plangan. O'z hokimiyatiga nisbatan har qanday tanqidiy munosabatlarga barham berish maqsadida mil. avv. 213-yilda xususiy shaxslar qo'lida saqlanayotgan gumanitar adabiyotlarni yoqish haqida farmon chiqargan. Mil. avv. 212-yilda Sin Shixuandi imperator hokimiyatiga qarshi xalqni ko'tarmoqchi bo'lgan 460 ta konfutsiy dini arboblari qatl ettirgan. Sin Shixuandi davrida zulm kuchaygan, uning vafotidan so'ng xalq qo'zg'olonlari ko'tarilib Sin imperiyasi barham topgan. Imperator hozirgi **Sian** yaqinidagi dafn etilgan yeri bilan shuhrat qozongan; maqbarani 700 ming asir-qul barpo etgan. Sin Shixuandi o'limidan so'ng ham harbiy kuchga tayanish uchun 6 ming jangchisi va otlarning bo'y baravar kattalikdagi haykallarini yasashni buyurgan. Sin Shixuandi vafot etganida barcha haykallar ham u bilan qo'shib ko'milgan. 1974-yilda Sin Shixuandi dafn etilgan joydan jangchilar va otlarning bo'y baravar kattalikda ishlangan terrakota haykallari (mil. avv. taxm. 210-yilda) topilgan.

**SKIL** (*yunoncha Skyles*) – skiflar podshosi (mil. avv. V asr). *Gerodotning* yozishicha, Skil skiflar



podshosi Ariapeyt (Ariapif) va Istropol shahridan bo'lgan yunon qizining farzandi bo'lgan. Onasi Skilga yunon tili va yozuvidan ta'lim bergan. Skil Olviya shahrida katta uy soldirgan, unda barcha narsalarda ellinlarga taqlid qilib, ellincha yashagan va ellinlar udumi bo'yicha ma'budlarga qurbonlik qilgan. Bundan xabar topgan skiflar Skilga qarshi isyon ko'targan. U Frakiya podshosi Sitalk huzuriga qochib borgan. Skiflar va frakiyaliklar o'rtasidagi urush davrida Skil birodari Oktamasadga topshirilgan va qatl etilgan.

**SMENDES** – Shimoliy Misrda 21-sulolaga asos solgan Tanis hukmdori.

**SNOFRU** – Misrda Qadimgi podsholik davrida hukmronlik qilgan fir'avn. 4-sulola vakili. U Nubiya, shimoli sharqda Sinay yarimoroli, Falastinga g'arbiy yo'nalishda Liviya qabilalari ustiga harbiy yurishlar qilgan. Misga boy Sinay yarimorolini Misrga qo'shib olgan, Nubiyadan 7 ming asir, 200 ming chorva va boshqa qimmatbaho buyumlar olib kelgan.

**SOSON** – Erondagi sasoniylar sulolasi bobokaloni. Ahamoniylar davri (mil. avv. 558–330-yillar)da otashparastlarning Stahr (hozirgi Istahr)dagi Anaxita butxonasining kohini (mubod) bo'lgan. Sasoniylar davlatini idora etgan. Eron shahanshohlari o'zlarini sason naslidan deb biladilar.

**STAGNOR** – Salavkiylar davlati kuchsizlanib qolgan davr (mil. avv. III asr o'rtalari)da hukmronlik qilgan Parfiya satrapligining noibi. Bu davrda Parfiya Turkman-Xuroson tog'lari va uning shimoliy hamda janubiy etaklarida joylashgan edi.

**SULAYMON** – Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri, hukmdor. **Isroil-Yahudiy podshohi** bo'lgan. **Dovudning** o'g'li. 13 yoshida taxtga o'tirgan. Yetuk bilimli, har bir ishda hukm chiqarishda otasidan ko'ra olimroq bo'lgan. Rivoyatga ko'ra, u jamiki insu jin, hayvonlar va parrandalar olamiga podshohlik qilgan, qushlar tilini tushungan. Shamollar ham uning ixtiyorida bo'lib, Sulaymon farmoniga ko'ra, u xohish bildirgan joyda esardi. Sulaymonga berilgan mo'jizalardan biri mis koni edi, deb rivoyat qilinadi: payg'ambar izmidagi jinlar o'sha misdan uning xohlagan narsasini yasab berishar ekan. Jinlarning Sulaymonga qasrlar bunyod etgani, dengiz tubidan durr-u javohirlar olib chiqib bergani naql etiladi. Sulaymon o'z qo'l ostida bir necha xil qushlarni tarbiya qilardi. Bular orasida **hudhud** (sassiqpopishak) ham bo'lib, u Yamanning Sabo shahridan quyoshparast malika **Bilqis** haqida xabar keltiradi. Sulaymon Bilqisga maktub yo'llab, uni yolg'iz Allohga itoat etishga da'vat etadi (Naml surasi, 20–37-oyatlar). Sulaymon otasining vasiyatiga ko'ra, Aqso masjidini qurdirdi. Sharq va G'arbda

bir qancha mamlakatlarni zabt etib, jahongir bo'ldi. Uning davrida **Isroil-Yahudiy podsholigi** kuchayib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq va chorvachilik rivoj topadi. Sulaymon Tir shahridan temirchilarni, Bibl shahridan duradgorlarni chaqirib, mamlakatda qurilish ishlarini avj oldiradi. Tirdan qurilish buyumlari, Kilikiyadan ajoyib zotli otlarni keltirib, mamlakatda sotdirgan. U Janubdagi Ofir mamlakatidan yog'och, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, fil suyagi, maymun va tovuqlar olib keltirtiradi. Sulaymon qurilish, davlat xarajatlari va qo'shin uchun yangi soliq joriy qiladi. Bu esa xalq ommasi orasida noroziliklarni keltirib chiqaradi. Isroilliklar **Ierovoam** boshchiligida unga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olon Sulaymon tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi. Mil. avv. 935-yilda Sulaymon vafot etadi. Sulaymonning o'limi bilan bog'liq rivoyat jinlar, devlar g'aybni – kelajakda ro'y beradigan voqea-hodisalarni biladi, degan gumonlarni rad etadi: jon taslim qilgan Sulaymon tayangan hassani uzoq vaqt yog'och qurti yeb u yerga qulab tushmaguncha, jinlar Sulaymonning vafot etganini bilmaganlar va payg'ambar ularga buyurgan vazifa – baland qasr bino qilish ishini davom ettiraverganlar (Saba' surasi, 14-oyat). Shunday qilib, Sulaymon o'lib, devlar mehnatdan qutulgan ekan. Sulaymon yahudiy va xristian diniy adabiyotlarida **Solomon** nomi bilan ma'lum.

**SUMUABUM** – amoriy sulolasining vakili. **Qadimgi Bobil podsholigiga** asos solgan.

**SUMUEPAX** – mil. avv. XIII asrda Shimoliy Suriyaga bostirib kirgan **amoriy qabilalarining** sardori. Sumuepax **Yamxad davlatini** tuzib, o'zini podsho deb e'lon qiladi. U Karxemish bilan Katna shahri oralig'idagi **Suriya** yerlari ustidan hukmronlik qiladi.

**SUPPILULIUM** – mil. avv. XIV asr boshlarida taxtga o'tirgan Xett podshosi. U serg'ayrat lashkarboshi, mohir diplomat va uzoqni ko'ruvchi dono siyosatdon bo'lgan. Uning davrida Xett podsholigi qayta tiklanib ravnaq topgan. U Xett qo'shinlarining jangovarlik jihatlariga katta e'tibor bergan. Xett qo'shini ot qo'shilgan tezkor jang aravalari bilan ta'minlangan. Suppilulium Xett shaharlarini, xususan mamlakat poytaxti Xattusaning mudofaa inshootlarini mustahkamlashga ham katta e'tibor bergan. U qo'shni mamlakatlar ustiga lashkar yuborish, o'z qizlarini ularning shoh va shahzodalari nikohlab berish va turli diplomatik usullarni qo'llab, ularni o'ziga itoat ettirgan. Uning davrida xett qo'shinlari janubi g'arbda **Arsava podsholigini**, janubda Kilikiya va Suriyaning katta qismini bosib olgan. Mitanni podsholigiga hujum qilib g'olib chiqqan. Shu davrda Ossuriya bilan

Alshinning birlashgan qo‘shinlari Mitanniga bostirib kirganlar. Vaziyatdan foydalangan Suppilulium o‘z qizini *Tushrattini* o‘g‘li shahzoda *Shattivasga* nikohlab, shahzodani Mitanni taxtiga o‘tqazgan va natijada Mitanni xetlarga qaram davlatga aylangan. Suppilulium podsholigi davrida Xett podsholigi Qora dengiz bo‘ylaridan Falastin, Bobil va Ossuriya chegaralarigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan.

**SYAN YUY CHU** – Chu podsholigida “*Ulug‘ Chu qayta tiklanmog‘i kerak*” shiori ostida ko‘tarilgan qo‘zg‘olon rahbarlaridan biri. Qo‘zg‘olon boshlig‘i **Chen Shen** halok bo‘lgach, qo‘zg‘olonchilar qo‘shinining qo‘mondoni bo‘lgan. U o‘zini “*Chu hokimi*” – “*Chu vani*” deb e‘lon qilgan. Xan saltanatini egallash uchun Lyu Ban bilan bo‘lgan bir necha bor janglar qilgan. Mil. avv. 202-yil yanvarda Gaysya yonidagi jangda **Lyu Ban** qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchragan.

**SYAN-VAN** – Qadimgi Xitoydagi Sharqiy Chjuy podsholigi hukmdori. U mil. avv. 636-yilda di qabilalari bilan bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchragan. Syan-Van podsholik poytaxti **Loyanni** tashlab chiqishga majbur bo‘lgan.

**SZIN-DI** – Xan podsholigi hukmdori. Uning hukmronligi davrida yetti hokimlikning birlashgan 200 minglik qo‘shini Xan saltanati poytaxti Sanyanga hujum boshlaydi. Szin-Di “*Yetti hokim qo‘zg‘oloni*”ni Sanyan ostonalarida tor-mor etgan. U “Yetti hokim”lar amaldorlarini ishdan olib, mustaqil qo‘shin tuzishdan mahrum etgan.

**TANUTAMON** – Efiopiya-Misr podshosi bo‘lgan **Taxarkaning** vorisi. Tanutamon Misrda efiopiyaliklarni mag‘lubiyatga uchratib, hokimiyatni o‘z qo‘liga olgan ossurlarga qarshi mil. avv. 663-yilda jang qilgan. Ammo, jang ossurlarning g‘alabasi bilan tugaydi. Bu jangdan so‘ng 25-Efiopiya sulolasi tugatiladi va Misr 20 nomga bo‘linib ketadi.

**TAXARKA** – Efiopiya-Misr podshosi. Ossuriya podshosi **Asarxadon** mil. avv. 671-yilda Taxarkani yenggan va o‘zini Ossuriya-Misr podshosi deb e‘lon qilgan. Shundan so‘ng Taxarka ossurlarga qarshi ikki marta qo‘zg‘olon ko‘targan. Ammo ularning ikkisi ham ossurlar g‘alabasi bilan tugagan.

**TELEPEN** – mil. avv. 1520–1490-yillarda hukmronlik qilgan Qadimgi Xett podsholigi hukmdori. Telepen davrida Xett podsholigi biroz kuchaygan. Uning davrida Xett davlati yangidan tashkil topgan. U taxt vorisligini tartibga solgan. **Telepen yozuvlariga** ko‘ra, podsholik hokimiyatini katta o‘g‘il, agar katta o‘g‘il bo‘lmasa, ikkinchi o‘g‘il, ular bo‘lmagan taqdirda katta qizning eri – kuyov olishi kerak bo‘lgan. Podsho huzuridagi zodagonlar kengashiga ham katta e‘tibor bergan. Bu kengash podshoning qarindosh-

urug‘lari, aka-ukalari, bojalari, sarkardalari va boshqa amaldorlaridan iborat bo‘lgan. Uning davrida podsho katta huquqqa ega bo‘lgan. Ammo mamlakat hayotiga oid ko‘p masalalar kengash a‘zolarining maslahati bilan amalga oshirilgan. Telepen vafotidan so‘ng, podsholik kuchsizlanib, inqirozga yuz tutgan.

**TIGLATPALASAR I** – Ossuriya podshosi. Uning hukmronligi davrida Ossuriya podsholigi kuchayib shimolda Qora dengiz, g‘arbda esa O‘rtayer dengizi sohilidagi boy mamlakatlar ustiga qo‘shin tortib, ularni o‘z ta‘siriga olgan.

**TIRIKAN** – g‘utey qabilalari podshosi. Mil. avv. 2109-yilda Uruk podshosi **Utuxengal** bilan jang qilib mag‘lubiyatga uchragan va unga asirga tushib qolgan.

**TUTANXAMON** (taxtga o‘tirgandagi ismi – **Nebxepura**) – Qadimgi Misrdagi Yangi podsholik davri (18-sulola)da mil. avv. taxm. 1400–1392-yillarda hukm surgan fir‘avn. Fir‘avn **Amenxotep IV** (**Exnaton**)ning **Nefertitidan** tug‘ilgan 3-qizi **Anxesenpaatonga** uylangan. Ehtimol Amenxotepning ukasi ham bo‘lgan. U Amenxaton IV vafot etgach, taxminan 12 yoshida **Tutanxaton** (**Atonning jonli obrazi degani**) nomi bilan taxtga o‘tirib, 19 yoshida vafot etgan. Hokimiyat amalda vazir **Eye** va boshqa amaldorlar qo‘lida bo‘lgan. Tutanxamon davrida Amenxotep IV ning diniy islohotlari bekor qilingan. Amon kultiga sajda qilish tiklangan, Tutanxamonning o‘zi Tutanxamon ismidan voz kechib, fir‘avn qarorgohini **Exetatondan Fivaga** qaytargan. Tutanxamonning shohlar vodiysidagi maqbarasi 1922-yilda ingliz arxeologi **Govard Karter** tomonidan topilgan. Maqbara qaroqchilar tomonidan talangan. Undan Tutanxamonning oltin sarkofagidan tashqari, yosh fir‘avn tirikligida yaxshi ko‘rgan san‘at asarlari va uning qurol, buyumlari: oltin niqobi, rafiqasi Anxesenpaatonning tasviri, 2 g‘ildirakli jang aravasi ustida aks ettirilgan fir‘avn haykalchasi, oltin, ganch, qora va qizil yog‘ochlardan ishlangan haykalchalar, o‘q-yoy, xanjar, quticha, o‘rindiqlik va boshqa buyumlar topilgan. Bu noyob san‘at asarlari jahonning ko‘pgina mamlakatlarida namoyish etilgan.

**TUTMOS I** – Qadimgi Misrdagi Yangi podsholik davrida hukmronlik qilgan Misr fir‘avni. Uning davrida Misr qo‘shinlari Suriya va Falastinga bostirib kirib, Frot daryosi sohillarigacha yetib borgan.

**TUTMOS III** – Qadimgi Misrdagi Yangi podsholik davrida hukmronlik qilgan Misr fir‘avni (1503–1491). Mil. avv. 1500-yillar atrofida katta yurishlar tashkillashtirishga muayassar bo‘lgan. O‘rtayer dengizining Sharqiy qismidagi mamlakatlarga 15 marta yurish qilgan. Uning qo‘shinlari mil. avv. XV asr boshlarida Suriya va Falastinga o‘rnashib olgan giksoslarni yengib, Suriya, Finikiya

va Falastinni ishg'ol qilgan, Frot daryosi bo'yidagi **Karxemish shahrini** ham bosib olgan. Misr qo'shinlarining kuch-qudratidan cho'chigan Ossuriya, Xett, Bobil va Mitanni podsholari o'zlarini Tutmos III ning "*birodarlarimiz*" deb o'z mustaqilliklarini saqlab qolganlar. Uning qo'shinlari janubdagi Kush, Nubiya va Punt kabi mamlakatlarga bir necha bor bostirib kirganlar. Uning davrida Misr Yaqin Sharqdagi qudratli davlat bo'lgan.

**TUSHRATTI** – Mitanni podshosi. Uning davrida Xett davlati kuchayib, Mitanni ustiga yurish qilgan. Xetlar bilan bo'lgan jangda Tushratti mag'lubiyatga uchragan. Shu paytda Tushrattiga saroyda fitna uyushtirilib, o'ldirilgan.

**U DI** – mil. avv. 140–87-yillarda hukmronlik qilgan Xan saltanati podshosi. U Di hukmronlik qilgan davr Xitoy tarixida "*Oltin asr*" nomi bilan mashhur. Uning davrida mahalliy aslzodalarning huquqlari cheklanib, saltanatda amaldorlarning nazorati kuchaytirilgan. Xunnlarga qarshi kurashda o'ziga ittifoqchilar topish uchun mil. avv. 138-yili **Chjan Syan** boshliq o'z elchilarini O'rta Osiyo va Sinszyanga yuborgan. Chjan Syan mil. avv. 138–125-yillarda Qang', Yuechji, Kushon, Dovon va Baqtriya hukmdorlari huzurida bo'lgan. Chjan Syan bu davlat rahbarlarini Xitoy bilan ittifoq bo'lib xunnlarga qarshi kurashga ko'ndira olmagan. Ammo u O'rta Osiyo va Hindiston xalqlari haqida juda ko'p ma'lumotlar to'plashga erishgan. Shu davrdan boshlab Xitoyning O'rta Osiyo bilan aloqasi kuchayib, "*Buyuk ipak yo'li*"ga asos solingan. U Di ko'p sonli otliq qo'shinga tayanib mil. avv. 127–119-yillardagi bo'lgan urushlarda xunnlarni yengib, dastlabki g'alabaga erishgan. U Di davrida Xan qo'shinlari janubi sharqiy Xitoydagi ko'p viloyatlarni bosib olganlar. Mil. avv. 130–111-yillar orasida U Di **varvarlar** ustiga ikki marta yurish qilgan. Xan qo'shinlari Hindistonga yo'l topa olmasalar ham Yanszi daryosining yuqori oqimidagi joylar podsholikka qo'shib olingan. Mil. avv. 109-yili Xan qo'shinlari Koreya yarimoroliga bostirib kirib **Choson mamlakatini** saltanat hududiga qo'shib olganlar. Mil. avv. 104–101-yili U Di qo'shinlari Dovon mamlakatiga o'tib, uning poytaxti **Ershini** qamal qilganlar. Xitoylar Dovondan "*qon bilan terlaydigan osmon otlarini*" olib qaytganlar. U Di davrida Xan podsholigi Sharqiy Osiyodagi eng kuchli davlatlardan biri bo'lib qolgan. Bu davrda Xitoyda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq ancha rivoj topgan, Xitoy savdogarlari Turon, Janubi Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va boshqa mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

**U-DIN** – Xitoydagi **Shan-In davlati** hukmdori. Uning davrida Shan-In davlati kuchayib, atrofdagi joylarni bosib oladi. U-Din vafotidan keyin Shan-In davlati kuchsizlana boshlaydi. Shan-Inga qaram bo'lgan qabilalar mustaqil bo'lib oladilar.

**UGRASEN NAND** – Nand podsholigiga asos solgan hukmdor. U mil. avv. 345-yilda Magadxa podshosini yengib taxtga o'tirgan. Ugrasen Nand aholining quyi tabaqasiga mansub bo'lib, uning davrida Shimoliy, Markaziy va hatto Janubiy Hindistonning katta qismi Nandlar davlati tarkibiga qo'shib olingan. Nand davlati Hindistondagi qudratli davlatga aylanadi, xo'jalik va madaniyat har tomonlama rivoj topadi.

**UR NAMNU** – Ur podshosi. U mamlakatni Zagros tog'lari orasidan ko'chib kelgan gutey qabilalaridan tozalab, Ur 3-sulolasiga asos solgan va **Shumer-Akkad podsholigini** qayta tiklagan. U asos solgan sulola Shumer-Akkad podsholigini 115 yil idora qilgan.

**URUNIMGIN** – mil. avv. 2318–2312-yillarda Shumerdagi **Lagash shahar-davlatida** hukmronlik qilgan hukmdor. U mamlakatda ba'zi islohotlar o'tkazib, aholiga ancha yengilliklar bergan. Shumerda uning mavqeyi kuchayib xo'jalik rivoj topgan.

**UTUXENGAL** – Uruk podshosi. U mil. avv. 2109-yilda guteylarni yengib, ularning podshosi **Tirikanni** asirga olgan.

**U-VAN** – chjou hukmdori. Podsho **Channing** o'g'li. U "**Jangovar hukmdor**" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. U-Van mil. avv. 1027-yilda katta qo'shin bilan Shan-In davlatiga bostirib kirgan. Shiddatli janglardan so'ng U-Van qo'shinlari podsho Shou Sin boshliq Shan-In qo'shinlarini tor-mor keltirgan. Bu mag'lubiyatdan so'ng Shan-In davlati qulagan va Xitoyda Chjou podsholigi tashkil topgan.

**VALTASAR** (oromiycha **Bel-tu-ushshur – Bel podshoga madadkor bo'lsin**) – Bobil podshosi **Nabonidning** o'g'li. Mil. avv. 539-yilda forslar Bobilni egallagan paytlarida halok bo'lgan. Bobilni **Kir II** qo'shinlari qamal qilgan paytda Valtasar bazm tashkil qilgani ("**Valtasar bazmi**") va uning halok bo'lajagi haqidagi bashorat (oromiycha "mene, mene, tekel, uparsin" so'zlarini devorda paydo bo'lishi) Bibliya ("Doniyol payg'ambar kitobi", 5,5 -28)da keltirilgan va u san'at asarlarida aks etgan. **Doniyol payg'ambar** bu so'zlarni quyidagicha sharhlagan: "... *Alloh sening saltanatingni nihoyasiga yetkazdi... sen tarozi pallasidasan va juda yengilsan; saltanating midiyaliklar va forslarga taqsimlab berildi*". O'sha kuni tundayoq Bobil taslim bo'lgan, Valtasar esa saroyga bostirib kirgan forslar tomonidan o'ldirilgan.

**VAN MAN** – milodiy 8-yildagi qo'zg'olon

natijasida hokimiyati tepasiga kelgan Xan hukmdori. Van Man o'z hukmronligi davrida mamlakatda bir qancha islohotlar o'tkazgan. Uning taklifiga ko'ra, yer egalari qarashli yerlar musodara qilinib "**podsho yeri**" deb e'lon qilingan. Yerlar qayta taqsim qilingan. Yer va qullarni sotish va sotib olish to'xtatilgan. U qullarni "**shaxsiy qaram kishilar**" deb atashni buyurgan. Bu Xitoyda qulchilikni bekor qilish haqidagi birinchi qadam edi. Van Man narx-navo, savdoni tartibga solish va soliqlarni kamaytirish haqida ham yaxshi fikrlar bildirgan. Ammo Van Man islohotlari aslzodalarning qarshiligiga uchrab amalga oshmagan. Uning hukmronligi davrida Xan saltanatida ommaviy norozilik harakatlari bo'lib o'tgan. Bunday qo'zg'olonlarning biri 18-yili Shandunda Fan Chun boshchiligida boshlangan. Qo'zg'olonchilar qoshlarini qizil rangga bo'yaganligi sababli bu harakat "**Qizil qoshlilar**" nomini olgan. Qo'zg'olonga nafaqat Van Man islohotidan norozi bo'lgan oddiy aholi balki, aslzodalar va katta yer egalari ham qo'shilganlar. 22-yilda Van Man qo'zg'olonchilar ustiga yuz ming kishilik qo'shin yuborgan. Hal qiluvchi jangda qo'zg'olonchilar podsho qo'shinlarini tor-mor etib, Xuanxe daryosining o'rta oqimidagi yerlarni ishg'ol qilganlar. Shu vaqtda mamlakat janubida ham qo'zg'olon boshlangan. Ular o'zlarini "**Yashil o'rmon qo'shinlari**" deb ataganlar. 23-yilda Van Man qo'shinlari bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bo'lgan shiddatli jangda podsho qo'shinlari tor-mor etilgan. Qo'zg'olonchilar Chanan shahrini ishg'ol qilib, Van Manni o'ldirganlar.

**VAN SHU XE** — Qadimgi Xitoylik mahhur tabib. U tabobatga oid "**Ney-Szi**", — "**Odam tabiati va hayoti**" asarini yozgan. U bemorlarni davolashda meva, o'simlik va hayvonlarning ayrim qismlaridan tayyorlangan sodda va murakkab dorilardan foydalangan.

**XAMMURAPI** — Bobil podshosi (mil. avv. 1792—1750). Uning davrida Bobil davlati ravnaq topgan. Amorey qabilasidan. Mohir siyosatchi va sarkarda bo'lgan. Xammurapi harbiy kuch va diplomatik yo'l bilan o'z podsholigining dastlabki 35 yilida Ossuriya, Mesopotamiyaning janubiy va o'rta qismini Bobilga tobe ettirgan. Xammurapi davrida tovar-pul munosabatlari rivojlangan, xususiylar quldorlar xo'jaligi kuchaygan, davlatning markazlashuvi va podsho hokimiyatining mustahkamlanishi jarayoni o'sgan; **Xammurapi qonunlari** quldorlik tuzumi huquqining xarakterli belgilarini o'zida aks ettirgan Qadimgi Sharq huquqining qimmatli yodgorligi sanaladi. Xammurapi qonunlari 247 moddadan iborat bo'lib, huquqning ayrim sohalariga tegishli sud protsessi, mulk huquqi, mulkning turli ko'rinishlari, yerga

egalik, nikoh-oila, meros huquqi va boshqa masalalarni o'z ichiga oladi. Xususiylar mulkchilikni, ayniqsa, quldorlikni qattiq himoya qilgan. Masalan, unda qulni o'g'irlaganlik, qochgan qulni yashirganlik uchun o'lim jazosi belgilangan. Xammurapi yangi yerlar ochtirib, ko'pgina kanal va suv inshootlari qurdirgan. Chunonchi, Shumer va Akkad aholisini suv bilan ta'minlab turuvchi *Nor-Xammurapi* kanali qazilgan.

**XATTUSILI I** — mil. avv. 1650—1620-yillarda hukmronlik qilgan Xett podshosi. Uning davrida Xett qo'shinlari Shimoliy Suriyadagi Xalpa va Bibl shaharlarini bosib oladi. Mamlakatda qullar va kambag'allar qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Xattusili I o'z kuyovi tomonidan o'ldirilgan.

**XATSHEPSUT (aynan — izzat-ikrom qilganlarning birinchisi)** — Misr malikasi (mil. avv. 1525—1503). Fir'avn *Tutmos II* (mil. avv. 1525—taxm. 1523) ning taxtdoshi, tutingan singlisi va xotini; so'ngra *Tutmos III* (mil. avv. 1525—1473; Xatshepsutning o'gay o'g'li)ning taxtdoshi. Amalda ularni hokimiyatdan chetlatib, o'zini rasman fir'avn deb e'lon qilgan (rassomlar Xatshepsutni soqolli etib tasvirlaganlar). Xatshepsut asosan, Amon ma'budi kohinlariga tayangan. Uning davrida Misr Falastin va Suriyadagi mulklaridan ajralgan, Puntga savdo ekspeditsiyasi uyushtirilgan; ibodatxonalar qurilishi avjga chiqqan. Xatshepsut vafotidan so'ng Tutmos III u haqidagi xotiralarni yo'qotish maqsadida barcha joylardan uning ismi va tasvirini o'chirib tashlashni buyurgan.

**XEFREN (yunoncha Chephren), Xafra** (misrcha) — Misrda **Qadimgi podsholik davrida** hukmronlik qilgan fir'avn (mil. avv. 27 asr oxiri — 26 asr boshi). 4-sulolaga mansub. **Xeopsning** o'g'li yoki ukasi. Gerodot uni Xeopsning despotik hokimiyatini davom ettiruvchi sifatida ta'riflaydi. **Gizdagi Xefren ehromi** kattaligi jihatidan 2-bo'lib (balandligi 143,5 m), qadimda yashirin yo'l orqali vodiydagi granit ibodatxona bilan bog'langan; ibodatxonadan Xefrenning dioritdan ishlangan 2 haykali topilgan (Qohiradagi Misr muzeyida saqlanadi). Ehrom yaqinida Xefren davrida qoyatoshlardan o'yib ishlangan sfinksning ulkan haykali bor.

**XEOPS (yunoncha Cheops), Xufu** (misrcha) — Misrda **Qadimgi podsholik davrida** hukmronlik qilgan fir'avn (mil. avv. 27 asr boshi). 4-sulolaga mansub. Xeops davriga oid yilnomaning qoldiqlari, shuningdek, Xeopsning Magxara vodiysi (Sinay yarimorolidagi mis va feruza konlari yaqinida joylashgan)da badaviylar ustidan qozongan g'alabasi aks etgan qoyatoshga o'yib ishlangan rasm saqlanib qolgan. Xeops ismi Nubiyaning shimolida, Abu

Simbaldan shimoli g'arbdagi tosh konlarida aniqlangan. Gerodot ehromlar bunyod etishning qadimgi misrcha an'anasini bayon qilgan ekan, Xeopsni Misrga kulfat keltirgan, xalqni o'zi uchun ishlashga majbur etgan mustabid hukmdor sifatida tasvirlaydi. **Giza** shahridagi **Xeops ehromi** — Misr ehromlari orasida eng katta bo'lib, balandligi 146,6 m ni tashkil etadi.

**XETTUSULI III** — Qadimgi Xett podshosi. U mil. avv. 1296–1280-yillarda Qadimgi Misr bilan qonli janglar olib borgan va mil. avv. 1280-yilda Misr fir'avni **Ramzes II** bilan tinchlik bitimini tuzgan.

**XIAN** — giksos podshosi. Uning davrda **Giksos podsholigi** kuchaygan. Palastinning katta qismi, Krit oroli bo'ysundirilgan. Misrda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik sezilarli darajada rivojlandi, savdo-sotiq ancha ravnaq topadi. Misr, Krit oroli, Suriya, Falastin, O'rtayer dengizining Sharqiy sohilidagi shahar davlatlar bilan qizg'in savdo ishlari olib boradi. Xian vafotidan so'ng giksoslar davlati zaiflashgan.

**XIRAM I** — mil. avv. 965–936-yillarda hukmronlik qilgan **Tir-Sidan podsholigi** hukmdori. Uning davrida Tir-Sidan podsholigi ravnaq topgan.

**XITA** — Elam hukmdori. U mil. avv. 2230-yilda Akkad podshosi **Naram-Suen** bilan do'stlik shartnomasini tuzgan. Xita "*Naram-Suenning dushmani mening dushmanim, Naram-Suenning do'sti esa mening do'stim*" deb e'lon qilgan.

**XOREMxEB** — Qadimgi Misrdagi Yangi podsholik davrida mil. avv. 1395–1338-yillarda hukmronlik qilgan fir'avni, 19-sulola asoschisi. Nomarxlarning zodagon urug'idan bo'lgan. U Aton e'tiqodini bekor qilib, **Amon e'tiqodini** tiklaydi va uning ruhoniylariga katta imtiyozlar beradi. Xoremxeb bir necha ma'muriy islohotlar o'tkazib qo'shinni qayta tuzadi, soliq tizimini tartibga keltiradi, o'g'irlik, askarlarning talonchiligi va amaldorlarning poraxo'rligiga qarshi va xo'jalikni yaxshilash uchun choralar ko'radi. Og'ir jinoyatchilarga qarshi o'lim jazosini joriy etadi. U tashqi siyosat masalasiga katta e'tibor bilan qaraydi. Suriya, Palastin va Nubiyaga qarshi bir necha bor harbiy yurishlar uyushtiradi.

**YARIMLIM** — Suriya yerlarida vujudga kelgan **Yamxad davlatining** hukmdori. **Sumuepaxning** o'g'li. Uning davrida Yamxad davlatining poytaxti **Xalap shahri** bo'lgan. U Bobil podshosi **Xammurapi** va Mari podshosi **Zimrilimga** zamondosh bo'lgan.

**YAXMOS I** — Qadimgi Misrdagi Yangi podsholik davri asoschisi (mil. avv. 1559–1534-yillar). Giksoslarga qarshi kurashni boshlab bergan **Kamesuning** ukasi; Yaxmos qo'shinlari giksoslarni Misrdan butunlay

uloqtirib tashlaydi. Palastinning janubidagi **Sharuxen qal'asini** 3 yillik qamaldan so'ng bosib olgan. Misr qo'shinlari Palastin, Finikiya va Suriyaning ko'p joylarini istilo qilganlar. Uning davrida Misr yuksak kuch-qudrat cho'qqisiga erishgan.

**YAXMOS II** — mil. avv. 569-yilda Misrda boshlangan g'alayonlar natijasida taxtga o'tirgan sarkarda. U Misrda mil. avv. 525-yilgacha hukmronlik qilgan. Yaxmos II Misr davlatini mustahkamlash uchun ko'p harakat qilgan, lekin u eroniylarni Misrga bostirib kirmasdan biroz oldinroq vafot etgan.

**YU-VAN** — mil. avv. 718–771-yillarda hukmronlik qilgan Chjou podshosi. Uning davrida chjoular yarim ko'chamanchi jun qabilalari bilan shiddatli janglar olib borganlar.

**ZARDUSHT** (Avesto tili bo'yicha **Zaratushtra**, yunoncha **Zoroastr**; mil. avv. 618-yil, Xorazm — mil. avv. 554-yil, Balx) — Zardushtiylik asoschisi; Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining birinchi voizi, shoir, din peshvosi; payg'ambar. Zardusht spitama urug'ining raisi **Purushasp** xonadonida tug'ilgan. Onasining nomi **Dug'dova**. Zardusht 15 yoshgacha zamonasining donishmandi **Barzin Kurus** qo'lida diniy qonunlar, tabiatshunoslik, voizlik, kalomi badi' fanlari bo'yicha ta'lim oladi, harbiy hunarlarni egallaydi. 16 yoshida Turon-Eron jangida ishtirok etadi. O'z qavm va qabilalari peshqadam vakillarining ko'pxudolik udumlariga qarshi harakatiga qo'shildi va 19 yoshida yakka tangrini kashf etish umidida **Sablon tog'iga** chiqib ketadi. 20 yil g'orda yashaydi. Rivoyatga ko'ra, Zardusht navro'z kunlarining birida kohinlar boshchiligida muqaddas ichimlik — "**Hum**" tayyorlashga kirishgan. Erta tongda u daryodan suv olish uchun qirg'oqqa tushgan. Suv olib bo'lgach, ko'ziga qirg'oqda turgan porloq xilqat — "**Vohumana**" ko'rinadi va uning sehrli nuriga ergashadi. Nihoyat, u ezgu va ulug' xudo **Ahuramazda** huzuriga boradi. Ahuramazda o'zining butun borliqni yaratgan xudo ekani haqidagi xabarni bildirish uchun odamlar orasidan Zardushtni tanlaganini aytadi (bu vaqtda u 40 yoshga to'lgan edi). Shu kundan boshlab Zardusht zardushtiylik dinining payg'ambariga aylanadi. "**Gatlar**" deb atalgan, qo'shiq qilib aytishga mo'ljallangan she'rlar yaratadi. So'ngra shahar-u qishloq kezib, yakka tangri g'oyasini targ'ib etadi, tarafdorlar orttiradi. Bundan xavfsiragan Turon shohi **Arjasp** Zardushtni dorga osish haqida farmon chiqaradi. Zardusht 300 maslakdoshi bilan Balxga, so'ngra Seyistonga qochib ketadi. Shimoliy Eronda zardushtiylik diniga asos soladi. Zardusht Eron shohi **Gushtasp** qabulida bo'lib, uni va donishmand vaziri **Jomaspni** yakka tangri Ahuramazda haqidagi ta'limotiga ishontiradi. Shundan so'ng, Gushtasp farmoniga ko'ra, Eron hududida

zardushtiylik dini joriy etiladi. Buni eshitgan Arjasp Gushtaspga Zardushtni hibsga olib huzuriga jo'natish haqida talabnoma yuboradi. Gushtasp bu talabni rad etadi. Arjasp 300 ming lashkar bilan Eronga hujum qilib, Balx, Seyiston, Behruz shaharlarini vayron qiladi. Gushtasping 4 o'g'lini jangda o'ldiradi, keksayib qolgan otasi **Luhraspni** qatl etib, Gushtasping o'g'li **Isfandiyor**ni zindonband qilib, ko'p o'lja bilan qaytadi. Arjaspning ikkinchi hujumi paytida zindondan qochgan Isfandiyor mudofaa janglarini yaxshi uyushtirib, g'animlarni tor-mor etadi. Natijada turonliklar ham zardushtiylik dinini qabul qiladilar. Gushtasp farmoniga ko'ra, shahar va qishloqlarda yangi ibodatxona — **otashkadalar** qurila boshlanadi. Zardusht Balxda qurilgan shunday otashkadaning ochilishida ishtirok etadi va ibodat paytida ko'pxudolik tarafdori **Bratarvaxsh** tomonidan pichoqlab o'ldiriladi. Zardushtning **Istavatr**, **Uruvatr**, **Puruchitra** ismli o'g'illari, **Frini**, **Trini**, **Puruchisto** ismli qizlari bo'lgan. Zardusht o'z ta'limotini — "**Avesto**" ("**Qat'iy qonunlar**")da bayon etadi. Tilshunoslik ma'lumotlari va kitob mazmuni Avestoning faqat ayrim qismi taxminan bir vaqtda yozilganini ko'rsatadi.

**ZIMRILIM** — Mari podshosi. Qadimgi Bobil podshosi Xammurapi Shimoliy Mesopotamiya shaharlarini bosib olishda u bilan ittifoq bo'lgan. Ko'p o'tmay **Xammurapi** mil. avv. 1759-yilda sobiq ittifoqchisi Zimrilim qo'shinlarini yengib Marini bosib olgan. Zimrilim Xammurapiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Xammurapi Mari ustiga qo'shin tortib, uni ikkinchi marta ishg'ol qilgan. Mari devori buzib tashlanib, hokim saroyi yoqib yuborilgan.

**SHABAKA** — mil. avv. 740–720-yillarda hukmronlik qilgan Efiopiya (Kush) hukmdori. Uning davrida Efiop qo'shinlari Misrni bosib oladi. Efiopiya va Misr bitta davlat qilib birlashtiriladi. Shu tariqa Misrda Efiopiya sulolasi hukmronlik qiladi. Bu Misr tarixidagi 25-sulola edi. Bu sulola mil. avv. 715–664 yillarda hukmronlik qiladi. Shabaka davrida mamlakatda tinchlik o'rnatilib, xo'jalik va madaniyat ancha rivoj topgan.

**SHAMPOLON Jan Fransua (Champollion) (1790-yil 23-dekabr — 1832-yil 9-mart)** — fransuz misrshunosi, **misrshunoslik**ning asoschisi. **Rozett toshidagi** 3 til: *yunon*, *Misr iyeroglifi*, misr yozuvining so'nggi shakllaridan, *tez yozuv* deb atalgan qisqartma iyerogliflarda yozilgan yozuvni tadqiq qilib, qadimgi Misr iyeroglif yozuvini o'qish uslubini yaratgan. Qadimgi Misr tili grammatikasining ilk muallifi. 1822-yilda F. Shampolon Misr iyerogliflarini o'qish yo'lini topgan. 1799-yilda **general Napoleon Bonapart** Misrga qilgan yurish vaqtida topilgan Rozett toshiga yozilgan yozuv Misr yozuvlarini o'qib chiqish uchun dastlabki asos bo'lgan. Bu yozuvda Makedoniyadan

chiqqan **Ptolemey** degan podsho tilga olingan. Ptolemey farmonlarini o'z fuqarolari uchun 2 tilda chiqargan. Fransua Shampolon bir qancha aloqatlarini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Dastlab bu ish toshlardagi yozuvlarni o'qib chiqarish bilan cheklangan. Keyinchalik papirusdagi tekstlarni o'qib chiqarishga kirishilgan. Natijada tarixchilar misrlilarning mil. avv. 3500-yilgacha bo'lgan hayoti, urf-odatini va diniy marosimlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

**SHAN-YAN** — Qadimgi Xitoydagi Sin podsholigi hukmdori **Sao-chunning** amaldori. Shan-Yan podsho Sao-chun hukmronligi davri (mil. avv. 361–338)da mamlakatni boshqarish va xo'jalik sohasida bir necha islohotlar loyihasini ishlab chiqqan. Islohotga ko'ra yerni istagancha xususiy mulk qilib olish mumkin bo'lgan. Yerni erkin sotish va sotib olishga ruxsat berilgan. Ilgari hosildan olinadigan soliq yer solig'i bilan almashtirilgan. Davlatni boshqarishda ham qator ishlar qilingan. Butun podsholik 36 viloyatga bo'linib, uni podsho tayin etgan yangi amaldorlar idora qilganlar. Eski amaldorlar ishlaridan chetlashtirilgan va mamlakatda kuchli nazorat o'rnatilgan. Podsholik maktab va maorif ishlariga katta e'tibor berib bu sohada ham islohotlar o'tkazilgan. Sin qo'shinlari qayta tuzilib mustahkamlangan. Islohot natijalari podsho hokimiyatini ancha kuchaytirgan. Ammo Shan-Yan islohoti eski zodagon, xalq ommasi, konfutsiyehi oqim namoyandalari va qullarning qarshiligiga uchragan. Podsho Sao-chun vafotidan keyin Shan-Yan qatl etilgan.

**SHARKALISHARRI** — Akkad podsholigi hukmdori (mil. avv. 2200–2176-yillar). Uning davrida Akkad podsholigining turli burchaklarida isyonlar kuchaygan. Mesopotamiyaga shimoli g'arbdan amoriy, janubi sharqdan elamliliklar bostirib kirganlar. Sharkalisharri dushman qo'shinlari ustidan g'olib chiqib, ularni mamlakatdan haydab yuborgan.

**SHATTIVAS** — Mitanni podshosi. **Tushratt**ning o'g'li. Shattivasni Xett podshosi **Suppilulium** taxtga o'tqazgan va unga o'z qizini nikohlab bergan. Oqibatda Mitanni davlati xettlarga qaram bo'lib qolgan.

**SHAUSHSHATAR** — Mitanni podshosi. U Ossuriya (Ashshur) qo'shinlarini tor-mor etib, podsho saroyining oltin va kumushdan yasalgan darvozasini o'z yurtiga olib ketgan (bu darvoza 100 yildan so'ng Ashshurga olib kelingan).

**SHESHONK I** — mil. avv. 950-yilda Shimoliy Misrni egallab olgan liviyalik hukmdor. U Misrda 20-sulolaga asos solgan. Liviya sulolasi Misrda mil. avv. 950–730-yillarda hukmronlik qilgan. U Bubastis shahrini o'z davlatining poytaxti qilib tanlagan. Shuning uchun Sheshonk I boshliq liviyaliklar asos

solgan sulola *bubastislar sulolasi* deb ham ataladi. Mil. avv. 930-yilda Falastinga bostirib kirib, shahar va qishloqlarni talagan, ularni vayron qilgan. Nubiyaga ham qarshi talonchilik yurishlarini olib borib, u yerdan ko'plab harbiy asir va katta o'ljalari bilan Misrga qaytgan. Uning davrida xo'jalik va qurilish ishlari jonlangan.

**SHOPUR I** – Sosoniylar davlatida 243–273-yillarda hukmronlik qilgan shoh. *Ardasher I* ning o'g'li. Uning hukmdorligidan boshlab sosoniy taxtiga chiqqan sulola vakillari “*shahanshoh*” unvoniga ega bo'ladilar. Sosoniylar davlati esa *Eronshahr – oriylar podsholigi* yoki *eroniylar shohligi* deb nomlangan. Shopur I davrida Eron qo'shinlari Rim qo'shinlari bilan janglar olib borib, ularni bir necha bor mag'lubiyatga uchratganlar. Bu urushlarning birida Rim imperatori *Gordian* halok bo'lib, juda ko'p rimlik aslzodalar va askarlar asir tushganlar. Ular Shopur I ga 500 ming dinor aqcha to'lashga majbur bo'lganlar. 244–251-yillar orasida bo'lib o'tgan urushlar natijasida Shopur I qo'shinlari Janubiy Armaniston va Qadimgi Ossuriyani bosib olganlar. Uning qo'shinlari Suriyada Rim qo'shinlari bilan to'qnashib, ularni tor-mor etadi. Shimoliy Mesopotamiyaning Xarran va Edessa shaharlari yonida bo'lgan jangda ham sosoniylar qo'shinlari rimliklar ustidan g'alaba qiladilar. Edessa yonidagi jangda Rim imperatori *Valerian*, ko'pgina senatorlar va aslzodalar asirga tushadi. Rim bilan olib borilgan janglar natijasida Shopur I qo'shinlari Suriya va Frot daryosining yuqori oqimidagi 36 qal'a va shaharni ishg'ol qiladi. Rim imperiyasi hech qachon bunday katta mag'lubiyatga uchrarmagan edi.

**SHOU SIN** – Qadimgi Xitoydagi Shan-In davlatining so'nggi hukmdori. Shou Sin mil. avv. 1027-yilda chjou qabilalari hukmdori *U-Van* bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragan va o'zini o'zi o'ldirgan.

**SHULGI** – Shumer-Akkad podsholigi hukmdori (mil. avv. 2109–2046). Shulgi Suriya, Falastin, Elam, Kichik Osiyo va boshqa o'lkalarni Ur podsholigi bo'ysundirgan. Shulgi o'zini “*to'rt iqlim podshosi*” deb atagan. Uning davrida Mesopotamiyada dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq rivoj topgan. Qulchilik ham kuchaygan.

**SHUTRUK-NAXUNTA I** – Elam shohi. U mil. avv. 1180-yilda Bobil qo'shinlarini Elamdan quvib chiqargan. U Bobilga bostirib kirib bir qancha shaharlarni bosib olgan. Shtruk-Naxunta I katta o'ljalari qatori *Xammurapi qonunlari* yozilgan toshni ham *Suzaga* olib kelgan.

**CHAN** – mil. avv. XII asr boshlarida hukmronlik qilgan *chjou qabilalari* hukmdori. U “*Ma'rifatparvar hukmdor*” nomi bilan ham mashhur bo'lgan.

**CHANDRAGUPTA** – Qadimgi Hindistondagi *Magadxa davlati* podshosi, *Mauriyalar sulolasi* asoschisi (mil. avv. 317–298-yillar). Yoshligida nandlar (Magadxa podsholari) saroyida xizmat qilgan, keyinchalik ular bilan taxtga egalik qilish uchun kurash boshlagan, mag'lubiyatga uchrab mamlakatning shimoli g'arbga ketgan. U yerda Hindistonga bostirib kirgan *Aleksandr* (Iskandar) qo'shiniga qo'shilgan va uni *nandlarga* qarshi gij-gijlagan. Aleksandr Hindistondan ketgach, Chandragupta mil. avv. 318-yildan boshlab yunon-makedon qo'shinlarini mamlakatdan butunlay quvib chiqarish uchun boshlangan kurashga rahbarlik qilgan. Bunda ancha yutuqlarga erishgan Chandragupta Magadxa uchun kurashni qayta boshlagan, *Dxan Nanduni* taxtdan ag'darib hokimiyatni qo'lga olgan. Shimoliy Hindistonni tobe etib *Mauriyalar imperiyasiga* asos solgan. Mil. avv. 305-yilda *Salavka I Nikator* bosqinini qaytargan, u bilan tuzilgan sulhga ko'ra, Chandragupta 500 ta fil evaziga Hind daryosi g'arbidagi katta hudud (hozirgi Balujiston va Afg'onistonning bir qismi)ni olgan va Salavkaning qiziga uylangan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Chandragupta mil. avv. 293-yilda *jaynizmni* qabul qilib, toj-u taxtdan voz kechib rohiblikni qabul qilgan.

**CHANDRAGUPTA I** – milodiy 320–335-yillarda hukmronlik qilgan *Magadxa davlati* hukmdori. Guptalar sulolasidan. Uning davrida Magadxa davlati ancha kuchayib, Himolay tog'laridan Madras shahri oralig'idagi yerlarni bosib oladi.

**CHANDRAGUPTA II** – 380–415-yillarda hukmronlik qilgan *Magadxa davlati* hukmdori. Guptalar sulolasidan. Uning davrida Guptalar sulolasi davlati gullab-yashnagan. Chandragupta II podsholigi davrida Hindistonning yerlari Panjob, Hind vohasi hisobiga kengaygan. Hindistonda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa savdo-sotiq nihoyatda rivoj topadi. Chandragupta II podsholik qilgan yillar Hindiston tarixida “*Guptalarning oltin asri*” deb madh etilgan.

**CHEN TAN** – mil. avv. XVIII asrda Xitoyda davlat tuzib, yangi sulolaga asos solgan hukmdor. Uni o'z qabilasi Shan nomi bilan ataydi.

**CHEN SHEN** – Chu podsholigida “*Ulug' Chu qayta tiklanmog'i kerak*” shiori ostida ko'tarilgan qo'zg'olon rahbarlaridan biri. Chen shahri qo'zg'olonchilar tomonidan bosib olingach, Chen Shen jamoa oqsoqollari tomonidan podsho qilib ko'tarilgan. Biroq, ko'p o'tmay Chen Shen janglarning birida halok bo'lgan.

**CHJAN SYAN** (? – mil. avv. taxm. 103) – xitoylik diplomat va sayyoh. Mil. avv. 138-yil imperator *U-Di* tomonidan g'arbga, yuechjilar bilan

hunnularga qarshi ittifoq tuzish maqsadida yuborilgan. Hunnular qo'liga tushib qolib, faqat 10 yil o'tgachgina qochishga muvaffaq bo'lib sayohatini davom ettirgan. Qaytishda yana hunnular qo'liga tushgan, lekin tez orada qochishga erishgan. Mil. avv. 115-yilda elchilarga bosh bo'lib Xitoy chegaralaridan g'arbdagi ko'chmanchi usun qabilasi hukmdori (gunmo) huzuriga jo'natilgan. Chjan Syan uni Xitoy bilan ittifoq tuzishga ko'ndirgan. Chjan Syan tomonidan Xitoydan O'rta Osiyoga bosib o'tilgan yo'l keyinchalik Yevropada **Buyuk ipak yo'li** nomini olgan. G'arbiy o'lkalar – O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston Chjan Syan sayohatigacha xitoyliklarga noma'lum bo'lib kelgan. Xitoyning G'arbiy o'lka bilan diplomatik aloqalar o'rnatishiga asosiy sabab mil. avv. II asrning 1-yarmida hunnular bilan yuechjilar (toxarlar) o'rtasidagi urush bo'lgan. Bu urushda yuechjilar yengilib, ularning aksari qismi hozirgi Gansu viloyatidan Yettisuvga ko'chgan, biroq bu yerda ham hunnular ularga tinchlik bermay quvg'in qilganlar. Ular O'rta Osiyoning janubiga, Baqtriyaga ketishga majbur bo'lishgan, u yerda **Yunon-Baqtriya podsholigini** vayron etishda boshqa qabilalar bilan ishtirok etishgan. Keyinchalik yuechjilarning avlodlari **Kushon podsholigini** barpo etishgan. Yuechjilar hunnularga qarshi kurashda o'zlariga ittifoqchi izlashgan. Xitoyning Xan sulolasi ham hunnularga qarshi kurash olib bormoqda edi. Chjan Syan g'arb safarida unga hun yo'l boshlovchisi Tani Xunuganfu hamrohlik qilgan. Biroq yo'lda u hunnular tomonidan qo'lga olinib ularning hukmdori huzuriga keltirilgan. Chjan Syanni hunnu qizga uylantirganlar, undan bir o'g'il farzand ko'rgan. Lekin qulay fursat kelishi bilan u hamrohlari bilan asirlikdan qochib, sayohatini davom ettirgan. U qadimgi Farg'ona – Dovonga kelgan. Dovon hokimi Xitoy bilan diplomatik aloqalar o'rnatish niyati borligini aytgan. Chjan Syan Dovon aholisi mashg'uloti haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Imperator U-Diga, ayniqsa, Dovon tulporlari yoqib

qolgan. Chjan Syan Dovondan Kangyuyga (*Qang' davlati*) o'tgan, so'ng janubga Daxya (Baqtriya)ga borgan. U yerda bir yil turib orqaga qaytgan, lekin yo'lda yana hunnular qo'liga tushib qolgan. Biroq 1 yildan keyin, hunnular o'rdasidagi ichki nizolardan foydalanib Xitoyga qochib borishga muvaffaq bo'lgan. Uning G'arbiy o'lkalarga qilgan 1-sayohati 13 yil davom etgan. U bilan yo'lga chiqqan 100 ta hamrohidan atigi 2 kishi – o'zi va yo'l boshlovchisi sog'-salomat qaytib kelishgan. Xitoyga qaytib kelgach, Chjan Syan imperatorga batafsil hisobot tayyorlagan. O'z hisobotida O'rta Osiyodagi davlatlar, mulklar – Davan, Usun, Kangyuy, Daxya, Yantsay, Katta Yuechji haqida ma'lumot keltirgan.

**CHJAN SZYAO** – 184-yilda Xan saltanatiga qarshi ko'tarilgan **“Sariq ro'mollilar” qo'zg'oloni** rahbari. U mashhur tabib bo'lib, zamondoshlari uni **“oqil va sahiy muallim”** deb atashgan. Chjan Szyao xalqqa murojaat qilib, podsholikni ag'darib tashlashga va farovon hayot qurishga da'vat etgan. Chjan Szyao boshliq qo'zg'olonchilar o'z raqiblaridan ajralib turish uchun sariq ro'mol o'rab jangga kirganlar. **Sariq rang** xitoyliklarda **farovon hayot ramzi** ham bo'lgan. Shu tufayli bu harakat **“Sariq ro'mollilar” qo'zg'oloni** nomi bilan mashhur bo'lgan. Chjan Szyao qo'shini 300 ming kishidan iborat bo'lib, 36 qismga bo'lingan. Qo'zg'olonni bostirish uchun 40 mingdan ortiq hukumat qo'shinlari yuborilgan. 184–185-yillardagi janglar natijasida Chjan Szyao halok bo'lgan, qo'zg'olonchilar esa mag'lubiyatga uchragan.

**CHJAN XEN** – milodning II asrida yashab ijod etgan xitoylik astronom olim. Uning astronomiya va matematikaga oid asarida 124 yulduz turkumi, 2500 yulduzlarning nomi eslatib o'tilgan.

**CHJI-CHJI** – shimoliy xunlar boshlig'i. Uning boshchiligida shimoliy xunlar g'arb tomon siljiganlar. Lekin xitoy qo'shinlari ularni ta'qib qilib borib tormor etganlar.



## ATAMA VA TUSHUNCHALAR

**ADITINANI** – qadimgi hind diniy e'tiqodida hosildorlik xudosi. U “*Hammaning onasi*”, “*Hamma narsaning mohiyati*”, “*abadiyat*”, “*Yaratilgan va yaratuvchi*” kabi nomlar bilan ulug'langan.

**AGNI** – qadimgi hind diniy e'tiqodida olov xudosi.

**AGUSHAYYA HAQIDAGI DOSTON** – Qadimgi Mesopotamiya adiblari tomonidan yaratilgan doston. Dostonda ma'budalar *Ishtar* bilan *Saltu* o'rtasidagi mojaro hikoya qilinadi. Donishmandlik xudosi *Ea* bu ikki ma'budani *Agushayya* iltimosiga ko'ra yarashtirib qo'yadi. Doston *Agushayya*, *Ishtar* va *Saltularni* maqtab, ular o'rtasida ittifoq hukm surishini kuylash bilan tugaydi.

**AHAMONIYLAR** – Ahamoniylar davlatini boshqargan qadimgi fors podshohlari sulolasi (mil. avv. 558–330-yillar). Ahamoniylar sulolasi qadimgi fors urug'idan boshlanib, bu urug' asoschisi *Axomandir*. Qadimgi Sharqning ko'pgina mamlakatlarini bosib olgan *Kir II* Ahamoniylar saltanatini barpo etgan. Ahamoniylarning katta tarmog'i *Kambis II* vafoti (522-yil) bilan tugagan. Kichik tarmoqqa *Doro I* asos solgan. Ahamoniylar sulolasi: *Kir II* (550–530) (Fors va Anshanda 558-yildan hokimlik qilgan), *Kambis II* (530–522), *Doro I* (522–486), *Kserks I* (486–465), *Artakserks I* (465–424), *Kserks II* (424), *Sug'diyon* yoxud *Sekudian* (424–423), *Doro II* (423–404), *Artakserks II* (404–358), *Artakserks III* (358–338), *Arses* (338–336), *Doro III* (336–330).

**AHURAMAZDA (Hurmuzd)** – Zardushtiylikning eng muqqadas sanalgan ilohalaridan. Ezgulik xudosi, buyuk va mutafakkir iloh, Zardushtning homiysi, nurdan yaratilgan. Ahuramazda yorug'lik, obodonlik, salomatlik, tinchlik, farovonlik kabi barcha ezguliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi deb tushunilgan. Unga qarshi zulmat-qorong'ilik, ochlik, vabo, ayoz, jang, zaharli jonivorlar kabi barcha yovuzliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi Ahriman bo'lib, doimo Ahuramazda bilan kurashadi. Kurash Ahuramazdaning g'alabasi bilan tugaydi. Bu dualistik qarash zardushtiylik ta'limotining asosi Avesto uchun zamin bo'lgan. Uning keyingi davrlarida yozilgan sahifalarida Ahuramazda yakka xudo darajasiga ko'tarilib, tafhid ta'limotining asosini tashkil etgan. Turon va Eron xalqlarining qadimgi ilk asarlarida *Hurmuzd* – ezgulik uchun kurashuvchi, Axriman – yovuz timsoli tarzida tasvirlanadi.

**AKKAD TILI (qadimgi shahar Akkad nomidan)** – mashhur som tillarining eng qadimgisi. Ikki dialektga – bobil va ossuriy dialektlariga ega, shu bois

ko'pincha u bobil-ossuriy (yoki ossuriy-bobil) tili deb ham ataladi. Akkad tilining ham boshqa (boshqa som tillari kabi) o'ziga xos xususiyati undagi so'zlar o'zagi undoshlardan (ko'pincha 3 undoshdan) tashkil topishidir. Unlilar hamda o'zakka tegishli bo'lmagan ba'zi undoshlar grammatik munosabatni yuzaga keltiradi va o'zak umumiy ma'nosini muayyanlashtiradi. Akkad tilining yozuvi shumer sillaboidografik mixxatiga asoslangan bo'lib, belgilar ko'p tovushli xususiyatga ega. Ular soni 500 dan oshib ketadi. Akkad tili mixxat yozuvini 1857-yilga kelib to'liq o'qishga muvaffaq bo'lingan.

**AMON** – xuddi *Ra* kabi, qadimgi Misr afsonasida – quyosh xudosi qirg'iy boshli qiyofada tasvirlangan bo'lib, u o'z panohida asrovchi tangri hisoblangan. Amon umumiy Misr rasmiy xudosi aylangan. Misrning ba'zi yerlarida Amon xotinini ilohi ma'buda *Amaunyat* desalar, boshqa yerlarida ilohi *Mut* deganlar, ularning o'g'illari – xudo *Xoxu* deb atalgan. Amonda qo'y va g'oz muqaddas hayvon hisoblangan. Ancha so'nggi davrlarga oid yozuvlarda – Amon o'zida butun tabiatni gavdalanitiradi, tabiatdagi turli ofatlar, uning namoyon bo'lishi, deb hisoblangan.

**AMON-RA** – Qadimgi Misr xudolaridan biri. Amon-Raning e'tiborini orttirish uchun uni qadimgi Quyosh xudosi *Ra* bilan tenglashtirilgan hamda unga xudolar podshosi fir'avning otasi sifatida e'tiqod qilingan. Dastavval Amon-Ra ikkita xudo bo'lgan: Fiva shahri homiysi Amon va Quyosh xudosi *Ra*, so'ngra ikkalasi yagona xudoga birlashgan. O'rta podsholik davrida Amon-Raga sig'inish rasmiy tus olgan. Mil. avv. XVI–XIII asrlarda podshohlar urushlar olib borgan vaqtlarida Amon – *Ra* bosib oluvchilarning homiysi va g'alaba keltiruvchi tangri sifatida mashhur bo'lgan. Harbiy o'ljalarning talaygina qismi Amon-Ra ehromiga keltirib berilgan. Shu tufayli ruhaniylarning boyliklari va nufuzi osha borgan.

**AMORIYLAR (Amurru)** – Qadimgi Arabistondan chiqqan somiy qabilalar. Mil. avv. 24–16 asrlarda Suriya dashtlarida yashagan. Amoriylar mil. avv. 2024-yilda elamiylar bilan birgalikda Urning III sulolasi davlatini tor-mor keltirib, mil. avv. 1894-yilda Bobilni bosib olib tarixda muhim o'rin tutgan podsholikka asos solgan. Keyinchalik Ikki daryo oralig'i, Suriya va Falastinning mahalliy aholisi bilan aralashib ketgan. Mil. avv. 1-mingyillikdan Amoriylar yerlari *Suriya* deb atala boshlagan.

**AMULET** – qadimgi misrliklar fikricha, mabodo inson o'zi bilan birga olib yursa, yovuz ruhlar va balo-ofatlardan himoya qiluvchi kichik buyumlar; tumor.

**AN** – Mesopotamiyada osmon xudosi.

**ANAXITA** – zardushtiylik dinida obodonlik va farovonlik ma’budasi. Qadimgi dehqonlar yog’in-garchilik va hosildorlikni Anaxitaning mo’jizasi deb hisoblashgan. Qadimgi haykaltaroshlar Anaxitani bir qo’lida anor yoki olma ushlab turgan ayol shaklida tasvirlaganlar. Arxeologik qazishmalarda Anaxitaning sopoldan yasalgan haykalchalari ham uchrab turadi.

**ANIBUS** – Qadimgi Misrda odam tanali, qora boshli shoqol qiyofasida tasvirlangan marhumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar posboni.

**AHRIMAN** (yunon adabiyotlarida **Areimanios**, **Ariman**) – zardushtiylikda yovuz kuchlar, zulmat va o’lim boshlig’i, Ahuramazdaning dushmani, inson ruhiyatidagi salbiy hissiyotlarning timsoli. Avesto kitobining “*Gatlar*” qismida Ahriman nomi umuman eslatilmaydi: ularda yovuzlik ruhi va yaxshilik ruhi – tegishli baddorliklar va odilliklar yo’llarini tanlagan egizaklardir. “*Kichik Avesto*”da Ahriman – yovuz ruhlarni boshlab yuradigan “jaholat hokimi”dir; u har xil gunohlar, sehr-u jodular qiladi, yomonlik timsoli sifatida sovuqlik va qor-u muzlikni, o’lim, kasallik, keksalik, zaharli hasharotlarni yuboradi, birinchi inson *Govamardni* halok etadi. Odatda u, Ahuramazdaga qarshi o’z qo’l ostidagi iblisona kuchlar – devlar yordamida kurashadi. Uning zo’ri bilan dunyo bir-biriga qarama-qarshi 2 taraf – yaxshilik va yovuzlik tarafiga bo’linib qoladi. Ahriman Avestoning “*Dinkart*” va “*Zotsepro’m*” degan qismlaridagi rivoyatlarda tilga olinadi. Umuman Ahrimanning yaxshilik va yorug’likka qarshi kurashi abadiy davom etadi. Lekin Ahriman Ahuramazdani yengishga o’z qo’l ostidagi g’olib chiqadi.

**APIS** – Memfis shahri xudosi *Ptaxning* yer yuzidagi qiyofasi. U peshonasi va belida oq qashqasi bo’lgan qora ho’kiz siymosida tasavvur etilgan.

**ARD** – Qadimgi Urartuda quyosh xudosi.

**ARSHAKIYLAR** – Parfiya podsholari sulolasi (mil. avv. 250–mil. 224–yillar). Sulolaga Kaspiy dengizining janubi sharqiy qismida yashagan parn qabilasining boshlig’i Arshak asos solgan. Beruniy Arshakiylarni Xorazmning mifologik qahramoni Siyovushdan tarqagan deb hisoblaydi. Bu sulolaning mashhur vakillari: *Arshak I* (250–248/247), *Tiridat I* (248/247–211), *Artabon I* (211–191), *Prianat* (191–176), *Fraat I* (175–170), *Mitridat I* (170–138/137), *Fraat II* (138/137–128), *Artabon II* (128–124/123), *Mitridat II* (123–88/87), *Fraat III* (70/69–58/57), *Orod II* (57–37/36), *Fraat V* (mil. avv. 2–mil. 4), *Vonon I* (7/8–12), *Artabon III* (12–38), *Gotarz II* (38–51), *Vologes I* (51/52–79/80), *Mitridat IV* (128/129–147), *Vologes III* (148–192),

*Vologes IV* (192–207/208), *Vologes V* (207/208–222), *Artabon V* (209–224).

**ASTRON** – lotincha so’z bo’lib, “yulduz” degan ma’noni anglatadi.

**ATON (“Quyosh gardishi”)** – Qadimgi Misr afsonalarida Quyosh xudosi. Quyosh gardishi ko’rinishida tasvirlangan. Fir’avn *Amenxotep IV* hukmronligi davrida (mil. avv. 1419–1400) Aton Misrning yagona oliy tangri deb e’lon qilinib, boshqa xudolarga sig’inish man etilgan. Axetaton shahrida bu xudo sharafiga katta ibodatxona qurilgan.

**AVESTO** (*Ovasto*; parfiyoncha **apastak** – *matn*; ko’pincha “*Zend Avesto*”, ya’ni “*tafsir qilingan matn*” deb ataladi) – Zardushtiylikning muqaddas kitoblari to’plami. Ko’pchilik tadqiqotchilar fikriga ko’ra, Avesto O’rta Osiyoda, xususan Xorazmda mil. avv. 1–mingyillikning 1-yarmida vujudga kelgan. Avestoda keltirilgan geografik ma’lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, xudo yaratgan o’lkalar sanab o’tilar ekan, boyligi va ko’rkamligi jihatidan Qadimgi *Xorazm*, *Gava* (Sug’d), *Marg’iyona* (Marv), *Baqtriya* (Balx) birinchi bo’lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vorukasha yoxud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. Avestodagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo’lgan. Avesto uzoq vaqt mobaynida shakllangan. Unda keltirilgan ma’lumotlarning eng qadimgi qismlari mil. avv. 2–mingyillik oxiri – 1–mingyillik boshiga oid bo’lib, og’zaki tarzda avloddan avlodga o’tib kelgan. Keyingi asrlarda Avesto tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar qo’shib borgan. Avestoni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Dastlabki yozma nusxasi esa 12 ming mol terisiga bitilgan deb rivoyat qilinadi. U *Persipolda* saqlangan. *Aleksandr* (Makedoniyalik Iskandar) Eronni zabt etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan. Arshakiylardan *Bologes I* davri (51–78)da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. *Sosoniylar* davri (III–VII asrlar)da yaxlit kitob holiga keltirilgan. Avesto 21 nask (qisim)dan iborat bo’lgan. Avesto hajmi katta kitob bo’lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli – “*Kichik Avesto*” (Xurdak Avesto) yaratilgan. Arablar Eronni fath etgach (VII asr) zardushtiy ruhoniylarining bir qismi Hindistonga ko’chib o’tgan. Ularning avlodlari (*parslar*) Bombay shahrida o’z jamoalarida hozirgacha Avestoning asl nusxasini saqlab keladi. Fransuz tadqiqotchisi *Anketil Dyuperron* zardushtiylik jamoasida yashab, Avesto tilini va yozuvini o’rganib, uni tarjima qilib nashr etgan (1771-yil). Avestoning bu nusxasi 27 jildidan iborat bo’lib, asarning yettidan bir qismidir. U *Yasna*, *Visparat*, *Vendidat*, *Gatlar* va

*Yashlar* nomi bilan yuritiladigan kitoblarni o'z ichiga oladi. "Avesto" O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatlarini o'rganishda muhim va yagona manba. O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan UNESCO bosh konferensiyasi 30-sessiyasi "Avesto" yaratilganing 2700 yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi (1999-yilning noyabr oyida). "Avesto"ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o'rnini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi qarordan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror e'lon qilib (2000-yilning 29-martida), "Avesto"ning 2700 yilligini nishonlash tadbirlarini belgiladi. Unga ko'ra 2001-yilning oktabr oyida O'zbekistonda xalqaro ilmiy konferensiya va tantanali bayram tadbirlari o'tkazildi.

**BAMBUK** – Qadimgi Xitoyda iyeroglif yozuvini dastlab shu o'simlikka yozishgan. Xitoyliklar bambukni uzun-uzun taxtachalarga bo'laklab, uchi o'tkirlangan yog'och tayoqcha bilan ularga iyerogliflarni daraxt sharbatidan tayyorlangan siyoh bilan yozishgan. Ingichka va uzun taxtachalarga faqat ustun tariqasida yozish imkoni bo'lgan, shuning uchun ham yuqoridan pastga qarab yozish shakli keyinchalik saqlanib qoldi. Bambuk taxtachalarning yuqori qismida teshik parmalanib, ularni bir dasta qilib bog'lashgan. Bambuk taxtachalar bog'lami ayni mahalda eng qadimgi xitoy kitoblari ham edi. Faqatgina bundan 2,5 ming yil muqaddam bambuk o'rnida ipakdan foydalanishga o'tildi.

**BAQTRIYALIKLAR** – Qadimgi Baktريا davlatida istiqomat qilgan aholi bo'lib, ular mil. avv. VII–VI asrlarda Surxon vohasi, Afg'oniston shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida yashaganlar. Ularning yurti Avestoda *Baxdi*, Behistun bitiklarida *Baktrish*, yunon-rim mualliflari *Baktiana* deb yuritilgan.

**BASTET** – Qadimgi Misrda xotinlar va ularning chiroyi himoyachisi, qora mushuk qiyofasida tasvirlangan.

**BHARATA** – Qadimgi Hindistondagi oriylar qabilasi. Kuru qabilalar ittifoqiga kirgan hamda panchallar bilan birlashib Hindistonda dastlabki yirik davlat barpo etganlar (taxm. mil. avv. VII asr). "*Bharata avlodlari*" Kauravlar va Pandavlar haqidagi rivoyatlar hind eposi "*Mahobhorat*" asosini tashkil qilgan. Bharata hududining nomi – Bharatavarsha (Jamna va Satlej daryolari oralig'i) nomi bilan qadimga ko'pincha butun Hindiston hududi tushunilgan. Hindiston Respublikasining hozirgi rasmiy nomi, hindi tilidagi Bharat mana shundan olingan.

**BRAHMA** (sanskritcha *Barahma*) – hinduizmda *Vishnu* va *Shiva* bilan birgalikda ilohiy uchlikni tashkil etuvchi xudolardan biri. Koinotni yaratuvchi va boshqaruvchi oliy xudo hisoblangan. *Vedanta ta'limotiga* ko'ra dunyoda faqat Brahma mavjud bo'lib qolgan barcha hodisalar va narsalar Brahmaning soyasidir. Ko'pincha 4 qiyofada, 4 qo'lli oqqush ustida o'tirgan shaklda tasvirlanadi.

**BRAHMANIZM** (*Brahmanlik*) – qadimgi hind dini. Veda dini asosida mil. avv. I-mingyillikning boshida paydo bo'lgan. Brahmanizmning muqaddas adabiyotiga vedalar va ularga yozilgan juda ko'p sharhlar kiradi. Brahmanizmdagi veda dinidagi ko'pgina xudolarning ta'siri deyarli yo'qqa chiqib, asosan 3 xudo: *Brahman*, *Shiva* va *Vishnu* e'tiborli hisoblangan. Brahma – olamni yaratuvchi va boshqaruvchi, Vishnu – olamlarni saqlab qoluvchi va muhofaza qiluvchi, Shiva – barcha mavjudotlarni yakson qiluvchi deb tushunilgan. Brahmanizmda sigirni, maymunlarni, ayrim o'simliklarni ilohiylashtirish mavjud. Mil. avv. VI–V asrlarda Buddizm vujudga keldi va Brahmanizmga qarshi kurash olib bordi. Buddizmga qarshi kurash jarayonida va uning bevosita ta'sirida Brahmanizm asta-sekin *hinduizmga* aylanib ketdi.

**BRAXMANLAR** – qadimgi hind diniy to'plamiga ko'ra, birinchi toifa – oliy varna-kastaga mansub bo'lgan Xudo Braxma og'zidan chiqqan hind ruhoniylari. Qadimda brahmanlar koinotni vazifasini o'tab, qurbonlik marosimlariga rahbarlik qilgan, xalq orasida Vedalarni targ'ib etish bilan shug'ullangan.

**BUDDA** – "Ma'rifatparvar", Buddaviylik dini asoschisi shahzoda *Siddharthe Gautamaning* taxallusi.

**BUDDIZM** (*Buddaviylik*) – jahonda keng tarqalgan dinlardan biri. Shahzoda *Siddharthe Gautama* asos solgan din. Mil. avv. VI–V asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo, Janubi Sharqiy Osiyo mamlakatlarida va uzoq Sharqda tarqalgan. Buddizm muayyan tarixiy davrlarda Xitoy, Hindiston, Koreya va Indoneziyada deyarli butun Osiyo xalqlarining ma'naviy qadriyatlariga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Boshqa dinlardan farqli ravishda buddizmda hech bir o'zgarimas narsa yo'q, hatto xudo ham o'zgaruvchan deb uqtiriladi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson doim azob-uqubatga mahkum va bunga o'zi sabab bo'ladi. Azob-uqubattan qutulish uchun ko'ngil xush ko'rgan barcha narsalardan tiyilish darkor. Buddizm oldingilardan inson mavqeyi tabaqalaridan ham jamiyatdagi o'rnidan bog'liq bo'lmasligi bilan farqlanadi. Buddaviylar inson yolg'on so'zlamasligi, mol-davlat to'plamasligi, tirik mavjudotlarning qonini to'kmaslik kerak deb hisoblaydilar. Buddizm zaminida 3 narsa – *Budda*, *Dxarma*, *Sangxaga* e'tiqod yotadi.

Budda (Siddharthe Gautama) oliy haqiqatga erishishning yorqin timsoli. Dharma – Gautama qoldirgan ta’limot. Sangxa – Budda asos solgan va hozirgacha faoliyat ko’rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi. Buddizm tarixi 2500 yildan ortiq davrni o’z ichiga oladi. Unga dastlab *braxmanizmning* va *jaynizmning* ta’siri kuchli bo’lgan. Imperator *Ashoka* (mil. avv. III asr) davrida buddizm kuchli mustaqil din sifatida shakllanadi. IX asrda muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatgan buddizm Hindistonda inqirozga uchray boshlaydi va pirovardida bu yerda uning o’rnini hinduizm to’liq egalladi. Dastlab buddizm xudo bo’lmagan, keyinchalik Buddaning o’zi xudoga aylandi.

**BUTUN DUNYO TO’FONI HAQIDA AFSONA** – Ikki daryo oralig’idagi davlatlarda vujudga kelgan qadimiy afsona. Afsonada aytilishicha, odamlar xudolarni izzat-hurmat qilmay qo’yadilar, shundan keyin xudolar odamlarni qirib tashlash uchun butun yer yuzini suvga g’arq qilishga qaror qiladilar. Lekin donishmandlik xudosi *Ea* to’fon bo’lishi to’g’risida qamishlarga aytib qo’yadi, bir kishining kulbasi ana shu qamishlardan yasalgan edi. Qamishlar bu haqda kulbaning egasiga shivirlaydilar. Kulbaning egasi kattakon kema yasab, o’z oilasini, hunarmandlarni, shuningdek xonaki va yovvoyi hayvonlarni shu kemaga joylashtiradi. Osmonni qora bulut qoplaydi; kunduz kuni xuddi kechasidagi kabi qorong’i bo’lib qoladi, dovul boshlanadi, yerga jala quya boshlaydi, suv yerni qoplaydi. Yerdagi hamma tirik zot halok bo’ladi. Olti kundan keyin bo’ron tinadi. Suv kamaya boshlaydi. Kemadan chiqarib yuborilgan qora qarq’a quruq yerni topib borib qo’nadi, keyin bu yerga odamlar va jonivorlar chiqib borishadi.

**BUYUK XITOIY DEVORI** (xitoycha *“Vanli chongchang”* – *“10 ming km uzunlikdagi devor”*), **Saddi Chiniy** – Sin Shixuandi hukmronligi davrida Xitoyda ko’chmanchi xunnlarning hujumlaridan himoyalaniish uchun bunyod etilgan Shimoliy Xitoydagi qal’a devori. Qadimgi Xitoy me’morchiligining ulkan yodgorligi. Qal’a devori sifatida dastlabki qismi mil. avv. IV–III asrlarda (tosh va g’ishtdan ishlanib, ichini tuproq bilan to’ldirib, shibbalab) qurilgan. Mil. avv. II–I asrlarda G’arbiga tomon 500 km ga uzaytirilgan. Keyinchalik uni ko’rish va mustahkamlash ishlari (eng muhimi XIV–XV asrlar) davom etgan. 1953-yilda Szyuyunguan qal’asi (Pekin) yaqinidagi qismi ta’mirlangan. Buyuk Xitoy devori Szyuyunguan qal’asi (Gansu viloyatining g’arbi) Shanxayguan (Lyaodun ko’rfazi qirg’og’i) qal’a-qo’rg’oni oralig’ida cho’zilgan; ko’tarilish joylari va tarmoqlari bilan uzunligi 5000 km ga yaqin (to’liq saqlanmagan). Xitoy arxeolog olimlarining 2001-yildagi ilmiy tadqiqotlariga ko’ra, Xitoyning janubiy

g’arbidagi sun’iy tepalik ham Buyuk Xitoy devoriga daxldorligi – uning davomi ekanligi aniqlandi. Bu bilan Buyuk Xitoy devorining umumiy uzunligi 530 km ga ko’paydi. Buyuk Xitoy devorining balandligi – 6,6 m (shinaklarining devorlari bilan 8–10 m gacha), kengligi – asosida 6,5 m dan yuqorisida 5 m gacha. Har bir yuz metrda soqchilar uchun to’rtburchakli burjlar (balandligi 10–12 m) qurilgan, har 10 km da kuzatish va xabar berish uchun minoralari, tog’dagi muhim o’tish joylarida mustahkam qo’rg’onlari bo’lgan. Buyuk Xitoy devori me’moriy yodgorlik sifatida saqlanadi. Alisher Navoiyning *“Saddi Iskandariy”* dostonida Buyuk Xitoy devori *“Saddi Chin”* devori nomi bilan tilga olingan.

**DAYR UL-BAHR** – Qadimgi Misr (Fiva yaqini)da qoyalar etagida (vodiy bo’ylab) joylashgan me’moriy majmua. Fir’avn *Mentuxatep I* xotirasiga qurilgan ehrom (mil. avv. 21-asr) kolonnadalar bilan o’ralgan, yirik piramidali, devorlari bo’rtma tasvirlar bilan bezatilgan (haykaltaroshlar Irtisen va o’g’li Senusert) xaroba qoldiqlari saqlangan. Vodiy orqali ehromga boriladigan uzun yo’l cheti devor va haykallar bilan to’silgan. Malika *Xatshepsut* xotirasiga qurilgan ehrom (mil. avv. XVI–XV asrlar, me’mori Senmut) 3 ayvonli kolonnadalar bilan o’ralib, zinapoyalar orqali bog’langan. 200 dan ortiq haykallar va bo’rtma tasvirlar bilan bezatilib, yeriga kumush va oltin to’shalgan.

**DI** – Qadimgi xitoyliklarda oliy xudo. U odamlarga qurg’oqchilik, suv toshqinlari yuborgan yoki baxt ulashgan.

**DINASTIYA (sulola)** – birin-ketin hukmronlik qiluvchi podsholar urug’i; sulola vakillari ko’pincha bitta nom bilan aytilgan, masalan, Ahamoniylar, Sosoniylar.

**DOROYI** – mil. avv. V asrda Ahamoniylar davlatida Doro I tomonidan muomalaga kiritilgan 8,4 g. oltin og’irlikdagi tanga.

**DUNYONING YARATILISHI HAQIDAGI DOSTON** – Qadimgi Mesopotamiya adiblari tomonidan yaratilgan doston. Dostonda Bobil ruhoniylari tomonidan butun olamni yaratuvchi bosh xudo deb ta’riflangan *Marduk* haqidagi hikoyalar o’z ifodasini topgan.

**DUNYONING YETTI MO’JIZASI** – qadimgi dunyoda mashhur bo’lgan me’morlik va haykaltaroshlik obidalari. Ulkanligi, katta mahorat bilan yaratilgani, jozibadorligi, salobati bilan o’sha zamon odamlarini asrlar mobaynida hayratga solgan bu inshootlar *“Dunyoning yetti mo’jizasi”* hisoblangan. O’rtayer dengizi atrofidagi mamlakatlarda bunyod etilgan dunyoning bu yetti mo’jizasi quyidagilar edi: 1) **Misr ehromlari** – yo’nib tayyorlangan katta

toshlardan piramida shaklida qurilgan qadimgi Misr fir'avnlarning maqbaralari (mil. avv. 2–3-mingyilliklar). Ularning eng yirigi — Xeops ehromi (balandligi 146,6 m, asosi 233x233 m)ning har biri 2,5 tonnalik 2300000 blok bilan (ba'zi qismlarida 30 tonnalik bloklar ham bor) 30 yil mobaynida qurilgan, go'rxonadan tashqari 2 qavatli ibodatxona ham bor; 2) **“Semiramida osma bog'lari”** (Bobil osma bog'lari) — Bobil podshosi *Navuxodonosor* xotini *Semiramidaga* atab mil. avv. VI asrda Bobilda maxsus inshootlar qurdirib bunyod etgan. Bog' to'rt qavatli bo'lib, supaga o'xshash qilib qurilgan. Bu supalarni ustunlar ko'tarib turgan. “Osma bog'” larga maxsus zinapoyalar orqali chiqilgan. 3) **Artemida ibodatxonasi** — taxm. mil. avv. 550-yilda hosildorlik ma'budasi Artemida (Zevsning qizi)ga bag'ishlab Efes shahrida bunyod etilgan. Ibodatxonaning tomini qoyatoshlardan ishlangan 18 metrli ustunlar suyab turgan. Yunon rassomlarining mumtoz asarlari ibodatxona devorlarini bezab turgan. Bu mo'jizaviy obida qariyb 100 yil mobaynida saqlanib turgan. 4) **Zevsning Yunonistonning Olimpiya shahridagi ulkan haykali.** Xudolar podshosi Zevs taxtda o'tirgan holda tasvirlangan. O'ng qo'lida ma'buda Nikining haykali, chap qo'lida muqaddas burgut o'rnatilgan podsholik hassasi, oltin libosga burkangan, tanasi fil suyagidan taroshlangan, ko'zlari qimmatbaho toshlardan yasalgan Zevs haykalining balandligi 12 metr bo'lgan. Uni taxm. mil. avv. 430-yilda mashhur haykaltarosh Fidiy ishlagan. 5) Rodos oroli ko'rfazidagi **Gelios haykali** — Rodos aholisi mil. avv. 304-yilda shaharning bir yillik qamaldan ozod bo'lganligi sharafiga shahar homiysi, quyosh ma'budi Geliosning haykalini yaratishga qaror qilganlar. Haykal bronzadan ishlangan bo'lib, uni taxm. mil. avv. 292-280-yillarda haykaltarosh *Xeres* misdan ishlagan); 6) Kariya shohi *Mavsol* (Mavzoleyning nomidan) o'zi uchun qurgan **Galikarnas** (hozirgi Turkiya hududi)dagi **maqbara** — monument (taxm. mil. avv. 377-352-yillar); 7) **Iskandariya (Aleksandriya)** shahridagi ulkan **mayoq** (taxm. mil. avv. 283-yilda, me'mori *Sostrat*). Dunyoning yetti mo'jizasidan faqat Misr ehromlari deyarli butun holda saqlangan, ba'zilar (Artemida ibodatxonasi, Galikarnasdagi Mavsol maqbarasi)ning ayrim bo'laklaridan qolganlari qadimgi yozma manbalardangina ma'lum.

**EA** — Mesopotamiyada donishmandlik va suv xudosi.

**YEGIPET** — Misrning yunonlar tomonidan atalishi, Memfisning Xekau Ptax deb, ya'ni “*Ptax (xudo) ruhining qal'asi*” degan nomning buzib aytilishidir.

**ELAM TILI** — Qadimgi Elam davlatida va Eron tog'liklarining janubiy qismida mil. avv. 3–1 mingyilliklarda yashagan xalqning (o'lik) tili. Dravid tillari bilan qarindoshligi aniqlangan. Elam tilining ilk yodgorliklari — ibodatxonalarning xo'jalik hujjatlari — qadimgi elam davriga (mil. avv. 30–24 asrlar) mansub bo'lib, ilk elam rasmi (iyeroglifik) so'z-bo'g'in yozuvida yozilgan (hali to'liq o'rganilmagan). Ushbu davr oxirlarida elam tilida chiziqli bo'g'inli elam yozuvi va akkad mixxati qo'llana boshlagan (XIII asrga mansub podsholik bitimlari). O'rta elam davrida yodgorliklarning matnlari mixxatda bitilgan (mil. avv. XIV–XII asrlar). Yangi elam davriga podsholik yozishmalari, xo'jalik hujjatlari mansub (mil. avv. VIII–VI asrlar). Urartu hududidan elam tilidagi badiiy matn (mil. avv. VIII asr) topilgan. Mil. avv. VI–IV asrlarda Ahamoniylar davlatining Eron hududida elam tili rasmiy til hisoblangan. Ushbu tildagi ko'pdan ko'p yaxlit matnli yodgorliklar ayni shu davrga mansub. Elam tili ilk o'rta asrlargacha saqlanib qolgan, degan taxminlar mavjud.

**ELAM YOZUVI** — qadimgi elamlilarning 3-mingyillikda vujudga kelgan 150 belgi-rasmdan iborat yozuvi. Keyinchalik 80 belgidan iborat yozuv kashf etilgan. Lekin mil. avv. XXIII–XXII asrlar davomida elamliliklar *shumer-akkad mixsimon yozuvidan* foydalanganlar. Elamliliklar mil. avv. VI asrda shumer-akkad mixxatini o'zlashtirib va takomillashtirib 42 belgidan iborat o'z alifbolarini yaratganlar. Ayni paytda ular aramey yozuvidan ham foydalanganlar.

**EN** — qadimgi Mesopotamiyadagi shahar-davlatlar. Uni oliy ruhoni boshqargan. Shahar-davlat boshlig'ini *lugal* deb atashgan. Ular aholining yuqori tabaqasidan saylangan. U qo'shin qo'mondoni ham bo'lgan.

**ENLIL** — Mesopotamiyada havo xudosi.

**ERITREY DENGIZI** — Arab dengizining qadimiy nomi.

**ETANA HAQIDAGI DOSTON** — Mesopotamiyada yaratilgan qadimiy doston. Bu doston ham boshqa dostonlar kabi bir necha mustaqil qismdan iborat. Unda burgutning ilon bilan do'st tutungani, burgutning do'stiga xiyonat qilgani, ilonning undan qattiq o'ch olgani haqida hikoya qilinadi. Dostonda Etaning “*tug'ilish giyohi*”ni va oliy podsholik hokimiyati alomatlarini qo'lga kiritish maqsadida burgut qanotiga minib osmonga uchib chiqmoqchi bo'lgani to'g'risida hikoya qilinadi. Doston oxirida Etana osmonga uchadi. U shunday balandlikka ko'tariladiki, yer va dengizlar unga kichik bir kulcha va savatdek bo'lib ko'rinadi. Etana vahimaga tushib, burgutdan uchishni to'xtatishni so'raydi. Burgut

uchishdan to'xtamaydi. Dadillik va jasoratdan mahrum bo'lgan Etana yerga yiqilib halok bo'ladi.

**FENIKS** – Qadimgi Misr va yunon afsonalarida o'lim yaqinlashadigan paytda o'z uyasida go'yo o'zini o'tda yondirib, so'ngra kulidan qaytadan dunyoga kela oladigan afsonaviy qush, abadiy qayta bunyod bo'lish, yangilanish, navqironlik va uyg'onish timsoli.

**FETIDA** – Qadimgi Misrda dengiz ma'budasi.

**FINIKIY TILI** – som tillarining xanaan guruhchasiga mansub va mil. avv. 2–1-mingyillik – mil. 1-mingyillikda Finikiyada hamda O'rta dengiz sohillaridagi finikiy mustamlaka-manzilgohlari (Kipr, Sitsiliya, Sardiniya, Messaliya, Ispaniya, Shimoliy Afrika)da tarqalgan (keyinchalik o'lik) til. Finikiy tili Finikiyaning o'zida mil. II asrda iste'moldan chiqqan; Shimoliy Afrikada esa so'nggi davr Finikiy tili (*yangi puna tili*) arablar istilosi davri (VIII asr)gacha saqlanib qolgan. Mil. avv. 2-mingyillik o'rtalaridan mil. II asrgacha (Finikiya) va mil. III–IV asrlargacha (O'rta dengizning g'arbi) bo'lgan davrga mansub yozma yodgorliklar orqali ma'lum; dialektal jihatdan shimoliy finikiy, janubiy finikiy, kipr, puna lahjalariga bo'linadi. Finikiy tilining morfologiyasi va leksikasi boshqa som tillariniki, xususan, ivritnikiga o'xshash. Finikiy tili fonetikasining u mansub bo'lgan guruhchadagi boshqa tillardagidan o'ziga xos tomonlari bor. Umumsomiy 28 undoshdan, grafikasiga ko'ra, 22 tasi saqlanib qolgan. Vokalizm (unlilar) sohasida ham anchagina farqlar bo'lgan.

**FINIKIYA YOZUVI** – mil. avv. 2-mingyillik o'rtalarida Finikiyada paydo bo'lgan hamda finikiyaliklar va karfagenliklar, qadimgi yahudiylar va moavdiklar tomonidan mil. IV asrgacha foydalanilgan konsonant harf-tovush yozuvi. Finikiya yozuvidagi grafemalar soni (22 ta) asosiy manba yozuvdagiga (29–30 grafema) nisbatan kamaygan. Unda faqat undoshlargina ifodalangan, unlilar mutlaqo ifodalangan – Finikiya yozuvi sof konsonant yozuv bo'lgan. Harflar muayyan qat'iy ketma-ketlikda joylashgan, ya'ni alifboni tashkil etgan. Har bir harf belgisi nomga ega bo'lgan va nomlar ayni harf bildirgan tovush bilan boshlangan. Finikiya yozuvi o'ngdan chapga qarab gorizontal holatda yozilgan. Bu yozuvning paydo bo'lishi insoniyat tarixida yozuvni takomillashtirishda olg'a qo'yilgan qadam bo'lgan, chunki birinchi marta sof tovush yozuvining, grafemalar soni aniq bo'lgan mukammal alifboning yuzaga kelishi jamiyatda yozuvni biladigan kishilar doirasini nihoyatda kengaytirib yuborgan. Mil. avv. 12 asrda to'la shakllangan Finikiya yozuvi finikiyaliklarning O'rta dengiz bo'ylarida barpo qilgan mustamlaka yerlarida tarqalgan. X–IX asrlarda Finikiya yozuvidan oromiy yozuvi (undan esa yahudiy,

nabotiy, arab; Old va Markaziy Osiyoning boshqa alifbolari, jumladan, bilvosita gruzin va arman; sug'd, uyg'ur va mo'g'ul yozuvlari va b. yozuvlar) paydo bo'lgan. XI–VIII asrlarda esa yunon, keyinroq lotin, kirill alifbolari, brahmi yozuvi (undan Hindiston, Shimoliy Sharqiy Osiyo va Tibet yozuvlari) kelib chiqqan. Ma'lumotlarga qaraganda, hozirda bizga ma'lum bo'lgan harf-tovush tizimidagi alifbolarning 4/5 qismidan ko'prog'i Finikiya yozuvidan tarqalgan. Finikiya yozuvida bitilgan eng qadimgi yodgorliklar mil. avv. XII–X asrlarga mansub bo'lib, Finikiyaning o'zidan emas, balki uning mustamlakalari hududidan topilgan (ular ko'p emas). Finikiya yozuvidagi yodgorliklarning ko'pchiligi mil. avv. V asr – mil. II–III asrlarga mansub. Undan keyingi davrda Finikiya yozuvi oromiy yozuvi tomonidan siqib chiqarilgan.

**FIR'AVN** – Qadimgi Misr podsholarining nomi. 2-suloladan boshlab podshoh unvoni. *“Fir'avn”* so'zi qadimgi misrcha *“per-o”*dan olinib, dastlab *“Shoh saroyi”* (*“Ulug' uy”*) ma'nosini anglatgan. 18-suloladan boshlab, podshohning o'zi fir'avn deb atalgan. Mamlakatdagi barcha ekin yerlari fir'avnlarning mulki hisoblangan. Aholidan to'plangan soliqlar, odatda, fir'avnlarning shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflangan. Qadimgi Misr diniy tasavvurlariga ko'ra, fir'avn – quyosh ma'budi Raning o'g'li, tabiat ma'budi Osirisning merosxo'ri bo'lgan. Fir'avn hokimiyatining qudratini, ulug'vorligini ko'rsatish uchun ularga bag'ishlab ehromlar qurilgan.

**FORS TILI** – janubi g'arbiy guruhga mansub o'lik eroniy til. O'rta fors tili, fors, tojik va dari tillari qadimgi fors tilining bevosita davomchilari hisoblanadi. Dastlab Eron (Fors)ning janubi g'arbida (hozirgi Eronning Fors viloyati hududida) tarqalgan. Ahamoniylar sulolasiga mansub qadimgi hukmdorlar uchun ona tili maqomida bo'lgan bu til mil. avv. VI–IV asrlarda Ahamoniylar davlatining butun hududiga yoyilgan. Qadimgi fors tilidagi mixxatlar hozirgi Eron, Turkiya, Misr hududlaridan topilgan va matnlarning barchasi elam, akkad, oromiy kabi tillarga tarjimai bilan yonma-yon berilgan. Eng qadimgi yodgorliklari *Doro I* ning mil. avv. 521–486-yillardagi yozuv (bitik)laridir. Bu yozuvlarni o'qishni 1802-yilda nemis olimi *G.F. Grotefend* boshlab bergan.

**FORS YOZUVI** – *mixxat* turlaridan biri; mixsimon (ponasimon) belgilardan iborat, bir qancha ideogrammalar qo'shilgan bo'g'inli yozuv. Eronda mil. avv. VI–IV asrlarda – *Doro I* davridan to Artakserks III davrigacha Ahamoniylarning bitiklarida qo'llangan. Shaklan ugarit, bobil mixxatlariga o'xshasa ham, kelib chiqishi jihatidan bevosita ular bilan bog'liq emas. Qadimgi fors yozuvining kelib chiqishi haqida 2 xil nuqtayi nazar

mavjud; 1) Doro I ning o'zi yozib qoldirgan ma'lumotga ko'ra, qadimgi fors yozuvi uzoq taraqqiyot natijasi emas, avval boshdan o'q mukammal va yaxlit bir yozuv bo'lgan; ushbu yozuvni shohning o'zi, ehtimol, uning olimmirzolaridan biri kashf etgan. Bunda yozuv ixtirochisi bobil yozuvini ham, g'arbiy som bo'g'inli yozuvini ham bilganligi taxmin qilinadi; 2) nemis olimi *I. Gelbning* fikriga ko'ra, qadimgi fors yozuvi bobil mixxatidan bo'g'inli yozuvgacha uzoq rivojlanish yo'lini o'tish natijasida paydo bo'lgan. Nemis olimi *I. Fridrix* esa mazkur nuqtayi nazarlarga yakun yasab, qadimgi fors yozuvi 2 xil yozuv tizimi (bobil mixxati va g'arbiy som bo'g'inli yozuvi)ning nomukammal qo'shilishidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi.

**GALATLAR** – qadimgi kelt qabilalari. Mil. avv. 278-yilda Kichik Osiyo yarimoroliga bostirib kirib, mil. avv. taxm. 232-yilda Kichik Osiyoning markaziy qismida o'rnatilgan.

**GANESHA** – Qadimgi Hindistonda boshi filnikiga o'xshash bo'lgan bosh xudo.

**GEA** – Qadimgi Misrda yer ma'budasi.

**GIKSOSLAR** (giksos so'zi misrcha “*xekou xasut*” – “*cho'ponlarning hokimlari*”, “*cho'l mamlaktining hukmronlari*”) – Arabistonning shimoliy g'arbiy qismidagi dashtlarda semit va xurritlardan bo'lgan qabilalar. Giksoslar ko'chmanchi chorvador qabilalar bo'lib, xo'jalik va madaniyat darajasi jihatidan misrlik yoki mesopotamiyaliklarga qaraganda ancha past bo'lishgan. Mil. avv. 19 asrda Arabistonning shimoliy sharqida giksoslarning harbiy ittifoqi tashkil topadi. Ular Sinay yarimoroli, Palastin va Suriya davlatining katta qismini bosib oladilar. Megiddo va Kadesh shaharlarini ham o'zlariga itoat ettiradilar. Giksoslar Misrda mil. avv. 1710–1580-yillarda hukmronlik qilganlar. 15–16-sulolaga mansub Misr podsholari giksoslardan bo'lgan. Giksos podsholari *Avoarisdan* turib mamlakatni boshqargan. Giksos podsholigi *Xian* davrida kuchayadi.

**GILGAMESH HAQIDAGI DOSTON** – Mesopotamiya adabiyotining eng nodir namunalaridan biri. Doston mazmuni juda keng. Ulardan birida *Gilgamesh* bilan *Enkidu* ko'rsatgan qahramonliklar, Enkiduning fojiali o'limi va Gilgameshning obihayot qidirib boshidan kechirgan sarguzashtlari bayon etiladi. Dostonda jahon to'foni haqidagi afsona ham mavjud. Jahon to'foni haqidagi afsonada qahramon Gilgameshning otasi *Ut-Nanshtimning* donishmandlik xudosi *Ea* maslahati bilan qanday qilib kema yasaganligi, shu kemaga tushib, to'fon vaqtida omon-esson qolganligi va bu bilan abadiy hayotga sazovor bo'lganligi hikoya qilinadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Gilgamesh afsonaviy

qahramon emas, balki tarixiy shaxs. U Uruk shahri podshosi bo'lgan.

**GIRKAN DENGIZI** – Kaspiy dengizining qadimgi nomi.

**GOR** – Qadimgi Misrda fir'avnlarning homiysi. Osirisning hamda Isidaning o'g'li. Lochin boshli xudo qiyofasida tasvirlangan.

**GUTIYLAR** (*kutiylar, guteylar*) – Mesopotamiyaning sharqidagi Zagros tog'lari orasida (Hozirgi Eron yassitog'ligining g'arbida) yashagan yarim ko'chmanchi chorvador qabilalar (mil. avv. 3–2 mingyillik). Mil. avv. taxm. 2200-yilda (XXIII asr oxiri – XXII asr boshlarida) Akkad podsholigiga bostirib kiradilar va uni o'zlariga itoat ettiradilar. Shu bilan Sargoniylarning Akkad podsholigi barham topadi. Mamlakatni mahalliy amaldorlar orqali boshqarganlar. Guteylar Mesopotamiyada 125 yil hukmronlik qiladilar va ularning urf-odatlarini va madaniyatini qabul qilganlar. Mil. avv. 1-mingyillikda Mesopotamiya aholisi ulardan shimol va sharqda yashayotgan xalqlarni *gutiylar* deb atashgan.

**HALOKATGA UCHRAGAN KEMA HAQIDA HIKOYA** – qadimgi Misr adiblari tomonidan yaratilgan hikoya. Unda podsho konlariga qilingan mashaqqatli sayohat haqida so'z yuritiladi. Hikoya qilinishicha, sayyohlar dengizda dahshatli dovulga duch keladilar. Dovul ularni “*ruh oroli*”ga uloqtirib tashlaydi. Orola ulkan ilon qiyofasidagi oliyanob podsho yashar ekan. Ilonshoh sayyohlarni yaxshi qabul qilibdi. Ularga ko'p oltin, kumush, fil tishlari, xushbo'y narsalar, it va maymunlar berib Misrga kuzatib yuboribdi.

**HAUMO** – zardushtiylik dinida muqaddas ichimlik.

**HINDAVIYLIK** - hindlarning braxmanlikdan ajralib chiqqan dini. Muqaddas kitoblari qayta ishlangan “*Mahobhorata*” va “*Ramayana*” bo'lgan.

**HIND TILI** - mil. avv. 2-mingyillik o'rtalarida Shimoli G'arbiy Hindistonga bostirib kirgan qadimgi oriylar tili; Hindiston yarimorolining shimoliy va markaziy qismlarida tarqalgan. Qadimgi hind tili *hind-yevropa tillarining* dastlabki, ilk vakillaridan hisoblanib, qadimgi eroniy tillar (avesto tili, qadimgi fors tili)ga yaqin qarindosh bo'lib, ular bilan birgalikda oriy tillar birligini tashkil etadi. Hindiston bo'ylab tarqalish jarayonida qadimgi hind tili substrat tillar (dravid tillari, munda tillari)ning bir qancha xususiyatlarini o'ziga singdiradi. Qadimgi hind tilida xronologik jihatdan va lahjaviy asosiga ko'ra birbiridan farqlanuvchi 2 ta til mavjud – Hindistonning shimoli g'arbida *veda tili* va shimoli markaziy qismida *sanskrit*. Veda tili va sanskritdan tashqari yana boshqa qadimgi hind lahjalari ham bo'lgan, lekin ular

tegishli matnlarda saqlanib qolmagan. Ular asta-sekin rivojlana borib, bir qancha o'rta hind tillariga asos bo'lgan.

**HUMO QUSH** – zardushtiylikda baxt va boylik ilohasi. Humo ko'zga ko'rinmas qush. Lekin u kimning boshiga soya solsa, o'sha baxtli va boy bo'ladi, deb tushunganlar. Humo jannat qushi deb hisoblangan.

**IANNA** – Qadimgi shumerliklarda Zuhra sayyorasi va hosildorlik xudosi.

**IBODATXONA** – dindorlarning xudoga muayyan tartibda sig'inadigan joyi, diniy rasm-rusum va marosimlar o'tkaziladigan bino, inshootlar majmuasi. Ibadatxonalar qadimdan yirik jamoat binolari hisoblangan. Qadimgi Misr ehromlari, Ossuriya va Bobilda zikkuratlar, Hindiston, Xitoy, Yaponiyada stupalar, Qadimgi Rimda haykaltaroshlik va rassomlik asarlari bilan bezatilgan hashamatli ibodatxonalar qurilgan. O'zbekiston hududida turli davrlarda Budda ibodatxonalari (Qoratepa, Fayoztepa), masjidlar, cherkov, kostellar barpo etilgan.

**ILK PODSHOLIK DAVRI** – Qadimgi Misrda mil. avv. 3100–2800-yillarni o'z ichiga olgan podsholik davri. Bu podsholik davrida Misrni 1–2-sulola vakillari idora qilgan. Ikkinchi sulola namoyandalari podsholik qilgan davrdan boshlab Misr podsholari *fir'avn* deb atalgan. Mamlakat poytaxti Memfis shahri bo'lgan. Ilk podsholik davri sug'orish tarmoqlarining rivojlanishi, yangi yerlarning ochilishi, tosh va mis qurollarining mukammallashuvi, kulolchilik charxining paydo bo'lishi, ichki va tashqi savdo rivojlanishi, ayirboshlash savdosining taraqqiy etishi bilan xarakterlidir. Bu davrda davlat apparati va unga xizmat qiluvchi amaldorlar – *kotiblar tabaqasi* shakllangan, ma'muriy okruglar – *nomlar* tashkil topib, ularni *nomarxlar* boshqargan, muntazam ravishda bosqinchilik yurishlari uyushtirilib turilgan, jumladan, janubga – Kush (Nubiya)ga, shimoli g'arbga – liviyaliklarga va Sinay yarimorolidagi badaviylarga qarshi (bu yerda mis konlari bor edi) yurishlar qilingan. **Ilk podsholik davrida hukmronlik qilgan fir'avnlari: 1-sulola: Mina (Menes), Jer, Den, Semerxet, Ka. 2-sulola: Xotep-Sexemui, Nebra, Peribsen, Xasexem, Xasexemui.**

**INDRA** – Qadimgi hindlarda momaqaldiroq xudosi. Keyinchalik hokim, hukmdor va podsholar homiysiga aylangan. Keyinchalik Indra so'zining o'zi ham podsho, hokim, hukmdor kabi ma'noni anglatadi boshlagan.

**IPAK** – dastlab iyerogliflarni bambukka yozib yurgan xitoyliklar bundan 2,5 ming yil muqaddam bambuk o'rnida ipakdan foydalanishgan. Ipakka tayoqcha bilan emas, mo'yqalam bilan yozilar edi.

Endi kitob uzun ipak parchasiga o'xshar, uni o'rama tarzida tayoqchaga o'rashar edi.

**ISIDA** – Qadimgi Misr afsonalarida osmon va yer ilohasi, ayollar homiyasi, hosildorlik xudosi, xudolar va odamlarni o'limdan asrovchi; Osirisning singlisi va Gorning onasi, Kichik Osiyo, Suriya, Qadimgi Yunoniston va Rimda ham Isidaga sig'inishgan.

**ISHTAR** – qadimgi akkadliklarda Zuhra sayyorasi hamda hosildorlik, muhabbat, urush va g'alabasi ilohasi. Ikki yuzli xudo bo'lgan. Bobilda Xudo Ishtarga atab darvoza bunyod etilgan bo'lib, undan mil. avv. VI asrga oid sirrush maxluqi – ajdahosi hamda sher tushirilgan tasvir topilgan.

**IYEROGILIF** (yunoncha *hieros* – *muqaddas* va *gluphe* – *o'yoq*) – bir so'z, bo'gin yoki tovushni ifodalashga xizmat qiluvchi grafik ifoda. Iyerogliflarning eng qadimgisi Misr yozuvi belgilari bo'lib, mil. avv. 4-mingyillik oxirida qo'llangan. Hozirda 5 mingga yaqin Misr iyerogliflari ma'lum. Iyeroglif termini yozuvning boshqa tizimlariga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, qadimgi (mil. avv. 2 minginchi yillar) va hozirda Xitoy yozuvi, xat yozuvining (mil. avv. II–I ming yillar) turli tasviriy (mixxat bo'lmagan) belgilari va boshqalarga nisbatan qo'llaniladi. Qadimgi yunonlar yozuvni shu nom bilan atashgan. Iyerogliflar "*toshga chekilgan muqaddas bitiklar*" ma'nosini anglatadi.

**JEB** – Qadimgi Misr dehqonlari va aholisi ilohiylashtirgan "*muqaddas yer*" xudosi.

**KARNAK, Ipet-Isut** – qadimgi Misr ibodatxonalar xarobasi. Qadimgi Fiva hududidagi arab qishlog'i nomi bilan atalgan. Misr davlatining yangi podsholik davri (mil. avv. 1580–1085-yillar)da qurilgan ibodatxonalar qoldiqlari saqlangan (mil. avv. XVI–XI asrlar). Ibadatxonalar murakkab tarkibi, hashamatli me'moriy tuzilishi bilan ajralib turadi. Amon-Ra ibodatxonasi (mil. avv. XVI–XII asrlar)dagi 134 kolonnali katta zali, ko'ndalangiga turli davrlarda qayta qurilgan katta va kichik zallar, hovlilar diqqatga sazovor. Bu zal devorlarida fir'avnlarning urushdagi g'alabalari tasvirlangan (me'mori Aminxotep Kichkina). Amon-Ra ibodatxonasi majmui bilan ma'buda Mut ibodatxonasi (mil. avv. XVI–XV asrlar)ni mashhur sfinkslar xiyoboni birlashtirib turadi. Hozir Karnak muzeyga aylantirilgan. UNESCO tomonidan muhofaza qilinadi.

**KARSHARVAR** – "mamlakat", zardushtiylar ta'limotiga ko'ra, dunyo 7 ta tabiiy iqlim, karsharvar – qismlarga bo'lingan.

**KASSITLAR** – mil. avv. 2–1-mingyillikda hozirgi G'arbiy Eron hududida yashagan tog'lik qabilalar. Mil. avv. 16 asrda Bobilni egallab, 400 yilga yaqin



hukmronlik qilgan kassit sulolasiga asos solishgan. Kassit tilining genetik aloqalari aniqlanmagan. Turli xalqlar bilan aralashib ketgan.

**KASTALAR** (*varna*) – Qadimgi Hindiston aholisi mashg'ulotlariga bog'liq holda ajratilgan toifa. Qadimgi Hindiston aholisi Veda diniy to'plamida 4 guruhga ajratilgan: *brahman*, *kshatriya*, *vayshilar*, *shudralar*. Bu toifalarga kirmaganlar *chandallar* bo'lgan.

**KAURILAR** – Arabiston dengizi va Hind okeanida ovlanadigan mitti chig'anoqlar. Bu chig'anoqlarning bahosi ancha qimmat bo'lgan. Ular savdo bitimlari tuzilayotganda to'lov vositasi bo'lib xizmat qilgan.

**KAVI** – “Avesto”dagi mamlakat sardori.

**KAVIYLAR** – Kayoniylar, “Avesto”da va “Shohnoma”da podshohlar sulolasi.

**KI** – Mesopotamiyada yer xudosi.

**KOHIN** – Qadimgi Sharq (xususan, Misr, Bobil, Hindiston va O'rta Osiyo)da, shuningdek, Yunoniston va Rimda tarqalgan dinlarning ruho-niylariga nisbatan qo'llanilgan ibora. Kohinlar xudo va odamlar o'rtasida vositachi bo'lishgan.

**KOMPAS** – dastlab bu moslamani xitoyliklar ixtiro qilgan bo'lib, u magnitlangan temirdan yasalgan uzun dastali kattakon qoshiqni eslatar edi. Bu moslamani kataklarga ajratilgan zarhallangan yog'ochga o'rnatishgan, uning dastasi esa hamma vaqt janubni ko'rsatgan. Xitoyliklar kompasdan tegishli ishlarda quruqlik va dengizda foydalanishgan.

**KURU** – qadimgi hind qabilasi (kaurava), Kuru davlati tepasida turgan podshoh urug'ining nomi (kuru – oy sulolasi, Samvarna hamda Quyosh qizi bo'lgan Tapatini farzandi). Kurular so'nggi vedalar davrida hozirgi Dehli yaqinida Xaryana shtatida joylashgan afsonaviy davlat *Kurukshetrada* istiqomat qilgan. Panchala urug'i bilan ittifoq bo'lib birlashgan kurular Ganga va Jamna daryolari oralig'idagi deyarli barcha viloyatlar ustidan hukmronlik qilishgan. Kuru qabilasi mil. avv. VI asrgacha siyosiy mavqeyini saqlab qolgan.

**KUTUBXONA** – bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa. Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qo'lyozma va keyinchalik bosma *kitoblarning* ko'payishi kutubxonalarining yuzaga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi. Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimda paydo bo'lgan. Mil. avv. 2-mingyillikda sopol bitiklari saqlangan kutubxonalar bo'lgan. Mil. avv. VII asr o'rtalarida Sharqdagi ko'p saroylarda, Qadimgi Misr va Rim ibodatxonalarida qoshida kutubxonalar bo'lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri

*Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasi*dir. O'zbekiston hududida mil. avv. 1-mingyillikning so'nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo'lgan. Dastlabki kutubxonalar hukmdorlar saroylarida va ibodatxonalarda tashkil etila boshlangan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunon va ularga qo'shni bo'lgan xalqlar bilan yaqin aloqalar o'rnatgan, o'sha davrlardagi mavjud qo'lyozmalar bilan ham tanish bo'lgan. O'zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari saqlanmagan.

**KSHATRIYALAR** – Qadimgi hind diniy to'plamiga ko'ra, ikkinchi toifaga mansub xudo Braxma qo'llaridan bunyod etilgan jangchilar.

**LIDIYA DINIY E'TIQODI** – qadimda Kichik Osiyoning g'arbida yashagan lidiyaliklarning ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Ular *Sandon*, *Attis* va *Sabiziy* kabi o'luvchi va tiriluvchi xudolarga e'tiqod qilganlar. Lidiyaliklar *Ulug' ona*, *ona xudo*, *Kibeli*, *Ma* kabi xudolarni juda ulug'laganlar. Ular hosildorlik va urush xudolari ramzida ifodalangan.

**LOJUVARD** – ishlov berish juda qulay bo'lgan hamda Qadimgi Misr va Qadimgi Mesopotamiya davlatlari tomonidan yuksak baholangan qimmatbaho tosh. Uning asosiy konlari *Baqtriyada* bo'lgan.

**LUGAL** – qadimgi Mesopotamiyadagi shahar-davlatlarning boshlig'i. Ular oliy ruhoni bo'lib, aholining yuqori tabaqasidan saylangan. Shuningdek, ular qo'shin qo'mondoni ham bo'lgan.

**MAAT** – qadimgi misrliklarda adolat va odil sudlov ilohasi.

**MARDUK** – Mesopotamiyada butun olamni yaratuvchi bosh xudo. Bobil homiysi. U bosh homiylikka ma'buda Tiamatni yengib erishgan.

**MASSAGETLAR** (yunoncha *Massagetai*) – Kaspiy dengizining sharqiy sohili, Orol dengizi atroflari, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida mil. avv. VIII–IV asrlarda yashagan ko'chmanchi va boshqa qabilalar guruhining yunon adabiyotlarida uchraydigan umumlashma nomi. Massagetlar to'g'risida fanda turli xil qarashlar mavjud. Ayrim olimlar fikricha, “*Massaget*” nomi “*masyo*” – “baliq” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “*baliqxo'rlar*” ma'nosini anglatgan. Boshqa bir fikrga ko'ra, “*Massaget*” atamasi “*mas*”, “*saka*” va “*ta*” so'zlaridan tarkib topib, “*saklarning katta uyushmasi*”ni bildirgan. Uchinchi bir taxminga ko'ra, “*Massaget*” so'zi “*maza getlar*” – “*ulug' getlar*” degani bo'lib, massagetlarning o'zi esa qadimgi xitoy manbalaridagi “*da (katta) yuechjilar*” bilan aynan bir xalqdir. *Gerodotning* yozishiga ko'ra, massagetlar – ko'chmanchilar. Ular piyoda va otda jang qiladilar, otlarining ko'kraklariga sovut kiydirganlar. Ko'proq

kamon, nayza va sagariy (oybolta) kabi jang qurollari ishlatganlar. Massagetlarning barcha jihoz va qurol-aslahalari mis va oltindan yasalgan. Ro'zg'or buyumlarini esa bo'yoq bilan bo'yaganlar. Massagetlar malikasi *To'maris* bilan bo'lgan jangda *Ahamoniylar davlatining* asoschisi *Kir II* halok bo'lgan. *Strabonning* ma'lumotiga ko'ra, massagetlar Quyoshga topinganlar va unga atab otlarni qurbonlik qilganlar. *Strabon* ko'chmanchilar bilan bir qatorda Orol bo'yidagi botqoqliklar va orolchalarda yashab, terimchilik va baliq ovlash bilan mashg'ul bo'lgan qavmlarni, shuningdek, xorazmiylar va otasiylarni massagetlarga mansub deb bilgan. Massagetlar konfederatsiyasi qadimgi Xorazm davlatining asosiy harbiy kuchini tashkil qilgan.

**MAHABHARATA** – qadimgi hind eposi. Mil. avv. V asrda vujudga kelgan. Dostonda *Bxarata* podsho urug'ining ikki avlodi – *Kauravlar* va *Pandavlar*ning toj-taxt, boylik talashib olib borgan kurashlari hikoya qilinadi.

**MESOPOTAMIYA ADABIYOTI** – Ikki daryo oralig'i xalqlarining yozma san'at turi. Mesopotamiya xalqlari adabiyoti o'zining boy, tarixiy o'tmishiga ega. Mesopotamiyada adabiyot og'zaki ijodiyot negizida vujudga kelgan va rivoj topgan. Adabiy asarlarning eng qadimgisi mil. avv. 4-mingyillikda yozilgan. Ular ham diniy, ham dunyoviy mazmunga ega bo'lgan. Mesopotamiya adiblari "*Emesh va Eten*", "*Innina dehqonni tanlashi*", "*Etananing parvozi*", "*Dunyoning yaratilishi*", "*Agushayya haqidagi doston*", "*Gilgamesh haqida doston*", "*Jafokash avliyo haqida doston*", "*Xo'jayinning qul bilan suhbat*" kabi ko'plab doston, afsona va hikoyalar qoldirishgan. Mesopotamiya adiblari dunyoviy, diniy, falsafiy va dramatik asarlar ham yaratganlar.

**MESOPOTAMIYA DINIY E'TIQODI** – qadimda Ikki daryo oralig'ida yashagan aholining ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Qadim zamonlardan boshlab tabiatdagi buyumlar – suv, tosh, daraxt, hayvon, osmon jismlariga e'tiqod qilib kelganlar. Davlat tashkil topgach, ibtidoiy xudolar o'rnini yarim hayvon va yarim odam qiyofasidagi mavjudodlar egallay boshlagan. Xudolarning aksariyati ayol bo'lib, erkak xudolar dastlab kam bo'lgan. Xususan, ibtidoiy suv ofati ma'budasi ayol, muhabbat xudosi *Ishtar* ham ayol qiyofasida bo'lgan. Bu o'sha davrdagi ona urug'i mavqeyining balandligi bilan izohlanadi. Davlat vujudga kelishi munosabati bilan erkak xudolarning soni oshib borgan. Mesopotamiyada har bir qishloq, shahar, mahalla va hatto kasb-hunarning o'z xudosi bo'lgan. Jumladan, *An* osmon, *Ki* esa yer xudosi bo'lgan. Ular er-xotin bo'lib, ulardan havo xudosi

*Enlil* tug'ilgan. Oy xudosi shumerliklar *Nannar*, akkadliklar esa *Sin* deganlar. Quyosh xudosi shumerliklar *Utu* desalar, akkadliklar *Shamash* deb ataganlar. Zuhra sayyorasi xudosi shumerlar *Ianna*, akkadliklar esa *Ishtar* bilan taqqoslaganlar. *Ianna-Ishtar* hosildorlik va muhabbat ma'budasi hisoblangan. *Bobil* Mesopotamiyadagi yirik markazga aylangach, *Marduk* uning bosh homiysi, xudosi bo'lib qolgan. U bosh xudolikka ma'buda *Tiamatni* yengib erishgan ekan. Bayram kunlarida o'z xudolari ruhini shod etish uchun dastlab odamlarni, so'ng qo'y-echki va boshqa hayvonlarni so'yib qurbonlik qilishgan.

**MESOPOTAMIYA MAKTABLARI** – Mesopotamiyada tashkil etilgan maktablar. Ushbu maktablarda ko'proq podsho, badavlat kishilar, amaldorlar va o'ziga to'q kishilarning farzandlari o'qishgan. Ammo maktabda erkin jamoadan bo'lgan oddiy kishilar ham o'qigan bo'lsalar kerak. Maktablar saroy va ibodatxonalar qoshida bo'lib, uni ruhoniylar boshqarganlar. *Mari* va boshqa shaharlardagi qazishlar vaqtida o'quvchilarga mos o'rindiqlar qo'yilgan maktab binosining qoldig'i topilgan. Maktablarda *Misrdagi* kabi mirzolar tayyorlashga katta ahamiyat berilgan. Mesopotamiya maktablarida intizom va nazorat juda qattiq bo'lgan. Yetarli qobiliyatli va tirishqoq bo'lmagan o'quvchilar jazolangan. Maktab qoshida "*Xivich bilan savalovchi*" maxsus nazoratchi bo'lgan. O'qituvchilar o'quvchilarni qunt bilan o'qishga undaganlar.

**MESOPOTAMIYA TAQVIMI** – Ikki daryo oralig'i astronomlari tomonidan tuzib chiqilgan taqvim. Ushbu taqvimga ko'ra, *quyosh yili* 365 kun, *oy yili* esa 364 kun deb belgilangan. Yil 12 oyga bo'lingan.

**MINA** – Qadimgi *Misrda* hosildorlik va chorvachilik xudosi, odamlarning tug'ilishi va chorvaning ko'payishining homiysi. Cho'l hokimi va *Qizil dengizga* boradigan karvon yo'lining himoyachisi. Bir qo'li yuqorida, bir qo'li esa qamchi ushlab turgan odam qiyofasida tasvirlangan. *Misrliklar* *Minaning* yog'ochdan ishlangan buyumiga sig'inganlar.

**MINO** – Mesopotamiyadagi og'irlik o'lchovi. 550 gr kumushga barobar bo'lgan.

**MIRZOLAR MAKTABI** – qadimgi *Misrdagi* oliy va o'rta maktablar. Ushbu maktablarning ko'pchiligi *mirzolar* tayyorlab chiqargani uchun ushbu nomda atalgan.

**MIS TANGALAR** – misdan zarb qilingan qadimgi tanga pullar. Sharqda misdan turli narsalar yasash mil. avv. 4-mingyillikdan beri ma'lum. *Mis tangalar* mil. avv. VIII asrning oxiri – VII asrning boshlarida Qadimgi *Lidiya* davlatida paydo bo'lgan, O'rta *Osiyoda* mil. avv. IV asrdan boshlab muomalaga

kirgan. Afrosiyob hududida *Salavkiylar davlati* podshosi Antiox I nomi yozilgan Mis tangalar (mil. avv. III asr), Buxoro vohasidan kamonchi tasviri tushirilgan mayda Mis tangalar (mil. avv. IV asr) topilgan. IV asrda Sug'diyona va unga tobe yerlardagi aholi Mis tangalardan foydalangan. VII asr o'rtalarida Sug'diyona davlatida 1 kg misdan o'rtacha 425 tanga, VIII asr o'rtalarida esa 1 kg misdan o'rtacha 963 tanga zarb qilingan. Afrosiyobni arxeologik qazishlar vaqtida turli davrlarga oid Mis tangalar xazinasini topildi. Mis tangalar kumush tangalarga qo'shimcha sifatida ishlatilgan.

**MITRA** – zardushtiylikning eng muqqadas sanalgan ilohalaridan. Mitraga quyosh va yorug'lik, pokizalik va haqiqat xudosi, dehqonlar va chorvadorlar himoyachisi, hosil, ma'murchilik va to'kinsochinlikni ta'minlovchi sifatida e'tiqod qilingan. *Ahuramazda* bilan odamlar o'rtasidagi asosiy vositachi, jangovar yigit siymosida tasvirlangan. *Ahrimanga* qarshi chaqmoqlari bilan kurashgan, kamalakka Mitraning kamoni, o'q otuvchi yoyi deb sig'inganlar. Qadimda Hindiston, Eronda bosh xudolaridan biri. Mil. avv. VI asrdan Mitraga sig'inish Kichik Osiyo hamda Frot va Dajla daryolari oralig'ida tarqaldi. Keyinroq Mitraga sig'iniladigan alohida din – *mitraizm* paydo bo'ldi. Bu din ellinlar orasida, milodiy I asrdan boshlab Rimda, II asrdan butun Rim imperiyasida mashhur edi.

**MIXXAT** – Qadimda Old Osiyoda qo'llangan, mix yoki ponachalarga o'xshash chiziqcha (belgi)larni loy taxtachalarga o'yib tushurishdan iborat *ideografik yozuv* turi. Ushbu yozuv mil. avv. 3-mingyillik boshlarida *shumerlar* tomonidan yaratilgan. Bunda ayrim buyumlar va umumiy tushunchalarning nomi rasmlar bilan ifodalangan, masalan, oyoq tasviri “yurish”, “turish”, “olib ketish”, ma'nolarini anglatadi. Bunday belgilar miqdori 1000 tagacha yetgan. Shumer mixxati dastlab yuqoridan pastga, keyinchalik gorizontal holda – chapdan o'ngga qarab yozilgan. Mil. avv. 3-mingyillikning o'rtalarida mixxatning so'z-bo'ginli shakli paydo bo'lgan, belgilar miqdori 600 tagacha qisqartirilib, rasm - belgilar soddalashtirilgan. Ayni shu davrda shumer mixxati akkadliklar (bobilliklar va ossuriyaliklar) tomonidan o'zlashtirilib, somiy tillarga moslashtirilgan, belgilar soni 300 taga tushirilgan. Akkadliklar ishlab chiqqan mixxat keyinchalik, mil. avv. 2–1-mingyilliklar davrida bir qancha qo'shni xalqlar tillari (xett, elam, urart, qadimgi fors va b.)ga moslashtirilgan holda qo'llana boshlagan. Bu davrda mixxatlar harf-tovush-bo'gin yozuvlariga ancha yaqinlashib, shunday yozuvlarning kelib chiqishiga asos bo'lgan. Mil. avv. 1-mingyillik oxirlarida mixxatlar

o'rnini oromiy yozuvi egallagan. Mixxatda bitilgan juda ko'p yodgorliklar – tarixiy yozuvlar, turli rasmiy hujjatlar, og'zaki ijod namunalari, lug'atlar, ilmiy asarlar, diniy matnlar saqlanib qolgan. XVII asrdan boshlab Yevropa olimlari *Petro della Valle*, *Karsten Nubur*, *Gretefend* kabilari turli xalqlarga mansub mixxatlarni o'qishga uringanlar. Ammo ular yaxshi natijalarga erisha olmaganlar. Ingliz sayyohi *G.Roulinsin* Shumer mixxatini o'qib chiqishga muvaffaq bo'lgan. Olimlardan *Norris*, *Xins* va *Oppertlar* ham mixxatni o'qib chiqqanlar. Mixxatning o'qib chiqilishi natijasida olimlar qadimgi Mesopotamiya tarixi haqida qimmatli manbalarga ega bo'lganlar.

**MOLOX** – Suriya-Finikiya aholisining hurmatli xudolaridan bo'lgan. Bibliyaga ko'ra, unga insonlarni, ayniqsa bolalarni qurbonlikka keltirishgan. Falastin, Finikiya va Karfagenda e'zozlashgan. Xinn vodiysi doimiy qurbonlikka keltiriladigan joy hisoblangan. Finikiya mustamlakasi bo'lgan Karfagenda mil. avv. III asrda ham xudo Molox sanam haykali oldida bolalarni gulxanga tiriklayin tashlab, kuydirib qurbon qilganlar.

**MOT** – Suriya va Finikiya diniy e'tiqodida o'lim xudosi.

**MOTIGA** – uchiga hayvon shoxi yoki tosh paykon bog'langan oddiy ketmoncha.

**MUMIYOLASH** – murda yoki uning ayrim a'zolari va to'qimalarini chiritmaydigan qilib uzoq saqlash usuli. Buning uchun jasadga chirituvchi mikroblarni o'ldiradigan maxsus antiseptik moddalar shimdiriladi. Jasadga maxsus ishlov berilganidan keyin ko'pdan ko'p matolar bilan o'rashgan, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezashgan. Matolar qati orasiga omad keltiruvchi *tumorlar* qo'yilgan. Shu taxlit ishlov berilgan inson mayyiti *mumiyo* deyilgan. Odatda mumiylash qariyb 70 kun davom etgan. Bu qadimdan ma'lum, dastlab Misrda qo'llanilgan; ular balzamlash vositalariga xushbo'y modda – balzam qo'shib ishlatganlar. Ilgari murdaning boshi, ko'krak, qorin bo'shliqlarini turli tuz eritmalari bilan to'ldirganlar.

**NAQSHI RUSTAM** – Sheroz (Eron)dan 50 km, qadimgi *Istahr* shahri (Taxti Jamshid) yaqinida joylashgan Husaynko'h qoyalaridagi *ahamoniylar* sulolasi podshohlarining maqbaralari hamda kitobalari. Naqshi Rustam Eron sarkardasi – *sosoniylardan Yazdigard III* armiyasi bosh qo'mondoni Rustam (636-yilda arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan) nomiga qo'yilgan. Naqshi Rustam *Doro I*, *Artakserks I* va *Doro II* larning *Ko'hi Rahmat* bag'riga kovlab joylashtirilgan maqbaralaridan iborat. Doro I maqbarasi to'rtburchak shaklida, zardushtiylik

an'anasi asosida yaratilgan bo'lib, eng qadimgi yodgorlikdir (*Doro qabri kitobalari*). Maqbaradan pastda, chap tomonidagi relyefda sosoniylar podshosi *Shopurning* Rim imperatori *Valerian* ustidan g'alabasi (mil. 260-yil) va Valerianning ot minib turgan Shopur I oyog'iga tiz cho'kib, bosh egib turgani tasvirlangan. Relyef ostidagi yozuvda fors-larning Zakavkazyega yurishi ifodalangan (mil. 262-yil). Maqbaralarning qarshisida burj — Zardusht ka'basi joylashgan. Uning tomi katta hajmdagi yassi tosh plitalar bilan yopilib, devorlarida deraza o'rnida ochiq joylar qoldirilgan. Eron, Kavkaz va O'rta Osiyo aholisi uylariga o'xshatib qurilgan burjning devorlariga *pahlaviy, parfyani* va *yunon* yozuvlarida Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan mamlakatlar, bu ziyoratgohga keltirilgan hadyalar ro'yxati berilgan. Naqshi Rustam manzaralari va kitoblari ahamoniylar va sosoniylar bosib olgan mamlakatlar va xalqlar tarixi, etnografiyasi va madaniyatini o'rganishda muhim manbadir.

**NARNAR** — qadimgi shumerliklarda oy xudosi.

**NAXUNT** — qadimgi elamliklarda quyosh va adolat xudosi.

**NEYT** — Qadimgi Misr rivoyatiga ko'ra, dastlab osmon xudosi, keyinchalik undan dunyo va quyosh yaralgan. Shuningdek u malikalar homiysi, urush va ov ma'budasi. Sais shahrida e'zozlangan. Quyi Misrda toj kiygan ayol siyomosida, ko'proq ikki yosh timsohni boqayotgan ona timsolida tasavvur qilishgan. Qadimgi misrliklar uning muqaddas ramzi bo'lgan o'q-yoyga topinganlar. Neytga sig'inish XXVI Sais sulolasi davrida ayniqsa keng tarqalgan.

**NIL** — Qadimgi Misrda Nil daryosining xudosi, u ajdaho soqchilik qilayotgan g'orda humlardan suv quyadi. Qancha suv quyish uning irodasiga bog'liq. Yunon afsonalariga ko'ra, Misrning ilk podshohlaridan biri hisoblanadi va sug'orish tizimining bunyodkoridir.

**NOMLAR** (*yunoncha nomos — mamlakat, viloyat, okrug*) — Qadimgi Misrdagi dastlabki kichik davlatlarning yunonlar tomonidan nomlanishi (misrcha — *sepat*). Misr davlati yagona irrigatsiya tizimini barpo etish va ishlashi uchun zarur bo'lgan siyosiy birlashmalar — Nomlardan tashkil topgan edi. Har bir nomning aniq belgilangan chegarasi, siyosiy va diniy markazi, qo'shini, gerbi va homiy xudolari bo'lgan. Nomlarning ma'muriy apparati nomarxga bo'ysungan. Podshohlardan Snofru va Neusera (IV va V sulolalar) ibodatxonalarida 97 ta Qadimgi podshohlik (mil. avv. 28–23 asrlar) nomlarning ro'yxati keltirilgan.

**NOMARX** — yunoncha so'z bo'lib, davlat boshlig'i, hukmdori degan ma'noni bildiradi.

**NOUS** (*novs*) — Zardushtiylarning ostadon

(ossuariy)larini saqlash uchun loy, tosh, g'ishtdan qilingan inshoot. Zardushtiylarda o'liklarni yerga ko'mish, suvga tashlash, o'tda yoqish man qilingan. O'liklarni qoyalari, qumlar ustiga tashlab, daxmalarga qo'yib, yirtqich hayvon va qushlarga yedirganlar, suyagini ostodon yoki xum va xumchalarga solib, nousda saqlaganlar. Nouslar 1,5 m kenglikdagi uzun oxur shaklida to'rt devor bilan o'ralgan, usti gumbaz bilan pastak qilib, to'rtburchakli bino shaklida yopilgan. Ba'zi hollarda nouslar odamlar yashaydigan uylarning devorlari orasida yoki hovlida joylashgan. Nouslar Xorazmda (mil. avv. I-mingyillikning o'rtalariga oid), Samarqand atrofida (milodiy XIII asrga oid) topilgan.

**NUN** — Qadimgi Misrda boshi ajdaho, tanasi odam qiyofasida tasvirlangan suv xudosi.

**NUT** — Qadimgi Misrda bahaybat sigir qiyofasida tasvirlangan osmon xudosi.

**NYUY VA** — Qadimgi Xitoy afsonalarida atilishicha, odamni loydan yaratgan xudo.

**ORIYLAR** — Hindistonning ko'p mingyillik tarixida uni birinchi bor istilo qilgan qabilalar. "*Oriy*" so'zi qadimda Eronzabon qabilalarning nomi bo'lib, "*kelgindi*", "*begona*", "*boshqa yerlik*" ma'nolarini bildirib, keyinchalik "*xo'jayin*", "*aslzoda*" ma'nosini anglatgan. Qadimgi hind manbalarida oriylarning muqaddas yurti *Ar'yavarta* haqida zikr qilinadi. Eroniy va hind-oriy qabilalari ajdodlarining keng urug'chilik aloqalari yoki birligi, ular tilining yaqinligi, grammatik va asosiy lug'at boyligi umumiy bo'lganligi, diniy tushunchalarning bir ekanligi, shuningdek urf-odatlari, olovga topinishning o'xshashligi diqqatga sazovor. Qadimgi hindlar va eroniylar birga yashab, hind-oriy umumiylikni tashkil etganlar. Ularning ajdodlari avvalo Markaziy Osiyo va unga qo'shni bo'lgan o'lkalarda yashaganlar degan fikr mavjud. Bu hududda yashaganlarning bir guruhi Hindistonga, boshqasi esa G'arbiy Osiyoga borganlar. Bu jarayon mil. avv. 2-mingyillikning o'rtalarida ro'y bergan. Ba'zi olimlar oriylarni Hindistonga ikki yo'l orqali, ya'ni Kavkaz va Markaziy Osiyo orqali o'tishi mumkinligini taxmin qiladilar. Bu jarayon bir necha yuz yillar mobaynida ro'y bergan. O'sha davrda mahalliy qabilalar bilan harbiy to'qnashuvlar, oriy qabilalarning ichida ham o'zaro nizolar bo'lib turgan. Hind-oriyning Hindistonda mahalliy aholisi bilan assimiylatsiya jarayoni va Oriylarning Sharqqa harakati tezroq kechgan. Oriylar mahalliy qabilalarning ijtimoiy, siyosiy tizimiga ma'lum darajada o'zgartirishlar kiritgan, o'z navbatida, hindlarning diniy tushunchalari ham hind-oriyga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Asta-sekin hind-oriy va mahalliy qabila yutuqlarini mujassamlashtirgan, Shimol va Sharqiy

Hindistonning anchagina aholisi uchun umumiy bo'lib qolgan yangi madaniyat vujudga kelgan. Sharqiy Yevropa va Uralda yashagan ko'chmanchi qabilalar. Mil. avv. 1500-yillarda Hindiston hududiga bostirib kiradi. Ularning hujumidan so'ng *Moxenjodaro* va *Xarappa* tamomila vayronaga aylanadi, shundan so'ng ushbu sivilizatsiyalar qaytib o'zini tiklolmaydi.

**OROMIY YOZUVI** – G'arbiy som yozuvlaridan biri; oromiylar mil. avv. 1-mingyillikning boshlarida *finikiy yozuvi* asosida shakllantirgan *kansonant yozuv*. Oromiylar finikiy yozuvining alifbo tarkibini o'zgartirmagan holda (oromiy alifbosi ham faqat undoshlarni ifodalovchi 22 harfdan iborat bo'lgan), unga ayrim o'zgarishlar kiritganlar: harflarni tashkil etuvchi unsurlar sonini kamaytirish yoki unsurlar shaklini o'zgartirish orqali juda ko'p harflarning shakllarini soddalashtirganlar va yozuvni tez yozishga moslashtirganlar. Oromiy yozuvida so'zlar asosan ajratib yozilgan: dastlabki so'zlarni ajratuvchi belgilar – bir vertikal chiziq yoki nuqta qo'llangan, keyinchalik esa so'zlar o'rtasida bo'sh joy qoldirish bilan so'zlar o'zaro ajratilgan. Oromiy yozuvida harflar alohida-alohida, ligaturasiz (2 harfni bir harf shakliga keltirmasdan) yozilgan; o'ziga xos xususiyatlaridan biri d va r harflarining farqlanmasligidir. Oromiy yozuvi va oromiy tili mil. avv. VI–IV asrlarda yangi ossur va qadimgi fors davrlarida butun G'arbiy Osiyoda, hatto Misr, Kichik Osiyo va Hindistonda devonxonalarining rasmiy yozuvi va tiliga – xalqaro aloqa vositasiga aylangan. Oromiy yozuvi nafaqat monumental toshbitiklarda, balki sopol buyumlarda (sopol parchalarida) va papiruslarda saqlanib qolgan. Bu yozuv g'arbiy som yozuvlarining mil. avv. III–II asrlardagi ko'plab oromiy variantlarining, suryoniy, kvadrat shaklli yahudiy, arab, pahlaviy, sug'd, uyg'ur, mo'gul yozuvlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan. Oromiy yozuvidagi eng qadimgi yozma yodgorliklar mil. avv. IX–VIII asrlarga mansub.

**OROMIYLAR (arameylar)** – Arabiston yarim orolidan chiqqan ko'chmanchi somiy qabilalar. Mil. avv. XIV–XI asrlarda G'arbiy Osiyo bo'ylab tarqalganlar. Ilk bor mil. avv. 3-mingyillik o'rtalariga oid manbalarda qayd etilgan. Oromiy tili milodning boshlarida G'arbiy Osiyoning asosiy og'zaki nutqiga aylangan. Oromiylarning avlodlari – hozirgi ossuriylar (oysorlar).

**OSIRIS** – Qadimgi Misrda yer osti saltanati xudosi hisoblangan. Rivoyatda aytilishicha, Osiris Misrning ilk podsholaridan biri bo'lib, u o'z xalqini dehqonchilikka o'rgatadi.

**OSMON O'G'ILLARI** – Chjou podsholigi hukmdorlari o'zlarini shu nom bilan atashgan.

**OSSUARIY** (*ostadon* lotincha *os* – *suyak*) – Zardushtiylik diniga mansub xalqlarda marhumning suyagi solingan sopol, tosh yoki ganch idish, suyakdon. Zardushtiyalarda o'likni yerga dafn etish man etilgan. Bunda ular “Ona yer muqaddas, u barcha jonzotning boquvchisi, tuproqning tarkibini buzmaslik kerak”, degan aqidaga rioya qilishgan. O'rta Osiyo xalqlarida ossuariyga solib ko'mish odati mil. avv. 1-mingyillikning 1-yarmida shakllanib, milodning VIII asrgacha (islomiy dafn rusumlari qabul qilinguncha) davom etgan. Xorazmdan topilgan qadimgi ossuariy haykallar shaklida bo'lib, o'liklarni ilohiyashtirishni ifodalagan.

**PALERMO TOSHI** – Qadimgi Misr yilnomalari o'yib bitilgan doriot plita parchasi (43,5x25 sm). Qadimgi fir'avnlarni sulolasigacha bo'lgan vaqtdan boshlab (mil. avv. 4-mingyillik oxiri) bir qancha asrlarni qamrab olgan. Matn 5-sulola davrida (mil. avv. XXV asr) tushirilgan. 1877-yildan Palermo (nomi shundan) muzeyida saqlanadi. Palermo toshi Qadimgi Misr xronologiyasi bo'yicha o'ta muhim manba bo'lib, fir'avnlarning iqtisodiy, harbiy va diniy siyosati yuzasidan qimmatli ma'lumotlarni qamrab olgan.

**PAPIRUS** – tropik yerlarda o'sadigan qamishsimon o'simlikdan yasalgan yupqa qog'oz. Qadimgi Misr aholisi va boshqa bir qancha xalqlar yozuvni shunga yozganlar.

**PAROPAMIS** – Kvint Kursiy Ruf asarlarida *Hindikush tog'*ining atalishi.

**PARFIYA TILI, parfiy tili** – hind-yevropa tillari oilasidagi eroniy tillar guruhiga mansub o'lik til. Arshakiylar sulolasi hukmronligi davrida (mil. avv. III asr – mil. III asr) Parfiya davlatining rasmiy tili (ilk davrlarda grek va oromiy tillari bilan birga). Arshakiylar davrigacha tarixiy Parfiya viloyatida hamda Kaspiy dengizining janubi sharqida, arshakiylar davrida esa Eron, Armaniston, Iroq va O'rta Osiyoda ham tarqalgan. III–VI asrlarda sasoniyalar saltanatida rasmiy til pahlaviy (o'rta fors tili) bo'lganda ham qisman qo'llanishda bo'lgan va asta-sekin fors tiliga aralashib singib ketgan (VI asr oxirlari). Parfiya yozuvi *oromiy yozuvidan* kelib chiqqan. Qadimgi yozma yodgorliklari mil. avv. I asrga mansub.

**PARFYANLAR, parfiyaliklar** – elat, mil. avv. 1-mingyillik va milodning boshlarida Kaspiy dengizining janubi sharqida, hozirgi Janubiy Turkmaniston va Xurosonda yashaganlar (qadimgi Partava – Parfiya viloyati). Parfyanlar eroniy tillardan birida so'zlashgan, asosan, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Parfiyadagi irrigatsiya inshootlari mil. avv. 1-mingyillik boshlaridayoq ma'lum bo'lgan. Parfyanlar Midiya

podsholigi tarkibiga kirgan, so'ngra esa (Kir II davrida) – *Ahamoniylar davlati* qo'l ostida bo'lgan, ularga soliqlar to'lab, jangchilar (otliq kamonchilar) yetkazib berishgan. *Doro I* davrida Parfiya va qo'shni Girkaniyada qo'zg'olon ko'tarilib, u ahamoniylar qo'shini tomonidan qiyinchilik bilan bostirilgan (521-yil 8-mart va 12-iyuldagi janglar). Mil. avv. IV asrning 20-yillarida parfyanlar *Aleksandr* tomonidan tobe etilgan, so'ngra (mil. avv. 281-yildan) Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan. Mil. avv. taxminan 250-yilda mustaqil Parfiya podsholigi barpo etilgan, uning asosiy o'zagini parfyanlar yashagan hudud tashkil qilgan. Parfyanlarning asosiy dini – *zardushtiylik*; *Mitra* va *Nanayya (Anaxita)* kultlari ham keng tarqalgan. Parfyanlar yozuvi oromiy alifbosi asosida vujudga kelgan. Parfyanlar dunyoviy adabiyot obidalaridan ozginasigina forscha qayta ishlangan shaklda saqlanib qolgan. Parfiya tili mil. III–IV asrlarda *sosoniylar* davrida ham muomalada bo'lgan; taxminan VI asrda u fors tili tomonidan siqib chiqarilgan. Qadimgi parfyanlarning avlodlari turkman xalqi va Sharqiy Eron (Xuroson)dagi fors xalqi etnogenezida qat-nashganlar.

**PAYG'AMBAR (savobli ishlar xabarchisi)** – Zardushtiylik dinining asoschisi Spitama Zardushtning 40 yoshida qabul qilib olgan faxriy nomi.

**PINKER** – Qadimgi elamliklarda xudolar onasi.

**PIRAMIDA** – *Qadimgi va O'ra podsholik* davrida Misr fir'avnlari va ayonlari o'zlari uchun toshdan qurdirgan ulkan sag'ana. Piramidalar misrlik fir'avn va amaldorlarning kuch-qudrati hisoblangan. Piramidalar asosi uch, to'rt va ko'pburchakli geometrik shaklda bo'lib, asosi keng, yuqori tomoni torayib borgan.

**PODSHO TIRSAGI** – Qadimgi Misrda qo'llar uzunligi turlicha bo'lgani uchun shunday etalon joriy etilgan bo'lib, u 52,5 santimetr ga teng bo'lgan. "*Podsho tirsagi*" butun mamlakat uchun standartga aylangan.

**PONT EVKSIN DENGIZI** – Qora dengizning qadimiy nomi.

**PTAX** – Qadimgi Misr podsholigining poytaxti Memfis shahrining xudosi. Rivoyatlarga qaraganda u olamni yaratayotganida har bir narsaning nomini odamga o'rnatgan, xudo shunchalik qudratliki, uni asl qiyofasida ko'rishning iloji yo'q.

**QADIMGI ERON DINIY E'TIQODI** – qadimgi eronliklarning ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Qadimgi eronliklar tog'-u tosh, suv, daraxt va har xil hayvonlarni ulug'laganlar. Tabaqaviy jamiyat davlatlar tashkil topishi munosabati, xo'jalikning rivojlana borishi natijasida e'tiqodda ham o'zgarishlar sodir bo'la boshlagan.

Xususan elamliklar *Pinker* degan xudolar onasini ulug'lab, unga e'tiqod qilganlar. Ularda *Inshushinak* Suza shahri homiysi yerosti homiysi bo'lgan. *Naxunt* esa quyosh va adolat xudosi hisoblangan. Eronning ko'p joylarida totemizm, fetishizm kabi ibtidoiy din shakllari uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan edi. Midiya podshosi *Astiyag* davrida zardushtiylik keng tarqala boshlaydi. Bu dinda *Ahuramazda* yaxshilik, haqiqat va odillik xudosi hisoblangan. *Axriman* esa zulmat, o'lim va yomonlik keltiruvchi xudo bo'lgan. Eroniylar e'tiqodiga ko'ra bu ikki xudo o'rtasida kurash bo'lgan. Zardushtiylikda *Mitra* quyosh, *Anaxita* suv va hosildorlik shuningdek, yorug'lik, oy va shamol xudolariga e'tiqod qilganlar. Eron shohi *Kserks* diniy islohot o'tkazib mayda xudolar, ma'budalar va dev-parilarga e'tiqod qilishni taqiqlagan. *Ahuramazda* eronliklarning birdan bir samoviy tangrisi deb e'lon qilingan.

**QADIMGI HIND DINIY E'TIQODI** – qadimgi hindlarning ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Hindistonda yashagan aholi ko'p zamonlar tabiat hodisalariga, ajdodlari ruhiga, tog'-toshlarga, hayvonlarga, suv va daraxtlarga sig'inish uzoq davom etgan. Ularda oy, quyosh va olovga sig'inish keng tarqalgan edi. Hindlarda *Agni* olov, *Indra* momaqaldiroq, *Aditina* esa hosildorlik xudosi hisoblangan. Hindistonda diniy e'tiqodning kelib chiqishi ham boshqa xalqlar kabi ularning turmush tarzi va xo'jaligi bilan bog'liqdir. Davlatlar vujudga kelishi munosabati bilan Hindistonning ko'p joylarida *Braxman dini* keng yoyilgan. Bu din mil. avv. IX–VIII asrda vujudga kelib, uning xudosi *Braxma* bo'lgan. Bu dinning ruhoniylari *braxmanlar* deyilgan. Ularning ta'limoti bo'yicha *Braxma* olam va odamni yaratuvchi hisoblangan. *Aditinani* "*hammaning onasi*", "*hamma narsaning mohiyati*", "*abadiyat*", "*yaratilgan va yaratuvchi*" kabi nomlar bilan ulug'laganlar. Dastlab momaqaldiroq, hosildorlik xudosi hisoblangan *Indra* keyinchalik hokim, hukmdor va podsholar homiysiga aylangan. Hindistondagi diniy e'tiqodlardan yana biri buddizm bo'lgan. Bu din mil. avv. VII–VI asrlarda vujudga kelgan. Uning asoschisi shahzoda *Siddhartha Gautama* bo'lgan. U *Budda* – "*Marifatparvar*" laqabi bilan o'z ta'limotini mamlakat bo'ylab 40 yil targ'ib qilgan. U *braxmanlik*dagi kasta-tabaqalarga bo'lishni qoralab, jamiyatdagi barcha kishilar xudo oldida teng huquqqa egadirlar, deb ta'lim bergan. Keyinchalik buddizm davlat dini darajasiga ko'tarilib, avval Turnning janubiy hududlari, keyin Xitoy va Markaziy Osiyoga yoyiladi.

**QADIMGI HIND YOZUVI** – Hind vohasi va Panjobda yashagan qadimgi hindlarning yozuvi.

Arxeologlar Xarappa va Mohenjodardan rasm belgilar tushirilgan muhrlarni topganlar. Tilshunos olimlar Hind vohasidagi yozuvlarni tekshirib ko'rib, hind yozuvi 400 belgi-rasmdan iborat desalar, boshqalari 250 va yana o'zgalari 300 belgi-rasmdan iborat deb o'ylaydilar. Ammo hanuzgacha qadimgi hind yozuvlari to'liq o'rganilmagan. Ba'zi olimlar hind yozuvini shumerlarnikiga, boshqa olimlar esa xett yozuviga o'xshash deydilar. Lekin mil. avv. V asrdan boshlab Hindistonda *braxmi*, *kxaroshtxi*, *aramey*, *gupta* va boshqa yozuvlardan foydalan-ganlar.

**QADIMGI MISR DINIY E'TIQODI** – Qadimgi Misr aholisining ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Misrliklar turli fanlar sohasida ancha bilimlarga ega bo'lishsa-da, hali tabiat hodisalari oldida ojiz bo'lganlar. Ular Nil toshqini, zilzilalar, Sahroi Kabir tomondan esadigan qum bo'ronlari, momaqaldiraq, sayyoralar va yulduzlarning harakatida qandaydir g'ayritabiyy kuch bor deb tasavvur qilganlar. Bu hodisalar misr-liklarning dini va e'tiqodida o'z ifodasini topgan. Qadimgi misrliklarda *fetishizm*, *totemizm*, *animizm*, *quyoshparastlik*, *podshoni ilohiylashtirish* va diniy e'tiqodning boshqa shakllari keng tarqalgan edi. Qadimgi misrliklarda *fetish e'tiqodi* – xudolarning ayrim buyumlarini sehrli deb hisoblab, ularga topinishdir. Xususan, juda qadim zamondan boshlab ma'buda *Neyming* muqaddas ramzi bo'lgan o'q-yoyga topinganlar. Shuningdek, xudo *Sopduning* “o'tkir” tishlariga, xudo *Uxning* pay va tasmalar bilan bezatilgan hassasiga, xudo *Minaning* yog'ochdan ishlangan buyumiga sig'inganlar. Misrliklarning qadimgi e'tiqodlaridan yana biri bu – tabiatdagi buyumlar va hodisalarga sig'inish hisoblanadi. Ular tog'larga, muqaddas toshlarga sig'inganlar. Misr dehqonlari va aholisi “Muqaddas yer” xudosi *Jebni*, suv xudosi *Nunni* ilohiylashtirganlar. Suv ularga butun tabiatning asosi bo'lib ko'ringan. Misrliklar Nil daryosini ilohiylashtirib uni *Xapi* deb ataganlar. Suv xudosi boshi ajdaho, tanasi odam qiyofasida ifoda etilgan. Misr aholisi quyosh hamda uning yerdagi ramzi olov-o'tni ham ilohiylashtirganlar. Rivoyatga ko'ra, tanasi odam, qarchig'ay boshli Quyosh xudosi *Ra* xudolar podshosi hisoblangan. U har kuni oltin qayiqchasida osmonni kezib chiqadi va g'arbg'a tushadi. Qadimgi Misrda *totem e'tiqodi* ham tarqalgan edi. Misrliklar xudolar hayvonlar siymosiga o'tib olib, mushuk, qo'y, sigir, ho'kiz, arslon va boshqa hayvonlar shaklida odamlar orasida yashaydi deb hisoblashgan. Misrliklar xudolarning bir qancha joni mavjud: ulardan biri hayvon tanasida, boshqasi esa hayvon haykalida yashaydi deb bilishardi. Jumladan,

Memfis shahrining homiy xudosi *Ptaxning* yer yuzidagi qiyofasi *Apis* bo'lib, u peshanasi va belida oq qashqasi bo'lgan qora ho'kiz timsolida tasavvur etilgan. Yovuzlik, omadsizlik, sahro va bo'ron xudosi *Set* esa odam tanali, eshak boshli qilib tasvirlangan. O'simlik, dehqonchilik va yerosti saltanati xudosi – *Osiris* bo'lgan. Rivoyatlarda aytilishicha, Osiris Misrning ilk podsholaridan biri bo'lib, o'z xalqini dehqonchilikka o'rgatgan ekan. U birodari *Set* tomonidan o'ldiriladi. Lekin Osirisning singlisi *Isida* uni mumiyolagan va qayta tiriltirgan. Bundan tashqari misrliklar *Maat* (adolat va adliya ilohasi), *Anubis* (marhumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar pos-boni), *Xatxor* (musiqqa, go'zallik va sevgi ilohasi), *Tot* (oy, donishmandlik va tabiblik ilohi) kabi xudolarga ham sig'inishgan. Shuningdek, Qadimgi Misr aholisi fir'avnlarni ham ilohiylashtirishgan. Fir'avnlarni ilohiylashtirish ilk podsholik davriga borib taqaladi. Yangi podsholik davrida esa bu yanada kuchayadi. Fir'avnni xudo darajasiga ko'tarib *Amon-Ra farzandi* deb ataydilar. Qadimgi misrliklar diniy e'tiqodlar bilan bog'liq turli irim, urf-odat va marosimlarni tantanali o'tkazganlar. Misrliklar e'tiqodicha, mabodo Yer yuzida maxsus marosimlar ado etilmasa, xudolar odamlarga madad bermay qo'yadilar. Xudolar va odamlar o'rtasida vositachi bo'lgan koinlar diniy marosimlarni qurbonlik bag'ishlash yo'li bilan o'tkazar edilar.

**QADIMGI MISR MAORIFI** – Qadimgi Misrdagi ta'lim-tarbiya va madaniy-marifiy muassasalar tizimi. Qadimgi Misr davlati va xo'jaligini boshqarish uchun xat-savodli, bilimdon kishilar zarur bo'lgani uchun ham Misr fir'avnlari va a'yonlari xat-savodli va bilimdon xodimlar tay-yorlashga alohida ahamiyat berganlar. Mamlakatning barcha shaharlari va yirik qishloqlarida o'qitish, ta'lim-tarbiya berish uchun maktablar bunyod etilgan. Maktablarda fir'avnlari, a'yonlar, amoldorlar, ruhoniylarning bolalari va o'qishga havaslari bo'lgan kishilarning farzandlari ham o'qiganlar. Misrda boshlang'ich, o'rta va oliy maktablar bo'lgan. Boshlang'ich maktablarga bolalar 5–6 yoshdan jalb etilib, harflar o'rgatilib, savodi chiqarilgan. Bolalar maktabda husnixat bilan shug'ullanib, ular har kuni 3 sahifa yozishlari kerak bo'lgan. Misrdagi o'rta va oliy maktablarning ko'pchiligi mirzolar tayyorlab chiqarganlar. Uni “*Mirzolar maktabi*” ham deyishgan. Misr fir'avnlariining markaziy mahkamasi qoshida podsho xazinasini uchun maxsus amaldor mirzolar tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan. Bu maktablar katta tajribaga ega bo'lgan bilimli ustoz – o'qituvchilar bilan ta'minlangan. Maktablarda matematika, geometriya, astronomiya, tarix, tibbiyot, adabiyot

kabi dunyoviy va diniy bilimlar o'qitilgan. Misr maktablarida intizom juda qattiq bo'lib, u tan jazosi bilan jazolangan. O'sha vaqtda yozilgan "nasihatlar"da: *"Ey mirza, dangasalik qilma, yo'qsa jazoga duchor bo'lasan. Qo'lingda kitob bo'lsin, ovoz chiqarib o'qigin va o'zingdan ko'p biladiganlar bilan maslahat qilib ish tut. Bir kun ham yalqovlik qilma yo'qsa kaltak yeysan. Axir bolaning qulog'i yelkasida bo'lsa-da, qachon ursang, shunda uning qulog'iga gap kiradi"*, — deb yozilgan.

**QADIMGI MISR QO'SHINI** — qadimgi Misr fir'avnlarning jangovar qo'shini. Misr fir'avnlari mamlakatni tashqi dushmanlardan himoya qilish va o'zga o'lkalarni bosib olish, mamlakatdagi ichki qo'zg'olonlarni bostirish uchun kuchli qo'shin zarur bo'lgan. Shuning uchun Misr fir'avnlari o'z qo'shinlarini tez-tez qayta tuzib turganlar. Dastlabki podsholiklar davrida Misr qo'shinlari faqat piyoda askarlardan iborat edi. Yangi podsholikdan boshlab esa Misr qo'shinida ot qo'shilgan jang aravalaridan iborat yangi qismlar tuzilgan. Misrliklar jang aravalaridan tuzilgan harbiy qismlardan foydalanishni giksoslardan o'rganganlar. Shu davrdan boshlab Misrda yilqichilikka katta e'tibor berilib, ot parvarish qilinadigan alohida davlat xo'jaligi tashkil etilgan. Piyoda, otliq va jang aravalaridan tuzilgan harbiy qismlarning askarlari o'q-yoy, nayza, oybolta, qilich va boshqa aslahalar bilan qurollangan edilar. Misr jangchilari qalqon tutib, dushmanlarning o'tkir qurollaridan himoyalnadigan zirhli kiyimlar kiyib jangga kirganlar. Og'ir qurolli qismlar kamonchi va nayzachi guruhlari bilan to'ldirilgan. Misr qo'shinlarida ot qo'shilgan ikki g'ildirakli yengil jang aravalari alohida o'rinni egallardi. Aravada ikki askar bo'lib, jang vaqtida ularning biri otlarni boshqarar, ikkinchisi esa kamondan dushmanlarga o'q uzib, nayza sanchib, qilich chopar edi. Jang vaqtida ular dushman ustiga shiddat bilan hujum qilar, chekinayotgan dushmanlarni tezkorlik bilan ta'qib qilib borardi. Misr fir'avnlari dengiz jangini olib boorish uchun harbiy dengiz floti qismlarini ham tuzganlar. Yangi podsholik davrida misrliklar butun Sharq dunyosida eng kuchli qo'shinga ega bo'lganlar.

**QADIMGI MISR TAQVIMI** — qadimgi Misr astronomlari tomonidan tuzilgan dunyodagi birinchi quyosh taqvimi. Taqvimga ko'ra, bir yil 365 kun bo'lib u 12 oyga bo'lingan. Har bir oy 30 kundan iborat bo'lib, qolgan 5 kun bayram hisoblangan. Qadimgi Misr taqvimida oylar quyidagicha nomlangan: 1. *Tot*. 2. *Paofi*. 3. *Xatir*. 4. *Xoyan*. 5. *Tibi*. 6. *Mexir*. 7. *Famenot*. 8. *Farmuti*. 9. *Paxon*. 10. *Paini*. 11. *Epifi*. 12. *Mesore*.

**QADIMGI XITOIY DINIY E'TIQODI** — qadimgi xitoyliklarning ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Qadimgi Xitoyda diniy e'tiqodning shakllanishi ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Shan-In davridagi diniy e'tiqodlar ibtidoiy din shakllaridan kelib chiqqan ekan. Qadimgi xitoyliklar quyosh, oy, osmon, osmon jismlari, sayyora va yulduzlarga topinganlar. Shu bilan birga ular tabiat va tabiat hodisalari, daraxtlarga sig'inib tog' va daryolarni ulug'laganlar. Odamlar ana shu ulug'langan narsalarga e'tiqod qilganlar. Xitoyliklar e'tiqodiga ko'ra har bir narsa va hodisaning alohida xudolari bo'lgan. Bu xudolar alohida nomlar bilan atalgan. Ularda oliy xudo *Di* bo'lib, u odamlarga qurg'oqchilik, suv toshqinlari yuborgan yoki baxt ulashgan. Afsonalarning birda aytilishicha, *Nyuy Va* degan xudo odamni loydan yaratgan ekan. Xitoylarning diniy afsonalarida tabiiy ofatlar, odamlarni bu ofatlardan qutqaruvchi qahramonlar haqida hikoya qilinadi. Qadimgi xitoyliklar o'lgan ajdodlari ruhiga ham e'tiqod qilganlar. Bu fanda *animizm* deyiladi. Mil. avv. III—II asrlarda Xitoyga Hindistondan O'rta Osiyo orqali budda dini kirib kelgan va yoyilgan.

**QADIMGI XITOIY TIBBIYOTI** — Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan tabobat. Bu diyorda tibbiyot qadimdan yaxshi rivojlangan. Xitoy tabiblari bemor tomirlarini ushlab ko'rib, ularning kasalliklarini aniqlab, tekshirib so'ng davolashgan. Qadimgi Xitoyda *Van Shu Xe*, *Ban Sio* va *Xua Tu* kabi mashhur tabiblar yetishib chiqqan. Xitoy tabiblari dunyoda birinchi bo'lib, tomirdan shifobaxsh suyuqlik dori yuborib davolash usulini qo'llaganlar. O'sha vaqtda Xitoyda dori-darmonlarning 1000 dan ortiq turi ma'lum bo'lgan.

**QADIMGI XITOIY YOZUVI** — qadimgi xitoyliklar yaratgan yozuv. Ular hozirgi kunimizdan 3,5—4 ming yil ilgari o'zlarining yozuvlarini yaratganlar. Ularning yozuvi ham misrliklarniki singari rasm-belgilardan — iyerogliflardan iborat bo'lgan. Har bir iyeroglif butun bir so'zni ifoda etgan. Bir kichik shoxcha belgisi "daraxt", ikkitasi "o'rmon", uchta esa "chakalakzor" kabi ma'noni bildirgan. Xitoydagi dastlabki yozuv mil. avv. 2-mingyillikda kashf etilgan. Bu Shan-In davlati davriga to'g'ri kelgan. O'shanda yozuvlar soni 2000 ga yaqin bo'lgan. Xan davrida esa iyerogliflarning soni 18000 ga yetgan. Xitoy yozuvlari asrlar mobaynida o'zgarishlarga duch kelgan. Ammo u o'zining asosiy belgilarini zamonamizgacha saqlab qolgan.

**QADIMGI PODSHOLIK DAVRI** — Qadimgi Misrda mil. avv. 2800—2250-yillarni o'z ichiga olgan podsholik davri. Bu davrda davlat poytaxti Memfis



shahri bo'lib, 3–6-sulola vakillari hukmronlik qilganlar. Qadimgi podsholik davrining asosiy xususiyati davlatni markazlashtirishga harakat qilinishi, yangi yerlarni kengaytirib, sug'orish inshootlarini qurishga katta ahamiyat berilishi, misni, toshni qayta ishlash taraqqiy etib, kulolchilikni rivojlanishi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo rivojlanishda davom etishi, ehromlar qurilishi bo'lgan. Bu davrda Misrda xususiy yer egaligi paydo bo'lgan. Oliy mansabdor – tshati (vazir) bosh bo'lgan davlat apparati mustahkamlangan. Fir'avnlr, shuningdek, bosh kohin ham bo'lib, barcha yer va fuqarolarning egasi hisoblangan. Jamoa a'zolari va qisman kelgindilar (asosan, Kush aholisi)dan tuzilgan muntazam qo'shin barpo qilingan. Ilohiylashtirilgan fir'avnlarning mutlaq hokimiyati g'oyasi mahobatli maqbaralar – *ehromlar* qurilishida mujassamlantirilgan. Bu ayniqsa III–IV sulolalar davrida (*Snofru, Xeops, Xefren, Mikerin ehromlari*) avj olgan. Ularni bunyod etishda qul va dehqonlar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. avv. 23–22 asrlarda Misr o'zaro nizoda bo'lgan bir qancha nomlar va mayda davlatlarga bo'linib ketgan. Taxminan 2050-yilda *Mentuxotep I* davrida mamlakat Fiva shahri gegemonligi ostida qayta birlashgan. Bu shahar Misrning poytaxtiga aylangan. **Qadimgi podsholik davrida hukmronlik qilgan fir'avnlr: 3-sulola: Joser, Sexemxet, Neferka. 4-sulola (mil. avv. 28–26 asr o'rtalari): Snofru, Xeops (Xufu), Xafra (Xefren), Mikerin (Menkaura), Shebseskaf. 5-sulola (mil. avv. 26–25 asrlar): Userkaf, Neferirkara, Neusera, Isesi, Una. 6-sulola: (mil. avv. 25–23 asr o'rtalari): Teti I, Piopi I, Merenra I, Piopi II, Merenra II. 7, 8, 9-sulolalar (mil. avv. 23–22 asr o'rtalari). 10-sulola (mil. avv. 22–21 asr o'rtalari). 11-sulola: Antef I Sexertau, Mentuxotep III Nebxepetra.**

**QIZILQOSHLILAR QO'ZG'OLONI** – *Xan saltanatiga qarshi 18–25-yillarda ko'tarilgan qo'zg'olon.* Qo'zg'olonga Xitoyda milodiy I asr boshlarida qurg'oqchilik va chigirtka bosishi natijasida hosilsizlik sodir bo'lishi, mamlakatda qimmatchilik, ochlikning boshlanishi sabab bo'lgan. Ommaviy harakatlar 18-yilda *Shandun shahrida* boshlanib, unga *Fan Chun* rahbarlik qilgan. Qo'zg'olon rahbarlari o'z odamlarini podsho askarlaridan ajratish uchun qoshlarini *qizil rangga* bo'yatganlar. Shu tufayli bu qo'zg'olon "*Qizilqoshlilar*" qo'zg'oloni nomini olgan. 22-yilda Xan saltanati hukmdori *Van Man* qo'zg'olonchilar ustiga yuz ming kishilik qo'shin yuborgan. Hal qiluvchi jangda qo'zg'olonchilar podsho qo'shinlarini tormor etib, Xuanxe daryosining o'rta oqimidagi yerlarni ishg'ol qilganlar. Shu vaqtda mamlakat janubida ham qo'zg'olon boshlangan. Ular o'zlarini

"*yashil o'rmon qo'shinlari*" deb ataganlar. 23-yili *Van Man* qo'shinlari bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida shiddatli jang bo'lib, podsho qo'shinlari yana tormor etilgan. Qo'zg'olonchilar *Chanan shahrini* ishg'ol qilganlar. *Van Man* o'ldirilgan. 24-yilda qo'zg'olon rahbarlaridan biri *Lyu Syuan* o'zini podsho deb e'lon qilib, *Chanan shahrini* egallagan. 25-yilda "qizil qoshlilar" *Chananga* yurib, *Lyu Syuan* qo'shinlarini tormor etganlar, *Lyu Syuan* o'zini o'zi o'ldirgan. Shu yili (25-yil) "*yashil o'rmon qo'shini*" *Lyu Syu* boshchiligida *Chananga* qarab yo'l olganlar. Qizil qoshlilar esa *Chananni* bo'shatib *Shandunga* chekinganlar. Yo'lda ikki qo'shin: "*qizil qoshlilar*" va "*yashil o'rmon qo'shinlari*" to'qnashgan va qizil qoshlilarning mag'lubiyati bilan yakunlangan. Ularning yo'l boshchisi *Fan Chun* jangda halok bo'lgan.

**QO'SHINLARNING TO'RT TURI** – Qadimgi Hindistonda ixtiro qilingan "*shaxmat*" o'yini.

**QOG'OZ** – Xitoyda birinchi bo'lib mil. avv. I asrda ixtiro qilingan mahsulot. Xitoyliklar qog'ozni bambuk, latta va po'stloq aralashmasidan tayyorlaganlar.

**QORA TUPROQ** – misrliklar o'z mamlakatini shunday atashgan. Nil daryosining toshqini tugagach, o'simlik cho'kindilari, tuproq va tog' jinslaridan hosil bo'lgan zarralar suv bosgan joylarda cho'kib, qoramtir quyqumlar qoldiradi. Quyqumlar qurib serhosil qora tuproqli yer hosil qiladi. Shuning uchun vodiyliliklar yurtga "*Misr*" – "*Qora tuproq*" deb nom berishgan.

**QORAQO'NG'IZ** – Qadimgi Misrda qumursqalar orasida alohida hurmat-e'tiborga sazovar bo'lgan jonzot. Misrliklar ularni Quyoshning yordamchisi deb hisoblagan.

**RA** – rivoyatlarga ko'ra, tanasi odam, qarchig'ay boshli quyosh xudosi. Ra xudolar podshosi hisoblangan. U har kuni oltin qayiqchasida osmonni kezib chiqadi va g'arbga tushadi. Misrliklar unga atab *Geliopol* shahrida ibodatxona qurganlar.

**RAMAYANA** – qadimgi hind eposi. Mil. avv. V asrda vujudga kelgan. Dostonda o'gay onaning bergan azoblariga chiday olmagan shahzoda *Ranning* o'z shahri *Ayodxiyani* tashlab ketib, o'zga yurtlarda boshidan kechirgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. *Ramayanada* yozilishicha, *Seylonda* devlar *Ranning* xotini *Sitani* o'g'irlab ketadilar. *Ram* ayiq va maymunlardan qo'shin tuzib, devlarni tormor etib, xotinini ozod qiladi. Nihoyat *Ram* o'z vataniga qaytib, otasi taxtini egallaydi.

**ROZETTA BITIKTOSHI** – 1799-yili *Rozett* shahri yaqinida qora bazalt tosh bitigi topilgan. *Rozetta* bitiktoshi mil. avv. 196-yilga oid bo'lib, toshga uch tilda noma bitilgan. Bular yunon, iyerogliflar va Misr

yozuvining tez yozuv deb atalgan qisqartma iyerogliflari edi. Bu bitiklarni 1822-yilda *Jan Fransua Shampalon* o'qib chiqishga muyassar bo'ladi. Rozetta bitigtoshi Misr sivilizatsiyasini o'rganishda muhim va ishonchli manba hisoblanadi. Hozirgi kunda u Londondagi *Britaniya muzeyida* saqlanmoqda.

**SAKLAR (shaklar)** – Osiyo dashtlarining chorvador aholisi. *Gerodotning* yozishiga qaraganda, Yevrosiyo cho'llarining ko'chmanchilar dunyosi shimoliy va sharqiy Qora dengiz bo'yi qabilalaridan birining nomi bilan *skuda*, keyinroq *skolotlar* deb atalgan. Yunonlar esa ularni *skiflar* deb yuritganlar. Arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, mil. avv. VIII–II asrlarda Xitoyning Xuanxe daryosidan to Dunaygacha kenglikda yashagan dasht qabilalariga tegishli "*hayvon tasvirlari uslubi*"da ishlangan noyob san'at asarlari skif san'ati, skif madaniyati nomi bilan mashhur. Mana shu dasht aholisi – saklarning kundalik turmush tarzi, qurol-yarog' va ot anjomlarining tipi, skiflarga xos kiyim-kechak va uy-ro'zg'or asbob-uskunalari juda bir-biriga o'xshashki, bu yaqinlik skif-saklar etno-madaniy hayotining tub ma'no va mazmunini tashkil etadi. Axomaniy hukmdorlarining *Behistun kitobalarida* Sirdaryo ortidagi qabilalar saklar deb atalgan. Gerodot, "Tarix" asarida "forslar barcha skiflarni saklar deb ataydilar" deb yozadi. Podsho Doroning *Naqshi Rustam* yozuvida saklar "Paradraya", ("Tiaytara-darayya", ya'ni dengiz ortidagi saklar) deb tilga olingan. Qadimgi tarixda saklar dovrug'ining boshlanishi mil. avv. VIII–VII asrlarda kimmeriy va skif qabilalarining Qora dengiz bo'ylari va Old Osiyoga yurishi davrida yuz berdi. Nisbatan ko'p sonli bo'lgan ko'chmanchi chorvador xalqlardir. O'z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun ular mil. avv. VI asrda harbiy-qabila ittifoqiga birlashadilar. Saklar kelib chiqishiga ko'ra uch asosiy guruhga bo'lingan: **1) Saka tigraxauda** – "*uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar*", ular Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida yashagan; **2) Saka tiay-tara-daraya** – "*daryoning narigi tomonida yashovchi saklar*", ular Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar; **3) Saka xaumovarka** – "*xaomoni ulug'lagan saklar*", ular Pomir va Farg'onada yashagan.

**SANSKRIT (qadimgi hindcha sam skrta – mukammal, sayqallangan)** – hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi qadimgi hind tillaridan biri. Qadimgi hind lahjalari asosida shakllangan va mil. avv. I asrda Shimoliy Hindistonda tarqalgan. Sanskritning bir necha turi bor: epik sanskrit ("*Mahabharata*" va "*Ramayana*" tili), klassik sanskrit (qat'iy me'yorga tushirilgan til, mil. avv. IV asrda yaratilgan Panini

grammatikasida o'z ifodasini topgan), budda (yoki gibrid) sanskrit (budda dini bilan bog'liq adabiyot tili), jayn sanskrit (jayn diniga oid adabiyot tili), veda tili yoki veda sanskrit. Sanskrit va sanskrit tilida yaratilgan madaniy meros qo'shni mintaqalar (Janubi Sharqiy va Markaziy Osiyo)ga, XVIII asr oxirlaridan boshlab esa Yevropa va Amerikaga ham ta'sir o'tkazgan. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning boshlanishi sanskritning kashf etilishi va o'rganilishi bilan bog'liq. Sanskritdagi matnlarni yozuvda ifodalash uchun asli brahmi yozuvidan kelib chiqqan bir qator alifbolardan (kharo'shthi, gupta, nagari, kushon yozuvi va b.) foydalanilgan. Sanskritni o'rganish 2500-yil burun boshlangan (Panini va uning salafarlari).

**SANSKRIT ADABIYOTI** – Hindiston xalqlarining umumiy qadimgi davr adabiyoti. Sanskrit adabiyoti hind tadqiqotchilarining fikricha, mil. avv. 4-mingyilliklardan boshlab shakllana boshlagan. Ushbu adabiyotning rivojlanish tarixini shartli ravishda 3 yirik davrga ajratish mumkin: 1) "*Vedalar*"ning yaratilish davri (mil. avv. 4-mingyillikdan boshlab to 1-mingyillikda ularga izohlar yozilishi bilan tugaydi); 2) eposlar davri. Ikki buyuk hind eposi: "*Ramayana*" va "*Mahabharata*" eposlarining yaratilish davri (mil. avv. 2-mingyillikdan to ularning yozma adabiyotga kirib kelishi, ya'ni milodiy I asrlargacha bo'lgan davr); 3) ertak, masallar, roman janri, she'riyatga oid risolalar hamda qad. hind dramaturgiyasining shakllanish davri (milod boshlaridan to XII asrgacha bo'lgan davr). Sanskrit adabiyotiga Veda adabiyoti va u bilan bog'liq estetik adabiyot, sanskritdagi epik obidalar kiradi. Bu adabiyot xalq og'zaki ijodining boy an'analari ta'sirida vujudga kelgan. Shoir va dramaturg Ashvaghosha, dramaturg Bhasa uning ilk namoyandalaridir. Milodiy 1-mingyillik o'rtalari va oxirlarida sanskrit adabiyotida Kalidasa dramalari, Bhartrihari va Amaru she'riyati, Bana va Dandin nasri paydo bo'ldi. Mashhur "*Panchatantra*" ("*Kalila va Dimna*"), "*Brihatkatha*", "*Vetalapanchavinshati*", "*Shukasaptati*" kabi asarlar sanskrit adabiyoti shuhratini olamga yoydi. Sanskrit adabiyoti Hindiston xalqlari ilg'or ijtimoiy tafakkurini o'zida ifodalagan adabiyotdir. Sanskrit adabiyoti jahon tarixiy-adabiy jarayonida muhim o'rin tutadi. "*Panchatantra*", "*Vetalaning 25 hikoyasi*", "*To'tining 70-hikoyasi*" kabi xalq kitoblari jahon xalqlari adabiyotida qayta ishlandi; ular *J. Lafonten*, *I. Gyote*, *G. Geyne* va boshqalar ijodiga ta'sir ko'rsatdi. Sanskrit adabiyoti namunalari X asr boshlaridayoq O'rta Osiyoda ma'lum bo'lgan (Beruniy "*Kalila va Dimna*" tarjimalari haqida fikr yuritgan). "*Mahabharata*",

“Kalila va Dimna” asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan (1966-yil).

**SARIQ RO'MOLLILAR QO'ZG'OLONI** (“*Sariq chilvirli odamlar qo'zg'oloni*”) – Qadimgi Xitoyda milodiy II asrning 2-yarmida *Xan saltanatiga* qarshi bo'lib o'tgan xalq qo'zg'oloni. Qo'zg'olon 184-yilda boshlanib, unga o'z zamonasining “*oqil va saxiy muallim*” deb nom olgan *Chjan Szyao* va uning ikki ukasi rahbarlik qilganlar. 184-yilda boshlangan qo'zg'olon 20 yil davom etgan. Qo'zg'olonchilar o'z raqiblaridan ajralib turish uchun sariq ro'mol o'rab jangga kirganlar. Sariq rang xitoyliklarda farovon hayot ramzi ham bo'lgan. Shu tufayli bu harakat “Sariq ro'mollilar” qo'zg'oloni nomi bilan mashhur bo'lgan. Qo'zg'olonchilar qo'shini 300 ming kishidan iborat bo'lib, 36 qismga bo'lingan. Qo'zg'oloni bostirish uchun 40 mingdan ortiq hukumat qo'shinlari yuboriladi. 184–185-yillardagi janglar natijasida qo'zg'olon rahbari *Chjan Szyao* halok bo'lib, qo'zg'olonchilar yengiladi.

**SARKOFAG** (*yunoncha* – **go'shtni yutuvchi**), **sarqofa** – tobut turlaridan biri. Asosan, har xil jinsdagi tosh, marmar va yog'ochdan to'g'ri to'rtburchak, ba'zan qayiqsimon qopqoqli qilib yasalgan. Sarkofagga jasad qo'yish qadimgi Misrda fir'avnlar sulolasi davri (mil. avv. 3-mingyillik)da keng rasm bo'lib Suriya, Finikiya orqali Sharqqa, shuningdek, Yunoniston va Rimga tarqalgan. Sarkofaglarga ko'pincha jasad mo'miyolab qo'yilgan. Sarkofaglar o'zining badiiy bezak va suratlarini, shuningdek har xil qadimgi yozuvlari bilan san'at hamda epigrafika yodgorligi sanaladi.

**SARMATLAR** – qadimgi ko'chmanchi chorvador qabilalar birlashmasi. Sarmatlar mil. avv. 1-mingyillikning 2-yarmi – milodiy 1-mingyillikning boshlarida Markaziy Osiyoning shimolidan to Dunaygacha bo'lgan keng dasht hududlarini egallagan. Sarmatlar ilk marta *Gerodot* tomonidan eslatilgan *savromatlar* bilan bog'liq bo'lib, ular avval Janubiy Uraloldi va Shimoliy Kaspiy bo'yida yashashgan. Sarmatlar tarkibiga ko'plab qabilalar (aorslar, alanlar, savromatlar, roksolanlar, yaziglar va b.) kirgan. *Diodorning* ma'lumotlariga ko'ra, mil. avv. II asrda sarmatlar *Skifiyaga* bostirib kirib Shimoliy Qora dengiz bo'yida o'z hukmronliklarini o'rnatgan. Qadimgi davr geograflari Yevropani Sarmatiya va Germaniyaga bo'lib, Visla va Karpat bo'ylab ularning chegaralarini belgilaydilar. Shimoliy Qora dengiz bo'yidagi *Bospor podsholigi* ham sarmatlar zarbalaridan qulaydi. Zakavkaziyedagi davlatlar va Rim bilan urushlar olib borgan. Milodiy IV asrda *xunlar* tomonidan tor-mor keltirilgan. Sarmatlar keyinchalik slavyanlar, Shimoliy Kavkaz

xalqlari va aksariyati turkiy tillarda so'zlashuvchi qabilalar bilan aralashib ketgan. So'nggi yillarda Quyi Volgabo'yi, Don va Kubandan sarmatlarga oid ko'plab mozor-qo'rg'onlar ochilib, ulardan noyob san'at buyumlari topilgan. Masalan, “*No-vocherkassk xazinasi*” deb nomlangan mozor-qo'rg'onda sarmat malikasi dafn etilgan bo'lib, undagi oltin buyumlar skif mozorqo'rg'onlaridan chiqqan noyob durdonalardan qolishmaydi.

**SEBEK** – Qadimgi Misrda muqaddas timsah.

**SEPAT** – Qadimgi Misrda mil. avv. 4-mingyillik boshlarida tashkil topgan davlatchalarning misrliklar tomonidan nomlanishi.

**SERAPIS, Sarapis** – ellinizm davrining xudosi. Unga sig'inishni Aleksandriyada *Ptolemey I* (mil. avv. 305–283-yillar) yunonlar va misrliklarni diniy asosda birlashtirish maqsadida joriy etgan. Misrliklar Serapisni hosildorlik xudosi *Osirisga*, ba'zan *Apisga*, yunonlar *Zevsga* qiyos qilganlar.

**SET** – Qadimgi Misrda yovuzlik, omadsizlik, saho va bo'ron xudosi. Qadimgi odam tanali, eshak boshli qilib tasvirlangan. Osirisning birodari. Rivoyatda aytilishicha, Set o'simliklar va dehqonchilik xudosi – Osirisni o'ldirgan.

**SEYSMOGRAF** – Qadimgi Xitoyda zilzilani oldindan aniqlab beradigan asbob.

**SFINKS, Sfinga** – 1) yunon mifologiyasidagi qanoatli yarim ayol, yarim urg'ochi sher; Fiva yaqinidagi qoya ustida yashab, yo'lovchilarga topib bo'lmaydigan topishmoq aytib javob ololmagach, ularni yegan. Sfinks topishmog'i (“Kim ertalab 4 oyoqlab, tushda 2 oyoqlab, kechqurun 3 oyoqlab yuradi?”) ni Edip topgan (uning javobi: “Inson bolalikda 4 oyoqda, ulg'ayganda 2 oyoqlab va keksayganda 3 oyoqlab yuradi, xassa bilan”); shu javobdan so'ng Sfinks qoyadan o'zini tashlagan; 2) Qadimgi Misrda tanasi sherniki, kallasi odamniki (ba'zan hayvonniki) bo'lgan afsonaviy maxluq haykali.

**SIN** – Qadimgi akkadliklarda oy xudosi.

**SIN SHIXUANDI** – “*Sinning birinchi hukmdori*”. Qadimgi Xitoy davlatlaridan biri bo'lgan Sin davlatining hukmdori *In Chjen* (mil. avv. 246–210-yillar) yagona davlat tuzgach ushbu nomni qabul qilgan.

**SIN SULOLASI** – Xitoydagi imperatorlar sulolasi (mil. avv. 221–207). Asoschisi *Sin Shixuandi*. Poytaxti – *Syanyan* shahri. Sin hukmronligi davrida Xitoy tarixida ilk marotaba markazlashgan davlat tuzilgan. Mamlakat hududi 36 ta okrugga taqsimlangan, ularni imperator tomonidan tayinlangan amaldorlar boshqargan. Shimol va Janubda olib borilgan tinimsiz urushlar, Buyuk Xitoy devori va

ko'plab saroylarning qurilishi soliqlarning ko'payishiga sabab bo'lgan. Mil. avv. 209-yil oxiri – 208-yil boshida mamlakatda xalq qo'zg'oloni ko'tarilgan. Unga *Chen Shen, U Guan, Lyu Ban* va boshqalar rahbarlik qilgan. Mil. avv. 207-yil oktabrida *Lyu Ban* armiyasi Syanyanni egallagan, Sin sulolasi tugatilgan.

**SINA** – Mesopotamiyada oy xudosi.

**SINUXET HAQIDAGI QISSA** – Qadimgi Misr adabiyotining yorqin namunasi. Qissada aytilishicha, Senuxet Misrdagi a'yonlarning biri bo'lgan. U fir'avning qahr-g'azabidan qo'rqib, Osiyoga qochib ketgan. Cho'l-biyobonda Senuxetning tashnalikdan halok bo'lishiga sal qolgan. U bunday deb hikoya qilgan: “*Nafasim tiqilib, tomog'im qaqrab yonar edi, shunda men bu o'lim sharbati bo'lsa kerak*”, dedim. Cho'l-biyobonda pada haydab ketayotgan ko'chmanchilarga duch kelishi tufayligina u o'limdan qutulib qolgan. Osiyoda Senuxet bir qabila rahbarining xizmatiga kirgan va qo'shin boshlig'i qilib tayinlangan. U o'zining harbiy yurishlari to'g'risida quyidagilarni hikoya qilgan edi. “*Men qaysi bir mamlakatga bostirib bormay, o'sha mamlakat fuqarosini yaylovlardan va suv ichib turgan quduqlaridan mahrum etganman, chorva mollarini ham, o'sha mamlakat aholisini ham haydab olib ketganman*”. Senuxet boylik va izzat-ikrom ichida yashagan, lekin u agar o'lsam, Osiyoda mening jasadimni saqlab qola olmaydilar deb qo'rqar edi. Fir'avndan ruxsat olgan Senuxet yana Misrga qaytib kelgan. U saroyda fir'avning amri bilan uni turg'azmagunlaricha shu ahvolda yuzini yerga qo'yib yotavergan. Senuxet uchun uy va maqbara qurishgan.

**SKIFLAR** – Qora dengizdan shimoli g'arbda, Dunay va Don, Dnepr va Dnestr daryolari quyi havzalaridan to Volgaga qadar bo'lgan hududlarda yashagan chorvador aholi (mil. avv. VII – mil. III asr). Yevropa adabiyotida skiflar haqida shim. eron tillarining turli lahjalarida so'zlovchi qabilalar sifatida tasavvur shakllangan. Aslida esa bu hududlarda skiflarga qadar yashagan *kimmeriyalar* eron zabon bo'lgan. *Gerodotning* yozishiga qaraganda, bu yurtlarga skiflar Osiyodan ko'chib kelganlar va yerli aholining til muhiti ta'sirida eronlashganlar. Asl vatani Volgadan sharqda, ya'ni Osiyoning Qozog'iston cho'llari, Janubiy Ural va Oltoy hamda Janubiy Sibir hududlari bo'lib, skif qabilalari aslida turkiy tillarning turli lahjalarida so'zlashuvchi oriylar edi. Chunki, shu mintaqalar aholisining moddiy madaniyati va antropologik tipi jez davridan boshlab bir-biridan farq qilmaydi. Ilk Shimoliy Xitoy podsholiklari (mil. avv. 2205–1766-yillarda “*Shya*”, mil. avv. 1766–1122-yillarda “*Shong*” sulolalari)dan qolgan yozma manbalarga ko'ra, “di” turk so'zining xitoycha transkripsiya-sidir.

Ular Xitoydan shimolda va shimoli g'arbda yashashgan. Qadimgi xitoychada “bey” so'zi shimolni ko'rsatgan. “Bey”ga “di” qo'shilib, hosil bo'lgan “beydi” so'zi esa ilk Xitoy podsholiklari davrida ulardan shimolda yashovchi chorvador turkiy tili hunnu qabilalariga nisbatan ishlatilgan. Demak, jez davrida Janubiy Ural, Markaziy va Sharqiy Qozog'iston, Oltoy va Janubiy Sibir mintaqalarida yashab, arxeologik adabiyotlarda *Andronovo madaniyati* nomi bilan yuritilgan qadimgi chorvador aholi turkiy zabon bo'lgan. Skiflar Yevrosiyo cho'llari aholisiga ellinlar tomonidan berilgan umumiy nom bo'lib, eron manbalarida ularni *saklar* deb yuritilgan. Gerodot “forslar skiflarni saklar” deb ataydi, deb yozadi. Maxsus arxeologik adabiyotlarda Qora dengizning shimoliy va sharqiy sohillari aholisiga skif atamasi ishlatilsa, O'rta Osiyo, Yettisuv va Qozog'iston cho'llari hamda Tog'li Oltoy aholisiga nisbatan ko'proq sak atamasi ishlatilib kelinadi. Gerodotning yozishiga qaraganda, osiyolik skiflar dastlab shimoliy va sharqiy Qora dengiz sohillarini egallab, yerli tub aholi – kimmeriyalar ustidan o'z hukmronligini o'rnatgach, kimmeriy suvoriylarini Kichik Osiyoga quvadilar, so'ng Midiya, Suriya va Falastin hududlarini, Shimoliy Mesopotamiyani egallaydilar. Mil. avv. VII asr boshlarida Midiya davlati kuchayib, skiflarni u yerdan haydab chiqaradi. Skiflar Qora dengizdan shimolda va sharqda, Dneprdan Don-gacha bo'lgan cho'llarda o'rnamashib, endi mahalliy kimmeriy qabilalari bilan ittifoqlikda yashay boshlaydilar. Ellinlar esa bu joylarni *Skifiya* deb ataydilar. Mil. avv. VII asrda Skifiya juda katta siyosiy-harbiy kuch edi. Gerodotning yozishicha, Doro boshliq qudratli Fors davlati mil. avv. 513-yilda skiflar ustiga yurish qilib, o'z maqsadiga erisha olmagan. Aksincha skiflar Ahamoniylarga tobe yerlarga javob hujumlari uyushtirib, ularni dahshatga soladilar. Barcha skiflarning tili, dini va urf-odatlarining bir xil ekanligi manbalarda ta'kidlanadi. Skiflar davlati mil. avv. V–IV asrlarda Azov dengizidan Dunay daryosigacha hududlarni birlashtirgan kuchli harbiy-demokratik davlat bo'lsada, mil. avv. III asrning oxirlarida Don ortidan kelgan sarmatlarning hujumi natijasida bir qismi hududidan ajrab, ancha zaiflashadi. Milodiy I asrning 2-yarmida skiflar bir necha bor Bospor podsholigi bilan urushlar olib borib, o'zining avvalgi jangovarlik ruhini yo'qotadi va nihoyat milodiy III asrda Skifiya *gotlar* tomonidan tugatildi. *Xalqlarning buyuk ko'chishi* davrida skiflar boshqa qabilalar tarkibiga singib, nafaqat mustaqillik, balki etnik xususiyatlarini ham yo'qotadilar.

**SOPDU** – qadimgi misrliklar e'tiqodiga ko'ra, Misrning sharqiy chegaralarini himoya qiluvchi xudo. U lochin yoki boshida ikkita pati bo'lgan uzun sochli va soqolli odam shaklida tasvirlangan. Misrliklar Sopduning "o'tkir" tishlariga topinishgan.

**SOSONIYLAR** – Yaqin va O'rta Sharqda milodiy III–VII asrlarda hukmronlik qilgan eroniy sulola; kelib chiqishlari Porso viloyati (*Fors*)dan bo'lib, Porsoning sosoniylar urug'idan bo'lgan I-shohi *Papakning* otasi *Soson* nomi bilan atalgan. *Papakning* o'g'li *Ardashir I* Sosoniylar davlatining asoschisi bo'lgan. Sosoniylar sulolasining gullab-yashnagan davri *Shopur I*, *Yazdigard II*, *Feruz* va *Xusrav I Anushirvon* davrlariga to'g'ri keladi. Sosoniylar sulolasi vakillari: *Ardasher I* (224–239); *Shopur I* (239–272), *Hurmuzd I* (272–273); *Bahrom I* (273–276); *Bahrom II* (276–293); *Bahrom III* (293); *Narse* (293–302); *Hurmuzd II* (302–309); *Shopur II* (309–379); *Ardasher II* (379–383); *Shopur III* (383–388); *Bahrom IV* (388–399); *Yazdigard I* (399–420); *Bahrom Go'r* (421–439); *Yazdigard II* (439–457); *Hurmuzd III* (457–459); *Feruz* (459–484); *Balash* (484–488); *Qubod I* (488–496, 498–531); *Zamasp* (496–498); *Xusrav I Anushirvon* (531–579); *Hurmuzd IV* (579–590); *Xusrav II Parviz* (591–628); *Qubod II* (628); *Ardashir III* (628–629); *Yazdigard III* (632–651).

**SPARTOKIYLAR** – Bospor podsholari sulolasi (mil. avv. 438–mil. avv. taxminan II asr), Eng mashhurlari: *Spartok I* (mil. avv. 438–433-yillar), *Levkon I* (mil. avv. 389/388–349/348-yillar), *Perisad I* (mil. avv. IV asr).

**SPITAMA** – Zardushtning urug'i nomi; muqaddas ruh.

**SURIYA-FINIKIYA DINIY E'TIQODI** – Qadimgi Suriya va Finikiyada yashovchi aholining ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Suriya va finikiyaliklarda tabiat hodisalariga, qoya toshlarga va hayvonlarga e'tiqod qilish ham mavjud bo'lgan. Suriya va Finikiya qabilalarining eng qadimgi e'tiqodi dehqonchilik bilan bog'langan ekan. Ularning diniy e'tiqodida o'luvchi va tiriluvchi tabiat xudosi *Vaal* va uning o'g'li *Aliyyan* alohida o'ringa ega ekan. *Mot* ularda o'lim xudosi hisoblangan. *Molox* ham ularning hurmatli xudolaridan bo'lgan. Suriya va Finikiya diniy kishilarni xudolarga qurbon qilganlar. Finikiya mustamlakasi bo'lgan *Karfagenda* mil. avv. III asrda ham xudo *Molox* sanam haykali oldida bolalarni gulxanga tiriklayin tashlab, kuydirib qurbon qilganlar.

**SUG'D YOZUVI** – oromiy yozuvi asosida mil. avv. III–II asrlarda shakllangan harf-tovush yozuvi. Sug'd (Sug'diyona) viloyatida qo'llangan. Milodiy

I–IV asrlardan boshlab, Sug'd yozuvlari keng hududda tarqalgan. Bu jarayon Sug'dlarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning "Buyuk Ipak yo'li"dagi harakatlari bilan bog'langan. Shuning uchun ham Sug'd tilidagi yozma yodgorliklar O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'ulistonda topib o'rganilgan. Sug'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Sug'd yozuvining mil. avv. I asrga oid eng qadimgi namunasi Samarqand yaqinidagi *Talli Barzu* degan joydan topilgan, eng so'nggi namunalari esa VIII asr oxiri IX asr boshlariga mansub. Yodgorliklarning ko'pi XX asrda Sharqiy Turkistondan topilgan. Shulardan biri 808–821-yillarda hukmronlik qilgan xoqon sharafiga bitilgan, uch tildagi (sug'd, qadimgi turk va xitoy) qabrtoshi yozuvidir. Sug'd yozuvi namunalarining aksariyati IV–VIII asrlardan tegishli bo'lib, ulardan *Mug' qal'a* xarobasidan topilgan hujjatlar (1933-yil) muhim ilmiy ahamiyatga ega. Sug'd yozuvi, o'z navbatida, qadimgi turkiy runik yozuvi hamda uyg'ur yozuvini shakllantirish uchun asos bo'lgan.

**SUG'DIYLAR** – mil. avv. VII–VI asrlarda Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan elatlar. Ular yashagan hudud Avestoda *Sug'da*, Behistun bitiklarida *Sug'uda*, Arrian, Strabon va Kvint Kursiy Ruf asarlarida *Sug'diyona* deb nomlangan.

**SYANBI, shibay, sabi** – qadimgi Xitoyning shimolida yashagan qabilalar ittifoqi. Xitoy manbalariga ko'ra, syanbilar mil. avv. VIII–V asrlarda shanrung (tog'lik odamlar) yoki bayyi (oq ajnabiylar) deb nomlangan turkiylar tarkibidagi bir qavmdir. "Syanbi" atamasi Xitoyning shimoli sharqidagi tog' nomidan olingan. Mil. avv. III asrda hunlar o'zlarining sharqidagi qabilalarni tobe etishga harakat qilganda, ayrim qavmlar Syanbi tog'iga qochib borgan, ular ham "Syanbi" deb atalgan. Mil. avv. 140–86-yillarda syanbilar janubi g'arb tomonga ko'chgan va hunlarga el bo'lgan. Hunlar g'arbga ko'chgach, syanbilar ular hududini egallagan. Shundan so'ng syanbilar kuchayib qabilalar ittifoqiga aylangan. Mil. II asrda xitoylar bilan uzoq vaqt kurash olib borganlar. III asrning 1-yarmida syanbilarning murun qabilasi hozirgi XXRning Ko'kko'l (Sinxay) o'lkasiga ko'chib, u yerdagi chyanlarni tobe etib, Tuyuyxun davlatini tashkil qilgan. Syanbilarning to'ba syanbi (toba syanbi) deb atalgan qismi Mo'g'ulistonda qolib, so'nggi Yan (Xouyan), G'arbiy Yan (Siyan), Janubiy Yan (Nanyan) kabi xonliklarni barpo etgan. 386-yilda to'ba syanbilar To'bago'y boshchiligida

Shimoliy Vey xonligi (386–534) tashkil etishgan. Ushbu xonlik yemirilgach, syanbilarda yana bo‘linish yuz bergan. Ularning sifu nomli bir qismi G‘arbiy Chin (Sisin), tufa nomli boshqa bir qismi Janubiy Lyang (Nanlyang) hokimligini tuzgan. VIII–IX asrlarda syanbilar boshqa xalqlarga qo‘shilib ketib, alohida etnos sifatida tilga olinmagan.

**SO‘NGGI PODSHOLIK (LIVIYA-SAIS VA ERON) DAVRI** – Qadimgi Misrda mil. avv. 1085-yildan to milodiy IV asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan podsholik davri. Bu davrda 22–30-sulola vakillari taxtga o‘tirganlar. So‘nggi podsholik davrida Misr o‘z mustaqilligini yo‘qotgan, Liviya, Efiopiya, Ossuriya, Eron, yunon-makedon bosqini va ularning ta‘siriga tushib qolgan. XI asrning 2-yarmi–X asr boshida Misrning navbatdagi parchalanishidan so‘ng liviyalik harbiylar rahbari *Sheshonk* X asr o‘rtasida *Bubastis*da hokimiyatni qo‘lga olib, XXII sulolani boshlab bergan. Bu sulola fir‘avnlari Misrni yagona davlat qilib birlashtirishga intilganlar. Mil. avv. VIII asrning 2-yarmida Misr Kushga tobe bo‘lib qolgan (XXV sulola), mil. avv. 671-yili esa *ossuriyaliklar* tomonidan bosib olingan. Sais hokimi *Psammetix I* (663–610) yunon va kariyalik yollanma qo‘shin yordamida mamlakatni ozod qilishga va uni birlashtirishga erishgan. U va uning vorisi *Nexo II* davrida Yunoniston va Sharqiy O‘rta dengizning boshqa mamlakatlari bilan mustahkam savdo aloqalari o‘rnatilgan, Deltada yunonlar manzilgohi (koloniyasi) *Navkratis*ga asos solinadi, Nilni Qizil dengiz bilan bog‘lovchi kanal qaziladi; *Nexo II* tomonidan yuborilgan finikiyalik dengizchilar Afrika qit‘asini Sharqdan G‘arbga aylanib o‘tishgan. *Nexo II*, *Psammetix II* va *Apriy* Suriya va Falastinga egalik qilish ushuncha Bobil bilan kurash olib borishgan. Biroq zaiflashib qolgan Misr Eron podshosi *Kambiz* qo‘shini zarbasini qaytara olmagan va mil. avv. 525-yilda *Ahamoniylar davlati* tarkibiga qo‘shib yuborilgan. Mil. avv. 331-yilda *Aleksandr (Iskandar Maqduniy)* ahamoniylarga qarshi yurishi chog‘ida Misrni bosib olgan. Shundan so‘ng Misr ellinistik dunyoning bir qismiga aylangan. Makedoniyalik Iskandar tomonidan asos solingan *Iskandariya* shahri eng yirik savdo va madaniy markazga aylangan. Misrda hunarmandchilik va savdoning yangi markazlari vujudga kelgan, savdo aloqalari (Arabiston va Hindistongasha) kengaygan, G‘arb va Sharq davlatlari madaniyatlarining uyg‘unlashuvi sodir bo‘lgan. Mil. avv. II asrning oxiriga kelib ishlab chiqarish pasaygan, bozorlar kamaygan, iqtisodiy va siyosiy tushkunlik ro‘y bergan. Mil. avv. II asr boshlarida *Salavkiylar davlati* va *Makedoniya* bilan bo‘lgan urushlardan so‘ng Misr ko‘p yerlaridan ajralgan. Mamlakatda o‘zaro ichki nizolar,

xalq g‘alayonlari avj olgan. Bu davrda Rim Misrning ichki ishlariga aralasha boshlagan. Misr zodagonlari uning yordamida g‘alayonlarni bostirishga harakat qilgan. Bu Misrni *rimliklar* tomonidan bosib olinishiga imkon bergan, natijada mil. avv. 30-yildan Misr – Rim viloyati. Milodiy 395-yilda Rim imperiyasi bo‘lingach, Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya) viloyatiga aylangan. **So‘nggi podsholik davrida hukmronlik qilgan fir‘avnlari:** **21-sulola (1085–950):** *Xerixor* (Fiva), *Smendes* (Tanis) **(1035–1054).** **22-(liviyalik) sulola (950–730):** *Sheshonk I* (950–929), *Osorkon I* (929–893), *Take-lot I* (893–870), *Osorkon II* (870–847), *Sheshonk III* (823–772). **23-sulola (817–730):** *Pedubast* (817–763), *Sheshonk IV* (763–757). **24-sulola (730–715):** *Bokxoris* (720–715). **25-(nubiylar) sulola (751–656):** *Pianxi* (751–716), *Shabaka* (716–701), *Shabataka* (701–689), *Taxarka* (689–663), *Tanutamon* (663–656). **26-sais (sulola) (663–525):** *Psammetix I* (663–610), *Nexo II* (610–594), *Psammetix II* (594–588), *Apriy* (588–569), *Yaxmos II* (569–525). **27-(forslar) sulola (525–404), 28-sulola (404–398).** **29-sulola (398–378).** **30-sulola (378–341).** **31-(forslar) sulola (341–322).**

**TABARZIN** – dastasi uzun jangovar oybolta.

**TAMKAR** – Mesopotamiyada qo‘shni shaharlararo savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanuvchi savdogar.

**TEYSHEBA** – Qadimgi urartlarda momaqaldiroq va bo‘ron xudosi.

**TESHUB** – Qadimgi xetlarda tog‘ cho‘qqilari, momaqaldiroq, yashin, yog‘ingarchilik va hosildorlik xudosi. U bosh xudo hisoblanib, uni “*Osmon podshosi*”, “*Xett mamlakati homiyi*” deb hisoblashgan. Teshub beliga qilich taqqan va chap qo‘lida bir tutam yashin, o‘ng qo‘lida jang boltasi ushlagan jangchi qiyofasida tasvirlangan. Teshub Xett davlatining tashkil topishi davrida davlat va podsho hokimiyatiga homiylik qiluvchi xudoga aylangan. Anatoliyaning Yazili qoyasida Teshub Xett podshosini o‘z o‘g‘lidek quchog‘iga olib turgani tasvirlangan.

**TIAMAT** – Mesopotamiyada Mardukdan oldin bosh xudo bo‘lgan. Marduk uni yenggan.

**TIRSAK** – Qadimgi Misrda asosiy o‘lchov birligi bo‘lib, u tirsakdan barmoqlar uchigacha bo‘lgan uzunlikka teng edi.

**TOSHTOBUT** – fir‘avning mumiyolangan jasadi solingan qurilma.

**TOT** – Qadimgi Misrda oy, donishmandlik va tabiblik xudosi.

**TURIN PAPIRUSI** – bizga qadar (qattiq shikastlangan holda) saqlangan papirus. Unda podsholar sulolasi xronologik izchillikda keltirilgan.

**TO'RT IQLIM PODSHOSI** (*"jahonning to'rt mamlakati podshosi"*) – Mesopotamiyaga tutash mamlakatlarni bosib olgan podsholar o'zlarini shunday deb e'lon qilganlar va o'zlarini xudo darajasiga ko'targanlar. Jumladan: *Sargon I, Naram-Suen, Shulgi, Gandosh, Agum*.

**URART TILI** – urart xalqi va Urartu davlatining tili; o'lik til. Mil. avv. IX–VI asrlarga mansub o'yma yozuvlar (mixxat) orqali ma'lum. Hozirda Van ko'li atrofida, sharqroqda Urmiya ko'ligacha, qisman Armaniston Respublikasi hududida tarqalgan. Urart tiliga yaqin qarindosh deb faraz qilinayotgan xurrit tili bilan birga alohida til oilasini tashkil etadi. Yozuvi akkad mixxatining soddalashtirilgan tizimidan iborat. Grafik tizimi kambag'alligidan faqat 16 yoki 17 undoshni va 4 unlini farqlash mumkin, xolos va u, chamasi, urart tili fonologiyasini to'la aks ettira olmagan. Grafikaga qaraganda, urart tilida jarangli, jarangsiz va bo'g'iz undoshlari farqlangan. Otlar son (birlik va ko'plik) va kelishik (8 ta) kategoriyalari bo'yicha o'zgarigan; grammatik jins kategoriyasiga ega emas. Fe'llar shaxs-son, zamon, mayl va nisbatlar bo'yicha o'zgarigan. Morfologik jihatdan o'timli fe'llar o'timsizlarga qarama-qarshi qo'yilgan. So'z yasalishi va so'z o'zgarishi agglutinativ suffiksalar yordamida amalga oshirilgan. Urart tilida yozilgan ko'plab yodnomalar (500 dan ortiq) dastlab XIX asrning 20-yillarida nemis arxeologlari tomonidan Van ko'li (Turkiya) atrofidan topilgan.

**URARTU DINIY E'TIQODI** – qadimgi urartlarning ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Ularning diniy e'tiqodi xilma-xil va ko'p qirrali bo'lgan. Urartlarning otabobolari dastlab tabiat hodisalari va buyumlariga, xususan quyosh, momaqaldiroq, tog', tosh va daraxtlarga topinganlar. "Mxer Kapusi" degan manbada Xald darvozasining xudolari sanab o'tilgan. Urartuda muqaddas daraxtga topinish ham keng tarqalgan. Turli buyumlarda muqaddas daraxtga topinish manzaralari saqlanib qolgan. Unda muqaddas daraxt surati yonida muqaddas tosh ustunlar qanotli sherlar tasviri ifodalangan. Tog' xudosi *Xaldga* sig'inish bilan birga, urartlar tabiat va hosildorlik ma'budasiga ham e'tiqod qilganlar. Bu ma'buda yirtqich hayvonlar va o'simliklar homiysi ham hisoblangan. Urartlarda *Teysheba* momaqaldiroq va bo'ron, *Ard* quyosh, *Xald* tog' xudosi bo'lib, ularning nomi qadimgi Urartu yozuvlarida tez-tez tilga olinadi. Lekin ular orasida Xaldning nomi birinchi o'rinda turgan. Chunki u oliy xudo hisoblangan. Keyinchalik Xald urush xudosisiga, podsho va davlatning homiysiga aylantirilgan. Nayza bilan qalqon jangovar xudoning va uning yerdagi noibining ilohiy

hokimiyat ramzi hisoblangan. Urartu podsholari esa dinning oliy ruhoniysi sifatida ta'riflangan.

**UTU** – Qadimgi shumerliklarda quyosh xudosi.

**UX** – Qadimgi Misr aholisi uning pay va tasmalar bilan bezatilgan hassasiga sig'inishgan.

**VAAL** – Suriya va Finikiya diniy e'tiqodida o'luvchi va tiriluvchi tabiat xudosi. Uning o'g'li Aliyyan ham hurmatli xudolardan bo'lgan.

**VARA** – "Avesto"da devor bilan o'ralgan to'rt-burchak makon.

**VARNA** – zardushtiylarda g'animlar yashaydigan viloyat.

**VARNALAR** (sanskritcha – **sifat, rang**) – Qadimgi Hindistondagi 4 asosiy tabaqa. Jamiyatda Brahman va kshatri tabaqalari yuqori mavqeyini egallashgan. Mehnatkash xalq vayshilar va shudralar varnalarga mansub bo'lib, ularning mavqeyi pastroq hisoblangan. Varnalarga mansub bo'lmaganlar chandallar deb atalib, ular aholining eng quyi, xo'rlangan, huquqsiz qismini tashkil etgan.

**VAYSHILAR** – Qadimgi Hindistondagi 4 asosiy tabaqadan biri; uchinchi toifaga mansub. Vayshilar xudo Braxmaning qovurg'asidan yaratilgan deb hisoblanib, ularga dehqon, hunarmand va savdogarlar kirgan.

**VEDA DINI** – mil. avv. 1-mingyillikda Hindistonda vujudga kelgan din. Vedalar orqali ma'lum. Hinduizm dini vujudga kelishining dastlabki bosqichi. Vedalar dinida dastlab tabiat kuchlari va hodisalari inson qiyofasiga o'xshatib tasavvur etilgan. Vedalar dinida yaxshi va yomon xudolar, ruhlar haqida tasavvurlar asosiy o'rin egalladi. Unda ko'p xudolik hukmron bo'lgan. Veda dinida sig'inish marosimlari asosan xudolarga qurbonlik keltirish, ovqat, hayvonlar keltirish va turli urf-odatlarini bajarishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik kohinlarning alohida qatlami – *brahmanlar* ajralib chiqib diniy marosimlar tizimi murakkablashdi. Vedalar dinining keyingi evolutsiyasi natijasida *Brahmanizm* vujudga keldi.

**VEDALAR** (sanskritcha **bilim**) – Hindiston yozma adabiyotining qadimgi yodgorligi. Mil. avv. 2-mingyillikning oxiri –1-mingyillikning boshida yaratilib, vedalar to'plamlari deb nomlanadi. Bu madaniy yodgorlikdan bizgacha 4 qism: "*Rigveda*" (qasida, madhiya, duolar to'plami), "*Samaveda*" (qo'shiqlar to'plami), *Ayurveda* yoki *Yajurveda* (qurbonlik qilish yo'llari), *Atharvaveda* (sehrli duolar to'plami) yetib kelgan. Veda adabiyoti bir necha mingyilliklar davomida shakllanib qadimgi hindlar tarixidagi turli jamiyatlarning diniy-falsafiy, estetik taraqqiyot darajalarini ifodalaydi.

**VISHNU** – hinduizmda Brahma va Shiva bilan birgalikda ilohiy uchlikni tashkil etuvchi xudolardan

biri bo'lib, olamni saqlab qoluvchi va muhofaza qiluvchi xudo hisoblangan.

**XALDI** — qadimgi urarlarda tog' xudosi. Xaldi urarlarda oliy xudo deb hisoblanganligi bois uning nomi Urartu yozuvlarida birinchi bo'lib tilga olinadi. Keyinchalik Xaldi urush xudosisiga, podsho va davlatning homiysiga aylantirilgan. *Nayza* bilan *qalqon* jangovar Xaldining va uning yerdagi noibi (hukmdor)ning ilohiy hokimiyat ramzi hisoblangan.

**XAMMURAPI QONUNLARI** — Bobil podsholigining hukmdori Xammurapi tomonidan joriy qilingan qonunlar to'plami. Xammurapi podsholikni o'zi tuzgan qonunlar to'plami asosida boshqargan. Xammurapining qonunlar to'plami mixxat yozuvi bilan katta bazalt tosh ustuni sathiga yozilgan. Ustunning yuqori qismida taxtga o'tirgan quyosh xudosi *Shamesh* Xammurapiga hokimiyat ramzi bo'lgan tayoqni taqdim etayotgani ifoda etilgan. Ustunning boshqa joylariga qonunlar majmuasi bitilgan. U 247 moddadan iborat bo'lib, kirish, qonunlar to'plami va xulosadan iboratdir. Qonunning kirish qismida qonunlarni chiqarishdan maqsad — mamlakatda adolat o'rnatishdir, deb ko'rsatilgan. Unda podsho ulug'lanib, ko'klarga ko'tarilgan. Qonunlar to'plamining asosiy qismida mamlakat xo'jaligi — dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, oilaviy munosabat, mehnatga munosabat, o'g'irlik va nopoklik masalalari bayon etiladi. Mamlakatda joriy qilingan qonun-qoidalarni buzgan kishilar Xammurapi qonunlari asosida sud qilinib jazolangan. Xammurapi qonunlari Mesopotamiya xalqlari tarixini o'rganish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan manba hisoblanadi. **Xammurapi qonunlaridan namunalar:** *Men Xammurapi xudolar tomonidan qo'yilgan rahbarman. Frot bo'yidagi qishloq va shaharlarni itoat ettirgan podsholarning eng birinchisiman. Men mamlakatimizda haqiqat va adolat o'rnatdim. Bundan buyon:* 1) Agar kimki ibodatxona yoki podshoning mulkini o'g'irlasa, u o'ldirilishi lozim; o'g'irlik molni olgan kishi ham o'ldirilishi kerak. 2) Agar kimki qul yoki cho'rini o'g'irlasa, u o'ldirilishi kerak. 3) Agar kimki qochoq qulni yashirsa, u o'ldirilishi kerak. 4) Agar kimki qulning tamg'asini kesib tashlansa, uning barmoqlari kesilishi lozim. 5) Agar kimki birovning qulini o'ldirsa, u o'lgan qul o'rniga boshqa qul berishi kerak. 6) Agar kimki birovning ho'kizini o'ldirsa, u o'lgan ho'kiz o'rniga boshqa ho'kiz berishi kerak. 7) Agar kimning qarzi bo'lsa, uning xotini, o'g'li yoki qizi 3 yil qul qilinishi kerak, 4-yil esa ozod qilinishi kerak. 8) Agar kimki o'ziga teng kishining yuziga ursa, u jarima to'lashi kerak. 9) Agar kimki o'zidan yuqori mansabdagi kishini (ya'ni amaldorni, kohinni) ursa,

u ho'kiz terisidan to'qilgan darra bilan oltmish marta uriladi. 10) Agar o'g'ri biror kimsaning uyini teshib kirib o'g'irlik qilsa, o'g'ri shu teshik oldida o'ldirilishi kerak. 11) Agar bosqinchi o'g'ri qo'lga tushmasa, yetkazilgan zararning hammasini shu bosqinchi o'g'ri yashaydigan joy to'lashi kerak. 12) Agar tabib bemorni noto'g'ri davolasa, tabibning qo'li kesib tashlanishi kerak. Oxirida shunday deyilgan: *“Men, Xammurapi, adolatli podshodirman, menga qonunlarni Quyosh xudosisining o'zi yuborgan. Mening so'zlarim bebaho so'zlar, ishlarim tengi yo'q ishlardir”*.

**XAPI** — Qadimgi Misrda Nil xudosi. Misrdagi hayotning birlamchi manbai va posboni.

**XARAPPA MADANIYATI** — Hind vodiysi sivilizatsiyasi — jez davriga oid yuksak rivojlangan shahar madaniyati (mil. avv. 2500–1800-yillar). Hindistonning qadimgi aholisi — *dravidlar* tomonidan yaratilgan deb taxmin etiladi. Hindiston va Pokistonning Hind daryosi vodiysi va unga qo'shni viloyatlardagi ulkan hududga (300 ming kv. km maydonga) tarqalgan. Xarappa savdo koloniyasi manzilgohi, Shimoliy Afg'onistonda — Amudaryoning so'l qirg'og'idagi *Sho'rto'qay* qishloq xarobasidan aniqlangan. Xarappa madaniyati aholisi dengiz va quruqlik orqali Mesopotamiya va O'rta Osiyo bilan qizg'in savdo aloqalari olib borgan. Xarappa madaniyatining iqtisodiy asosini sug'orma dehqonchilik, shuningdek, uy chorvachiligi va hunarmandchilik tashkil etgan. Bu madaniyatga oid 2 asosiy shahar — *Moxenjodaro* va *Xarappada* olib borilgan qazishma ishlari shaharsozlik san'ati yuksak darajada taraqqiy etganidan. Xarappa madaniyati aholisining original yozuvni kashf etgani ushbu madaniyatning yorqin yutuqlaridan biridir. Bu yozuv bitilgan mingdan ortiq muhr, shuningdek, sopol va metall buyumlar topilgan, lekin, ularni hanuzgacha o'qishga muvaffaq bo'linmagan. Professor *Y. Knorozov* rahbarligidagi olimlar tomonidan matematik metodlar qo'llanishi natijasida yozuv o'ngdan chapga yo'nalgani va protodravidlarga mansubligi aniqlangan. Xarappa madaniyatining halokatga uchrashi (hasid-oriylar istilosi, ekologik sharoitning o'zgarishi, bezgak epidemiyasi) sabablari noma'lum.

**XATXOR** — Qadimgi Misrda musiqa, go'zallik va ishq ilohasi.

**XETT ADABIYOTI** — qadimda Kichik Osiyoda yashagan xetlar yaratgan adabiyot. Xett adabiyoti xalq og'zaki ijodiyotidan kelib chiqqan. Xett adiblari ajoyib ertaklar, hikoyalar, afsonalar, dostonlar yaratganlar. *“Ullikumin haqida qo'shiq”*, *“Telepin haqida afsona”*, va *“Illuyanke haqidagi afsona”*lar Xett adabiyotining ajoyib namunalarini hisoblanadi.



Bundan tashqari "*Suppilulium I solnomasi*", "*Mursili II solnomasi*" va "*Xettusili III tarjimai holi*" kabi tarixiy asarlar ham yaratilgan. Yangi Xett podsholigi davrida esa mesopotamiyaliklarning "*Gilgamesh haqida dostoni*", Gesiodning "*Teogoniy*" kabi asarlari xett tiliga tarjima qilingan. Xettlarning yozgan turli asarlari mazmun jihatdan boy bo'lib, xett dunyosining ko'p jihatlarini qamrab olgan edi.

**XETT DINIY E'TIQODI** — qadimgi xettlarning ilohiy kuchga ishonishga asoslangan dunyoqarashi va tasavvurlari. Xetlar ibtidoiy din va e'tiqod shakllari — yer, suv, tog', qoya, momaqaldiroq kabi narsa va hodisalarga sig'inganlar. Keyinchalik xett dinida hosildorlik kuchlarini o'zida aks ettiruvchi tabiat onasi — ulug' ma'buda e'tiqodi kuchaygan. Ayni paytda xetlar tog' cho'qqilari, momaqaldiroq, yashin, yog'ingarchilik va hosildorlik xudosi *Teshubni* ilohiylashtirganlar. U bosh xudo bo'lib, "*Osmon podshosi, Xett mamlakati homiysi*" hisoblangan. Uning xotini Quyosh xudosi bo'lib, u ham xetlar mamlakati homisi, Xett podsholari malikalarning homiysi hisoblangan. Teshub beliga qilich taqqan va chap qo'lida bir tutam yashin, o'ng qo'lida jang boltasi ushlagan jangchi qiyofasida tasvirlangan. Teshub Xett davlatining tashkil topishi davrida davlat va podsho hokimiyatiga homiylik qiluvchi xudoga aylangan. U yoki bu Xett podshosi hayot vaqtida bosh ruhoniy sifatida eng muhim diniy marosimlarni amalga oshirgan. Podsho vafot etgach, uning ruhiga atab motam-maraka marosimlari ado etilib, u xudo bilan tenglashtirilgan. Podsholar Quyosh xudosi hassasini ushlagan holda tasvirlangan. Anatoliyaning *Yazili qoyasida* Teshub Xett podshosini o'z o'g'lidek quchog'iga olib turgani tasvirlangan. Podsho xudo darajasiga ko'tarilgan ekan, mamlakat a'yonlari va fuqaro uni "*quyoshim*" deb atashlari kerak bo'lgan. Xettda xudolar nomi shunchalik ko'pki, Xett davlati bitimlarida oliy xudolar bilan bir qatorda "*Xett mamlakatining 1000 xudosi*" tilga olinadi. Xetlar o'z xudolariga va muqaddas hayvonlarga atab qoyatosh sathiga qabartma suratlar o'yib, haykallar ishlaganlar. Shuningdek xetlar o'z xudolariga bag'ishlab bayram kunlari qo'y, echki va qoramol so'yib qurbonliklar qilganlar.

**XETT TILI** — o'z yozuviga ega bo'lgan eng qadimgi hind-yevropa tillaridan biri; xatt, palayya, lidiya va boshqa tillar bilan xett-luviy tillari (anatoliya tillari) guruhini tashkil etgan o'lik til. Xett tilida so'zlashuvchi aholi qadimgi Anatoliyaning markaziy va shimoliy qismlarida yashagan. Xett tili tarixida 3 davr farqlanadi: qadimgi davr (mil. avv. XVIII—XVI asrlar), o'rta davr (mil. avv. XV asr — XIV asr boshi) va yangi davr (mil. avv. XIV asr o'rtalari —

XIII asr). Bizgacha yetib kelgan matnlarning aksariyati yangi podsholik davriga mansubdir. Xett podsholigining asosiy grammatik xususiyatlari: fe'l qo'shimchalari 2 turga bo'lingan, otlar 2 grammatik jins kategoriyasiga bo'lingan. Leksikasida xatt, akkad va xurrit tillaridan o'zlashgan so'zlar — asosan terminlar ko'p bo'lgan. Xett tilining yozuvi — mixxat bo'lib, u shimoliy Suriyadan, ehtimol, qadimgi akkad mixxatidan o'zlashtirib olingan. Yozma yodgorliklari asosan 1906—1907-yillardagi arxeologik qazishlar chog'ida Xattusasdagi (Turkiya, hozirgi Bo'g'ozko'y) podsholik arxividan topilgan.

**XETT YOZUVI** — qadimgi xettlarning shumer-akkad yozuvi asosida yaratgan yozuvi. Xetlar xett-iyeroglif va mixxatsimon yozuvlarini yaratganlar. Kichik Osiyo va unga tutash bo'lgan joylardan topilgan xilma-xil hujjat, xett qonunlar to'plami, Xattusili III bilan Ramzes II lar o'rtasida tuzilgan do'stlik shartnomasi shumer-akkad, xett-iyeroglif va Misr iyerogliflari bilan yozilgan. Xett iyeroglif alifbosi va xatining mavjudligi, xetlarda savdoning yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi.

**XETTLAR** — Kichik Osiyoda qadimda yashagan xalq. Xett tilida so'zlashgan. Shuning uchun ham odatda xetlar yoki ularning avlodlari Kichik Osiyoga Bolqon ("*g'arbiy*" nazariya) yoki Kavkaz orqali ("*sharqiy*" nazariya) kelib joylashgan deb hisoblanadi. Qadimgi Xett podsholigida shaharlarning sharqqa xos uslubda qurilishi xettlarning Kavkaz orqali ko'chib kelganini ko'proq tasdiqlaydi. Anatoliyaning savdo markazlaridan topilgan akkad tilida yozilgan hujjatlarda xett tiliga mansub so'zlar va shaxs nomlarining uchrashi, xettlarning mil. avv. 3—2-mingyilliklardan boshlab Kichik Osiyoda yashay boshlaganligini ko'rsatadi. Mil. avv. 14—12-asrning boshlarida Xett podsholigida xett tili asosiy davlat tili bo'lsa-da, xetlar boshqa etnik guruhlar bilan qo'shilib keta boshlagan.

**XETTLAR MADANIYATI** — mil. avv. 2-mingyillikda ravnaq topgan Xett podsholigida shakllangan madaniyat. Podsholar qarorgohi bo'lgan Xattusas shahri (Kichik Osiyodagi hozirgi Bog'ozko'y shahri) barcha xett shaharlari kabi doirasimon tarhli, mudofaa devor va inshootlarga alohida e'tibor berilgan, shaharning qo'sh devori burj, minoralar bilan mustahkamlangan. Binolar haykal, relyeflar bilan bezatilgan. Shahar darvozalarining ikki yonida ulkan sher haykali, sfinkslar o'rnatilgan. Bog'ozko'y yaqinidagi Yozuvli qoya relyeflari (mil. avv. XVI—XIII asrlar)da sher ustida tik turgan kishilar aks ettirilgan, 2 boshli burgut tasviri gerbni eslatadi. Ba'zi relyeflarda, xettlarning doirasimon tamg'alaridagi kabi, ramziy tasvirlar uchraydi. Mil. avv. 1600-yilda qadimgi xetlarda

haykaltaroshlik, kulolchilik taraqqiy etgan (masalan: o'rdakburun shaklidagi ko'zachalar, hayvonlar shaklidagi idishlar, ma'budalar tasvirlangan idishlar).

**XORAZMIYLAR** – mil. avv. VII–VI asrlarda Amudaryo quyi oqimida yashagan o'troq elatlar. Ularning yurtlari Avestoda *Xvarizam* (*Xvairizem*), Behistun bitiklarida *Xvarazmish*, Arrian va Strabon asarlari (yunoncha)da *Xorazmiya*, lotinchada *Xorasmiya*, qadimgi forsiychada *Uvarazmis* deb nomlangan.

**XUFU PIRAMIDASI** – Misrda qurilgan eng katta va hashamatli piramida (*yunonlar* uni **Xeops** deb atashgan). Mil. avv. 2500-yilda qurilgan. Me'mori *Xemiun*. Xufu maqbarasining balandligi o'z davrida 150 metrdan ortiq bo'lgan, hozirgi paytda 146,6 metrni tashkil etadi, tomonlari asosi 233 metr. Hufu piramidasini qurish uchun ikki million uch yuz ming dona tosh ishlatilgan. Maqbara qurilishiga tarashlab tayyorlangan toshlarning eng kichigi ikki tonna, kattasi esa o'n besh tonnadan iborat bo'lgan. "*Tarix otasi*" Gerodotning yozishicha, bu ehrom 30 yil mobaynida qurilgan ekan. Uning qurilishida 100 mingdan ortiq kishi doimiy ishlagan. Maqbara toshlari shunchalik aniq-rasolik bilan kesilgan va taroshlanganki, ular o'rtasidagi yoriq 0,5 millimetrdan ham oshmaydi. Hufu piramidasi "*Dunyoning yetti mo'jizasi*" dan biri hisoblanadi.

**XUNNLAR (gunnar)** – qadim zamonlarda Markaziy Osiyoning katta qismida yashagan ko'chmanchi qabilalar. Xunlar O'rta Osiyoning tub joy aholisi bo'lib, ularning ajdodlari tosh asridan beri shu yerlarda istiqomat qilganlar. Mil. avv. 3–2-mingyilliklarda xunnlarning ajdodlari ovchilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib tirikchilik o'tkazganlar. Mil. avv. 1-mingyillikning 1-yarmidan boshlab aholining asosiy qismi ko'chmanchi chorvador bo'lgan. Ular Xitoy madaniyatidan bahramand bo'lganlar. Xunlar *janjun*, *jun*, *dunxi*, *yuehji* kabi qabilalar bilan urushlar olib borib, ularni o'zlariga itoat ettirganlar. Mil. avv. IV asrlarda O'rta Osiyoning shimolida xunn qabilalarining harbiy ittifoqi tashkil topgan. Xunn qabilalarining bu harbiy ittifoqi asta-sekin kuchayadi. Mil. avv. III asr oxirlariga kelib xunn qabilalarining harbiy birlashmasi asosida Xunn ko'chmanchilari davlati tashkil topadi. Xitoy tarixchisi Sim-Syanning yozishicha, xunnlarning harbiy sardori Shanyu deb atalar edi. Xunn sardorlaridan bin Maodun ichki dushmanlarini yenggach, dunxu qabilalari ustiga katta qo'shin bilan bostirib boradi. Shiddatli va ayovsiz jang oqibatida dunxular tor-mor etiladi. Maodun dunxular hukmdorini o'ldirib, ko'p odamlarni asir olib, podalarini haydattirib ketadi. Mil. avv. 203–

202-yillarda Maodun Sayan, Oltoy va Yenisey (Enasoy) daryosining yuqori oqimidagi joylarni bosib oladi. Mil. avv. 200-yilda Xan podshosi Lyu Ban xunnlarni ustiga qo'shin tortadi. Maodun harbiy hiyla ishlatib, Lyu Ban qo'shinlarini qurshab oladilar va ularni qirib tashlaydilar. Lyu Ban asir tushadi. U juda ko'p mol-mulk va qizini Maodunga berish sharti bilan asirlikdan ozod bo'ladi. Lyu Ban va'dasini bajarmay, qizini Maodunga yuborishni paysalga soladi. Maodun katta qo'shin bilan Xan chegaralaridan o'ta boshlaydi. Bu xabarni eshitgan Lyu Ban katta mol-mulk bilan qizini xunlar hukmdoriga uzatishga majbur bo'ladi. Shundan keyin ikki o'rtada tinchlik sulhi tuziladi. Sulhdan so'ng ikki davlat o'rtasidagi do'stlik 40 yil davom etadi. Xunlar Maodun va uning vorisi Maoshin (mil. avv. 174–161-yillar) davrida yuechjilar bilan 25 yil davomida urush olib boradilar. Urushda yuechjilar yengiladilar. Shundan keyin xunlar O'rta va Sharqiy Osiyodagi eng kuchli davlatga aylanadi. Xan podsholari xunlardan qo'rqib, ularga ko'p miqdorda o'lpon va sovg'alar yuborib turganlar. Xitoy bozorlari xunn savdogarlari uchun ochiq deb e'lon qilingan. Mil. avv. II asrning birinchi yarmi xunlar davlatining eng kuchaygan davri bo'lgan. Mil. avv. 123-yili xitoy qo'shinlari xunnlarni Xan saltanatining shimoliy chegaralaridan surib chiqaradilar. Mil. avv. 12–119-yillarda xan qo'shinlari Dunxuangacha bo'lgan yerlarni bosib oladilar. Xunlar esa xitoylarning g'arb tomon yurishlariga qarshilik ko'rsatadilar. Mil. avv. 119-yildagi bo'lgan jangdan keyin xitoy qo'shinlari xunn sardoning qarorgohini bosib oladi. Jangda 90 ming xunni askari va ko'p xitoy askari halok bo'ladi. Mil. avv. 99–90-yillar orasida xunlar bilan xitoylar o'rtasida qattiq urushlar bo'lib o'tib, ko'pincha xunlar g'olib chiqadilar. Xitoylar esa g'arbda usunlar, sharqda uxuanlar va shimolda Yenisey bo'yi qabilalari bilan harbiy ittifoq tuzib, mil. avv. 71-yili xunlarga uch tomondan hujum boshlaydilar. Bu jang ittifoqchilarning g'alabasi va xunnlarning mag'lubiyati bilan tugagan. Mil. avv. 71-yilgi mag'lubiyatdan so'ng Xunn davlati kuchsizlanib, mil. avv. 56-yili Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'linib ketadi. Shanyu Xuxanye boshliq janubiy xunlar Xitoyga tobe bo'lib, ular bilan ellik yilcha tinch-totuv yashaganlar. Chji-chji boshliq shimoliy xunlar g'arb tomon siljiganlar. Lekin xitoy qo'shinlari ularni ta'qib qilib borib tor-mor etganlar. Milodning I asrida xunlar o'zlarini biroz tiklab olganlar. Ammo 87–93-yillarda xitoylar syanbi va dinliklar bilan ittifoq bo'lib xunnlarni tor-mor keltirganlar. Xunlar esa Sirdaryoning quyi qismi va Orol dengizining shimoliga borib joylashganlar. Keyingi asrlar davomida xunlar Shimoliy Qo-

zog'iston orqali yurib, Idil va Don daryolaridan o'tib Shimoliy Kavkazdagi alanlarni o'zlariga itoat ettirganlar. Xunlar sardori Balamber 375-yil o'z qo'shinlari bilan Shimoliy Qora dengiz bo'ylarini egallagan. Shu yerda yashovchi gottlarning bir qismi xunlarga tobe bo'lganlar va o'zlarini *osgotlar*, ya'ni *sharqiy gotlar* deb ataganlar. Xunlarga tobe bo'lmagan gottlar Frakiyaga borib joylashib, o'zlarini vesgottlar deb ataganlar. 394–395-yillarda xunlarning bir qismi Suriya va Kapadokiya bostirib kirganlar. Ular g'arbga yurishni davom ettirib, Dunay daryosining yuqori qismidagi yerlarni bosib olganlar. Shu yerdan turib ular Sharqiy va G'arbiy Rim saltanatiga ham tahdid solib turganlar. *Attila* davrida (434–453) Markaziy Yevropaning juda ko'p qabilalari xunlarga tobe bo'lgan. 451-yilda xunlar Galliyaga bostirib kirganlar. Ammo rimliklar, vesgottlar va franklarning birlashgan qo'shinlari Katalaun yonidagi jangda xunlarni yengib, ularni orqaga chekintirganlar. 453-yilda *Attila* vafot etgach, xunlar davlati kuchsizlangan. Ularning 455-yili Pannoniyaga, 469-yili Bolqonga qilgan yurishlari mag'lubiyat bilan tugagan. Shundan keyin xunlar ittifoqi tarqalib, davlat mutlaqo kuchsizlangan. Xunlar mahalliy aholiga qo'shilib ketganlar. Shu tariqa 7–8-asr hukm surgan Xunlar davlati V asr oxirlariga kelib barham topgan.

**XURMO DARAXTI** – Mesopotamiyada uni “*hayot daraxti*” deyishgan. Bir tup xurmo daraxti 50 kilogrammgacha hosil bergan.

**YANGI PODSHOLIK DAVRI** – Qadimgi Misrda mil. avv. 1584–1085-yillarni o'z ichiga olgan podsholik davri. Bu podsholik davrida 18–20-sulola vakillari podsholik qilgan. Yangi podsholik davrida Misr Sharqdagi eng boy mamlakatga aylangan. Misr har jihatdan gullab-yashnagan, chegarasi kengaygan. Bu davrda almashlab ekish joriy etilgan, davlat hokimiyati yer, sug'orish, qishloq xo'jaligiga katta e'tibor bergan, hunarmandchilik va savdo-sotiq keng rivojlangan, jezdan keng qo'llanila boshlangan, temirdan ishlangan dastlabki buyumlar paydo bo'lgan, metallsozlik, to'qimachilik dastgohi va omoch takomillashgan, g'ildirakli aravalar keng tarqalgan, shishasozlik rivojlangan. Bo'ysundirilgan va qo'shni mamlakatlardan o'lpon sifatida va ayirboshlash yo'li bilan xomashyo olib kelingan, jumladan, kumush, qo'rg'oshin, mis, yog'och materiallari Suriya va Falastindan, oltin, fil suyagi Kushdan, xushbo'y atirlar, oliy nav daraxt ko'chatlari Punt dan keltirilgan. Malika *Xatshepsut* tomonidan Puntga jo'natilgan flot haqidagi ma'lumot saqlangan. Xususiy qulchilik nihoyatda keng rivojlangan. Muvaffaqiyatli harbiy yurishlardan so'ng 10 minglab qullar keltirilgan. Tinimsiz davom etgan urushlar XVIII–

XX sulolalar fir'avnlarni qo'shin tuzilishini takomillashtirishni o'ylashga majbur qilgan, qo'shin asosini zodagon aravakashlar tashkil qilgan. Piyoda qo'shin ushuncha namunaviy qurol, xususan, ulama kamon joriy etilgan. Bu tadbirlar armiyaning jangovarlik qobiliyatini oshirgan. Yaxmosning vorislari *Tutmos I*, ayniqsa, *Tutmos III*, *Amenxotep II* shimolda Suriya va Falastinni, janubda – Kushning bir qismini Misrga qo'shib olganlar. Mitanni, Bobil va Xett podsholigi bilan muntazam diplomatik aloqalar o'rnatilgan. *Amenxotep III* davrida (XV asrning 2-yarmi) Misr o'z qudratining yuksak cho'qqisiga yetgan. Fir'avnlardan katta yerlar, qullar, oltin va boshqa olib turgan ibodatxonalar mavqeyining ortishi kohinlarni podsho hokimiyati bilan to'qnashuviga olib kelgan. Kohinlar va zodagon nomlar mavqeyini pasaytirish maqsadida *Amenxotep IV (Exnaton)* mayda va o'rta yer egalariga tayangan holda diniy islohot o'tkazgan, xususan, eski ma'budlarga sig'inishni bekor qilib, yagona quyosh ma'budi – *Atonga* sig'inishni joriy qilgan. Exnaton o'z qarorgohini yangi qurgan shahri *Axetaton* (hozirgi *Al-Amarna*)ga ko'chirgan. Fir'avn bilan kohinlar o'rtasidagi kurash Misrni zaiflashtirgan; XIV asrning 1-yarmida u shimoldagi barcha mulklardan ajralgan. Exnatonning vafotidan so'ng fir'avnlardan *Tutanxamon* va *Xoremxeb* davrida kohinlar va zodagonlar eski dini tiklashga erishganlar. XIX sulolaning eng mashhur vakili *Ramzes II* davrida Suriyani egallash uchun xetlar bilan kurash olib borilgan. Mil. avv. XIII asrning 2-yarmi – XII asr boshida, fir'avnlardan *Merneptax* va *Ramzes IV* davrida “*dengiz xalqlari*” va *liviyaliklar* bosqini qaytarilgan. Uzoq davom etgan urushlar Misrning iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan zaiflashuviga olib kelgan; XX sulola hukmronligining oxiriga kelib Suriya va Kushning janubiy viloyatlaridagi mulklar qo'ldan ketgan. *Ramzes XII* davrida (mil. avv. taxm. 1070-yil) Fivadagi hokimiyat amalda Amon ma'budning oliy kohini – *Xerixor* qo'liga o'tgan. **Yangi podsholik davrida hukmronlik qilgan fir'avnlari: 18-sulola (1580–XIV asr o'rtalari):** *Yaxmos I* (1580–1559), *Amenxotep I* (1559–1538), *Tutmos I* (1538–1525), *Tutmos II* va *Xatshepsut* (1523–1503), *Tutmos III* (1503–1491), *Amenxotep III* (1455–1419), *Amenxotep IV (Exnaton)*, 1419–1400), *Tutanxamon* (1400–1392). **19-sulola (1342–1206):** *Xoremxeb* (1395–1338), *Seti I* (1337–1317), *Ramzes II* (1301–1235). **20-sulola (1204–1085):** *Ramzes IV* (1204–1180), *Ramzes XII* (1112–1070).

**ZAFARYOR** – Qadimgi Xitoyda O'rta podsholik ya'ni *Chjou podsholigi* hukmdorlari o'z davlatlarini shu nomlar bilan atagan.

**ZAND** – “Avesto”ning matnlariga yozilgan tafsirlar.

**ZARDUSHTIYLIK (Zoroastrizm)** – mil. avv. VII–VI asrlarda vujudga kelgan din. Asoschisi – *Zardusht*. Soʻnggi tadqiqot xulosalariga qaraganda, Oʻrta Osiyo, xususan, Xorazm Zardushtiylik vatani boʻlgan. Oʻrta Osiyo, Eron, Afgʻoniston, Ozarbayjon hamda Yaqin va Oʻrta Sharqning bir necha mamlakatlarida tarqalgan. Qadimgi pahlaviy tilida “*Zardusht*” soʻzi “*Magupta*” deb atalgan. Pahlaviy tilidagi yodgorliklarni arab tiliga tarjima qilgan olimlar uni “*majus*” shaklida qoʻllagan. Natijada oʻrta asrlardan beri “*Zardusht*” “*majus*”, “*zardushtiylik*” “*majusiylik*” sifatida qoʻllanib kelingan. Zardushtiylikda otash va quyosh tangri Ahuramazdaning oʻgʻli deb hisoblangan. Nur, otash zardushtiylikning ramzi, timsolidir. Zardushtiylikda Ahuramazda oliy xudo hisoblanganligi uchun zardushtiylik – mazdaizm yoki mazdaiylik deb ham atalgan. Zardushtiylik taʼlimoti uning muqaddas kitobi – Avestoda bayon etilgan. Zardushtiylik taʼlimoti dunyodagi hamma tartiblar yaxshilik va yomonlik, yorugʻlik va qorongʻilik, hayot va oʻlim oʻrtasidagi kurashga bogʻliq, deb tushuntiradi. Olamdagi hamma yaxshiliklarni *Ahuramazda*, yomonliklarni *Ahriman* ifodalaydi. *Ahriman* Ahuramazdaga qarshi kurashadi, lekin uni yengishga ojizlik qiladi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurash olamdagi jarayonlar mazmunini tashkil etadi. Odam bu kurashda tanlash erkinligiga ega boʻlgan, oʻz faolligi bilan dunyoda adolat tantanasiga taʼsir eta oladigan shaxsdir. Avestoda koʻchmanchilik va dehqonchilik hayot tarzi oʻrtasidagi qarama-qarshilik bayon etiladi, koʻchmanchilikka hamma yovuzliklarni keltirib chiqaradigan hayot tarzi deb qaraladi va u qoralanadi, dehqonchilik esa yaxshilik belgisi sifatida ragʻbatlantiriladi. Zardushtiylik dinida olov gunohlardan tozalovchi sehrli kuch deb qaraladi. Zardushtiylikning axloqiy taʼlimoti “*ezgu fikr*”, “*ezgu soʻz*” va “*ezgu amal*”dan iborat muqaddas uchlikda oʻz ifodasini topgan. Zardushtiylik talabiga koʻra, har bir inson tangrining yakka-yu yagonaligini eʼtirof etilishi, xoh erkak, xoh ayol boʻlsin ilm oʻrganishi, turli kasblarni egallashi, chorvachilik, dehqonchilik, bogʻdorchilik bilan shugʻullanishi, kanal qazishi, yer ochishi lozim. Eng asosiysi – Zardushtiylikda eʼtiqod erkinligi mavjud boʻlgan. Zardushtiylik insonlarni tenglikka, hamjihatlikka, bir-biriga yaxshilik qilishga, yer yuzida tinch-totuv hayotni taʼminlash uchun kurashga chorlagan, unda maʼrifat zulmatga, adolat zulmga qarama-qarshi qoʻyilgan. Zardushtiylikda har bir inson butun kuchini oʻzini kamolotga yetkazish yoʻliga sarf etmogʻi lozim. Zardushtiylik dinida murdani

tuproqqa koʻmish yoki kuydirishni taqiqlaydi. Bu din jonning oʻlmasligini, uning abadiyligini tan oladi, jannat va doʻzaxni ham eʼtirof etadi. Otashkada zardushtiylikning ibodatxonasi hisoblanadi. Zardushtiylik ruhoniylari alohida tabaqa sifatida ajratilib, ularga maxsus imtiyozlar berilgan. Zardushtiylik arshakiylar va sasoniylar podsholigi davrida hukmron dinga aylangan. Zardushtiylik 13 asr davomida ajam mamlakatlarida asosiy din boʻlib kelgan. Arablar VII asrda oʻrtalari – VIII asr boshlarida Eron va Oʻrta Osiyoni bosib olgandan keyin islom dini hukmron dinga aylangach zardushtiylik quvgʻin qilindilar. Zardushtiylik Hindiston va Eronda hozir ham mavjud. Eronning Yast va Gilon viloyatlarida ularning soni 100 mingdan, Hindistonning Maharashtra, Gujarot shtatlarida 115 mingdan ziyodni tashkil qiladi.

**ZARIASP** – Baqriya davlatining poytaxti Baqtra shahrining yunoncha nomi.

**ZIKKURAT** – Qadimgi Bobil va Ossuriyada ehromlar yonida xom gʻishtdan qurilgan ichki xonasiz zinasimon minora. Ayrim zikkuratlar zina oʻrnida qiya yoʻlakli boʻlgan. Qavatlariga zina (yoki yoʻlak)dan chiqib tushilgan, eng yuqori qavati rasadxonadan iborat boʻlgan. Ur, Uruk, Nippur, Bobil, Akkad shaharlarida rasadxonalar boʻlgan.

**ZOROASTR** (yunoncha “*astron*” – *yulduz*) – Zardushtiylik dinining asoschisi *Zardusht*ning yunoncha nomi.

**ZOROASTRIZM** – Zardusht asos solgan *Zardushtiylik* dinining yunoncha nomi.

**OʻRTA PODSHOLIK DAVRI** – Qadimgi Misrda mil. avv. 2250–1584-yillarni oʻz ichiga olgan podsholik davri. Oʻrta podsholik davrida markazlashgan davlat ancha kuchaygan, Misr Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylangan. Bu davrda Misr poytaxti Fiva, Ittaun, Avoaris shaharlari boʻlgan. Oʻrta podsholik davrida Fayum vohasida yirik irrigatsiya ishlari olib borilgan. Bronza (jez) buyumlari paydo boʻlgan. Suriya, Krit, janubda – Punt bilan aloqalar kuchaygan. *Senusert III* davrida Kush (Nubiya)ning bir qismi Misrga qoʻshib olingan. XII sulolaga mansub dastlabki firʼavnlarda davrida oʻzaro ichki nizolar davom etmoqda edi. Faqat *Amenemxet III* davrida (19 asrning 2-yarmi) isyonkor nomarxlar boʻysundirilib, markaziy hokimiyat mustahkamlangan. *Ittaun shahri* Misr poytaxtiga aylangan. Biroq mulkiy tabaqalanishning kuchayishi kambagʻallarning qoʻzgʻoloniga sabab boʻlgan, natijada taxm. 1750-yilda mamlakat yana parchalanib ketgan. Mil. avv. 1710-yilda Misrga shimoli sharqdan *giksoslar* bostirib kirib, mamlakatning katta qismini deyarli 130-yil (1710–1580) egallab turganlar. *Avoaris*da qoʻnim topgan ularning podshohlari XV va XVI sulolani

tashkil etishgan. Fivada mahalliy hukmdorlar saqlanib qolgan (XVII sulola). Ushbu sulolaga mansub fir'avnlaridan *Senenenra* va *Kamesu* ozodlik urushini boshlab yuborishgan, bu kurash ularning vorisi XVIII sulola asoschisi *Yaxmos I (Amasis)* tomonidan muvaffaqiyatli yakunlangan. U taxm. 1580-yilda giksoslarni Misrdan quvib chiqargan. Shundan so'ng tiklangan Misr davlati *Yangi podsholik* deb atalgan.

**O'rta podsholik davrida hukmronlik qilgan fir'avnlar:**  
**11-sulola:** *Mentuxotep IV Sanxkara* (2015–2007), *Mentuxotep V Nebtauira* (2007–2000). **12-sulola (2000–1787):** *Amenemxet I* (2000–1970), *Senusert I* (1970–1934), *Amenemxet II* (1934–1896), *Senusert III* (1884–1849), *Amenemxet III* (1849–1801). **13-sulola (1785–1700).** **14-sulola (1680-yilgasha).** **15-va 16-(giksoslar) sulola (1700-?).** **17-sulola (1680–1580):** *Senenenra*, *Kamesu*.

**SHADUF** – yerga o'rnatilgan ustun va ko'tarilib-pasayib turadigan xodacha. Uning bir uchiga tosh, ikkinchi uchiga charm chelak bog'langan. Mil. avv. II mingyillikning o'rtalari (O'rta podsholik davri)da qadimgi misrliklar tomonidan ixtiro qilingan. U bog'larga va baland joylarga suv chiqarishni osonlashtirar edi.

**SHAMASH** – Qadimgi akkadliklarda quyosh xudosi. Oliy hakam, yomon ishlari uchun odamlarni sud qilgan.

**SHANYU** – Xitoy tarixchisi Sima Szyanning yozishicha, xunnlarning harbiy sardori shu nomda atalgan. Xunn sardorlari – shanyulari qattiq intizomli, qilich, kamon, nayza, dubulg'a bilan qurollangan, tez harakat qiluvchi otliq qo'shinga ega bo'lganlar. Ular quyun kabi o'z dushmanlari ustiga bostirib borib, ularni vahimaga solib qo'yg'alar.

**SHER BOSHLI XUDO** – Qadimgi Misrda sher boshli quturgan va vabo yuboruvchi urush xudosi.

**SHIROQ** – jangnoma tipidagi afsonalardan biri. Sujeti tarixiy voqealar asosiga qurilgan. Afsonani birinchi marta milodiy II asrda yashagan yunon tarixchisi *Poliyen* o'zining "*Harbiy hiylalar*" degan asarida keltirgan. Asarda Shiroq – *Sirak* deb nomlangan. Afsonada sak qabilasidan chiqqan otboqar Shiroqning jasorati, tadbirkorligi va erksevarlik fazilatlarini hikoya qilinadi. Shiroq o'z qabilasi manfaatlarini himoya qilib, yakka o'zi Eron shohi *Doro* lashkarlariga qarshi chiqadi va harbiy hiyla bilan uning qo'shinlarini chalg'itib, suvsiz, dasht-sahroga boshlab boradi va halokatga duchor qiladi. O'zi halok bo'lsa-da, qabiladoshlarini falokatdan qutqaradi. Qabila va xalq mudofaasi asarning bosh mavzui bo'lib, bosqinchilarga qarshi kurash, mardlik va jasorat ko'rsatish esa uning g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Asarda

bosqinchilik qoralanadi, tinchlik va ozodlik uchun kurash ulug'langan.

**SHIVA** – hinduizmda *Brahma* va *Vishnu* bilan birgalikda ilohiy uchlikni tashkil etuvchi xudolardan biri bo'lib, u barcha mavjudotlarni yakson qiluvchi hisoblangan.

**SHUDRALAR** – Qadimgi hind diniy to'plamiga ko'ra, so'nggi to'rtinchi toifaga mansub bo'lib, xudo Braxmaning tovonidan paydo bo'lgan bo'ysundirilgan ajnabiylar, xizmatkorlar, qullar, o'z urug' va qabilalaridan ajralib kelgan kishilar. Ular zoti past kishilar bo'lib, jamoaga yaqinlashtirilmagan.

**SHUMERLAR (shumeriylar)** – Janubiy Mesopotamiyada yashagan qadimgi xalq. Lingvistika va toponimika ma'lumotlariga ko'ra, shumerlar bu hududga mil. avv. 5-mingyillikdayoq kelib joylashishgan. Antropologik jihatdan shumerlar yevropoid katta irqining o'rta dengiz va bolqon-kavkaz irqlariga mansub. Mil. avv. 3-mingyillik o'rtalariga kelib shumerlar janubiy Mesopotamiyaning sharqida yashovchi somiylar (akkadlar) bilan aralasha boshlaganlar. Mil. avv. 2-mingyillikning birinchi yarmida shumerlar va sharqiy somiylar yagona akkad xalqiga birlashganlar. Shumer tili mil. avv. 2–1-asrlarga qadar Mesopotamiyada fan va din tili bo'lib qolgan. Shumerlar Mesopotamiyadagi qadimgi yozuv – mixxatni yaratganlar.

**SHUMER TILI** – Shumerlar tili; o'lik tillardan biri. Uning boshqa tillar bilan qarindoshligi aniqlanmagan. Bu til mil. avv. 4-mingyillik oxirlaridan 1-mingyillikkacha bo'lgan mixxat yozuvlaridan ma'lum. Shumer tili yodgorliklari eski shumer (mil. avv. 25-asrgacha), "klassik" (mil. avv. 24–22-asrlar), yangi shumer (mil. avv. 21-asr), kechki shumer (mil. avv. 2-mingyillikning boshlari) va shumerdan keyingi davrlarga bo'linadi. Bu yozma yodgorliklar xo'jalik hujjatlari, podsholik yozuvlari, adabiy, diniy va ilmiy matnlardan iborat. O'timli va o'timsiz fe'llarning formal farqlanishi shumer tili uchun xarakterli xususiyatdir. Gapda kelishik munosabatlari alohida keladigan suffiks ko'rsatkichlari bilan ifodalangan. Shumer tilida moslashuvga ko'ra farqlanadigan ikki grammatik sinf va ikki son mavjud.

**CHANDALLAR ("hazar qilinadiganlar")** – Qadimgi hind diniy to'plamiga ko'ra, kastalardan birortasiga ham mansub bo'lmagan kishilar toifasi. Chandallar kastalarga mansub odamlar bilan birga bir uyda yashay olmasdi, ular bilan bir dasturxonga o'tirish taqiqlangan. Uzoqdan ko'rinib ajralib turushlari, kimdir tasodifan ularga tegib ketmasligi uchun chandallar maxsus libos kiyib yurishlari lozim bo'lgan. Ular qishloqlardan tashqarida yashashga majbur bo'lishgan.

**CHINVOT** – Zardushtiylarda narigi dunyodagi qil ko'prik.

**CHJANGO** (*Kurashayotgan podsholiklar*) – Xitoyda Chjou sulolasi davri (mil. avv. 403–221). Mamlakatda hukmronlik qilish uchun eng yirik podsholiklar o'rtasida kurash kuchaygan. Shuningdek, bu davr mamlakatning tez sur'atlarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Chjango davrida podsholiklar o'rtasida olib borilgan urushlar Sin imperiyasining barpo etilishi bilan yakunlangan.

**CHJOU** – Qadimgi Xitoy sulolasi va davri [mil. avv. 1027–256 (yoxud 249)] nomi. *G'arbiy Chjou* (mil. avv. 1027–771) va *Sharqiy Chjou* [770–256 (yoxud 249)]. Sulolaga Chjou qabilasi sardori *U Van* tomonidan asos solingan. U Van 1027-yilda *In davlatini* tor-mor qilib Shimoliy Xitoydagi barcha qabilalar va hududlarni birlashtirgan. Mamlakatni boshqarish uchun qarindosh-urug'larga, van (podshoh)ning safdoshlari va ittifoqchilari udel (mulklar) ajratib berish usulidan foydalanilgan. Chjou zodagonlari harbiy drujinachilarga tayanib ish ko'rgan, ular orasida begona qabilalar ko'p bo'lgan.

Shuning uchun Chjou hukmronligi nafaqat ijtimoiy, balki qabilaviy zulmni ham kuchayishiga olib kelgan. Udellarning markaziy hukumat bilan kurashi va udellar o'rtasidagi o'zaro nizolar ularning ayrimlarini yo'q bo'lishiga va yangi podsholiklar – mustaqil yoki yarim mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Mil. avv. VIII asrdan, *Chunsiyu davridan* e'tiboran Chjou vanlari hokimiyati zaiflashgan, mil. avv. VII–VI asrlarda mamlakatda amalda eng qudratli podsholiklar – “*gegemonlar*” hukm sura boshlagan. *Chjango davrida* (mil. avv. V–III asrlar) mamlakatda hukmronlik qilish uchun kurashayotgan yetti ta kuchli podsholik ajralib chiqqan. Chjou sulolasi hokimiyati zaiflashib, u faqat Chjoularning urug'lariga tegishli mulklarga tarqalgan, xolos. Ularni ham *Sin podsholigi* mil. avv. 256–249-yillarda bosib olgan. Chjou davrida mil. avv. VI asrdan boshlab temir tarqala boshlagan, bu ishlab chiqarish kuchlarini keskin oshishiga, yer haydashni yaxshilanishiga olib kelgan. Chjou davri bir qancha falsafa maktablari (konfutsiylik, daosizm va b.) vujudga kelishi, adabiyot, tasviriy va musiqa san'atining taraqqiy etishi bilan ajralib turadi.

## GEOGRAFIK NOMLAR

**ABIDOS SHAHRI** – Qadimgi Misrda yerosti saltanati xudosi Osirisning ibodatxonasi xarobalari-dan topilgan shahar.

**AFROSIYOB** – Samarqandning qadimgi xarobasi. Bu nom tarixiy manbalarda qadimgi Samarqandga nisbatan faqat XVII asrdan boshlab uchraydi. Qadimgi Samarqand sug'd manbalarida *Smarakanve* deb atalgan bo'lib, “*Anjumanlar, uchrashuvlar o'tkaziladigan joy*” degan ma'noni bildirgan. Mil. avv. IV asrda Samarqand Aleksandr Maqduniy qo'shinlari tomonidan istilo etilgach, yunon mualliflari kundaliklarida *Marokanda* sifatida eslatiladi. Marokanda Smarakvening yunoncha tarjimasidir. Afrosiyob hozirgi Samarqandning sharqiy chegarasiga tutashgan keng bo'sh tepaliklar bo'lib, uning maydoni 219 ga. Afrosiyobda topilgan arxeologik materiallar Samarqand mil. avv. VIII–V asrlarda Sug'diyonaning markaziy shahri sifatida vujudga kelganligini ko'rsatadi. Mil. avv. 329-yilda shahar Aleksandr Maqduniy qo'shinlari tomonidan vayron etilgan, uning izlari hozirgacha shahar mudofaa inshootlarida yaxshi saqlangan. Mil. avv. III–I asrlarda, Kushonlar saltanati davrida shahar hayotida yuksalishlar yuz bergan. Mil. avv. III asrda shahar qo'shaloq mudofaa devori bilan o'rab olingan. Bu zamonda Samarqand orqali Buyuk ipak yo'li o'tgan, ichki vatashqi savdo, hunarmandchilik rivoj topgan.

**AHAMONIYLAR DAVLATI** – mil. avv. 558–330-yillarda hozirgi Eron hududida Ahamoniylar sulolasiga mansub shohlar idora etgan davlat. Ahamoniylar davlati hududi Eronni va Hind daryosidan Egey va o'rta dengizgacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mamlakatlarini, shuningdek Misr, Liviya va Bolqon yarimorolining bir qismini bosib olish natijasida tashkil topgan. Ahamoniylar davlatiga qadimgi fors podshohlari xonadoni – ahamoniylar vakili Kir II asos solgan. Mil. avv. 558-yili *Kir II* fors qabilalari ittifoqiga rahbar bo'lib, 553-yili Midiyaliklar hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Forslar 550-yili Midiyani egallab, 3 yil davomida uni tarkibiga kirgan mamlakatlarni bosib olganlar. Mil. avv. 546-yilda esa Lidiya va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini zabt etganlar. 545–539-yillar oralig'ida Kichik Osiyoning katta qismi 538-yilda Babil, 525-yilda Misr, 519–512-yillar or'alig'idagi Egey dengizidagi orollar, Frakiya, Makedoniya va Hindistonning shimoli g'arbiy qismi bo'ysundirilgan. *Doro I* ning ma'muriy-pul islohatlari bosib olingan mamlakatlar ustidan boshqaruv va nazoratni yanada takomillashtirdi, davlat 20 ta harbiy-ma'muriy satrapiyalarga bo'linib, ularni tepasida maxsus amaldorlar – satraplar turgan. Ular fors podshosiga ulkan miqdorda soliqlar (pul va natura holidi) to'lashgan. *Doro I* davrida yagona tanga pul

birligi – 8,4 g oltin og'irlikdagi *doroyi* joriy qilingan. *Sikl* (1 drop 20 *doroyi*) mayda kumush tanga vazifasini o'tagan. Turon xalqlari Ahamoniyalar davlatiga qarshi To'maris, Shiroq va Frada boshchiligida qo'zg'olon ko'tarishgan. Mil. avv. 330-yilda *Aleksandr Makedonskiy* qo'shini zarbalari ostida ahamoniylar davlati qulagan.

**AKKA** – O'rta dengiz sohilidagi shahar. Isroil davlatida. Qadimda Akko deb atalgan. Janubiy Finikiyaning yirik savdo markazi bo'lgan. Ilk bor mil. avv. XV asrga oid manbalarda zikr qilinadi. Mil. avv. VIII–IV asrlarda Akka Tir shahar-davlati, mil. avv. III asrda esa *Ptolemeylar* tasarrufida bo'lib, Ptolemaida deb atalgan. Mil. avv. II–I asr boshlarida Salavkiylarga, mil. avv. 63-yildan Rimga tobe bo'lgan. 638-yilda arablar egallagan, 1104–1187 va 1191–1291-yillarda salibchilar qo'l ostida bo'lgan. 1516–1918-yillarda Usmonli turk saltanati tarkibida. 1799-yilda Akka (u paytda Sen-Jand' Akr deb atalgan) Napoleon Bonapart armiyasining 3 oylik qamaliga bardosh berib, dushmani chekinishga majbur qilgan.

**AKKAD (*Agade*)** – Mesopotamiyadagi qadimgi shahar, hozirda Bog'dodning janubi g'arbida. Aniq joylashgan yeri ma'lum emas. Mil. avv. 24–22-asrlarda – Mesopotamiya va Elamdan tarkib topgan davlat markazi. Akkad nomi keyinchalik Janubiy Mesopotamiyaning butun shimoliy hududini anglatgan. Taxminan mil. avv. 2200-yilda yarim ko'chmanchi *gutiy* qabilalar tomonidan yakson qilingan. Mil. avv. 4-mingyillikda Mesopotamiyaning shimoliy qismiga borib o'rnamashgan xalq. Mil. avv. 3-mingyillik oxirida shumerlarga akkadlar singishib ketib, butun Mesopotamiyani egallab oladi.

**AXETATON** – Yangi podsholik davridagi fir'avn Amenxotep IV bunyod etgan va Misr poytaxtiga aylantirilgan shahar. Bu shahar "*Exnaton*" deb atalgan. Uning ma'nosi quyosh shu'lasidir demakdir.

**ASHSHUR (*Assur*)** – Mesopotamiyadagi qadimgi shahar (mil. avv. 4-mingyillik – mil. avv. 614-y.), mil. avv. 2-mingyillik o'rtalaridan Ossuriyaning poytaxti (hozirgi Iroqdagi Qal'at – Sharqot xarobalari). Mudofaa inshootlari, ibodatxonalar, turar joy va savdo rastalari, mixxat yozuvi bilan bitilgan matnlar kutubxonasi topilgan.

**BAQTRA** – Qadimgi shahar; *Baqtriyani*ning markazi, hozirgi *Vazirobod* (Balx) shahri yaqinida joylashgan. Mil. avv. 1-mingyillik o'rtalaridan ma'lum. Rivoyatga ko'ra, zardushtiylik tarqalgan joy, keyinchalik Markaziy Osiyoda buddizmning yirik markazlaridan biri bo'lgan. Rim tarixchisi *Kvint Kursiy Ruf* Baqtra shahri haqida shunday ma'lumot beradi: "*Baqtriya markazi Baqtra Paropamis (Hindikush tog'i) etagida joylashgan. Uning devorlari yonidan Baqtra*

*daryosi oqib o'tadi. Shaharga shu daryoning nomi berilgan*".

**BAQTRIYA (*Baqtriyona, Baxtar zamin, Baktriya*)** – Amudaryoning yuqori va o'rta oqimidagi tarixiy viloyat. Asosan hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubiy viloyatlari hamda Afg'onistonning shimoliy qismini o'z ichiga olgan. Shimolda Sug'd, janubda va janubi sharqda Araxosiya, Gandxara, g'arbda Marg'iyona bilan chegaralangan. Markaziy shahri *Baqtra (Zariasp)* bo'lgan. Rim tarixchisi *Kvint Kursiy Ruf* (mil. I a.) Baqtriya haqida shunday ma'lumot beradi: "*Baqtriya tabiati boy va xilma-xil. Ba'zi joylari daraxtzor, tok navdalarida shirin-shakar mevalari bor. Serhosil yerlar ko'p sonli buloq suvlari bilan sug'orilgan. Yeri yumshoq joylarga g'alla ekiladi, qolgan yerlar yaylov uchun ajratiladi. Serhosil yerlarni odamlar makon qilishgan. Bu viloyotning poytaxti Baqtra Paropamis (Hindikush) etagida joylashgan. Uning devorlari yonidan Baqtra daryosi oqib o'tadi. Shahar va viloyatga shu daryoning nomi berilgan*". *Klavdiy Ptolemey* (mil. II a.) Baqtriya aholisi va shaharlari haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "*Baqtriya Marg'iyona, shimol va sharqda esa Sug'diyona, Oks (Amudaryo)ning qolgan qismi yaqinida, janubda Oriyaning bir qismi bilan chegaradosh. Baqtriya bo'ylab daryolar oqadi, ular Oksga qo'shiladi: Ox, Dargomon, Zariasp, Artamis, Dargit daryolari. Baqtriyani Oks daryosi shimolidagi qismi sagater, zariasp, ulardan janubroqda xo'mar, ulardan keyin kom, aqinaq, keyin tambiz, ariasp, ulkan to'xor qabilalari, ulardan quyida marika, skord, varn, keyin sabodiy, sabodiyulardan quyiroqda orisp va amorisplar yashaydi. Oks bo'ylab Oks, Xaraxarta, Zariasp, Xosana, Suragan, Fratur shaharlar, boshqa daryolar bo'yida Golikodr, Xomar, Kriand, Kavaris, Astakon, Evkratidiya, Podsho Baqtrasi, Sstobara, Maraqanda, Marakodr shaharlari joylashgan*". Baqtriyani Ossuriya bilan aloqalari haqida qadimgi yunon tarixchisi *Knidlik Ktesiy* (mil. avv. V–IV a.) yozib qoldirgan. *Ktesiy* Ossuriya podshosi *Ninning* Baqtriyaga yurishi haqida hikoya qiladi. Mamlakat aholisining ko'pligi, yirik shaharlari, mustahkam poytaxti Baqtra, Baqtriya podshosi *Oksiartning* xazinasi haqida quyidagicha xabar beradi: "*Baqtriya botirlarining ko'pchiligi jasaratini, ularning viloyati ko'plab mustahkam qo'rg'onlarga egaligini yaxshi bilgan Nin o'ziga qarashli elatlardan ko'p sonli jangchilar to'pladi. Yirik kuchlar bilan Baqtriyaga qo'shin tortib, u yerlarga o'tish mushkulligi, daralarning nihoyatda torligidan Nin qo'shinlarini bir necha qismga bo'lgan. Baqtra deb atalib, bosh shaharlaridan qal'asining va devorlarining mustahkamligi bilan ajralib turardi. Podsho Oksiart qurol*

*ko'tarishga qodir barchani safarbar qildi. O'z qo'shinlari tepasida turib, dushmanga ro'baro' bo'ldi va Nin qo'shinlaridan birining daradan o'tishiga imkon yaratdi. Tekislikka yetarli miqdordagi dushman qo'shini o'tib bo'lgach, u o'z qo'shinlaridan jangovar saf tuzdi. Dahshatli jang boshlanganda baqtriyaliklar ossuriyaliklarni chekinishga majbur qildilar. Ularni ta'qib etib, tog' etagigacha quvib bordilar va yuz ming nafar dushman qo'shini qirib tashladi".* Baqtriya mil. avv. VI–IV asrlarda Ahamoniylar, Aleksandr (Iskandar), Salavkiylar saltanatlari, so'ngra mil. avv. III asr o'rtasidan Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgan; mil. avv. II asrda toxarlar tomonidan bosib olingach, *Toxariston* deb atala boshlangan.

**BIBL** (akkadcha *Gubl*, qadimgi yahudiycha *Gebal; Livan*) – Finikiyadagi qadimgi shahar. Mil. avv. 4–2-mingyilliklarda savdo markazi, *Adonis* ma'budaga sig'inish joyi. Finikiya va Rim davriga oid xarobalar saqlanib qolgan.

**BOBIL** (shumercha *Kadingirra*, akkadcha *Babilu*, aynan "*Xudolar darvozasi*") – Mesopotamiyaning shimoliy qismida, Frot daryosi bo'yida joylashgan shahar; hozirda Xilla shahri (Iroq). Bobil dastlab Akkad shohi Sargon (mil. avv. 2316–2261) haqidagi afsonada va Ur davlatining III sulolasiga oid hujjatlarda tilga olingan. Bobil Birinchi Bobil sulolasi (mil. avv. 1894–1595) davrida katta rol o'ynay boshlagan, *Xammurapi* davri (mil. avv. 1792–1750)ga kelib esa nafaqat Mesopotamiyaning, balki butun Old Osiyoning yirik siyosiy, madaniy va xo'jalik markaziga aylangan. Mil. avv. 1595-yilda Bobilni xetlar, so'ngra mil. avv. 1518-yilda kassitlar bosib olgan. XIII–XII asrlarda shahar Ossuriya podsholari *Tukultininurti I* va *Tiglatpalasar I* tomonidan ikki marotaba vayron etilgan. Mil. avv. 1-mingyillikning boshlarida Ossuriya va oromiy qabilalaridan xaldeylar o'rtasida Bobil uchun kurash bo'lgan. Mil. avv. 732-yildan Bobil Ossuriya davlati tarkibida bo'lgan. Mil. avv. 689-yilda shahar isyon ko'targanligi sababli Ossuriya podshosi *Sinaxerib* tomonidan butkul vayron qilingan. Mil. avv. 680-yilda *Sinaxerib*ning vorisi *Asarxaddon* tomonidan qayta tiklangan. Mil. avv. 626-yilda Bobildagi hokimiyatni xaldey *Nabopalasar* (626–604) egallab olgan. *Navuxodonosor II* (604–562) davrida shahar gullab yashnagan. 538-yili Bobilda *Valtazar* hukmronlik qilayotgan davrda forslar shohi Kir II mamlakatni bosib olgan. Mil. avv. 331-yilda Bobilni Iskandar Zulqarnayn zabt etgan. Mil. avv. 312-yilda Bobil Salavka qo'liga o'tgan. Shu paytdan e'tiboran Bobil yetakchilik mavqeyini yo'qota borgan va mil. avv. II asrga kelib tarix sahnasidan uzil-kesil tushib ketgan.

**BOBIL PODSHOLIGI (VAVILON)** – Mesopotamiyaning janubiy qismi (hozirgi Iroq

hududi)da mil. avv. 2-mingyillikning boshidan mil. avv. 538-yilgacha mavjud bo'lgan qadimgi davlat. Markaziy shahri Bobil nomidan olingan. Mil. avv. 3-mingyillikda Mesopotamiyada shahar-davlatlar (Uruk, Kish, Ur, Lagash) paydo bo'lgan edi. Bobil shahri vujudga kelmasdan oldin Dajla va Frot daryolari orasida – Shumer va Akkad davlatlari mavjud bo'lgan. Mil. avv. XXI asr oxirida ko'chmanchi semit (somiylar) qabilalaridan biri amoriylar Akkadning katta bir qismini bosib olgach, qudratli davlat barpo etib, Bobil shahrini markaz qilganlar. Shu davrda elamliliklar ham Shumerda o'rnatilgan. Mesopotamiyada hukmron bo'lish uchun amoriylar bilan elam qabilalari o'rtasida kurashda amoriylar g'olib chiqqan. Qadimgi Bobil podsholigida *amoriylar sulolasi* (mil. avv. 1894–1518) mustahkamlanib olgan. Bu sulola podsholaridan *Xammurapi* (mil. avv. 1792–1750) Shumerni ham o'z davlatiga qo'shib olgan. Mustabid davlatni mustahkamlash maqsadida Xammurapi buyrug'i bilan yuqori tabaqalarning manfaatini qo'riqlashga qaratilgan qonunlar majmuasi tuzilgan. 247 moddadan iborat qonunlar to'plami bazalt ustuniga arxaik mixxat bilan yozilgan. Bobil davlatining eng ravnaq topgan davri – Xammurapi hukmronligi davridir. Xammurapidan keyin Bobil davlati tushkunlikka yuz tuta boshlagan. Mil. avv. 1518-yilda kassitlar Mesopotamiyaga bostirib kirib, Bobilda o'z hukmronligini o'rnatgan. *Kassitlar sulolasi* davrida (mil. avv. 1518–1204) chorvachilik rivojlangan, qo'shni Misr davlati bilan savdo va diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Bu davrda ossuriyaliklar va elamliliklar bir necha marta Bobilga hujum qilganlar. Shundan keyin Bobil siyosiy jihatdangina emas, balki madaniy jihatdan ham tushkunlikka uchray boshlagan. Mil. avv. VII asrda Bobil ossuriyaliklar tomonidan ikki marta (689- va 648-yillar) vayron etilgan. Mil. avv. 626-yilda Ossuriyaning Bobildagi noibi, xaldeylar qavmidan bo'lgan *Nabopalasar* Ossuriyadan ajrab chiqib o'zini Bobil podshosi deb atagan. Shu vaqtdan *Yangi Bobil podsholigi* yoki *Xaldey davri* (mil. avv. 626–538) boshlanadi. Nabopalasar Midiya podshosi Kiaksarga Ossuriya bilan urushida yordam berib Ossuriya davlati hududini u bilan bo'lishib olgan. Nabopalasarning o'g'li Navuxodonosor II (Sharq adabiyotida "*Buxtunnasr*") (mil. avv. 604–562) misrliklarni Old Osiyodan batamom siqib chiqargan. Mil. avv. 586-yilda Quddusni vayron qilgan, Yahudiya Bobil viloyatiga aylangan, 574-yilda Tirni egallagan. Yangi Bobil podsholigi davrida Bobil shahri ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan, savdo, hunarmandchilik, binokorlik rivojlangan eng yirik shaharlardan biriga aylangan. *Navuxodonosor* qurgan dabdabali binolarning xarobalari hozirgacha saqlanib



kelgan. "Bobil" deb yuritiladigan tepalik qazilganida, katta bir saroy xarobasi, "qasr" tepachasi qazilganda Navuxodonosor zamonidan qolgan ajoyib binolar topildi. Ularning devorlari gullar solingan sirli koshinlar bilan bezatilgan. Diniy marosimlarda yuritiladigan muqaddas yo'l ham shu saroy yonidan o'tgan. Navuxodosor davrida Bobil podsholigi o'z taraqqiyotining ikkinchi yuksalish davriga chiqqan. 55-yildagi davlat o'zgarishidan so'ng Bobil taxtiga o'tqazilgan *Nabonid* (mil. avv. 555–538) mamlakatning bir butunligini saqlash uchun harakat qildi, lekin ahamoniylar podshosi Kir II mil. avv. 538-yilda Bobilni o'z davlatiga qo'shib oldi. Bobil podsholigi shu tariqa quladi.

**BOSPOR PODSHOLIGI** — Qora dengizning shimoliy sohilidagi quldorlik davlati (mil. avv. V asr — mil. IV asr). Mil. avv. 480-yillarda Kerch, Taman yarimorollaridagi yunon shaharlarining birlashuvi natijasida vujudga kelgan. Poytaxti — *Pantikapey* (hozirgi *Kerch*), bundan tashqari Fanagoriya, Germonassa (hozirgi Taman), Feodosiya, Nimfey kabi yirik shaharlari bo'lgan. Bospor podsholigini dastlab yunon sulolalaridan bo'lgan *arxeanaktidlar* (mil. avv. 480–438), keyin — yunon-mahalliy *spartokiylar* (mil. avv. 438–109) sulolasi boshqargan. Bu davlatning iqtisodiy va madaniy jihatdan eng yuksalgan davri mil. avv. IV–III asrlarga to'g'ri keladi. Yunoniston va Kichik Osiyoga g'alla, qoramol, baliq, teri, qullar savdoga chiqarilgan, bu mamlakatlardan esa vino, zaytun moyi, sopol va metall buyumlar, gazmol olingan. Bospor podsholigi xo'jaligida dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Milodiy IV asr oxirida Bospor podsholigi *xunlar* tomonidan tugatilgan.

**DUR-SHARRUKIN** — Ossuriya podshosi *Sargon II* tomonidan qurilgan shahar. Mil. avv. VII asr oxirida midiyaliklar tomonidan vayron qilingan. Hozirgi Dur-Sharrukin o'rnida Xorsabod shahri (Iroq) joylashgan. Dur-Sharrukindan qadimgi istehkomlar, saroylar, ibodatxonalar, haykaltaroshlik namunalari va boshqa shu kabi tarixiy buyumlar topilgan.

**EKBATAN** — Ahamoniylar davlatidagi muhim savdo markazlaridan biri bo'lgan shahar.

**ELAM** — Mesopotamiyadagi Frot va Dajla daryolarining quyi o'zani sharqida, Eron yassi tog'ligining janubi g'arbiy qismida (Erondagi hozirgi Huziston va Luriston viloyatlari) joylashgan qadimgi davlat (mil. avv. 3-mingyillik — mil. avv. VI asr o'rtasi). Shumer manbalari Elamni *NIMKI* — "*baland*" ideogrammasi bilan, Akkad yozuvlarida — "*Elamtu (m)*" shaklida qayd etilgan. Bu atamalar mil. avv. 3-mingyillikning 1-yarmidan ma'lum. "*Elam*" atamasi

genetik jihatdan qadimgi yahudiycha Elam nomi bilan bog'liq. Elam manbalari o'z mamlakatlarini — "*Xatamti*", qadimgi forslar — "*Uvadja*", arablar esa — "*Hoz*" (hozirgi Huziston shundan) deb atashgan. Bu yerda aholi mil. avv. 4-mingyillikning oxiri va 3-mingyillikning boshlarida yashay boshlagan. Mil. avv. 3-mingyillik boshlarida *Elam davlati* tashkil topgan. Elam ilk quldorlik davlati bo'lgan. Elamning eng yirik viloyatlari — *Baraxshi*, *Simashki*, *Anshan (Anzan)*; shaharlari — *Avan* (ilk Elam hukmdorlari sulolasi shu yerdan chiqqan). *Adamdun*, *Suza* — Elam poytaxti. Shumer hujjatlarining guvohlik berishicha, mil. avv. 3-mingyillikda Elam bilan Mesopotamiya shaharlari o'rtasida savdo aloqalari mavjud bo'lgan. Elamdan yog'och, kumush, mis va boshqalar, Elamga arpa, moy keltirilgan. Mil. avv. XXI asrgacha u Shumer va Akkad davlatlariga qaram bo'lib qolgan. Mil. avv. 2230-yilda Elam hukmdori *Xita* Akkad podshosi *Naram-Suen* bilan shartnoma tuzgan. Xita "*Naram-Suenning dushmani mening dushmanim, Naram-Suenning do'sti esa mening do'stim*" deb e'lon qilgan. Mil. avv. XXII asr boshlarida *Kutik-Inshushinak* Elamni birlashtirib, uni yagona davlatga aylantirgan. Shu vaqtda Elamning shimolida *guteylar* bostirib kirib, uni o'zlariga tobe qilib olganlar. Ur III sulolasi davrida Elam Mesopotamiya hukmdorlariga tobe etilgan. Mil. avv. XXI asr oxirida Elam kuchayib, mustaqillikka erishib, Urni o'ziga qaratadi va Janubiy Shumeri bosib oladi. Bobil podshosi *Xammurapi* esa elamliklarni Shumerdan haydab chiqaradi. Mil. avv. 1730–1700-yillarda elam qo'shinlari Mesopotamiyaga bostirib kirib, Akkadgacha bo'lgan yerlarni bosib olganlar. Mil. avv. XIV asr o'rtalarigacha Elam o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Keyinchalik Elam bobilliklarga tobe bo'lib qolgan. Mil. avv. 1180-yilda Elam shohi *Shutruk-Naxunta I* Bobil qo'shinlarini mamlakatdan quvib chiqargan. U Bobilga bostirib kirib bir qancha shaharlarni bosib olgan. U katta o'ljalar qatori Xammurapi qonunlari yozilgan toshni ham Suzaga olib kelgan. Mil. avv. 1155–1115-yillar Elam podsholigining gullagan davri hisoblanadi. Mil. avv. 1115-yili elamliklar bobilliklardan yengilib, mil. avv. VIII asrgacha o'z mustaqilligini yo'qotadilar. Mil. avv. VIII asrda Elam mustaqilligini tiklaydi va Bobil bilan ittifoq tuzib ossurlarga qarshi kurash boshlaydi. Mil. avv. 720-yili elam qo'shinlari *Der* yaqinidagi dahshatli jangda ossurlarni tor-mor etadilar. Elamliklar bobilliklar bilan ham ittifoq tuzib ossurlarga qarshi uzoq kurashadilar. Mil. avv. 639-yili Elam *ossurlar*, 596-yili *bobilliklar* va 549-yili *eroniylar* tomonidan bosib olinadi. Shu bilan mustaqil Elam davlati barham topadi.

**FINIKIYA** – Oʻrta dengizning sharqiy sohilidagi qadimgi viloyat. Rivoyatlarga koʻra, Finikiyaning aholisi Eritreya dengizi sohillaridan kelgan; ayrim finikiyalik tarixchilarning fikricha, finikiyaliklar Finikiyaning tub aholisidir. Mil. avv. 5–4 mingyillikda Finikiya oʻzining qulay geografik joylashuviga koʻra, Mesopotamiya va Nil vodiysi aholisi bilan faol savdo-sotiq olib borgan. Mil. avv. 2-mingyillik boshlarida quldorlik shahar-davlatlari: Ugarit (Ras-Shamra), Sidon (Sayda), Beruta (Bayrut), Arvad (Arad), Tir (Sur) va shu kabi boshqa davlatlar vujudga kelib, ular mil. avv. XII asrgacha Misr firʼavnlari qoʻl ostida boʻlgan. Mil. avv. XIII asr oxiri – XII asrning boshida Finikiya nihoyat Misr mustamlakasidan xalos boʻlgan. Mil. avv. 1-mingyillikda Finikiya Oʻrta dengiz sohil boʻyining Markaziy va Gʻarbiy qismini egallab, bu yerlarga koʻplab finikiyalik savdogarlar va qaroqchilar kelishi avj olgan. Tasos orolida temir rudasi konlari ochilgan, Melkart xudosi ibodatxonasi va kichik qishloq bunyod etilgan. Atlantika okeaniga tutashgan Shimoliy Afrika sohillarida, Liks, Ispaniyaning janubiy qismida, Gades, Malaka, Seksi, Abdera, Sitsiliya, Motiya, Panorm va Sardiyada Nora shaharlari qad koʻtargan. Finikiyada hunarmandchilik, savdo-sotiq, kemasozlik juda taraqqiy qilgan; dengiz yoʻllaridan keng foydalanilgan. Shaharlar oʻrtasida hukmronlik uchun kurashlar natijasida kuchsizlangan Finikiya mil. avv. VIII–VII asrlarda Ossuriyaga, mil. avv. VI asrda Bobilga, mil. avv. 539-yildan 332-yilgacha ahamoniylar davlatiga boʻysungan. Finikiya mil. avv. 332-yildan makedoniyalik Aleksandr davlati, mil. avv. III asr oʻrtalaridan Salavkiylar davlati qoʻl ostida boʻlgan. Shu vaqtdan boshlab Finikiyada ellinlashtirish jarayoni kuchaygan. Oʻrta dengiz boʻyidagi Delos, Afina va boshqa shaharlarda finikiyalik savdogarlarning faktoriyalari va uyushmalari paydo boʻlgan. Mil. avv. II–I asrlarda Kiprda Yunon-Finikiya podsholigi vujudga kelgan. Mil. avv. 63-yildan boshlab Finikiya Rimning Suriya provinsiyasi tarkibiga kirgan. Astasekin finikiyaliklar Suriyaning boshqa aholisi tarkibiga singib ketgan.

**FIVA** (yunoncha *Thebai*, misrcha *Uaset*) – Qadimgi Misrning eng yirik shaharlaridan va madaniy markazlaridan biri. Fiva mil. avv. 3-mingyillik oʻrtalaridan malʼum. Misrning barcha hududlarini birlashtirgan 11-sulola firʼavnlari davrida (mil. avv. 22 asr oʻrtasi – 20 asr) Fiva poytaxt boʻlgan va Oʻrta va Yangi podsholiklar davrida garchi firʼavnlardan boshqa shaharlarni oʻzlariga qarorgoh tutgan boʻlsalar-da poytaxtligicha qolgan. Mil. avv. taxm. 730-yilda *Kush* podshohi *Pianxa* Fivani bosib olgan. Ossuriya podshohi *Ashshurbanipal* mil. avv. 663-yilda Fivani vayron qilgan va mamlakatning siyosiy va iqtisodiy markazi

Shimolga koʻchirilgan; Fiva oʻz rolini yoʻqotgan va mil. avv. 88-yilgacha, yaʼni *Ptolemey IX Soter* tomonidan vayron qilinmaguncha diniy markaz sifatida rol oʻynagan. Fivada arxeologik qazish ishlari 19 asrning 1-yarmidan turli mamlakatlar olimlari tomonidan olib boriladi. Fiva hududida yirik ibodatxonalar majmui, nekropollar, firʼavnlardan maqbaralari, firʼavning 2 ta ulkan haykali va boshqalar saqlanib qolgan.

**FRIGIYA PODSHOLIGI** – Kichik Osiyo gʻarbidagi quldorlik davlatlaridan biri. U Kichik Osiyo gʻarbiy qismining oʻrtasida joylashgan togʻli mamlakat. Frigiyadan koʻp irmoqli Sangariy daryosi oqib oʻtadi. Frigiyada xetlarga mansub qabilalar ham yashaganlar. Mil. avv. 2-mingyillik oʻrtalarida Makedoniya va Frigiyadan juda koʻp qabilalar koʻchib kelib, ular oʻzlarini *frigeylar* deb atashgan. Mil. avv. 2-mingyillikning ikkinchi yarmida frigeylar Frigiya podsholigiga asos soldilar. Ular Yunon-Troya urushi davrida troyaliklar bilan yelkama-yelka turib yunonlarga qarshi kurashganlar. Troyaliklar yunonlardan yengilgach, Frigiya Troyani oʻz taʼsiriga olgan. Mil. avv. XII asr oxirida Frigiya qoʻshinlarining sharqqa uyushtirgan hujumlari ossurlar tomonidan toʻxtatilgan. Mil. avv. X–VIII asrlarda Frigiya podsholigi kuchayadi. Sangariy daryosining oʻng sohilida joylashgan Gordion shahri podsholik poytaxti edi. Frigiyaliklar oddiy dehqondan chiqqan podsholari Gordiya bilan gʻururlanganlar. Gordiyaning oʻgʻli shoh Midas davrida Frigiya podsholigi oʻz kuch-qudratini saqlab turgan. U ilm-fan va madaniyat homiysi boʻlgan shohlardan edi. Medas podsholik yerlarini kengaytirish uchun Sharq tomon yurish qilgan. Midas qoʻshinlari Ossuriya shohi Sargon II qoʻshinlari bilan togʻlik joyda boʻlib oʻtgan jangda yengilgan. Ossurlar 3000 qalʼa, 10 shahar, 2400 asir va behisob boyliklarni qoʻlga kiritganlar. Midas Ossuriya hukmronligini tan olib, Ossur shohiga oʻlpon toʻlashga majbur boʻlgan. Mil. avv. XIII asr oxirlarida atrofdan boʻlgan qoʻshni qabilalarning toʻxtovsiz hujumlari natijasida Frigiya qoʻshinlari magʻlubiyatga uchrach, shoh Medas oʻz joniga qasd qilgan. Mil. avv. VII asr boshlarida Frigiya podsholigi kuchsizlanib, dastlab Lidiya taʼsiriga, keyinchalik eroniylar, yunon-makedonlar, rimliklar va vizantiyaliklar taʼsiriga tushib qolgan.

**GALA PODSHOLIKLAR** – Qadimgi Xitoydagi mil. avv. VII–V asrlardagi davlatlar.

**GALATIYA** – qadimda Kichik Osiyo yarim-orolining markaziy qismida joylashgan mamlakat. Galatlar qabilasi nomidan olingan. Mil. avv. 25-yildan Rim imperiyasi, soʻngra Vizantiya tarkibida. Mil. avv. XI asrda saljuqiylar, XIV asrda esa usmonli turklar tomonidan egallab olingan.

**GALILEYA** (yunoncha **Galilaia**, qadimgi yahudiycha **Galil** – *viloyat*) – Shimoliy Falastindagi tarixiy viloyat. Dastlabki aholisi xurritlar va xanaylar bo'lgan. Mil. avv. XIII–XII asrlarda isroilliklar bosib olib, o'rnashib olganlar. Asosiy markazlari – *Sepforis, Gixxala, Tiveriada*. Xristian an'alariga ko'ra, Galileya *Iso* payg'ambarning diniy targ'iboti yuritilgan asosiy joy bo'lgan. Mil. avv. II asr oxirida *Iudeya* (Yahudiya)ga qo'shib olingan. Mil. avv. I asr va milodiy I asrda Galileyada Rim bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yahudiy quldorlik aristokratiyasi va Rim tomonidan tayinlangan podsholar – *Irod, Agrippa II* va boshqalarga qarshi xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan.

**GELIOPOL** – Qadimgi Misrda quyosh xudosi Raning ibodatxonasi joylashgan shahar.

**GIZA SHAHRI** – Misr (Qohira yaqini)dagi me'moriy yodgorliklar saqlangan shahar. Qadimgi Misrning Memfis shahri hududida Misr fir'avnlari *Xeops (Xufu), Xefren (Xafra)* va *Menkaura (Mikerin)*larga atab barpo etilgan eng mashhur piramidalar bunyod etilgan shahar (mil. avv. III asr). Eng ulkan inshoot *Xeops ehromi* (balandligi 146,6 m, tomonlar asosi 233 m, me'mori Xemiun) ohaktosh bo'laklari (og'irligi 2,5 t dan 30 t gacha, hammasi taxm. 2300 ming dona) bilan qoplangan: *Xefren ehromi* (ohaktosh, balandligi 143, 5 m, tomonlar asosi 215, 25 m) yaqinidagi ibodatxonaning hashamatli zali qirrali ustunlar bilan bezatilgan. “*Katta Sfinks*” (uzunligi 57 m, balandligi 20 m, mil. avv. III asr) qoyalarda joylashgan. *Menkaura ehromi* (balandligi 62 m, tomonlari asosi 108,4 m) “Dunyoning yetti mo'jizasi” tarkibiga kirgan. Har bir ehromga sharqdan ibodatxonalar tutashgan bo'lib, ular o'tish yo'llari orqali bir-biri bilan bog'langan. Ibodatxona-maqbaralar (aslzodalarning 2–6-sulolari dafn etilgan 7 mingdan ortiq qabrlar joylashgan), kichik ehromlar, tosh o'rindiqlar bor.

**GUPTALAR DAVLATI** – qadimgi hind imperiyasi (IV–VI asrlar). Taxminan 320-yilda *Chandragupta* asos solgan (o'sha yildan boshlab Hindistonda Guptalar erasi hisobi boshlangan). Poytaxti – *Pataliputra*. Eng gullab-yashnagan davri (*Chandragupta II* davri taxminan 380–415)da deyarli butun Shimoliy Hindiston va boshqa bir qancha hududlarni o'z ichiga olgan. *Skandagupta* davri (455–467)da bo'ysundirilgan xalqlarning qo'zg'olonlari va saltanatning shimoli g'arbiy chegaralariga *eftaliylarning* hujumlari boshlangan. V asr oxirlaridan parchalana boshlagan. VI asr boshida eftaliylar Guptalar davlatining g'arbiy qismini bosib olib, uni katta tovon to'lashga majbur etishgan. Guptalar

davlati Markaziy Hindistondagi *Mandasor davlati* bilan ittifoq tuzib eftaliylarni mag'lubiyatga uchratgan bo'lsa-da, bu urushlar natijasida nihoyatda zaiflashgan va natijada VI asr oxirida barham topgan.

**HIND DARYOSI** – Hindiston yarimorolining shimoli g'arbidan oqib o'tuvchi daryo. Bu daryo sanskrit tilida *Sindxu*, pushtu tilida esa *Abbasin* – “*daryolar otasi*” deyiladi. Bu daryoning besh irmog'i oqib o'tadigan joy *Panjob*, ya'ni “*Besh suv*” deb nomlanadi.

**ISROIL-YAHUDIY PODSHOLIGI** – yahudiy qabilalarining Falastinda tuzgan davlati. Mil. avv. XIII asrda yahudiy qabilalari Falastinga bostirib kirganlar va Falastinga o'rnashib *Saul* ismli kishini podsho qilib saylaganlar. U Isroil davlatini tuzib, filistimlar bilan kurash olib borgan. Jangda Saulning 3 o'g'li halok bo'lgan. Bu fojiani eshitgan Saul o'zini qilich tig'iga tashlab o'lgan. Saul vafotidan so'ng uning kuyovi *Dovud* (1000–965) Falastinni birlashtirib, Yahudiya podsholigini tuzgan. Dovud Saulning o'g'li *Ishvaa'lamni* yengib *Isroil-Yahudiy podsholigini* tuzgan. Dovud davrida Isroil-Yahudiy podsholigi kuchayib, ravnaq topgan. Dovud vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li *Sulaymon* o'tiradi. Sulaymon davrida Isroil-Yahudiy podsholigi kuchayib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq va chorvachilik rivoj topdi. Sulaymon Tir shahridan temirchilarni, Bibl shahridan duradgorlarni chaqirib, mamlakatda qurilish ishlarini avj oldiradi. Tirdan qurilish buyumlari, Kilikiyadan ajoyib zotli otlarni keltirib, mamlakatda sotdirgan. U Janubdagi Ofir mamlakatidan yog'och, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, fil suyagi, maymun va toxuslar olib keltirtiradi. Sulaymon qurilish, davlat xarajatlari va qo'shin uchun yangi soliq joriy qiladi. Bu esa xalq ommasi orasida noroziliklarni keltirib chiqaradi. Isroilliklar *Ierovoam* boshchiligida qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostiriladi. *Ierovoam* Misr fir'avni *Sheshonk* huzuriga qochib ketadi. Mil. avv. 935-yilda Sulaymon vafot etadi, taxtga uning o'g'li *Rovoam* o'tiradi. *Ierovoam* Misrdan katta qo'shin bilan qaytib kelib, *Rovoam* qo'shinlarini yengadi va *Isroil podsholigini* tiklaydi. Mil. avv. 930-yili Misr fir'avni *Sheshonk* qo'shinlari Falastinga bostirib kirib, shahar va qishloqlarni talab, ularni vayron qiladi. Sharqdan esa mamlakatga *Ossuriya* qo'shinlari bostirib kiradi. *Ossuriya* podshosi *Salamansar* va *Sargon II* davrlarida Isroil podsholigi ossur qo'shinlari tomonidan tor-mor etiladi. *Sargon II* mil. avv. 722-yili Samariya shahrini bosib olib, Isroil podshosi *Osiyani*, 27290 isroilliklarni asir qilib olib ketadi va ularni Midiya va Mesopotamiyaga joylashtiradi. Isroilga esa aramey fuqarolarini

joylashtiradi. Shu tariqa Isroil podsholigi barham topadi. Ammo keyinchalik Yahudiy podsholigi o'z mustaqilligini biroz tiklab oladi. Biroq Yahudiy podsholigining mustaqilligi uzoqqa cho'zilmaydi. Mil. avv. VII asr oxirida Falastin misrliklar tomonidan bosib olinadi. Mil. avv. 597–586-yillarda Falastin Bobil podshosi *Navuxodonosor II* qo'shinlari tomonidan istilo qilinadi. Quddus shahri vayron etilib, aholining ko'p qismi Ikki daryo oralig'iga haydab ketiladi.

**KICHIK OSIYO** — Osiyoning g'arbiy qismida joylashgan yarimorol. U 3 tomondan O'rtayer, Egay, Marmar va Pont (Qora) dengizlari bilan o'ralgan. Kichik Osiyoning markaziy qismida Anato'liya yassitog'ligi bo'lib, atrofini Pont, Tavr va Antitavr tog'lari o'rab turadi. Bu o'lka odamlarning hayot kechirishlari uchun yaxshigina qulayliklarga ega bo'lgan. Shuning uchun bu yerda juda qadim zamonlardan boshlab kishilar yashab kelganlar. Keyinchalik yarimorolda *xetlar, xurritlar, ossurlar va kashk* kabi qabilalar yashaganlar. Lekin aholining asosiy qismini xetlar tashkil etgan. Mil. avv. 2-mingyillikning ikkinchi yarmidan boshlab yarimorolda *axeylar, dengiz xalqlari, frigiylar va kimmeriylar, eroniylar, yunonlar* hamda *rimliklar* kelib joylashganlar. Qadim zamonlardayoq Kichik Osiyoda *Troya, Lidiya, Frigiya* va *Xett* kabi davlatlar tashkil topgan. Bular orasida Xett podsholigi qudratli davlat darajasiga ko'tarilgan.

**KO'K NIL** — Efiopiyaning qattiq yomg'ir yog'adigan va cho'qqilarida qor eriydigan tizma tog'laridan boshlanadi. Yog'ingarchilik mavsumi boshlanganda Ko'k Nildagi suv miqdori keskin pasayib ketadi, bu hol Nilning toshishiga olib keladi.

**KO'KTEPA** — qadimgi shahar xarobasi (mil. avv. IX–IV asrlar). Samarqand viloyatining Payariq tumaniga qarashli hududida, Batrak va Shamat qishloqlari oralig'ida, Bulung'ursoyning qadimgi o'zani sohilida joylashgan. Mahalliy aholi orasida u *Sayiltepa* deb ataladi. Ko'ktepa ilk temir davri shahar xarobasi, kvadrat shaklida, maydoni 23 ga atrofida, uning relyefida chor atrofi bo'ylab qad ko'targan mudofaa devori va 4 joyda shahar darvozalarining o'rinlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Yodgorlik relyefida shahar mudofaa devorining tashqarisidan 2-mudofaa inshooti o'tgan ko'rinadi. Uning xom g'ishtdan qurilgan izlari 1 km chamasi uzunlikda yodgorlikning shimoli g'arbiy tomonida kuzatiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, u yaqin 100 ga maydonni o'rab olgan. Ammo 2-mudofaa inshooti oralig'i keyingi yillarda xo'jalik maqsadlarida to'liq o'zlashtirilib, uning qad. inshootlari mutlaqo buzib tashlangan. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, qadimgi shahar hayoti 3 davrga bo'linadi (Ko'ktepa 1,2,3). Ko'ktepadan 25–35 yoshdagi ayol qabri

ochildi. Ayol ko'ylagining chetlari silindr shakldagi 345 ta oltin taqinchoqlar, bosh kiyimi esa 57 ta shisha munchoq bilan bezatilgan. Belbog'iga feruza qadamalar o'rnatilgan oltin to'qachalar taqilgan. Mayyitni oyoq tomonidan qaychi, urchuq va Xitoyning Xan sulolasi davriga oid kumush qo'shilgan dumaloq jez ko'zgu topildi. Mana shu ko'zgu va boshqa belgilarga ko'ra, qabr mil. avv. I milodiy I asrga oid deb belgilandi. *M. Isomiddinovning* fikricha, bu yerda malika yoki aslzoda ayol dafn etilgan. 2001-yilda Ko'ktepa minorasi o'rnida qazishma ishlari davom ettirildi, u yerda sopol idishlar, tegirmon tosh bo'laklari, tosh o'roq, qozon, bandli marmar tarozi toshi, marmardan ishlangan buyumlar, 4 oyoqchali kichik chirog'don, to'qimachilik dastgohi uchun mo'ljallangan suyak taroq, tosh pichoq, og'ir bolta, hayvon suyaklari topildi (mil. avv. VIII–VII asrlar).

**KO'ZALIQIR** — Qadimgi Xorazmda bo'lgan shahar-qal'a xarobasi (mil. avv. 1-mingyillikning 1-yarmi). Jayhun (Amudaryo)ning ko'hna o'zani bo'yida joylashgan. 1939-yilda *S. P. Tolstov* boshchiligidagi *Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi* topgan, 1950, 1953–1954-yillarda qazish ishlari olib borgan. Ko'zaliqir uchburchak shaklidagi maydon tevaragi bo'ylab paxsadan qurilgan usti yopiq bir necha qator yo'laklar (umumiy uzunligi 6–7 km)dan iborat turar joylar bo'lib, ularning ichkarisiga yuqoridagi tuynuklar orqali kirishgan. Birinchi qatordagi yo'lakning tashqi devori burjlar bilan mustahkamlangan, yuqori qismida qator shinaklari bo'lgan. Yo'laklarning ichi alohida-alohida turar joylarga bo'linmaganligi ularda bir urug' yoxud o'zaro qarindosh urug'lar guruhi yashaganligini ko'rsatadi. Ko'zaliqir aholisi o'sha davrlardagi muttasil bosqinlardan o'zlarini hamda jamoaning asosiy boyligi — chorvani himoya qilish uchungina ana shunday uzundan uzun, qorong'i yo'laklarda yashashga majbur bo'lgan. Ko'zaliqir ko'p jihatdan *Avestoda* ta'riflangan *varga* mos keladi. Ko'zaliqirdan skiflarga xos jez kamon o'qlari, kulolchilik dastgohida yasalgan turli sopol idish va buyumlar topilgan. Aholi Ko'zaliqir tashqarisida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan hamda biror xavf-xatar tug'ilishi bilan mollarini ichkariga — mazkur uchburchak maydonga haydab kirgan, o'zlari esa yo'laklarda turib dushmani daf qilgan.

**LAGASH** — Shumerdagi qadimgi davlat (hozirgi Iroq hududida), poytaxti — *Lagash shahri* (hozirgi *Al-Hiba*). Mil. avv. 4-mingyillik oxirida vujudga kelgan. Mil. avv. 26–24 asrlar va 22 asrda (*Gudea* davrida) gullab-yashnagan. Mil. avv. 21 asrdan boshlab mavqeyi

pasaygan. 1877-yildan arxeologik qazishlar olib boriladi.

**LIDIYA** – Kichik Osiyoning g'arbidagi qadimgi quldorlik davlati. Asosan, Germ va Meandr daryolari vodiysida joylashgan. Meandr orqali Sharqqa muhim savdo yo'llari o'tgan. Lidiyaliklar Kichik Osiyoda ko'chib kelgan turli elatlar ta'siriga uchramay, an'anaviy turmush tarzlarini saqlab qolishgan. Frigiya davlati parchalangach, lidiyaliklarning roli kuchaygan. Ular kimmeriyalarning hukmronligidan xalos bo'lib, azaldan savdo va madaniy aloqada bo'lib kelgan Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'ida joylashgan yunon shaharlarini bo'stirdilar. Sardi shahri Lidiya davlatining poytaxti, hukmron sulola esa – *Mermnadlar* bo'lgan (podshohlari *Giges*, *Aliatt*, *Krez*). Bu sulola vakillari o'z hokimiyatlarini Kichik Osiyoning sharqiga, Galis daryosigacha yoyganlar. Mil. avv. 547-yilda forslar shohi Kir II Lidiya podshosi Krezni mag'lubiyatga uchratgan va Lidiya Ahamoniylar davlatiga qaram bo'lib qolgan. Lidiya zodagonlari savdo munosabatlari juda taraqqiy etganligi va mamlakatda boy oltin konlari mavjudligi tufayli ulkan boylikka ega bo'lishgan. Tarixda lidiyaliklar birinchi bo'lib tanga zarb etishgan – deb hisoblanadi. Mil. avv. 334-yilda Lidiya Aleksandr saltanati, Salavkiylar davlati, Pergam va Rim imperiyasi tarkibiga (Osiyo viloyatlarining bir qismini tashkil etgan) kirgan. Gerodotning yozishicha, lidiyaliklarning bir qismi Etruriyaga ko'chib ketgan.

**LIVIYA** – Misr g'arbidagi cho'l va davlat.

**MAURIYALAR IMPERIYASI (mil. avv. IV–II asrlar)** – Qadimgi Hindistondagi yirik quldorlik davlati. *Mauriya* (Maur'ya) sulolasidan *Magadxa* hukmdori *Chandragupta* (mil. avv. 317–298-yillarda hukmronlik qilgan) asos solgan. Chandragupta butun Shimoli g'arbiy Hindistonni, mil. avv. 305-yilda Balujiston va Sharqiy Afg'onistonni Mauriyalar imperiyasiga qo'shib olgan. Uning o'g'li *Bindusara* (mil. avv. 293–268-yillar) davrida Mauriyalar imperiyasiga *Dekan* ham tobe bo'lgan. Bindusaraning o'g'li *Ashoka* davri (mil. avv. 268–231-yillar)da Mauriyalar imperiyasi ravnaq topgan. Imperiya shimolda - Kashmir va Himolay to'g'laridan janubda *Maysurgacha*, g'arbda – Afg'oniston, sharqda *Bengaliya qo'ltig'igacha* bo'lgan maydonni egallagan. Hindistonning qo'shni va G'arb mamlakatlari bilan savdo, madaniy va diplomatik aloqalari ancha kengaygan. *Buddizm* butun Hindiston va qo'shni mamlakatlarga tarqalgan. Turli viloyatlar o'rtasida munosabatlar yaxshilangan, san'at, adabiyot va siyosat to'g'risida asarlar yaratilgan. Ashoka vorislari davrida imperiya 2 qismga bo'linib ketgan. Mil. avv. II asr boshlarida Mauriyalar imperiyasining shimoli

g'arbiy qismi *Yunon-Baqtriya podsholigiga* qo'shib olingan. Mauriyalar imperiyasining oxirgi shohi *Brixadratha shunglar sulolasidan* bo'lgan lashkarboshi *Push'yamitra* tomonidan o'ldirilgan va hokimiyat shu sulola qo'lga o'tgan (mil. avv. 180).

**MEGIDDO SHAHRI** – Qadimgi Suriya va Falastindagi shahar bo'lib, ushbu shahar ibodatxonasida Tutmos III ning yurishi to'grisidagi bitiklar saqlanadi.

**MEMFIS (“Xekou Ptax” ya'ni “Xudo ruhining qal'asi”)** – Quyi Misr chegarasida joylashgan va podsho *Mina* tomonidan mamlakat poytaxtiga aylantirilgan qadimgi shahar. Memfis shahri Qadimgi Misrning ilk hamda Qadimgi podsholik davrlarida davlat poytaxti bo'lib, mil. avv. 28–23 asrlarda Misrning yirik diniy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va hunarmandchilik markazi bo'lgan.

**MESOPOTAMIYA** (yunoncha *Ikki daryo oralig'i* yoki *Ikkidaryolik*) – Fors qo'ltig'iga quyiluvchi Frot va Dajla daryolarining o'rta va quyi oqimidagi hudud (hozirgi Iroq). Mesopotamiyaga Mesopotamiya pasttekisligi va Jazira kiradi. Qadimgi Sharqning eng madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Mil. avv. 4–3-mingyillikda Mesopotamiya hududida ilk sinfiy davlatlar paydo bo'lgan. Mil. avv. 3-mingyillikning oxirida Mesopotamiyada *Akkad*, *Ur* va boshqa shu kabi qadimgi davlatlar mavjud edi. Mil. avv. 2-mingyillikning boshlarida Mesopotamiyaning janubida Bobil davlati paydo bo'lgan. Keyinchalik Mesopotamiya *Ossuriya davlati* (mil. av IX–VII asrlar), *Yangi Bobil podsholigi* (mil. avv. VII–VI asrlar), *Ahamoniylar davlati* (mil. avv. VI–IV asrlar), *Yunon-Makedon podsholigi* (mil. avv. IV asr), *Salavkiylar davlati* (mil. avv. IV–II asrlar), *Parfiya* (mil. avv. III milodiy III asr) tarkibiga kirgan.

**MIDIYA PODSHOLIGI** – Eronning shimoli g'arbida joylashgan qadimgi o'lkalardan biri. Bu o'lkada qadim zamonlardan boshlab midiya qabilalari yashaganlar. Mil. avv. IX asrda Midiya hududida mayda davlatchalar mavjud bo'lib, ossurlar bu yerga tez-tez hujumlar uyushtirib turganlar. Ossurlar midiyaliklarni talab, ulardan xiroj undirganlar. Mil. avv. VIII asr oxirida Midiyaga *kimmeriyalar*, VII asr boshlarida esa *skif* qabilalari bostirib kirganlar. Mil. avv. 672-yilda midiyaliklar *Kashtariti* rahbarligida ossurlarga qarshi kurash boshlab, ularni Midiyadan haydab chiqaradilar. Kashtariti Midiyadagi mayda davlatchalarni birlashtirib yagona davlat tuzishga bel bog'laydi. Mil. avv. VII asr o'rtalariga kelib Midiya Qadimgi Sharqdagi qudratli davlatga aylanadi. Mil. avv. 753-yilda Midiya shohi Kashtariti ossurlar ustiga qo'shin tortadi. Ossurlar skiflarni midiyaliklarga qarshi kurashga ko'ndiradilar. Midiya qo'shinlari ossur va

skiflarning ikki tomondan bergan zarbalariga bardosh bera olmay yengiladi. Bu jangda Kashtariti halok bo'lib, Midiya mil. avv. 653–625-yillar orasida skiflar ta'sirida qoladi. Mil. avv. 625-yili Kashtaritining o'g'li *Kiaksar* Midiya podshosi bo'lgach, skiflarni mamlakatdan quvib chiqaradi. Kiaksar podsholikdagi mayda davlatlarni birlashtirib, Midiyani kuchli saltanatga aylantiradi. Mil. avv. 614-yili Kiaksar qo'shinlari Ossuriyaga bostirib kirib uning poytaxti *Ashshurni* vayron qiladilar va talaydilar. Mil. avv. 612–605-yillarda Midiya va Bobil harbiy ittifoqdosh mamlakatlarga aylanadi. Bu davrda Kiaksar Bobil podshosi *Nabopalasar* bilan ossurlarga qarshi jang boshlaydilar. Mil. avv. 612, 609-yillarda Bobil va Midiya qo'shinlari ossur qo'shinlarini yengib Ossuriyaning *Nineviya* va *Ashshur* shaharlarini yana vayron qiladilar. Bu mag'lubiyatdan so'ng ossur qo'shinlari g'arbga chekinadilar. Mil. avv. 605-yilda misr-ossur qo'shinlari bilan Midiya–Bobil qo'shinlari o'rtasida *Karxemish* yonida bo'lgan jangda ossur-misr qo'shinlari tor-mor etilib, shu bilan Ossuriya davlati ham barham topadi. Bu janglardan so'ng shimoliy Mesopotamiyada Ossuriya yerlari Midiya ixtiyoriga o'tadi. Kiaksar Bobil bilan do'stlikni mustahkamlash uchun qizini Bobil podshosi Nabopalasarning o'g'li *Navuxodonosor II* ga nikohlab beradi. Ikki davlat o'rtasida yaqin do'stlik hukm suradi. Kiaksar janubda *Persuani*, sharqda *Parfiyani*, g'arbda esa *Kichik Osiyoning Galis daryosigacha* bo'lgan yerlarni Midiyaga qo'shib oladi. Mil. avv. 590–585-yillar orasida *Lidiya – Midiya urushi* sodir bo'ladi. Rivoyatlarga ko'ra, mil. avv. 585-yil 28-may kuni quyosh tutilishi oqibatida urush to'xtab, tinchlikka asoslangan sulh shartnomasi tuziladi. O'rtadagi gina-kuduratga chek qo'yish maqsadida Midiya shahzodasi *Astiyag* Lidiya shohi *Alitanning* qiziga uylanadi. Mil. avv. 585-yili Kiaksar vafot etib, Midiya taxtini uning o'g'li *Astiyag* egallaydi. *Astiyag* davrida Bobil bilan Midiya o'rtasidagi munosabat buzilib, qonli janglar boshlanadi. Bu urushlar har ikki tomonni zaiflashtiradi. Forslar *Kayxusrav* boshchiligida qo'zg'olon ko'tarib, mil. avv. 550-yili *Astiyag* qo'shinlarini tor-mor etadilar. Midiya davlati *Eronga* qo'shib olinadi va barham topadi.

**MITANNI DAVLATI (*Mittaniya podsholigi*)** – Mesopotamiyaning shimoli-g'arbida joylashgan (hozirgi Suriya hududida) qadimgi davlatlardan biri. *Dajla* va *Frot* daryolari Mitanni yerlaridan boshlanadi. Mil. avv. XVII asr oxiri – XVI asr boshlarida bu o'lkada Mitanni davlati tashkil topdi. Mamlakat aholisining asosiy qismini *hurritlar* tashkil etganlar. Mil. avv. XVI–XV asrlarda Mitanni davlati kuchayadi. Mitanni *Kichik Osiyo*, *Finikiya*, *Suriya* va *Falastinga* o'z ta'sirini o'tkazgan. Mil. avv. XV asrda Mitanni

*goh Misr*, *goh Xett*, *goh Bobil*, *goh Ossuriya* bilan urushlar olib boradi. XV asrda Xett davlati kuchayib, Mitanni ustiga qo'shin tortadi. Jangda Mitanni podshosi *Tushratti* qo'shinlari yengiladi. Shu vaqtda podsho saroyida fitna uyushtirilib, *Tushratti* o'ldiriladi. *Ossuriya Alshi* davlatlari ittifoqini tuzib, ittifoqchilar Mitanni qo'shinlariga zarba beradilar. Xett podshosi *Tushrattining* o'g'li *Shattivasni* taxtga o'tqizib, unga o'z qizini nikohlab beradi. Oqibatda Mitanni Xett davlatiga qaram bo'lib qoladi. Mitanni Xettlar yordamiga tayanib Ossuriyani o'ziga qaram qilib olmoqchi bo'ladi. Ammo ossur qo'shinlari yana g'olib chiqib, Mitanni podshosi oilasi bilan asir olinadi. Mitanni poytaxti *Vashshukan* ossur qo'shinlari tomonidan vayron etiladi. Keyingi janglarda ham ossurlar g'alaba qozonib, mamlakatni vayron etadilar. 15 mingdan ortiq kishi asir olinadi. Mil. avv. XIII asrda Mitanni davlati parchalanib mayda davlatchalarga bo'linib ketadi. U Ossuriya davlatining ta'siriga tushib, o'z mustaqilligini yo'qotadi.

**MOXENJODARO** (sindxi tilida – *o'liklar tepaligi*) – Hindistondagi eng qadimgi sivilizatsiya. Xarappa madaniyati (*Pokiston*)ning asosiy markazlaridan birining xarobasi (mil. avv. 3–2-mingyilliklar). Sindning markaziy shahri. 1922-yilda hind arxeologi *R. Banerji* ochgan. Keyinchalik ingliz arxeologlari *J. Marshall*, *E. Makkey* va *R. Uiller* tomonidan tekshirilgan. Qazishma ishlar natijasida unda ko'chalar bilan ajratilgan mavzelerde pishgan g'ishtdan qurilgan uylar topilgan. Moxenjodaroning mustahkam mudofaa devorlari bilan himoyalangan arki bo'lgan. Moxenjodaro aholisi mohir kulol, zargar va sangtarosh bo'lgan. Moxenjodaro yirik hunarmandchilik va savdo markazi bo'lgan, metall va toshga ishlov berish, kulolchilik taraqqiy etgan. Unda umumshahar kanalizatsiyasi va suv ta'minoti tizimi bo'lgan. Uylari pishiq g'ishtdan 2–3 qavat qilib qurilgan. Qazishlar Moxenjodaro Qadimgi Hindiston, Misr, Mesopotamiya bilan bir qatorda qadimgi madaniyat o'chog'i bo'lganligini tasdiqlaydi. Moxenjodaroni o'rganish asosida Xarappa madaniyatining asosiy bosqichlari va uning xarakterli belgilari aniqlandi.

**NIL** – dunyodagi eng uzun daryo. Janubdan shimolga uning uzunligi 6670 kilometrni tashkil etadi. U asosan Afrikaning shimoli sharqida joylashgan davlatlar – Sudan va Misr hududlari bo'ylab oqadi. Nilning har yilgi toshqini daryo qirg'oqlari bo'ylab ingichka lentasimon cho'zilgan, jazirama, quruq va giyohsiz sahro bilan qurshalgan serunum vodiy paydo bo'lishiga olib kelgan. Dastlabki odamlar bu vodiya ming yillar muqaddam ko'chib kelib joylashganlar. Nil daryosi asosan ikkita manba – *Oq Nil* va *Ko'k*

*Nildan* suv bilan ta'minlanadi. Gerodot: "*Misr – Nil tuhfasi*" degan edi.

**NINEVIYA** (*Ninua, Ninn*) – Qadimgi Ossuriyadagi shahar (hozirgi Iroqdagi Mosul shahri yaqinida). Mil. avv. taxm. 5-mingyillikda asos solingan. Mil. avv. 3-mingyillikdan mixxat hujjatlarida qayd etilgan. Savdo yo'llari kesishgan yerda joylashgani uchun Old Osiyoning tarixida muhim rol o'ynagan. Mil. avv. IX asrdan ossuriy shohlar qarorgohi. Nineviyaning yuksalishi va ravnaq topishi, uni Ossuriya davlati va "jahonning" poytaxtiga aylanishi mil. avv. VIII–VII asrlarga oiddir (Sinaxerib va uning vorislari davrida). Nineviyaning shimoliy qismida *Sinaxerib*ning "janubi g'arbiy saroyi" va ichki qismi devorlari harbiy, ov va maishiy sahnalarni aks ettirgan juda ko'plab barelyeflar bilan bezatilgan. *Ashshurbanipal*ning hashamatli "shimoliy saroyi" joylashgan. *Ashshurbanipal* saroyida davlat arxivi va podshoh kutubxonasi bo'lgan. Kutubxonada 20 mingdan ziyod kitob – mixxat sopol jadvalchalar bo'lgan. Nineviyaning janubiy qismida Ishtar ma'budasining markaziy sajdagohi – *Emishmish* ibodatxonasi (mil. avv. 3-mingyillikdan boshlab qayd etilgan) va podsho *Asarxaddon* saroyi qurilgan. Nineviya shahrini "*Qon ustidagi shahar*" yoki "*sherlar makoni*" deb ta'riflashgan. Mil. avv. 612-yilda Nineviya Yangi Babil podshosi Nabopalasar va Midiya podshosi – *Kiaksar* tomonidan yer bilan yakson qilingan. Rimliklar Nineviya o'rnida *Claudia Ninus* harbiy koloniyasi (manzilgoh)ni barpo etganlar. Nineviya xarobalari Kuyunjik shahar xarobasida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan.

**NIPPUR** (hozirgi *Niffer* yoki *Nuffar*, Iroqdagi *Bag'dod* va *Basra* shaharlari orasida) – Qadimgi *Shumer* shaharlaridan biri, uning bosh diniy markazi (mil. avv. 3-mingyillik boshi - 2-mingyillik boshlari). Mil. avv. 3-mingyillikda Nippurda shumeriylarning mahalliy ma'budlari – "*tog'liklar*" (*Enlil* boshchiligida) va Eridu – "*dengiz*" (*Enki* boshchiligida) ma'budlarini birlashtirgan bir sajdagohi (*panteon*) qurilgan. Mil. avv. XVIII asrda Nippur Babil tomonidan bosib olingan. Shu munosabat bilan Nippur diniy markaz sifatidagi rolini Bobilgabergan. Babilning bosh ma'budi *Marduk*, oliy ma'bud *Bela* nomini olgan *Enlil* deb e'tirof etila boshlangan. Nippur diniy markaz sifatida *Shumer* shahar-davlatlari hayotida katta rol o'ynagan. Nippur kohinlari tan olmagan bironta ham podsho *Shumerda* tan olinmagan. Nippur ibodatxonasida kutubxona barpo etilgan bo'lib (mil. avv. 3-mingyillik), unda tarix, geografiya, astronomiya, botanika, zoologiya, filologiya va boshqa fanlarga oid shumeriylarning risolalari ilohiyot, munajjimlik-sehrgarlikka (ularning

ko'pchiligi mil. avv. 1-mingyillikda *Ashshurnasirpal* va *Ashshurbanipal* kutubxonasi olimlari tomonidan qayta ko'chirilgan) oid asarlar bilan birga saqlangan. Mil. avv. 2-mingyillik boshida kutubxona Elam istilochisi *Kudur-mabuk* tomonidan yoqib yuborilgan. Mil. avv. 2–1-mingyilliklarda Nippur Babilning "*erkin shahri*" sifatida ichki muxtoriyat huquqiga ega bo'lgan. *Ahamoniylar* davrida (mil. avv. V asr) Nippurda *Murashu* savdo-sudxo'rlik uyi mavjud bo'lgan (unda katta arxiv hujjatlari saqlangan). So'ngra Nippur kimsasiz shaharga aylanib, *sosoniylar* davrida *nekropol* bo'lgan. Nippurda qazishma ishlari XIX asrdan olib boriladi; *Enlil* (*Ekur*) ibodatxonasi, maktab, kutubxona (80 xonadan iborat, 80 mingga yaqin mixxat hujjatlari, shundan 23 mingga kutubxonaning eng qadimgi davriga oid), xususiy uy-joylar topilgan.

**NUBIYA** – Misr janubidagi davlat. Nubiyaga misrliklar Nil bo'ylab oltin, qatron, fil suyagi, nodir navli yog'ochlarni ayirboshlash uchun borishgan.

**OSSURIYA** – Mesopotamiyaning shimolida joylashgan mamlakat. Dastlabki Ossuriya davlati *Dajla* daryosining yuqori oqimi, *Quyi* va *Yuqori Zab* daryolari havzasidagi joylarni egallagan edi. Arxeolog olimlar *Zab* daryolari bo'ylaridan 70–80 ming yil muqaddam yashagan qadimgi odamlarning makonlarini topganlar. Ossuriyaning eng qadimgi aholisi *hurrit*, *subariy*, *semit* va boshqa qabilalarning aralashuvidan *ossur xalqi* kelib chiqqan. Ossur tili davlat tili bo'lgan. Mil. avv. 1–4-mingyilliklarda Ossuriyada dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanadi. Odamlar orasida mulkiy tabaqalanish kuchayadi. Mil. avv. 3-mingyillikning ikkinchi yarmida esa Ossuriyada dastlabki davlat tashkil topadi. Bu qadimgi *Ashshur* shahar-davlati bo'lib, Ossuriya ham ana shu nomdan kelib chiqqan. Ilk Ossur podsholigi davri mil. avv. XXII–XVI asrlarni o'z ichiga oladi. Ossuriya davlati tepasida podsho turib, mamlakatni a'yonlar va oqsoqollar kengashiga suyanib boshqargan. Podsholik otadan bolaga, aka-ukalarga meros bo'lib o'tgan. Ossuriya dastlab ancha kichik bo'lib, Akkad va Urning 3-sulolasi podsholariga itoat etgan. Mil. avv. XX–XVIII asrlarda Ossuriya kuchayib, Ossur podsholari *Fors* qo'ltig'i, *Kichik Osiyo* va *O'rtayer dengizi* sohilidagi boy mamlakatlar ustiga qo'shin tortib borganlar. Ular *Kichik Osiyoning* *Qizilirmoq* daryosi havzasigacha *ossur* manzilgohlarini qurganlar. *Xammurapi* davrida Ossuriya kuchsizlanib, dastlab Babil podsholigiga, mil. avv. XVI–XV asrlarda esa *Mitanni* davlatiga qaram bo'lib qolgan. *Mitanni* podshosi *Shaushshatar* Ossur qo'shinlarini tor-mor etib, podsho saroyining oltin va kumushdan yasalgan darvozasini o'z yurtiga olib ketgan. Darvoza 100 yildan so'ng yana Ossuriyaga

olib kelingan. Mil. avv. XVI asr oxiri – XV asr boshlaridan boshlab Ossuriya kuchaya borib, Bobil va Mitanni asoratidan ozod bo‘lib oladi. Ossuriya Misr bilan ittifoq tuzib Mitanniga qarshi kurash boshlaydi. Ossuriya podsholigi *Salamansar I* davrida kuchayib, Mitanni davlatini bosib oladi. Mil. avv. XIII asrda Ossur qo‘shinlari Bobil va Elam ustiga bir necha bor talonchilik urushlarini uyushtiradilar. *Tiglatpalasar I* hukmronligi davrida Ossuriya podsholigi kuchayib shimolda Qora dengiz, g‘arbda esa O‘rtayer dengizi sohilidagi boy mamlakatlar ustiga qo‘shin tortib, ularni o‘z ta‘siriga olgan. Mil. avv. XI asr boshlarida g‘arb tomondan bostirib kelgan arameylarning zarbalari natijasida ossur shahar va qishloqlari vayron etiladi va Ossuriya arameylarga qaram bo‘lib qoladi. Mil. avv. X asr oxirlariga kelib arameylar davlati kuchsizlanib, tushkunlikka uchraydi. Bu vaziyatdan foydalanib ossurlar o‘zlarini o‘nglab oladilar va Yangi Ossur podsholigiga asos soladilar. *Salamansar III* davrida Ossur qo‘shinlari O‘rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar, Bobil va Urartu bilan tinimsiz urush olib borganlar. Mil. avv. XIII asr boshlarida Urartu kuchayib Ossur qo‘shinlariga bir necha bor zarbalar bergan. Joylarda ossurlarga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlangan. Ossuriya bosib olgan yerlarini qo‘ldan boy bergan. Mil. avv. XIII asr o‘rtalariga kelib *Tiglatpalasar III*, *Salamansar V*, *Sargon II*, *Ashshurbanipal* va boshqalar davrida Ossuriya yana kuchayadi. Bu davrda ossur podsholari Misr, Falastin, Suriya, Finikiya, Bobil, Elam, Urartu davlati bilan qonli urushlar olib boradilar. Bu vaqtda Ossuriya Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanadi. Mil. avv. VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ossuriya zaiflasha boshlaydi. Xuddi shu davrda Yangi Bobil podsholigi bilan Midiya harbiy ittifoq tuzib, Ossuriyaga ikki tomondan hujum boshlaydilar. Mil. avv. 612-yilda Ossuriya poytaxti Ashshur ittifoqchilar tomondan ishg‘ol qilinadi. Ossur qo‘shinlari Xarran va Karxameshga chekinadilar. Misr fir‘avni ossurlar bilan ittifoq tuzib, raqiblariga qarshi shaylanadilar. Mil. avv. 605-yilda Misr-Ossur qo‘shinlari bilan Midiya-Bobil qo‘shinlari o‘rtasida Karxemish yonida bo‘lgan jangda ossur-misr qo‘shinlari tor-mor etilib, shu bilan Ossuriya davlati ham barham topadi.

**OQ NIL** – Ugandadagi Viktoriya ko‘lidan oqib chiqadi. Oq Nil sokin oqadi, Nildagi suv sathi o‘zgarishiga ta‘sir o‘tkazmaydi. Aprel va may oylarida Nilda suv eng quyi nuqtagacha pasayganida suvning 85 %i Oq Nildan oqib kiradi.

**FALASTIN** (qadimgi yahudiycha **pelishtim** – “**filistimliklar**” so‘zidan olingan) – Sinay yarim-oroqlining shimolidagi qadimgi davlat. O‘rta dengiz-

ning sharqiy sohilida joylashgan. Mil. avv. 5–4-mingyillikda Falastinga somiy qabilalari kirib kelgan. Mil. avv. 3–2-mingyillikda Falastinda xanaaneylarning ilk shahar-davlatlari paydo bo‘lgan (mil. avv. 2-mingyillikda Falastin va Finikiya hududi Xanaan deb atalgan). Mil. avv. XVI–XIII asrlarda Falastin Misr tasarrufida bo‘lgan. Mil. avv. XIII asr oxirida Falastinda filistimliklarning hukmronligi o‘rnatilgan. O‘sha paytdayoq mamlakatning aksariyat qismi mil. avv. XI asrda tashkil bo‘lgan Isroil-Yahudiy podsholigi hududida istiqomat qiluvchi qabilalar tomonidan zabt etilgan. *Dovud* va *Sulaymon* podsholar davrida Isroil qudrati avjiga chiqqan. Taxminan 935-yilda bu davlat ikkita podsholik – Isroil va Iudeya (Yahudiya)ga bo‘lingan. Mil. avv. VIII asr oxirida Falastinning shimoliy hududi – Isroil podsholigi *Ossuriya* tomonidan bosib olingan. Janubiy Falastin (Iudeya podsholigi)ni mil. avv. VI asrda bobilliklar, so‘ngra *ahamoniyalar*, mil. avv. IV asrda makedoniyalik *Aleksandr* o‘zlariga bo‘y-sundirganlar. Mil. avv. III–II asrlarda Falastin Ptolemeylar (Misr) bilan Salavkiylar o‘rtasida talash bo‘lgan. Falastin milodiy I asrda (63-yil) rimliklar tomonidan bosib olingan. Lekin faqat Iudeya urushlari (66–73-yillar) va Bar Koxba qo‘zg‘oloni (132–135-yil) bostirilganidan so‘nggina Falastin Rim imperiyasining viloyatiga aylangan. Milodiy I asrda Falastinda xristian dini paydo bo‘lgan. 395-yilda Falastin Vizantiya ixtiyoriga o‘tgan.

**PARFIYA PODSHOLIGI** – mil. avv. 250-yilda Kaspiy dengizining janubiy va janubi sharqiy tomonida vujudga kelgan qadimgi davlat. Mil. avv. I asr o‘rtalarida Mesopotamiyadan Hindistongacha bo‘lgan hududni o‘ziga bo‘ysundirgan. Parfiya podsholigi milodiy III asrning 20-yillarigacha mavjud bo‘lgan. Mil. avv. 250-yilda saklarning ko‘chmanchi parmlar (daxlar) qabilasi *Arshak* (*arshakiylar* sulolasi asoschisi) boshchiligida Salavkiylar davlatidan ajrab chiqqan Parfiyona yoki Parfiya satrapiyasiga bostirib kirganlar va Parfiyani, so‘ngra qo‘shni *Girkaniya* viloyatini ishg‘ol etganlar. *Salavk II* o‘z hokimiyatini qayta tiklash maqsadida olib borgan bir necha muvaffaqiyatsiz urinishlar (mil. avv. 230–227-yillar)dan so‘ng Parfiyada arshakiylar hukmronligini tan olishga majbur bo‘lgan. 209-yilda Parfiyani salavkiylar podshohi *Antiox III* bosib olgan. Biroq Salavkiylar davlatining zaiflashganidan foydalanib Parfiya tezda o‘z mustaqilligini tiklagan. *Parmlar* mahalliy *parfyanlar* (parfiyaliklar) bilan aralashib ularning madaniyati, tili va mahalliy diniy e‘ti-qodlarini qabul qilishgan. Mil. avv. taxm. 171–138/137-yillarda Parfiya podshohi *Mitridat I* salavkiylarning sharqiy satrapiyalari va *Yunon-Baqtriya*



podshohligining bir qismini (mil. avv. taxm. 136-yilda) bosib olgan. Mil. avv. I asr boshida Parfiyaning qudrati yanada ortib, Rim imperiyasining xavfli raqibiga aylangan. Mil. avv. 53-yilda Parfiya Rim bilan to'qnashib, *Karra jangida Krass* qo'mondonligi ostidagi Rim qo'shinini butkul tor-mor etgan. Mil. avv. 40-yilda Parfiya Kichik Osiyoning deyarli butun hududini, Suriya va Falastinni zabt etgan. Bu Rimning Sharqdagi hukmronligiga tahdid solmoqda edi. Mil. avv. 39–37-yillarda rimliklar bu viloyatlar ustidan o'z hukmronliklarini tiklashgan. Tez orada Parfiya ichki nizolar va ko'chmanchi alanlarning hujumlari natijasida tanazzulga uchray boshlagan. Bundan foydalangan rimliklar Parfiyaning g'arbiy viloyatlarini qattiq talon-taroj qilgan. Parfiyaliklar vaqt-vaqti bilan rimliklar ustidan g'alaba qozonib turgan bo'lsalar-da, davlatni siyosiy tushkunlikdan qutqarib qololmaganlar. *Marg'iyona, Sakaston, Girkaniya, Elimaida, Fors, Xarakena, Xatra* amalda mustaqil edilar. Tashqi va ichki nizolar mamlakatni holdan toydirgan. 224-yilda vassal Fors (Persida) viloyati hokimi *Ardasher (Ardasher I)* hal qiluvchi jangda *Artabon V* ni Ormizdagon tekisligida mag'lub etib Parfiya podshohligini tugatgan; Parfiya asoschisi *Ardasher I* bo'lgan. *Sosoniylar davlatiga* qo'shib yuborilgan.

**PATALIPUTRA SHAHRI** – Qadimgi Hindistondagi shahar, qadimgi dunyoning eng buyuk shaharlaridan biri (taxm. 16x3 km maydoni egallagan). An'anaga ko'ra, mil. avv. V asr o'rtalarida podsho *Ajatashatru* tomonidan *Lichchxavlar davlatiga* qarshi qal'a sifatida bunyod etilib, tez orada Shimoliy Hindistondagi eng muhim savdo, hunarmandchilik va madaniy markazga va Magadxa davlatining poytaxtiga aylandi. Pataliputra Nandlar, Mauriyalar, Shunglar va Guptalar imperiyasining poytaxti bo'lgan. Guptalar hukmronligining oxirida (V–VI asrlar) Pataliputra tanazzulga uchrab, xarobaga aylangan. Pataliputra xarobalari yaqinida, Gang daryosi bo'yida, hozirgi *Patna shahri* qad ko'targan. Arxeologik qazishlar natijasida Pataliputradan Mauriyalar saroyiga tegishli yog'och va g'ishtdan ishlangan bonolar, ko'plab san'at binolari topilgan.

**PASARGADA** – qadimgi Erondagi shahar. Persopoldan 80 km shimoldagi qirlarda bunyod etilgan. Fors qabilalaridan pasargadlar nomidan olingan, bu qabilaga ahamoniylar ham mansub bo'lgan. Mil. avv. 550-yi Pasargada yonida fors qo'shinlari Midiya shohi Astiag armiyasi ustidan g'alaba qozongan. Pasargadada fors moddiy madaniyatining eng qadimgi obidalari (Kir II saroyi va qabri, kvadrat minora ko'rinishidagi otashkada), shuningdek, Kir nomi qayd etilgan mixxat yozuvlari

saqlangan. Kir II ahamoniy podshohlari toj kiyadigan muqaddas joyga aylangan.

**PERSEPOL, Persipolis, Taxti Jamshid** – Sheroz shahri (Eron)dan 50 km shimoli sharqda joylashgan qadimgi shahar. Mil. avv. VI asr oxirida barpo etilgan Ahamoniylar davlatining poytaxt shaharlaridan biri. Mil. avv. 330-yilda *Aleksandr* (Iskandar) tomonidan bosib olinib, yondirilgan va shahar tashlandiq holga kelgan. Persepolda asosiy qazishma ishlari XX asrning 30-yillaridan olib borilgan. Tog' etagida bunyod etilgan mahobatli me'moriy-haykaltaroshlik majmui (mil. avv. taxm. 520–450-yillar) atrofi ham g'ishtdan qurilgan 2 qatorli devor bilan o'ralgan; tantanalar o'tkazilgan zal – apadana, Doro va Kserksning tosh relyeflar bitilgan saroylari, haramxona binosi, Jahon darvozasi ("*hamma xalqlar darvozasi*", mil. avv. V asr), Shoh zali ("Yuz ustunli") xarobalari aniqlangan. Ahamoniy podshohlarining bitiklari va elam tilida yozilgan minglab sopol parchalari topilgan. Persepolding g'arb tomonida katta otashgohning qoldiqlari saqlangan. Persepol saroyi qabulgohidan Arabiston, Turon, Hindiston, Habashistondan kelgan elchilar, sarbozlar, savdogarlar, hunarmandlarning yuzlab suratlari toshga o'yib tasvirlangan, yozuvlarda ifodalangan. Persopoldagi fors shohlari saroyi devoriga o'yib ishlangan manzarida O'rta Osiyo xalqlari boshqalar qatori ahamoniylarga xiroj olib kelishi tasvirlangan. 8-guruh – sug'diylar. Ular yetti nafar, o'ziga xos oyoq kiyimida, qo'llarida qadah, mato va qaysidir hayvon terisi. Ular ikki bosh qo'yni yetaklab kelmoqdalar. 11-guruh – uchi o'tkir kigiz qalpoqli saka-tigraxaudalar. Ular ot yetaklagan va qo'llarida sarupo. 13-guruh – parfiyaliklar. Qo'llarida qadah, baqtriya tuyasini yetaklaganlar. 15-guruh – baqtriyaliklar, yaktak kiyib, shalvorlarini himarganlar. Qo'llarida idishlar va tuya yetaklaganlar. 17-guruh – xorazmliklar. Kalta qilich va oybolta bilan qurollanganlar. Ot yetaklaganlar.

**QIZILTEPA** – mil. avv. IX–IV asrlarga oid shahar xarobasi. Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani hududidagi Qizilsuv daryosining o'ng sohilida joylashgan. 1971-yili professor *G.A. Pugachenkova* rahbarligida O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan o'rganilgan. Uch qismdan iborat: 1) Qiziltepaning janubi g'arbiy qismidagi balandligi 10 m ga yaqin tepalikka qurilgan ark va hukmdorlar saroyi; 2) shaharning o'z hududi; 3) shaharning janubi sharqiy devoridan tashqari joylashgan, umumiy maydoni 4–5 ga bo'lgan hudud. Tadqiqotlar Qiziltepada hayot uch asosiy davrga bo'linganligini ko'rsatadi. *Qiziltepa-1* (mil. avv. IX–VII asrlar); *Qiziltepa-2* (mil. avv. VII–V asrlar);

*Qiziltepa-3* (mil. avv. V–IV asrlar). Qiziltepadan har xil qurollar (yorg'uchoq, o'roq), temir buyumlar, uy hayvonlari suyaklarining ko'plab topilishi dehqonchilikning yuksak taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Mil. avv. IV asrda Qiziltepa Aleksandr Makedonskiy qo'shinlarining yurishi vaqtida butunlay vayron qilingan.

**QUYI MISR DAVLATI** – mil. avv. 4-mingyillikning o'rtasida Nil daryosining shimoliy tarmog'ida shaharchalar birlashib, barpo etilgan davlat.

**SARON** – “*Jannat bog'i*”ga qiyos qilingan Qadimgi Falastindagi serunum tekislik. Bu tekislik Kelt daryosi va tog'lar orasidan oqib chiqadigan soy-jilg'alar suvi bilan sug'orilgan.

**SINAY** – mis qazib olinadigan mashhur yarimorol bo'lib, u Misrning shimoli sharqida joylashgan.

**SIN DAVLATI** – mil. avv. taxm. X asrda vujudga kelgan Qadimgi Xitoy podsholigi. Dastlab *Chjou* sulolasiga qaram bo'lgan. Uning tarkibiga hozirgi Shensi viloyatining g'arbi va shimoli g'arbiy qismi, Mgansuning sharqiy va Sichuanning shimoliy qismi kirgan. *Chjongo* davrida (mil. avv. V asrlar) Xitoyda Chjou monarxiyasidan mustaqil bo'lgan 7 ta eng qudratli davlatlardan biri hisoblangan. Sinning kuchayishi *Shan Yan* islohotlari bilan bog'liq bo'lgan. Mil. avv. IV asr o'rtalarida boshqa podsholiklar bilan kurash boshlangan va mil. avv. 221-yilga kelib ular bo'ysundirilgan. Buning natijasida markazlashgan *Sin imperiyasi* barpo etilgan.

**SKIFLAR PODSHOLIGI, Skiflar davlati** – Shimoliy Qora dengiz bo'ylarida tashkil topgan ko'chmanchi qabilalarning konfederativ siyosiy uyushmasi (mil. avv. IV asrning o'rtasi – milodiy III asrning 2-yarmi). Yunon-rim manbalarining xabar berishicha, Skifiya hududi 3 qismga bo'linib, ularning har biri mustaqil qabila – podsholik bo'lib, ularning o'z to'dasi va harbiy qabila sardori bo'lgan. Qabila – podsholik qoshida oqsoqollar kengashi bo'lib, u qonun chiqaruvchi oliy organ vazifasini bajargan. Uning huquqiy doirasi cheksiz bo'lib, qabila sardorini jazolashi va hatto o'limga mahkum etishi mumkin bo'lgan. Podsholik harbiy-demokratik asosda boshqarilgan. Qabilaviy siyosiy uyushmalar tepasida *Gerodot* xabariga ko'ra, “skif podsholari” turgan va ular skif fuqarolariga qul sifatida qaragan. Mil. avv. V asrda skiflarda mulkiy tabaqalanish jarayoni jadal kechayotgan bo'lsa-da, ammo, ijtimoiy hayotda hali ibtidoiy jamoachilik an'analari hukmron edi. Mil. avv. IV asr o'rtalarida skif sardorlaridan *Atey* barcha skif qabilalarini o'ziga bo'ysundirib podsholik barpo etgan, lekin u mil. avv. 339-yilda makedoniyalik

Filipp II bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi. Atey davrida Quyi Dnepr bo'ylarida Skifiyaning poytaxti qurilgan edi. *Sarmatlarning* siquvi bilan mil. avv. III–II asrlarda poytaxt Qrim yarimoroliga ko'chadi (*Neapol*, Skiflar Neapoli). Aynan shu vaqtlarda skiflar podsholigi Qora dengiz bo'ylaridagi yunon shahar-davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni kuchaytiradi. Ammo, skiflar yunon shahar-davlatlari ustiga harbiy yurishlar ham uyushtirib turadilar. Mil. avv. II asr oxirida yunon shahar-davlatlari bilan bo'lgan navbatdagi harbiy to'qnashuvlardan birida skif podsholaridan Skilur va Palaklar halok bo'ladilar. Ammo, skiflar podsholigi harbiy jihatdan hali qudratli edi. Ular bilan hatto Rim imperiyasi milodning boshlarida ham hisoblashishga majbur edi. Milodiy I asrning 2-yarmida skiflar podsholigi podsholar Farzoy va Inismey davrida yana kuchayib, *Bospor podsholigi* bilan bir necha marta urush qilgan. Skiflar podsholigining qudrati to' milodiy III asrning 2-yarmigacha o'z mavqeyini saqlab keldi, so'ngra skiflar podsholigi *gotlar* tomonidan tor-mor etilgan.

**SOSONIYLAR DAVLATI** – Yaqin va O'rta Sharqda *sosoniylar sulolasi* boshqargan davlat (III–VII asrlar). 224-yilda *Ardasher I* Parfiya shohi *Artabon V* ni mag'lubiyatga uchratib, 226-yilda poytaxtni Staxr shahridan Dajla daryosi bo'yidagi Ktesifonga ko'chiradi va shu yerda yangi davlat taxtiga o'tiradi. *Ardasher I* taxtga chiqqach, Sosoniylar davlatining chegaralarini kengaytirishga harakat qiladi. 230-yilda u o'z qo'shinlari bilan Suriya va Kichik Osiyoga bostirib boradi. Bu yillar Rim saltanatiga qaram edi. 232-yili Rim imperatori *Aleksandr Sever* katta qo'shin bilan Shimoliy Mesopotamiyaga kelib tushadi. *Ardasher I* qo'shinlari Rim legionlari bilan uzoq vaqt mobaynida qonli urushlar olib boradi. *Ardasher I* vafotidan keyin Sosoniylar davlati taxtiga *Shopur I* (243–273) chiqadi. Shu vaqtdan boshlab sosoniy taxtiga chiqqan sulola vakillari “*shahanshoh*” unvoniga ega bo'ladilar. Sosoniylar davlati esa *Eronshahr* (“*oriylar podsholigi*” yoki “*eroniylar shohligi*”) deb atalgan. *Shopur I* davrida Eron qo'shinlari Rim qo'shinlari bilan janglar olib borib, ularni bir necha bor mag'lubiyatga uchratganlar. Bu urushlarning birida Rim imperatori *Gordian* halok bo'lib, juda ko'p rimlik aslzodalar va askarlar asir tushganlar. Ular Eron shohiga 500 ming dinor aqcha to'lashga majbur bo'lganlar. 244–251-yillar orasida bo'lib o'tgan urushlar natijasida sosoniy qo'shinlari Janubiy Armaniston va Qadimgi Ossuriyani bosib olganlar. *Shopur I* qo'shinlari Suriyada Rim qo'shinlari bilan to'qnashib, ularni tor-mor etadi. Shimoliy Mesopotamiyaning Xarran va Edessa shaharlari yonida bo'lgan jangda ham sosoniy

qo'shinlari rimliklar ustidan g'alaba qiladilar. Edessa yonidagi jangda Rim imperatori *Valerian*, ko'pgina senatorlar va aslzodalar asirga tushadi. Rim bilan olib borilgan janglar natijasida Shopur I qo'shinlari Suriya va Frot daryosining yuqori oqimidagi 36 qal'a va shaharni ishg'ol qiladi. Rim imperiyasi hech qachon bunday katta mag'lubiyatni ko'rmagan edi. IV asrning 60–70-yillarida sosoniy qo'shinlari rimliklar bilan yana to'qnashib, Armaniston va Shimoliy Mesopotamiyaning ko'p joylarini bosib oladi. 363-yildagi jangda yana bir Rim imperatori *Yulian* halok bo'ladi. Sosoniy qo'shinlari Sharq tomonda ham katta urush olib borib, Xuroson, Seyiston, Girkaniya va Tajan, Murg'ob vohasigacha bo'lgan yerlarni ishg'ol qiladi. Sosoniy shahanshohlari Sharqda Kushonlar podsholigi bilan ham shiddatli janglar olib borganlar. Kushon podsholigi tugatilib, u yerda eroniylar sosoni barpo etiladi. Uni Eron shahzodalari boshqargan. V asrning ikkinchi yarmida eron qo'shinlari xioniylar, kidariylar va eftaliylar bilan ham qattiq urush olib borganlar. Shunday qilib, III asrning ikkinchi yarmi va IV asrda sosoniylar Eroni Sharqdagi eng qudratli davlatga aylangan. Ammo V asr o'rtalaridan boshlab Sosoniylar davlati eftaliylar va kidariylarning bergan zarbasi natijasida asta-sekin kuchsizlanib, hatto eftaliylarga o'lpon ham to'lagan. Sosoniylar davlati aholisi rasmiy ravishda 4 tabaqaga: kohinlar, harbiy zodagonlar, amaldorlar hamda dehqon va hunarmandlarga bo'lingan. III asrda *moniylik*, V asrda *mazdakiylik* diniy ta'limotlari keng tarqalgan. Mazdakiylar harakati tor-mor etilgach, Sosoniylar davlati shohlari bir necha islohotlar o'tkazganlar. *Kubod I* va *Xusrav I* davridagi soliqlar V asrdagi soliqlardan ancha yengil bo'lgan. Kohinlar va yirik yer egalari mulki "oddiy jangchilar" foydasiga musodara qilingan. Sosoniylar davlati iqtisodiy tomondan VI asr boshida ancha rivojlangan, tashqi siyosatda ham katta yutuqlarga erishgan. Sosoniylar davlati 558–568-yillarda eftaliylarni yengib, Amudaryoning so'l qirg'og'i va Afg'onistondagi katta hududni o'ziga qo'shib olgan, Yaman zabt etilgan (570-yil). Sosoniylar davlati hududiga bostirib kirgan turklar tor-mor etilgan (589-yil). Taxt uchun kurash avj olgan, 20 yil davom etgan urushlar Sosoniylar davlatining iqtisodi va siyosiy qudratiga putur yetkazgan. Eron madaniyati sosoniylar davrida juda yuksalgan. *Yazdigard III* davrida (632–651) Sosoniylar davlatini *arablar* bosib olgan.

**SURIYA** — Falastin bilan chegaradosh bo'lgan qadimgi davlat. O'rtayer dengizining sharqiy sohilida joylashgan. Sharq xalqlari Suriya, Fnikiya va Falastinni *xanaan* yoki *amuru* deb atashgan. Bir arab maqolida "mamlakatning boshida qish, kaftida kuz, oyog'ida

esa doim bahor edi" deyilgan ekan. Eng qadimgi aholisi *xurriylar*, *xanaanlar* va *somiylar*dir. Suriyadagi *Ugarit*, *Arvad*, *Bibl*, *Sidon*, *Tir*, *Damashq*, *Kadesh*, *Ebla* davlatlari eng qadimgi shahar-davlatlar hisoblanadi. Suriya hududida odam paleolit davridan beri yashab keladi. Mil. av. 2-mingyillikning 1-yarmida mayda shahar-davlatlar vujudga kelgan. Mil. av. XV asrda Suriyaning ko'p qismini *Misr*, mil. av. XIV asrda *Xett podsholigi* egallab olgan, mil. av. XII asr boshlarida Suriya ozodlikka erishsa-da, mil. av. VII asr oxirida *Yangi Bobil podsholigiga*, mil. av. VI asr o'rtalarida *Ahamoniylarga* qaram bo'lgan. Mil. av. 333-yilda *Aleksandr Makedonskiy* davlati tarkibiga kirgan. Bu davlat barbod bo'lgach *Salavkiylar* davlatining viloyatiga aylangan. Mil. av. I asrda Armaniston podshosi Tigran II Suriyani bosib olgan, 64-yilda Rim, milodiy IV asr oxiridan Vizantiya viloyatiga aylangan.

**SUZA** — Erondagi qadimgi shahar (mil. av. 4-mingyillik — milodiy X asr). Mil. av. 3-mingyillikning 2-yarmi — 1-mingyillikning 1-choragida Elam poytaxti. Suzadandan istehkomlar, saroylar, maqbaralar, sirlangan g'ishtlarga ishlangan bo'rtma rasmlar (jumladan, jangchilarni saf tortib yurishlari tasvirlangan rasm; hozirgi Berlin, Luvr davlat muzeylarida saqlanadi), yozuvlar bitilgan stela (ustun)lar, bo'yama sopol idishlar topilgan.

**SUG'D, So'g'd, Sug'ud** — O'rta Osiyodagi qadimgi tarixiy-madaniy viloyat. Ilk marta *ahamoniylar sulolasi* vakillarining qoyatosh xotiro bitiklarida *Suguda* shaklida qadimgi Eron saltanatiga tobe qilingan satrapliklardan biri, mamlakat nomi sifatida qayd etilgan. Yunon manbalarida — *Sogdianoyil*. Bu shakl yunonlar tomonidan so'z tarkibidagi — anaka — tegishlilik, mansublik ma'nosini bildiruvchi nisbat qo'shimchasini so'z o'zagiga qo'shib yuborishdan paydo bo'lgan. Xitoy manbalarida — Su-li. Sug'd yozuvi yodgorliklari mamlakat nomini *Sug'd* yoki *Sg'ud* shaklida ko'rsatadi. Sug'dik yoki Sg'udik, Sug'diyonak — Sg'udiyonak shakllari "Sug'dga tegishli", "Sug'diy" kabi ma'nolarda qo'llanadi. O'rta asrlarda arabiy, forsiy, turkiy manbalar mamlakat nomini "Sug'd" shaklida qo'llaydi. Avestoning Videvdatida esa Axuramazda yaratgan ezgu yurtlardan biri *Gava* deyiladi va u yerda sug'dlar yashaydi deb ko'rsatiladi. Sug'd mamlakati (poytaxti — Samarqand, 645–654 yillarda Kesh) 3 tarixiy-geografik hududni birlashtirgan. Samarqand Sug'di, Buxoro Sug'di va Kesh-Naxshab Sug'di. Sug'd mil. av. VI–II–I asrlarda avval ahamoniylarga, so'ngra makedoniyalik *Aleksandr* tuzgan saltanatga, uning davomchisi Salavk davlatiga, Yunon-Baqtriyaga tobe bo'lgan. Mil. av.

II–I asrlardan boshlab Sug‘d o‘z mustaqilligini tiklashga kirishgan. Uning markaziy va mahalliy tangalari zarb qilina boshlagan. Sug‘d asta-sekin har 3 qismni o‘z atrofiga to‘plagan konfederativ davlat uyushmasiga aylanib borgan. Milodiy 1-mingyillikning 1-yarmida Sug‘d kushonlar, xioniylar, abdallar, kidarlar ta‘sirida bo‘la turib, o‘z nisbiy mustaqilligini saqlab keldi. Sug‘d konfederatsiyasi milodiy VI asr o‘rtalaridan VIII asrning boshlarigacha siyosiy jihatdan kuchayib borgan. Arab istilosining boshlang‘ich davridan (VIII asrning 1-choragi), to Sug‘d podshosi Turg‘ar davri oxirigacha (738–759-yillar) Sug‘d o‘zining konfederativ xususiyatini saqlashga harakat qilgan. Turg‘ardan keyin Sug‘dda ixshidlik siyosiy hokimiyat tugab, mamlakat xalifalik tarkibiga singdirilgan.

**TIR** – Finikiya (hozirgi Livandagi Sur shahri)dagi dengiz bo‘yi shahar-davlati. Mil. avv. 4-mingyillikda asos solingan. Mil. avv. 1-mingyillikda ravnaq topgan. Mil. avv. 3–2-mingyillikda muhim hunarmandchilik va savdo markazi. Mil. avv. 2-mingyillikda (tanaffuslar bilan) Misr ta‘sirida bo‘lgan. Tirikliklar O‘rta dengiz orollari (Kiپر, Sitsiliya va boshqa), Shimoliy va G‘arbiy Afrika va Ispaniyada bir qancha koloniyalar (manzilgohlar) barpo etganlar. Mil. avv. X asrda Tir gegemonligi ostida vujudga kelgan Tir-Sidon podsholigi Finikiyaning butun dengiz sohili ustidan hukmronlik qilgan. Mil. avv. VIII asrda Tir Ossuriyaga, mil. avv. VI asrda boshidan Yangi Bobil podsholigiga, mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmidan Ahamoniylar davlatiga qaram bo‘lgan. Mil. avv. 332-yilda uzoq muddat dengiz va quruqlikdan qamal qilingandan keyin Tir *Aleksandr* tomonidan egalangan. Ellinizm davrida Tir Ptolemeylar, Salavkiylar davlati tarkibida, mil. avv. 64-yildan Rimning Suriya provinsiyasiga ichki muxtoriyatini saqlagan holda kirgan. Arablar istilosiga qadar (VII asr) Sharqiy O‘rta dengizning yirik savdo markazi bo‘lib qolgan. Tirda arxeologik qazish ishlari fransuz arxeologi *E. Renan* (XIX asrning 2-yarmi), *A. Puadebar* (XX asrning 40-yillari) tomonidan olib borilgan. Qazuv ishlari natijasida bu yerdan mil. avv. XVI asrga oid boks tushayotgan o‘spirin bolalar tasviri topilgan. Tir *Jahon merosi* ro‘yxatiga kiritilgan.

**TIR-SIDON PODSHOLIGI** – mil. avv. X–IX asrlarda Finikiyada vujudga kelgan qadimgi davlat. Mil. avv. VII asrda Ossuriya podsholigi tomonidan bosib olingan.

**UGARIT** – O‘rtayer dengizi sohilidagi yirik dengiz shahri.

**UMMA** – Mil. avv. IV minyillik oxirida Mesopotamiyada vujudga kelgan shahar.

**UR** (shumercha *Urim*) – Qadimgi shahar-davlat.

Nosiriya shahri (Iroq)dan 20 km janubi g‘arbda, Tel-Muqayyar shahar xarobasi o‘rnida joylashgan. Ingliz olimlari *D. Teylor* (1854-yil), *R. Kempbell-Tompson* (1918-yil), *R. Xoll* (1919–1922-yillar) va ayniqsa, *L. Vulli* rahbarligidagi Angliya–Amerika ekspeditsiyasi (1922–1934-yillar) tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilgan. Arxeologik tadqiqotlar Ur o‘rnida mil. avv. 5-mingyillik oxirida qishloq vujudga kelgani va u *Ubayd madaniyatiga* mansubligini aniqladi. Mil. avv. 4-mingyillikda *Uruk* davrida Ur shahar sifatida shakllangan. Qazishmalar natijasida topilgan eng ko‘p va qiziqarli yodgorliklar *Urda I* va *III* sulolalar hukmronligi davriga mansub (mil. avv. 25 va 21-asrlar). I sulolaga mansub 16 ta maqbaraga (ko‘pchiligi qadimda talon-taroj qilingan) hukmronlar va ularga qurbonlik qilingan jangchilar, arfa chaluvchi ayollar, aravakashlar qo‘shib dafn qilingan. Bu topilmalar dafn marosimi haqida tasavvur qilish imkonini beradi. Shumer san‘atining noyob namunalari; oltin dubulg‘a, oltin idishlar va arfalar, tinchlik va urush sahnalari aks ettirilgan mozaikali bayroq (tug‘)lar shu davrga oid. III sulola hukmronligi davriga mansub shaharning qalin mudofaa devori, saroy, ibodatxona devori qoldiqlari chiqqan; ibodatxona markazida 3 qavatli zikkurat (balandligi 42 m) va boshqa inshootlar joylashgan. Mil. avv. 25 asrda, Urning I sulolasi davrida (Mesanepada, Aanepada hukmronligi va b.) Ur kuchli davlat bo‘lgan. Mil. avv. 24–22-asrlar mobaynida (biroz tanaffuslar bilan) qo‘shni shahar-davlatlar Umma, Uruk, Akkad, gutiylarga qaram bo‘lgan. Mil. avv. taxminan 21-asrda “*Shumer va Akkad podsholigi*” (Urning III sulolasi) poytaxtiga aylangan. Podsho *Ur-Nammu* davrida (mil. avv. 21-asr) Mesopotamiyadagi eng qadimgi huquqiy nizom yaratilgan. Urning ushbu davri tarixi uchun shohlarning katta xo‘jaliklari, qullar, qarollar (“*gurush*” va “*gim*”) mavjudligi xos bo‘lgan. Mutlaq podsho hokimiyatining mafkuraviy asoslari yaratilgan (ma‘budlarga sajda qilishning yagona tizimi “*podsho hokimiyatining abadiyligi*” va b.). III sulolaning keyingi 4-podshosi (*Shulgi, Amar-Suen, Shi-Suen, Ibbi-Suen*) hayotliklari chog‘larida ilohiylashtirilganlar. Urning III sulolasi davrida shumer tilidagi madaniyat ravnaq topgan, biroq akkad tili ham tarqala boshlagan. III sulola davlati mil. avv. taxminan 2000-yilda Elam va amoriylar bilan bo‘lgan urush jarayonida qulagan. Ur Bobil (mil. avv. 18–6-asrlar) va Ahamoniylar podsholiklari (mil. avv. 6 asrdan) qo‘l ostida muhim savdo-hunarmandchilik markazi sifatida qolgan; mil. avv. 4-asrga kelib Ur tanazzulga uchragan.

**URARTU** (ossuriycha atalishi; urartcha – *Biaynili*, Bibliyada – “*Ararat podsholigi*”) – G‘arbiy Osiyo-

dagi qadimgi davlat. (mil. avv. IX–VI asrlar). Ravnaq topgan davrida Armaniston tog'lik rayoni (hozirgi Armanistonning butun hududi, Turkiya va Eronning bir qismi)ni qamragan. Aholisi – *urartlar*. Poytaxti – *Tushpa* shahri (hozirgi Turkiyadagi Van shahri) bo'lib, unda podsho *Sarduri I* davrida katta qurilish ishlari olib borilgan. Mil. avv. IX asr oxiri – VIII asrning 1-yarmida Urartu davlati ravnaq topgan. *Menua*, *Argishti I* va *Sarduri II* podsholiklari davrida Urartu hududi ancha kengaygan. Bosib olingan viloyatlarda qal'alar qurilgan (*Ararat* tog'ining shimoli yonbag'rida *Menuaxinili* shahri; *Erebuni* – *Yerevan* atrofidagi *Arin-berd* tepaligi; Araksning so'l qirg'og'ida *Argashtixinili* shahri). Urartuda qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. avv. VIII asr o'rtasida Ossuriya podshosi *Tiglatpalasar III* (mil. avv. 745–727) Urartu qo'shinlarini bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan va Urartu tarkibiga kiruvchi Shimoliy Mesopotamiya va Shimoliy Suriyani egallagan. So'ngra *Rusa I* davrida Sargon II boshliq Ossuriya qo'shinining yurishlari natijasida mamlakat xonavayron bo'lgan. Biroq VII asrda Urartu Janubiy Zakavkazyeda hali ham o'z mavqeyini saqlab qolgan edi. *Rusa II* (mil. avv. 685–645) bu yerda yangi qal'alar bunyod etgan (jumladan, *Teyshebaini* va b.). Skif-kimmeriy yollanma qo'shini yordamida Urartu podsholari Frigiya podsholigini tor-mor qilganlar (mil. avv. 676). Midiya podsholigining kuchayishi Urartuni Ossuriya bilan yaqinlashtirgan. Biroq mil. avv. VI asr boshida Urartu Midiya tomonidan tor-mor etilgan va uning tarkibiga qo'shib yuborilgan. **Urartu hukmdorlari:** Mil. avv. 864–845-yillar – *Aramu*, mil. avv. 835–825-yillar – *Sarduri I*, mil. avv. 825–810-yillar – *Ishpuini*, mil. avv. 810–786-yillar – *Menua*, mil. avv. 786–764-yillar – *Argishti I*, mil. avv. 764–735-yillar – *Sarduri II*, mil. avv. 735–712-yillar – *Rusa I*, mil. avv. 712–685-yillar – *Argishti II*, mil. avv. 685–645-yillar – *Rusa II*, mil. avv. 645–625-yillar – *Sarduri III*, mil. avv. 625–605-yillar – *Erimena*, mil. avv. 605–590-yillar – *Rusa III*.

**URUK** (shumeriycha – *Unug*, Bibliyada – *Erex*, yunoncha – *Orxoya*) – Shumerdagi shahar-davlat. Mil. avv. 28–27-asrlarda (epik rivoyatlarda saqlanib qolgan yarim afsonaviy hukmdorlar *Enmerkar*, *Lugalband*, *Gilgameshlar* davrida) Qadimgi Mesopotamiyadagi shahar-davlatlar Uruk gegemonligi ostida bo'lgan (Urukning 1-sulolasi). Mil. avv. 24-asrda Lugalzaggisi davrida Uruk *Shumer* poytaxti edi. 22-asr oxirida Uruk podshosi *Utuxegal* Ikki daryo oraliq'ida “*Shumer va Akkad podsholigi*” barpo etgan, uning vafotidan so'ng hokimiyat *Ur-Nammu* – *Urning III sulolasi* asoschisi qo'lga o'tgan. Uruk mil. avv. 1-mingyillik oxiriga qadar muhim shaharligicha

qolgan. Mil. avv. 8–2-asrlarda – *Bobil*, so'ngra *Ahamoniylar* va *Salavkiylar* davlati tarkibiga kirgan. Milodiy 3-asrda sasoniylar tomonidan vayron qilingan. Uruk o'rnida hozirda *Varka posyolkasi* (*Nosiriya* shahridan 65 km shimoli g'arbda) joylashgan. Urukda nemis arxeologlari tomonidan 20-asr boshidan muntazam ravishdagi arxeologik qazish ishlari olib borilgan.

**UZUNQIR** – O'zbekistondagi qadimgi shahar xarobasi. Zarafshon tizmasidan bosh olgan Sho'robsoy bo'yida (Kitob tumani) joylashgan. 1981-yilda ToshDU O'rta Osiyo arxeologiya kafedrasida ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topib tekshirilgan. Uzunqir o'rnida mil. avv. VIII–VII asrlarda qadimgi manzilgoh bo'lgan. Mil. avv. VII–VI asrlarda 70 ga maydonni egallagan. Uzunqir Kitob-Shahrisabz vohasining iqtisodiy va ma'muriy markaziga aylangan. Uzunqirdan Taxtaqoracha dovoni orqali qadimgi Samarqand (Marokanda)gacha bo'lgan masofa 70 km ni tashkil qilgan. Shahar Marokanda-Baqtra karvon yo'li bo'yida joylashib muhim savdosotiq va hunarmandchilik ahamiyatiga ega bo'lgan. Uzunqir – O'zbekiston hududida ilk shaharsozlik tuzilmasining shakllanishi namunasi. Uning yirik o'troq dehqonchilik vohasining markazi sifatida qo'rg'on-qarorgohi, guzarlari bo'lgan. Uzunqir topilmalari – sopol idishlar, jezdan va temirdan ishlangan mehnat va harbiy qurollari shaharda hunarmandchilik kasbi yuqori darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Arxeologlar Kitob-Shahrisabz vohasiga, umuman Qashqadaryo viloyatining tog'oldi sharqiy qismiga “*Avesto*”da keltirilgan *Gava*, *Gau*, *Gava Sug'dda* (*sug'diylar* yashaydigan makon, “*Sug'd makoni*”) tushunchasi tegishli bo'lganligini taxmin qiladilar. Ushbu so'zning o'zi Qashqadaryoning sharqiy qismidagi ko'pgina zamonaviy atamalarda saqlanib qolgan. Mil. avv. VII–VI asrlarda *Gava Sug'di* viloyati *Navtaka* deb atalgan. Navtaka viloyati Zarafshon tizmasidan boshlanib O'radaryo vohasigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Viloyat markazi. Uzunqir qal'asi bo'lgan. Mil. avv. III–II asrlarda viloyat markazi Uzunqirdan Kitob shahri o'rnida asos solingan Yangi shaharga ko'chadi. Yozma manbalarda *Suse* deb atalgan bu nom “*Sug'da*”, “*Sug'ud*”, ya'ni *Sug'diyona* tushunchalaridan kelib chiqqan.

**VASHSHUKAN** – Qadimgi Mitanni davlatining poytaxti.

**XARA** – Zardushtiylarning muqaddas tog'i, dunyoda eng baland cho'qqili tog'.

**XARAPPA** – Xarappa madaniyati bosh markazlaridan birining xarobasi. Pokistonning Mo'ltan viloyatidagi Ravi daryosining eski o'zani yaqinida

joylashgan. XIX asrning 50-yillarida ingliz olimi *A. Kanningxem* tomonidan ochilgan. Keyinchalik ingliz va hind arxeologlari *J. Marshall, E. Makkey, M. Uiler, D. Saxni, R. Banerjilar* tadqiq qilganlar. Qishloq 260 gektardan ziyod maydonni egallab, qal'a va quyi shahar qismidan iborat bo'lgan. Shahar qismi aniq reja asosida qurilgan, u kvartallarga bo'lingan, ishlab chiqarish, xo'jalik majmualari (g'alla ombori, tegirmonlar, quyish ustaxonalari) mavjud bo'lgan. Xarappadan topilgan boshqa moddiy madaniyat yodgorliklari Xarappa madaniyatining barcha qishloqlari uchun ham xosdir.

**XETT PODSHOLIGI** — Kichik Osiyodagi qadimgi davlat (mil. avv. 18–12-asr boshlari). Tarkibiga xetlar, xattlar va boshqalar etnik guruhlar kirgan. Xetlar podshosi *Anitta* davri (taxminan 18-asr)da Anatoliyaning ba'zi viloyatlari birlasha boshlagan. U Nesa, Xattusa, Zalpuva shaharlarini bosib olgan. Kussar shahrini poytaxt qilgan. Qadimgi xett sulolasining asoschisi — *Labarna* (17-asr boshlari) Xett podsholigi hududini kengaytirgan. Labarnaning vorisi *Xattusilis I* davrida (17-asr o'rtalari)da Kichik Osiyoning shimolidagi Salpa shahri va Kichik Osiyoning bir qancha janubi-sharqiy viloyatlari batamom bosib olingan. U poytaxtni Xattusaga ko'chirgan. Xattusili I ning o'g'li *Mursili I* (17-asr oxiri) davrida Xett podsholigining harbiy qudrati nihoyatda oshgan. 14–12-asrlarda Xett podsholari Shimoliy Suriya va Shimoliy Mesopotamiyada yashaydigan xurriy qabilalardan bo'lgan. Podsho *Suppiluliummas I* (14-asr boshlari) uzoq davom etgan urushlardan keyin Mitanni (Shimoliy Mesopotamiyadagi qadimgi davlat)ni bosib olgan. Ugarit (Shimoliy Finikiyadagi qadimgi shahar-davlat)ni o'z vassaliga aylantirgan. *Mursili II* hukmronligi (14-asr oxiri)dan boshlab Xett podsholigi bilan Misr o'rtasida Suriya uchun kurash ketgan. 13-asr oxiri — 12-asr boshlarida Xett podsholigi o'zaro urushlar, qaram viloyatlar va ittifoqdosh podsholiklarning ajralib ketishi tufayli inqirozga uchragan. Qadimgi Xett podsholigining oxirgi yirik podshosi *Telepen* (16-asr oxiri) bo'lgan. Kichik Osiyoning sharqiga janub va g'arbdan xalqlarning ko'chib kelishi bilan podsholik barham topgan.

**XUANXE** — “*Sariq daryo*” ma'nosini anglatib, uning o'rta oqimida *Qadimgi Xitoy* davlati vujudga kelgan. Xuanxe o'zanini tez-tez o'zgartirib turgan. O'rtacha har ikki-uch yilda bir marotaba g'orator va sertalafot suv toshqinlari bo'lib o'tgan. Shuning uchun ham xitoyliklar Xuanxe daryosini “*tentak daryo*”, “*Xitoyning sho'ri*”, “*ming ofatlar keltiruvchi daryo*” deb ham ta'riflagan.

**YAMXAD DAVLATI** — mil. avv. XVIII asrda Shimoliy Suriyaga bostirib kirgan amoriy qabi-

lalarining sardori *Sumuepax* asos solgan davlat. U Karxemish bilan Katna shahri oralig'idagi Suriya yerlari ustidan hukmronlik qiladi. Sumuepax vafotidan keyin Yamxad davlati taxtiga uning vorisi *Yarimlim* o'tiradi. Bu davrda Yamxadning poytaxti *Xalap* shahri bo'lgan. U Bobil podshosi Xammurapi va Mari podshosi Zimrilimga zamondosh bo'lgan. Yamxad Mari va Bobil bilan qizg'in savdo ishlarini olib borgan. Mil. avv. XVIII asr oxirlarida Yamxad davlati yemirilib, o'z mustaqilligini yo'qotadi.

**YERQO'RG'ON** — O'zbekistondagi qadimgi shahar xarobasi (mil. avv. IX–VIII asrlar — mil. avv. VI asr). Qarshi shahridan 10 km shimolda joylashgan. Tarixiy manbalarda *Baxl, Bolo, Valaam, Nashebolo* deb tilga olinadi. Yerqo'rg'onda dastlab Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolari (*L. I. Zimin, I. Kastane*), keyinchalik arxeologlar *A. I. Terenojkin* (1946), *S. K. Kabanov* (1946–1972 tanaffus bilan), *Y. G'ulomov* (1959–1964), *M. E. Masson* (1963–1964) tekshirishlar olib borgan. 1973-yildan O'zbekiston FA Arxeologiya qazish institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi qazish ishlari olib boradi. Yerqo'rg'on xarobasi qal'a va shahristondan iborat bo'lib, umumiy maydoni 150 ga, burjlar bilan mustahkamlangan 2 qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Qazish vaqtida eng qadimgi mudofaa devori qoldiqlari topilgan (mil. avv. VIII–VII asrlar).

**YUQORI MISR DAVLATI** — mil. avv. 4-mingyillikning o'rtasida Nil daryosining tog' vodiysida tashkil topgan davlat.

**SHAN** — Xitoyda mil. avv. XVIII asrda *Chen Tan* tomonidan asos solingan davlat. Mil. avv. XVII asrda Shan davlati *Shan-In* deb atala boshlanadi. Mil. avv. XIII asrning 2-yarmida *U-Din podsholigi* davrida kuchaygan, mil. avv. XII asrda esa tushkunlikka uchragan. Mil. avv. 1027-yilda *Chjou* qabilalari *U Van* boshchiligida In davlatini tor-mor etgan. **Shan davlati hukmdorlari:** mil. avv. 1766–1753-yillar — *Chen Tan*, mil. avv. 1753–1720-yillar — *Tay-Szi*, mil. avv. 1720–1691-yillar — *Vo-Din*, mil. avv. 1691–1666-yillar — *Tay-Gen*, mil. avv. 1666–1649-yillar — *Sayo-Szya*, mil. avv. 1649–1637-yillar — *Yun-Szi*, mil. avv. 1637–1562-yillar — *Tay-U*, mil. avv. 1562–1549-yillar — *Chjun-Din*, mil. avv. 1549–1534-yillar — *Vay-Jen*, mil. avv. 1534–1525-yillar — *Xe-Dan-szya*, mil. avv. 1525–1506-yillar — *Szu-I*, mil. avv. 1506–1490-yillar — *Szu-Sin*, mil. avv. 1490–1465-yillar — *Vo-Szya*, mil. avv. 1465–1433-yillar — *Szu-Din*, mil. avv. 1433–1408-yillar — *Nan-Gen*, Mil. avv. 1408–1401-yillar — *Yan-Szya*, mil. avv. 1401–1373-yillar — *Pan-Gen*, mil. avv. 1373–1352-yillar — *Syao-Sin*, mil. avv. 1352–1324-yillar — *Syao-I*, mil. avv. 1324–1265-yillar — *U-Din*, mil. avv. 1265–1258-

yillar – *Szu-Gen*, mil. avv. 1258–1225-yillar – *Szu-Szya*, mil. avv. 1225–1219-yillar – *Lun-Sin*, mil. avv. 1219–1198-yillar – *Gen-Din*, mil. avv. 1198–1194-yillar – *U-I*, mil. avv. 1194–1191-yillar – *Tay-Din*, mil. avv. 1191–1154-yillar – *I*, mil. avv. 1154–1122-yillar – *Chjou-Sin*.

**SHUMER (*Sumer*)** – Janubiy Mesopotamiya (hozirgi Iroqning janubiy qismi)dagi tarixiy viloyat. Mil. avv. 3-mingyillik oxirigacha Shumerda shumerlar va qisman sharqiy somiylar – akkadlar yashagan. Taxminan mil. avv. 3000-yilda u yerda sinfiy jamiyat va davlat vujudga kelgan. Ilk sulolalar davri (mil. avv. 2700–2300)da Shumerda mixxat paydo bo'lgan. Shumerdagi quldorlik shahar davlatlari (*Uruk, Kish, Ur, Lagash, Akkad* va boshqa) o'rtasida gegemonlik uchun kurash avj olgan. Mil. avv. 24-asrda Akkad hukmdori Sargon butun Mesopotamiyani o'z qo'l ostida birlashtirgan. Keyinchalik Shumer Bobil davlati tarkibiga qo'shib olingan.

**SHO'RTO'QAY** – bronza davriga oid arxeologik yodgorlik. 6 ta alohida joylashgan tepaliklardan iborat. Shimoliy Afg'onistonda, Ko'kcha daryosining Amudaryoga quyilish joyida, Amudaryoning chap

sohilida joylashgan. Sho'rto'qay makoni mil. avv. 3-mingyillik oxiri – 2-mingyilliklarda xarappaliklarning O'rta Osiyoning turli hududi bilan bo'lgan iqtisodiy-madaniy aloqalarida muhim oraliq punkti vazifasini bajargan. Xususan, bu yodgorlik orqali tranzit ahamiyatga ega bo'lgan muhim yo'llar o'tgan. Sho'rto'qay orqali Badaxshondagi lojuvard konlari mahsulotlari Shimoliy Hindistonga yetkazib berilgan. Bronza davrida Zarafshon daryosining yuqori oqimida, Panjikent yaqinida joylashgan Sarazm, Zarafshon vohasidagi Qarnob konlari, Janubiy O'zbekistondagi Sopolli va boshqa makonlarni Shimoliy Hindiston bilan bog'lovchi asosiy aloqa yo'li Sho'rto'qay orqali o'tgan. Bu makon orqali Amudaryoning chap qirg'og'i bo'ylab Quyi Zarafshon vohasi va Amudaryoning quyi oqimiga qarab ketuvchi yo'l ham o'tgan. Sho'rto'qayning yuqori madaniy qatlamlaridan bronza davri Dasht madaniyatiga mansub moddiy topilmalar topilgan. Ularga asoslanib Sho'rto'qay makoni mil. avv. 2-mingyillik o'rtalariga kelib mahalliy chorvador qabilalar ta'siriga tushganligi haqida fikr yuritish mumkin.

## TARIXIY SANALAR

**600–500 ming yil ilgari** – Hindistonda eng qadimgi odamlar yashagan.

**500–600 ming yil ilgari** – Xitoyda eng qadimgi odamlar yashagan.

**80–90 ming yil avval** – Misrda ibtidoiy odamlar yashagan.

**80–90 ming yil ilgari** – Falastinda ibtidoiy odamlar yashab kelgan.

**70–80 ming yil ilgari** – arxeologlar *Dajla* va *Zab* daryolari bo'ylaridan qadimgi odamlarning manzilgohlarini topganlar.

**70–50 ming yil ilgari** – Eronda eng qadimgi odamlar yashagan.

**Mil. avv. 25–30-ming yil avval** – arxeologlar tomonidan *Fayum* vohasida yashagan odamlarning manzilgohlarini topilishi.

**Mil. avv. 10-mingyillik** – Misrda mezolit davri ovchilari yashagan.

**Mil. avv. 8–7-mingyilliklar** – Suriya, Finikiya va Falastinda dastlabki ziroatchilar.

**Mil. avv. 8–7-mingyilliklar** – O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi o'lkalarda ilk o'troq dehqonchilik madaniyati, chorvachilik va savdo-sotiq qaror topdi.

**Mil. avv. 8–6-mingyilliklar** – Mesopotamiyada dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ancha rivojlangan.

**Mil. avv. 8–6-mingyilliklar** – Hindiston hududida o'troq odamlar manzilgohlarining shakllanishi.

**Mil. avv. 8–6-mingyilliklar** – Eronning ibtidoiy qabilalari termachilikdan dehqonchilikka, ovchilikdan esa chorvachilikka o'ta boshlaganlar.

**Mil. avv. 7–6-mingyilliklar** – Qadimgi Misrda 750 belgi-rasmdan iborat bo'lgan iyeroglifning shakllanishi.

**Mil. avv. 7–6-mingyilliklar** – Qadimgi Misr adabiyotini vujudga kelishi.

**Mil. avv. 6-mingyillik** – Eronning janubi g'arbida xo'jalik rivojlanib, xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish sodir bo'ldi.

**Mil. avv. 6–4-mingyilliklar** – Qadimgi Suriya va Finikiyada xo'jalik yanada rivojlanib, o'lkada katta-kichik qishloqlar paydo bo'ldi. Aholi orasida xususiy mulkchilik, tabaqalanish boshlanib, odamlar boy va kambag'allarga bo'lina boshladilar.

**Mil. avv. 6–4-mingyilliklar** – Qadimgi Suriya va Finikiyada dehqonlar ekin yerlarini kengaytirib bug'doy va arpadan tashqari tariq va zig'ir ham ekkanlar.

**Mil. avv. 5–4-mingyilliklar orasi** – Mesopotamiyada yangi yerlar ochilib, katta-kichik kanal, ariq, suv omborlari qurilgan.

**Mil. avv. 5–4-mingyilliklar** – *Kura* va *Araks* daryolari vodiysida arman va gruzinlarning avlodla-

ri – *urartlar* dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar yashaganlar.

**Mil. avv. 4-mingyillik** – Misrda dastlabki shi-foxonalarning paydo bo'lishi.

**Mil. avv. 4-mingyillik** – Misrda 42 davlat bo'lgan.

**Mil. avv. 4-mingyillik** – odamlar Nil vodiysidagi sermashaqqat turmush sharoitlariga moslasha boshladi. Tarqoq manzilgohlar “*nom*” deyilgan ilk davlatlarga birlashdi va Misrda shahar-davlatlar vujudga keldi.

**Mil. avv. 4-mingyillik** – Mesopotamiyada shumerlar manzilgohlari vujudga kela boshladi. Ular Janubiy Mesopotamiyaga joylashib, bu yurtni *Shumer* deb atadilar. Mamlakatning *Akkad* deb atalgan shimoliy qismiga akkadlar o'rnashdi.

**Mil. avv. 4-mingyillik** – Shumer yozuvi vujudga keldi. Shumer yozuvi suratli yozuv bo'lgan. Bu yozuv dastavval “*suv*”, “*quyosh*” va boshqa alohida so'zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo'lgan.

**Mil. avv. 4-mingyillik** – Mesopotamiyada eng qadimgi adabiy asarlarni bitilishi.

**Mil. avv. 4-mingyillik** – *Karun*, *Kerxa* va boshqa daryolarida yashovchi aholi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan.

**Mil. avv. 4–3-mingyilliklar** – *Ugarit*, *Arvad*, *Bibl*, *Sidon*, *Tir*, *Damashq*, *Kadesh*, *Ebla* kabi shahar-davlatlarining Suriya va Finikiyada tashkil topishi.

**Mil. avv. 4–3-mingyilliklar** – Hind daryosi vodiysida dehqonchilik vujudga kelishi.

**Mil. avv. 4–3-mingyilliklar** – Xitoy hududida aholi tarqalib joylashishi boshlangan.

**Mil. avv. 4–2-mingyilliklar** – Uruk, El-Ubayd, Ur, Eshnunna, Mari va boshqa joylarda ibodatxonalar qurilgan.

**Mil. avv. 4-mingyillik boshi** – dastlabki qabilalar Nil vohasiga ko'chib o'rnashganlar.

**Mil. avv. 4-mingyillik oxiri** – Mesopotamiyada *Uruk*, *Umma*, *Lagash*, *Ur* kabi shaharning o'zi va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo'lgan shahar-davlatlar vujudga kela boshladi.

**Mil. avv. 4–1-mingyilliklar** – Ossuriyada dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi.

**Bundan 5000 yil muqaddam** – *Shumer* shaharlari orasida eng qudratlisi *Ur* shahri paydo bo'ldi.

**4–5 ming yil ilgari** – O'rta Osiyo aholisi Hindiston, Eron va Old Osiyo o'lkalari bilan madaniy munosabatda bo'lgan.

**3,5–4 ming yil ilgari** – Qadimgi xitoyliklar o'zlarining yozuvlarini yaratganlar.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – Xitoyda qabilalar ittifoqlari paydo bo'la boshladi.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – Mesopotamiyada turli-

tuman dori-darmonlarni tayyorlash bo'yicha dasturilamal tuzilgan.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – shumer tilida astro-nomiyadan ilmiy asar yaratilgan.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – mixxat yozuvi Shumerda ixtiro qilinib, keyinchalik boshqa mamlakatlarga yoyildi.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – Hind daryosi vodiysida yagona davlatga birlashgan katta shaharlar vujudga kela boshladi.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – Eronning g'arbiy qismida Mesopotamiya bilan chegarada *Elam* davlati vujudga keldi. Bu davlatning poytaxti *Suza* shahri bo'lgan. Elamda jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri yaratilgan edi.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – Falastinda bronza kashf qilindi.

**Mil. avv. 3-mingyillik** – elamliklar 150 belgi-rasmdan iborat mustaqil yozuvga ega bo'lganlar. Keyinchalik 80 belgidan iborat yozuv kashf etilgan.

**Mil. avv. 3-mingyillik boshlari** – Eronda poytaxti *Suza* bo'lgan *Elam* davlati tashkil topdi.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri – 2-mingyillik boshlari** – Kichik Osiyoda juda ko'p qabilalar yashaganlar. Ular birlashib *Nesa*, *Kanish*, *Burusxand*, *Kussar* va *Xattusa* kabi alohida shahar-davlatlar tuzganlar.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri va 2-mingyillik boshi** – Kichik Osiyoda shahar-davlatlar tashkil topdi.

**Mil. avv. 3–2-mingyilliklar** – Falastinda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va chorvachilik ancha rivoj topgan, mulkiy tabaqalanish paydo bo'ldi. Falastinning *Gezer*, *Megiddo*, *Laxish*, *Qaddus* kabi shahar-davlatlari tashkil topgan.

**Mil. avv. 3–2-mingyilliklar** – Hindiston hududida *Mohenjodaro* va *Xarappa* sivilizatsiyalari tashkil topishi.

**Mil. avv. 3–2-mingyilliklar** – Hind vodiysida dastlabki davlatlarning rivojlanishi.

**Mil. avv. 3–2-mingyillik** – hindlar katta-kichik sonlarga yonma-yon qo'yilgan nolni, shuningdek birdan to'qqizgacha bo'lgan sonlar va ularning belgisiga asos solishlari.

**Mil. avv. 3–2-mingyillik** – Xitoyda *Xuanxe* va *Yanszi* kabi katta daryolar bo'ylarida ilk sivilizatsiyalar kurtak yoya boshladi. Qadimgi Xitoy davlati *Xuanxe* daryosining o'rta oqimida vujudga keldi.

**Mil. avv. 3–2-mingyillik** – Eron, xususan *Elam* va *Midiyada* dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlangan.

**Mil. avv. 3–2-mingyilliklar** – Xunnlarning ajdodlari ovchilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib tirikchilik o'tkazganlar.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri** – *Akkadlar* butun Mesopotamiyani egallab oldilar.



**Mil. avv. 3-mingyillik o'rtalari** — *Lagash* davlati yuksala boshladi, Shumer va Akkadning ko'pgina shaharlari Lagashga qo'shib olindi. Savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida Sargon I barcha shaharlar uchun yagona bo'lgan uzunlik, maydon va og'irlik o'lchovini joriy etadi.

**Mil. avv. 3-mingyillikning 2-yarmi** — Qadimgi Panjob va Hind daryosi vodiysi tepasida podsho turgan davlatlar vujudga kelgan.

**Mil. avv. 3-mingyillik o'rtalari** — Shumer podshosi *Sargon I* Akkadni o'z hokimiyati ostida birlashtiradi.

**Mil. avv. XXVIII–XXVII asrlar** — *Kish* shahar-davlatining kuchayishi.

**Mil. avv. XXVII–XXVI asrlar** — *Uruk* shahar-davlatining kuchayishi.

**Mil. avv. XXV–XXIV asrlar** — *Ur* shahar-davlati kuchayib, *I Ur* sulolasi vakillari Shumerda hukmronlik qilganlar.

**Mil. avv. XXIV asr o'rtasi** — *Akkad* va *Shumer* urushlarida Akkad g'olib chiqib, Akkad davlatiga asos soldi.

**Mil. avv. XXIV asr oxiri** — *Lagash* davlati kuchsizlanib mamlakatda norozilik kuchaydi. Lagashda davlat to'ntarishi bo'lib hokimiyat tepasiga *Uriningin* keladi.

**Mil. avv. XXIV asr oxiri** — *Umma* shahar-davlati kuchayib, Shumer ustidan hukmronlik qiladi. Umma shahar-davlati hokimi *Lugal-zaggisi* Lagashga bostirib kirib shaharni vayron etib boyliklarini talab qaytadi.

**Mil. avv. XXIII–XX asrlar** — Akkad podsholigini *guteylar* itoat ettiradi va 125 yil hukmronlik qiladi.

**Mil. avv. XX asr oxiri–XIX asr boshi** — Shumer-Akkad podsholigi parchalanib, kuchsizlanib qolganidan foydalangan *amoriy* va *elam* qabilalari Mesopotamiyaga bostirib kira boshlaganlar.

**Mil. avv. 2-mingyillik boshi** — *amoriy* qabilalari *Larsa*, *Mari*, *Ashshur* va *Bobil* kabi shaharlarni bosib olganlar.

**Mil. avv. XIV asr oxiri – XIII asr** — Mesopotamiyada kassitlar hukmronligi kuchsizlanadi. Xetlar, elamliklar, ossurlar va mahalliy xalqlar bilan olib borilgan betinim urushlar natijasida kassitlarning Mesopotamiyadagi hukmronligi barham topadi.

**Mil. avv. XXIII–XXII asrlar** — elamliklar shumer-akkadning mixsimon yozuvidan foydalanganlar.

**Mil. avv. XXII asr boshi** — *Kutik-Inshushinak* Elamni birlashtirib, uni yagona davlatga aylantiradi. Shu vaqtda Elamga shimoldan *guteylar* bostirib kirib, uni o'zlariga tobe qilib oladilar.

**Mil. avv. XXII–XVI asrlar** — Iik Ossur podsholigi davri.

**Mil. avv. XXIV–XXIII asrlar** — Qadimgi Misr davlatini kuchsizlanishi, qadimgi Misr davlati

parchalanib keta boshlashi, podsholikka itoat etgan davlatlar mustaqil bo'lish uchun intilganlar.

**Mil. avv. XXIII asr** — Qadimgi Misr mayda davlatchalarga bo'linib ketdi.

**Mil. avv. XXIII asr o'rtasigacha** — Qadimgi Misrda tarqoqlik davri davom etdi.

**Mil. avv. XXI asr** — Elam kuchayib, mustaqillikka erishib, Urni o'ziga qaratdi va Janubiy Shumerni bosib oldi.

**Mil. avv. XXI asrgacha** — Elam davlati Shumer va Akkad davlatlariga qaram bo'lib qoldi.

**Mil. avv. XXI asr oxiri** — Qadimgi Misrni qaytadan birlashtirish uchun kurashning boshlanishi.

**Mil. avv. XX–XVIII asrlar** — Ossuriya kuchayib, Ossur podsholari Fors qo'ltig'i, Kichik Osiyo va O'rtayer dengizi sohilidagi boy mamlakatlar ustiga qo'shin tortib borganlar. U yerlardan juda katta o'ljalar, sanoqsiz asirlar olib qaytganlar.

**Mil. avv. XX asrlar** — *Ossuriya* davlati vujudga keldi.

**Mil. avv. XX–XVI asr boshlari** — Finikiya va Suriyaning ayrim shahar-davlatlari, xususan *Bibl* Misrga tobe bo'lgan.

**Mil. avv. 2-mingyillik boshi** — *Sya* xonadoniga mansub kishilar qabilalarni birlashtirib, Sharqiy Xitoyda davlat barpo etganlar.

**Mil. avv. 2-mingyillik** — Kichik Osiyoda yilqichilik va otlarning turli zotlarini yetishtirish rivojlantirildi.

**Mil. avv. 2-mingyillik** — Xitoyda qadimiy davlatlarning vujudga kelishi.

**Mil. avv. 2-mingyillik** — *Shumer-Akkad* davlati ko'chmanchi qabilalar zarbasidan parchalandi.

**Mil. avv. 2-mingyillik** — *Bobil* podsholigi tashkil topdi va Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi.

**Mil. avv. 2-mingyillik** — *finikiyaliklar* Kipr oroli va Kichik Osiyo sohillarida koloniyalarga asos soldilar. Shundan keyin finikiyaliklar Afrika, Ispaniya, Sardiniya va Sitsiliya orollarida ham bo'lishdi.

**Mil. avv. 2-mingyillik** — Xitoyda qadimiy iyeroglif yozuvining vujudga kelishi.

**Mil. avv. 2-mingyillik** — Xitoy astronomlari astronomik kuzatishlarni boshlashlari.

**Mil. avv. 2-mingyillik** — Suriyada *Bobil* mixxati asosida tuzilgan 29 belgidan iborat alifbo kashf etilgan.

**Mil. avv. 2-mingyillik oxiri** — Xitoyda yagona "*Shan*" davlati tashkil topdi.

**Mil. avv. 2-mingyillik oxiri** — *Shan* davlatiga qo'shni *chjou* qabilasi bostirib kirdi, uning hukmdori *Shan* yerlarini o'zinikiga qo'shib oldi va "*Chjou*" deb nom olgan ulkan davlatni bunyod etdi. Davlat ulkanligi bois hukmdorlar uni "*Zafaryor*" yoki "*O'rt*

*podsholik*” deb, o‘zlarini esa “*Osmon o‘g‘illari*” deb atashadi. Butun Markaziy Xitoy *Chjou* imperiyasi tarkibiga kirdi.

**Mil. avv. 2-mingyillikning 1-yarmi** – Bobil markazlashgan davlatga aylandi. Ruhoniylar Mardukni butun olamni yaratuvchi bosh xudo deb ta’riflaganlar.

**Mil. avv. 2-mingyillik o‘rtasi** – Falastinda temir kashf qilindi.

**Mil. avv. 2-mingyillik o‘rtasi** – Old Osiyo hududida o‘lkada yashagan xalqlarni birlashtirgan ilk davlatlar vujudga kela boshladi: *Xett*, *Mitaniya*, *Ossuriya*, *Urartu*, *Finikiya* shahar-davlatlari. Bu davlatlar doimiy bosqinchilik va mudofaa urushlarida kun kechirishgan.

**Mil. avv. 2-mingyillik o‘rtasi** – oriylarning bir qismi Sulaymon, Hindikush va Janubiy Badaxshondan oshib o‘tib Panjob viloyatini bosib olganlar.

**Mil. avv. 2-mingyillik o‘rtasi** – Falastinga qadimgi *yahudiy* qabilalari ko‘chib o‘rnashdilar.

**Mil. avv. 2-mingyillik boshi** – Farg‘ona vodiysida metall buyumlar xazinasini topildi. Bular haykalsimon tasvir tushirilgan kumush va bronza to‘g‘nag‘ichlari bo‘lib, Eronning qadimgi manzilgohlaridagi qazishmalarida topilgan.

**Mil. avv. 2-mingyillik 2-yarmi** – Kichik Osiyoga axeylar, dengiz xalqlari va frigiylar, kimmeriylar, eroniylar, yunonlar va rimliklar kirib kelib joylashganlar.

**Mil. avv. 2-mingyillikning 1-yarmi** – Kavkazortida yashagan qabilalar orasida tabaqalanish sodir bo‘la boshlaydi.

**Mil. avv. 2-mingyillikning 2-yarmi** – Urartuda ot paydo bo‘lgan.

**Mil. avv. 2-mingyillik oxiri va 1 mingyillik boshi** – Urartuda tuyalar paydo bo‘lgan.

**Mil. avv. XIX asr** – Arabistonning shimoliy-sharqida giksoslarning harbiy ittifoqining tashkil topishi.

**Mil. avv. XIX–XVII asrlar** – Falastin shaharlari gullab-yashnagan.

**Mil. avv. XVIII asr boshlari** – Kussar hukmdori Pitxan Kichik Osiyo yarimorolining sharqiy qismini birlashtirib o‘zini podsho deb e‘lon qildi. Uning o‘g‘li Anitta uzoq davom etgan janglardan so‘ng Nesa, Xattusa va Zalpuva kabi shahar-davlatlarni bosib olib Xett podsholigiga asos soldi va Nesa shahrini uning poytaxtiga aylantirdi.

**Mil. avv. XVIII asr** – Syalarni yenggan *Shan* qabilasining vakili *Chen Tan* davlat tuzib, uni o‘z qabilasi *Shan* nomi bilan ataydi.

**Mil. avv. XVIII asr o‘rtasi** – giksoslarning Misrning zaiflashib qolganligidan foydalanib, Quyi Misr yerlariga bostirib kelishi.

**Mil. avv. XVIII–XIII asrlar** – Xitoyda dastlabki quldorlik davlati tashkil topgan.

**Mil. avv. XVII asr** – Shan sulola *Shan-In* deb atala boshlagan. Bu davlatning poytaxti *Shan* shahri bo‘lgan.

**Mil. avv. XVI asr** – Finikiyada qo‘rqmas dengizchilar va ishbilarmon savdogarlar Kipr oroli Kichik Osiyoning janubiy sohillari va butun Egey dengizi orollari va sohillarida o‘z manzilgohlarini barpo etganlar.

**Mil. avv. XVI asr boshi** – Qadimgi Misrda 17-sulolaga mansub Fiva podsholarining boshchiligida giksoslarga qarshi ozodlik, mustaqillik uchun kurashning boshlanishi, bu kurashning Kamesu davrida ayniqsa kuchayishi.

**Mil. avv. XVI–XV asrlar** – Bobil hukmdori Xammurapi davrida Ossuriya Mitanni davlatiga qaram bo‘lgan.

**Mil. avv. XVI–XV asrlar** – Mitanni davlati kuchayib, Kichik Osiyo, Suriya va Falastinga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan.

**Mil. avv. XVI asr oxiri** – XV asr boshlaridan – Ossuriya kuchaya borib Bobil va Mitanni asoratidan ozod bo‘lib oldi.

**Mil. avv. XVI asr oxiri** – XV asr – Qadimgi Xettda Telepen vafotidan keyin o‘g‘illari o‘rtasida toj-u taxt uchun kurash.

**Mil. avv. XV asr** – Mitanni goh Misr, goh Xett, goh Ossuriya bilan urushlar olib bordi.

**Mil. avv. XVIII asr** – Bobil podshosi *Xammurapi* butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. *Xammurapi* hukmronligi davrida Bobil eng qudratli davlatga aylandi.

**Mil. avv. XVIII asr** – Kichik Osiyoda poytaxti *Xattusas* shahri bo‘lgan *Xett podsholigi* tashkil topdi.

**Mil. avv. XVIII asr** – Hind vodiysi manzilgohlari tez-tez ro‘y beruvchi toshqinlar, o‘rmonlar va changalzorlar kengayishi hamda tuproq oriqlab ketishi tufayli zavolga yuz tutdi.

**Mil. avv. XVIII asr oxiri** – ko‘chmanchi *giksos* qabilalari Misrga hujum qildi.

**Mil. avv. XVIII asr oxiri** – Yaxmad davlati yemirilib o‘z mustaqilligini yo‘qotdi.

**Mil. avv. XVIII–XVII asr** – Yaxmaddan janubdagi poyonsiz joylarda giksoslar harbiy ittifoqi tashkil topadi.

**Mil. avv. XVII asr oxiri** – XVI asr boshi – *Mitanni davlati* tashkil topdi. Mamlakat aholisining asosiy qismini hurritlar tashkil etganlar.

**Mil. avv. XVI–XIII asr** – *Xarappa* va *Moxenjo-*

*doro* shaharlari xarobazorga aylanib inqirozga yuz tutgan.

**Mil. avv. XV–XIV asrlar** – Kavkaz tog'larini ortidagi Sevan, Van va Urmiya ko'llari atrofida Urartu nomi bilan mashhur bo'lgan juda ko'p jangovar qabilalar yashar edilar.

**Mil. avv. XV–X asrlar** – Van ko'li atrofidagi qabilalar *Urartu* atrofida birlashdilar.

**Mil. avv. XIV asrgacha** – Elam o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Keyinchalik Elam bobilliklarga tobe bo'lib qoldi.

**Mil. avv. XIV asr boshi** – Xetlar podsholigi kuchaya boshladi. Xetlar O'rtayer dengizi bo'ylarini jang qilib qaytarib oldilar, Mitanniya podsholigini zabt etdilar. Faqat Ossuriya tahdidi xavf-xatari ostida xetlar Misr hukmdori bilan sulh tuzishga majbur bo'ldilar.

**Mil. avv. XIV asr oxiri** – shimoldan xetlar Shimoliy Suriyaga bostirib keldilar.

**Mil. avv. XIV–XIII asrlar** – Finikiya va Suriyani talashib Misr bilan Xett davlati o'rtasida qattiq janglar bo'lgan.

**Mil. avv. XIII asr** – podsho *Salamansar* hukmronligi davrida Ossuriya podsholigi o'z ravnaqining yuqori cho'qqisiga erishdi.

**Mil. avv. XIII asr** – Suzaning *Dur-Untash* shahridagi zikkuratga kiraverishda sher, buqa, xudo va podshohlarning oltin va kumushdan ishlangan haykallari qurilgan.

**Mil. avv. XIII asr** – Mitanni davlati parchalanib, mayda davlatlarga bo'linib ketdi. U Ossuriya davlatining ta'siriga tushib, o'z mustaqilligini yo'qotdi.

**Mil. avv. XIII asr** – ossur qo'shinlari Bobil va Elam ustiga bir necha bor talonchilik urushlari uyushtirdilar. *Tiglatpalasar I* davrida Ossuriya podsholigi kuchayib shimolda Qora dengiz, g'arbda esa O'rtayer dengizi sohilidagi boy mamlakatlar ustiga qo'shin totib, ularni o'z ta'siriga olgan.

**Mil. avv. XIII asr** – g'arbdan "*dengiz xalqlari*"ning istilosi boshlanib, Suriya va Finikiyaning qirg'oqbo'yi shaharlari talandi va vayron qilindi.

**Mil. avv. XIII asr** – amoriy qabilalarining katta guruhi Shimoliy Suriyaga bostirib kiradilar, ularning sardori *Sumuepax Yaxmad* davlatini tuzib o'zini podsho deb e'lon qildi.

**Mil. avv. XIII asr** – ossur qo'shinlari bir necha bor urartu qabilalar ittifoqi ustiga bostirib kelganlar va jang qilganlar.

**Mil. avv. XIII asr boshi** – Urartu kuchayib Ossur qo'shinlariga bir necha bor zarbalar bergan. Joylardan ossurlarga qarshi qo'zg'olonlar boshlangan. Ossuriya bosib olgan yerlarni qo'ldan boy bergan. Bu esa uning kuchsizlanishiga sabab bo'lgan.

**Mil. avv. XIII asr o'rtasi** – *Tiglatpalasar III*, *Salamansar V*, *Sargon II*, *Ashshurbanipal* va boshqalar davrida Ossuriya yana kuchayadi.

**Mil. avv. XIII asr oxiri** – Bobil podsholigi kuchsizlanib qoldi. Bu vaziyatdan foydalangan Ossuriya va Elam podsholari Bobilga bir necha bor bostirib kirib mamlakatning ko'p yerlarini bosib oldilar.

**Mil. avv. XIII asr oxiri** – tarixda noma'lum xalqlar (ularni "*dengiz xalqlari*" deb atashgan) xetlar poytaxtini bosib olib, butunlay vayronaga aylantirdi. Davlat quladi, xetlar esa boshqa xalqlarga singishib ketdi.

**Mil. avv. XIII asr oxiri** – g'arbdan Kichik Osiyo, O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar va Misrga "*dengiz xalqlari*" hujum boshlaydilar.

**Mil. avv. XIII–XII asrlar** – *Ossuriya* podsholigi qayta yuksalgan davrda *Bobil*, *Bibl*, *Tir*, *Sidon* va *Falastinning* bir qismini bosib oldi.

**Mil. avv. XIII asr oxiri** – **XII asr boshlari** – *Shan-In* davlati kuchsizlanishi. Bundan foydalangan qo'shni qabilalar birin-ketin Shan-Inga hujum boshlaydilar va uning yerlarini bosib oldilar.

**Mil. avv. XII asr** – Ossur podshosi *Tiglatpalasar I* Van ko'li atrofiga bostirib kirib o'z jangovar aravalari va saroylari bo'lgan 23 podsho ustidan g'alaba qilganligini qoyaga yozdirib qoldirgan.

**Mil. avv. XII asr boshi** – *chjou* qabilalari hukmdor Chan – "*Ma'rifatparvar hukmdor*" qo'l ostida birlashib kuchayganlar.

**Mil. avv. XII–VIII asrlar** – Xett podsholigining mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketishi.

**Mil. avv. XII–VIII asrlar** – *G'arbiy Chjou* podsholigi davri.

**Mil. avv. XI asr** – Qadimgi Misrda *so'nggi podsholik davri* yoki *Liviya-Sais* davri.

**Mil. avv. XI asr** – *Urartu* davlati tashkil topdi.

**Mil. avv. XI asr boshi** – g'arb tomondan bostirib kelgan arameylarning zarbalari natijasida Ossur shahar va qishloqlari vayron etiladi. Ossur davlati tushkunlikka uchrab, arameylarga qaram bo'lib qoldi.

**Mil. avv. X asr** – *Isroil davlatining* vujudga kelishi.

**Mil. avv. X asr** – Finikiyada 22 unli harfdan iborat bo'lgan alifbo yaratildi. Yunonlar ana shu alifboni o'zlashtirib, ularga unli harflarni qoshib qo'ydilar.

**Mil. avv. X asr oxiri** – arameylar davlati kuchsizlanib, tushkunlikka uchradi. Bu vaziyatdan foydalanib ossurlar o'zlarini o'nglab oladilar va Yangi Ossur podsholigiga asos soldilar.

**Mil. avv. X–IX asrlar** – Finikiyada *Tir-Sidon podsholigi* vujudga keldi.

**Mil. avv. X–IX asrlar** – Finikiyaning kuchayishi. Finikiya qo'shinlari Shimoliy Afrikadagi Utika,

Kichik Osiyo sohillari, Sitsiliya, Malta va Ispaniyagacha suzib bordilar.

**Mil. avv. 1-mingyillik boshi** – Hindistonda podsho boshqaradigan davlatlar qaytadan tashkil topgan.

**Mil. avv. 1-mingyillik** – Hindistonda bir necha *Magadxa, Koshala, Mallu* kabi davlatlar vujudga keladi.

**Mil. avv. 1-mingyillik** – Hindiston ilm-fan, xususan, astronomiya va matematika sohasida yuksak darajaga erishdi. Hindlar 360 kundan tarkib topgan Quyosh taqvimini tuzadilar. Bu davrda sanash va hisoblashning oʻnlik tizimi keng tarqaladi: hindlar “nol”ni ifodalovchi maxsus belgini oʻylab topishadi, raqamlarni esa bugungi kunda butun dunyo qoʻllaydigan bir tartibda yozadigan boʻldilar.

**Mil. avv. 1-mingyillik** – Oʻrta Osiyoda *Zardushtiylik* dinining keng tarqalishi.

**Mil. avv. 1-mingyillik oʻrtasi** – dehqonchilik Gang vodiysi xoʻjaligining asosiy tarmogʻiga aylangan. Ekinlarni sugʻorishda sunʼiy kanal, ariq va charx-palaklardan foydalanganlar.

**Mil. avv. 1-mingyillikning 1-yarmi** – Xunn aholisining asosiy qismi koʻchmanchi chorvador boʻlgan.

**Mil. avv. IX asr** – Falastinda *Isroil* podsholigi vujudga keldi, keyinchalik *Isroil* podsholigi *Yahudiya* podsholigiga birlashtirildi.

**Mil. avv. IX asr** – Finikiya dengizchilari Afrika shimolidagi baʼzi joylarni bosib olib u yerlarda oʻzlarining qator qishloq va shaharlarini barpo qildganlar. Bu jihatdan Karfagen alohida ahamiyatga ega.

**Mil. avv. IX asr** – *Sardur* hukmronligi davrida *Urartu* davlati gullab-yashnadi. *Tushpa* shahri *Urartu* davlati poytaxtiga aylandi.

**Mil. avv. IX asr** – Eronga midiyaliklar va forslar koʻchib oʻrnashadi.

**Mil. avv. IX asr** – Kaspiy dengizining janubiy gʻarbida *Midiya* podsholigi vujudga keldi.

**Mil. avv. IX asr** – Midiya hududida mayda davlatchalar mavjud boʻlib, ossurlar bu yerga tez-tez hujumlar uyushtirib turganlar. Ossurlar midiyaliklarni talab, ulardan xiroj undirganlar.

**Mil. avv. IX asr oʻrtalari** – *Urartu* mustaqil davlat darajasiga koʻtarilgan edi.

**Mil. avv. IX asr oxiri** – VIII asr boshlari – Finikiyada 24 belgidan iborat yozuv alifbo kashf etishgan (keyinchalik 24 belgili alifbo isloh qilinib, 22 belgidan iborat alifbo kashf etilgan).

**Mil. avv. IX–VIII asr** – *Braxman* dini vujudga kelgan.

**Mil. avv. IX–VIII, VII–VI asrlar** – “*Avesto*”ning qadimgi qismlari: *Yasna, Yasht, Videvdat* yaratilgan.

**Mil. avv. IX–VI asr** – Gang vohasi va Shimoliy Hindistonda xoʻjalik asta-sekin rivojlana borgan. Xoʻjalikni boshqarish, aholi orasida tartib-qoidalarni saqlash va u yoki bu viloyatni tashqi dushmanlar hujumlaridan saqlash uchun davlat zarur edi.

**Mil. avv. VIII asr** – *Urartu* davlatining ravnaqi.

**Mil. avv. VIII asr** – *Ossuriya* davlatining eng kuchaygan davri.

**Mil. avv. VIII asr** – Elam Bobil bilan ittifoq tuzib ossurlarga qarshi kurash boshladi.

**Mil. avv. VIII asr** – *Chjou* davlatining yerlari 9 viloyatga boʻlingan.

**Mil. avv. VIII asr boshi** – Xuanxe daryosining yuqori oqimida yashagan koʻchmanchi *jun* qabilalari *Chjou* podsholigi yerlariga bostirib kira boshladilar.

**Mil. avv. VIII asr oxiri** – kimmeriyalar *Midiya*ga bostirib kirganlar.

**Mil. avv. VIII asrgacha** – elamliliklar oʻz mustaqilligini yoʻqotdilar.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – *Chjou* davlatida markaziy hokimiyat zaiflasha boshladi. Xitoyga koʻchmanchi qabilalar hujum qila boshlaganidan foydalanib qolgan chekka viloyatlar aholisi ajralib chiqib, oʻz davlatini tashkil eta boshladi.

**Mil. avv. VIII–III asrlar** – *Sharqiy Chjou* podsholigi davri.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – *Afrosiyob* (hozirgi Samarqand shahrining sharqiy chekkasi)ga asos solinishi.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – *Ossuriya* podsholigi qayta yuksalgan davrida *Bobil, Bibl, Tir, Sidon* va *Falastinni* bir qismi bosib olindi.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – Misr janubida *Efiopiya* (Kush) davlati ravnaq topdi.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – *parsua* qabilalari Elamga koʻchib *ahamon* urugʻidan chiqqan sardor atrofiga birlashdilar.

**Mil. avv. VIII asrning 2-yarmi** – *Ossuriyaning* kuchayishidan havfsiragan *Urartu* Shimoliy Suriya va Kichik Osiyoning sharqiy qismidagi katta-kichik davlatlar bilan ittifoq tuzdi.

**Mil. avv. VII asr** – *Tir-Sidon* podsholigi *Ossuriya* tomonidan bosib olinishi.

**Mil. avv. VII asr** – *Yangi Bobil* podsholigi vujudga keldi.

**Mil. avv. VII asr** – Xitoyda temir davrining boshlanishi.

**Mil. avv. VII asr** – Podsho *Kiaksar* hukmronligi davrida *Midiya* qudratli davlatga aylandi.

**Mil. avv. VII asr** – *Ossuriya* davlati tarix sahnasidan ketdi.

**Mil. avv. VII asr** – Misrda temir davrining boshlanishi.

**Mil. avv. VII asr** – Misr yana yangi davlatga birlashdi, mamlakatning iqtisodiyoti va madaniyati yuksaldi.

**Mil. avv. VII asr** – *Lidiyada* dunyoda birinchi bor oltin va kumush aralashmasidan tanga zarb qilina boshladi.

**Mil. avv. VII asr** – Finikiyada vujudga kelgan *Tir-Sidon* podsholigi Ossuriya tomonidan bosib olindi.

**Mil. avv. VII asr** – O'rta Osiyoda tashkil topgan eng qadimgi davlat uyushmasi *Qadimgi Baqtriya* va *Qadimgi Xorazm* davlatlarining tashkil topishi.

**Mil. avv. VII asr** – Ossuriyani qaytadan kuchayishi, *Asarxadon* va *Ashshurbanipal* davrida Misrga uch marta Ossuriya qo'shinlarining bostirib kelishi. *Asarxadon* Efiopiya-Misr podshosi *Taxarkani* yengib, o'zini Efiopiya-Misr podshosi deb e'lon qildi.

**Mil. avv. VII asr** – Midiya Qadimgi Sharqdagi qudratli davlatga aylandi.

**Mil. avv. VII asr boshi** – skif qabilalari *Midiyaga* bostirib kirganlar.

**Mil. avv. VII asr oxiri** – Falastin misrliklar tomonidan bosib olindi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – Qadimgi Xitoyda "*Galla podshohliklar*" davri. Xitoyda ayni mahalda "*kurashayotgan podshohliklar*" davri ham boshlandi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – *Sidhartha Gautama* tomonidan *buddizm* diniga asos solishi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – Kaspiy dengizining janubi sharqiy hududlarida *parn-parfiya* qabilalari yashar edi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – Parfiya davlatining Midiya, Eron, Yunon-Makedon va Salavkiylar davlati tarkibida bo'lishi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – Sharqiy Xitoy mayda podshohliklarga bo'linib keta boshlagan. Bularning yiriklari *U*, *Chu*, *Si*, *Szin*, *Sin* va *Yuz* kabi davlatlar edi. Bu Xitoy tarixida *Chjando* – "*Adovatlashtiruvchi podshohliklar*" davri deb atalgan.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – O'zbekistonda qadimgi *Afrosiyob*, *Uzunqir*, *Ko'zaliqir*, *Yerqo'rg'on* va *Qiziltepa* shaharlarining rivojlanishi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – O'zbekiston va O'rta Osiyoning boshqa qo'shni o'lkalari hududida sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, sak va massaget elatlari yashagan. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Bu hududni *So'g'dda* ("Avesto"da), *Sug'uda* (Behistun bitiklarida), Arrian, Strabon, Kvint Kursi Ruf asarlarida *So'g'diyona* deb nomlangan. Bu hududda yashagan aholi *so'g'diylar* deb atalgan.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – O'rta Osiyoda

hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida qadimgi shaharlar rivojlandi. Ular mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo markaziga aylandi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – ilk temir davriga o'tilishi bilan O'zbekistonda dastlabki yirik davlatlar vujudga keldi, shaharlar barpo etildi, dehqonchilik, hunarmandchilik jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan yaqindan madaniy munosabatlar o'rnatilgan.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – O'rta Osiyo hududida saklar, so'g'diylar, baqtriyaliklar, parfiyaliklar va xorazmliklarning joylashuvi.

**Mil. avv. VII–IV asrlar** – Eronda tashqi savdo rivoj topib, savdogarlar Ikki daryo oralig'i, Kichik Osiyo, Misr, O'rta Osiyo, Arabiston, Kavkaz, Hindiston, O'rtayer dengizi atrofidagi davlatlar bilan qizg'in savdo ishlarini olib borganlar.

**Mil. avv. VII–IV asrlar** – O'rta Osiyo jangchilari sovut kiyib, boshlarida dubulg'a bilan jangga tushgan. Xanjar (aqinak) va qilich bilan qurollangan va jangovar oybolta (sagaris) hamda nayza ishlatganlar. Uzoq masofadan turib jang qilish quroli sifatida kamon o'qlaridan foydalanganlar. Jangchilar otda va piyoda jang qila olganlar. Jangovar otlar ustiga va ko'kragiga temirdan to'qilgan bargustuvon yopilgan. Qal'a va shaharlarni himoya qilishda o'q-yoy va palaxmondan foydalanganlar. Tosh irg'itganlar, qaynab turgan suvni sochganlar. Mudofaa maqsadida shuningdek tosh va pishgan g'isht guvalalardan ham foydalanganlar.

**Mil. avv. VI asr** – *skiflarning* Urartu davlatiga hujum qilishi va uning qulashi.

**Mil. avv. VI asr** – Misrga forslarning bostirib kirishi.

**Mil. avv. VI asr** – *massagetlar* va *saklar* o'z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun harbiy-qabila ittifoqini tuzdilar.

**Mil. avv. VI asr** – Shimoli g'arbiy Hindistonning bir qismi *Ahamoniylar davlati* tarkibiga kirdi.

**Mil. avv. VI asr** – Gang-Jamna vohasi va Shimoliy Hindistonda 20 dan ortiq katta-kichik davlatlar bo'lib, ularning yiriklari Kambodja, Koshala, Magadxa, Anga, Shakya Gandxar, Malla va boshqalar edi.

**Mil. avv. VI asr** – hozirgi Eron hududida Ahamoniylar sulolasiga mansub shohlar asos solgan Fors podsholigi vujudga keldi.

**Mil. avv. VI asr** – *Parfiyani* midiyaliklar bosib oladilar.

**Mil. avv. VI asr** – Geradotning ma'lumotlariga

ko'ra, shu asrda yashagan miletlik mashhur matematik, fizik, astranom va faylasuf *Fales* asli finikiyalik bo'lgan.

**Mil. avv. VI asr — milodiy V asrgacha** — Qadimgi Hindistonda ichki va tashqi savdo muttasil rivojlanib borgan.

**Mil. avv. VI asr oxiri — V asr boshi** — Qadimgi Hindistonda kumush tangalar zarb etilgan.

**Mil. avv. VI—V asr** — Shimoliy Hindistonda hukmronlikni qo'lga olish uchun 20 dan ortiq katta-kichik davlatlar o'rtasida shiddatli janglar bo'lib o'tgan.

**Mil. avv. VI—IV asr** — Hind vodiysi va Panjob viloyatida ko'pgina mayda davlatlar bo'lgan. Bu davlatlarning aksaryati *Doro I* davrida Eronga tobe bo'lib, ko'p miqdorda xiroj to'lab turganlar.

**Mil. avv. VI—IV asrlar** — Qadimgi Hindistondagi davlatlar va savdogarlar suv va quruqlik yo'li orqali Janubi sharqiy Osiyo, Seylon, Arabiston, Afrika, Eron va Turon o'lkalari bilan qizg'in savdo ishlarini olib borganlar.

**Mil. avv. V asr** — hind eposlari "*Mahabharata*" va "*Ramayana*" ning vujudga kelishi.

**Mil. avv. V asr** — Hindistonda *braxmi*, *kxaroshti*, *aramey*, *gupta* va boshqa yozuvlardan foydalanganlar.

**Mil. avv. V asr** — Qadimgi xitoyliklar yozuvni ipakdan tayyorlangan shoyi parchasiga yozganlar.

**Mil. avv. V asr oxiri** — *Bospor* podsholigi va *Frakiya* (Bulg'oriya) davlatining tashkil topishi.

**Mil. avv. V asr o'rtasi** — Karfagen katta bir davlatning markaziga aylangan.

**Mil. avv. V—IV asrlar** — qadimgi yunon tarixchisi Ktesiyning yashab ijod etgan davri.

**Mil. avv. V—IV asrlar** — Xitoyda *daosiy* va *konfutsiy* tariqatlarining vujudga kelishi.

**Mil. avv. IV asrlar** — O'rta Osiyoning shimolida xunn qabilalarining harbiy ittifoqi tashkil topdi.

**Mil. avv. IV asr** — avval Sin podsholigi, keyin Xan podsholiklari kuchayib, *U-Di* davrida Xan podsholigi nihoyatda kuchaydi.

**Mil. avv. IV asr** — *Buyuk Xitoy devorining* qurilishi boshlangan. *Xunn*, *dunxiva* boshqa ko'chmanchilar hujumidan Sin saltanati chegarasini qo'riqlash va mudofaa qilish maqsadida "*Saddi Chiniy*" ni qayta qurishga kirishilgan.

**Mil. avv. IV asr** — *Parfiya* Salavkiylar davlatining bir qismiga aylanadi. Viloyat shaharlarida yunon-makedonlarning garnizonlari joylashtirildi.

**Mil. avv. IV asrning 1-yarmi** — Xitoyni yagona bir davlatga birlashtirish g'oyasi tug'ilgan. Xitoydagi *Chu* va *Sin* podsholiklari yagona davlat tuzish uchun kurash boshlaganlar. Bu kurashda Sin podsholigi g'olib chiqqan.

**Mil. avv. IV asr oxiri — III asr boshlari** — uzoq

davom etgan urushlar va xalq g'alayonlari tufayli *Chjou* podsholigi kuchsizlanib barham topgan.

**Mil. avv. IV—III asrlar** — *Qrimda skif* qabilalari davlatining tashkil topishi.

**Mil. avv. IV—I — milodning I—IV asrlar** — Xitoyda *Soy Yuan*, *Sima Syan* kabi mashhur shoirlar ijod etishgan.

**Mil. avv. III asr** — *Arshak* boshchiligida *parmlar* ko'chmanchi qabilalari Parfiyaga hujum qildilar. Salavkiylar noibi *Andragorning* armiyasi tor-mor etildi. Parmlar tomonidan Parfiyaning bosib olinishidan ana shu davlat tarixi ham boshlandi.

**Mil. avv. III asr** — Karfagenda xudo *Molox* sanam haykali oldida bolalarni gulxanga tiriklayin tashlab, kuydirib qurbon qilganlar.

**Mil. avv. III asr** — *Sin davlati* hukmdorlari o'zining barcha raqiblarini yo'q qilib, yagona davlat tuzishdi.

**Mil. avv. III asr** — Zardusht va'zlari matnlarning hammasi 21 ta kitobga jamlangan, bu kitoblar "*Avesto*" asosini tashkil etgan. "*Avesto*" matnlariga sharh esa "*Zand*" deb atalgan.

**Mil. avv. III asr** — podsho *Ashoka* hukmronligi davrida — *Maurya* davlati gullab-yashnadi.

**Mil. avv. III asr** — *Buddaviylik* jahon dinlaridan biriga aylandi.

**Mil. avv. III asr o'rtalari** — Salavkiylar davlati kuchsizlanib qolgan edi. Shu davrda Turkman-Xuroson tog'lari va uning shimoliy hamda janubiy etaklarida Parfiya satrapligi bo'lib, unga *Stagnor* noiblik qilar edi.

**Mil. avv. III asr oxiri** — Xunn qabilalarining harbiy birlashmasi asosida Xunn ko'chmanchilari davlati tashkil topdi.

**Mil. avv. III—II asrlar** — Xitoyga Hindistondan O'rta Osiyo orqali budda dini kirib kelgan va yoyilgan.

**Mil. avv. II asr** — Xitoyda ezib ishlatish va xo'rlashlarga qarshi "*Sariq ro'mollilar qo'zg'loni*" bo'lib o'tdi.

**Mil. avv. II asr** — *Qrimda Skif* podsholigining gullab-yashnashi.

**Mil. avv. II asr** — Qadimgi Xitoyda "*Matematikaning to'qqiz kitobi*" asari yaratildi.

**Mil. avv. II asrning 1-yarmi** — *Xunlar* davlatining eng kuchaygan davri.

**Mil. avv. II asr o'rtasi — I asr boshi** — Xan qo'shinlari saltanat yerlarini zafarli yurishlar natijasida kengaytirganlar.

**Mil. avv. II—I asrlar** — *Chananda* Xan podsholarining saroyi barpo qilindi.

**Mil. avv. I asr boshi** — Xitoyda qurg'oqchilik boshlangan va chigirtka bosishi natijasida hosilsizlik sodir bo'ladi. Mamlakatda qimmatchilik, ochlik

boshlangan, islohotlarni amalga oshirish esa to'xtab qolgan.

**Mil. avv. I asr** — Yaponiyaning Xitoy bilan savdo va iqtisodiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi.

**Mil. avv. I asr** — Xitoyda qog'oz ixtiro qilindi.

**Mil. avv. I asr — milodning I–II asrlari** — ichki nizolar va to'xtovsiz urushlar Parfiyani kuch-sizlantirib qo'yadi. Bu davrda Parfiyaga shimoldan alanlar bostirib keladi.

**2,5 ming yil muqaddam** — Qadimgi Xitoy aholisi yozuvni yozishda ipakdan foydalanishni boshladi. Ipakka tayoqcha bilan emas, mo'yqalam bilan yozilar edi. Kitob uzun ipak parchasiga o'xshar, uni o'rama tarzida tayoqchaga o'rashar edi.

**Milodiy I–II asrlar** — Xitoyga O'rta Osiyo xalqlarining arfa kabi musiqa asboblari kirib borgan.

**Milodiy II asr** — *Chjan Xen* yashab ijod etgan.

**Milodiy II asrning 1-yarmi** — rimliklar Mesopotamiyaga ikki bor bostirib kirib, poytaxt *Ktesifonni* talab vayron qiladi.

**Milodiy II asrning 2-yarmi** — Xan saltanatida jabr-zulm kuchayib, og'ir vaziyat ancha keskinlashgan va Xan podsholigining turli joylarida qo'zg'olonlar boshlangan.

**Milodiy II asr oxiri — III asr boshlari** — ichki o'zaro urushlar Parfiya davlatini kuchsizlanib qolishiga olib keldi.

**Milodiy III asr boshlari** — Parfiya podsholigining janubi g'arbidagi *Parsua* viloyati kuchayib, *Sosoniylar* sulolasiga asos solgan davlat tashkil topdi.

**Milodiy III asr boshlari** — Xan podsholidigan *Vey, Shu, U* kabi davlatlar ajralib chiqadilar.

**Milodiy III asrning 2-yarmi va IV asr** — sosoniylar Eroni Sharqdagi eng qudratli davlatga aylandi.

**Milodiy III–V asrlar** — sosoniylar saltanatining dastlabki davri bo'lib, u Sharq xalqlari tarixida alohida o'rin egallaydi.

**Milodiy IV asr** — xunlar hujumlari zo'rayishi bilan davlatning kuchsizlanishi natijasida Xitoy imperiyasi uchta podsholikka bo'linib ketadi.

**Milodiy IV asr** — Gang vohasidagi *Magadxa* davlati yana kuchayadi. Bu davlatning asoschisi *Gupta* bo'lib, sulola shu nom bilan atalgan.

**Milodiy IV asrning 60–70-yillari** — sosoniy qo'shinlari rimliklar bilan to'qnashib, Armaniston va Shimoliy Mesopotamiyaning ko'p joylarini bosib oldi.

**Milodiy V asr** — Qadimgi Hindistonda "*Shakuntala*" dramasi muallifi *Kalidasi* yashagan davr.

**Milodiy V asr** — astronom *Aryabxata* Yerni sharsimon ekanligini va yerning o'ziga tortish

qonunini, ayni paytda u o'z o'qi atrofida aylanishi haqida fikr bildirgan.

**Milodiy V asr o'rtalari** — Sosoniylar davlati eftalitlar va kidaritlar bergan zarbalar natijasida asta-sekin kuchsizlanib, hatto eftalitlarga o'lpon ham to'laganlar.

**Milodiy V asrning 2-yarmi** — Eron qo'shinlari *xioniylar, kidaritlar va eftalitlar* bilan qattiq urushlar olib borganlar.

**Milodiy V–VI asr** — *mazdakchilar* oqimi vujudga kelishi.

**XVII asr** — Yevropa olimlari *Petro della Valle, Karsten, Nubur, Gretefend* mixxatlarni o'qishga uringanlar. Ammo ular yaxshi natijalarga erisha olmaganlar.

**Mil. avv. 3600-yil** — *Memfis* shahrida afsonaviy tabib *Imxoteb* sharafiga maxsus ibodatxona qurilgan.

**Mil. avv. 3100–2800-yillar** — Misrda *ilk podshohlik davri*, 1–2-sulola davri.

**Mil. avv. 3000-yil** — Quyi Misr va Yuqori Misr davlatlari o'rtasida bo'lib o'tgan jangda Yuqori Misr hukmdori *Menes* g'alaba qozondi. Menes birlashgan mamlakatning birinchi fir'avni bo'ldi. Yagona va birlashgan davlat uchun yangi poytaxt *Memfis* shahri bunyod etildi.

**Mil. avv. 2800–2250-yillar** — Misrda *Qadimgi podshohlik davri*, 3–6-sulola davri.

**Mil. avv. 2800-yil** — Misrning qayta birlashuvi natijasida *Qadimgi podshohlik* hukmronligi davri boshlandi. Bu davlatning poytaxti *Fiva* shahri edi.

**Mil. avv. 2600-yil** — ulkan *Xufu* piramidasi qurilishi. Uning balandligi 147 metrli bo'lib, piramida har biri ikki tonnadan og'irroq bo'lgan 2,5 million dona tosh bloklardan tashkil topgan.

**Mil. avv. 2318–2312-yillar** — Lagashda *Urinimgin* hukmronligi.

**Mil. avv. 2316–2261-yillar** — Akkad davlatining asoschisi *Sargon I* davri.

**Mil. avv. 2261-yil** — Sargon I vafot etib, taxtga uning o'g'li *Rimush* o'tiradi.

**Mil. avv. 2230-yil** — Elam hukmdori *Xita* Akkad podshosi *Naram-Suen* bilan do'stlik haqida shartnoma tuzdi.

**Mil. avv. 2109-yil** — Uruk podshosi *Utuxengal* guteylarni yengib, ularning podshosi *Tirikanni* asir oladi.

**Mil. avv. 2109–2046-yillar** — Ur 3-sulolasi vakili *Shugli* davri.

**Mil. avv. 2050–1750-yillar** — Qadimgi Misrda *O'rta podshohlik davri*, 12-sulola davrida Misr Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanishi, Fayum vohasida *Ittaun* shahri qurilib, poytaxtga aylanishi.

**Mil. avv. 1822–1595-yillar** – Qadimgi Bobil podsholigi davri.

**Mil. avv. 1822–1763-yillar** – Elam podshosi *Rimsin* davri.

**Mil. avv. 1792–1750-yillar** – Qadimgi Bobilda *Xammurapi* davri.

**Mil. avv. 1759-yil** – Xammurapi sobiq ittifoqchisi *Zimrilim* qo‘shinlarini yengib Marini bosib oladi.

**Mil. avv. 1750-yil** – Qadimgi Misrda xalqning qullar bilan qo‘zg‘olon ko‘tarishi.

**Mil. avv. 1749–1712-yillar** – Qadimgi Bobilda *Samsuilin* davri.

**Mil. avv. 1730–1700-yillar** – Elam qo‘shinlari Mesopotamiyaga bostirib kirib, Akkadgacha bo‘lgan yerlarni bosib oldilar.

**Mil. avv. 1710–1580-yillar** – *giksoslar* Misrda hukmronlik qiladilar, 15–16-sulola vakillari giksoslardan iborat edi.

**Mil. avv. 1680–1650-yillar** – Qadimgi Xett *Labronaning* hukmronlik davri. Uning davrida mamlakatni birlashtirish oxiriga yetkazilgan. Mamlakatning ko‘p joylari va Qora dengizning janubiy sohillarigacha istilo qilgan. Poytaxtni *Nesadan Xattusaga* ko‘chirgan.

**Mil. avv. 1650–1620-yillar** – Qadimgi Xettda *Xattusili I* ning hukmronligi. Podsholikning kuchaygan davri. Xett qo‘shinlari Shimoliy Suriyadagi *Xalpa* va *Bibl* shaharlarini bosib oldilar.

**Mil. avv. 1619–1590-yillar** – Qadimgi Xettda podsho *Mursili I* davri.

**Mil. avv. 1595-yil** – Bobilga shimoli g‘arbdan xettlar, sharqdan esa kassit qabilalarining shiddatli hujumlari natijasida Bobil podsholigi quladi.

**Mil. avv. 1584–1085-yillar** – Qadimgi Misrda *Yangi podsholik davri*, 18–20-sulola hukmronlik qilgan, bu davrda Misr Sharqdagi eng boy mamlakatga aylangan.

**Mil. avv. 1520–1490-yillar** – Qadimgi Xettda podsho *Telepen* davri. Xett podsholigi biroz kuchaygan.

**Mil. avv. 1500-yillar** – Hindiston hududiga *oriylar* bostirib kirdi. Oriylar hujumidan keyin *Moxenjodoro* va *Xarappa* tamomila vayronaga aylandi va qaytib o‘zini tiklolmadi.

**Mil. avv. 1500-yil** – Misr fir‘avni *Tutmos III* Falastin va Suriyani istilo qilishni boshladi, bir necha o‘n yil davom etgan yurishlarda erksevar qabilalarni uzil-kesil bo‘ysundirib bo‘lmadi.

**Mil. avv. 1395–1338-yillar** – Qadimgi Misrda *Xoremxeb* davri.

**Mil. avv. 1340–1305-yillar** – Qadimgi Xettda *Mursili II* davri.

**Mil. avv. 1338–1337-yillar** – Qadimgi Misrda *Ramzes I* davri.

**Mil. avv. 1337–1317-yillar** – Qadimgi Misrda *Seti I* davri.

**Mil. avv. 1301–1235-yillar** – Qadimgi Misrda *Ramzes II* davri.

**Mil. avv. 1280-yil** – Misr-Xett sulhi bilan Misr va Xett urushlarining yakunlanishi.

**Mil. avv. 1235–1215-yillar** – Qadimgi Misrda *Merneptax* davri.

**Mil. avv. 1200-yil** – Qadimgi Misrda *Setnaxt* davri.

**Mil. avv. 1198–1166-yillar** – Qadimgi Misrda *Ramzes III* davri.

**Mil. avv. 1190-yil** – “*dengiz xalqlari*” ning lashkarlari Xett podsholigi markazi *Xattusani* ishg‘ol qilib, uni vayronaga aylantirdi. Shu bilan Xett podsholigi barham topdi.

**Mil. avv. 1180-yil** – Elam hukmdori *Shutruk-Naxunta I* Bobil qo‘shinlarini mamlakatdan quvib chiqaradi. U Bobilga bostirib kirib bir qancha shaharlarni bosib oladi. Shutruk-Naxunta I Xammurapi qonunlari yozilgan toshni Suzaga olib keldi.

**Mil. avv. 1126–1105-yillar** – Yangi Bobil podsholigida *Navuxodonosor* davri.

**Mil. avv. 1155–1115-yillar** – Elam podsholigi gullagan davr.

**Mil. avv. 1115-yil** – elamliklar bobilliklardan yengildi.

**Mil. avv. 1122–249-yillar** – Qadimgi Xitoyda *Chjou* podsholigi davri.

**Mil. avv. 1122–771-yillar** – G‘arbiy *Chjou* podsholigi davri.

**Mil. avv. 1085-yil** – Qadimgi Misrda *Ramzes XI* vafot etishi tufayli Misr fir‘avnlarning 20-sulolasi tugatiladi, Janubiy Misr *Fiva* hokimlari, Shimoliy Misr 21-sulola asoschisi *Tanis* hukmdori *Smendes* qo‘liga o‘tishi.

**Mil. avv. 1027-yil** – Channing o‘g‘li *U-Van* – “*Jangovar hukmdor*” boshchiligidagi katta qo‘shin *Shan-Inga* bostirib kirgan. Shiddatli janglardan so‘ng *U-Van* qo‘shinlari podsho *Shou-Sin* va *Shan-In* qo‘shinlarini tor-mor keltirganlar. Xitoyda *Chjou* podsholigi (G‘arbiy va Sharqiyga bo‘linadi) tashkil topgan.

**Mil. avv. 965-yil** – Isroil-Yahudiy podsholigi hukmdori *Dovud* vafot etdi. Taxtga uning o‘g‘li *Sulaymon* o‘tiradi. Uning davrida Isroil-Yahudiy podsholigi kuchayadi.

**Mil. avv. 965–936-yil** – *Xiram I* davri. Uning davrida *Tir-Sidan* podsholigi ravnaq topdi.

**Mil. avv. 950-yil** – *Sheshonk* shimolda hokimiyatni egallab, Misrda 20-sulolaga asos solishi.



**Mil. avv. 950–730-yillar** – Liviya sulolasining Misrda hukmronligi, poytaxti Bubastis shahri.

**Mil. avv. 935-yil** – Sulaymon vafot etdi, taxtga o'g'li *Rovoam* o'tirdi. Ierovoam Misrdan katta qo'shin bilan qaytib, *Rovoam* qo'shinlarini yengdi va Isroil podsholigini tikladi.

**Mil. avv. 930-yil** – Misr fir'avni *Sheshonk* qo'shinlari Falastinga bostirib kirib, shahar va qishloqlarni talab, ularni vayron qildi.

**Mil. avv. 853-yil** – *Qarqara* shahrida Ossurlar bilan Suriya, Palastin, Misr birlashgan qo'shinlarining to'qnashuvi, jangda ossurlarning g'alaba qozonishi, mag'lubiyatdan so'ng Misrning obro'sini tushib ketishi, *Petubastis* o'zini Misr fir'avni deb e'lon qilib, 23-sulolaga asos solishi.

**Mil. avv. 864–845-yillar** – Urartuning birinchi hukmdori *Aramuning* hukmronlik davri.

**Mil. avv. 835–825-yillar** – Urartuda podsho *Sarduri I* davri. Uning davrida Urartu davlati kuchaygan.

**Mil. avv. 825–810-yillar** – Urartuda *Sarduri I* ning o'g'li *Ishpuini* davri. Uning davrida Urartu davlati mustahkamlandi.

**Mil. avv. 810–786-yillar** – Urartuda *Ishpuining* o'g'li *Menua* davri. Uning davrida Urartu davlati har jihatdan mustahkamlandi.

**Mil. avv. 786–764-yillar** – Urartuda *Menuaning* o'g'li *Argishti I* davri. Uning davrida Urartu davlati yanada kuchaydi.

**Mil. avv. 781–771-yillar** – *Yu-Van* podsholigi davri. *Yu-Van* podsholigi davrida *Chjoular* yarim ko'chmanchi junlar bilan shiddatli janglar olib borganlar.

**Mil. avv. 770–249-yillar** – *Sharqiy Chjou podsholigi* davri.

**Mil. avv. 764–735-yillar** – Urartuda *Argishti I* ning o'g'li *Sarduri II* davri. Uning davrida Urartu davlatining chegaralari boshqa mayda davlatlar hisobiga kengaytiriladi va Old Osiyoda birinchi darajali davlat bo'lib qoldi.

**Mil. avv. 743-yil** – Suriyaning *Arpada* shahri yaqinida bo'lgan jangda Ossuriya podshosi *Tiglatpalasar III* tomonidan *Urartu* hukmdori *Sarduri II* ittifoqchilarining qo'shini tor-mor qilindi.

**Mil. avv. 740–720-yillar** – Efiopiya podshosi *Shabaka* davri. Uning davrida mamlakatda tinchlik o'rnatilib, xo'jalik va madaniyat rivojlandi.

**Mil. avv. 735-yil** – Ossur qo'shinlari Urartuga qo'shin tortib Urartu qo'shinlarini yengadilar.

**Mil. avv. 735–712-yillar** – Urartuda *Sarduri II* ning o'gli *Rusa I* davri.

**Mil. avv. 722-yil** – Ossur podshosi *Sargon II* Samariya shahrini bosib olib Isroil podshosi *Osiyani*,

27290 isroillikni asir qilib olib ketib Midiya va Mesopotamiyaga joylashtiradi. Isroilga esa aramey fuqarolarini joylashtiradi. Shu tariqa Isroil podsholigi barham topadi.

**Mil. avv. 722-yil** – ossuriyaliklar tomonidan Isroil davlatining tor-mor keltirilishi.

**Mil. avv. 721–715-yillar** – 24-sulola vakili *Bakxoris* davrida inqirozdan chiqish uchun bir qator islohotlarning o'tkazilishi, islohotlarning muvaffaqiyat keltirmasligi, Misrning bir qancha mayda nomlarga bo'linib ketishi.

**Mil. avv. 720-yil** – Elamning *Der* qal'asi yonida bo'lgan jangda elamliklar Ossur qo'shinlarini yengadilar.

**Mil. avv. 720-yil** – Elam qo'shinlari *Der* yaqinidagi dahshatli jangda ossurlarni tor-mor etadilar.

**Mil. avv. 715-yil** – Misr qo'shinlarining Efiop qo'shinlaridan yengilishi, fir'avn *Bakxors* asirga olinib, tiriklayin o'tga tashlanishi.

**Mil. avv. 715–664-yillar** – 25-sulola bo'lgan Efiopiya sulolasining Misrni boshqarishi.

**Mil. avv. 714-yil** – Ossur podshosi *Sargon II* Urartuga qarshi qo'shin tortadi. Urmiya ko'li atrofidagi jangda *Rusa I* qo'shinlarini yengib, shahar va qishloqlarni vayron qiladi va katta boylik, ko'p sonli asirlar bilan orqaga qaytganlar.

**Mil. avv. 710–709-yillar** – Ossur podshosi *Sargon II* Bobilni egallaydi.

**Mil. avv. 703-yil** – *Xoldey* hukmdori *Marduqaplaiddin* ossurlarga zarba berib, Bobilni ozod qildi.

**Mil. avv. 704-yil** – ossuriyaliklar qo'shinlari *Urartu* armiyasini tor-mor etib tashladi. Shundan so'ng Urartu podsholigi ancha zaiflashib qoldi.

**Mil. avv. 672-yil** – midiyaliklar *Kashtariti* rahbarligida ossurlarga qarshi kurash boshlab, ularni Midiyadan haydab chiqardilar.

**Mil. avv. 671-yil** – Misrning ossuriyaliklar tomonidan bosib olinishi.

**Mil. avv. 671–655-yillar** – Ossur podsholarining Misrdagi hukmronligi, Misrda *Taxarka* boshchiligida 2 marta qo'zg'olon bo'lib o'tishi.

**Mil. avv. 663-yil** – *Tanutamon* qo'shinlari bilan ossurlar o'rtasida jang bo'lib o'tishi, jangda ossurlar g'alaba qozonishi, 25-Efiopiya sulolasining tugatilishi, mamlakatning 20 nomga bo'linib ketishi.

**Mil. avv. 663–525-yillar** – Qadimgi Misrdagi *26-Sais sulolasi* davri, *Psammetix I* sulola asoschisi.

**Mil. avv. 653-yil** – Midiya shohi *Kashtariti* ossurlar ustiga qo'shin tortadi.

**Mil. avv. 653–625-yillar** – Midiya skiflar ta'sirida.

**Mil. avv. 650-yil** – skiflarning Kichik Osiyoga bostirib kirishi.

**Mil. avv. 648-yil** – ossurlar bilan bo‘lgan jangda Bobil vayron etiladi. Shaharda vabo tarqab, ocharchilik boshlanadi. Aholining katta qismi qirilib ketadi. Ocharchilik kuchayib, odamlar bir-birlarining go‘shklarini yeydilar. Bobil ossurlarga tobe bo‘lib qoldi.

**Mil. avv. 639-yil** – ossurlar tomonidan Elam bosib olindi.

**Mil. avv. 636-yil** – Chjou hukmdorlaridan *Syan-Vandi* qabilalari (jun yoki xunn) bilan bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchragan.

**Mil. avv. 628-yil** – Ossurlarning jabr-zulmiga qarshi Xoldey hukmdori *Nabopalasar* boschiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. U Ossurlarni Bobildan haydab chiqarib, *Yangi Bobil podsholigiga* asos soldi.

**Mil. avv. 627-yil** – dastlab *Bobil*, so‘ngra *Midiya* Ossuriya podsholidan ajralib chiqdi.

**Mil. avv. 625-yil** – Kashtaritni o‘g‘li *Kiaksar* Midiya podshosi bo‘ladi. Uning davrida skiflar mamlakatdan quviladi va Midiyadagi mayda davlatlarni birlashtirib, uni kuchli saltanatga aylantiradi.

**Mil. avv. 612-yil** – *Bobil* va *Midiya* hukmdorlari tomonidan Ossuriyaning bosib olinishi.

**Mil. avv. 614-yil** – *Kiaksar* qo‘shinlari Ossuriyaga bostib kirib uning poytaxti *Ashshurni* vayron qiladilar va talaydilar. Ular behisob boylik va asirlar olib qaytdilar.

**Mil. avv. 612–605-yillar** – Midiya davlati Bobil bilan ittifoq bo‘lib Ossuriyani bosib oldi.

**Mil. avv. 612–609-yillar** – Bobil va Midiya qo‘shinlari ossur qo‘shinlarini yengib, Ossuriyaning *Nineviya* va *Ashshur* shaharlarini yana vayron qiladilar. Bu mag‘lubiyatdan so‘ng ossur qo‘shinlari g‘arbga chekinadilar.

**Mil. avv. 605-yil** – *Bobil* va *Midiya* davlatlarining birlashgan qo‘shini Ossuriya armiyasini batamom qirib tashladi va Ossuriya podsholigi barham topdi.

**Mil. avv. 605-yil** – Nabopalasar vafot etib, taxtga uning o‘g‘li *Navuxodonosor* o‘tirdi.

**Mil. avv. 605-yil** – Midiya-Bobil qo‘shinlari *Karxamesh* yonidagi jangda Misr-Ossur qo‘shinlarini tor-mor etadilar. Ossur davlati batamom barham topdi.

**Mil. avv. 605–562-yillar** – Yangi Bobil podsholigi hukmdori *Navuxodonosor II* davri.

**Mil. avv. 600–559-yillar** – *Kambiz* davri. Uning davrida *parsua* qabilalari Midiyaga itoat etganlar.

**Mil. avv. 597–586-yillar** – Falastin Bobil podshosi *Navuxodonosor II* qo‘shinlari tomonidan istilo qilindi. Quddus shahri vayron etilib aholining ko‘p qismi ikki daryo oralig‘iga haydab ketildi.

**Mil. avv. 596-yil** – bobilliklar tomonidan Elam bosib olinadi

**Mil. avv. 590-yil** – *Urartu* podsholigi tarix sahnasidan ketdi.

**Mil. avv. 590–585-yillar** – Lidiya-Midiya urushi sodir bo‘ladi.

**Mil. avv. 586-yil** – *Yahudiya* Bobil podsholigi tomonidan bosib olindi.

**Mil. avv. 585-yil** – *Kiaksar* vafot etib, taxtga uning o‘g‘li *Astiag* o‘tiradi. Uning davrida Bobil bilan Midiya munosabatlari buziladi va qonli urushlar boshlanadi.

**Mil. avv. 585-yil 28-may** – rivoyatga ko‘ra, shu kuni quyosh tutiladi. Lidiya-Midiya urushida ikki tomon lashkarlari vahimaga tushib qurollarini tashlab jang maydonidan qochadilar. Shu sababli urush to‘xtatiladi.

**Mil. avv. 569-yil** – Misrda g‘alayonlar boshlanishi.

**Mil. avv. 569–525-yil** – sarkarda *Yaxmos II* Misr taxtini egallashi.

**Mil. avv. 562-yil** – Yangi Bobil podsholigining so‘nggi podshosi *Navuxodonosor II* olamdan ko‘z yumadi. Podsho vafotidan so‘ng mamlakatda taxt uchun ruhoniylar bilan harbiylar o‘rtasida kurash boshlanib ketdi. Bu kurashda ruhoniylar g‘olib chiqib o‘z vakili *Nabonidni* Bobil taxtiga o‘tqazadilar.

**Mil. avv. 559-yil** – *Kayxusrav II* taxtga o‘tirdi va Pasargada shahrini qurdirib, uni davlat poytaxtiga aylantirdi.

**Mil. avv. 558-yil** – Ahamoniylar sulolasidan bo‘lgan *Kir II* forslarni birlashtiradi.

**Mil. avv. 553–549-yillar** – *Kayxusrav* bobosi *Astiag* qo‘shinlarini yengib, Midiya va Elamni Parsuaga qo‘shib oldi. Shu tariqa Ahamoniylar urug‘i asos solgan Parsua – ya‘ni Eron davlati tashkil topdi.

**Mil. avv. 556–539-yillar** – Yangi Bobil podshosi *Nabonid* davri.

**Mil. avv. 550-yil** – forslar *Kayxusrav* boschiligida qo‘zg‘olon ko‘tarib, *Astiag* qo‘shinlarini tor-mor etdilar. Midiya davlati Eronga qo‘shib olinadi va barham topdi.

**Mil. avv. 549-yil** – eroniylar tomonidan Elam bosib olindi.

**Mil. avv. 543–491-yillar** – Magadxa davlatida podsho *Bimbasara* davri. *Bimbasara* davrida Magadxa kuchayib, uning qo‘shinlari Gang vohasidan Bengal qo‘ltig‘igacha bo‘lgan yerlarni bosib olganlar.

**Mil. avv. 539-yil** – *Kir II* Armaniston, Midiya va Bobilni zabt etdi.

**Mil. avv. 539-yil** – eronliklar *Yangi Bobil podsholigiga* bostirib kirdi. Forslar Bobilni zabt etdilar. Yangi Bobil podsholigi Eron davlati tarkibiga kirdi.

**Mil. avv. 538-yil** – Midiyaning Urartu davlatini bosib olishi.

**Mil. avv. 529–522-yillar** – Ahamoniylar davlatida *Kambiz II* davri. Uning davrida itoat ettirilgan mamlakatlar va Erondagi isyonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi.

**Mil. avv. 525-yil** – *Pelusiya* yaqinida Eron qo'shinlari Misr qo'shinlarini yengishi, *Kambiz 27-sulolaga* asos solib, o'zini Eron podshosi va Misr fir'avini deb e'lon qilishi.

**Mil. avv. 522-yil** – *Kambiz II* Misrda ekanligida *Gaumata* boshliq eroniylar isyon ko'taradilar. Isyonni bostirish uchun Eronga qaytayotgan *Kambiz II* yo'lda o'ldirildi.

**Mil. avv. 522-yil 29-sentabr** – *Kambiz II* ni o'ldirib, Eron taxtida 7 oy podsholik qilgan *Gaumataning* fitnachilar tomonidan o'ldirilishi.

**Mil. avv. 522-yil** – *Doro I* Ahamoniylar davlati taxtiga o'tirdi.

**Mil. avv. 522–486-yillar** – Eronda *Doro I* o'z hukmronligi davrida butun mamlakat uchun "*doroyi*" deb nomlangan yagona oltin tangani muomalaga kiritdi. Persepoldan O'rtayer dengiziga qadar "*shoh-roh*" degan podshoyi savdo yo'li qurdirdi. Qo'shinni qayta tuzib, saltanatni "*satrap*"likka bo'lib chiqdi.

**Mil. avv. 519-yil** – fors shohi *Doro I* ning saklarga qarshi qo'shin tortishi, *Shiroq* jasarati.

**Mil. avv. 492–449-yillar** – Yunon-Eron urushi to'xtab-to'xtab davom etib, eroniylarning mag'lubiyati bilan tugaydi.

**Mil. avv. 486-yil** – Misrda eroniylar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Shu yili *Doro I* vafot etib, Eron taxtiga o'g'li *Kserks* o'tirgan. U Misr va Mesopatamiyadagi qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostirdi.

**Mil. avv. 484–481-yillar** – Misr va Mesopotamiyada juda katta isyonlar ko'tarilib, *Kserks* ularni qiyinchilik bilan bostirdi.

**Mil. avv. 480-yil** – *Kserks* juda katta qo'shin bilan Yunonistonga bostirib kiradi. Eron qo'shinlari *Frakiya* va *Makedoniyani* jangsiz bosib oladilar.

**Mil. avv. 449-yil** – *Suzada* imzolangan "*Kalliy sulhi*"ga binoan Eron Kichik Osiyodagi ko'p joylaridan ajralib, uning harbiy floti Egey dengizida suzishdan mahrum etildi.

**Mil. avv. 465-yil** – Ahamoniylar davlati hukmdori *Kserksning* o'ldirilishi.

**Mil. avv. 460–424-yillar** – Ahamoniylar davlati hukmdori *Artakserks I* davri.

**Mil. avv. 423–404-yillar** – Ahamoniylar davlati hukmdori *Doro II* davri.

**Mil. avv. 404–358-yillar** – Ahamoniylar davlati hukmdori *Artakserks II* davri.

**Mil. avv. 361–338-yil** – podsho *Sao-Chun* davri. Sin podsholigi birmuncha kuchaygan.

**Mil. avv. 358–336-yillar** – Ahamoniylar davlati hukmdori *Artakserks III* davri.

**Mil. avv. 345-yil** – aholining quyi tabaqasiga mansub bo'lgan *Ugrasend Nand* Magadxa podshosini yengib taxtni egallaydi. U qudratli *Nand podsholigiga* asos soladi. Ugrasen davrida Shimoliy, Markaziy va hatto Janubiy Hindistonning katta qismi *Nandlar* davlati tarkibiga qo'shib olinadi. *Nand Hindistondagi* qudratli davlatga aylanib, xo'jalik va madaniyat har tomonlama rivoj topdi.

**Mil. avv. 336–330-yillar** – Ahamoniylar davlati hukmdori *Doro III* davri.

**Mil. avv. 331-yil 1-oktabr** – *Gavgamel* yonidagi jangda Eron qo'shinlarining tor-mor etilishi. Shundan so'ng Ikkidaryo oralig'i va unga tutash bo'lgan *Bobil*, *Suza*, *Persepol*, Eron poytaxti *Pasargad* yunon-makedon qo'shinlari tomonidan bosib olindi.

**Mil. avv. 330-yil** – Makedoniyalik *Aleksandr* Ahamoniylar davlatini bosib oldi.

**Mil. avv. 332-yil** – Misr Iskandar davlati tarkibida, uning vafotidan so'ng esa bu yerda *Ptolemeylar* davlati qaror topdi.

**Mil. avv. 327-yil** – Makedoniyalik *Aleksandr* 120 ming kishilik qo'shin bilan *Hindikush* va *Sulaymon tog'laridan* oshib o'tib, *Panjob* o'lkasi hududiga bostirib kirdi. *Panjobdagi* mayda davlatlarning ko'pchiligi *Iskandarga* itoat etdilar.

**Mil. avv. 325-yil** – *Iskandar* *Bobilga* qaytib ketdi.

**Mil. avv. 317-yil** – Yunon-makedon qo'shinlari *Hindistondan* butkul quvib yuborildi. Yunon va makedon qo'shinlariga qarshi kurashga mashhur hind sarkardasi *Chandragupta* sardorlik qildi.

**Mil. avv. 317–298-yillar** – *Chandragupta* *Maurya* podsholigiga asos solib, *Patalaputra* shahrini davlat poytaxtiga aylantirdi.

**Mil. avv. 305-yil** – *Chandragupta* bilan *Salavka* qo'shinlari bilan qattiq jang bo'lib salavkiylar qo'shini mag'lubiyatga uchradi.

**Mil. avv. 293–268-yillar** – *Chandragupta* vorisi *Bindusara* hukmronlik davri.

**Mil. avv. 268–231-yillar** – *Maurya* davlati podshosi *Ashoka* davri.

**Mil. avv. 247-yil** – ko'chmanchi sak qavmlarining *parndax* qabilalari *Parfiyani* bosib oldilar. Ularning sardori *Arshak* (ma'nosi *shak botiri*, *pahlavoni*) *Parfiya* davlatining podshosi deb e'lon qilindi. U *arshakiylar* sulolasiga asos soldi.

**Mil. avv. 246–210-yillar** – *Sin Shixuandi* hukmronligi davrida *Xitoyda* yagona va markazlashgan davlat tiklandi. *Sin* davlati 36 viloyatga taqsimlangan va har bir viloyatga imperator noiblarini rahbar etib

tayinlangan. U dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanishiga imkon bergan bir qancha islohotlar o'tkazdi. *Sin Shixuandi* Xitoyda ko'chmanchi xunlarning hujumlaridan himoyalani uchun "*Buyuk Xitoy devori*"ni bunyod etgan.

**Mil. avv. 246-yil** — Sin podsholigi taxtiga 13 yoshli *In Chjen* o'tiradi.

**Mil. avv. 230-yil** — In-Chjen qo'shin saflarini mustahkamlagach, Xan podsholigi qo'shinlariga qat'iy zarba berib uni bosib oladi.

**Mil. avv. 228–221-yillar** — In-Chjen qo'shinlari bilan Xan podsholigi qo'shinlari o'rtasidagi shiddatli, g'olibona urushlar natijasida Sharqiy Xitoydagi *Chjao, Vey, Chu, Si, Yan* podsholiklarining qo'shinlari tor-mor etiladi.

**Mil. avv. 221-yil** — *Chjao, Vey, Chu, Si, Yan* podsholiklari Sin podsholigiga qo'shib olingach, Sharqiy Xitoyni birlashtirish jarayoni o'z nihoyasiga yetdi.

**Mil. avv. 214-yil** — Xitoyda *Buyuk Xitoy devorining* qurib bitkazilishi.

**Mil. avv. 209-yil** — Salavka podshosi *Antiox III* Parfiya ustiga qo'shin tortdi. Bu jangda Parfiya qo'shinlari yengiladi, ammo Parfiya o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

**Mil. avv. 209-yil** — Sin podsholigining turli joylarida qo'zg'olonlar boshlanib ketdi.

**Mil. avv. 207-yil** — *Lyu Ban* boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Sanyan shahrini ishg'ol qiladilar.

**Mil. avv. 206-yil** — *Sin* sulolasiga qarshi *Lyu Ban* boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloni boshlandi. Qo'zg'olonchilar poytaxtni egalladi va *Xan* sulolasi boshchiligida yangi davlat barpo etildi.

**Mil. avv. 206-milodiy — 220-yillar** — *Xan* sulolasi hukmronlik qilgan yillar.

**Mil. avv. 206-milodiy 25-yillar** — *Katta Xan* sulolasi davri.

**2400–2200-yillar ilgari** — *Buyuk Xitoy devori* qurib bitkazilgan.

**Mil. avv. 203–202-yillar** — xunlar sardori *Maodun* Sayan, Oltoy va Yenisey (Enasoy) daryosining yuqori oqimidagi joylarni bosib oladi.

**Mil. avv. 202-yil yanvar** — *Gaysya* yonidagi jangda *Lyu Ban* qo'shinlari *Syan Yuy* qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi. Shu bilan Xitoyda Sin saltanati tugatilib, *Xan saltanati* o'rnatiladi.

**Mil. avv. 200-yil** — *Lyu Ban-Gao-Szu* o'z qo'shinlari bilan xunlar ustiga bostirib borgan. Uning qoshinlari xunlardan mag'lubiyatga uchragan.

**Mil. avv. 200-yil** — Xan podshosi *Lyu Ban* xunlarni ustiga qo'shin tortadi.

**Mil. avv. 180-yil** — *Maurya* sulolasining so'nggi

podshosi taxtdan ag'darilib tashlanadi va o'ldiriladi. Taxtni *shunglar* sulolasiga mansub kishilar egalaydilar.

**Mil. avv. 180–68-yillar** — *shunglar* davrida *Maurya* davlati.

**Mil. avv. 174–11-yillar** — Xunlar hukmdori *Maoshin* davri.

**Mil. avv. 171–138-yillar** — Parfiya shohi *Mitridat I* davri.

**Mil. avv. 145–90-yil** — Xitoy tarixchisi *Sima Syanning* "*Tarixiy xotiralar*" kitobining bir bo'limi osmon jismlari masalasiga bag'ishlangan.

**Mil. avv. 141-yil** — Parfiya shohi *Mitridat I* Midiya va Bobilni bosib oldi va o'zini "*Bobil podshosi*" deb e'lon qildi.

**Mil. avv. 140–120-yillar** — saklarning shimoldan hujumi boshlanib, Yunon-Baqtriya davlati ag'darib tashlanadi. Saklarning jangovar qismlari Parfiya qo'shinlari bilan ham to'qnashadilar. Bu janglarda ikki Parfiya shohi halok bo'ladi. Saklar *Erimander, Xerirud* daryolari oralig'idagi viloyatga borib joylashadilar. Shundan boshlab bu viloyatni *Sakiston* deb ataladigan bo'ldi.

**Mil. avv. 140–87-yillar** — Xan sulolasida *U Din* hukmronligi davida Xan imperiyasi eng qudratli davlatga aylandi.

**Mil. avv. 138-yil** — Xan podshosi *U-Di Chjan-Syan* boshliq o'z elchisini O'rta Osiyo va Sinszyanga yuborgan.

**Mil. avv. 138–125-yillar** — *Chjan Syan* Qang', Yuechji, Kushon, Dovon va Baqtriya hukmdorlari huzurida bo'lgan. U bu davlat rahbarlarini Xitoy bilan ittifoq bo'lib xunlarga qarshi kurashga ko'ndira olmagan.

**Mil. avv. 130–111-yillar** — *U-Di* janubi g'arbdagi varvarlar ustiga ikki marta qo'shin yuborgan. Xan qo'shinlari Yanszi daryosining yuqori oqimidagi joylar podsholikka qo'shib olingan.

**Mil. avv. 127–119-yillar** — *U-Di* ko'p sonli otliq qo'shinga tayanib xunlarni yengib, dastlabki g'alabaga erishgan.

**Mil. avv. 126-yil** — Bobilni Parfiya bosib oldi. Parfiya hukmdorlari davrida butun Bobil tanazzulga yuz tutdi.

**Mil. avv. 123–87-yillar** — *Mitridat II* davri. Parfiya qo'shinlari Salavkiy qo'shinlarini yengib, Eron va Mesopotamiyani ishg'ol qiladilar. *Mitridat II* "ulug' shahanshoh" degan unvonga ega bo'ladi. Parfiya qo'shinlari Kichik Osiyo va O'rtayer dengizining sharqiy sohili chegaralarida rimliklar bilan to'qnashadilar.

**Mil. avv. 123-yil** — Xitoy qo'shinlari xunlarni

Xan saltanatining Shimoliy chegaralaridan surib chiqaradilar.

**Mil. avv. 115-yil** — *Chjan Syan* o'zi kashf etgan “*Buyuk ipak yo'li*” dan O'rta Osiyoga yana bir bor kelgan. U Issiqko'l sohilida o'ziga qarorgoh qurib O'rta Osiyo, Parfiya, Kushonlar mamlakati va Hindistonga o'z ayg'oqchilarini yuborgan. Ayg'oqchilar esa Chjan Syanga u mamlakatlar haqida ma'lumotlar yuborib turganlar.

**Mil. avv. 109-yil** — Xan qo'shinlari Koreya yarimoroliga bostirib kirib Choson mamlakatini saltanat hududiga qo'shib olganlar.

**Mil. avv. 104–101-yil** — *U-Di* qo'shinlari Dovon mamlakatiga o'tib, uning poytaxti Ershini qamal qilganlar. Xitoylar Dovondan “*qon bilan terlaydigan osmin otlarini*” olib qaytganlar.

**Mil. avv. 71-yil** — Xunnlarga uch tomondan — g'arbdan *usunlar*, sharqdan *uxuanlar*, shimoldan *Yenisey bo'yi qabilalari* hujumining boshlanishi.

**Mil. avv. 56-yil** — Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'linib ketdi.

**Mil. avv. 68-yil** — Magadxada navbatdagi davlat to'ntarishi bo'lib, taxtni *Kanva* sulolasiga mansub *kishilar* egallaydilar. Ular Magadxga qo'l ostidagi mamlakatni 45 yil boshqardilar.

**Mil. avv. 55–37-yillar** — Parfiya podshosi *Orod* davri.

**Mil. avv. 53-yil** — Mashhur sarkarda *Krass* boshliq Rim qo'shinlari bilan Parfiya podshosi *Orod* qo'shinlari o'rtasida janglarning boshlanishi. Shu yili *Karri* shahri yaqinida bo'lgan dahshatli jangda rimliklar yengilib, sarkarda *Krass* halok bo'ladi.

**Mil. avv. 40-yillari** — rimliklar O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlarda va Kichik Osiyoda o'z mavqeyini qayta tiklab oldilar. Rim qo'shinlari Parfiya qo'shinlarini Frot daryosi chap sohiliga surib chiqardi.

**Mil. avv. 38-yil** — rimliklarning Midiyaga qilgan yurishlari mag'lubiyat bilan tugadi.

**Mil. avv. 12–119-yillar** — Xan qo'shinlari Danxuangacha bo'lgan yerlarni bosib oldilar.

**Mil. avv. 119-yil** — Xitoy qo'shinlari Xunn sardorining qarorgohini bosib oldi.

**Mil. avv. 99–90-yillar** — Xunnlr bilan Xitoylar o'rtasida qattiq urushlar bo'lib o'tib, ko'pincha Xunnlr g'olib chiqdilar.

**Milodiy 8-yil** — Xitoyda qo'zg'olon natijasida *Van Man* hokimiyat tepasiga keldi.

**Milodiy 18-yil** — *Fan Chun* rahbarligida Shandunda “*Qizil qoshlilar*” qo'zg'oloni boshlandi.

**Milodiy 22-yil** — Van Man qo'zg'olonchilar ustiga yuz ming kishilik qo'shin yuborgan. Hal qiluvchi jangda qo'zg'olonchilar podsho qo'shinlarini tor-

mor etib, Xuanxe daryosining o'rta oqimidagi yerlarni ishg'ol qilganlar.

**Milodiy 23-yil** — Van Man qo'shinlari bilan “*Yashil o'rmon qo'shinlari*” qo'zg'olonchilari o'rtasida dahshatli jang bo'lib, podsho qo'shinlari yana tormor etilgan. Qo'zg'olonchilar Chanan shahrini ishg'ol qilganlar.

**Milodiy 24-yil** — Qo'zg'olon rahbarlaridan biri *Lyu Syuan* o'zini podsho deb e'lon qilib, Chanan shahrini egallagan.

**Milodiy 25-yil** — “*Qizil qoshlilar*” Chananga yurib, *Lyu Syuan* qo'shinlarini tor-mor etganlar, *Lyu Syuan* o'z-o'zini o'ldirgan. “*Yashil o'rmon qo'shini*” *Lyu Syu* boshchiligida Chananga qarab yo'l olganlar. “*Qizil qoshlilar*” esa Chananni bo'shatib, Shandunga chekinganlar. Yo'lda ikki qo'shin to'qnashib, “*Qizil qoshlilar*” yengilganlar. Ularning yo'l boshchisi *Fan Chun* jangda halok bo'lgan.

**Milodiy 25-yil** — *Lyu Syu* o'zini podsho deb e'lon qildi va poytaxtni Chanandan Loyanga ko'chirtirgan.

**Milodiy 25–220-yillar** — Xitoyda Xan sulolasi hukmronlik qilgan davr.

**Milodiy 25–57-yillar** — Xan sulolasiga *Lyu Syu Guan U-Di* nomi bilan podsholikni boshqargan.

**Milodiy 32–92-yillar** — *Ban Guning* hayot faoliyati.

**Milodiy 63-yil** — Rim va Sosoniylar jangida Rim imperatori *Yulian* halok bo'ldi.

**Milodiy 87–93-yillar** — Xitoylar syanbi va dinliklar bilan ittifoq bo'lib Xunnlarni tor-mor keltirganlar.

**Milodiy 184-yil** — “*Sariq ro'mollilar*” qo'zgononining boshlanishi, unga o'z zamonining “*oqil va saxiy muallim*” nomini olgan mashhur tabib *Chjan Szyao* va uning ikki ukasi rahbarlik qilgan.

**Milodiy 184–185-yillar** — Xitoyda “*Sariq ro'mollilar*” qo'zg'olonchilari hukumat qo'shini bilan bo'lgan jangda yengildilar. Qo'zg'olon rahbari *Chjan Szyao* halok bo'ldi.

**Milodiy 188–207-yillar** — Xan podsholigining ko'p joylarida katta-katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Ular hukumat qo'shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi, lekin bu qo'zg'olonlar Xan saltanatini zaiflashtirib yubordi.

**Milodiy 208-yil** — Parfiya davlati ikki qismga bo'lindi.

**Milodiy 216–276-yillar** — Moniylik dinining asoschisi *Moniy ibn Fatak* hayoti.

**Milodiy 224-yil** — Sosoniy hukmdorlari Parfiya poytaxti *Ktesifonni* egallab, kuchsizlanib qolgan Parfiya podsholaridan taxtni tortib oldilar.

**Milodiy 224-yil** – *Ardasher I* Parfiya shohi *Artabon V* qo‘shinlarini yengdi.

**Milodiy 224–239-yillar** – Pors viloyati hokimi *Ardasher I* davri.

**Milodiy 226-yil** – *Ardasher I* poytaxtni *Staxr* shahridan Dajla daryosi bo‘yidagi *Ktesifonga* ko‘chirdi.

**Milodiy 226-yil** – Eron shohi *Ardasher* Parfiyani bosib oldi.

**Milodiy 232-yil** – Rim imperatori *Aleksandr Sever* katta qo‘shin bilan shimoliy Mesopotamiyaga kelib tushdi. *Ardasher I* qo‘shinlari Rim legionlari bilan uzoq vaqt mobaynida qonli urushlar olib bordi.

**Milodiy 243–273-yillar** – Sosoniylar podshosi *Shopur I* davri.

**Milodiy 244–251-yillar** – sosoniy qo‘shinlari Janubiy Armaniston va Qadimgi Ossuriyani bosib oldilar.

**Milodiy 320–335-yillar** – Guptaning nabirasi *Chandragupta I* davri. Magadxa davlati ancha kuchayib, ular Himolay tog‘laridan Madras shahri oralig‘idagi yerlarni bosib oldilar.

**Milodiy 335–380-yillar** – *Chandragupta I* ning o‘g‘li *Samudragupta* davri. Magadxa davlati ancha kuchayib, ular Himolay tog‘laridan *Madras* shahri oralig‘idagi yerlarni bosib oldilar.

**Milodiy 380–415-yillar** – *Chandragupta II* davri. Guptalar sulolasi saltanatining gullab-yashnagan va

Hindiston tarixida “*guptalarning oltin asri*” deb madh etilgan davr.

**Milodiy 375-yil** – Xunlar sardori *Balambir o‘z* qo‘shinlari bilan Shimoliy Qora dengiz bo‘ylarini egallagan.

**Milodiy 394–395-yillar** – Xunnlarning bir qismi Suriya va Kapadoniyaga bostirib kirganlar.

**Milodiy 395-yil** – Misr Vizantiya ta‘siriga tushib qolishi, Qadimgi Misr tarixi nihoyasiga yetishi.

**Milodiy 415-yil** – *Chandragupta II* ning vafoti. Hindistonga O‘rta Osiyo tomondan *kidariylar*, *eftaliylar* va boshqa qabilalarning hujumi boshlanib, ular Panjob va Hind vodiysida o‘rnashib qoladilar.

**Milodiy 434–453-yillar** – Xunlar davlatida *Attila* hukmdorligi davri.

**Milodiy 451-yil** – Xunlar Galliyaga bostirib kirganlar.

**Milodiy 453-yil** – *Attila* vafot etgach, Xunlar davlati kuchsizlangan.

**Milodiy 469-yil** – Xunlarning Bolqonga qilgan yurishlari mag‘lubiyat bilan tugadi.

**Milodiy 470–529-yillar** – mazdakiylar dinining asoschisi *Mazdak ibn Hamadoniy* hayoti davri.

**1822-yil** – Fransuz olimi *Jak-Fransua Shampolon* Misr matnlarini o‘qishga muvassar bo‘ldi.

**1920–1922-yillar** – arxeologlar Hind shaharlarining xarobasi *Panjob* va *Moxenjodoro* yodgorliklarini topishlari.

## TESTLAR

## QADIMGI MISR

1. Afrika shimoli sharqida sivilizatsiya vujudga kelishida qaysi daryo muhim ahamiyat kasb etgan?

- A) Nil
- B) Frot
- S) Dajla
- D) Xuanxe

2. Nil daryosi qadimdan qaysi dengizga quyilardi?

- A) Qizil dengizga
- B) O'rtayer dengizga
- S) Arabiston dengizga
- D) Egey dengizga

3. Nil daryosi qayirlarini yunonlar nima deb nomlagan?

- A) "delta"
- B) "nom"
- S) "sagaris"
- D) "togu"

4. Ma'lumki, yunonlar Nil daryosi qayirlarini delta deb atashgan. Bunday deb atalishini sababi nimada edi?

A) chunki, dengizga quyiluvchi shoxobchalarning to'la-to'kis manzarasi uchburchaksimon yoki teskari yozilgan alif harfiga monand bo'lgan

B) chunki dengizga quyiluvchi shoxobchalarning to'la-to'kis manzarasi ko'pburchakli yoki teskari yozilgan yunoncha "delta" harfiga monand bo'lgan

S) chunki, dengizga quyiluvchi shoxobchalarning to'la-to'kis manzarasi kvadratsimon yoki teskari yozilgan yunoncha "delta" harfiga monand bo'lgan.

D) shoxobchalarning to'la-to'kis manzarasi uchburchaksimon yoki teskari yozilgan yunoncha "delta" harfiga monand bo'lgan

5. Nil vodiysi bu...

A) Sahroi Kabir va Liviya cho'llarigacha sug'oriladigan yerlardir

B) Ikki daryo oralig'idagi kengliklarni sug'oradigan yerlardir

S) har ikki qirg'oq birdan to 20 km gacha kenglikdagi sug'oriladigan Misrdagi yerlardir

D) har ikki qirg'oq birdan to 20 km gacha kenglikdagi sug'oriladigan Shumerdagi yerlardir

6. Qaysi davlat "Qora tuproq" nomiga ega bo'lgan?

- A) Mesopotamiya davlati
- B) Misr davlati
- S) Kushon davlati
- D) Hindiston

7. Qachondan boshlab dastlabki qabilalar Nil vohasiga o'rnashganlar?

A) mil. avv. 4-mingyillik

B) mil. avv. 5-mingyillik

S) mil. avv. 3-mingyillik

D) mil. avv. 2-mingyillik

8. Qachondan boshlab misrliklar Nil daryosi qirg'oqlaridagi yerlarni o'zlashtira boshlaganlar?

A) mil. avv. 4-mingyillik boshi

B) mil. avv. 5-mingyillik boshi

S) mil. avv. 3-mingyillik boshi

D) mil. avv. 2-mingyillik boshi

9. Qadimgi misrliklarning asosiy mashg'ulotlari nimalardan iborat edi?

A) dehqonchilik, termachilik va ovchilik

B) chorvachilik va ovchilik

S) hunarmandchilik, termachilik va ovchilik

D) dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik

10. Qadimgi Misr hunarmandlari qancha kasb-korlarga ega bo'lganlar?

A) 30 dan ziyod

B) 40 dan ziyod

S) 10 dan ziyod

D) 20 dan ziyod

11. Ma'lumki, qadimgi Misrda hukmdor fir'avnlr saroylari va ibodatxonalar toshdan barpo etilgan. Oddiy misrliklar va zodagonlarning uylari nimalardan qurilgan?

A) oddiy misrliklarning uyi taxtalardan, zodagonlar uylari esa somon qo'shib qorilgan loydan yasalgan, oftobda quritilgan xom g'ishtdan qurilgan

B) oddiy misrliklarning uyi loy suvalgan papirus poyalaridan, zodagonlar uylari esa pishiq g'ishtdan qurilgan

S) oddiy misrliklarning uyi somon qo'shib qorilgan loydan yasalgan, zodagonlar uylari esa loy suvalgan papirus poyalaridan qurilgan

D) oddiy misrliklarning uyi loy suvalgan papirus poyalaridan, zodagonlar uylari esa somon qo'shib qorilgan loydan yasalgan, oftobda quritilgan xom g'ishtdan qurilgan

12. "Nom" – bu ...

A) Qadimgi Misrdagi ilk davlatlar

B) Qadimgi Misrdagi tarqoq manzilgohlar

S) loy suvalgan papirus poyalaridan qurilgan uy

D) qadimgi dehqonchilik manzilgohlari

13. Qadimgi Misrda qachon tarqoq manzilgohlar ilk davlatlarga birlashdi?

A) 5-mingyillik oxiri

B) 4-mingyillik oxiri

S) 6-mingyillik oxiri

- D) 3-mingyillik oxiri
- 14. Qadimgi Misr davlati qachon tashkil topgan?**  
 A) mil. avv. 3000-yilda  
 B) mil. avv. 3500-yilda  
 S) mil. avv. 1500-yilda  
 D) mil. avv. 2000-yilda
- 15. Mil. avv. 3000-yil...**  
 A) Quyi va Yuqori Misr davlatlari o'rtasida jang bo'lib o'tadi  
 B) odamlar Nil vodiysidagi sermashaqqat turmush sharoitiga moslasha boshladi  
 S) Misr fir'avni Tutmos II katta yurishlar uyushtirishga muvassar bo'ldi  
 D) forslardan ulkan lashkar to'plagan shahanshoh Kir II ning o'g'li Kambiz Misrni bosib oldi
- 16. Qadimgi Misrda 3-mingyillikka qadar nechta podsholik mavjud edi?**  
 A) Quyi va Yuqori Misr podsholliklari  
 B) Quyi, Qadimgi, O'rta, Yangi va So'nggi Misr podsholliklari  
 S) Yuqori, Qadimgi, O'rta Misr podsholliklari  
 D) O'rta, Yangi va So'nggi Misr podsholliklari
- 17. Qadimgi Misrda birlashgan mamlakatning ilk hukmdori kim bo'lgan?**  
 A) Tutmos II  
 B) Yaxmos  
 S) Tutmos III  
 D) Menes
- 18. Ilk Misr podsholigining poytaxti qaysi shahar hisoblangan?**  
 A) Memfis shahri  
 B) Fiva shahri  
 S) Giza shahri  
 D) Lagash
- 19. Fiva bu...**  
 A) Ilk Misr podsholigining poytaxti  
 B) Qadimgi Misr podsholigining poytaxti  
 S) O'rta Misr podsholigi poytaxti  
 D) Yangi Misr podsholigi poytaxti
- 20. Qadimgi Misr janubida qaysi davlat bilan chegaradosh bo'lgan?**  
 A) Mesopotamiya  
 B) Liviya  
 S) Suriya  
 D) Nubiya
- 21. Qadimda misrliklar Nil bo'ylab oltin, smola (qatron), fil suyagi, nodir navli yog'ochlarni ayirboshlash uchun qaysi davlatga borishgan edi?**  
 A) Liviya  
 B) Nubiya  
 S) Falastin  
 D) Suriya
- 22. Misrliklar hunarmandlar yasagan buyumlar va nodir qimmatbaho toshlarni qaysi davlatdan olib kelar edilar?**  
 A) Falastin va Suriyadan  
 B) Liviya va Mesopotamiyadan  
 S) Falastin va Nubiyadan  
 D) Liviya va Suriyadan
- 23. Qadimgi Misr g'arbida qaysi davlat joylashgan edi?**  
 A) Mesopotamiya  
 B) Liviya  
 S) Falastin  
 D) Suriya
- 24. Qadimgi davrda mis qayerdan qazib olinardi?**  
 A) Liviya  
 B) Falastin  
 S) Mesopotamiya  
 D) Sinay yarimorolidan
- 25. Sinay yarimoroli qachon Misr tomonidan bosib olingan?**  
 A) Ilk podsholik davrida  
 B) Qadimgi podsholik davrida  
 S) O'rta podsholik davrida  
 D) Yangi podsholik davrida
- 26. Giksoslar Misrga qachon hujum qildilar?**  
 A) mil. avv. XIV asr boshlarida  
 B) mil. avv. XV asr oxirida  
 S) mil. avv. XVI asr oxirida  
 D) mil. avv. XVIII asr oxirida
- 27. O'rta podsholik davrida Misrga hujum qilgan giksoslarning asosiy kuchi nima edi?**  
 A) otlar qo'shilgan jang aravalar  
 B) piyoda askarlar  
 S) kamondozlar  
 D) naftandozlar
- 28. Ma'lumki, Qadimgi Misrning O'rta podsholik davrida bu davlat bir qancha "nom"larga bo'linib ketib, giksoslarga xiroj to'lar edi. Faqat qaysi shahar hukmdorlarigina giksoslarga itoat qilmadilar.**  
 A) Memfis  
 B) Avarna  
 S) Avson  
 D) Fiva
- 29. Giksoslar istibdodidan xalos bo'lish taradudiga tushib qolgan "nom"lar hukmdorlari qaysi shahar tevaragiga birlashdilar?**  
 A) Memfis  
 B) Tir  
 S) Avson  
 D) Fiva
- 30. Qadimgi Misrning O'rta podsholik davrida Yuqori Misrning barcha "nom"lari qaysi "nom" fir'avni tevaragida birlashdilar?**



- A) Fiva  
B) Tir  
S) Avson  
D) Bibl
- 31. Qaysi fir'avn giksoslarni tor-mor etib, bosqinchilarni Misrdan haydab chiqardi?**  
A) Tutmos II  
B) Yaxmos  
S) Tutmos III  
D) Menes
- 32. Qaysi hukmdor Yangi Misr podsholigiga asos solgan?**  
A) Menes  
B) Yaxmos  
S) Tutanxamon  
D) Tutmos III
- 33. Tabarzin bu...**  
A) dastasi uzun jangovar oybolta  
B) qilich  
S) jangovar arava  
D) Misrda tarqoq manzilgohtar
- 34. Mil. avv. VII asrda ...**  
A) Misr yana yagona davlatga birlashdi, mamlakat iqtisodiyoti va madaniyati yuksalishi boshlandi  
B) Quyi Misr va Yuqori Misr o'rtasida boshlangan urushda Yuqori Misr hukmdori g'alaba qozondi  
S) odamlar Nil daryosi qirg'oqlaridagi yerlarni o'zlashtirishga bel bog'ladilar  
D) dastlabki qabilalar Nil vohasiga ko'chib o'rinishganlar
- 35. Mil. avv. 525-yilda Misrni qaysi hukmdor bosib oldi?**  
A) Kir II  
B) Kambiz  
S) Doro I  
D) Doro III
- 36. Qadimgi Misr tarixi necha davrga bo'linadi?**  
A) 2  
B) 3  
S) 4  
D) 5
- 37. Misr fir'avni Tutmos II qaysi yillar atrofida katta yurishlarni tashkillashtirishga muvassar bo'ldi?**  
A) 1200-yillar atrofida  
B) 1300-yillar atrofida  
S) 1400-yillar atrofida  
D) 1500-yillar atrofida
- 38. Qadimgi Misr podsholigining poytaxti Memfisning xudosini aniqlang.**  
A) Ptax  
B) Ra  
S) Amon
- D) Xapi
- 39. Ptax xudosining yer yuzidagi qiyofasini aniqlang.**  
A) Ra  
B) Amon  
S) Xapi  
D) Apis
- 40. Qadimgi misrliklar Ptax xudosini qaysi hayvon timsolida tasavvur qilishgan?**  
A) qora qo'y  
B) qora tovuq  
S) qora sigir  
D) qora ho'kiz
- 41. Qadimgi Misrda qaysi xudo fir'avnlarning bosh ilohi va homiysi hisoblangan?**  
A) Isida  
B) Set  
S) Amon-Ra  
D) Xapi
- 42. Qadimgi Misrning qaysi shahrida Quyosh xudosining ibodatxonasi joylashgan?**  
A) Memfis  
B) Avarna  
S) Avson  
D) Geliopol
- 43. Xapi bu...**  
A) Nil xudosi – Misrdagi hayotning birlamchi manbasi va posboni  
B) Misrdagi yerosti saltanati xudosi  
S) Memfis shahrining xudosi  
D) Ptax degan xudoning Yer yuzidagi qiyofasi
- 44. Qadimgi Misrda quyosh xudosini aniqlang.**  
A) Xapi  
B) Osiris  
S) Set  
D) Amon-Ra
- 45. Qaysi iloha qadimgi Misr afsonalariga ko'ra yerosti xudosi Osirisning xotini bo'lgan?**  
A) Isida  
B) Set  
S) Amon-Ra  
D) Xapi
- 46. Osiris ibodatxonasi xarobalari hozirgacha qaysi shaharda saqlanib qolgan?**  
A) Memfis  
B) Fiva  
S) Giza  
D) Abidos
- 47. Set bu ...**  
A) Osirisning birodari, omadsizlik, sahro va bo'ron xudosi  
B) Misrda musiqa, go'zallik va sevgi ilohasi  
S) Misrda adolat va adliya ilohasi

D) Misrda marhumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar posboni

**48. Qadimgi Misrda oy, donishmandlik va tabiblik ilohini aniqlang.**

- A) Set
- B) Xatxor
- S) Maat
- D) Tot

**49. Qadimgi Misrda marhumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar posboni bu ...**

- A) Set
- B) Xatxor
- S) Tot
- D) Anubis

**50. Rivoyatlarga ko'ra, Misrning ilk afsonaviy podsholaridan biri bo'lgan ilohni aniqlang.**

- A) Tot
- B) Anubis
- S) Osiris
- D) Set

**51. Rivoyatlarga ko'ra, qadimgi misrliklarni dehqonchilikka o'rgatgan ilohni ko'rsating.**

- A) Ptax
- B) Amon-Ra
- S) Set
- D) Osiris

**52. Rivoyatlarga ko'ra, Qadimgi Misr ilohlaridan biri Osirisning qotili kim bo'lgan?**

- A) Maat
- B) Anubis
- S) Amon-Ra
- D) Set

**53. Qadimgi Misrda qaysi voqeadan so'ng barcha marhumlar mumiyolanadi?**

A) Isida o'z eri Osirisni mumiyolagan va qayta tiriltirganidan keyin

B) Isida o'z akasi Maatni mumiyolagan va qayta tiriltirganidan keyin

S) Anubis o'z akasi Osirisni mumiyolagan va qayta tiriltirganidan keyin

D) Isida o'z akasi Totni mumiyolagan va qayta tiriltirganidan keyin

**54. Quyidagi xudolardan faqat Misrga tegishli bo'lganini aniqlang.**

1) Ptax; 2) Indra; 3) Ganesha; 4) Ahuramazda; 5) Osiris; 6) Nika; 7) Xapi; 8) Amon-Ra; 9) Aid

- A) 2, 4, 6, 9
- B) 3, 5, 7, 8
- S) 1, 5, 7, 8
- D) 1, 3, 4, 6

**55. Quyidagi atamalardan qaysi birlari faqatgina Qadimgi Misrga taalluqli?**

1) Osiris; 2) Saka-tigraxauda; 3) doroyi; 4) sat-

rapliklar; 5) podsho tirsagi; 6) Uzunqir; 7) Xapi; 8) Gefest; 9) nom.

- A) 1, 5, 7, 9
- B) 1, 3, 7, 8
- S) 1, 4, 7, 8
- D) 1, 5, 6, 7

**56. Ma'lumki, qadimda Misr 4 davlat bilan chegaradosh bo'lgan. Ular qaysi davlatlar edi?**

1) Nubiya; 2) Eron; 3) Mesopotamiya; 4) Suriya; 5) Yunoniston; 6) Liviya; 7) Xitoy; 8) Falastin; 9) Hindiston.

- A) 1, 5, 7, 8
- B) 1, 4, 6, 9
- S) 1, 2, 3, 4
- D) 1, 4, 6, 8

**57. Qadimgi Misrda xudolar va odamlar o'rtasida vositachi qanday nomlanadi?**

- A) kohinlar
- B) olimlar
- S) piramidalar
- D) fir'avnlr

**58. Misrliklar e'tiqodicha, xudolar odamlarga madad bermay qo'yishlariga sabab nimada edi?**

A) yer yuzida ibodatxonalar buzib tashlansa  
B) yer yuzida urushlar ko'paysa  
S) yer yuzida maxsus marosimlar ado etilmasa  
D) yer yuzida odamlar fir'avnlarga itoat qilmay qo'ysa

**59. Misrliklar e'tiqodicha, ibodatxona ...**

A) xudolar va ilohlarning Yer yuzidagi koshonasi  
B) ibodat bajo etiladigan qarorgoh  
S) fir'avnlr ibodat qiladigan koshona  
D) karvonlar to'xtab dam oladigan karvonsaroy

**60. Qadimgi Misrda kohinlar kuniga necha marotaba xudolarga qurbonliklar bag'ishlar edilar?**

- A) 7 marotaba
- B) 6 marotaba
- S) 5 marotaba
- D) 3 marotaba

**61. Qaysi Misr podsholigi davrlarida piramidalar bino qilingan?**

A) Ilk va O'rta podsholiklari davrida  
B) O'rta va Yangi podsholiklari davrida  
S) Qadimgi va O'rta podsholiklari davrida  
D) Yangi va So'nggi podsholiklari davrida

**62. Qaysi shaharda eng mashhur piramidalar bunyod etilgan?**

- A) Abidos
- B) Fiva
- S) Giza
- D) Lagash

**63. Qadimgi Misrning fir'avnlari – Xufu, Xafra va Menkaura uchun bunyod etilgan mashhur piramidalar qaysi shaharda bunyod etilgan?**

- A) Memfisda  
 B) Fiva  
 S) Geliopolda  
 D) Gizada
- 64. Eng katta piramida bu ...**  
 A) Menkaura  
 B) Xafra  
 S) Xufu  
 D) Xufu va Xavra
- 65. Xufu piramidasi qachon qurilgan?**  
 A) mil. avv. 2600-yil  
 B) mil. avv. 2700-yil  
 S) mil. avv. 2800-yil  
 D) mil. avv. 2500-yil
- 66. Xufu piramidasi balandligini aniqlang.**  
 A) 147 metr  
 B) 148 metr  
 S) 146 metr  
 D) 145 metr
- 67. Xufu piramidasi har biri ikki tonnadan og'irroq tosh bloklaridan qanchasi mavjud?**  
 A) 3,5 million dona  
 B) 2,5 million dona  
 S) 2,5 milliard dona  
 D) 2 million dona
- 68. Sarkofag bu ...**  
 A) Fir'avning mumiyolangan jasadi solingan toshbut  
 B) Misrda marhumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar posboni  
 S) tanasi arslon va boshi odamnikisimon bo'lgan ulkan haykal  
 D) dastasi uzun jangovar oybolta
- 69. Tanasi arslon va boshi odamnikisimon bo'lgan ulkan haykalni aniqlang.**  
 A) sfinks  
 B) sarkofag  
 S) piramida  
 D) ibodatxona
- 70. Eng mashhur maqbara tegishli bo'lgan Misr fir'avni aniqlang.**  
 A) Tutanxamon  
 B) Tutmos II  
 S) Tutmos III  
 D) Yaxmos
- 71. Ma'lumki, Yangi podsholik davridan boshlab piramidalar qurilmay qo'ygan. Fir'avnlarni qayerlarga dafn etadigan bo'lishdi?**  
 A) yerga dafn etiladigan bo'ldi  
 B) daryoga kuli oqiziladigan bo'ldi  
 S) yerosti g'orlariga dafn etiladigan bo'ldi  
 D) tog'larga o'yilgan tosh maqbaralarga dafn etiladigan bo'ldi
- 72. Mumiyolash qancha kun davom etgan?**  
 A) 70 kun  
 B) 71 kun  
 S) 72 kun  
 D) 73 kun
- 73. Mumiyolash bu ...**  
 A) jasadga maxsus ishlov berilganidan keyin ko'pdan ko'p matolar bilan o'rab chirmashgan, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezalgan, matolar qati orasiga omad keltiruvchi tumorlar qo'yilgan inson mayyiti  
 B) jasadga sherniki va kallasi insonniki bo'lgan, piramidalarini qo'riqlovchi afsonaviy mavjudot  
 S) muqaddas deb e'lon qilingan, odamlar xudolarga sig'ingan bino  
 D) Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi
- 74. Qadimgi misrliklar diniy e'tiqodiga ko'ra, qumursqalar orasida alohida hurmat-e'tiborga sazovori bu...**  
 A) zuluk  
 B) chumoli  
 S) chigirtka  
 D) qoraqo'ng'iz
- 75. Jismida Bastet degan iloha gavdalangan qaysi hayvon sharafiga uyushtirilgan bayramlarda Misrning jami aholisi ishtirok etgan?**  
 A) mushuk  
 B) kuchuk  
 S) sichqon  
 D) ot
- 76. Qadimgi misrliklar qaysi hayvonlarni muqaddas deb bilganlar?**  
 A) mushuk, qo'y, ho'kiz, sigir, arslon, lochin, ilon  
 B) it, qo'y, ho'kiz, sigir, arslon, lochin, ilon  
 S) sichqon, qo'y, ho'kiz, sigir, arslon, lochin  
 D) ot, qo'y, ho'kiz, sigir, arslon, ilon
- 77. Misrliklar yozuvlarini "muqaddas" yoki "xudolar kalomi" deb nomlashlariga sabab nimada edi?**  
 A) yozuvdan o'limdan keyingi hayotni yozib borishda foydalanganliklari uchun  
 B) yozuvdan fir'avnlarni hayotini yozib borishda foydalanganliklari uchun  
 S) yozuvdan an'analarni yozib borishda foydalanganliklari uchun  
 D) yozuvdan qarq'ishlar va marosimlarni yozib borishda foydalanganliklari uchun
- 78. Iyerogliflar bu ...**  
 A) toshga chekilgan muqaddas bitiklar  
 B) Fir'avning mumiyolangan jasadi solingan toshbut

S) Misrda marhumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar posboni

D) dastasi uzun jangovar oybolta

**79. Misr yozuvini iyeroglif deb qaysi xalq atagan edi?**

A) yunonlar

B) xitoyliklar

S) mesopotamiyaliklar

D) so'g'diylar

**80. Misrliklar alifbosida qancha iyeroglif mavjud edi?**

A) 750 ta

B) 800 ta

S) 600 ta

D) 500 ta

**81. Kim Misr matnlarini o'qish kalitini topgan?**

A) Xetagurov

B) M.M. Kosyubinskiy

S) Jak-Fransua Shampolyon

D) Simey Fatabey

**82. 1822-yil ...**

A) Ibsen "Uya" asarini yozdi

B) M. Reynxard tavallud topdi

S) Dvorjak "Madhiya" kantatasini yaratdi

D) Jak-Fransua Shampolyon Misr matnlarini o'qish kalitini topdi

**83. Hozirgi kunda qaysi shaharda Rozett bitiktoshi saqlanmoqda?**

A) London

B) Parij

S) Rim

D) Qohira

**84. Papirus bu ...**

A) poyasining mag'zi yozuv yozishga material tayyorlash uchun ishlatiladigan qamish

B) jasadga maxsus ishlov berilganidan keyin ko'pdan ko'p matolar bilan o'rab chirmashgan, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezalgan, matolar qati orasiga omad keltiruvchi tumorlar qo'yilgan inson mayyiti

S) Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi

D) muqaddas deb e'lon qilingan, odamlar xudolarga sig'ingan bino

**85. Qadimgi misrliklarning nazariy bilimlarining dunyoga kelishi va rivoj topishi...**

A) taqvim yaratilishiga olib keldi

B) nazariy faoliyat bilan bog'liq

S) geometriya fanining dunyoga kelishiga olib keldi

D) amaliy faoliyat bilan bog'liq

**86. Qaysi xalq dunyoda birinchi bo'lib taqvim tuzishgan?**

A) hindlar

B) mesopotamiyaliklar

S) eronliklar

D) misrliklar

**87. Ma'lumki, misrlik ziroatchilarning qachon urug'likni yerga qadash, qay mahalda hosilni yig'ishtirib olishni bilishi zarur edi. Bu muddatlarni ular qanday aniqlaganlar?**

A) misrliklar bu muddatlarni taqvimga qarab aniqlashgan

B) misrliklar bu muddatlarni oyga qarab aniqlashgan

S) misrliklar bu muddatlarni yulduzlarga qarab aniqlashgan

D) misrliklar bu muddatlarni qaldirg'ochning parvozigacha qarab aniqlashgan

**88. Misrliklar yulduzlarni kuzata turib yil davomiyligini 365 kun etib aniq-raso belgilashgan, 365 kunni 30 kundan 12 oyga taqsimlashgan. Ortib qolgan 5 kunni qanday kunlar sanab, hisobga kiritishmadi?**

A) qurbonlik kunlari

B) bayram kunlari

S) xudolarga sig'inish kunlari

D) bayram va qurbonlik kunlari

**89. Qadimgi Misrda qay tariqa astronomiya fani vujudga keldi?**

A) olimlar kun botishini o'rganish muddatlarini yulduzlarga qarab aniqlaganlaridan so'ng

B) olimlar kun chiqishini o'rganish muddatlarini yulduzlarga qarab aniqlaganlaridan so'ng

S) ziroatchilar urug'likni yerga qadash, hosilni yig'ishtirib olish muddatlarni taqvimlarga qarab aniqlaganlaridan so'ng

D) ziroatchilar urug'likni yerga qadash, hosilni yig'ishtirib olish muddatlarni yulduzlarga qarab aniqlaganlaridan so'ng

**90. "Tirsak" bu ...**

A) Misrda marhumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar posboni

B) tanasi arslon va boshi odamnikisimon bo'lgan ulkan haykal

S) Misrda asosiy o'lchov birligi

D) fir'avning mumiyolangan jasadi solingan toshdobot

**91. Qadimgi Misrda "podsho tirsagi"ning uzunligini aniqlang.**

A) 51,5 sm

B) 53,5 sm

S) 54,5 sm

D) 52,5 sm

**92. Bir "tirsak" ni tashkil etgan barmoqlar sonini aniqlang.**

A) 28 ta

- B) 29 ta  
S) 30 ta  
D) 31 ta
- 93. Bir "tirsak"ni tashkil etgan kaftlar sonini aniqlang.**  
A) 6 ta  
B) 7 ta  
S) 5 ta  
D) 4 ta
- 94. Tutmos III ning yurishi to'g'risidagi kitoblar qaysi ibodatxonada saqlanib qolgan?**  
A) Lagash shahridagi ibodatxonada  
B) Giza shahridagi ibodatxonada  
S) Memfis shahridagi ibodatxonada  
D) Megido shahridagi ibodatxonada
- 95. Qadimgi misrliklarning tarixga oid ma'lumotlari nimalarda saqlanib qolgan?**  
A) piramidalar, papirus va charmga yozilgan bitiklarda  
B) ibodatxonalar devorlari, papirus va charmga yozilgan bitiklarda  
S) papirus va sopol taxtaga yozilgan bitiklarda  
D) piramidalar va qog'ozga yozilgan bitiklarda
- 96. Turin papirusida qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?**  
A) fir'avn Tutmos III ning yurishi to'g'risidagi kitobalari saqlangan  
B) yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" asari saqlangan  
S) unda podsholar sulolasi xronologik izchillikda keltirilgan  
D) unda qadimgi Misr adabiyotidan namunalar keltirilgan
- 97. Qadimgi Misrda vaqt nima yordamida o'lchangan?**

- A) suv soatlari yordamida  
B) qo'l soatlari yordamida  
S) quyosh yordamida  
D) oy yordamida
- 98. Qadimgi Misrning qaysi ertagida Qing'irlik Haqiqat ustidan sud o'tkazgani, ko'zlarini ko'r qilishi va Adolatsizlik ustidan Haqiqatning tantana qilishi haqida hikoya qilinadi?**  
A) "Qing'irlik haqida ertak" da  
B) "Haqiqat haqida ertak" da  
S) "Haqiqat va Qing'irlik haqida ertak"da  
D) "Og'a-inilar" ertagida
- 99. Qadimgi Misrning "Og'a-inilar" ertagida ...**  
A) aka-uka dehqonlar turmushi tasvirlanadi, zolim fir'avn timsoli yoritiladi  
B) aka-uka hunarmandlar turmushi tasvirlanadi, zolim fir'avn timsoli yoritiladi  
S) aka-uka dehqonlar turmushi tasvirlanadi, vatanparvar fir'avn timsoli yoritiladi  
D) aka-uka qullar turmushi tasvirlanadi, zolim fir'avn timsoli yoritiladi
- 100. Qadimgi Misrda qay tariqa geometriya fani vujudga keldi?**  
A) ziroatchilar urug'likni yerga qadash, hosilni yig'ishtirib olish muddatlarini yulduzlarga qarab aniqlaganlaridan so'ng  
B) anhorlar qazilayotganda, istalغان imorat va inshootni barpo etayotganda balandlikni, hajmni o'lchash zarurligi sababli  
S) quduqlar qazilayotganda, istalغان imorat va inshootni barpo etayotganda maydonni, hajmni o'lchash zarurligi sababli  
D) anhorlar qazilayotganda, istalغان imorat va inshootni barpo etayotganda maydonni, hajmni o'lchash zarurligi sababli

## QADIMGI MESOPOTAMIYA

- 1. Dajla va Frot daryolari oralig'idagi vodiy qanday nomlanadi?**  
A) Mesopotamiya  
B) Misr  
S) Kushon  
D) Yunon-Baqtriya
- 2. Mesopotamiya atamasi qanday ma'noni anglatadi?**  
A) Ikki daryo oralig'i  
B) Ikki vodiy oralig'i  
S) Hayot daraxti  
D) Toshga chekilgan muqaddas bitiklar
- 3. Mesopotamiyada qaysi daraxtni "hayot daraxti" deb atashar edilar?**

- A) olma  
B) xurmo  
S) o'rik  
D) uzum
- 4. Bir tup "hayot daraxti" qancha hosil bergan?**  
A) 50 kg gacha  
B) 60 kg gacha  
S) 30 kg gacha  
D) 40 kg gacha
- 5. Qaysi qadimgi davlatda jahondagi eng qadimiy miflardan biri – Yer yuzini butunlay suv bosishi to'g'risidagi To'fon rivoyati dunyoga keldi?**  
A) Misrda  
B) Mitaniyada

- S) Midiyada  
D) Ikki daryo oralig'ida
- 6. Qachon shumerlar Janubiy Mesopotamiyaga joylashib, bu yurtni Shumer deb ataganlar?**  
A) mil. avv. 2-mingyillik  
B) mil. avv. 3-mingyillik oxiri  
S) mil. avv. 4-mingyillik oxiri  
D) mil. avv. 4-mingyillik
- 7. Mil. avv. 4-mingyillikda Mesopotamiyaning shimoliy qismida qaysi xalqning manzilgozlari vujudga kelgan?**  
A) shumerlar  
B) akkadlar  
S) bobilliklar  
D) kassitlar
- 8. Qachondan boshlab akkadlar butun Mesopotamiyani egallab oldilar?**  
A) mil. avv. 4-mingyillik oxirida  
B) mil. avv. 5-mingyillik oxirida  
S) mil. avv. 3-mingyillik oxirida  
D) mil. avv. 2-mingyillik oxirida
- 9. Mesopotamiya aholisining asosiy mashg'ulot turini aniqlang.**  
A) dehqonchilik  
B) chorvachilik  
S) baliqchilik  
D) ovchilik
- 10. Mesopotamiya aholisi savdo-sotiq bilan shug'ullanishiga sabab nima edi?**  
A) Mesopotamiyada yog'och, tosh, metall singari xo'jalik uchun zarur materiallar bo'lgani  
B) Mesopotamiyada don mo'l-ko'l yetishtirilgani  
S) Mesopotamiyada chorva mollari tuyog'i ko'p bo'lgani  
D) Mesopotamiyada don mo'l-ko'l yetishtirilgani va chorva mollari tuyog'i ko'p bo'lgani
- 11. Qaysi xalq eng qadimgi yozuv – mixxatni ixtiro qilgan?**  
A) rimliklar  
B) misrliklar  
S) yunonlar  
D) shumerlar
- 12. "Mino" bu ...**  
A) Mesopotamiyada og'irlik o'lchovi  
B) Misrda asosiy o'lchov birligi  
S) Misrda marhumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar posboni  
D) toshga chekilgan muqaddas bitiklar
- 13. Qadimgi o'lchov birliklardan qay biri 550 gramm kumushga teng bo'lgan?**  
A) "tirsak"  
B) "mino"  
S) "doroyi"  
D) "podsho tirsagi"
- 14. Mesopotamiyaga oltin, mis, kumush, qalayi va noyob toshlar qaysi o'lkalardan keltirilar edi?**  
A) Misr va Erondan  
B) Suriya va Kavkazortidan  
S) Kavkazorti va Erondan  
D) Xett va Yunonistondan
- 15. Mesopotamiyaga Suriyadan qanday mahsulot keltirilar edi?**  
A) oltin va mis  
B) kumush va qalayi  
S) qalayi va noyob toshlar  
D) kedr yog'ochi
- 16. Mil. avv. 4-mingyillik oxirida ...**  
A) Shumerlarga singishib ketgan akkadlar butun Mesopotamiyani egallab oldilar  
B) Lagash davlati yuksala boshladi, Shumer va Akkadning ko'pgina shaharlari Lagashga qo'shib olindi  
S) Sargon I Akkadni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi  
D) Mesopotamiyada Uruk, Umma, Lagash, Ur kabi shaharlar vujudga kela boshladi
- 17. Ma'lumki, Uruk, Umma, Lagash va Ur kabilar shahar-davlatlar hisoblanib, ular ...**  
A) mustahkam himoya devorlaridan iborat bo'lgan  
B) bir qancha shaharlar ittifoqidan iborat bo'lgan  
S) markaziy hokimiyatga bo'ysunmaganlar  
D) shaharning o'zi va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo'lgan
- 18. Mesopotamiyadagi shahar-davlatlarining oliy xudo – shahar homiysini aniqlang.**  
A) Shamash  
B) Sina  
S) Ishtar  
D) shahar hukmdori
- 19. Qadimgi Mesopotamiyadagi shahar-davlatlarni xudo nomidan kimlar boshqargan?**  
A) har bir shaharning hukmdori  
B) koinlar  
S) zodagonlar  
D) podsholar
- 20. Qadimgi Mesopotamiya davlatidagi hokimiyat markazini aniqlang.**  
A) saroy a'yonlari  
B) shaharlar ittifoqi  
S) koinlar  
D) xudolar ibodatxonasi
- 21. Qadimgi Mesopotamiyada qaysi xudo yomon ishlari uchun odamlarni sud qilgan?**  
A) Shamash  
B) Sina  
S) Ea

- D) Ishtar
- 22. Qadimgi Mesopotamiyadagi Quyosh xudosi aniqlang.**
- A) Sina  
B) Shamash  
S) Ishtar  
D) Osiris
- 23. Qadimgi Mesopotamiyada qaysi iloh oliy hakam hisoblangan?**
- A) Ea  
B) Sina  
S) Ishtar  
D) Shamash
- 24. Qadimgi Mesopotamiyada Ea – bu ...**
- A) Quyosh xudosi  
B) suv xudosi  
S) hosildorlik va sevgi xudosi  
D) urush va g'alaba ilohasi
- 25. Sina bu ...**
- A) Qadimgi Mesopotamiyada oy xudosi  
B) Qadimgi Mesopotamiyada quyosh xudosi  
S) Qadimgi Mesopotamiyada suv xudosi  
D) Qadimgi Mesopotamiyada hosildorlik va sevgi hamda urush va g'alaba ilohasi
- 26. Qadimgi Mesopotamiyadagi qaysi iloha hosildorlik, sevgi, urush va g'alaba ilohasi edi?**
- A) Osiris  
B) Ea  
S) Sina  
D) Ishtar
- 27. Qadimgi Mesopotamiyadagi qaysi iloha ikki yuzli bo'lgan?**
- A) Osiris  
B) Ea  
S) Sina  
D) Ishtar
- 28. 5000 yil muqaddam...**
- A) Mesopotamiyada Uruk, Umma, Lagash, Ur va boshqa shaharlar vujudga kela boshladi  
B) Sargon I Akkadni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi  
S) Shumer-Akkad davlati ko'chmanchi qabilalar zarbasidan parchalandi  
D) Shumer shaharlari orasida eng qudratlisi Ur shahri bo'ldi
- 29. Urning kuch-qudratidan dalolat beradigan ashyolarni toping.**
- A) Oltin buyumlar, dabdabali qurol-yarog'lar, kumush idishlar  
B) dehqonchilikni yuksak rivoj topganligi  
S) karvon yo'llarining o'tganligi  
D) oltin va kumushdan zarb etilgan tangalar

**30. Mesopotamiyadagi katta-katta yer mulklariga kimlar egalik qilar edilar?**

- A) hukmdorlar  
B) kohinlar  
S) dehqonlar  
D) hukmdorlar va kohinlar
- 31. Qachon Lagash davlati yuksala boshlagan va Shumer va Akkadning ko'pgina shaharlari Lagashga qo'shib olingan?**

- A) mil. avv. 3-mingyillik o'rtalari  
B) mil. avv. 4-mingyillik boshlari  
S) mil. avv. 2-mingyillik  
D) mil. avv. 4-mingyillik oxiri
- 32. Shumer shahrining bosh darvozasidan boshlangan ko'chalar qayerlarga olib borar edi?**

- A) hukmdor saroyiga  
B) bozorga  
S) markaziy maydonga, ibodatxona va hukmdor saroyiga  
D) hukmdorlar dafn etilgan qabristonga

**33. Xudolar va qahramonlar haykallari bilan hashamatli bezatilgan ibodatxona qaysi shaharda ekanligini aniqlang.**

- A) Urda  
B) Ummada  
S) Urukda  
D) Lagashda

**34. Qadimgi Mesopotamiya hukmdorlarini nima deb atashgan?**

- A) fir'avn  
B) podsho  
S) shahanshoh  
D) shoh

**35. Qadimgi Mesopotamiya hukmdorlari shahar-davlatni kimlarga tayangan holda idora qilgan?**

- A) saroy a'yonlariga tayangan holda idora qilgan  
B) harbiy qo'shinga tayangan holda idora qilgan  
S) kohinlarga tayangan holda idora qilgan  
D) aslzodalar, kohinlar va harbiy qo'shinlarga tayangan holda amaldorlar yordamida idora qilgan

**36. Mesopotamiyaning eng sevimli qahramonini toping.**

- A) Sargon I  
B) Gilgamish  
S) Endiku  
D) Navuxodonosor II

**37. Mesopotamiyaning qadimgi afsonasida keltirilishicha, Gilgamish dunyoga kelgandan keyin mamlakat hukmdori bo'lmish bobosi nevarasi undan taxtni tortib olishidan vahimaga tushib, qanday ish ko'radi?**

- A) Gilgamishni jarga tashlab yuborishga farmoyish beradi

B) Gilgamishni Uruk shahri hukmdori etib tayinlaydi

S) Gilgamishni sandiqqa solib, daryoga oqizib yuborishga farmoyish beradi

D) Gilgamishni tiriklayin ko'mishga farmoyish beradi

**38. Afsonada aytilishicha, Gilgamish dengiz tubida o'sadigan sehrli giyohni topib, ko'lda cho'milib turganida gulning isini sezib qolib, qaysi jonzot mehriyoni o'g'irlab ketadi?**

A) chayon

B) ilon

S) chumoli

D) maymun

**39. Gilgamish qaysi shaharga hukmronlik qilgan?**

A) Uruk

B) Ur

S) Lagash

D) Umma

**40. Gilgamish kim bilan do'st tutinib, yovuz maxluqotlarga qarshi kurashadi?**

A) Shumer podshosi Shumer I

B) Pahlavon Enkidu

S) Bobil podshosi Xammurapi

D) Quyosh xudosi Shamash

**41. Mil. avv. 3-mingyillikning o'rtalarida bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni aniqlang.**

A) Mesopotamiyada Uruk, Umma, Lagash, Ur va boshqa shaharlar vujudga kela boshladi; Sargon I hamma shaharlar uchun yogona bo'lgan o'lchov birligini joriy etadi

B) Bobil davlati parchalanib ketdi; Lagash davlati yuksala boshladi

S) Shumer-Akkad davlati ko'chmanchi qabilalar zarbasidan parchalandi; Bobil podsholigi qudratli davlatga aylanadi

D) Lagash davlati yuksala boshladi, Shumer va Akkadning ko'pgina shaharlari Lagashga qo'shib olindi; Sargon I Akkadni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi

**42. Mil. avv. 3-mingyillikning o'rtalarida kim Akkadni o'z hokimiyati ostida birlashtirgan?**

A) Sargon I

B) Gilgamish

S) Tutmos II

D) Xammurapi

**43. Jahon tarixida birinchi bo'lib muntazam qo'shin tuzgan hukmdor kim?**

A) Xammurapi

B) Navuxodonosor II

S) Gilgamish

D) Sargon I

**44. Dunyo tarixida dastlab tuzilgan qo'shinda qancha lashkar mavjud edi?**

A) 5400 kishi

B) 2880 kishi

S) 3220 kishi

D) 4500 kishi

**45. "To'rt iqlim mamlakati podshosi" unvonini olgan podshohni aniqlang.**

A) Tutmos II

B) Tutmos III

S) Sargon I

D) Navuxodonosor II

**46. Sargon I barcha shaharlar uchun yogona uzunlik, maydon va og'irlik o'lchovini joriy etadi. Bundan ko'zlangan maqsad nima edi?**

A) binokorlikni rivojlantirish

B) qishloq xo'jaligini rivojlantirish

S) ekin maydonlarini kengaytirish

D) savdo-sotiqni rivojlantirish

**47. Mil. avv. 3-mingyillikning o'rtalarida qaysi hukmdor Mesopotamiyadan Arabiston, Eron va Hindistonga boradigan dengiz savdo yo'llarini egallab oldi?**

A) Xammurapi

B) Navuxodonosor II

S) Gilgamish

D) Sargon I

**48. Mil. avv. 2-mingyillikda ...**

A) Shumerlarga singishib ketgan akkadlar butun Mesopotamiyani egallab oldilar

B) Shumer-Akkad davlati ko'chmanchi qabilalar zarbasidan parchalandi

S) Sargon I Akkadni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi

D) Lagash davlati yuksala boshladi, Shumer va Akkadning ko'pgina shaharlari Lagashga qo'shib olindi

**49. Mil. avv. 4-mingyillik oxirida Mesopotamiyada tashkil topgan shahar-davlatlarni belgilang.**

1) Bobil; 2) Uruk; 3) Suza; 4) Ekbatana; 5) Umma; 6) Lagash; 7) Giza; 8) Ur; 9) Koshala;

A) 1, 3, 5, 9

B) 2, 5, 6, 8

S) 2, 4, 6, 7

D) 1, 2, 8, 9

**50. Quyidagi xudolardan faqat Mesopotamiyaga tegishli bo'lganini aniqlang.**

1) Shamash; 2) Osiris; 3) Sina; 4) Nika; 5) Ea 6) Amon-Ra; 7) Aid; 8) Ishtar; 9) Ptax

A) 1,2,5,8

B) 1,3,5,8

S) 1,4,6,7

D) 2,3,8,9

**51. Quyidagi atamalardan faqat qadimgi Mesopotamiyaga tegishli bo'lganini aniqlang.**



1) Saka-tigraxauda; 2) mixxat; 3) zikkurat;  
4) podsho tirsagi; 5) Bobil; 6) Gefest; 7) nom

- A) 1,3,5  
B) 1,2,3  
S) 1,4,7  
D) 2,3,5

**52. Bobil podsholigi qachon eng yirik qudratli davlatga aylangan?**

- A) mil. avv. 2-mingyillik  
B) mil. avv. 3-mingyillik  
S) mil. avv. 4-mingyillik  
D) mil. avv. 5-mingyillik

**53. Frot va Dajla daryolari o'zanlari deyarli bir-biriga qo'shilib ketadigan hududda qaysi qadimgi davlat mavjud bo'lgan?**

- A) Bobil  
B) Shumer  
S) Akkad  
D) Urartu

**54. "Bobil" so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

- A) xudolar darvozasi  
B) podshohlar uyi  
S) markazlashgan davlat  
D) "Farishtalar uyi"

**55. Quyidagi qaysi qadimgi davlat poytaxtining bosh ko'chasi g'alaba ilohasi Ishtar darvozasi bilan tugallangan?**

- A) Memfis  
B) Fiva  
S) Bobil  
D) Shumer

**56. Mil. avv. XVIII asrda qaysi Bobil hukmdori Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirgan?**

- A) Sargon I  
B) Navuxodonosor II  
S) Xammurapi  
D) Sarduri

**57. Kimning davrida Bobil podsholigi eng qudratli davlatga aylangan?**

- A) Navuxodonosor II  
B) Tutmos II  
S) Sargon I  
D) Xammurapi

**58. Jahon tarixida qaysi hukmdor dastlabki qonunlar to'plamini tuzib, "qonunlar tuzuvchi" hukmdor sifatida nom qoldirgan edi?**

- A) Gilgamish  
B) Xammurapi  
S) Endiku  
D) Sargon I

**59. Xammurapi qonunlari qanday buyumlarga bitilgan edi?**

- A) sopol buyum parchalariga

B) shahar darvozalariga

S) ho'kiz terilariga

D) tosh ustunlariga

**60. Qadimgi dunyo tarixida mashhur bo'lgan Xammurapi kim bo'lgan?**

A) Gilgamishning do'sti, pahlavon

B) "To'rt iqlim mamlakati podshosi" unvonini olgan Akkad podshosi

S) jahon tarixida birinchi bo'lib muntazam qo'shin tuzgan Akkad podshosi

D) tarixda qonunlar tuzuvchi hukmdor sifatida nom qoldirgan Bobil podshosi

**61. Xammurapi qonunlariga ko'ra, mabodo arxitektor qurgan uy to'satdan yiqilib, biror kishini bosib qolganda arxitektorga qanday jazo berilgan?**

A) panjalari kesib tashlangan

B) bosib qolgan kishining oilasiga o'z oila a'zolari bilan 3 yil muddatga qullikka berilgan

S) olovda kuydirilgan

D) o'lim jazosi berilgan

**62. Xammurapi qonunlariga ko'ra, shifokor amalga oshirgan operatsiya natijasida bemor bevaqt vafot etsa, shifokorga nisbatan qanday jazo qo'llanilgan?**

A) olovda kuydirilgan

B) o'lim jazosi berilgan

S) panjalari kesib tashlangan

D) tiriklayin ko'milgan

**63. Xammurapi qonunlariga ko'ra, jazolanuvchining qaysi aybi uchun uch yil muddatga qullikka berish shart bo'lgan?**

A) shifokor amalga oshirgan operatsiya natijasida bemor bevaqt vafot etsa

B) arxitektor qurgan uy to'satdan yiqilib, biror kishini bosib qolgan bo'lsa

S) qarzni o'z vaqtida qaytarmagan kishi

D) ayblanuvchi jabrlanuvchining ko'zlariga jarohat yetkazgan bo'lsa

**64. Xammurapi qonunlariga ko'ra, mabodo ayblanuvchi jabrlanuvchining ko'zlariga jarohat yetkazgan bo'lsa qanday jazo olgan?**

A) uning ko'zlariga ham xuddi shunday jarohat yetkazilishi shart edi

B) o'lim jazosi berilgan

S) tiriklayin ko'milgan

D) olovda kuydirilgan

**65. Xammurapi qonunlariga ko'ra, ayblanuvchining qaysi qilmishi uchun uni olovga darhol otishgan?**

A) shifokor amalga oshirgan operatsiya natijasida bemor bevaqt vafot etsa

B) arxitektor qurgan uy to'satdan yiqilib, biror kishini bosib qolgan bo'lsa

S) qarzni o'z vaqtida qaytarmagan kishi

D) yong'in mahalida o'g'irlik ustida qo'lga tushsa

**66. Xammurapi qonunlariga ko'ra, qulfbuzar o'g'riga nisbatan qanday jazo qo'llashgan?**

- A) u o'g'irlik qilgan joyida o'ldirilgan va o'sha yerning o'zida ko'mib yuborilgan
- B) umrbod zindonga tashlangan
- S) panjalari kesib tashlangan
- D) dorga osilgan

**67. Ma'lumki, Xammurapi qonunlariga so'zsiz og'ishmay bajarish talab qilinardi va bobilliklar bu qonunlarning qat'iyligi va ayovsizligiga qaramay ularni bajarishardi. Buning sababi nimada edi?**

- A) bu qonunlar hukmdorning farmoni sifatida talqin qilingan
- B) bu qonunlar xudolar xohish-irodasi sifatida talqin qilingan
- S) bu qonunlar o'zlarining urf-odatlar majmui sifatida talqin qilingan
- D) bu qonunlar kohinlarning xohish-irodasi sifatida talqin qilingan

**68. Xammurapi vafotidan so'ng Bobil necha yil davomida davlat poytaxti bo'lib qolgan?**

- A) 120 yil davomida
- B) 150 yil davomida
- S) 160 yil davomida
- D) 175 yil davomida

**69. Qadimgi Bobil podsholigi qaysi qabilalar tomonidan zarba berilishi natijasida barham topdi?**

- A) giksoslar
- B) aromiylar
- S) xurritlar
- D) kassitlar

**70. Qadimda Yangi Bobil podsholigi qachon vujudga kelgan?**

- A) mil. avv. XVI asrda
- B) mil. avv. XII asrda
- S) mil. avv. VIII asrda
- D) mil. avv. VII asrda

**71. Xammurapi vafotidan 150 yil o'tgach ...**

- A) tog'lik kassitlar qabilasi Bobilni bosib oladi
- B) Eronliklar lashkari bobilga bostirib kirdi
- S) Shumerlarga singib ketgan akkadlar butun Mesopotamiyani egallab oldilar
- D) Sargon I akkadlarni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi

**72. Qaysi hukmdor davrida Yangi Bobil podsholigi o'z ravnaqining yuqori cho'qqisiga erishdi?**

- A) Xammurapi
- B) Salamansar
- S) Sargon I
- D) Navuxodonosor II

**73. Yangi Bobil podsholigida qaysi hukmdor o'z davlatini "bo'ysunmas qal'a"ga aylantirgan?**

- A) Navuxodonosor II

- B) Xammurapi
- S) Samsuilun
- D) Tiglatpalasar I

**74. Yangi Bobil podsholigining hukmdori Navuxodonosor II davrida Bobil shahrining nechta darvozasi bo'lgan?**

- A) 7 ta
- B) 4 ta
- S) 5 ta
- D) 8 ta

**75. Ma'lumki, Yangi Bobil shahridagi darvozalarning har biri ...**

- A) hukmdorning vorislari nomi bilan atalgan
- B) avsonaviy qahramonlar nomi bilan atalgan
- S) mamlakat bosh xudolaridan birining nomi bilan atalgan
- D) mashhur hukmdorlarning nomi bilan atalgan

**76. Eronliklar nechanchi yilda Yangi Bobil podsholigini zabt etadilar?**

- A) mil. avv. 539-yil
- B) mil. avv. 722-yil
- S) mil. avv. 546-yil
- D) mil. avv. 525-yil

**77. Yangi Bobil hududidan fors qo'shinlari kim tomonidan haydab chiqariladi?**

- A) Makedoniyalik Aleksandr
- B) Salamansar
- S) Navuxodonosor II
- D) Xammurapi

**78. Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng Bobil qaysi davlat tarkibiga kirgan?**

- A) Ahamoniylar davlati
- B) Yunon-Baqtriya davlati
- S) Ossuriya davlati
- D) Salavkiylar davlati

**79. Bobil madaniyatining eng qadimiy o'choqlarini aniqlang.**

- A) Shumer va Akkad
- B) Misr va Mesopotamiya
- S) Xett va Urartu
- D) Shumer va Misr

**80. Shumer mixxati qachon vujudga kelgan?**

- A) mil. avv. 1-mingyilliklarda
- B) mil. avv. 2-mingyilliklarda
- S) mil. avv. 3-mingyilliklarda
- D) mil. avv. 4-mingyilliklarda

**81. Ma'lumki, Mesopotamiyaning eng qadimgi yozuvi summer mixxati hisoblanadi. Bu yozuv dastavval ...**

- A) "suv", "quyosh" va boshqa alohida so'zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo'lgan
- B) "osmon", "oy" va boshqa alohida so'zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo'lgan

S) "hukmdor", "quyosh" va boshqa alohida so'zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo'lgan

D) "davlat", "fir'avn" va boshqa alohida so'zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo'lgan

**82. Qadimgi Bobilda maktablar qayerlarda tashkil etilardi?**

A) saroylar, zodagonlar va badavlat kishilar uylarida

B) ibodatxonalarda

S) zodagonlar va badavlat kishilar uylarida

D) saroylar va ibodatxonalarda

**83. Bobil maktablarida kimlarning farzandlari ta'lim olar edi?**

A) aslzodalarning farzandlari

B) ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar barcha aholining farzandlari

S) hukmdorlarning farzandlari

D) zodagonlar va badavlat odamlarning farzandlari

**84. Bobil maktablaridagi o'quvchilar yozish uchun nimadan foydalangan?**

A) papirusdan

B) loy taxtachalardan

S) qog'ozdan

D) bambuk taxtachalardan

**85. Qadimgi Bobilning ilk kitoblari – bu ...**

A) loy taxtachalar

B) papirusdagi yozuvlar

S) bitiktoshlar

D) qoyaga o'yilgan rasmlar

**86. Qadimgi Bobilning ilk kitoblariga o'quvchilar nimalar haqida yozishgan?**

A) asotirlar va afsonalarni ko'chirib yozganlar

B) hukmdor sulolar haqida yozganlar

S) o'simliklar, qushlar, hayvonlar va qurt-qumursqalar nomlari qayd etilgan ro'yxatlarni yozganlar

D) asotirlar va afsonalarni ko'chirganlar, o'simliklar, qushlar, hayvonlar va qurt-qumursqalar

nomlari qayd etilgan ro'yxatlarni, mamlakatlar, shaharlar va qishloqlar nomlarini yozganlar

**87. Quyosh yili davomiyligi qadimgi shumerliklar tomonidan necha kun deb belgilangan?**

A) 364 kun

B) 365 kun

S) 366 kun

D) 363 kun

**88. Qadimgi shumerliklar oy yilini necha kun deb belgilaganlar?**

A) 364 kun

B) 365 kun

S) 356 kun

D) 354 kun

**89. Qadimgi Mesopotamiyadagi baland ko'p zinali ibodatxonalar bu ...**

A) zikkurat

B) akveduk

S) triumf

D) sfinks

**90. Qadimgi Mesopotamiyadagi eng qadimgi rasadxonalarda qayerda bunyod etilgan?**

A) hukmdor saroyida

B) shahar chekkasidagi tepalikda

S) zikkuratlar yuqorisidagi maydonchada

D) ibodatxonalar yonida

**91. Qadimgi Bobilda dori-darmonlar tayyorlash bo'yicha dasturilamal qachon tuzilgan?**

A) mil. avv. 2 mingyillik

B) mil. avv. 3 mingyillik

S) mil. avv. 4 mingyillik

D) mil. avv. 1 mingyillik

**92. Olam yaratilishi haqidagi eng qadimiy asotirlardan biri qayerda yaratilgan?**

A) Misrda

B) Mesopotamiyada

S) Eronda

D) Hindistonda

## QADIMGI OLD OSIYO DAVLATLARI VA ULARNING QO'SHNILARI

**1. Old Osiyo hududida ilk davlatlar qachon vujudga kelgan?**

A) mil. avv. 2-mingyillikda

B) mil. avv. 4-mingyillikda

S) mil. avv. 1-mingyillikda

D) mil. avv. 5-mingyillikda

**2. Mil.avv. 2-mingyillikda Old Osiyo hududida qanday shahar-davlatlar vujudga keldi?**

A) Ur, Uruk, Lagash, Umma, Urartu

B) Bobil, Isroil, Ossuriya

S) Tir-Sidon, Ugarit, Isroil, Xett

D) Xett, Urartu, Mitanni, Ossuriya, Finikiya

**3. Xettlar o'z davlatiga qachon asos solgan edilar?**

A) mil. avv. XVIII asr

B) mil. avv. XIV asr

S) mil. avv. XIII asr

D) mil. avv. XX asr

**4. Qadimgi Xett davlati poytaxtini aniqlang.**

A) Xattusas

B) Ur

S) Umma

D) Lagash

**5. Mitanniliklar xetlar poytaxti Xattusasni bosib olish chog'ida qo'shinning qaysi turi hal qiluvchi rol o'ynagan?**

- A) otlig qo'shin
- B) piyoda qo'shin
- S) kamondoqlar
- D) fil arava bilan jang qiluvchi qo'shin

**6. Qadimgi xetlarning asosiy mashg'ulotlari nimalardan iborat bo'lgan?**

- A) dehqonchilik va chorvachilik
- B) savdo-sotiq va dehqonchilik
- S) baliqchilik va chorvachilik
- D) ovchilik va savdo-sotiq

**7. Ma'lumki, mil. avv. XIV asr boshlarida Xett podsholigi yana kuchayadi. Qaysi davlat tahdidi va xavf-xatari ostida xetlar Misr hukmdori bilan sulh tuzishga majbur bo'ladilar?**

- A) Bobil
- B) Ossuriya
- S) Elam
- D) Midiya

**8. Mil. avv. XIII asrda "dengiz xalqlari" qaysi shaharni bosib olib, vayronaga uchratganlar?**

- A) Oshshur
- B) Suza
- S) Xattusas
- D) Nineviya

**9. Qadimgi Xett davlati qachon barham topadi?**

- A) mil. avv. XVII asr
- B) mil. avv. XIV asr
- S) mil. avv. XIII asr
- D) mil. avv. XX asr

**10. Qadimgi Xett podsholigi hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan edi?**

- A) Arabiston yarimorolida
- B) Turkiyada
- S) Suriyada
- D) Eronda

**11. Qadimgi Mitanni davlati hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan edi?**

- A) Suriyada
- B) Turkiyada
- S) Arabiston yarimorolida
- D) Hindiston

**12. Ossuriya davlatining ilk poytaxti qaysi shahar hisoblangan?**

- A) Xattusas
- B) Oshshur
- S) Nineviya
- D) Tushpa

**13. Nineviya shahri qadimda qaysi podsholikning poytaxti bo'lgan?**

- A) Ossuriya podsholigi

- B) Xett podsholigi
- S) Urartu podsholigi
- D) Isroil podsholigi

**14. Quyidagi qaysi javobda Qadimgi Ossuriya davlatining poytaxtlari hisoblangan shaharlar ko'rsatilgan?**

- A) Tushpa va Xattusas
- B) Oshshur va Nineviya
- S) Suza va Xattusas
- D) Oshshur va Tushpa

**15. Qadimda Ossuriya podsholigi nechanchi asrda vujudga kelgan?**

- A) mil. avv. XVIII asr
- B) mil. avv. XVI asr
- S) mil. avv. XX asr
- D) mil. avv. XIX asr

**16. Ossuriya podsholigi aholisining asosiy mashg'ulotini aniqlang.**

- A) dehqonchilik va savdo-sotiq
- B) hunarmandchilik va dehqonchilik
- S) dehqonchilik va ovchilik
- D) termachilik va hunarmandchilik

**17. Qadimgi Ossuriya podsholigi kimning hukmronligi davrida o'z ravnaqining yuqori cho'qqisiga erishgan?**

- A) Salmanasar
- B) Sardur
- S) Tutmos II
- D) Kambiz

**18. Ossuriya podsholigi Bobil, Bibl, Tir, Sidon va Falastinning bir qismini qachon bo'ysundirgan edi?**

- A) mil. avv. VIII–VII asrlar
- B) mil. avv. VII–VI asrlar
- S) mil. avv. VI–V asrlar
- D) mil. avv. V–IV asrlar

**19. Qadimda Ossuriya poytaxti Nineviya shahrini qanday ta'riflashgan?**

- A) "Qora tuproq"
- B) "Xudolar darvozasi"
- S) "she'rlar darasi" va "qonga botgan shahar"
- D) "jannat bog'i"

**20. Nima sababdan Nineviya "qonga botgan shahar" yoki "sherlar darasi" deb nomlangan?**

- A) hukmdorlarning haddan tashqari shafqatsizligi
- B) mamlakatda jinoyatchilarning ko'pligi
- S) mamlakat askariy kuchlarining soni ko'pligi
- D) mamlakatda ichki nizolarning haddan tashqari ko'p bo'lib turishi

**21. Kimning hukmronligi davrida Nineviyada Old Osiyodagi eng yirik, sopol taxtachalardan iborat bo'lgan kutubxona jamlangan edi?**

- A) Ashshurbanipal

- B) Navuxodonosor  
S) Salmanasar  
D) Sardur
- 22. Bobil va Midiya davlatlari Ossuriya tarkibidan qachon mustaqil davlat sifatida ajralib chiqqan?**  
A) mil. avv. 617-yil  
B) mil. avv. 611-yil  
S) mil. avv. 625-yil  
D) mil. avv. 627-yil
- 23. Bobil va Midiya birlashgan qo'shinlari mil. avv. 612-yilda qaysi shaharlarni zabt etishgan?**  
A) Nineviya va Oshshur  
B) Xattusas va Tushpa  
S) Tir va Ugarit  
D) Ugarit va Sidon
- 24. Qadimgi Ossuriya podsholigi nechanchi yilda barham topgan edi?**  
A) mil. avv. 627-yil  
B) mil. avv. 603-yil  
S) mil. avv. 605-yil  
D) mil. avv. 607-yil
- 25. Kavkazorti, Van, Urmiya va Sevan ko'llari oralig'ida joylashgan davlatni aniqlang.**  
A) Urartu  
B) Finikiya  
S) Falastin  
D) Ossuriya
- 26. Qadimda Tushpa shahri qaysi davlat poytaxti bo'lgan?**  
A) Urartu davlati poytaxti  
B) Xett davlati poytaxti  
S) Ossuriya davlati poytaxti  
D) Finikiya davlati poytaxti
- 27. Kimning hukmronligi davrida Urartu davlati gullab-yashnagan ?**  
A) Sargon I  
B) Sardur  
S) Salmanasar  
D) Navuxodonosor
- 28. Mil. avv. 704-yilda ossurlar Urartuning qaysi shahridagi qal'ani ishg'ol etishgan?**  
A) Musasir  
B) Tushpa  
S) Teyshebai  
D) Suza
- 29. Qadimgi Urartu podsholigi qachon barham topgan?**  
A) mil. avv. 591-yil  
B) mil. avv. 590-yil  
S) mil. avv. 589-yil  
D) mil. avv. 588-yil
- 30. O'rtayer dengizining sharqiy qirg'og'i bo'yida qaysi qadimgi davlat joylashgan?**  
A) Xett podsholigi  
B) Ossuriya podsholigi  
S) Mitanni podsholigi  
D) Finikiya podsholigi
- 31. Finikiyaliklarning asosiy mashg'ulotini aniqlang.**  
A) dehqonchilik  
B) chorvachilik  
S) hunarmandchilik  
D) termachilik
- 32. O'rtayer dengizi sohilida joylashgan dengiz bo'yi shaharlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**  
A) Tir, Sidon, Ugarit  
B) Sidon, Bibl, Tir  
S) Karxemish, Oshshur, Uruk  
D) Lagash, Ur, Uruk
- 33. Kipr oroli va Kichik Osiyo sohillaridagi koloniyalarga qachon asos solingan?**  
A) mil. avv. 2-mingyillikda  
B) mil. avv. 3-mingyillikda  
S) mil. avv. 4-mingyillikda  
D) mil. avv. 5-mingyillikda
- 34. Kipr oroli va Kichik Osiyo sohillaridagi koloniyalarga kimlar asos solishgan?**  
A) urartlar  
B) eronliklar  
S) finikiyaliklar  
D) xetlar
- 35. Tir-Sidon podsholigi qachon vujudga kelgan?**  
A) mil. avv. X asrda  
B) mil. avv. X–IX asrda  
S) mil. avv. VII asrda  
D) mil. avv. VIII asrda
- 36. Tir-Sidon podsholigi Ossuriya tomonidan qachon bosib olingan?**  
A) mil. avv. X asrda  
B) mil. avv. IX asrda  
S) mil. avv. VIII asrda  
D) mil. avv. VII asrda
- 37. Mil. avv. X asrda qayerda 22 ta undosh harfdan iborat alifbo yaratildi?**  
A) Falastinda  
B) Suriyada  
S) Urartuda  
D) Finikiyada
- 38. Mil. avv. 2 mingyillik o'rtalarida Falastinga qaysi qabilalar kelib o'rnashganlar?**  
A) oromiylar  
B) xetlar  
S) yahudiyalar  
D) kassitlar
- 39. Isroil podsholigi qayerda vujudga kelgan?**  
A) Bobilda

- B) Ossuriyada  
S) Falastinda  
D) Finikiyada
- 40. Isroil podsholigi qaysi asrda vujudga kelgan?**  
A) mil. avv. VI asrda  
B) mil. avv. XI asrda  
S) mil. avv. X asrda  
D) mil. avv. VIII asrda
- 41. Qadimgi Yahudiya Babil podsholigi tomonidan nechanchi yilda bosib olingan?**  
A) mil. avv. 576-yil  
B) mil. avv. 563-yil  
S) mil. avv. 586-yil  
D) mil. avv. 579-yil
- 42. Ma'lumki, qadimiy yahudiylarning afsonalari diniy kitoblarga yozib borilgan. Bu kitoblar to'plami nima deb nomlangan?**  
A) "Avesto"  
B) "Yasna"  
S) "Bibliya"  
D) "Izabo'r"
- 43. Quyidagi atamalar ichida qaysi biri yunonchadan "kitob" degan ma'noni anglatadi?**  
A) "Avesto"  
B) "Yasna"  
S) "Bibliya"
- D) "Izabo'r"
- 44. Qadimgi Xett davlati qaysi davrlarda faoliyat ko'rsatgan?**  
A) mil. avv. XX–VII asrlar  
B) mil. avv. IX–VI asrlar  
S) mil. avv. X–IX asrlar  
D) mil. avv. XVIII–XIII asrlar
- 45. Quyidagi qaysi qadimgi davlat mil. avv. XX–VII asrlarda faoliyat korsatgan?**  
A) Urartu  
B) Finikiya  
S) Suriya  
D) Ossuriya
- 46. Quyidagi qaysi davlatlar IX–VI asrlarda faoliyat ko'rsatgan?**  
A) Urartu va Isroil podsholigi  
B) Xett podsholigi va Tir-Sidon podsholigi  
S) Finikiya va Falastin  
D) Ossuriya va Urartu
- 47. Qadimgi Misrga mumiyo tayyorlash uchun kedr qatroni (smolasi) qayerdan keltilardi?**  
A) Urartudan  
B) Finikiyadan  
S) Suriyadan  
D) Troyadan

## AHAMONIYLAR DAVLATI

- 1. Ahamoniylar asos solgan Fors podsholigi qachon vujudga kelgan?**  
A) mil. avv. VI asr  
B) mil. avv. IX asr  
S) mil. avv. VII asr  
D) mil. avv. VIII asr
- 2. Qadimgi Ahamoniylar davlati hozirgi qaysi davlat hududida tashkil topgan?**  
A) Hindiston  
B) Misr  
S) Arabiston yarimoroli  
D) Eron
- 3. Qadimgi davrda Eron hududida qanday qabilalar yashagan?**  
A) dravid, bihar  
B) gujorat, assom  
S) kassiy, elamoy  
D) bengal, dravid
- 4. O'zida katta yassitog'likni mujassam etgan qadimgi mamlakatni aniqlang.**  
A) Eron  
B) Yunoniston  
S) Hindiston  
D) Xitoy
- 5. Qadimgi Eronda tog'oldi vodiylarida aholining asosiy mashg'uloti nimadan iborat bo'lgan?**  
A) dehqonchilik  
B) hunarmandchilik  
S) ovchilik  
D) chorvachilik
- 6. Qadimgi Eronda jazirama cho'l mintaqalarida kimlar mehnat qilgan va kun kechirgan?**  
A) chorvadorlar  
B) dehqonlar  
S) savdogarlar  
D) hunarmandlar
- 7. Mil. avv. 3-mingyillikda Eronning g'arbiy qismida Mesopotamiya bilan chegarada vujudga kelgan qadimgi davlatni aniqlang.**  
A) Midiya  
B) Elam  
S) Urartu  
D) Finikiya
- 8. Qadimgi Elam davlati qachon vujudga kelgan?**  
A) mil. avv. 2-mingyillik  
B) mil. avv. 3-mingyillik  
S) mil. avv. 4-mingyillik  
D) mil. avv. 5-mingyillik

- 9. Qadimgi Elam davlatining poytaxtini aniqlang.**  
 A) Suza  
 B) Nineviya  
 S) Tushpa  
 D) Lagash
- 10. Qadimgi Midiya podsholigi qayerda vujudga kelgan?**  
 A) Eronning g'arbiy qismida Mesopotamiya bilan chegarada  
 B) Eron janubida, Fors ko'rfaziga tutashib ketgan yerlarda  
 S) Kaspiy dengizining janubi g'arbida  
 D) Kavkazorti, Van, Urmiya va Sevan ko'llari oralig'ida
- 11. Qadimgi Midiya podsholigi qachon vujudga kelgan?**  
 A) mil. avv. VII asr  
 B) mil. avv. VI asr  
 S) mil. avv. IV asr  
 D) mil. avv. IX asr
- 12. Midiya davlatida Kiaksar qachon hukmronlik qilgan?**  
 A) mil. avv. VII asr  
 B) mil. avv. VIII asr  
 S) mil. avv. VI asr  
 D) mil. avv. IX asr
- 13. Nechanchi yillarda Midiya davlati Bobil bilan ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oldi?**  
 A) mil. avv. 612–605-yillarda  
 B) mil. avv. 613–605-yillarda  
 S) mil. avv. 612–604-yillarda  
 D) mil. avv. 612–606-yillarda
- 14. Kaspiy dengizidan janubi g'arbda joylashgan davlatni belgilang.**  
 A) Bobil  
 B) Suriya  
 S) Midiya  
 D) Lidiya
- 15. Qadimgi Fors viloyati Eronning qaysi qismida joylashgan?**  
 A) g'arbida, Fors ko'rfaziga tutashib ketgan yerlarda  
 B) shimolida, Fors ko'rfaziga tutashib ketgan yerlarda  
 S) janubida, Fors ko'rfaziga tutashib ketgan yerlarda  
 D) sharqida, Fors ko'rfaziga tutashib ketgan yerlarda
- 16. Qaysi hukmdor forslarni o'z hokimiyati ostida birlashtirgan?**  
 A) Kambiz  
 B) Doro I  
 S) Doro II  
 D) Kir II
- 17. Kir II mil. avv. 539-yili qaysi davlatlarni zabt etadi?**  
 A) Urartu, Ossuriya, Parfiya  
 B) Falastin, Finikiya, Urartu  
 S) Lidiya, Midiya, Bobil  
 D) Armaniston, Midiya va Bobil
- 18. Qaysi Fors podshosi Qadimgi Misr davlatini zabt etgan?**  
 A) Doro I  
 B) Kir II  
 S) Kambiz  
 D) Artakserks
- 19. Mil. avv. 522–486-yillarda hukmronlik qilgan Eron davlati hukmdorini aniqlang.**  
 A) Artakserks  
 B) Kambiz  
 S) Kserks  
 D) Doro I
- 20. Qadimgi Eronda qaysi hukmdor davrida doroyi deb nomlangan yagona oltin tangani muomalaga kiritilgan?**  
 A) Doro I  
 B) Kambiz  
 S) Doro III  
 D) Keaksar
- 21. Eron shohi Doro I ning hukmronlik yillarini aniqlang.**  
 A) mil. avv. 522–486-yillar  
 B) mil. avv. 522–485-yillar  
 S) mil. avv. 522–484-yillar  
 D) mil. avv. 521–486-yillar
- 22. Qadimda ma'lum bo'lgan shoh yo'li nomli karvon yo'li jahonning qaysi sulolasiga mansub bo'lgan?**  
 A) kushonlar  
 B) ahamoniyalar  
 S) salavkiylar  
 D) antoninlar
- 23. Qadimda ma'lum bo'lgan shoh yo'li nomli karvon yo'li qaysi hududlarni o'z ichiga olgan?**  
 A) Suzadan Qora dengizga qadar  
 B) Suriyadan O'rtayer dengiziga qadar  
 S) Persepoldan O'rtayer dengiziga qadar  
 D) Bobildan Qizil dengizga qadar
- 24. Ahamoniylar davlatining muhim markazlari qaysi shaharlar hisoblangan?**  
 A) Oshshur, Xattusas  
 B) Suza, Ekbatana  
 S) Tushpa, Nineviya  
 D) Ekbatana, Xattusas
- 25. Satraplik – bu...**  
 A) Hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan davlat

B) Mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan hukmdor

S) Erondagi ilk davlatlar

D) Ahamoniyar davlatida alohida harbiy o'lka

**26. Quyidagi qaysi voqealar Ahamoniyar davlati podshosi Doro I davrida sodir bo'lgan?**

1) Shoh yo'li degan podsho savdo yo'li qurildi; 2) Misr zabt etildi; 3) Massagetlar ustiga yurish qilindi; 4) Skiflar ustiga yurish qilindi; 5) Poytaxt Suza shahriga ko'chirildi; 6) Mamlakat satrapliklar deb nomlangan alohida harbiy o'lkalarga taqsimlandi; 7) Yunon-fors urushi boshlandi; 8) Makedoniyalik Aleksandr tomonidan Fors davlati bosib olindi

A) 2, 3, 5, 8

B) 3, 4, 6, 9

S) 1, 5, 6, 7

D) 1, 4, 6, 7

**27. Quyidagi qaysi ahamoniy podshosi hukmronligi davrida Hindiston shimolidan O'rtayer dengiziga qadar yastangan ulkan imperiya barpo etildi?**

A) Doro I

B) Kambiz

S) Doro III

D) Keaksar

**28. Ahamoniyar davlati hukmdorlari Doro I va Kserkslarning muazzam xonalari va yuz ustunli zali bo'lgan saroy qoldiqlari qaysi shaharda saqlanib qolgan?**

A) Suza

B) Tushpa

S) Ekabatana

D) Persepol

**29. Ma'lumki, Persepol bo'rtma naqshlarida ahamoniyar itoatga kirgazgan ko'pgina xalqlar va elatlarning nomlari saqlanib qolgan. Ular asosan qanday holatda tasvirlangan?**

A) Eron shohlariga peskash va o'lpon keltirayotgan holatda

B) Eron shohlariga bo'yin egib turgan holatda  
S) Eron shohlarining xizmatlarini qilayotgan holatda

D) dehqonchilik qurollarini ushlab turgan holatda  
**30. Qadimgi forslar qanday belgilar bilan yozishgan?**

A) iyeroglif

B) mixxatsimon

S) rasm-belgilar

D) harfiy yozuvlar

**31. Qadimda Behistun va Naqshi Rostam qoyalari bitilgan yozuvlar qaysi xalqlar tomonidan bitilgan?**

A) yunonlar

B) saklar

S) misrliklar

D) forslar

**32. Makedoniyalik Aleksandr nechanchi yilda Fors davlatini zabt etgan?**

A) mil. avv. 327-yil

B) mil. avv. 326-yil

S) mil. avv. 328-yil

D) mil. avv. 330-yil

**33. Ma'lumki, Qadimgi Eron davlatida ahamoniyar sulolasi 200 yildan ziyod hukmronlik qilgan. Bu sulola kimning istilosi natijasida zavolga yuz tutdi?**

A) Kanishka

B) Sardur

S) Ardasher

D) Makedoniyalik Aleksandr

**34. Qadimgi Eron hududiga midiyaliklar va forslar qachon ko'chib o'rnashganlar?**

A) mil. avv. IX asr

B) mil. avv. X asr

S) mil. avv. VIII asr

D) mil. avv. VII asr

## QADIMGI HINDISTON

**1. Hindiston hududidan qanday daryolar oqib o'tadi?**

A) Dajla va Hind daryolari

B) Gang va Nil daryolari

S) Hind va Gang daryolari

D) Dajla va Frot daryolari

**2. Qachondan boshlab Hind daryosi vodiysida yagona davlatga birlashgan katta shaharlar vujudga kela boshladi?**

A) mil. avv. 3-mingyillikdan

B) mil. avv. 2-mingyillikdan

S) mil. avv. 1-mingyillikdan

D) mil. avv. 4-mingyillikdan

**3. Hind daryosi havzasidagi qadimgi eng yirik sivilizatsiya hisoblangan shaharlarni aniqlang.**

A) Persepol va Xarappa

B) Magadxa va Koshala

S) Malla va Koshala

D) Moxenjodaro va Xarappa

**4. Mil. avv. 3-mingyillikda Qadimgi Hindiston aholisining asosiy mashg'ulotini aniqlang.**

A) dehqonchilik va chorvachilik



- B) ovchilik va termachilik
- S) dehqonchilik va termachilik
- D) chorvachilik va ovchilik

**5. Quyidagi qaysi voqea mil. avv. 1500-yilda sodir bo'lgan?**

- A) Ossuriyaliklar qo'shinlari urartlar armiyasini tor-mor etib tashladi
- B) Makedoniyalik Aleksandr Panjob o'lkasi hududiga bostirib kiradi
- S) Yunon-makedon qo'shinlari Hindistondan butunlay quvib yuboriladi
- D) Hindiston hududiga oriylar bostirib kirdi

**6. Oriylar kimlar?**

- A) Kavkaz ortida yashagan qadimgi qabilalar
- B) Apennin yarimorolining markaziy qismida yashagan qadimgi qabilalar
- S) Sharqiy Yevropa va Uralda yashagan qadimgi ko'chmanchi qabilalar
- D) Qadimgi Hindistonda savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanuvchilar

**7. Ma'lumki, Moxenjodaro va Xarappa shaharlari Hind daryosi havzasining eng yirik sivilizatsiyasi edi. Mil. avv. XVI asr oxirida kimlarning hujumi natijasida bu sivilizatsiyalar vayronaga aylandi?**

- A) samnitlar
- B) oriylar
- S) urartlar
- D) doriylar

**8. Qadimgi hind rivoyatlarida aytilishicha, qaysi xudo har tongda oltin aravada osmon bo'ylab yo'lga tushardi?**

- A) oy xudosi
- B) quyosh xudosi
- C) osmon xudosi
- D) momaqaldiroq xudosi

**9. Indra – bu...**

- A) Qadimgi Hindistonda oy xudosi
- B) Qadimgi Hindistonda bosh xudolardan biri bo'lib, boshi filnikiga o'xshash donishmand
- S) Qadimgi Hindistonda oy, donishmandlik va tabiblik ilohi
- D) Qadimgi Hindistonda momaqaldiroq xudosi

**10. Ma'lumki, qadimgi hindlar ayrim xudolarni yovvoyi hayvonlar timsolida tasavvur etishgan. Shunday xudolardan birini aniqlang.**

- A) Agni
- B) Indra
- S) Anditina
- D) Ganesha

**11. Qadimgi hind diniy e'tiqodiga ko'ra, boshi filnikiga o'xshash xudoni belgilang.**

- A) Ganesha
- B) Indra

- S) Braxman
- D) Agni

**12. Qadimgi hind diniy e'tiqodiga ko'ra, Ganesha – bu...**

- A) Qadimgi Hindistonda oy xudosi
- B) Qadimgi Hindistonda boshi filnikiga o'xshash donishmandlik xudosi
- S) Qadimgi Hindistonda oy, donishmandlik va tabiblik ilohi
- D) Qadimgi Hindistonda momaqaldiroq xudosi

**13. Qadimgi hindlarda qanday hayvon muqaddas hisoblangan?**

- A) ho'kiz
- B) fil
- S) sigir
- D) mushuk

**14. Qadimgi Hindistonda sigirni o'ldirgan kimsaga qanday jazo qo'llanilgan?**

- A) o'zga yurtga surgun qilinar edi
- B) o'lim jazosiga tortilar edi
- S) ko'ziga mil tortilar edi
- D) jamiyatdan haydab yuborilar, hech kim u bilan muloqot qilishga haqli bo'la olmasdi

**15. Qadimgi hindlar e'tiqodiga ko'ra, inson vafot etganidan so'ng ...**

- A) insonning bu hayotdagi sa'y-harakatlari va amallariga ko'ra, narigi dunyoda jazolanadi yoki rag'batlantiriladi
- B) odam baribir o'lmaydi, balki boshqa bir mavjudotga aylanadi
- S) odam o'zga bir barhayot dunyoga tushib qoladi
- D) uning ruhi boshqa bir inson qiyofasida gavdalanadi

**16. Qadimgi Hindistonda aholi qanday yumushlar bilan shug'ullanishiga qarab nechta tabaqalarga ajratilgan?**

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- S) 4 ta
- D) 5 ta

**17. Ma'lumki, Qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug'ullanishiga qarab tabaqalar – kastalarga ajratilgan edi. Bu tabaqalarning ketma-ketlik bilan joylashtirilgan javobni aniqlang.**

- A) kshatriylar, braxmanlar, shudralar, vayshilar
- B) braxmanlar, kshatriylar, shudralar, vayshilar
- S) braxmanlar, kshatriylar, vayshilar, shudralar
- D) shudralar, vayshilar, kshatriylar, braxmanlar

**18. Qadimgi Hindistonda, kohinlar kastasi nima deb nomlangan?**

- A) braxmanlar
- B) kshatriylar
- S) vayshilar

- D) shudralar
- 19. Qadimgi Hindistonda xizmatkor va qullar qanday kastaga taalluqli edi?**
- A) braxmanlar  
B) kshatriylar  
S) vayshilar  
D) shudralar
- 20. Qadimgi hindlarning e'tiqodiga ko'ra, oliy xudo braxma o'zining qaysi a'zosidan kshatriylarni dunyoga keltirgan edi?**
- A) daxanidan  
B) oyoqlari tovonidan  
S) qo'llaridan  
D) quymichlaridan
- 21. Ma'lumki, hindlar e'tiqodiga ko'ra, oily xudo braxma quymichlaridan dehqonlarni yaratgan edi. Bunday dehqonlar hindlarning qaysi tabaqasiga mansub edi?**
- A) kshatriy  
B) braxman  
S) shudra  
D) vayshilar
- 22. Qadimgi Hindistonda kshatriylar – bu...**
- A) jangchilar  
B) kohinlar  
S) xizmatkorlar  
D) dehqonlar
- 23. Ma'lumki, qadimgi hind kastachiligining birortasiga ham mansub bo'lmaganlar alohida maqomga ega bo'lishgan. Bundaylar nima deb nomlangan?**
- A) xizmatkorlar  
B) dehqonlar  
S) jangchilar  
D) "hazar qilinadiganlar"
- 24. Qadimgi hindlarda aholi orasida "hazar qilinadiganlar" kimlar edi?**
- A) vayshilar  
B) kshatriylar  
S) chandallar  
D) braxmanlar
- 25. Quyidagi qaysi javobda izohi bir hisoblangan Misr va Hind xudolari ko'rsatilgan?**
- A) Xatxor va Indra  
B) Tot va Ganesha  
S) Anubis va Agni  
D) Maat va Indra
- 26. Mil.avv. 1-mingyillikda Hindistonda harbiy aslzodalar va ruhoniylar ancha kuchaydi. Bunga sabab nima edi?**
- A) dehqonchilikning rivoj topishi  
B) hunarmandchilikning rivoj topishi  
S) savdo-sotiqning rivoj topishi
- D) dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivoj topishi
- 27. Mil. avv. 1-mingyillikda Hindistonda ...**
- A) Hind daryosi vodiysida yagona davlatga birlashgan katta shaharlar vujudga kela boshladi  
B) ko'chmanchi qabila oriylarning hujumi boshlandi  
S) bir necha davlatlar vujudga keldi  
D) Hind daryosidagi manzilgohlar tez-tez ro'y berguvchi toshqinlar, o'rmonlar va changalzorlar kengayishi hamda tuproq oriqlab ketishi natijasida zavolga yuz tutadi
- 28. Qadimgi Hindiston hududida tashkil topgan Magadxa, Koshala va Malla davlatlari qaysi davrda vujudga keldi?**
- A) mil. avv. 1-mingyillikda  
B) mil. avv. 2-mingyillikda  
S) mil. avv. 3-mingyillikda  
D) mil. avv. 4-mingyillikda
- 29. Mil. avv. 327-yil ...**
- A) Makedoniyalik Aleksandr Fors davlatini bosib oldi  
B) Makedoniyalik Aleksandr Bobilga qaytib ketdi  
S) Sin sulolasiga qarshi dehqonlar qo'zg'oloni alangalanib ketdi  
D) Makedoniyalik Aleksandr Panjob o'lkasi hududiga bostirib kirdi
- 30. Qachon yunon-makedon qo'shinlari Hindistondan butunlay quvib yuboriladi?**
- A) mil. avv. 327-yil  
B) mil. avv. 325-yil  
S) mil. avv. 318-yil  
D) mil. avv. 312-yil
- 31. Ma'lumki, mil. avv. III asrda Hindistonga yunon-makedonlar hujum qiladi. Yunon-makedon qo'shinlarini butunlay quvib yuborishda ishtirok etib, kurashgan mashhur hind sarkardasini aniqlang.**
- A) Chandragupta  
B) Ashoka  
S) Siddhartha Gautama  
D) Ugrsen Nand
- 32. Shimoliy Hindistondagi barcha davlatlarni o'z tarkibiga olgan Maurya davlatining asoschisi kim?**
- A) Siddhartha Gautama  
B) Por  
S) Ugrsen Nand  
D) Chandragupta
- 33. Pataliputra shahri quyidagi qaysi davlatning poytaxti hisoblangan?**
- A) Magadxa  
B) Koshala  
S) Malla

- D) Maurya
- 34. Qadimgi Hindiston hududidagi Maurya davlati nechanchi asrda tashkil topgan?**
- A) mil. avv. VI asrda  
B) mil. avv. IV asrda  
S) mil. avv. III asrda  
D) mil. avv. II asrda
- 35. Qadimgi Maurya davlati kimning hukmronligi davrida o'z rivojlanishining yuksak pog'onasiga erishdi?**
- A) Chandragupta  
B) Bindusara  
S) Ashoka  
D) Samudragupta
- 36. Qadimgi Maurya davlati nechanchi asrda o'z rivojlanishining yuksak pog'onasiga erishdi?**
- A) mil. avv. II asrda  
B) mil. avv. IV asrda  
S) mil. avv. I asrda  
D) mil. avv. III asrda
- 37. Ma'lumki, mil.avv. 1-mingyillikda Hindiston ilm-fan sohasida yuksak darajaga erishadi. Bular qaysi sohalar edi?**
- A) tabobat va matematika  
B) astronomiya va tabobat  
S) astronomiya va matematika  
D) Falsafa va ritorika
- 38. Qadimda qaysi xalq matematika sohasida "nol" ni ifodalovchi maxsus belgini o'ylab topishgan, raqamlarni esa bugungi kunda butun dunyo qo'l-laydigan bir tartibda yozadigan bo'lishgan?**
- A) hindlar  
B) misrliklar  
S) xitoylar  
D) arablar
- 39. Bugungi kundagi qo'llanadigan raqamlarni aslida hindlar kashf qilishgan, ammo bu raqamlarni arab raqamlari deb ataymiz. Buning sababi nima edi?**
- A) bu raqamlarni bilgan arablar odamlar orasida hurmat-e'tiborga ega edi  
B) bu raqamlar arablar tomonidan majburiy o'rganilgan edi  
S) bu raqamlarni arablar yaxshi tushungan edi  
D) bu raqamlarni hindlardan qabul qilgan arablar orasida keng tarqalgan edi
- 40. Quyidagi qaysi xalq "shaxmat" o'yini ixtirochilari hisoblanadi?**
- A) hindlar  
B) eronliklar  
S) misrliklar  
D) yunonlar
- 41. Hindlar "shaxmat" o'yinini qanday nomlagan?**

- A) "qo'shinlarning ikki turi"  
B) "qo'shinlarning to'rt turi"  
S) "qo'shinlarning uch turi"  
D) "hukmdorlar jangi"
- 42. Birinchi bo'lib shakarqamishdan shakar olgan xalqni toping.**
- A) misrliklar  
B) xitoyliklar  
S) hindlar  
D) yunonlar
- 43. Ma'lumki, qadimiy hind tillari asosida yangi adabiy til bo'lmish sanskrit ishlab chiqilgan. Quyidagi qaysi asarlar shu tilda yozilgan?**
- 1) "Avesto"; 2) "Mahabharat"; 3) "Sinuxet hikoyasi"; 4) "Ramayana"; 5) "Panchatantra"; 6) "Etana haqidagi doston"; 7) "Isida va Osiris haqida"; 8) "Gilgamesh haqidagi doston"
- A) 1, 2, 6  
B) 3, 6, 7  
S) 4, 5, 8  
D) 2, 4, 5
- 44. Sanskrit tili qadimgi qaysi tillar asosida ishlab chiqilgan?**
- A) hind tillari  
B) oltoy tillari  
S) xitoy tillari  
D) arab tillari
- 45. Quyidagi shaxslardan qaysi biri, buddaviylik dinining yaratilishida katta rol o'ynagan edi?**
- A) Por  
B) Chandragupta  
S) Ugrsen Nand  
D) Siddhartha Gautama
- 46. Qadimgi hind rivoyatida naql qilinishicha, shahzoda Siddhartha Gautama qancha yoshga to'lguniga qadar hukmdor otasi saroyida betashvish farog'atli kun kechirgan?**
- A) 23 yoshga qadar  
B) 22 yoshga qadar  
S) 21 yoshga qadar  
D) 20 yoshga qadar
- 47. Hind shahzodasi Siddhartha Gautama hayotini tamomila o'zgartirib yuborgan to'qnashuvni aniqlang.**
- A) navqiron yigit va dafn marosimiga  
B) Ikki qo'shnilarning urushiga va bayram marosimiga  
S) munkillagan cholga o'xshab qolgan, bedavo dardga yo'liqqan navqiron bir kishiga va bayram marosimiga  
D) munkillagan cholga o'xshab qolgan, bedavo dardga yo'liqqan navqiron bir kishiga va dafn marosimiga

**48. Ma'lumki, buddaviylarda avvaliga xudo bo'lmagan. Bunga sabab nima edi?**

A) chunki, buddaviylar, xudolar inson azob-uqubatlarini yengillashtira olmaydi, deb hisoblashgan

B) chunki, buddaviylar, xudolar haqida tasavvurga ega emas edilar

S) chunki, buddaviylar, xudolar insonlarga do'st emas deb o'ylaganlar

D) chunki, buddaviylar, xudolar uchun insonlar xuddo o'yinchoq deb faraz qilganlar

**49. Buddaviylik dini e'tiqodlariga ko'ra, Buddha qanday holatda tasvirlanadi?**

A) atirgul gulida teran o'ylarga cho'mgancha qilt etmas yuz ifodasi bilan qovoqlarini tushirgancha chordona qurib o'tirgan holatda

B) nilufar gulida teran o'ylarga cho'mgancha qilt etmas yuz ifodasi bilan jilmayib chordona qurib o'tirgan holatda

S) nilufar gulida teran o'ylarga cho'mgancha qilt etmas yuz ifodasi bilan qovoqlarini tushirgancha emaklab turgan holatda

D) nilufar gulida teran o'ylarga cho'mgancha qilt etmas yuz ifodasi bilan qovoqlarini tushirgancha chordona qurib o'tirgan holatda

**50. Buddaviylik jahon dinlaridan biriga aylangan asrni toping.**

A) mil. avv. II asr

B) mil. avv. III asr

S) mil. avv. I asr

D) mil. avv. IV asr

## QADIMGI XITOIY

**1. Qadimgi Xitoyda qachon ilk sivilizatsiyalar kurtak yoya boshladi?**

A) mil. avv. 3-2-mingyilliklar

B) mil. avv. 2-1-mingyilliklar

S) mil. avv. 4-3-mingyilliklar

D) mil. avv. 5-4-mingyilliklar

**2. Qadimgi Xitoyda ilk sivilizatsiyalar qaysi daryolar bo'ylarida kurtak yoya boshlagan?**

A) Dajla va Frot

B) Xuanxe va Ganga

S) Yanszi va Nil

D) Xuanxe va Yanszi

**3. Qadimgi qaysi daryoning qaysi oqimida Xitoy davlati vujudga kelgan?**

A) Xuanxe daryosining yuqori oqimi

B) Yanszi daryosining boshlanish yuqori oqimi

S) Xuanxe daryosining o'rta oqimi

D) Yanszi daryosining o'rta oqimi

**4. Xuanxe so'zining ma'nosini aniqlang.**

A) xitoycha - "Sariq daryo"

B) xitoycha - "Betoshqin daryo"

S) xitoycha - "Xudolar daryosi"

D) forscha - "Sariq daryo"

**5. Xuanxe daryosida o'rtacha har necha yilda bir marotaba kuchli va sertalafot suv toshqinlari bo'lib o'tardi?**

A) har yili

B) har ikki-uch yilda

S) har uch-to'rt yilda

D) har to'rt-besh yilda

**6. Ma'lumki, Xuanxe daryosida kuchli va sertalafot suv toshqinlari bo'lib o'tar edi. Toshqinlardan odamlar qaysi joylarda jon saqlab qolishardi?**

A) baland qurilgan uylarda

B) g'orlarda

S) yerto'lalarda

D) tepalik joylarda

**7. Mil. avv. 3-mingyillikda...**

A) Chjou davlati markaziy hokimiyati zaiflasha boshladi

B) Xitoyda ittifoq-shaharlar yagona davlatga birlashdi, bu davlat nomi uning bosh shahri nomi kabi "Shan" deb ataldi

S) Xitoyda qabilalar ittifoqlari paydo bo'la boshladi

D) Hindistonda ilm-fan, xususan, astronomiya va matematika sohasida yuksak darajaga erishdi

**8. Shan davlati qachon tashkil topgan?**

A) mil. avv. 4-mingyillik o'rtasida

B) mil. avv. 3-mingyillik oxirida

S) mil. avv. 2-mingyillik boshida

D) mil. avv. 2-mingyillik o'rtasida

**9. Mil. avv. 2-mingyillik oxirida qaysi davlat tashkil topgan edi?**

A) Shan davlati

B) Chjou davlati

S) Sin davlati

D) Shan va Chjou davlatlari

**10. "Zafaryor" podsholik nomini olgan qadimgi davlatni toping.**

A) Eron davlati

B) Chjou davlati

S) Sin davlati

D) Yangi Misr davlati

**11. Qaysi qadimgi davlat hukmdorlari "Osmon o'gillari" nomini olgan?**

A) Chjou davlati hukmdorlari

B) Sin davlati hukmdorlari

S) Eron davlati hukmdorlari

- D) O'rta Misr davlati hukmdorlari
- 12. Qadimgi Xitoyda qaysi mashg'ulot azaldan e'tiborli va faxrli kasb hisoblab kelingan?**
- A) hunarmandchilik  
B) chorvachilik  
S) savdo-sotiq  
D) dehqonchilik
- 13. Qadimgi Xitoyda asosiy dehqonchilik ekinlarini aniqlang.**
- A) bug'doy va sholi  
B) bug'doy va paxta  
S) choy va javdar  
D) javdar va bug'doy
- 14. Ma'lumki, xitoyliklar sholi yetishtirganlar. Qadimgi Xitoyga sholi qaysi davlatdan keltirilar edi?**
- A) Arabiston yarimorolidan  
B) Hindistondan  
S) Yunonistondan  
D) Misrdan
- 15. Qadimgi Xitoyda sholi ko'chatining bo'yi necha santimetr bo'lganida dalalarga o'tqazilgan?**
- A) 10–15 sm  
B) 15–20 sm  
S) 20–25 sm  
D) 25–30 sm
- 16. Qadimgi Xitoyda taxminan 100 kundan keyin pishib yetiladigan o'simlikni aniqlang.**
- A) bug'doy  
B) yalpiz  
S) choy  
D) sholi
- 17. Quyidagi qaysi qatorda choy daraxtining barglaridan tayyorlangan shifobaxsh ichimlik bo'lmish "choy" ning asoschilari berilgan?**
- A) xitoyliklar  
B) hindlar  
S) misrliklar  
D) arablar
- 18. Mil. avv. VIII–VII asrlarda Xitoyda ...**
- A) Chjou davlati alohida davlatga bo'linib ketdi  
B) "gala podshohlari" davri bo'lib o'tdi  
S) birlashgan Sin davlati tashkil topdi  
D) Chjou davlatida markaziy hokimiyat zaiflasha boshladi
- 19. Quyidagi qaysi asrlar "Gala podshohlari" davriga oid?**
- A) mil. avv. VII–V asrlar  
B) mil. avv. VI–IV asrlar  
S) mil. avv. V–IV asrlar  
D) mil. avv. VIII–VI asrlar
- 20. Ma'lumki, "Zafaryor" imperiyasining oliy hukmdorlari bilan ajralib chiqqan davlatlar hukmdorlari o'rtasida urushlar bo'lib o'tadi. Bu urushlar necha yil davom etadi?**
- A) 120 yildan uzoqroq  
B) 140 yildan uzoqroq  
S) 160 yildan uzoqroq  
D) 200 yildan uzoqroq
- 21. Mil. avv. III asrda Xitoyda...**
- A) Xitoyda "Gala podshohlari" davri  
B) Xitoy imperiyasi uchta podsholikka parchalanib ketdi  
S) Sin davlati hukmdori o'zining barcha raqiblari yo'q qilib tashlab, yagona davlat tuzishga muvaffaq bo'ladi  
D) "Sariq ro'mollilar qo'zg'oloni" bo'lib o'tdi
- 22. Sin davlati hukmdori Sin Shixuandining hukmronligi davrini aniqlang.**
- A) mil. avv. 245–209-yillar  
B) mil. avv. 246–210-yillar  
S) mil. avv. 245–210-yillar  
D) mil. avv. 244–210-yillar
- 23. Ma'lumki, Sin davlati hukmdori mil.avv. III asrda Xitoyni yagona davlatga birlashtirib, o'zini Sin Shixuandi deb atadi. Bu ism qanday ma'noni anglatadi?**
- A) "Sinning birinchi hukmdori"  
B) "Yetti iqlim hukmdori"  
S) "Osmon o'g'li"  
D) "Shahanshoh"
- 24. Sin davlati hukmdori Sin Shixuandi o'z davlati hududini necha viloyatga taqsimlagan edi?**
- A) 40 ta viloyatga  
B) 39 ta viloyatga  
S) 38 ta viloyatga  
D) 36 ta viloyatga
- 25. Sin hukmdori Sin Shixuandi qaysi yo'nalishlar bo'yicha bir qancha islohotlar rivojlanishiga imkon bergan islohotlar o'tkazdi?**
- A) dehqonchilik  
B) savdo-sotiq  
S) hunarmandchilik  
D) dehqonchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik
- 26. Sin Shixuandi o'ziga atab qurdirgan maqbara necha odam va necha yil mobaynida bunyod etilgan?**
- A) 721 ming odam, 38 yil mobaynida bunyod etilgan  
B) 720 ming odam, 37 yil mobaynida bunyod etilgan  
S) 719 ming odam, 36 yil mobaynida bunyod etilgan  
D) 718 ming odam, 35 yil mobaynida bunyod etilgan
- 27. Sin Shixuandi qabridan imperatorni "qo'riqlash" uchun o'rnatilgan sopol askarlar haykallarning sonini aniqlang.**
- A) 6 mingta

- B) 5 minta  
S) 4 mingta  
D) 3 mingta
- 28. Buyuk Xitoy devori qadimgi qaysi podsholik davrida qurilgan?**  
A) Chjou podsholigi davrida qurilgan  
B) Shan podsholigi davrida qurilgan  
S) Sin podsholigi davrida qurilgan  
D) Shan va Chjou podsholigi davrida qurilgan
- 29. Buyuk Xitoy devorining balandligi, kengligi, uzunligini aniqlang.**  
A) balandligi 14 metr, kengligi 6 metr, uzunligi 4000 km  
B) balandligi 11 metr, kengligi 5 metr, uzunligi 4000 km  
S) balandligi 12 metr, kengligi 4 metr, uzunligi 4000 km  
D) balandligi 12 metr, kengligi 5 metr, uzunligi 4000 km
- 30. Buyuk Xitoy devori qaysi mahalliy ish qurollari yordamida qurilgan?**  
A) belkuraklar, ketmonlar yordamida  
B) cho'kichlar, zambilg'altaklar yordamida  
S) belkuraklar, ketmonlar, zambilg'altaklar yordamida  
D) belkuraklar, cho'kichlar va zambilg'altaklar yordamida
- 31. Buyuk Xitoy devori qurilayotgan paytda dehqon oilasida o'g'il bola tug'ilishi musibat o'rnida ko'rilgan. Bunga sabab nimadan edi?**  
A) voyaga yetganidan keyin o'g'il bolani devor qurilishiga jo'natganliklari sababli  
B) voyaga yetmasidan oldin o'g'il bolani devor qurilishiga jo'natganliklari sababli  
S) har bir tug'ilgan o'g'il bola tiriklayin ko'milishi to'g'risida qonun qabul qilinganligi sababli  
D) voyaga yetgan o'g'il bola xunnlarning ahyon-ahyonda bo'lib turadigan hujumlariga qarshi chiqish uchun urushga yuborilganligi sababli
- 32. Qachon Sin sulolasiga qarshi Lyu Ban boshchiligidagi qo'zg'olon bo'lib o'tdi?**  
A) mil. avv. 205-yil  
B) mil. avv. 206-yil  
S) mil. avv. 204-yil  
D) mil. avv. 203-yil
- 33. Xan sulolasi qaysi hukmdor davrida o'z qudratining eng cho'qqisiga erishgan?**  
A) Chen Shenni  
B) Shan-Yan  
S) Lyu Ban-Gao-Szu  
D) U-Di
- 34. Quyidagi qaysi qatorida Sin sulolasi hukmdori U Dining hukmronligi davri qayd qilingan?**  
A) mil. avv. 140–85-yillar  
B) mil. avv. 135–87-yillar  
S) mil. avv. 139–87-yillar  
D) mil. avv. 140–87-yillar
- 35. Xan sulolasi barham topgan yilni aniqlang?**  
A) milodiy 223-yil  
B) milodiy 220-yil  
S) milodiy 232-yil  
D) milodiy 222-yil
- 36. Qadimgi Xitoyda, dehqon soliqlarni vaqtida to'lay olmasa yoki qarzni qaytarib bera olmasa, qanday jazoga muhtalo bo'lar edi?**  
A) qarzlari evaziga tiriklayin yerga tiqilar edi  
B) qarzlari evaziga o'z bolalaridan birini berib yuborar edi  
S) qarzlari evaziga osib o'ldirilar edi  
D) qarzlari evaziga sirtlonlarga yem qilinar edi
- 37. Ma'lumki, Xitoyda "Qizilqoshlilar qo'zg'oloni" deb nomlangan qo'zg'olon bo'lib o'tadi. Bu qo'zg'olonning bunday nomlanishiga sabab nima edi?**  
A) qo'zg'olonchilar qizil rangdan ilohiy kuch olganligi uchun  
B) qo'zg'olonchilar qizil rangini o'zlarida jo'sh urayotgan qonga o'xshatganliklari uchun  
S) qo'zg'olonchilar o'z odamlarini chalkashtirib qo'ymaslik maqsadida qoshlarini qizil rangga bo'yab olganligi uchun  
D) qo'zg'olonchilar jangdan oldin qonga cho'milganliklari uchun
- 38. "Sariq ro'mollilar qo'zg'oloni" bo'lib o'tgan asrni aniqlang?**  
A) mil. avv. III asr  
B) mil. avv. I asr  
S) mil. avv. II asr  
D) mil. avv. IV asr
- 39. Mil. avv. II asrda Xitoyda bo'lib o'tgan eng yirik isyon – bu ...**  
A) "Sariq ro'mollilar qo'zg'oloni"  
B) "Qizilqoshlilar qozg'oloni"  
S) Lyu Ban boshchiligidagi qo'zg'oloni  
D) "Sariq ro'mollilar qo'zg'oloni" va "qizilqoshlilar qozg'oloni"
- 40. Xitoy imperiyasi uchta podsholikka parchalanib ketgan asrni belgilang.**  
A) milodiy VII asrda  
B) milodiy VIII asrda  
S) milodiy VI asrda  
D) milodiy IV asrda

**41. Bundan 2,5 ming yil muqaddam bo'lib o'tgan tarixiy voqeani belgilang.**

- A) Finikiyada 22 undosh harfdan iborat bo'lgan alifbo yaratildi
- B) qog'oz ixtiro qilindi
- S) bambuk o'rnida ipakdan foydalanishga o'tildi
- D) Sardur hukmronligi davrida Urartu gullab yashnadi

**42. Qachon qog'oz ixtiro qilindi?**

- A) milodiy II asrda

B) mil.avv. II asrda

S) milodiy I asrda

D) mil.avv. I asrda

**43. Quyidagi qaysi qatorda kompas, qog'oz va seysmograf ixtiro qilgan xalq qayd etilgan?**

- A) hindlar
- B) xitoylar
- S) arablar
- D) misrliklar

## O'RTA OSIYO VA QADIMGI SHARQ

**1. Qachondan boshlab O'rta Osiyo aholisi Hindiston, Eron va Old Osiy o'lkalari bilan madaniy aloqada bo'lgan?**

- A) bundan 6-7-ming yil ilgari
- B) bundan 5-ming yil ilgari
- S) bundan 4-5-ming yil ilgari
- D) bundan 3-4-ming yil ilgari

**2. Ma'lumki, Farg'ona vodiysidan mil. avv. II mingyillik boshlariga oid bo'lgan haykalsimon tasvir tushirilgan kumush va bronza tog'nag'ichlar topilgan. Bunday tog'nag'ichlar qaysi davlatning hududidan ham topilgan?**

- A) Hindiston
- B) Eron
- S) Mesopotamiya
- D) Afg'oniston

**3. O'rta Osiyoning qaysi hududidan Janubiy Afg'oniston, Eron, Mesopotamiyada hamda Hindiston sivilizatsiyalarida ham uchraydigan bronza oyboltalar, sopol buyumlar va bronzadan yasalgan muhrlar topilgan?**

- A) Surxondaryo vodiysi va Zarafshon daryosining quyi qismi
- B) Surxondaryo vodiysi va Zarafshon daryosining yuqori qismi
- S) Farg'ona vodiysi va Amudaryoning yuqori qismi
- D) Qashqadaryo vohasi va Sirdaryoning quyi qismi

**4. Ma'lumki, O'rta Osiyoning mahalliy manzilgohlaridan mitti chig'anoqlar topilgan. Bu mitti chig'anoqlar asli qayerlarda uchraydi?**

- A) O'rtayer dengizi va Tinch okeanida
- B) Qizil dengiz va Atlantika okeanida
- S) Arabiston dengizi va Hind okeanida
- D) Qora dengiz va Shimoliy Muz okeanida

**5. Kaurilar – bu ...**

- A) mitti chig'anoqlar

B) xom g'ishtdan qurilgan zinapoyali ibodatxona

S) zilzilani oldindan aytib beruvchi asbob

D) dastasi uzun jangovar oybolta

**6. Qadimda kaurilardan nima maqsadda foydalanishgan?**

- A) oziq-ovqat sifatida
- B) yodgorlik sifatida
- S) o'lchov sifatida
- D) savdo bitimlari tuzilayotganda to'lov vositasi sifatida

**7. O'rta Osiyo janubidagi bronza davriga oid Oltintepa manzilgohidan topilgan buyumlar Mesopotamiyada ham topib o'rganilgan. Bu buyumlar nimalardan iborat bo'lgan?**

- A) ho'kiz va bo'rining oltin boshi, aravaga qo'shilgan tuyaning haykalchalari, loydan yasalgan aravacha nusxasi
- B) bronza oyboltalar, sopol buyumlar va bronzadan yasalgan muhrlar
- S) haykalsimon tasvir tushirilgan kumush va bronza tog'nag'ichlar
- D) mitti chig'anoqlar

**8. Ma'lumki, Mesopotamiya o'zining zikkurat ibodatxonalari bilan mashhur, xuddi shunday zikkurat ibodatxonalari O'rta Osiyoning qaysi manzilgohidan topib o'rganilgan?**

- A) Zamonbobo
- B) Jarqoton
- S) Sopollitepa
- D) Oltintepa

**9. Misr fir'avnlari maqbaralari va Mesopotamiyaning Ur shahridan la'ldan yasalgan zebziyatlar topilgan. Lojuvardlar qadimda Misr va Mesopotamiyaga qayerdan keltirilgan?**

- A) Xorazmdan
- B) So'g'diyonadan
- S) Baqtriyadan

D) Qang'dan

10. *"Bu yerda ishlatilgan oltin Sard va Baqtriyadan keltirildi. Rangli toshlar va yoqut So'g'diyonadan. Bu yerda foydalanilgan to'q zangori rangli tosh Xorazmdan, kumush va bronza Misrdan yetkazib berildi"*. Ushbu ma'lumotlar qadimgi qaysi bitiklarda keltirilgan?

A) Doro I ning Suza shahridagi saroy qurilishi to'g'risidagi bitiklarida

B) Doro III ning Suza shahridagi saroy qurilishi to'g'risidagi bitiklarida

S) Doro I ning Behistun yozuvlarida

D) Qadimgi Misrning piramidalari devorlaridagi bitiklarda

11. O'rta Osiyo janubidagi bronza davriga oid manzilgohni aniqlang.

A) Moxenjodaro

B) Jarqo'ton

S) Sarazm

D) Oltintepa

12. Oltintepa manzilgohidan topilgan buyumlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) bronza oyboltalar, sopol buyumlar va bronzadan yasalgan muhrlar

B) haykalsimon tasvir tushirilgan kumush va bronza tog'nag'ichlar

S) ho'kiz va bo'ring oltin boshi, aravaga qo'shilgan tuyaning haykalchalari, loydan yasalgan aravacha nusxasi

D) mitti chig'anoqlar

13. Ma'lumki, Oltintepadan xom g'ishtdan qurilgan zinapoyali ibodatxona qazib o'rganilgan. Bunday ibodatxonalar Mesopotamiyada qanday nomlangan?

A) freska

B) zikkurat

S) villa

D) sarkofag

14. Xarappa va Moxenjodaroda yasalgan hunarmandchilik buyumlari topilgan O'rta Osiyodagi manzilgohlarni belgilang.

1) Sarazm; 2) Namozgoh; 3) Oltintepa; 4) Sopollitepa; 5) Zamonbobo; 6) Jarqo'ton; 7) Qo'shilish; 8) Amirobod

A) 3, 6, 8

B) 2, 3, 7

S) 1, 4, 6

D) 4, 7, 8

15. Qadimgi davrga oid Sho'rto'qay savdo manzilgohiga kimlar asos solgan?

A) misrliklar

B) hindlar

S) xitoylar

D) forslar

16. Oromiy yozuvi Sharq aholisi qo'llab kelayotgan qaysi yozuvni siqib chiqardi?

A) iyeroglif

B) harfiy

S) mixxat

D) iyeroglif va mixxat

17. Qadimda O'rta Osiyo aholisining Hindiston, Eron va Old Osiyo o'lkalari bilan madaniy aloqada bo'lganligini qaysi manbalar dalolat beradi?

A) yozma

B) ashyoviy

S) ashyoviy va yozma

D) hukmdorlar o'rtasidagi yozishmalar

18. Ma'lumki, O'rta Osiyo Qadimgi Sharq bilan madaniy aloqalar o'rnatgan. Quyidagi O'rta Osiyodagi qaysi topilmalar bu aloqalar haqida darak beradi?

1) Farg'ona vodiysidan mil. avv. II mingyillik boshlariga oid bo'lgan haykalsimon tasvir tushirilgan kumush va bronza tog'nag'ichlar

2) Surxondaryo vodiysi va Zarafshon daryosining quyi qismidan topilgan bronza oyboltalar, sopol buyumlar va bronzadan yasalgan muhrlar

3) O'rta Osiyoning mahalliy manzilgohlaridan topilgan mitti chig'anoqlar

4) Oltintepa manzilgohidan topilgan ho'kiz va bo'ring oltin boshi, aravaga qo'shilgan tuyaning haykalchalari, loydan yasalgan aravacha nusxasi

5) Oltintepadan xom g'ishtdan qurilgan zinapoyali ibodatxona

6) Sarazm, Sopollitepa, Jarqo'ton manzilgohlaridan Xarappa va Moxenjodaroda yasalgan hunarmandchilik buyumlarining topilishi

7) Erondagi saroy qurilishiga to'q zangori rangli toshni Xorazmdan, rangli toshlar va yoqutni So'g'diyonadan, Sard va Baqtriyadan oltinni keltirilishi

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

B) 3, 4, 5, 6, 7

S) 1, 2, 3, 5, 6, 7

D) 1, 2, 3, 6, 7

19. Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida qadimgi dunyoning ko'plab ixtirolari tarqala boshladi. Quyidagi ixtirolardan qaysi biri ushbu qatorga to'g'ri ko'rsatilgan?

A) sopol buyumlar va tangalar



B) sopol buyumlar va oromiy alifbosiga asoslangan yozuv

S) kumushdan yasalgan haykalchalar va tangalar

D) tangalar va oromiy alifbosiga asoslangan yozuv

**20. Oromiy alifbosiga asoslangan yozuvni qaysi xalq ixtiro qilgan?**

A) Dajla daryosining o'рта oqimida yashagan akkadlar ixtiro qilganlar

B) Frot daryosining yuqori oqimida yashagan oromiylar ixtiro qilganlar

S) Dajla daryosining yuqori oqimida yashagan oromiylar ixtiro qilganlar

D) Xuanxe daryosining yuqori oqimida yashagan xurritlar ixtiro qilganlar

**21. Sug'd yozuvi yodgorliklari hozirgi qaysi davlat hududidan topilgan?**

A) Xitoy va Mo'g'uliston hududidan

B) Hindiston va Eron hududidan

S) Iroq va Misr hududidan

D) Mesopotamiya va Qozog'iston hududidan

## O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI ILK DAVLATLAR

**1. Mil. avv. VII–VI asrlarda O'zbekiston hududida qaysi elatlar yashagan?**

A) o'zbeklar, qoraqalpoqlar, xorazmliklar, farg'onaliklar

B) o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar

S) sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massagetlar

D) sug'diylar, oromiylar, forslar arablar, sak va massagetlar

**2. Mil. avv. VII–VI asrlarda Zarafshon va Qashqadaryo vodiysidagi aholi qanday mashg'ulot bilan shug'ullangan?**

A) hunarmandchilik

B) chorvachilik

S) savdo-sotiq

D) dehqonchilik

**3. Qadimgi Sug'diyonada yashagan aholi qanday nom bilan atalgan?**

A) sug'diylar

B) baqtriyaliklar

S) massagetlar

D) saklar

**4. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysining hududi "Avesto"da qanday nomlangan?**

A) Bahdi

B) Sug'diyona

S) Sug'uda

D) Sug'da

**5. Behistun yozuvlarida Zarafshon va Qashqadaryo vodiysining hududi qanday nomlangan?**

A) Bahdi

B) Sug'diyona

S) Sug'uda

D) Sug'da

**6. Quyidagi yunon-rim tarixchilaridan qay birlarining asarlarida O'рта Osiyodagi Sug'diyona davlati tilga olinadi?**

A) Ksenofont, Ktesiy, Strabon

B) Arrian, Strabon, Kvint Kursiy Ruf

S) Sima Szyan, Gerodot, Kvint Kursiy Ruf

D) Ksenofont, Gerodot, Kvint Kursiy Ruf

**7. Qadimgi xorazmliklar yashagan hududni aniqlang.**

A) Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida

B) Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoliy, Tojikistonning janubiy hududlarida

S) Cho'llar va Amudaryo bo'ylarida

D) Amudaryoning quyi oqimida

**8. Qadimgi xorazmliklarning yurti "Avesto" da qanday nomlangan?**

A) Xoresemon

B) Xvarizam

S) Xvarazmish

D) Xorasmiya

**9. Behistun yozuvlarida Xvarazmish deb nomlangan hozirgi O'zbekistondagi viloyatni aniqlang.**

A) Surxondaryo

B) Samarqand

S) Xorazm

D) Farg'ona

**10. Arrian va Strabon asarlarida Xorazm davlati qanday nom bilan tilga olingan?**

A) Xorazm

B) Xvarazmish

S) Xorasmiya

D) Xvarizam

**11. Qadimgi sug'diylarning eng yaqin qo'shnilari baqtriyaliklarning yurti "Behistun yozuvlari"da qanday nomlangan?**

- A) Baqtrish
- B) Bahdi
- S) Baqtriyona
- D) Xvarizam

**12. Qadimgi davrda baqtriyaliklar qaysi hududda joylashgan?**

- A) Qashqadaryo vohasi, Afg'onistonning sharqi, Tojikistonning sharqi
- B) Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning janubi
- S) Amudaryoning quyi oqimi
- D) Zarafshon va Qashqadaryo vodiysi

**13. "Avesto"da Baqtriya davlati qanday nomlangan?**

- A) Baqtriya
- B) Baqtrish
- S) Baxdi
- D) Baqtriana

**14. Cho'llar va Amudaryo bo'ylarida yashagan qabilalarni belgilang.**

- A) saklar
- B) massagetlar
- S) xorazmliklar
- D) ahamoniylar

**15. Markaziy Osiyoning tog'lik, dasht va cho'l yerlarida asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan qaysi qabila yashagan?**

- A) massagetlar
- B) baqtriyaliklar
- S) xorazmliklar
- D) saklar

**16. Qachon saklar harbiy-qabila ittifoqini tuzadilar?**

- A) mil. avv. VII asrda
- B) mil. avv. VI asrda
- S) mil. avv. V asrda
- D) mil. avv. IV asrda

**17. Qadimgi rim va yunon tarixchilarining yozishlari bo'yicha, saklar necha guruhlariga bo'lingan?**

- A) 4 ta
- B) 2 ta
- S) 3 ta
- D) 5 ta

**18. Sakatigraxaudalar yashagan hududni belgilang.**

- A) hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qo'zog'iston yerlarida
- B) hozirgi Sirdaryo viloyati va Samarqand yerlarida

- S) hozirgi Samarqand va Surxondaryo yerlarida
- D) hozirgi Andijon va Namangan yerlarida

**19. Quyidagi ko'rsatilgan sak guruhlaridan qaysi biri daryoning narigi tomonida yashovchi saklar nomini olgan?**

- A) saka-xau-movarka
- B) saka-tigraxuda
- S) saka-tiay-aradarayya
- D) baqtriyaliklar

**20. Ko'chmanchi sak va massaget elatlarining asosiy mashg'uloti – bu ...**

- A) dehqonchilik
- B) chorvachilik
- S) hunarmandchilik
- D) savdo-sotiq

**21. Quyidagi qaysi sak qabilalar guruhi ko'pchilikni tashkil qilgan?**

- A) saka-tigraxuda
- B) saka-tiay-aradarayya
- S) saka-xaumovarka
- D) massagetlar

**22. Mil. avv. VII–VI asrlarda Pomirning tog'li tumanlarida va Farg'onada quyidagi qabilalardan qaysilari yashagan?**

- A) saka-tigraxuda
- B) saka-tiay-aradarayya
- S) saka-xaumovarka
- D) massagetlar

**23. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlarni aniqlang.**

- A) Qang', Dovon, Baqtriya
- B) Kushon, Dovon, Baqtriya
- S) Xorazm, Kushon, Qang'
- D) Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya

**24. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar aholisining asosiy mashg'uloti nima bo'lgan?**

- A) savdo-sotiq
- B) hunarmandchilik
- S) sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik
- D) chorvachilik

**25. Ma'lumki, mil. avv. VII–VI asrlarda qadimgi shaharlar rivojlangan edi. Bunga sabab nima edi?**

- A) chorvachilik va savdning rivojlanishi
- B) dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi
- S) hunarmandchilik va chorvachilikning rivojlanishi
- D) hunarmandchilik va savdning rivojlanishi

**26. O'zbekiston hududidagi qadimgi shaharlarga xos umumiy belgisini aniqlang.**

- A) mustahkam mudofaa devorlar
- B) maydon
- S) aholining savodxonligi
- D) qo'shin turi

**27. Qadimda O'zbekistonning xalqaro savdo va madaniy aloqalari nimani rivojini taqoza etardi?**

- A) savdo-sotiqni
- B) elchilik aloqalarni
- S) davlatchilikni
- D) shaharsozlikni

**28. Mil. avv. VII–VI asrlardagi O'zbekistonning shaharlari ...**

- A) hunarmandchilik va savdo markazlari edi
- B) davlatning poytaxtlari edi
- S) xalqaro savdo markazlari edi
- D) dehqonchilik markazlari edi

**29. Qadimshunoslar O'zbekistonning qayerlaridan qadimgi shaharlarni topib o'rganishgan?**

- A) Toshkent, Farg'ona, Xorazm
- B) Xorazm, Surxondaryo, Sirdaryo
- S) Amudaryo, Sirdaryo, Surxondaryo vohalari
- D) Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm, Surxondaryo

**30. Qashqadaryo vodiysidagi qadimgi shaharlarni aniqlang.**

- A) Yerqo'rg'on va Uzunqir
- B) Afrosiyob va Ko'zaliqir
- S) Ko'zaliqir va Qiziltepa
- D) Yerqo'rg'on va Ko'zaliqir

**31. Qadimgi Ko'zaliqir shahri O'zbekistonning qayeridan topib o'rganilgan?**

- A) Qashqadaryo
- B) Xorazm
- S) Surxondaryo
- D) Samarqand

**32. Quyidagi qaysi qadimgi shahar xarobasi Surxondaryo vohasida topib o'rganilgan?**

- A) Yerqo'rg'on
- B) Ko'zaliqir
- S) Qiziltepa
- D) Uzunqir

**33. Afrosiyob — bu ...**

- A) O'rta Osiyo janubidagi bronza davriga oid manzilgoh
- B) O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar-davlat
- S) Hindiston sivilizatsiyasi vakillari asos solgan manzilgoh

D) hozirgi Samarqand shahrining sharqiy chekkasida joylashgan qadimgi shahar xarobalari

**34. O'zbekiston hududlarida miloddan avvalgi VII–VI asrlarda tashkil topgan eng qadimgi davlat birlashmalarini aniqlang.**

- A) Qadimgi Xorazm va Qadimgi Marg'iyona
- B) Qadimgi Marg'iyona va Qadimgi Baqtriya
- S) Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya
- D) Qadimgi Xorazm va Qadimgi Qang'

**35. O'zbekiston hududlarida tashkil topgan eng qadimgi davlat birlashmalari nima asosida paydo bo'lgan?**

- A) dehqonchilik bilan shug'ullanadigan mahalliy aholi madaniyatining rivoji asosida
- B) savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan mahalliy aholi madaniyatining rivoji asosida
- S) chorvachilik bilan shug'ullanadigan mahalliy aholi madaniyatining rivoji asosida
- D) hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan mahalliy aholi madaniyatining rivoji asosida

**36. Mil. avv. VII–VI asrlarda Qadimgi Baqtriya davlati qaysi hududlarni o'z ta'sirida ushlab turgan?**

- A) Surxondaryo, Farg'ona, Zarafshon vodiylari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar
- B) Samarqand, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar
- S) Xorazm, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar
- D) Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar

**37. Mil. avv. VII–VI asrlarda Marg'iyona va So'g'diyona qaysi davlatning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan?**

- A) Qadimgi Baqtriya
- B) Qadimgi Xorazm
- S) Qadimgi Parfiya
- D) Qadimgi Bobil

**38. Ma'lumki, O'zbekistondagi ilk davlatlar davlat birlashmalari deyilgan. Buning sababi nimada edi?**

- A) chunki, bu davlat birlashmalari bir-biriga yaqin bo'lgan shahar-davlatlardan tashkil topgan edi
- B) chunki, bu davlat birlashmalari bir-biriga qarindosh bo'lgan elatlardan tashkil topgan edi
- S) chunki, bu davlat birlashmalari bir-biriga qarindosh bo'lgan hukmdorlardan tashkil topgan edi
- D) chunki, bu davlat birlashmalari yagona davlat yig'inidan tashkil topgan edi

- 39. O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi shaharlar necha yil oldin paydo bo‘lgan?**  
 A) 2500-yil  
 B) 2900-yil  
 S) 2800-yil  
 D) 2700-yil
- 40. O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi shaharlarni belgilang.**  
 A) Qiziltepa, Yerqo‘rg‘on, Uzunqir va Afrosiyob  
 B) Yerqo‘rg‘on, Sopollitepa va Afrosiyob  
 S) Sarazm, Oltintepe va Zamonbobo  
 D) Amirobod, Afrosiyob va Yerqo‘rg‘on
- 41. O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi shaharlari o‘rnida qaysi davlatning markaziy shaharlari joylashgan?**  
 A) Xorazm va Baqtriya  
 B) Xorazm va So‘g‘d  
 S) Parfiya va Marg‘iyona  
 D) Baqtriya va So‘g‘d
- 42. Qadimgi Xorazm markazlaridan birini aniqlang.**  
 A) Uzunqir  
 B) Yerqo‘rg‘on  
 S) Ko‘zaliqir  
 D) Afrosiyob
- 43. Ma‘lumki, Qadimgi Xorazmda dehqonchilik yuksak rivoj topgandi. Dehqonchilikdan tashqari yana qaysi sohalar yuksak darajada rivojlangan?**  
 A) baliqchilik, chorvachilik, hunarmandchilik  
 B) binokorlik, zeb-ziyat ishlab chiqarish  
 S) kemasozlik, temirchilik va savdo-sotiq  
 D) hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq
- 44. O‘zbekiston hududida qachon ilk temir asriga o‘tish boshlangan?**  
 A) mil. avv. VIII–VII asrlar  
 B) mil. avv. VII–VI asrlar  
 S) mil. avv. VI–V asrlar  
 D) mil. avv. IX–VIII asrlar
- 45. Qadimgi davrda O‘zbekiston hududida mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga asoslanishi ...**  
 A) davlatchilik taraqqiyotiga asos bo‘ldi  
 B) davlatlararo munosabatlariga asos bo‘ldi  
 S) savdo-sotiq rivojiga asos bo‘ldi  
 D) hunarmandchilik rivojiga asos bo‘ldi
- 46. Baqtriya la‘li to‘g‘risida qaysi davlat podshosi ayg‘oqchisining ma‘lumotlari saqlanib qolgan?**  
 A) Midiya  
 B) Eron  
 S) Bobil  
 D) Ossuriya
- 47. Kvint Kursiy Rufning Baqtriya haqidagi ma‘lumotlarini eslang. Muallif “Baqtra” nomining kelib chiqishini qanday tushuntiradi?**  
 A) mamlakatning poytaxti Paropamis etaklarida joylashganligidan mamlakat va shahar “Baqtra” nomini olgan  
 B) bu “Avesto” dagi Bahdi viloyati bo‘lib, keyinchalik “Baqtra” shaklida o‘zgargan  
 S) unumdor tuproqli, sersuv mamlakat bo‘lganidan xalqi baxtiyor edi va shundan mamlakat “Baqtra” nomini olgan  
 D) uning devorlari yonidan Baqtra daryosi oqib o‘tadi. Shahar va viloyatga shu daryoning nomi berilgan
- 48. Kvint Kursiy Ruf qalamga olgan Paropamis qaysi joy nomini anglatadi?**  
 A) Baqtriyani  
 B) Sug‘diyoni  
 S) Pomir tog‘larini  
 D) Hindiqush tog‘larini
- 49. Qadimgi Ossuriya podsholarini qiziqtirgan qimmatbaho la‘l O‘rta Osiyoning qaysi hududidan olingan?**  
 A) Sug‘diyona hududidan  
 B) Marg‘iyona hududidan  
 S) Baqtriya hududidan  
 D) Xorazm hududidan
- 50. Ma‘lumki, Ossuriya podshosi Ninning Baqtriya ustiga yurishi xususida yunon tarixchisi Ktesiy ma‘lumot beradi. Ushbu jang natijasi xususida Ktesiyning ma‘lumotlarini eslang?**  
 A) Nin Baqtriyani istilo qilib, uning podshosi Oksiartni asirlikka tushiradi  
 B) Nin va Oksiart o‘rtasida qudachilik rishtalari bog‘lanib, o‘rtada sulh tuziladi  
 S) mustahkam Baqtra shahrini uzoq vaqt qamal qilgan Nin o‘z maqsadiga erishib, orqaga qaytadi  
 D) baqtriyaliklar ossuriyaliklarni mag‘lub qiladilar va dushmanning yuz ming nafar qo‘shinini qirib tashlaydilar
- 51. Qaysi qadimgi muallifning asarida saklar va massagetlar haqida eng qadimgi ma‘lumotlar saqlangan?**  
 A) Arrian asarida  
 B) Kursiy Ruf asarida  
 S) Gerodot asarida  
 D) Strabon asarida

**52. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra massagetlarning asosiy tirikchilik manbai...**

- A) g'alla ekib dehqonchilik qilishdan iborat edi
- B) janglar natijasida keladigan bo'ljalardan bo'lgan
- S) chorvachilik va baliqchilikdan iborat edi
- D) baliq ovlashdan iborat edi

**53. Massagetlar haqida Gerodot qalamiga mansub ma'lumotlar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**

- A) massagetlar skiflar singari kiyinadilar, ularning turmush tarzi bir xil
- B) massagetlar o'q-yoy, nayza va harbiy boltalar bilan qurollanib, otda va piyoda holda jang qiladilar
- S) massagetlarning barcha buyumlari va asboblari oltin va misdan ishlangan
- D) keltirilgan ma'lumotlarning barchasi Gerodot qalamiga mansub

**54. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra massagetlar ibodat qiladigan yagona tangri nima bo'lgan?**

- A) olov
- B) quyosh
- S) Axuramazda
- D) sanamlar

**55. Massagetlar o'z tangrilariga nimani qurbonlik keltirganlar?**

- A) to'ng'ich farzandlarini
- B) eng suyukli itlarini
- S) uchqur otlarini
- D) qo'y va echkilarini

**56. O'rta Osiyodagi qadimgi qabilalar va xalqlarning hududiy joylashuvi qaysi javobda noto'g'ri berilgan?**

- A) xorazmliklar Amudaryoning quyi oqimida yashaganlar
- B) sug'diylar Surxon va Qashqadaryo vohalarida yashaganlar
- S) massagetlar Amudaryo quyi oqimi cho'l va dasht hududlarida yashaganlar
- D) saklar cho'l, dasht va tog'li hududlarda yashaganlar

**57. Mil. av. VI–IV a. hozirgi Toshkent viloyati yerlarida qaysi ko'chmanchi qabilalar yashaganlar?**

- A) massagetlar
- B) saklar.
- S) oriylar
- D) xunlar

**58. Ma'lumki mil. avv. VII–IV asrlarda O'zbekiston hududida turli xalqlar yashagan edilar. Javoblarning qaysi birida shu hududda yashagan xalq ko'rsatilgan?**

- A) sug'diylar
- B) baqtriylar
- S) parfiyaliklar
- D) xorazmiylar

**59. Samarqandning eng qadimgi qismi sanalgan Afrosiyob mazkur shaharning qayerida joylashgan?**

- A) shaharning atrofida
- B) shaharning sharqiy chekkasida
- S) shaharning shimoli g'arbida
- D) shaharning markazida

**60. Baqtriyaning Ossuriya bilan aloqalari haqida qaysi qadimgi yunon tarixchisi yozib qoldirgan?**

- A) Gerodot
- B) Ktesiy
- S) Kvint Kursiy Ruf
- D) Ksenofont

**61. Qadimgi fors shohi Artakserks saroyida saroy tabibi bo'lgan qadimgi yunon tarixchisini aniqlang.**

- A) Gerodot
- B) Strabon
- S) Kvint Kursiy Ruf
- D) Ktesiy

**62. Ma'lumki, Ktesiy Ossuriya podshosi Ningning Baqtriyaga yurishi haqida hikoya qilib beradi. Bu davrda Baqtriya podshosi kim bo'lgan?**

- A) Oksiart
- B) Spitamen
- S) Dadarshish
- D) Arsumaxa

## ZARDUSHTIYLIK

- 1. O'rta Osiyoda qachon zardushtiylik dini keng tarqalgan?**  
 A) mil. avv. I mingyillik  
 B) mil. avv. II mingyillik  
 S) mil. avv. III mingyillik  
 D) mil. avv. IV mingyillik
- 2. Qaysi din O'rta Osiyoda odamlar tabiatni ilohiylashtirgan kezlarda kurtak yoza boshlagan?**  
 A) animizm  
 B) totemizm  
 S) buddaviylik  
 D) zardushtiylik
- 3. Zardushtiylik nimalarni muqaddas hisoblab, sig'inishgan?**  
 A) inson, olov, tuproq, suv, oy, yulduzlar  
 B) olov, tuproq, tabiat, jonsiz ruhlar  
 S) jonivor, tabiat, jonsiz ruhlar  
 D) olov, tuproq, suv, oy, yulduzlar
- 4. "Zardushtiylik" so'zi qaysi so'zdan kelib chiqqan edi?**  
 A) Ahuramazda  
 B) Zardusht  
 S) Ahriman  
 D) Mitra
- 5. Ma'lumki, Yunonistonda payg'ambar Zardushtning ismi "Zoroastr" deya ulug'lashgan. Buning sababi nima edi?**  
 A) Yunonistonda Zardushtni donishmand yulduzshunos munajjim sifatida bilishar edi  
 B) Yunonistonda Zardushtni fihqshunos sifatida bilishar edi  
 S) Yunonistonda Zardushtni zardushtiylik payg'ambari sifatida bilishar edi  
 D) Yunonistonda Zardushtni faylasuv olim sifatida bilishar edi
- 6. Ma'lumki, zardushtiylik dini tarqala boshlagan kezlarda ibodatxonalar ham, odamlar duo matnlarini o'rganishi uchun maxsus kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar qayerlarda o'tkazilgan?**  
 A) hukmdor saroylarida  
 B) doimiy yonib turuvchi umumiy gulxan maydonida  
 S) shahar markazida  
 D) ochiq osmon ostida, gulxan qarshisida yoki uydagi o'choq olovi atrofida
- 7. Zardusht – bu ...**  
 A) zardushtiylik dini asoschisi  
 B) mitti chig'anoqlar  
 S) zilzilani oldindan aytib beruvchi asbob  
 D) zardushtiylikning muqaddas kitobi
- 8. Ma'lumki, Zardusht vafotidan keyin bir necha asrlar o'tgach, barcha diniy marosimlar, madhiyalar va duolar zardushtiylik uchun muqaddas bo'lgan bir kitobga jamlandi. Bu kitobni aniqlang.**  
 A) "Behistun yozuvlari"  
 B) "Riqveda"  
 S) "Avesto"  
 D) "Injil"
- 9. "Avesto" so'zining ma'nosini aniqlang.**  
 A) "Oltin tug'li"  
 B) "Oltin tuya egasi"  
 S) "Qat'iy belgilangan qonun-qoidalar"  
 D) "Muqaddas kitob"
- 10. "Avesto" nima?**  
 A) Tarixiy yilnoma  
 B) Gerodot asari  
 S) Zardushtiylikning muqaddas kitobi  
 D) Moniylik dinining muqaddas kitobi
- 11. Zardushtiylikning zo'r ehtiromga sazovor xudolarini aniqlang.**  
 A) Ahuramazda, Mitra, Anaxita  
 B) Amon-Ra, Ahuramazda, Mitra  
 S) Ahriman, Ahuramazda, Mitra  
 D) Set, Ahuramazda, Ahriman
- 12. Zardushtiylikda qaysi xudo ulug' va donishmand, oliy xudo hisoblangan?**  
 A) Mitra  
 B) Anaxita  
 S) Ahriman  
 D) Ahuramazda
- 13. Mitra – bu ...**  
 A) zardushtiylikda Quyosh va yorug'lik xudosi, dehqonlar va chorvadorlarning hosildorlik, farovonlik va mol-davlat bag'ishlovchi homiyi  
 B) zardushtiylikda yovuzlik va o'lim xudosi  
 S) zardushtiylikda hosildorlik va suv ilohasi  
 D) zardushtiylikning muqaddas kitobi
- 14. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, Ahuramazda va odamlar o'rtasida bosh vositachi bo'lgan ilohni aniqlang.**  
 A) Anaxita  
 B) Ahriman

- S) Mitra  
D) Osiris

**15. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, qaysi iloh o'spirin va jangchi qiyofasida tasvirlangan?**

- A) Ahuramazda  
B) Ahriman  
S) Anaxita  
D) Mitra

**16. Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra, Mitraning Ahrimanga qarshi kurashdagi asosiy qurolini aniqlang.**

- A) to'g'ri so'z  
B) yaxshi xulq  
S) yorug'lik  
D) o'tli chaqmoq

**17. Zardushtiylikda yomg'irdan keyin paydo bo'ladigan kamalakka qanday ramziy ma'no berilgan?**

- A) Ahuramazdaning namoyon bo'lishi sifatida qaralgan  
B) Mitraning kamoni sifatida qaralgan  
S) hosildorlikning mo'l bo'lishiga ishora deb ishonishgan  
D) Ahrimanning burdalangan tanasi sifatida qaralgan

**18. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, hosildorlik va suv ilohasini aniqlang.**

- A) Ahriman  
B) Anaxita  
S) Ahuramazda  
D) Mitra

**19. Zardushtiylik dini insoniyatning qaysi qarashlari takomiliga katta ta'sir ko'rsatdi?**

- A) sevgi va do'stlik  
B) yovuzlik va do'stlik  
S) sevgi va yovuzlik  
D) ezgulik va yovuzlik

**20. Ilk marotaba "Avesto"ning alohida qismlarini tarjima qilgan olimni aniqlang.**

- A) Simey Fatabey  
B) M.M. Kosyubinskiy  
S) Fransua Shampolyon  
D) A. Dyuperron

**21. Zardusht necha yoshida Zardushtiylik payg'ambariga aylangan edi?**

- A) 30 yoshida  
B) 31 yoshida  
S) 32 yoshida  
D) 29 yoshida

**22. "Payg'ambar" so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

- A) Ahuramazdaning elchisi  
B) din asoschisi  
S) ezgu amallar haqida mujda beruvchi  
D) Ahrimanning dushmani

**23. Qaysi asrda "Avesto" 21 kitobga jamlanadi?**

- A) mil. avv. II asrda  
B) mil. avv. I asrda  
S) milodiy I asrda  
D) mil. avv. III asrda

**24. "Avesto" matnlariga sharh qanday nom bilan yuritilgan?**

- A) "zand"  
B) "zikkurat"  
S) "sfinks"  
D) "altar"

**25. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, butun borliq ...**

- A) ezgulikdan tashkil topgan  
B) yovuzlikdan tashkil topgan  
S) nurdan tashkil topgan  
D) ezgulik va yovuzlikdan tashkil topgan

**26. Zardushtiylar umrining tub ma'nosi nimadan iborat bo'lishi lozim bo'lgan?**

- A) ezgu amal, ezgu so'z, ezgu fikr  
B) samimiyat, xolislik, o'zaro izzat-hurmat  
S) pok hayot, halol mehnat, yaxshi niyat  
D) ezgulik, adolat, haqgo'lik

**27. Zardushtilar ta'limotiga ko'ra, insonning asosiy burchi eng avvalo nima hisoblangan?**

- A) tabiatni iflos qilmaslik  
B) olovga sig'inish  
S) yovuzlikka qarshi kurash  
D) adolatli turmush tarzi

**28. Zardushtiylar ta'limotini eslang. Inson Yovuzlikka qarshi kurashda Ezgulikka yordam berishi uchun qanday ishlarni amalga oshirishi lozim edi?**

- A) Ahuramazdaga sajda qilish, uning yo'l-yo'riqlari asosida olg'a intilish, yovuzlikni xayoldan chiqarib tashlash  
B) adolatli turmush tarzini amalga oshirish  
S) yolg'on so'zlamaslik, aldamaslik, va'daga vafodan qochish, faqat ezgu ishlarni amalga oshirish  
D) ezgu amal, ezgu so'z, ezgu fikrni amalga oshirish

**29. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, inson o'z yo'lini ...**

A) adolatli turmush tarzini qay tarzda amalga oshirishi orqali tanlaydi

B) Ahuramazdaga sajda qilishi darajasiga qarab belgilaydi

S) Mitra belgilaydi

D) o'zi tanlaydi

**30. Zardushtiylik nimalarni muqaddas hisoblagan?**

A) olov va tuproqni

B) suv va havoni

S) oy va yulduzni

D) olov, tuproq, suv va havo

**31. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, Yer yuzidagi eng qo'rqinchli Yovuzlik bu ...**

A) tabiatni asramaslik

B) yolg'on gapirish

S) o'lim

D) va'daga vafo qilmaslik

**32. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, marhumning jasadi ...**

A) qurt-qumursqalar yeb ketishi uchun yerga ko'milgan

B) yondirib yuborilgan

S) baliqlar yeb ketishi uchun suvga tashlab yuborilgan

D) qushlar va hayvonlar yeb ketishi uchun maxsus inshootda qoldirilgan

**33. Maxsus sopol tobutcha Zardushtiylikda qanday nom bilan yuritilgan?**

A) ossuariy

B) zand

S) zafaryor

D) mino

**34. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, insonga qachon Yovuz ibtido ko'chib kirgan?**

A) inson vafot etgach

B) yolg'on gapirsa


S) va'daga vafo qilmasa

D) tabiatni asramasa



**KROSSVORD**

(ismlar bo'yicha)




**BO'YIGA:** 1. Sharafiga piramida qurilgan Misr fir'avni. 2. Qadimgi Hindistondagi Maurya davlatining asoschisi. 4. Maurya davlati podshosi. 6. Qadimgi Misrning dastlabki fir'avni. 8. Mesopotamiyadagi Uruk shahri podshosi. 9. Misrni zabt etgan fors podshosi. 10. Misrda *Yangi podsholik davri* asoschisi. 12. Zardushtiylik dinining asoschisi.

**ENIGA:** 3. Misr fir'avni. 5. Babil davlatining hukmdori. 7. Jahon tarixida birinchi bo'lib muntazam qo'shin tuzgan hukmdor. 9. Erondagi Midiya davlati hukmdori. 11. Misr fir'avni. 13. Tarixda dastlabki qonunlar tuzgan hukmdor. 14. Misr iyerogliflarini o'qigan fransuz olimi.

## KROSSVORD

(atama va geografik nomlar bo'yicha)




**BO'YIGA:** 1. Xitoyda ixtiro qilingan zilzilani oldindan aytib beruvchi asbob. 2. Erondagi hukmron sulola. 5. Tanasi arslon va boshi odamnikisimon bo'lgan ulkan haykal. 6. Qadimgi Misrda adolat va adliya ilohasi. 9. Zardushtiylik dinining oliy xudosi. 12. Misr hukmdori.

**ENIGA:** 1. Mumiyolangan jasad solingan toshtobut. 3. "Toshga chekilgan muqaddas bitik". 4. Misrga hujum qilgan ko'chmanchi qabila. 6. Qadimgi Misrning dastlabki poytaxti. 7. Ikki daryo oralig'i. 8. Xetlar davlatining poytaxti. 10. O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar. 11. Sinay yarimorolining shimolida joylashgan qadimgi davlat. 14. Baland ko'p zinali ibodatxona. 15. Qadimgi Mesopotamiyadagi yirik qudratli davlat. 16. Qadimgi Hindistondagi Maurya davlatining poytaxti.

**XRONOKROSS**

(yillar bo'yicha)




**BO'YIGA:** 1. Bobilda Xammurapi hukmronligining boshlanishi. 2. Qadimgi Xitoyda Sin sulolasiga qarshi dehqonlar qo'zg'oloni. 4. Midiyaning Urartu davlatini bosib olishi. 7. Doro I ning Eron taxtiga chiqishi. 9. Xitoyda Xan sulolasining ag'darilishi. 10. Ossuriya podsholigining barham topishi.

**ENIGA:** 1. Fransuz olimi F. Shampaloning Misr iyerogliflarini o'qishga muyassar bo'lishi. 3. Aleksandr Makedonskiyning Bobilga qaytishi. 5. Bobilning Ossuriya podsholidan ajralib chiqishi. 6. Aleksandrning Hindistonga yurishi. 7. Forslar podshosi Kir II taxtga chiqishi. 8. Ossuriyaliklar tomonidan Isroil davlatining tor-mor etilishi. 10. Bobil va Midiya hukmdorlari tomonidan Ossuriyaning bosib olinishi. 11. Quyi va Yuqori Misrning birlashishi. 12. Shiroq jasorati.

**XRONOKROSS**

(Rim raqami hisobida asr va mingyilliklar bo'yicha)



**BO'YIGA:** 1. Ossuriya podsholigi o'z ravnaqining yuqori cho'qqisiga erishishi. 3. Hind daryosi vodiysida yagona davlatga birlashgan katta shaharlarning vujudga kela boshlashi. 4. Ossuriya davlatining vujudga kelishi. 6. Bobilda Xammurapi hukmronligi. 7. Chjou davlatida markaziy hokimiyatning zaiflasha boshlashi. 8. Maurya davlatining gullab-yashnashi. 12. Xitoyning uch podsholikka bo'linib ketishi.

**ENIGA:** 2. Midiyaning qudratli davlatga aylanishi. 4. Xett davlatining vujudga kelishi. 5. Midiya podsholigining vujudga kelishi. 7. Afrosiyob shahriga asos solinishi. 9. Xett podsholigining Mittaniya podsholigini zabt etishi. 10. Midiyada Kiaksar hukmronligi. 11. Xitoyda "Sariq ro'mollilar qo'zg'oloni"ning bo'lishi. 13. O'zbekiston hududida ilk temir asriga o'tilishi.

## III BOB. QADIMGI YUNONISTON

## ENG QADIMGI YUNONISTON

## Aholisi va mashg'uloti

Yevropaning janubida Bolqon yarimorolida bundan 3,5 ming yil avval yunon qabilalari yashagan. Shimoldan kelgan bu qabilalar o'zlarini ellinlar – shoh **Ellinning** avlodlari, mamlakatlarini esa – **Ellada** deb ataganlar. **Ioni**y qabilasi yunonlari esa o'zlarini Ellinning nabirasi Ionning avlodlari deb hisoblashgan, ular Kichik Osiyo yarimorolining g'arbiy qismida o'rnatilganlar. Qadimgi Yunonistonda **pelast**, **eoliya** qabilalari ham yashaganlar. Bolqon yarimoroli va Ioniya o'rtasidagi **Egey** dengizi qirg'oqlari kemalar to'xtashi uchun qulay ko'rfazlarga ega edi. Unchalik chuqur bo'lmagan dengizdagi ko'plab orollar ichida eng kattasi – **Krit** bo'lgan. Yunonlarda dengizchilik san'atining yuksalish omillaridan biri huddi shu, ob-havo buzilganda panoj topish mumkin bo'lgan orollar va ko'rfazlarning ko'pligi ham bo'lgan. Qadimgi yunonlarni kemachilikni rivojlantirishga turtki bergan yana bir narsa Bolqon yarimorolida yirtqich hayvonlari ko'p, qalin o'rmonli tog'larning mavjudligi bo'lgan. Natijada yunonlar tashkil qilgan aholi qo'rg'onlari orasidagi o'zaro aloqalar qadimdan suv orqali olib borilgan. Asrlar o'tib yunonlar mohir dengizchilarga aylanadi.

## Qadimgi Krit

**Krit** – O'rtayer dengizidagi eng yirik orollardan biri. Oroidagi aholi mil. avv. 6–5-mingyillikdanoq Misr va Kichik osiyoliklar bilan aloqada bo'lganlar. Kritda xo'jalikning yuksalishi mil. avv. 4–3-mingyillikdayoq mulkiy tengsizlik va tabaqalanishni, uning asosida qabilalar ittifoqlarini vujudga keltiradi. **Knoss**, **Maliya**, **Fest** kabi aholi yashaydigan markazlar shakllanib, ularning birlashuvidan Kritda Yevropaning ilk davlatlari vujudga kelgan. Mil. avv. XVI–XV asrlarda O'rtayer dengizi havzasidagi eng nufuzli davlatga aylangan Krit kuchli flot tuzib, atrofdagi orollarni o'ziga bo'ysundiradi va Egey dengizida o'z hukmronligini o'rnatadi. Bu paytda Kritning harbiy va savdo kemalari **Misr**, **Finikiya**, **Kichik Osiyo**, **Appenin**, **Bolqon** yarim oroli sohillariga suzib borgan va u yerdagi mamlakatlar bilan qizg'in savdo olib borgan. Kritning eng yuksalgan paytida uning podshosi **Minos** Knossdagi ko'p qavatli muhtasham saroyni qurdiradi. Saroyda derazalar deyarli bo'lmasdan undagi yuzlab xonalar, yo'laklar, zinapoyalar, tomda maxsus qoldirilgan nur tushadigan tuynuklar orqali yoritilgan.

Kritda yozuv bitilgan loy lavhalar topilgan. Ammo bu yozuvning o'qilishi hozirga qadar kashf qilinmagan, umuman Krit madaniyati insoniyat tarixidagi eng sirli voqealardan biri bo'lib kelmoqda.

Olimlarning fikricha mil. avv. XV asrning ikkinchi yarmidan Krit davlati inqirozga uchragan. Oroida kuchli zilzila va vulqonning otilishi, mavjud binolarning deyarli barchasini yakson etadi. Keyinchalik Kritga shimoldan dastlab **axeylar**, so'ng **doriylar** kelib o'rnatilganlar.

## Pilos, Miken va Troya

Pilos va Miken Yunonistonning janubidagi **Peloponnes** yarimorolidagi dastlabki tabaqaviy jamiyatlar bo'lgan. Mil. avv. 3-mingyillik oxiri – 2-mingyillikning 1-yarmiga oid bu shahar davlatlarga mahalliy yunonlar va shimoldan kelgan **axeylar** asos solganlar. Rivoyatlarga qaraganda axeylar afsonaviy Ellinning ikkinchi nabirasi – **Axeyning** avlodlari bo'lgan. Manbalarda yozilishicha axeylar jasur jangchilar

bo'lishib, boylikka o'chligi bilan nom qozonganlar. Axey podsholariga mohir hunarmandlar ishlab, botir askarlar xizmat qilishgan. Me'mor-ustalar Egey dengizi sohillarida hashamatli saroylar qurishsa, askarlar dengiz va quruqlikda uzoq harbiy yurishlarga chiqishgan.

Kritdan so'ng yunonlar Egey dengizining qolgan orollariga, Kichik Osiyoning g'arbiy sohillariga o'rtnasha boshlaydilar. Yunonlar kuchayishiga **Troya** podsholigi qarshilik ko'rsatadi. Mil. avv. 1260-yilda yunonlar birlashib **Miken** podshosi boshchiligidagi Troyaga qarshi urush boshlaydi. Qamal qilingan shahar olinganidan so'ng vayron qilinib yondirib yuboriladi. Axeylarning troyaliklar bilan urushlaridan keyingi zilzila shaharni uzil-kesil yakson etib shundan so'ng u boshqa tiklanmagan.

#### Yunon polislari. Afina

Troya urushlari natijasida, yunonlar va axeylar qudrati zaiflashib, ular o'z g'alabalari nashidasini uzoq vaqt sura olmaydilar. Bolqon yarim-oroli shimolida yashagan **doriy** qabilalari Yunonistonning janubiga yurish boshlaydilar. Axeyliklar bosqinchilarga aytarli qarshilik ko'rsata olmaydilar. Yunonlar shaharlari yondirilib, hashamatli saroylari vayron etilgan. Doriylar qirg'inidan omon qolgan aholi tog'larga, Egey dengizidagi orollarga yoki Kichik Osiyo sohillariga qochgan.

Madaniyat inqirozga uchrab, yunonlar o'z yozuvlarini ishlatmay qo'yanlar va unutganlar. Ammo bosqinchi doriylar o'zlari bilan muhim ijobiy yutuq, ya'ni temirdan foydalanish san'atini olib kelganlar. Shu tariqa mil. avv. 1-mingyillikdan Yunonistonda **temir asri** boshlangan.

Doriylar istilosining dastlabki bir necha o'n yillarida Yunoniston xo'jaligi inqirozga uchraydi. Ammo aholining o'z joylariga qayta boshlashi bilan ilgarigi aholi qo'rg'onlarining jonlanishi va yangilarini vujudga kelishi kuzatiladi. Asrlar o'tib ular kengayib shaharlarga — polislarga aylanadi. Ularda temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik, kemasozlik, me'morchilik, tikuvchilik, qurolsozlik taraqqiy eta boshlaydi. Mil. avv. IX–VIII asrlarda yunonlar dunyosida Afina, Sparta, Korinof, Megara, Agros, Fiva, Siklon va yana ko'plab unchalik katta bo'lmagan **polislar** — shahar-davlatlar vujudga keladi. Yunonistonning turli viloyatlaridagi yuzlab shaharlarning har biri mustaqil davlat bo'lib, ularning atrofida qishloqlari, boylarning hashamatli uylari, bug'doy va arpazorlari, yaylovlari, zaytunzorlari-yu uzumzorlari joylashgan. Polislar markazi avvalgidek shoh saroyi emas, **agora** — bozor maydoni hisoblangan. Yunonlar o'z shaharlarini mustahkam tosh devorlar bilan o'rab olganlar.

Yunoniston tarixining qadimgi davri deb atalgan XI–VI asrlar davomida polislar hayotida katta siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mil. avv. VIII asrda savdogarlar Finikiyadan keltirgan yozuv asosida 24 harfli **yunon yozuvi** yaratiladi. Keyinchalik yunon yozuvi o'z navbatida **lotin, kirill yozuvlariga** asos bo'ladi.

Yunon savdogarlari mil. avv. VII asrda Kichik Osiyoning g'arbida joylashgan **Lidiyadan** yangi ixtiro — **oltin tangalarni** keltirishadi. Uning asosida Attika yarimorolining janubida kumush konlarini ochgan yunonlar o'zlarining kumush tangalarini zarb eta boshlaydilar. Katta kumush tanga — **draxma**, kichigi — **lepta** deb nomlansa, eng yirik pul birligi **talant** — 26 kg og'irlikda bo'lgan.

O'rta Yunonistonda **Attika viloyati** joylashgan bo'lib, uning g'arbiy qismidagi serqoya tepalik ustida mil. avv. 2-mingyillikda **Afina shahri** qurilgan. Uning afsonaviy asoschisi **Kekrop** hisoblanadi. Shaharning markaziy qismi **akropol** — qal'a mustahkam devor bilan o'ralgan bo'lib, uni hatto doriylar ham egallay olmagan.

Afinaliklarning asosiy mashg'ulotlari hunarmandchilik va savdo bo'lgan. Hunarmandlar ayniqsa temir va jezdan turli buyumlar yasash, me'morchilik, kulolchilikda shuhrat qozonganlar. Afina taraqqiyotida dengiz savdosi ahamiyati oshib borgan, sababi tog'li Attikada, don yetishtirish

uchun yerlarning kam bo'lishi, bug'doyni kemalarda Misr va Qora dengiz bo'yidan keltirishni taqozo etardi.

Yunonlar hayotida dehqonchilik muhim o'rin tutgan. Arpa, zig'ir, bug'doy yetishtirilgan.

Bog'dorchilik rivojlangan bo'lib, vodiylarda zaytun daraxti tog' yonbag'irlarida uzum toki ekish bilan shug'ullanganlar. Zaytun yog'ining sifatlisi oziq-ovqatga, sifatsizrog'i chiroqqa, yoritish uchun ishlatilgan. Zaytun moyi ayrim dorilar tarkibiga ham kirgan, uni badanga ham surtishgan.

Uzumdan musallas tayyorlangan. Musallasga suv qo'shib iste'mol qilishgan. Musallasni toza holda ichish **varvarlarga** xos xususiyat deb izohlangan. Temirdan mehnat quollarining, omochning mil. avv. VIII asrdan keng tarqalishi yerga ishlov berishni yaxshilanishi va hosildorlikni oshirishga imkoniyat yaratadi.

Afinada hokimiyati zodagonlar qo'lida bo'lgan. Oqsoqollar kengashi va u saylab qo'ygan 9 ta hokim shaharni idora qilgan. Arxont hokimlar: kohin, lashkarboshi, davlat boshlig'i va 6 ta qozilar (sudyalar)dan iborat bo'lgan. Bizga tarixdan **Drakont** ismli arxontning yangi qonunlar kiritgani ma'lum. Qadimgi yunonlar bu qonunlarni "**siyoh bilan emas, qon bilan yozilgan**" deyishgan. Sababi unda bir bosh uzum yoki sabzavotni o'g'irlagani uchun ham insonga o'lim jazosi belgilangan.

Afinaning zodagon bo'lmagan barcha aholisi "**demos**" – **xalq** deb atalib, dastlab u davlat boshqaruvida qatnashmagan.

Attikada serunum yerlar ko'p bo'lmasdan mavjud yerning asosiy qismi, zodagonlar qo'lida edi. Hosilsizlik yillari oddiy dehqonlar o'zining boy qo'shnisidan qarzga don yoki pul olishga majbur bo'lgan. Qarz olgan, dehqonning yeriga qarz miqdori va uni to'lash muddati ko'rsatilgan qarz toshi o'rnatilgan. Dehqon qarzini o'z vaqtida to'lay olmasa yeri olinib, o'zi qul qilingan.

Mavjud sharoitda Afina demosining aksariyati aslzodalar hukmronligidan norozi edi. Demos davlatni boshqarishda qatnashish uchun to'xtovsiz kurash olib borgan. Aholi qarz uchun qullikka tushurishni ta'qiqlash yerni adolat mezoniga ko'ra taqsimlashni talab qilgan edilar.

### Afinada demokratiya

Afina zodagonlari va demos (xalq)i birgalashib mil. avv. 594-yili arxontlikka: donishmand, shoir va notiq – **Solon**ni saylagan. Solon boshchiligida yangi qonunlar ishlab chiqiladi. Ular taxtaga yozilib, shahar maydoniga o'rnatiladi.

Solon avvalgi shafqatsiz qonunlarni ta'qiqlab qo'yadi va dehqonlarning eski qarzlarini bekor qiladi. Shu paytdan qarz uchun dehqonni qul qilish ma'n etiladi. Natijada Attikada dehqon xo'jaliklari soni ortadi. Ammo Solon islohoti boshqa mamlakatlardan Afinaga keltirilgan qullarning ahvolini o'zgartirmaydi.

U Afina fuqarolarini toifalarga bo'lib harbiy xizmatni majburiy etib qo'yadi. Boylar – **otliqlar**, o'rtahollar – **og'ir qurollangan piyoda (goplitlar)** va kambag'allar (**fetlar**) – **yengil qurollangan piyoda jangchi, matros yoki eshkakchi** bo'lib xizmat qilishlari belgilanadi. Boshqaruvda barcha toifalar ishtirok etadigan bo'ladi. Endilikda **arxont** bo'lishi uchun albatta aslzoda bo'lish shart bo'lmay, har qanday boy demos vakili bu lavozimga saylanish huquqi beriladi. Muhim davlat ishlarini hal etish uchun esa xalq yig'inlari chaqiriladigan bo'ladi. Lekin oqsoqollar kengashi saqlanib qoladi.

Solondan boshlab sudyalikka boyligi va toifasidan qat'iy nazar har qanday fuqaro saylanishi mumkin bo'ladi. **Solon qonunlari** Afinada **demokratiya** ("**demos**" – **xalq**, "**kратиya**" – **boshqaruv**) asoslarini yaratadi.

Xuddi shu demokratiya sharoitida Afina Yunonistonning eng boy, chiroyli va obro'li shahriga aylanadi. Undagi har bir inson yaxshiroq ishlashga, boyib ko'proq huquqlarga ega bo'lishga

intilgan. Yersiz kambag'al — *fetllar*, shaharga chetdan ko'chib kelgan — *meteklar* afinaliklar bilan teng huquqga ega emasdilar. Faqat ayrim hollarda Afinaga shuhrat keltirgan alohida xizmatlari yoki uni himoya qilishdagi jasoratlari uchun, ularga shaharning to'la huquqli fuqaroligi in'om etilgan.

### Sparta

Shimoldan kelgan yunonlarning *doriy* qabilalari mil. avv. XIII asr oxiri — XII asr boshlarida Peloponnes yarimorolining *Lakonika viloyatida*, Evrot daryosi vodiysida *Sparta shahriga* asos soladilar. Dastlab Lakonika, so'ng qo'shni Messeniya viloyatini bosib olgan spartaliklar unumdor yerlarni egallab, taqsimlab olishadi. Mahalliy aholini esa *ilotlar* ("*asir olinganlar*") deb nomlab, o'lim xavfi ostida o'zlariga ishlashga majbur etadilar.

Rivoyatga ko'ra, Spartaning o'ziga xos davlat tuzumi donishmand *Likurg* tomonidan joriy etilgan. Unga binoan spartalik erkaklarning asosiy mashg'uloti harbiy xizmat bo'lgan. Ularga savdo, hunarmandchilik bilan shug'ullanish, oltin va kumushga ega bo'lish ta'qiqlangan. Xalq yig'inida 60 yoshdan oshgan aslzoda spartaliklardan, 28 kishini oqsoqollar kengashiga saylashgan. Bu kengash shaharni boshqarishda cheksiz huquqlarga ega bo'lgan. Qo'shinni boshqargan 2 lashkarboshi esa kengash a'zolari tomonidan tayinlanib, ularni podsho deb nomlashgan. Davlat ahamiyatiga molik masalalar bo'yicha qaror xalq yig'inida ko'pchilikning qo'llashida qabul qilingan.

Sparta harbiy manzilgohni eslatib, unda hech kimga o'z xohishicha yashashga ijozat berilmagan. Erkaklarga tushlikni uyida qilishi ham ta'qiqlangan. Ular 15 kishidan iborat bo'linmalarga birkutilib harbiy mashqlardan so'ng bir xil taom: bo'tqa, biroz pishloq, ahyon-ahyonda baliq yoki go'sht iste'mol qilishgan.

Spartaliklarning bolalari ham ota-onalariga emas, davlatga tegishli bo'lgan. Tug'ilgan o'g'il farzand otasi tomonidan keksalar kengashiga ko'rikka eltib berilgan. Agar bolaning sezilarli nuqsoni bo'lsa ota-onasiga qaytarilmay jarga uloqtirganlar. O'g'il bolalar 7 yoshdan balog'atga yetgunicha, 30 yoshiga qadar harbiy manzilgohda yashab uyiga faqat bayramlarda qo'yib yuborilgan. Bolalarni chiniqtirib tarbiyalashgan. Ularni yarim yalang'och, yalangoyoq, yalangbosh yugurtirganlar, Evrot sohilidan qo'l bilan sindirilib tayyorlangan qamish bo'yra ustida to'shaksiz uxlaganlar. Spartalik o'smirlar qisqa va lo'nda gapirishga, aniq va to'g'ri javob berishga o'rgatilgan. Bolalarga ovqat kam berilgan va ularning o'zlari zarur paytda taom topishlari lozim bo'lgan.

Temir intizom bolalarni jasur jangchilar bo'lib yetishishiga ko'maklashgan. Spartaliklar piyodalari bejiz Yunonistondagi eng yaxshi qo'shin hisoblanmagan. Jangchilar boylikdan nafratlangani sababli ularni poraga sotib olib ham bo'lmagan. Dushmandan chekinish sharmandalik hisoblanganidan spartaliklar chekinishdan ko'ra o'limni afzal bilishgan. Spartaliklarning matonati va jasorati Lakonikaga 600 yil davomida dushman qadamini bosishiga imkon bermaydi. Sparta mil. avv. VII—VI asrda Yunonistonning eng kuchli polislardan biriga aylanadi. Uning bosqiniga yo'liqishdan cho'chigan qo'shni shaharlar: *Korinf, Megara, Agros, Tirinflar* Sparta boshchiligidagi "*Peloponnes ittifoqi*"ga a'zo bo'ladilar. Keyinchalik Afina Spartaning asosiy raqibiga aylanadi.

### Yunon koloniyalari

Yunon polislarining yuksalishi, aholisining ko'payib borishi yangi muammolarni keltirib chiqargan. Xususan hunarmandchilik va savdoning yuksalishi, ichki bozorni kichikligidan savdogarlarni uzoq dengiz safarlariga undaydi. U yerlarda o'rnasha boshlagan savdogarlar ketidan, polislarda ishsizlangan hunarmandlar, yersizlangan dehqonlar yo'l oladi. Yunon shoiri *Gesiod* (mil. avv. VIII—VII asrlar): "*Kambag'allar*

*qarzaridan, mash'um ocharchilikdan qutulish maqsadida o'z vatanlarini tashlab, uzoq o'lkalarga jo'nab ketardilar"* – deb yozgan edi.

Yunonlar o'z kemalarida mil. avv. VIII–V asrlarda O'rtayer dengizining shimoliy sohillarida, Korsika, Sardiniya, Sitsiliya, Appenin yarimorolining qulay ko'rfazlariga, Qora dengiz bo'ylarida kaloniya-manzilgohlar barpo etadilar. Keyinchalik bu manzilgohlar: Neapol, Sirakuza, Tarent, Vizantiya, Milet, Kirena, Xersones, Olviya, Pantikapiya, Tanais va boshqalar o'rnida yangi shahar-davlatlar vujudga keladi. Koloniyalarga tayyor hunarmandchilik buyumlari: idishlar, ko'zalar, musallas, zaytun moyi, zeb-ziynat buyumlari va hokazolar chiqarilgan. U yerlardan Yunonistonga: g'alla, asal, teri, jun, tuz, yog'och va boshqa mahsulotlar olib kelingan.

## YUNON–ERON URUHLARI

Eron mil. avv. VI asr oxiri – V asr boshlarida Sharqning eng qudratli davlatiga aylanadi. Uning qo'shinlari yunonlarning Qora, Marmar va Egey dengizlari sohillaridagi manzilgohlarini egallaydi. Eron tomonidan Misrning ham zabt etilishi Yunonistonga olib kelinadigan g'alla va boshqa mahsulotlarning oqimini butunlay to'xtatadi.

Bu vaqtda Yunoniston polislari orasida yakdillik bo'lmasdan, ularning aksari qismi Eron hukmronligini tan olish tarafdori edi. Eron shohi *Doro I* tahdidlariga faqat *Afina va Sparta polislari* qarshi chiqadi. Mil. avv. 492-yili Eron shohining kuyovi *Mardoniy* boshchiligida yuborgan katta qo'shinining Yunonistonga ilk yurishi muvaffaqiyatsiz chiqadi. Doro I *Datis* va *Artafernlar* boshchiligidagi dengiz flotining 500 ta kemasida Marafon ko'rfazi sohiliga, mil. avv. 490-yilning yozida 100 ming piyoda va 10 ming otliq qo'shinni tushiradi. Ushbu vaziyatda afinaliklar xalq yig'inida *strateglikka (harbiy boshliq)* ilgari forslar xizmatida bo'lgan va ularning harbiy uslublarini yaxshi bilgan *Miltiad* saylanadi. Dastlab forslarning otliq qo'shinidan xavotirlangan yunonlar lashkari atrofdagi tepaliklarni egallab, pastga tushmay turadi. Ammo forslar qo'shinining bir qismi kemalarga o'tirib, Attikani aylanib o'tib himoyasiz Afinaga hujum boshlash niyatini sezgan Miltiad 12-avgust kuni falangasini tekis maydonda tizadi. Forslar falanganing nisbatan zaif markazini yorib o'tib yunonlar lageriga tashlanadi. Yunonlar esa falanganing o'ng va chap qanoti qatorlarini qo'shib forslarning orqasidan zarba beradi. Jangda 6 ming Eron askarlari va 192 ta yunon jangchilari halok bo'ladi. Yunonlar forslarning 7 ta kemasini ham qo'lga kiritadi.

G'alaba haqidagi xabarni Afinaga yetkazgan askar yugurib 42 km. 195 metr masofani bosib o'tgan. Ushbu g'alaba sharafiga keyinchalik sport musobaqalariga xuddi shu Marafon masofasiga yugurish kiritilgan.

Eronning Yunonistonga tahdidi Doro I ning o'g'li *Kserks* (mil. avv. 486–465-y.y) davrida ham davom etadi. Uning ko'p sonli qo'shini mil. avv. 480-yili Kichik Osiyodan Bolqonga o'tib Shimoliy Yunonistonga yurish boshlaydi. Sohil bo'ylab dengizda forslarning mingga yaqin kemalari suza boshlaydi. Ularning katta qismini *finikiyaliklar* va *misrliklar kemalari* tashkil qilgan.

Yunonlar O'rta Yunonistonga o'tishda yagona quruqlikdagi yo'l, dengiz va tog' oralig'idagi *Fermopil* dovonini himoya qilishga qaror qiladilar. Yunonlarning qo'shini Sparta podshosi *Leonid* qo'mondonligida forslarning yo'lini to'sadi.

Forslar qo'shinining darani egallash uchun urushlari natija bermaydi. Jangning uchinchi kuni mahalliy *fesalliyalik Epialt* ismli shaxs mukofot evaziga dushmanga tog'dagi so'qmoq yo'lni ko'rsatadi. Forslarning orqa tomondan o'rab olayotganini sezgan Leonid asosiy qo'shinlarga chekinishni buyurib, o'zining 300 jangchisi va beotiyalik ko'ngillilar bilan yana 2 kun dovonni ushlab turgan. Leonid va uning jangchilari, qahramonlarcha halok bo'ladi.

Xalq yig'ini qaroriga binoan afinalik qariyalar, ayollar, bolalar va qullar *Salamin oroliga*



kemalarda o'tkaziladi: forslar, aholisiz qolgan shaharni egallaydi. Salamin oroli yaqinida 400 ga yaqin yunonlar kemalari to'planadi. Strateg **Femistokl**, ko'rfazda forslar bilan jang qilish, bu suvlarning har bir qarichini yaxshi biladigan yunonlar uchun ma'qulligiga harbiy kengash a'zolarini ishontirishga erishadi. Salamin dengiz jangi mil. avv. 480-yilning sentabrida bo'lib, unda yunonlar dushmanning o'zinikidan bir necha barobar ko'p bo'lgan flotini yengadilar.

Yunonlarning Salamindagi muhim g'alabasi, **Kserks**ni quruqlikdagi qo'shinning bir qismini qoldirib, omon qolgan kemalarda Eronga qaytishga majbur etadi. Forslarning **Mardoniy** boshchiligida qoldirilgan qo'shinlari esa yunonlar bilan mil. avv. 479-yilgi **Plateya jangida** uzulkesil mag'lubiyatga uchraydi. Yunonlar og'ir va uzoq kurashlarda o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

### AFINADA DEMOKRATIYANING YUKSALISHI

Eronliklar ustidan erishilgan g'alabaning yakuniga yetkazish uchun mil. avv. 478-yili **Afina** boshchiligida, **Delos** yoki **1-Afina dengiz ittifoqi** tuziladi. Uning harbiy kuchlari bilan uzoq yillar davomida Kichik Osiyo va Egey dengizi sohillaridagi yunon shaharlarini eronliklar zulmidan ozod qilinadi. Mil. avv. 449-yili eronliklar bilan tuzilgan "**Kalliy sulhi**"ga binoan forslarning harbiy kemalariga Egey dengizida suzish taqiqlanadi. Eron bilan urushlar yakuniga yetsa-da, Afina dengiz ittifoqi tarqatib yuborilmasdan, u va Sparta boshchiligidan Peloponnes ittifoqi orasida Yunonistonda hukmdorlik uchun kurash boshlanadi.

**Salamin jangidan** 20 yilcha o'tib, Attika demosi katta yutuqqa erishadi. Xalq yig'ini bir oyda 4 marta chaqiriladigan bo'ladi. Unda qonunlar qabul qilish, sulh, urush va davlat ahamiyatiga molik boshqa masalalar hal etilgan. Xalq yig'inida 20 yoshga to'lgan barcha erkak, Attika fuqarolari qatnashishi mumkin edi. Barcha shahar va qishloqlardan to'plangan bir necha ming kishi ishtirokida, davlatni boshqaradigan strateg va boshqa mansabdor shaxslar saylangan. Yig'in qizg'in bahs va munozaralarda o'tgan. Ko'rilgan masalalar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilingan.

**Afina demokratiyasi** o'z taraqqiyoti cho'qqisiga mil. avv. 443-yildan, surunkasiga 15 marta birinchi strateglikka saylangan **Perikl** davrida erishadi. Xalq yig'ini Perikl tomonidan kiritilgan barcha takliflarni qabul qilar edi. Shu tariqa u, hech qanday favqulodda vakolatlarga ega bo'lmagan holda, oddiy afinaliklarning ishonchiga va hurmatiga tayanib davlatni boshqargan. Xalq yig'inida 1 yilga saylangan strateg qo'shin va flotni boshqargan, shuningdek, Afinaning chet davlatlar bilan aloqalarini olib borgan.

Afinada strategdan tashqari polisni boshqarish uchun yana ko'plab lavozimlar bo'lgan. Mansabda bo'lish hurmat belgisi hisoblanib, dastlab uni bajarganliklari uchun haq olishmagan. Demos istagini bajo keltirgan Perikl lavozimga saylangan kishilarga davlat xazinasidan maosh to'lashni taklif etadi. Periklning taklifi xalq yig'inida qabul qilinib tarixda ilk marotaba saylangan lavozim uchun haq to'lash joriy etiladi.

Perikl davri Yunoniston tarixining "**oltin davri**" deb ataladi. Uning boshqaruvi paytida **Parfenon ibodatxonasi** qurilishi boshlanadi. **Pirey porti** qurib bitkazilib, unda Afinaning 400 ta **triyeralari** saqlangan. Flot kemalarida faqat polisning to'la huquqli fuqarolari ya'ni ota va onasi afinalik bo'lgan erkaklar xizmat qilishi mumkin edi.

Pirey jahon savdosining muhim markaziga aylanib, davlat xazinasiga mo'maygina daromad keltirardi. Portga kelgan har bir savdogar kemani bo'shatishdan oldin Afinada savdo qilish uchun boj to'lar edi. Afinadan chetga zaytun moyi, vino, sopoldan yasalgan ajoyib ko'zalar, marmarlardan haykallar, kumushdan zeb-ziynat buyumlari chiqarilgan. Savdogarlar orasida

Yunonistonning boshqa shaharlaridan kelib, Afinada yashaganlari ham oz emasdi. Ular yunoncha so‘zlashib, afinaliklar kabi kiyinganlar, bir xil xudolarga sig‘inganlar, lekin Afina davlatida yashaganliklari uchun xazinaga katta soliq to‘laganlar. Fuqaro bo‘lganlar esa bunday soliq to‘lamaganlar.

## PELOPONNES URUSHI

Mil. avv. 431–404-yillardagi *Afina* va *Sparta* orasidagi ziddiyatlar, tarixda *Peloponnes urushlari* nomini olgan urushlarga olib keladi. Dastlab omad afinaliklar tomonida bo‘lsa-da, oxir-oqibat Sparta g‘alaba qozonadi. Spartaliklar Yunonistonda o‘zlariga xos shafqatsizlik va zulm o‘tkazganlar. Ular barcha polislarda demokratik tartiblarni bekor qilganlar.

Ushbu sharoitda Spartaga qarshi harbiy san’atda ulardan qolishmaydigan, ammo madaniyati yuksak bo‘lgan *Beotiya polisi* aholisi ko‘tariladi. Beotiyaning bosh shahri *Fiva* o‘zining shoirlari va musiqachilari bilan bu paytda butun Yunonistonga dong‘i ketgan edi.

Mil. avv. 371-yili *Levktri qishlog‘i* yaqinidagi jangda barcha yunonlarni lol qoldirgan voqea, ya’ni beotiyaliklarning spartaliklar ustidan g‘alabasi ro‘y beradi. Beotiyaliklar sarkardasi *Epaminond* spartaliklar ustidan yana 2 marta g‘alabaga erishib, Lakonikaga yurish uyushtirib *Messeniyani* spartaliklar zulmidan xalos etadi. Ushbu voqeadan so‘ng Sparta o‘z mavqeyini yo‘qotib keyingi 20 yil Fiva Yunonistonning yetakchi shahri bo‘lib qoladi.

Ayni paytda Bolqon yarim orolining shimolida Yunonlarning yangi dahosi yulduzi tobora yorqin ko‘tarila boshlaydi. Tog‘li *Makedoniya viloyati* Yunoniston tarkibiga kirmasa-da uning aholisi yunonlarga qardosh xalq edi. Unda mil. avv. 359-yil taxtga o‘tirgan *Filipp II* ning yoshligi Fivada o‘tgan va u yunon madaniyatining butun dunyo uchun ahamiyatini yaxshi tasavvur etardi. Filipp II ning o‘g‘li *Aleksandrni* o‘qitish uchun buyuk olim *Aristotelni* taklif etishidan ham uning ilmga munosabatini bilish mumkin.

Filipp II qator islohotlar o‘tkazib, katta jangovor qo‘shin tuzadi. Uning otliq qo‘shini zodagonlardan tuzilgan. Piyoda qo‘shin esa cho‘ponlar va dehqonlardan olingan.

Filipp II yangi harbiy tizim — *Makedoniya falangasini* tashkil etadi. U 16 qatordan iborat bo‘lib, jangda dastlabki olti qator nayzalarini oldindagi jangchilar yelkasiga qo‘ygan. Natijada birinchi qatordagi har bir jangchi dushmanga yo‘naltirilgan 6 ta nayza bilan himoyalangan. Yunoniston falangalaridan farqli o‘laroq makedoniyaliklarniki yoppasiga emas, bir necha to‘rt burchakli guruhlariga — *karelarga* bo‘lingan holda harakatlangan. Filipp II kumush tangalar qatorida, *“filippak”* deb nomlangan oltin tangalar ham zarb ettirib davlat iqtisodini mustahkamlaydi. Makedoniya podshosi ayrim shaharlarni va qal’alarni jang orqali, boshqalarini esa pulni ishga solib bo‘ysundirgan. *“Xurjuniga oltin solingan eshak bilan har qanday qal’a va shaharni sotib olishi mumkin”* degan so‘zlarni Filipp II aytgan deyishadi.

Yunoniston tarixidagi eng mashhur janglardan biri Filipp II va yunon shaharlari birlashgan qo‘shinlari orasida mil. avv. 338-yili *Xeroniya shahri* yaqinida bo‘ladi. Unda Yunoniston vatanparvarlari mag‘lubiyatga uchraydi. Jang taqdirini 18 yoshli shahzoda *Aleksandr* o‘zining otliq qo‘shini bilan shavkatli fivaliklarni yengib hal qiladi. *“Xeroniya yonida halok bo‘lganlarning jasadlari bilan birga yunonlarning ozodligi ham ko‘miladi”* degan edi zamondoshlaridan biri.

Leikin Filipp II kutilganidek o‘zini Yunoniston podshosi deb e‘lon qilmadi. U yangi *Ellinlar ittifoqini* tuzish maqsadida mil. avv. 337-yili *Korinfga* yunon shaharlari vakillarini kongressga chaqiradi. Faqat *Sparta* qatnashmagan bu kongressda tinch-totuv yashash, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslikka kelishib olinadi. Filipp II ittifoq-qo‘shinining bosh sarkardasi etib saylanib, Eronga qarshi urushlarga tayyorgarlikni boshlab yuboradi. Ammo Makedoniya podshosini

qizining to'yida fitnachilar tomonidan o'ldirilishi, uning o'z niyatini amalga oshirishga yo'l bermaydi.

### ALEKSANDR MAKEDONSKIY ISTILOLARI

Qo'shin o'zining yangi podshosi deb Filipp II ning 20 yoshli o'g'li **Aleksandr**ni e'lon qiladi. Keyinchalik Sharqda **Iskandar Zulqarnayn** nomini olgan yangi hukmdor otasining ishini davom ettirib Osiyoga harbiy yurishga boshchilik qiladi. Aleksandr mil. avv. 334-yili 30 ming piyoda va 5 ming otliq qo'shin bilan Yevropani Osiyodan ajratib turadigan **Gellespont bo'g'ozidan** o'tadi. Tog'li **Granik daryosi** bo'yida yunon-makedonlar forslarning son jihatidan ustun bo'lgan kuchlariga ilk bor zarba beradi. Jang davomida dushman qurshoviga kirib qolgan Iskandarni do'sti **Klit** muqarrar o'limdan qutqaradi. Bu jang yunonlarga Kichik Osiyoning ichki viloyatlarini bosib olish imkoniyatini yaratadi. Kichik Osiyodagi yunon shaharlari Iskandar qo'shinlarini tantanalar bilan xaloskorlar sifatida kutib oladi.

Eron shohi **Doro III** katta qo'shin bilan yunonlarga qarshi boradi va mil. avv. 333-yili Kilikiyaning **Iss shahri** yaqinida qattiq jang bo'ladi. Jangda Aleksandr qo'shinlari g'alabasi, katta o'ljalar, Eron shohining xotini va ikki qizini asirga tushishi bilan yakunlanadi. Doroning tinchlik sulhi haqidagi murojaati javobsiz qoldirilib, yunon-makedon qo'shinlari **Finikiya** shaharlariga yo'l oladi.

Yunonlar istilolari davomida **Tir** shahri aholisi dushmanga yarim yil qarshilik ko'rsatgan. Qamal davomida taran va palaxmonlar yordamida shaharning mudofaa devorlari buzilib, og'ir janglardan so'ng Tir olinadi. Shaharni talab, yondirib yuborgan yunonlar, uning 30 mingdan ortiq aholisini qullikka tushiradi.

Aleksandr Finikiyada ekanligida Doro III dan sulh so'ragan xat oladi. Unda yunonlar hukmdoriga Kichik Osiyo yerlari, shohning katta qizi va xazinasining yarmi va'da qilingan edi. Harbiy kengashda ushbu masala muhokamasida lashkarboshilardan **Parmenion** "Agar men Iskandar bo'lsam taklifga rozi bo'lar edim" deb fikrini bildiradi. Bunga javoban yunonlar hukmdori "Agar men Parmenion bo'lganimda bu taklifga rozi bo'lardim, ammo Iskandar bo'lganim uchun bunga rozi bo'la olmayman" deb javob beradi.

Misrda Aleksandrni forslar zulmi xaloskori sifatida tantanalar bilan kutib olishadi. Fir'avn bo'lgan Aleksandr, an'anaga ko'ra quyosh xudosi **Amonning** o'g'li va baxtli yer ma'budi deb e'lon qilinadi. Nil daryosining O'rtayer dengiziga quyilishi joyida hukmdor o'z nomi bilan atalgan **Aleksandriya (Iskandariya)** shahriga asos soladi.

Aleksandr mil. avv. 331-yili Eronga qarshi yurishlarini davom ettirib, Mesopotamiyaga qo'shin tortadi. Dajla daryosi bo'yidagi **Gavgamel** qishlog'ida yunonlarni tarkibida: jang aravalari, otliqlar, piyodalar va jangavor fillari bo'lgan katta qo'shin bilan Eron shohi Doro III kutar edi. Har ikki tomon uchun og'ir bo'lgan **Gavgamel jangida** yana yunonlar g'alaba qiladi.

Ushbu hal qiluvchi jangdan so'ng Doro III o'z yaqinlari tomonidan o'ldiriladi. Aleksandrni esa "**Osiyo shohi**" deb e'lon qilishadi. Yunon qo'shinlari mil. avv. 329–327-yillari O'rta Osiyoda istilochilik urushlari davomida mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchraydi.

Aleksandrning Eron qo'shinlari ustidan g'alabalari uning buyuk sarkardalik mahoratini namoyish etdi. Ammo 20 ta satraplikka, turli xalqlar va qabilalarni birlashtirgan **Ahamoniylar imperiyasida** ham, o'zaro nizolar, ziddiyatlarning mavjudligi, dushmanga qarshi yagona birlik bo'lib kurashishga imkon bermadi.

Dunyoni istilo qilish orzusidagi Aleksandr, mil. avv. 327–325-yillari Hindistonning shimoliy hududlarida janglar olib boradi. Ammo 10 yillik yurishlardan horigan qo'shinni yangi janglarga

boshlash qiyinlashib borgan. Aleksandr mil. avv. 325-yili o'zi yaratgan yirik saltanat poytaxti Bobilga qaytishga qaror qiladi. Mil. avv. 323-yilning yozida 34 yoshga kirgan Aleksandr bezgak kasalligidan vafot etadi.

### Ellin davlatlari

Aleksandr vafotidan so'ng uning sarkardalari (yunoncha "*diadox*")lar podshoning onasi, ukasi, o'g'lini hokimiyatdan chetlatib mamlakatni bo'lib olishadi. Keyingi 300 yillik davr Ellin davlatlari tarkibiga Yunoniston, Makedoniya, Misr, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari va O'rtayer dengizining sharqidagi mamlakatlar kirgan. Ular orasida eng muhimlari: Makedoniya, Misr va Suriya bo'lgan.

Misrda hokimiyat Aleksandrning lashkarboshisi *Ptolemey* va uning avlodlari qo'lga o'tadi. *Ptolemeylar davrida* O'rtayer dengizining Sharqiy qismidagi eng muhim savdo va madaniyat markazi *Iskandariya shahri* bo'lib qoladi. Shaharda *Aleksandriya ko'rfazini* nazorat qilib turish uchun "*Yetti mo'jizaning biri*" *Foros orolidagi* balandligi 120 metrli "*Aleksandr mayog'i*" qurilgan. Ko'rfaz sohilida podsho saroyi barpo etiladi.

Shahardagi "Muzey" (yunon afsonalarida 9 ta opa-singil "muzalar" fan, she'riyat va san'at homiylari bo'lgan) butun bir rayonni egallab unda olimlar va shoirlar yashagan. Turli mamlakatlardan Ptolemeylar taklifiga binoan kelgan olimlarga uy-joy, oziq-ovqat, ilmiy tadqiqotlar uchun to'liq sharoit yaratib berilgan. Qadimgi dunyoning mashhur olimi *Aristarx Samosskiy* shu yerda tarixda ilk marotaba yerni Quyosh atrofida aylanishi nazariyasini yaratgan. Geograf olim *Erotosfen* esa dunyo bo'yicha aylana sayohat qilish mumkinligini aytib, yer sharning aylanasi masofasini, faqat 50 km li xato bilan hisoblab chiqqan.

Ushbu bilim maskanida ishlagan *Yevklid* matematika fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. U geometriyaning asoschisi bo'ladi. Muzeyda faoliyat ko'rsatgan *Arximed* fizikaning asoschisi va buyuk injener bo'lgan.

Muzeyda botanika va hayvonot bog'lari, rasadxona va mashhur *Aleksandriya kutubxonalari* bo'lgan. Kutubxonada 700 ming papirus o'ramlari saqlangan. Kutubxonada Yaqin Sharq xalqlari madaniyati namunalari, eng nodir asarlar, jumladan "Injil" yunon tiliga tarjima qilingan.

Aleksandrning lashkarboshilaridan biri Bobil satrapi *Salavka I Nikator* (350–280) tuzgan davlat, tarixda *Suriya podsholigi* deb ham nomlanadi. Unga Suriya, Kichik Osiyoning katta qismi, Ikki daryo oralig'i, Eron va O'rta Osiyoning janubiy hududlari kirgan. Saltanat boshida podsho turgan. Satrapliklar *gipparxiyalarga* bo'linib, ularni *gipparxlar* boshqargan. *Salavkiylar davlati* viloyatlarida mudofaa va qo'shinlarni tashkil etish bilan *strateglar* shug'ullangan.

## QADIMGI YUNON MADANIYATI VA DINI

Yunon dunyosida ilm-fan, san'atning yuksalishiga qadimgi Sharq boy madaniyatining ta'siri katta bo'lgan. Mil. avv. VI asrda Kichik Osiyoda *Milet shahri* ilm-fan markaziga aylanadi. Eng mashhur olimlar: *Gerodot* (490–424-y.y.) hayotligidayoq "*tarix otasi*" nomini olgan. U "*Tarix*" (9 jild), "*Yunoniston-Eron urushlari tarixi*", va boshqa asarlar muallifidir. *Gippokrat* (460–375) tabib bo'lib, "*Gippokrat to'plami*" asarini yozib qoldirgan. *Aristotel* (384–322) Iskandarning ustози Sharq dunyosida "*Birinchi muallim*" deb baholangan. "*Siyosat*", "*Metafizikaga kirish*" asarlari muallifi.

Qadimgi yunon adabiyoti ajoyib afsonalar, dostonlar, tragediya va komediyalar yaratilgan. *Gomer* (mil. avv. VIII asr) "*Iliada*" va "*Odisseya*" dostonlarini yozgan. "*Iliada*" dostonida yunonlar qahramoni *Axillning*, troyaliklar botir jangchisi *Gektorga* qarshi kurashi va yana ko'plab jang sahnalari tasvirlangan. "*Odisseya*"da Itaka hukmdori *Odisseyning* Troya urushlaridan

qaytishidagi sarguzashtlari she'riy uslubda hikoya qilinadi. Dostonda ilk bor *“Troya oti”*, *“Siklop”*, *“Sirena”* – bulbuligo'yolar haqidagi afsonalar keltirilgan.

Yunonlar dostonlarida tasvirlangan voqealarning hammasi ham shunchaki afsona emas. *“Prometey”*, *“Argonavtlar”*, *“Dedal va Ikar”*, *“Gerakl”*, *“Iliada”* va *“Odiseya”* dostonlari orqali biz qadimgi yunonlar turmush tarzi, kasb-korlari, qurol-yarog'lari, uy-joylari, oilaviy munosabatlari haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Qadimgi yunon teatri mil. avv. VI asrda qishloq xo'jaligi homiysi *xudo Dionis* sharafiga o'tkaziladigan bayramlarda ijro etilgan qo'shiq va raqslar asosida shakllangan. *“Teatr”* – tomoshalar joyi demakdir. Uni *“tarbiya maktabi”* deb ham atashgan. Eng mashhur asarlarni: *tragediyalar* otasi *“Esxil”* (525–456) *“Zanjirband Prometey”*, *“Forslar”*; *Sofokl* (496–406) *“Shoh Edip”*, *“Antigona”* va hokazolarni yaratishgan. Tragediyalar mualliflarini yunonlar *“donishmandlik yo'lboshchilari”* deb atashgan.

**Komediya** – *“xushchaqchaq dehqonlarning qo'shiqlari”* demakdir. Sohaning eng yirik nomoyandasi *Aristofan* (450–388) *“Tinchlik”*, *“Ayollar xalq yig'inida”*, *“Suvoriylar”* asarlarini yozgan. Shoir, yunonlar hayotining ko'plab tomonlarini ifodalaganidan uni *“yunon hayotining haqiqiy qomusi”* deb atashgan.

Yunon me'morchiligida ibodatxona, teatr, saroy va majlis binolari qurilishiga alohida e'tibor berilgan. Afinadagi *Parfenon*, *Zevs ibodatxonalari*, *Afina akropoli* va boshqa binolar jahon me'morchiligining nodir durdonalari hisoblanadi.

Haykaltaroshlik ham me'morchilik singari mil. avv. V asrda o'zining yuksak cho'qqisiga erishadi. Rim tarixchisi *Plutarxning* *“Afinada odamlarga nisbatan haykallar ko'proq”*, deb yozgan hazili bejiz aytilmagan. Eng mashhur haykaltaroshlardan: *Mironning* *“Disk otayotgan yigit”*, *“Afina va Marsiy”*; *Polikletning* *“Nayzabardor”* va *“Diodumen”*; *Mironning* *Parfenon ibodatxonasidagi* 12, 5 metrli *Afina haykallari* sohaning yorqin yutuqlari sifatida ko'rsatish mumkin.

### Olimpiya o'yinlari

Yunon polislari birligini, yaqinligini ta'minlagan omillardan biri, bosh xudo *Zevsga* bag'ishlab, har 4 yilda bir marta o'tkaziladigan *Olimpiya o'yinlari* bo'lgan. O'yinlar paytida urushlar ta'qiqlangan. Olimpiyadaga borayotgan yo'lovchi har qanday shaharda daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan. O'yinlarni tomosha qilish uchun Yunoniston va uzoq koloniyalardan o'n minglab tomoshabinlar kelgan. Ular orasida yozuvchi va shoirlar, rassom va haykaltaroshlar, tarixchi va faylasuflar ham bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra tarixchi *Gerodot* mashhur asari *“Tarix”*ni birinchi marta shu *Olimpiya shahrida* o'qib bergan ekan.

Peloponnesning g'arbidagi *Elida viloyati* tarkibidagi Olimpiya shahrida birinchi Olimpiya o'yinlari mil. avv. 776-yili o'tkazilgan. Yunonlarning qadimgi taqvimida yil sanog'i xuddi shu voqeadan boshlangan. Musobaqalarda har bir yunon fuqarosi qatnashishi mumkin edi. Ammo ayollarga o'yinlarda qatnashishgina emas, tomosha qilish uchun kirish ham ta'qiqlangan. Olimpiya o'yinlari vaqtixushlik bo'lmasdan xudo *Zevsga* xizmat bajo etish hisoblangan. Shuning uchun g'oliblarga *Zevsning* e'tibori tushgan, muqaddas kishilar deb qaralib, ular sharafiga haykallar o'rnatilgan.

Olimpiya o'yinlari yozda o'tkazilib 5 kun davom etgan. Birinchi kuni olimpiada ishtirokchilari xudolar sharafiga qurbonliklar keltirib, halol kurashishga qasamyod qilganlar. Keyingi uch kun musobaqalarga bag'ishlangan.

Olimpiya maydonlarida chopish, sakrash, kurash tushish, disk otish, nayza otish va


mushtlashish bo'yicha musobaqalar bo'lgan. To'rt ot qo'shilgan ikki g'ildirakli aravalar musobaqalari *ippodromda* o'tkazilgan.

Beshinchi kuni, *Zevs ibodatxonasi* oldida g'oliblar boshiga zaytun gulchambarlar kiydirib tantanali tarzda mukofotlanganlar.

Yunonistonning *Istma shahrida* ham o'z mavqeyi bo'yicha Olimpiyadadan keyingi o'rinni egallaydigan xudo, *Poseydon* sharafiga o'tkazaladigan sport musobaqalari ham bo'lgan.

Yunonistonda xotin-qizlarning sport musobaqalari ham bo'lib, u Zevsning rafiqasi *Gera* sharafiga o'tkazilgan. Unda ko'pincha yigitlari singari chidamli va baquvvat qilib tarbiyalangan *Sparta qizlari* g'olib chiqqanlar.

*Umumyunon o'yinlari* yunon xalqlarining birligini anglashidagi muhim omillardan biri bo'lgan.



## Din

Yunon dunyosida har bir narsa, hodisa va kasb-korning o'z xudolari – homiylari, ya'ni ma'bud va ma'budalari bor deb hisoblashgan. Bu ko'p xudolikning ko'rinishlaridan biri edi.

**Zevs** – yunonlarning eng muqaddas bosh xudosi. U osmon, momoqaldiroq, chaqmoq va yomg'ir xudosi bo'lgan.

**Poseydon** “*yerni tebratuvchi*” – dahshatli dengiz xudosi, Zevsning ukasi edi.

**Gelios** – yunonlarda quyosh xudosi.

**Apollon** – yunonlarda yorug'lik va san'at xudosi.

**Demetra** – yunonlarda o'simliklar xudosi.

**Aid** – yunonlarda yerosti xudosi, afsonaga binoan odam o'lganidan so'ng uning joni yerosti saltanatiga tushgan.

**Dionis** – vinochilik, hosildorlik xudosi.


**Afrodita** – yunonlarda sevgi va go'zallik xudosi.

**Afina** – yunonlarda Zevsning qizi, urush, g'alaba, san'at, bilim va donolik ma'budasi. Afina shahrining homiysidir.

**Gefest** – yunonlarda temirchilar xudosi.

**Germes** – yunonlarda savdo-sotiq xudosi.

Yunonlar jamiyatidagi tengsizlik dinda ham o'z aksini topgan. Yunonlar tasavvuricha Zevs va unga tobe xudolar baland *Olimp tog'ida* yashaganlar. Shuning uchun bu xudolarni *Olimp xudolari* deb ataganlar. Ular xudolar hayotini podsholar, aslzodalar va badavlat kishilar hayotiga o'xshash deb o'ylaganlar.



**Klassik davr**  
**mil. av. V–IV a.**

Antik polislarida quldorlik munosabatlarining eng yuqori rivoj topishi

- **Mil. av. V–IV a** — Afina o'z qudratining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilishi
- **Ergastiriyalar** — hunarmandchilik ustaxonalar va ishxonalar
- **Afina** — savdo-sotiqning muhim markazi
- **Pirey** — Atikaning asosiy savdo-sotiq porti
- **Xios oroli** — eng katta qul bozori bo'lgan
- **Mil. av. VI a.** — Atika demosining g'alabaga erishishi
- **Xalq yig'ini** — oliy hokimiyat, qonunlar qabul qilgan, urush, sulh va davlat ahamiyatiga molik masalalar hal etilgan
- **Strateg** — davlatning boshqaruvchisi, oliy lavozim
- **Mil. av. 443-yil** — *Periklining* 1-strateg qilib saylanishi va bu lavozimga u surunkasiga 15 yil saylanishi
- **Mil. av. V a.** — quldorlik demokratiyasi o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilishi
- **Agora** — odamlar to'planadigan va eng gavjum joy
- **Mil. av. 431–421-yillar** — *Peloponnes urushining 1-bosqichi*
- **Mil. av. 415–404-yillar** — *Peloponnes urushining 2-bosqichi*
- **Peloponnes urushining kelib chiqishining asosiy sababi:** Yunonistonda hukmron bo'lish: *1-Afina ittifoqi, Peloponnes ittifoqi* (VI a.2-yarmida tuzilgan)
- **Urushning tezlashirgan mojarolar:**
  1. Epidama koloniyasi va Kerkira oroli
  2. Potideyada
  3. Afrikaga qarashli barcha buxtalarida Megara savdo-sotiq kemalarini to'xtatishini taqiqlanishi
- **Sparta** boshch. *Peloponnes* a'zolari: **Megara, Korinf, Agros, Trinof** kabi sh.-davlatlar
- **Mil. av. 431-yil** — Spartaning Afinaga qarshi urush harakatlarini boshlashi
- **Mil. av. 421-yil** — Afina bilan Sparta o'rt. 5 oylig *«Nikiy sulhi»*ning tuzilishi
- **Korinf, Megara, Fiva** «*Nikiy sulhi*»ni tan olmasligi
- **Mil. av. 415-yil** — *Peloponnes* urushining 2-bosqichi Afimani Sitsiliyaga uyushtirgan yurishi bilan boshlanishi
- **Mil. av. 404-yil** — Afinaning mag'lubiyatga uchrashi
- *Peloponnes* urushi Spartaning g'alabasi bilan tugashi
- **Mil. av. 403-yil** — Afina demokratiya qayta tiklanishi
- Afimani *Peloponnes ittifoqiga* a'zo bo'lib qolishi

**Ellinizm davri**

**mil. av. IV a. 2-yarmi — I a. o'rt.**

Eronning yunon-makedon istilosiga uchragandan keyin Yaqin Sharqning keng yerlarida quldorlik jamiyatining yanada rivojlanishi

- **Mil. av. 379-yil** — Fivada demokratiya ta'sis etilishi, Beotiya polislarining ittifoqlarining qayta tiklanishi
- **Fiva** Yunonistonda hukmronligini qo'lga kiritish uchun kurash boshlashi
- Fivaning kuchsizlanishi
- **Mil. av. 378–356-yillar** — *2-Afina ittifoqining* tuzilishi
- **Mil. av. 357–355-yillar** — *«Ittifoqchilar urushi»*ni kelib chiqishi, Afimani mag'lubiyatga uchrashi
- **Mil. av. VI a. oxiri — V a. b.** — Makedoniyada dastlabki tabaqalanish va ilk davlatning qaror topishi
- *Arxelay* davrida poytaxt — **Pellaga** asos solinishi
- **Mil. av. 359–336-yillar** — **Filipp II davri:**
- Dastlab Frakiya, keyinroq Illiriya, get qabilalarini o'z saltanatiga qo'shib olishi
- Yunonistonda hukmronligini o'rnatish maqsadida dastlab Fessilyani ishg'ol qilishi
- **Mil. av. 338-yil** — *Xeroniya sh.* yonidagi jangda yunon sh. birlashgan qo'shinini mag'lubiyatga uchrashi
- **Mil. av. 337-yil** — *Korinfda* yunon shaharlarining kongressini bo'lib o'tishi
- Eronga qarshi urushga tayyorgarlik ishlarini boshlanishi
- **Mil. av. 336-yil** — **Filipp II** ni o'ldirilishi
- **Mil. av. 336–323-yillar** — **A. Makedonskiy davri:**
- **Mil. av. 335-yil** — Frakiya, Illiriya, Fiva ustiga yurish
- Yunonistonning qaytadan o'ziga itoat ettirishi
- **Mil. av. 334-yil** — **Granik** yonidagi jang Eron qo'shinlarining mag'lubiyati
- **Mil. av. 333-yil** — **Is** yonidagi jang
- **Mil. av. 332-yil** — Misriming istilo qilinishi
- **Mil. av. 331-yil** — **Gargamel** yonidagi jang Eronning uzil-kesil mag'lubiyatga uchrashi
- **Mil. av. 329–327-yillar** — Turonning zabt etilishi
- **Mil. av. 327-yil** — Hindistonga bostirib kirishi
- **Gidasp** yonidagi jangda hindlar ustidan g'alaba qozonishi
- **Mil. av. 325-yil** — Hindistonni tark etishi
- **Bobil** — Iskandar saltanatining poytaxti

**Qadimgi Sparta davlati**

- **Sparta** — Lakonika viloyatida joylashgan
- **Mil. av. XIII–XII a. b.** — doriylarning Sparta sh. asos solishi
- **Lot** — *«asir olinganlar»*, mahalliy aholi
- **Mil. av. VII a.** — Messeniya spartaliklarning jabr-zulmiga qarshi itoatlarning qo'zg'oloni
- **Mil. av. VI a.** — Sparta — Yunonistondagi eng kuchli polislardan biriga aylanishi
- **Mil. av. V a. o'rt.** — qattiq zilzila va itoatlarning qo'zg'olonining bo'lib o'tishi


**Yunonistondagi shahar-davlatlar va koloniyalari**

- **Mil. av. VIII–VI a.** — Afina, Elicda, Axeyya, Evbeya, Etomiya sh.-davlatlar mavjud bo'lishi
- O'rtaer dengizining shim. sohillari, Korsika, Sardiniya, Sitsiliya, Apenin yarimorolida, Kichik Osiyoda doimiy koloniyalar — manzilgohlar qurilishi
- Neopol, Sirakuza, Xerosneo, Milet, Olviya, Pantikapiya, Kirena kabi sh.-davlatlarning vujudga kelishi
- O'z mamlakatlarini — **Ellada**, o'zlarini esa **ellinlar** deb ataganlar

**Yunoniston — Eron urushlari**

- **Mil. av. 492-yil** — Eron shohi **Doro I** o'z kuyovi **Mardoniy** boshch. qo'shini Yunonistonga yuborishi
- **Doro I** ning butun Yunonistonni o'ziga tobe etish yo'lidagi 1-urinishi natijasiz tugashi
- **Mil. av. 490-yil** — Eron shohi **Doro I Datis** va **Artaferi** boshch. qo'shini Yunonistonga qarshi yuborishi va **Marofon** jangida mag'lubiyatga uchrashi
- Afina qo'shiniga 10 sarkarda va 1 arxont polemark navbat bilan qo'mondalik qilishi. **Miltiad** —sarkarda
- **Mil. av. 481-yil** — Afina bilan Sparta o'rtasida ittifoq tuzilishi
- **Mil. av. 480-yil** — Eron shohi **Ksereks** boshch. qo'shini Yunonistonga bostirib kelishi, Fermopida eronliklarning g'alabaga erishuvi
- **Salamin Jangida** eronliklarning mag'lubiyati
- **Mil. av. 479-yil** — **Mardoniy** boshch. Eron qo'shinlarining Attikaga bostirib kirishi
- **Plateya yonida** yunonlarning g'alabaga erishuvi
- **Mil. av. 478-yil** — Delos yoki 1-Afina ittifoqining tashkil topishi
- **Mil. av. 449-yil** — *«Kalliy sulhi»*ning tuzilishi





**Yozuv**

- ▶ **Mil.avv.3–2-mingyillik** — *Krit-Miken* madaniyati ravnaq topishi
- ▶ **Mil.avv.VIII a.** — finikiyaliklarning yozuvi asosida 24 harfdan iborat o'z alifbalarini yaratganlar
- ▶ yozuvni papirus, sopol yoki mum taxtachalarga *stil-qalamcha* orqali yozganlar

**Qadimgi Yunoniston madaniyati**

**Fan va madaniyat**

- ▶ **Mil.avv.VII–VI a.** — madaniyat va fanning yanada rivojlanishi
- ▶ **Mil.avv.VI a.** — Ioniya vil. **Milet** sh. ilm-fan taraqqiyot markazi
- ▶ **Mil.avv.490–424-yillar** — «Tarix otasi» **Gerodot** «*Tarix*»
- ▶ **Mil.avv.447–455-yillar** — Gerodotning Misr, Bobil, Suriya, Kichik Osiyo va Qora dengiz sohil mamlakatlariga sayohat qilishi
- ▶ **Mil.avv.460–370-yillar** — faylasuf **Demokrit**
- ▶ **Mil.avv.471–399-yillar** — faylasuf **Suqrot**
- ▶ **Mil.avv.427–347-yillar** — faylasuf **Platon** (Aflotun)
- ▶ **Mil.avv.384–322-yillar** — faylasuf **Aristotel**
- ▶ **Mil.avv.287–212-yillar** — mashhur olim **Arximed**
- ▶ **Mil.avv.460–375-yillar** — tabib **Gippokrat** «*Gipokrat to'plami*»
- ▶ **Mil.avv.XI–IX a.** — Gomer davri «*Prometei*», «*Gerakl*», «*Didal va Ikar*», «*Argonavtlar*», «*Odiseya*», «*Iliada*»

**Me'morchiilik, haykaltaroshlik.**

- Rassomchilik**
- ▶ **Mil.avv.3–2-mingyillik** — memorchilik, haykaltaroshlik va rassomchilik kelib chiqishi
  - ▶ **Mil.avv.V a.** — o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilishi
  - ▶ **Doriy uslubi** — binolarni yog'ochdan qurilishi
  - ▶ **Ioniya uslubi** — ustunlar nozik, xushbichim bo'lib, yuqori qismi qo'chqorning shoxtariga o'xshagan, ularni ayol gavasiga qiyoslaganlar
  - ▶ **Afina** — eng chiroyli shahar bo'lgan
  - ▶ **Mil.avv.V a.** — **Miron** «*Disk otayotgan yigiti*», «*Afina bilan Marsiy*»
  - ▶ **Poliklet** «*Nayzabardor*», «*Diodumen*» haykallari
  - ▶ **Fidiy** ma'buda-Afina (12,5 m), Zevs haykallarini yaratgan. Uning asarlari Parafenon ibodatxonasini bezagan
  - ▶ Haykaltarosh **Proksitel** ma'budlarni yigit va yosh qiz juvonlar qiyofasida tasvir etgan. Uning Dronis bilan o'ynab turgan Germes asari diqqatga sazovar
  - ▶ **Mil.avv.VII–VI a.** — qizg'ish rang sopol ustiga qora lak bilan turli bezaklar chizilgan idishlar ishlab chiqilgan
  - ▶ **Mil.avv.V a.** — ko'za va vazalar qora rangga bo'yalgan

**San'at**

- ▶ **Mil.avv.VI a.** — teatrning *xudo Dionis* sharafiga o'tkaziladigan bayramlar asosida vujudga kelishi
- ▶ **Teatr** — «tomoshalar joyi», «*tarbiya maskani*»
- ▶ **Tragediyalar** — «*Echkilar qo'shig'i*»
- ▶ **Tragediya muallifi** — «*donishmandlik yo'lboshchisi*»
- ▶ **Mil.avv.525–456-yillar** — «*tragediya otasi*» Esxil: «*Zanjirband Prometei*», «*Forslar*»
- ▶ **Mil.avv.496–406-yillar** — Sofokl «*Shox Edip*», «*Antigoniya*»
- ▶ **Mil.avv.480–406-yillar** — Yevripid «*Medeya*», «*Ippolit*»
- ▶ **Esxil va Sofoklga** Afina teatrida haykallar o'rnatilgan
- ▶ **Komediya** — «*Xushchaqchaq dehqonlarning qo'shiqlari*»
- ▶ **Mil.avv.450–388-yillar** — Aristofan «*Tinchlik*», «*Ayollar xalq yig'inida*», «*Suvoriylar*»
- ▶ **Mil.avv.776–yil** — 1-bor Olimpiya o'yinlari o'tkazilishi

**Din**

- ▶ **Zevs** — oliy xudo va qolgan barcha xudolarning rahnamosi
- ▶ **Afina** — jangari ayol, donishmandlik xudosi, Zevsning qizi
- ▶ **Afrotida** — muhabbat va go'zallik xudosi
- ▶ **Aid** — Yerosti dunyosi va marhumlar saltanati xudosi
- ▶ **Appolon** — yorug'lik, musiqa va she'riyat xudosi, Zevsning o'g'li
- ▶ **Ares** — urush xudosi
- ▶ **Artemida** — o'rmonlar va ovchilik xudosi
- ▶ **Demetra** — dehqonchilik va hosildorlik xudosi
- ▶ **Dionis** — sharob xudosi
- ▶ **Eos** — tonggi shafaq ilohasi
- ▶ **Eros** — sevgi xudosi
- ▶ **Femida** — adliya ilohasi
- ▶ **Gefest** — temirchilar va hunarmandlar xudosi
- ▶ **Gellos** — Quyosh xudosi
- ▶ **Gera** — osmon xudosi va nikoh homiyi, Zevsning xotini
- ▶ **Germes** — savdo xudosi
- ▶ **Geya** — Yer xudosi
- ▶ **Gipnos** — uyqu xudosi
- ▶ **Gratsiya** — go'zallik va quvonch ilohasi
- ▶ **Nika** — g'alaba ilohasi
- ▶ **Poseydon** — dengiz xudosi, Zevsning inisi
- ▶ **Xronos** — zamon xudosi

## TARIXIY SHAXSLAR

**ALEKSANDR (Iskandar Maqduuniy, Iskandar Zulqarnayn) (mil. avv. 356-yil Pella – mil. avv. 323-yil 13-iyun Bobil)** – makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi. Makedoniya podshosi **Filipp II** va uning rafiqasi **Olimpiadaning** o'g'li. **Aristotel**dan ta'lim olgan, harbiy ishni otasidan o'rgangan. 336-yilda Filipp II fitnachilar tomonidan o'ldirilgach, Makedoniya taxtiga o'tirgan. Aleksandr mil. avv. 336–334-yillarda Makedoniyaga tutash bo'lgan davlatlarni, shuningdek Yunonistonni ham o'ziga itoat ettiradi. Filipp II dan keyin **Fiva**, **Illiriya** va **Frakiya**, shuningdek ko'pgina yunon shahar-davlatlari Makedoniya tarkibidan chiqib keta boshlagan. Bunga javoban Aleksandr mil. avv. 335-yilda Illiriya va Frakiya ustiga qo'shin tortib, ularni o'ziga itoat ettiradi. Aleksandr Makedoniyaga qarshi qo'zg'olon ko'targan Fiva ustiga yurish qilib, shaharni vayron qiladi, boshqalarga namuna bo'lsin deb uning aholisini qul qilib sottirib yuboradi. Aleksandr afinalik ustozi Aristotel hurmati uchun Afina ustiga jangovar qo'shin tortmaydi. Afinaliklar uni itoatgo'ylik bilan kutib oladilar. Aleksandr Yunonistonni qaytadan Makedoniyaga itoat ettirganidan so'ng mil. avv. 334-yilda Eronga qarshi yurish boshlaydi; bu bosqinchilik urushi otasi Filipp II davridayoq boshlangan bo'lib, uning o'limi tufayli to'xtab qolgan edi. Aleksandr qo'shinida sarkardalardan **Antipatr**, **Parmenion**, **Ptolemey Lag** va boshqalar, shuningdek 30 mingga yaqin piyoda jangchi, 5 ming otliq, yengil qurollangan yordamchi otryadlar va 160 kema bo'lgan. Aleksandr **Granik** (mil. avv. 334-yil), **Iss** (mil. avv. 333-yil) va **Gavgamel** (mil. avv. 331-yil) janglarida **Doro III** qo'shinlarini yenggan. Aleksandr Eronning markaziy shaharlari – **Bobil**, **Suza**, **Persepol**, **Ekbatan** hamda **Misrni** egallagan. Aleksandr 329-yilda **Baqtriyani** egallagach, satrap **Bess**, Oks (O'kuz, Amudaryo) dan kechib o'tib, **Navtaka** (Qashqadaryo vohasi) ga chekingan. Ammo Bess tezda qo'lga olinib, qatl etilgan. So'ng, Aleksandr Marokanda (Samarqand)ni egallab, Sirdaryo tomon yo'l oladi, u yerda shahar barpo etib, uni **Aleksandriya Esxata** (**Chekka Iskandariya**) deb ataydi. Aleksandr o'z ustozi Aristotelning Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o'tgani, ikkalasi ham mag'lubiyatga uchrangani, shuning uchun u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi lozimligi to'g'risidagi maslahatini yodda tutar edi. Umuman Aleksandrning O'rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosati qattiq qarshilikka uchragan. Ustrushonadagi yettita shahar-qal'a Aleksandrga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bularning ichida eng kattasi – **Kiropol** bo'lgan. Uning ichida mahalliy aholining ko'pchilik qismi, eng jangovar jangchilar to'plangandi.

Aleksandr jangchilari bilan Kiropol mudofaachilari o'rtasida shiddatli jang bo'lgan. Unda Aleksandr boshi va bo'yniga tosh tegib yarador bo'lgan, bir qancha lashkarboshilari kamon o'qidan shikastlangan. Aleksandrga qarshi So'g'diyonada **Spitamenn** qo'zg'olon ko'tarib, Marokandani qamal qilgan (**Spitamenn qo'zg'oloni**) va Tanais ortidan saklar podshosining ukasi **Kartazis** boshchiligidagi katta qo'shin unga yordamga yetib kelgani haqida xabardor bo'lgach, qo'zg'olonchilarga qarshi 2000 kishilik qo'shin jo'natib, o'zi saklar tomon qo'shin tortgan (**Tanais daryosi bo'yidagi jang**). Mazkur qo'shin tor-mor keltirilgach, Aleksandr shaxsan o'zi katta kuch bilan Spitamenni dasht chegarasigacha ta'qib qilib borib, ortga qaytishda 120 mingdan ortiq tinch aholini qirib tashlaydi, ko'plab qishloq va qal'alarni vayron qiladi, ekinzor, bog'-rog'larni payhon etadi. Aleksandr mil. avv. 329–328-yillar qishini **Zariasp** (**Balx**, **Baqtra**)da o'tkazadi. Bahorda uning huzuriga xorazmiylar podshosi **Farasman** 1500 jangchisi bilan kelib o'zaro ittifoq tuzishni taklif etadi. Aleksandr mil. avv. 328–327-yillar boshida So'g'diyonadagi tog'lar ustida joylashgan qal'alardagi qo'zg'olonchilarni bo'ysundirishga juda ko'p kuch sarflaydi, ularni mag'lub qilgach, Oksiartning qizi **Roksana** (**Ravshanak**)ga uylanadi. Mil. avv. 327-yil yozida Aleksandr sug'dlik Oropiyni Sug'diyona hokimi etib tayinlab, o'zi Hindistonga yurish qiladi-da, Gidasp daryosi (Hind daryosi irmog'i) sohilida katta qiyinchilik bilan podsho Por qo'shini ustidan zafar qozonadi. Shu tariqa Aleksandr Panjobni egallab, Gang daryosi vodiysiga yurishni davom ettirmoqchi bo'ladi. Biroq, safar va kasallik azobidan holdan toygan qo'shinning ochiqdan ochiq qarshiligiga duch keladi. Shu bois Aleksandr **Gifasis daryosi** (Hind daryosining sharqiy irmog'i) bo'yidan ortga qaytishga majbur bo'ladi. Aleksandr o'z davlatining poytaxti qilib **Bobil** shahrini tanlagan va shu yerda yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rish asnosida bezgak kasaliga yo'liqib, vafot etgan. Aleksandr yurishlari natijasida vujudga kelgan ulkan saltanat hududi Hind daryosidan Dunayga qadar cho'zilgan bo'lib, u qadimgi dunyoning eng yirik davlati edi. Lekin mustahkam ichki aloqalari bo'lmagan bu saltanat Aleksandr vafot etgach, tezda parchalanib ketgan va uning hududida bir qancha *ellinistik davlatlar* vujudga kelgan.

**ALEKSANDR I** – mil. avv. 498–454-yillarda hukmronlik qilgan Makedoniya podshosi. Uning davrida Makedoniya birmuncha mustahkamlangan.

**ALKIVIAD** – mohir Afina sarkardasi. U mil. avv. 415-yilda Afina davlati boshlig'i **Nikiy** va sarkarda

**Lamaxlar** bilan birga spartaliklarga qarshi kurashish uchun Sitsiliya oroli tomon jo'nagan. Lekin Alkiviad xoinlik qilib spartaliklar tomonga qochib o'tgan va afinaliklarning harbiy sirlarini ularga aytib bergan. Bir necha yil o'tgach, Alkiviad yana Afinaga qaytgan. Ko'pgina janglarda u spartaliklar flotini yenggan. Buning evaziga afinaliklar uni avf etishgan.

**ARISTIPP (Aristippos) (mil. avv. V asr 2-yarmi – IV asr boshi)** – yunon faylasufi, **Sokrat (Suqrot)**ning shogirdi, **Kiren maktabining** asoschisi. **Gedonizm** asoschilaridan biri. Aristipp hayotning oliy maqsadi xursandchilikda deb bilgan, lekin uning fikricha, inson xursandchilikka bo'ysunmasligi lozim, balki oqilona lazzatlanishga intilishi kerak, chunki oqilona lazzatlanish uning oliy saodatidir. Yaxshilik va yomonlikning, chin va yolg'onning me'zoni – xursandchilik va azob uqubatdir.

**ARISTOFAN (Aristophanes)** – mil. avv. 480–388-yillarda yashab ijod etgan yunon shoiri, **“komediya otasi”**. Aristofan nazari davrning dolzarb muammolariga qaratilgan bo'lib, ijodida yorqin namoyon bo'ladi va o'sha davr dehqonlar ommasi manfaatlarini ifodalaydi. U shahar aholisi past tabaqasini o'ziga rom etgan radikallar aqidasiga (**“Chavandozlar”**), sofistlarning individual falsafasiga (**“Bulut”**) ishonchsizlik bilan qaradi. U har ikkalasida ham Afina demokratiyasining inqirozi alomatlarini ko'ra oldi. Aristofan komediyalarida muhim voqealarga munosabat, harbiy siyosatga qarshi kayfiyat yaqqol seziladi (**“Lisistrata”**). Hayotiy shaxslarni kamsitish (**“Bulut”**da – Sokratni), fantastik vaziyatlar (**“Axariyanlar”**, **“Qushlar”**) ham Aristofan ijodiga mavzu bo'lgan. Uning **“Tinchlik”**, **“Ayollar xalq yig'inida”**, **“Suvoriylar”**, **“Arilar”**, **“Baqalar”** va shu kabi ko'plab komediyalari ham mashhur bo'lgan.

**ARISTOTEL (Aristoteles, Arastu) (mil. avv. 384 – Stagira – 322 – Evbeya oroli, Xalkida)** – mantiq ilmi, etika faniga asos solgan yunonistonlik buyuk faylasuf. Sharq dunyosida “muallimi avval” – “birinchi muallim” nomi bilan mashhur bo'lgan olimlardan biri. Uni Arastu ham deyishadi. Mil. avv. 367-yilda Afinaga borib, **Platon akademiyasida** tahsil ko'rdi, 20 yoshida uning ishlarida ishtirok etdi. Mil. avv. 343-yildan e'tiboran Makedoniya podshosi **Filipp II** taklifi bilan shahzoda **Aleksandr**ga murabbiylik qildi. Mil. avv. 335-yilda Afinaga qaytib, o'zining **Likey maktabini** tashkil qildi. Aleksandr vafotidan so'ng mil. avv. 323-yilda xudosizlikda ayblanib, **Evbeya Xalkidasiga** qochishga majbur bo'ldi va umrining oxirigacha shu yerda yashadi. Aristotel qomusiy bilimlar sohibi, **peripatetika maktabi** asoschisi, uning ta'limoti ayrim, alohida fanlarni falsafiy nuqtayi nazardan yoritib berdi. U o'sha davrdagi ilmiy bi-

limlarni alohida sohalarga bo'lib chiqqan va ularning har birini botanika, fizika, tarix, siyosat kabi nomlar bilan atagan. U yer shar shaklida bo'lib, butun koinotning markazidir, Quyosh va yulduzlar Yer atrofida aylanadi, deb hisoblagan. Fan soharini tasniflashda falsafiy tizim yaratish bilan Aristotel insoniyat tafakkurini rivojlantirishga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi. Aristoteldan juda boy falsafiy meros qolgan. Ular orasida eng mashhurlari: **“Politiya”**, **“G'oyalar haqida”**, **“Farovonlik haqida”**, **“Birinchi analitika”**, **“Ikkinchi analitika”**, **“Kategoriylar”**, **“Fizika”**, **“Metafizika”**, **“Jon haqida”**, **“Nikomax axloqi”**, **“Axloqi kabir”**, **“Yevdem axloqi”**, **“Siyosat”**, **“Metodika”**, **“Ekonomika”**, **“Etika”**, **“Poetika”**, **“Ritorika”** va boshqalar. Aristotel o'zi va hamma davrlarning buyuk allomasi bo'lib qolgan.

**ARTAFERN** – mil. avv. 490-yilda Doro I ning Yunonistonni bosib olish uchun ikkinchi yurishida, **Datis** bilan birga forslarning harbiy-dengiz qo'shinlariga qo'mondonlik qilgan sarkarda. Artafern boshchiligidagi harbiy-dengiz qo'shin Kilikiya qirg'oqlaridan suzib, Egey dengizi orqali Evbiya oroliga qo'shin tushirib, Eretriyani bosib olgan.

**ARXELAY** – mil. avv. 419–399-yillarda hukmronlik qilgan Makedoniya podshosi. Makedoniya hukmdori **Aleksandr I** ning vorisi. Uning davrida Makedoniya birmuncha mustahkamlangan. Arxelay dengiz bo'yidagi yangi poytaxt – **Pella shahriga** asos solgan. Arxelay qo'shinlari Xalkidika yarimoroli va Fessaliyaning ba'zi joylarini istilo qilganlar. Ko'p o'tmay fitnachilar Arxelayga suiqasd uyushtirib o'ldirganlar.

**ARXIDAM II** – Sparta podshosi. U mil. avv. 431-yilda Sparta boshchiligidagi **Peloponnes ittifoqi** hamda Afina boshchiligidagi **Delos ittifoqi** o'rtasida boshlangan **Peloponnes-Afina urushlarini** boshlab bergani uchun bu urush tarixda **Arxidam urushi** ham deyiladi.

**ARXIMED (taxm. mil. avv. 287 – Sirakuza (Sitsiliya) – 212-yillar)** – yunon mexanigi va matematigi. Arximed o'z zamonining yirik ilmiy markazi – **Iskandariyada** ta'lim olgan. Uning nomi bilan yuritiladigan gidrostatika qonunini ochgan (**Arximed qonuni**). Matematikaga oid bir qator ishlari orasida uning usuli yordamida egri chiziqning uzunligini hisoblab topish, yuza va hajmlarni aniqlash katta o'rin tutadi. Arximed richag qonunlarini topgan va **“Menga yerni tayanch nuqtasini topib bering, Yerni ostin-ustun qilib tashlayman”** degan mashhur iborani aytgan. U ekin maydonlarini sug'orish mashinalari (**Arximed vinti**), yuklarni ko'tarish uchun mo'l-jallangan richag va bloklar tizimlari, harbiy irg'itish mashinalari, qotishmalarning tarkibini suyuqlik (suv)da

aniqlash usuli va boshqa ko'p kashfiyotlarning muallifi. Ko'p asarlari bizgacha yetib kelmagan. Arximed boshi bilan ilm dengiziga sho'ng'igan olim timsoliga aylangan. Rimliklar uning jonajon shahri **Sirakuzani** bosib olganlarida qumda chizmalar chizgancha matematikaga oid bir masalani yechishga urinib o'tirgan ekan. Rimlik askar yetib kelganda: "*Mening chizmalarimga qo'l tekkmagin!*" deyishga ulgurgan, xolos: Arximedga nayza sanchilgan edi.

**ATTAL** – sarkarda, Filipp II Korinfdan qaytgach, Attal boshliq 10 ming kishilik qo'shinni Kichik Osiyoga yuboradi. Urushdan maqsad Kichik Osiyodagi yunonlarni eroniylar zulmidan ozod etish, Yunon-Eron urushi davrida jabrlangan kishilarning o'chini olish va shoh Kserks olib ketgan yunon ma'budalarining haykallarini qaytarib olib kelish edi.

**AXILLES (Axill)** – yunon afsonalarida **Troya urushi** davrida Troyani qamal qilgan "**Iliada**" qahramonlari ichidagi eng mashhur bahodir. Dengiz ma'budasi **Fetida** o'g'li Axillesni o'lmaydigan qilish uchun tovonidan ushlab, **Stiks**ning muqaddas suviga botirib olgan, shu tariqa Axillesning suv tegmay qolgan tovonni zaif muchasi bo'lib qolgan. Troya shahzodasi **Paris**ning mo'ljallab otgan o'qi Axillesning tovoniga tegib, uni halok qiladi. "**Axilles tovon**", ya'ni zaif joy iborasi shundan paydo bo'lgan. Axillesning eng yorqin obrazi "**Iliada**"da berilgan. Axilles shaxsini ulug'lash **Elida**, **Sparta**, **Shimoliy Qora dengiz bo'ylari** va boshqa joylarda keng tarqalgan.

**BRASID** – **Peloponnes-Afina urushlari** (mil. avv. 431–404-yillar)da spartaliklarga rahbarlik qilgan sarkarda. Uning rahbarligi ostida spartaliklar qo'shini Egey dengizi shimolida joylashgan Xalkidika yarimorolidagi bir qancha shaharlarni bosib olgan. U oroldagi **Amfiopol** shahrini qamal qilgan. Bu afinaliklarni tashvishga solib qo'ygan va **Kleon** boshliq Afina qo'shinlari u yerga yetib borgan. Amfiopol yaqinida bo'lgan qattiq jangda Brasit ham afinaliklar qo'mondoni Kleon ham halok bo'lgan.

**DATIS** – mil. avv. 490-yilda **Doro I** ning Yunonistonni bosib olish uchun ikkinchi yurishida, **Artafern** bilan birga forslarning harbiy-dengiz qo'shinlariga qo'mondonlik qilgan sarkarda. Datis o'z qo'shinlarini Afinadan 42 km shimoldagi Marafon manziliga tushirgan. Artafern esa o'z qo'shinini Evbiya oroliga tushirgan va Eretriya shahrini bosib olgan. Datis qo'shinlarining Marafonga tushganliklari haqidagi xabarni eshitgan Afina demoslarining ko'pchiligi vatan uchun kurashga o'tlanadilar. Afinaning jangovar qo'shiniga **Miltiad** qo'mondonlik qilgan. Marafon maydonida bo'lgan Datis va Miltiad qo'shinlari o'rtasidagi qirg'in-barot jang eroniylarning mag'lubiyati bilan tugagan. Afinaliklar Datis

qo'shinlarini Egey dengizining sayozliklariga chekintirib, ularni o'sha yerda yakson qiladilar. Ular eroniylarning 7 kemasi va juda ko'p boyliklarini qo'lga tushiradilar.

**DEDAL** – yunon afsonalaridan biri bo'lgan "**Dedal va Ikar haqidagi afsona**"da yozilishicha, Krit orolida yashagan mohir me'mor, haykaltarosh, ko'pgina foydali asboblarning ixtirochisi bo'lgan. U Krit podshosi **Menosga labirint** – **chalkash yo'lakli bino** qurib bergan va unga kirgan odam chiqib ketishi mumkin bo'lmagan. Afsonaga ko'ra, Dedal Kritdan bosh olib chiqib ketmoqchi bo'lgan, lekin podsho Menos uni qo'yib yubormagach, Dedal o'zi va o'g'li **Ikar** uchun qush patlarini mum bilan yopishtirib, qanot yasabdi. Ular qanotdan foydalanib, Kritdan uchib ketishibdi. Dastlab Ikar otasining orqasidan uchib boribdi, lekin uchishga mahliyo bo'lib ketib, baland osmonga ko'tarilibdi. Quyoshning issiq nurlari mumni eritib yuboribdi. Ikar dengizga yiqilib tushib, cho'kib ketibdi: faqat qanotlarining patlarigina to'lqinlarda suzib yuribdi. Dedal bo'lsa uzoq Sitsiliya oroliga uchib borib qo'nib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashabdi.

**DEMOKRIT (Demokritos) (taxm. mil. avv. 460 – Abderi (Frakiya) – mil. avv. 370)** – yunon faylasufi. Atom to'g'risidagi nazariya (**Atomizm**) asoschilaridan biri, **Levkipning** atomistik qarashlarini davom ettirgan va rivojlantirgan. **Pifagorning** o'g'li **Arimnest** Demokritning ustози bo'lgan. U ellikka yaqin asar yozib qoldirgan. "**Inson tabiati to'g'risida**", "**G'oyalar haqida**", "**Maqsad haqida**" va falsafa, mantiq, fizika, matematika, texnika, axloq, musiqa kabi sohalarda asarlar yaratgan. Bizgacha bularning ayrim parchalari yetib kelgan, xolos.

**DEMOSFEN** (lotincha **Demosthenes**, yunoncha **Demosfenis) (mil. avv. 384–322)** – yunon notig'i va siyosiy arbobi. Afinadagi demokratik kayfiyatdagi guruhning yo'l boshchisi. Notiqlik san'atidan dars bergan, sud mahkamalarida, yig'ilishlarda nutq so'zlagan (61 nutqi, 56 ma'ruzasi saqlanib qolgan). Butun umri davomida Afinaning mustaqilligi va Yunoniston polislarining Makedoniyaga qarshi birlashishi uchun kurashgan. Makedoniya podshosi **Filipp II** ga qarshi qaratilgan bir qancha nutq so'zlagan (bu nutqlar "**filippik**" nomi bilan mashhur). Hayotining so'ngida dushmanlari ta'qibiga uchrab, Afinadan qochgan va zahar ichib o'lgan.

**DEMOSFEN** – mil. avv. 413-yilda spartaliklar bilan bo'lgan jangda Afina dengiz flotiga rahbarlik qilgan mohir sarkarda. Ammo, jangda Demosfen boshliq Afina floti Sparta va uning ittifoqchilari tomonidan tor-mor keltirilgan. Jangda Demosfen halok bo'lgan.

**DIOGEN (Diogenes)** — yunon faylasufi (mil. avv. 404–323-yillar). Diogen *kiniklar maktabi* asoschisi — *Antisfenning* shogirdi bo'lgan. Antisfenning o'limidan so'ng u tug'ilib o'sgan shahri — *Sinopdan* Korinfga ko'chib o'tadi. U Korinfdagi o'ziga boshpana sotib olmaydi. Barcha qulayliklardan voz kechib, ochiq osmon ostida yashay boshlaydi. Anchayin darz ketgan sopol xum unga boshpana vazifasini o'taydi. Diogenning *“Sevgi haqida”, “Davlat” (“Politiya”), “Edip”, “Fiyest”* (fojia) nomli asarlari ma'lumd. U insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart degan fikrni o'z ta'limotiga asos qilib olgan. Pishirilmagan sakkizoyoqni yeb, vabo kasali bilan og'rib qolgan va vafot etgan. Ba'zi manbalarda qayd etilishicha, u nafas qisilishi oqibatida hayotdan ko'z yumgan. Diogen vafotidan so'ng vatandoshlari unga atab ko'plab misdan ishlangan yodgorliklar bunyod etdilar. Faylasuf ona shahri Sinopda tiklangan ana shunday yodgorliklardan birida quyidagi mazmundagi yozuvlarni o'qishingiz mumkin: *“Diogen! Yillar to'foni tosh va bronzalarni ham yemirib tashlaydi. Ammo sening ta'limoting mangu qolajak. Sen bizni qanoat qilishga o'rgatding hamda baxtga eltuvchi yo'lni ko'rsatding”*. Shuning uchun bo'lsa kerak *Buyuk Aleksandr* Diogen haqida shunday degan edi: *“Shoh bo'lmaganimda, Diogenning o'rnida bo'lishni istardim”*.

**DIONISIY** — mil. avv. I asrning 2-yarmida yashagan galikarnaslik yunon tarixchisi va notig'i. Mil. avv. 30-yildan Rimda yashagan va grek tilida asarlar yozgan. *“Rim qadimiyotlari”* asari [Rim tarixining afsonaviy davridan mil. avv. 264-yilgacha; 20 kitob, 1–9 kitoblar (mil. avv. 442-yilgacha) to'liq saqlangan] va ritorika (notiqchilik) haqida to'plamlarning muallifi.

**DRAKONT** — xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlar to'plamini yaratgan Afina hukmdori. Bu qonunlar tarixda *“Drakont qonunlari”* deb nom olib, u mil. avv. 621-yil (VII asr)da yozilgan va amalga kiritilgan. *“Drakont qonunlari”*da jinoyatchilarni jazolash uchun qattiq jazolar belgilangan. Drakont qonunlari haqida afinaliklar *“Ular siyoh bilan emas, qon bilan yozilgan”*, der edilar. Bu davrda Afina aslzodalarining mavqeyi oshib ketgan. Shu tufayli ular o'z idora usullarini *aristokratiya* — *“aslzodalar hokimiyati”* deb ataganlar. Avvaliga afinaliklar bu qonunlarga itoat etishgan, so'ngra norozi bo'la boshlashgan va Drakontni shahardan haydab yuborishgan.

**EGEY (Aigai)** — yunon mifologiyasida Afina podshosi. Uning o'g'li *Tesey Minotavr* (yarim buqa, yarim inson shaklidagi maxluq)ni o'ldirib, shu bilan Afinani podsho *Minosga* to'laydigan sharmandali

tovondan xalos qilish maqsadida Krit oroliga yo'l olgan. Egeyning u bilan kelishuviga ko'ra, Minotavr bilan bo'ladigan jangda Tesey g'olib chiqsa, uning kemasidagi qora yelkanlar oq yelkanlarga almashtirilishi lozim bo'lgan. Biroq Tesey Minotavr ustidan g'olib chiqqach, yelkanlarni almashtirishni yodidan chiqarib qo'ygan; Egey qora yelkanli kemani ko'rgach, qirg'oqdagi qoyadan o'zini dengizga tashlagan. Shundan beri dengiz *Egey dengizi* deb nom olgan (yunonlar dengiz nomini shunday izohlab kelishgan).

**EPAMINOND (Epameinondas) (mil. avv. taxm. 418–362-yillar)** — yunon sarkardasi va siyosat arbobi. IV asrning 70–60-yillarida (Fivada 379-yildagi demokratik to'ntarishdan so'ng) Pelopid bilan birga Fiva davlati va demokratik asoslarda qayta vujudga kelgan Beotiya ittifoqini boshqargan. 371-yilda qo'shinni saflashning yangi usuli (*“qiyshiq saf”*)ni qo'llab Levktra jangida spartaliklar ustidan g'alabaga erishgan, so'ngra beotiyaliklarning Peloponnesga bir necha bor qilgan hujumlari (370/369 Pelopid bilan, 369, 367 va 362)ga rahbarlik qilgan. Mantineya yaqinidagi so'nggi jangda Epaminond g'alaba qozongan bo'lsa-da, o'zi og'ir yarador bo'lib, so'ng vafot etgan.

**EPIKUR (Epikuros) (mil. avv. 341, Samos oroli – mil. avv. 270, Afina)** — yunon faylasufi. 306-yildan Afinada yashagan, o'z nomi bilan atalgan falsafa maktabiga asos solgan. Epikur 300 dan ortiq asar muallifi hisoblanadi. Lekin uning bir necha xati, aforizmlari va esdaligigina saqlanib qolgan. Epikur falsafani fizika (tabiat to'g'risidagi ta'limot), kanonika (bilish to'g'risidagi ta'limot, unda Epikur *sensualizmga* amal qilgan) va etikaga bo'lgan. Epikur fizikada *Demokrinning* atomistika ta'limotiga ergashdi. Son-sanoqsiz olamlar orasidagi fazolarda yashayotgan befarq xudolar mavjud deb bildi, lekin ularning koinot va odamlar hayotiga aralashuvini inkor etdi. U *Platonning* *“g'oyalar dunyosi”*, *Aristotelning* *“birinchi turtki”* va boshqalarning g'ayritabiiy kuchlar haqidagi g'oyalari qo'shilmadi, olam son-sanoqsiz, cheksiz, doimiy harakatda va o'zgarishda deb hisobladi. Epikurning fikricha, jon moddiy, tana bilan bog'liq, tana o'lishi bilan u ham o'ladi. Epikur kanonikaga doir qarashlarida dunyoni ilmiy bilish mumkinligini e'tirof etdi. U kanonikaning maqsadi haqiqatni bilish, haqiqat mezonlarini topish va aniqlashda deb tushundi. Epikur etikasida adolat, do'stlik, donishmandlik tushunchalari muhim o'rin egallaydi. Adolat tushunchasini o'zgaga zarar yetkazmaslik va undan zarar ko'rmaslik deb biladi. Uning fikricha, do'stlikning asosida individning shaxsiy ehtiyoji yotadi;

aqllilik – muvaqqat ezgulik, do‘stlik – abadiy ezgulik. Odamlardan yiroq bo‘lib yasha, degan fikr Epikurning shiori bo‘lgan. U azob-uqubatlarning bo‘lmasligi, tanning sog‘lomligi va ruhning betashvishligi (ataraksiya)ni hayotning maqsadi deb bilgan. Uning fikricha, tabiatni bilish qo‘rquvdan, o‘lim dahshatidan, irim-sirimlar va, umuman, dindand xalos qiladi.

**ESXIL (Aishylos) (mil. avv. 525-yil, Afina yaqinidagi Elevsin shahri – 456-yil Sitsiliya)** – qadimgi yunon dramaturgi, *“tragediya otasi”*. Uning 90 dan ortiq dramasi *“Forslar”* (472-yil), *“Fivaga qarshi yettovlon”* (467-yil), *“Oresteya”* (458-yil), *“Iltijogo‘ylar”* hamda *“Zanjirband Prometey”* bizgacha yetib kelgan. Boshqa tragediyalardan faqat parchalar ma‘lum. *“Baliqchilar”*, *“Elchilar yoki istmiyliklar”* satirik dramalarining parchalari Misr papirus qog‘ozlarida saqlangan. Esxil tragediyalarida insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ijtimoiy va axloqiy muammolarni ko‘tarib chiqqan. Prometey haqidagi trilogiyasidan faqat *“Zanjirband Prometey”* tragediyasi saqlangan. Prometey timsolida zulmga qarshi, adolat uchun kurashuvchi inson obrazini yaratgan. *“Oresteya”* trilogiyasi (*“Agamennon”*, *“Xoeforlar”*, *“Yevminidlar”*)da qabila-urug‘chilik hayotidan saqlanib qolgan zararli urf-odatlarini qoralab, davlat tuzumi, ichki tartiblar gumanistik asosda bo‘lishi kabi g‘oyalarni ilgari surgan. Uning *“Forslar”* tragediyasi mil. avv. 500/492–449-yillarda bo‘lib o‘tgan Yunon-Eron urushlari voqeasiga bag‘ishlangan.

**EZOP (Aisopos) (mil. avv. VI asr)** – yunon masalchisi. Rivoyatlarga qaraganda, Ezop frigiyaalik kul bo‘lib, so‘ng ozod qilingan. Lidiya shohi Krez saroyida xizmatda bo‘lgan, Delfada o‘ldirilgan. Antik davrda ma‘lum bo‘lgan deyarli barcha masallarning sujeti Ezopniki deb hisoblangan. Ular mil. avv. IV–III asrlardan boshlab to‘plangan va *“Ezop masallari”* kitobiga kiritilgan. Milodiy X–XV asrlardagi qo‘lyozmalarda 300 dan ortiq shunday masal saqlanib qolgan. Ezop masallari g‘oyaviy jihatdan tushkunlik va umidsizlik ruhida yozilgan, personajlari (asosan, hayvonlar) o‘ta shartli, voqealar ixcham bayon qilingan; tili sodda, jonli tilga yaqin. Ezop masallari sujeti Yevropa masalchiligi sujetining asosini tashkil etgan. Lotin masalchisi Fedr (I asr) va yunon masalchisi Babriy (II asr)dan tortib *J. Lafonten* va *I.A. Krilov*gacha Ezop masallari sujetini davrga moslab ijodiy rivojlantirganlar.

**FEMISTOKL (Themistokles) (mil. avv. taxm. 525–460)** – Afina sarkardasi, demokratik guruh rahbari, yunon-fors urushlari davrida (493/492-yildan) bir necha bor arxont va strateg. Umumiyunon

qarshilik harakatini tashkil etishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Afinani dengizda hukmron davlat bo‘lishiga va *Delos ittifoqi* tuzilishiga erishgan.

**FIDIY (Rheidias) (mil. avv. V asr)** – yunon me‘mori va haykaltaroshi; qadimgi yunon san‘atining yirik namoyandasi. *Afina, Olimpiya* va boshqa yerlarda ishlagan. Afinadagi *Akropol* qurilishiga boshchilik qilgan. Fidiyning haykaltaroshlik asarlaridan antik mualliflar asarlarida tilga olingan va ko‘chirilgan nusxalaridan ma‘lum va mashhurlari: *Afina Promatos* (jez; taxminan mil. avv. 460); oltin va fil suyagidan ishlangan *Zevs* (Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasida; *yetti mo‘jizaning* biri deb e‘tirof etilgan) hamda *Afina Parfenos* (Afinadagi Parfenon ibodatxonasida) va boshqa haykallar. Fidiy ijodi haqida uning rahbarligida va bevosita ishtirokida ishlangan Afinadagi Parfenon haykallari (marmar, mil. avv. 438–432; Britaniya muzeyi, London; Luvr, Parij; Akropol muzeyi, Afina) chuqur insoniylik bilan yo‘g‘rilgan hamda san‘atlar sintezining yuksak namunasidir.

**FILIPP II (Rhilippos), (mil. avv. taxm. 382–336), (sharqda Faylaqus)** – Makedoniya podshosi (mil. avv. 359–336-yillar). Aleksandr Makedonskiyning otasi. Mil. avv. 359-yilda Makedoniyani birlashtirib, yagona davlat tuzishga erishadi. Makedoniyaning mavqeyini ko‘tarish, uning siyosiy, iqtisodiy, ayniqsa, harbiy rolini kuchaytirish maqsadida bir qancha harbiy islohotlarni amalga oshiradi. Dehqonlardan piyoda va aslzodalardan otliq qo‘shin, kuchli harbiy dengiz floti, hamda 16 qatordan iborat *Makedoniya falangasini* tashkil qilgan. Falanganing 6-qatorida nayza 1-qatordagi jangchini muhofaza etardi. Jang mahalida butun falanga zirhlangan temir maxluqotga o‘xshab qolar edi. Falanga qanotlarini otlar himoya qilgan. Filipp II qo‘shindaqattiq intizom o‘rnatgan, ularning harbiy ta‘limiga katta e‘tibor bergan va ularni tez-tez sinovdan o‘tkazib turgan. U yagona pul birligini joriy etib, oltin va kumush tangalar zarb qildirgan. Oltin tangalar shoh nomi bilan *“filippak”* deb atalgan. Bu islohotlar Makedoniyani har jihatdan mustahkamlagan. Filipp II Makedoniyani kuchaytirib olgach, Peloponnes urushi oqibatida zaiflashib qolgan yunon shahar-davlatlarini bosib olishga kirishadi. Mil. avv. 359–336-yillar davomida *Peoniya, Fessaliya, Illiriya* (bir qismi) kabi qo‘shni davlatlar, so‘ngra esa *Xalkidika* va boshqa *Egey dengizi bo‘yi mamlakatlari*ni zabt etadi. Makedoniya tobeligiga *Epir, Frakiya* va boshqa davlatlar tushib qolgan. U ba‘zi joylarni urush va janglar bilan bosib olgan bo‘lsa, boshqalarini kelishuv, hiyla va katta pul hisobiga o‘z davlatiga qo‘shib olgan. Filipp II o‘g‘li va sarkardalariga: *“Xurjunga oltin joylashgan eshak bilan*

har qanday kuchli qal'a va shaharni qo'lg'a kiritish mumkin" deb aytgan. 338-yil Filipp II *Xeroniya yaqinida* yunonlarning birlashgan harbiy kuchlarini tor-mor etadi. Natijada, Yunoniston Makedoniyaning yakka hokimligini tan oladi. Shundan so'ng Filipp II fors hududlariga yurish qilishni rejalashtiradi. Biroq o'z qizining nikoh to'yi vaqtida, mil. avv. 336-yilda fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Ushbu suiqasdda Filipp II ning xotini *Olimpiadaning* ham qo'li borligi xususida mish-mishlar tarqaladi. *Aleksandr* suiqasd ishtirokchilarini qidirib topadi va ularni jazolaydi. Filipp II o'limidan keyin 20 yoshli Aleksandr Makedoniya taxtiga o'tiradi.

**FRASIBUL** – mil. avv. 403-yili Afinada demokratiyani qayta tiklagan. Lekin Afina Peloponnes ittifoqiga a'zo bo'lib qolgan.

**FUKIDID (Thukydid)** (mil. avv. taxm. 470–400-yillar) – yunon tarixchisi. Afinalik badavlat aslzoda oilasida tug'ilgan; qarindoshlaridan unga Frakiya sohilidagi oltin konlar meros qolgan. Yaxshi ta'lim olgan, o'z zamonasining faylasuf va tabiatshunoslari bilan yaxshi aloqada bo'lgan. Fukidid siyosiy hayotda faol qatnashgan. Peloponnes urushi davrida (424-yil) strateg va Frakiya sohillari yaqinidagi Afina eskadrasi qo'mondoni. Biroq, Sparta sarkardasi Brasidning Amfipolni egallab olishiga to'sqinlik qila olmagan uchun Afinada qattiq qoralanib, quvg'in qilingan. Vatani bilan 20 yil quvg'inlikda yurgan Fukidid o'zining tarixiy asari uchun material to'plagan. 404-yil urush tugashi bilan Afinaga qaytib kelgan. Peloponnes urushi tarixiga (mil. avv. 411-yilgacha) bag'ishlangan *"Tarix"* asari (8 kitobdan iborat) antik davr tarixshunosligining eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi.

**GERAKL** (lotincha *Hercules*, sharq adabiyotlarida *Xiraql*) – yunon afsonalaridagi qahramon, Zevs bilan oddiy ayol Alkmenaning o'g'li. Afsonalarga ko'ra, beqiyos kuchga ega bo'lgan. U mislsiz 12 jasorat ko'rsatgan. Gerakl *nemey sherini* va ko'p boshli *lerneriy ajdahosini* o'ldirgan, *erimanf to'ng'izini* tirik tutgan, *stimfol jodu qushlarini* qirib tashlagan, amazonkalar malikasi *Ippolitaning* kamarini olgan, podshoh *Diomedni* yengib, yiqitgan va shu kabi qator mardliklar ko'rsatgan. Shuningdek, *anteyni* yenggan, *Prometeyni* ozod qilgan. Xotini *Deyanira* uni bilmay zaharlab qo'ygan, lekin *Zevs* uni o'lmaydigan qilib qo'yganligi bois tirik qolgan. Yunonistonning ko'pgina joylarida, keyinchalik Italiyada Geraklga e'tiqod qilingan. Ellinlar Geraklning yer yuzining eng mohir yoyandozi deb hisoblar edilar. Gerakl haqidagi afsonalarda insonning tabiatning dahshatli kuchlariga qarshi kurashi aks etgan. Gerakl *Gerkules* nomi bilan ham mashhur.

**GERAKLIT Efeslik (Herakleitos Ephesios)** (mil. avv. taxm. 544–483-yillar) – qadimgi yunon faylasufi, *Ioniya faylasuflaridan* biri. *Gippokratning* otasi. Oliy aristokratlar oilasida tug'ilgan. Falsafa tarixida birinchi bo'lib obyektiv dialektika tamoyillarini ko'rsatib bergan. Uning dunyoqarashiga Sharq falsafasi, xususan zardushtiylik falsafasi jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Geraklitning asarlarida zardushtiylikka, *"Avesto"*da bayon etilgan g'oyalarga, qadimgi hind upanishadlariga oid lavhalar uchraydi. Geraklitning *"Tabiat haqida"* asaridan bizgacha 130 parcha yetib kelgan. Geraklit olamni to'xtovsiz alanganib va so'nib turuvchi olovdan iborat deb bildi. Uning fikricha, hamma narsalar olovdan paydo bo'lgan va hamma narsa olovga aylanadi. Geraklitning eng muhim falsafiy g'oyasi – qarama-qarshiliklarning kurashi va uyg'unligidir. Unga ko'ra, o'zgarishlar qarama-qarshi kuchlarning ta'siri natijasidir, qarama-qarshiliklar abadiy kurashda, hamma narsa kurash va zaruriyat oqibatida vujudga keladi. Geraklit ta'kidlashicha, urush – hamma narsaning otasi va podshosidir; u ayrimlarga xudolar, boshqalarga odamlar sifatida namoyon bo'ladi, ayrimlarni u qulga aylantiradi, ayrimlarni esa qullikdan ozod etadi. Geraklitning fikricha, olamni bilishning asosida sezgilar yotadi. Faqat tafakkurgina donolikka olib boradi. Geraklit ta'limoti yunon falsafiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'limotni stoiklar qabul qilib oldilar va ular orqali xristianlik va g'arb falsafasiga tarqaldi. Yangi davrda asosan *Fefel*, *Shleyermaxer*, *Lassal*, *Nitshe* rivojlantirdilar.

**GESIOD** – mashhur yunon shoiri. U mil. avv. VIII asr oxiri VII asr boshlarida yashagan. Uning *"Mehnat va kunlar"* poemasi yunon mehnat-kashlariga mehr-muhabbat, tekinox'r aslzodalarga nafrat ruhida yaratilgan. Gesiod o'z asarlarida mehnat ahlini ulug'lagan.

**GIPPOKRAT (Hippokrates)** (mil. avv. 460, Kos oroli – 375, Fessaliya), *Buqrot*, *Abuqrat* – yunon vrachi, ilmiy tibbiyot asoschilaridan biri. Gippokrat Yunonistonda mashhur bo'lgan shifokor **gippokratlar sulolasining** o'n sakkizinchi avlodi. U tibbiyotga oid ma'lumotni otasi Geraklitdan olgan. Gippokrat asarlari G'arb va Sharq shifokorlari qo'lida mo'tabar qo'llanma bo'lib keldi. U tabobat haqida 70 dan ortiq asar yozgan. *"Majmuayi Buqrotiya"* (*"Buqrot to'plami"*) nomi bilan mashhur bo'lgan bu asarlarning aksarisini Gippokrat vafotidan keyin o'g'illari va shogirdlari yozgan. Gippokrat **tibbiyot geografiyasiga** asos solgan. *Kasallik etiologiyasi (kasallik sababi)* va uni aniqlash (*diagnostika*) masalalarini, davolash tizimini ishlab chiqqan. Shifokor xulq-atvorining qisqacha ta'rifi bo'lgan qasamyod



(“*Gippokrat qasamyodi*”) matnini ham Gippokrat yozgan deyishadi. Gippokratni “*tibbiyotning otasi*”, deb ataydilar.

**GOMER (Homer)** — yunon shoiri. Uning hayoti haqida aniq ma’lumotlar yo’q. Turli davrlarda yaratilgan tadqiqotlarda uning yashab o’tgan davrini mil. avv. XII asrdan bilan VIII asr oralig’ida deb ko’rsatiladi. Gomerning so’qir bo’lgani, o’z asarlarini baxshilar kabi og’zaki aytgani ma’lum. Ularni kim, qachon yozib olgani ma’lum emas. Gomerga nisbat berilgan asarlar ko’p, ammo *gomershunoslar* ko’p tortishuvlardan keyin faqat ikki asarni — “*Iliada*” va “*Odisseya*”ni Gomerniki deb tan olishgan. Ularning ikkovi ham qahramonlik eposi bo’lib, yunon mifologiyasi asosida yaratilgan. Shu bilan birga, ularda faqat she’rlar, afsonalar va rivoyatlar emas, real tarixiy voqealar ham aks etgan. Jumladan, “*Iliada*” dostonida tasvirlangan Troya ko’p zamonlar afsonaviy shahar hisoblanib kelingan, ammo buyuk nemis arxeologi *Genrix Shlimann* 1870-yilda Turkiyadagi *Hisorlik tepaligi xarobalari* hududida qazishma ishlarini olib borishi natijasida bu shahar tarixda haqiqatdan ham mavjud bo’lganini isbot qildi.

**KALLIY** — mil. avv. 449-yili Suzada yunonlar va eroniylar o’rtasida tuzilgan sulh uning nomi bilan ataladi (“*Kalliy sulhi*”). U yunon tomonining vakili bo’lib, sulhni ham yunonlar manfaatini ko’zlagan holda tuzgan. Kalliy sulhiga binoan, forslar Egey dengiziga hukmronlik qilishdan voz kechadi. *Gelespont*, *Bospor* hamda Kichik Osiyodagi shahar-davlatlarning mustaqilligini tan oldi. Eron harbiy-dengiz flotiga Egey dengizida suzish taqiqlangan. Eron Yunonistonga ko’p miqdorda tovon to’lashi kerak bo’lgan.

**KLEON** — *Peloponnes-Afina urushlari* davrida *Brasid* boshliq spartaliklar *Amfiopol shahrini* qamal qilganda, afina qo’shinlariga qo’mondonlik qilgan sarkarda. U spartaliklarga qarshi Amfiopol yaqinida qattiq jang qilib, halok bo’lgan. Jangda spartaliklar qo’shinining boshlig’i *Brasid* ham halok bo’lgan.

**KSENOFAN (Xenophanes) Kolofonlik (mil. avv. 580–577-yillar, Kolofon, Kichik Osiyo — 490–485-yillar, Eleya, Janubiy Italiya)** — yunon faylasufi, shoir. *Eleya maktabining* asoschisi. Moddiy olamni yagona, adabiy, o’zgarmas deb bildi va moddiy borliqni xudo deb e’lon qildi. Tafakkur, ong, sezgi — hammasi moddiy. Ksenofan xudoni inson qiyofasida tasvirlashni va yunon dinidagi ko’pxudolikni tanqid qildi.

**LAMAX** — mohir Afina sarkardasi. U mil. avv. 415-yilda Afina davlati boshlig’i *Nikiy* va sarkarda *Alkiviadlar* bilan birga spartaliklarga qarshi kurashish uchun Sitsiliya oroli tomon jo’nagan. Ammo bu yurish

samarasiz tugagan. Mil. avv. 413-yilda spartaliklar bilan bo’lgan jangda halok bo’lgan.

**LAOKOON** — troyalik kohin. Yunon afsonalariga ko’ra, xudolarning xohish-irodasiga xilof ravishda Troyani saqlab qolishga uringani uchun ilonlar tomonidan ikki o’g’li bilan birga bo’g’ib o’ldirilgan. *Rados haykataroshlari* mil. avv. III va I asrlar o’rtasida ishlangan mashhur marmar haykallar shu mazmunda tasvirlangan.

**LEONID** — Sparta podshosi. Mil. avv. 480-yilda *Kserks* boshchiligidagi eroniylarning Yunonistonga qilgan uchinchi yurushi davrida *Fermopil mudofaasiga* boshchilik qilgan. Eron shohi Kserks Leonidga taslim bo’lishni va qurol-yarog’larni topshirishni talab qilgan. Leonid esa Kserks elchilariga “*Kelinglar, kuchinglar yetsa olinglar*”, — deb javob bergan. Shundan keyin Fermopilda jang boshlanib Leonid o’z qo’shinlari bilan ikki kun davomida eroniylarning hujumini qaytarib turgan. Lekin katta boylikka sotilgan fessaliyalik bir xoin eron qo’shinlarini tog’ so’q-moqlari osha yunon qo’shinlarining orqa tomoniga olib o’tgan. Bu voqeadan xabar topgan Leonid 300 spartalikdan boshqa hamma askarlarga chekinishni buyurgan. Leonid o’zining 300 jangchisi bilan birga eronliklarga qarshi ikki kecha-kunduz jang qilib, qahramonona halok bo’lgan.

**LEVKIPP (Leukippos) (mil. avv. V asr)** — yunon faylasufi, antik atomistik ta’limot asoschilaridan biri. Fanga mutlaq bo’shliq va bu bo’shliqda harakat qiladigan atomlar hamda mexanik zaruriyat tushunchalarini kiritgan. Uning fikricha, olamda barcha narsalar eng mayda, oddiy bo’linmas zarralar atomlar va bo’shliqdan tashkil topgan. Borliq va yo’qlik bir vaqtda mavjud, ularning ikkisi ham narsalarning kelib chiqishiga sabab bo’lishi mumkin. Atomlar borliq sifatida mohiyatan zich va to’la, ular bo’shliqda harakat qiladi. Bo’shliq borliq emas, ammo u ham borliq kabi mavjud. Atomlar xilma-xil, doimo harakatlanuvchi unsurlardan tashkil topgan bo’lib, cheksiz shakllarda namoyon bo’ladi hamda doimo o’zgarib, paydo bo’lib turadi. Levkipning atomistik qarashlarini *Demokrit* davom ettirdi va rivojlantirdi.

**MARDONIY** — Ahamoniylar hukmdori *Doro I* (522–486)ning kuyovi. Mil. avv. 492-yilda Doro I Mardoniy boshchiligida Yunonistonga katta qo’shin yuboradi. Bu Doro I ning Yunonistonga qilgan birinchi yurushi bo’lgan va bu muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Mardoniy mil. avv. 479-yili *Attikaga* bostirib kirib, Afinani vaqtincha ishg’ol qilgan. Yunon polislarining birlashgan kuchlari eroniylarga zarba berib, ularni Beotiyaga chekintiradi. **Plateya yonidagi jangda** Eron qo’shinlari yengilib, Mardoniy halok bo’lgan.

**MENOS** – yunon afsonalaridagi *Zevs* va *Yevropaning* 3 o'g'lidan biri. Krit orolida tug'ilib, Krit podshosi *Asterim* tomonidan asrab olinadi. Asteriya vafotidan so'ng Krit oroliga hukmdor bo'lgan. Menos kritiklarga birinchi qonunni joriy qilgan. Yirik dengiz flotini tuzgan, dengizda hukmronlik qilgan, podsho *Mes* hukmronlik qilayotgan *Megara shahrini* bosib olgan. Mil. avv. 2-mingyillik atroflarida Krit orolida sivilizatsiya vujudga keladi va bu uning nomi bilan "*Minos sivilizatsiya*"si deb ataladi. Arxitektor va haykaltarosh *Dedal* Menos sharafiga mashhur labirint saroyini barpo etgan.

**MILTIAID** – yunon-fors urushlarining mil. avv. 490-yil 13-sentabrda bo'lib o'tgan *Marafon jangida* afinaliklarga bosh qo'mondon bo'lgan jasur sarkarda. U butun lashkarni jangovar tartibda saflagan. U ilgari Eronga qaram bo'lgan Frakiya Xersonesining tirani bo'lgan va Eron armiyasida ham xizmat qilgan. U qo'shinni saflar ekan, qo'shinning asosiy kuchini falanganing ikki yoniga to'plagan, shiddat bilan o'z qo'shinlari dushmanlari ustiga bosib borishga undagan. Marafon yonida bo'lgan qirg'in-barot jang afinaliklar g'alabasi bilan yakunlangan. Marafon mag'lubiyatidan so'ng eroniylar Afinaga hujum qilmoqchi bo'lganlar. Buni oldindan bilgan Miltiad yunon qo'shinlarining asosiy qismini Afinaga olib o'tib, kuchli mudofaa chizig'i hosil qilgan. Bu vaqtda Spartadan ham yordam yetib kelgan. Kuchli qirg'oq mudofaasini ko'rgan eroniylar vatanlariga qaytib ketishga majbur bo'lganlar.

**MIRON (Muron) (mil. avv. V asr)** – yunon haykaltaroshi, ilk klassikaning yirik namoyandasi. Miron asarlarida inson tanasi go'zalligi harakat bilan uyg'unlikda tasvirlangan. Miron asarlari (asosan, bronzadan ishlangan) saqlanmagan, ular haqida qadimgi mualliflarning yozmalari va Rimda marmardan ishlangan nusxalari orqaligina tasavvurga ega bo'lamiz. "*Disk otayotgan yigit*", "*Afina bilan Marsiy*" guruhi va boshqalar.

**NABIS (mil. avv. 192-yil)** – Sparta hukmdori (tirani) (mil. avv. 207–192-yillar). Evripontiyalar shoh xonadoniga mansub bo'lgan. Bir qancha qat'iy tadbirlarni amalga oshirgan: bir qism mulkdorlarni quvg'in qilgan, ayrimlarini qatl etgan; yirik yer egalarining yerlarini musodara qilib, *grajdanlik* tarkibiga kiritilgan yersiz spartiatlar va ilotlarga bo'lib bergan. Nabis davrida Sparta qo'shini kuchaygan, Argos bosib olinib, u yerda ham shu islohotlar o'tkazilgan. Butun Peloponnes bo'yicha tub islohotlar o'tkazilishi xavfi Nabisga qarshi *Axey ittifoqining* urush boshlashiga sabab bo'lgan. Ittifoqchilarga yordamga Rim armiyasi ham yetib kelgan. 195 yil tuzilgan sulhga ko'ra, Nabis hokimiyati faqat Sparta

hududi bilan cheklab qo'yilgan. Nabisning qaytadan urush qilishi uning ham quruqlikda, ham dengizda mag'lubiyatga uchrashi bilan tugagan. Nabis xoinona o'ldirilib, Sparta *Axey ittifoqiga* qo'shib olingan.

**NIKIY** – Afina davlatining boshlig'i (mil. avv. 422-yildan). U Afina bilan Sparta o'rtasidagi urush harakatlarini to'xtatish maqsadida mil. avv. 421-yilda Sparta bilan 50 yilga mo'ljallangan sulh shartnomasini tuzgan. Sulhning tashabbuskori Nikiy bo'lgani uchun bu shartnoma *Nikiy sulhi* deyilgan. Nikiy sulhi bilan Peloponnes urushining birinchi bosqichi ham tugagan. Ammo Nikiy sulhining shartlari to'liq bajarilmagach, Afina bilan Sparta o'rtasida yangidan urush boshlangan. Mil. avv. 415-yilda Nikiy *Alkiviad* va *Lamaxlar* bilan birga spartaliklarga qarshi urush boshlab, Sitsiliya oroli tomon jo'nagan. Lekin Alkiviad xoinlik qilib spartaliklar tomonga qochib o'tgan va afinaliklarning harbiy sirlarini ularga aytib bergan. Shundan so'ng Nikiy urushni to'xtatishga umid bog'lab, urush harakatlarini paysalga solgan. Bu davr ichida sitsiliyaliklar mudofaaga tayyorlanish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Afina qo'shinlari Sirakuzani qamal qilganlar. Lekin bu qamal muvaffaqiyatsiz chiqqan. Mil. avv. 413-yili *Demosfen* boshliq Afina floti Sparta va ittifoqchilari tomonidan tor-mor etilgan. Jangda Nikiy bilan birgalikda Alkiviad va Lamaxlar ham halok bo'lgan.

**ODISSEY** (yunoncha, lotincha *Uliss, Ulisses, Ulixes*) – yunon afsonasida Itaka hukmdori; "*Odiseya*" dostonining bosh qahramoni. Yunon-Troya urushi davrida Troyani qamal qilishda ishtirok etgan. Aqlliligi, ayyorligi, uddaburonligi va jasurligi bilan shuhrat qozongan.

**PARIS** – "*Iliada*" dostoniga ko'ra, Sparta podshosinikiga kelib *Sohibjamol Yelenani* Troyaga o'g'irlab olib ketgan Troya shahzodasi.

**PARMENION** – Makedoniya sarkardasi. Uning qo'shinlari eroniylardan yengilayotgan vaqtda Aleksandr unga yordamga kelib jangni o'z hisobiga hal qiladi.

**PERIKL (mil. avv. taxm. 490, Afina – mil. avv. 429)** – yunon siyosiy arbobi, mil. avv. 443–429-yillarda (430-yildan tashqari) Afina strateg (bosh qo'mondoni). Aristokratlar urug'iga mansub, demokratik guruh rahbari. Mil. avv. 443-yilda xalq yig'ini tomonidan Afinaning bosh strateg (bosh qo'mondoni) qilib saylangan. Perikl iste'dodli, bilimli va notiq kishi bo'lgan. U o'z faoliyati davomida demos manfaatini himoya qilib, Afina davlat tuzumini yanada demokratlashtirgan. Butun Yunonistonni Afina qo'l ostida birlashtirishga harakat qilgan va Afinani eng qudratli davlatga aylantirgan. Perikl mamlakat xalq xo'jaligining ravnaqi, me'morchilik va madaniyat

ishlarini rivojlantirish uchun o'zining katta hissasini qo'shgan. Xususan u jamoat binolari (*Parfenon, Propilei, Odeon*)ni qurdirgan. Shuning uchun ham u hukmronlik qilgan yillar "*Perikl asri*" deb ataladi. Tashqi siyosatda Perikl Afina dengiz qudratini oshirish va mustahkamlashga intilgan, strateg sifatida bir qancha harbiy ekspeditsiyalarga rahbarlik qilgan. Mil. avv. 431–404-yillardagi *Peloponnes urushi*, spartaliklarning Attikaga bostirib kirishi va qamalda qolgan Afinada o'lat kasalining tarqalishi natijasida Periklning mavqeyi pasaygan. Mil. avv. 430-yilda u strateglikka saylanmagan, bundan tashqari, moliyaviy jinoyat qilganlikda ayblanib, yirik pul jarimasi to'lashga hukm etilgan. Mil. avv. 429-yilda Perikl oqlangan va qayta strateglikka saylangan, lekin o'sha yili o'latdan vafot etgan.

**PERSEY (mil. avv. taxm. 213–166-yillar)** – Makedoniyaning so'nggi shohi (179–168-yillar). Rimga qarshi urushda (171-168-yillar), Rimga qarshi koalitsiyani tashkil etib va unga bosh bo'lib bir necha g'alabalarga erishgan, lekin, 168-yilda Pidne jangida Persey qo'shini yengilgan; asir olingan Persey tutqunlikda halok bo'lgan.

**PIFAGOR (taxm. mil. avv. 580, Samos – 500, Metapont)** – yunon matematigi, faylasuf, quldor aristokratiyaning g'oyaviy targ'ibotchisi. Mil. avv. 530-yildan Janubiy Italiyadagi Krotone shahrida, keyinroq Metapont shahrida yashagan. Krotonega falsafiy maktab, siyosiy partiya va diniy birodarlikni mujassamlashtirgan ittifoq (pifagorlar ittifoqi) tuzadi. Pifagor falsafasida son barcha narsaning mohiyati, olam esa sonlar va ular orasidagi munosabatlarning garmonik sistemasi, degan g'oyalar ilgari surilgan. Matematika tarixida Pifagor geometriyaga sistematik isbot tushunchasini kiritib, uni abstrakt fan darajasiga ko'targan, to'g'ri chiziqli shakllar geometriyasini tuzgan, o'xshashlik haqidagi ta'limotni yaratgan, to'g'ri burchakli uchburchak haqidagi teoremani isbotlagan (bu teorema Pifagordan 1500 yil ilgari Misr va Bobilda isbotsiz ma'lum bo'lgan) (*Pifagor teoremasi*), ayrim muntazam ko'pburchak va ko'pyoqliklarni yasagan deb hisoblanadi. Odatda, juft va toq, tub va murakkab, mukammal sonlar, arifmetik, geometrik va garmonik proporsiyalar Pifagor nomi bilan bog'lanadi. Pifagor maktabining matematikani sistemallashtirishdagi roli katta bo'lgan.

**PLATON Afinalik (sharqda Aflotun, haqiqiy ismi Aristokl; mil. avv. 427-yil 27-may – Afina – 347-yil)** – yunon faylasufi, *platonizm* asoschisi. *Sokrat* unga "*Platon*" (keng yelkali, keng ko'krakli degan ma'noni beradi) deb nom qo'yan. Platon mashhur faylasuflar bilan yoshligidan muloqotda bo'lib,

ulardan ta'lim oldi. *Geraklit, Parmenid, Demokrit* va boshqa faylasuflarning asarlarini o'rgandi. Mil. avv. 380-yillarda Afina yaqinidagi *Akademiya* nomli bir bog'ni sotib oladi (bu nom shu yerlik afsonaviy qahramon Akadem sharafiga berilgan) va bu bog'da o'zining *Platon akademiyasi* deb atalgan falsafiy maktabini ochgan. Akademiya Afinada deyarli 1000 yil faoliyat ko'rsatadi. Akademiya faqat falsafadan emas, geometriya, astronomiya, zoologiya va botanikadan ham ta'lim berilar edi. Biroq siyosiy ta'lim markaziy o'rinda edi. Ta'lim ma'ruzalar, munorazalar va suhbatlarga asoslanardi. Har kuni gimnastika mashg'ulotlari o'tkazilardi. Platon qarashlarida jamiyat, davlat to'g'risidagi ta'limot markaziy o'rinlardan birini tashkil qilardi. Platondan 30 ga yaqin katta va kichik asar hamda xatlar saqlanib qolgan. Asarlari dialog shaklida yozilgan. Ulardan muhimlari: "*Apologiya*" (Sokratni himoya qilish), "*Kriton*" (qonunni hurmat qilish haqida), "*Laxet*" (mardlik haqida), "*Xarmid*" (aql bilan ish qilish haqida), "*Menon*" (notiqlik san'ati mohiyati haqida), "*Bazm*" (eros haqida), "*Fedr*" (eydoslar haqidagi ta'limot), "*Fedon*" (adolat haqida), "*Davlat*" (adolat haqida), "*Teetet*" (bilim haqida), "*Timey*" (kosmologiya), "*Qonunlar*", "*Siyosatdon*", "*Fileb*" va boshqalar. Platonning asarlari asrlar davomida G'arbda, Sharqda ma'lum va mashhur bo'lgan, ko'p tillarga tarjima qilingan, ularga sharhlar yozilgan. "*Davlat*" asariga *Ibn Rushd*, "*Qonunlar*"ga *Forobiy* sharhi e'tiborga loyiq. Forobiyning sharhi "*Talxisu navomisi Aflotun*" ("*Aflotun qonunlari mohiyati*") deb ataladi.

**PLUTARX (Plutarchos) (taxm. 46, Xeroneya, Beotiya – taxm. 127)** – qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf va yozuvchi. Afinada tahsil olgan. Umrining ko'p qismini ona shahrida jamoat va ma'rifatparvarlik ishlari bilan o'tkazgan. Platon akademiyasining ko'zga ko'ringan a'zolaridan biri sifatida platonizm g'oyalarini targ'ib qilgan. Ayni paytda muayyan darajada stoitsizm, peripatetizm va, jumladan, pifagoreizm ta'siri ostida ham qolgan. Plutarx ta'limotida ko'proq axloq-odob, insonparvarlik masalalari yetakchilik qilgan va olim falsafani insonlar uchun o'z-o'zini ma'naviy shakllantirish vositasi deb bilgan. Plutarxdan boy adabiy va falsafiy meros qolgan. Biroq uning nomini mashhur etgan yetakchi meros – tarixiy-biografik asarlar hisoblanadi. Ushbu asarlar "*Qiyosiy hayotnomalar*" umumiy nomi bilan shuhrat topgan. Mazkur asarlarda *Lisandr* va *Sulla*, *Kiton* va *Likull*, *Nikiy* va *Krass*, *Agessily* va *Pompey*, *Aleksandr* va *Sezar*, *Demosfen* va *Sitseron* singari mashhur yunon, Rim davlat va siyosiy arboblari, sarkardalari va notiqlarining hayot yo'llari,

xulq-atvori, turmush tarzini qiyoslash yo'li bilan tarjimayi hollari bayon qilingan. Badiiy-tarixiy ahamiyatga molik Plutarx biografik asarlarida Qadimgi Eron, Parfiya va Sug'diyona singari Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir ma'lumotlar ham yoritilgan. Plutarx ilgari surgan insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari keyingi davrlarda anchagina ilg'or tafakkur vakillariga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazgan.

**POLIKLET (Rolukleitos) (mil. avv. V asrning II yarmi)** – yunon haykaltaroshi va san'at nazariyotchisi, yuksak klassikaning yetakchi namoyandalaridan. Poliketning bronzadan yasalgan *“Dorifor”*, *“Yarador Amazonka”*, *“Diodumen”*, *“Nayzabardor”* va boshqa haykallari nusxalaridan va qadimgi mualliflarning yozmalaridan ma'lum. Poliketning *“Risola”*sidan ayrim parchalargina saqlangan. Inson tanasi go'zalligi va ideal mutanosibliigi hamda uyg'unligini raqamli qonunda ifodalab bergan.

**POSIDONIY (Poseidonios) (mil. avv. taxm. 135, Apameya, Suriya – mil. avv. 51, Rodos oroli)** – yunon stoik-faylasufi, Rodos orolidagi maktab boshlig'i. *Sitseronning* ustози. Stoitsizmni platonizm bilan birga qo'shgan. Bilimning hamma sohasini qamrab olgan asarlari antik naturfalsafani yakunlab bergan va shu tariqa antik falsafaga har tomonlama ta'sir ko'rsatgan.

**PRAKSITEL (Praxiteles) (taxm. mil. avv. 390–330-yillar)** – yunon haykaltaroshi; so'nggi klassika namoyandasi. Afinada ishlagan. Praksitel asarlarini asosan marmardan ishlagan, antik nusxalardan va qadimgi mualliflarning yozmalaridan ma'lum. Praksitel davrining badiiy talablariga javob beradigan yangi, o'ta nozik go'zallik namunalarini yaratdi. Asarlari nisbatlar jihatidan kelishgan va uyg'un; marmarni mahorat bilan yo'nib, tasvirni his qila olgan va uning mayin shakliga erishadi. Uning Dionis bilan Germeslarning o'ynab turgan haykali maqtovg'a sazovordir. Praksitel shakllariga nafis holat va yengillik bera oladigan tashqi tayanch nuqtalarini topa olgan: *“Apollon Saurokton”* (taxm. mil. avv. 370, Vatikan muzeyida), *“Afrodita”* (taxm. mil. avv. 360–350, Luvrda).

**PROTAGOR (Protagoras) Abderalik (mil. avv. taxm. 480–410)** – yunon faylasufi, sofistlarning mashhur vakili. Asarlari bizgacha yetib kelmagan. U talabalarga falsafa, notiqlik va bahs san'atidan saboq bergan. Protagor falsafasining asosiy qoidasi *“inson barcha mavjud bo'lgan va mavjud bo'lmagan narsalarning mezonidir”* degan tezisda o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, barcha narsa nisbiydir. Protagor o'zini *“sofistlar va odamlarning ustози”*

deb atagan. U xudolarning mavjudligini ham, mavjud emasligini ham bilib bo'lmaydi, deb hisoblagan. Protagor *“Xudolar haqida”* kitobi uchun daxriylikda ayblangan, asari yoqib yuborilgan, o'zi Afinadan badarg'a qilingan. Janubiy Italiyadan Sitsiliyaga ketayotib, Messina bo'g'ozida suvga cho'kib halok bo'lgan. **Platon** unga bag'ishlab *“Protagor”* asarini yozgan.

**SKOPAS (Skopas) (mil. avv. IV asr)** – yunon haykaltaroshi va me'mori. Paros orolida tug'ilgan. Gretsiya va Kichik Osiyoning Tegeya (hozirgi Piali), Galikarnas (hozirgi Bodrum, Turkiya) va boshqa shaharlarida ishlagan. Skopas Tegeyadagi Afina Aleya ibodatxonasi (mil. avv. 350–340-yillar) va Galikarnasdagi mavzoley (maqbara, mil. avv. IV asr o'rtalari)ni barpo etishda me'mor sifatida qatnashgan. Skopas klassika an'analarini davom ettirib, monumental, qahramonlik ruhi bilan sug'orilgan haykaltaroshlik asarlarini yaratdi, ularda serg'ayrat, kuch-quvvatga to'la, ichki his-hayajonini yashira olmaydigan, kurash ruhi bilan to'lib-toshgan kishilarning ko'rinishi, ma'naviy ichki dunyosi ochib beriladi. Galikarnasda haykaltaroshlar Briaksis, Leoxar, Timofeylar bilan hamkorlikda yaratgan releflaridan parchalar Britaniya muzeyida saqlanadi. Skopasning ko'p asarlari jahon muzeylarida saqlanayotgan Rim nusxalaridan ma'lum: *“Meliagr”*, *“Menada”*, *“Potos”*, *“Navqiron Gerakl”* va boshqalar. Skopasning dramatism bilan to'la ijodi ellin davri madaniyati haykaltaroshligiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

**SOFOKL (Sophokles) (mil. avv. 496–406-yillar)** – yunon dramaturgi, shoir, siyosiy va harbiy arbob. Antik manbalarga ko'ra, 123 drama yozgan, shulardan 7 tasi (*“Ayaks”*, 442-yildan oldinroq; *“Antigona”*, taxminan 441-yil; *“Traxinalik ayollar”*, yozilgan vaqti noma'lum; *“Shoh Edip”*, va *“Elektra”*, 430–415-yillar orasida; *“Filoktet”*, 409-yil; *“Edip Kolonda”*, 401-yil) va ayrim dramalaridan parchalar, ba'zi lirik she'rlari yetib kelgan. Sofokl o'tmishdoshi *Esxil* va izdoshi *Yevripiddan* farqli o'laroq, voqelikni qanday bo'lsa, shunday qabul qilib, Yunonistonning gullagan davridagi demokratiya asoslariga shubha bilan qaramagan. Sofokl antik davr tragediyalari uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan shaxsning ma'naviy shakllanishi muammosini yechishda dunyoning Parvardigor tomonidan idora etilishini nazardan qochirmagan. Sofokl Esxildan farqli o'laroq, tragediyaning trilogiya ko'rinishlaridan voz kechib, har bir asarida sujetning mustaqilligiga erishadi. Uning ikkinchi yangiligi 3 aktyor ishtirokidagi sahnalardan samarali foydalanishidir. Sofokl jahon adabiyoti tarixidan bir necha monumental

obrazlarni yaratgan ijodkor va jiddiy dramatik kompozitsiyalar ustasi sifatida o‘rin egallagan. Sofoklning “Shoh Edip” (1969-yil), “Antigona” asarlari hozirgi O‘zbek milliy teatri (1971-yil), “Elektra” tragediyasi esa *Abror Hidoyatov nomidagi teatrd*a sahnalashtirilgan.

**SOKRAT (Sokrates)** (Sharqda **Suqrot mil. avv. 471 – Afina – 399**) – yunon faylasufi. Haykaltarosh *Sofriniks* va doya *Fenaretta* oilasida tug‘ilib o‘sgan. *Sokrat* o‘zining dono hikmatlari tufayli shaharning eng aqlli kishisi deb e‘lon qilingan edi. Bunga javoban Sokrat shunday debdi: “Mening donishmandligim shundaki, kamina faqat hech nimani bilmasligimni bilaman, xolos!”. O‘z ta‘limotini og‘zaki bayon qilgan, hech qanday yozma manba qoldirmagan. Sokratning g‘oyalari *Atlantida* degan xayoliy (ideal) davlat to‘g‘risida ta‘limotni yaratgan *Platon* degan tag‘in bir yunon faylasufining muloqotlari orqali bizgacha yetib kelgan. Platonni endilikda “Aflotun” sifatida ham bilamiz. Darvoqe, bizgacha Sokratning mashhur bir hikmati ham yetib kelgan: “Xudo bizning o‘zimizdadir!”. Sokrat fuqarolarning axloqiy-ma‘naviy tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Delfiya ibodatxonasidagi bitik uning sevimli hikmati ekan: «O‘z-o‘zingni anglagin va bilgin!» Muxoliflari bilan dialoglarida Sokrat Yaxshilik va Yomonlik nima degan masalaga javob berishga harakat qilib ko‘rgan. Yomon, aldoqchi va shafqatsiz bo‘lishga qaraganda yaxshi, halol, rahmdil bo‘lish ancha yaxshiroq, deb uqtirgan faylasuf. Sokrat, ayniqsa, ochko‘zlik va molparastlik singari nuqsonlarni qattiq tanqid qilgan. Bozor bo‘lyab sayr qilib yurganida shunday degan ekan: «Bularsiz ham kun kechirish mumkin bo‘lgan shuncha narsalar borligi ham qandoq yaxshi!» Sokrat dunyoda Ezgulik qonunlari mavjudligini, faqat ularni bilish va ularga rioya qilgan holda yashash kerakligini isbotlagan. Sofistlarga qarshi kurashish va yoshlarni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Atrofiga ko‘plab iqtidorli talabalarni jamlagan. Bu talabalarning bir qismi (*Alkiviad*, *Kritiy* va boshqalar) Afina demokratiyasiga qarshi kayfiyatda bo‘lgan. Sokratni demokratiyaga nisbatan dushmanlikda asossiz ayblashgan. Aslida u boshqaruvning hamma shakli – monarxiya, mustabidlik, aristokratiya, plutokratiya va demokratiyani, agar ular adolatni buzayotgan bo‘lsa, tanqid qilgan. Sokrat ta‘limotidagi tanqidiy ruh Afina hukmron doiralari xavotirga solgan. Buning natijasida Sokrat yoshlarni yo‘ldan adashtirganlik, fuqarolik me‘yorlarini buzganlik hamda “*yangi xudolarga sajda qilish*”da ayblanib, sudga berilgan va o‘lim jazosiga hukm qilingan. Bu hukm turmada Sokratga zahar ichirish yo‘li bilan ijro etilgan. Sokratning falsafiy ta‘limoti to‘g‘risidagi

ma‘limotlarni unga zamondosh va shogirdi bo‘lgan *Ksenofont*, *Platon*, keyinroq *Aristotel* yozib qoldirgan. Sokrat faqirona kun kechirib, doimo eski liboslarda, oyoq yalang yurardi. Uning turmush tarzi ham, so‘zlari va suhbatlari ham odamlarda katta qiziqish uyg‘otardi. Faylasuf ko‘p vaqtini odam gavjum maydonlarda, xiyobonlarda o‘tkazgan. O‘zining suhbatidan bahramand bo‘lish niyatida yurgan istalgan kishi bilan savol-javob qilgan. Ushbu muloqotlarning uslubi va xarakteri Platonning suhbat tarzida yozilgan asarlarida o‘z ifodasini topgan. Sokrat o‘z falsafiy tadqiqotlariga axloqiy masalalarni asos qilib olgan. Suqrot haqiqatni bahs-munozara orqali bilish mumkin deb hisoblagan. U odamlarni tenglashtirishga qarshi chiqib, ularni haqiqatni bilganlar va bilmaganlarga ajratgan.

**SOLO** (**mil. avv. 640/635 Afina – mil. avv. 559**) – mil. avv. 594-yilda Afina arxonti (hokimi) etib saylangan zodagon. Solon aslzodalardan bo‘lib, kambag‘allashib qolgan oiladan chiqqan edi. U jasur jangchi, shoir va ajoyib notiq bo‘lib o‘z she‘rlarida xalqni mardlikka, vatanparvarlikka va jasoratga undagan. U yoshligida dengiz savdosi bilan shug‘ullangan. Solon o‘ta bilimdon bo‘lib, juda ko‘p kitob o‘qir va bilish, o‘rganishdan charchamas edi. Solon arxont bo‘lib saylangandan keyin Afina uchun juda muhim bo‘lgan Salamin oroliga qo‘shin yuborgan va uni Afinaga qo‘shib olgan. Solonning eng muhim ishlaridan biri mamlakatda siyosiy, iqtisodiy islohotlar o‘tkazishdan iborat bo‘lgan va bu islohotlar tarixda “*Solon islohotlari*” deb nom olgan. Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o‘zgartirdi. Avvalgi boshqaruv tizimi – *aristokratiya* (eng yaxshi odamlar hokimiyati)ni *demokratiya* (xalq hokimiyati)ga almashtirdi. Davlat boshqaruvida faqat fuqarolar ishtirok eta olardi. Ayollar va ajnabiylar (ularni *meteklar* deyishgan) qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdilar. Solon dehqonlarning qarzlarini bekor qildi va dalalardagi “*qarz toshi*”ni olib tashladi, qarz tufayli qulga aylantirilgan ozod kishilar qullikdan ozod etildi, urug‘chilik munosabatlariga uzil-kesil barham berdi. Siyosiy huquq va lavozimlar kishilarning mol-mulkiga qarab belgilanadigan bo‘ldi. Solon islohotlaridan keyin Attika aholisi *fuqarolar* va *qullarga* ajratiladigan bo‘ldi.

**VENTRIS** – 1953-yilda qadimgi kritiklarning chiziqli “B” yozuvini tarixshunos *Chadvik* bilan birga o‘qib chiqqan ingliz olimi.

**YELENA Sohibjamol** – yunonlarning “*Iliada*” dostonida eng chiroyli ayol Sparta podshosi *Menelayning* rafiqasi. Troya podshosi *Paris* Sparta podshosinikiga tashrif buyuradi va Yelenani sevib qolib,

Troyaga o'g'irlab olib ketadi. Voqeadan xabar topgan Sparta podshosi Parisdan qasos olishga ahd qiladi va barcha spartaliklarni Troya bilan urushga chaqiradi. Yunonlar 9 yil Troyani qamal qilib, 10-yil deganda bosib oladilar.

**YEVRIPID (mil. avv. taxm. 480–406-yillar)** – qadimgi yunon dramaturgi, mashhur fojia-navis. Ijodini she'riyatdan boshlagan, 92 pyesasidan 17 tasi fojia-viy va 1 satir dramasi (fojia-viy asarga qo'shimcha hazil pyesa) bizgacha yetib kelgan. Ular mifologik mazmun asosida yaratilgan bo'lsa-da, inson shaxsi asosiy o'rinda turadi. Yevripid zamondoshlari (dramaturglar *Esxil*, *Sofokl*) dan farqli o'laroq fojialarni ilohiy kuchga emas, jamiyat nuqsonlari, kishilarning shaxsiy qilmishlariga bog'laydi. Mif va ma'budalarning mazmun rivojida rolini tubanlashtiradi. Ijodida maishiy hayot manzaralari, oddiy kishilar obrazi salmoqli o'rin egallaydi. Yevripid fojia-viy asar tarixida birinchi bo'lib ayol kishini markaziy obraz qilib olgan "*Ifigeniya*", "*Avlidada*", "*Alkestida*" qahramonlari jamiyat va oila manfaati yo'lida qurbon bo'lishga tayyor qahramonlardir.

**ZENON Kitionlik (mil. avv. taxm. 336–264)** – yunon faylasufi, *stoitsizm falsafiy maktabi*ning asoschisi. Kipr orolidagi Kition shahrida savdogar oilasida tug'ilgan. U falsafani 3 qismga – mantiq, etika va fizikaga bo'lgan. U **Geraklit** izidan borib, borliqning asosida olov yotadi; barcha narsalar olovdan paydo bo'lgan, asrlar o'tgach, yana olovga aylanadi, olovning quyuvlashuvi va siyraklashuvidan havo, suv va tuproq paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Zenon g'oyalari psixologiya va etikaning rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatgan. Uning asarlaridan ayrim parchalar yetib kelgan.

**SHLIMANN Genrix** – nemis arxeolog olimi. XIX asr oxirida *Gomer* hikoyalarini tadqiq qilib, **Qadimgi Troya** joylashgan yerni hisoblab chiqqan. 1870-yilda Turkiyadagi *Hisorlik tepaligi xarobalari* hududida qazishmalar olib borib, Troya qoldiqlarini topgan.

**CHADVIK** – 1953-yilda qadimgi kritiklarning chiziqli "B" yozuvini tarixshunos *Ventris* bilan birga o'qib chiqqan ingliz olimi.

## ATAMA VA TUSHUNCHALAR

**AFINA (Afina Pallada)** – yunon afsonalaridagi bilim va donishmandlik ma'budasi. *Zevs*ning qizi. *Zevs*ning boshidan to'la qurollangan holatda (dubulg'a va sovut bilan) tug'ilgan. Afina shahrining homiysi. Rim afsonasidagi *Minervaga* mos keladi. Yunon san'atining nodir yodgorligi bo'lgan Afinadagi *Parfenon ibodatxonasi* oldida Afinaning jasur qiz shaklida tasvirlangan katta haykali qo'yilgan. Afina shahriga bu ma'budning nomi qo'yilgan.

**AFINA TA'LIMI** – qadimgi Afinadagi ta'lim-tarbiya tizimi. Afinada davlat maktablari bo'lmagan. Shu sababdan ota-onalar bolalarini o'qitish uchun *pedagog* (yunonchadan "*pedagog*" so'zi "*bolani yo'lda kuzatib boruvchi*" ma'nosini anglatadi)ga haq to'lash edi. Qonun bo'yicha faqat o'g'il bolalar uchun ta'lim olish majburiy edi. Yetti yoshdan boshlab bolalarga yozuv va hisob o'rgatilgan. Metall tayoqcha – *stil* bilan mum surkalgan taxtachalarga harflarni yozishardi. Aksariyat fuqarolar uchun ta'lim shunday iborat edi. Puldor ota-onalarning farzandlari esa *palestr*larda tahsilni davom ettirishardi. *Palestr*da adabiyot o'qitilar, she'r yozish va musiqa o'rgatilar edi. O'g'il bolalar 14 yoshdan *gimnastika* bilan shug'ullanardilar. Ayni mahalda ularga kurash, nayza va disk uloqtirish, uzunlikka va balandlikka sakrash hamda yugurish ham o'rgatildirdi. O'spirinlar shuningdek mushtlashuv janglari, harbiy ishlar va

otda salt yugurishni o'rganishgan. Afinada oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari ham bo'lgan. Ammo ularda faqat o'ta boy ota-onalar farzandlariga o'qish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Bunday ta'lim muassasalarida astronomiya, geometriya, geografiya, tarix o'qitilar edi. Ta'lim olish muddati 3–4 yil davom etgan. Ana shundan keyin davlatda ma'lum bir lavozimni egallash imkoniyati vujudga kelgan.

**AFRODITA** – yunon afsonasida dastlab hosildorlik, keyinroq sevgi va go'zallik ma'budasi. *Afrodita* dengiz xudosi va dengiz sayohatchilarining homiysi ham edi. Afsonalarga qaraganda, *Afrodita* dengiz ko'pigida tug'ilgan, asosiy ibodatxonalaridan biri *Qibris orolining Pafos* shahrida bo'lgan. *Afrodita*ga sig'inish oldin *Kichik Osiyo*, *Qibris oroli* va boshqa orollarda keng yoyilgan bo'lsa, keyinroq *Bolqon yarimoroli* va *Yunonistonga* tarqalgan. *Afrodita* qadimgi rimliklarda *Venera* deb yuritilgan.

**AGEMA** – Aleksandrning maxsus o'tliqlar qo'shini.

**AGORA** – Qadimgi Yunonistonda xalq yig'inlari o'tkaziladigan shahar maydoni. *Agora* dastlab *Vasily saroyi* oldida o'rnatilgan, keyin mustahkamlangan tepa etagidagi akropolga ko'chirilgan. Eng mashhur *Agora Afinada* bo'lib, akropolning shimolida joylashgan. *Afina agorasi* jamoat binolari, usti berk galereyalar, xudolarga atab qurilgan ibodatxona, e'tiborli kishilar

nomini abadiylashtirish uchun qo'yilgan yodgorliklar va boshqalarni o'z ichiga olgan. Bizning davrimizgacha saqlangan *Gefest ibodatxonasi* ham agoraga borib taqaladi.

**AID** (*Gades, Pluton*) — yunon mifologiyasida yer osti dunyosi va marhumlar saltanatining xudosi. Shuningdek mazkur saltanatning o'zi ham Aid deb atalgan.

**AKROPOL** (yunoncha **akros** — *yuqori, polis* — *shahar*) — yunon shaharlarining muhofazalangan va balandlikka joylashgan qismi, yuqori shahar. *Afina* Akropolining qadimgi mudofaa devorlari mil. avv. 2-mingyillikka oid. Odatda Akropol dastlabki manzilgoh bo'lib, uning atrofida uncha mustahkam bo'lmagan quyi shahar deb atalmish qism joylashgan. Akropol dastlab yunon jamoasining diniy va madaniy markazi bo'lgan. Akropollarning ayrim xarobalarigina (Miken, Agros kabi) saqlanib qolgan. Bular o'sha davr moddiy-madaniy va ma'naviy hayotining yuksak taraqqiyotidan darak beradi. Ular orasida mil. avv. 447–438-yillarda haykaltarosh *Fidiy* rahbarligida me'morlar *Iktin*, *Kallikrat* qurgan *Afina Akropoli* mashhur. *Afina* Akropoli majmuasidagi binolar orasida *Parfenon ibodatxonasi* diqqatga sazovordir. *Afina* Akroplida arxeologik qo'riqxonaga va muzey barpo etilgan.

**ALEKSANDRIYA KUTUBXONASI** — ellinizm davrida bunyodga kelgan mashhur kutubxonalardan biri. Aleksandriya kutubxonasiga mil. avv. III asrda *ptolemeylar sulolasi* davrida yashagan atoqli olim va adiblar (*Zenodot*, *Aristarx Samosskiy*, *Kallimax* va b.) asos solgan. Bu yerda yunon fani va adabiyotiga doir ko'plab qo'lyozmalar to'plangan. Bundan tashqari, Sharq tillaridagi kitoblar ham bo'lgan. Kutubxona qoshida kitob ko'chiruvchilar guruhi ishlagan, kutubxona katalogi tuzilib, u vaqti-vaqti bilan to'ldirib turilgan. Kutubxonada 700 ming jildga yaqin kitob saqlangan. Aleksandriya kutubxonasi 3 asr davomida rivojlanib bordi. Mil. avv. 48–47-yillar Aleksandriya urushi davrida kutubxona asosiy to'plamining bir qismi yong'inda kuyib ketdi. Misrni Rim imperiyasi bosib olgach, kutubxona o'z mavqeyini yo'qota bordi, qolgan qismi VII–VIII asrlarda tamomila tugatildi.

**AMFORA** — suyuq mahsulotlarni tashish va saqlash uchun mo'ljallangan bo'g'zi ingichka va qo'shaloq dastali katta ko'za.

**ANTIK ADABIYOT** — Yunonistonda yuzaga kelgan yozma adabiyot (mil. avv. IX–VIII asrlar). Bu adabiyotning ilk namunasi "*Iliada*" va "*Odisseya*" dostonlari bo'lib, bular "*Gomer dostonlari*" deb ham ataladi. Gomerdan tashqari Esxil, Sofokl, Yevripid va boshqalar ham antik adabiyotning yirik namoyandalari. Yunoniston va Qadimgi Rim

adabiyotini antik adabiyot deb qabul qilish bir yoqlama fikr. Chunki yozma adabiyotning eng qadimgi namunalari Sharqda, Shumer va Akkadda, Hindiston, Misr va Bobilda yaratilgan. Shumerliklarning *Gilgamesh* haqidagi dostoni yunon adabiyotidan 2 ming yillar ilgari sopolga yozib qoldirilgan.

**ANTIK DAVR** (lotincha **antiquus** — *qadimgi*) — Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi va madaniyatining ellinizm davrini anglatadi.

**ANTIK TEATR** — yunon teatri va uning ta'sirida rivojlangan ba'zi (ellin madaniyati ta'siridagi) Sharq mamlakatlari teatri hamda qadimgi Rim teatri umumlashtiruvchi tushuncha. Antik teatr rivoji davri (mil. avv. VI asr — mil. IV–V asrlar)da Yevropada ilk haqiqiy teatr san'ati yuzaga keldi, doimiy teatr inshootlari, sahna texnikasi va dekoratsiyasi jihozlarining dastlabki namunalari paydo bo'ldi.

**APPIAN** — yunon mifologiyasi va dinida yorug'lik va san'at xudosi.

**APOLLON** — yunon mifologiyasi va dinida olimp xudosi. *Zevs* va *Letoning* o'g'li, shifobaxsh etuvchi, sohibkaromat va san'at homiysi. Apollonga sig'inish Kichik Osiyoda boshlanib, mil. avv. 2-mingyillikka Yunonistonga, u yerdan Rimga tarqalgan. Dastlab cho'ponlar homiysi, olmozorlar xudosi deb tanilgan. Uni she'riyat va musiqa homiysi sifatida ham e'zozlashgan. Qadimgi yunon san'atida Apollon qo'lida o'q-yoy yoki musiqa asbobi ushlagan yosh yigit qiyofasida tasvirlangan.

**ARES** — yunon afsonasida urush xudosi.

**ARGONAVTLAR** — oltin mo'ynani (sehri qo'chqor terisini) izlab "*Argo*" degan ko'p eshkakli kemada yurishga chiqqan Ellada qahramonlari.

**ARGONAVTLAR TO'G'RISIDA AFSONA** — qadimgi yunon adiblari tomonidan yaratilgan afsona. Afsona shunday boshlanadi: Kavkazda — Qora dengiz sohilidagi o'rmonda oltin barra — oltin junli qo'y terisi osib qo'yilgan ekan. Uning egasi dengiz sohillarining xo'jayini bo'lgan podsho ekan. Aslo ko'zini yummaydigan bir ajdar ana shu oltin barrani qo'riqlab yotarkan. Oltin barrani qo'lga kiritish uchun uzoq xatarli safarga borishga ahd qilgan botir yigitlar Yunonistonning hamma tomonlaridan yig'ilib kelishibdi. Ularga zodagon yigit *Yason* boshchilik qilibdi. *Arg* ismli mohir bir usta ular uchun yog'och kema yasab beribdi, bu kema yelkan bilan, ham eshkaklar bilan yurar ekan. Ustaning nomidan olib, bu kemani "*Argo*" deb, sayohatchilarni esa *argonavtlar* deb atashibdi. Argonavtlar uzoq vaqt suzib yurishibdi. Ular goh ajralib, goh yana qoshilib, dahshatli kuch va guldurash bilan bir-biriga kelib uriladigan qoyalar o'rtasidan suzib o'tishibdi. "*Argo*" bu qoyalar orasidan zo'rg'a sirg'alib o'tishga ulguribdi:

qoyalar rul sifatida boshqariladigan eshkaklarning oxirgi taxtahasini majaqlabdi, xolos. Argonavtlar ko'p sarguzashtlarni boshlaridan kechirib, Kavkazga yetib kelishibdi. Yason agar xavfli topshiriqni bajaradigan bo'lsa, podsho unga oltin barrani berishni va'da qilibdi. Podshohning qizi sehrigar *Medeya* Yasonga g'aroyib tarzda ta'sir qiladigan moy dori beribdi. Yason shu moy dori bilan badanini artgan ekan, badani g'ayri insoniy kuchga to'lib, oyoqlari xuddi omburdek mustahkam bo'lib qolibdi. Nafasidan olov purkab turadigan ikkita bahaybat ho'kiz shoxlarini cho'zib, Yasonga tashlanibdi. Lekin ularning zarbasi Yasonni hatto o'rnidan qo'zg'ata olmabdi. Podshohning buyrug'i bilan Yason ho'kizlarni omochga qo'shib, yer haydabdi va unga ajdarlarning tishlarini ekib chiqibdi. Ekilgan shu tishlardan avvaliga yerostidan nayzalarning uchlarini va dubulg'alarning usti ko'rinibdi, so'ngra esa qurol-yarog'lari misdan yasalgan butun boshli qo'shin unib chiqibdi. Bu qo'shin Yason ustiga daxshat bilan bostirib kela boshlabdi. Yason qo'shin orasiga tosh otibdi. Shundan keyin jangchilar bir-birlari bilan mushtlashib ketishibdi, bu vaqt esa Yason ularni o'z qilichi bilan birma-bir qirib tashlabdi. Garchi Yason topshiriqni bajargan bo'lsa ham podsho unga oltin barrani bermabdi. Shunda *Medeya* oltin barrani qo'riqlab yotgan ajdarni sehr bilan avrab, uxlatib qo'yibdi. Argonavtlar oltin barrani olib, kemalariga tushib, sohildan jo'nab ketishibdi. Ular o'z quvlovchilaridan zo'rg'a qutulib, Gretsiyaga qaytib kelishibdi.

**ARISTOKRATIYA** (yunoncha *aristokratia* – eng yaxshi odamlar hukmronligi) – 1) iqtisodiy hukmron sinf, zodagonlarning siyosiy hokimiyati, hukmronligi. Aristokratiya birinchi marta antik davrning mashhur mutafakkirlari – *Aristotel*, *Platon* tomonidan quldorlik davlat tuzumini idora etish vositasi sifatida ishlab chiqilgan; 2) quldorlik va undan keyingi ilk davlatlarda eng imtiyozli tabaqa.

**ARTEMIDA** – yunon mifologiyasida ovchilik xudosi, hayvon va qushlar homiysi; oy ilohasi. Keyinroq ayollar iffatining homiysi. *Zevs* va *Letoning* qizi. *Apollonning* egizak singlisi. Boshida o'q-yoy, ba'zan yarim oy holatida tasvirlangan. Rim afsonalarida *Diana* timsoliga mos keladi.

**ARXONT** (yunoncha *archon* – boshliq, hukmdor) – Yunonistondagi oliy mansabdor shaxslar. Rivoyatlarga ko'ra, arxontlik lavozimi umrbod hisoblangan, keyinroq 10 yilga, mil. avv. 683-yildan boshlab esa bir yilga keltirilgan. Arxont 9 kishidan iborat bo'lgan. Mil. avv. VI asrda Solon islohotidan keyin arxontlik lavozimiga oliy darajadagi mulkdorlar saylangan. Klisfen islohotidan so'ng (mil. avv. V asr) arxont o'zining siyosiy ahamiyatini yo'qotgan.

**AXEYA ITTIFOQI** (mil. avv. 280–146) – Peloponnesda mil. avv. 280-yilda tashkil topgan yunon shahar-davlatlarining uyushmasi. U Axeya davlatida tashkil topganligi uchun shunday deb atalgan. Bu ittifoq Makedoniyadagi shahar kambag'allariga va qullarga qarshi kurashishga qaratilgan edi. Mil. avv. 251-yilga kelib ittifoqqa Sikion ham qo'shilgan. Strateg Arat davrida Axeya Ittifoqiga Korinf, Megara, Agros va boshqa Peloponnesdagi shaharlar ham a'zo bo'lgan. Ittifoqqa kirgan jamoalar ichki muxtoriyatdan foydalangan. Oliy hokimiyat ittifoqchi fuqarolarning majlisiga topshirilgan. Bu majlis axeylarning qadimgi diniy markazi Egion shahrida yiliga 2 marta chaqirilib turilgan. Majlis muhim masalalarni hal qilish bilan birga yuqori mansabdorlarni saylagan. Biroq Axeya Ittifoqiga Sparta, Elida va Messeniyaning kirishi Rimni xavotirga solgan, Rim Axeya Ittifoqi ishiga faol aralasha boshlagan, bu esa Axeya Ittifoqi qarshiligiga duch kelgan. Mil. avv. 146-yilda Axeya Ittifoqi davlatlari rimliklarga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. Qo'zg'olonchilar qarzlarni bekor qilinishini, soliqlarni kamaytirilishini va rimliklarning zo'rvonligiga barham berilishini talab qilganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Rim senati qo'zg'olonchilar ustiga katta qo'shin yuborgan. Rim legionlari qo'zg'olon markazi Korinfga hujum qilganlar. Ittifoqchilar bilan bosqinchilar o'rtasida shiddatli jang boshlangan. Ko'p odamlar qirilgan. Rim askarlari Korinfni ishg'ol qilib boyliklarini talab, unga o't qo'yanlar. Aholining ko'p qismi qul qilib olib ketilgan. Axeya Ittifoqi tarqatib yuborilgan. Yunonistonning ko'pgina shahar-davlatlari Rimga itoat ettirilgan. Sparta bilan Afinaning mustaqilligi nomigagina saqlanib qolgan. Rimliklar Makedoniya va Yunonistonning juda ko'p boyliklarini Italiyaga tashib ketganlar. Rim varvarlari Yunonistondagi ajoyib obidalarni vayron etganlar.

**AXEYLAR** – mil. avv. 2-mingyillik boshlarida Fessaliyada yashagan asosiy yunon qabilalaridan biri, Peloponnesda ham yashaganlar. Axey so'zi Xett hujjatlarida (mil. avv. 14 asr), Gomer asarlarida uchraydi. Axey davlatlari: *Miken*, *Pilos* va boshqalar. Troya urushida qatnashganlar. Mil. avv. XII asrda *doriylar* tomonidan Kichik Osiyo, Ki prga va boshqa orollarga, Peloponnesning shimoliga siqib chiqarilgan (viloyat Axayya nomini olgan).

**BESHYUZLAR KENGASHI** – Qadimgi Afina davlatining ma'muriy-nazorat organi bo'lib, u har yili chek tashlash yo'li bilan qaytadan saylangan. Bu kengash kundalik joriy masalalarni hal qilar edi. Uning qarorlari Xalq majlisida tasdiqlanardi. Beshyuzlar kengashida *strateg* rahbarlik qilgan.

**BUTSEFAL (Bukefal)** – Aleksandr Makedonskiyning eng yaxshi va sevimli oti. U Aleksandr-



dan boshqa hech kimni mindirmas edi. Shoh mi-nayotganida esa, cho'kkallab olar edi. Aleksandr bu vafodor otiga Hindistonning Gidaspa daryosi qirg'og'idan *Butsefaliya* nomli shahar qurgan.

**BUYUK YUNON KOLONIYALASHTIRILISHI** – mil. avv. VII–VI asrlar Qadimgi Yunoniston tarixida ommaviy ko'chib joylashish va koloniyalar tashkil etish davri "*Buyuk yunon koloniyalashtirilishi*" nomini oldi. Qora dengiz sohilida *Olviya*, *Xersones*, *Pantekapey*, *Tanais*, *Fasis*, *Trapezund* va boshqa yirik koloniyalar vujudga keldi. O'rtayer dengizi sohillarida yuzdan ortiq yunon koloniyalari tashkil topdi.

**DANAYLAR** – Gomer o'zining "*Iliada*" asarida yunonlarni shunday atagan.

**DEDAL VA IKAR HAQIDA AFSONA** – Yunonistonda yaratilgan qadimiy doston. Yunon afsonalarida aytilishicha, Kritda mohir arxitektor, haykaltarosh, ko'pgina foydali asboblarning ixtirochisi bo'lgan *Dedal* degan bir kishi yashar ekan. U Krit podshosiga labirint – chalkash yo'lakli bir bino qurib beribdiki, unga kirgandan keyin chiqib ketishi mumkin emas ekan. *Dedal* Kritdan bosh olib chiqib ketmoqchi bo'lar ekan, lekin podsho uni qo'yib yubormas ekan. Shunda *Dedal* o'zi va o'g'li *Ikar* uchun qush patlarini mum bilan yopishtirib, qanot yasabdi. Ular qanotdan foydalanib, Kritdan uchib ketishibdi. Dastlab *Ikar* otasining orqasidan uchib boribdi, lekin uchishga mahliyo bo'lib ketib, baland osmonga ko'tarilibdi. Quyoshning issiq nurlari mumni eritib yuboribdi. *Ikar* dengizga yiqilib tushib, cho'kib ketibdi: faqat qanotlarining patlarigina to'lqinlarda suzib yuribdi. *Dedal* bo'lsa uzoq *Sitsiliya* oroliga uchib borib qo'nibdi.

**DEMETRA** – yunon mifologiyasida dastlab hosildorlik, dehqonchilik, keyinchalik nikoh va oilaviy hayot ma'budasi. *Kronos* va *Reyaning* qizi, *Zevsning* singlisi, *Persefonaning* onasi. *Demetra* odamlarga bug'doy boshog'ini sovg'a qilgan va ularni dehqonchilikka o'rgatgan. Yer osti saltanati xudosi *Aid* *Persefonani* o'g'irlab ketganda *Demetra* g'azablangan va yer hosil bermay qo'ygan, ocharchilik boshlangan. Shunda *Zevs* *Persefonaga* yarim yil yerda onasi bilan, yarim yil u dunyoda *Aid* bilan bo'lishni buyurgan. Bu afsonada o'simlik dunyosining har yili xazon bo'lishi va yangidan uyg'onishi jarayoni aks etgan. *Demetra* rimliklar mifologiyasidagi *Seraraga* mos keladi.

**DEMOKRATIYA** (yunoncha **demos** – *xalq* va **kratiya** – fuqarolar erkinligi va tengligi) qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum.

**DEMOS** (yunoncha **demos** – *xalq*) – Yunonis-

tonda fuqarolik huquqlariga ega bo'lgan erkin aholi. Mil. avv. V–IV asrlardan boshlab demos aholi (asosan, shaharda yashovchilar) ning kambag'al qatlamlari nomi.

**DIADOHLAR** (yunoncha **diadochos voris, merosxo'r**) – Makedoniyalik Aleksandrning yirik lashkarboshi va safdoshlari. Uning vafotidan keyin oliy hokimiyatni egallash va imperiyani bo'lib olish uchun kurash olib borishgan. Diadoxlar orasida *Perdikka*, *Antipatr*, *Krater*, *Evmen*, *Polisperxont*, *Kassandr*, *Antigon*, *Demetriy Poliorket*, *Lisimax*, *Salavk I Nikator*, *Ptolemeylar* kabilar mashhur bo'lgan. Mil. avv. 301-yildagi *Ips* jangi diadoxlar o'rtasidagi kurashning yuqori cho'qqisi bo'lgan. Ushbu jangdan so'ng Aleksandr saltanati tanazzuli boshlanib, mil. avv. III asrning 80-yillarida bir qancha mustaqil ellinistik davlatlar (*Suriya* va *Osiyodagi Salavkiylar* davlati, *Misrda ptolemeylar*, *Makedoniya* va *Yunonistonda Antigon* va uning avlodlari bosh bo'lgan davlatlar)ga bo'linib ketgan.

**DIONIS** – yunon mifologiyasida uzumchilik va sharob xudosi. *Zevs* bilan fivalik malika *Semelaning* o'g'li. *Dionis* sharafiga bag'ishlangan bayramlar o'ta xushchaqchaqlik, kayf-safo bilan o'tgan.

**DORIYLAR** – Yunonistonning to'rt asosiy qabilalaridan biri. Mil. avv. XII asrda *Shimoliya* va *O'rta Yunonistondan Peloponnesning* janubi g'arbiga (*Argolida*, *Messeniya*, *Lakoniya*), keyinchalik *Rodos*, *Krit*, *Kos* orollari va *Kichik Osiyo* (*Knid*) hamda *Janubiy Italiya*, *Sitsiliyaning* turli joylariga borib o'rnashganlar. *Doriylar* dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. *Peloponnesda* *doriylar* hukmron elat bo'lgan, ishlab chiqarishda qullar mehnatidan foydalanilgan, davlat vujudga kelgan. *Doriylar* boshqa yunon qabilalaridan o'zining harbiy intizomi, barqaror urug'chilik urf-odatlarini, mag'rurliklari va hayot tarzi bilan ajralib turgan. Bular *Sparta* ahli uchun xos bo'lgan. *Doriylar* shevasi adabiy til hisoblangan. Madaniyat sohasida *doriylar* boshqa yunon qabilalaridan, ayniqsa *ioniyaliklardan* ancha ortda qolganlar. *Doriylar* yashagan hududlarda yirik quldorlik davlatlari vujudga kelgan.

**DRAKONT QONUNLARI** – *Afina* hukmdori *Drakont* tomonidan tuzilgan xalq boshqaruvini bekor qilish to'g'risidagi qonunlar to'plami. Bu qonunlar mil. avv. 621-yil (VII asr)da yozilgan va amalga kiritilgan. *Drakont* qonunlarida jinoyatchilarni jazolash uchun qattiq jazo berganlar. "*Drakont qonunlari*" haqida afinaliklar "*Ular siyoh bilan emas, qon bilan yozilgan*", der edilar. Bu davrda *Afinada* aslzodalarning mavqeyi oshib ketgan. Shu tufayli ular o'z idora usullarini "*aslzodalar hokimiyati*" deb ataganlar. Avvaliga afinaliklar bu qonunlarga itoat etishgan,

so'ngra norozi bo'la boshlashgan va Drakontni shahardan haydab yuborishgan.

**EKKLESIYA** (*yunoncha ekklesia*) — Yunonistonda xalq majlisining eng ko'p tarqalgan nomi. Demokratik polislarda (masalan, mil. avv. V asr o'rtasida *Perikl* davridagi Afinada) *Ekklesiya* — qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatiga ega bo'lgan davlatning oliy organi; mansabdorlarni saylab ularni doimo nazorat ostiga olgan Ekklesiya tarkibi mulkiy senz belgilari orqali fuqarolar orasidan tanlab olingan. Odatda, Ekklesiya o'z vazifasini bule — Ekklesiya muhokamasi uchun oldindan savollar tayyorlab qo'yadigan kengash bilan amalga oshirgan. Bir qator yunon polislarda xalq majlislari maxsus nomlar bilan atalgan: Spartada — *apella*, *Delfa* va *Fessaliya* shaharlarida — *agora*, *Argos*, *Epidavr*, *Gel*, *Akragan*da — *aliya*. So'nggi davr antik yozuvchilari asarlarida xalq majlislari o'tkaziladigan joy ham Ekklesiya deb atalgan. Xristianlikda Ekklesiya deb dindorlar jamoasi, ba'zan butun cherkov tushunilgan.

**ELLADA** — qadimgi dunyoda, dastlab Fessaliyadagi kichikroq hududlarning, keyinchalik butun Gretsiyaning nomi. 1833-yildan Gretsiya rasman *Ellada* deb ataladi.

**ELLINLAR** — Qadimiy yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday deb atalgan.

**EOS** — Qadimgi yunon mifologiyasida tonggi shafaq ilohasi, qadimgi rimliklarda — *Avrora*.

**ERGASTRIYA** — Yunonistonning yirik qishloqlari va shaharlarida mavjud bo'lgan ishxonalar va ustaxonalar. Bunday ustaxonalarda 20–30 kishi ishlab, ularning asosiy qismini yollanma ishchilar va qullar tashkil etgan.

**EROS, Erot** — yunon mifologiyasidagi sevgi xudosi. Gesiodning “Teogoniya” asarida aytilishicha, Erot xaosdan; qadimgi miflarga ko'ra, Germes va Artemidadan yoki Ares va *Afrodita*dan dunyoga kelgan. Odamlar va xudolarning yuragiga kamondan oltin o'qlar otib ularda sevgi uyg'otgan. Erot qanotli go'zal yigitcha yoki qanotchilari bor, kamon ko'tarib yurgan sho'x bola qiyofasida tasvirlangan. Ko'chma ma'noda Erot — sevgi. Rim mifologiyasidagi *Amurga* to'g'ri keladi.

**ESKULAP** — qadimgi yunon mifologiyasida tabiblik xudosi. Mil. avv. 3-mingyillikdan boshlab Rimda ham shu xudoga sig'inishgan.

**FALANGA** (*yunoncha phalanx*) — Yunonistonda og'ir qurolli piyoda askar (goplit)larning jips safga tizilgan ko'p qatorli jangovar tartibi. Falangada askarlar orasidagi masofa 0,5–1 m ni tashkil etgan. Falanga, asosan, 8–16 (ba'zan 25) qatordan iborat bo'lib, safda turgan 1000 jangchi 500–1000 m

gacha frontga cho'zilgan. Falanga *Troya urushigacha* ma'lum bo'lsa-da, biroq, u mil. avv. VI asrga kelib to'la shakllanadi. Makedoniyalik *Filipp II* Falanga tarkibiga muayyan o'zgarishlar kiritadi, uni suvoriylar bilan mustahkamlaydi. Makedoniya katta falangasi 16384 goplitlar, 8192 peltastlar va 4096 otliq askarlardan tashkil qilingan. Falanganing loxos (16 goplitlardan iborat bir qator), sintagma (16 loxoslar) va kichik Falanga (16 sintagma)dan iborat bo'linmalari tuzilgan. Falanga safi (jangovar tartibi) kvadrat, ombir hamda o'yiqlik ko'rinishida bo'lgan. Falanga, asosan, uzun nayzalar yordamida ro'paradan qaqshatqich zarba berish uchun mo'ljallangan. Falanganing janggohda manyovr qilish imkoniyati nisbatan cheklangan. Harakat paytida falanganing safi tez buzilib ketar edi. Falanga Qadimgi Rimda (mil. av. IV asr oxiri) manipula (legion bo'linmasi) safi joriy qilingunga qadar qo'llanilgan.

**FEMIDA** — yunon mifologiyasida odil sud ma'budasi. Ko'zi bog'langan (odillik alomati), bir qo'lida tarozi, ikkinchisida qilich ushlagan holda tasvirlangan.

**FERMOPIL JANGI** — yunon-fors urushlari davridagi *Lamiya shahridan* janubi sharqda joylashgan Fessaliya bilan O'rta Yunoniston o'rtasidagi tog' yo'lagida sodir bo'lgan jang (mil. avv. 480-yil). Oz sonli yunon ittifoqchi qo'shini (5 ming kishiga yaqin) Sparta podshosi *Leonid* boshchiligidagi Fermopil yo'lagidagi pozitsiyani egallab, Ahamoniylar podshosi *Kserks* qo'shini yo'liga g'ov bo'lgan. Yunon qo'shinidan qochib o'tgan xoin yordamida forslar yunonlarning orqa tomoniga o'tib olishga muvaffaq bo'lishgan. Shunda Leonid asosiy kuchlarini Afinani mudofaa etish uchun jo'natgan, o'zi esa 300 ta spartalik bilan Fermopilni qattiq mudofaa qilishni davom ettirgan. Tengsiz jangda barcha jangchilar halok bo'lgan. Fors qo'shinlari O'rta Yunonistonga bostirib kirib Afinani egallashgan.

**FETLAR** — Attikaning yersiz, kambag'al kishilari. Ular oliy mansabdagi vazifalarni egallashlari mumkin bo'lmagan.

**GAVGAMEL JANGI (mil. avv. 331-yil 1-oktabr)** — *Aleksandr Makedonskiy* boshchiligidagi yunon-makedon qo'shini bilan *Doro III* Kodoman rahbarligidagi ahamoniylar qo'shini o'rtasida hozirgi Arbil (Iroq) yaqinidagi Gavgamel (hozirgi Tall-Gomel) qishlog'i yaqinida sodir bo'lgan jang. Doro III qo'shini tarkibida forslar va yollanma yunon askarlaridan tashqari Baqtriya satrapi *Bess* qo'mondonligi ostida baqtriyaliklar, sug'diylar, hindlar bo'lgan. Bundan tashqari Doroning harbiy ittifoqchisi bo'lgan *Mavak* boshchiligidagi otliq, kamonchi saklar ham yetib kelib qo'shinning chap qanotini

egallaganlar. Arrianning boʻrttirib yozishicha, Doro qoʻshinida 40 ming oʻtliq, 1 millionga yaqin piyoda jangchi, 200 chalgʻi oʻrnatilgan jang aravasi va hindlar olib kelgan 15 ta fil boʻlgan. Aleksandr qoʻshinida 7 ming oʻtliq va 40 mingga yaqin piyoda jangchi boʻlgan. Jang oʻtliq qoʻshinlarning shiddatli mahorabasi bilan boshlangan. Unda saklarning qoʻli baland kelgan, chunki ularning otlari zirhli sovutpoʻsh bilan muhofazalangan. Biroq makedon qoʻshinining qulay joylashganligi va forslarning Doro III boshchiligidagi markaziga bergan qaqshatqich zarbasi natijasida Doroning sarosimaga tushib jang maydonini tashlab qochganligi jang taqdirini Aleksandr foydasiga hal qilgan.

**GEFEST** — yunon mifologiyasida olov hamda temirchilik va hunarmandlar xudosi. Kasb-hunar homiysi sifatida eʼzozlangan. Zevs bilan Geraning (yoki faqat Geraning) oʻgʻli. Ikkala oyogʻi choʻloq, badbashara boʻlgan holda sohibjamol *Afrodita*ga uylangan. Gefest — qoʻli gul usta; yerostidagi bahaybat temirchilik ustaxonasida Zevs uchun chaqmoq va momaqaldiroqlar tayyorlab beradi, deb tasavvur qilingan. Gefest toʻgʻrisidagi miflar Yunonistonda badiiy hunarmandchilik yuksak darajada rivojlanganligini ifoda etar edi. Odatda, Gefest hunarmand kiyimida, peshband taqqan, qoʻlida bolgʻa yoki ombur ushlagan holda tasvirlangan. Rim mifologiyasidagi *Vulkanga* mos keladi.

**GELIOS (Geliy)** — yunon mifologiyasida Quyosh xudosi, Quyosh nurining va Quyosh harorati ilhomboxsh kuchining timsoli; titanlar *Giperion* va *Feyaning* oʻgʻli. Yunonlar eʼtiqodicha, baland osmondagi *Gelios* xudolar va odamlarning ishlarini kuzatib turgan. U oppoq otlar qoʻshilgan aravasida osmonga chiqqanida goʻyo kunduz boshlanar ekan.

**GERAKL HAQIDAGI AFSONALAR** — qadimgi yunon adiblari tomonidan yaratilgan afsona. Xudolarning buyurugʻi bilan zabardast pahlavon *Gerakl* 12 ta jasorat koʻrsatishi lozim edi. Bahaybat bir sher chorva mollariga va odamlarga hujum qilib turar ekan. Uning terisi shu qadar qattiq ekanki, bronza uchlik kamon oʻqlari ham unga kor qilmay, sachrab ketavalar ekan. Gerakl Dub daraxtini agʻdaribdi, undan yigirmata odam ham koʻtara olmaydigan soʻyil yasab olibdi. U oʻsha sher yashaydigan gʻorga dadil kirib boribdi. Sher Geraklga tashlanibdi, lekin pahlavon esa qoʻlidagi soʻyil bilan bir urib, uni gangitib qoʻyibdi, keyin qoʻllari bilan boʻgʻib oʻldiribdi. Sherning terisi Gerakl uchun ham sovut, ham dubulgʻa oʻrnini bosibdi. Oʻtib boʻlmas botqoqlikda *gidra* — terisi yaltiroq tangachalar bilan qoplangan toʻqqiz boshli ajdar yashar ekan. U botqoqlikdan chiqib kelib, chorva mollarini yeb

ketaverar ekan. Gerakl ana shu gidra bilan olishibdi, lekin u qilich bilan ajdarning boshini kesib tashlayvergan sari, bitta bosh oʻrniga ikkita bosh oʻsib chiqaveribdi. Shunda Gerakl yonidagi hamrohiga gidraning chopilgan boʻynini laqqa chogʻ boʻlib turgan gʻoʻlalar bilan kuydirib turishni buyuribdi. Shundan keyin yangi boshlar oʻsib chiqmay qoʻyibdi va Gerakl bahaybat ajdarni oʻldiribdi. Podsho *Avgiyning* besh ming hoʻkizi bor ekan molxonani hech kim tozalamagani uchun molxonada goʻng qalashib ketibdi. Gerakl shu molxonani bir kunda tozalab berishi kerak ekan. Avgi mehmonlar bilan bazm qurib oʻtirgan paytda Gerakl yaqin oʻrtada oqib oʻtadigan ikkita daryoni boʻgʻib qoʻyibdi. Daryolar toshib, shiddat bilan kelgan suv oqimi molxonada qalashib yotgan hamma goʻngni yuvub ketibdi. Gerakl oltin olmalar olib kelish uchun uzoq yoʻlga oʻtlanibdi. Bunday olmalar Yunonistondan uzoqdagi okean sohilidagi bogʻda oʻsar ekan. Qadimgi yunonlarning ishonishicha oʻsha joyda osmon yer bilan tutashar ekan; zabardast *Atlant osmonni* — gʻoyat katta yarim doira shaklidagi gumbazni oʻz yelkasida koʻtarib turar ekan. Gerakl uchun Atlant olmalarni uzib chiqquncha Gerakl osmonni yelkasida koʻtarib turgan. Osmon gumbazining ogʻirligidan Geraklning oyoqlari tizzasigacha yerga kirib ketibdi, suyaklari qirsillab badanini qora ter bosibdi.

**GERMES** — yunon mifologiyasida dastlab chorvador va choʻponlar xudosi, poda va yaylovlar homiysi. *Zevs* va *Mayyaning* oʻgʻli. Keyinchalik yoʻl, yoʻlovchilar, savdogarlar va savdo homiysi, oʻlchovlar, sonlar va lira (musiqasi asbobi) ixtirochisi sifatida sigʻinilgan. Gefest olimp xudolarining xabarchisi, marhumlarning jonini aid (yerosti saltanati, doʻzax)ga oʻtkazuvchi hisoblangan. Koʻpincha patli shippak va shlapa kiyib olgan yigitcha koʻrinishida tasvirlangan. Qadimgi Rim mifologiyasidagi *Merkuriyga* toʻgʻri keladi. Sergʻayrat va ayyor odamlar xudosi.

**GIMENEY** — yunon afsonasida nikoh xudosi.

**GIMNASTIKA** — sport turi. Qadimgi Yunonistonda oʻgʻil bolalar 14 yoshdan shugʻullangan.

**GIPNOS** — yunon afsonasida uyqu xudosi.

**GOPLITLAR (hoplitai)** — Yunonistondagi ogʻir qurollangan piyoda askarlar (mil. avv. V–IV asrlar). Ular uzun nayza, kalta qilich bilan qurollanib, qalqon, dubulgʻa va sovut kiyishgan. Goplitlar 8 qatordan 25 qatorgacha saf tortib jips holda jangga oʻtlanganlar. Jang paytida oldingi ikki qator jang qilgach, orqadagi qatorlar oldingilarni siqib turgan va safdan chiqqanlarning oʻrnini toʻldirgan. Goplitlar oʻrta mulkdorlar boʻlib, oʻz hisoblaridan qurollanganlar. Mil. avv. IV asrda oʻrta mulkdorlarning

xonavayron bo'lishi tufayli Goplitlar o'z ahamiyatini yo'qotib, asta-sekin yollanma askarlar bilan almashtirilgan.

**GRANIK JANGI (mil. avv. 334-yilning bahori)** – Aleksandr qo'shini bilan *Doro III* qo'shinlari o'rtasidagi jang. Marmar dengiziga quyiladigan Turkiyadagi Xojabosh daryosi (yunoncha Granik) bo'yida sodir bo'lgan. Mil. avv. 334-yilda makedon qo'shini (30 ming piyoda va 5 ming otliq askar) Gellespontni kechib o'tgan. Lidiya satrapi *Arzites* qo'mondonligi ostida fors qo'shini (30–40 ming askar) Granik daryosining baland o'ng qirg'og'ini egallagan. Makedoniyaliklarning yengil piyodalar ko'mak berib turgan og'ir qurol-yarog'li otliq qo'shini Granik daryosini kechib o'tib forslarning chap qanotini yanchib tashlagan. Ayni paytda makedoniyaliklar forslarning ilg'or va o'ng qanotini ham chekinishga majbur qilishgan. Forslarning asosiy kuchlari (yunonlardan iborat yollanma piyodalar) qurshab olinib tor-mor qilingan. Forslar 20 mingdan oshiq askaridan ayrilganlar. Granik jangidagi g'alaba Aleksandrga Kichik Osiyoga kirish yo'lini ochib berib, bu bilan Eronning Aleksandr tomonidan zabt etilishi boshlangan.

**GRATSIYA** – yunon afsonasida go'zallik va quvonch ilohasi.

**ILIADA (*Ilias*)** – yunon epik dostoni. *Gomer* yozgan deb taxmin qilinadi. Aftidan, mil. avv. XIII asrdagi *Ilion*, ya'ni *Troya urushi* haqidagi rivoyatlar asosida IX–VIII asrlarda paydo bo'lgan. Gezamet (muqaddas) o'lchovida yozilgan (15700 misraga yaqin). “Iliada”ning bosh qahramoni – *Axilles*. Buyuk yo'l boshchisi *Agamennon* tomonidan haqoratlangan “*Axilles qahri*” doston mavzuining asosini tashkil etadi. Unda yakkama-yakka qahramona jang manzaralari, qamal qilingan Troyadagi hayot lavhalarini, ma'budalarning olimpdagi munozaralari, mutoyibali tasvirlangan.

**ILOTLAR (yunoncha *heilotai*)** – Spartada dehqonchilik bilan shug'ullangan o'troq aholi. Ilotlar davlat mulki hisoblanib, to'la huquqli fuqarolar – *spartiatlarning* yer hovlilariga birlashtirib qo'yilgan. Bu tabaqa Peloponnesning ilgarigi aholisining doriylar tomonidan bo'ysundirilganligi natijasida shakllangan.

**ISS JANGI (mil. avv. 333-yilning kuzi)** – Aleksandr Makedonskiyning 30–40 ming kishilik armiyasi va *Doro III* ning 120–130 ming kishilik qo'shini o'rtasidagi jang. *Kilikiya* (Kichik Osiyo yarim oroli)dagi Iss shahri yaqinida bo'lib o'tgan. Jangda makedoniyalik Aleksandr armiyasi g'alaba qozongan. Urush taqdirini makedon falangasining fors qo'shinining chap qanotiga va forslarning markazida turgan yunon yollanma askarlariga bergan shiddatli

zarbasi hal qilgan. Makedon piyodalarning harakati og'ir qurollangan otliq qo'shin tomonidan faol suratda quvvatlab turilgan. Bu zarbadan so'ng *Doro III* jang maydonidan qochgan. Iss yaqinidagi g'alabadan so'ng Aleksandr Egey dengizi va Ahamoniylar podshohligining g'arbiy qismida hukmronlikning o'z qo'liga oldi.

**KARIATIDA (yunoncha *Karyatides*)** – Karia (Yunoniston)dagi Artemida ibodatxonasi kohinasi – to'sinli tomlarni ko'tarib turuvchi ayol qiyofasidagi haykal-ustun. Me'morlikda kariatidadan bezak sifatida foydalanilgan. Kariatidaning kanefora deb nomlangan xili ham bo'lib, u gul yoki meva bilan to'ldirilgan savatni boshida ko'tarib turuvchi ayolni eslatadi. Qadimgi davr va XVII–XIX asrlarda Yevropa me'morchiligida bezak sifatida keng rasm bo'lgan. Ioniya orderidagi ustunlar ayol qiyofasiga o'xshatilgan.

**KENTAVR** – yunon mifologiyasida yarmi ot va yarmi odam bo'lgan mavjudot.

**KLIO** – yunon mifologiyasidagi 9 muzadan biri, tarix fanining ma'buda homiyi. Qo'lida toshqalam va papyrus o'rami yoxud o'ramlar uchun mo'ljallangan quticha ushlagan holda tasvirlangan.

**KOLONIYA** – o'z yurtini tark etgan odamlar o'z mamlakatidan tashqarida, yangi yerlarda asos solgan manzilgoh va shahar.

**KOMEDIYA (yunoncha *komodia* – *xushchaqchaq olomon; xushchaqchaq dehqonlar qo'shig'i*)** – hodisa, voqea va xususiyatlar kulgili ko'rsatilgan drama turi. Komediya Yunonistonda xudo Dionis sharafiga o'tkazilgan xalq bayramlarida paydo bo'lgan. Yorqin siyosiy komediyalar yaratgan Aristofan “*Komediya otasi*” hisoblanadi.

**KORINF KONGRESSI** – “*Xeroniya jangi*” bilan butun Yunonistonni Makedoniyaga bo'ysundirgan *Filipp II* butun yunon shahar-davlatlarini erkin deb e'lon qiladi va mil. avv. 337-yilda Korinf shahrida yunon shahar-davlatlarining kongressini chaqiradi. Unda *Spartadan* boshqa barcha yunon shahar-davlatlari qatnashadi. Kongressda yunon davlatlarining tinch-totuv yashashi, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik va o'zaro urushlar olib bormaslik to'g'risida bir qarorga keladilar. Kongressda barcha yunon davlatlari Eronga qarshi birgalikda kurash olib borish rejasi tuziladi. *Filipp II* Makedoniya va yunon davlatlari birlashgan qo'shinlarining bosh qo'mondoni etib tayinlanadi. Shu tariqa u Eronga qarshi harbiy urush qilishga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

**LABIRINT (yunoncha *labyrinthos*)** – xonalari behad ko'p, yo'laklari odamni adashtiruvchi ulkan bino. Yunon mifologiyasida Krit oroli podshosi *Minos* uchun me'mor va mohir mexanik *Dedal* labirint

qurgan. Xavara (qadimgi Misr)dagi *Amenemxet III* ibodatxonasi (mil. avv. XIX asrda maydoni taxminan 72 ming m<sup>2</sup>) bir necha zallardan iborat bo'lib, haykal va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. 3 mingga yaqin xonasi bo'lgan.

**MARAFON JANGI (mil. avv. 490-yil 13-sentabr)** — yunon-fors urushlari davridagi mashhur jang. Attikadagi Marafon tekisligida sodir bo'lgan. Yunon qo'shini (11 ming jangchi) sarkarda *Miltiad* qo'mondonligi ostida Marafon vodiysiga kirish yerida *falanga* bo'lib saf tortgan, uning kuchaytirilgan o'ng va so'l qanotlari tog' va qoyatoshlar bilan mustahkamlangan. Bu yunonlarni forslar otliq qo'shinining qanot zarbasidan muhofaza etgan. Yunonlar kemalardan tushgan forslarga (taxm. 20 ming jangchi) yopirilib hujum qilishgan, biroq fors piyoda-kamonchilari qarshi hujumga o'tib, yunonlar falangasi markazini yorib o'tganlar. Ayni paytda yunonlarning kuchli, saylanma otryadlari qanotlardagi fors otliq qo'shini va yengil piyodalarini uloqtirib tashlagan, so'ngra markazdagi fors piyoda qo'shinini mag'lubiyatga uchratganlar. Yunonlar sohil tomon qochayotgan forslarni ta'qib qilishdan to'xtab, jangda halok bo'lgan yunonlarni (192 kishi) dafn etishga kirishib ketganlari tufayli, forslar kemalarga o'tirib qaytib ketganlar. Marafon jangida falanga tarkibida jang qilgan *goplitalar* o'zlaridan son jihatdan ustun bo'lsa-da, tashkiliy jihatdan yaxshi uyushmagan forslar armiyasi ustidan g'alaba qozongan.

**MARAFON YUGURISHI** — yengil atletikada katta yo'l (shosse)da 42 km 195 m ni yugurib o'tish. Nomi va masofa uzunligi yunon askari haqidagi rivoyat bilan bog'liq: u Yunonistondagi Marafon qishlog'i bilan Afina o'rtasidagi taxm. 40 km yo'lni yugurib o'tib, Afinaga yunonlarning forslar ustidan g'alabasi (mil. avv. 490-yil) to'g'risidagi xabarni yetkazgan. Marafon yugurishi 1896-yildan Olimpiada musobaqalari dasturiga kiritilgan.

**METEKLAR** — Afinada yashovchi ajnabiylar.

**MINOY SIVILIZATSIYASI** — mil. avv. 2-ming-yillikda Krit orolida vujudga kelgan sivilizatsiya (afsonaviy podsho Minos nomidan olingan). Mil. avv. 1450-yillarda kuchli zilzila va suv toshqiniga sabab bo'lgan vulqon otilishi oqibatida zavolga yuz tutgan. Yunoniston hududidan Krit oroliga bostirib kirgan mikena qabilalarining muqim aholisi *axeylar* "Minoynoy sivilizatsiyasi"ning barham topishini nihoyasiga yetkazganlar.

**MOM** — yunon afsonasida g'iybat va kinoya xudosi.

**MOYRALAR** — yunon afsonasida taqdir ilohalari.

**NEMEZIDA** — yunon afsonasida qasos va intiqom ilohasi.

**NIKA** — yunon afsonasida g'alaba ilohasi.

**NIMFALAR** — yunon mifologiyasida tog'lar, o'rmonlar, dengizlar, buloqlarda yashovchi tabiiat ma'budalari. Zevsning qizlari hisoblanib, *Artemida* yoki *Dionisning* hamrohlari deb tasavvur etilgan va ko'pgina mahalliy dinlarda ularga e'tiqod qilingan. Nimfalarga bag'ishlab g'orlarga, buloqlarga, dengiz qirg'oqlariga qurbonliklar keltirilgan. Nimfalar haykaltaroshlik va rassomlik san'atida takror-takror tasvirlangan.

**ODISSEYA** (lotincha *Odessa, Odussia*) — yunon epik dostoni. Muallifligi *Gomerga* nisbat beriladi. Mil. avv. taxminan IX–VIII asrlarda paydo bo'lgan "*Iliada*" dostonidan keyin yaratilgan. *Gezamet* (musaddas o'lchovi)da yozilgan (12100 misra). "Odiseya" negizida dunyoga mashhur folklor sujeti yotadi: uzoq darbadarlikdan so'ng sadoqatli rafiqasi *Penelopa* oldiga tanib bo'lmaydigan holda eri — *Odissey* qaytib keladi. Odissey obrazida qahramonlik sifatlaridan ko'ra uning aql-zakovati, ephilligi, tadbirkorligi ustun turadi. "Odiseya"da maishiy kartinalar va ertak unsurlari "*Iliada*"dagiga qaraganda ko'proq. Doston qadimgi zamonlardayoq yunon xalqining muqaddas va mo'tabar kitobiga aylangan.

**OLIMPIYA O'YINLARI** — Yunonistonda umumiyunon bayrami va musobaqalari; (g'ildirakli aravada tez yurish, beshkurash, mushtlashish musobaqalari, san'at konkursi). Mil. avv. 776-yildan boshlab milodiy 394-yilgacha har 4 yilda Olimpiya shahrida xudo *Zevs* sharafiga o'tkazilgan. Ana shu 4 yillik davr *Olimpiada* deb atalgan. O'yinlar 5 kun davom etgan.

**OYKUMENIA** — Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

**PALESTR** — yunon zodagonlarining farzandlari tahsil olgan o'quv dargohi. Unda adabiyot, she'r yozish hamda musiqa san'ati o'rgatilgan.

**PARFENON IBODATXONASI** (yunoncha *parthenon, parthenos* — *bokira qiz*) — Akropol (Afina)dagi ma'buda Afina ibodatxonasi, yunon me'morligi san'atining ulkan yodgorligi. Mil. avv. 447–438-yillarda Iktin va *Kallikrat* tomonidan qurilgan. Ibodatxonada katta sellalar (diniy haykallar uchun xonalar) va kichik xonalar (xuddi ibodatxona kabi "Parfenon" deb nomlangan) bo'lib, ularda xazinalar saqlash mo'ljallangan. Bu xonalar (tarhi 30,89×96,54 m) doriy kolonnadalari bilan o'ralgan. Hashamatli oq marmarli inshoot *Fidiy* va yunon haykaltaroshlari ishlagan haykaltaroshlik bezaklari bilan to'ldirilgan. Bino tarhi hoshiyasi metoplarida kentavr, bahaybat odam, amazonkalarining o'zaro kurash sahnalari, frontonlari haykaltaroshlik

mujassomoti bilan bezatilgan. Parfenon me'morligida yunon san'atining buyukligi uning gullagan davridagi garmoniyasi, go'zalligi, hayotiyli aks ettirilgan. 1687-yilda turklar bilan bo'lgan urushda venetsiyaliklar tomonidan vayron qilingan. 1801–1803-yillarda Parfenon haykallari Angliyaga olib ketilib, 1816-yilda Britaniya muzeyiga qo'yilgan.

**PEDAGOG** – bolani yo'lda kuzatib boruvchi. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta'lim beruvchi o'qituvchi.

**PELOPONNES ITTIFOQI** – Peloponnesdagi yunon polislari (Argos va Axayyaning ayrim polislari) Sparta gegemonligi ostida birlashtirgan ittifoq (mil. avv. VI asrning 2-yarmi – IV asr o'rtasi). V asrda Delos ittifoqi bilan urush qilgan. Sparta *Fiva* bilan bo'lgan urushda yengilgach, tarqalib ketgan (362-yil).

**PELOPONNES-AFINA URUSHI (mil. avv. 431–404-yillar)** – Yunoniston tarixidagi eng yirik urush; yunon polislari ittifoqlari: *Delos* (Afina boshchiligida) va *Peloponnes* (Sparta boshchiligida) o'rtasida sodir bo'lgan; butun Yunoniston va Janubiy Italiyadagi yunon shaharlari va Sitsiliyani qamrab olgan. 404-yilda quruqlik va dengizdan qamal qilingan Afina taslim bo'lgan. Sulh shartlariga ko'ra, Delos ittifoqi tarqatib yuborilgan. Afina Spartaga floti (12 qo'riqchi kemadan tashqari)ni topshirgan, Afina va Pirey istehkomlari yo'q qilingan, Yunon dunyosida Spartaning gegemonligi tan olingan. Afinada “*o'ttiz tiran*” oligarxik tuzumi o'rnatilgan.

**PERIKL ASRI** – mil. avv. 443–429-yillarda *Afinaning bosh strateg* bo'lgan Periklning hukmdorlik davri “*Perikl asri*” deb ataladi. Afinada Perikl davri qadimgi quldorlik demokratiyasining namunasi edi. Perikl qonuni bo'yicha hamma ozod aholi ishtirok etadigan Xalq majlisi – oliy organ hisoblanar va u barcha muhim davlat ishlarini muhokama qilardi, chek tashlash yo'li bilan saylanadigan beshyuzlar kengashi davlatning ma'muriy-nazorat organi hisoblanar, ijro etuvchi oliy hokimiyat 10 strateg kollegiyasi qo'lida edi. Perikl Xalq majlisi lavozimidagi ish haqi to'lashni joriy qildi. Endi kambag'al fuqarolar ham davlat ishlari bilan shug'ullana oladigan bo'ldi. “*Perikl oltin asri*” deb ataladigan yillar Afina madaniyatining eng yuksak darajada taraqqiy etgan davri bo'ldi. Perikl davrida me'morchilik ustalari – *Iktin* va *Kallikratlar Fidiy* rahbarligida Afina ma'budasining ibodatxonasi – *Parfenonni* bunyod etganlar.

**PERIYEKLAR** – Sparta davlatida to'la-to'kis huquqlarga ega bo'lmagan fuqarolar. Ular shaxsan ozod kishilar bo'lsa-da, *Xalq kengashida* ishtirok eta olmas, armiyada xizmat qila olmas edi.

**POLIS** (yunoncha **polis**, lotincha **sivitas**) – shahar-davlat. Yunoniston va Qadimgi Italiyada jamiyat va davlatni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tashkil etishning alohida shakli. Polis davlat apparati to'la huquqli erkak fuqarolarning xalq majlisi (apella, ekklesiya), kengash (gerusiya, areopag, bule, senat) va turli saylanuvchi mansabdor shaxslar (magistratlar)dan tashkil topgan. Polislar oligarxik (masalan Sparta) yoki demokratik (masalan Afina) bo'lgan. Polisdagi shahar aholisining bir qismi (meteklar, periyeklar, har qanday huquqlardan mahrum bo'lgan qullar) fuqarolar tarkibiga kiritilmagan va huquqsiz bo'lgan. Polis Yunonistonda mil. avv. IV asrning boshida (eng rivojlangan davri mil. avv. V asr), Rimda mil. avv. III–I asrlarda (eng rivojlangan davri mil. avv. V–III asrlar) inqirozga uchragan.

**POSEYDON** – yunon mifologiyasida “*yerni tebratuvchi*” dahshatli dengiz xudosi, *Kronos* va *Reyaning* o'g'li. Dunyoga hukmronlik qilishni akalari *Zevs* va *Aid* bilan bo'lishib olgan. Unga dengiz nasib qilgan. U yarim yalang'och, o'ng qo'lida u ayri nayza tutgan holda tasvirlangan. Afsonalarga ko'ra, u o'zining uch ayriqliq nayzasi bilan yerni larzaga keltirib, dengizda to'fon ko'tarar va kemalarni parchalab cho'ktirib yuborar ekan. Qadimgi Rim mifologiyasidagi *Neptunga* to'g'ri keladi.

**QADIMGI YUNON ADABIYOTI** – Yunonistonda vujudga kelgan qadimiy adabiyot. Yunon adabiyotining kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Yunon adiblari ajoyib afsona, rivoyat, she'r, qo'shiq, doston, tragediya va komediyalar yaratishgan. Yunon baxshilari esa qadimgi afsona va rivoyatlarni og'zaki tarzda ijro etib avloddan avlodga yetkazganlar. “*Gerakl*”, “*Didal va Ikar*”, “*Argonavtlar*”, “*Iliada*” va “*Odisseya*” kabi afsona, doston va rivoyatlar yunon adabiyotining eng nodir asarlaridan hisoblanadi. Yunon adabiyotining eng mashhur namoyandalari *Gomer* (mil. avv. XII/VIII a.), *Gesiod* (mil. avv. VIII–VII a.), mil. avv. VI–IV asrlarda yashagan *Esxil*, *Sofokl*, *Yevripid* hamda “komediya otasi” *Aristofan* (mil. avv. 480–388-y.) hisoblanadi.

**QADIMGI YUNON OLIMLARI** – Qadimgi Yunonistonda fanning turli sohalar bo'yicha mashhur olimlar yetishib chiqqanlar. Mil. avv. VII–I asrlarda Yunonistonda *Gomer*, *Gesiod*, *Gerodot*, *Demokrit*, *Protogor*, *Gippokrat*, *Suqrot*, *Aflotun* va *Aristotel* kabi ulug' siymolar yashab ijod etganlar.

**QADIMGI YUNON XUDOLARI** – qadimgi yunonlarning diniy tasavvuriga ko'ra, tabiat va jamiyatning hamma yerida yashab, uni boshqarib turgan xudolar. Yunonlar e'tiqodicha har bir narsa, hodisa va kasb-hunarning o'z xudolari – homiylari bo'lgan. Xudolar ularning yer yuzi va marhumlar

saltanatidagi hayotida hukmron edi. Yunonlar o'z xudolarining erkagini *ma'bud*, ayolini esa *ma'buda* deb ataganlar. Qadimgi yunonlar fikricha, uch xudo Olamga hukmronlik qilar edi: *Zevs* osmonda, *Poseydon* dengizda, *Aid* yerosti (marhumlar) saltanatida oliy xudo deb hisoblashgan. Qolgan xudolar esa dehqonchilik va hosildorlik (*Demetra*), hunarmandchilik va temirchilik (*Gefest*), musiqa va she'riyat (*Apollon*), ishq-muhabbat (*Eros*), bilim va donishmandlik (*Afina*), go'zallik (*Gratsiya*) homiylari hisoblangan. Shuningdek, yunonlarning urush (*Ares*) va g'alaba (*Nika*), adliya (*Femida*), quyosh (*Gelios*) va yer (*Geya*), uyqu (*Gipnos*) va tonggi shafaq (*Eos*), savdo-sotiq (*Germes*), sharob (*Dionis*), o'rmonlar va ovchilik (*Artemida*), zamon (*Xronos*) kabi xudolari ham bo'lgan. *Satiralar* va *nimfalar* degan tuban xudolar ham mavjud bo'lgan. Ular o'rmonlar, daryolar va tog'larda yashagan deb tasavvur etilgan. Yunonlarning e'tiqodicha, xudolar Makedoniya va Fessaliya chegarasidagi bir tog'da, Yunoniston viloyatlaridan biri Elidada, *Olimp tog'*ida yashagan. Olimp tog'i xudolari timsolini tasvirlar ekan, yunonlar xudolarni qizg'anchiq va shafqatsiz, kunni bazmi jamshid va ermakbozlikda o'tkazadi, bir-biri bilan tortishadi, deb hisoblashgan. Yunonlarning e'tiqodiga ko'ra, xudolarning xohish-irodasiga qarshi borganlar shafqatsiz jazolanadi. Shuning uchun ham yunonlar o'zlari yaratgan xudolardan qo'rqib, ularga qurbonliklar qilganlar va ularga bag'ishlab ibodatxonalar barpo etganlar.

**SALAMIN JANGI (mil. avv. 480-yil 28-sentabr)** — yunon-fors urushlari davri (mil. avv. 500/499–449-yillar)da Egey dengizidagi Salamin oroli yaqinida bo'lib o'tgan jang. Bu jangda yunon floti (Yevribiad qo'mondonligidagi 350–380 triyer — eshkakli kema) fors flotini (Kserks qo'mondonligidagi 800 dan ortiq kema) mag'lubiyatga uchratgan. Yunonlar kemalarini qulay joylashtirganlari, jangovar qurollar va jang qilish usullaridan mohirlik bilan foydalanganlari tufayli g'alaba qozonishgan. Forslar 200 ta, yunonlar 40 ta kema yo'qotgan. Salamin jangi natijasida forslar dengiz aloqa yo'llaridan ajralgan, bu esa urushning borishida burilish nuqtasi bo'lgan.

**SARISSA** — makedoniyaliklarning uzun (4 metrgacha) og'ir nayzasi.

**SIKLOP** — yunon mifologiyasida peshanasida bitta dumaloq ko'zi bo'lgan mavjudot.

**SIRENA** — yunon mifologiyasida yarim qush va yarim ayol bo'lgan mavjudot.

**SOFISTLAR (yunoncha sophistes — mohir, dono)** — 1) Yunonistonda aqlli, bilimdon kishilar, maxsus hunar egalari; 2) mil. avv. V asrning 2-

yarmi — IV asrning 1-yarmida Yunonistonda donolik va chiroyli so'zlashuvga o'rgatuvchi o'qituvchilar, faylasuflar. Ular ma'lum miqdordagi haq olish evaziga kishilarga munozara olib borish san'atini, raqibining mulohazalaridagi zaif tomonlarni topib, ularga zarba berish, o'z fikrini boshqalarga o'tkazish, munozarada yengib chiqish usullarini o'rgatishgan. Bunda *sofistika* uslubidan foydalanishgan. Shu maqsadda raqibni dovdiratib qo'yadigan mantiqiy *sofizm* va paradokslar o'ylab chiqarishgan. *Protagor*, *Gorgiy*, *Gippiy*, *Prodik* va boshqalar mashhur sofistlardir. Sofistlar alohida bir maktabni tashkil etishmagan. Lekin ularning etika, siyosat, bilish nazariyasi sohasiga qiziqishlarida umumiy tomonlari bor. Mil. avv. V asrda Yunoniston ma'naviy hayotida falsafaning tadqiqot obyekti dunyo muammolaridan inson va uning ma'naviy olami muammosiga burish ko'zga tashlanadi. Sofistlar "inson hamma narsalarning o'lchovidir" degan g'oyaga tayanib ish yuritishgan. *Aristotel* sofistlarni "soxta donolik o'qituvchilari" deb atagan.

**SOLON ISLOHOTLARI** — savdogarlar aristokratiyasidan chiqqan va mil. avv. 594-yilda *Afina arxonti* (hokimi) etib saylangan Solonning ijtimoiy-siyosiy tuzumda o'tkazgan islohotlari. U dehqonlarning qarzlarini bekor qildi va dalalardagi "qarz toshi"ni olib tashladi, qarz tufayli qulga aylantirilgan kishilar quillikdan ozod etildi, urug'chilik munosabatlariga uzil-kesil zarba berdi. Siyosiy huquq va lavozimlar kishilarning mol-mulkiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o'zgartirdi. Avvalgi boshqaruv tizimi — *aristokratiyani demokratiyaga* almashtirdi.

**SPARTA TARBIYASI** — mil. avv. VIII–IV asrlarda *Sparta* davlatida zodagonlarning bolalarini tarbiyalash tizimi. 7–20 yoshdagi bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalangan, keyin davlat internatlarida harbiy-jismoniy tayyorgarlik ko'rishgan. O'qish va yozishni o'rganishgan; buyruqqa bo'ysunish, uni so'zsiz bajarish va g'alabaga erishish ko'nikmalari shakllantirilgan, harbiy intizom asosida hayotga o'rgatilgan. Tartib-intizom yildan yilga qiyinlashtirib borilgan. Kattalarga so'zsiz bo'ysunish, yengil kiyimda, oyoq kiyimsiz yurishga, qattiq o'rin-joyda yotishga o'rgatilgan. Maxsus jismoniy mashqlar bajarilishi belgilab qo'yilgan. 15–20 yoshdagilar uchun harbiy mashqlar bilan birga, xorda kuylash asosiy mashg'ulotlar sirasiga kiritilgan. Yoshlarning aqliy rivojlanishi muhim hisoblangan va savollarga aniq hamda qisqa javob berish maxsus mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirilgan. Qizlar oilada tarbiyalangan, lekin ularning tarbiya tizimiga yugurish,

kurash, disk va nayza uloqtirish kabi mashqlar kiritilgan. XVIII–XIX asrlarda pedagogik fikr taraqqiyotida Sparta tarbiyasining muhim ijobiy ta'siri bo'lgan. Bu tarbiyaning ayrim jihatlari keyingi yillarda Fransiya va Rossiya harbiy o'quv yurtlarida ham qo'llanilgan.

**STIL** – qadimgi yunonlar yozishda foydalangan uchi o'tkir metall qalamcha.

**STRATEG** (yunoncha **strategos, stratos** – *qo'shin* va **ago** – *boshlab boraman*) – Yunonistonda keng harbiy va siyosiy vakolatlarga ega bo'lgan lashkarboshi. U Qadimgi Afina davlatining ma'muriy-nazorat organi bo'lgan *Beshyuzlar kengashida* rahbarlik qilgan.

**TARIX OTASI** – Rim notig'i *Sitseron* tomonidan qadimgi yunon tarixchisi *Gerodotga* berilgan faxriy nom.

**TEATR** (yunoncha **theatron** – *tomoshagoh; tomoshalar joyi*) – san'at turi. Dastlab mil. avv. VII–VI asrlarda Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan bo'lib, u qishloq xo'jaligi homiysi – xudo *Dionis* sharafiga o'tkazilgan bayramlar asnosida paydo bo'lgan. Yunonlar uzum va mevali daraxtlar barg chiqargan bahorda – *ko'klamgi Dionis* va meva uzumlar pishgan kuzda – *kuzgi Dionis* bayramlarini o'tkazganlar. Ana shu bayramlar vaqtida yunonlar teatrga to'planib, qo'shiqlar aytishgan va turli o'yinlar ko'rsatishgan. Ular sevikli xudolari Dionis haqidagi afsonalarni ashula qilib aytishgan. Afsonalar asosida kichik-kichik pyesalar yaratib, uni sahnada ijro etganlar. Dastlab tomoshalar oddiy bir joyda ko'rsatilgan. Keyinchalik esa tomoshalar tepalik pastida, qal'a – *akropol* tepaligi pastida namoyish etilgan. Tomoshabinlar esa tepalik yonbag'rida o'tirishgan. Mil. avv. V–IV asrlarda Afina va Yunonistonning boshqa shaharlarida tepasi ochiq teatr binolari qurilgan. Teatr tepa yonbag'rida qurilib, unga tosh va taxtadan o'rindiqlar qo'yilgan. Pastga esa tomosha ko'rsatiladigan sahna va doira shakldagi maydon bo'lgan. Bunday teatrlarga 20–25 ming tomoshabinlar siqqan. Teatr tomoshabiniga salmoqli tarbiyaviy ta'sir o'tkazgani sababli uni "*kattalar uchun maktab*" deya ta'riflashgan.

**TESEY HAQIDA AFSONA** – Yunonistonda yaratilgan qadimiy doston. Afina shahriga bir vaqtlar Egey degan kishi hokimlik qilgan ekan. Krit podshosi, shaharga og'ir va sharmandali soliq solibdi: afinaliklar har to'qqiz yilda yetti yigit va qizni Kritga yuborishlari lozim ekan. Ularning gavadasi odamga o'xshaydigan ho'kiz boshli bir maxluq yeyar ekan, bu maxluq mashhur labirintda yashar ekan. Egeyning o'g'li – *Qudratli Tesey* qurbon qilinadigan yigitlar orasida Kritga borishga va maxluq bilan jang qilishga qaror qilibdi. Kemaga qayg'u belgisi sifatida qora yelkan

o'rnatilgan ekan: Tesey g'alaba qozongan taqdirda bu yelkanlarni oq yelkanlar bilan almashtirishga otasiga va'da beribdi. Krit podshoning qizi *Ariadna* yashirin ravishda Teseyga o'tkir bronza qilich va ip o'rami beribdi. Tesey labirintga kiraverishda ipni bog'lab, labirint binosi ichiga kirib ketibdi, ipni yoyibdi. Tesey maxluqni o'ldiribdi va ip bo'ylab o'z hamrohlarini labirintdan chiqaribdi. Tesey otasiga bergan va'dasini unutilib, yelkanni almashtirmabdi. Egey qora yelkanli kemani ko'rib, o'zini dengizga tashlabdi va cho'kib ketibdi. Uning xotirasini eslab dengizni *Egey dengizi* deb atashibdi.

**TITAN** – yunon mifologiyasida Uran va Geyning farzandi, ro'dapolar. Zevs ular ustidan g'alabaga erishgach, titanlarni Tartar (yerostidagi o'liklar saltanati)ga uloqtirib tashlaydi.

**TRAGEDIYA** (yunoncha **tragos** – *echki, ode* – *qo'shiq; tragodia* – *echkilar qo'shig'i*) – dramatik tur janrlaridan biri. Uning paydo bo'lishi antik davr marosimlariga borib taqaladi. Yunonlar ma'bud *Dionis* sharafiga echki so'yib, bayram tomoshalari o'tkazganlar. "Tragediya" so'zidagi "*echkilar qo'shig'i*" degan lug'aviy ma'no o'sha marosimlarga daxldor. Mil. avv. V asrga kelib, yunon tragediyasi kamolat bosqichiga ko'tarildi: Esxil ("*Zanjirband Prometey*", "*Forslar*"), Sofokl ("*Shoh Edip*", "*Antigona*"), Yevripid ("*Elektra*") kabi antik davr adabiyoti namoyandalari tragediya rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Yunonlar mashhur tragediya mualliflarini "*donishmandlik yo'lboshchilari*" deb ataganlar. 90 dan ortiq tragediyalar muallifi Esxil "*Tragediya otasi*" hisoblanadi.

**TRIYER** – yunon-fors urushlarining suv ustida kechgan *Salamin jangida* yunonlar foydalangan eshkakli harbiy kemalar. Triyerlar *Femistokl* maslahati bilan qurilgan bo'lib, o'sha davr uchun katta bo'lgan soatiga 18 kilometr tezlikda suza olgan. Bu harbiy kemalarning qoyalar orasidan va sayoz joylardan yaxshi suzib o'tish xususiyatiga ega bo'lgani uchun ham Salamin jangida yunonlar g'alabasining asosiy tayanchi bo'lib xizmat qilgan.

**TROYA OTI** – yunon rivoyatlariga ko'ra, yog'ochdan yasalgan ulkan ot. Uning ichiga yashirinib olgan yunonlarning sara askarlari Troyaga kirganlar (Troya urushi). Troyaliklar yunonlarning bu hiylasidan g'aflatda qolishgan va shahar devori oldida turgan otni shaharga olib kirishgan. Tunda yunonlar otning ichidan chiqib qal'a darvozasini ochganlar va qolgan qo'shinni shaharga kirishiga imkon berganlar. "*Troya oti*" iborasi majoziy ma'no (dushmani halok etish maqsadida unga tuhfa berish) kasb etgan.



**VANKA** – Pulos davlatining hukmdori qadimda shunday atalgan.

**XALQ MAJLISI** – Qadimgi Afinada erkak jinsiga mansub barcha fuqarolar 20 yoshdan boshlab ishtirok etadigan davlat organi. Xalq majlisining katta qismi badavlat bo‘lmagan hunarmandlar, savdogarlar, kunbay ishchilar, dehqonlardan iborat edi. Xalq majlisida omma uchun foydali bo‘lgan qarorlar qabul qilinardi. Navbatdagi majlis bo‘ladigan kun oldindan e‘lon qilinardi. Majlis ertalab barvaqt tayinlanar, negaki mehnatkash odamlar kunduz kuni majlisga kela olmasdi. Podsho tomonidan mansabga tayinlanuvchi amaldorlardan farqli o‘laroq Afinada mansabdor shaxslar Xalq majlisi tomonidan muayyan muddatga saylanar va majlisga hisobot berishar edi. Mabodo mansabdor shaxs o‘z majburiyatlari ijrosini uddalay olmasa, Xalq majlisi bu odamni muddatidan oldin lavozimidan bo‘shatar edi. Xalq majlisi yangi qonunlarni tasdiqlar, eski qonunlarni bekor qilar, boshqa qarorlar, masalan, yangi inshootlar qurilishiga, armiyaga va boshqalarga mablag‘ ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilar edi.

**XALQ SUDI** – Qadimgi Afinaning davlat organi bo‘lib, 70 yoshga to‘lgan fuqarolar uning faoliyatida ishtirok etar edilar. Sudda ayblanuvchi shaxs o‘zini o‘zi himoya qila bilishi yoki chiroyli so‘zlay oladigan va qonunlarni biladigan odamni yollashi shart edi.

**XERONIYA JANGI** – mil. avv. 338-yil 2-avgustda yunon ittifoqi qo‘shini bilan *Filipp II* boshliq Makedoniya askarlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jang. Jang Xeroniya yaqinidagi Beotiyada sodir bo‘lgan. Jangning dastlabki davrida yunon ittifoqchi qo‘shini makedon qo‘shinlarini orqaga chekinishga majbur qiladilar. *Filipp II* ning 18 yoshli o‘g‘li *Aleksandr* (Iskandar) askarlarining jangga kirishi urush oqibatini makedoniyaliklar foydasiga hal qiladi. Shu jangdan keyin butun Yunoniston Makedoniyaga itoat etishga majbur bo‘ladi.

**XRONOS** – yunon afsonasida zamon xudosi.

**YUNON-FORS URUSHLARI (mil. avv. 500/499–449-yillar)** – qadimgi yunon shahar-davlatlarining fors davlatining bosqinchilik siyosatiga qarshi olib borgan urushi. Forslar Kichik Osiyoning markaziy qismini bosib olgach, O‘rta dengizning sharqiy qirg‘oqlarini va unga yaqin orollarni bo‘y-sundirishga harakat qila boshladi (mil. avv. VI asr). Mil. avv. 492-yili forslar shohi *Doro I* Bolqondagi yunonlarga qarshi kuyovi *Mardoniy* qo‘mondonligi ostida 1-yurishini uyushtirdi. Eron qo‘shinlarining bir qismi *Gellespot* bo‘g‘ozidan o‘tib Frakiya orqali Bolqonga bostirib kira boshlaydilar. Forslarning harbiy dengiz kuchlari Frakiya dengizidan suzib borib *Fasos orolini* bosib olganlar. Frakiyaning jangovar qabilalari

*Xalkidika yarimoroliga* yaqinlashib kelayotgan fors qo‘shinlariga qattiq shikast yetkazganlar. Bu vaqtda Frakiya dengizida dahshatli bo‘ron ko‘tarilib, fors harbiy kemalarining ko‘pi halokatga uchrangan. Shundan keyin fors qo‘shinlari Yunonistonga yetolmay, orqaga chekinishga majbur bo‘lganlar. Doro I Yunoniston polislariga elchi yuborib, ularni Eronga tobe bo‘lishlarini talab qilgan. Fessaliya, Beotiya va boshqa polislar Eronga tobe bo‘lishga rozi bo‘lganlar. Afina bilan Sparta forslarning talablarini rad etganlar. Shu tariqa Doro I ning Yunonistonga uyushtirgan birinchi yurishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan. Forslarning 2-yurishi *Datis* va *Artafern* boshchiligida mil. avv. 490-yili boshlandi. Hal qiluvchi jang mil. avv. 490-yil 13-sentabrda Attikadagi Marafon yaqinida bo‘lib, afinaliklar *Miltiad* boshchiligida forslar ustidan g‘alaba qozonadilar. Forslarning 3-yurishi Doro I ning o‘g‘li *Kserks* boshchiligida mil. avv. 480-yilda bo‘ldi. Mil. avv. 480-yil iyun oyida fors qo‘shinlari Sparta podshosi *Leonid* boshchiligida yunonlar himoya qilib turgan *Fermopil* tog‘ yo‘li orqali bostirib kirdilar. Forslar Attika va Afinani egalladi. Biroq *Salamin oroli* yonida mil. avv. 480-yil 28-sentabrda fors floti, mil. avv. 479-yili *Plateya shahri* yaqinidagi *Mardoniy* boshliq quruqlikdagi armiya mag‘lubiyatga uchradi. Shundan so‘ng yunonlar Egey dengizi va Kichik Osiyoda forslarga qarshi urush olib borganlar. Kiprdagi *Salamin shahri* yaqinida mil. avv. 449-yilda yunonlar dengizda yirik g‘alabaga erishdilar. Mil. avv. 449-yili *Suzada* sulh tuzilib, u yunon tomonning vakili *Kalliy* nomi bilan “*Kalliy sulhi*” deb atalgan. *Kalliy* sulhiga binoan, forslar Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizidagi barcha orollar mustaqilligini tan olgan. Eron harbiy-dengiz flotiga Egey dengizida suzish taqiqlangan. Eron Yunonistonga ko‘p miqdorda tovon to‘lashi kerak bo‘lgan.

**YUNON-TROYA URUSHI** – yunon eposlari “*Iliada*” va “*Odissey*”da bayon qilinishicha, Miken shohi – *Agamennon* boshchiligida axeyyalik shohlar ittifoqining Troyaga qarshi olib borgan 10 yillik urushi. Axeylarning Troyani zabt etishi bilan tugagan. Troyada olib borilgan arxeologik qazish ishlarining ko‘rsatishicha, mil. avv. 1260-yilda shahar uzoq muddatli qamalni boshidan kechirgan va vayron qilingan. Shunday qilib, yunon afsonalaridagi ma‘lumotlar tasdiqlangan. Epos ma‘lumotlariga qaraganda, troyalik shahzoda *Paris* tomonidan Sparta shohi Menelayning qizi – *Sohibjamol Yelenani* o‘g‘irlab ketilishi Yunon-Troya urushiga sabab bo‘lgan. Menelay va uning birodari *Agamennon* yunon davlatlari shohlarini yordamga chaqirib katta flot bilan Troya sohillariga yo‘l olgan. Troya shohi *Priamga*

frigiyalik, likiyalik, frakiyalik ittifoqchilar yordam bergan. Yunonlar Troyani 10 yil qamal qilganlar va Itaka oroli shohi Odisey maslahati bilan yog'ochdan katta ot yasab, ichiga jangchilarni joylagan. Bu hiyla natijasida Troya mablug'iyatga uchraydi va shahar 400 yil davomida xaroba holatida yotadi. Asosan, buyuk jangchilarning yakkama-yakka olishuvidan iborat bo'lgan harbiy harakatlarda yunon-axeylardan Axilles, ikki Ayaks, Patrokl, Agamennon, Odisey va boshqalar bo'lsa, troyaliklardan – Gektor, Glavk, Sarpedont va Eney shuhrat qozonishgan. Troyaliklarning mag'lubiyati Dariylar tomonidan Yunonistondan siqib chiqarilgan axeylarning bir qismini Kichik Osiyoga ko'chib o'tishini yengillashtirgan

**YUNON TILI** – grek tili tarixidagi dastlabki bosqichda – mil. avv. XIV–XII asrlardan milodiy I–IV asrlargacha amalda bo'lgan (hozirda o'lik) til; greklarning qadimgi tili. Yunon tili taraqqiyoti tarixi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: 1) *eng qadimgi (arxaik) davr* (mil. avv. XIV–XII asrlar – VIII asr); 2) *klassik davr* (mil. avv. VIII–VII asrlardan IV asrgacha); 3) *ellinistik davr* (umumyunon tilining shakllanish davri – mil. avv. IV–I asrlar); 4) *so'nggi yunon davri* (milodiy I–IV asrlar). Yunon tilida quyidagi lahja guruhlari farqlanadi: ioniy-attik (ioniya-attika), arkad-ki-pr, eoliy va doriy. Klassik davrning boy adabiyoti ioniy lahjasida – *Gesiod, Gerodot*; attika lahjasida – *Esxil, Sofokl, Yevripid* (tragediya), *Aristofan* (komediya), *Platon va Aristotel* (falsafa), *Fukidid va Ksenofont* (tarix), *Demosfen* (notiqlik, stilistika); eoliy lahjasida – *Alkey, Sappfo* ( lirik she'rlar, qo'shiqlar) va boshqalar tomonidan yaratilgan. Gomer dostonlarining tilida (mil. avv. VIII asr) bir necha lahjalarning unsurlari kuzatiladi. Mil. avv. V asr oxirlarida attika lahjasi Yunonistonning adabiy tiliga aylanadi. Ellinistik davrda attik va ioniy lahjalar asosida 2 xil: adabiy va so'zlashuv ko'rinishlariga ega bo'lgan umumyunon tili shakllanadi.

**YUNON YOZUVI** – finikiy yozuvidan kelib chiqqan alifboli (harf-tovushli) yozuv; taxminan mil. avv. IX–VIII asrlarda paydo bo'lgan. Eng qadimgi yodgorliklari mil. avv. VIII–VII asrlarga mansub. Turi va harflar to'plami jihatidan qadimgi frigiy alifboli yozuviga (mil. avv. VIII–VII asrlar) yaqinroq turadi. Yunon yozuvida, finikiy konsonant (undoshli) alifbosidan farqli ravishda, undoshlarni ifodalovchi harflardan tashqari unililarni ifodalovchi harflar ham paydo bo'ladi. Bu yozuv taraqqiyotidagi yangi bosqich sifatida katta umummadaniy ahamiyatga

ega bo'ldi. Alifboli yozuv paydo bo'lgungacha yunonlar chiziqli bo'g'in yozuvidan foydalanganlar (*chiziqli yozuv*). Alifboli yunon yozuvi 2 tarmoqqa bo'lingan: g'arbiy va sharqiy. G'arbiy yunon yozuvi, o'z navbatida, ayrim belgilarning yozilishidagi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bir qancha mahalliy ko'rinishlarga ega bo'ladi. Sharqiy yunon yozuvi klassik yunon yozuvi va vizantiy yozuvi tarzida rivojlandi, qibtiy (kopt), got, slavyan-kirill, shuningdek, arman, qisman gruzin yozuvlariga asos bo'ldi. G'arbiy yunon yozuvi asosida esa etrusk, lotin va qadimgi german runik yozuvlari paydo bo'ldi. Klassik umumyunon alifbosi (mil. avv. IV asrdan) 27 harfdan iborat bo'lib, shu asosdagi matnlar chapdan o'ngga qarab yozilgan. “Stigma”, “koppa”, “sampi” belgilari faqat sonlarni ifodalash uchun qo'llangan, keyinchalik alifbo qatoridan chiqarilgan. Yangi yunon (grek) alifbosi 24 harfdan iborat (jadvalga qarang). Yunon yozuvining bir necha turlari, ko'rinishlari bo'lgan: tosh, metall, sopol kabi qattiq jismlarga bitilgan monumental yozuv (qat'iy kvadrat shaklli, qirrador yozuv; mil. avv. VIII asrdan), untsial yozuv (dumaloqroq shaklli, ilmoqsimon yozuv; mil. avv. IV asrdan papirusda, milodiy II asrdan pergamentda), kursiv yozuv (tez yoziladigan, qo'lyozma shaklidagi yozuv, milodiy III asrdan). XIII asrdan kichik minuskul (kichik harflardan iborat yozuv) barqarorlashib, dastlabki yunon bosma shrifti (XV asr) uchun asos, andoza bo'ladi. Hozirgi yunon bosmacha harflari XVII asrda yaratilgan.

**ZEVS** – qadimgi yunon afsonalarida osmon, momaqaldiroq, chaqmoq va yomg'ir xudosi deb tan olinib, odamlar va xudolarning bosh hukmdori – podshosi, eng oliy xudo; *Kronos* va *Reyaning* o'g'li. Xudolarning uchinchi avlodiga mansub. Tartarda o'z otasi va boshqa titanlarni yengib, Olimp tog'ida hukmron bo'lgandan keyin Zevs asta-sekin olamni qaytadan tuzadi, xudolarni yaratadi, qonunlar chiqaradi, tartib o'rnatadi, fan, san'at, axloq me'yorlari joriy etadi. Zevs xudolarning irodasini va yaxshi niyatlarini ro'yobga chiqaruvchi ko'plab qahramonlar (Gerakl, Persey)ning otasi. Ayni vaqtda Zevs – dahshatli jazolovchi kuch hamdir. U bir necha marta odam zotini yo'q qilib, undan ham mukammal insonni yaratishga urinadi. Zevs to'g'risidagi afsonalarning ayrim qismlari “*Iliada*”, “*Odiseya*” va boshqa antik asarlarda bor. Qadimgi Rim afsonalarida Zevs *Yupiterga* to'g'ri keladi.

## GEOGRAFIK NOMLAR

**AFINA** — Yunoniston tarixi va madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan shahar-davlat (polis). Afina Yunonistonning *Attika* deb atalgan tog'li joyida vujudga kelgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, bu joylarda odamlar neolit davridan boshlab yashagan. Attikaliklar *Afina ma'budasiga* sajda qilganlar. Mil. avv. IX–VIII asrlarda Attikadagi qishloqlar birlashib Afina shahri vujudga keldi. Bu vaqtda (Gomer davri) harbiy demokratiya susayib, urug'chilik munosabatlari yemirila boshlagan edi. Hokimiyatni *urug' aristokratlari* (Evpatriklar) boshqarardilar. Mil. avv. VII asrda Afinada evpatriklar siquvi kuchayib dehqonlar ahvoli og'irlashgan edi. Mil. avv. 594-yilda savdogarlar aristokratiyasidan *Solon* arxon (hokim) bo'ldi. Solon Afinada ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan o'zgartiradigan islohotlar o'tkazdi. Aristokrat naslidan bo'lgan *Pisistrat* o'z tarafdorlari va yollanma askarlariga tayanib, mil. avv. 560-yilda o'zini Attika dehqonlarining dohiysi deb e'lon qildi va Afinaning mustabid hokimi bo'lib oldi. Pisistrat o'ziga qarshi bo'lgan aristokratlarning yerlarini tortib olib, dehqonlarga ulashib berdi, ularga davlat hisobidan pul qarz berishni joriy etdi. Pisistrat davrida Afinada savdo munosabatlari rivojlandi. Ibadatxona va qasrlar qurildi, suv quvuri o'tkazildi. Pisistrat va uning o'g'illari saroyda eng yaxshi adiblarni to'pladilar. Gomerning "*Odissey*a" va "*Iliada*" asarlari yozib olindi. Afinada dastlabki teatr vujudga keldi. Mil. avv. 527-yilda Pisistrat vafot etdi va hokimiyat uning o'g'illari *Gippiy* va *Gipparxga* o'tdi, lekin mustabid hokimlik uzoq davom etmadi. Gipparx fitnachilar tomonidan o'ldirildi, Gippiy esa hokimiyatdan haydaldi (510-yil). Yirik savdogar va hunarmandlar vakili *Klisfen* xalq qo'zg'olonlariga boshchilik qilib, hokimiyatni qo'lga oldi (508-yil). U to'rtta urug'chilik o'krugi o'rniga o'nta hududiy okrug tashkil etdi. Shu bilan urug'chilik jamoasining so'nggi qoldiqlariga barham berildi. Mil. avv. V asr boshida yunon-fors urushlari boshlandi. *Marafon jangida* (mil. avv. 490-yil) yunonlar forslarga qattiq zarba berdilar. 480-yilda *Kserksning* juda katta qo'shini Bolqon yarimoroliga bostirib kirdi. *Salamin* oroli yonidagi dengiz jangida yunonlar g'alaba qildilar. Afinada Egey dengizi davlatlarining birlashuvidan iborat *Delos ittifoqi* tuzildi. Bu ittifoq keyinroq Afinaning dengizdagi hukmronligini ta'minladi. Afinadan tashqariga vino, zaytun moyi, turli hunarmandchilik buyumlari chiqarilar, chetdan asosan, qullar, g'alla va yog'och keltiriladi edi. Afinada *Perikl* hukmronligi davri (mil. avv. 444–429-yillar) qadimgi quldorlik demokratiyasining namunasi edi. "Perikl oltin asri" deb atalgan yillar Afina madaniyatining eng yuksak

darajada taraqqiy etgan davri bo'ldi. Bu davrda Afinada tarixchi *Gerodot*, faylasuf *Anaksagor*, haykaltarosh *Fidiy*, *Esxil*, *Sofokl* va *Yevripid* kabi tragediya namoyandalari yashagan. Me'morchilik ustalari — *Iktin* va *Kallikratlar* Fidiy rahbarligida Afina ma'budasi ibodatxonasi — *Parfenonni* bunyod etganlar. O'sha vaqtlarda Afina yozuvchilarining tili (attika lahjasi) keng tarqalgan va ellinistik davlatlarda adabiy til hisoblangan. Periklning butun Yunonistonni Afinaga bo'ysundirishga qaratilgan tashqi siyosati yunonlar davlatidagi boshqa guruhlarining qarshiligiga duch keldi. Bu guruhlar orasida *Sparta* boshchiligidagi *Peloponnes ittifoqining* e'tibori baland edi. Peloponnes ittifoqi demokratik tartibga qarshi oligarxiya tartibini yoqlab chiqdi. O'rtadagi qarama-qarshilik butun Yunoniston uchun halokatli bo'lgan *Peloponnes urushini* (mil. avv. 431–404-yillar) keltirib chiqardi. Urushda mag'lubiyatga uchragan Afina o'zining Yunonistonda tutgan yetakchilik mavqeyini yo'qotdi. Lekin bu mag'lubiyatdan so'ng ham Afina davlati yana ancha vaqtgacha qadimgi dunyo madaniyatining eng yirik markazlaridan biri bo'lib keldi. Mil. avv. 338-yilda Makedoniya poshosi *Filipp II Xeroneyadagi jangdan* so'ng Yunonistonni o'ziga bo'ysundirdi. Afina bilan Rim imperiyasi o'rtasidagi do'stlik munosabatlari mil. avv. 88-yilgacha davom etib keldi. 86-yilning 1-martida rimliklar Afinani bosib oldilar, ko'pgina bino va qasrlar vayron qilindi. ammo Rim sarkardasi Sulla Afinaning o'tmishdagi shuhratini e'tiborga olib, unga ozodlik in'om etdi. Mil. avv. 27-yilda Butun Yunoniston Rim imperiyasining mustamlakasiga aylandi. Shunda ham Afina o'z-o'zini mustaqil idora etar, Rim noibiga itoat etmas, soliq to'lmas edi. Afina ilmiy va madaniy markaz sifatidagi ahamiyatini yoqotmadi, badavlat rimliklar shu yerga kelib ma'lumot olar edilar. Rim imperatorlarining ba'zilari, ayniqsa *Adrian* Afinaga alohida ahamiyat berib, unga ko'rkam imorat, ibodatxonalar qurdirgan, kutubxona va gimnaziyalar tashkil etgan. Milodiy III asrdan varvarlar istilosi boshlangandan keyin Afina uzil-kesil tanazzulga yuz tutdi. Vizantiya imperiyasi tashkil etilishi bilan Afinadagi san'at va madaniyatning buyuk yodgorliklari Konstantinopolga olib ketildi. 529-yilda Vizantiya imperatori *Yustinianing* buyurug'iga binoan Afinadagi oxirgi maktablar yopildi. Shu bilan qadimgi Afina madaniy tarixi tugadi.

**ALEKSANDRIYA, Iskandriya** — O'rta dengiz sohilida, Nil daryosi deltasining g'arbiy qismidagi qadimgi shahar. Mil. avv. 332–331-yillarda Aleksandr Makedonskiy qurdirgan, Ptolemey davrida (mil. avv.

305–30-yillar) Misr poytaxti boʻlgan. Antik dunyoning ilmiy va madaniy markazlaridan biri. I asrda Aleksandriya eng katta shaharlardan (Rimdan keyin) boʻlib, unda taxminan 1 mln aholi yashagan. Aleksandriyada dunyoda eng boy kutubxona boʻlgan.

**ATTIKA** – Qadimgi Oʻrta Yunonistonning janub-sharqida joylashgan viloyat. Yunon rivoyatlariga koʻra, *Afina* atrofida Attikaning siyosiy birlashuvi shoh *Tesey* davrida sodir boʻlgan; aslida bu jarayon bir necha asrlarga choʻzilgan. Mil. avv. VI asrga kelib *Afina* Attikada mutlaq iqtisodiy va siyosiy ustunlikka erishgan. Hozirgi Gretsiyada Attika shu nomdagi maʼmuriy-hududiy birlik – nom (markazi – *Afina*).

**GALIKARNAS** (yunoncha **Halikarnassos**) – qadimda Kichik Osiyoning janubi gʻarbida, dengiz boʻyida joylashgan yirik shahar, savdo va madaniy markazi. Yunonistonning Argolida viloyatidan doriy qabilalari tomonidan *Kariya* viloyatida mil. avv. taxminan 1200-yilda asos solingan. “Tarix otasi” – *Gerodot* vatani. Mil. avv. 560–548-yillarda Lidiya hukmronligi ostida, keyinchalik ham deyarli doimo oʻzgarlar (*Eron*, *Afina*, *Sparta*, *Rim*) qaramligida boʻlgan. Galikarnas hokimi malika *Artemiziya I* yunon-fors urushlari davrida *Eronning* tobe ittifoqchisi edi. Uning vorisi, tiran *Ligdamid* davrida Galikarnas aholisi shaharda demokratik islohotlar oʻtkazilishini talab qilganlar (tarixchi *Gerodot* shu paytda Galikarnasdan qochishga majbur boʻldi). 454-yilda Galikarnas *Afina* dengiz ittifoqiga qabul qilingan. *Mavsol* va uning xotini *Artemiziya II* davrida Galikarnas oʻz taraqqiyotining yuksak choʻqqisiga yetgan. *Mavsol* Galikarnasni *Kariyaning* poytaxtiga aylantirib, shaharda koʻplab saroylar, ibodatxonalar qurdirgan, shahar hududi kengaygan. *Mavsol* vafotidan soʻng uning xotirasi sharafiga Galikarnasda “dunyoning yetti moʻjizasi”dan biri – *Galikarnas maqbarasi* (mil. avv. taxm. 353) bunyod etilgan. Mil. avv. 334-yilda Galikarnasni *Aleksandr Makedonskiy* egallab shaharni vayron qildiradi. Keyinchalik qayta tiklangan; mil. avv. 129-yilda Rimning Osiyo provinsiyasi tarkibiga kiritilgan. XV asrgacha Galikarnas nomi ostida maʼlum boʻlgan.

**KNOSS** – Shimoliy Kritning markaziy qismida joylashgan qadimgi shahar. Egey madaniyati markazlaridan biri. Mil. avv. 3-mingyillik oxirlaridan podsholikning poytaxti. Knoss podsholari mil. avv. XVI–XV asrlarda Krit ilk quldorlik davlatining oliy hukmdorlarida boʻlgan. Mil. avv. 1470-yilda sodir boʻlgan zilzila, mil. avv. taxminan 1380-yildagi yongʻin natijasida vayron boʻlgan. 1900–1930-yillarda ingliz arxeologi *A.J. Evans* tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Knoss hukmdorlarining saroyi ochilgan va “xoʻjalik arxivi” –

yozuvli jadvallar topilgan. Knoss mil. avv. XV asr 2-yarmida *axeylar* tomonidan bosib olingach tanazzulga uchragan.

**KORINF** – qadimgi yunon shahar-davlati (polis) (hozirgi Korinfdan 6 km narida). Taxminan mil. avv. X asrda *doriylar* tomonidan barpo qilingan. *Tiranlar* – *Kipsel* va *Periandr* davri (mil. avv. VII–VI asrlar boshi)da gullab-yashnagan. Korinf yirik savdo-hunarmandchilik markazi; *Afina* bilan raqobatlashgan; bronza va sopol buyumlari bilan mashhur boʻlgan; yunon kolonizatsiyasida faol qatnashgan.

**KRIT** – Yunoniston hududidagi Oʻrtayer dengizning sharqiy qismidagi orol. Yevropa madaniyatining eng qadimgi oʻchoqlaridan. Antik davrda qurilgan koʻplab meʼmoriy yodgorliklar saqlangan. Bu yerda mil. avv. 3-mingyillikda ilk quldorlik davlatlari vujudga kelgan. Mil. avv. XX–XV asrlarda bu davlatlar juda rivojlangan. Mil. avv. I asrda Krit Gretsiyaning siyosiy va madaniy hayotida muhim oʻrin tutgan. Mil. avv. 67-yilda orolni rimliklar egallagan. 395-yilda Rim imperiyasi parchalanib ketgandan soʻng Krit Sharqiy Rim imperiyasining tasarrufiga oʻtgan.

**MIKEN** (*Mikeni*) – Argolida (Janubiy Gretsiya)dagi qadimgi shahar. Egey madaniyatining yirik markazi. Mil. avv. 3-mingyillikda manzilgoh. XVII asrdan *axeylar* davlatlaridan birining poytaxti. Ravnaq topgan davri mil. avv. 1400–1200 yillarga toʻgʻri keladi. Mil. avv. 1200-yilda yongʻindan xarobaga aylangan. Qazishmalar (1876-yildan) natijasida saroy, daxmalar, ulkan devorlar, hunarmandlar uylari ochilgan.

**OLIMP TOGʻI** – Yunoniston togʻlarining eng baland choʻqqisi. Balandligi 2911 metr. Bu togʻ mamlakatning shimoli sharqiy qismida joylashgan.

**PELOPONNES** – Yunonistonning janubidagi yarimorol. Bolqon yarimorolining janubiy qismi. Peloponnesda *Sparta*, *Mikena*, *Korinf* kabi yirik tarixiy viloyatlari joylashgan.

**PILOS** (*Pylos*) – Messeniya sohili (Peloponnes)dagi qadimgi yunon shahri (mil. avv. XVI–XIII asrlar); hozirgi Pilos shahridan 17 km shimoldagi Ano-Englianos tepaligida joylashgan shahar xarobasi. Mil. avv. 3-mingyillik oxiri – 2-mingyillikda bu yerda manzilgoh boʻlgan. Mil. avv. XVI–XIII asrlarda Pilos mahalliy *axey* hukmdorlari qarorgohi. Pilosdan devoriy rasmlar solingan saroy, podshoh maqbaralari qoldiqlari, qadimgi bitiklar tushirilgan 600 dan ortiq sopol jadvalchalar, nekropol topilgan.

**PIREY BANDARGOHI** – Afinaning asosiy port shahari.

**SPARTA** (*Lakedemon*) – Lakonika (Peloponnes)dagi yunon shahar-davlati (polisi); mil. avv.

VIII–VI asrlarda Peloponnesning janubiy qismini bosib olgach, yirik davlatga aylangan. Rivoyatga koʻra, Spartadagi davlat tuzumiga *Likurg* (IX–VIII asrlar) tomonidan asos solingan. Spartiatlar (Spartaning toʻla huquqli fuqarolari) oʻzlariga birlashtirib qoʻyilgan ilotlar bilan teng ravishda davlat yer boʻlaklariga egalik qilishgan, oʻzlari esa, asosan, harbiy ish bilan mashgʻul boʻlishgan. Hunarmandchilik va savdo periyeklar qoʻlida boʻlgan. Sparta — oligarxik davlat tuzumiga ega polisning yuksak namunasi; davlat ishlari gerusiya, soʻngra eforlar kollegiyasi tomonidan hal etilgan. Afina va Sparta oʻrtasidagi raqobat mil. avv. 431–404-yillardagi *Peloponnes urushiga* olib kelgan; Sparta unda gʻalaba qozonib Yunoniston ustidan oʻz hukmronligini oʻrnatgan. Mil. avv. IV–III asrlarda Spartada tovar-pul munosabatlari taraqqiy etgan, bu mulkiy tabaqalanishni yanada kuchaytirgan. Sparta *Fiva* bilan *Levktra* (371) va *Mantineya* (362) yonida boʻlgan janglarda magʻlubiyatga uchragach, 2-darajali davlatga aylanib qolgan. Mil. avv. 146-yilda Rim tomonidan boʻysundirilgan, mil. avv. 27-yilda Rimning *Axayya* provinsiyasi tarkibiga kirgan. Qadimgi Sparta oʻrnida hozirgi Gretsiyaning Sparta shahri joylashgan.

**TIRINF** — Qadimgi Yunonistonda mil. avv. 2-mingyillikda vujudga kelgan ilk davlatlardan biri.

**TROYA (*Ilion*)** — Kichik Osiyoning shimoli gʻarbidagi qadimgi shahar. Yunon eposi orqali maʼlum. Nemis arxeologi *Genrix Shlimann* 1870-yilda Hisorlik tepaligi xarobalari hududida qazishmalar olib borishi natijasida topgan. XIX asrning oxiridan

muntazam qazish ishlari olib borilgan, natijada Troyaning ilk jez davri (mil. avv. taxm. 3000-y.) dan boshlangan turli qatlamlari ochilgan. Jez davrida Troya yirik markaz va kichik podsholik poytaxti boʻlgan. Troya tepalik yonbagʻrida joylashgan, atrofi burjli mudofaa devori bilan oʻralgan. Tepalik ark, uning atrofida zodagonlarning uylari boʻlgan. Mil. avv. 1260-yilda Troya urushi natijasida *axeylar* tomonidan bosib olinib, vayron qilingan. Axeylar ketgach, shahar qadimgi madaniy anʼanasini saqlab qolgan, lekin ilgari mavqeyini tiklay olmagan. Mil. avv. 1190-yilda Bolqon yarimorolining shimoliy viloyatlaridan koʻchib kelganlarning yangi guruhi oʻzlari bilan jez qurol-aslahalari va sopol buyumlarining yangi shakllarini olib kelishgan. Mil. avv. 1100-yilda Troya bosqinchilik qurboni boʻlib, vayron qilingan, faqat 400 yil oʻtgach, mil. avv. 700-yilda yunonlar Troya oʻrnida *Yangi Ilion* nomli yangi shahar barpo etishgan.

**VIZANTIY** — Bosfor boʻgʻozining Yevropa sohilidagi yunon polisi. Taxminan mil. avv. 660-yilda asos solingan. Milodiy 330-yillarda Sharqiy Rim imperiyasining poytaxti. Keyinchalik uning oʻrnida Konstantinopol shahri barpo etilgan. 1453-yildan Istanbul deb ataladi.

**YUNONISTON** — Bolqon yarimoroli, Egey, Oʻrtayer dengizining sharqidagi bir qancha orollarni va Kichik Osiyoning gʻarbiy sohilidagi qadimgi yunon davlatlarining umumiy nomi. Yunoniston soʻzi “*toshli yer*” degan maʼnoni anglatadi.

## TARIXIY SANALAR

**Mil. avv. 9–7-mingyillik** — Yunonistonda dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topishi bilan manzilgohlar va shaharlar hajmi ortib bordi. Yunon shaharlarining koʻpchiligi bir qancha manzilgohlar birlashishi yoʻli bilan tashkil topdi. Bunday shaharlar va ularning tevaragida joylashgan qishloqlar shahar-davlatlarni vujudga keltirdi. *Afina* va *Sparta* davlatlari ana shunday shahar-davlatlarning eng yiriklari boʻlgan.

**Mil. avv. 6–5-mingyilliklar** — Krit oroliga Kichik Osiyodan odamlar suzib kelishgan. Krit bilan Misr oʻrtasida aloqalar oʻrnatilishi.

**Mil. avv. 4-mingyillik oxiri va 3-mingyillikning 1-yarmi** — Kritda xoʻjalik — dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ancha rivoj topib, odamlar orasida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish boshlangan. Kritda dastlabki davlatga asos solinishi.

**Mil. avv. 4–3-mingyilliklar** — Janubiy Yunoniston (Peloponnes)da ibtidoiy urugʻ jamoasi buzila

boshladi, jamiyatda tabaqalanish sodir boʻlib, *Miken*, *Pilos*, *Tirinf* kabi yirik aholi markazlari vujudga keldi.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri** — Dunay boʻyidan koʻchib kelgan *axey* va mahalliy yunon qabilalari Peloponnesning shimoli sharqidagi Miken davlatiga asos soldilar.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri–2-mingyillikning 1-yarmi** — Qadimgi Lakonika va Messeniyada Krit-Miken madaniyatiga mansub bir qancha aholi markazlari boʻlgan. Ularning eng yirigi *Pilos* edi.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri va 2-mingyillik boshi** — Janubiy Yunoniston (Peloponnes)ning markazlarida dastlabki quldorlik davlatlarchalar tashkil topdi. Bu davlatlarning eng yiriklaridan biri Miken boʻlgan. Miken Peloponnesning shimoli sharqida joylashgan edi.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri — 2-mingyillik boshlari** — Yunonistonda qulchilik vujudga kelgan.

**Mil. avv. 3-mingyillik oxiri — 2-mingyillikning**

**1-yarmi** – Janubiy Yunonistonning g'arbida joylashgan *Pilos* shahar-davlati tashkil topgan.

**Mil. avv. 3–2-mingyilliklar** – Krit-Miken madaniyati ravnaq topgan.

**Mil. avv. 2-mingyillik** – Yunonistonda *Knoss*, *Mikena*, *Tirinf*, *Pilos* kabi ilk davlatlar vujudga kela boshladi. Yunonistondagi ilk *Minoy sivilizatsiyasi* (afsonaviy podsho *Menos* nomi bilan bog'liq) Krit orolida vujudga keldi.

**Mil. avv. 2-mingyillik** – Attikaning g'arbidagi tepalikka *akropol* – *yuqori shahar* deb atalgan qal'a bunyod etilgan. Qal'a mustahkam devor bilan o'ralgan. Ana shu akropol keyinchalik *Afina* shahriga asos bo'lgan. Afina akropoli atrofida aholining uylari joylashgan. Dushmanlar hujum qilgan vaqtlarda aholi akropolga kirib yashiringan.

**Mil. avv. XVIII asrning 2-yarmi** – Kritda vayron bo'lgan saroylar tiklangan. Knoss shohi *Minos* butun Kritda hukmronlikni qo'lga olib, kuchli dengiz davlatini tuzgan. *Minos* kuchli harbiy-dengiz floti qurib Egey dengizidagi orollarni, Kichik Osiyo va Bolqon yarimoroli sohilidagi yerlarni, hatto Attikani ham o'ziga itoat ettirdi. *Minos* boshliq dengizchilar uzoq Sitsiliyagacha suzib borganlar. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, *Minos* Sitsiliyadagi janglarda halok bo'lgan ekan.

**Mil. avv. XVI–XV asrlar** – Krit O'rtayer dengizi havzasidagi eng kuchli quldorlik davlatiga aylangan. Kritda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlanadi. Krit shohlari O'rtayer dengizi havzasidagi hamma mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq olib boradilar.

**Mil. avv. XVI–XIII asrlar** – *Pilos* ravnaq topgan.

**Mil. avv. XV asrning 2-yarmi** – Krit davlati yemirildi. Zilzila, vulqon va dengiz to'lqinlari mamlakatni vayron etdi. *Axey* qabilalari Krit oroliga kelib o'rnamashdilar.

**Mil. avv. XV–XIII asrlar** – Janubiy Yunonistonning shimoli sharqidagi *Miken* quldorlik davlatining gullab-yashnashi.

**Mil. avv. XIV–XIII asrlar** – Janubiy Yunonistonning g'arbida joylashgan *Pilos* shahar-davlati zaiflashdi va doriylar hujumi natijasida yemirildi.

**Mil. avv. XIII asr** – Krit oroliga doriylar bostirib kirib, uni ishg'ol qildilar. Shu bilan Krit davlati va uning madaniyati ham inqirozga uchraydi.

**Mil. avv. XIII–XII asrlar** – qadim zamonlardan boshlab Bolqondan shimolda, quyi Dunay bo'ylarida yashagan doriy qabilalari o'z boshlaridan ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichini kechirdilar. Ular madaniyat jihatdan krit-mikenliklardan orqada qolmoqda edilar.

**Mil. avv. XIII–XII asrlar** – doriylar Yunonistonga bostirib kirib, uni bosib ola boshladilar. Janubiy Yunoniston va Krit doriylar ixtiyoriga o'tadi. Faqat Attika aholisi doriylarga qarshilik ko'rsatib o'z mustaqilliklarini saqlab qolganlar. Doriylar bilan bo'lgan janglarda juda ko'p aholi halok bo'lgan, qishloq va shaharlar kuydirilib, vayron etilgan. Mahalliy aholining bir qismi doriylarga itoat etib, ular bilan aralashib ketgan. Bosqinchilarga itoat etishni istamagan aholi o'z vatanini tashlab uzoq o'lkalarga ketganlar. Doriylar istilosi natijasida Yunonistonning xo'jaligi tushkunlikka uchragan. Qadimgi Miken, Tirinf, Krit va *Pilos* kabi quldorlik davlatlari tugatilgan. Ammo doriylar o'zlari bilan temir va temir qurollar olib kelishgan. Doriylar yunon aholisi bilan aralashib ketganlar.

**Mil. avv. XIII asr oxiri – XII asr boshlari** – doriy qabilalari Peloponnesga bostirib kirib Lakonikani bosib oladilar. Doriylar Lakonikadan oqib o'tuvchi Yevfrot daryosining o'ng sohilida *Sparta* shahrini bunyod etganlar va o'zlarini spartaliklar deb ataydilar.

**Mil. avv. XII asr boshlari** – yunonlar Kichik Osiyoda joylashgan *Troyaga* yurishi. Troya podshohi *Paris* tomonidan Sparta podshosining rafiqasi *Yelenani* o'g'irlab ketilishi Troya urushiga sabab bo'lgan.

**Mil. avv. XII asr** – Janubiy Yunoniston (*Lakonika*) hududiga ko'chmanchi *doriylar* qabilasi bostirib kirdi. Ular mahalliy qabilalarni bo'ysundirib, *Sparta* davlatiga asos soladilar.

**Mil. avv. XII–XI asrlar** – Yunonistonda temir davriga o'tish.

**Mil. avv. XI–IX asrlar** – Afinani oqsoqollar kengashi va shu kengash saylab qo'ygan 9 hokim idora qilgan.

**Mil. avv. XI–IX asrlar** – doriylar istilosidan keyin yunon qabilalari Yunonistonning va Kichik Osiyoning turli joylarida tarqalib yashaydilar. Shimoliy Yunoniston va Kichik Osiyoning shimoli g'arbida eoliylar joylashib olganlar. O'rta Yunonistonning sharqiy Egey dengizi orollari va Kichik Osiyoning g'arbiy sohillarida esa ioniyalar yashar edilar. Peloponnes, Kipr, Egey dengizining janubidagi orollar va Kichik Osiyoning janubi g'arbiy sohillariga esa doriylar o'rnamashib olgan edilar. Peloponnesning shimoliy va markaziy qismi, shuningdek, Kiprda axeylar yashardilar. Bu davrda Yunonistonda yashagan aholi urug' va qabilalardan tashkil topgan edi.

**Mil. avv. IX–VIII asrlar** – xo'jalikning rivojlanishi bilan tepasida hokim va podshochalar turgan bir nechta o'n yunon shahar-davlatlari (*Afina*, *Sparta*, *Korinf*, *Agros*, *Epis*, *Fiva* va boshqalar) tashkil topgan. Yunonistondagi bu shahar-davlatlarni *polislar*

deb atalgan. Bu davlatlarga shahar va uning atrofidagi qishloqlar va viloyatlar kirgan. Shahar atrofi mustahkam devor bilan o'rab olingan. Yunonistondagi shahar-davlatlardan eng yirigi *Afina* va *Sparta* bo'lgan.

**Mil. avv. IX–VIII asrlar** – Attikada dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa hunarmandchilikning rivoj topish munosabati bilan *ortiqcha mahsulot* ishlab chiqarila boshlangan. Ortiqcha mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarga chiqarib sotilgan. Attikada katta-kichik qishloq va shaharlar ko'paygan. Har bir katta qishloq va shaharning o'z bozori bo'lgan.

**Mil. avv. IX–VIII asrlar** – *Afina* Attikaning bosh shahri va markaziga aylanib, tez rivojlangan. Akropol atrofida ustaxonalar bino qilinib, dahalar vujudga kelgan.

**Mil. avv. IX–VIII asrlar** – yunonlar Qora va O'rtayer dengizi sohillarida o'zlarining dastlabki manzilgohlarini qurib, mahalliy aholi bilan savdotiq va almashuv ishlarini olib borganlar.

**Mil. avv. IX–VIII asrlar** – yunon yozuvining paydo bo'lishi.

**Mil. avv. VIII asr** – Yunonistonda Finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv vujudga keldi. Alifbo 24 ta harfdan iborat bo'lgan. Ular orasida unli harflar paydo bo'ldi.

**Mil. avv. VIII asr** – *Sparta* davlati *Meseniyan* bo'ysundirdilar. *Sparta* eng yirik yunon davlatlaridan biriga aylandi.

**Mil. avv. VIII asr** – Gomer tomonidan "*Illiada*" va "*Oddiseya*" dostonlarining yaratilishi.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – qullar soni uncha ko'p bo'lmagan Afinadan farqli o'laroq Spartada qulga aylantirilgan aholi ko'pchilikni tashkil etar, ular spartaliklardan qattiq nafratlanardilar. Spartaliklar hamma amal qilishi lozim bo'lgan qat'iy intizom va aniq-raso rejalashtirilgan turmush tarzi hamda yengilganlarga qarshi shafqatsiz terrorni qo'llaganlar.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – Afinada zo'rlikka asoslangan davlat qaror topadi. Aholining tabaqalarga ajralishi kuchayib, aslzodalar bilan qullar va quyi tabaqa vakillari o'rtasidagi qarama-qarshilik avjiga chiqadi.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – Afinada demosning bir qismi badavlat kishilarga aylandilar. Ular orasidan boy savdogarlar, dehqonlar, chorvadorlar, kema va ustaxona egalari ajralib chiqdilar. Ularning ixtiyorida qullar ham bo'lib, ustaxonalarda qullar va yollanma mardikor kuchidan foydalanganlar. Lekin shunga qaramay demosning haq-huquqlari cheklanganicha qolgan.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** – yunon shoiri Gesiod yashab ijod etgan. U "*Kambag'allar qarzlaridan, mash'um ocharchilikdan qutulish maqsadida o'z vatanlarini tashlab, uzoq o'lkalarga jo'nab ketardilar*" – deb yozgan edi.

**Mil. avv. VIII–VI asrlar** – Yunonistonda kichik-kichik quldorlik shahar-davlatlar (polis) vujudga kela boshladi, ular qariyb yuzta bo'lgan. Bu davlatlar har bir vodiya va har bir orolda vujudga kela boshladi. Ular orasida eng kattasi poytaxti *Afina* shahri bo'lgan *Afina* davlati edi.

**Mil. avv. VIII–V asrlar** – O'rtayer dengizining shimoliy sohillari – *Korsika*, *Sardiniya*, *Sitsiliya* orollari va *Apennin* yarimoroli sohillarida tashkil topgan manzilgoh shaharlar tez rivojlanib ketdi.

**Mil. avv. VIII asr yoki XII asrlar** – *Gomer* yashab ijod etgan.

**Mil. avv. VII asr** – spartalik doriylarning ilotlar va ozod kishilarga o'tkazgan jabr-zulmlariga qarshi Messeniya juda katta qo'zg'olon ko'tarildi.

**Mil. avv. VII asr** – *Afina* hokimi *Drakont* tomonidan jinoyatchilarni jazolash uchun qattiq jazolar belgilangan "*Drakont qonunlari*" tuzilgan. Sudyalalar ana shu qonunga asoslanib kishilarga qattiq jazo berganlar. Shu davrda Afinada aslzodalarning mavqeyi oshib ketgan. Shu tufayli ular o'z idora usullarini "*aslzodalar hokimiyati*" deb ataganlar.

**Mil. avv. VII asr** – ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan qurila boshladi, ayni paytda xususiy uyalar g'ishtdan va paxsadan qurilar edi. Ustunlar jamoat binolari va ibodatxonalarning alohida bezagi va ko'rki edi. Ustunlar metall o'qlar yordamida bir-biriga mustahkamlangan bir necha tosh bo'laklaridan yasalgan.

**Mil. avv. VII asr oxirlari** – boylar va aslzoda dehqonlar Attikadagi yerlarning katta qismini egallab olganlar. Dehqonlarning ko'pi yerdan ajrab qullikka tushib qolganlar.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – Yunonistonda ommaviy ko'chib joylashish va koloniyalar tashkil etish davri. Bu tarixda *Buyuk yunon koloniyalashtirishi* nomini olgan. Qora dengiz sohillarida *Olviya*, *Xersones*, *Pantikapey*, *Tanais*, *Fasis*, *Trapezund* kabi yirik koloniyalar vujudga keldi. O'rtayer dengizi sohillarida yuzdan ortiq yunon koloniyalari tashkil topdi.

**Mil. avv. VII–VI asr boshlari** – Afinaning oddiy fuqarosi hisoblangan demosning aslzodalar hukmronligiga qarshi norozilik kuchayadi.

**Mil. avv. VII–VI asr** – Spartada kuchli quldorlik davlati vujudga keldi.

**Mil. avv. VII asr oxiri – VI asr boshlari** – Afinada aslzodalar bilan demos o'rtasida shiddatli janglar boshlanib ketdi.

**Mil. avv. VII–I asrlar** – Yunonistonda *Gomer, Gesiod, Gerodot, Demokrit, Protagor, Gippokrat, Suqrot, Aflotun* va *Arastu* (Aristotel) kabi ulug' siymolar yetishib chiqdi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** – Qadimgi yunon *teatri* paydo bo'lgan.

**Mil. avv. VII–VI asrlari** – Makedoniyada xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish kelib chiqqan.

**Mil. avv. VI asr boshlari** – shiddatli janglar va o'tkazilgan islohotlar natijasida Attika demosi – oddiy fuqarosi katta g'alabani qo'lga kiritgan. Oddiy fuqarolar ham davlatning hamma sohadagi ishlarida faol qatnashadigan bo'ldilar.

**Mil. avv. VI asr oxiri** – fors shohlari Kichik Osiyodagi yunonlarning shahar-davlatlarini bosib oldilar.

**Mil. avv. VI asr** – Yunon sivilizatsiyasining gullab-yashnashi.

**Mil. avv. VI asr** – Makedoniyada ilk davlat qaror topdi.

**Mil. avv. VI asr oxiri – V asr boshlari** – Misrdan Hindistongacha, Arab dengizidan Orol dengizigacha bo'lgan yerlarni bosib olgan Eron Sharqning eng qudratli davlatiga aylandi.

**Mil. avv. VI–V asrlar** – *Milet* shahri ilm-ma'rifat markaziga aylangan.

**Mil. avv. VI–V asrlar** – Yunoniston me'morchiligida 2 xil ustun ishlatilgan. Biri doriy uslubidagi ustunlar bo'lsa, ikkinchisi ioniya uslubidagi ustunlar hisoblangan.

**Mil. avv. VI–V asrlar** – Yunonistonda hunarmandchilikning rivojlanishi.

**Mil. avv. VI–IV asrlar** – Yunonistonda *Esxil, Sofokl, Evripidlar* yashab ijod etgan.

**Mil. avv. V asr** – Ahamoniylar davlatida hukmronlik qilayotgan *Doro I* Yunonistonga tahdid sola boshladi.

**Mil. avv. V asr** – *Afina* va *Sparta* davlatining gullab-yashnashi.

**Mil. avv. V asr** – *Afina* davlati fuqarolari davlat tizimlarida ishlashga muayyan haq to'lana boshladi.

**Mil. avv. V asr** – Yunonistonda quldorlik tuzumi rivoj topgan va mustahkamlangan. *Afina* esa Yunonistondagi eng kuchli quldorlik davlati bo'lgan.

**Mil. avv. V asr** – Yunonistonda bir-biriga dushman ikki ittifoq – *Sparta* boshliq *Peloponnes* va *Afina* boshliq *I-Afina dengiz ittifoqi* vujudga keldi.

**Mil. avv. V asr** – Gerodotning "*Tarix*" asarini yozishi.

**Mil. avv. V asr** – Yunonistonning mashhur haykaltaroshlari *Miron, Palliklet* va *Fidilarning* hayoti va faoliyati.

**Mil. avv. V asr** – qadimgi yunonlarda

me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomchilik san'atlari o'z rivojining yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

**Mil. avv. V asr** – yunon faylasufi *Platon* yashab ijod etgan. U "*Kavkaz tog'laridan Gibraltar bo'g'ozigacha bo'lgan dengiz sohillarida istiqomat qilgan shahar-davlatlarning aholisi hovuz bo'yiga chiqib o'tirgan qurbaqalarga o'xshaydilar*", – deb yozgan edi.

**Mil. avv. V asr** – qiz bola boshli Rim nusxasi haykali yasaldi.

**Mil. avv. V asrning 2-yarmi** – *Afina* o'z kuch-qudratining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan. Bu quldorlik demokratiyasi quldorlarning qullar ustidan hukmronligini ta'minlaydigan idora usuli edi. Bu idora usulidan Attikaning tub joy aholisiga mansub bo'lgan erkaklar foydalanganlar.

**Mil. avv. V–IV asrlar** – *Afina* va Yunonistonning boshqa shaharlarida hozirgi sirkalarimizga o'xshash tepasi ochiq teatr binolari qurilgan.

**Mil. avv. V–IV asrlar** – yunon haykaltaroshlarining va rassomlarining gullagan davri.

**Mil. avv. IV asr** – yunon idishlarining qizil tusli bo'lishi.

**Mil. avv. IV asr o'rtalari** – Makedoniyaning kuchayib borishi.

**II asr** – Bosredagi Rim teatri qurilgan.

**XIX asr oxiri** – nemis olimi *Genrix Shlimann* *Gomer* hikoyalarini tadqiq qilib, Troyada joylashgan yerni hisoblab chiqdi.

**Mil. avv. 2000-yil** – Kritda *Knoss* hukmdorining saroyi qurilgan.

**Mil. avv. 1750-yil** – Kritda qattiq zilzila bo'lib, *Knoss, Fest, Maliya, Katoo, Zakrodagi* saroylari vayron bo'ldi.

**Mil. avv. 1450-yil** – Krit orolidagi *Minoy sivilizatsiyasi* kuchli zilzila va suv toshqiniga sabab bo'lgan vulqon otilishi oqibatida barham topdi. Yunoniston hududidan *mikkena* qabilalari bostirib kirdi, uning muqim aholisini *axeylar* deyishgan. *Axeylar* *Minoy sivilizatsiyasi* barbod bo'lishini nihoyasiga yetkazganlar.

**Mil. avv. 776–394-yillar** – dastlabki *Olimpiada* o'yinlari o'tqazildi. Olimpiada o'yinlari Olimp xudosi *Zevz* sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan. Uning asoschisi *Gerakl* hisoblangan.

**Mil. avv. 621-yil** – yunon davlati hukmdori *Drakont* xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarini yozadi va amalga kiritadi. Bu qonunlar shu qadar qattiq va ayovsiz ediki, afinaliklar ularga "siyoh qolib, qon bilan yozilgan" deb baho berishgan. Qonunni arzimas darajada buzganlik uchun ham *Drakont* bitta jazo – o'lim jazosini belgilagan. Avvaliga afinaliklar bu qonunlarga itoat etishgan, so'ngra



noroz bo'la boshlagan va Drakontni shahardan haydab yuborishgan.

**Mil. avv. 594-yil** – Afinada *Solon* tomonidan islohotlar o'tkazildi. Solon davlatni idora qilishni oldingi tizimini o'zgartirdi. Avvalgi boshqaruv tizimi – *aristokratiya* (eng yaxshi odamlar hokimiyati)ni Solon *demokratiya* (xalq hokimiyati)ga almashtirdi. Davlatni boshqarishda faqat fuqarolar ishtirok eta olardi. Ayollar va ajnabiylar (meteklar) qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdilar. Solon islohotlarining barchasi dehqonlar qarzlari va qarzdorlikdan qullikni bekor qilish hamda davlat boshqaruvi islohotidan iborat bo'lgan. Solon islohotlaridan keyin Attika aholisi fuqarolar va qullarga ajratiladigan bo'ldi.

**Mil. avv. 550-yil** – Qorabo'yoqli yunon humlari.

**Mil. avv. 498–454-yillar** – Makedoniya podshosi *Aleksandr I* ning hukmronlik yillari.

**Mil. avv. 492-yil** – Eron shohi *Doro I* kuyovi *Mardoniy* qo'mondonligi ostida katta qo'shinni Yunonistonga yuboradi. Biroq, *Doro I* ning Yunonistonga uyushtirgan birinchi yurishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan.

**Mil. avv. 490-yil** – *Doro I* Yunonitonga 2-yurishini boshladi.

**Mil. avv. 490-yil sentabri** – fors harbiy floti Egey dengizini kesib o'tdi va Attika sohilida langar tashladi. Yunonlar va forslar o'rtasida *Marafon* jangi bo'lib o'tdi va yunonlar g'alabasi bilan tugadi.

**Mil. avv. 490–449-yillar** – forslarning Yunonistonga uyushtirgan harbiy yurishlari natijasida yunon-fors urushlari bo'lib o'tdi.

**Mil. avv. 481-yil** – *Afina* bilan *Sparta* o'rtasida ittifoq tuzildi.

**Mil. avv. 480-yilning bahori** – eronliklar Yunonistonga 3-yurishini boshladi.

**Mil. avv. 480-yil** – yunonlar va forslar o'rtasida *Fermopil* jangi bo'lib o'tdi va unda forslar g'alaba qozondi. *Fermopil* kamari Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan bir yo'li edi. Kserks qo'shinlari Janubiy Yunonistonga yetib bordi, yunonlar qo'shinlarini aylanib o'tib, *Fermopilni* egalladi. Shundan so'ng Kserks tomonidan *Afina* egallandi va uning amri bilan shahar yondirildi.

**Mil. avv. 480-yil** – *Salamin* yonidagi dengiz jangida forslar qo'shinlari uzil-kesil tor-mor etildi.

**Mil. avv. 479-yil** – *Mardoniy* boshliq Eron qo'shinlari yana Attikaga bostirib kirib, Afinani vaqtincha ishg'ol qiladi. Yunon polislarining birlashgan kuchlari eroniylarga zarba berib, ularni Beotiyaga chekintiradi. *Plateya* yonidagi jangda Eron qo'shinlari yengilib, *Mardoniy* halok bo'ladi.

**Mil. avv. 479-yil** – *Plateya* shahri yaqinida forslar

qo'shini tor-mor keltirildi. Eron shohi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq u Old Osiyodagi barcha yunon polisarlari mustaqilligini e'tirof etdi, yunonlarga qarshi harbiy harakat olib bormaslikka va'da berdi. Afina O'rtayer dengizi sohilidagi eng qudratli davlatga aylandi.

**Mil. avv. 478-yil** – Yunon-fors urushlarida ishtirok etgan yunon polisarlari, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizidagi orol – davlatlar *Afina* boshchiligida ittifoq tuzganlar. Bu *Delos* yoki *1-Afina ittifoqi* nomini olgan. Uning *Delos* ittifoqi deb atalishi ittifoq xazinasi muqaddas *Delos* orolida saqlangan. Bu ittifoq yunonlarning eroniylar ustidan uzil-kesil g'alaba qilishida muhim ahamiyat kasb etgan.

**Mil. avv. 449-yil** – Suzada yunonlar va eroniylar o'rtasida *Kaliy* sulhining tuzilishi. Kalliy sulhiga binoan, forslar Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizidagi barcha orollar mustaqilligini tan olgan. Eron harbiy-dengiz flotiga Egey dengizida suzish taqiqlangan. Eron Yunonistonga ko'p miqdorda tovon to'lashi kerak bo'lgan.

**Mil. avv. 443–429-yillar** – *strateg* lavozimiga saylangan aslzoda va badavlat oiladan chiqqan *Perikl* hukmronligi davrida *Afina* eng qudratli davlat bo'ldi, mamlakatda demokratiya ravnaq topdi. Bu davr shuning uchun ham "*Perikl asri*" deb atalgan. *Perikl* xalq majlisidagi lavozimlarga ish haqi to'lashni joriy qildi. Endi kambag'al fuqarolar ham davlat ishlari bilan shug'ullana oladigan bo'ldi. Akropoldagi *Parfenon* ibodatxonasi qurilishi.

**Mil. avv. 431–401-yillar** – *Sparta* va *Afina* o'rtasidagi *Peloponnes* urushi.

**Mil. avv. 431–421-yillar** – *Afina* va *Sparta* o'rtasidagi *Peloponnes* urushining birinchi bosqichi.

**Mil. avv. 431-yil** – *Peloponnes* ittifoqi rahbari *Sparta* Afinaga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi. Urushga *Sparta* podshosi *Arxidam II* boshchilik qilgan. Shuning uchun *Peloponnes* urushi *Arxidam urushi* ham deyiladi.

**Mil. avv. 430–426-yillar** – *Afina* qo'shinlari *Peloponnes*ning g'arbiy sohillaridagi *Kefaleniya* va *Zakinf* orollarini, *Navpakt* va *Solliy* shaharlarini bosib oldilar.

**Mil. avv. 427–424-yillar** – Afinaliklar *Sitsiliya*ga bir necha bor muvaffaqiyatli yurish qildilar.

**Mil. avv. 426-yil** – *Lesbos* orolidagi *Mitilena* shahrida Afinaga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Qo'zg'olonchilarga *Sparta* katta yordam bergan. Afinaliklar *Mitilena*dag qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirganlar. *Afina* *Lesbos*ga *Spartadan* keladigan harbiy kemalarni yo'lini to'sish uchun *Peloponnes* sohillariga 100 triyerdan iborat harbiy kuch yuborgan.

**Mil. avv. 425–424-yillar** – *Afina* qo'shinlari *Korinf* va *Delinda* bo'lgan janglarda yengilganlar.

**Mil. avv. 424-yil** – Afinaliklar floti Messeniya sohillarida spartaliklarga zarba berib, Kifera Sifakteriya orolini bosib oldilar. Sparta esa qiyin ahvolga tushib qolib, Afina rahbarlari Demosfen va Kleonlardan sulh tuzishni so‘raganlar. Ammo Afina rahbarlari Spartaga qabul qilib bo‘lmaydigan shartlarni qo‘ygan. Natijada sulh tuzilmay, urush davom etgan.

**Mil. avv. 422-yil** – *Brasid* rahbarligidagi spartaliklar hamda *Kleon* boshliq afinaliklar o‘rtasida *Amfiopol* yaqinida bo‘lgan qattiq jangda *Brasid* ham, *Kleon* ham halok bo‘lgan. *Amfiopol* afinaliklar qo‘lidan ketgan.

**Mil. avv. 421-yil** – Afina bilan Sparta o‘rtasida 50 yilga mo‘ljallangan sulh shartnomasi tuzildi.

**Mil. avv. 419–399-yillar** – *Arxelay* hukmronlik qilgan davr.

**Mil. avv. 415-yil** – Afinaliklar 260 harbiy kema, 32 minglik katta qo‘shin bilan Sitsiliya oroli tomon jo‘nagan. Afina qo‘shiniga *Alkiviad*, *Nikiy* va *Lamaxlar* rahbarlik qilgan.

**Mil. avv. 415–404-yillar** – Afina va Sparta o‘rtasidagi Peloponnes urushining ikkinchi bosqichi.

**Mil. avv. 413-yil** – *Demosfen* boshliq Afina floti Sparta va ittifoqchilar tomonidan tor-mor etilgan. Jangda *Nikiy*, *Demosfen* va *Lamaxlar* halok bo‘lgan.

**Mil. avv. 413-yil** – Sparta qo‘shinlari Afinadan 22 km naridagi *Dekeleya* qishlog‘ini bosib oldilar.

**Mil. avv. 403-yil** – *Frasibul* Afinada demokratiyani qayta tikladi.

**Mil. avv. 394-yil** – Olimpiya zilzila oqibatida vayron bo‘lishi oqibatida Olimpiada o‘yinlari o‘tkazilmay qoldi.

**Mil. avv. 359-yil** – Makedoniya taxtini *Filipp II* egalladi.

**Mil. avv. 356-yil** – Aleksandr Makedonskiy (*Iskandar Zulqarnayn*) tug‘ilgan.

**Mil. avv. 338-yil 2-avgust** – Makedoniya qo‘shinlari Beotiyaga bostirib kirib, Xeroniya shahri yaqinida yunon ittifoqi qo‘shini bilan Makedoniya askarlari o‘rtasida shiddatli jang bo‘lgan. *Filipp II* ning 18 yoshli o‘g‘li *Aleksandr* askarlarining jangga kirishi urush oqibatini makedoniyaliklar foydasiga hal qiladi. Yunoniston Makedoniyaga boysundirildi va Yunonistonda Makedoniya hokimiyati o‘rnatildi.

**Mil. avv. 337-yil** – Spartadan tashqari barcha yunon shahar-davlatlari *Korinfga* yig‘ildilar va Makedoniya hokimiyati ostida yunon davlatlari ittifoqini tuzadilar. Ular murosada tinch yashash, o‘zaro urushlar olib bormastlik va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik to‘g‘risida shartlashadilar. Barcha ittiloflarni yunon shahar-davlatlari ittifoqi hal etishi lozimligi nazarda tutilgan edi. *Filipp II* Eronga qarshi yurish maqsadida yunonlar va makedonlar harbiy ittifoqini tuzishni taklif qildi.

**Mil. avv. 336-yil** – *Filipp II* o‘z qizining nikoh to‘yi vaqtida fitnachilar tomonidan o‘ldirildi.

**Mil. avv. 336-yil** – *Aleksandr Makedonskiy*ning Makedoniya taxtiga o‘tirishi.

**Mil. avv. 336–334-yillar** – Aleksandr Makedonskiy Makedoniyaga tutash bo‘lgan davlatlarni va Yunonistonni o‘ziga bo‘ysundiradi.

**Mil. avv. 335-yil** – Aleksandr Makedonskiy Illiriya va Frakiyani o‘ziga itoat ettiradi. Iskandar Makedoniyaga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan Fiva ustiga yurish qilib, shaharni vayron qiladi, boshqalarga namuna bo‘lsin deb uning aholisini qul qilib sotirib yuboradi.

**Mil. avv. 334–325-yillar** – Aleksandr Makedonskiy Sharqqa yurish qilib ko‘p davlatlarni zabt etadi.

**Mil. avv. 334-yil** – Aleksandr Makedonskiy *Granik daryosi bo‘yida* Eron qo‘shinlari ustidan dastlabki g‘alabasiga erishdi. Granik g‘alabasidan so‘ng Iskandar qo‘shinlari Kichik Osiyo sohili bo‘ylab janub tomon yuradilar. Sohildagi ko‘p shahar va qishloqlar, shuningdek, Milet ham bosib olinadi.

**Mil. avv. 333-yil** – Aleksandr Makedonskiy Kichik Osiyoning o‘rtasidagi *Kappidoniya* viloyatini ishg‘ol qildi. Eron qo‘shinlarining *Kappidoniya* tomon kelayotganidan xabar topgan Iskandar o‘z qo‘shinlarini *Kilikiyaga* olib o‘tib, *Tars* shaharchasini ishg‘ol qiladi.

**Mil. avv. 333-yil** – Eron va makedon qo‘shinlari *Kilikiyaning Iss* shahri yaqinida to‘qnashadilar, bu jang Iskandarning g‘alabasi bilan tugaydi.

**Mil. avv. 332-yil** – Aleksandr Makedonskiy Misrni zabt etdi. U Misr fir‘avni deb e‘lon qilindi.

**Mil. avv. 323-yil** – Aleksandr Makedonskiy Bobilda bezgakdan vafot etdi.

**Mil. avv. 331-yil** – Aleksandr Makedonskiy Mesopotamiyaga qo‘shin tortadi.

**Mil. avv. 331-yil** – Aleksandr Makedonskiy *Gavgamel jangida* Doro III ni mag‘lubiyatga uchratishi.

**Mil. avv. 330-yil** – Eron shohligi barham topadi.

**Mil. avv. 329-yil** – Aleksandr Makedonskiy *Navtakada Bessni* qo‘lga tushirib qatl ettiradi.

**Mil. avv. 329–327-yillar** – Aleksandr Makedonskiy Turonda qonli urushlar olib boradi.

**Mil. avv. 327-yil** – Aleksandr Makedonskiy Hindistonga kirib boradi.

**Mil. avv. 325-yil** – Aleksandr Makedonskiy Bobilga qaytadi.

**Mil. avv. 525–456-yillar** – “Tragediya otasi” *Esxil* yashab ijod etgan.

**Mil. avv. 492–449-yillar** – Yunon-Eron urushlari.

**Mil. avv. 496–406-yillar** – 120 dan ortiq tragediya muallifi *Sofokl* yashab ijod etgan.

**Mil. avv. 480–388-yillar** – “*Komediya otasi*” Aristofan yashab ijod etgan.

**Mil. avv. 490–424-yillar** – “*Tarix otasi*” Gerodot yashab ijod etgan.

**Mil. avv. 477–455-yillar** – Gerodot Misr, Bobil, Suriya, Kichik Osiyo va Qora dengiz sohil-laridagi mamlakatlarga sayohat qilgan.

**Mil. avv. 471-yil** – *Suqrot* tavallud topgan.

**Mil. avv. 470–400-yillar** – yunon tarixchisi *Fukidid* yashab ijod etgan.

**Mil. avv. 460–370-yillar** – *Demokrit* yashab ijod etgan.

**Mil. avv. 460–375-yillar** – Sharq dunyosida

*Buqrot* nomi bilan mashhur bo‘lgan Gippokratning yashab ijod etgan davri.

**Mil. avv. 450–388-yillar** – Aristofan yashab ijod etgan.

**Mil. avv. 384–322-yillar** – Sharq dunyosida “*muallimi avval*” – “*birinchi muallim*” nomi bilan mashhur bo‘lgan Aristotel (Arastu)ning yashab ijod etgan davri.

**1870-yil** – nemis olimi *Genrix Shlimann* Turkiyadagi *Xisorlik* shahri hududida qazishma ishlarini boshlab yubordi va Troya qoldiqlarini topdi.

**1896-yil** – *Olimpiyada* o‘yinlari qayta tiklandi.

**1953-yil** – ingliz olimlari *Ventris* va *Chadviklar* qadimgi kriptiklarning chiziqli “B” yozuvini o‘qishga muvaffaq bo‘ldilar.

## TESTLAR

### QADIMGI YUNONISTON

**1. Qadimgi yunonlar Bolqon yarimoroli va O‘rtayer dengizi orollaridagi qadimgi mamlakatni nima deb atashgan?**

- A) Ellada
- B) Italiya
- S) Mesopotamiya
- D) Troya

**2. Qadimda kimlar o‘zlarini ellinlar deb atashgan?**

- A) midiyaliklar
- B) misrliklar
- S) forslar
- D) yunonlar

**3. Ellada bu ...**

A) Qadimgi Sharqda yunonlar mamlakatining nomlanishi

B) Qadimgi Yunonistonning forslar tomonidan nomlanishi

S) Qadimgi Mesopotamiyaning yunonlar tomonidan nomlanishi

D) Qadimgi Yunonistonning yunonlar tomonidan nomlanishi

**4. Qadimgi Yunonistonda ilk shahar-davlatlar qaysi davrda vujudga kela boshladi?**

- A) mil. avv. 1-mingyillik
- B) mil. avv. 2-mingyillik
- S) mil. avv. 3-mingyillik
- D) mil. avv. 4-mingyillik boshi

**5. Qadimgi Yunonistondagi ilk shahar-davlatlarni belgilang.**

1) Knoss; 2) Lagash; 3) Mikena; 4) Pilos; 5) Umma; 6) Tirinf; 7) Eredu; 8) Larsa.

- A) 3, 4, 6, 7, 8
- B) 2, 3, 5, 6
- S) 1, 2, 3, 7, 8

D) 1, 3, 4, 6

**6. Mil. avv. 2-mingyillikda Qadimgi Yunonistonda...**

A) qudratli davlat barpo etildi

B) Finikiya alifbosi asosida yangi yozuv vujudga keldi

S) ilk shahar-davlatlar vujudga kela boshladi

D) dehqonchilik manzilgozlari paydo bo‘la boshladi

**7. Yunonistondagi ilk Minoy sivilizatsiyasi qayerda vujudga keldi?**

- A) Krit orolida
- B) Spartada
- S) Mikenda
- D) Attikada

**8. Knoss shahar-davlati Qadimgi Yunonistonning qaysi hududida joylashgan?**

- A) Peloponnes yarimorolida
- B) Krit orolida
- S) Attikada
- D) Troyada

**9. Minoy sivilizatsiyasining dastlabki vayron bo‘lishi qay tarzda yuz bergan?**

A) ossurlarning bostirib kirishi natijasida

B) mikena qabilasining bostirib kirishi natijasida

S) kuchli zilzila va suv toshqiniga sabab bo‘lgan vulqon otilishi oqibatida

D) finikiyaliklarning hujumi natijasida

**10. Qachon Krit oroliga Yunoniston hududidan mikena qabilalari bostirib kirdi?**

- A) mil. avv. 1540-yillarda
- B) mil. avv. II mingyillik boshida
- S) mil. avv. 1450-yillarda
- D) mil. avv. 3-mingyillik oxirlarida

**11. Qadimda kimlar Minoy (Krit) sivilizatsiyasini vayronaga aylantirdilar?**

- A) axeylar
- B) forslar
- S) finikiyaliklar
- D) doriylar

**12. Axeylar kimlar?**

- A) Krit orolining tub aholisi
- B) Qadimgi Yunoniston hududidagi mikena qabilalarining muqim aholisi
- S) Krit oroli tub aholisining yunonlar tomonidan nomlanishi
- D) Kichik Osiyodagi qadimgi qabila

**13. Qadimgi yunonlar orasida dengizchilik rivoj topishiga imkon yaratgan omillarni aniqlang.**

- A) hunarmandchilik va temirsozlikni rivoj topganligi
- B) yunonlarning ko'pchiligini dengiz sayyohlari bo'lganligi
- S) yunon kemasozligini rivoj topganligi
- D) Egey dengizidagi ko'p sonli katta-kichik orollar, qulay gavanlar va buxtalarning mavjudligi

**14. Qadimgi yunonlar Yer yuzining odamlar yashaydigan qismini nima deb atashgan?**

- A) Koloniya
- B) Nekropol
- S) Oykumena
- D) Forum

**15. Mil. avv. 1200-yilda kimlar Miken davlatini vayronaga aylantirdilar?**

- A) doriylar
- B) forslar
- S) finikiyaliklar
- D) axeylar

**16. Qadimgi Miken davlati doriylar tomonidan qachon vayron etilgan?**

- A) mil. avv. 1200-yil
- B) mil. avv. 1450-yil
- S) mil. avv. 960-yil
- D) mil. avv. 1300-yil

**17. Mil. avv. IX–VII asrlarda Qadimgi Yunonistonda ...**

- A) "Akropol"ga asos solindi
- B) dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topishi bilan manzilgohlar va shaharlar soni ortib bordi
- S) Lakonika hududiga ko'chmanchi doriylar qabilasi bostirib kira boshladi
- D) kichik-kichik quldorlik davlatlari vujudga kelib, ravnaq topdi

**18. Mil. avv. IX–VII asrlarda Qadimgi Yunonistondagi shaharlar va ularning tevaragidagi joylashgan qishloqlar ... vujudga keltirardi.**

- A) sivilizatsiyalashgan shaharni

- B) davlatni
- S) polislarni
- D) koloniyalarni

**19. Qadimgi Yunonistonda vujudga kelgan har bir shahar-davlatlar nima deb atalgan?**

- A) akropol
- B) nom
- S) polis
- D) koloniya

**20. Yunoncha "shahar" ma'nosini anglatadigan atamani belgilang.**

- A) koloniya
- B) nom
- S) akropol
- D) polis

**21. Qadimgi yunonlarda "polis" atamasi qanday ma'noni anglatgan?**

- A) shahar-davlat
- B) davlat
- S) qishloq
- D) o'z yurtini tark etgan odamlar tomonidan yangi yerlarda asos solingan manzilgoh va shaharlar

**22. Qadimgi yunon armiyalarining og'ir qurollangan piyoda jangchisi nima deb atalgan?**

- A) argonavt
- B) falanga
- S) ellin
- D) goplit

**23. Qadimgi yunon armiyasining og'ir qurollangan askarlari qay tarzda jang qilishgan?**

- A) uchburchak shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga tiqilib olgan qatorlar bilan
- B) bir qator uzun tizilish ostida
- S) aylana shaklida dushman safini o'rab olish bilan
- D) to'rtburchak shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga tiqilib olgan qatorlar bilan

**24. Qadimgi Yunoniston armiyasining asosini nima tashkil qilgan?**

- A) goplit
- B) otliq qo'shin
- S) kamonchilar
- D) nayzabardorlar

**25. Qadimgi Yunoniston armiyasida goplitlarning saf tortishi qanday nom bilan atalgan?**

- A) strateg
- B) goplit
- S) falanga
- D) agema

**26. Qadimgi Attika viloyati qaysi hududda joylashgan edi?**

- A) Krit orolida
- B) Peloponnes yarimorolida

- S) Shimoliy Yunonistonning janubida  
D) O'rta Yunonistonning janubi sharqiy qismida
- 27. Quyidagi qaysi qatorda falanga atamasining izohi berilgan?**  
A) xalq yig'ilish joyi, markaziy maydon  
B) og'ir qurollangan askarlarning bir necha, odatda 9 yoki 16 sherengada saf tortishi  
S) armiyaning og'ir qurollangan piyoda jangchisi  
D) og'ir qurollangan askarlarning bir necha, odatda 9 yoki 16 sherengada saf tortishi va goplitlarining to'rtburchak shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga tiqilib olgan qatorlar bilan saf tortishi
- 28. Mil. avv. 2-mingyillikda Attikaning g'arbiy qismida ...**  
A) doriylar hujumi boshlandi  
B) yunonlar "Akropol"ni bunyod qildilar  
S) qudratli davlat vujudga keldi  
D) dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topishi bilan manzilgohlar va shaharlar soni ham ortib bordi
- 29. Quyidagi qaysi qatordagi termin "Yuqori shahar" degan ma'noni anglatadi?**  
A) koloniya  
B) falanga  
S) akropol  
D) metek
- 30. Afina shahri qachon vujudga kelgan?**  
A) mil. avv. 3-mingyillik oxiri  
B) mil. avv. 2-mingyillik  
S) mil. avv. 1-mingyillik  
D) mil. avv. 1-mingyillik o'rtalari
- 31. Qadimgi yunon shaharlari ichidagi eng yiriklarini aniqlang.**  
A) Xersones va Pantikapey  
B) Tanais va Fasis  
S) Trapezund va Xersones  
D) Afina va Sparta
- 32. Quyidagi qaysi qal'aning qurilishi natijasida Afina shahri vujudga keldi?**  
A) Kapitoliy  
B) Akveduk  
S) Ellada  
D) Akropol
- 33. Attika aholisining bir qismini tashkil etuvchi meteklar bu ...**  
A) ajnabiylar  
B) qullar  
S) fuqarolar  
D) amaldorlar
- 34. Qadimgi Yunonistonda kimlar Afina fuqarosi bo'la olgan?**  
A) faqatgina harbiy ilmdan xabardor bo'lgan erkaklar  
B) aqli raso barcha Afinada yashovchi aholi

- S) aqli raso barcha Afinada yashovchi erkaklar  
D) otasi va onasi ozod afinalik bo'lgan erkaklar
- 35. Qachondan boshlab Afina fuqarolari uchun davlat organlarida ishlashga muayyan haq to'lana boshlandi?**  
A) mil. avv. VII asrdan  
B) mil. avv. IV asrdan  
S) mil. avv. V asrdan  
D) mil. avv. IX asrdan
- 36. Qadimgi Afina aholisining qaysi guruhi barcha huquqlardan foydalanib, og'ir mehnat va salomatlikka zarar yetkazuvchi ishlardan ozod qilingan edilar?**  
A) meteklar  
B) fuqarolar  
S) quldorlar  
D) amaldorlar
- 37. Qadimgi Afinaning asosiy portiga aylangan Pirey bandargohi o'zining nimasi bilan mashhur edi?**  
A) qul savdosi bilan  
B) xilma-xil gazlamalar savdosi bilan  
S) qayiqsozlikning rivojlanganligi bilan  
D) yirik savdo markazi bilan
- 38. Afina dengiz ittifoqi g'aznasi qaysi shaharda joylashgan edi?**  
A) Afina  
B) Korinf  
S) Agros  
D) Epis
- 39. "Pedagog" so'zi qaysi tildan olingan va u qanday ma'noni anglatadi?**  
A) lotincha, "ilm o'rgatuvchi"  
B) yunoncha, "o'qituvchi"  
S) lotincha, "bolani yo'lda kuzatib boruvchi"  
D) yunoncha, "bolani yo'lda kuzatib boruvchi"
- 40. Qadimgi Afinada bolalarga necha yoshdan boshlab yozuv va hisob o'rgatilgan?**  
A) yetti yoshdan  
B) sakkiz yoshdan  
S) to'qqiz yoshdan  
D) olti yoshdan
- 41. Stil bu ...**  
A) yozish uchun ishlatiladigan mum surtilgan taxtacha  
B) davlatga oid hujjatlar saqlanadigan joy  
S) gimnastikani o'rgatuvchi maxsus maktab  
D) mum surkalgan taxtachalarga harflarni yozishda ishlatiladigan metal tayoqcha
- 42. Qadimgi Yunoniston hududini qaysi dengiz o'rab turgan?**  
A) Egey dengizi  
B) O'rtayer dengizi  
S) Ioniya dengizi

- D) Qizil dengiz
- 43. Afinada puldor ota-onalarning farzandlari qayerda tahsilni davom ettirishardi?**
- A) oykumenalarda  
B) forumlarda  
S) nekropollarda  
D) palestrlarda
- 44. Qadimgi Afinada o'g'il bolalar necha yoshdan boshlab gimnastika bilan shug'ullanardilar?**
- A) 14 yoshdan  
B) 12 yoshdan  
S) 15 yoshdan  
D) 16 yoshdan
- 45. Dunyo tarixida qaysi xalq qadimdan boshlab dastlab gimnastika ilmidan xabardor bo'lgan va bolalarini gimnastika mashg'ulotlari bilan shug'ullantirgan?**
- A) xitoylar  
B) yunonlar  
S) misrliklar  
D) forslar
- 46. Ma'lumki, Afinadagi palestrlarda mashhur haykaltaroshlar ishlagan haykallar turgan. Ushbu haykallar vositasida yigit kishi qanday bo'lishi kerakligi uqtirilgan?**
- A) faqatgina haykaldagi siymo timsolidek jismonan barkamol bo'lishi  
B) mavjud haykalga mos ravishda kuchli va baquvvat bo'lishi  
S) kuchli, jismonan barkamol va o'z vatani himoyasiga shay turishi  
D) mazkur haykaldek baquvvat bo'lishga zid ravishda ma'naviy barkamol bo'lish
- 47. Ma'lumki, Afinada oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari ham bo'lgan. U yerda ta'lim olish muddati necha yil davom etgan?**
- A) 5-6 yil  
B) 2-3 yil  
S) 4-5 yil  
D) 3-4 yil
- 48. Mil. avv. XII asrda Janubiy Yunoniston hududiga qaysi qabila bostirib kirdi?**
- A) doriylar  
B) axeylar  
S) forslar  
D) xetlar
- 49. Palestrlarda qaysi mashhur haykalta-roshlarning ishlagan haykallari turgan?**
- A) Polikrit va Aristofan  
B) Miron va Sofokl  
S) Sofokl va Aristofan  
D) Miron va Poliklet
- 50. Qachon Sparta davlatiga asos solindi?**
- A) mil. avv. 2-mingyillikda  
B) mil. avv. XII asrda  
S) mil. avv. VIII asrda  
D) mil. avv. IX asrda
- 51. Sparta davlati qaysi viloyat tarkibiga kirgan?**
- A) Beotiya  
B) Messaniya  
S) Lakonika  
D) Attika
- 52. Qachon doriylar tomonidan Messaniya bo'ysundirildi?**
- A) mil. avv. VII asrda  
B) mil. avv. IX asrda  
S) mil. avv. XII asrda  
D) mil. avv. VIII asrda
- 53. Qaysi davrda Sparta eng yirik yunon davlatlaridan biriga aylandi?**
- A) mil. avv. VIII asrda  
B) mil. avv. IX asrda  
S) mil. avv. XII asrda  
D) mil. avv. VII asrda
- 54. Ilotlar kimlar?**
- A) Apennin yarimorolining shimoli sharqida yashagan qabila  
B) doriylar tomonidan itoat ettirilib, qulga aylantirilgan yerli xalq  
S) Janubi sharqiy Yevropada yashagan qadimgi ko'chmanchi qabilalar  
D) doriylarning bosib olingan hudud aholisi tomonidan nomlanishi
- 55. Ajnabiylar Spartada qanday mavqega ega edi?**
- A) Spartada ajnabiylar faqat qul qilinardi  
B) barcha ajnabiylar Sparta fuqarosi bo'lishi mumkin edi  
S) ajnabiylar Sparta kiritilmagan  
D) Spartada ajnabiylar eng quyi mansabga tayinlanar edi
- 56. Sparta madaniyatining sustlashishiga qanday omil o'z ta'sirini o'tkazdi?**
- A) doimiy ilotlarning qo'zg'oloni  
B) axeylarning doimiy hujumi  
S) spartaliklarning doimiy bosqinchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lganligi  
D) yalpi harbiy tayyorgarlik
- 57. Spartada kimlar faqatgina harbiy ishlar bilan shug'ullanganlar?**
- A) ajnabiylar  
B) ilotlar  
S) periyeklar  
D) doriylar

**58. Spartada to'la-to'kis huquqlarga ega bo'lmagan fuqarolar qanday nomlangan?**

- A) meteklar va ajnabiylar
- B) ilotlar va periyeklar
- S) patriksiylar va plebiylar
- D) italiklar va lotinlar

**59. Qadimgi Spartada qaysi aholi butun boshli davlatning mulki hisoblangan?**

- A) meteklar
- B) plebeylar
- S) patriksiylar
- D) ilotlar

**60. Qadimgi Spartada ayollarning roli qanday edi?**

A) ayollar ham jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga majbur qilingan

B) ayollar faqatgina yerga ishlov berar, chorvani boqar va uy-yumushlari bilan mashg'ul edi

S) ayollar jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmasa-da, erkaklar uchun kerakli bo'lgan qurol-aslahalarni yetkazib berib turardi

D) ayollar xalq kengashida ishtirok etish huquqiga ega edi

**61. Ma'lumki, Qadimgi Yunonistonda o'z vatanini tark etib, o'zga yurtga ko'chib ketadiganlar paydo bo'la boshladi. Dastlab kimlar Yunonistonda ketib o'zga yurtga borib o'rnatildilar?**

A) surgun qilinganlar

B) zodagonlardan qarzdor bo'lib qolgan, o'z yer va mulkiga ega bo'lmagan ko'plab kishilar va boshpanasiz yupun va och odamlar

S) o'zga yerni bosib olish maqsadida harbiy amaldorlar va ularning qo'shini

D) o'zga hududda yangidan hayot boshlayman degan yirik boylar

**62. Ma'lumki, yunonlar o'z vatanini tark etib, o'zga yurtlarda o'zlari uchun manzilgohlar barpo etadilar. Bu manzilgohlar nima deb atalgan?**

- A) oykumena
- B) mustamlaka
- S) koloniya
- D) metropoliya

**63. Varvarlar kimlar?**

A) yangi koloniyalar tashkil etgan yunonlar o'zlarini shunday nomlashgan

B) O'rtayer dengizi sohillarida yashagan qadimgi qabilalardan biri

S) Qadimgi Yunonistonda yashagan qabilalardan biri

D) yunon tilida so'zlashmaydigan har qanday chet mamlakatlik kishilar

**64. Yunonlar o'z manzilgohlari tevaragida**

**yashovchi yunon bo'lmagan xalqlarni qanday nom bilan atashardi?**

- A) periyeklar
- B) keltlar
- S) lulubeylar
- D) varvarlar

**65. Koloniya bu — ...**

A) kuchli davlat tomonidan bosib, itoat ettirilgan ma'lum bir hudud

B) Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

S) o'z yurtini tark etgan odamlar tomonidan yangi yerlarda asos solingan manzilgoh va shaharlar

D) bosib olingan hududlarga ega bo'lgan davlat

**66. Buyuk yunon koloniyalashtirishi qaysi davrni o'z ichiga oladi?**

A) mil. avv. VII—VI asrlar

B) mil. avv. IX—VII asrlar

S) mil. avv. VI—IV asrlar

D) mil. avv. IV—III asrlar

**67. Buyuk yunon koloniyalashtirishi davrida yunonlarning Qora dengiz sohillarida barpo etgan koloniyalarini belgilang.**

1) Olviya; 2) Fokeya; 3) Xersones; 4) Rodos; 5) Pantikapey; 6) Tanais; 7) Fasis; 8) Trapezund

A) 2, 3, 5, 6, 8

B) 1, 4, 6, 7, 8

S) 1, 2, 4, 6, 7, 8

D) 1, 3, 5, 6, 7, 8

**68. Qaysi davrda Yunonistonda 24 harfdan iborat bo'lgan alifbo vujudga keldi?**

A) mil. avv. VI asrda

B) mil. avv. VII asrda

S) mil. avv. IX asrda

D) mil. avv. VIII asrda

**69. Yunonlarning 24 harfdan iborat alifbosi qaysi yozuv asosida vujudga kelgan edi?**

A) Shumer mixxati

B) Misr iyerogliflari

S) Finikiya alifbosi

D) Suriya yozuvi

**70. Mil. avv. VIII—VI asrlarda Yunonistonda ...**

A) forslar hukmronligi davom etdi

B) Buyuk yunon koloniyalashtirishi davri va kichik-kichik quldorlik davlatlari vujudga kela boshladi

S) Buyuk yunon koloniyalashtirishi davri bo'ldi

D) kichik-kichik quldorlik davlatlari vujudga kela boshladi

**71. Qadimgi Yunonistonda kichik-kichik quldorlik davlatlari vujudga kela boshlashi qaysi asrlarda ro'y berdi?**

A) mil. avv. VIII—VI asrlarda

- B) mil. avv. IX–VIII asrlarda  
 S) mil. avv. X–VIII asrlarda  
 D) mil. avv. VI–IV asrlarda
- 72. Ma'lumki, mil. avv. VIII–VI asrlarda Yunonistonda kichik-kichik quldorlik davlatlari vujudga kela boshlagan, ular qariyb yuzta bo'lgan. Ularning orasida eng katta davlat berilgan qatorni ko'rsating.**
- A) Afina  
 B) Sparta  
 S) Korinf  
 D) Epis
- 73. Agora nima?**
- A) ustida shaharga suv keladigan anhuri bo'lgan baland ko'prik  
 B) Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq yig'ilishi joyi, markaziy maydon  
 S) qabriston; maqbara  
 D) Yunonistondagi kichik-kichik davlatlarning umumiy nomi
- 74. Ma'lumki, Afina shahrida markaziy maydon bo'lib, uning tevaragini turli-tuman imoratlar qurshab turar edi. Ushbu markaziy maydon qanday nom bilan yuritilgan?**
- A) akropol  
 B) agema  
 S) agora  
 D) forum
- 75. Quyidagi qaysi atama Qadimgi Afina xalqini umumiy nom bilan izohlaydi?**
- A) ellin  
 B) strateg  
 S) metek  
 D) "demos"
- 76. "Demokratiya" atamasining ma'nosi nima?**
- A) konstitutiaviy hokimiyat  
 B) xalq yig'ilishi  
 S) aslzodalar hokimiyati  
 D) xalq hokimiyati
- 77. Ma'lumki, Afinada erkak fuqarolar oyiga to'rt marta yig'ilib, yuzaga kelgan muammolar va yangi qonunlarni muhokama qilishgan. Afina fuqarolari qayerda yig'ilib o'z muhokamalarini hal qilishgan?**
- A) forumda  
 B) agorada  
 S) akropolda  
 D) senatda
- 78. Ma'lumki, Afinada barcha qarorlar erkak fuqarolarning ovoz berishi yo'li bilan qabul qilingan. Davlat boshqaruvining bu shakli nima deb ataladi?**
- A) konstitutsion monarxiya  
 B) monarxiya  
 S) demokratiya  
 D) aristokratiya
- 79. Mil. avv. 621-yilda ...**
- A) Afinada Solon demokratiya hokimiyatini o'rnatdi  
 B) skiflar Kichik Osiyoga bostirib kirdi  
 S) dastlab Bobil, so'ngra Midiya Ossuriya podshohligidan ajralib chiqdi  
 D) Afinada Drakont qonunlari amalga kiritildi
- 80. Jahon tarixida qanday qonunga "siyoh qolib, qon bilan yozilgan" deya ta'rif berilgan?**
- A) Doro I qonunlariga  
 B) Solon qonuniga  
 S) Xammurapi qonuniga  
 D) Drakont qonuniga
- 81. Ma'lumki, Afinada zodagonlar va xalq o'rtasida kelishmovchiliklar va nizo bo'lgan bir paytda hukmdor Drakont huquq va majburiyatlar borasida hammani tenglashtiruvchi qonun loyihasini tuzdi. Ushbu qonun nechanchi yilda amalga kiritildi.**
- A) mil. avv. 720-yil  
 B) mil. avv. 621-yil  
 S) mil. avv. 594-yil  
 D) mil. avv. 443-yil
- 82. Qadimgi Afinada joriy etilgan Drakont qonunlariga ko'ra, o'zga kishining bog'idan olma o'g'ir-lagan odam uchun qanday jazo berilgan?**
- A) jazo jabrlanuvchining xohishiga qarab bel-gilangan  
 B) qo'lini kesib tashlash jazosi  
 S) umrbod zindon jazosi  
 D) o'lim jazosi
- 83. Aristokratiya bu ...**
- A) yakka hokimlik  
 B) eng yaxshi odamlar hokimiyati  
 S) xalq hokimiyati  
 D) xalq yig'ilishi
- 84. Nechanchi yilda zodagonlardan bo'lgan Solon Afina arxonti (hokimi) etib saylandi?**
- A) mil. avv. 594-yil  
 B) mil. avv. 621-yil  
 S) mil. avv. 443-yil  
 D) mil. avv. 549-yil
- 85. Ma'lumki, mil. avv. 594-yilda Afina hokimi Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o'zgartirdi. U qanday ishni amalga oshirdi?**
- A) avvalgi boshqaruv tizimi – demokratiyani monarxiyaga almashtirdi  
 B) avvalgi boshqaruv tizimi – monarxiya (yak-kahokimlik)ni demokratiyaga almashtirdi



S) avvalgi boshqaruv tizimi – demokratiyani aristokratiyaga almashtirdi

D) avvalgi boshqaruv tizimi – aristokratiyani demokratiyaga almashtirdi

**86. Afinada Solon islohatlari asosan qanday masalalarga qaratilgan edi?**

A) davlat boshqaruvi va jangovar kuchni oshirish

B) qullikni bekor qilish hamda davlat boshqaruvi

S) dehqonlar qarzlari va davlat boshqaruvi

D) dehqonlar qarzlari va qarzdorlikdan qullikni bekor qilish hamda davlat boshqaruvi

**87. Qachondan boshlab Attika aholisi ikki guruhga: fuqarolar va qullarga ajratiladigan bo'ldi?**

A) mil. avv. V asrdan

B) mil. avv. VI asrdan

S) mil. avv. VII asrdan

D) mil. avv. IV asrdan

**88. Ma'lumki, Attika aholisi uch katta guruh: qullar, ajnabiylar (meteklar) va fuqarolarga bo'lingan edi. Ammo mil. avv. VI asrga kelib aholi ikki guruh: fuqarolar va qullarga ajratiladigan bo'ldi. Nimaning natijasida bunday o'zgarish sodir bo'ldi?**

A) Drakont qonunlari natijasida

B) mamlakatda aslzodalar hokimiyatining o'rnatilishi natijasida

S) Solon islohatlari natijasida

D) mamlakatda demokratiyaning o'rnatilishi natijasida

**89. Afinada erkak jinsiga mansub barcha fuqarolar necha yoshdan boshlab Xalq majlisida ishtirok etardilar?**

A) 19 yoshdan

B) 20 yoshdan

S) 18 yoshdan

D) 21 yoshdan

**90. Qadimgi Afinada qanday organ kundalik joriy masalalarni hal qilardi?**

A) Beshyuzlar kengashi

B) Xalq majlisi

S) Xalq sudi

D) Senat

**91. Quyidagi qaysi organga strateg rahbarlik qilgan?**

A) Senat

B) Xalq yig'ilishi

S) Xalq sudi

D) Beshyuzlar kengashi

**92. Strateg bu – ...**

A) Afinaning harbiy boshlig'i

B) Afinaning oddiy aholisi

S) og'ir qurollangan piyoda jangchi

D) Afinada Xalq majlisining a'zosi

**93. Ma'lumki, Afinada har yili saylanadigan Beshyuzlar kengashi kundalik joriy masalalarni hal qilardi. Bu kengashning rahbari nima deb atalgan?**

A) strateg

B) pilot

S) demos

D) legion

**94. Afinada necha yoshga to'lgan fuqarolar Xalq sudi faoliyatida ishtirok etar edilar?**

A) 70 yoshga

B) 40 yoshga

S) 50 yoshga

D) 60 yoshga

**95. Afinada Perikl hukmronligi – “Perikl asri” nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?**

A) mil. avv. 443–429-yillar

B) mil. avv. 594–573-yillar

S) mil. avv. 443–435-yillar

D) mil. avv. 435–421-yillar

**96. Kimning hukmronligi davrida Afinada demokratiya ravnaq topdi?**

A) Miltiad

B) Drakont

S) Solon

D) Perikl

**97. Afinada kimning hukmronligi davrida Akropoldagi Parfenon – iloha Afina ibodatxonasi qurildi?**

A) Drakont

B) Perikl

S) Solon

D) Miltiad

**98. Afinadagi mashhur Parfenon ibodatxonasi qachon qurilgan?**

A) mil. avv. IV asrda

B) mil. avv. VI asrda

S) mil. avv. V asrda

D) mil. avv. III asrda

**99. Kimning davrida Afinada Xalq majlisidagi lavozimlarga ish haqi to'lash joriy qilindi?**

A) Solon

B) Drakont

S) Miltiad

D) Perikl

**100. Quyidagi qaysi ishlar Afinada Perikl hukmronligi davrida amalga oshirilgan?**

1) huquq va majburiyatlar borasida hammani tenglashtiruvchi qonunlar tuzildi

2) Xalq majlisidagi lavozimlarga ish haqi to'lash joriy qilindi

3) Akropoldagi Parfenon ibodatxonasi qurildi

4) avvalgi boshqaruv tizimi – aristokratiya demokratiyaga almashtirildi

5) Xalq majlisi faoliyati tiklandi

6) Afinadan to Pirey dengiz portigacha mudofaa devorlari qurish to'g'risida buyruq berildi

A) 3, 5, 6

B) 1, 2, 4, 5

S) 2, 3, 5

D) 2, 3, 6

**101. Ma'lumki, mil. avv. V asrda forslar va yunonlar o'rtasida urush uzoq davom etgan. Bu yunon-fors urushi nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?**

A) mil. avv. 480–449-yillar

B) mil. avv. 480–465-yillar

S) mil. avv. 478–449-yillar

D) mil. avv. 490–449-yillar

**102. Mil. avv. V asrda yuz bergan Yunon-Eron urushi necha yil davom etdi?**

A) 29 yil

B) 15 yil

S) 47 yil

D) 41 yil

**103. Quyidagi qaysi voqea mil. avv. VI asr oxirida yuz bergan?**

A) yunonlar Kichik Osiyodagi Troyaga yurish qilishdi

B) Yunonistonda Finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv vujudga keldi

S) forslar shohlari Kichik Osiyodagi yunon polislarini bosib oldilar

D) saklar, xorazmiylar va massagetlar Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqib mustaqil bo'ldilar

**104. Jahon tarixida bo'lib o'tgan mashhur Marafon jangi qaysi xalqlar o'rtasida yuz bergan edi?**

A) forslar va saklar o'rtasida

B) forslar va yunonlar o'rtasida

S) misrliklar va forslar o'rtasida

D) misrliklar va xetlar o'rtasida

**105. Ma'lumki, mil. avv. 490-yil yunonlar va forslar o'rtasida bo'lib o'tgan jang yunonlar g'alabasi bilan tugadi. Bu jang jahon tarixida qanday nom bilan mashhur?**

A) Marafon jangi

B) Pelusiya jangi

S) Fermopil jangi

D) Salamin jangi

**106. Quyidagi qaysi jang mil. avv. V asrda uzoq vaqt davom etgan yunon-fors urushining dastlabki jangi hisoblanadi?**

A) Pelusiya jangi

B) Gavgamel jangi

S) Fermopil jangi

D) Marafon jangi

**107. Yunonlar va forslar o'rtasida yuz bergan Marafon jangida yunon qo'shinlariga kim sarkardalik qilgan?**

A) Miltiad

B) Mardoniy

S) Datis

D) Perikl

**108. Bugungi kunimizda sport musobaqasida "Marafon yugurishi" o'ziga xos o'rin egallagan. Quyidagi qaysi tarixda yuz bergan voqea "Marafon yugurishi" ning kelib chiqishiga zamin yaratgan?**

A) Marafon jangida mag'lubiyatga uchragan forslar qo'shinlari chekinish uchun 42 kilometr masofani yugurib bosib o'tishdi

B) Marafon jangidagi g'alabani Afinaga yetkazish uchun yugurib 42 kilometrni bosib o'tgan yunon jangchisi manziliga yetdi-da, "g'alaba!, g'alaba!" deya hayqirib, nafasi yetmasdan o'lar holatda yiqilib tushdi

S) Marafon jangidagi g'alabani Doro I huzuriga yetkazish uchun yugurib 42 kilometrni bosib o'tgan forslar jangchisi manziliga yetdi-da, "g'alaba!", "g'alaba!" deya hayqirib, nafasi yetmasdan o'lar holatda yiqilib tushdi

D) Marafon jangida har ikki taraf – yunon va forslar qo'shinlarining bir-biriga uzoq masofadan yugurib tashlanishi natijasida jang boshlandi

**109. Eronda kimning hukmronligi davrida jahon tarixidagi yunon-fors urushi boshlandi?**

A) Kir II

B) Kserks

S) Doro I

D) Artakserks

**110. Jahon tarixida bir yil davomida bo'lib o'tgan janglarni ko'rsating.**

A) Qarqara va Pelusiya janglari

B) Iss va Gavgamel janglari

S) Marafon va Plateya janglari

D) Fermopil va Salamin janglari

**111. Yunon-Eron urushi tarkibidagi Marafon jangidan 10 yil o'tgandan so'ng – ...**

1) Fermopil jangi bolib o'tdi; 2) Plateya shahri yaqinida yunonlar tomonidan forslar qo'shini tormor keltirildi; 3) Ahamoniylar davlatida Kserks hukmronligi boshlandi; 4) Misrda eroniylarga qarshi qo'zg'olon boshlandi; 5) Leonid boshchiligida "Uch yuz spartaliklar jasorati" yuz berdi; 6) yunonlar va forslar o'rtasida Salamin bo'g'ozida hal qiluvchi dengiz jangi bo'lib o'tdi; 7) Sparta va Afina o'r-

tasidagi Peloponnes urushi boshlandi; 8) Kserks juda katta qo'shin bilan Yunonistonga bostirib kiradi.

- A) 3, 8
- B) 2, 4, 8
- S) 2, 5, 7, 8
- D) 1, 5, 6, 8

112. Yunon-Eron urushi tarkibidagi Fermopil jangida yunon lashkarlariga kim boshchilik qilgan?

- A) Leonid
- B) Miltiad
- S) Datis
- D) Perikl

113. Qadimgi Yunonistonda sodir bo'lgan "Uch yuz spartaliklar jasorati" qachon yuz berdi?

- A) mil. avv. 443-yil
- B) mil. avv. 480-yil
- S) mil. avv. 594-yil
- D) mil. avv. 621-yil

114. Qaysi fors shohi buyrug'iga ko'ra Afina shahri yondirib yuboriladi?

- A) Artakserks
- B) Doro I
- S) Kserks
- D) Kir II

115. Triyera nima?

A) yunon armiyasining nomi  
B) mamlakatning uch kishi tomonidan bosh-qarilishi

S) ustida shaharga suv keladigan anhuri bo'lgan baland ko'prik

D) harbiy kema

116. Fors shohi Kserks qaysi jangdan so'ng o'z flotining qoldiqlari bilan Yunonistoni tark etishga majbur bo'ldi?

- A) Pelusiya jangi
- B) Gavgamel jangi
- S) Fermopil jangi
- D) Salamin jangi

117. Quyidagi qaysi urush davrida Plateya jangi sodir bo'lgan?

- A) Misr-Xett urushlarida
- B) Peloponnes-Afina urushlarida
- S) Karfagen va Rim urushlarida
- D) Yunon-Eron urushida

118. Yunon-Eron urushi davrida sodir bo'lgan janglarni to'g'ri ko'rsating.

1) Marafon; 2) Gavgamel; 3) Fermopil; 4) Amfiopol; 5) Salamin; 6) Kanna; 7) Trebiya

8) Zama; 9) Plateya; 10) Xeroniya.

- A) 1, 3, 5, 9, 10
- B) 1, 3, 4, 6, 7
- S) 2, 4, 6, 8

D) 1, 3, 5, 9

119. Yunon-Eron urushida forslar faqatgina qaysi jangda g'alaba qozona oldi?

- A) Salamin jangida
- B) Gavgamel jangida
- S) Fermopil jangida
- D) Marafon jangida

120. Nima uchun mil. avv. IV asrda ko'pgina yunon polislari Makedoniya podshosi Filipp II ning Yunonistoni bosib olishiga qarshi emas edi?

A) chunki, Filipp II o'zining "Xurjuniga oltin joylashgan eshak bilan har qanday kuchli qal'a va shaharni qo'lga kiritish mumkin" degan gapiga rioya qilgan holda yunonlarni o'z tarafiga o'g'dirib olgan edi

B) chunki, o'zaro urushlardan xonavayron bo'lgan yunonlar Filipp II tartib o'rnatadi va polislar o'rtasida tinchlikni barqarorlashtiradi deb umid qilar edi

S) chunki, Filipp II o'zaro urushlardan xonavayron bo'lgan yunonlarga Yunonistonda tinchlik o'rnatishga va'da bergan edi

D) chunki, o'zaro urushlardan xonavayron bo'lgan yunonlar Filipp II yunon tarqoq polislarni yagona davlatga birlashtiradi deb umid qilar edi

121. Makedonlarning Yunonistonga hujumi bo'lgan bir paytda kim Ellada aholisini birlashish va makedonlarga qarshi kurashishga da'vat etadi?

- A) Demosfen
- B) Perikl
- S) Femistokl
- D) Leonid

122. Mil. avv. 338-yil avgustda ...

A) Spartadan tashqari barcha yunon shahar-davlatlari Korinfga yig'ildilar va Makedoniya hokimiyati ostida yunon davlatlari ittifoqini tuzdilar

B) Xoreniya shahri yaqinidagi Beotiyada makedonlar yunonlar ustidan g'alaba qozondilar

S) 20 yoshga to'lgan Aleksandr Makedoniya podshosi bo'ldi

D) Olimpiya zilzila oqibatida vayron bo'lishi natijasida Olimpiada o'yinlari o'tkazilmay qoldi

123. Qaysi jangdan so'ng Yunoniston Makedoniyaga butunlay qaram bo'lib qoldi?

- A) Gavgamel jangida
- B) Xeroneya ostonasidagi jangda
- S) Iss shahri yaqinidagi jangda
- D) Amfiopol jangida

124. Demosfen kim?

- A) Makedoniya podshosi
- B) Ellada aholisini birlashish va Filipp II ga

qarshi kurashishga da'vat etgan mashhur yunon notig'i

S) Xeroniya ostonasidagi jangda Makedoniya qo'shiniga rahbarlik qilgan Filipp II o'g'illaridan biri

D) "Iliada" dostonining bosh qahramoni

**125. Qaysi Makedoniya podshosi o'zini "birlashgan qo'shinlar bosh qo'mondoni" deb e'lon qilgan?**

A) Aleksandr I

B) Filipp II

S) Arxelay

D) Aleksandr Makedonskiy

**126. Mil. avv. 337-yilda Makedoniya hokimiyati ostida yunon shahar-davlatlarining ittifoqi qaysi shaharda tuzildi?**

A) Afina

B) Korinf

S) Agros

D) Epis

**127. Xeroniya ostonasidagi jangdagi g'alabadan so'ng Yunonistonni bosib olgan Filipp II yunon shahar-davlatlariga qanday e'tiborda bo'ldi?**

A) yunon shahar-davlatlarini yagona davlatga birlashtirib, yunon-makedon davlatini tuzdi

B) yunon shahar-davlatlarini amalda qaram, ammo rasmiy jihatdan mustaqil qildi

S) yunon shahar-davlatlari Makedoniya hokimiyati ostida birlashdi deb e'lon qildi

D) yunon shahar-davlatlarini erkin deb e'lon qildi

**128. Mil. avv. 337-yilda Yunonistonda bo'lib o'tgan Korinf yig'ilishi nima to'g'risida o'tkazilgan edi?**

A) yunon shahar-davlatlari va Makedoniya ittifoqligida Fors davlatiga qarshi kurashish to'g'risida

B) yunon shahar-davlatlarining Makedoniyaga tobe ekanligi to'g'risida

S) yunon shahar-davlatlarining ittifoqda Makedoniyaga qarshi kurashishi to'g'risida

D) yunon shahar-davlatlarining tinch-totuv yashash, o'zaro urushlar olib bormaslik va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik to'g'risida

**129. Ma'lumki, Makedoniya podshosi Filipp II Fors davlatini yunon qo'shinlari bilan birgalikda bosib olishni rejalashtirgan edi. Filipp II urush uchun yunonlarni qanoatlantiradigan qanday bahona o'ylab topadi?**

A) Egey dengizida forslarni qaroqchilik qilishi

B) forslarni Kalliy sulhi shartlarini bajarishdan bosh tortishi

S) yunon-fors urushlari davrida yetkazilgan zarar

uchun qasos olish va shoh Kserks Eronga olib ketgan yunon xudolari haykallarini asirlikdan qutqarish

D) Eronning Bolqon yarimorolida o'z manzilgozlariga asos solishi

**130. Mil. avv. 337-yilgi Korinf yig'ilishiga ko'ra yunon polislarning barcha kelishmovchilik va nizolarini qanday organ hal qilishi lozim bo'lib qoldi?**

A) Beshyuzlar kengashi

B) Yunon shahar-davlatlari kengashi

S) Xalq majlisi

D) Xalq sudi

**131. Qadimgi Yunonistonda umumiy ta'limdan so'ng o'g'il bolalar necha yil harbiy ta'limni o'tashgan?**

A) ikki yil

B) uch yil

S) to'rt yil

D) bir yil

**132. Qadimgi Yunonistonda mamlakatni mudofaa qilish zarurati yuzaga kelgan taqdirda necha yoshga to'lmagan erkaklar qurol-yarog'lari va harbiy kiyim-kechaklari bilan ko'rikka yetib kelishi shart bo'lgan?**

A) 30 yoshga

B) 25 yoshga

S) 35 yoshga

D) 37 yoshga

**133. Qadimgi Yunonistonda ilk marotaba Olimpiada o'yinlari qachon o'tkazilgan?**

A) mil. avv. 394-yil

B) mil. avv. 621-yil

S) mil. avv. 767-yil

D) mil. avv. 776-yil

**134. Ma'lumki, Qadimgi Yunonistonda har to'rt yilda bir marta Olimp tog'ida Olimpiada o'yinlari o'tkazilib, mamlakatning to'rt tarafidan kelgan sportchilar beshkurashda bellashar edilar. Bu beshkurash nimalardan iborat edi?**

1) tez yurish; 2) sakrash; 3) disk uloqtirish;

4) qilichbozlik; 5) nayza uloqtirish; 6) yugurish;

7) suzish; 8) kurash

A) 1, 3, 5, 6, 7

B) 2, 3, 4, 7, 8

S) 2, 3, 5, 6, 8

D) 3, 4, 6, 7, 8

**135. Qadimgi Yunonistonda Olimpiada o'yinlari qaysi xudo sharafiga o'tkazilgan?**

A) Artemida

B) Afina

S) Apollon

D) Zevs

**136. Qadimgi Yunonistondagi Olimpiada o'yinlarining asoschisi kim deb hisoblangan?**

- A) Axill
- B) Gerakl
- S) Zevs
- D) Tesey

**137. Qadimgi Yunonistonda Olimpiada o'yinlariga faqat kimlar ishtirok etishga haqli edi?**

- A) 18 yoshdan oshgan barcha yunon erkaklari
- B) barcha yunon fuqarolari
- S) jinoyat sodir etib, sha'niga dog' tushurmagan ozod yunonlar
- D) 18 yoshdan oshgan barcha yunon aholisi

**138. Qadimgi Yunonistonda so'nggi marta Olimpiada o'yinlari nechanchi yil o'tkazildi?**

- A) mil. avv. 367-yil
- B) mil. avv. 621-yil
- S) mil. avv. 776-yil
- D) mil. avv. 394-yil

**139. Mil. avv. 394-yilda ...**

A) Filipp II o'ldirilgach, Makedoniya taxtiga uning o'g'li Iskandar o'tirdi

B) Spartadan tashqari barcha yunon shahar-davlatlari Korinfga yig'ildilar va Makedoniya hokimiyati ostida yunon davlatlari ittifoqini tuzadilar

S) Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa yurishlari boshlandi

D) Olimpiya zilzila oqibatida vayron bo'lishi oqibatida Olimpiada o'yinlari o'tkazilmay qoldi

**140. Ma'lumki, Qadimgi Yunonistonda Olimpiada o'yinlari mavjud bo'lgan. Ammo u mil. avv. IV asrga kelib bu o'yinlar o'tkazilmay qo'ydi. Bugungi kunimizdagi to'rt yilda bir marta jahon miqyosida o'tkaziladigan Olimpiada o'yinlari nechanchi yilda qayta tiklangan?**

- A) 1896-yil
- B) 1877-yil
- S) 1920-yil
- D) 1965-yil

**141. Yunonlar qachon Kichik Osiyoda joylashgan Troyaga yurish qilishgan?**

- A) mil. avv. XII asrda
- B) mil. avv. 1200-yilda
- S) mil. avv. XVII asrda
- D) mil. avv. 594-yil

**142. Sparta podshosining rafiqasi Sohibjamol Yelenani o'z vataniga o'g'irlab ketgan Troya podshosining ismini aniqlang.**

- A) Priam
- B) Frasibul
- S) Laokoon
- D) Paris

**143. Yunon rivoyatlariga ko'ra, mil. avv. XII**

**asrda yunonlarning Troyaga qilgan yurishining sababi nimada edi?**

A) yunon sarkardalarining harbiy mahoratini oshirish

B) turli xil boyliklar va o'ljalar orttirish

S) troyaliklar tomonidan Sparta yunonlari xudolarining haykallari o'g'irlab ketilishi

D) Troya podshosi tomonidan Sparta podshosi rafiqasining o'g'irlab ketilishi

**144. "Iliada" va "Odiseya" dostonlari qaysi mashhur yunon ijodkorining qalamiga mansub?**

- A) Aristofan
- B) Demokrit
- S) Esxil
- D) Gomer

**145. "Iliada" dostoniga ko'ra, Troya homiyasi hisoblangan ma'budani belgilang.**

- A) Afrodita
- B) Demetra
- S) Femida
- D) Afina Pallada

**146. Gomerining "Iliada" dostoni qanday tarixiy voqealar haqida hikoya qiladi?**

A) yunonlarning Troyani to'qqiz yil behuda qamal qilganligi haqida

B) Troya podshosining Sparta podshosi rafiqasini o'g'irlab ketishidagi sarguzashtlari haqida

S) Troyadan qaytayotgan Odisseyning jonajon Itaka o'lkasiga yetib borguniga qadar dengiz va begona yurtlardagi sarguzashtlari haqida

D) yunonlarning Troyani qamal qilganligining o'ninchi yili haqida

**147. Ma'lumki, "Iliada" dostonida Troyani to'qqiz yil qamal qilib, shaharni jang bilan ololmagan yunonlar hiyla ishlatishga jazm qiladilar. Yunonlar qanday hiyla oqibatida shahar darvozasini ochib, uni bosib oladilar?**

A) Troyaga suv beruvchi daryo to'g'onining buzib tashlanishi natijasida

B) yunonlarning ichi bo'm-bosh ulkan yog'och ot yasab, ichiga qo'shinlarining bir qismini jo'y-lashtirishi va uni Troyaga sovg'a qilishi natijasida

S) Troyaga yovvoyi hayvonlarini haydab, aholiga qo'rquv solishi natijasida

D) yunonlarning ichi bo'm-bosh ulkan yog'och ho'kiz yasab, ichiga qo'shinlarining bir qismini jo'y-lashtirishi va uni Troyaga sovg'a qilishi natijasida

**148. "Iliada" dostonida kim yunonlarni Troyaga yog'och ot olib bormaslikka ishontirishga harakat qilgan?**

- A) Axilles
- B) Odissey

- S) Laokoon  
D) Shlimann

**149. Yunonlarning mashhur "Iliada" dostonining bosh qahramoni bu - ...**

- A) Laokoon  
B) Axilles  
S) Odissey  
D) Demosfen

**150. Quyidagi qaysi tushunchalar yunonlarning mashhur "Iliada" dostoniga xosdir?**

1) oltin mo'yna; 2) Stiks daryosi; 3) "Odissey tovoni"; 4) "Troya oti"; 5) "Argo" kemasi; 6) "Axilles tovoni"; 7) Odissey sarguzashti; 8) Axilles hiylasi

- A) 1, 2, 4, 8  
B) 2, 4, 6  
S) 4, 5, 6  
D) 3, 4, 8

**151. Ma'lumki, "Iliada" dostonida Axillesning yoshligida onasi o'g'lini barhayot bo'lishi uchun Stiks daryosiga botirib oladi. Ammo janglardan birida Axilles halok bo'ladi. Buning sababi nimada edi?**

A) yoshligida Stiks daryosiga botirib olingan Axillesning peshonasiga suv tegmasdan qolgan edi, shuning uchun jangda Axilles peshonasiga tekkan o'qdan halok bo'lgan

B) o'sha vaqtda urush xudosi Ares tomonidan Stiks daryosi o'z sehrini yo'qotgan edi

S) Stiks daryosida Axillesning onasi ushlagan tovoniga suv tegmasdan qolgan edi, shuning uchun jangda Axilles tovoniga tekkan o'qdan halok bo'lgan

D) o'sha vaqtda marhumlar saltanati xudosi Aid tomonidan Stiks daryosining sehri yo'qotilgan edi

**152. Qaysi olim 1870-yilda Turkiyadagi Hisorlik tepaligi xarobalari hududida qazishma ishlarini olib borib, Qadimgi Troya qoldiqlarini topdi?**

- A) Genrix Shlimann  
B) Fransua Shampalon  
S) Rixtgofer  
D) D. D. Klark

**153. Buyuk yunon yozuvchisi Gomerning "Odissey" dostoni qanday tarixiy voqealar haqida hikoya qiladi?**

A) Troyadan qaytayotgan Odisseyning jonajon Itaka o'lkasiga yetib borguniga qadar dengiz va begona yurtlardagi sarguzashtlari haqida

B) Troya podshosi Odisseyning Sparta podshosi rafiqasini o'g'irlab ketishidagi sarguzashtlari haqida

S) yunonlarning Troyani qamal qilganligining o'ninchi yilida Odisseyning hiylalari haqida

D) yunonlarning Troyani to'qqiz yil behuda qamal qilganligi haqida

**154. Qadimdan teatr qaysi davlatda vujudga kelgan?**

- A) Rim imperiyasida  
B) Qadimgi Yunonistonda  
S) Qadimgi Misrda  
D) Mesopotamiyada

**155. "Teatr" so'zi qaysi tildan olingan va u qanday ma'noni anglatadi?**

- A) lotincha, "tomoshalar uchun joy"  
B) yunoncha, "tomoshaxona"  
S) lotincha, "kattalar uchun maktab"  
D) yunoncha, "echkilar qo'shig'i"

**156. Qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan Afina teatri necha tomoshabinga mo'ljallangan edi?**

- A) 15 ming  
B) 20 ming  
S) 17 ming  
D) 12 ming

**157. Qadimgi Yunonistonda vujudga kelgan oxiri fojia, o'lim va qotillik bilan tugaydigan pyesalar nima deyiladi?**

- A) tragik-komediya  
B) komediya  
S) tragediya  
D) drama

**158. Qadimgi Yunonistonda eng mashhur tragediyachi - "tragediya otasi" hisoblangan yunon shoir-dramaturgini aniqlang.**

- A) Aristofan  
B) Sofokl  
S) Yevripid  
D) Esxil

**159. Mashhur yunon shoir-dramaturgi Esxilning tragediyalari berilgan qatorni aniqlang.**

- A) "Forslar", "Suvoriylar"  
B) "Yevripid", "Antigona"  
S) "Arilar", "Qushlar"  
D) "Shoh Edip", "Antigona"

**160. Quyidagi qaysi yunon yozuvchisi komediyalar yozishda mashhur edi?**

- A) Gesiod  
B) Esxil  
S) Sofokl  
D) Aristofan

**161. Qadimgi Yunonistondagi "Arilar", "Qushlar", "Baqalar" kabi mashhur komediyalarni qaysi yunon muallifi yozgan?**

- A) Gesiod  
B) Esxil  
S) Sofokl

D) Aristofan

**162. Qadimgi Yunonistonda qachondan boshlab ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan barpo etila boshlagan?**

- A) mil. avv. X asrdan
- B) mil. avv. XII asrdan
- S) mil. avv. IX asrdan
- D) mil. avv. VII asrdan

**163. Qadimgi Afinadagi Parfenon ibodatxonasi va Akropolning qayta qurilishiga rahbarlik qilgan mashhur yunon haykaltaroshini aniqlang.**

- A) Dedal
- B) Fidiy
- S) Miron
- D) Poliklet

**164. Qadimgi Yunonistonda Yer yuzidagi yetti mo'jizalardan biri hisoblangan Olimpiyalik Zevs haykalini yaratgan eng mashhur yunon haykaltaroshini aniqlang.**

- A) Miron
- B) Dedal
- S) Fidiy
- D) Poliklet

**165. Qadimgi Yunonistondagi mashhur arxitektor va haykaltarosh Dedal qilgan buyuk ishlaridan birini ko'rsating.**

- A) Minos degan podsho uchun mashhur Labirint saroyini barpo etgan
- B) "Nayzabardor" haykalini yaratgan
- S) Yer yuzidagi yetti mo'jizalardan biri hisoblangan olimpiyalik Zevs haykalini yaratgan
- D) Dionis bilan Germeslarning o'ynab turgan haykalini ishlagan

**166. Qadimgi yunonlarda mashhur bo'lgan "Diskabol" (Disk irg'ituvchi) haykalining me'mori kim bo'lgan?**

- A) Miron
- B) Poliklet
- S) Fidiy
- D) Praksitel

**167. Quyidagi qaysi me'moriy asar Polikletning ijod mahsuli hisoblanadi?**

- A) "Afina bilan Marsiy"
- B) "Diskabol"
- S) "Nayzabardor"
- D) "Afina"

**168. Qaysi yunon faylasufi Yer yuzidagi barcha narsa olovdan kelib chiqqan degan fikr bildirgan?**

- A) Demokrit
- B) Geraklit
- S) Diogen
- D) Aristotel

**169. Quyidagi bildirilgan fikrning qaysi biri mashhur yunon faylasufi Demokritga xosdir?**

- A) "Hamma narsa oqadi, hech narsa bir joyda turmaydi"
- B) Yer yuzidagi barcha narsa olovdan kelib chiqqan
- S) Insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart
- D) barcha narsa ko'zga ko'rinmaydigan mayda-mayda zarralar – atomlardan tashkil topgan

**170. "Bir daryoga ikkinchi marta sho'ng'iy olmasan", "Hamma narsa oqadi, hech narsa bir joyda turmaydi" degan mashhur hikmatlar qaysi yunon faylasufiga taalluqli?**

- A) Arximed
- B) Demokrit
- S) Diogen
- D) Geraklit

**171. Bugungi kunda Fizika fanida to'la isbotini topgan barcha moddalarning atomdan tashkil topganligi haqida fikrni bundan 25 asr oldin qaysi yunon faylasufi tomonidan olg'a surilgan edi?**

- A) Demokrit
- B) Geraklit
- S) Diogen
- D) Aristotel

**172. Qadimgi buyuk yunon faylasufi Demokrit qaysi shaharda tavallud topgan?**

- A) Frakiya
- B) Afina
- S) Miken
- D) Sirakuza

**173. Qaysi qadimgi yunon faylasufi Insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart degan fikrni o'z ta'limotiga asos qilib olgan?**

- A) Diogen
- B) Demokrit
- S) Arximed
- D) Aristotel

**174. "Tarix otasi" degan nom olgan Gerodot qaysi asari bilan Yunonistonda birdaniga mashhur kishiga aylandi?**

- A) "Yunon-fors urushlari to'g'risidagi tarix"
- B) "Forslar"
- S) "Yunonlar va troyaliklar o'rtasidagi urush tarixi"
- D) "Siyosat"

**175. Quyidagi qaysi yunon olimi tarix ilmi bilan shuhrat topgan?**

- A) Gerodot
- B) Aristotel
- S) Demokrit

D) Aristofan

**176. Quyidagi qaysi yunon olimi Sharqda “Arastu” nomi bilan mashhurdir?**

- A) Aristofan
- B) Aristotel
- S) Gerodot
- D) Arximed

**177. “Evrika!” so‘zi qaysi yunon olimiga taalluqli?**

- A) Demokrit
- B) Aristotel
- S) Diogen
- D) Arximed

**178. Mashhur yunon olimi Arximed uchun taalluqli bo‘lgan bandni belgilang.**

A) ko‘zgular tizimidan foydalanib yorug‘likni bitta yo‘nalishga jamladi va yunonlar ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklar kemalarini yondirib yubordi

B) “Mening donishmandligim shundaki, kamina faqat hech nimani bilmasligimni bilaman, xolos!”

S) barcha narsa ko‘zga ko‘rinmaydigan maydamayda zarralar – atomlardan tashkil topgan degan fikrni bildirib o‘tgan

D) Yer yuzidagi barcha narsa olovdan kelib chiqqan degan fikrni bildirgan

**179. Qaysi olim richag qonunini ishlab chiqqan?**

- A) Aristotel
- B) Arximed
- S) Diogen
- D) Geraklit

**180. “Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o‘z o‘qidan chiqarib yuboraman!” degan ibora qaysi olimga taalluqli?**

- A) Aristotel
- B) Protagor
- S) Arximed
- D) Platon

**181. Mashhur yunon fizigi va matematigi Arximed qaysi shaharda rimliklar tomonidan o‘ldiriladi?**

- A) Frakiya
- B) Afina
- S) Miken
- D) Sirakuza

**182. “Mening donishmandligim shundaki, kamina faqat hech nimani bilmasligimni bilaman, xolos!” degan so‘zlar qaysi yunon faylasufiga taalluqli?**

- A) Protogor
- B) Platon
- S) Gomer
- D) Suqrot

**183. Ma‘lumki, Suqrot hech mahal o‘z asarlarini**

**qog‘ozga tushirmagan. Ammo bizgacha Suqrotning g‘oyalari qay tarzda yetib kelgan?**

A) Suqrotning zamondoshi Fukididning yozishmalari orqali

B) tarixchi Gerodotning ma‘lumotlari orqali

S) Aristotelning yozib qoldirgan hujjaatlari orqali

D) faylasuf Platonning muloqotlari orqali

**184. Quyidagi qaysi olim bizga “Aflotun” nomi bilan ma‘lum?**

A) Aristofan

B) Aristotel

S) Platon

D) Suqrot

**185. Yunon faylasufi Platonga taalluqli bo‘lgan qatorni belgilang.**

A) barcha narsa ko‘zga ko‘rinmaydigan maydamayda zarralar – atomlardan tashkil topgan degan fikrni bildirib o‘tgan

B) ko‘zgular tizimidan foydalanib yorug‘likni bitta yo‘nalishga jamladi va yunonlar ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklar kemalarini yondirib yubordi

S) Atlantida degan xayoliy davlat to‘g‘risida ta‘limotni yaratgan

D) Yer yuzidagi barcha narsa olovdan kelib chiqqan degan fikrni bildirgan

**186. “Xudo bizning o‘zimizdadir!” degan hikmatli so‘zlar qaysi yunon faylasufiga taalluqlidir?**

A) Gomer

B) Platon

S) Suqrot

D) Gippokrat

**187. Quyidagi qaysi yunon faylasufi Atlantida degan xayoliy davlat to‘g‘risida ta‘limotni yaratgan?**

A) Aristofan

B) Aristotel

S) Platon

D) Suqrot

**188. Qadimgi yunon rivoyatlariga ko‘ra, titanlar kimlar?**

A) yarim qush, yarim ayollar

B) yovuz maxluqotlar

S) xudolardan tug‘ilgan qudratli pahlavonlar

D) yarim otlar, yarim odamlar

**189. Qadimgi yunonlarning xudolar va bahodirlar haqidagi rivoyatlaridagi kentavr deb ataladigan maxluqlar qay tarzda tasvirlangan?**

A) yarim qush, yarim ayol

B) yarim baliq, yarim ayol

S) yarim ot, yarim odam

D) xudolardan tug‘ilgan qudratli pahlavon

**190. Qadimgi yunon rivoyatlariga ko‘ra, yarim**



qush yarim ayol qiyofasidagi maxluqlar nima deb nomlangan?

- A) sirena
- B) titan
- S) kentavr
- D) siklop

**191. Ma'lumki, qadimda yunonlarning xudolar va bahodirlar haqidagi rivoyatlarida peshonasida bitta dumaloq ko'zi bo'lgan afsonaviy mavjudotlar o'ziga xos o'rin egallaydi. Bunday maxluqlar nima deb nomlanadi?**

- A) titan
- B) siklop
- S) kentavr
- D) sirena

**192. Qadimgi yunon mifologiyasidagi Geya va Uran qanday ma'noga ega?**

- A) Oy va Yulduz
- B) quruqlik va suv xudolari
- S) Yer va Osmon
- D) Oy va Quyosh xudolari

**193. Ma'lumki, yunon asotirlarida aytilishicha, azalda Yer hamma tomonidan dengizlar bilan o'ralgan. Dastlab qaysi titan (iloh) barcha dengizlarning hukmdori hisoblangan?**

- A) Axill
- B) Zevs
- S) Atlas
- D) Okean

**194. Qadimgi yunon rivoyatlariga ko'ra, sikloplar bu – ...**

A) xudolardan tug'ilgan qudratli pahlavonlar  
 B) yarim ot, yarim odamlar  
 S) yarim baliq, yarim ayollar  
 D) peshonasida bitta dumaloq ko'zi bo'lgan afsonaviy mavjudotlar

**195. Ma'lumki, qadimda yunonlarning xudolar va bahodirlar haqidagi rivoyatlarida yarimi ot, yarimi odam bo'lgan afsonaviy mavjudotlar o'ziga xos o'rin egallaydi. Bunday maxluqlar nima deb nomlanadi?**

- A) kentavr
- B) titan
- S) siklop
- D) sirena

**196. Qadimgi yunon asotirlariga ko'ra, Atlas bu – ...**

A) yelkalarida Osmon gumbazini suyab turuvchi titan  
 B) Yer ilohasi  
 S) Quyosh xudosi  
 D) dastlabki butun Yer yuzini qoplagan dengizlar hukmdori bo'lgan titan

**197. Qadimgi yunon rivoyatlaridagi bahodir qahramonlarni aniqlang.**

1) Gerakl; 2) Apollon; 3) Axill; 4) Artemida; 5) Tesey; 6) Gelios; 7) Ayaks; 8) Gefest.

- A) 1, 2, 4, 6
- B) 1, 3, 4, 7, 8
- S) 1, 2, 5, 7, 8
- D) 1, 3, 5, 7

**198. Ma'lumki, qadimgi yunonlarda uch xudo Olamga hukmronlik qilar edi: osmonda, dengizda va marhumlar saltanatida. Ular qaysi xudolar hisoblangan?**

- A) Demetra, Femida, Gefest
- B) Gelios, Poseydon, Aid
- S) Zevs, Poseydon, Afina
- D) Zevs, Poseydon, Aid

**199. Qadimgi yunonlarning e'tiqodicha, xudolar Yunonistonning qaysi hududlarida yashashgan?**

1) Sirakuzada; 2) Makedoniya va Fessaliya chegarasidagi tog'da; 3) Krit orolida; 4) Elida viloyatida; 5) Itaka orolida; 6) Olimp tog'ida; 7) Afina shahridagi tog'larda; 8) Rodos orolida.

- A) 1, 2, 8
- B) 1, 3, 6, 7
- S) 3, 5, 8
- D) 2, 4, 6

**200. Quyidagi qaysi qatorda yunon xudolarining ta'rifi noto'g'ri berilgan?**

- A) Afina – donishmandlik ilohasi
- B) Ares – urush xudosi
- S) Poseydon – dengiz xudosi
- D) Gelios – Yer ilohasi

**201. Quyidagi qaysi qatorda yunon xudolarining ta'rifi to'g'ri berilgan?**

- A) Appolon – yorug'lik, musiqa va she'riyat xudosi
- B) Geya – Quyosh xudosi
- S) Demetra – adliya ilohasi
- D) Femida – sharob xudosi

**202. Izohi bir xil bo'lgan xudolar nomi berilgan javobni belgilang.**

- A) Gratsiya, Set
- B) Osiris, Aid
- S) Anubis, Artemida
- D) Femida, Nika

**203. Qadimgi yunon mifologiyasida Zevs bu – ...**

- A) yelkalarida Osmon gumbazini suyab turuvchi xudo
- B) oliy xudo va qolgan barcha xudolarning rahnamosi
- S) dastlabki butun Yer yuzini qoplagan dengizlar hukmdori bo'lgan titan

D) yer ilohasi  
**204. Qadimgi yunonlar e'tiqodida Quyosh xudosi nima deb nomlangan?**

- A) Femida
- B) Amon-Ra
- S) Gelios
- D) Appolon

**205. Qadimgi yunonlarning dehqonchilik va hosildorlik ilohasini aniqlang.**

- A) Poseydon
- B) Afrodita
- S) Germes
- D) Demetra

**206. Ma'lumki, qadimgi yunon xudolari rang-barang va qiziqarlidir. Yunonlarning Dionis nomli ilohi qanday xudo hisoblangan?**

- A) muhabbat va go'zallik xudosi
- B) savdo xudosi
- S) uyqu xudosi
- D) sharob xudosi

**207. Quyidagi qaysi xudolar ta'rifiga ko'ra bir xil hisoblanadi?**

- A) Afrotida va Xatxor
- B) Appolon va Anubis
- S) Set va Poseydon
- D) Tot va Gipnos

**208. Ma'lumki, yunonlarning oliy xudosi Zevsning inisi Poseydon – dengiz xudosi, qizi Afina – donishmandlik ilohasi. Uning o'g'li qanday xudo hisoblangan?**

- A) dehqonchilik va hosildorlik xudosi
- B) yorug'lik, musiqa va she'riyat xudosi
- S) Quyosh xudosi
- D) Yer xudosi

**209. Quyidagi qaysi javobda faqat yunon xudolarining nomi ko'rsatilgan?**

1) Zevs; 2) Ptax; 3) Poseydon; 4) Aid; 5) Xronos; 6) Osiris; 7) Gipnos; 8) Ahuramazda; 9) Afrotida; 10) Gratsiya; 11) Pinker; 12) Mitra

- A) 1, 3, 4, 6, 10
- B) 1, 2, 5, 8, 12
- S) 1, 3, 4, 5, 7, 9, 10
- D) 3, 5, 6, 11, 12

**210. Ma'lumki, Qadimgi Misrda adolat va adliya ilohasi Maat hisoblangan. Qadimgi yunon mifologiyasida bunday xudo nomi qanday nomlanadi?**

- A) Artemida
- B) Demetra
- S) Afina
- D) Femida

**211. Quyidagi atamalar orasida faqatgina Qadimgi Yunonistonga taalluqligini aniqlang.**

1) oykumena; 2) polis; 3) plebey; 4) goplit; 5) konsul; 6) patriitsiy; 7) falanga; 8) ilot; 9) metek; 10) kolon; 11) palestr; 12) legion.

- A) 1, 3, 5, 8, 9, 11, 12
- B) 2, 3, 6, 7, 9, 12
- S) 1, 2, 4, 7, 8, 12
- D) 1,2,4,7,8,9,11

**212. Qadimgi Yunonistonda nina bargli o'rmonlar qayerlarda o'sgan?**

- A) Itaka va Krit orollarida
- B) Attika va Peloponnesda
- S) Rodos va Krit orollarida
- D) Yunoniston shimolida va Peloponnesda

**213. Qadimgi Yunoniston geografik o'rning o'ziga xosligi nimada?**

1) Sahroyi Kabir va Liviya cho'llarining joylashganligi; 2) mamlakatning uchdan bir qismini tog'lar egallaganligi; 3) o'rmonlarning kamligi; 4) Reyn daryosining joylashganligi; 5) jazirama havo, ishlov berish uchun qulay serunum yerlar, o'rmonlar va botqoqlarning mavjudligi; 6) dengizning quruq ichkarisiga ancha joygacha kirib borganligi.

- A) 1, 3, 5
- B) 2, 4, 6
- S) 2, 3, 6
- D) 2, 3, 5

**214. Qadimgi Yunoniston tog'larida qanday tabiiy boyliklar mavjud bo'lgan?**

A) temir va mis rudasi, marmar hamda kulolchilik uchun qulay sog'lom tuproq  
 B) oltin, kumush va neft mahsulotlari  
 S) oltin va mis rudasi  
 D) oltin, kumush, qalayi, qo'rg'oshin

**215. Qadimgi Krit orolidagi Minoy sivilizatsiyasining nomi ...**

A) oroldagi poytaxt shahar nomiga atalgan  
 B) afsonaviy podsho Minos nomi bilan atalgan  
 S) sivilizatsiyaga asos solgan misrliklarning Menes podshosi sharafiga atalgan  
 D) oroldagi tub aholi minoy qabilasining nomi bilan atalgan

**216. Nima sababdan Qadimgi oddiy yunon dengizchilari qisqa masofalarga suzishgan?**

A) kompas bo'lmaganligi sababli  
 B) Egey dengizida qaroqchilarning ko'p sonlilligi  
 S) dengizlarda doimiy toshqin va to'fonlar bo'lib turishi sababli  
 D) oddiy eshkakli qayiqlar mavjudligi va komposning bo'lmaganligi sababli

**217. Qadimgi yunon tajribali dengizchilari yelkanlardan foydalanib qaysi hududlarga suzib borishgan?**

- A) Misr va Apennin yarimoroliga  
 B) Faqatgina Egey dengizi orollariga  
 S) Mesopotamiyaga va O'rtayer dengizi sohil-  
 laridagi shaharlarga

D) Misrga hamda O'rtayer va Qora dengiz  
 sohillaridagi shaharlarga

**218. Ma'lumki, Qadimgi Yunoniston tarixiga  
 "antik" sifati qo'shib aytiladi. Bu so'z qaysi tildan  
 olingan va qanday ma'noni anglatadi?**

- A) grekcha "antik" – "qadimgi" deganidir  
 B) lotincha "antivirus" – "qadimgi" demakdir  
 S) grekcha "arxaik" – "ko'hna" deganidir  
 D) fransuzcha "ansiyen" – "qadimgi" deganidir

**219. Qadimgi davrda yunon shaharlarining ko'p-  
 chiligi qay tarzda tashkil topgan?**

A) ko'chmanchi qabilalarining bostirib kirib, asos  
 solishi natijasida

B) qulay iqlim sharoitli hududlarga aholining  
 ko'chib kelishi natijasida

S) bir qancha manzilgohlarning birlashishi yo'li  
 bilan

D) savdo-sotiq markazi bo'lgan joylarga ko'p  
 sonli aholining ko'chib kelishi natijasida

**220. Mil. avv. IX–VII asrlarda yunon askarlari  
 qanday qurol-aslahalarga ega edi?**

1) changak; 2) qilich; 3) to'r; 4) nayza; 5) ka-  
 mon; 6) bronza va temirdan yasalgan ko'krak sovut;  
 7) oybolta;

8) teri qoplangan yog'ochdan yasalgan qalqon.

- A) 2, 4, 6, 8  
 B) 1, 3, 5, 7  
 S) 2, 3, 5, 8  
 D) 3, 5, 7, 8

**221. Nima sababdan qadimda Afina davlati  
 fuqarosi bo'lish faxrli va foydali edi?**

A) fuqarolar davlat organlarida ishlashga muayyan  
 haq olardilar

B) fuqarolar barcha huquqlardan foydalanardilar

S) faqatgina Afina fuqarolari davlat organlariga  
 ishga olinardilar

D) fuqarolar barcha huquqlardan foydalanardilar  
 va davlat organlarida ishlashga haq olardilar

**222. Qachondan boshlab qadimgi Afinadagi  
 quldorlar qullar hayotini qadrlamay qo'yishdi?**

A) Makedoniyanning Yunonistonni bosib oli-  
 shidan so'ng

B) forslar ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng

S) Afinada Parikl hukmronligi davridan boshlab

D) Drakont qonunlaridan so'ng

**223. Qadimgi Afinada faqat kimlar uchun ta'lim  
 olish majburiy edi?**

A) qizlar uchun

- B) 7 yoshdan oshgan o'g'il va qiz bolalar uchun  
 S) puldor ota-onalarning farzandlari uchun  
 D) o'g'il bolalar uchun

**224. Ma'lumki, Qadimgi Afinada puldor ota-  
 onalarning farzandlari palestrlarda tahsilni davom  
 ettirishardi. Palestrlarda nimalar o'rgatilardi?**

- A) adabiyot, she'r yozish va musiqa  
 B) adabiyot, astronomiya va she'r yozish  
 S) astronomiya, geometriya, geografiya  
 D) she'r yozish, musiqa, tarix

**225. Ma'lumki, Qadimgi Afinada oliy ma'lumot  
 beradigan o'quv yurtlari bo'lgan. Ularda kimlar  
 o'qish imkoniyatiga ega edi?**

- A) faqat senatorlarning farzandlari  
 B) goplitlar  
 S) o'ta boy ota-onalarning farzandlari  
 D) meteklar

**226. Qadimgi Afinadagi oliy ma'lumot beradigan  
 o'quv yurtlarida qanday fanlar o'qitilardi?**

- A) fizika, geografiya, astronomiya, tarix  
 B) geometriya, geografiya, astronomiya, geo-  
 deziya

S) fiqhshunoslik, tarix, geodeziya, astronomiya

D) astronomiya, geometriya, geografiya, tarix

**227. Qadimgi Sparta davlatining asoschisi  
 hisoblangan qabila nomini aniqlang.**

- A) mikena  
 B) doriylar  
 S) xunmlar  
 D) yuechjilar

**228. Ma'lumki, mil. avv. VIII–VII asrlarda  
 Spartada qulga aylantirilgan aholi ko'pchilikni tashkil  
 etar, ular ham spartaliklardan qattiq nafratlanar  
 edi. Shuning uchun spartaliklar o'z davlatida qanday  
 shart-sharoit yaratdilar?**

A) doimo qullarni ezib ishlatish va ulardan keng  
 ko'lamda foydalanish

B) huquq va majburiyatlar borasida hammani  
 tenglashtiruvchi qonunlar yozish

S) mamlakatda demokratiya hokimiyatini o'rnatish

D) hamma amal qilishi lozim bo'lgan qat'iy  
 intizom va aniq-raso rejalashtirilgan turmush tarzi  
 hamda yengilganlarga qarshi shavqatsiz zo'ravonlik

**229. Nima sababdan ajnabiylar Qadimgi Sparta  
 davlatiga unchalik oshiqishmagan?**

A) Spartada savdo-sotiq sust rivojlanganligi,  
 san'at asarlari, chiroyli ibodatxonalar va turar joy  
 binolari ham yo'qligi

B) yalpi harbiy tayyorgarlikda bo'lgan spartaliklar  
 ajnabiylarni sig'ishtirmasdi

S) Sparta kirgan ajnabiylar qulga aylantirilardi

D) Spartada ajnabiylar kiritilmasligi to'g'risida qonun qabul qilingan edi

**230. Qadimgi Sparta davlatida kimlar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan?**

- A) periyeklar
- B) spartaliklar
- S) ilotlar
- D) meteklar

**231. Qadimgi Sparta davlatini kimlar savdotiq bilan shug'ullanib, ajnabiylar bilan muloqotda bo'lar edi?**

- A) periyeklar
- B) spartaliklar
- S) ilotlar
- D) meteklar

**232. Ma'lumki, Qadimgi Yunonistonda o'z vatanini tark etib, o'zga yurtga ko'chib ketadiganlar paydo bo'la boshladi. Ular qaysi hududlarda o'z manzilgohlariga asos soldilar?**

1) Sitsiliya oroli; 2) Hindiston yarimoroli; 3) Apennin yarimoroli; 4) Kaspiy dengiz bo'ylari; 5) O'rtayer dengizi bo'ylari; Sardiniya oroli; 7) Qora dengiz bo'ylari; 8) Korsika oroli.

- A) 2, 4, 6, 8
- B) 1, 3, 5, 7
- S) 1, 2, 3, 7, 8
- D) 2, 5, 7, 8

**233. Qadimgi Buyuk yunon koloniyalashtirishi qanday oqibatlariga olib keldi?**

A) Finikiya yozuviga asoslangan yangi yozuv vujudga keldi va Yunoniston hududi o'zga mamlakatlar hisobiga kengaydi

B) koloniyalar va polislar o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash, savdo sotiq va hunarmandchilik ravnaq topishiga asos yaratildi hamda Yunoniston hududi o'zga mamlakatlar hisobiga kengaydi

S) Yunoniston hududi o'zga mamlakatlar hisobiga kengaydi

D) Finikiya yozuviga asoslangan yangi yozuv vujudga keldi va koloniyalar va polislar o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash, savdo sotiq va hunarmandchilik ravnaq topishiga asos yaratildi

**234. Qadimgi Afinadagi mol-mulk va boylikning deyarli hammasiga egalik qilgan aholining bir qismi qanday nomlangan?**

- A) aristokratlar
- B) arxontlar
- S) demokratlar
- D) senatorlar

**235. "Yunonistonning ko'pgina shaharlarida bo'ldim, xalq zodagonlarga qarshi chiqayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Kambag'allarga qullar**

**kelib qo'shilmasdan turib, xalq talablarining bir qismini bajarish kerak". Ushbu so'zlar qaysi Afina hukmdoriga taalluqli?**

- A) Drakont
- B) Perikl
- S) Femistokl
- D) Solon

**236. Qadimgi Afina davlatida Solon hukmronligi davrida kimlar qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdilar?**

- A) ayollar va meteklar
- B) Afina fuqarolari
- S) ilotlar va periyeklar
- D) periyeklar va ajnabiylar

**237. Davlat boshqaruvi sohasida Afina hukmdori Solon qanday islohatni amalga oshirdi?**

A) hamma amal qilishi lozim bo'lgan qat'iy intizom va aniq-raso rejalashtirilgan turmush tarzi hamda yengilganlarga qarshi shavqatsiz zo'raonlik

B) Beshyuzlar kengashi tiklandi va strateg lavozimiga asos solindi

S) nasl-nasabidan qat'iy nazar afinaliklar uchun davlat mansablarini egallash imkoniyati

D) Xalq majlisi faoliyati tiklandi va nasl-nasabidan qat'iy nazar afinaliklar uchun davlat mansablarini egallash imkoniyati

**238. Qachondan boshlab Qadimgi Sparta davlati Afinaning asosiy raqibiga aylandi?**

- A) mil. avv. V asrdan
- B) mil. avv. VI asrdan
- S) mil. avv. IV asrdan
- D) mil. avv. III asrdan

**239. Qadimgi Yunonistonning barcha shaharlarida fors elchilari : "Bizning hukmdorimiz, kunchiqardan kunbotargacha barcha odamlarning birdan bir egasi sizdan yer va suv talab qilmoqdadir" deb o'zlarining qaysi hukmdorini nazarda tutgan edi?**

- A) Doro I
- B) Kir II
- S) Kserks
- D) Kambiz

**240. Qachon Qadimgi Afina davlati O'rtayer dengizi havzasidagi eng qudratli davlatga aylandi?**

- A) mil. avv. III asr
- B) mil. avv. V asr boshlari
- S) mil. avv. IV asr oxiri
- D) mil. avv. V asr o'rtalari

**241. Quyidagi qaysi sanalar Olimpiada o'yinlari tarixida muhim hisoblanadi?**

- 1) mil. avv. 776-yil; 2) mil. avv. 394-yil;

3) 1877-yil; 4) mil. avv. 767-yil; 5) 1896-yil; 6) mil. avv. 435-yil.

- A) 2, 3, 6
- B) 1, 2, 5
- S) 1, 3, 5
- D) 1, 2, 3

**242. Qadimgi Yunonistondagi teatrlarda tomoshabinlar aktyorlarning kimlarni tasvir-layotganligini qanday qilib ajratib olishardi?**

- A) aktyorlarning niqoblariga qarab
- B) tomosha boshlanishidan oldin aktyorlarning qaysi obrazda o'ynayotganligi tanishtirib chiqilardi
- S) aktyorning harakatiga qarab
- D) aktyorlar kiyib olgan kiyimiga qarab

**243. Qadimgi yunon haykaltaroshlarini aniqlang.**

- A) Aristofan va Dedal
- B) Miron va Poliklet
- S) Fidiy va Demokrit
- D) Minos va Platon

**244. Yunonlarning Parfenon – iloha Afina ibodatxonasi peshtoqining yuqori qismida nima tasvirlangan?**

- A) hayvonlar tasviri
- B) gimnastika bilan shug'ullanayotgan bolalar tasviri
- S) odamlar va xudolar siymosi
- D) xudolar siymosi

**245. Quyidagilarning qaysilari qadimgi yunon faylasuflari hisoblanadi?**

1) Geraklit; 2) Kvint Kursiy Ruf; 3) Sima Szyang; 4) Diogen; 5) Demokrit; 6) Pompey Trog; 7) Aristotel; 8) Strabon; 9) Platon; 10) Rixtgofen; 11) Demosfen; 12) Sokrat.

- A) 2, 3, 4, 6, 8, 10
- B) 1, 2, 4, 5, 9, 11
- S) 1, 3, 5, 7, 9, 11
- D) 1, 4, 5, 7, 9, 12

**246. Qadimgi yunon afsonalariga ko'ra, necha jasorat tufayli Gerakl Olimp tog'idagi xudolar saltanatida faxrli o'ringa ega bo'lgan?**

- A) o'n ikki
- B) yetti
- S) to'qqiz
- D) to'rt


**247. Quyidagi qaysi javobda Yunonistonning tarixiy shaxslari to'g'ri ko'rsatilgan?**

1) Oktavian Avgust; 2) Gerakl; 3) Drakont; 4) Mark Antoniy; 5) Solon; 6) Filipp II; 7) Perikl; 8) Menes; 9) Demosfen; 10) Miltiad.

- A) 1, 4, 5, 6, 7, 10
- B) 3, 5, 7, 9, 10
- S) 1, 3, 7, 10
- D) 2, 3, 5, 7, 9

## KROSSVORD

(ismlar bo'yicha)




**BO'YIGA:** 1. "Sofokl" va "Yevripid" tragediyalarining muallifi. 2. Yunon fizigi va matematigi. 3. Yunon haykaltaroshi. 5. Makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi. 6. Atom to'g'risidagi nazariya asoschilaridan biri bo'lgan yunon faylasufi. 8. "Diskobol" haykali muallifi. 9. Mashhur yunon tragig yozuvchisi.

**ENIGA:** 2. "Illiada" dostonining bosh qahramoni. 4. Dehqonlar qarzini bekor qilgan Afina arxonti (hokimi). 5. Buyuk yunon faylasufi. 7. Yunon-Eron urushidagi fors podshosi. 8. Kritning afsonaviy podshosi. 10. Zevs haykalining haykaltaroshi. 11. Qonunlar to'plamini yaratgan Afina hukmdori. 12. Mashhur yunon faylasufi.

## KROSSVORD

(atama va tushunchalar bo'vicha)




**BO'YIGA:** 1. Yaxshi odamlar hokimiyati. 2. Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi. 4. Yunon afsonasidagi dengiz xudosi. 5. Yunon va forslar o'rtasidagi jang. 8. O'z yurtini tark etgan odamlar tomonidan yangi yerlarda asos solingan manzilgoh. 9. Beotiyada bo'lib o'tgan jang. 11. Peloponnesda doriylar tomonidan bo'ysundirilgan aholi.

**ENIGA:** 1. Yuqori shahar. 3. Og'ir qurollangan piyoda askar. 6. Yunon afsonasida yarmi ot va yarmi odam bo'lgan mavjudot. 7. Xalq hokimiyati. 8. Minoy sivilizatsiyasi vujudga kelgan orol. 10. Yunon shahar-davlati. 12. Qadimgi Yunoniston. 13. Yunon piyoda askarlarining jips safga tizilgan ko'p qatorli jangovar tartibi.

## XRONOKROSS


(Yillar bo'yicha)



**BO'YIGA:** 1. Qadimgi Yunonistonda so'nggi Olimpiada o'yinining o'tkazilishi. 3. Drakont qonunlarining amalga kiritilishi. 4. Marafon jangida yunonlarning g'alabasi. 6. Xeroneya jangi. 8. Plateya shahrida forslar ustidan yunonlarning g'alabasi. 9. Minoy sivilizatsiyasining vayron bo'lishi. 11. Salamin yonidagi dengiz jangi.

**ENIGA:** 1. Korinfda yunon shahar-davlatlari ittifoqining tuzilishi. 2. Dastlabki Olimpiada o'yinining o'tkazilishi. 4. Yunon-Eron urushining yakunlanishi. 5. Afinada Periklning strateg lavozimiga saylanishi. 7. Doriylarning Miken davlatini vayronaga aylantirishi. 8. "Uch yuz spartaliklar jasorati" voqeasi. 10. Afinada Perikl hukmronligining yakunlanishi. 12. Nemis olimi Genrix Shlimanning Turkiya hududida Troya qoldiqlarini topishi.



**XRONOKROSS****(Rim raqami hisobida asr va mingyilliklar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Buyuk yunon koloniyalashtirish davrining yakuni. 2. Yunonistonda ilk shahar-davlatlarining vujudga kelishi. 3. Spartaning eng yirik yunon davlatlaridan biriga aylanishi. 4. Drakont qonunlarining vujudga kelishi. 5. Yunon-Eron urushidan 5 asr oldin. 8. Yunoniston Makedoniya tarkibida. 10. So'nggi Olimpiada o'yinining o'tkazilishi.

**ENIGA:** 1. Yunonistonda Finikiya yozuviga asoslangan yozuvning vujudga kelishi. 3. Afinada Drakont hukmronligi. 4. Sparta Messaniyani bo'ysundirishi. 6. Yunonlarning Troyaga yurishi. 7. Minoy sivilizatsiyasining vujudga kelishi. 9. Afina shahrining vujudga kelishi. 11. Afinada Solon islohotlari. 12. Fors shohlari tomonidan Kichik Osiyodagi yunon polislarning bosib olinishi.

IV BOB MILODDAN AVVALGI VI – MILODIY IV  
ASLARDA O'RTA OSIYO

**O'RTA OSIYOGA AHAMONIYLARNING BOSQINCHILIK YURISHLARI**  
(mil. avv. 540–330-yillar)

Mil. avv. VI asrda Eronda yashovchi xalqlar **Kir II** boshchiligida kuchli davlatga uyushdilar. **Ahamoniylar davlati** hududi Eronni va Hind daryosidan Egey va O'rtayer dengizigacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mamlakatlarini, shuningdek Misr, Liviya va Bolqon yarim orolining bir qismini bosib olish natijasida tashkil topgan. **Ahamoniylar davlatiga** ahamoniylar vakili **Kir II** (mil. avv. 558–530) asos solgan. **Ahamoniylar davlati** dunyoning yirik bir mintaqasida tarqoq holda yashayotgan xalq va elatlarni siyosiy jihatdan birlashtirgan **birinchi yirik jahon imperiyasidir**. Bu davlat hukmdorlari tarixda birinchi bo'lib butun dunyoni bosib olishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar. Ahamoniylar davlatini Ahamoniylar sulolasi boshqargan. Bu sulola qadimiy fors urug'idan boshlanib, bu urug' asoschisi Axoman mil. avv. VII asrda Parsua deb nom olgan viloyatga ko'chib kelgan fors qabilasining yo'l boshchisi bo'lgan. O'rta Osiyoda **Ahamoniylar sulolasi mil. avv. 540–330-yillarda** hukmronlik qilgan.

**Kir II mil. avv. 545–540-yillarda Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani** bosib oladi. Shunday qilib, Ahamoniylar O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik aholisini birinchi bo'lib bo'ysundirgan edilar. **Kir II** ning O'rta Osiyoga yurishlarini qadimgi yunon tarixchisi **Gerodot** ta'riflagan.

Mil. avv. 530-yilda **Kir II** O'rta Osiyodagi massagetlarga qarshi yurish qiladi. Bu haqida **Gerodot** "**Tarix**" asarida forslarning **Araks** (Amudaryo) daryosidan kechib o'tishi va massagetlar yerlarining ichkarisiga kirib borishi, To'marisning o'g'li **Sparangiz** boshchiligidagi massagetlarning bir qismi tasodifan forslardan mag'lubiyatga uchrashi, **To'maris** boshchiligidagi massagetlarning harakatlari natijasida forslarning butunlay qirib tashlanishi, podsho Kir jasadining jang maydonidan topilishi va uning kesilgan boshini qon bilan to'lg'izilgan meshga solinishi tasvirlangan.

Gerodot o'zining asarida Kir II ning olib borgan janglari xususida so'z yuritib, massagetlar va forslar o'rtasidagi bu jang barcha janglardan ham dahshatli bo'lganini ta'kidlaydi.

Kir II ning o'g'li **Kambiz** (mil. avv. 529–522) otasining bosqinchilik siyosatini davom ettiradi. Uning qo'shinlari Misrni bosib oladi. Shunda Kambiz o'z akasi **Bardiyani** o'ldirib, hokimiyat tepasiga qonunsiz kelgani oshkor bo'lib qoladi. Bu holdan foydalangan zardushtiylik kohini **Gaumata** o'zini Bardiya deb e'lon qilib, taxtga o'tiradi. Kambizni Eronga qaytayotganda yo'lda o'ldiradilar. Biroq, Gaumataning qismati ham shunday tugaydi. U mil. avv. 522-yilda o'ldirilib, o'miga Ahamoniylar sulolasiga mansub bo'lgan **Doro I** (mil. avv. 522–486) o'tiradi.

**Mil. avv. 522-yilda** Ahamoniylar taxtiga **Doro I** o'tirishi bilanoq fors bosqinchilariga qarshi **Parfiyada** (mil. avv. 522-yil 30.09–521-yilning yozi), **Marg'iyonada Frada** boshchiligida (mil. avv. 522-yil 30.09.–10.12.) va saklar o'lkasida **Skunxa** boshchiligidagi (mil. avv. 519-yil) qo'zg'olon ko'tariladi.

**Doro I** ning harbiy yurishiga qarshi tarixchi **Poliyenning** "**Harbiy hiylalar**" asaridagi **Shiroqning** harbiy jasorati diqqatga molikdir. Manbada hikoya qilinishicha, yilqi boquvchi Shiroq o'z vataniga bostirib kelgan dushmanlarni hiyla ishlatib, chalg'itib, Qizilqumning halokatli jazirama dashtlariga boshlab boradi va o'z jonini qurbon qilib bo'lsa-da, vatani va xalqini yovuz dushmandan asrab qoladi. Shiroq – millat, yurt va vatanga fidoyilik, vatanparvarlikning yorqin timsolidir.

**Doro I** O'рта Osiyodagi ahamoniylarga qarshi qo'zg'olon haqida **Kirmonshoh** shahri yaqinidagi **Behistun** qoyalari rasm va bitiklarni yozdiradi. **Behistun yozuvlari** uch tilda – **qadimgi fors, elam** va **bobil** tillarida yozilgan. Bu yozuvlarda u zabt etgan mamlakat va xalqlar, jumladan O'рта Osiyodagi Xorazm, Sug'diyona va Baqtriya viloyatlari bilan barcha sak qabilalari sanab o'tiladi.

O'рта Osiyo xalqlarining erk va ozodlik kurashlari ahamoniy hukmdorlarni bir qator islohotlar o'tkazishga majbur qildi. Jumladan, Doro I saroy zodagonlari huquqlarini cheklashga majbur bo'lgan, mamlakatda o'zining mutlaq hokimiyatini o'rnatgan. Mamlakatni 20 ta “**xshatra**”, ya'ni viloyatlarga bo'lib idora qilgan. Viloyat boshlig'i – satrapga cheklanmagan hokimiyat berilgan. Har bir viloyatning ayg'oqchisi bo'lgan. Bu ayg'oqchilar hukmdorning viloyatlardagi “ko'z-u quloqlari” edi.

O'рта Osiyoning bosib olingan viloyatlari uch satraplikka bo'lingan. Ular baqtriyaliklar, egllar, saklar, kaspiylar, parfiyaliklar, sug'diylar va xorazmliklarning yerlari bo'lgan. Har bir satraplik yillik xiroj to'lagan va hasharlarga jalb qilingan. **12 satraplikka** Baqtriya bilan Marg'iyona kirgan bo'lib, 360 talan yillik xiroj, **15 satraplikka** saklar bilan kaspiylar kirgan bo'lib, 250 talan yillik xiroj, **16 satraplikka** Parfiya, Xorazm, So'g'd va Ariya kirgan bo'lib, 300 talan yillik xiroj to'lagan. Ahamoniylar **Farg'ona vodiysi** va **Toshkent vohasini** bosib olmagan.

Ahamoniylar davrida O'рта Osiyo aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. Mil. avv. VI–IV asrlardagi yirik shaharlar **Afrosiyob, Qiziltepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir, Qal'aliqir** yirik hunarmandchilik markazlari bo'lgan. **Erkqal'a** qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Zargarlik san'atining yuqori darajada rivoj topganiga **Amudaryo xazinasining** oltin va kumushlari yorqin misol bo'la oladi. Bugun ular Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. **Amudaryo xazinasini** buyumlarini **1877-yilda Qo'bodiyonda** mahalliy aholi topib olgan. Bu xazinaning 180 taga yaqin zargarlik buyumlari va ko'plab tangalari bo'lgan.

Ahamoniylar davrida ko'pgina sharq xalqlarining siyosiy birligi, keng madaniy va iqtisodiy aloqalar rivojiga asos soldi. Bu davrda O'рта Osiyoda **oromiy yozuvi** tarqaladi. Oromiy yozuvi asosida 4 ta mahalliy yozuv ajralib chiqdi. Bular **parfiya, sug'd, baqtriya** va **xorazm yozuvlari** bo'lib, ular O'рта Osiyoda arablar kelguncha saqlanib qoldi. Mil. avv. VI–IV asrlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi natijasida O'рта Osiyo xalqlari ilk marta zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar va muomala qildilar. Mil. avv. V–IV asrlarda O'рта Osiyoda dastlabki ahamoniylar tangalari tarqalgan.

## **O'RTA OSIYO XALQLARINING YUNON-MAKEDON BOSQINCHILARIGA QARSHI KURASHI**

Mil. avv. 360-yilda **Filipp II** Makedoniya taxtiga o'tirdi. Kuchli armiya tuzib, Yunonistonni egallab olgan Filipp II mil. avv. 337-yilda **Korinf** shahridagi anjumanda o'zini Yunoniston podshosi deb e'lon qildi. Bu davrda Ahamoniylar bilan Yunoniston o'rtasida ziddiyatlar kuchaydi. Filipp II mil. avv. 336-yilda forslarga qarshi urush e'lon qildi. Ammo shu yili uning o'ldirilganligi tufayli urush harakatlari to'xtab qoldi. Taxtni Filipp II ning 20 yoshli o'g'li **Aleksandr Makedonskiy** egalladi.

Aleksandr otasi Filipp II yo'lini davom ettirdi. Ammo u dastlab mamlakat ichki hayotini mustahkamladi. Davlat hokimiyatiga qarshi bo'lgan amaldorlarga nisbatan qattiq choralar ko'rdi. U Bolqon yarimorolida o'z hokimiyatini mustahkamladi.

Mil. avv. 334-yilda Aleksandrning qo'shinlari forslarga qarshi yurish boshladi. Uch asosiy qattiq janglarda – mil. avv. 334-yilda **Granik**, mil. avv. 333-yilda **Iss** va mil. avv. 331-yilda **Gavgamelda** forslar mag'lubiyatga uchradilar va makedonlar Ahamoniylar davlatining sharqiy chegaralariga yetib bordilar.

Mil. avv. 329-yilda Aleksandr Hindikush tog'laridan o'tib, Baqtriyaning markazi Baqtrani istilo qiladi. Baqtriya va Sug'diyonaning hokimi **Bess** oxirgi ahamoniy podshosi **Doro III** ni o'ldirishda qatnashib, o'zini **Artakserks IV** – “**ulug' podsho**” deb e'lon qiladi va Sug'diyonaning Nautaka viloyatiga qochib ketishga majbur bo'ladi.

**Bess Spitamen, Oksiart** va **Datafaron** bilan ittifoq tuzib, yunonlarga qarshi kurashishga ahd qiladilar. Biroq, Bess o'zini ulardan yuqori tutib, podsholarcha munosabatda bo'lishni talab qilishi, ular o'rtasida kelishmovchilikni keltirib chiqaradi. Ittifoqchilar Bessni Aleksandrga topshirishga ahd qiladilar. Aleksandr lashkarboshi **Ptolemey Lagni** Nautakaga yuboradi.

Nautaka va Maroqanda shaharlarini Iskandar zabt etadi. **Maroqandada** u o'z harbiylarining bir qismini qoldirib, Sirdaryo tomonga yo'l oladi. **Ustrushonada** 30 ming aholidan 22 ming aholini qirib tashlaydi, **Kiropolisda** qattiq janglarni olib boradi.

Shu davrda **Spitamen** boshchiligida yunon-makedonlarga qarshi kurash boshlanadi va Maroqandadagi askarlariga yordam berish maqsadida qo'shinlarining bir qismini yuboradi. Bu qo'shin **Politimet** (Zarafshon) jangida Spitamen tomonidan qirib tashlanadi. Aleksandr uchun bu juda ham katta mag'lubiyat edi. Spitamenga qarshi jiddiy tayyorgarlikni amalga oshirish maqsadida uning o'zi asosiy kuchlari bilan Maroqandaga yetib keladi, lekin Spitamen tezda g'oyib bo'ladi. G'azablangan Aleksandr Samarqand va Sug'diyonadagi 120 mingga yaqin tinch aholisini qirib tashlaydi.

Mil. avv. 328-yilda Spitamen Baqtriyada va Quyi Zarafshonda yunon-makedonlarga qarshi hujum uyushtiradi, ammo bu janglar Spitamen uchun muvaffaqiyatsiz yakunlanadi va u saklar bilan cho'lga qochishga majbur bo'ladi. Saklar Aleksandr ularning yerlariga hujumga tayyorgarlik ko'rayotganidan xabardor bo'lib, Spitamenni o'ldiradilar.

Spitamening o'limidan keyin xalq harakati susaygan bo'lsa-da, lekin tamoman so'nmadi. Aleksandr hiyla ishlatib mahalliy hukmdorlardan Sug'd qal'asining hokimi **Oksiartning** qizi **Roksanaga** uylanadi, mahalliy xalqqa o'zini yaqin tutib, uning milliy urf-odatlarini qabul qiladi, milliy kiyimlarini kiyib yuradi. Shundan so'nggina mahalliy hukmdorlarning bir qismi uning tomoniga o'tadi va Aleksandr o'z niyatlarini ro'yobga chiqaradi.

Aleksandr **Baqtriya, Sug'diyona** va **Ustrushonaning** bir qismini istilo qilib, mil. avv. 327–324-yillarda Hindistonni zabt etadi. **Xorazm, Choch, Farg'ona** va **saklar yurti** mustaqil bo'lib qoladi. U mil. avv. 323-yilda o'z davlatining yangi poytaxti **Bobil** shahrida vafot etadi. Shunday qilib, makedoniyalik Aleksandr olib borgan bosqinchilik va adolatsiz urushlar oqibatida O'rta Osiyoda ahamoniyar zulmi yunon-makedon istilochilari zulmi bilan almashdi. O'rta Osiyoda zabt etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Masalan: **Artaboz** – Baqtriyada, **Oksiart** va **Xoriyen** Sug'diyona viloyatlarida hokimlik qilar edilar.

Aleksandrning harbiy yurishlari Sharq va G'arb o'rtasidagi keng savdo-sotiq hamda madaniy aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. O'rta Osiyo tarixida **antik** (lotincha antiquus – *qadimgi*) **davr** boshlandi. Yunonlar Qadimgi Sharqning juda ko'p madaniy yutuqlarini qabul qiladilar va o'zlarining madaniy ta'sirini ham mahalliy aholining madaniyatiga joriy etdilar. Makedoniyalik Aleksandr o'z saltanatida 70 dan ziyod shahar, jumladan Markaziy Osiyoda 12 ta shahar qurdirgan. Ularning ba'zilar vayron etilgan Sug'diyona va Baqtriya shaharlari o'rnida, boshqalari esa tayanch qal'alar tarzida yangidan qurildi. Bu shaharlarda yunon-makedon piyoda va otliq askarlari joylashdi. Mil. avv. 324-yildan boshlab bu askarlarning soni kamayib, siyraklashgan ularning saflari qurollantirilgan Baqtriya va Sug'diyona yoshlari hisobiga to'ldiriladi. Aleksandr va uning yaqin lashkarboshilarining o'limidan so'ng mahalliy hamda yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni, ya'ni **ellinlashtirish** boshlanadi.

## **SALAVKIYLAR DAVLATI** (mil. avv. 312–64-yillar)

Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng taxt vorisligi uchun uning lashkarboshilari o'rtasida kurash avj olib ketdi. Natijada Iskandar davlati uch mustaqil davlatga bo'linib ketdi: **Makedoniya, Misr va Suriya** (Salavkiylar) davlatlariga.

Mil. avv. 312-yilda **Salavkiylar davlatiga** Bobil satrapiyasining diodoxi **Salavk I Nikator** (mil. avv. 358–280) asos solgan. **Salavkiylar** hukmronligi Kichik Osiyo, Suriya, Eron va O'rta Osiyoda o'rnatildi. Salavkiylar hokimiyati Sharqdagi harbiy manzilgohlarda joylashgan yunon-makedon qurol-aslahalari bilan qurollangan, mahalliy xalqlarning vakillari harbiy kuchlariga tayangan edi. Yunon-makedon hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Sharqda ko'plab harbiy tayanch nuqtalarni barpo etish Iskandar davrida boshlangan edi. Aleksandr O'rta Osiyoda 12 ta shaharga asos solgan edi. **Salavk I Nikator** asos solgan 75 ta shahar Salavkiylar davlatining asosiy tayanchi bo'lgan. Uning davlatidan o'tgan xalqaro savdo yo'llar ichki va tashqi savdoning kuchayishi va hunarmandchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Salavkiylar davlati satrapliklarga bo'linib, ularni **strateglar** boshqargan. Starteglar sobiq lashkarboshilardan tayinlangan bo'lib, ular davlat mudofaasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan shug'ullangan.

Mil. avv. 293-yilda davlatning sharqiy viloyatlariga Salavka va Spitamenning qizi **Apamaning** o'g'li **Antiox** hokim etib tayinlanadi. Salavka va uning o'g'li O'rta Osiyoga katta e'tibor bergan. Bu davrda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq ancha rivojlangan. Bu hududlarda 75 ta shahar qurilgan. Antiox davrida Baqtriya hayotida dastlabki tangalar – oltin, kumush, mis dirham va tetradirhamlar (pul birligi) zarb qilingan.

**Ellinlashtirish jarayoni** boshlanadi. Elinlashtirish – Sharqqa yunon madaniyatining yoyilishi jarayoni, aralash madaniyatining – yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni. Salavkiylar davlati hududlariga ko'chmanchi qabilalar tez-tez hujum qilib turar edi. O'zi notinch bo'lsada, Salavka Hindiston bilan urush harakatlarini olib borgan va yengilgan. Bu hol salavkiylarning O'rta Osiyodagi obro'siga salbiy ta'sir qildi. Salavkiylarga qarshi mahalliy xalq qo'zg'olonlar ko'taradi. Ayniqsa bu qo'zg'olonlar mil. avv. 280-yilda **Salavka** vafotidan so'ng kuchayadi. Mutlaq hokimiyatni o'z qo'liga olgan uning o'g'li Antiox mahalliy zodagonlarga tayanib, O'rta Osiyodagi qo'zg'olonlarni bostirgan. Antiox hukmronligi davri (mil. avv. 293–261-yillar)da g'arbga qilgan harbiy yurishlari bilan shuhrat qozondi. Natijada sharqiy viloyatlar ma'lum darajada uning e'tiboridan chetda qoldi. Bu jarayondan foydalangan sharqiy viloyatlar mustaqillikka intilib, salavkiylarga qarshi chiqishlar uyushtirdilar. Natijada salavkiylar davlati parchalanib ketgan. Mil. avv. III asr o'rtalari kelib dastlab Parfiya, so'ngra Yunon-Baqtriya bu davlat tarkibidan ajralib chiqib, mustaqillikka erishdilar.

**Antiox III** davrida (mil. avv. 223–187) Salavkiylar davlati siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Lekin mil. avv. 190-yili rimliklar bilan bo'lgan urushda yengildi va u tanazzulga uchray boshladi. Hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro urushlar natijasida Salavkiylar davlati yanada kuchsizlana bordi va nihoyat Rim uni o'z viloyatiga aylantirib oldi.

## **YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI** (mil. avv. 250–130-yillar)

Yunon-Baqtriya podsholigiga salavkiylarning Baqtriyadagi eparxi (noibi) **Diodot** asos solgan. Baqtriyadagi mahalliy va yunon zodagonlariga tayangan Diodot I mil. avv 250-yilda O'rta Osiyoda salavkiylarga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonidan foydalanib, Baqtriyani salavkiylar davlatidan

ajratib oldi va o'zini Baqtriya podshosi deb e'lon qildi. Hukmdorlar yunon zodagonlaridan bo'lgani uchun bu davlat tarixda **Yunon-Baqtriya podsholigi** nomini olgan. Uning tarkibiga Baqtriya, Sug'd, Marg'iyona, Choch va Dovon viloyatlarining bir qismi kirgan. Poytaxti qadimgi **Zariasp – Balx** shahri bo'lgan.

Parfiyani qo'lga kiritish maqsadida **Diodot I** salavkiylar tomonida turib Arshak I ga qarshi kurashgan bo'lsa, o'g'li **Diodot II** Parfiya bilan ittifoq bo'lib, salavkiylarga qarshi urush olib borgan. Diodot I davlat hokimiyatini mustahkamlashga katta hissa qo'shgan, Diodot II esa buni aksini qilgan. Natijada mil. avv. 230-yilda Diodot II taxtdan tushirilib, hokimiyat Sug'd hokimi bo'lgan **Yevtidem I** qo'lga o'tadi. Mil. avv. 208–206-yillarda Yevtidem O'rta Osiyo satrapliklarini qaytarib olish maqsadida yurish qilgan salavkiylar podshosi **Antiox III** bilan shiddatli janglar olib borgan. Mil. avv. 208-yilda Antiox III Oh daryosining quyi oqimida – Marg'iyonada Yevtidemning otliq askarlarini tor-mor qilib, Zariasp shahrini qamal qiladi. Mil. avv. 206-yilda ular o'rtasida sulh tuziladi. Sulhga ko'ra, Antiox III Yevtidemning shohligini tan oladi. Yunon-Baqtriya podsholigining eng kuchaygan davri Yevtidem va uning o'g'li **Demetriy** hukmronlik yillariga (mil. avv. III asrning 2-yarmi va II asrning 1-yarmi) to'g'ri keladi. Demetriy davrida (mil. avv. 199–167) davlat chegaralari har jihatdan kengayib, taraqqiy eta boshlaydi. Uning nomi bilan tangalar zarb qilinadi, davlat boshqaruvida islohotlar o'tkazadi, davlatni mayda hokimliklarga bo'lib boshqarishni joriy qiladi, mahalliy aslzodalarni davlat boshqaruviga keng jalb qiladi. Demetriy davrida bir qator harbiy qal'alar quriladi, ana shunday qal'alardan biri Termiz shahridir. Bu shahar o'z joylashgan mavqeyiga ko'ra davlatning iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Davlat chegaralarining Hindiston hisobiga kengayishi munosabati bilan Demetriy davlatining markazini janubga – **Taksilaga** ko'chiradi. Demetriyning Hindistonga yurishidan foydalanib, mil. avv. 175-yilda uning sarkardasi **Yevkratit** Baqtriyada davlat to'ntarishini amalga oshirib, hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Unga qarshi otlangan Demetriy jangda halok bo'ladi (mil. avv. 167-yil).

**Yevkratit** davrida (mil. avv. 167–155) Parfiya podshosi **Mitridat I** (mil. avv. 171–138) Marg'iyonani bosib oladi. Xuddi shu vaqtlarda Sug'diyona Yunon-Baqtriya davlatidan ajralib ketdi. Mil. avv. 155-yilda Yevkratit o'z o'g'li **Geliokl** tomonidan o'ldiriladi. Geliokl davrida (mil. avv. 155–130) faqat Baqtriya viloyatinigina o'z qo'lida saqlab qoldi. Mil. avv. II asr o'rtalarida bu davlatning harbiy-siyosiy qudrati orqaga keta boshladi. Bundan foydalangan yuechji qabilalari mil. avv. 140–130-yillar Yunon-Baqtriya podsholigini bosib oldilar.

**Termiz, Taxti-Sangin, Denov, Kampirtepa, Afrosiyobdan** topilgan arxeologik qazilmalar Yunon-Baqtriya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu davlatda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, madaniyat va savdo ancha rivojlangan. Davlat bir necha viloyatlarga bo'lingan edi. Yagona hukmdor podsho bo'lgan, viloyat hokimlari unga bo'ysunganlar. Yunon-Baqtriya davlatida har xil tangalar hukmdor tasviri bilan zarb etilgan.

## QADIMGI XORAZM (mil. avv. IV asrdan – mil. IV asrgacha)

Mil. avv. IV asrda Xorazm ahamoniylardan mustaqil davlatga aylandi. Mil. avv. 328-yilda Xorazm podshosi **Farasman** 1500 askari bilan Aleksandrning huzuriga kelib, Qora dengiz bo'yi qabilalari ustiga yurish qilmoqchi bo'lsa, bu yurishda unga yordam qilmoqchi ekanligini bildiradi. Tarixiy manbalarda Farasmandan keyingi Xorazm podsholari haqida biron bir ma'lumotlar yo'q. Mil. avv. III – milodning I asrda qadimgi Xorazmda shahar hayoti, iqtisodiyoti, madaniyati yuksak rivojlangan. Bu davrda zarb etilgan tangalarda Yunon-Baqtriya va Parfiya tangalariga taqlid

qilib chiqarilgan Qang' tangalari uchraydi. Bu davrda Xorazm Qang' tarkibida bo'lgan. I asrdan – III asrgacha esa Kushon tarkibida bo'lgan. Arxeologlar numizmatika (tangashunoslik) ma'lumotlariga asoslanib shunday xulosaga kelganlar. III asrdan Xorazm podsholarining tasviri tushirilgan tangalar paydo bo'ladi. Bu kumush va mis tangalarda **Arsumaxa**, **Vazamar** tasvirlari tushirilgan. Bu davrda Xorazm qudratli davlat bo'lgan. Xorazm davlatining xo'jaligi asosini dehqonchilik tashkil etgan. Shahar qurilishi, kulolchilik, qurolsozlik, to'qimachilik va zargarlik yuksak darajada rivoj topgan. Xorazmda o'ziga xos madaniyat vujudga kelgan. **Jonbosqal'a**, **Qo'yqirilganqal'a** yodgorliklari o'ziga xos madaniyat namunalaridir. Qo'yqirilganqal'adan (mil. avv. IV asr – mil.I asr) aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan. Astronom olimlar fikriga ko'ra, Qo'yqirilganqal'a ulkan rasadxona bo'lgan. Jonbosqal'a (mil. avv. IV asr – mil.II asr) Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanidagi Sulton Uvays tog'i janubiy sharqida joylashgan. Jonbosqal'a 200x170 m iborat bo'lib, xom g'isht va paxsadan qilingan qalin va qo'sh devorlar bilan o'ralgan. Devorlarining balandligi 10–11 m, qalinligi 1–13 m, ular o'rtasidagi 2,8 m kenglikda yo'lak bo'lib, tashqi devorda shaxmat taxtasi tarzida ikki qator qiya shinaklar bo'lgan. Qal'ani ichida otashparastlarning ibodatxonasi – otashkada, 300 dan oshiq uy va kichik hovlilar bo'lgan. Topilgan turli rangdagi marjon-munchoqlar orasida Suriya, Misr, Shimoliy Qora dengiz bo'yi shaharlaridan keltirilganlari ham uchraydi.

**Tuproqqal'a** ham milodning II–III asrlarida qurilgan ulkan inshoot bo'lgani aniqlangan. Arxeologlar Jonbosqal'ani “haykalchalar muzeyi”, Tuproqqal'ani “behisob tangalar muzeyi” deb atashgan. Tuproqqal'aning maydoni 17,5 ga bo'lib, 3 ga ortiqroq maydonida ko'shk – Xorazm podsho saroyi joylashgan. Podsho saroyi ko'shkning markazida joylashgan bo'lib, 80x80 m teng. Bu qal'ada podsho arxivi ham topilgan. Arxiv 100 ga yaqin hujjatlardan iborat bo'lib, 26 tasini o'qish mumkin bo'lgan. Topilgan hujjatlarni mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin: soliqqa doir hujjatlar, yog'ochga yozilgan (18 tasi), xo'jalikka oid hujjatlar, teriga yozilgan. Tuproqqal'a qadimgi Xorazmning poytaxti bo'lgan.

Xorazm **Sug'diyona**, **Marg'iyona**, **Baqtriya** va **sahro ko'chmanchilari** bilan tashqi savdo munosabatlarini olib borgan. Mil. avv. I asrda va milodning I asrida Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan.

Xorazmda O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuvlar topilgan. **Oybo'yirqal'a** (mil. avv. V–IV asr) yodgorligida xum sirtiga chekilgan mahalliy yozuv topilgan. **Qo'yqirilganqal'ada** (mil. avv. IV–III asr) ham ba'zi yozuv namunalari topib o'rganilgan. Bu manba yagona “asparak” – “otliq”, “chavandoz” so'zidan iborat. Xorazmdagi Tuproqqal'ada oromiy yozuvi asosidagi butun arxiv hujjatlar topilgan.

Milodning I asrida Xorazmda mahalliy taqvim ishlab chiqilgan bo'lib, bu taqvim VIII asrgacha amalda bo'lgan.

Toponomik ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm so'zining ma'nosi quyidagilarni bildiradi: **Xvarri yeri** (S.P. Tolstov), **Oziq-ovqatga boy mamlakat** (nemis olimi K.E. Zaxau), **Quyoshli o'lka** (so'g'd), **Qorasoch** (qadimgi turkiy).

## **QANG' DAVLATI** (mil. avv. III asr – mil. III asrgacha)

Mil. avv. III asr boshlarida saklarning tashqi harbiy hujumlaridan himoyalaniish zarurati tufayli **Qang' davlati** tashkil topgan. Bu jarayon yunon-makedon hukmronligiga qarshi kurashlar davridan boshlangan. Dastlab uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Keyinchalik Qang' davlati hozirgi **Toshkent vohasi**, **Chimkent viloyati** va **Sirdaryo havzasi** yerlarini egallagan.

Mil. avv. II asr oxiri – I asr boshlarida Qang' davlatining eng rivojlangan davridir. Qang' davlati bu davrda Xorazm, Sug'd va Ural tog'oldi yerlarini o'ziga bo'ysundirib, bu davlatlarning ichki boshqaruviga aralashmagan, faqat yillik o'lpon olib turgan. Qang' davlatining ikki poytaxti bo'lib, uning hukmdorlari yozni **O'trorda**, qishlovni esa **Qanqada** o'tkazar edilar. **Qanqa** Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi Qang'xa shahar xarobasi o'rnida joylashgan bo'lib, unga mil. avv. III asrda asos solingan. Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan.

Dovon davlati bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Mil. avv. 104–101-yillarda Xitoy–Dovon mojarolariga aralashib, xitoyliklarga katta talafot yetkazganlar.

Davlat boshqaruvida **Oliy Kengash** ahamiyati katta bo'lgan. Oliy Kengash hukmdor bilan bamaslahat ish yuritgan. Qang'liklar o'troq va yarim o'troq hayot kechirganlar. Ular asosan dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik, ma'lum bir qismi esa ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qang'liklarda madaniyat va san'at ham yuksak darajada rivojlangan. Mil. avv. II–III asrlarga oid Xitoy manbalarida qang'liklarning mohir sozanda, maqomchi va bastakor bo'lganliklari, ularning mashhur raqqosalari to'g'risida ma'lumotlar bor.

Qang' va qang'liklar to'g'risida, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida arxeologik qazilma yodgorliklar ham keng ma'lumot beradi. Bu borada, ayniqsa, **Qovunchi madaniyati**, **Qang' xarobasi**, **Choshtepa** yodgorliklari katta ahamiyat kasb etadi.

Toponomik ma'lumotlarga ko'ra, Qang' so'zi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

“**Mardonavor**”, “**Jasurlik**” (vizantiyaliklar), “**Xorazm**” (S. P. Tolstov), “**Arava**” (Rashididdin, XIII asr o'rtalari), “**Kanal**” (K. Shoniyozov).

### **FARG'ONA DAVLATI** (mil. avv. III asr – milodiy II asr)

Farg'ona vodiysining qadimgi davri tarixi yetarlicha o'rganilmagan. Mil. avv. II–I asrlar Xitoy manbalarida Farg'ona vodiysi tarixi haqida ba'zi ma'lumotlar bor. Ana shu ma'lumotlarda Farg'ona **Dovon podshohligi** deb atalgan. Dovon davlati taxminan mil. avv. III asrda paydo bo'lgan.

Mil. avv. II asr Xitoy manbalari ma'lumotlarida ta'kidlanishicha, Farg'onada 300 ming aholi yashagan. Vohada 70 ta shahar bo'lgan, poytaxti **Ershi** shahri edi.

Qadimshunoslarning tadqiqotlari natijasida Farg'onada ko'p sonli uy-qo'rg'onlar, qishloq va shahar xarobalari topib o'rganilgan. **Sho'rabashat** (O'zgan yaqini), **Uchqo'rg'on** (Namangan viloyati) singari shaharlar atrofidagi aholisi yerni ishlash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishganlar. Hunarmandchilik keng rivojlangan. Savdoda pulsiz mol ayirboshlash keng yo'lga qo'yilgan.

Ijtimoiy va siyosiy hayotda ayollarning o'rni katta bo'lgan. Ularga nisbatan hurmat kuchli bo'lgan.

Xitoy sayyohi va elchisi **Chjan Szyanning** bergan ma'lumotlariga qaraganda, Dovon, ayniqsa, o'zining **samoviy otlari** bilan mashhur bo'lgan. Farg'onaliklar ot ustida turib kamon otishga juda mohir va jasur bo'lganlar.

Dovon davlati Xitoy, Hindiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan.

Mil. avv. 104–101-yillarda Xitoy qo'shinlari Dovonga yurishlar qilib, **Ershi** shahrini qamal qiladilar. Shu paytda Qang' davlatining qo'shinlari yordamga kelib, xitoyliklarga qarshi kurashda faol qatnashdilar. Xitoy lashkarlari sulhga rozi bo'lib, Dovonni tashlab chiqadilar.



Olimlarning aniqlashicha, milodning II asrida Farg'ona davlati barham topdi va uning yerlari Kushon podshohligiga qo'shib olindi.

Farg'ona so'zi quyidagi ma'nolarni bildirgan: “**kichik viloyat**” (hind), “**tog' oralig'idagi vodi**”, “**atrofi berk soylik**” (fors).

### **KUSHON DAVLATI** (mil. avv. I asr – milodiy IV asr)

Spitamena qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchragandan so'ng mil. avv. IV asr oxirlarida asli O'rta Osiyoda yashagan **massaget** qabilalarining katta bir qismi Sharqiy Turkistondan to Mo'g'uliston chegaralarigacha bo'lgan hududlarga ko'chib ketganlar. Xitoy manbalarida o'sha massagetlar **yuechjilar** nomi bilan atalganlar. **Mil. avv. 176-yilda** xunlar yuechjilarni g'arbga ulotirib tashlaydilar. **Mil. avv. 140–130-yillarda** yuechjilar Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar va “**Katta yuechji**” davlat uyushmasiga asos soladilar. Bu davlat uyushmasiga beshta hokimlik bo'ysunar edi. **Guysuan, Xyumi, Shuanmi, Xisi va Xuanmi** ana shular jumlasidandir. Guysuan qabilasi yabg'usi **Kudzula Kadfiz** boshqa to'rtta hokimlikni ham o'ziga tobe qilib o'z davlatini **Kushon davlati** sifatida e'lon qildi. Bu davlatning markazi **Dalvarzintepa** edi. Podsho Kudzula Kadfiz davrida Kushon davlati hududi ancha kengayib, davlat tarkibiga **Janubiy Tojikiston, Afg'oniston va Kashmir** yerlari qo'shib olindi. Uning davrida kushonlarning o'z pullari bo'lmagan. Rim va Parfiya davlatlari tangalariga taqlid qilib pullar chiqarilgan. Bu davrda davlat tili yunon tili bo'lgan.

**Vima Kadfiz** davrida (51–78-yillar) Kushonlar davlati Pokiston va Hindistonning markaziy viloyatlari hisobiga kengayadi. Pul islohoti o'tkazilib, Kushon davlatining puli joriy qilinadi. Pullar oltin, kumush va misdan zarb qilinadi. Oltin pullar tashqi savdo uchun zarb qilingan. Bitta oltin pulning og'irligi 8 gr bo'lgan. Davlat tillari yunon va hind tillari bo'lgan.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri **Kanishka** davrida (78–100–123-yillar) davlat ulkan saltanatga aylandi. Kushon davlati **Surxon vohasi, Janubiy Tojikiston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston** hududlarini o'z ichiga olgan. Kanishka zamonida poytaxt **Peshovarga** ko'chiriladi. Qadimgi dunyo tarixida mashhur bo'lgan Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari kabi Kushon podshohligi ham yirik qudratli davlatlardan biriga aylanadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekiston hududining asosiy qismi (Xorazm, Zarafshon, Qashqadaryo, Toshkent va Farg'ona vohalari) Kushon davlati tarkibiga kirmagan.

Kushonlar sulolasi yozma manbalar asosida va tangashunoslik tadqiqotlari orqali o'rganilgan. Kushonlar ilk tangalarining bir tomonida Yunon-Baqtriyaning so'nggi podshosi Germey tasviri, ikkinchi tomonida esa kushonlar yag'busi tasviri tushurilgan.

Bu davrda, ayniqsa, **Termiz, Samarqand, Naqshob, Buxoro, Choch, Dalvarzin va Peshovar** shaharlari rivojlandi. Xitoy va Rim bilan savdo aloqalari kengaydi. Savdo munosabatlarining rivojlanishida Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Termizdan Rim tangalari xazinasi, O'rtayer dengizi atrofidagi hududlarda esa Kushon tangalari topilgan.

Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan **Budda dini** davlat diniga aylandi. Oromiy va yunonlar yozuvlari asosida **kushon yozuvi** mavjud bo'lgan. Kushon davrida me'morchilik va tasviriy san'at yuksak darajada rivojlangan. San'at namunalari yodgorliklari **Ayritom, Eski Termiz, Dalvarzintepa va Xolchayondan** topilgan. Ular jahon miqyosida mashhur bo'lgan san'at obidalaridir. **Ayritom** Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryo qirg'og'ida joylashgan. Ayritomdan qo'shnay, chiltor, ud, nog'ora chalayotgan sozandalar va gulchambarlar, meva solingan idishlar ko'tarib olgan yigit-qizlar ifodalangan frizlar, budda ibodatxonasi xarobasi topilgan. **Dalvarzintepa** qadimgi shahar xarobasi bo'lib, Surxondaryodagi Sho'rchi shahridan 10 km shimoli-sharqda joylashgan.

**Dalvarzintepa** ikki qismdan iborat bo'lgan: qudratli mudofaa devori bilan o'rab olingan shoh saroy qal'asi va shaharning o'zi. Shahar ham mudofaa istehkomi tizimiga ega bo'lib, bu yerda aslzodalar, hunarmandlar, kulollar, savdogarlar va ruhoniylar istiqomat qilganlar. **Dalvarzintepadan** 36 km keladigan hududda 115 ta oltin buyumlari bo'lgan noyob xazina va fil suyagidan ishlangan dunyodagi eng qadimgi shaxmat donalari, ulug'vor haykallari bo'lgan ibodatxona topilgan. Bu yerda 1989-yildan boshlab yapon mutaxassislari bilan hamkorlikda keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. **Eski Termiz** shahri hududida **Qoratepa** yodgorligi ochilgan. Bu yerdan budda ibodatxonasi topilgan. Shu yodgorlik yaqinida **Fayoztepada** ham budda yodgorligi o'rganilgan. **Fayoztepa** budda ibodatxonasi va o'quv maktabi bo'lgan. Shuningdek Afg'oniston, Hindiston, Pokiston va Tojikistondan ham san'at yodgorliklari topib o'rganilgan.

Kushon davlati davrida suv tegirmoni, chig'ir turlari kashf etilgan, yerga ishlov berish qurollari takomillashtirilgan.

Kushon davlatining tinimsiz urushlar olib borishi uning inqirozga uchrashiga olib keldi. IV asrga kelib Kushon podsholigi asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi.

### **BUYUK IPAK YO'LI** (mil. avv. II asr – milodiy XVI asr)

Har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyoti darajasini belgilaydigan ko'rsatkichlaridan asosiysi uning savdo aloqalarida ishtirokidir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatgina boshqa davlatlar bilan teng aloqa o'rnatadi.

O'rta Osiyo xalqlarining asrlar davomida "**Buyuk Ipak yo'li**" deb atalgan xalqaro savdo yo'lida istiqomat qilganliklari va keng miqyosda iqtisodiy aloqalar olib borganliklari ularning turli sohalarda erishgan yutuqlaridan dalolat beradi.

Buyuk Ipak yo'li tashkil topmasdan avval mil. avv. 3–2-mingyillikda Yaqin va O'rta Sharqda Badaxshon la'liga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan "**La'l yo'li**", Eron Ahamoniylari davrida esa "**Shoh yo'li**" mavjud bo'lgan.

Buyuk Ipak yo'li fanga "**Ipak yo'li**" nomi bilan 1877-yilda nemis olimi **K. Rextgofen** tomonidan kiritilgan. Ilgari u "**G'arbiy meridian yo'l**" deb atalgan. Xitoyda yetishtirilgan ipak xomashyosi va ipakdan to'qilgan matolar mazkur yo'l orqali Qadimgi Xitoyning **Sian** shahridan boshlanib 12 ming km uzunlikdagi masofaga cho'zilgan va Sharq bilan g'arbni bog'lagan. Sharq bilan G'arb madaniyati o'zaro yaqinlashdi, shu tufayli madaniyatlararo umumiy o'xshashliklar vujudga keldi. Podsholar va hukmdorlar bu yo'l orqali o'zaro elchilar almashganlar, bir-birlariga qimmatbaho sovg'a-salomlar in'om etganlar.

Buyuk Ipak yo'lga asos solinishida Xitoy elchisi **Chjan Syanning** xizmatlari katta. U Xitoy imperatori **Vu Di** topshirig'iga ko'ra xunnlarga qarshi kurashda ittifoqchi topish uchun jo'natiladi. **Chjan Syan** o'tgan yo'l bo'ylab mil. avv. II asrda jahon ahamiyatiga ega bo'lgan karvon yo'lga asos solinadi. Bu yo'l mil. avv. II asrdan milodiy XVI asrgacha Sharqni G'arb bilan bog'lovchi asosiy savdo yo'li edi. Buyuk ipak yo'li **Xitoy, Hindiston, Eron, O'rta Osiyo, Yaqin Sharq** va **O'rtayer dengizi mamlakatlarining** iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutgan.


Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoydan ipak, chinni idishlar, choy va boshqa mahsulotlar chet mamlakatlariga chiqarilgan. Ular ichida ipak asosiy mahsulot bo'lganligi sababli savdo yo'li "**Buyuk Ipak yo'li**" nomini olgan. O'rta Osiyodan Xitoyga turli xil gazlamalar, qo'y terisi, qurol, qimmatli toshlar, otlar olib borilgan.


Buyuk Ipak yo'li davlatlar o'rtasida faqat iqtisodiy aloqalar vositasi bo'lib qolmasdan madaniy, ilmiy va diplomatik munosabatlar uchun ham xizmat qilgan.


Xalqaro savdoda Xitoy bilan aloqada bo'lgan davlatlar orasida **Sug'diyona** va **Baqtriya** muhim o'rin tutgan. Sug'dlarning qadimdan yaxshi diplomat va savdo sohasida mohir ekanliklari ma'lum. Ular tijorat ishlarida faol qatnashish bilan cheklanmasdan, Sug'diyonadan anchagina uzoqda ham savdo-sotiq olib boradigan manzillar tashkil etganlar. Ana shunday manzillar Sharqiy Turkiston, Xitoy, Yaponiyada qurilgan.

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida **Buyuk geografik kashfiyotlar** tufayli savdo yo'llari yo'nalishida katta o'zgarishlar yuz beradi. Endi G'arbning Sharq bilan savdosi quruqlikdagi eski karvon yo'llaridan suv yo'llariga ko'chadi. Shu sababli Buyuk Ipak yo'li tushkunlikka uchrab boradi.


Hozirgi kunda Buyuk Ipak yo'lining yana tiklanib, kelajak uchun xizmat qilishi tobora namoyon bo'lib bormoqda. **1993-yilda Bryussel** uchrashuvida **TRASEKA** – Yevropani Osiyo bilan birlashtiruvchi **Yevropa–Kavkaz–Osiyo transport yo'lagini** barpo etish masalasi ko'rib chiqilib, bu masala yuzasidan deklaratsiya qabul qilindi. **1996-yil 13-mayda Seraxs** manzilida O'rta Osiyo va Eron temiryo'llarining birlashtirilishi bu ulug'vor loyihani amalga oshirish yo'lidagi muhim voqea bo'ldi. **1998-yil 8-sentabrda Bokuda** Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada Yevropa–Osiyo yo'nalishini rivojlantirishdagi xalqaro transport to'g'risida shartnoma imzolandi.









**O'RTA OSIYO SALAVKIYLAR DAVLATI TARKIBIDA**  
mil.avv.312–250-yillar









■ **Siyosiy tarixi:**


- mil.avv. IX a. — harbiy ahamiyatga ega siyosiy birlashmalarining tashkil topishi
- mil.avv. VII—VI a. — davlatning tashkil topishi
- mil.avv. 600—540-yillar — rivojlangan davri
- mil.avv. 540—329-yillar — Ahamoniylar davlati tarkibida
- mil.avv. 329-yil — Iskandarning harbiy yurishi
- mil.avv. 329—327-yillar — Spitamen boshch. Iskandarga qarshi qo'zg'olon
- mil.avv. 312—250-yillar — Salavkiylar davlati tarkibida
- mil.avv. 250—130-yillar — Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi
- mil.avv. 140—130-yillar — yuechjilarning kelib o'rmasuvi
- mil.avv. I a. — mil. IV a. — Kushon davlati tarkibida
- II a. — toharlarning kelib o'rmasuvi


■ **Ijtimoiy-iqtisodiy hayoti:**


- Aholi sug'orma dehqonchilik, temirchilik, tikuvchilik, zargarlik, kulolchilik, chirmangarlik bilan shug'ullangan.
- *Exil* «Forslar» asarida (mil.avv. 472-y.) Baqtriya xalqi tushunchasini 1-bo'lib ishlatgan
- Yosh baqtriyalik jangchilar Tenagon va Aritonlar *Salamin jangida* (mil.av. 480-y.) halok bo'lishi
- Kserks armiyasida (mil.avv. 486-465-y.) Baqtriya suvoriylari katta kuch bo'lgan (Gerodot)


■ **Madaniy hayot:**


- Teshiktosh — mil.avv. 100—40-mingyilliklar
- Machay — mil.avv. 7—6-mingyilliklar
- Zarautsoy — mil.avv. 12—7-mingyilliklar
- Sopolitepa — mil.avv. 2-mingyilliklar
- Jarquton — mil.avv. 2-mingyilliklar
- Mil.avv. 1-mingyillik 1- yarmiga oid 240 dan ortiq uy, qo'rg'onlar, qal'a va shaharlar qoldiqlari topib tekshirilgan:
- Kuchuktepa
- Bandixon
- Qiziltepa
- Bo'yiracha
- "Amudaryo xazinasi" mil.avv. VI—IV a.
- Xolchayon
- Dalvarzintepa } I—IV asrga oid
- Ayritom }
- Zartepa }
- Qoratepa }
- Fayoztepa }











## TARIXIY SHAXSLAR

**ANTIOX III Suriyalik (mil. avv. 242–187-yillar)** – Salavkiylar podshohi (mil. avv. 223–187-yillar). Mil. avv. 224–220-yillarda Fors, Midiya va Kichik Osiyoning satrapliklaridagi qo'zg'olonlarni bostirgan. Mil. avv. 212–205-yillarda Sharqqa qilgan yurishlari unga kuch-qudrat, shuhrat va “*buyuk*” laqabini keltirdi. Bu yurishlarda u Parfiya va Baqtriyani zabt etadi, hind podshohi bilan ittifoq tuzadi. Mil. avv. 208–206-yillarda Salavka podshosi Antiox III bilan *Yevtidem* o'rtasida ikki yilga cho'zilgan urush, sulh bilan tugaydi. Antiox III Yevtidemning shohligini tan olishga majbur bo'ladi. Chunki shu davrda shimoldan ko'chmanchi qabilalar xavf solib turgan edi. Mil. avv. 190-yilda *Magnesiya yonidagi jang*da Antiox III mag'lubiyatga uchrab, sulh tuzadi, bundan so'ng Salavkiylar podsholigi o'z kuch-qudratini yo'qota boshlaydi. Antiox III mil. avv. 187-yilda *Elimaideda* mahalliy aholi tomonidan o'ldiriladi.

**ARISTOBUL** – yunon tarixchisi, *Aleksandr Makedonskiy* yurishlarida qatnashib (mil. avv. IV asr), bu haqda mufassal ma'lumot qoldirgan.

**ARTAKSERKS I** – ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohi (mil. avv. 465–424-yillar). Otasi Kserks I fitna natijasida o'ldirilgach, taxtga o'tirgan. Hukmronligining dastlabki yillarida ahamoniylar davlati bilan urush olib borayotgan Afinaning ko'magida ko'tarilgan Misrdagi qo'zg'olonni bostirgan, mil. avv. 454-yilda esa forslar Nil deltasida Afina flotini yakson qilganlar. Mil. avv. 449-yilda Kipr orolidagi *Salamen jangida* Afinaliklar g'alaba qozongach, yunon-fors urushlari yakunlangan, *Kalliy sulhini* imzolagan. Bu sulhga ko'ra, Artakserks I Kichik Osiyodagi Yunon shaharlarining siyosiy mustaqilligini tan olgan. Fors zodagonlarining separatik harakatlari (masalan, mil. avv. taxm. 449-yildagi Megabez isyoni) va tobe xalqlarning qo'zg'olonlari kuchayishiga qaramay Artakserks I davrida markaziy hokimiyat ancha kuchli bo'lib, Ahamoniylar davlatining hududiy yaxlitligi asosan saqlanib qolgan edi.

**ARTAKSERKS II** – ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohi (mil. avv. 454–358-yillar), *Doro II* ning katta o'g'li. Hukmronligining dastlabki yillarida Kichik Osiyo hokimi, ukasi Kir bilan taxt uchun kurash olib borgan. Tashqi siyosat sohasida bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsada (mil. avv. 394-yil Sparta flotining *Knid* yonida tor-mor keltirilishi, mil. avv. 386-yilgi *Antalkid sulhi* va boshqalar), Artakserks II podsholigi davri Ahamoniylar davlatining zaiflashgan payti edi. Artakserks II ga qarshi satraplar, vassal shohlar, yarim qaram qabilalar

(kadusiylar va boshqalar) bir necha bor qo'zg'olon ko'targanlar.

**ARTAKSERKS III** – ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohi (mil. avv. 358–338-yillar), *Artakserks II* ning o'g'li. Akalarini o'ldirib taxtni egallagan. Ahamoniylar davlatining hududiy birligini tiklash uchun qattiq harakat qilgan. Satraplarga yollanma qo'shinlar saqlashni man etgan. Qator qo'zg'olonlarni (Kichik Osiyo, Finikiya, Kiprda) beshafqat bostirgan va mil. avv. 341-yilda Misrni qayta qo'shib olgan (Misr mil. avv. V asr oxirida Ahamoniylar davlatidan ajrab chiqqandi). O'zining mulozimi, mahrami *Bagoy* tomonidan o'ldirilgan.

**BERTON F.** – kapitan, Peshovar tumanidagi harbiy-siyosiy noib. 1880-yilda Buxoro savdogarlari olib ketayotgan “*Amudaryo xazinasi*” ni qaroqchilardan saqlab qolgan.

**BESS** – Ahamoniylarning *Baqtriya* va *Sug'diyonadagi* satrapi (hokimi). Ahamoniylar naslidan. Mil. avv. 332-yilda *Aleksandr Makedonskiy* qo'shinlari bilan *Doro III* qo'shinlari o'rtasida bo'lgan *Gavgamel jangida* Eron otliq qo'shinlariga qo'mondonlik qilgan. Eron qo'shinlari yengilgach, Bess *Spitamen*, *Oksiart*, *Datafarn* kabi lashkarboshilar hamda Doro III bilan birgalikda Sug'diyonaga chekinadi va qarindoshi Doro III ni xoinona o'ldirib, o'zini ahamoniylar davlatining oliy hukmdori – *Artakserks IV* deb e'lon qiladi. Aleksandr unga qarshi *Ptolemey Lag* boshchiligidagi lashkar yuboradi. Ptolemey Lag Bessni tutib bo'yniga sirtmoq solib Aleksandr qo'shini o'tadigan yo'l bo'yida qoldiradi. Aleksandr o'sha yo'ldan ketayotib Bessga ko'zi tushadida, undan nega o'z qarindoshi va podshohini o'ldirganini so'raydi. Shunda Bess Doroning mulozimlari qutquvi bilan hamda Aleksandrning ko'nglini olish uchun shunday qilganini aytadi. Aleksandr bundan g'azablanib, Bessning burun va quloqlarini kesishni, so'ng uni Ekbatanga yuborib, o'sha yerda midiyaliklar va forslar ko'z oldida qatl etishni buyuradi.

**DALTON O.** – Britaniya muzeyi xazinachisi. U 1905-yilda Buxoro savdogarlari xazinasi to'g'risida “*Oks xazinasi*” degan kitob yozgan.

**DEMETRIY** – *Yunon-Baqtriya podsholigi* hukmdori (mil. avv. 199–167). Uning davrida saltanat nihoyatda kuchaygan. Baqtriyaning hududi kengayib har jihatdan yuksalgan. Uning nomi bilan ko'plab joylarda tangalar zarb etildi. Davlatni boshqarishda islohotlar o'tkazildi. Unga ko'ra, davlatni mayda hokimliklarga bo'lib boshqarish joriy etilgan. Demetriy



mahalliy aslzoda vakillarini davlatni boshqarish ishiga tortdi. Harbiy istehkomlar – qal'alar qurishga katta e'tibor berildi. Demetriy davrida qurilgan shaharlardan biri Amudaryo sohilida qad ko'targan Termiz shahri edi. Bu shahar Yunon-Baqtriya davlatini, ayniqsa, uning Hindiston o'lkasining shimoliy viloyatlari bilan iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Demetriy shu bilan birgalikda hozirgi Afg'oniston va Shimoli-G'arbiy Hindistondagi bir qancha viloyatlarni bosib olgan. Shimoli-G'arbiy Hindistonda poytaxt shahar qurdirgan, zarb ettirgan tangalarida o'zini "**hindlar podshosi**" deb atagan. Keyinchalik davlatning shimoliy qismida, xususan, Yunon-Baqtriya mahalliy hokimlar orasida o'zaro nizolar kelib chiqqan. Natijada, mil. avv. 174-yilda Baqtriya Demetriyga qarshi harbiy qo'mondon **Yevkradit** boshchiligidagi isyon ko'tarilgan. Bu vaqtda Demetriy Hindistonda edi. U bu xabarni eshitib, tezda Baqtriya qaytgan va Yevkradit qo'shini bilan jangga kirgan. Demetriy u bilan kurashda halok bo'lgan, podsholigi esa parchalanib ketgan. Saltanatning Hindistondagi qismiga Demetriy sarkardasi **Menandr** podshoh bo'lgan.

**DIODOT (Diodotos) (? – mil. avv. 230-yil) – Yunon-Baqtriya podsholigi** asoschisi. Mil. avv. III asr o'rtalarigacha **Antiox II** ning Baqtriya noibi bo'lgan. Salavkiylarning O'rta Osiyodagi noibi. Baqtriya salavkiylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni o'z foydasiga foydalana olgan. Mil. avv. 250-yilda Baqtriya mustaqil deb e'lon qilib, podshoh unvonini qabul qilgan va **Diodot I** nomi bilan taxtga o'tirgan. Diodot davrida saltanat hududiga Sug'diyona, Areyya, Marg'iyona va ehtimol Paropomisad viloyatlari ham kirgan.

**DODARSHISH – Frada** qo'zg'olonini bostirgan Baqtriya satrapi.

**DORO I Darayavauxsh** – Qadimgi Eron davri ahamoniylar sulolasiga mansub hukmdor (mil. avv. 522-486-yillar). Kambiz I o'limidan foydalanib hokimiyatni qo'lga olgan kohin Gaumatani o'ldirib, taxtni egallagan. Mil. avv. 522-521-yillarda 10 ming kishilik xos qo'shini yordamida Bobil, Eron, Midiya, Marg'iyona, Elam, Misr, Sattagediya, Parfiya, Sug'd, Xorazm, Baqtriya va boshqa mamlakatlardagi qo'zg'olonlarni bostirgan. Mil. avv. 519-yilda **sakaitigraxaudalar** ustiga yurish qilib, ularni o'ziga tobe qilgan. Doro I Hindistonning shimoli-g'arbiy qismidagi bir qancha o'lkalarni ham o'z davlatiga qo'shib olgan (mil. avv. 518-yil). Qora dengizning shimolidagi **skif qabilalari** bilan urushib, mag'lubiyat bilan qaytgan. Doro I davrida yunonlar bilan eronliklar o'rtasida boshlangan urush (**Yunon-fors**

**urushi** – 500/499-449-yillar) ancha yillar davom etgan. Doro I mamlakatni bir necha harbiy-ma'muriy viloyat (satraplik)larga bo'lib, ularga fors zodagonlaridan hokim (satrap)lar tayinlagan; yangi soliq tizimini joriy qilgan. Mamlakatdagi mavjud karvon yo'llarining mustahkamlanishi va yangi savdo yo'llarining ochilishi, Nildan Suvayshgacha bo'lgan kanalning ta'mir qilinishi, oltin tanga (**Doroyi, Darik**) zarb qilinishi o'sha davrdagi xalqaro savdoning rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Doro I davrida ibodatxonalar (Memfisda), qasrlar (Suzada), shoh qarorgohi (Persepolda) qurilgan. Doro I hukmronlik qilgan yillar ahamoniylar davlatining eng yuksalgan davri hisoblanadi. Doro I davrida sodir bo'lgan voqealar, xususan Turon qabilalarining milliy ozodlik harakatlari uning o'zi tomonidan yozdirilgan Behistun qoyatoshlarida aks ettirilgan.

**DORO II** (qadimgi eroncha **Vaxuka**, yunoncha **Not**) – Ahamoniylar sulolasiga mansub Eron hukmdori (mil. avv. 423-404-yillar). **Artakserks I** ning o'g'li. Uning hukmronligi davrida Midiyada ahamoniylar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan (mil. avv. 409-yil), Misr mustaqil viloyat bo'lib ajralib chiqqan (mil. avv. 404-yil), Ahamoniylar davlatiga tobe bo'lgan boshqa viloyatlarda ham hokimlarning markaziy hukumatga qarshi harakatlari va o'zaro urushlari kuchaygan.

**DORO III Kodoman** – **Ahamoniylar sulolasining** so'nggi hukmdori (mil. avv. 336-330-yillar). Mil. avv. 335-yilning oxirida Misrni qayta bo'ysuntirgan, biroq **Aleksandr** mil. avv. 332-yilda Misrni Doro III dan tortib oladi. Doro III Aleksandrning qo'shinidan **Iss** (mil. avv. 333-yil) va **Gavgamel jangi** (mil. avv. 331-yil)da tamoman mag'lubiyatga uchrab, Sharqiy Eronga qochgan. O'z amaldori, Baqtriya noibi **Bess** tomonidan o'ldirilgan.

**FRADA** – mil. avv. 522-yil 30-sentabrda Marg'iyonada boshlangan fors istilochilariga qarshi ko'tarilgan yirik xalq qo'zg'olonining rahbari. Bu qo'zg'olon Ahamoniylar davlatining shohi **Doro I** hukmronligi davrida bo'lib o'tgan bo'lib, u tarixda "**Frada qo'zg'oloni**" deb nom olgan. Qo'zg'olonchilar bilan fors qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang mil. avv. 522-yil 10-dekabrda bo'ladi. Bu jangda marg'iyonaliklar yengiladilar. 55 ming kishi halok bo'ladi, 6000 kishidan ko'prog'i asir olinadi. Frada ham asirlikka olinib, mil. avv. 521-yilda qatl etiladi. Doro I ning Behistun qoyalariga bittirgan kitobasida Marg'iyona qo'zg'oloni haqida quyidagilar yozilgan: "**Shoh Doro aytdi: Margush (Marg'iyona) ismli mamlakat mendan ajralib ketdi. Qo'zg'olonchilar Frada ismli marg'iyonalik kishini o'zlariga bosh qilib oldilar. Keyin men Baqtriya**

*satrapi* – xizmatkorim Dodarshishga odam yubordim. Unga shunday dedim: Bor, meni tan olmayotgan uning lashkarini yanchib tashla. Keyin Dodarshish qo'shin bilan uning ustiga yurish qilib, marg'iyonaliklar bilan jang qildi. Ahuramazda menga yordam qildi. Ahuramazdaning irodasi bilan mening qo'shinlarim dushman kuchlarini yanchib tashladi. Keyin mamlakat yana meniki bo'ldi".

Geliokl – Yunon-Baqtriya davlati podshosi. Yevkditning o'g'li. Mil. avv. 155-yilda otasini o'ldirib, taxtga o'tirgan. Taxtga o'tirgach, Yunon-Baqtriya davlatining qudratini saqlab qola olmagan, uning qo'lida faqat Baqtriya hududi qolgan. Geliokl davrida Baqtriya o'z mustaqilligini uzoq saqlay olmagan. Shimoldan yuechji qabilalari bu hududga bostirib kela boshlaydilar. Mil. avv. 141 va 128-yillar o'rtasida Yunon-Baqtriya davlatining taqdiri uzil-kesil hal bo'ldi. Yunon-Baqtriya davlati yuechji qabilalari tomonidan bosib olingan.

**KANISHKA** – *Kushon podsholigi* hukmdori (78–100–123-yillar). Uning davrida mamlakat hududi hozirgi O'rta Osiyoning janubiy qismi, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston va keyinroq Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan. Kanishka Qang' davlati bilan ittifoqda bo'lib Sharqiy Turkistonda Xitoyga qarshi turgan. Xususan, Kanishka milodiy 90-yilda Qashqarni 70 ming otlig qo'shin bilan qamal qilgani ma'lum, biroq ozuqa zahiralarning yetishmasligi tufayli qamalni bo'shatishga majbur bo'lgan. Kanishka davrida Kushon podsholigi yuksak darajada taraqqiy etgan. Viloyatlarni podsho noiblari – *satrap (kshatrap)lar* boshqargan. Bu davrda Shimoliy Hindiston va O'rta Osiyo madaniyati ravnaq topgan; Sharq mamlakatlari va Rim imperiyasi bilan savdo va madaniy aloqalar o'rnatilgan. Pul islohoti o'tkazilib, oltin, kumush va mis tangalar zarb qilingan. Kanishka davrida Kushon-Baqtriya tili davlat tili sifatida qabul qilingan. Kashmirda 4-budda sobori (yig'ini) chaqirilgan. Bu yig'inda buddizmning yangi mazhabi – *mahayana* rasmiylashtirilgan. Budda ibodatxonalar qurilgan, shuningdek, otashparastlik, hinduizm, aqidaparastlik va boshqa diniy e'tiqodlar tarqalgan. Uning davrida yunon, eron va hind madaniyati va dini bir-biri bilan aralashib ketgan. O'zi ham buddizm e'tiqodini qabul qilgan va uning aholi o'rtasida keng tarqalishiga homiylik qilgan. O'z davlati poytaxtini *Purushapur* (hozirgi Peshovar) ga ko'chirgan. Kanishka Kashmirda *Kanishkapur* shahrini bunyod etgani haqida ma'lumotlar bor.

**KARAN** – Zarafshon daryosi bo'yida *Spitamen* qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchragan Aleksandr Makedonskiy qo'shinining sarkardasi.

**KATAN** – baqtriyaliklarning yunonlarga qarshi qo'zg'oloni rahbari.

**KIR II (Buyuk Kurush, Kirayavauxsh) (? – mil. avv. 530-yil)** – *Ahamoniylar sulolasidan* bo'lgan *Qadimgi Eron shohi* (mil. avv. 558–530-yillar). Mil. avv. 558-yilda Midiyaga tobe fors qabilalari ittifoqini boshqargan va 553-yilda qo'zg'olon ko'tarib, Midiya taxtini egallagan (mil. avv. 550-yil) va Midiya podshologining rasmiy unvonini qabul qilib, bu bilan ahamoniylar sulolasiga asos solgan. Shundan so'ng Parfiyani, 546-yilda esa Lidiya va Kichik Osiyodagi yunon davlatlarini bosib olgan. 545–539-yillarda Drang'iyona, Marg'iyona, Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya, Areyya, Gedrosiya, xaumavarg saklari yashaydigan hududni, Sattagidiya, Araxosiya va Gandxarani istilo qilgan. 539-yilda Kir II qo'shinlari Bobilni bosib olgan. Bobildan g'arbda, Misr chegaralarigacha joylashgan mamlakatlar forslarga o'z ixtiyorlari bilan bo'ysunishgan. Kir II Bobil, Ossuriya, Elam va Iudeya (Yahudiya)dagi ibodatxonalarini, shuningdek, Bobil shahri devorini tiklagan. Bobil shohlari tomonidan Mesopotamiyaga zo'rlab ko'chirilgan xalqlarga Kir II o'z yurtlariga qaytishga ruxsat bergan. Bobil podshoh qarorgohlaridan biriga aylangan va Kir II "*Bobil podshohi, mamlakatlar shohi*" unvonini olgan. 530-yilning iyulida Kir II O'rta Osiyodagi massagetlar ustiga yurish qilgan, biroq *To'maris* rahbarlik qilgan massagetlar bilan bo'lgan jangda uning qo'shini butkul tor-mor keltirilib, Kir II halok bo'lgan. Kir II obrazi Qadimgi Sharq va antik adabiyotida chuqur iz qoldirgan. Masalan, *Ksenofont*ning "*Kiropediya*" asari unga bag'ishlangan. Xalq og'zaki ijodining ba'zi namunalarida Kir II ni kayoniylar sulolasiga mansub Kayxusrav bilan chalkashtirish hollari ham mavjud.

**KRATER** – *Aleksandr Makedonskiy*ning ishongan sarkardasi. U Kiro pol shahrini istilo qilishda yaralanadi. U mahalliy xalqni ko'proq jazolash va qattiq tazyiq o'tkazish tarafdori bo'lib, mahalliy xalqni ezib urf-odatini oyoqosti qilishni istaydi. U Aleksandrga faqat zulm va jabrlash yo'li bilangina davlatni mustahkamlash mumkin deb aytadi. U mahalliy xalq vakillarining arz-dodlariga quloq solmas, hatto haq gapni gapirganlarida ham jerkib berar, kerak bo'lganda kaltaklab o'gir jazolarga tortar, begunoh kishilarga ham jabr-sitam o'tkazishga harakat qilardi. Yunon tarixchisi *Diodorning* fikriga ko'ra, Krater Aleksandrning eng yaqin do'sti bo'lib, uni shoh sifatida hurmat qilardi.

**KSERKS I** (qadimgi forsha *Xshayarshan*) (? – mil. avv. 465-yil) – *Ahamoniylar sulolasiga* mansub *Qadimgi Eron shohi* (mil. avv. 486–465-yillar). *Kir II* ning qizi *Doro I* va *Atossaning* o'g'li.

Ahamoniylarga tobe misrliklar qo'zg'oloni (mil. avv. 486–484-yillar)ni bostirgan. Mil. avv. 482-yilda bobilliklar qo'zg'olon ko'targach, Bobilni vayron qilgan, Bobil shohi degan unvondan voz kechish bilan rasman va amalda Bobil davlatini yo'q qilib, uni oddiy bir *satrapiyaga* aylantirgan. Mil. avv. 480-yilda Yunonistonga yurish qilgan. Ammo mil. avv. 479-yilda forslar floti ham, quruqlikdagi qo'shini ham tor-mor keltirilgan. Bu mag'lubiyatlar Ahamoniylar davlati tanazzuli jarayonini kuchaytirgan. Kserks I mamlakat yaxlitligini saqlab qolish maqsadida diniy islohot o'tkazgan – mahalliy urug'-qabila ma'budlariga sig'inishni taqiqlab, *Ahuramazdaga* topinishni joriy etgan. U saroy ahli uyushtirgan fitnada o'ldirilgan.

**KUDZULA Kadfiz (Kadfiz I) – Kushon podshohligining** asoschisi (mil. avv. I asr oxiri – milodiy I asrning 1-yarmi). Ko'chmanchi *yuechjilar* (*toxarlar*)ning *gyushuan* – *kushon qabilasiga* mansub. Xitoy tarixiy yilnomalarida u *Kiotszyuko* nomi bilan ma'lum. Tarixiy haqiqatga yaqin taxminga ko'ra, yuechji qabilalari tomonidan Baqtriya istilo qilingandan (mil. avv. II asr, 3-choragi) taxminan 100 yildan biroz vaqt o'tgach, Kudzula Kadfiz kushonlar o'rtasidagi o'zaro taxt uchun kurashda qolgan 4 yuechji qabilalari orasidagi o'z tarafdorlari bilan Baqtriyaning janubi-g'arbiy hududlarida o'z hukmronligini o'rnatgan. U parfyanlarning Baqtriyaning g'arbiy hududlariga uyushtirgan tajovuzlariga qarshi harbiy harakatlar olib borgan. Baqtriyada yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va harbiy kuchlar nisbati Kudzula Kadfiz foydasiga o'zgarmaganligi, uni Hindukush tog'lari osha Kobul (Gaofu) viloyatiga ketishga majbur qildi. U Kobul viloyatini bo'ysundirib, viloyat hokimi sifatida tangalar zarb qilishni yo'lga qo'ydi. Kobuliston hokimi bo'lgan vaqtda Kudzula Kadfiz hali mustaqil siyosat olib bormagan. U Paropamisad (Kashmir)ning hind-yunon shohi *Germeyning* (mil. avv. I asrning o'rtalari) ustuvorligini qabul qilgan. Asta-sekin Kudzula Kadfizning harbiy qudrati oshib borishi unga qo'shni hududlarni o'z tasarrufiga olishga imkoniyat berdi. Bu borada Hindistonning shimoli-g'arbiy hududlaridagi siyosiy parokandalik unga juda qo'l kelgan. U o'z e'tiborini shu yerlarni bosib olishga qaratgan. Ko'p vaqt o'tmay, u o'z homiysi Germeyga qarashli hamma yerlarni o'ziga bo'ysundirgan. Germeyga qarashli hududlarning qo'shib olinishi kushon hokimligining qudratli davlatga aylanishiga olib keldi. Keyinchalik Kudzula Kadfiz mamlakat janubidagi hind-parfyan shohi Gandofar hududlari (Gandxara, Araxosiya) hisobiga o'z davlati chegarasini yanada kengaytirgan. Xitoy manbalarida qayd

qilinishicha, Kudzula Kadfiz 80 yil umr ko'rgan. Shundan taxminan 50 yilini yuechji qabilalarini birlashtirishga, kushonlar qabilasining ustuvorligini o'rnatishga, Kushon podshohligiga asos solishga va uni qudratli davlatga aylantirishga bag'ishlagan.

**MITRIDAT** (yunoncha *Mithridates*), *Arshak VI* (? – taxm. mil. avv. 136-yil) – *Parfiya shohi* (mil. avv. 170–138/137). Mitridat I Salavkiylar davlatining tanazzulga uchraganligidan foydalanib, uning sharqiy satrapiyalari – Midiya, Mesopotamiyaning katta qismi (mil. avv. 140-y.), Elam, Fors va Baqtriyani bosib olgan. Armaniston ham Parfiya siyosiy ta'siri ostida bo'lgan. Mitridat I davrida Parfiya yirik davlatga aylangan.

**POLIYEN** (lotincha *Polyaenus*) (**milodiy II asr**) – makedoniyalik yunon yozuvchisi. Rimda advokat va notiq sifatida shuhrat qozongan. 162-yilda Parfiya bilan urush boshlanganda *“Strategmalar”* (*“Harbiy hiylalar”*) asarini yozib, uni imperatorlar *Mark Avreliy* va *Lutsiy Verga* bag'ishlagan. Bu asar 8 kitobdan iborat bo'lib, sarkardalar va boshqa shaxslarning urush paytidagi xatti-harakatlari to'g'risidagi misollarni o'z ichiga olgan. Asar yunon mifologiyasidan to rimliklar (*Avgustni* ham)gacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Poliyen ma'lumotlari yunon va Rim manbalariga asoslanib yozilgan. O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan *“Shiroq”* afsonasi Poliyenning ushbu asari asosida vujudga kelgan.

**PTOLEMEY** – Aleksandr Makedonskiyning shaxsiy qo'riqchisi, u O'rta Osiyoning qadimgi davri haqida kundalik yozgan. Keyinchalik qarigan chog'ida memuar yozishga kirishadi ammo tugata olmaydi.

**RANOSBAT** – ahamoniylar qo'shini mingboshisi. *Shiroq* hiyla ishlatib fors qo'shinlarini cho'lga boshlab borganida Ranosbat fors qo'shiniga boshchilik qilgan.

**RIXTGOFEN Ferdenant Paul Vilgelm (Rixtxofen, Richthofen) (1833–1905-yillar)** – nemis geograf va geologi. 1877-yilda fanga *“Ipak yo'li”* atamasini kiritgan. Unga qadar Ipak yo'li *“G'arbiy meridian yo'li”* deb atab kelinardi.

**ROVSHANAK (Roksana, Ravshana)** – Sug'diyonada Aleksandr Makedonskiy sevib uylangan go'zal qiz, Oydin. Sug'd zodagoni *Oksiartning* qizi. Oxirgi umri Aleksandriya shahrida o'tadi. Aytishlaricha uning o'g'li ham bo'lgan. Vaqtincha Makedoniyani qo'lga olgan Kassandr Rovshanak va uning 9 yoshli o'g'lini xoinlarcha o'ldiradi. Rovshanak mil. avv. 346-yilda Nautaka (Qarshi) shahrida tug'ilib, mil. avv. 315-yilda Amfi polda fojiali vafot etgan.

**SALAVKA I Nikator** (yunoncha *Seleukos Nikator* – *“Muzaffar”*) (mil. avv. 358/354–281/

**280-yillar** — *Salavkiylar davlati* va sulolasi asoschisi. Makedoniyalik mashhur *Antiox*ning o'g'li. Mil. avv. 326-yilda *Aleksandr*ning Hindistonga qilgan yurishlarida mashhur sarkarda sifatida nom chiqardi. Aleksandr o'lgandan keyin uning safdoshlari (**diadoxlar**) bilan taxt uchun shafqatsiz kurash olib bordi. Mil. avv. 321-yilda Bobil satrapligini boshqarish unga topshirilgan. Mil. avv. 312-yilga kelib ("salavkiylar erasi"ning boshlanishi) bu yerda mustahkam o'rtnashib olgach, Midiya, Suziana va Forsiya (Persida)ni, keyinchalik Baqtriyani ham o'z mulkiga qo'shib oldi va o'zini shoh deb e'lon qildi. Taxminan mil. avv. 305-yilda Hindistonga muvaffaqiyatli yurish qildi, lekin G'arbdan tashvishli xabar olgandan so'ng, hind shohi *Chandragupta* bilan 500 fil evaziga sulh tuzdi va egallab olgan hududini qaytarib berdi. *Ipsdagi jang* (mil. avv. 301-yil) natijasida (diadoxlar o'rtasida yer bo'linganda) Mesopotamiya va Suriyani oldi. Mil. avv. 281-yilda *Lisimax*ni tor-mor qilib, Kichik Osiyoning deyarli hamma hududini egallab oldi. Salavka I Makedoniyaning podshosi bo'lish maqsadida Frakiya va Makedoniya tomon yurish boshlagan. Lekin, *Ptolemey Lagning* o'g'li *Ptolemey Keravn* tomonidan o'ldirilgan. Salavka I 70 ga yaqin shaharga asos solgan. Bu shaharlar Salavkiylar davlatining tayanchiga aylangan.

**SKUNXA** — Doro I mil. avv. 519-yilda *saka-tigraxaudalar* ustuga yurish qilganida unga qarshi chiqqan saklar yo'lboshchisi. Bu yurish haqida Behistun kitobalarida shunday deyiladi: "*Shoh Doro ayturki: keyin qo'shin bilan saklar mamlakatiga yurish qildim. Keyin uchi o'tkir kuloh kiyib yuruvchi saklar jangga kirishdilar. Men daryodan o'tgach, saklarni tamoman tor-mor keltirdim, qolgan qismini asirga oldim... Ularning Skunxa degan boshlig'ini qo'lga tushirib, huzurimga keltirdilar. Shunda men ularga boshqa boshliq tayinladim. Men shunday bo'lishini xohladim. Keyin bu mamlakat menga tobe bo'ldi*".

**SPARANGIZ (Sparganis)** — Massagetlar malikasi *To'maris*ning o'g'li. Ahamoniylar hukmdori *Kir II* boshliq forslar va massagetlar o'rtasida boshlangan urushlarda ishtirok etgan. Dastlabki jangda Sparangiz g'olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo'li bilan Sparangiz va ayrim massagetlarni asir olishganda, or-nomusga chiday olmagan Sparangiz o'zini o'ldirgan.

**SPITAMEN** (yunoncha — *Spitamenes*, sug'dcha — *Spitamana*) (? — mil. avv. 328-yil) — mil. avv. 329–328-yillarda Sug'diyonada vatan ozodligi yo'lida *Aleksandr* (Iskandar)ga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni (*Spitamen qo'zg'oloni*) rahbari. Yozuvchi *V.V. Yanning* yozishicha, Spitamenning

onasi — sug'd, otasi — sak qabilasiga mansub aslzoda xonadondan bo'lgan. Spitamen yoshligida abjir, chaqqon yigit bo'lib o'sgan. Otda chopish, kamon otish, qilichbozlikda unga hech kim tenglasha olmagan. Spitamen dastlab *Doro III* ning, so'ngra *Bess*ning lashkarboshilaridan, yaqin safdoshlaridan bo'lgan. Bess o'limidan so'ng, yunon-makedon istilochilariga qarshi 3 yil davomida mardona qarshilik ko'rsatgan. *Arrianning* yozishicha, qo'zg'olonchilarga qo'shilgan ko'chmanchi massaget qabilalari rahbarlari Aleksandrning cho'l ichkarisiga yurish qilishidan xavotirlanib, Spitamenni o'ldirib, boshini Aleksandrga yuborganlar. Spitamenning qizi *Apana Salavk I* ga berilgan, bu nikohdan salavkiylarning mashhur hukmdori *Antiox* tug'ilgan. Spitamenning nomi asrlar osha yashab mardlik va jasorat timsoli sifatida avlodlarga ruhiy madad berib kelgan. Spitamen haqida ko'plab badiiy (V. Yanning "*Qo'rg'on uzra olovlar*", Y. Ilyosovning "*Sug'diyona*", M. Qoriyevning "*Sug'd qoploni*" romanlari), tasviriy asarlar yaratilgan.

**TO'MARIS (mil. avv. VI asr)** — Turon xalqlarining ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda. Qadimgi yunon tarixchisi *Gerodotning* "*Tarix*" (mil. avv. V asr) asarida yozilishicha, *Ahamoniylar davlati* asoschisi *Kir II* mil. avv. 530-yilda Turonga bostirib kirganida, To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lgan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo'ylari va Qizilqumda yashashgan. To'maris massagetlar podshosining xotini bo'lib, u erining vafotidan so'ng davlatni boshqargan. Erondan kelgan bosqinchilar qo'shini bilan massagetlar o'rtasida shiddatli janglar bo'lgan. Dastlabki jangda To'marisning o'g'li *Sparangiz (Sparganis)* boshchiligidagi massagetlar g'olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo'li bilan Sparangiz va ayrim massagetlarni asir olishganda, or-nomusga chiday olmagan Sparangiz o'zini o'ldirgan. To'maris o'g'lining halokatidan esankirab qolmay, o'z xalqining manfaatini o'ylab, *Kir II* dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so'raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o'rtada ayovsiz jang bo'lgan. Gerodot massagetlar va forslar o'rtasidagi jang tafsilotlarini o'z asarida quyidagicha tasvirilaydi: "*Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o'rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo'lgan. Avval har ikkala qo'shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o'qqa tutdilar. Kamon o'qlari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashdilar. Jang uzoq vaqt davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozondilar. Fors qo'shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo'lgan. U to'liq*"

29 yil shohlik qilgan edi. Kir II ning jasadi topilgach, malika (To'maris)ning buyrug'i bilan uning kesilgan boshi inson qoni bilan to'lg'azilgan meshga solingan".

**VIMA Kadfiz (Kadfiz II, mil. I asr) – Kushon podsholigi** shohlaridan – kushonshoh (47–78-yillar). **Kudzula Kadfizning** o'g'li va vorisi. Taxminan 30 yil podsholik qilgan. Vima Kadfiz davrida Kushon podsholigi hududi kengaygan, xususan, Hindistonning bir qismi qo'shib olingan. Vima Kadfiz davrida pul islohoti o'tkazilgan, tangalar oltin va misdan zarb qilingan. Oltin tangalar: 1 dinor (8 g ga yaqin), 2 dinor, 1/4 dinor va ehtimol 1/2 dinor qiymati bilan chiqarilgan. Vima Kadfiz davrida Kushon podsholigining siyosiy markazi Sug'dda bo'lib, Hindistondagi mulklarni noiblar boshqargan. Vima Kadfiz zarb etgan tangalarning orqa tomonida hindlarning Shiva xudosi bilan buqa-zebu, oldi tomonida esa Vima Kadfizning mehrob oldida turgan surati aks etgan.

**YEVKRADIT (? – mil. avv. 155) – Yunon-Baqtriya podsholigi** shohi (mil. avv. 171–155-yillar), dastlab Baqtriyadagi harbiy garnizon boshlig'i. **Demetriy I** ning Hindistonga qilgan yurishidan foydalanib, mil. avv. 174-yilda Baqtriyada qo'zg'olon ko'targan va hokimiyatni o'z qo'liga olgan. Baqtriyaliklar Yevkradit boshchiligida sug'diylar, araxotlar, drang'lar, areylar va hindlar bilan betinim urushlar olib borishgan. Demetriy I bir qism qo'shini bilan Hindiston yurishidan qaytib Yevkradit qo'shini bilan kurashga kirishgan va **Baqtra shahrini** qamal qilgan. Qamal 5 oyga cho'zilgan. Yevkradit 300 jangchisi bilan bot-bot qal'adan chiqib 60 minglik qo'shinga ega raqibiga ketma-ket zarbalar berib g'alabaga erishgan, Demetriy I jangda halok bo'lgan. Demetriy I ning vorislari Hind vodiysidagi hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab qolgan. 2 ta mustaqil hokimiyat: **Yunon-Baqtriya** va **Yunon-Hind podsholigi** vujudga kelgan. Mil. avv. 162-yilda Yevkradit Parapamisadga bostirib kirib Demetriy I ning vorislaridan Panjobni tortib olgan. Ammo, uning hujumi Hind vohasidagi Yunon-Hind podsholigining shohi **Menandr** tomonidan to'xtatilgan. Yevkradit Hindistondan qaytayotganida o'g'li va taxtdoshi **Geliokl** tomonidan o'ldirilgan. Yevkradit zarb etgan tangalar arxeologlar tomonidan O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston hududidan ko'plab topilgan.

**YEVTIDEM (mil. avv. III asrning 2-yarmi) –**

**Yunon-Baqtriya podsholigi** shohi (mil. avv. 230-yildan). Asli Kichik Osiyoning Magnesiya shahridan. Dastlab Sug'diyona hokimi bo'lgan. So'ngra (mil. avv. taxm. 250-yildan) salavkiylardan ajrab chiqqan Sug'd podshosi **Diodotni** taxtdan ag'darib (mil. avv. 230-yil), Yunon-Baqtriya podshosiga aylangan. U o'z hukmronligining dastlabki yillarida Baqtriyada o'z mavqeyini mustahkamlashga e'tibor berdi. Mil. avv. taxm. 230–220-yillarda ko'chmanchi saklar, toxarlar, qonqalar tazyiqi ostida Sug'dni tashlab Baqtraga ko'chib o'tgan. U Parfiya bilan chegaradosh hududlarga e'tiborni kuchaytirdi. Mil. avv. 208-yilda salavkiylar podshosi **Antiox III** Turon satrapliklarini qaytarib olishga harakat qilgan. Antiox III Ox (Tajan) daryosi etaklarida, Marg'iyona hududida Yevtidem suvoriylarini tor-mor keltirib, Zariasp shahri (hozirgi Balx) ni qamal qilgan. Tarixchi **Polibiyning** xabar berishicha, bu "tarixiy qamal" 2 yil davom etgan. Yevtidem ko'chmanchilarni yordamga chaqiraman, deb po'pisa qilgandan keyingina Antiox qamalni bo'shatgan. Mil. avv. 206-yilda tuzilgan sulhga ko'ra, Yevtidemda podsholik unvoni saqlanib qolgan. Ammo u Antiox III ga bir necha jangovar fillar berish va tashqi siyosatda u bilan bamaslahat ish tutish majburiyatini oldi. Sug'd mil. avv. 206-yildan so'ng ko'chmanchilar ta'siriga o'tgan. Yunon-Baqtriya podsholigining eng kuchaygan davri Yevtidem va uning o'g'li **Demetriy** hukmronligi davriga to'g'ri kelgan. Yevtidem ellinistik tipdagi tangalarni Sug'dda zarb ettirgan dastlabki podshoh edi. O'rta Osiyo hududidan Yevtidemning Sug'd, Baqtriyada zarb etgan tangalari ko'plab topilgan.

**SHIROQ – sak qabilasidan** chiqqan otboqar. U o'z qabilasi manfaatlarini himoya qilib, yakka o'zi Eron shohi **Doro I** lashkarlariga qarshi chiqadi va harbiy hiyla bilan uning qo'shinlarini chalg'itib, suvsiz, dasht-sahroga boshlab boradi va halokatga duchor qiladi. O'zi halok bo'lsa-da, qabiladoshlarini halokatdan qutqaradi.

**CHE LIN** – Xitoy imperatorining Dovonga yuborgan pahlavon elchisi. U Dovonga imperator nomidan sovg'a-salomlar va oltindan yasalgan ot haykali bilan tashrif buyurgan. Che Linning oldidagi vazifa Dovonning "**samoviy otlari**"ni qo'lga kiritish bo'lgan. Biroq Dovon hukmdori uning talabiga rad javob bergan. Bu javob to'rt yil davom etgan Dovon bilan Xitoy o'rtasidagi urushga sabab bo'lgan.

## ATAMA VA TUSHUNCHALAR

**AKINAK (Aqinak)** – *xanjar* (40–60 sm). Sak, skif va forslarda mil. avv. 1-mingyillik oʻrtasi va 2-yarmida qoʻl jangida sanchuvchi qurol sifatida ishlatilgan. *Amudaryo xazinasi*dan topilgan sak jangchisi tasviri tushirilgan tilla jevakka qarab akinakning qanday taqib yurilganligini bilish mumkin. U belboqqa osib qoʻyilgan, pastki uchi esa ot minganda yoki piyoda yurganda xalaqit bermasligi uchun yonboshga, tizzadan yuqoriroqqa bogʻlab qoʻyilgan.

**AMUDARYO XAZINASI (Oʻkuz xazinasi)** – 1877-yilda Vaxsh daryosining Amudaryoga quyiladigan yerida, *Qoʻbodiyon bekligi* hududida mil. avv. IV–II asrlarga oid topilgan zargarlik buyumlari. Bu xazinadan 180 taga yaqin zargarlik buyumlari va koʻplab oltin va kumush tangalar topilgan. Buyumlarni turli davr ustalari ishlagan boʻlib, ahamoniylar, mahalliy yunon-baqtriya va saklar madaniyatiga mansub. Oltin va kumush tangalarga makedoniyalik Iskandar, salavkiylar hamda Yunon-Baqtriya davlati hukmdorlari Diodot va Yevtidemlar nomlari zarb qilingan. Ular Afgʻoniston va Hindiston orqali 1897-yilda Londondagi Britaniya muzeyiga olib ketilgan.

**ANGOB** – kulolchilikda ishlatiladigan rang.

**ANTIOX DEVORI** – qadimgi Margʻiyona (Marv) vohasi atrofini oʻrganan ulkan mudofaa inshooti. U Salavkiylar hukmdori *Antiox I Soter (Xaloskor)* (mil. avv. 324–261) davrida koʻchmanchi day (sak qabilalaridan biri) qabilalarining hujumidan Margʻiyonani mudofaa etish maqsadida qurilgan. Antik davr tarixchilaridan *Strabon* (mil. avv. 64/63–mil. 23/24)ning maʼlumotiga koʻra, Antiox devori uzunligi 1500 stadiy, yaʼni 222–315 km boʻlib, qalinligi 5,2 metr. X asrda arab geografi Istaxriy bu devor xarobalarini “*Array*” nomi bilan tilga olingan Antiox devori qoldiqlari Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi tomonidan (1946) oʻrganilgan.

**BARGUSTVON** – jang va tantanalarda jangovar otlar ustiga yopiladigan bezakli yopinchiq yoki sovut.

**BAZAIRA** – Zarafshon vodiysida ov qilinadigan qoʻriq joy.

**BEHISTUN KITOBALARI (Behiston bitiklari)** – *Doro I* topshirigʻiga muvofiq mil. avv. 519-yilda (mil. avv. VI asr) Hamadon viloyatidagi *Kirmonshoh shahri* yaqinida qoyaga bitilgan yozuv va tasvirlar. Behiston bitiklari bitta katta va bir necha mayda kitobalardan iborat. Behiston kitobalari mixxat bilan qadimgi *fors, elam* hamda *bobil* yozuvida bitilgan. Behiston kitobalari *G. Raulinson* oʻrganib, koʻchirib, tarjima qilgach,

ilm ahliga maʼlum boʻldi (1845–1847-y.y.). Behiston kitobalari ahamoniylar sulolasining shohi *Kir II* vafotidan keyingi tarixiy voqealar bayin etiladi. *Doro I* taxtni egallagandan soʻng unga qarshi isyon koʻtariladi. *Doro* ularni qattiqqoʻllik bilan bostiradi. Ana shu gʻalabalari sharafiga u tosh yoʻnuvchilarga yozuv va tasvir yaratishni buyurgan. Tasvirda qadimgi sugʻdlar, massagetlar, hak va boshqa elatlarning madaniyati, kiyim-kechagi, yuz tuzilishi, turmush tarzi haqida qimmatli maʼlumotlar bor. Bitik *Doro* tilidan bayon etilgan, bunda ahamoniylargacha oʻtgan uning barcha ajdodlari sanab oʻtilgan. *Fors, Elam, Bobil, Ashshur, Misr, Lidiya* va *Amu boʻyidagi yurtlar* nomi keltirilgan. Ahamoniylar tasarrufidagi 9 shaharda koʻtarilgan isyon tafsiloti bayon etiladi. Behiston kitobalari *Yaqin va Oʻrta Sharq* hamda *Movarounnahr xalqlari tarixi, madaniyati, yozuv tarixini* oʻrganishda noyob yodgorlikdir.

**BITYAN** – Qadimgi Qangʻ davlatining poytaxti *Qangʻdezni* Xitoy tarixchilari tomonidan atalishi.

**BORU** – qalʼa devorining oʻq otadigan pana joyi.

**BOGʻI** – Aleksandr davrida Zarafshonning quyi oqimidagi qalʼa.

**BURJ** – qalʼa devorining choʻqqisi, minorasi.

**BUYUK IPAK YOʻLI** – qadimda va oʻrta asrlarda Sharq va Gʻarb mamlakatlarini ilk bor oʻzaro bogʻlagan qitʼalararo karvon yoʻli (mil. avv. II asr – milodiy XV asr). Buyuk Ipak yoʻli atamasi ushbu yoʻldan tashilgan qimmatbaho tovar – Xitoy ipagi bilan bogʻliq. Buyuk Ipak yoʻli atamasi qadimda ishlatilmagan. 1877-yilda nemis olimi *Karl Rixtqofen* oʻzining “*Xitoy*” nomli ilmiy asarida ulkan Yevrosiyo materigining turli qismlarini bogʻlovchi yoʻllar tizimi “*Ipak yoʻli*” deb atalgan, keyinchalik “*Buyuk ipak yoʻli*” atamasi qabul qilingan. Buyuk Ipak yoʻli 12 ming chaqirimcha uzunlikda boʻlgan. U Sariq dengiz sohilidan boshlanib, Sharqiy Turkiston, Oʻrta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali Oʻrta dengiz sohillarigacha borgan. Ikkinchi yoʻnalish Oʻrta Osiyo orqali Hindistonga borgan. Bu yoʻlda qator qadimiy shaharlar joylashgan: *Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv* va boshqalar. Savdogarlar moldan tashqari turli fan va madaniyat sohalari yangiliklarini ham keltirganlar. Sugʻdiyondan Xitoyga jun gazlama, gilam, bezak buyumlari va qimmatbaho toshlar olib borilgan. Baqtriyadan tuyalar, Fargʻonadan nasldor otlar, Badaxshondan laʼl, Hindistondan Xitoyga kumush va fil yuagidan ishlangan buyumlar, ziravorlar va boshqa mahsulotlar olib borilgan. Buyuk Ipak yoʻlida joylashgan meʼmorchilik yodgorliklarini oʻrganish natijasida

Termizdan Rim tangalar xazinasi, Afrosiyobdan sopol, Rim shamdonlari, Misr muhrlari topilgan. Kushon tangalari O'rta dengiz atrofi hududlarida topilgan. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi o'ziga xos tarixga ega: mil. avv. 138-yili Xitoy imperatori *Vu Di* elchi *Chjan Syanni* ko'chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun jo'natgan. Chjan Syanning sayohati natijasida mil. avv. II–I asrlarda Xitoyni Markaziy va G'arbiy Osiyo bilan bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li deb ataluvchi karvon yo'li o'tadigan bo'lgan. Farg'ona vodiysida Ipak yo'li ikki tarmoqqa bo'lingan. Birinchisi *O'zgandan Axi*, *Qamchiq dovoni* orqali (yozda) *Iloq vohasi* va *Toshkentga* kelgan. Ikkinchisi janub tarmoq bo'lib, *O'zgandan O'sh*, *Quva*, *Marg'ilon*, *Qo'qon* orqali *Xo'jand*, *Samarqand*, *Buxoro* o'tgan. Asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham bo'lgan. Biri *Axsidan Koson* orqali *Chust vohasiga* o'tgan. Yana biri *Pop*, *Zarkent* orqali konchilar qarorgohlariga va yaylovlarga borgan. *Qurama* va *Oloy tog'lari* qazilma boyliklari va Zarafshon daryosi boyliklari tufayli bu yo'l tarmog'ini "*Oltin yo'l*" deb atashgan. O'rta Osiyo kumushiga ehtiyoj sezgan mamlakatlarga boradigan "*Kumush yo'l*" ham bo'lgan. Bu yo'l Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borgan. U Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i hisoblanib, VI asrdan boshlab ishga tushgan.

**GUPSAR** – kechuvdan o'tish uchun xizmat qiladigan, ichiga somon yoki havo to'ldirilgan mesh.

**DUBULG'A** – jangda kiyiladigan temir qalpoq, xud.

**ELLINIZM** – Makedoniya, Yunoniston, O'rta dengizning sharqiy sohillari, G'arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining *Aleksandr* (Iskandar) istilosi (mil. avv. 334–323-yillar)dan mil. avv. 30-yilda Misr Rim qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgan paytgacha o'tgan davr. "*Ellinizm*" atamasi ilmda dastlab nemis olimi *I.G. Droyzenning* 1836–1843-yillarda chop etilgan 2 jildli "*Ellinizm tarixi*" asarida qo'llangan va ushbu atama orqali ellinlarning Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi va ular madaniyatining Sharq xalqlari madaniyati bilan uyg'unlashib hosil qilgan yangi madaniyat tushunilgan. Keyinchalik ayrim tadqiqotchilar ellinistik olam hududi va davr doirasini kengaytirib, madaniyati yunonlar ta'sirida shakllangan barcha mamlakat va xalqlarni ko'zda tutadilar. "*Ellinizm*" deganda, yunon madaniyati rivojinigina nazarda tutib, yunon madaniyatidan Rim madaniyatiga o'tish davrining o'zi, deb hisoblaydiganlar ham bor. Mil. avv. 336-yilda Makedoniya shohi *Aleksandr* Yunonistonni zabt etib, yunon, makedon xalqlaridan

to'plangan katta qo'shin bilan Sharq mamlakatlariga qarshi urush boshlaydi va ko'p o'tmay Hindistonga qadar cho'zilgan bepoyon o'lkaning yakka hukmdoriga aylanadi. Aleksandr vafot etganda (mil. avv. 323-yil), uning davlati tarkibida Bolqon yarimoroli, Egey dengizidagi orollar, Kichik va G'arbiy Osiyo, Misr, O'rta Osiyoning bir qismi bor edi. Aleksandr vafot etgach, uning merosxo'rlari o'rtasida hokimiyat uchun kurash borib, mamlakat parchalanib ketgan. Shu tariqa ellinistik davlatlar yuzaga kelgan. Biroq Ellinizm davrida bu hududdagi turli mamlakat va viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli pog'onasida bo'lganlar: ba'zilarida quldorlik munosabatlari (Makedoniya), ayrimlarida *polis* tuzumi tarqalib, qulchilik va qullikning antik shakllari vujudga kelgan (Misr, Salavkiylar davlati). Ko'pgina qabilalar (ayniqsa, ellinistik davlatlarning chegara hududlarida yashaganlar) uchun esa urug'chilikdan sinfiylik jamiyatiga o'tish davri bo'lgan. Ellinizm davri sharqiy mamlakatlar uchun taraqqiyotning yangi bosqichi bo'ldi. Yunon-makedoniyaliklar Sharqqa ishlab chiqarish malakalarini, o'z davlat va huquq me'yorlarini, urf-odat, din va madaniyatlarini olib keldilar, o'z navbatida, Sharqdan o'rgandilar ham. Davlat boshqaruvida qadimgi sharqiy monarxiya usullaridan foydalanildi. Pul va savdo-sotiq munosabatlari rivojlangan o'lkalar (Mesopotamiya, Suriya, Kichik Osiyo)da polislar ravnaq topdi. Polislar o'zgardi, ya'ni ular mustaqil respublika bo'lmay, ma'lum siyosiy va iqtisodiy imtiyozlarga ega shahar jamoalariga aylandilar. Yunonlarning qadimgi nomi – "ellinlar" atamasi o'z etnik mazmunini asta-sekin yo'qota borib, makedoniyalik, yunon va mahalliy yuqori tabaqaga mansub kishilarni ifodalaydigan so'zga aylanib qoldi. Merosxo'r (diadox)lar o'rtasidagi kurashlar mil. avv. III, mil. avv. II asr boshlarida ham davom etdi. Ptolemeylar imperiyasi, Salavkiylar davlati, hududiy jihatdan ulardan kichik bo'lsa ham, ijtimoiy tuzum jihatidan ularga yaqin bo'lgan Pergam va Kichik Osiyodagi boshqa hukmdorliklar, yunon polisleri, ellinistik olamning chekkalaridagi Skiflar podsholigi, Armaniston, Parfiya o'rtasida tinimsiz urushlar xalq boshiga ko'p ofatlar keltirdi. Shunga qaramay dengiz sohillari bilan mamlakat ichkarisidagi hududlar o'rtasida iqtisodiy aloqa yaxshilana bordi, mahsulot ishlab chiqarish, savdo (xususan, tashqi savdo) rivoj topdi. Shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida yuksaldi (Iskandariya, Rodos oroli, Antioxiya, Salavkiya, Pergam). Misr, Suriya, Kichik Osiyo, Yunoniston va Makedoniya o'rtasida doimiy dengiz yo'li mavjud edi. Qizil dengiz hamda Fors

qo'ltig'i bo'ylab Hindistonga savdo yo'li ochildi. Misr Qora dengiz atroflari Karfagen va Rim bilan savdo aloqasini yo'lga qo'ydi. Qadimgi karvon yo'llarida polislar va gavanlar yuzaga keldi. Shu bilan birga, ushbu davr polislar federatsiyasi (ittifoqi)ga ehtiyoj tug'dirdi (bir necha polislar birlashdi). Ammo bu ittifoqlar orasida ham nizolar davom etdi, ijtimoiy kurash kuchaydi. Mil. avv. II–I asrlarda isyonlar va ozodlik harakatlari jonlandi. Attika, Pergam, Delos orollarida qullar isyoni, Misr va Salavkiyada dehqonlar qo'zg'oloni yuz berdi. Ayni paytda Rimning mavqeyi osha bordi. U mil. avv. 197-yilda Kichik Osiyoni, Egey dengizidagi orollarni va Yunonistonni bosib oldi. Rim ellinizm davlatlarini birin-ketin ishg'ol etib, mil. avv. 30-yilda Misrni ham qo'lga kiritdi va ellinizm davriga barham berdi.

Ellinizm davrida turli xalqlarning madaniyat darajalari har xil bo'lgan bo'lsada, o'ziga xos rivojlanish yuz bergan edi. Ellinistik mamlakatlarda tabiiy fanlar (jumladan, matematika), kemasozlik, harbiy san'at va shaharsozlik rivoj topdi. Dengiz sohillariga ko'pgina mayoqlar qurildi, savdo yo'llari barpo etildi, savdo kemalari ko'proq yuk ko'taradigan va tezroq suzadigan darajaga yetdilar. Taraqqiyot asosan ilm-fan borasida bo'lib, avvalo, yunonlarning ilk bor Sharq madaniyati bilan yaqindan tanishishlari ularning ongini yana ham kengaytirib, fanning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda ijod qilgan olimlardan *Yevklid*, *Arximed* – matematika; *Aristarx*, *Gipparx* – astronomiya; *Eratosfen* – geografiya kabi fanlarni yuksak darajaga ko'tarib, jahon ilmining kelgusi taraqqiyotiga yo'l ochdilar. Olimlar, shoirlar va san'at ahlining ishlari uchun qulay sharoit tug'dirish maqsadida Misrning dastlabki Ptolemey xoqonlari Iskandariya shahrida hozirgi fanlar akademiyasiga o'xshash muassasa – “muzey”, ya'ni muzalar koshonasi ochadilar. Yunonistonning turli yerlaridan chaqirilgan olimlar muzey darsxonalarida ma'ruzalar o'qiydilar, har xil tajriba ishlari o'tkazadilar. Muzey qoshida maxsus kutubxona bo'lgan. Mil. avv. III asrning o'rtalarida muzey qiroatxonalarida yarim millionga yaqin papirus o'ramlari saqlangan. II asrning boshlarida tashkil etilgan Pergam kutubxonasining fondi Iskandariyanikidan qolishmas edi. Iqtisodiy raqobat tufayli, Ptolemeylar hukumati Misrdan Pergamga papirus chiqarishni taqiqlab qo'yishganida, pergamliliklar teridan ishlangan va “*pergament*” deb ataluvchi maxsus yozuv materiali kashf qildilar. Olimlar esa muzeylarda badiiy asarlarning faqat matnini tekshirish, ya'ni ularning to'g'riligini aniqlash, xatolarini tuzatish, boshqalar tomonidan kiritilgan qo'shimchalarni chiqarib tashlash bilan shug'ullanganlar.

Shu tariqa ellinizm davrida adabiyotshunoslik – filologiya ilmi yuzaga keldi. Iskandariya filologlari, asosan, *Gomer* asarlarini o'rganganlar.

**ELLINLASHTIRISH** – Sharqda yunon madaniyati tarqalishi va aralash madaniyat – yunon va mahalliy Sharq madaniyati tashkil topishi jarayoni.

**FRADA QO'ZG'OLONI** – Ahamoniylar davlati hukmdori *Doro I* ning hukmronligining birinchi yili (mil. avv. 522-yil)da Marg'iyona shahrida Frada boshchiligida fors bosqinchilariga qarshi boshlangan qo'zg'olon. Qo'zg'olonchilar bilan fors qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang mil. avv. 522-yilning 10-dekabrida bo'ladi va marg'iyonaliklarning mag'lubiyati bilan yakunlanadi. 55 ming kishi halok bo'ladi, 6000 kishidan ko'prog'i asir olinadi. Qo'zg'olonga boshchilik qilgan Frada ham asir olinib, mil. avv. 521-yilda qatl etiladi. Bu voqea haqidagi ma'lumotlar *Behistun bitiklarida* uchraydi.

**KUSHON YOZUVI** – Qadimgi kushonlar foydalangan burchakli, to'rtburchakli va aylana ko'rinishdagi yozuv.

**LA'L YO'LI** – mil. avv. 3–2-mingyillikda vujudga kelgan eng qadimgi savdo yo'llardan biri. U Pomir tog'laridan boshlanib, Eron va Old Osiyo hamda Misr orqali o'tgan. Undan la'l toshi konlari joylashgani va savdo yo'lidan asosan la'l olib ketilgani sababli bu savdo yo'li “La'l yo'li” deb nomlangan. Pomirdan olinadigan yarim nodir la'l toshi Qadimgi Sharq mamlakatlari zargarlari tomonidan yuksak baholangan. Badaxshon la'li ishlatilgan buyumlar Misr fir'avnlari maqbaralaridan topilgan.

**MARGUSH** – Behistun qoya yozuvlarida *Marg'iyonaning* nomlanishi.

**PALAXMON** – jundan to'qilgan tosh otuvchi qurol.

**QANG'ARLAR** – Qang' davlatining aholisi.

**QANG'YUY** – Qang' davlatining Xitoy manbalarida nomlanishi.

**QULOVUZ** – yo'l ko'rsatuvchi.

**RITON** – uzunchoq may qadahi.

**RUNG, runglar** – turkiy xalqlarning qadimgi xitoy manbalaridagi nomi. Dastlab mil. avv. 2-mingyillikka oid manbalarda qayd etilgan. Rung etnonimini yozish uchun qo'llanilgan iyeroglif “odam”, “jangchilar” kabi ma'noni anglatgan. Mil. avv. XV–VIII asrlarga oid xitoy manbalarida rung kuyrung (guyrung, kunrung yoki kun chiqar tomondagi rung), shurung (g'arbiy rung) kabi qismlarga bo'lingan. Keyinchalik shimoldagi turklar rungdi yoki dirung (turk jangchilari) deb nomlana boshlangan. Mil. avv. II asrda yozilgan “Shiji” (“Tarixiy xotiralar”) asarining Shiya xonlari (taxminan mil. avv. 2197–1766-yillar) tazkirasida



g'arbiy rungning Kunlun, Shichji, Chuso'v, Chji pi kabi 4 xonligi borligi ko'rsatilgan. Keyinchalik Dali, Yichu kabi g'arbiy rung davlatlarining to III asrga qadar Gansu (Kengsu) o'lkasida mavjud bo'lganligi aytilgan. Rungdi, (turk jangchilari) atamasi mil. avv. IV asrdan iste'moldan chiqib "xu" atamasi ishlatilgan. Hunlar xoqonligi tashkil topgach, shimolda yashagan xular, ya'ni rungдилar "hun" ("shyunnu", "syunnu") deb nomlangan.

**SAGARIS** – O'rta Osiyo xalqlari orasida jangovar oyboltaning atalishi.

**SATRAP** (yunoncha *satrapes*, qadimgi forscha *xshatra* – *viloyat xazinachisi*) – Qadimgi va ilk o'rta asrda Erondagi (viloyat) satrapiya boshlig'i. Forslardan tayinlangan. Satrapiyadagi barcha rasmiy-ma'muriy ishlarni boshqargan, soliqlarni o'z vaqtida yig'ib, podshoh xazinasiga topshirish, aholini turli qurilish ishlariga majburan jalb etishni ta'minlagan. Satrap satrapiyaning oliy sudyasi vazifasini ham o'tagan. U kumush va mis tanga, chaqa pullar zarb etish huquqiga ega bo'lgan.

**SATRAPIYA (satraplik)** – Ahamoniylar, Salavkiylar, Parfiya va Sosoniylarda satraplar boshqargan harbiy-ma'muriy okrug. Satrapiyaga satraplardan tashqari harbiy boshliqlar ham tayin etilgan, ular chegara, yo'llarni qo'riqlagan, o'g'rilik va bosqinchilikka qarshi kurashgan. *Kir II* va *Doro I* davrida Ahamoniylar davlatiga kirgan o'lkalar alohida satrapiyaga bo'lib idora etilgan. Doro I satrapiyaning to'la ro'yxatlarini *Behistun bitiklari* hamda *Naqshi Rostam* kitobalarida mixxat bilan yozilgan.

**SIYOVUSHIYLAR** – o'zlarini *Siyovush* avlodi deb hisoblagan Qadimgi Xorazm shohlari. 1940-yilda Tuproqqal'adan topilgan kumush tanga Xorazm siyovushiylarning eng qadimgi tangasi hisoblanadi (mil. av. II asr). Tanganing old tomonida soqol qo'ygan shohning boshi va g'alaba ma'budasi – Nikaning tasviri tushirilgan. Tanganing orqa tomonida chavandoz va siyovushiyning tamg'asi tushirilgan. Siyovushiy ramzlari tushirilgan tangalar milodiy VIII asrga qadar muomalada bo'lgan.

**SPITAMEN QO'ZG'OLONI** – Sug'diyona va Baqtriyada *Aleksandr* boshchiligidagi yunon-makedon istilochilariga qarshi ozodlik harakati (mil. avv. 329–327-yillar). Rahbari – *Spitamen*. Mil. avv. 329-yil kuzida boshlangan. Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Marokanda (Samarqand)dagi yunon-makedon garnizonini qirib tashlab shaharni egallaydilar. Aleksandr ularga qarshi Farnux boshchiligidagi 3 ming piyoda va 800 otliq qo'shin jo'natgan, Spitamen Politimet (Zarafshon)ning quyi oqimidagi yerlarga chekingan. Bu yerda ko'chmanchilarning otliq qo'shinlari bilan birlashib

hujumga o'tadi. To'satdan qilingan hujum natijasida yunon-makedon qo'shinining katta qismi qirib tashlangan, qolgan-qutganlari esa shahar qal'asiga yashiringan. Spitamen yana Marokandani qamal qilgan. Aleksandr Spitamenga qarshi *Andromax*, *Menedem* va *Karan* boshchiligidagi otliq va piyoda qo'shin yuborgan. Spitamen bundan xabar topib o'rmon orasidan o'tadigan yo'lga pistirma qo'yib, ularga to'satdan hujum qilgan. U mazkur jangda o'zgacha harbiy usul qo'llagan. Har bir otga 2 tadan jangchi mindirilgan. Ular dushmanga 2 tomondan zarba berar, biri nayza, qilich yoki kamon bilan hamla qilsa, ikkinchisi tosh bilan urib, yovning boshini majaqlar edi. Bu jangda dushman katta talafot ko'rgan. Shundan keyin Spitamenga qarshi Aleksandr asosiy kuchlari bilan otlangan, Spitamen cho'l ichkarisiga chekingan. Aleksandr uni ta'qib etmagan, lekin Zarafshon vohasining tinch aholisidan qattiq o'ch olgan (120 ming kishi qirib tashlangan), shahar, qishloqlarni vayron qilgan, ekinlar, bog'larni yondirgan. Aleksandr Sug'diyonadagi bir necha qal'a va poytaxt Marokandada katta qo'shin qoldirib, o'zi qolgan kuchlari bilan qishlovni o'tkazish uchun Baqtriyaga (ba'zi ma'lumotlarda – Navtaka)ga qaytgan. Mil. avv. 328-yil bahorida qo'zg'olonning 2-bosqichi boshlangan. Ko'plab sug'diylar turli qal'alarda to'planib yunon-makedon hokimlarini tan olmaganlar. Bu davrda Sug'diyona qo'zg'olonning o'chog'i bo'lgan. Spitamen Aleksandrning yo'qligidan foydalanib raqibining orqa tomonidan aylanib o'tib, 600 otliq bilan Baqtriyada yunonlarga qaqshatqich zarbalar berib turgan. Yunonlar lashkarboshisi Ken Spitamenga qarshi chiqib, uni dashtga chekinishga majbur qilgan, Spitamen Zarafshonning quyi oqimi bo'ylariga ketgan. Mil. avv. 328-yilning kuzida Spitamen bu yerdagi qal'alardan birini egallab, 3 ming otliq bilan Sug'diyona poytaxti tomon yurgan. Yunonlar butun kuchlarini unga qarshi tashlaydilar, jangda qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchraydilar. Sug'diy va baqtriyalik zodagonlarning bir qismi Spitamenga xiyonat qilib istilochilar tomoniga o'tib ketganlar. Mil. avv. 328-yil oxirida Spitamen xoinona o'ldirilgan. Ayrim tarixchilar uni Aleksandr hujumidan qo'rqqan massagetlar o'ldirgan deb hisoblaydilar. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Spitamenni o'z xotini o'ldirib, boshini Aleksandr huzuriga keltirgan, biroq Iskandar uni o'ta sovuq kutib olgan. Shunga qaramay, Spitamen qo'zg'oloni tugamagan, uning 3-bosqichi boshlangan. Shu tufayli Aleksandr mil. avv. 328–327-yillar qishlovini Sug'dda o'tkazishga majbur bo'lgan. Qo'zg'olonchilar tog' qal'alarida kurashni davom ettirganlar. Hozirgi

tadqiqotlarga ko'ra, ular janubiy sharqiy hududlarda joylashgan. Aleksandr mahalliy aholi qarshiligini kuch bilan yenga olmasligiga ishongach, ularga yaqinlashishga harakat qilgan, ularga nisbatan siyosatini o'zgartirgan. Tog'li hududlardagi qo'zg'olon boshliqlari Oksiart, Sisimitr, Xorien kabilarni afv etib, mol-mulkini qaytarib bergan. Oksiartning qizi *Ravshanakka* uylangan. Mahalliy zodagonlarning aksariyati Aleksandr hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tib ketishgan. Mil. avv. 327-yil oxirida Sug'diyona Aleksandr tomonidan batamom egallanib, qo'zg'olon bostirilgan.

**SMARAKANSA** – Samarqandning sug'd bitiklarida uchraydigan nomi.

**XANDAQ** – shahar atrofida mudofaa maqsadida qazib, suvga to'ldirilgan zovur.

**YUYECHJI, yuyechji, yuychji, yovchi, qadimgi o'qilishda – rutziyo, ruzie** – mil. avv. XI asrda Dunxuan (Dashtiota) va Chilanshan (Nanshan) tog'lari atrofida turkiy qavm (*di*) tomonidan barpo etilgan davlat (tarixiy adabiyotlarga etnik nom sifatida kirib qolgan) nomi. Mil. avv. III asrda ushbu davlat hunlar tomonidan tugatilgan. Mag'lub davlat aholisi – yuyechjiliklarning katta qismi Ili va Farg'ona vodiysi orqali hozirgi Afg'oniston tomonga ko'chib borgan. Yangi joyda ular o'z davlatlarini tashkil etib qo'shni hududlarni egallab olishgan. Xitoy manbalarida bu davlat *Ulug' yuyechji (Dayuyechji)* davlati deb nomlangan. Asl maskanlari – *Dashtiota (Dunxuan)* bilan

Chilanshan, qolganlari esa "*Kichik yuyechji*" ("*Syao yueji*") deb atalgan. Xitoy manbalarida Baqtriya, Kushon, Eftaliylar davlatlarini "ulug' yuyechjilar" barpo etganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ulug' yuyechjilarni tojarlar deb atashadi. Baqtriyani egallagan ulug' yuyechjilar bu hududni quyidagi 5 yobg'ulik (jabg'ulik)ka bo'lib idora etishgan. Bular xitoy tilida shunday atalgan: 1) Vaxan (Syumi), markazi – Mo'cheng shahri; 2) Shuangmi (Syamaka), markazi – Shuangmi shahri; 3) Kushon (Guyshuang), markazi – Kandut (Xusao) shahri; 4) Parvan (Sidun), markazi – Bichju shahri; 5) Dumi yobg'uligi. Yuz yil o'tgach, Kushon yobg'uligi 5 yobg'ulikni birlashtirib *Kushon podshohligiga* asos solgan. Xitoy manbalarida bu davlat "Ulug' yuyechji davlati" deb atalgan. Xitoy manbalarida dastlab hunlar tomonidan qayd etilgan "ulug' yuyechji" atamasi, qadimgi o'qilishi jihatidan "ulug' get qabilasi", "maho-get-qabilasi", ya'ni "massaget qabilasi"ga mos keladi.

**SHARAF** – binoning devori, ustuni yuqori qismida, shiftiga ganchdan quyib yoki o'yib ishlangan haykal, naqsh.

**SHOH YO'LI** – Ahamoniylar sulolasining savdo yo'li. U mil. avv. VI–IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini, O'rtayer dengizi bo'yidagi *Yefes, Sard* shaharlarini Eron poytaxtlaridan biri – *Suza* bilan bog'lab turgan.

## GEOGRAFIK NOMLAR

**ALEKSANDRIYA ESXATA (Chekka yoki Uzoq Iskandariya)** – Aleksandr Makedonskiy o'z yurishlari davrida istilo qilingan mamlakatlarda qurdirgan 70 dan ortiq shahardan biri. Hozirgi *Xo'jand shahri* o'rnida bo'lgan. *Arrian* va *Kvint Kursiy Rufning* yozishicha, Aleksandr Marokandani zabt etgach, *Tanais* (Sirdaryo) bo'yiga kelib, qo'shiniga dam beradi. Shunda u qo'shin joylashgan yer atrofini devor (uzunligi 60 stadiy, 1 stadiy – 176,60 m) bilan o'rab bir shahar qurishni amr qiladi. Chunki bu shahar uning skif (sak)larga qarshi urushlarida mudofaa uchun zarur edi. Shahar shu qadar tez bunyod etiladiki, hatto 17 (yoki 20) kun deganda mudofaa inshootlari va turar joylar ham qurib bitkaziladi. Aleksandr bu shaharni ham o'z nomi bilan atashni buyurib, unga ellin asirlari va urushga yaroqsiz bo'lib qolgan makedon askarlarini joylashtiradi. So'ng o'z odatiga binoan tangrilarga qurbonlik qilib, katta tantana uyushtirgan.

**AMUDARYO** – Turkiston o'lkasidagi eng sersuv,

yirik daryo. Amudaryoni yunon va rimliklar *Araks, Oksus* (yoki *Oksos*), arablar *Jayxun*, yerli xalqlar dastlab *O'kuz, Balx, Vaxsh*, so'ngra *Amul* deb ataganlar. Mil. avv. 10-mingyillikdan 2-mingyillikkacha Xorazm botig'ini va qisman Sariqamish botig'ini to'ldirgan. Oqimning bir qismi janubga oqib, hozirgi O'zbo'y o'zanini vujudga keltirgan va Kaspiy dengiziga quyilgan. Shu davrda Sariqamish bo'yi deltasi tarkib topgan. Mil. avv. 3- va 2-mingyilliklar orasida Amudaryo hozirgi Tuyamo'yin qisig'idan shimolga Oqchadaryo o'zanida oqib Orol dengizigacha uning janubi sharqidan quyilgan va Oqchadaryo deltasi tarkib topgan. Mil. avv. 2- va 1-mingyilliklarda Amudaryo hozirgi yo'nalishda, ya'ni Orol dengiziga janubdan quyila boshlagan. Mil. avv. 1-mingyillikning o'rtasida hozirgi Orol bo'yi Amudaryo deltasi (Orol bo'yi deltasi) vujudga kela boshlagan. O'sha vaqtdan Amudaryo Orol dengiziga quyilmoqda.

**AYRITOM** – o'zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyatidan guvohlik beruvchi ko'hna shahar

xarobasi. Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryo qirg'og'ida joylashgan. Dastlab 1932-yilda Ayritom yaqinida Amudaryo tubidan odam haykalchalari ishlangan friz (piramon) parchalari topilgan, 1933-yilda *M.E.Masson* rahbarligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi Ayritomda qazish ishlarini olib borib, yana 7 ta friz bo'laklari va budda ibodatxonasi xarobasini topgan. Frizlar I–II asrlarga oid bo'lib, ularda qo'shnay, chiltor, ud, nog'ora chalayotgan sozandalar va gulchambarlar, meva solingan idishlar ko'tarib olgan yigit-qizlar ifodalangan. Bundan tashqari Ayritomdan mil. avv. II asr oxiri va milodning IV asrlariga oid ikkita qabr topilib, ularning biridan qurol-yarog'lari bilan birga dafn qilingan jangchining, ikkinchisidan idish-tovoqlar hamda zeb-ziynatlari bilan ko'milgan ayolning skeletlari chiqqan. 1963–66-yillarda Ayritomda O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi (B.Turg'unov) ham qazish ishlari olib borgan. Devorlarining qalinligi 1,5 m, 2–2,5 m bo'lgan 15 ga yaqin eshik va derazasiz xonalar (diniy marosimlar o'tkazilgan xonalar) topilgan. 1978-yilda olib borilgan qazilmada yunon alifbosida 6 qator qilib bitilgan yozuvi bor haykal tagkursisi topilgan. Ayritom moddiy-madaniy yodgorliklari o'zbek xalqining kushonlar davridagi tarixini, madaniy merosini, urf-odatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

**DALVARZINTEPA** – Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani markazi – Sho'rchi shahridan topilgan qadimgi shahar xarobasi. Maydoni 47 ga. Dalvarzintepa 2 qismdan: qudratli mudofaa devori bilan o'rab olingan shoh saroy qal'asi va shaharning o'zidan iborat. O'zbekiston san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutining san'atshunoslik ekspeditsiyasi Dalvarzintepada 1962-yilda dastlabki tekshiruv ishlarini va 1967-yildan muntazam arxeologik qidiruv ishlarini olib borgan. 1968-yilda Dushanbe shahrida "*Kushonlar davrida Markaziy Osiyo*" mavzuida o'tgan xalqaro simpoziumida ekspeditsiya topilmalari asosida Kushon podshohligining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa o'rnida bo'lgan, degan faraz olg'a surilgan edi. Mil. avv. II asr oxiri – I asrlarda hozirgi Dalvarzintepa o'rnida kichik manzilgoh paydo bo'lgan. Kushon podshohlaridan *Kanishka* davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllangan. Mil. avv. I asr oxiri – milodning boshlarida Shimoliy Baqtriya hududida Dalvarzintepadan boshqa bunchalik yirik shahar manbalarda qayd etilmagan. Bu yodgorlikdan fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan.

**DARATEPA** – Qashqadaryo vodiysidagi mil. avv. VI–IV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini o'zida aks ettirgan madaniy yodgorlik. Arxeologlar tomonidan anhor va ariq izlari topib o'rganilgan.

O'rta Osiyoda eng qadimgi temir buyumlar topilgan manzilgohlardan biri.

**DINGILJA** – Qoraqalpog'istonning To'rtko'l shahridan 15 km shimoli-sharqda joylashgan shahar xarobasi (mil. avv. V–IV asrlar). Dingilja atamasi ilk o'rta asr davriga mansub qal'a nomidan olingan. Dingiljani 1955-yilda *S. P. Tolstov* rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi ochgan. Turar joy qalin devor bilan o'ralgan bir-biriga tutash mayda uylar, hovli va xo'jalik binolaridan iborat, maydoni 2600 km kv. Dingilja yodgorliklari o'sha joyda yashagan qabilalar hayotida yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi va qadimgi Xorazm madaniyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

**DOVON DAVLATI** (xitoycha **Da-yuandan olingan**) – taxminan Farg'ona vodiysidagi qadimgi davlat (mil. avv. III asrdan to milodiy II asr). Dovon davlati (Xitoy manbalarida bu o'lka shu nom bilan tilga olinadi, boshqa manbalarda *Parkana* deyilgan) tarixi haqida batafsil ma'lumot Xitoy manbalarida uchraydi va ular milodiy I–II asrlarga doirdir. Xitoy tarixchisining yozishicha, bu davlat aholisi 70 dan ortiq shaharlarda istiqomat qilgan. Masalan, Dovonda bo'lgan Xitoy sayyohi Chjan Syan bunday deb yozadi: "Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohir". Boshqa bir Xitoy solnomasida: "Eron shaharlari Dovondagiga o'xshashdir", deb yozilgan. Xitoy tarixchilarining guvohlik berishicha, Dovon davlati hududlari hozirgi Toshkent vohasigacha borgan: "Xon sulolasi zamonida Shi mulklari Dovon davlatining shimoliy tumanlarini tashkil etardi va shimolda Qang' davlatigacha, janubda esa yuechjilar davlatigacha borardi". Xitoy hukmdorlari bir necha bor bu davlatni bosib olmoqchi bo'ldilar, biroq ularning harakatlari behuda ketdi. Harbiy yurishlarning birida ular Dovon davlatining poytaxti *Ershini* qo'lga kiritdilar, biroq aholining tazyiqi ostida tovon evaziga uni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar. Dovon davlati Xitoy va Sharqning boshqa mamlakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan. Xitoy hukmdorlari ko'proq Farg'onaning nasllik otlari qiziqtirardi. Otlar naslining birida hatto ular "*Samoviy*" deb nom berganlar. "*Samoviy otlar*" barkamol va go'zal ko'rinishga ega bo'lgan. Qadimshunoslar topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi ma'lumotlarni tasdiqladi: mil. avv. II–I asrlarda Farg'ona yuksak taraqqiy etgan, aholisi ko'p sonli, yaxshi qurollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlarga ega davlat bo'lgan. Farg'ona davlatining Sho'rabashat, Uchqo'rg'on singari va boshqa shaharlari atrofidagi aholisi yerni ishlash, sholi va

bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan. Olimlarning aniqlashicha, milodiy II asrda Dovon davlati barham topgan va uning yerlari *Kushon podsholigiga* qo'shib olgan.

**ERSHI** — mil. avv. III asrdan to milodiy II asrgacha mavjud bo'lgan Dovon davlatining poytaxti.

**FAYOZTEPA** — mil. avv. I–III asrlarga oid budda monastir-ibodatxona majmuasi (vixara). Termiz shahri yaqinidagi *Eski Termiz* shahar xarobalarining shimoli g'arbida. *Qoratepadan* 1 km shimoli sharqda joylashgan. Fayoztepa 1968-yilning bahorida cho'pon Absad Beknaye'v tomonidan geliy mohak toshidan ishlangan budda sanamini ko'chma qum ustidan topib olgan. Yodgorlik 1968–1976-yillarda arxeolog *L.I.Albaum* tomonidan o'rganilgan.

**GABAZA** — Dehqonobod — Darband oralig'ida joylashgan qadimgi viloyat (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari).

**GAZBON** — “Shohnoma”ga ko'ra, Turon bilan Eronni ajratib turadigan chegara yeri.

**GIRKANIYA** (Avestoda — Vrakana, O'rta asrlardagi nomi — Jurjon) — qadimgi tarixiy-madaniy viloyat. Kaspiy dengizining janubiy sohilida, Eronning shimolida, Turkmanistonning janubi g'arbiy qismida joylashgan. Girkaniya atamasi eroncha wrk — bo'ridan olingan bo'lishi ehtimol. Poytaxti — Gekatompil shahri. Yunon-rim manbalarida Aleksandr yurishlaridan e'tiboran bir necha bor qayd etilib, yovoyi hayvonlar to'lib toshgan mamlakat sifatida tavsiflanadi. Aminiyani Martselli (IV a.)ga ko'ra, “Qit'a ichkarisida ... Girkanlar yashaydi. Ular ovchilik bilan tirikchilik qilishadi, ov qilinadigan jonzorlar ulardan juda turli-tumandir. Bu yerda minglab yo'lbarslar va ko'plab yovvoyi hayvonlar bor”. Miloddan avvalgi 235-yilda Parfiya davlati tarkibiga kirgan, lekin milodiy I–II asrlarda katta muxtoriyatga ega bo'lib, mustaqil siyosat yurgizgan va o'z elchilarini Rimga jo'natgan. Bu yerda arshakiylarning bir tarmog'iga mansub sulola vakillari hukmronlik qilgan.

**JONBOSQAL'A** (*Yonboshqal'a*) — Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanidagi Sulton Uvays tog'i janubi sharqida joylashgan qadimgi qal'a xarobasi (mil. avv. IV asr—milodiy II asr). 1938–1939-yillarda *S.P.Tolstov* rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Jonbosqal'a devorlarining balandligi 10–11 m, qalinligi 1–13 m, ular o'rtasidagi 2,8 m kenglikda yo'lak bo'lib, tashqi devorda shaxmat taxtasi tarzida ikki qator qiya shinaklar bo'lgan.

**KIROPOL** (*Qurushkat, Kiropolis, Kira, Kirexata*) — Turonda mavjud bo'lgan eng qadimgi

shahar-qal'alardan biri (mil. avv. VI–II asrlar). Ahamoniylar sulolasi podshosi *Kir II* asos solgan shahar. Ahamoniylar davlatining shimoli-sharqdagi eng chekka shahri. Kir II davrida Turonning eng muhim shaharlaridan sanalgan. Xarobalari O'ratepa yaqinidagi Nurtepa o'rmda joylashgan.

**KRURONA, Krorayna (Kiroroyna)** — qadimgi tarixiy-madaniy viloyat va davlat (mil. avv. 4–3-mingyillik—milodiy V asr). Sharqiy Turkistondagi Lo'bnur (Lobnor) ko'lining janubida bo'lgan. Mil. avv. II asrning 2-yarmida Xitoyning Sharqiy Turkiston va *Dovonga* qarshi tajovuzi vaqtida bu yerda Xitoy harbiy manzilgohlari vujudga kelgan. Mahalliy tub atama — Kiroroyna milodiy III–IV asrlarga oid kharoshthi bitiklarida qayd etilgan. *Buyuk Ipak yo'lida* joylashganligi tufayli milodning boshlarida ravnaq topgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Kruronadan turli tillarda (kharoshthi, xo'tan-sak, xitoy, tibet, to'xar) bitilgan yozma hujjatlar topilgan. Bu hujjatlarni o'rganish milodning boshlarida bu yerga ko'plab hindlarning ko'chib kelganligi, ularning Kruronda roli katta bo'lganligidan dalolat beradi. Xususan, Kruronadagi hukmron sulola vakillari hind ismlari (Tajaka, Peniyi, Amgoki, Maxiri, Vashmana) va unvoni — mahoroja deb atalgan. Milodiy III–IV asrda Krurona kichik davlat bo'lib, tarkibida Lo'bnur ko'li atrofidagi hudud va Takla-Makon cho'lining janubi-sharqiy tomonidagi vohalar kirgan. Krurona aholisi negizini hind-yevropa xalqlari tashkil etib, hindlar, eroniylar katta rol o'ynagan, xitoylar ozchilikni tashkil qilgan. Krurona shaharsozlik, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, polizchilik, chorvachilik, xalqaro savdo va tovar-pul munosabatlarida yuksak darajaga erishgan. Buddizm davlat dini bo'lgan.

**KSENIPPA** — Quyi Qashqadaryo vohasidagi qadimgi viloyat nomi.

**KUSHON PODSHOLIGI** — o'zbek davlatchiligi tizimidagi qadimgi davlat (milodiy I–III asrlar). Milodiy I asrning 1-yarmi yoxud o'rtalarida *yuechjilar* tasarrufidagi Kushon mulkining yuksalishi natijasida vujudga kelgan. Yuechjilar mil. avv. 140-yilda Sirdaryo ortidan Baqtriyaga kelib, saklarni yenggan va Yunon-Baqtriya podsholigi o'rmda yuz yil davomida 5 qabilaga (*Guyshtuan, Shuanmi, Xisi, Xyumi, Xuanmi*) bo'linib yashagan. Bulardan kushon (Xitoy yilnomalarida guyshtuan) qabilasi boshlig'i *Kudzula Kadfiz* (Kadfiz I) milodiy I asrda qolgan 4 qabilani bo'ysundirib, o'zini hukmdor deb e'lon qilgan. Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa yodgorligi o'rmda bo'lgan. “*Kushon*” atamasi yo sulola yoki qabilaga tegishli bo'lib, u ilk bor mil. avv. I asr oxiri — milodiy I asr boshida hukmronlik qilgan podshoh

“Geray” – *Sanab* zarb qildirgan tangalarda qoʻllangan. Kushonlarning dastlabki mulklari hududiga Shimoliy Baqtriya (Tojikiston hamda Oʻzbekistonning janubi, Turkmanistonning janubi sharqidagi yerlar) kirgan. Dastlab jabgʻu, keyinchalik podsho unvoni bilan davlatni idora qilgan *Kadfiz I* Kushon podsholigiga asos solgan boʻlib, uning davrida kushonlar hozirgi Afgʻoniston bilan Pokistonning koʻpchilik qismini bosib olgan. Kadfiz I ning vorisi *Vima Kadfiz* hukmronligi davrida Hindistonning aksariyat qismi Kushon podsholigiga qoʻshib olingan. Kushon podsholigining eng ravnaq topgan davri *Kanishka* hukmronligi (78–123-yillar)ga toʻgʻri keladi. Kanishka davrida podsholik poytaxti Peshovarga koʻchirilgan. Yangi shaharlar bunyod etilgan. Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari oʻrnatilgan.

**MAROQAND** – Samarqandning yunoncha nomi (mil. avv. IV asr – milodiy IV asrlar). Aslida Samarqandning qadimgi nomi Sugʻd yozma manbalarida Smarakansa (Smarakansa) boʻlib, uni yunon tarixchilari Marokanda deb yunonchaga agʻdarib olganlar. Samarqandning Marokanda nomi XVII asrdan soʻng Yevropa tarixchilarining asarlari orqali kirib kelgan. Yunon mualliflari *Arrian*, *Strabon* va *Kvint Kursiy Ruf*larning maʼlumotlariga koʻra, mil. avv. 329-yilda Aleksandr qoʻshinlari Hindukushdan oshib oʻtib uni zabt etib, vayron qilgan. Marokanda mil. avv. VIII asrdan to milodiy IX asrgacha sugʻdiycha *Smarakansa*, soʻng forsiycha *Samarqand*, IX asrdan turkiycha *Semizkent* nomi bilan manbalarda uchraydi. Keyinroq Samarqand nomi shaharning mutlaq nomiga aylandi.

**MARGʻIYONA ALEKSANDRIYASI** – Aleksandr Makedonskiyning Oʻrta Osiyoda qurdirgan 12 shaharlaridan biri.

**MUNCHOQTEPA** – *Qubodiyon* viloyatiga mansub qadimgi shahar xarobasi (mil. avv. I-ming yillik oʻrtalari-milodiy X–XI asr). Kofarnihon daryosi (Tojikiston)ning oʻng qirgʻogʻidan 1 km masofada, parom kechuvidan 6 km uzoqlikdagi hududda joylashgan. Mil. avv. I-mingyillik oʻrtalarida Munchoqtepa oʻrnida kichik qishloq vujudga kelgan, milodning boshlarida u katta shaharga aylanib, XI asrgacha mavjud boʻlgan. Munchoqtepaning VI–VIII asrlarga oid madaniy qatlamidan usti gumbaz bilan yopilgan mahobatli bino qoldiqlari ochilgan, undan oʻrtasi dumaloq teshik boʻlgan Toxariston mis tangalari topilgan. Xitoy sayyohi *Syuan-Szan* (VII asr)ning qayd etishicha, bu yerda budda monastiri (ibodatxonasi) joylashgan. U milodning boshlari – V–VI asrlarda mavjud boʻlgan qadimgi binolar xarobasi ustiga qurilgan.

**MUNCHOQTEPA, Qorovultepa** – qadimgi shahar xarobasi (mil. avv. I asr – milodiy XIV–XV asrlar). Janubiy Surxon suv omborining shimoliy chekkasida joylashgan. Ark va mudofaa devori bilan oʻralgan shahristondan iborat. Mil. avv. I asr milodiy VI–VII asrlarda shahar hayoti taraqqiy etgan.

**NAVTAKA (*Nautaka, Navtoqa*)** – Qadimgi Sugʻd viloyati. Nomi ehtimol sugʻdchada “yangi toq”, “yangi inshoot” yoki “yaqinda qurilgan”ni bildiradi. Navtaka Aleksandr (Iskandar)ning Oʻrta Osiyoga qilgan yurishi (mil. avv. 329–327-yillar) davri haqidagi yozma manbalarda uchraydi. Navtakagi qalʼalardan birida Doro III ning qotili Bess asir olingan. Mil. avv. 328-yilda Aleksandrning qoʻshini Navtakada qishni oʻtkazgan. Ayrim olimlarning fikricha, Navtaka Qarshidan 10 km shimoli gʻarbdagi *Yerqoʻrgʻon shahari* xarobasi oʻnida boʻlgan. Biroq Navtakaning hozirgi Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida joylashgan deyishga koʻproq asoslar bor.

**OKSDAGI ALEKSANDRIYA** – Aleksandr Makedonskiyning Oʻrta Osiyoda qurdirgan 12 shaharlaridan biri.

**OYBOʻYIRQALʼA** – mil. avv. V–IV asrlarga oid Xorazmdagi yodgorlik boʻlib, bu yerdan Oʻrta Osiyo boʻyicha eng qadimgi xum sirtiga chekilgan yozuvlar topilgan.

**PESHOVAR** – Kushon podsholigida Kanishka hukmronligi davri (78–123-yillar)da podsholik poytaxtiga aylantirilgan shahar.

**POLITIMET** – Zarafshon daryosining qadimgi yunoncha nomi boʻlib, “*koʻp ezgu suv*” degan maʼnoni anglatadi.

**POYKEND, Poykand** – qadimgi karvon yoʻli ustida qad koʻtargan shahar xarobasi (mil. avv. IV–III – milodiy XI asrlar). Buxorodan 44 km janubi gʻarbda, Jondor va Qorakoʻl tumanlari tutashgan hududda joylashgan. Oʻrta asr yozma manbalarida shahar *Boykand*, Xitoy solnomalarida esa *Bi* nomlari bilan tilga olinadi. Uning nomlari “*Quy* shahar” maʼnosini anglatadi. Poykand tashqi devorlarining nihoyatda mustahkamligidan shahar ilk oʻrta asrlarda “*Shahristoni Roʻin*”, yaʼni “*Bronzadan qurilgan shahriston*” (*Bronza shahar*) nomi bilan shuhrat topgan. Poykand oʻtmishda 4 qism: 1) darvozali ark (maydoni 1 ga); 2) darvozali ichki shahriston (maydoni 11 ga); 3) darvozali tashqi shahriston (maydoni 6 ga); 4) sharq, gʻarb hamda janubiy tomonlarida qad koʻtargan (maydoni 100 ga dan oshiqroq) ulkan rabodlardan iborat boʻlgan. Arkda qadimgi ibodatxona, podshoh saroyi, IX–X asrlarda qad koʻtargan koshinkor mehrobli jome masjidi, ichki va tashqi shahristonlarda savdogar va

hunarmandlarning turar joy, mahalla-ko'ylari, ichki bozor, ustaxona, nonvoyxona va dorixonalar kabi bino va inshootu korxonalar joylashgan. Shaharning rabod qismida esa 50 dan ortiq naus (ostodonlar xilxonasi)lardan iborat otashparastlarning qabristoni (nekropol), tashqi bozor va bir necha (Narshaxiyning ko'rsatishicha, mingdan ortiq) rabotlar, ya'ni karvonsaroilar qad ko'targan. Manbalarda qayd etilishicha, islomiyat davrida ham Poikend nauslari ochiq bo'lgan. Otashparastlar o'z marhumlari ustuxonlarini hatto, Buxoro shahridan Poikend nauslariga eltib dafn etganlar.

**QAL'ALIQUIR** – mil. avv. V–IV asrlarga oid shahar xarobasi. Qal'aliqir dastlab *S.P. Tolstov* rahbarligida 1939-yili qazilgan va ta'riflangan. Qal'aliqir ikki shahar xarobasi (*Qal'aliqir-I*, *Qal'aliqir-II*)dan iborat. Amudaryoning chap sohilidagi Qal'aliqir-I saroyi Xorazmda ahamoniylar satrapiyasi vujudga kelishi bilan qurila boshlagan. Xorazm Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqqandan keyin qurilish to'xtab qolgan. Qal'aliqir saroyi eng yirik arxitektura majmui bo'lib, uning maydoni 10,5 kv.

**QADIMGI XORAZM** – Turon va Eron mintaqalari oralig'ida joylashgan tarixiy o'lka va qadimgi davlat. Xorazm hududi qadimda Amudaryo adoqlaridan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlariga cho'zilgan. Shu boisdan bu qadimgi tarixiy o'lka fanda 2 xil: Qadimgi Xorazm va Katta Xorazm nomlari bilan ma'lum. Xorazm haqidagi ilk ma'lumotlar *Avesto*, *Doro I ning Behistun bitiklari*, qadimgi yunon mualliflari (miletlik *Gekatiy*, *Gerodot*, *Strabon*) asarlarida uchraydi. Mil. avv. VI–V asrlarda Xorazm Ahamoniylar davlatining 16-satraplik tarkibiga kirgan. Mil. avv. V asr oxiri – IV asr boshlarida esa, u alohida satraplik hisoblangan. Mil. avv. III – milodiy III asrlarda Xorazm Sirdaryo havzasining o'rta qismida tashkil topgan Qang' davlatining tarkibida bo'lgan. Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida Xorazm mustaqil davlat bo'ladi. Xorazmda shaharsozlik boshlanishi mil. avv. VI asrga borib taqaladi (*Ko'zaliqir shahar xarobalari*). Mil. avv. V–IV asrlarda bu yerda mahalliy hukmdorlarning qarorgohi – saroyi bo'lgan ulkan qal'a bunyod etilgan edi (*Qal'aliqir shahri xarobalari*). Xorazm aholisi Sug'diyona, Baqtriya va sahro ko'chmanchilari bilan yaqindan savdo munosabatlarini o'rnatgan. Mil. avv. I asrda va milodning dastlabki asrlarida Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan. Xorazm hududidan O'rta Osiyo bo'yicha eng qadimgi yozuvlar topilgan. Bular *Oybo'yirqal'a* (mil. avv. V–IV asrlar) yodgorligidan xum sirtiga chekilgan yozuv va *Qo'yqirilganqal'adan* (mil. avv. IV–III asrlar) topilgan ayrim mahalliy yozuvlardir.

**QANG' DAVLATI** – mil. avv. III asrda *saklar* asos solgan qadimgi davlat. Qang' davlati hozirgi Toshkent vohasi, Chimkent viloyati va Sirdaryo bo'yi hududlarini egallagan. Xitoy manbalarida bu davlat *Qang'yuy* deb atalgan. Qadimshunoslarning aytilishicha, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi *Qang'ha* shahar xarobasi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti *Qang'dez* bo'lib, unga mil. avv. III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni *Bityan* deb atashgan. Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan edi. Mil. avv. II asr oxirida Qang' qabilalarning eng qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. Uning hukmdorlari hatto o'z nomidan tanga zarb qiladi. Qang' davlatida ulkan istehkomlar, qal'a, shahar ibodatxonalari, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etiladi. Davlat markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o'troq ziroatchi va savdo-hunarmandchilik madaniyati vujudga keldi. Mamlakat iqtisodiyotining gullab-yashnashiga uning hududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi imkon yaratdi. Lekin, ayni shu hol Xitoy bilan urushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urushda *qang'arlar* (Qang' davlati aholisini shunday atashgan) ko'pincha g'olib chiqar edilar. Masalan, Qang' davlatiga yurishlardan birida jo'natilgan 60000 nafar xitoylik jangchidan 10000 ga yaqini Xitoyga qaytib kelgan, xolos. Milodiy III asrga kelib Qang' davlati parchalanib ketgan.

**QANG'DEZ** – Qang' davlati poytaxti. Bu shaharga mil. avv. III asrda asos solingan.

**QO'YQIRILGANQAL'A** – mil. avv. IV–milodiy IV asrlarga oid yodgorlik. To'rtko'l shahridan 22 km shimoli sharqda joylashgan qadimgi qal'a xarobasi. *S.P. Tolstov* rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi 1938-yili ro'yxatga olgan. 1951–1957-yillarda qadimgi Xorazm maqbarasi bilan birga miloddan avvalgi IV–III asrlarga oid aylana shaklidagi ikki qavatli markaziy ibodatxona binosi (diametri 44,4 m, balandligi 9,5 m ga yaqin) qazib o'rganilgan. Qo'yqirilganqal'adan mil. avv. IV–III asrlarga doir qadimgi Xorazm yozuvlari topilgan.

**QORATEPA** – II–IV asrlarga oid arxeologik yodgorlik. Amudaryoning chap sohilidagi qadimgi Termiz xarobalari joylashgan. Dastlab 1926–1928-yillarda Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlat muzeyi ekspeditsiyasi ochgan. 1937-yilda *M.E. Masson* va *E.G. Pchelina* tekshirgan. 1961-yilda arxeolog *B.Y. Staviskiy* qazish ishlari olib borgan. Qazishlar Qoratepada yirik ibodatxona kompleksi qurilganligini, turar joylarning soni dastlab 20–25 taga yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Qoratepa yodgorligidan buddaning katta haykali va haykalchalari hamda

tabarruk narsalari topilgan. Shuningdek, Kushon podsholigi davriga oid sopol idishlar, kosa va ko'zachalar, mis chaqalar, sopol chirog'donlar topilgan. Topilmalar ichida 70 dan ortiq sopol idish siniqlariga hindcha bitilgan yozuvlar (kharoshti va brahma yozuvlari) va devorlarga chizilgan *kushon-baqtriya* hamda *fors-pahlaviy yozuvlari* ayniqsa qimmatlidir.

**SALAVKIYLAR DAVLATI** – Yaqin va O'rta Sharqdagi yirik davlat (mil. avv. 312–64). *Aleksandr* tuzgan saltanat tanazzulga uchragach paydo bo'lgan. Asoschisi *Salavka I*. Poytaxtlari – 300-yilgacha *Salavkiya*, 300-yildan *Antioxiya* shaharlari bo'lgan. Salavkiylar davlati ba'zan, asosiy hududining nomi bilan *Suriya podsholigi* deb ham yuritilgan. Salavkiylar davlati tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Sug'diyona hamda Marg'iyona hududlari kirgan. Salavka I Midiya, Suziana, Forsiya (Persida) keyinchalik O'rta Osiyoning janubidagi Baqtriyani bosib olgan. Mil. avv. 301-yilda Mesopotamiya va Suriya, mil. avv. 281-yilda Kichik Osiyo ham Salavkiylar davlatiga qo'shib olingan. Salavka I mil. avv. 293-yilda o'g'li *Antiox I* ni O'rta Osiyo yerlariga hokim etib tayinlagan. Antiox I mil. avv. 280-yilda Salavka I vafot etganidan so'ng butun Salavkiylar davlatiga hukmronlik qilgan. O'rta Osiyoning bir qancha muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqealari Salavka I, ayniqsa, Antiox I hukmronligi bilan bog'liq. Bu davrda Baqtriya hayotida dastlabki tangalar – oltin, kumush, mis draxma va tetradraxmalar zarb qilina boshlanadi. Ma'muriy boshqaruv jihatdan davlat satrapiyalarga (manbalar 20–30 ta dan 72 tagacha satrapiya bo'lganligi haqida ma'lumot beradi) va nisbatan kichik hududiy birlashmalar – eparxiya, gipparxiya, tonarxiyalarga bo'lingan. Yunon hokimlari va ular atrofida to'plangan yunon zodagonlar bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilar edilar. Mil. avv. III asrning o'rtalariga kelib Salavkiylar davlatida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj olib ketadi. Bu esa O'rta Osiyoda Salavkiylar hokimiyatining barham topishiga olib keldi va mil. avv. 250-yilda Salavkiylar davlatidan dastlab Parfiya keyin esa Yunon-Baqtriya podsholigi ajralib chiqdi. Butun davlat inqirozga yuz tutib mil. avv. 64-yilda faqat hozirgi Suriya hududidan iborat bo'lib qoldi va o'sha yili Rim provinsiyasi (mustamlakasi)ga aylantirildi.

**SIRDARYO** – O'rta Osiyodagi eng uzun va Amudaryodan keyingi eng sersuv daryo. Sirdaryo turli nomlar bilan atalgan. Qadim yunon tarixchilarning asarlarida *Yaxartes* (*Yaksart*), ba'zan, *Tanais*, zardushtiyliklarning muqaddas kitobi Avestoda *Danu*, xitoy transkripsiyasida *Yaosha*, X asrda yozilgan geografik asar – “Hudud al-olam”da

*Xashart*, runiy yozuvlarida *Yenchuo'giz*, Firdavsiyning “Shohnoma”sida va Hamdulloh Qazviniyning “Nuzhat ul-Qulub” asarida *Gulzarriyun*, arablar kelganidan keyingi ko'pgina solnomalarda *Sayxun*, arab geograflaridan Ibn Xurdodbeh asarlarida Xashart va Qanqar, Beruniy asarlarida *Xasart* shakllarida tilga olingan. Ayni vaqtda u qaysi yerdan oqib o'tishiga qarab *Obi Farg'ona*, *O'zgan daryosi*, *Obi Xo'jand*, *Nahr osh-Shosh*, *Binokot daryosi* deb ham atalgan. “Sirdaryo” atamasi dastlab Rim tarixchisi Pliniy asarida (milodiy I asr) “Silis” shaklida uchraydi. “Silis” yoki “Sir” so'zi bu daryo atrofida yashagan qabila nomidan olingan bo'lsa kerak.

**TALASHKANTEPA** – ko'hna shahar (mil. avv. VI–IV asrlar). Sherobod (Surxondaryo)dan 15 km janubi g'arbda joylashgan. Shaharning tarhi aylana shaklida, diametri 130 m, maydoni 1,6 ga dan ko'proq. Qalinligi 5 m ga yaqin bo'lgan paxsa va to'g'ri burchakli xom g'ishtlardan qad ko'targan devor bilan o'rab olingan. Devorda diametri 5 m dan ko'proq bo'lgan 15 ta aylana minorlar qurilgan. Qazishlar natijasida silindirsimon idishlar, kremniy va bronzadan ishlangan o'q uchlari, o'g'ir dastalari, qirg'ichlar, qayroqtoshlar va dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan buyumlar topilgan.

**TUPROQQAL'A** – mil. avv. III–IV asrlardagi xorazmshohlar qarargohi bo'lgan shahar-qal'a. Hozirgi Beruniy shahri atrofidagi hududda joylashgan. 1938–1950-yillarda *S.P. Tolstov* rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Tuproqqal'a tarhi to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, gumbazsimon va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Tuproqqal'aning madaniy qatlamidan, milodning boshlaridan VI asrgacha bo'lgan davrga oid ashyoviy materiallar chiqqan. Shuningdek Tuproqqal'a yodgorligidan teri va yog'och taxtacha-larga yozilgan 100 dan ortiq hujjat topilgan.

**UCHQO'RG'ON** – Qadimgi Farg'ona davlatidagi shahar. Uchqo'rgo'n aholisi yerni ishlash, sholi va bug'doy yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan.

**XOLCHAYON** – Yunon-Baqtriya va Kushon podsholigi madaniyatiga oid yodgorliklar majmuasi (mil. avv. IV – milodiy V asr). Surxondaryo viloyatining Denov tumani hududida joylashgan. 1959–1963-yillarda *G.A. Pugachenkova* rahbarligidagi arxeologiya-san'at ekspeditsiyasi o'rgangan. Xolchayondan 50 dan ortiq turli asrlarga oid tangalar topilgan. Ularning eng qadimgisi Yunon-Baqtriya podshohlaridan *Demetriy* (mil. avv. 200-yil) kumush tangasi, Geliokl (mil. avv. 156–140-yillar) tetradraxmasi, Kushon podshohlaridan *Kudzula Kadfiz*, *Vima Kadfiz*, *Kanishka*, *Xuvishka*, *Vasudeva I* va *Vasudeva II* tangalari hisoblanadi.

**YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI** — Oʻrta Osiyodagi qadimgi quldorlik davlati (mil. avv. 250–130-yillar). Unga salavkiylarning Baqtriyadagi noibi *Diodot I* asos solgan. Baqtriyadagi mahalliy va yunon oqsuyaklariga tayangan Diodot I mil. avv. 250-yilda Oʻrta Osiyoda salavkiylarga qarshi koʻtarilgan xalq qoʻzgʻolonidan foydalanib, “1000 shaharli mamlakat” sifatida tasvirlangan Baqtriyani salavkiylar davlatidan ajratib olgan va oʻzini mingta Baqtriya shahri hukmdori deb eʼlon qilgan. Hukmdorlar yunon zodagonlaridan boʻlgani uchun bu davlat tarixda Yunon-Baqtriya podsholigi nomini olgan. Yunon-Baqtriya podsholigi *Baqtriya*, *Sugʻd*, *Margʻiyona*, *Choch* (Toshkent) va *Dovon* (Fargʻona) viloyatlarining bir qismini oʻz ichiga olgan. Poytaxti hozirgi Mozori Sharif oʻrnida qadimgi *Zariasp shahri* boʻlgan. Yunon-Baqtriya podsholigi *Demetriy* hukmronligi davri (mil. avv. 199–167-yillar)da oʻz taraqqiyotining yuqori choʻqqisiga koʻtarilgan. Bu davrda Yunon-Baqtriya podsholigi Hindistonning bir qismini ham bosib olgan. Demetriy vafot etganidan soʻng (mil. avv. 167-yil) podsholik mustaqil ikki hokimiyatga: *Yunon-Baqtr* va *Yunon-Hind podsholiklariga* boʻlinib ketgan. Yunon-Hind podsholigining poytaxti Panjob viloyatidagi *Demetriy* yoki *Sakala* shahri boʻlgan. Mil. avv. 140–130-yillarda koʻchmanchi *yuehji* qabilalarining hujumlari natijasida Yunon-Baqtriya podsholigi barham topgan.

**ZARAFSHON** (forscha *zar* — *oltin*, *afshon* — *sochuvchi*) — Tojikiston va Oʻzbekistondagi daryo. Avesto yodgorliklarida “*Daytiya*” — “*Ezgu suv*” deb yuritilgan; yunonlar hukmronligi davrida “*Daytiya*” soʻzi yunoncha aynan tarjima qilinib, *Politimet* — “*Koʻp ezgu suv*” deb atalgan; daryoning *Sugʻd*, *Jirt*, *Jon*, *Somjan* shaklidagi nomlari ham maʼlum; pahlaviy (qadimgi forscha) tilida “*Nomiq*” (“*Mashhur*”, “*Ezgu*”), fors tilidagi manbalarda *Rudi Mosaf*, *Rudi Shargʻ* deyilgan; arabcha manbalarda esa *Haramkom* — “*Muqaddas daryo*”, *Vodiy us-Sugʻd*, *Nahr ul-Buxoro* kabi nomlari qayd etilgan; “*Boburnomada*” *Obi Koʻhak* deb tilga olingan. Zarafshon vaohasida mil. avv. 2-mingyillik —

1-mingyillik boshlarida yashagan oʻtroq aholi Zarafshondan kanal-ariqlar chiqarib dehqonchilik qilgan. I–IV asrlarda Zarafshondan suv oladigan Dargʻom, Qalqonota, Shahrud, Romitan kabi yirik kanallar, Sangi-Saloh, Katta Beglik, Damdaryo kabi ariqlar qazilgan.

**ZARTEPA** — Termiz shahridan 26 km shimoli-gʻarbda joylashgan qadimgi shahar zarobasi. Zartepa 1951–1952-yillarda arxeolog *L. I. Albaum* tomonidan tekshirilgan. 1960–1980-yillarda arxeolog V. Zavyalov, Q. Sobirov va Sh. Pidayevlar tomonidan oʻrganish davom etirilgan. Arxeologik qazishmalar tufayli Zartepaning shahriston qismidan uy-joy qoldiqlari va koʻchalar ochilgan. Yodgorlikdan odam va hayvonlarning haykalchalari va har xil tangalar topilgan. Topilmalarning eng qadimgisi mil. avv. IV–II asrlarga toʻgʻri keladi.

**SHOʻRABASHAT** — Fargʻona vodiysidagi dehqonchilik bilan shugʻullangan qadimgi aholi yashaydigan shahar xarobasi (mil. avv. IV–I asrlar). Yodgorlik Qirgʻiziston Respublikasining Oʻzgan shahridan 8 km shimoli gʻarbda joylashgan. Maydoni 70 ga. Shoʻrabashat 3 qismdan iborat: ark, aholi yashaydigan asosiy qism va mol-qoʻy saqlanadigan va atrof hudud aholisi uchun notinchlik paytida yashirinadigan panagoh. Har bir qism alohida mudofaa devorlari bilan oʻralgan. Qadimgi aholi sugʻorma dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullangan. Manbalarning xabar berishicha, xitoylar ayrim qishloq xoʻjaligi ekinlarini shu yerdan olib ketib oʻzlashtirib olganlar. Shoʻrabashatdan topilgan eng diqqatga sazovor topilma bu terrakotadan yasalgan odamlar yuz qismi haykalidir. Haykallarning yuz qismi yalpoq va koʻzlari qisq. Bu tasvirlar antik davr Fargʻona aholisi toʻgʻrisida birinchi ashyoviy hujjatdir. Bu shahar xarobasi qadimgi Fargʻonada hukm surgan Dovon podsholigi davriga toʻgʻri keladi. Yozma manbalarda bu shahar *Yu (Yuchen) shahri* deb tilga olinadi. Aynan, bu shahar aholisi Fargʻona vodiysiga yurish qilgan xitoylarga juda qattiq qarshilik koʻrsatgani haqida maʼlumot bor. Shoʻrabashat Fargʻona vodiysida dehqonchilik madaniyatini oʻrganishda katta ahamiyatga ega yodgorlikdir.

## TARIXIY SANALAR

**Mil. avv. III–II mingyilliklar** — Pomir togʻlaridan boshlanib, Eron va Old Osiyo hamda Misr orqali oʻtgan “*Laʼl yoʻli*”ning vujudga kelishi.

**Mil. avv. VII asr** — Xorazmda sharsozlikni boshlanishi.

**Mil. avv. VI–IV asrlar** — *Syrxondaryo*, *Qashqadaryo*, *Zarafshon* vodiylari, *Amudaryoning*

quyi oqimi (*Qiziltepa*, *Uzunqir*, *Afrosiyob*, *Qalʼaliqir*)da yirik hunarmandchilik markazlari boʻlgan.

**Mil. avv. VI–IV asrlar** — Oʻrta Osiyo hududida dastlabki tanga pullar tarqalgan.

**Mil. avv. VI–IV asrlar** — Eron Ahamoniylari sulolasining yoʻli “*Shoh yoʻli*”ning faoliyat koʻrsatishi.

**Mil. avv. VI–IV asrlar** — togʻli Oltoydagi



koʻchmanchilarning qoʻrgʻonlaridan *Paziriq* qoʻrgʻonidan kigiz gilam, jun gazlamalar, oltin, jez va kumush buyumlar, Oʻrta Osiyo va Eron matolaridan tikilgan kiyimlar qoldiqlarini topilishi.

**Mil. avv. VI asr oʻrtalari** – Qadimgi Fors shohlari sulolasidan boʻlgan Ahamoniylar tarkibiga jahonning barcha yirik mamlakatlari va shaharlari kirgan imperiya barpo etishga harakat qila boshladilar.

**Mil. avv. VI asr** – Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi (*Koʻzaliqir* shahri xarobalari).

**Mil. avv. V–IV asrlar** – Oʻrta Osiyo boʻyicha eng qadimgi yozuvlar namunasi topilgan Xorazmdagi *Oyboʻyriqqalʼa* yodgorligi.

**Mil. avv. V–IV asr** – Xorazmda mahalliy hukmdorning qarorgohi – saroyi boʻlgan ulkan qalʼa bunyod etildi (*Qalʼaqir* shahri xarobalari).

**Mil. avv. IV–III asrlar** – Oʻrta Osiyo boʻyicha eng qadimgi yozuvlar namunasi topilgan Xorazmdagi *Qoʻyriqqalʼa* yodgorligi.

**Mil. avv. IV–III asrlar** – sak qavmlariga mansub *yuechji* qabilalari Markaziy Osiyoning gʻarbiy qismida yashar edilar.

**Mil. avv. IV asr** – *saklar* va *massagetlar* oʻzlarini Ahamoniylar davlati fuqarolari deb hisoblamaydigan boʻldilar.

**Mil. avv. IV asr** – Xorazm Ahamoniylardan ajralib mustaqil davlatga aylandi.

**Mil. avv. III asr** – saklar *Qangʻuy* deb atalgan davlatga asos solishi.

**Mil. avv. III asr** – Salavkiylar davlatining qulashi.

**Mil. avv. III asr** – saklar Qangʻuy davlatini poytaxti *Qangʻdez* shahriga asos solinishi, Xitoy tarixchilari bu shaharni *Bityan* deb atashgan.

**Mil. avv. III–II asrlar** – Yunon-Baqtriya podsholigi va Parfiya davlati hukmronligi davrida Xorazm mustaqil davlat sifatida faoliyat koʻrsatgan. Bu hol *Jonbosqalʼa* va *Qoʻyqirilganqalʼa* yodgorliklarining vujudga kelishiga muhim omil boʻlgan.

**Mil. avv. III asr oʻrtalari** – Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqdi. Diodot mingta Baqtriya shahri hukmdori oʻzini podsho deb eʼlon qildi va Yunon-Baqtriya podsholigi tashkil topdi.

**Mil. avv. III asr – milodiy II asr** – *Qangʻ* davlati mavjud boʻlgan davri.

**Mil. avv. III asr – milodiy II asr** – *Dovon* davlati hukm surgan davr.

**Mil. avv. II asr – milodiy XVI asrlar** – Sharq bilan Gʻarb xalqlari oʻrtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur boʻlgan “*Buyuk Ipak yoʻli*”ning faoliyati.

**Mil. avv. II asr** – yunon tarixchisi *Poliyenni*ning Shiroq haqidagi afsonani oʻz asarida keltirishi.

**Mil. avv. II asr oxiri** – *Mitridat VI* tomonidan

Bosfor podsholigi, Kolxida va Gʻarbiy Qora dengiz boʻylarining bosib olinishi.

**Mil. avv. II asr oxiri** – *Dovonning* naslli otlarini dovrugʻi Xitoygacha yetib bordi. Ularni hattoki “*qanotli otlar*” ham deyishgan. Choppanda ularning badanida ter oʻrniga qon tomchilarini koʻrishgan ekan.

**Mil. avv. II asr oxiri** – Qangʻ qabilalarining eng qudratli davlat birlashmasiga aylanishi. Uning hukmdorlari oʻz nomidan tangalar zarb qiladi, ulkan istehkomlar, qalʼalar, shahar ibodatxonalari, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etildi.

**Mil. avv. II asr oʻrtalari** – Parfiyaning kuchayishi. *Mitridat I* tomonidan Midiya va Mesopotamiyaning ishgʻol qilinishi.

**Mil. avv. II asr oxiri** – *samoviy otlar* ovozi Xitoygacha yetib borishi, ularni “*qanotli otlar*” ham deyishgan. Bu otlar choppanda ularning badanida ter oʻrniga qon tomchilari koʻringan ekan.

**Mil. avv. II–I asrlar** – Fargʻona yuksak taraqqiy etgan, aholisi koʻp sonli, yaxshi qurollangan va mashq koʻrgan qurolli kuchlarga ega davlat boʻlgan.

**Mil. avv. I asr** – *yuechji* qabilalari tomonidan *Kushon* davlatini barpo etilishi. Birlashgan besh yuejey qabilasining birinchi hukmdori *Kudzula Kadfiz* boʻldi.

**Mil. avv. I asrning II yarmi** – Kushonlarning Hindistonga yurishi.

**Mil. avv. I asr – milodning boshlari** – Xorazmda mis va kumush tangalar zarb etila boshlangan.

**Mil. avv. I – milodiy IV asr** – Kushon podsholigining tashkil topishi va rivojlanishi.

**Mil. avv. 550-yil** – *Kir II* *Midiyani* zabt etdi.

**Mil. avv. 545–540-yillar** – Ahamoniylar hukmdori *Kir II Parfiya*, *Margʻiyona* va *Baqtriyani* bosib oldi.

**Mil. avv. 538-yil** – *Kir II Bobilni* bosib oldi.

**Mil. avv. 530-yil** – *Kir II* ning *massagetlar* ustiga qoʻshin tortishi va *Toʻmaris* bilan boʻlgan jangda halok boʻlishi.

**Mil. avv. 525-yil** – forslar *Kambiz* boshchiligida *Misrni* bosib oldi.

**Mil. avv. 522-yil** – forslarga qarshi *Frada* boshchiligida *Margʻiyonada* koʻtarilgan qoʻzgʻolonning *Doro I* tomonidan bostirilishi.

**Mil. avv. 522–486-yillar** – Ahamoniylar hukmdori *Doro I* ning hukmronlik davri.

**Mil. avv. 521-yil** – *Margʻiyonadagi* xalq qoʻzgʻolonining boshligʻi *Frada* qatl qilindi.

**Mil. avv. 519-yil** – Ahamoniylar hukmdori *Doro I* ning *saka-tigraxaudalar* ustiga yurushi. *Shiroq* jasorati.

**Mil. avv. 519–518-yillar** – Ahamoniylar hukmdori *Doro I* ning Hindistonga yurishi.

**Mil. avv. 512-yil** – Ahamoniylar hukmdori Doro I ning Shimoliy Qora dengiz ustiga yurishi, saklarni tobe etishga muvaffaqiyatsiz urinishi.

**Mil. avv. 490-yil** – Ahamoniylar hukmdori *Kserks* boshchiligida saklarning Marafon jangida ishtiroki.

**Mil. avv. 486–465-yillar** – Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohi *Kserks* hukmronligi davrida bosib olingan viloyatlardan O'rta Osiyo xalqlari siyosiy hayot va yunon-fors urushlarida qatnashdilar. Saklar mashhur Marafon jangida fors qo'shinlari markazida o'zini ko'rsatadi. Gerodot *Kserks* boshchiligida yunonlar ustiga yurush qilgan O'rta Osiyolik jangchilar qurol yarog'larini tasvirlagan. Baqtriyaliklar, xorazmliklar va so'g'diylar kamon va nayzalar bilan, saklar xanjar va oyboltalar bilan jangga kirishgan. Sak va Baqtriya suvoriylari *Kserks* armiyasida eng yaxshi jangchilardan bo'lishgan.

**Mil. avv. 338-yil** – Xeroniya yaqinida makedonlar yunonlar qo'shinini tor-mor qilishi, Aleksandrning bu jangdagi jasorati.

**Mil. avv. 336-yil** – Makedoniya hukmdori *Filipp II* ning vafoti.

**Mil. avv. 336-yil** – 20 yoshga to'lgan *Aleksandr* Makedoniya podshosi bo'ldi.

**Mil. avv. 334-yil** – Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishlarining boshlanishi.

**Mil. avv. 334-yil** – Aleksandr Sharqqa 10 yillik yurish uyushtirishi. Ana shu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindiston hududlari bosib oldi.

**Mil. avv. 330-yil** – Makedoniyalik Aleksandr Qadimgi Fors davlatining Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan so'nggi hukmdori *Doro III* qo'shinlarini tor-mor keltirdi va Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo'ysuntirish uchun yurish boshladi.

**Mil. avv. 329-yil** – Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Baqtriya va So'g'diyonani bosib olish maqsadida Amudaryodan o'tdi. Samarqand va Maroqandni egalladi. Aleksandr *Qurushkat* (*Kirapolis*) shahrini bosib olish uchun Sirdaryo qirg'oqlari sari keta boshladi.

**Mil. avv. 329–327-yillar** – Sug'd va Baqtriya aholisining *Spitamen* boshchiligida Makedoniyalik Aleksandrqa qarshi qo'zg'oloni.

**Mil. avv. 328-yilning kuzi** – Aleksandr va Spitamen o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi va unda Aleksandrning qoli baland keldi.

**Mil. avv. 327-yil** – *Spitamening* halok bo'lishi. Makidoniyalik Aleksandrning so'g'diylar va baqtriyaliklar qal'asini egallashi, Oksiartning qizi Ravshanakka uylanishi. Hindistonga yurishning boshlanishi.

**Mil. avv. 324-yil** – Aleksandrning askarlari siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va Sug'diyona yosh yigitlari hisobiga to'ldirilgan.

**Mil. avv. 323-yil 13-iyun** – Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U yaratgan imperiya uch qismga: *Makedoniya*, *Misr* va *Suriyaga* bo'linib ketdi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin lashkarboshlari tomonidan boshqarilgan.

**Mil. avv. 312-yil** – Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan *Salavka* Bobil (Mesopotamiya) davlati hukmdori bo'ldi. Salavka davlati tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya Baqtriya, Sug'diyona, Marg'iyona kirgan. Salavka O'rta Osiyoni satrapliklarga bo'ldi.

**Mil. avv. 293-yil** – Salavka Sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg'iyona, So'g'diyona, Baqtriya noibi etib o'g'li *Antioxni* tayinladi.

**Mil. avv. 293–260-yillar** – Salavkaning o'g'li, Spitamenning nabirasi Antiox hukmronlik davri.

**Mil. avv. 280-yil** – Salavkiylar davlati taxtiga *Antiox* o'tirdi va u 20 yilcha hukmronlik qildi.

**Mil. avv. 250-yil** – Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Parfiya Baqtriyaning raqibiga aylandi.

**Mil. avv. 250-yil** – *Diodot* mahalliy zodagonlarning xayrihohligiga tayanib o'zini Baqtriya podshosi deb e'lon qildi.

**Mil. avv. 230-yil** – Sug'diyona noibi *Yevtidem I* qo'shinlari Diodot II qo'shinlarini yengib, Baqtriya taxtini egalladi.

**Mil. avv. 226-yil** – Parfiya davlatining qulashi.

**Mil. avv. 208–206-yillar** – Salavka podshosi *Antiox III* bilan *Yevtidem I* o'rtasida ikki yilga cho'zilgan urush sulh bilan tugaydi. Antiox III *Yevtidem* shohligini tan olishga majbur bo'ldi. Chunki shu davrda shimolda ko'chmanchi qabilalar xavf solib turgan edi. *Yevtidem I* va uning o'g'li *Demetriy* davrida Yunon-Baqtriya kuchayib Seyistondan Hind daryosigacha bo'lgan yerlar Yunon-Baqtriya podshohligiga qo'shib olindi.

**Mil. avv. 199–167-yillar** – *Demetriy* hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podshohligi Hindiston yerlarining bir qismini bosib oldi.

**Mil. avv. 175-yil** – podsho *Demetriy* Hindistonda jang olib borayotganda, uning sarkardasi *Yevkradit* qo'zg'olon ko'tarib, Yunon-Baqtriya taxtini egallaydi. *Demetriy* esa janglardan birida halok bo'ladi.

**Mil. avv. 175–140-yillar** – Qang' davlatining gullab-yashnashi.

**Mil. avv. 162-yil** – *Yevkradit* Panjobga qo'shin tortib uni bosib oldi. Lekin ko'p o'tmay Yunon-Hind shohi *Menandr* qo'shinlari *Yevkradit* qo'shinlarini Panjobdan uloqtirib tashlaydi.

**Mil. avv. 160-yil** – Yevkradit o'z o'g'li *Geleokl* o'rtasida janjal chiqdi. Yevkradit o'z o'g'li *Geleokl* tomonidan o'ldirildi. *Geleokl* davrida Yunon-Baqtriya davlati kuchsizlanib, uning ixtiyorida faqatgina Baqtriya qoldi.

**Mil. avv. 140–130-yillar** – ko'chmanchi *yuechji* qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oldi va 120 yil yashagan podsholik barham topdi.

**Mil. avv. 138-yil** – Xitoy imperatori *U Di* elchi Chjan Szyanni ko'chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun jo'natishi.

**Mil. avv. 120-yil** – Buyuk Ipak yo'liga asos solinishi.

**Mil. avv. 99-yil** – Kushon davlati elchilarining Rimga kelishi.

**Mil. avv. 78–123-yillar** – Kushon davlati hukmdori *Kanishka* hukmronligida Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga yetdi. U Hindistonning katta qismini Kushon davlatiga qo'shib oldi. Yangi shaharlar bunyod etildi, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatildi.

**Milodiy I–III asrlar** – Kushon madaniyatining mashhur yodgorliklari: *Ayritom*, *Xolchayon*, *Dalvarzintepa* va *Fayoztepa*.

**Milodiy I asr – VIII asr** – Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvim amalda faoliyat ko'rsatishi.

**Milodiy II–III asrlar** – *Tuproqqal'a* shahrida

qurilish ishlari olib borilgan. Shahar qudratli mudafaa devorlari bilan o'ralgan, devor burchaklarida burjlar qurilgan.

**Milodiy III asr** – to'xtovsiz urushlar natijasida Kushon davlati barham topdi.

**Milodiy IV asr** – Kushon podsholigi barham topdi.

**Milodiy V asr** – O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarning boshlanishi.

**Milodiy VIII asrgacha** – *Buddaviylik* va *zardushtiylik* dinlarining O'rta Osiyoda hukm surishi.

**Milodiy 242–243-yillar** – Sosoniylar bilan Kushon podsholigi o'rtasida bo'lgan jangda sosoniy shohi *Shopur I* qo'shinlari Kushon qo'shinlari ustidan g'alaba qozondi.

**1877-yil** – nemis geografi *F. Rixtgofer* tomonidan "*Buyuk Ipak yo'li*" atamasiga asos solinishi.

**1877-yil** – Qo'bodiyon vodiysidan, Qadimgi Baqtriya zaminidan "*Amudaryo xazinasi*" topildi. U yuqori badiiy uslubda ishlangan oltin va kumush buyumlar majmuyidan iborat edi.

**1880-yil may** – Afg'onistonning janubida Kobuldan uch kunlik yo'lda Buxoro savdogarlari karvoniga qaroqchilar hujum qildi.

**1905-yil** – Britaniya muzeyining xazinachisi O. Dalton Buxoro savdogarlari xazinasi to'g'risida "*Oks xazinasi*" degan kitob yozdi.

## TESTLAR

### O'RTA OSIYOGA AHAMONIYLARNING BOSQINCHILIK YURISHLARI

1. Mil. avv. VI asr o'rtalarida hukmdorlik qilgan qadimgi Fors shohlari qaysi sulolaga mansub bo'lgan?

- A) Ahamoniylar
- B) Pahlaviylar
- S) Makedonlar
- D) Sosoniylar

2. Kir II O'rta Osiyoga hujum qilmasidan oldin qaysi davlatlarni bosib olgan edi?

- 1) Midiya; 2) Finikiya; 3) Karmaniya;
- 4) Lidiya; 5) Frakiya; 6) Ossuriya; 7) Bobil; 8) Misr
- A) 2, 4, 7
- B) 1, 2, 7, 8
- S) 1, 4, 7
- D) 1, 5, 6

3. Qaysi fors shohi O'rta Osiyo hududini ilk bor bosib olishga harakat qilgan?

- A) Gaumata
- B) Doro I

S) Kserks

D) Kir II

4. Kir II Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani qaysi yillar oralig'ida bosib oladi?

- A) mil. avv. 545–540-yillar
- B) mil. avv. 522–486-yillar
- S) mil. avv. 486–465-yillar
- D) mil. avv. 545–535-yillar

5. Mil. avv. 530-yilda Kir II ...

- A) Midiya, Lidiya va Bobilni bosib oladi
- B) ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurishga o'tlanadi
- S) Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani bosib oladi
- D) To'marisning taklifiga rozi bo'ladi

6. Massagetlar mamlakatini bosib olganligi haqida qaysi tarixchi o'z asarida yozib qoldirgan?

- A) Sima Szyan
- B) Poliyen

S) Kvint Kursiy Ruf

D) Gerodot

**7. Forslar massagetlar hududiga bostirib kirganlarida ularga To'maris nimani taklif qiladi?**

A) ikki o'rtada sulh tuzishni

B) tinch-omon o'z yurtlariga qaytib ketishni

S) ma'lum miqdorda tovon puli to'lashni

D) Araks-Amudaryodan kechib o'tishni

**8. "Bu jang... barcha janglardan ham daxshatlirog'i edi. Avval har ikkala dushman kuchlar bir-biriga qarshi jangovar saf tizishib, kamondan o'q yog'dirishdi. O'qlari tugagach, qo'llariga xanjar va nayzalar olib, dushmanga qarshi tashlandilar. Jang uzoq davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlarning qo'li baland keldi. Fors qo'shinlarining ko'pchiligi qirildi. Jang maydonida Kir II ning o'zi ham halok bo'ldi".**

**Quyidagi misralar qaysi tarixchining qalamiga mansub?**

A) Gerodot

B) Poliyen

S) Kvint Kursiy Ruf

D) Sima Szyan

**9. Mil. avv. 522-yilda taxtga o'tirgan Ahamoniylar sulolasining vakilini aniqlang.**

A) Doro I

B) Kir II

S) Kserks

D) Kambiz

**10. Doro I ning hukmronligi nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?**

A) mil. avv. 486-465-yillar

B) mil. avv. 545-540-yillar

S) mil. avv. 522-486-yillar

D) mil. avv. 443-429-yillar

**11. Ma'lumki, Doro I hukmronligining birinchi yili Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Ushbu qo'zg'olonga kim boshchilik qiladi?**

A) Kambiz

B) Shiroq

S) Frada

D) Kserks

**12. Frada boshchiligidagi qo'zg'olonchilar bilan forslar qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang qachon bo'lib o'tgan?**

A) mil. avv. 520-yilda

B) mil. avv. 521-yilda

S) mil. avv. 523-yilda

D) mil. avv. 522-yilda

**13. Ma'lumki, Doro I hukmronligining birinchi yili Marg'iyonada fors istilolariga qarshi yirik xalq**

**qo'zg'oloni ko'tarilgan. Bu voqea haqidagi ma'lumot qaysi manbada keltirilib o'tilgan?**

A) "Tarixiy yilnomalar"

B) "Avesto"

S) "Tarix"

D) "Behistun"

**14. Doro I saklar ustiga hukmronligining nechanchi yilida yurish qiladi?**

A) to'rtinchi yilida

B) ikkinchi yilida

S) birinchi yilida

D) uchinchi yilida

**15. Doro I ning saklar ustiga yurishi haqida qaysi yozma manbada ma'lumotlar berib o'tilgan?**

A) "Tarix"

B) "Avesto"

S) "Behistun"

D) "Tarixiy yilnomalar"

**16. Behistun bitiklarida Doro I ning saklarga yurishi paytida keltirib o'tgan so'zlarini aniqlang.**

A) "keyin qo'shin bilan saklar mamlakatiga yurish qildim. Keyin uchi o'tkir kuloh kiyib yuruvchi saklar jangga kirdilar. Men daryodan o'tgach, saklarni tamoman tor-mor keltirdim, qolgan qismini asirga oldim... Ularning Skunxa degan sardorini qo'lga tushirib, huzurimga keltirdilar. Shunda men ularga boshqa bir sardor tayinladim. Men shunday bo'lishini xohladim. So'ngra bu mamlakat menga tobe bo'ldi"

B) "Bu jang... barcha janglardan ham daxshatlirog'i edi. Avval har ikkala dushman kuchlar bir-biriga qarshi jangovar saf tizishib, kamondan o'q yog'dirishdi. O'qlari tugagach, qo'llariga xanjar va nayzalar olib, dushmanga qarshi tashlandilar. Jang uzoq davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlarning qo'li baland keldi. Fors qo'shinlarining ko'pchiligi qirildi. Jang maydonida Kir II ning o'zi ham halok bo'ldi"

S) "Marg'iyona degan mamlakat menga bo'y-sunmadi. Frada degan marg'iyonalik kishini ular o'zlariga hokim qilib tayinladilar. Shunda men Baqtriya satrapi fors Dodarshishga chopar jo'natib, "borib meni mensimay qo'ygan qo'shinni tor-mor qil", dedim"

D) "Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o'z o'qidan chiqarib yuboraman"

**17. Doro I ning saklar ustiga yurishi haqida ma'lumot berib ketgan tarixchini ko'rsating.**

A) Arrian

B) Gerodot

S) Kvint Kursiy Ruf

D) Poliyen

**18. Doro I saklar ustiga yurish boshlaganda sak qabilasidan bo'lgan cho'pon yigit Shiroq o'z**

**qabilasini forslar zulmidan qutqarib qolish maqsadida qanday jasorat ko'rsatadi?**

A) u fors qo'shinlarini o'zidan boshqa hech kim bilmaydigan so'qmoq bilan saklarning orqa tomoniga boshlab borishga ishontiradi va ularni aldab cho'li biyobonlarda adashtirib qo'yadi hamda o'zi bu jasorati oqibatida halok bo'ladi

B) u fors hukmdoriga katta tovon to'lab, o'z xalqini ozodligini saqlab qoladi

S) u jasur yigitlardan saralangan qo'shin tuzib, fors qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi

D) u forslarga qarshi kurashish uchun qo'shni davlatlar bilan harbiy ittifoq tuzadi

**19. Doro I ning saklar ustiga yurishi nima bilan tugaydi?**

A) saklarning mag'lubiyati bilan

B) forslarning mag'lubiyati bilan

S) forslarning g'alabasi bilan tugab, katta o'lja bilan qaytadilar

D) saklar forslar hukmdori Doro I ni asirlikka oladi

**20. Satraplik bu - ...**

A) kichik viloyat

B) shahar

S) viloyat

D) faqat Ahamoniylardan bo'lgan odamlar tayinlanadigan tuman

**21. Ahamoniylarning bosib olingan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun joriy etgan tizimni aniqlang.**

A) aholidan maxsus askarlar tuzib hududlarni nazorat etishga yuborganlar

B) davlatni besh qismga bo'lib, har biriga Ahamoniylardan bo'lgan kishi tayinlangan

S) turli soliqlar joriy qilinadi

D) davlatni viloyat – satrapliklarga bo'lib tashlaydilar

**22. O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari necha satraplikka bo'lingan?**

A) olti

B) to'rt

S) besh

D) uch

**23. Ahamoniylar davrida O'rta Osiyo satrapliklari forslarga qanday soliq to'lashgan?**

A) xiroj

B) zakot

S) jizya

D) salg'ut

**24. O'rta Osiyo satrapliklari ahamoniylarga xiroj solig'ini nima bilan to'lashgan?**

1) kumush buyumlar; 2) yoqut buyumlar; 3) chorva mollari bilan; 4) hunarmandchilik buyumlari;

5) baqtriya la'li; 6) kiyim-kechaklar; 7) nodir kitoblar; 8) hayvonlar terisi bilan.

A) 1, 3, 4, 6, 8

B) 1, 4, 5, 6, 8

S) 3, 4, 5, 6, 7, 8

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

**25. Ahamoniylar hukmdori Doro I ning vorisi kim bo'lgan?**

A) Gaumata

B) Kir II

S) Kambiz

D) Kserks

**26. Forslar podshosi Kserks qaysi yillari hukmronlik qilgan?**

A) mil. avv. 522–486-yillar

B) mil. avv. 486–465-yillar

S) mil. avv. 486–464-yillar

D) mil. avv. 485–465-yillar

**27. Marafon jangida fors qo'shinlari markazida O'rta Osiyo xalqlaridan qaysi birlari o'zini ko'rsatgan?**

A) parfiyaliklar

B) massagetlar

S) sak

D) marg'iyonaliklar

**28. Mil. avv. V asrda bo'lib o'tgan Marafon jangida baqtriyaliklar qanday qurol-yarog'lar bilan qurollangan edi?**

A) kamon va nayzalar bilan

B) xanjar va oyboltalar bilan

S) xanjar va kamon bilan

D) kamon va oyboltalar bilan

**29. Marafon jangida ishtirok etgan O'rta Osiyodagi qaysi xalq xanjar va oyboltalar bilan qurollangan edi?**

A) sak va baqtriyalik suvoriylar

B) so'g'diylar

S) xorazmiylar

D) saklar

**30. Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Kserks armiyasida eng yaxshi jangchilar kimlardan iborat bo'lgan?**

A) baqtriyalik va xorazmiy askarlar

B) xorazmiy va so'g'diy suvoriylar

S) baqtriyalik va so'g'diy suvoriylar

D) sak va baqtriyalik suvoriylar

**31. Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Kserks boshchiligida yunonlar ustiga yurish qilgan O'rta osiyolik jangchilar qurol-yarog'larini mufassal tasvirlagan tarixchini aniqlang.**

A) Gerodot

B) Poliyen

S) Kvint Kursiy Ruf

- D) Arrian
- 32. Marafon jangida qaysi xalqlar xuddi baqtriyaliklar kabi qurol-aslahalar bilan jangga kirishgan?**
- A) periyeklar va xorazmiylar  
B) saklar va massagetlar  
S) xorazmiylar va sug'diylar  
D) xorazmiylar va varvarlar
- 33. Salamin yaqinidagi dengiz jangida halok bo'lgan navqiron baqtriyalik jangchilari tilga olingan tragedik asar va uning muallifini aniqlang.**
- A) "Baqtriyaliklar", Poliyen  
B) "Forslar", Esxil  
S) "Salamin jangi", Arrian  
D) "Forslar tragediyasi", Sofokl
- 34. O'rta Osiyo xalqlari ustidan qaysi sulola 200 yildan ko'proq hukmronlik qilgan?**
- A) Ahamoniylar  
B) Arshakiylar  
S) Kushonlar  
D) Salavkiylar
- 35. Mil. avv. IV asrda O'rta Osiyodagi qaysi xalqlar Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqib mustaqil bo'lgan?**
- A) forslar, sug'diylar va xorazmiylar  
B) saklar, sug'diylar va xorazmiylar  
S) saklar, xorazmiylar va massagetlar  
D) yunon-makedon, sug'diylar
- 36. Mil. avv. VI-IV asrlarda madaniyatning rivojlanishini qanday manbalar asosida o'rganilgan?**
- A) yozma va arxeologik  
B) arxeologik va antropologik  
S) afsonalar  
D) folklor
- 37. Arxeologik va yozma manbalar O'rta Osiyo xalqlarining qanday sohalar taraqqiyotida yuksak darajaga erishganlaridan dalolat beradi?**
- A) kulolchilik, baliqchilik, binokorlik  
B) zargarlik, hunarmandchilik, tikuvchilik  
S) kulolchilik, binokorlik, zargarlik  
D) zargarlik, hunarmandchilik, tikuvchilik, kulolchilik, binokorlik
- 38. Mil. avv. VI-IV asrlarda yirik hunarmandchilik markazlari bo'lgan O'rta Osiyodagi hududlarni aniqlang.**
- 1) Surxondaryo; 2) Sirdaryoning quyi oqimi;  
3) Qashqadaryo; 4) Amudaryoning yuqori qismi  
5) Baqtriya; 6) Rodos oroli; 7) Zarafshon vodiysi; 8) Makedoniya chegarasidagi tog'lar; 9) Kichik Osiyo; 10) Amudaryoning quyi oqimi
- A) 1, 3, 7, 10  
B) 2, 3, 4, 8, 9, 10  
S) 1, 3, 8, 10
- D) 6, 7, 9, 10
- 39. Quyidagi ko'rsatilgan shaharlardan qay birlari Ahamoniylar davridagi yirik hunarmandchilik markazlarni hisoblangan?**
- 1) Jarqo'rg'on; 2) Uzunqir; 3) Tozabog'yob;  
4) Qiziltepa; 5) Afrosiyob; 6) Sarazm; 7) Yerqo'rg'on; 8) Ko'zaliqir
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8  
B) 1, 2, 4, 7, 8  
S) 4, 5, 6, 8  
D) 2, 4, 5, 7, 8
- 40. Qachondan boshlab O'rta Osiyo hududida dastlabki tanga pullar tarqalgan?**
- A) mil. avv. VI-IV asrlar  
B) mil. avv. VI-III asrlar  
S) mil. avv. IV-III asrlar  
D) mil. avv. V-IV asrlar
- 41. Ahamoniylar davrida zargarlik san'atining yuksak darajada rivoj topganiga bugungi kunda qanday dalillar bizga yorqin misol bo'la oladi?**
- A) Surxondaryo va Zarafshon hududlaridan arxeologik topilmalar  
B) Afrosiyob, Uzunqir va Yerqo'rg'on dan topilgan turli xil zargarlik buyumlari  
S) O'zbekiston Tarix muzeyida saqlanayotgan zargarlik buyumlari  
D) Britaniya muzeyida saqlanayotgan Amudaryo xazinasi
- 42. Qanday inshootlarni Ahamoniylar davrida O'rta Osiyo shaharlarining markaziga qurishgan?**
- A) jangda qo'lga kiritilgan boyliklarni saqlash uchun mahobatli xazina (ombor)  
B) jasur sarkardaning uyini  
S) barcha dalalarga suv yetkazib berish uchun katta charxpalak  
D) Arklar
- 43. Doro I ning Behistun yozuvida forslardan bo'lgan Dadarshish haqida so'z boradi. U kim bo'lgan?**
- A) Sug'd satrapi  
B) Marg'iyona satrapi  
S) Xorazm satrapi  
D) Baqtriya satrapi
- 44. Ma'lumki, Suzadagi saroy qurilishida turli mamlakatlardan olib kelingan ma'danlar haqida ma'lumotlar bor. Qurilishda ishlatilgan oltin qayerdan keltirilgan?**
- A) Xorazmdan  
B) Misr va Xitoydan  
S) Sug'd va Baqtriyadan  
D) Sard va Baqtriyadan
- 45. Qadimda Suzadagi saroy qurilishi uchun ishlatilgan kumush va jez qayerdan olib kelingan?**

- A) Xorazmdan  
 B) Misrdan  
 S) Sug'diyonadan  
 D) Baqtriyadan
- 46. O'zbekiston tarixida "satrapiya", "satrap" kabi tushunchalarning o'rganilishi dastlab qaysi davr bilan bog'lanadi?**  
 A) mil.av. III–II asrlar  
 B) mil.av. VI–IV asrlar  
 S) mil.av. IV–III asrlar  
 D) mil.av. VIII–VII asrlar
- 47. Eronning Persepol saroyidagi mashhur bo'rtma tasvirlarda O'rta Osiyodagi qaysi xalqlar vakillari tasvirlangan?**  
 A) saklar va baqtriyaliklar  
 B) sug'diylar va xorazmiylar  
 S) qang'lilar va massagetlar  
 D) saklar, baqtriyaliklar, sug'diylar, parfiyaliklar va xorazmiylar
- 48. Hozirgi kunda Britaniya muzeyida saqlanayotgan hamda oltin va kumush san'at buyumlaridan iborat bo'lgan, butun dunyoga mashhur Amudaryo xazinasi 1877-yilda ...**  
 A) Termiz atroflaridan topilgan  
 B) Kobadiyon vodiysidan topilgan  
 S) Surxon vohasidan topilgan  
 D) Chorjo'y atroflaridan topilgan
- 49. "Amudaryo xazinasi" qaysi qadimgi davlat hududidan topilgan?**  
 A) Parfiya  
 B) Xorazm  
 S) Sug'diyona  
 D) Baqtriya
- 50. "Oks xazinasi" degan kitobni kim yozgan?**  
 A) F. Berton  
 B) Dyuperron  
 S) V. Bartold  
 D) O. M. Dalton
- 51. "Amudaryo xazinasi" qachon topilgan?**  
 A) 1863-yilda  
 B) 1877-yilda  
 S) 1900-yilda  
 D) 1904-yilda
- 52. Suzadagi saroy qurilishiga ishlatilgan oltin qayerlardan olib kelingan?**  
 A) Sard va Baqtriyadan  
 B) Sard va Sug'diyonadan  
 S) Sug'diyona va Marg'iyonadan  
 D) Baqtriya, Kiropol va Marg'iyonadan
- 53. Suzadagi saroy qurilishiga Sug'diyonadan qanday buyumlar keltirilgan?**  
 A) oltin  
 B) olmos, la'l va yoqut  
 S) kumush va mis  
 D) olmos, kumush va oltin
- 54. Suzadagi saroy qurilishida qo'llanilgan to'q ko'k yoqut qayerdan olib kelingan edi?**  
 A) Sard  
 B) Baqtriya  
 S) Xorazm  
 D) Misr
- 55. Ahamoniylarning Suzadagi saroy qurilishiga Misrdan qanday xom-ashyo olib kelingan?**  
 A) oltin va olmos  
 B) kumush va jez  
 S) to'q ko'k yoqutlar  
 D) yoqut va olmos
- 56. Persepolidagi fors shohlari saroyi devoriga o'yib ishlangan rasmda Markaziy Osiyo xalqlarining qanday manzarasi tasvirlangan?**  
 A) ahamoniylarning saklarga qarshi urushi  
 B) Markaziy Osiyo xalqlarining qul qilib ishlatilayotganligi  
 S) fors shohlarining boshqa mamlakatlar bilan elchilik aloqalarini o'rnatayotganliklari  
 D) Markaziy Osiyo xalqlarining boshqalar qatori ahamoniylarga xiroj olib kelishi
- 57. Persepolidagi fors shohlari saroyi devoriga o'yib ishlangan manzarada qaysi xalq ikki bosh qo'yni yetaklab kelayotgan tarzda tasvirlangan?**  
 A) parfiyaliklar  
 B) baqtriyaliklar  
 S) sug'diylar  
 D) xorazmliklar
- 58. Persepolidagi fors shohlari saroyi devoriga o'yib ishlangan manzarada uchi o'tkir kiygiz qalpoqli saklar qay tarzda tasvirlangan?**  
 A) ot yetaklagan va qo'llarida sarupo  
 B) qo'llarida qadah, baqtriya tuyasini yetaklagan  
 S) qo'llarida idishlar va tuya yetaklagan  
 D) kalta qilich va oybolta bilan qurollangan
- 59. Quyidagi qaysi xalqlar Persepolidagi fors shohlari saroyi devoriga o'yib ishlangan manzarada tuya yetaklagan tarzda ifodalangan?**  
 A) xorazmliklar va baqtriyaliklar  
 B) saka-tigraxaudalar va sug'diylar  
 S) parfiyaliklar va baqtriyaliklar  
 D) sug'diylar va parfiyaliklar
- 60. Persepolidagi saroy devoriga ishlangan manzarada xorazmliklar qanday ko'rinishda ifoda etilgan?**  
 A) yaktak kiyib, shalvorlarini himargan  
 B) kalta qilich va oybolta bilan qurollangan, ot yetaklagan  
 S) qo'llarida qadah, baqtriya tuyasini yetaklagan  
 D) ikki bosh qo'yni yetaklagan

**61. Quyidagi qaysi xalqlar Persepoldagi fors shohlari saroyi devoriga o'yib ishlangan manzarada ot yetaklagan tarzda ifodalangan?**

- A) xorazmliklar va saka-tigraxaudalar
- B) saka-tigraxaudalar va so'g'diylar
- S) parfiyaliklar va baqtriyaliklar
- D) sug'diylar va parfiyaliklar

**62. Quyidagi qaysi qatorda Shiroq jasorati haqida ma'lumot bergan tarixchining nomi to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Ktesiy
- B) Arrian
- S) Kvint Kursiy Ruf
- D) Poliyen

**63. 1905-yili ...**

A) O. Dalton "Oks xazinasi" degan kitob yozdi  
B) Qo'bodiyon vodiysidan Amudaryo xazinasi topilgan

S) tarixga nemis geografi F. Rixtgofer tomonidan Buyuk Ipak yo'li atamasini kiritdi

D) Dalvarzintepada qazilma ishlari olib borildi

**64. Ma'lumki, 1880-yilda Buxoro savdogarlarini F. Berton qaroqchilardan himoya qiladi. F. Berton kim bo'lgan?**

- A) Britaniya muzeyini xazinachisi
- B) Buxoro savdogarlarining qo'riqchisi
- S) ingliz harbiy zobiti bo'lib, tuman harbiy-siyosiy noibi edi
- D) "Oks xazinasi" asarining muallifi

## O'RTA OSIYO AHOLISINING YUNON-MAKEDON ISTILOCHILARIGA QARSHI KURASHI

**1. Nechanchi asrda Makedoniyada Filipp II hukmronlik qilgan?**

- A) mil. avv. IV asrda
- B) mil. avv. IV asr o'rtalarida
- S) mil. avv. V asrda
- D) mil. avv. III asrda

**2. Tarixda bo'lib o'tgan mashhur Xeroniya jangi qaysi xalqlar o'rtasida yuz bergan edi?**

- A) forslar va yunonlar o'rtasida
- B) makedonlar va saklar o'rtasida
- S) forslar va saklar o'rtasida
- D) makedonlar va yunonlar o'rtasida

**3. Ma'lumki, mil. avv. 338-yil makedonlar va yunonlar o'rtasida bo'lib o'tgan jang makedonlar g'alabasi bilan yakunlanadi. Ushbu jang tarixda qanday nom bilan mashhur?**

- A) Fermopil jangi
- B) Salamin jangi
- S) Xeroneya jangi
- D) Pelusiya jangi

**4. Xeroneya jangida makedon qo'mondonlaridan kim alohida jasorat ko'rsatgan?**

- A) Aleksandr
- B) Miltiad
- S) Filipp II
- D) Aristobul

**5. Makedoniya podshosi Filipp II ning o'g'lini aniqlang.**

- A) Mardoniy
- B) Miltiad
- S) Filipp III
- D) Aleksandr

**6. Qadimgi yunon shaharlari elchilarining kengashi qaysi shaharda to'plangan?**

- A) Memfida
- B) Korinfda
- S) Maroqandda
- D) Fivada

**7. Qadimda Korinf shahrida bo'lib o'tgan kengashda Makedoniya podshosi Filipp II qanday taklifni o'rta qo'yadi?**

A) Fors podsholigi ustiga yurish maqsadida yunonlar va makedonlar harbiy ittifoqini tuzish  
B) Fors podsholigi ustiga yurish maqsadida makedon askarlarini og'ir kechadigan jangga tayyorlash

S) Fors podsholigi bilan bitim tuzish  
D) Makedoniya davlatini viloyatlarga bo'lib boshqarish

**8. Bir yilda sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.**

A) Sharqqa yurish boshlandi, Hindistonning katta hududlari bosib olindi.

B) Korinf shahrida yunon shaharlari elchilari to'plandi, Filipp II o'ldirildi

S) Aleksandr Makedoniya taxtiga o'tirdi, Sharqqa yurish boshlandi

D) Filipp II o'ldirildi, Makedoniya taxtiga Aleksandr chiqdi

**9. Mil. avv. 336-yil Makedoniya taxtiga o'tirgan podshoni aniqlang.**

- A) Aristobul
- B) Filipp II
- S) Aleksandr
- D) Bess

**10. Makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 334-yilda ...**

A) Korinf shahrida kengash o'tqazadi

B) Osiyo, Suriya, Misr va Hindistonning katta hududlarini bosib oladi



- S) G'arbga yurish qiladi  
D) Sharqqa yurish boshladi

**11. Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishi necha yil davom etgan?**

- A) 9 yil  
B) 11 yil  
S) 10 yil  
D) 8 yil davomida

**12. Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishi davomida bosib olgan joylarini ko'rsating.**

1) Baqtriya; 2) Kichik Osiyo; 3) Nautaka; 4) Hissor tog'larida joylashgan tog' qal'alar; 5) Suriya; 6) Parfiya; 7) Misr; 8) Eron; 9) Bobil; 10) Hindistonning katta hududlari

- A) 2, 5, 7, 8, 10  
B) 1, 2, 4, 6, 8, 10  
S) 2, 5, 7, 8, 9  
D) 3, 5, 8, 10

**13. Makedoniyalik Aleksandr Sharqda bosib olgan ulkan hududda yunon madaniyatini tarqalishiga imkon yaratish maqsadida qanday usulni amalga oshirgan edi?**

A) yunon urf-odatlarini aholiga majburan singdiradi

B) bosib olingan shaharlarda mahalliy boylarni qirib tashlagan

S) bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtiradi

D) yunon madaniyatini hurmat qilmagan va yunonlarga qarshi urushni davom ettirgan kishilarni ayovsiz o'ldirgan

**14. Quyidagi qaysi tarixchi Makedoniyalik Aleksandr yurishlarida qatnashgan?**

- A) Aristotel  
B) Aristobul  
S) Poliyen  
D) Gerodot

**15. Mil. avv. VII–IV asrlarda O'rta Osiyo jangchilari nimalar bilan qurollangan edi?**

A) xanjar, qalqon va kamon-paykonlar bilan  
B) xanjar, nayza va katapult bilan  
S) qilich, jangovar oybolta, nayza va katapult bilan

D) xanjar, qilich, jangovar oybolta, nayza va kamon paykonlari bilan

**16. Qadimda O'rta Osiyo xalqlari orasida xanjar qanday nom bilan mashhur bo'lgan?**

- A) sagaris  
B) aqinak  
S) bargustvon  
D) goplit

**17. Aqinak – bu ...**

A) O'rta Osiyo xalqlarida jangovar oyboltaning nomlanishi

B) yirik armiya

S) yunonlarda xanjarning nomlanishi

D) O'rta Osiyo xalqlari orasida xanjarning nomlanishi

**18. Qadimda O'rta Osiyo xalqlari jangovar oyboltalarni qanday atashgan?**

- A) sagaris  
B) aqinak  
S) agora  
D) goplit

**19. Qadimda O'rta Osiyo xalqlari jangovar otlar ustiga va ko'kragiga kamon va nayzalardan himoya sifatida nimani yopganlar?**

- A) agora  
B) aqinak  
S) goplit  
D) bargustvon

**20. Makedoniyalik Aleksandrning yurishi davrida O'rta osiyolik suvoriylarning dushmanlarni pistirmaga duchor qiladigan taktikasi qanday bo'lgan?**

A) uchburchak shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga tiqilib olgan qatorni hosil qilishib jangga kirganlar

B) dushmanga orqa tomondan hujum qilib ularni ikki taraflama hujum ostida qoldirishgan

S) aylana shaklida dushman safini o'rab olishgan

D) yolg'ondakam chekinishlari va boshqa tomondan dushmanni pistirmaga duchor qilishganlar

**21. Mil. avv. VII–IV asrlarda O'rta Osiyodagi burj va borulari bo'lgan mustahkam devorlar bilan o'rab olingan shaharlarni ko'rsating.**

- A) Qiziltepa, Afrosiyob, Uzunqir  
B) Qiziltepa, Kurushkat, Uzunqir  
S) Uzunqir, Afrosiyob, Baqtra  
D) Afrosiyob, Xorazm, Qiziltepa

**22. Qadimgi Fors davlatining Ahamoniyar sulolasidan bo'lgan so'nggi shohi kim bo'lgan?**

- A) Doro II  
B) Doro III  
S) Kir II  
D) Kserks

**23. Makedoniyalik Aleksandr fors shohi Doro III qo'shinlarini qachon tor-mor qiladi?**

- A) mil. avv. 329-yilda  
B) mil. avv. 334-yilda  
S) mil. avv. 330-yilda  
D) mil avv. 328-yilda

**24. Mil. avv. 330-yilda Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari kimning qo'shini bilan jang qiladi?**

- A) Doro III  
B) Doro I

S) Kir II

D) Kserks

**25. Makedoniyalik Aleksandr Hindistonga yurish qilishdan oldin qo'shinini xavfsizlantirish maqsadida qanday ishni amalga oshirmoqchi bo'ladi?**

A) o'z jangchilari bilan Hindistonni o'rab olib kechasi hujum qiladi

B) Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo'ysundirmoqchi bo'ladi

S) so'lim joylardan qo'shinlari uchun maskanlar qurdiradi

D) har bir askariga bittadan ot tortiq qiladi

**26. Amudaryoning narigi tomonida Makedoniyalik Aleksandrning yo'lini to'sgan birinchi davlatni aniqlang.**

A) Baqtriya

B) Nautaka

S) Maroqanda

D) Kurushkat

**27. Makedoniyalik Aleksandr yurushi davrida Baqtra satrapi kim bo'lgan?**

A) Kir II

B) Doru III

S) Bess

D) Doru I

**28. Makedoniyalik Aleksandr Baqtriyaga bostirib kelganida Baqtra satrapi Bess ...**

A) Xorazm bilan Aleksandrqa qarshi kurashish uchun ittifoq tuzadi

B) Baqtra shahri darvozasining kalitini Aleksandr qo'lga topshirgan

S) Aleksandr bilan tinchlik shartnomasini tuzadi

D) Baqtra shahrini himoyachilarga tashlab, Amudaryoning narigi tarafiga qochgan

**29. Makedoniyalik Aleksandrning ustozini kim bo'lgan?**

A) Suqrot

B) Gerodot

S) Aristofan

D) Aristotel

**30. Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Amudaryodan qachon o'ta boshladilar?**

A) mil. avv. 329-yilda

B) mil. avv. 328-yilda

S) mil. avv. 330-yilda

D) mil. avv. 334-yilda

**31. Bir yilda bo'lib o'tgan voqealar qatorini belgilang.**

1) Aleksandr qo'shinlari Amudaryodan o'ta boshladi; 2) Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Maroqandani egalladi; 3) Aleksandrning bosqinchiligiga qarshi Spitamen boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi; 4) Spitamen Zarafshon daryosi bo'yida

makedonlarga pistirma qo'yib dushman qo'shinlarini tamomila qirib tashlaydi; 5) Aleksandrning o'zi katta kuchlari bilan Spitamen qo'zg'olonini bostirish uchun o'tlanadi; 6) Saklar va massagetlarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yida, Xo'jand yaqinida bir tayanch manzili barpo etish to'g'risida buyruq berdi va bu qal'a Aleksandriya Esxata deb ataldi; 7) Aleksandr Maroqandada garnizon – maxsus harbiy qo'shin qoldirdi; 8) Aleksandr asosiy qo'shinlari bilan qishlov uchun Zariasp (Baqtriyaga) jo'nadi; 9) O'z lashkarlarini uch qismga bo'lib, So'g'diyonaning u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholining 120 ming nafarini qirib tashlaydi

10) Aleksandr qo'shinlarining bir qismini qoldirib, o'zi esa Kurushkat shahrini bosib olish uchun asosiy kuchlari bilan Sirdaryo qirg'oqlari sari siljiy boshladi

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

B) 1, 2, 4, 7, 8, 10

S) 1, 3, 5, 8, 9

D) 2, 4, 6, 7, 8, 9, 10

**32. Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Maroqandani qachon egallaydi?**

A) mil. avv. 328-yilda

B) mil. avv. 330-yilda

S) mil. avv. 329-yilda

D) mil. avv. 334-yilda

**33. Makedoniyalik Aleksandrqa qaysi yunon faylasufi Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doru I kechib o'tgani, ikkalasi ham mag'lubiyatga uchrangani, shuning uchun u yurishga yaxshi tayorgarchilik ko'rishi lozimligi to'g'risida maslahat bergan?**

A) Ksenofot

B) Ktesiy

S) Gerodot

D) Aristotel

**34. Kurushkat shahrini egallab olish uchun Aleksandr qaysi daryo qirg'oqlari sari siljiy boshlaydi?**

A) Qashqadaryo

B) Amudaryo

S) Zarafshon

D) Sirdaryo

**35. Kiropolis shahriga asos solgan fors shohi kim?**

A) Kir II

B) Doru I

S) Doru III

D) Kserks

**36. Aleksandr bosqinchiligiga qarshi O'rta Osiyoda ko'tarilgan qo'zg'olonga kim boshchilik qilgan?**

- A) Bess  
 B) Spitamen  
 S) Doro III  
 D) Aristobul
- 37. Spitamen qayerda makedoniyalik Aleksandr qo`shinini tamomila qirib tashlagan?**  
 A) Sirdaryo qirg`oqlarida  
 B) Kiropolis shahrida  
 S) Zarafshon daryosi bo`yida  
 D) Maroqanda shahrida
- 38. Saklar va massagetlarga qarshi kurash uchun Aleksandr qayerda tayanch manzili barpo etishni buyuradi?**  
 A) Hisor tog`larida  
 B) Kurushkat shahrida  
 S) Zarafshon daryosi bo`yida  
 D) Sirdaryo bo`yida, Xo`jand yaqinida
- 39. Makedoniyalik Aleksandr saklar va massagetlarga qarshi kurash uchun barpo etgan qal`a nomini aniqlang.**  
 A) Aleksandriya Esxata  
 B) Aleksandriya  
 S) Marg`iyona Aleksandriyasi  
 D) Opiana Aleksandriyasi
- 40. Makedoniyalik Aleksandr yurishi davrida Nautaka bu ...**  
 A) Qashqadaryo vohasining shimoliy qismi  
 B) Amudaryo vohasining quyi qismi  
 S) Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi  
 D) Sirdaryo vohasining sharqiy qismi
- 41. Garnizon – bu ...**  
 A) shahar-davlatlar  
 B) armiyaning og`ir qurollangan piyoda jangchisi  
 S) og`ir qurollangan askarlarning bir necha, odatda 9 yoki 16 sherengada saf tortishi  
 D) maxsus harbiy qo`shin
- 42. Qachon Makedoniyalik Aleksandr qo`zg`olonni bostirish choralari ko`radi?**  
 A) mil. avv. 329-yil yozida  
 B) mil. avv. 329-yil bahorida  
 S) mil. avv. 328-yil bahorida  
 D) mil. avv. 328-yilda
- 43. Spitamen qo`zg`olonini bostirish maqsadida Aleksandr qo`shinlari necha qismga bo`linadi?**  
 A) uch  
 B) ikki  
 S) to`rt  
 D) besh
- 44. Aleksandr qo`shinlari Spitamen qo`zg`olonini bostirish maqsadida So`g`diyoning tinch aholisidan qanchasini qirib tashlaydi?**  
 A) 10 ming  
 B) 140 ming
- S) 150 ming  
 D) 120 ming
- 45. Spitamenning Aleksandr bilan hal qiluvchi janggi qachon bo`lib o`tdi?**  
 A) mil. avv. 328-yil kuzida  
 B) mil. avv. 328-yil bahorida  
 S) mil. avv. 329-yil bahorida  
 D) mil. avv. 327-yilda
- 46. “Politement” bu ...**  
 A) Amudaryo  
 B) Sirdaryo  
 S) Zarafshon  
 D) Surxondaryo
- 47. O`rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr necha yil urinadi?**  
 A) uch yil  
 B) to`rt yil  
 S) ikki yil  
 D) besh yil
- 48. Makedoniyalik Aleksandrning O`rta Osiyo yerlaridan bosib olgan hududlarini aniqlang.**  
 1) Marg`iyona; 2) Xorazm; 3) Baqtriya; 4) Toshkent vohasi; 5) hozirgi Bekobod; 6) Farg`ona; 7) Xo`jand; 8) Maroqanda; 9) Sug`diyona  
 A) 3, 5, 6, 9  
 B) 2, 4, 6, 7, 9  
 S) 1, 3, 4, 6, 8, 9  
 D) 1, 3, 5, 7, 9
- 49. Qadimda makedonlar va yunonlar o`rtasida bo`lib o`tgan Xeroniya jangidan 10 yil o`tgandan so`ng - ...**  
 A) Spitamenning Aleksandr bilan hal qiluvchi janggi bo`lib o`tdi  
 B) Aleksandr Aleksandriya Esxataning qurilishiga buyuruq berdi  
 S) Aleksandr o`z lashkarlari bilan So`g`diyona aholisidan 120 ming nafarini qirib tashlaydi  
 D) Aleksandr Maroqandaga qamalda qolgan qo`shinlariga yordam sifatida uch mingga yaqin jangchidan iborat qo`shin jo`natadi
- 50. Makedoniyalik Aleksandr bosqini davrida O`rta Osiyoda mustaqilligicha qolgan joylarni ko`rsating.**  
 A) Xorazm, Baqtriya va Farg`ona  
 B) Xorazm, Toshkent vohasi va Farg`ona  
 S) Baqtruya, So`g`diyona va Toshkent vohasi  
 D) Farg`ona, Sirdaryo bo`ylari
- 51. Yunon tarixchilarining ma`lumotiga ko`ra Makedoniyalik Aleksandr O`rta Osiyoda nechta shahar qurdirgan?**  
 A) 13 ta  
 B) 11 ta  
 S) 12 ta

- D) 14 ta
- 52. Yunon-makedon piyoda va otliq askarlarining siyraklashgan saflari qaysi shahar yoshlar hisobiga to'ldirilgan?**
- A) hozirgi Bekobod va Xo'jand  
 B) Xorazm va Farg'ona  
 S) Baqtriya va Sug'diyona  
 D) Maroqanda va Kurushkat
- 53. Spitamenning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangidan 4 yil o'tgandan so'ng Aleksandr tomonidan qanday tartibot amalga oshiriladi?**
- A) askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va Sug'diyona yoshlari hisobiga to'ldiriladi  
 B) Aleksandr bosib olgan hududlarini satrapliklarga bo'ladi  
 S) askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Xorazm va Baqtriya yoshlari hisobiga to'ldiriladi  
 D) askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Sug'diyona va Xorazm yoshlari hisobiga to'ldiriladi
- 54. Mil. avv. VI–IV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari tashqi dushmanlarga qarshi kurash olib bordi. Bu kurash...**
- A) Forslar va makedoniyaliklar edi  
 B) Ossuriyaliklar, forslar va grek-makedoniyaliklar edi  
 S) Skiflar va yunon-makedoniyaliklar edi  
 D) Forslar va yunon-makedoniyaliklar edi
- 55. Antik davr mualliflaridan qay biri o'z asarlarida makedoniyalik Iskandar yurishlari haqida ma'lumot bermaydi?**
- A) Gerodot  
 B) Diodor  
 S) Arrian  
 D) Strabon
- 56. Makedoniyalik Aleksandr yurishlari boshlangan paytda O'rta Osiyoda qanday shaharlar bor edi?**
- A) Kiropol, Persepol  
 B) Maroqanda, Ekbatan  
 S) Baqtro, Suza  
 D) Kiropol, Maroqanda
- 57. Nautaka qaysi viloyatga qarashli shahar edi?**
- A) Sug'diyonaga  
 B) Baqtriyaga  
 S) Chochga  
 D) Dovonga
- 58. Qaysi yillari Spitamen boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tgan?**
- A) mil. avv. 330–328-y.y.  
 B) mil. avv. 329–327-y.y.  
 S) mil. avv. 328–326-y.y.  
 D) mil. avv. 329–325-y.y.
- 59. Ma'lumki, mil. avv. 328-yilda Spitamen Aleksandr bilan hal qiluvchi jangda yengilib, cho'lga chekinadi. Bu yerda Spitamen ...**
- A) mustahkam mudofaa insootlarini barpo qiladi  
 B) Xorazm elchilarini qabul qiladi  
 S) sak va massaget qabilalar boshliqlari bilan Aleksandrqa qarshi kurashish uchun harbiy ittifoq tuzadi  
 D) ko'chmanchi qabilalar boshliqlari tomonidan xoinlarcha o'ldiriladi
- 60. Makedoniyalik Aleksandr Xoriyen va Oksiartning qaysi tog'larida joylashgan tog' qal'alarini qo'lga kiritadi?**
- A) Hisor  
 B) Tyan-Shan  
 S) Chimiyon  
 D) Pomir
- 61. Ma'lumki, Aleksandr Oksiartning qizi Ravshanakka uylanadi. Uning otasi ...**
- A) Baqtriya satrapi edi  
 B) sak qabilasi boshliqlaridan biri edi  
 S) sug'd qabilasi boshliqlaridan biri edi  
 D) Marg'iyona satrapi edi
- 62. Makedoniyalik Aleksandr boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlarining bosqinchilik yurishlari qanday oqibatga olib keldi?**
- A) O'rta Osiyo yerlari xarobazorga aylandi, aholining katta qismi qirilib ketdi, ko'plab shaharlar vayron etildi  
 B) hunarmandchilikni yanada rivoj topishiga olib keldi  
 S) shaharsozlikni rivojiga asos solindi  
 D) xalqaro savdo-sotiq yanada rivojlandi
- 63. Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoda barpo etgan shaharlarida kimlar joylashgan?**
- A) yunon-makedon zodagonlari  
 B) yunon-makedon piyoda va otliq askarlari  
 S) yunon-makedonlar tomonidan asirga olinganlar  
 D) sug'd va baqtriyalik zodagonlar
- 64. Makedoniyalik Aleksandr qachon vafot etdi?**
- A) mil. avv. 323-yil 13-iyunda  
 B) mil. avv. 323-yil aprelda  
 S) mil. avv. 312-yilda  
 D) mil. avv. 324-yilda
- 65. Makedoniyalik Aleksandr vafot etganidan so'ng u yaratgan davlat necha qismga bo'linib ketdi?**
- A) to'rt  
 B) ikki  
 S) uch  
 D) besh

**66. Makedoniyalik Aleksandrning o‘limidan 11 yil o‘tgach qanday voqea sodir bo‘ladi?**

- A) Aleksandr yaratgan davlat uch qismga bo‘linib ketdi
- B) Salavka Bobil davlati hukmdori bo‘ldi
- S) Salavka davlatni satrapliklarga bo‘lgan
- D) Antiox Sharqiy viloyatlar noyibi etib tayinlandi

**67. Quyidagi qaysi javobda mil. avv. 312-yilda Mesopotamiya davlati hukmdori bo‘lgan makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan birini aniqlang.**

- A) Yevtidem
- B) Antiox
- S) Bess
- D) Salavka

**68. Quyidagi qaysi davlatlar Salavka davlati tarkibiga kirgan?**

1) Mesopotamiya; 2) Misr; 3) Eron; 4) Parfiya; 5) Xorazm; 6) Baqtriya; 7) Qang‘ha; 8) Sug‘diyona; 9) Dovon; 10) Marg‘iyona

- A) 1, 3, 4, 6, 8, 10
- B) 1, 2, 3, 6, 8, 10
- S) 2, 6, 8, 10
- D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

**69. Salavkiylar davlatida qaysi lavozim egasi davlat mudofasi va qo‘shinlarni tashkil qilish bilan shug‘ullangan?**

- A) konsul
- B) satrap
- S) senator
- D) strateg

**70. Salavkiylar davlatida strateg lavozimiga kimlar tayinlangan?**

- A) harbiy qo‘mondonlar
- B) sobiq lashkarboshilar
- S) tribunlar
- D) sobiq satraplar

**71. Qaysi shaharlar Sharqiy viloyatlar tarkibiga kirgan?**

- A) Parfiya, Marg‘iyona
- B) Baqtriya, Mesopotamiya
- S) Baqtriya, Sug‘diyona
- D) Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya, Sug‘diyona

**72. Salavka mil. avv. 293-yilda o‘z davlatining Sharqiy viloyatlarga kim noyib etib tayinlagan?**

- A) Antiox
- B) Salavka
- S) Yevtidem
- D) Demetriy

**73. Salavkaning Bobil davlati hukmdori bo‘lganidan 32 yil o‘tgach qanday voqea sodir bo‘ladi?**

A) Salavka vafot etadi va Antiox ulkan davlat hukmdoriga aylanadi

B) Salavka o‘g‘li Antioxni Sharqiy viloyatlarga noyib etib tayinlaydi

S) Yunon-makedon istilolari tufayli izdan chiqqan turmush tarsi Sug‘diyona, Baqtriya va Marg‘iyonada asta-sekin tiklana boshlandi

D) Sug‘diyona, Marg‘iyona va Baqtriyada yangi manzilgohlar, shaharlar bunyod etildi

**74. Mil. avv. 280-yilda Salavka davlati taxtiga o‘tirgan va uni 20 yil davomida boshqargan hukmdorni aniqlang.**

- A) Yevtidem
- B) Salavka
- S) Mitridat I
- D) Antiox

**75. Ma‘lumki, yunon-makedon istilolari tufayli O‘rta Osiyodagi ko‘pgina shaharlarning turmush tarzi izdan chiqqan edi. Qaysi shaharlarda Salavkiylar davriga kelib izdan chiqqan turmush tarzi tiklana boshlangan?**

- A) Baqtriya va Nautaka
- B) Kurushkat, Baqtriya va Maroqand
- S) Sug‘diyona, Baqtriya va Marg‘iyona
- D) Xorazm, Marg‘iyona va Baqtriya

**76. Salavkiylar davrida O‘rta Osiyodagi yirik shahar va madaniyat markazlariga aylangan shaharlarni ko‘rsating.**

1) Baqtriya; 2) Kurushkat; 3) Nautaka; 4) Maroqanda; 5) Antiox Marg‘iyonasi; 6) Sug‘diyona; 7) Termiz; 8) Parfiya

- A) 1, 4, 5, 7
- B) 1, 2, 4, 5, 7
- S) 2, 3, 4, 5, 8
- D) 1, 4, 5, 7, 8

**77. O‘rta Osiyo viloyatlarida qachon elinistik davr boshlangan?**

- A) Kushon podsholigi tashkil topgandan keyin
- B) xunn qabilalari yurishidan keyin
- S) salavkiylar bosib olgandan keyin
- D) yunon-makedon istilolaridan keyin

**78. Yunon-makedon yurushi O‘rta Osiyoda qanday oqibatlariga olib keldi?**

- A) turli xil tarqoq davlatlar birlashtirildi
- B) Sug‘diyona, Marg‘iyona va Baqtriya turmush tarzi izdan chiqdi
- S) G‘arb va Sharq o‘rtasida madaniy munosabatlar va almashinuv kengayishiga olib keldi
- D) O‘rta Osiyoda siyosiy va iqtisodiy munosabatlar rivojlandi

**79. Elinlashtirish – bu ...**

A) Sharqda yunon madaniyati tarqalishi va aralash madaniyat – yunon va mahalliy Sharq madaniyati tashkil topishi jarayoni

B) G'arbda Sharq madaniyatining tarqalishi va aralash madaniyat – yunon va mahalliy Sharq madaniyati tashkil topishi jarayoni

S) qarzni vaqtida qaytarmagan erkin fuqorolarning qullarga aylantirilishi jarayoni

D) mehr shafqatini qozonish maqsadida xudolarga hadyalar tortiq ettirish

**80. Qadimgi yunonlar baqtriyaliklardan qanday an'analarni o'zlashtirganlar?**

A) binosozlik va dehqonchilik

B) hunarmandchilik va dehqonchilik

S) dehqonchilik va chorvachilik

D) binosozlik va hunarmandchilik

**81. Baqtriya qachon Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan?**

A) mil. avv. III asr oxirlarida

B) mil. avv. III asrda

S) mil. avv. II asrda

D) mil. avv. III asr o'rtalarida

**82. Salavkiylar davlatidan ajralib chiqqan Baqtriyaga dastlab kim hukmronlik qilgan?**

A) Yevtidem

B) Diodot

S) Antiox

D) Demetriy

**83. Qaysi voqeadan so'ng Yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlanadi?**

A) Salavkiylar davlati parchalanib ketgandan keyin

B) Diodot o'zini podsho deb e'lon qilganidan keyin

S) Salavkiylar davlati tarkibidan Parfiyaning ajralib chiqishidan keyin

D) Yunon-Baqtriya taxtiga Yevtidemning o'tirishidan keyin

**84. Mil. avv. 250-yilda ...**

A) Yunon-Baqtriyada davlat taxtiga Yevtidem chiqdi

B) Parfiya va Yunon-Baqtriya davlati Salavkiylar tarkibidan ajralib chiqqan

S) Parfiya hokimiyati Mitridat I qo'liga o'tishi

D) Yunon-Baqtriya davlati yuyechji qabilasi tomonidan bosib olindi

**85. Qaysi davlat mil. avv. 250-yilda Baqtriyaning raqibiga aylangan?**

A) Parfiya

B) Baqtriya

S) Sug'diyona

D) Marg'iyona

**86. Quyidagi qaysi shaharlar Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirgan?**

A) Mesopotamiya, Baqtriya va Marg'iyona

B) Parfiya, Baqtriya va Sug'diyona

S) Eron, Parfiya va Sug'diyona

D) Baqtriya, Sug'diyona va Marg'iyona

**87. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriya davlati hukmdori kim bo'lgan?**

A) Yevtidem

B) Demetriy

S) Mitridat I

D) Antiox

**88. Demetriyning Yevtidem bilan qanday qarindoshlik aloqasi bo'lgan?**

A) Yevtidem Demetriyning o'g'li

B) Yevtidem Demetriyning jiyani

S) Demetriy Yevtidemning ammovachchasi

D) Demetriy Yevtidemning o'g'li

**89. Mil. avv. 199–167-yillarda hukmronlik qilgan Yunon-Baqtriya davlati hukmdorini aniqlang.**

A) Mitridat I

B) Yevtidem

S) Demetriy

D) Diodot I

**90. Qaysi hukmdor davrida Hindistonning bir qismi Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga qo'shib olindi?**

A) Diodot

B) Mitridat I

S) Demetriy

D) Antiox

**91. Hindistonning bir qismi qaysi hukmdor davrida Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga qo'shib olingan?**

A) Filipp II

B) Yevtidem

S) Mitridat I

D) Demetriy

**92. Parfiya hokimiyati qaysi hukmdor qo'liga o'tganidan keyin Baqtriyaga harbiy tazyiq kuchaygan?**

A) Antiox III

B) Mitridat II

S) Arshak

D) Mitridat I

**93. Qadimgi Yunon-Baqtriya davlatining ko'chmanchi yuyechji qabilalari tomonidan bosib olinishiga zamin yaratgan omilni aniqlang.**

A) Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borganligi natijasida zaiflashib qolishi

B) Yunon-Baqtriya davlati hududiga yuyechjilar o'zlarining odamlarini savdogarlar sifatida yuborib ularning sir-asrorlarini bilib olishi

S) Yunon-Baqtriya davlatini qamal qilinishi

D) yuyechjilarning xitoyliklar yordamida Yunon-Baqtriya davlatini tor-mor qilishi

**94. Ko'chmanchi yuyechji qabilalari qachon Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar?**

- A) mil. avv. 140–130-yillarda  
 B) mil. avv. 199–167-yillarda  
 S) mil. avv. 130–120-yillarda  
 D) mil. avv. 140–145-yillarda
- 95. Yunon-Baqtriya davlati necha yil hukmronlik qiladi?**  
 A) 130-yil  
 B) 100-yil  
 S) 120-yil  
 D) 140-yil
- 96. Mil. avv. 140–130-yillarda Yunon-Baqtriya davlati tarixida qanday voqea sodir bo‘ladi?**  
 A) Yunon-Baqtriya davlati Parfiya davlati bilan savdo aloqalarni o‘rnatadi  
 B) Yunon-Baqtriya davlati ko‘chmanchi yuechjilar tomonidan bosib olinadi  
 S) Yunon-Baqtriya davlatida ilk bor hukmdorning rasmini tushurilgan tangalar zarb qilingan  
 D) Yunon-Baqtriya davlati Parfiya tomonidan bosib olinadi
- 97. Qanday voqeadan keyin Yunon-Baqtriya davlatida jahondagi ko‘pgina davlatlar bilan xalqaro savdo-sotiq va madaniy aloqalar jonlangan?**  
 A) Parfiya bilan savdo aloqalari o‘rnatilgach  
 B) Salavkiyadan Baqtriyagacha karvon yo‘li qurib bitkazilgach

- S) Rim bilan aloqada bo‘lganidan keyin  
 D) G‘arbiy Osiyo bilan aloqalarni o‘rnatilgandan keyin

**98. Yunon-Baqtriyaning qaysi o‘lkalarida hunarmandchilik ayniqsa rivojlangan?**

- A) Baqtriya, Sug‘diyona va Marg‘iyona  
 B) Parfiya, Baqtriya va Sug‘diyona  
 S) Eron, Parfiya va Sug‘diyona  
 D) Mesopotamiya, Baqtriya va Marg‘iyona

**99. Yunon-Baqtriyaning hukmronligi davrida O‘rta Osiyo ...**

- A) aholisi qirilib ketishi oqibatida ko‘plab yunonlar kelib o‘rnashdi  
 B) yerlari xarobazorga aylandi, aholining katta qismi qirilib ketdi, ko‘plab shaharlar vayron etildi  
 S) iqtisodiyot izdan chiqdi  
 D) iqtisodiyoti va madaniyati yuksaldi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, ko‘plab shaharlar barpo etildi, jahondagi ko‘pgina davlatlar bilan xalqaro savdo-sotiq va madaniy aloqalar jonlandi

**100. Yunon-Baqtriya davlatida tangalar qaysi tasvir bilan zarb qilingan?**

- A) Quyosh  
 B) hayvon  
 S) hukmdor  
 D) Mitra

## QADIMGI XORAZM, QANG‘HA VA DOVON DAVLATI

**1. Qadimgi Xorazm davlati qachon Ahamoniylar imperiyasidan mustaqil davlatga aylangan?**

- A) mil. avv. III asrda  
 B) mil. avv. V asrda  
 S) mil. avv. VI asrda  
 D) mil. avv. IV asrda

**2. Quyidagi qaysi O‘rta Osiyodagi qadimgi davlat makedoniyalik Aleksandr va Salavkiylar hukmronligi davrida mustaqil bo‘lgan?**

- A) Xorazm  
 B) So‘g‘diyona  
 S) Baqtriya  
 D) Qang‘

**3. Qadimgi Xorazm davlatida shaharsozlik qachon boshlangan?**

- A) mil. avv. IV asrda  
 B) mil. avv. V asrda  
 S) mil. avv. VI asrda  
 D) mil. avv. VII asrda

**4. Qadimgi Xorazm davlatidagi Ko‘zaliqir shahri harobalari nechanchi asrga taalluqli?**

- A) mil. avv. VI asr

B) mil. avv. VII asr oxiri

S) mil. avv. VII asr

D) mil. avv. V asr

**5. Ma‘lumki, mil. avv. V–IV asrlarda Xorazmda mahalliy hukmdorning qarorgohi bo‘lgan ulkan qal‘a bunyod etilgan edi. Bu qal‘a ...**

- A) Ko‘zaliqir  
 B) Qal‘aliqir  
 S) Jonbozqal‘adir  
 D) Qo‘yqirilganqal‘a

**6. Mil. avv. IV asrda Qadimgi Xorazm aholisi xo‘jaligini nima tashkil etgan?**

- A) savdo-sotiq  
 B) hunarmandchilik  
 S) chorvachilik  
 D) dehqonchilik

**7. Xorazmdagi Qal‘aliqir shahar harobalari nechanchi asrlarga oid?**

- A) mil. avv. V–IV asrlar  
 B) mil. avv. IV–III asrlar  
 S) milodiy V asr  
 D) mil. avv. V–III asrlar

**8. O'rta Osiyodagi qaysi davlat mil. avv. III–II asrlarda Yunon-Baqtriya va Parfiya podsholigi tarkibiga kirmagan?**

- A) Marg'iyona
- B) Baqtriya
- S) Sug'diyona
- D) Xorazm

**9. Mil. avv. III–II asrga oid Xorazmdagi o'ziga xos madaniyat yodgorliklarni aniqlang.**

- A) Jonbosqal'a va Ko'zaliqir
- B) Tuproqqal'a va Ko'zaliqir
- S) Jonbozqal'a va Tuproqqal'a
- D) Jonbosqal'a va Qo'yqirilganqal'a

**10. Xorazmdagi qaysi shahar xarobalari ostidan aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan?**

- A) Jonbozqal'a
- B) Qo'yqirilganqal'a
- S) Ko'zaliqir shahri
- D) Qal'aliqir shahri

**11. Xorazmdagi Tuproqqal'a shahar xarobalari qaysi asrlarga taalluqli?**

- A) milodiy II–III asrlar
- B) mil. avv. III–II asrlar
- S) milodiy III asr
- D) mil. avv. III–I asrlar

**12. Qaysi omil Qadimgi Xorazmda o'ziga xos madaniyatni vujudga kelishida muhim bo'lgan?**

- A) Qadimgi Xorazm fors madaniyatini rivoj topganligi
- B) Qadimgi Xorazmda yunon madaniyatini yuksak rivojlanganligi
- S) Qadimgi Xorazmda hunarmandchilikni rivoj topganligi
- D) Qadimgi Xorazmning mil. avv. IV asrdan boshlab mustaqil davlatga aylanishi

**13. Xorazmning qadimiy shaharlari berilgan qatorni aniqlang.**

**1) Ko'zaliqir; 2) Xo'jand; 3) Qo'yqirilganqal'a; 4) Jonbosqal'a; 5) Sarazm; 6) Oqqo'rg'on; 7) Tuproqqal'a; 8) Kaltaminor.**

- A) 1, 3, 4, 7
- B) 1, 2, 3, 7, 8
- S) 2, 4, 7, 8
- D) 1, 4, 5, 7

**14. Qadimgi Xorazm davlatida qachon kumush va mis tangalar zarb qilingan?**

- A) mil. avv. IV asrda
- B) mil. avv. III asr oxirlarida
- S) mil. avv. III asrda
- D) mil. avv. I asrda va dastlabki milodiy asrlarda

**15. Ma'lumki, Xorazm hududidan O'rta Osiyo**

**bo'yicha eng qadimgi yozuvlar topilgan. Bular qaysi madaniy yodgorliklarda o'z ifodasini topgan?**

- A) Qo'yqirilgan qal'a va Tuproqqal'a
- B) Ko'zaliqir va Jonbozqal'a
- S) Oybo'yirqal'a va Qo'yqirilganqal'a
- D) Oybo'yirqal'a va Jonbozqal'a

**16. Xorazm hududidagi Oybo'yirqal'a madaniy yodgorligi nechanchi asrga oid?**

- A) mil. avv. III–II asrlarda
- B) mil. avv. V–IV asrlarda
- S) milodiy IV asrlarda
- D) mil. avv. V asrda

**17. Mil. avv. IV–III asrlarga oid Xorazmdagi madaniy yodgorlikni aniqlang.**

- A) Qo'yqirilganqal'a
- B) Oybo'yirqal'a
- S) Tuproqqal'a
- D) Ko'zaliqir

**18. Ma'lumki, milodiy I asrda qadimgi Xorazm davlatida mahalliy taqvim ishlab chiqilgan. Bu taqvimni xorazmliklar nechanchi asrga qadar foydalanishgan?**

- A) milodiy IX asrda
- B) milodiy VIII asr oxirida
- S) milodiy VI asrda
- D) milodiy VIII asrda

**19. Xitoy manbalarida qadimgi Qang' davlati nima deb nomlangan?**

- A) Qang'ha
- B) Qang'ar
- S) Qang'yuy
- D) Qang'

**20. Quyidagi qaysi davlat qadimgi sak qabilalari tomonidan asos solingan?**

- A) Xorazm
- B) Qang'
- S) Dovon
- D) Sug'diyona

**21. Quyidagi qaysi O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalardan biri o'z davlatiga asos solgan?**

- A) saklar
- B) massagetlar
- S) sug'diylar
- D) baqtriyaliklar

**22. Qang'dez shahriga qachon asos solingan?**

- A) mil. avv. V asr o'rtalarida
- B) mil. avv. II–III asrda
- S) milodiy II asrda
- D) mil. avv. III asrda

**23. Qadimgi Qang' davlati poytaxti hozirgi qaysi hududga to'g'ri keladi?**

- A) Toshkent viloyatining Bekobod tumani



- B) Toshkent viloyatining Zangiota tumani  
 S) Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani  
 D) Farg'onaning Obishir vohasi
- 24. Qang' davlatining poytaxtini aniqlang.**  
 A) Qang'dez  
 B) Ershi  
 S) Qal'aliqir  
 D) Qang'dez va Bityan
- 25. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlatining poytaxti qanday nomlangan?**  
 A) Bityan  
 B) Qang'yuy  
 S) Qang'ar  
 D) Qang'ha
- 26. Hozirgi Toshkent vohasi, Chimkent viloyati va Sirdaryo bo'yi hududlarini egallagan qadimgi davlat birlashmasini aniqlang.**  
 A) Dovon  
 B) Xorazm  
 S) Qang'  
 D) Yunon-Baqtriya
- 27. Qachon Qang' qabilalari eng qudratli davlat birlashmasiga aylandi?**  
 A) mil. avv. II asr oxirida  
 B) mil. avv. II asr boshida  
 S) mil. avv. III asrda  
 D) mil. avv. IV asrda
- 28. Qadimgi Qang' davlati hukmdorlari nechanchi asrda o'z nomidan tanga zarb qildirdilar?**  
 A) mil. avv. II asr boshida  
 B) mil. avv. II asr oxirida  
 S) mil. avv. III asrda  
 D) mil. avv. IV asrda
- 29. Qang' davlati tarkibidan Buyuk Ipak yo'lining qaysi tarmog'i o'tgan?**  
 A) g'arbiy tarmog'i  
 B) sharqiy tarmog'i  
 S) janubiy tarmog'i  
 D) shimoliy tarmog'i
- 30. Qanday holat Qang' davlatining Xitoy bilan urushlarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi?**  
 A) Xitoyning Qang' davlatini bosib olishga harakat qilishi  
 B) Qang' davlatini Dovon davlati bilan itti-fochiligi  
 S) Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o't-ganligi  
 D) Qang' davlatining kuchsizlanib qolganligi
- 31. Qadimgi Qang' davlati aholisi qanday nom bilan atalgan?**  
 A) qang'arlar  
 B) qang'uylar
- S) qang'dezlar  
 D) qang'liklar
- 32. Qadimgi Qang' davlati mavjud bo'lgan davrni aniqlang.**  
 A) mil. avv. III – milodiy III asrgacha  
 B) mil. avv. III asr – milodiy II asr  
 S) milodiy II–III asrlarda  
 D) mil. avv. II asr – milodiy III asrgacha
- 33. Milodiy III asrda ...**  
 A) Qang' davlatida tanga pullar zarb qilinadi  
 B) Qang' davlati Xitoyga urush e'lon qiladi  
 S) Qang' davlati hududiga ko'chmanchi yuech-jilar ko'chib kela boshlashadi  
 D) Qang' davlati parchalanib ketadi
- 34. Qang'davlatining asosiy shaharlari qayerda joylashgan edi?**  
 A) Surxondaryo sohillarida  
 B) Zarafshon sohillarida  
 S) Amudaryo sohillarida  
 D) Sirdaryo sohillarida
- 35. Qang' davlatining markazlaridan biri ...**  
 A) Farg'ona vohasi edi  
 B) Toshkent vohasi edi  
 S) Zarafshon vohasi edi  
 D) Xorazm vohasi edi
- 36. Parkana qadimgi Xitoy manbalarida qanday ataladi?**  
 A) Dovon  
 B) Qang'  
 S) Ershi  
 D) Bityan
- 37. Qadimgi Dovon davlati taxminan qaysi davrlarda mavjud bo'lgan?**  
 A) mil. avv. III asrdan mil. avv. II asrgacha  
 B) mil. avv. III asrdan milodiy II asrgacha  
 S) mil. avv. IV–III asrlar  
 D) milodiy II–III asrlar
- 38. Dovon davlati tarixi haqida batafsil ma'lumot beruvchi Xitoy yilnomalari nechanchi asrga doir?**  
 A) milodiy II asrga  
 B) mil. avv. II–I asrlarga  
 S) milodiy I–II asrlarga  
 D) mil. avv. III asrga
- 39. "Diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohirdir". Ushbu so'zlar qaysi qadimgi tarixchiga taaluqli?**  
 A) Geradot  
 B) Aristotel  
 S) Gomer  
 D) Chjan Syan

**40. Xon sulolasi davrida Dovon davlatining shimoliy chegarasi qaysi davlat bilan chegaradosh bo'lgan?**

- A) Xorazm
- B) Baqtriya
- S) Sug'diyona
- D) Qang'

**41. Qadimgi Dovon davlati haqida ma'lumot qoldirgan Xitoy sayyohini aniqlang.**

- A) U Di
- B) Sima Szyan
- S) Chjan Syan
- D) Sin Shi Xuandi

**42. Xitoy tarixchilarining guvohlik berishicha, Dovon davlati janubda qaysi davlat bilan chegaradosh bo'lgan?**

- A) Kushon podsholigi
- B) Qang' davlati
- S) Xorazm davlati
- D) Yuyechjilar davlati

**43. Qadimgi Dovon davlatining poytaxtini aniqlang.**

- A) Bityan
- B) Qang'
- S) Parkana
- D) Ershi

**44. Qadimda Xitoy hukmdorlarini Farg'ona davlatining nimalari qiziqtirgan?**

- A) oltin konlari
- B) gilamlar
- S) samoviy otlar
- D) chorva mollari

**45. Qaysi asrlarda qadimgi Farg'ona davlati yuksak taraqqiy etgan?**

- A) mil. avv. II–I asrlar
- B) milodiy II–III asrlar
- S) mil. avv. II asr oxiri – mil. avv. I asr boshi
- D) milodiy III–IV asrlar

**46. Qadimgi Dovon davlatining ziroatkor vohalarini aniqlang.**

- A) Uchqo'rg'on, Ko'zaliqir
- B) Ko'zaliqir, Qal'aliqir
- S) Sho'rabashat, Pop
- D) Sho'rabashat, Uchqo'rg'on

**47. Farg'ona davlati qachon Kushon podsholigi tarkibiga kiradi?**

- A) milodiy II asrda
- B) mil. avv. II asrda
- S) milodiy III asrda
- D) milodiy II–III asrlarda

**48. Xitoy tilida "Samoviy tog'lar" deb tarjima qilinuvchi tog' nomini aniqlang.**

- A) Himolay
- B) Pomir
- S) Olimp
- D) Tiyanshan

**49. Qadimgi xitoyliklar qachondan boshlab Farg'ona davlatidagi nasldor otlar haqida ma'lumotga ega bo'lganlar?**

- A) milodiy II asr oxirida
- B) mil. avv. III asrda
- S) mil. avv. II asr oxirida
- D) mil. avv. II asr boshida

**50. Qadimda yuz bergan Dovon bilan Xitoy o'rtasidagi to'rt yillik urushning sababi nimada edi?**

- A) xitoyliklarning "samoviy otlar"ni qo'lga kiritishga urinishi
- B) ikki davlatning ham Buyuk Ipak yo'lida ustunlikka erishish uchun qilgan harakati
- S) xitoyliklarning Dovondagi boyliklarni qo'lga kiritishga urinishi
- D) Dovon bilan Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalarining buzilishi

**51. Qadimda Xitoy imperatori "samoviy otlar"ni qo'lga kiritish maqsadida Dovonga kimni elchi qilib jo'natadi?**

- A) Sin Shixuandi
- B) Lyu Banni
- S) Chjan Syanni
- D) Che Linni

**52. Ma'lumki, Dovon hukmdori Ershi shahri arg'umoqlarini qo'lga kiritish haqidagi Xitoy elchining talabiga rad javobini beradi. Bu rad javob ...**

- A) Xitoy bilan savdo aloqalarni to'xtab qolishga olib keldi
- B) Xitoy bilan Qang'davlati o'rtasida to'rt yillik urushga sabab bo'ldi
- S) Xitoy bilan Dovon davlati o'rtasida to'rt yillik urushga sabab bo'ldi
- D) Xitoy bilan Kushon o'rtasida harbiy itti-foqning tuzilishiga olib keldi

**53. Xitoy Dovonga qarshi necha bor harbiy yurish qiladi?**

- A) bir bor
- B) ikki bor
- S) uch bor
- D) to'rt bor

**54. Xitoyning Dovonga qarshi qaysi yurishida Xitoy lashkarlari Ershiga bostirib kirmasdan zarur miqdordagi otlardan tovon olib, vatanlariga qaytdilar?**

- A) birinchi
- B) ikkinchi
- S) uchinchi
- D) to'rtinchi

- 55. Xitoy lashkarining Dovonga birinchi yurishi...**  
 A) Ershiga bostirib kirmasdan zarur miqdordagi otlardan tovon olib, vatanlariga qaytdilar  
 B) Dovon hukmdorini asirga oldilar  
 S) mag‘lubiyat bilan tugadi  
 D) yujilarning Xitoyga hujumi tufayli to‘xtatildi
- 56. Qaysi davlatdan madad yetib kelishidan**

- cho‘chib, xitoyliklar Dovon bilan sulh tuzishga rozi bo‘ldi?**  
 A) Qang‘  
 B) Baqtriya  
 S) Sug‘diyona  
 D) Xorazm

## KUSHON PODSHOLIGI

**1. Qachon ko‘chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlati hududiga bostirib kirganlar?**

- A) mil. avv. 140–130-yillar  
 B) mil. avv. 160–139-yillar  
 S) milodiy 130–140-yillar  
 D) mil. avv. 240–230-yillar

**2. Ko‘chmanchi yuechji qabilalari tarixda qanday nom bilan tilga olinadi?**

- A) saklar  
 B) axeylar  
 S) doriylar  
 D) kushonlar

**3. Ma‘lumki, ko‘chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlati hududiga bostirib kirishadi. Bu hujum natijasida Yunon-Baqtriya davlati ...**

- A) Kushon imperiyasi tarkibiga qo‘shib olindi  
 B) butunlay bo‘linib ketdi  
 S) yuechjilar tomonidan talanib, ikki o‘rtada sulh tuziladi  
 D) inqirozga yuz tutdi va o‘rnida Yunon-makedon davlati tashkil topdi

**4. Ko‘chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib olgach kushonlar qayerga ko‘chib kelib o‘rnashdilar?**

- A) Janubiy G‘arbiy Baqtriya  
 B) G‘arbiy Baqtriya  
 S) Janubiy Baqtriya  
 D) Shimoliy Baqtriya

**5. Qadimgi Kushon davlati nechanchi asrda tashkil topgan?**

- A) mil. avv. III asr oxirlarida  
 B) mil. avv. II asr o‘rtalarida  
 S) mil. avv. I asrda  
 D) milodiy I asrda

**6. Qadimgi Kushon podsholigiga qaysi qabila asos solgan?**

- A) yuechji  
 B) miken  
 S) massagetlar  
 D) doriylar

**7. Birlashgan besh yuechji qabilasining birinchi hukmdorini aniqlang.**

- A) Bess  
 B) Vima Kadfiz  
 S) Kanishka  
 D) Kudzula Kadfiz

**8. Quyidagi qaysi qadimgi davlatga ko‘chmanchi yuechji qabilalari asos solgan?**

- A) Qang‘ davlati  
 B) Yunon-Baqtriya davlati  
 S) Parfiya davlati  
 D) Kushon podsholigi

**9. Kudzula Kadfiz – bu ...**

- A) Makedoniyalik Aleksandr qo‘shining lashkarboshisi  
 B) Dovon davlatining asoschisi  
 S) Kushon podsholigining dastlabki hukmdori  
 D) Kushon podsholigining poytaxtini Baqtriyadan Peshovarga ko‘chirgan hukmdor

**10. Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida ...**

- A) poytaxt Baqtriyadan Peshovarga ko‘chirildi  
 B) Kushon davlatida tanga pullar zarb qilingan  
 S) Kushon davlatida budda davlat diniga aylandi  
 D) Afg‘oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo‘shib olingan

**11. Qadimgi Kushon podsholigi tarixida ikkinchi hukmdor nomini aniqlang.**

- A) Vima Kadfiz  
 B) Kanishka  
 S) Kudzula Kadfiz  
 D) Vasishka

**12. Kushon podsholigida Kanishka hukmronligi davrida qanday ishlar amalga oshirildi?**

- A) huquq va majburiyatlar borasida hammani tenglashtiruvchi qonun chiqarildi  
 B) Afg‘oniston va Kashmir Kushon davlati tarkibiga qo‘sdhib olingan  
 S) Kushon davlatida harbiy artileriya tuzilgan  
 D) davlat poytaxti Baqtriyadan Peshovarga ko‘chirilgan

**13. Qadimgi Kushon podsholigi Kanishka davrida qaysi hududlarni o‘z ichiga olgan edi?**

- 1) Hindiston; 2) Xo‘tan; 3) Xitoy; 4) O‘zbekis-

tonning janubiy viloyatlari; 5) Eron; 6) Afg'oniston; 7) Kichik Osiyo; 8) Misr.

- A) 2, 4, 6, 7
- B) 3, 4, 5, 6
- S) 1, 4, 7, 8
- D) 1, 2, 4, 6

**14. Qadimgi Kushon podsholigida kimning hukmronligi davrida poytaxt Baqtriyadan Peshovarga ko'chiriladi?**

- A) Kudzula Kadfiz
- B) Kanishka
- S) Vima Kadfiz
- D) Vasishka

**15. Nima sababdan Qadimgi Kushon podsholigi zavolga yuz tutdi?**

- A) forslar bilan bo'lgan urushda mag'lubiyatga uchrashi natijasida
- B) kuchli zilzila va suv toshqiniga sabab bo'lgan vulqon otilishi oqibatida
- S) mikena qabilasining bostirib kirishi natijasida
- D) to'xtovsiz urushlar natijasida

**16. Qadimgi Kushon imperiyasi mavjud bo'lgan davrni aniqlang.**

- A) mil. avv. III asr va milodiy II asr
- B) mil. avv. I asr va milodiy III asr
- S) mil. avv. II asr va milodiy II asr
- D) mil. avv. II asr oxirida va milodiy IV asr

**17. Kimning hukmronligi davridan boshlab Kushon podsholigida hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qilish boshlandi?**

- A) Diadot
- B) Kanishka
- S) Kudzula Kadfiz
- D) Vima Kadfiz

**18. Qadimgi Kushon podsholigida Vima Kadfiz hukmronligi davrida tangalar nimalardan zarb qilingan?**

- A) kumush va mis
- B) oltin, kumush va bronza
- S) Oltin, kumush va mis
- D) oltin va bronza

**19. Kushon podshosi Kanishka hukmronlik davrini aniqlang.**

- A) milodiy 70–120-yillar
- B) milodiy 70–123-yillar
- S) mil. avv. 15–51-yillar
- D) milodiy 78–123-yillar

**20. Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'q-qisiga qaysi hukmdor davrida erishadi?**

- A) Kanishka
- B) Kudzula Kadfiz
- S) Vima Kadfiz
- D) Kanishka II

**21. Qaysi Kushon podshosi hukmronligi davrida Hindiston, Xitoy va Rim bilan elchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi?**

- A) Kanishka II
- B) Kudzula Kadfiz
- S) Vima Kadfiz
- D) Kanishka

**22. Qaysi shahardan suyakdan yasalgan Kushon haykalchalari topilgan?**

- A) Pompey
- B) Sirakuza
- S) Memfiz
- D) Badaxshon

**23. Kushon podsholigi tangalari qaysi qadimgi davlat hududidan topilgan?**

- A) Yunoniston
- B) Misr
- S) Mesopotamiya
- D) Rim imperiyasi

**24. Kushon davlatining arxeologik yodgorliklari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.**

**1) Xolchayon; 2) Afrosiyob; 3) Dalvarzintepa; 4) Ayritom; 5) Ko'zaliqir; 6) Zartepa; 7) Jonbosqal'a; 8) Qoratepa; 9) Kaltaminor.**

- A) 1, 3, 4, 6, 8
- B) 1, 3, 4, 6, 9
- S) 2, 3, 4, 8, 9
- D) 1, 3, 5, 6, 8

**25. Qaysi davrdan boshlab suv tegirmoni, chig'ir turlaridan keng foydalanildi, yerga ishlov berish qurollari takomillashtirildi?**

- A) Yunon-Baqtriya
- B) Kushon
- S) Salavkiylar
- D) Yunon-makedon davlati

**26. Nima uchun qadimda O'rta Osiyoda qadimiy oromiy yozuvi keng tarqalgan?**

- A) Oromiy yozuvida hamma diplomatik ishlar olib borilgani tufayli
- B) O'rta Osiyo hududida boshqa yozuvning hali vujudga kelmaganligi uchun
- S) Kushon davlatida yashagan xalqlarning o'zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli
- D) G'arbiy Osiyoda paydo bo'lganligi uchun

**27. Qadimgi oromiy yozuvi qayerda paydo bo'lgan?**

- A) Osiyoning shimoli sharqida
- B) Old Osiyoda
- S) Sharqiy Osiyoda
- D) G'arbiy Osiyoda

**28. Qaysi qadimgi yodgorliklarini o'rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan?**

- A) Qoratepa  
 B) Dalvarzintepa  
 S) Ayritom  
 D) Qadimgi Termiz
- 29. Kushon mamlakatidagi yozuvlardan – kushon shakilli yozuvi mavjud bo'lgan, bunda harflar ... bo'lgan.**  
 A) burchakli, to'rtburchakli va aylana shaklida  
 B) tire, nuqta va aylana shaklida  
 S) alifboga asoslangan  
 D) rasm-belgili
- 30. Kushon podsholigi davriga oid Surxko'tal madaniy yodgorligi qaysi hududda joylashgan?**  
 A) Turkmanistondagi Ashgabat shahri yaqinida  
 B) Termiz yaqinida  
 S) Afg'onistondagi Qunduz shahri yaqinida  
 D) Afg'onistondagi Surxko'tal shahri yaqinida
- 31. Kushon podsholigi davriga oid yunon alifbosidagi kushon bitiklari qaysi yodgorlikdan topilgan?**  
 A) Ayritom  
 B) Dalvarzintepa  
 S) Surxko'tal  
 D) Qoratepa
- 32. Qadimda oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy va so'g'diy yozuvlari keng tarqalgan hududlarni aniqlang.**  
 1) Amudaryoning quyi oqimi; 2) Farg'ona vodiysi;  
 3) Toshkent vohasi; 4) Sirdaryoning quyi oqimi;  
 5) Zarafshon vodiysi; 6) Qashqadaryo vodiysi.  
 A) 1, 5, 6  
 B) 1, 4, 5  
 S) 1, 2, 5, 6  
 D) 3, 5, 6
- 33. Kushon davlati tashkil topayotgan davrda Baqtriya va So'g'diyonaning asosiy aholisi qaysi dinda edi?**  
 A) buddaviylik  
 B) zardushtiylik  
 S) nasoro  
 D) mazdakiylik
- 34. Kimning hukmronligi davrida Kushon podsholigi aholisining bir qismi buddaviylik diniga e'tiqod qila boshlaydi?**  
 A) Vasishka  
 B) Kudzula Kadfiz  
 S) Vima Kadfiz  
 D) Kanishka
- 35. Buddaviylik va zardushtiylik dini O'rta Osiyoda nechanchi asrga qadar mavjud bo'lgan?**  
 A) VI asr  
 B) VII asr  
 S) VIII asr  
 D) IX asr
- 36. Quyidagi qaysi voqea Kushon podshosi Kanishka davrida sodir bo'lgan?**  
 A) Hindistonning bir qismi bosib olindi  
 B) poytaxt Baqtriyadan Peshovarga ko'chirildi  
 S) hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qilina boshlandi  
 D) Afg'oniston va Kashmir bosib olindi
- 37. Quyidagi qaysi madaniy yodgorliklardan Kushon davriga oid buddaviylik ibodatxonalarini topilgan.**  
 1) Afrosiyob; 2) Eski Termiz; 3) Ko'zaliqir;  
 4) Ayritom; 5) Jonbozqal'a; 6) Qo'yqirilganqal'a;  
 7) Dalvarzintepa; 8) So'g'diyona.  
 A) 1, 2, 3, 4, 5  
 B) 1, 3, 7, 8  
 S) 2, 3, 4, 7, 8  
 D) 2, 4, 7
- 38. Friz nima?**  
 A) qabriston, maqbara  
 B) davlatga oid hujjatlar saqlanadigan joy  
 S) ustida shaharga suv keladigan anhuri bo'lgan baland ko'prik  
 D) devor peshtoqidagi naqshli bo'rtma tasvir
- 39. Kushon davlatidagi qaysi me'moriy obidalaridan devoriy tasvirlar va haykaltaroshlikning namunalari topilgan?**  
 A) Dalvarzintepa, Ayritom  
 B) Ko'zaliqir, Qo'yqirilgan qal'a, Jonbosqal'a, Xolchayon  
 S) Xolchayon, Eski Termiz, Jonbosqal'a  
 D) Qoratepa, Ko'zaliqir, Qo'yqirilgan qal'a
- 40. Quyidagi qaysi madaniy yodgorlikdan fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan?**  
 A) Dalvarzintepa  
 B) Xolchayon  
 S) Eski Termiz  
 D) Ayritom
- 41. Kushon san'atida qaysi san'at uslublari rivojlandi?**  
 A) mahalliy an'analar  
 B) Qadimgi Sharq  
 S) ellinistik  
 D) mahalliy an'analar, Qadimgi Sharq va ellinistik
- 42. Kushon hukmdorlaridan qay biri pul islohati otkazadi?**  
 A) Kudzula Kadfiz  
 B) Vima Kadfiz  
 S) Kanishka  
 D) Vasishka
- 43. Kushon davlati iqtisodiyotining asosini ...**  
 A) sug'orma dehqonchilik, savdo-sotiq va hurnarmandchilik tashkil qilgan  
 B) dehqonchilik va chorvachilik tashkil qilgan

- S) savdo-sotiq va chorvachilik tashkil qilgan  
D) dehqonchilik tashkil qilgan

**44. Kushonlar qaysi yozuvlardan foydalanganlar?**

- A) oromiy yozuvi  
B) kushon shaklli yozuvi  
S) yunon alifbosidagi kushon bitiklari  
D) oromiy, kushon, yunon, xorazmiy, sug'diy yozuvlari

**45. O'zbekistonning qayeridan buddaviylik butun O'rta Osiyo bo'ylab keng tarqalgan?**

- A) Xolchayon, Zartepa, Qoratepa  
B) Eski Termiz, Xolchayon, Zartepa  
S) Eski Termiz, Ayritom, Dalvarzintepa  
D) Zartepa, Qoratepa, Dalvarzintepa

**46. Kushon davriga oid qaysi shaharchalar xom g'ishtdan qurilgan mustahkam istehkomli devorlari bilan o'ralgan edi?**

- A) Xolchayon va Zartepa  
B) Qoratepa va Dalvarzintepa  
S) Eski Termiz va Xolchayon  
D) Dalvarzintepa va Eski Termiz

**47. Ma'lumki, Kushonlar davrida O'zbekiston hududida binokorlik va me'morchilik yuksak darajada taraqqiy etdi. Asosiy e'tibor qanday binolarni qurilishga qaratildi?**

- A) saroylar va karvonsaroylar  
B) saroylar va ibodatxonalar  
S) ibodatxona va bozorlar  
D) mudofaa inshootlar

**48. Kushon davriga oid qaysi me'moriy obidada shahzodalar va saroy a'yonlari, jangchilar tasviri,**

**Budda haykali hamda ud cholg'u asbobini chalayotgan ayollar tasvirlangan?**

- A) Ayritom  
B) Zartepa  
S) Qoratepa  
D) Fayoztepa

**49. Kushon davlatida hunarmandchilikning qaysi turlari rivojlandi?**

- A) binokorlik  
B) yug'och o'ymakorligi  
S) me'morchilik  
D) binokorlik, me'morchilik, temir va suyak kandakorlik

**50. Qadimda O'zbekiston hududida shakllanib faoliyat ko'rsatgan davlatlarni ketma-ketligini aniqlang.**

**1) Qadimgi Xorazm; 2) Qadimgi Baqtriya; 3) Qadimgi So'g'diyona; 4) Yunon-Baqtriya podsholigi; 5) Qang'; 6) Dovon; 7) Parfiya; 8) Marg'iyona; 9) Kushon**

- A) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8, 9  
B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 9  
S) 1, 2, 3, 4, 5, 9  
D) 1, 2, 4, 5, 6, 9

**51. O'rta Osiyodagi qaysi qadimgi davlatlar mil. avv. III asrda vujudga kelgan?**

- A) Baqtriya va Xorazm  
B) Kushon va Baqtriya  
S) Xorazm va Qang'  
D) Qang' va Dovon

## BUYUK IPAK YO'LI

**1. Milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida muhim o'rin tutgan hamda qadimda mashhur bo'lgan karvon yo'lini aniqlang.**

- A) Buyuk Ipak yo'li  
B) La'l yo'li  
S) Shoh yo'li  
D) Kumush yo'l

**2. Buyuk Ipak yo'li qachon vujudga kelgan?**

- A) milodiy II asr o'rtalarida  
B) milodiy II asrda  
S) mil. avv. III asr  
D) mil. avv. II asrda

**3. Buyuk Ipak yo'li dastavval qanday nom bilan atalgan?**

- A) Buyuk yo'l  
B) Buyuk meridional yo'l

- S) Shoh yo'li  
D) La'l yo'li

**4. Qadimda Buyuk meridional yo'l deb atalgan karvon yo'liga "Ipak yo'li" degan nom kim tomonidan va qachon berilgan?**

- A) G. Shlimann, 1877-yilda  
B) F. Shampalon, 1822-yilda  
S) G. Shlimann, 1870-yilda  
D) F. Rixtgofen, 1877-yilda

**5. F. Rixtgofen kim?**

- A) nemis geografi  
B) nemis tarixchisi  
S) fransuz arxeologi  
D) yunon faylasufi

**6. Mil. avv. 3-2-mingyillikda vujudga kelgan eng qadimgi yo'llardan birini aniqlang.**

- A) La'l yo'li  
B) Buyuk Ipak yo'li

- S) Kumush yo'li  
D) Shoh yo'li
- 7. Qadimda mavjud bo'lgan La'l yo'lining hududi ketma-ketligi ko'rsatilgan javobni aniqlang.**  
1) Mesopotamiya; 2) Falastin; 3) Pomir tog'lari;  
4) Xitoy; 5) Eron; 6) Yunoniston; 7) Old Osiyo;  
8) Misr.  
A) 3, 5, 7, 8  
B) 1, 3, 5, 7, 8  
S) 2, 4, 7, 8  
D) 3, 4, 5, 8
- 8. Qadimgi Sharq mamlakatlari zargarlari tomonidan yuksak baholangan yarim nodir la'l (lojuvard) toshi qayerdan olingan?**  
A) Erondan  
B) Hisordan  
S) Himolay tog'idan  
D) Pomir tog'laridan
- 9. Qadimda Badaxshon la'li ishlatilgan buyumlar qayerdan topilgan?**  
A) Pomir to'g'laridan  
B) Old Osiyo manzilgohlaridan  
S) Eron hududidagi manzilgohlardan  
D) Misr fir'avnlari maqbaralaridan
- 10. Ahamoniylari sulolasining yo'li hisoblangan karvon yo'lini aniqlang.**  
A) Buyuk Ipak yo'li  
B) La'l yo'li  
S) Shoh yo'li  
D) Kumush yo'li
- 11. Qadimgi Shoh yo'li nechanchi asrlarda mavjud bo'lgan?**  
A) mil. avv. II asrda  
B) mil. avv. III–II asrlarda  
S) mil. avv. VI–IV asrlarda  
D) mil. avv. II asr – milodiy II asrlarda
- 12. Quyidagi qaysi qadimgi karvon yo'li O'rtayer dengizi bo'yidagi Efes, Sard shaharlarini Suza bilan bog'lab turgan?**  
A) Buyuk meridional yo'l  
B) La'l yo'li  
S) Buyuk Ipak yo'li  
D) Shoh yo'li
- 13. Qadimda ko'chmanchilar zodagonlarining qo'rg'onlaridan hisoblangan Paziriq qo'rg'oni nechanchi asrlarga oid?**  
A) mil. avv. V–IV asrlarga  
B) mil. avv. IV–III asrlarga  
S) milodiy V–VI asrlarga  
D) milodiy III–IV asrlarga
- 14. Arxeologlar savdo-sotiq buyumlari, O'rta Osiyo va Eron matolaridan tikilgan kiyimlar qoldiqlari topilgan Paziriq qo'rg'onini qayerdan topib o'rganganlar?**

- A) Pomir tog'laridan  
B) Tog'li Oltoydan  
S) Old Osiyodan  
D) Misrdan
- 15. Qadimgi ko'chmanchilar zodagonlarining qo'rg'onlari bo'lgan Paziriq qo'rg'onidan topilgan buyumlar nima uchun juda yaxshi saqlangan edi?**  
A) chunki, har bir buyum yaxshilab maxsus qutichalarga joylashtirilgan edi.  
B) chunki, qo'rg'onida 2500 yil davomida erimagan qalin muz qatlami yuzaga kelgan edi  
S) chunki, bu buyumlarning hammasi suv ostiga qo'yilgan edi  
D) chunki, har bir buyum qum ostiga ko'mib qo'yilgan edi
- 16. Ma'lumki, milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan edi. Bu yo'lining umumiy uzunligi qancha bo'lgan?**  
A) 12 ming kilometr  
B) 13 ming kilometr  
S) 11 ming kilometr  
D) 10 ming kilometr
- 17. Buyuk Ipak yo'li kesib o'tgan hududlar ketma-ketligini aniqlang.**  
1) Sariq dengiz; 2) Pomir; 3) Sharqiy Turkiston;  
4) Parfiya; 5) Misr; 6) Eron; 7) Efes; 8) Mesopotamiya; 9) Baqtriya; 10) O'rtayer dengizi sohilogacha; 11) Sug'diyona; 12) O'rta Osiyo.  
A) 2, 4, 5, 6, 7, 8  
B) 1, 3, 6, 8, 10, 12  
S) 1, 3, 5, 6, 7, 8  
D) 2, 4, 5, 6, 7, 10
- 18. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan qadimiy shaharlarni aniqlang.**  
1) Sian; 2) Efes; 3) Dunxuan; 4) Yorkent;  
5) Badaxshon; 6) Sard; 7) Samarqand; 8) Buxoro;  
9) Termiz; 10) Marv; 11) Baqtra; 12) Kurushkat.  
A) 1, 3, 4, 7, 8, 9, 10  
B) 2, 4, 5, 6, 7  
S) 1, 2, 3, 4, 8, 10  
D) 1, 5, 6, 7, 8, 10, 11, 12
- 19. Ma'lumki, Buyuk Ipak yo'li tashkil topmasdan avval O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida savdo va madaniy ayirboshlash uchun turli-tuman yo'llar mavjud bo'lgan. Ulardan birlarini aniqlang.**  
A) "Buyuk meridional yo'l" va "La'l yo'li"  
B) "Shoh yo'li" va "Kumush yo'li"  
S) "Kumush yo'li" va "La'l yo'li"  
D) "La'l yo'li" va "Shoh yo'li"

**20. Buyuk Ipak yo'li orqali Sug'diyonadan Xitoyga nimalar olib borilgan?**

- A) mehnat qurollari
- B) jun gazlama va gilam
- S) oltin va kumush buyumlar
- D) jun gazlama, gilam, zeb-ziynat buyumlari va qimmatbaho toshlar

**21. Buyuk Ipak yo'li orqali Baqtriyadan Xitoyga nimalar olib borilgan?**

- A) tuyalar
- B) nasilli otlar
- S) la'l toshlari
- D) ip-gazlama va matolar

**22. Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoyga la'l toshi qayerdan olib borilgan?**

- A) Hindiston
- B) Baqtriya
- S) Farg'ona
- D) Badaxshon

**23. Qadimda Buyuk Ipak yo'li orqali O'rta Osiyoga Xitoydan nima keltirilar edi?**

- A) nasilli otlar
- B) guruch
- S) la'l toshlari
- D) ip-gazlama va matolar

**24. Qadimda Buyuk Ipak yo'li orqali nasilli otlar Xitoyga qayerdan keltirilar edi?**

- A) Badaxshon
- B) Baqtriya
- S) Farg'ona
- D) Hindiston

**25. Ma'lumki, Buyuk Ipak yo'li orqali qadimda O'rta Osiyoga ip-gazlama matolar va paxta chigiti ortilgan karvonlar kelgan. Bu buyumlar qaysi mamlakatdan keltirilgan?**

- A) Xitoy
- B) Hindiston
- S) Mesopotamiya
- D) Eron

**26. O'rta Osiyoning qaysi shahridan Buyuk Ipak yo'li davridagi Rim tangalari xazinasi topilgan?**

- A) Termiz
- B) Ashgabad
- S) Afrosiyob
- D) Farg'ona

**27. Afrosiyobdan Buyuk Ipak yo'li davriga oid qanday buyumlar topilgan?**

- A) Rim sopol shamdonlari
- B) Rim tangalari xazinasi
- S) Misr muhrlari
- D) Rim sopol shamdonlari va Misr muhrlari

**28. O'rta Osiyoning qaysi shahridan Buyuk Ipak yo'li davridan saqlanib qolgan Misr muhrlari topilgan?**

- A) Afrosiyob
- B) Ashgabad
- S) Termiz
- D) Farg'ona

**29. Xitoy imperatori U Di elchi Chjan Syanni mil. avv. 138-yilda qanday maqsadda elchi qilib yuboradi?**

- A) ko'chmanchi xunn qabilalari bilan ittifoq tuzish
- B) O'rta Osiyo mamlakatlari bilan savdo va diplomatik aloqalarni o'rnatish
- S) ko'chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi hamda hamkor topish
- D) Dovon davlatini egallab olish

**30. Mil. avv. II asrda xunn qabilalari tomonidan asirga olinib, 10 yilcha hibsdan bo'lgan Xitoy elchisini aniqlang.**

- A) Chjan Syan
- B) U Di
- S) Chjan Syao
- D) Sin Shi Xuandi

**31. Xitoyning xunnlariga qarshi kurashida Farg'ona hukmdorining yordamiga ishongan Chjan Syan Farg'ona hukmdoridan qanday javobni oladi?**

- A) xunnlariga qarshi kurashda askarlar yig'ib berish
- B) faqat naslli otlarni sovg'a qilish
- S) savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish va naslli otlarni berish
- D) faqat savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish istagini

**32. Kimning yurgan yo'li bo'ylab mil. avv. II–I asrlarda Xitoy mamlakatini Markaziy va G'arbiy Osiyo bilan bog'lovchi jahon ahamiyatiga ega Buyuk Ipak yo'li deb ataluvchi karvon yo'li o'tgan?**

- A) Chjan Syan
- B) U Di
- S) Aristofan
- D) Gerodot

**33. Ma'lumki, Farg'ona vodiysida Buyuk Ipak yo'li ikki tarmoqqa bo'lingan. Uning ikkinchi janubiy yo'lini aniqlang.**

- A) O'zgandan Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borgan
- B) O'zgandan Axi shahri, Qamchiq dovoni orqali Iloq vohasi va Toshkentga kelgan
- S) O'zgandan Iloq vohasi, Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan
- D) O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan

**34. Qadimda Oltin yo'l deb atalgan ichki savdo yo'li hududini to'g'ri ko'rsating.**

- A) Axsidan Pop, Zarkent orqali konchilar qarorgohlariga va yaylovlarga borgan
- B) O'zgandan Axi shahri, Qamchiq dovoni orqali Iloq vohasi va Toshkentga kelgan



S) O'zgandan Iloq vohasi, Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan

D) O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Iloq vohasi va Toshkentga kelgan

**35. Qadimda qaysi karvon yo'li O'rta Osiyodan Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borgan?**

A) Shoh yo'li

B) Buyuk Ipak yo'li

S) Kumush yo'li

D) Buyuk meridional yo'l

**36. Kumush yo'li hududini aniqlang.**

**1) O'rta Osiyo; 2) Xazar xoqonligi; 3) Bulg'or davlati; 4) Qurama; 5) Kiyev Rusi; 6) Qamchiq dovoni; 7) Yaponiya mamlakatlari; 8) Chust vohasi.**

A) 1, 2, 3, 7, 8

B) 1, 2, 3, 5, 7

S) 3, 5, 6, 7, 8

D) 1, 4, 7, 8

**37. Buyuk Ipak yo'lining VI asrdan boshlab ishga tushgan shimoliy tarmog'ini aniqlang.**

A) Shoh yo'li

B) Kumush yo'li

S) Markaziy yo'l

D) La'l yo'li

**38. O'rta Osiyodan Xitoyga qanday mahsulotlar tashilgan?**

A) ip-gazlama matolar

B) guruch

S) paxta chigiti

D) uzum, yong'oq, anor

**39. "Buyuk Ipak yo'li" Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?**

A) chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan


B) Sharq va G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati yutug'laridan bahramand bo'ldi

S) eng qadimgi davlat uyushmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishida turtki bo'ldi

D) ichki ziddiyatlar yanada kuchayib, mustaqil viloyatlar paydo bo'ldi

## KROSSVORD

(ismlar bo'yicha)




**BO'YIGA:** 1. Kushon podshosi. 4. Aleksandr yurishlarida qatnashgan tarixchi. 5. Mil. avv. 329-yilgi qo'zg'olon rahbari. 7. Yunon-Baqtriya podshosi. 10. Saklar qahramoni. 13. Ahamoniylar podshosi.

**ENIGA:** 2. "Ipak yo'li" atamasining asoschisi. 3. Doro I yurishi davrida Saklar sardori. 6. Oksiartning qizi bo'lgan Aleksandr xotini. 8. Salavkiylar davlati hukmdori. 9. Ahamoniylardan bo'lgan Baqtra satrapi. 11. Massagetlar podsho-hokimasi. 12. Mil. avv. 522-yil bo'lgan Marg'iyonadagi qo'zg'olon rahbari. 13. Yunon-Baqtriya davlati asoschisi. 14. Massagetlar ustiga yurish qilgan fors podshosi.


**KROSSVORD**

(atama va geografik nomlar bo'yicha)



**BO'YIGA:** 1. Ahamoniylar davlatida viloyat boshlig'i. 3. Xorazmning qadimiy shahari. 4. Sirdaryo bo'yida Aleksandr barpo etgan qal'a. 5. Kushon davri arxeologik yodgorligi. 6. Xitoy manbalarida Qang' davlatining poytaxti. 8. Mil. avv. VI–IV asrlarda O'rta Osiyodagi hunarmandchilik markazi. 10. Qashqadaryo vohasining sharqiy qismidagi qadimiy shahar.

**ENIGA:** 2. Kushon davlatini tuzgan qabila. 4. Qadimgi O'rta osyoliklar xanjari. 7. Ahamoniylar sulolasining karvon yo'li. 9. Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan davlat. 11. Zarafshon daryosi. 12. Jangovar oybolta. 13. Dovon davlati. 14. Qadimgi Baqtriya poytaxti.


**XRONOKROSS****(yillar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** **1.** Xitoy elchisi Chjan Syanning xunlar qo'liga asir tushishi. **2.** Yunon-Baqtriya podshosi Demetriy hukmronligining yakunlanishi. **3.** Fors podshosi Kir II ning massagetlar ustiga qo'shin tortishi. **4.** Kushon podshosi Kanishka hukmronligining yakuni. **6.** Antioxning Sharqiy viloyatlar noibi etib tayinlanishi. **8.** Ahamoniylarda Kserks hukmronligining boshlanishi. **10.** Makedoniyalik Aleksandrning Doro III qo'shinlarini tor-mor etishi.

**ENIGA:** **4.** F. Rixtgoften tomonidan "Buyuk Ipak yo'li" atamasiga asos solinishi. **5.** Salavkiylar davlatining vujudga kelishi. **6.** Salavkiylar davlati taxtiga Antioxning o'tirishi. **7.** Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishlarining boshlanishi. **9.** Makedoniyalik Aleksandrning vafot etishi. **11.** Ahamoniylar sulolasida Kserks hukmronligining yakunlanishi. **12.** Aleksandrning Makedoniya taxtiga chiqishi. **13.** Parfiyaning Salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi.

## XRONOKROSS

(Rim raqami hisobida asrlar bo‘yicha)



**BO‘YIGA:** 1. Eng qadimgi O‘rta Osiyo shaharlarining mustahkam devorlar bilan o‘rab olinishi. 2. Qang‘ davlati poytaxtiga asos solinishi. 3. Yunon-Baqtriya davlatining vujudga kelishi. 5. Milodiy III asr Qang‘ davlatining parchalanib ketishi. 5. Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi. 6. Qadimgi xorazmliklarning mahalliy taqvimdan foydalanmay qolinishi. 9. Ko‘zaliqir shahrining shakllanishi.

**ENIGA:** 1. Xorazmdagi Ko‘zaliqir shahrining vujudga kelishi. 3. Salavkiylar davlatining inqirozi. 4. Buyuk Ipak yo‘lining vujudga kelishi. 6. “Kumush yo‘li”ning ishga tushishi. 7. Kushon davlatining qulashi. 8. Sharq va G‘arb xalqlari o‘rtasidagi Buyuk Ipak yo‘lining yo‘qolishi. 10. Qang‘ davlatining qudratli davlatga aylanishi. 12. Xorazmning Ahamoniylar imperiyasidan mustaqil bo‘lishi.

## V BOB: QADIMGI RIM

Eng qadimgi  
etrusklar

**Ellinlar** Bolqon yarimorolini o‘zlashtirgan bir paytda, ularga qardosh bo‘lgan **Italiy qabilalari** Apennin yarimoroli, hozirgi Italiya mamlakati hududiga kelib joylashganlar mil. avv. I-mingyillikda Italiyada: **etrusk**, **ligur**, **lotin**, **venet**, **osk** va **samnit** qabilalari ham yashagan.

Apenninda aholi yashashi uchun sharoit Bolqon yarimoroliga nisbatan qulayroq edi. Unda bir necha sersuv daryolar, jumladan — **Po daryosi** bo‘lgan. Hududda qator qishloq xo‘jaligi uchun qulay vohalar ham mavjud edi. Ularni Alp tog‘lari shimoldan esadigan sovuq shamollardan asragan. Mamlakat bo‘ylab shimoldan janubga tomon yastanib yotgan Apennin tog‘larida esa foydali qazilmalar va qurilish toshlari mo‘l bo‘lgan Apennin yarimoroli Tirren va Adriatika dengizlari suvlari bilan yuvib turiladi, janubdan Sitsiliya oroli yondosh turgan.

Qadimgi Rim tarixida tili hozirga qadar o‘qilmagan sirli **etrusklar** alohida iz qoldirganlar. Qadimgi yunonlar **“tirrenlar”**, rimliklar esa **“tusklar”** deb nomlagan bu xalq mil. avv. VIII–VI asrlarda Po daryosining quyi oqimidan Tibr daryosiga qadar hududlarda yashagan. Ularning Apenninga qayerdan kelgani ham aniq bo‘lmay bir guruh olimlar etrusklarni shimoldan kelgan desa, boshqalari esa Kichik Osiyoning g‘arbidan ko‘chib kelib joylashgan deb hisoblashadi.

Ammo mil. avv. VIII asrda etrusklar temir ishlatgani, ot minganlari, ajoyib dengizchilar-u, mohir sangtaroshlar bo‘lgani ma‘lum. Ular o‘z shaharlarini, yo‘llarni, ko‘priklarni toshdan qurganlar. Ular sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug‘ullanib; bug‘doy arpa, loviya, uzum yetishtirganlar. Etrusklar kanop, poya ekishib undan to‘qilgan matodan kemalar uchun yelkan, yomg‘ir va quyoshdan kishini himoyalovchi soyabonlar yasaganlar. Kanop matosidan yozish uchun ham foydalanilgan.

Etrusklar Italiyada tuzgan dastlabki davlatlar, 12 ta shahar–davlatlar ittifoqi bo‘lib, ulardan eng yiriklari **Rim** va **Kapuya** edi. Ushbu quldorlik davlatlari hukmdorlari — **luxomon**, qaram kishilar esa **latunlar** deb nomlangan. Etrusklar jamiyati mil. avv. VII–VI asrlarda kuchaygan. Lekin mil. avv. VI asr oxiridan shimoldan **gallar**, so‘ng janubdan **yunonlar** hujumlari boshlanib etrusklar jamiyatini inqiroziga sabab bo‘lgan.

## Troyadan Rimgacha


Afsonaga ko‘ra, lotin qabilalari asoschisi **Eney** troyalik bo‘lgan. Etrusklar bilan jangda Eney halok bo‘lib, uning o‘g‘li **Yul** lotinlar yashagan **Latsiya viloyatining** bosh shahri **Alba-Longaga** asos soladi. Yillar o‘tib bu shaharga Eneyning uzoq avlodi **Numitor** podsho bo‘ladi. Ammo hukumdorning kichik ukasi **Amuliy** akasidan taxtni tortib olib uning qizi **Reya Silviyani** — **olov** va **uy o‘chog‘i ma‘budasi Vesta ibodatxonasi** raqibasiga aylantiradi. Unga turmushga chiqish va farzand ko‘rish ta‘qiqlanadi. Silviya sirli ravishda tuqqan egizak o‘g‘illari xudo **Marsdan** ekanligini aytadi. Unga ishonmagan Amuliy bolalarni **Tibr daryosiga** tashlashni buyuradi. Savatga solingan bolalarni qichqirganini eshitgan ona bo‘ri daryoning sayoz joyidan ularni qirg‘oqqa chiqarib emizadi. Ko‘p o‘tmay podsho cho‘ponlaridan biri bolalarni uyga keltirib, ularga — **Romul** va **Rem** ismlarini qo‘yib, sirni hech kimga aytmay, jasur va kuchli qilib tarbiyalaydi. Bolalar o‘sib katta bo‘lganida Amuliyini o‘ldirib, taxtni bobolari Numitorga olib beradilar. Ular ona bo‘ri qutqargan Tibr bo‘ylarida yangi shaharga asos solishga qaror qilishadi. O‘zaro janjaldan Romul ukasi Remni o‘ldirib qo‘yadi. U shaharga asos solish fikridan qaytmaydi, o‘z nomi (lotincha **Roma**) bilan

atalgan Rimning birinchi podshosi bo'lgan. **Rimga** asos solingan mil. avv. 753-yilni rimliklar o'z taqvimlari hisobi boshlanishi sifatida olishgan.

Aslida shaharga **lotin, sabiyon** va **etrusk qabilalari** asos solgan. **Palatin, Kapitoliy tepaliklaridagi** aholi: arpa va bug'doy, uzum va zig'irpoya yetishtirgan. Yirik shohli mol, cho'chqa, ot boqishgan. Hunarmandchilikning temirchilik, to'qimachilik, kulolchilik sohalari bilan shug'ullanganlar. Mil. avv. VI asrda Rim aholisi ko'payib, 7 tepalikdagi shaharga aylandi.

Rivoyatlarga ko'ra, Rimdagi tartiblar Romul tomonidan o'rnatilgan. U senat va xalq yig'inlik joriy etib, aholini **patritsiylar** va **plebeylarga** bo'ladi. Patritsiylar ota-bobolari Rimga asos solganlarning eng nufuzli oqsoqollaridan "**keksalar kengashi**" tuzilib, u lotinchaga **senat** deb nomlangan. Italiyaning boshqa joylaridan Rimga ko'chib kelganlar va ularning avlodlari plebeylar deb atalgan. **Plebeylar (plebs)** orasida boylari ham bo'lsada, aksari qismi kambag'allardan iborat edi. Dastlab Rimni boshqarishida asosan patritsiylar qatnashgan.

Rivoyatlarga qaraganda, Rimni birin-ketin boshqargan 7 podshoning so'nggi 3 tasi etrusklardan bo'lgan. Mil. avv. 510–509-yillari Rimning mahalliy aholisi so'nggi podshoni zolimligi va xalqni mensimagani uchun qo'zg'olon ko'tarib haydab yuboradi.



Rimda podsho boshqaruvi bekor qilinib o'rniga **respublika** (lotinchadan "**xalq ishi, umumiy ish**") – ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan kishilar boshqaradigan davlat tuziladi. Xalq kengashida har yili patritsiylarda 2 kishi 1 yilga hokimlikka saylangan. Bu hokimlar **konsullar** deb atalgan. Ular urush e'lon qilish, ittifoq tuzish, sud vazifasini, qonunlar qabul qilish, urush paytida bittasi qo'shin qo'mondoni vazifalarini bajargan.

**Rim aristokratiyasi** – zodagonlar respublikasi bo'lib, plebeylar boshqaruvda qatnashish huquqidan mahrum edilar. Natijada ular va patritsiylar orasida ziddiyatlar boshlanib mil. avv. 494-yil plebeylardan tuzilgan rim jangchilari, plebsni fuqarolik huquqlarini cheklanishidan noroziligini bildirib shahardan chiqib, Rimdan uncha uzoq bo'lmagan "**Muqaddas tog'**"ga ketadi. Rim qo'shinining zaiflashuvidan qo'rqqan patritsiylar plebsga ma'lum yon berishlarga majbur bo'ladi. Shu tariqa plebeylar har yili o'z himoyachilari – **xalq tribunlarini** saylash huquqini qo'lga kiritganlar.

Endilikda senat plebeylarga qarshi farmoyish qabul qilishi davomida **xalq tribuni**, faqat bir so'z "**veto**" ("**ta'qiqalayman**") deyishi kifoya edi. Plebeylar o'z huquqlari uchun kurashda davom etadi. Nihoyat yana 100 yilcha o'tib mil. avv. 367-yili xalq tribuni **Lutsiy Lateran** ilk bor **konsullikka** saylanadi.

Rimda mil. avv. IV asr so'ngidan barcha fuqarolarning qonun oldidagi tengligi o'rnatiladi. Bu vaqtga kelib **plebeylar** har qanday davlat lavozimini egallash huquqiga erishadilar. Xalq yig'inlari **Mars maydonida** o'tkazilib, shahar uzra ko'tarilgan **qizil bayroq** Rimga hech qanday dushman xavfi yo'qligini anglatgan. Rim respublikasining eng kuchli tashkiloti **senat** bo'lgan. U hech qanday saylovsiz, avvalgi konsullar, xalq tribunlari va boshqa mansabdor shaxslar bilan to'latib borilgan. Senat a'zoligi umrboqiy bo'lib, unda 300 ga yaqin senatorlar faoliyat olib borgan. Senat hech kimga hisobot bermagan va o'zining noo'rin qarorlari uchun javob ham bermagan. Davlatga katta xavf tug'ilsa senat **diktator** – **yagona hukmdorni** saylab, unga barchani bo'ysunishi majburiy etib qo'yilgan. Bu holatda **veto huquqi** vaqtinchalik to'xtatilgan.

Rimliklar katta va jangovar qo'shin tuzadilar. Qo'shinga jangchi yer-mulkka ega bo'lgan dehqonlardan olingan. Rim qo'shini o'q-yoy va kalta nayzalar bilan qurollangan yengil askar, og'ir qurolli jangchilar va otliq qo'shindan iborat edi. Qo'shin har biri 4500 jangchidan iborat **legionlarga** bo'lingan. Legion esa kichik-kichik jangchi guruhlariga ajratilgan. Odatda jangni yengil

qurollangan askarlar va **manjaniq**, palahmonlar bo‘linmalari: tosh, kamon o‘qi, nayzalar yog‘dirib boshlab bergan. Shundan so‘ng ular orqaga chekinib og‘ir qurollangan jangchilarga joy bo‘shatganlar. Ular og‘ir nayza, uzun qilichlarni ishga solganlar. Yuzma-yuz olishuvda kalta qilichlar qo‘l kelgan. Otlıq jangchilar esa jang vaqtida piyoda askarlar yon qanotidan (**flang**) himoya qilib turganlar. Dushman yengilib qocha boshlagach uning ketidan quvib borib tor-mor etganlar.

Rimliklar shaharlari xavfsizligini o‘z qo‘shinlariga to‘la ishonch bilan topshirganlar. Ammo mil. avv. 390-yili shimoldan **gallar** hujumi boshlanib, Rim qo‘shini tor-mor etilib, shahar olinib talanib yondirib yuboriladi. Bu voqeadan so‘ng Rim shahri toshdan mustahkam mudofaa devori bilan o‘rab olinadi.

#### Italiya ustidan hukmronlikning o‘rnatilishi

Italiyada yashagan xalqlar bilan to‘xtovsiz urushlar olib borgan Rim ularni birin-ketin bo‘ysundira boshlaydi. Dastlab etrusklar mil. avv. 406–396-yillari mag‘lub etiladi. **Samnitlarga** qarshi urushlar mil. avv. 343–290-yillarda bo‘lib, **uchinchi samnitlar urushidan** so‘ng ularning yurti ham bo‘ysundiriladi. Endigi navbat yunonlarning Apennindagi koloniyalariga yetib, mil. avv. 281-yili Rim **Tarentga** urush e‘lon qiladi. Tarentliklar o‘z davrining mashhur lashkarboshisi sanalgan. Epir podshosi **Pirrdan** yordam so‘raydilar. Italiya qirg‘oqlariga kelib tushgan Pirr qo‘shinlari mil. avv. 280-yili dastlabki g‘alabani qo‘lga kiritadi. Rim legionlari bilan keyingi jang nihoyatda og‘ir kechib g‘alabadan so‘ng Pirr “*Agar yana bir marta shunday g‘alabaga erishsak, biz halok bo‘lamiz!*” deb nido qiladi (shu tariqa “**Pirr g‘alabasi!**” matali shakllanib u katta talofatlar evaziga erishilgan g‘alabaga aytiladi). Uchinchi jangda mag‘lub bo‘lgan Pirr qolgan qo‘shini bilan Yunonistonga qaytgan.

Rim hukmdorlari o‘ziga xos fuqarolik va ittifoqchilik tizimini yaratadilar. Qaysi bir shahar aholisi Rimga ko‘proq yordam ko‘rsatsa, unga shunchalik ko‘p Rim fuqaroligi huquqlari beriladi. Natijada ko‘plab shaharlar Rimga qarshi urushishdan ko‘ra ko‘ngilli taslim bo‘lishni ma‘qul topishgan. Sotqinlik qilish yanada xavfliroq bo‘lgan. Rimliklar xoinlik qilgan shaharni vayron qilib aholisini qullikka sotgan. Shu tariqa Rim Italiya ustidan hukmronlik o‘rnatadi.

#### Rim va Karfagen

Italiyani bo‘ysundirgan Rim Sitsiliya orolidagi serunum yerlarni bosib olishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Bu tadbirda Rimga Shimoliy Afrikadagi eng boy shahar — **Karfagen** qarshilik qiladi. **Finikiyaliklar** asos solgan bu shaharni ular “**Kar Xadashiy**” — “**Yangi shahar**” der edilar.

O‘rtayer dengizining g‘arbida eng kuchli davlat hisoblangan Karfagenning Ispaniya va Sitsiliyada o‘z koloniyalari bo‘lgan. Rimliklar finikiyaliklarni **punilar** deb atashgan.

**1-Puni urushi** mil. avv. 264-yili boshlanib 23 yil davom etadi. Rim unda g‘alaba qozonib Sitsilyani o‘z hukmiga o‘tkazadi, Karfagenning qudrati sindirilmay har ikki tomon yangi janglarga tayyorlana boshlaydi.

Rim senati ishlab chiqqan rejaga binoan: konsullardan birining qo‘shini karfagenliklarga Ispaniyada hujum qilib, ikkinchisi Afrikaga qo‘shin tushirishi lozim edi. Ammo Karfagenning yangi sarkardasi, uning hukmdori **Gamilkar Barkaning** o‘g‘li **Gannibal** bu rejani buzib yuboradi. U rimliklar hujumini kutmasdan mil.avv. 218-yili Ispaniyadagi Rimning ittifoqchisi bo‘lgan **Sagunt shahrini** vayron qiladi. Bunga javoban Rim Karfagenga urush e‘lon qiladi.

Gannibal bu paytda Ispaniyadan chiqib katta talofatlar bilan Alp tog‘laridan o‘tib, kutilmaganda Po daryosi havzasiga chiqadi. Bu yerdagi **gal qabilalari** Rimning eski dushmanlariga



Gannibal Italiyani Rimdan ozod qilish uchun urushga kirganligini e'lon qiladi. Natijada gallar Gannibalga oziq-ovqat, otlar va jangchilar beradi.

Qator janglarda konsullar qo'shinini yenggan Gannibal mamlakat janubiga yurish boshlab, u yerdagi aholini Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tarish niyatida bo'lgan. Rim 80 minglik qo'shin to'plashga erishadi. Mil. avv. 216-yili **Kanna qishlog'idagi jangda** Gannibalning sarkardalik mahorati nomoyon bo'lib, u 40 minglik qo'shin bilan rimliklar legionlarini yengadi. Ammo Karfagen hukmdori Rimga hujum qilishga shoshilmaydi. Do'stlaridan biri Gannibalga "**g'alaba qilasan-u, undan foydalanishni bilmaysan**" degan ekan.

Kanna jangidan so'ng rimliklar katta janglarga kirmay, kichik janglar bilan karfagenliklarga va ular tomoniga o'tgan shaharlarga hujum boshlaydi. Mil.avv. 204-yili urush harakatlari Karfagenga ko'chadi.

Rimning yosh iqtidorli lashkarboshisi **Stipion** mil. avv. 202-yili Zama shahri yaqinidagi jangda Italiyadagi 15 yillik urushlarda mag'lubiyatga uchramagan sarkarda **Gannibal** qo'shinini yengadi. Oradan bir yil o'tib tuzilgan sulhga binoan Karfagen Afrikadan chetdagi koloniyalarni, harbiy dengiz flotini, jangovor fillarini Rimga beradi. Sulhda Karfagenning katta tovon to'lashi ham ko'zda tutilgan. Shu tariqa Rim O'rtayer dengizining g'arbida o'z hukmronligini o'rnatadi. Ammo tez orada o'zini tiklab, mustahkamlanib olgan Karfageni Rim o'zining xavfli raqibi deb hisoblashda davom etadi.

Karfagenda bo'lib, uning ko'p sonli kemalari, dengiz portlaridan savdo mollarini, aholisining boyliklarini ko'rib qaytgan senator Mark Katon, uni butunlay yakson qilishga unday boshlaydi. Katon senatdagi har bir chiqishini: "**Men har holda Karfogeni vayron qilish kerak deb o'ylayman**" degan so'zlar bilan tugatar edi. **Uchinchi Puni urushi** mil. avv. 149-yili boshlanib, 3 yillik qamaldan so'ng olingan Karfagen yo'q qilinib, o'rnida Rimning Afrika viloyatlari tuziladi.

### O'rtayer dengizi egalari

Karfagen ustida erishilgan g'alabadan so'ng Rim O'rtayer dangizining sharqiy sohilidagi: Makedoniya, Suriya va Misrni bo'ysundirgan. Ellin davlatlaridan biri Makedoniyani Rim o'zining ashaddiy dushmani hisoblagan. Rimliklar Makedoniyaga qarshi kurashda ustalik bilan ish yuritib, yunon polislarga o'zini haloskor, do'st qilib ko'rsatadi. Rim konsuli legionlari mil. avv. 197-yili Makedoniya podshosi Filipp V ni mag'lub etib, uni Yunonistondan o'z qo'shinlarini olib chiqishga majbur etadi.

Ko'p o'tmay Rim Suriyaga urush e'lon qilib, Kichik Osiyoga qo'shin tushiradi. **Magneziya shahri** yaqinidagi mil. avv. 190-yilgi jangda Rim Antiox qo'shinini tor-mor etadi. Suriyaning qudrati uzil-kesil sindiriladi.

Bu g'alabadan so'ng senat Makedoniyani uzil-kesil bo'ysundirishga qaror qiladi. **Pidna jangida** mil. avv. 168-yili Rim legionlari so'nggi makedon podshosi Persey qo'shinini mag'lub etadi. Rim senati Makedoniya va uning ittifoqchilari yerlarini 4 qismga bo'lib, har birini alohida respublika deb e'lon qiladi. Bu g'alaba uchun konsul **triumf** – Rimga tantanali kirib kelish huquqini oladi. Tantana kunlari harbiy sarkarda **imperator** (lotincha – **hukmdor, bosh qo'mondon**) faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Makedoniya ustidan dastlabki g'alabadan so'ng Rim, yunon polislarni erkin deb e'lon qilgan edi. Ammo yunonlar hursandchiligi uzoq cho'zilmay rimliklar o'zlarini istilochilar singari tuta boshlaydi. Yunonlar qo'llariga qurol olib, bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashsada mag'lubiyatga uchraydi. Rim esa Yunonistondan ko'plab boyliklar, san'at asarlarini olib ketadi. Yirik savdo markazi **Korinf** rimliklar tomonidan beayov talanib, yakson qilib tashlanadi. Bu voqea Karfagen yo'qotilgan, mil. avv. 146-yili sodir bo'ladi.

Mil. avv. III asrda rimliklar qadimda **Iberiya** deb nomlangan **Ispaniyani** istilo qila boshlagan.

Iberiya Periney yarimorolining janubida joylashgan mamlakat bo'lib, temir, kumush va qimmatli ma'danlarga boy konlari rimliklarni o'ziga jalb qilardi. Rimliklar mil. avv. 206-yilda Iberiya sohillarini egallash uchun kelganlarida, mahalliy aholining qattiq qarshiligiga duch kelganlar. Periney yarimorolidagi aholini bo'ysundirish oson kechmay, mil. avv. 154-yili **Liberiyada**, mil. avv. 150-yili **Luzitaniyada** (hozirgi *Portugaliya*) bosqinchilariga qarshi qo'zg'olonlar bo'ladi. Mil. avv. 133-yili Numansiya shahrini olishi bilan, Rim Perineyda ham to'liq hukmronligini o'rnatadi.

Istilochilik urushlari natijasida O'rtayer dengizi havzasida o'z hokimiyatini o'rnatgan Rim, ularni o'z viloyatlariga aylantirib konsullari orqali idora qila boshlaydi. Shu davrda Rim Yevropadagi va jahondagi eng yirik va kuchli quldorlik davlatiga aylanadi.

**Tiberiy Grakx va uning yer haqidagi qonuni**

Istilochilik urushlari Italiya dehqonlarini o'z xo'jaligidan ajratadi. Yurishlardan qaytgan dehqon – legionerlar ko'pincha qarzga botib o'z yerlarini yo'qotgan. Dehqonlarning yerlari esa urushlardan boyib ketgan aslzodalar, harbiy yo'lboshchilar va savdogarlar qo'liga o'tib, ularning ko'p sonli qullari tomonidan ishlov berila boshlanadi. Ilgari yirik zamindorlar yerlarini yersiz yoki kam yerli dehqonlar olib ishlatgan bo'lsa, endilikda bu yerlarda istilolar davomida keltirilgan qullarning ishlatilishi vaziyatni yanada og'irlashtiradi. Rim jamiyatida norozilik kuchayib borardi. Dehqonlar yerni qayta taqsimlashni talab qila boshlaydi.

Rim aholisi mil. avv. 133-yili xalq tribunligiga, nomdor plebeylar oilasi vakili, **Tiberiy Grakx** (mil. avv. 162–133-yillar)ni saylashadi. Grakx katta yer egalari o'tgan jamoa yerlarining bir qismini davlatga qaytarib, uning hisobidan kambag'al dehqonlarga yer taqsimlab berish loyihasini taklif etadi. Islohotga ko'ra bu yerlarni sotish man etilgan bo'lib, ular dehqon bolalariga meros bo'lib o'tardi. Tiberiy o'z loyihasini xalq majlisida tasdiqlatib oladi. Tiberiyning bu islohotlariga ukasi **Gay Grakx** ko'maklashgan. Ammo senat Tiberiy loyihasini rad etgan. Senatorlar Tiberiy nutq so'zlayotgan xalq majlisiga kelib unga hujum qilganlar. Ular Tiberiy va uning sheriklaridan 300 kishini so'yil tayoqlar bilan urib o'ldirib, jasadlarini Tibr daryosiga tashlab yuborganlar. Kambag'allarning jonkuyari Tiberiy kaltaklab o'ldirilganda 29 yoshda edi.

Tiberiyning o'ldirilganidan so'ng uning ishini ukasi Gay Grakx (mil. avv. 153–121-yillar) davom ettiradi. Mil. avv. 123-yilda u xalq tribuni bo'lish uchun o'z nomzodini qo'ygan va bu lavozimga saylangan. Uning say-harakatlari bilan minglab dehqonlar yer uchastkalari olgan. Shaharning kambag'al aholisiga davlat omborlaridan arzon g'alla sotishga erishiladi. Ammo rimlik boylar Gayga nafrat bilan qarab, uni 3-marta tribunlikka saylanishiga har tomonlama qarshi kurash boshlaydi. Senat ham uning takliflarini o'tkazmaslikka harakat qiladi.

Saylovda yutqazgan Grakx va uning tarafdorlari o'z islohotlarini kuch bilan himoya qilmoqchi bo'ladilar. Senat Rimga qo'shin kiritadi. To'qnashuvda Grakxning tarafdorlaridan 3 ming kishi halok bo'ladi. Gayni esa, o'zining buyrug'iga binoan sadoqatli quli o'ldiradi.

Ko'p vaqt o'tmay yer maydonlarini sotishga ta'qiq bekor qilinadi. Boylar yana kambag'allar yerlarini sotib ola boshlaydilar. Natijada Rim respublikasida dehqonlarning xonavayron bo'lishi davom etadi.

**Spartak qo'zg'oloni**

Rimning istilolari zabt etilgan mamlakatlar faqat boyliklardan emas, ko'psonli arzon ishchi kuchi – qullarni ham keltirilishiga zamin yaratadi. Natijada deyarli har bir Rim fuqarosining qullari bo'lgan. Birorta ham quli bo'lmaslik qashshoqlik belgisi hisoblangan. Qullar boylarning yerlarida, uy-xo'jalik ishlarida, ularni himoya qilishda, vaqtini xush o'tkazishda mashg'ul bo'lgan. Qul huquqsiz bo'lib, unga xo'jayin o'z buyumi sifatida qaragan.

Qul uchun eng qattiq jazo uni, konda ishlash yoki gladiatorlar maktabiga sotib yuborish hisoblangan. Bunday maktablarda qullar qurol-yarogʻ ishlatishga oʻrgatilib oʻlim janglariga tayyorlangan. Italiya va viloyatlarda qurilgan minglab tomoshabin sigʻadigan amfiteatrlarda gladiatorlar: dubulgʻa, zirx, qalqon va boshqa himoya kiyimlarini kiyib qilich, nayza, xanjarlar bilan yakkama-yakka yoki gladiatorlar guruhlarida jang qilganlar.

Jangda yengilib tirik qolgan gladiatorlarning taqdirini tomoshabinlar hal etganlar. Agar tomoshabinlar qoʻlining bosh barmogʻini yuqoriga qaratsa jangchi omon qolib, keyinchalik yana arenaga tushirilgan. Agar gladiator tomoshabinlarga negadir yoqmagani boʻlsa va bosh barmoq pastga qaratsa baxtiqaro oʻldirilishi lozim boʻlgan.

Qullar bunday xoʻrlik va kamsitishlarga qarshi qoʻzgʻolonlar ham koʻtarganlar. Qadimgi dunyoning eng katta qullar qoʻzgʻoloni mil. avv. 74–71-yillari, Rimda eng koʻp sonli qullarga ega boʻlib azob-uqubatlarga duchor etilgan mamlakatda roʻy bergan. Kapuyadagi gladiatorlar maktabida yashirin til biriktirilgan 70 dan ortiq qullar qochishga muvaffaq boʻlishadi. Ularga Frakiyada (Bolqon yarimorolida) tugʻilib oʻsgan va u yerdagi urushlarda asirga olingan Spartak boshchilik qiladi. Qoʻriqchilarga hujum qilib, qochishga muvaffaq boʻlgan 78 ta gladiatorlar, Vezuviy togʻlarida oʻzlariga qarorgoh barpo etadilar. Mil. avv. 73-yili qoʻzgʻolonchilar soni 10 mingga yetadi. Yoʻlboshchilikka saylangan Spartak qurol-aslahaga tayyorlab, dushmanlari harbiy tajribasi asosida toʻplanganlarni janglarga tayyorlaydi. Mustahkam qarorgoh, ogʻir qurollangan piyodalar, soqchilar boʻlinmalari barcha-barchasi Rim legionlaridagi kabi tuziladi. Natijada keyinchalik Spartak lashkari Rim legionlari ustidan 5 marta gʻalaba qozonadi. Mil. avv. 71-yili lashkarboshi Krass qoʻshinlari bilan **Burundziy shahri yaqinidagi jangda** Spartak halok boʻladi. Jang maydoniga oʻz qoʻshini bilan yetib kelgan Pompey, qoʻzgʻolonchilardan 6 mingini Kapuyadan Rimgacha yoʻl ustida ustunlarga tiriklayin mixlatadi.

Qadimgi dunyoning eng katta qullar qoʻzgʻoloni butun Rim dunyosini larzaga keltiradi.

## RIM SALTANATI

### Uchlar ittifoqining tashkil topishi

Mil. avv. 80–60-yillarda Rim yollanma qoʻshinlarining kuchayishi natijasida harbiylarning mavqeyi oshadi. Urush koʻrgan harbiy arboblarning senat topshirigʻiga binoan alohida legionlar tuzadilar. Bu legionlar taʼminoti lashkarboshilar zimmasida boʻlib, urush oʻljalarning bir qismi ham jangchilarga taqsimlab berilgan. Rim quldorlari mamlakatda harbiylar boshqaradigan hokimiyatni barpo qilmoqchi boʻlganlar. **Spartak qoʻzgʻolonini** bostirgan **Krass** eng mashhur kishilar qatoriga chiqadi. Suriya istilochisi lashkarboshi **Pompey** esa senat tomonidan harbiy flot va quruqlikdagi qoʻshin qoʻmondoni etib tayinlangan. Plebeylar **Gay Yuliy Sezarni** qoʻllashgan. Mil. avv. 60-yillar oʻrtalarida: Pompey, Krass va Sezarlar **“uchlar ittifoqi”** – **“triumvirat”** ni tuzib Rimni birgalashib boshqarishga yashirincha kelishib olishadi.

Pompey, Krass va plebeylar koʻmagida konsullikka saylangan Sezar: aqlli, yaxshi maʼlumot olgan ajoyib notiq shaxs boʻlgan. Konsullik muddati tugaganidan soʻng uni Galliya noibligiga tayinlashadi. Alporti Galliyasida oʻn yilcha urush harakatlari olib borgan Sezar, uni Rim viloyatiga aylantiradi.

Galliyadagi urushlar Sezarga lashkarboshi sifatida shuhrat keltiradi. U katta boyliklar va sadoqatli qoʻshinga ega boʻladi. Krass Sezardan qolishmaslik uchun Parfiyaga qarshi qoʻshin tortadi. Ammo mil. avv. 53-yili jangda yengilib halok boʻladi. Vujudga kelgan vaziyatda Pompey senatni Sezarni oʻz qoʻshinini tarqatib yuborib, qurolsiz Rimga qaytishi va oʻz faoliyatini

izohlashi qarorini qabul qilishiga erishadi. Rad javob bo'lgan taqdirda Sezar *“davlat dushmani”* deb e'lon qilinishi lozim edi.

Senat qarorini eshitgan Sezar qo'shini bilan Galliyani Italiyadan ajratib turadigan Rubikon daryosi sohiliga kelib, chuqur o'yga toladi. Uning mashhur *“qur'a tashlandi”* so'zlari Rimga yurishning boshlanishini anglatadi. Shu tarzda mamlakatda fuqarolar urushi boshlanadi. Rimni qarshiliksiz egallagan Sezar Pompeyni ta'qib etib uning qo'shinlarini (Bolqon yarimorolida) mag'lub etadi. Misrga qochib o'tgan Pompey o'sha yerda o'lim topadi. Sezar esa Misrdagi o'zaro urushlarga aralashib malika Kleopatrani qo'llaydi va unga taxtni olib beradi. Kichik Osiyo, Afrikadagi urushlarda g'olib chiqqan Sezar, Ispaniyada Pompeyning o'g'illari ko'targan qo'zg'olonlarni bostirib, fuqarolar urushini yakunlaganidan so'ng poytaxtga qaytadi.

U o'zining xalqqa bergan va'dalaridan bir qismini bajarishga kirishadi. Italiya va viloyatlardan o'n minglab veteran jangchilarga yer-mulklar beradi. Uning taklifiga binoan Korinf va Korfagen qaytadan tiklanib, ularga ko'plab mulksiz fuqarolar ko'chiriladi.

Sezar o'zini Rimning mutloq hukmdori – imperatori deb e'lon qiladi. Rimda birinchi marta oltin pul – dinor zarb qilinadi. Yangi Yulian taqvim joriy etiladi. Shu tariqa Rimda respublika tuzumi bekor qilinib Sezarning yakka hokimligi o'rnatiladi.

Ammo Rim senatida, Sezarning yakka hokimligidan norozi va respublikani tiklash tarafdorlari, g'animlari ham bo'lgan. Ular Sezarni o'ldirish payiga tushadilar. Fitna tashkil etib, mil. avv. 44-yili 15-martda senatda **Kassiy** va **Brut** Sezarni pichoqlab o'ldiradilar.

### Oktavian Avgust

Sezarning qotillariga qarshi uning do'sti konsul **Antoni** chiqadi. Senatda qo'llanmagan qotillar xalq g'azabidan qo'rqib Bolqon yarimoroliga qochadilar. Ular Rimda respublika tuzishni tiklash uchun qo'shin to'play boshlaydilar. Natijada Italiyada yana fuqarolar urushi boshlanib, unda **Sitseron** boshchiligidagi respublikachilarga qarshi Sezar tarafdorlari kurashadi.

O'sha paytda Rimda yana bir kishi 18 yoshli **Oktavian** ko'pchilikka taniladi. Sababi Sezar uni o'z vasiyatida tutingan o'g'li deb, Oktavianga barcha mol-mulkini qoldirgan edi. Antoni va Oktavian dastlabki paytdanoq bir-birini yoqtirmasa-da, umumiy raqib respublikachilarga qarshi mil. avv. 43-yili ittifoq tuzib birgalikda kurashishga majbur bo'ladilar. Ittifoqqa lashkarboshi Emiliy Lepid ham qo'shiladi. Mil. avv. 42-yili Makedoniyadagi **Filippa shahri** yaqinida Kassiy va Brut qo'shinlari tor-mor etilgach Rim imperiyasi yerlari uchga bo'linadi. Oktavianga mamlakatning g'arbiy viloyatlari, Antoniyya sharqiy hududlar, Lepidga esa Shimoliy Afrika tegadi.

Mark Antoni taqdirida Misr malikasi **Kleopatra** katta o'rin tutadi. Jozibali, yuksak ma'lumotli, bir necha tillarni biladigan Kleopatraga Antoniyya Sezarning o'limidan so'ng uylanadi.

Mil. avv. 31-yili Antoni va Oktavianning harbiy dengiz flotlari Bolqon yarimoroli g'arbiy sohilida to'qnashadi. Jang qizigan paytda Kleopatra Misr flotiga chekinishni buyuradi. Antoni jang maydonini qoldirib, eng tezsuzar kemada uning ketidan tashlanadi. Lashkarboshisiz qolgan flot yengilib bu haqda Misrda xabar topgan Antoni, o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'ladi. Rim qo'shinlari Misrni egallaydi. Kleopatra isnodan o'limni afzal ko'rib zahar ichadi. Misrni istilo qilgan Oktavian uni Rim viloyatiga aylantiradi.

Mil. avv. 30-yildan Oktavian Rimni yakka o'zi imperator sifatida boshqaradi. Fuqarolar urushi yakunlangani e'lon qilinib Italiya va uning viloyatlarida tinchlik o'rnatiladi. Oktavian davridan mamlakat Italiya deb atala boshlangan. Senat unga Avgust – *“Muqaddas kishi”* – degan faxriy nom bergan. Avgust Rimni yuksaltirishga harakat qilgan. Undagi barcha respublika hokimiyati tizimlari: senat, xalq yig'ini, saylanuvchi magistratlarni saqlab qoladi. Oktavian Italiyaning

barcha aholisini Rim fuqarolari ro'yxatiga kiritadi. Italiya shaharlarining eng taniqli vakillari senatga kiritiladi. Rimliklar istilochilik urushlarini to'xtatib, o'z chegaralarini mustahkamlashga o'tadi. Imperator mil. avv. 14-yili vafot etadi. Oktavian paytidan davlatni bir-birini almashtirgan imperatorlar boshqarganidan, Rim imperiya deb atala boshlanadi.

## RIM IMPERIYASI MILODIY ASR BOSHLARIDA

**Avrust** davrida barpo etilgan Rim Imperiyasi yana bir necha asr yashaydi. Uning hududlari g'arbda Atlantika okeanidan, sharqda Mesopotamiyagacha, janubda Nil ostonalaridan, shimolda Britaniya orollariga qadar yerlarni qamrab olgan edi. Ushbu davr ichida tarix, nazoratsiz yakka hukmronlik, turli iqtidordagi kishilarni hokimiyatda bo'lishi mumkinligini tasdiqladi.

Imperatorlar orasida **Neron** (54–68-yillar) eng dahshatlisi bo'lgan. Malika **Agrippinaning** avvalgi eridan bo'lgan **Neron**, onasi imperator **Klavdiy**ni zaharlab o'ldirganidan so'ng taxtga kelgan. U o'zini buyuk shoir, qo'shiqchi va aktyor hisoblagan. Neron taxtga 17 yoshida o'tirib o'ziga o'xshash muttaham do'stlari bilan kechasi shahar-ko'chalarida qaroqchilik qilgan. Imperator va uning hamrohlari uylariga qaytayotgan senatorlarni kaltaklab, pullari va qimmatbaho buyumlarini tortib olganlar. Neronning shafqatsizligidan senatorlardan tortib qulgacha barcha-barcha aziyat chekkan. Kunlardan birida Rimlik boy quli tomonidan o'ldirilganda, qonun bo'yicha faqat aybdor emas, ushbu xonadondagi boshqa 400 qul ham o'ldiriladi.

Neron, maslahatlari bilan jig'iga tegavergani uchun onasini, boyliklarini egallash uchun qari xolasini, xalq muhabbatiga sazovor bo'lgan u uchun mayus xotini **Oktaviana** o'ldirgan. Boylarni u mol-mulki, iste'dodli kishilarni – ularni qobiliyatiga rashq qilib, senatorlarni – har qanday mashhur insonlarni ko'ra olmaganidan o'ldirilgan.

Rimda 64-yili yong'in chiqib, shahardagi 14 rayondan 3 tasi butunlay kuyib ketadi. Yong'in paytida minglab kishilar halok bo'lgan. Shaharda yong'inni Neronning o'zi tashkil qilgani haqida mish-mishlar tarqaladi. Ularni oldini olish uchun “aybdorlar” ham topiladi. O'zlarini xristianlar deb ataydigan, qullar va kambag'allarning bir guruhi yong'inni uyushtirgan deb e'lon qilinadi.

Oradan 3 yil o'tib Neron Yunonistondagi olimpiya o'yinlarida jang aravalari poygasida qatnashib mukofotlar oladi. Buning sharafiga u Yunonistonni ozod deb e'lon qiladi.

Rimliklar sabr-bardoshi tugab 68-yili Neronga qarshi viloyatlardagi qo'shnlarda qo'zg'olonlar boshlanadi. Imperatorlardan hatto maxsus harbiy bo'linmasi ham yuz o'giradi. Dushmanlari qo'liga tushushni istamagan Neron xizmatkoriga o'zini o'ldirishni buyuradi. Xanjar sanchilgan imperator *“Qanday buyuk artist halok bo'lmoqda!”* – deb joni uzilgan deyishadi.

*“Imperatorlar orasida eng yaxshisi”* nomini olgan **Troyan** Rimni 98–117-yillari boshqargan. Uning boshqaruvi paytida imperiya so'zining so'nggi keng ko'lamdagi istilochilik urushlarini olib boradi. Troyan Dunay sohillarida yashagan daklarni, so'ngra Parfiyaga qarshi urushib Ikki daryo oralig'ini bosib oladi.

Uning davrida mulkdorlar yerlari ko'payib, qullar mehnatini nazorat qilish tobora murakkablashib boradi. Natijada ayrim yer egalari o'z ekinzorlarini mayda yer maydonlariga bo'lib, atrofda yashagan kambag'allarga ijaraga bera boshladilar. Bunday yer olganlarni Rimda **kolonlar** deb atashgan. Ba'zida yer maydonlari, ish hayvonlarini qullarga ham berilib, ularga mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. *“Kulbali qullar”* kolonlar kabi xo'jayinga hosilning ma'lum bir qismini topshirgan. Bunday qullar faqat yer maydonlari bilan birga sotila boshlanadi.

Troyan davrida yashirin ma'lumot asosida qatl etishlar to'xtatiladi. Tarixchi **Tatsit**ning yozishicha: *“Kamdan-kam uchraydigan; har kim istagan narsasini fikrlashi va xohlagan narsasini gapirishi mumkin bo'lgan baxtli yillar boshlanadi”*.

**Rim Diolektiandan  
Konstantingacha**

Rim – imperiyaning eng yirik shahri bo‘lib uni abadiy, oltin deb atashgan. Shaharni xudolar va imperatorlar haykallari, ibodatxonalar, saroylar, ko‘p sonli favvoralar bezab turgan. Zafar arkalari va ustunlari uning hukmdorlari g‘alabalaridan xotira edi.

Inshootlar ichida I asr so‘ngida qurib bitkazilgan ulkan va mahobatli **Kolizey** alohida ajralib turgan. Unda 50 ming tomoshabin huzurida gladiatorlar janglari o‘tkazilgan. **Panteon** – “*barcha xudolar ibodatxonasi*” insonni hayratga solsa, Troyan ustunlari, **forumi** – me‘morchilik inshootlari kompleksi, daklar ustidan g‘alaba sharafiga bunyod etilgan bo‘lib, o‘zining ulug‘vorligi hamda nafosati bilan ajralib turgan.

Boy-badavlat rimliklar bahavo tepaliklarda qurilgan hashamatli uy-hovlilarida yashaganlar. Ko‘pchilik aholisi esa boylarga tegishli 5–6 qavatli uylardan ijaraga olingan uylarda istiqomat qilishgan. Rimliklar shahardagi mingga yaqin, kirish narxi arzon hammomlar – **termlarda**, deyarli har kuni bo‘lishgan. Imperatorlar buyrug‘iga binoan tuzilgan ro‘yxat bo‘yicha kambag‘allarga bepul g‘alla tarqatilgan. Ularga tomoshalar ham bepul ko‘rsatilgan.

Rimning boshqa shaharlari haqida tarixchi Aristid shunday yozgan: “*Bizning davrimizda barcha shaharlar chiroyi va ko‘rkamligi bo‘yicha o‘zaro raqobatlashishi mumkin. Barcha shaharlarda ko‘plab maydonlar, vodoprovodlar, ibodatxonalar, hunarmandchilik ustaxonalari, maktablar mavjud. Shaharlar chiroyi jilvalanib, barcha maydonlar bog‘ kabi gullarga burkangan*”.

Ammo III asrdan imperiyaning tinchligi buziladi. Viloyat noiblari markazga bo‘ysunmay imperatorlik taxtiga, da‘vo bilan chiqa boshlaydi. Qo‘shin qonunga bo‘ysunmaydi. Shu tariqa 284-yili qo‘shinlardan birining qo‘mondoni, ozod etilgan qulning o‘g‘li bo‘lgan, **Diokletian** taxtga keladi. U juda aqlli va iste‘dodli inson bo‘lgan. Diokletian davlatni o‘zi tayinlagan amaldorlar orqali boshqarib, respublikaga xos mansablarni tugatadi. Imperatorning aytgani hamma uchun qonun hisoblana boshlanadi. Vaqt o‘tib imperator o‘zini bosh xudo *Yupiterning* o‘g‘li deb e‘lon qilgan.

Diokletian saltanatini mustahkamlash uchun qator islohotlar o‘tkazadi. Imperiya 12 ta o‘lkaga, 114 ta viloyatga bo‘linadi. Ularga ishonchli noiblar tayinlanadi. Yer solig‘i qayta ko‘rib chiqiladi. Ammo davlat amaldorlari soni ko‘payishi xarajatlarni ko‘paytirib Rim imperiyasini yana zaiflashtirgan.

Mavjud vaziyatda Diokletian hokimiyatidan voz kechib Rimdan ketishi bilan taxt uchun kurash yana kuchayadi.

Lashkarboshilar orasidagi kurashda – **Konstantin** g‘olib chiqib, (306–337) taxtni egallaydi. U hokimiyatni hech kim bilan bo‘lishib o‘tirmasdan, barcha raqiblarini, ittifoqchilari va hatto o‘z o‘g‘lini o‘limga buyurgan. Konstantin davrida qo‘shinning soni ko‘payadi. Unda rimliklar bilan bir qatorida viloyatlardan–gallar, germanlar, suriyaliklar ham olina boshlanadi.

Kolonlar ahvoli og‘irlashadi, endi ular hosilning ma‘lum qismini yer egasiga berishdan tashqari, imperiya xazinasiga ham soliq to‘lay boshlaydi. Umidsizlikka tushgan kolonlar yerlarini tashlab qocha boshlaydi. Bu jarayonni to‘xtatish uchun imperator kolonlarni yerga birkiritib, ularning farzandlariga o‘zlari tug‘ilgan joyida qolib otasining ishini davom ettirishi haqida farmon chiqaradi.

Konstantin davrida imperiyaning deyarli barcha viloyatlarida xristianlar bo‘lgan. Ular o‘zlariga **yepiskop** (yunoncha “*nazoratchi*”) larni, boshliqlarni saylashgan. Xristianlar Rim davlati uchun xavf solmasligini tushungan Konstantin 313-yili ularga oshkora sig‘inish, ibodatxonalar qurishga ruxsat beradi. Uning bu xizmatlari keyinchalik cherkov tomonidan yuqori baholanib, Konstantinga Avliyo nomi berilgan. Yoshligi Galliya va Britaniyada o‘tgan imperator Rimni unchalik xush ko‘rmagan va natijada u Bosfor bug‘ozi sohilidagi yunonlarning Vizantiya shahrini o‘n yil

davomida qayta qurdirib, 330-yili poytaxtni Rimdan Konstantinopol deb atala boshlangan shaharga ko'chiradi.

### So'nggi Rim imperiyasi

395-yili Rim 2 davlatga – **Sharqiy Rim** va **G'arbiy Rim** imperiyalariga bo'linadi. Ko'p o'tmay imperiyaning g'arbiy hududlariga **Alarix** yo'lboshchiligidagi jangari **got qabilalari** bostirib kiradi. Alp tog'lari etaklarida dushmani germanlarning vandal qabilasiga mansub bo'lgan ajoyib lashkarboshisi **Stilixon** qarshi oladi. U got qo'shinlarini tor-mor etib, Alarix jang maydonidan faqat o'tliqlarini olib ketadi, xolos.

Shundan so'ng gotlar yana katta qo'shin to'plab Rimga yurish boshlaydi. Rimda esa yosh imperator Gonoriy yolg'on gaplarga ishonib, sotqinlikda ayblangan Stilixonni qatl ettiradi. Bunday adolatsizlikdan g'azablangan Rim legionlarining 20 ming varvar yollanma jangchisi Alarix tomoniga o'tib ketadi.

Stilixonning o'limidan so'ng Alarixga munosib raqib qolmay, uning qo'shinlari Rimni qamal qiladi. Layoqatsiz **Gonoriy** esa Rimni tashlab, qochib aholini varvarlar talonchilariga muttalo etadi. Gotlar 410-yilning avgustida Rimni olib uch kun talaydilar. Talonchilikdan faqat xristian ibodatxonalari va ularda yashiringan odamlar omon qoladi.

Zaiflashib qolgan Rim, V asr o'rtalarida xunnlarga qarshi kurashadi. Xunlar yo'lboshchisi Atilaning o'limidan so'ng;; milodiy 455-yili shaharni egallagan vandal qabilalari uni ikki hafta talab vayron qiladi. Vandallarning Rimdagi tarixiy obidalarni yakson qilishdi, "**vandalizm**" so'zini insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni buzish va yo'q qilishiga aytiladigan bo'ladi. 476-yilda german qabilalarining sarkardasi Odoakr G'arbiy Rim imperatori 15 yoshli Romul Avgustulni taxtdan ag'darib tashlaydi va G'arbiy Rim imperiyasiga barham beradi. G'arbiy Rim imperiyasining tarix sahnasidan ketishi bilan **Qadimgi dunyo tarixi** ham o'z nihoyasiga yetadi.

## QADIMGI RIM MADANIYATI VA DINI

Etrusklar mil. avv. VIII–VII asrlarda yaratgan yozuv unutilib, keyinchalik Finikiya yozuvi asosidagi lotin alifbosi tuziladi. Uning yordamida rimliklar papirusdan qog'oz sifatida foydalanib o'zlarining o'rama shaklidagi kitoblarini yaratishgan.

Rimliklar ham ilmiy bilimlarni yuksaltirishga intilganlar. Ular quyosh va suv soatlari, taqvim yaratganlar. Mil. avv. I asrda yashagan **Lukretsiy Kar** "**Buyumlar xislati haqida**" dostonida; odamlar va narsalarning paydo bo'lishini ilmiy asoslab berishga intilgan. U insoniyatning o'tmishdagi hayotini: tosh, mis va temir davrlariga bo'lgan.

Rim-Italiya adabiyotining "**oltin davri**" hisoblangan mil. avv. I asrda: **Vergiliy** "**Georgiklar**", "**Eneyda**", **Ovidiy Nazon** "**Ishq san'ati**", "**Dard-alamlar**" dostonlarini yozishgan. Bu asarlar hozirga qadar jahon adabiyoti durdonalari hisoblanadi.

Qadimgi Rimda ajoyib tarixiy asarlar yaratilgan. **Tit Liviyning** "**Rimning ta'sis etilganidan buyongi tarixi**". **Yuliy Sezarning** "**Gall urushlari haqida yozmalar**", "**Fuqarolar urushi haqida yozmalar**". **Karneliy Tatsitning** (50–120) "**Tarix**", "**Germaniya**" va yana ko'plab asarlar Rim tarixini o'rganishda qimmatli manbalardir.

Rimda tibbiyot ham yaxshi rivojlangan. Eng mashhur tabiblar: **Asklepiad** (131–56) asli yunonistonlik. Bemorlarni jismoniy chiniqtirish, toza havo va uqalash bilan davolash usullarini yaratgan. **Korneliy Sels** "**Tibbiyot haqida**" asarini yozgan. **Klavdiy Galen** (131–201) Asklepiton tibbiyot maktabini tugatgan, 400 dan ortiq asar yozgan. Eng mashhurlari: "**Davo usullari**", "**Tabiblik san'ati**", "**Dorilarning tartibi haqida**" va hokozolar.

Rimliklar qadimda ko'plab xudolarga sig'inganlar. Xususan etrusklar davridan: *Yupiter*, *Minerva*, *Mars* kabi xudolar bo'lgan. Bosh Xudo *Yupiter* bo'lsa, *Miner* va donishmandlik, *Mars* urush xudosi va Rim homiysi hisoblangan. Yunonlar Apennin yarimoroliga mil. avv. 2-mingyillikdan kelib joylasha boshlaganlaridan so'ng ularning madaniyati va dini italiyaliklarga kuchli ta'sir qila boshladi.

Asrlar o'tib rimliklar o'z xudolariga yunonlarniki kabi xislat va xususiyat bera boshlaydilar. Ular **Yupiter**ni *Zevsga*, **Yunonani** *Geraga*, **Venerani** *Afroditaga*, **Dianani** *Artemidaga*, **Marsni** *Aresga*, **Minervani** *Afinaga* va **Vulkanni** *Gefestga* qiyoslaganlar. Yevropa, Osiyo va Afrikadagi keng hududlar istilo qilinishi davomida Rim saltanatiga turli diniy e'tiqodlarga mansub aholi birlashtirilgan.

Milodiy I asr boshlarida Yaqin Sharqda Falastinda **Bibi Maryam**dan bir chaqaloq tug'iladi. Unga **Iso** deb nom qo'yadilar. U o'sib ulg'ayib payg'ambarlik darajasiga erishadi. U qishloqma-qishloq yurib yakka xudoga e'tiqod qilishni targ'ib qiladi. Rivoyat qilishlaricha, Iso murdalarni tiriltirar, kasallarni tuzatar va turli mo'jizalar qilishga qodir edi. U boylarni insofga, kambag'al-bechoralarni esa sabr-toqatga undaydi.

Bu paytda Falastin Rim noibi **Pontiy Pilat** tomonidan boshqarilib, u Isoni xavfli jinoyatchi topib butga qoqtirishni buyuradi. Butdan olinib dafn qilingan Isoning mayiti uchunchi kuni tiriltirib arshi-a'loga olib ketiladi.

Iso haqidagi rivoyatlar yozib olinib, I asr oxiri – II asr boshlarida "**Yevangeliye – xushxabar**" deb nomlanadi. Asta-sekin xristian dini mazlum xalq: qullar va kambag'allar orasida keng yoyilib boradi. Xristianlarning asosiy bayramlari Insoning tug'ilishi "**Rojdestvo**" 25-dekabr va qayta tirilishi me'roji aprelda "**Pasxa**" sifatida bayram qilina boshlanadi.



## QADIMGI RIM

mil.av.VIII a — mil.476-y.

*Etrusk, ligur, lotin, venet, osk, samniy*  
Italiya - «buzoqlar mamlakati»

Rim respublikasi davri  
mil.av.510 — 49-y.

Rim saltanati davri  
mil.av.49-y. — mil.476-y.


- ◆ 80–100 ming yillar ilgari — odamlar yashagan.
- ◆ **Etrusklar** — rim «*tusklar*», yunon «*tiren*», o'zlari «*rasen*».
- ◆ **Mil.av.VIII—VI a.** — Padus bilan Tibur daryosi oralig'ida yashagan.
- ◆ **Luxomon** — hukmdor.
- ◆ **Latus** — qaram kishilar.
- ◆ **Dastlabki davlati** — 12 shahar-davlat ittifoqidan iborat bo'lgan.
- ◆ **Mil.av.VIII a.** — Rim va Kapuya sh. tashkil topgan.
- ◆ **Mil.av.VII—VI a.1-yarmi** — etrusklar jamiyati kuchayishi.
- ◆ **Mil.av.VI—V a.** — shaharlarning mavjudligi Ilva, Korsika, Kampaniyaning bir qismini bosib olinishi.
- ◆ **Mil.av.VI a.oxiri** — shimoldan gall, janubdan yunonlar bostirib kirishi.
- ◆ **Mil.av.524-yil** — Qum sh. tirani Aristodem etrusklarni tor-mor etishi, Aritsiya yonida etrusklarning mag'lub bo'lishi.
- ◆ **Mil.av.474-yil** — yunonlar Qum sh. etrusklar flotining tor-mor etishi.
- ◆ Etrusklarga qarshi qo'zg'olon.

- ◆ **Mil.av.753-yil** — Rim shahriga asos solinishi.
- ◆ **Lotin, sabiyon, etrusk** — Rimning qadimgi aholisi.
- ◆ **Patrisiy** — Rimning qadimgi aholisi.
- ◆ **Pleybiylar** — Italiyaning boshqa joylaridan Rimga ko'chib kelgan odamlar va ularning avlodlari.
- ◆ Rimni dastlab *senat* va *podsho* idora qilgan.
- ◆ **Senat** — «qosoqlar kengashi».
- ◆ **Mil.av.510—509-yillar** — Rimning mahalliy aholisining qo'zg'olon ko'tarishi, podsho hokimiyatining yo'q qilinishi.
- ◆ **Respublikaning o'rnatilishi.**
- ◆ **Xalq kengashi** — oliy hokimiyat bo'lib, patrisiyalardan 2 kishini 1 yilga *konsul*-hokim etib saylagan.
- ◆ **Mil.av.V—IV a.** — plebeylar o'z huquqlari uchun kurashda katta g'alabaga erishishi.
- ◆ **Xalq tribunolari** — plebeylarning himoyachilari, ular — veto huquqlariga ega bo'lgan.
- ◆ **Mil.av.445-yil** — *Rimdagi huquqlar majmuasini to'planib, tartibga solinishi.*
- ◆ **Mil.av.449-yil** — 12 ta mis lavhadagi qonunlarni qabul qilinishi.
- ◆ **Mil.av.326-yil** — plebeylar yangi qonun qabul qilishi.
- ◆ **Mil.av.III a.b.** — plebeylar Rimning to'la huquqli a'zosi bo'lib qolishi.
- ◆ **Mil.av.V—III a.** — *Rim quldorlar va aslzodalar respublikasiga aylanishi.*
- ◆ *Rim butun Apenin yarimorolini qo'lga kiritish uchun bosqinchilik urushlarini olib borishi.*

- ◆ **Mil.av.80—60-yillar** — Rim yollanma qo'shinning kuchayishi natijasida harbiylar mavqeyining oshishi.
- ◆ **Mil.av.60-yil** — *Pompey, Kros, Yuliy Sezar* Rimni birgalashib boshqarishga kelishib olishi.
- ◆ **Mil.va.59-yil** — *Sezarning konsullikka saylanishi.*
- ◆ **Mil.va.49-yil** — *Sezar o'zini diktator deb e'lon qilishi.*
- ◆ **Mil.av.45-yil** — *Sezarni Rim imperatori deb e'lon qilinishi.*
- ◆ *Rimda respublika tuzumini bekor qilinishi.*
- ◆ *1-marta oltin pul — dinorni zarb etish.*
- ◆ *Yuliy taqvimini joriy qilinishi.*
- ◆ **Mil.av.44-yil** — *Yuliy Sezarni o'ldirilishi.*
- ◆ **Mil.av.40—39-yillar** — *Sezerning* boshch. respublikachilar bilan *Aptoniy* boshch. sezerchilar o'rtasida kurash.
- ◆ **Mil.av.43-yil** — *Oktavian, Mark Antony* va *Emily Lepidlardan* iborat 3 lashkarboshining ittifoq tuzishi.
- ◆ **Mil.av.42-yil** — *Filiipp* yonidagi jangda respublikachilar qo'shining tor-mor etilishi.
- ◆ **Rim saltanatining yerlarini uchga taqsimlanishi:**
- ◆ *Antoniya* — O'rtaer dengizining sharq sohili;
- ◆ *Oktavianga* — Galiya, Illiriya, Ispaniya;
- ◆ *Emily Lepidga* — Shimoliy Afrika.
- ◆ **Mil.av.31-yil** — *Aksiy* burmi yonidagi dengiz jangda Oktavianning Antoniy ustidan g'alabasi.
- ◆ **Mil.av.30-yil** — *Misrning* ishg'ol etilishi.
- ◆ **Mil.av.30—14-yillar** — *Oktavian davri.*
- ◆ **Avqust** — «*Muqaddas kishi*».
- ◆ «*Monarxiya imperisi*» davri.
- ◆ **Apenin yarimorolimi — Italiya** deb atalishi.
- ◆ **37—41-yillar** — *Gay Sezar — Katiguli davri.*
- ◆ O'zini yerdagi xudo darajasiga ko'targan.
- ◆ **54—68-yillar** — *Neron davri*, Oktavian boshlab bergan Yuliy Klavdiy sulolasi faoliyatining tugashi.

- ◆ **Mil.avv.334—341-yil** — 1-samnit urushi, rimliklar g'alaba qozonib, Kampaniyani o'zlariga bo'ysundirishi.
- ◆ **Mil.avv.327—304-yillar** — 2-samnit urushi.
- ◆ **Mil.avv.298—290-yillar** — 3-Samnit urushi.
- ◆ Samnitlarning uzil-kesil bo'ysundirilishi.
- ◆ **Mil.avv.341—288-yillar** — Rim qo'shinlarining shim. Italiyani o'zlariga bo'ysundirishi.
- ◆ **Mil.avv.275-yil** — O'rta Italiyada *Pirning* mag'lubiyati.
- ◆ **Mil.avv.270—260-yillar** — Jan.Italiyani bosib olinishi, butun Italiyaning Rimga itoat etishi.
- ◆ **Karfaġen** — finkiyaliklar *Kar.Xadashi* — «*Yangi shahar*», rimliklar — Puni deb atashgan.
- ◆ **Mil.avv.264—246-yillar** — 1-Puni urushi.
- ◆ **Mil.avv.241-yil** — sulh tuzilishi, Karfaġen Rimga tovon to'lashi, Sitsiliyadagi o'z mulklarini Rimga topshirishi.
- ◆ **Mil.avv.218—201-yillar** — 2-Puni urushi.
- ◆ **Mil.avv.221—183-yillar** — Karfaġen qo'shini sarkardasi *Ganibal* faoliyati.
- ◆ **Mil.avv.201-yil** — Karfaġen bilan Rim o'rtasida sulh tuzilishi.
- ◆ Karfaġen Rimga qaram davlatga aylanishi
- ◆ **Mil.avv.149—146-yillar** — 3-Puni urushi.
- ◆ **Mil.avv.168-yil** — Makedoniya podshosi Perseynning mag'lubiyati.
- ◆ **Mil.avv.146-yil** — Axeya ittifoqining rimliklarga qarshi qo'zg'oloni (yunon sh. ittifoqi).
- ◆ **Iberiya** — *Ispaniya*, *Luzitaniya* — *Portugaliya*.
- ◆ **Mil.avv.206-yil** — Rimliklarni Iberiyaga kelishi.
- ◆ **Mil.avv.154—152-yillar** — Iberiyaning Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tarishi.
- ◆ **Mil.avv.150—141-yillar** — Luzitaniya aholisi Viriat rahbarligidagi Rimga qarshi qo'zg'oloni.
- ◆ **Mil.avv.141—133-yillar** — *Tiberiy Grapxning* yer haqidagi qonunlari.
- ◆ **Mil.avv.123—121-yillar** — *Gay Gralx* islohotlari.
- ◆ **Qul** — «*Jonli buyum*»
- ◆ **Mil.avv.74—71-yillar** — *Spartak* boshchiligidagi qo'zg'olon.

- ◆ **68—70-yillar** — fuqarolik urushi
- ◆ **II a.oxiri** — Rim saltanatining tushkunlikka uchrashi.
- ◆ **Kollonar** — kichik yerlarni ijaraga olgan, yersiz erkin kambag'allar.
- ◆ **Kubali qullar** — erkin, uy-joyli qullar.
- ◆ **235—284-yillar** — Rim taxtiga 19 imperator va 30 dan oshiq hukmdorni kelib ketishi.
- ◆ **III asr o'rtalari** — Rim saltanatida ajralish:
- ◆ Ispaniya, Galliya(markazi Trir sh.) saltanati, Misr, Palmira davlatlarining ajralib chiqishi.
- ◆ **270—275-yillar** — *Avrelian davri*:
- ◆ «Yengilmas Quyosh» degan yangi din joriy qilinishi.
- ◆ **284—306-yillar** — *Diokletian davri*:
- ◆ O'zini Yupterning o'g'li deb e'lon qilishi.
- ◆ **306—337-yillar** — *Konstantin davri*:
- ◆ **313-yil** — xristianlarning oshkora to'planishlari va ibodatxona qurishlariga ijozat berilishi.
- ◆ *Konstantin* xristian dinning homiysi, cherkov uni avliyo deb e'lon qilishi.
- ◆ **330-yil** — *Konstantinopol shahri* — saltanat poytaxti.
- ◆ **IV a.oxiri** — Zevsaga bag'ishlangan *Olimpiya o'yinlarini* o'tkazishni taqiqlanishi.
- ◆ Aleksandriyada olimo Ipatiyanning o'ldirilishi.
- ◆ **III—V asrlar** — Galliyada *bagauzlar harakati*.
- ◆ *Amand* va *Elian* — *bagauzlar harakatining* rahbarlari.
- ◆ *Bagauz* — *kurashuvchilar, piyoda askarlari* — *dehqonlardan, oliqlari* — *cho'ponlardan tashkil topgan*.
- ◆ **378-yil** — Andrianopol shahri yonida Rim qo'shinlarini gotlardan mag'lubiyatga uchrashi.
- ◆ **395-yil** — Rim saltanatining ikki qismga bo'limib ketishi:
- ◆ Sharqiy qismi — Bolqon yarimoroli, Misr, Kichik Osiyo
- ◆ G'arbiy qismi — Italiya, Yevropa, Afrikadagi viloyat
- ◆ **402-, 408-, 410-yillar** — Gotlarning Italiyaga hujumi.
- ◆ **455-yil** — Vandallarning Rimni vayron qilishi.
- ◆ **476-yil** — G'arbiy Rim saltanatining qulashi.



## TARIXIY SHAXSLAR

**ADRIAN (76–138-yil)** – Rim imperatori (117-yildan). Imperator *Trayanning* o'gay o'g'li. Adrian bosqinchilik urushlarini to'xtatib har qanday janjalli masalalarni muzokaralar yo'li bilan hal etishni afzal ko'rgan. U parfiyaliklar bilan yarashib, tinch-totuv yashashga harakat qilgan. Adrian davlat chegaralarini mustahkamlab, ular bilan tinch munosabatda bo'lgan. Ammo qo'shinni kuchaytirgan. Adrian davlatni boshqarish va sud ishlarini izga solish uchun idoralar sonini ko'paytirgan. U viloyatlardagi o'lpon va soliqlar yig'ishni bekor qilib, eski soliq va qarzlarni kechib yuborilgan. Adrian qullarni xo'jayinlar tomonidan jazolanishlarini bekor qilib, ularni sud hukmi bilan jazolash tartibini joriy qilgan. 132–135-yillarda Quddusda bo'lgan *Simon* boshliq yahudiylar qo'zg'olonini shafqatsizlik bilan bostirgan. Aholining ko'pchiligi qul qilib sotib yuborilgan. Quddus rimliklarga qaram bo'lib qolgan. Adrian saltanatning qishloq xo'jaligi, madaniy va savdo-sotiq ishlariga ham katta e'tibor bergan. Adrian Misr, Yunoniston va boshqa mamlakatlarga sayohat qilgan. Uning davrida Afinada *Yangi Zevs ibodatxonasi* qurilib, *Afina akropoli* qayta tiklangan. Frakiyada esa *Adrionopol shahri* bino qilingan. Adrian davrida Rim har jihatdan yuksalgan davlatga aylanadi. U 138-yili vafot etadi. Uni Rimdagi katta maqbaraga izzat-ikrom bilan dafn etganlar.

**AGAFOKL (mil. avv. 360–289-yillar)** – kulol, lashkarboshi, Sirakuza hukmdori (tirani, 317-yildan). So'nggi *tiraniya* vakili. Mamlakatdagi oligarxiyani ag'darib tashlagan. 313-yilga kelib Sitsiliyadagi deyarli barcha yunon shaharlarini bosib olgan. Hokimligi davrida Sitsiliyaga egalik qilish uchun Karfagenga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan. 305-yili *“sitsiliyaliklar podshosi”* unvonini olgan. 299-yilda Kerkiru oroli (Korfu)ni zabt etgan. Janubiy Italiyaga harbiy safarlari vaqtida vafot etgan. Agafokl hukmronlik yillari Sirakuzaning kuch-qudrati va madaniy ravnaqi yuksalgan davr bo'lgan.

**AGRIPPA Mark Vipsaniy (taxminan mil. avv. 63–12)** – Rim sarkardasi va davlat arbobi. Mil. avv. 41-yilda Peruziya shahrini qamal qilishda rahbarlik qilgan. *Sekst Pompeyga* qarshi Mil va Navloxdagi jangda (36-y.) g'alaba qilgan. Avgustning bosh harbiy yordamchisi. Mil. avv. 23-yilda imperator *Avgustning* qizi *Yuliyaga* uylanadi va tez orada yordamchisi hamda kuyovi sifatida uning vorisi bo'lib qoladi. Agrippa dastlabki dunyo xaritalaridan birining muallifi. Adib va yer haqidagi ilmiy biluvchi sifatida ham tanilgan. Rim obodonchiligiga katta hissa qo'shgan (Panteon ibodatxonasi va boshqalarni qurgan).

**ALARIX I (Alaricus) (taxm. 370–410-yillar oxiri)** – *Vestgotlar qiroli* (395-yildan). Frakiyaga bostirib kirgan, Afinani egallagan, Korinf, Argos, Spartani vayron qilgan. Sharqiy Rim imperiyasi imperatori *Arkadiy Alarix I* bilan sulh tuzib (396-yil), unga Illirikdagi armiya magistri unvonini bergach, vestgotlar *federatlar* sifatida Illirikka kelib joylashgan. 401-yilda Alarix I Italiyaga bostirib kirgan, biroq *vandallardan* bo'lgan Rim sarkardasi *Stilixon* uni chekinishga majbur qilgan. 408-yilda Alarix I yana Italiyaga bostirib kirib, Rimni 3 marotaba qamal qilgan (qadimgi muarrixlar qamaldagi Rimdan Alarix I armiyasiga ko'plab qullar qochib o'tganligi haqida xabar berishadi); 410-yil 24-avgustda Alarix I Rimni egallab, 3 kun davomida talon-taroj qilgan. Rimning *varvarlar* tomonidan ilk marta olinishi (gallarning mil. avv. IV asrda Italiyaga qilgan istilosidan keyin) zamondoshlarda katta taassurot qoldirgan; bu g'alaba varvarlar tomonidan G'arbiy Rim imperiyasining uzil-kesil bosib olinishining boshlanishi edi. Alarix I Janubiy Italiyada Sitsiliya va Afrikaga yurish qilishga tayyorgarlik ko'rayotib vafot etgan.

**ALEKSANDR SEVER (Alexander Severus) (208–235-yillar)** – Rim imperatori (222–235-yillar). *Severlar sulolasining* so'nggi vakili. Uning davrida Sosoniylar hukmdori *Ardasher I* 230-yilda Rim saltanatiga tegishli bo'lgan Suriya va Kichik Osiyoni bosib olgan. 232-yilda Aleksandr Sever bu joylarni qayta Rimga qo'shib olish uchun o'z qo'shini bilan Shimoliy Mesopotamiyaga kelgan va Ardasher I qo'shinlari bilan uzoq vaqt mobaynida qonli urushlar olib borgan. U 235-yilda fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

**AMAND** – III asrning o'rtalarida Galliyadagi *“bagaudlar”* – oddiy dehqonlar, kolonlar va qullar tomonidan *Elian* bilan birgalikda imperator deb e'lon qilingan. Amand Elian bilan dehqonlardan piyoda, podachi-chorvadorlardan otliq qismlar tuzib rimliklarga va mahalliy zodagonlarga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Bagaudlar mustahkamlangan shaharlarga hujum qilib, ularni bosib olganlar. Ular boy-badavlat kishilarning uylariga o't qo'yib, mol-mulklarini talaganlar.

**AMULIY** – Lasiya podshosi *Eneyning* avlodlaridan biri. U akasi *Numitorni* Lasiya taxtidan ag'darib tashlaydi. Amuliy Numitorning qizi *Silviya* bilan xudo *Mars* nikohidan tug'ilgan ikki o'g'il – *Romul* va *Remni* bobosi Numitorning o'chini oladi deb Tibr daryosiga tashlab yuboradi. Savat taxtga ilinib qoladi. Ularni ona bo'ri katta qiladi. Keyinchalik bir cho'pon bolalarni topib tarbiya qiladi. Ulg'ayib

mohir jangchi bo'lishganidan so'ng qo'zg'olon ko'tarib Amuliyini taxtdan ag'daradilar va o'ldiradilar.

**ANDRISK** — Makedoniyada rimliklarga qarshi qo'zg'olon ko'targan hunarmand. U o'zini Makedoniya podshosi *Perseyning* o'gli *Filipp* deb e'lon qiladi. Frakiya va boshqa qo'shni davlatlar, qabilalar Andriskni qo'llab-quvvatlaydilar. Qo'zg'olonchilar rimliklar bilan bir necha bor to'q-nashib, ularga qattiq zarbalar berib, hatto bir necha bor g'alabaga erishganlar. Rim qo'mondonligi senatdan yangi qo'shin talab qiladi. Rim yangi qo'shin jo'natgandan so'ng kurash yanada kuchayadi. Qattiq janglarning birida Andrisk qo'shinlari rimliklardan yengiladi. Frakiyalik xoinlar esa Andriskni rimliklarga ushlab beradilar.

**ANTONIY Mark (Marcus Antonius) (mil. avv. 83–30-yillar)** — Rim siyosiy arbobi va sarkardasi. Mark Antoniy 58-yilda Falastin va Misrga qarshi yurishlarda shuhrat qozondi. 54-yilda *Sezar* bilan birga **Galliya urushida** ishtirok etdi. 42-yilda respublikachilar tor-mor qilinganidan keyin, Mark Antoniy sharqiy viloyatlarga hokim qilib tayinlandi. U yerda Misr malikasi *Kleopatraga* uylandi. Sharqdagi ko'pgina yerlarni egallab, Kleopatranning bolalariga hamma viloyatlarni taqsimlab berdi. Mark Antoniyning bu ishlaridan norozi bo'lgan senat unga qarshi urush e'lon qildi. 30-yilda Aksiy burni yonida bo'lgan jangda u *Oktaviandan* yengildi. Misrga qochib, u yerda o'zini o'ldirdi.

**ARISTANIK** — mil. avv. 132–130-yillarda Pergamda ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari. Bu qo'zg'olonda erkin kambag'allar va qullar ishtirok etganlar. Aristanik qulchilik bo'lmagan davlat tuzishni maqsad qilib, unga "*Gelipolis*" — "*Quyosh shahri*" deb nom qo'yishni o'z tarafdorlariga va'da qilgan. Ammo Aristanik qo'zg'oloni Rim konsuli *Publiy Krass* boshchiligidagi legionlar tomonidan bostirilgan. Aristanik asir olinib, qiynab o'ldirilgan.

**ARKADIY FLAVIY (Arcadius Flavius) (taxm. 377 — 408-yil 1-may, Konstantinopol)** — Sharqiy Rim (Vizantiya) imperatori. Rim imperatori *Feodesey I* ning katta o'g'li. 395-yilda Feodesey Rimni ikki davlat: Sharqiy va G'arbiy Rimga bo'lib tashlaydi va Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya)ga Arkadiyni imperator etib tayinlaydi. Sharqiy Rim tarkibiga Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo, O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar va Misr kirgan.

**ASKANIY YUL** — Lasiya hukmdori *Eneyning* o'g'li. U *Alba-Longu* degan shaharni barpo qilgan va unga podsholik qilgan.

**ASKLEPIOD (mil. avv. 128–56-yillar)** — Qadimgi Rimda tibbiyot ishlari bilan shug'ullangan

mashhur yunonistonlik shifokor. U boshqa bir yunonistonlik olim Korneliy Sels bilan birgalikda 70 jildlik "*Arteo*" ("*San'at*") nomli asar yozib qoldirgan. Bu asarning 8 jildi tabobat ilmiga bag'ishlangan edi. Asklepiod o'zidan oldin o'tgan mashhur tabiblarning asarlarini tartibga solgan. *Korneliy* esa bu to'plamni o'z tajribalari bilan boyitgan.

**ATILIY REGUN Mark** — Rim konsuli. Uning boshchiligidagi rimliklar mil. avv. 256-yilda 260 harbiy kema bilan Karfagen tomon yo'l olgan. Eknom burnida Rim va Karfagen harbiy flotlari to'qnashgan. Dengiz jangida Mark Atiliy Regun boshliq rimliklar g'alaba qozonib, Karfagen tuprog'ida urush harakatlarini boshlab yuborganlar. Rim qo'shinlari quruqlikda ham karfagenliklar ustidan g'alabaga erishganlar. Bu g'alabadan so'ng Mark Atiliy Regun boshliq qo'shin Karfagenda qolib, qo'shinning boshqa qismi Rimga qaytgan. Mil. avv. 255-yili Karfagenning yollanma askarlari Rim qo'shinlariga hujum qilib, ularni tor-mor etgan. Mark Atiliy Regun asir tushib, qamoqxonada o'lgan.

**ATTILA Mundsuk o'g'li (Etsela, Otilaxon, Etille; laqabi "Xudoning g'azabi") (? — mil. 453)** — *Xunlar podshohi* (434–453). Milodiy 433-yili Amakisi *Rugila* vafot etgach, birodari *Bleda* (Bilada) bilan birga taxtga o'tirgan; lekin 445-yilda Bledani qatl etib, hokimiyatni yakka boshqargan. U o'zining zafarli yurishlari bilan saltanat hududini nihoyatda kengaytirgan. Attila davlati Sharqda — Kavkaz, G'arbda — Reyn daryosi, Shimolda — Daniya orolida, janubda — Dunay daryosining o'ng sohilini qamrab olgandi. Attila qudratli hukmdor bo'lgan, shu tufayli ko'pgina xalqlar o'z ixtiyorlari bilan bo'ysunganlar. Uning qarorgohi Vengriyaning Tokay mavzesida bo'lgan. Attila dastlab Dunayning quyi oqimidagi so'l qirg'oq yerlarni o'z hokimiyatiga bo'ysundirgan. 447-yilda Vizantiya imperatorini juda katta to'lovlar to'lashga majbur etgan. 451-yili Trua shahri yaqinidagi *kattalaun jangi* bo'lib o'tadi. Attila kuchi bu jangdan so'ng ancha zaiflashib qolib, Germaniyaga qaytadi. U 433-yili vafot etadi. Uning vafoti bilan xunnlarning jahonshumul davlatining qudrati singan. Uning o'g'li *Ernak* davrida xunlar barpo etgan davlat parchalanib ketgan.

**AVGUST Oktavian (mil. avv. 63-yil — milodiy 14-yil)** — Rim imperatori (mil. avv. 29-yil milodiy 14-yil), *Yuliy Sezarning* nabira jiyani, uning vasiyatiga ko'ra o'g'il qilib olingan. Oktavian Avgust huquqi cheklanmagan hokim bo'lib olgach, mil. avv. 29-yilda senat unga **Avgust (muqaddas kishi; xudolar tomonidan sharaflangan)** degan faxriy unvon bergan. Keyinchalik "*avgust*" nomi imperatorlar unvonini anglatuvchi atamaga aylangan. Sezarning o'limidan

so'ng boshlangan fuqarolar urushi (mil. avv. 43–31-yillar)ni Aksiy yonidagi jangda Rim sarkardasi **Mark Antoniy** va Misr malikasi **Kleopatra** ustidan g'alaba qozonish bilan yakunlagan. Oktavian Avgust **prinsipat** (**"princeps"** – **senat qatnashchisi**) deb ataluvchi siyosiy rejimga asos solgan. Bu davlat tuzumi respublika shaklidagi monarxiyaga o'xshaydi. Unda ilgari gidek senat va respublika lavozimlari saqlanib qolgan. Ammo butun hokimiyat Oktavian Avgust qo'l ostiga o'tgan. Xalq majlisining ta'siri tugagan. Oktavian Avgust mamlakatning yirik quldorlari va Rim armiyasiga tayanib ish ko'rgan. U qo'shin sonini 300 mingga yetkazgan. Uning buyrug'i bilan Rim atrofida katta ko'l qurilib, u yerda tez-tez dengiz jangi mashqlari uyushtirib turilgan. Bu mashq-janglarda 30 katta kema, ko'plab kichik kemalar va uch mingga yaqin jangchi qatnashgan. Rimda tungi soqchilar va o't o'chiruvchilar guruhi tuzulib faoliyat ko'rsatgan. U shahar aholisiga homiylik qilib, kambag'allarga non, g'alla, pul ulashgan va sirk tomoshalari uyushtirgan. U tasodifan qul qilinganlarni ozod qilish uchun senat qarorini chiqartirgan. Italiyaning Rimdan boshqa shaharlarida yashovchi aslzodalarga Rim fuqarosi nomi berilgan. Oktavian davrida me'morchilik, madaniy va diniy ishlarga ham alohida e'tibor berilgan. Uning davridan boshlab Apennin yarimoroli **Italiya** deb atala boshlangan. Shuningdek, uning davrida Rim qo'shinlari Italiyadan shimoli-sharqda joylashgan Dunay bo'yi qabilalarini Rimga itoat ettirganlar. Bundan tashqari Sitsiliya, Sardiniya va Korsika orollari ham rimliklar tomonidan bo'ysuntiriladi. Oktavian davrida Rim saltanatining yerlari Ispaniyadan Suriyagacha, Galliyadan Shimoliy Afrikagacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olar edi. Oktavian Avgust o'z tashqi siyosatida g'arbga nisbatan bosqinchilik siyosati yurgizgan bo'lsa, sharqqa nisbatan diplomatik muzokaralar yordamida Rim davlatining hokimligini yoyishga intilgan. Oktavian hukmronligining so'nggi yillarida Rim saltanati asta-sekin zaiflashadi. Rimga tobe bo'lgan joylarda ozodlik va mustaqillik uchun qo'zg'olonlar boshlanadi. Bu davrda Rim istilochilik urushlaridan voz kechib, o'z-o'zini mudofaa qilishga o'tadi. Mil. avv. 14-yilda Oktavian Avgust Rim shahri yaqinidagi **Nole shaharchasi**dagi qarorgohida vafot etadi. Avgustning jasadini unga bag'ishlab qurilgan maxsus maqbaraga dafn etadilar.

**AVRELIAN, Lutsiy Domitsiy (214–275-yillar)** – Rim imperatori (270–275-yillar). Dunay legionlari tomonidan imperator deb e'lon qilingan. Taxtga o'tirishi bilanoq xalq harakatlarini bostirib, saltanat birligini tiklashga urinib ko'rgan. Uning qo'shinlari gotlarni Dunay bo'ylaridan haydab yuborib, Italiyaga bostirib kirmoqchi bo'lgan qabilalarning hujumlarini

qaytargan. Avrelian Rimni varvarlardan himoya qilish maqsadida shahar atrofini qalin mudofaa devori bilan o'rattirgan. 273-yilda Avrelian qo'shinlari Suriyadagi Palmira shahrini ishg'ol qilib, uni vayron etganlar. Galliya hokimi Tetric bagaudlar harakatining kengayib ketishidan qo'rqib Avrelianga itoat etgan. Avrelian **"osoyishtalikni tiklovchi"** degan iftixorli unvon olgan. U saltanat birligini saqlash maqsadida **"Yengilmas quyosh"** degan yangi din joriy etgan. Hammani shu xudoga – dinga sig'inishini talab qilgan. Bu dinga e'tiqod qilmaganlar ta'qib qilingan va jazolangan. Bundan Avrelianning dushmanlari foydalanib fitna uyushtirganlar va 275-yilda Avrelianni o'ldirganlar.

**AVRELIY Mark (121–180-yillar)** – Rim imperatori (161-yildan). **Antoninlar sulolasidan**. Senatorlar tabaqasiga suyanagan. Armanistonda Rim hukmronligini tiklagan. Parfiyaliklar bilan bo'lgan urushda (161–166) Mesopotamiyani bosib olgan. 166–180-yillarda Markoman urushini olib borgan. **So'nggi stoitsizm vakili** (**"O'ylar"** falsafiy asari muallifi).

**BRUT Mark Yuniy (mil. avv. 85–42-yillar)** – Qadimgi Rimda **Yuliy Sezarga** qarshi qirq to'rtlar fitnasining boshlig'i (**Kassiy** bilan birgalikda). Manbalarda keltirilishicha, birinchilardan bo'lib Sezarga xanjar sanchgan. Brut Kassiy bilan birgalikda mil. avv. 43-yilda **Oktavian, Antoniy va Lepidlardan** iborat uchlar ittifoqi (**"Ikkinchi triumvirat"**)ga qarshi kurashgan. Mil. avv. 42-yilda Makedoniyadagi Fili ppa shahri yaqinida **Oktavian-Antoniy** qo'shinlari bilan **Kassiy-Brut** qo'shinlari o'rtasida qattiq jang bo'lib o'tadi va respublikachilarning qo'shini tor-mor etiladi. Jang vaqtida Brut dushmanlariga asir tushishni istamay o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'ladi. Kassiy esa o'z chodirida o'ldiriladi.

**DESEBAL (Decebalus)** – Dakiya sardori. U Rim imperatori **Domisian** bilan bir necha bor urush olib borgan va u bilan oxir-oqibatda sulh tuzgan. 101-yilda boshqa bir Rim imperatori **Trayan** bilan urush olib borgan va mag'lubiyatga uchragan. Desebal Trayan bilan ham sulh tuzib, Dakianing ba'zi joylariga Rim qo'shinlarini joylashtiradi. Ammo Desebal sulhga xiyonat qilib Rim qo'shinlari joylashgan istehkomlarga hujum qiladi. 106–107-yillarda Trayan qo'shinlari Dakiyani qaytadan istilo qiladi. Trayan Dakiyada yangi manzilgohlar ochib, u yerga Italiyadan odamlarni ko'chirgan va harbiy istehkomlarni mustahkamlagan.

**DIOKLETIAN Gay Avreliy Valeriy (Gaius Aurelius Valerius Diocletianus)**, haqiqiy ismi **Diokl (243–313/316)** – Rim imperatori (284–305-yillar). Harbiy legionerlar tomonidan imperator deb e'lon

qilingan. U ozod qilingan qulning o'g'li bo'lib, dastlab oddiy jangchi sifatida xizmat qilgan. Xizmat yuzasidan o'zini ko'rsatib imperator soqchilari boshlig'i darajasiga ko'tarilgan. U juda aqlli, tadbirkor va ajoyib iste'dod egasi bo'lgan. U o'z faoliyatini qo'shinda intizom o'rnatib, isyonkor jangchilarni ayamay qatl ettirishdan boshlagan. Uning qo'shinlari Galliyaga bostirib kirib, qishloqlarni talab, yondirib, tinch aholini qirgan. Diokletian saltanatni mustahkamlashni ko'zlab islohotlar o'tkazgan. U mamlakatni 12 o'lkaga bo'lib, ularni 114 viloyatga ajratgan. O'lka va viloyatlar tayinlagan noiblar tomonidan boshqarilgan. Imperator farmoni hamma uchun bajarilishi kerak bo'lgan qonunga aylangan. "Sinchkovlar" deb atalgan josuslar Italiya va o'lkalarda odamlarga ko'z-quloq bo'lib yurganlar. Diokletian soliq tartibini ham ko'rib chiqib, yer solig'ining yangi tartibi joriy qilingan. Narx-navoning oshishi munosabati bilan ham islohot o'tkazilgan. Diokletian davrida senat o'z faoliyatini to'xtatgan. Ammo ular aholining nufuzli toifasi bo'lib qolavergan. U shahar hayotini tiklash va jonlantirish ishiga ham alohida e'tibor bergan. Diokletian o'zini xudo Yupiterning o'g'li deb e'lon qilib, ibodatxonalarga uning haykallari o'rnatilgan. Diokletian bir tomondan ruhoniylar, ikkinchi tomondan xalq noroziligi va mamlakat boshiga tushgan inqirozni bartaraf etolmay oxiri imperatorlikdan voz kechib 305-yilda vafot etgan. Diokletian nomi Sharq xalqlari orasida *Daqyonus* shaklida uchraydi.

**DION KASSIY** — milodiy 155–235-yillarda yashagan mashhur Italiya tarixchisi. U "**Rim tarixi**" degan asarning muallifi bo'lib, bu tarixiy kitobda tarixchi zamonida bo'lgan tarixiy voqealarni atroflicha bayon etgan.

**DOMISIAN (Domitianus) (51–96-yillar)** — Rim imperatori (81–96-yillar). *Flaviylar sulolasidan*. Imperator *Vespasianing* ikkinchi o'g'li; *Tit Flaviy*-ning ukasi. U otasi va akasi izidan bormay, fitnachi ig'vogarlarini atrofiga to'plab senat bilan hisoblashmay ish yuritgan. U hamfikrlariga sovg'a-salomlar ulashib xazinaga katta zarar keltirgan. Domisian senatorlar mulkini musodara qilib, dehqonlarga ko'proq don ekishni buyurib, tokzorlarni kengaytirishni man etgan. Uning davrida Rim qo'shinlari Reyn, Dunay daryolarining yuqori qismini, Germaniyaning janubi-g'arbiy viloyatlarini bosib olganlar. U Quyi Dunay qabilalari bilan muvaffaqiyatsiz jang olib borgan. U Dakiya sardori *Desebal* bilan sulh tuzib, ularga katta sovg'a-salomlar berishni va'da qilgan. Domisian Britaniya va Sharqda ham muvaffaqiyatsiz urush olib borgan. Uning bu ishlari oddiy fuqarolar, aslzodalar va quldorlar orasida norozilik keltirib chiqargan. 96-

yilda unga qarshi suiqasd uyushtirilib, fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

**ELIAN** — III asrning o'rtalarida Galliyadagi "*bagaudlar*" — oddiy dehqonlar, kolonlar va qullar tomonidan *Amand* bilan birgalikda imperator deb e'lon qilingan. Elian Amand bilan dehqonlardan piyoda, podachi-chorvadorlardan otliq qismlar tuzib rimliklarga va mahalliy zodagonlarga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Bagaudlar mustahkamlangan shaharlarga hujum qilib, ularni bosib olganlar. Ular boy-badavlat kishilarning uylariga o't qo'yib, mol-mulklarini talaganlar.

**EMILIY PAVEL** — Rim konsuli. Emiliy Pavel boshliq Rim qo'shini mil. avv. 216-yilda *Gannibal* qo'shinlari bilan bo'lgan Kanna qishlog'i yaqinidagi jangda tor-mor keltirilgan. Emiliy Pavel jangda halok bo'lgan.

**ENEY** — rivoyatlarga ko'ra, Troya yunonlar tomonidan bosib olingach, u Lasiyaga ko'chib kelgan troyaliklarning bir qismiga yo'l boshchilik qilgan. Lasiya shohi *Lotin* Eney va troyaliklarni yaxshi kutib oladi va o'z qizini unga beradi. Lotin vafotidan keyin Lasiya taxtiga Eney o'tiradi. Troyaliklar esa mahalliy aholi bilan qo'shilib *lotin* xalqini tashkil etadi.

**FEODESIY I Buyuk (Theodosius) (taxm. 346–395-yillar)** — Rim imperatori (379-yildan). 380-yilda ortodoksal xristianlik hukmronligini o'rnatgan, arianlar va majusiylarni quvg'in qilgan. Uning davrida *Olimpiya o'yinlari* (majusiylarga xos deb) bekor qilingan. Aleksandriya kutubxonasi va majusiylarning ko'plab ibodatxonalari yondirib yuborilgan. Feodesiy o'limi oldidan (395-yil) Rimni ikki davlatga bo'lib tashlaydi. Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo, O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar va Misr Sharqiy Rimga kirib unga Feodeseyning katta o'g'li *Arkadiy* imperator etib tayinlanadi. Italiya, Yevropa va Shimoliy Afrikadagi viloyatlar esa G'arbiy Rim qo'l ostida qolib, unga Feodeseyning kichik o'g'li *Gonoriy* imperator etib tayinlangan.

**FULVIY FLAKX** — *Gay Grakx* (mil. avv. 153–121) va uning tarafdorlari ko'targan qo'zg'olon rahbarlaridan. Rim konsuli *Lusiy Opimiy* qo'zg'olonchilar ustiga yuborgan qo'shin bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragan va asir tushib, qatl etilgan.

**GALEN (Galenus) Klavdiy (taxm. 129–201)** — mashhur qadimgi rim tabibi va tabiatshunosi. Sharqda *Jolinus* hakim nomi bilan mashhur. Pergalida tug'ilib voyaga yetgan. Galen 17 yoshidan boshlab *Asklepiod* nomidagi tibbiy shifoxona maktabida o'qiydi. U bu yerda tibbiyot ilmini o'rganib, mohir shifokor bo'lib yetishadi. Dastlab u gladiatorlar maktabida, so'ng Rim imperatorlarining saroyida tabiblik qiladi. Galen

*“Tabiblik san’ati”, “Davo usullari”, “Dorilarning tarkibi haqida”,* – degan tibbiy asarlar yozib qoldirgan. Ammo Rimda yong’in bo‘lgan yili Galen asarlarining ko‘pi yonib ketgan. Galen asarlari o‘rta asrlarda ko‘p tillarga, shuningdek arab tiliga ham tarjima qilingan. Tabiblar sultoni bobomiz Abu Ali ibn Sino Galen asarlaridan keng foydalangan.

**GALIKARNASS Dionisiy** – mil. avv. I asrda yashagan Rim tarixchisi. *“Qadimgi Rim yodgorliklari”* – degan tarixiy asar yozgan.

**GALLILEN (Gallienus) (218–268-yillar)** – Rim imperatori (253–268-yillar). Imperator *Valerianing* o‘g‘li. Rimni siyosiy tushkunlikdan qutqarib qolishga uringan. Ammo uning barcha harakatlari behuda ketgan. III asrning ikkinchi yarmiga kelib Misr bilan Palmira Rimdan ajralib chiqqan.

**GAMILKAR Barka (Hamilcar Barca) (mil. avv. ?-229)** – Karfagen sarkardasi. *Gannibalning* otasi. Karfagen hukmdorlari tomonidan *Birinchi Puni urushi* (mil. avv. 264–241-yillar)dan so‘ng boshlangan qullar va qishloq ahlining qo‘zg‘olonini bostrish uchun qo‘mondon etib saylangan. Gamilkar askarlari qo‘zg‘olonni shafqatsizlarcha bostirib, qo‘zg‘olonchilarni ko‘p qismini qirib tashlagan. Mil. avv. 237-yili Gamilkar o‘z qo‘shinlari bilan Iberiyaga kelib joylashib, *Yangi Karfagen* shahrini barpo qilgan. Mil. avv. 229-yilda bo‘lib o‘tgan janglarning birida halok bo‘lgan.

**GANNIBAL Anibal Barka (mil. avv. taxm. 247 yoki 246-yil Karfagen – mil. avv. 183-yil, Vifiniya)** – Karfagen sarkardasi. *Gamilkar Barkaning* o‘g‘li. U mohir lashkarboshi va shijoatli jangchi bo‘lgan. Qadimgi Rim tarixchilaridan biri: *“Gannibal xavfli jangga kirar, mardona harakat qilardi. Xavf-xatar oldida nihoyatda ehtiyotkor edi, u har qanday mehnatdan ham jismonan toliqmas yoki ruhi tushmas edi. Issiqqa ham sovuqqa ham barobar bardoshli edi. U yumshoq o‘rinda yotmasdi, harbiy chakmonda o‘ralgan holda askarlar orasida uxlardi. U jangga birinchi bo‘lib otlanar, jang maydonidan esa eng oxiri bo‘lib chiqar edi”* – deb yozgan. **Ikkinchi Puni urushi** davri (mil. avv. 218–201)da Alp tog‘laridan oshib o‘tib, **Titsin**, **Trebbiya daryolari** (mil. avv. 218), **Traziman ko‘li** (mil. avv. 217), **Kanna** (mil. avv. 216) yaqinida rimliklar ustidan g‘alaba qozongan. **Zama** (Shimoliy Afrika) yaqinidagi jang (mil. avv. 202)da Gannibal Rim qo‘shinidan mag‘lubiyatga uchragan va Rim shartlari asosida sulh bitimi imzolashga majbur bo‘lgan. Urushdan so‘ng Gannibal Karfagenni boshqargan. Rimga qarshi yangidan urush ochishga tayyorgarlik ko‘rayotgan Rimdagilar xabardor bo‘lib qolganlaridan xavfsiragan Gannibal Suriya podshosi **Antiox III** huzuriga qochib borib uning harbiy

maslahatchisi bo‘lgan. Antiox III Rimga qarshi urush (mil. avv. 192-188)da yengilgach, rimliklar Gannibalni berishni talab qilganlar. Gannibal Armaniston, so‘ngra Kichik Osiyoning shimolidagi Vifiniyaga yashiringan. Vifiniya podshosi **Prusiy** Rim tazyiqi ostida Gannibalni ular qo‘liga topshirmoqchi bo‘lganidan xabar topgach, zahar ichib o‘lgan.

**GASDRUBAL (Hasdrubal) (mil. avv. ? – 221)** – Karfagen sarkardasi. *Gamilkar Barkaning* kuyovi. Gamilkar Barkadan so‘ng, Karfagen va Rim o‘rtasida bo‘lgan urushlar (Puni urushlari)da Karfagen qo‘shiniga qo‘mondonlik qilgan. Gasdrubal keltlar bilan bo‘lgan janglarning birida halok bo‘lgan.

**GASDRUBAL (Hasdrubal)** – Karfagen sarkardasi bo‘lgan *Gannibalning* ukasi. U Yangi Karfagendan qo‘shin tortib kelayotgan paytda Shimoliy Italiyadagi Metavra daryosi bo‘yida bo‘lib o‘tgan jangda rimliklar tomonidan tor-mor etilgan va jangda halok bo‘lgan.

**GAY GRAKX (Gaius Gracchus) (mil. avv. 153–121-yillar)** – Qadimgi Rimning siyosiy arbobi, xalq tribuni (notig‘i). Plebeylar naslidan. Akasi *Tiberiy Grakx* senatorlar tomonidan o‘ldirilgach (133-yil), uning ishini davom ettirgan ya‘ni demokratik agrar (yer) islohot o‘tkazish yo‘li bilan dehqonlarning xonavayron bo‘lishdan saqlab qolmoqchi bo‘lgan. Ammo Rim senatining islohotga qarshi guruhi Gay Grakxni islohotdan chalg‘itish uchun Sardiniya oroliga noib qilib yuborgan. Gay Grakx Sardiniyada uzoq ishlamay qaytib kelgan. Mil. avv. 123-yilda u xalq tribuni bo‘lish uchun o‘z nomzodini qo‘ygan va bu lavozimga saylangan. U akasi boshlagan ishni davom ettirish uchun sabot va matonat bilan kurashgan. U o‘z ishini senatda tarafdorlar to‘plashdan boshlab, suvoriylarga tayanib ish olib borgan. U shahar kambag‘allarini o‘ziga tortish uchun yangi yo‘llar qurish to‘g‘risida senat qarorini chiqartirib olgan. Ayni paytda Grakx aholining eng kambag‘al qismiga davlat omborlaridan arzon bahoda don sotish to‘g‘risida senat roziligini olgan. Shu yo‘l bilan Rim kambag‘allarini o‘z tomoniga og‘dirgan. Shundan so‘ng u akasi davrida boshlanib, vafotidan keyin to‘xtab qolgan yer islohoti hay‘ati ishini jonlantirib yuborgan. Ayni paytda akasining qotillarini jazolash to‘g‘risida qonun chiqartirib olgan. U yer islohotini davom ettirib, kambag‘allarga yer olib bergan. U senat hokimiyatini cheklab davlatni boshqarish ishlarida kambag‘allarning ham ishtirok etishlari uchun harakat qilgan. Rim konsullari va senatorlari Gay Grakxdan qo‘rqanlar. Ular yersiz dehqonlarga koloniya tashkil etish maqsadida uni Karfagenga yuborganlar. Rim konsullari va senatorlarning vakillari u yerda Gay Grakx va uning tarafdorlari bilan



to'qnashuv uyushtirganlar. To'qnashuvlarning birida konsulning xizmatchisi o'ldirilgan. U Karfagendan qaytib kelib o'z faoliyatini davom ettirgan. Konsul va senat Gay Grakx tarafdorlarini qotillikda ayblab, ularni sudga berganlar. Sud ularni javobgarlikka tortgan. Gay Grakx va uning sheriklari sud hukmini bo'xton deb, Rim xalqini senatga qarshi kurashga undaganlar. Shahar kambag'allari va qullar Gay Grakx tomonga o'tib bir tepalikka joylashib olganlar. Rim konsuli **Lusiy Opimiy** qo'zg'olonchilar ustiga katta qo'shin yuborgan. Senat Gay Grakx boshini olib kelgan kishiga uning kallasi og'irligida oltin va'da qilgan. Qo'zg'olonchilar bilan senat qo'shinlari o'rtasida jang boshlangan. Konsul qo'shinlari qo'zg'olonchilarni chekinishga majbur qilgan. Qo'zg'olon rahbarlaridan **Fulviy Flakx** qo'lga tushirilib qatl etilgan. Gay Grakx chekinayotib, dushman qo'lidan qutulib ketishiga ko'zi yetmagan va o'z quliga uni o'ldirishni buyurgan. Mil. avv. 121-yilda Gay Grakx o'z buyrug'iga binoan quli tomonidan o'ldirilgan.

**GIYERON II** — *Agafokldan* so'ng taxtga chiqqan Sirakuza hukmdori. U kampaniyalik yollanma askarlar bosib olgan Sitsiliyaning shimoli sharqidagi Messanani qamal qilib, kampaniyalik yollanma askarlarga qarshi kurash boshlagan. Yollanma askarlarning bir qismi Karfagenga, bir qismi esa Rimga yordam so'rab murojaat qilganlar. Shundan so'ng rimliklar Messanaga qo'shin tushirib Karfagenga urush e'lon qilgan. Bu urush mil. avv. 264-yilda boshlanib 23 yil davom etgan.

**GONORIY (Honorius) (384–423-yillar)** — G'arbiy Rim imperiyasi hukmdori (395-yildan). Rim imperatori **Feodeseyning** kichik o'g'li. 395-yilda **Feodesey** Rimni ikki davlat: Sharqiy va G'arbiy Rimga bo'lib tashlaydi va G'arbiy Rim imperiyasiga Gonorini imperator etib tayinlaydi. G'arbiy Rimga Italiya, Yevropa va Shimoliy Afrikadagi viloyatlar kirgan.

**GORDIAN**, to'liq ismi **Mark Antoniy Gordian (taxm. 225 — 244-yil, Zayfa, Mesopotamiya)** — Rim imperatori (238-yildan). Uning davrida Rim askarlari Sosoniylar hukmdori **Shopur I** qo'shinlari bilan janglar olib borgan. Bu urushlarning birida Gordian halok bo'lib, juda ko'p rimlik aslzodalar va askarlar asir tushganlar. Ular Shopur I ga 500 ming dinor aqcha to'lashga majbur bo'lganlar.

**IOANN Krestitel** — xristianlik dinida **Iso Masih (Iisus Xristos)**ni cho'qintirgan inson.

**IOSIF (Yusuf)** — Falastin o'lkasi, Jalila viloyatining Nasro (Nazaret) qishlog'ida yashovchi, hazrat **Dovud alayhissalom** avlodidan bo'lgan najjor (duradgor). Unga unashirib qo'yilgan **Maryamdan**, Yahudiya o'lkasining **Bayt-Laxm** (Vifleem) shahrida qudratli ilohiy kuch bilan **Iso Masih** otasiz tug'ilgan.

**IPATIYA (Gipatiya) (370–415-yillar)** — ilmfan yo'lida jafo chekkan va xristianlar qo'lida vahshiyona o'ldirilgan olima ayol. Uni xristianlar Iskandariya ko'chalarida sazoyi qilib, so'ng chavaqlab burda-burda qilib o'ldirganlar.

**ISO Masih** — **Qur'onda** tilga olingan payg'ambarlardan biri. Islomda **Muhammad (sav)**dan oldingi payg'ambar sifatida alohida e'zozlanadi. Qur'onda, shuningdek, "**al Masih**" ("*xudo yarlagagan*"), **Ibn Maryam** ("*Maryamning o'g'li*"), **Abdulloh** ("*Allohning quli*"), **Rasululloh** ("*Allohning elchisi*"), **Allohning muqarrabi (yaqini)**, "**Haqni so'zlovchi**", deb ta'riflanadi. Iso Masihga **Injil** nozil qilingan. Qur'onga ko'ra, Iso — Allohning o'g'li emas, Xudo ham emas. Iso — Allohning bandasi va bokira qiz **Maryamdan** mo'jiza bilan tug'ilgan. Alloh unga "**Bani Isroil**" qavmini hidoyatga boshlash uchun payg'ambarlik darajasini iroda etdi. Iso Masih odamlarni o'z ta'limotiga ergashishlariga da'vat qildi. Yahudiylarni noto'g'ri yo'llardan qaytarib, ularga halol va xaromni tushuntira boshladi. O'zidan keyin **Ahmad** (ya'ni **Muhammad**) nomida bir payg'ambar bo'lishi bashoratini ham yetkazdi. **Xristianlik**da Iso Masih "**Iisus Xristos**" nomi bilan yuritilib, xristianlik asoschisi hisoblanadi ("**Xristos**" so'zi yunoncha so'z bo'lib, o'zbek tilida "**xaloskor**" ma'nosini anglatadi). Xristian cherkovlarining aksariyati uni Xudo-odam sifatida ulug'laydi. Injilga ko'ra, Iso xudoning o'g'li bo'lgan, **Vifleem** (hozirgi **Beit-Laxm shahri**)da duradgor **Iosifning** xotini Mariyadan tug'ilgan. Iosif va Mariya go'dagi bilan podshoh **Irod I** ta'qibidan qochib, Misrga boradilar, keyin Galileya (Falastin)ga qaytadilar. Iso Masih targ'ibotchilik faoliyatini boshlab yuboradi. Uni **Ioann Krestitel** cho'qintiradi. Iso atrofida 12 shogird (*apostol — havoriy*)larni to'playdi. Havoriylardan biri Iso targ'ibot qilayotgan yangi ta'limotni oshkor etib qo'ygach, yahudiylar sudi — sinedrion Iso Masihni o'lim jazosiga hukm qiladi. Rim noibi **Pontiy Pilat** bu hukmni tasdiqlashi shart edi. Avvaliga Pontiy Pilat bu ishni qilishdan bosh tortgan, ammo ruhoniylar tazyiqi ostida rozilik beradi. Isoni **Golgof tog'ida** chormix qilib qail etadilar. Lekin u tirilib o'z shogirdlari oldiga keladi. Xristianlar Isoni tirilib kelishi ("*воскресение*")ga ishonadilar. Fanda Isoning tarixiyliigi e'tirof etiladi. U I asrning 1-yarmida Falastinning Galileya mintaqasida Iisus (Ieshua) ismi bilan sayyoh da'vatchi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Isoning targ'iboti fariseylar va esseylar ta'limoti kabi mahdud emas, balki Falastinning jamiyatining barcha tabaqalariga qaratilgandi. Shu boisdan ham keyingi asrlarda grek-rim zaminida Iso ta'limotining tarafdorlari mahalliy tusdagi bu harakatni O'rta dengiz havzasini to'lig'icha

qamrab olgan olamshumul dinga aylantirishga erishdilar.

**KALIGULA Gay Sezar (Caligula) (milodiy 12-41-yillar)** – Rim imperatori (37–41-yillar). *Oktavian Avgustning o'g'li; Yuliy-Klavdiylar sulolasidan*. Uning cheklanmagan hokimiyatga va xudo singari izzatikrom ko'rsatishga intilishi senat va pretorianlar tomonidan norozilik uyg'otadi. U 41-yilda fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

**KARAKALL (Caracalla, Caracallus)**, haqiqiy ismi **Septimiy Bassian (Septimius Bassianus)**, to'liq imperatorlik ismi **Mark Avreli Antonin (Marcus Aurelius Antoninus)** [188-yil 4-aprel, Lugdunum, Galliya (hozirgi Lion, Fransiya) – 217-yil 8-aprel, Mesopotamiyadagi Karr yaqinida, (hozirgi Xaran, Turkiya)] – Rim imperatori (211–217-yillar). *Severlar sulolasidan*. Imperator **Septimiy Severning** o'g'li. Otasi Septimiy Sever vafotidan oldin Rim imperiyasini **Karakall** va uning ukasi **Publiy Septimiy Getega** qoldiradi. Ammo Karakall bunga norozi bo'lgan va ukasi Geteni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'liga olgan. U davlatni mustahkamlash uchun ba'zi ishlar qilgan. Otasi boshlab ketgan *hammom* – terma binosini qurib bitkazgan. Karakall shimoldagi va sharqdagi saltanat dushmanlari bilan qattiq kurash olib borgan. 215-yilda Mesopotamiyaga bostirib kirgan. Parfiya podshosi **Vologiz V** rimliklarning talablarini bajaradi va urush to'xtatiladi. Karakall 216-yilda Parfiyaga qarshi yangidan urush e'lon qilgan. 217-yilda Karakallga suiqaqd uyushtirilib, o'ldiriladi.

**KASSIY (Cassius) (mil. avv. ?–42)** – Qadimgi Rimda **Yuliy Sezarga** qarshi qirq to'rtlar fitnasining boshlig'i (**Brut** bilan birgalikda). Fitnachilar Sezarni o'rab olib, kiyimlari ostiga yashirgan xanjar bilan 23 joyidan chavaqlab o'ldirganlar. Kassiy Brut bilan birgalikda mil. avv. 43-yilda *Oktavian, Antoniy va Lepidlardan* iborat uchlar ittifoqi (**“Ikkinchi triumvirat”**)ga qarshi kurashgan. Mil. avv. 42-yilda Makedoniyadagi Filippa shahri yaqinida *Oktavian-Antoni*y qo'shinlari bilan *Kassiy-Brut* qo'shinlari o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Jangda respublikachilarning qo'shini tor-mor etiladi. Jang vaqtida Brut dushmanlariga asir tushishni istamay o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'ladi. Kassiy esa o'z chodirida o'ldiriladi.

**KATA Pliniy** – I asrning 2-yarmida yashab ijod etgan Rim tarixchisi. Uni qomuschi olim ham deyishgan. Tarixiy mavzuda ko'plab asarlar yozgan. Ammo uning asarlari bizgacha yetib kelmagan.

**KATON SENZOR Mark Porsiy, (Marcus Porcius Cato Censorius, Cato Major) (mil. avv. taxm. 234, Tuskul – 149, Rim)** – birinchi nasrnavis lotin yozuvchisi, Rim senatori. Karfagenliklarning

ashaddiy dushmani bo'lgan. U mil. avv. 153-yilda Karfagenga kelib iqtisodiy faravonlikni ko'rib hayratga tushgan. Chunki, Karfagen Puni urushlaridan keyin ancha zaiflashib qolgan edi. U o'zining nutqida **“Karfagenni vayron qilish kerak”** degan iborani ko'p ishlatar ekan.

**KLAVDIY (Claudius), Tiberiy Klavdiy Neron Germanik (mil. avv. 10-y. – Lugdunum – 54-y.)** – Rim imperatori (41–54-yillar), *Yuliy-Klavdiylar sulolasidan*. Bir guruh harbiylar tomonidan taxtga o'tqizilgan. U o'ziga qarshi suiqaqd uyushtirgan fitnachilarni fosh etib, ularning ba'zilarini qatl ettirgan, ba'zilarini o'zga yurtlarga surgun qilgan. Klavdiy imperiya byurokrtiyasiga asos solgan, davlatning moliyaviy ahvolini yaxshilagan, soliq tizimini tartibga solgan, provinsiyalardagi jamoalarga ham Rim fuqaroligi huquqini in'om etgan. Klavdiy davrida Bosfor, Britaniya, Frakiya, Dunay bo'ylari, shimoliy Afrikadagi Mavritaniya Rimga itoat ettirilgan. U Parfiya bilan muvaffaqiyatsiz urushlar olib borgan. Ammo Klavdiy ikkinchi xotini tomonidan zaharlab o'ldirilgan.

**KLEON** – mil. avv. 138–132-yillarda Sitsiliya orolida ko'tarilgan eng dahshatli va eng uzoq davom etgan qo'zg'olonga **Yevn** bilan birgalikda boshchilik qilgan. Qo'zg'olon olti yil davom etib, **Rutuliy** boshliq Rim qo'shinlari tomonidan katta qiyinchilik bilan bostirilgan. Qo'zg'olon rahbarlaridan Kleon jangda halok bo'lgan, Yevn esa asir olinib zindonda qiynab o'ldirilgan. Kleon va Yevn boshchiligidagi qo'zg'olon Sitsiliyada bo'lib o'tgan eng yirik qo'zg'olonning birinchisi bo'lgan.

**KLEOPATRA (mil. avv. 69 Iskandariya – mil. avv. 30-yillar)** – Misrning *Ptolemeylar sulolasidan* bo'lgan so'nggi podshohi. **Ptolemey XI** ning qizi. Kleopatra o'z ukasi **Ptolemey XII Dioniska** turmushga chiqib, u bilan birgalikda davlatni idora qila boshlagan (mil. avv. 51-yildan) bo'lsa-da, yakka o'zi taxtga egalik qilish uchun zimdan kurash olib borgan, niyati fosh bo'lgach, Suriyaga surgun qilingan (mil. avv. 48-yil). Ammo Kleopatraning bilimdonligi, aql-zakovatiga maftun bo'lib qolgan **Yuliy Sezar** mil. avv. 47-yilda uni Misrga qaytargan (Kleopatra undan Sezarion ismli o'g'il ko'rgan). Sezar o'ldirilgach, Kleopatra **Mark Antoniyning** ittifoqchisi va ma'shuqasi (mil. avv. 37-yildan xotini) bo'lgan. Mil. avv. 31-yilda **Oktavian Avgust** qo'shinlari Misrni zabt etgach, Antoniy va Kleopatra o'zlarini o'ldirishgan. Naqlga ko'ra, o'sha davrda misrliklar e'tiqodiga asosan abadiy barhayotlikka erishmoq uchun o'zini zaharli ilonga chaqtirgan. Kleopatra timsoli G'arb hamda Sharq adib, shoir, dramaturg, rassom va haykaltaroshlari asarlarida aks etgan, unga bag'ishlab filmlar yaratilgan.

**KLODIY (Clodius) (mil. avv. taxm. 93–52-yillar)** — *Spartak* boshchiligidagi qullar qo'zg'olonini (mil. avv. 74–71-yillar) bostirish uchun mil. avv. 73-yilda Rim senati tomonidan yuborilgan sarkarda. *Vezuviy tog'ida* bo'lgan ayovsiz jang natijasida spartakchilar Klodiy boshchiligidagi Rim qo'shinini tor-mor etgan va juda ko'p o'lja va qurol-yarog'larni qo'lga tushirganlar. Bu Spartak boshliq qo'zg'olonchilarning dastlabki g'alabasi bo'lgan.

**KOMMOD Lutsiy Eliy Avreliy Mark Antonin (Lucius Aelius Aurelius Commodus) (161, Lanuviy – 192, Rim)** — Rim imperatori (180–192-yillar). *Antoninlar sulolasining* so'nggi vakili. 192-yilda fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

**KONSTANTIN I Flaviy Valeriy, Buyuk Konstantin (taxm. 285, Naissus – 337, Ankiron)** — Rim imperatori (306–337-yillar). *Diokletian* taxtdan ketgach, hokimiyat tepasiga kelgan. Konstantin hokimiyatni bosib olish va uni qo'lda saqlab qolish uchun hech narsadan qaytmagan va ichgan qasamini buzib o'z ittifoqchilarini o'ldirib yuborgan. U katta yer egalari, ustaxona egalari manfaatini ko'zlab qullar, kolonlar va ozod kishilarga qattiq azob bergan. O'z xo'jayinidan qochib ketgan kolonlar va qullar ushlab olinsa, avval kaltaklangan, kishanga solinib xo'jayiniga qaytarilgan. Ustaxona, korxonalar va konlarda ishlovchilar qochib ketganda topilishi oson bo'lishi uchun ularning badaniga qizdirilgan tamg'a bostirgan. Uning davrida soliqlarning turi ham, miqdori ham oshirilgan. U hunarmandlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishini taqiqlagan. Har bir kishi o'z hunarini bolalariga o'rgatishi majburiy bo'lgan. Konstantin davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich markazlashtirib borgan, oldingi diniy e'tiqod — butparastlikni saqlab qolgan holda, xristianlar cherkovini qo'llab-quvvatlab turgan. Konstantin I davridagi muhim voqealardan biri 313-yildagi *Milan edikti* edi. Unga binoan, xristian diniga e'tiqod qiluvchilarga erkinlik berilib, cherkov va cherkov mulklari qaytarib berildi. 324–330-yillarda Vizantiya shahri o'rnida yangi poytaxt — *Konstantinopolga* asos solgan. Konstantin I davrida uning g'alabalari sharafiga Rimdagi *Zafar darvozasi* qurilgan.

**KONSTANSIY II Flaviy Yuliy (317, Sirmiy – 361, Mopsukrena, Kilikiya)** — Rim imperatori (337–361-yillar). Arianlik (xristianlik oqimlaridan biri)ni qo'llab-quvvatlab, butxonalarni yoptirgan, qurbonlik qilishni taqiqlagan.

**KORNELIY Sels** — Italiyada tibbiyot ishlari bilan shug'ullangan mashhur yunonistonlik shifokor. U boshqa bir yunonistonlik olim *Asklepiod* bilan birgalikda 70 jildlik *“Arteo”* (*“San'at”*) nomli asar yozib qoldirgan. Bu asarning 8 jildi tabobat ilmiga

bag'ishlangan edi. Korneliy bu to'plamni o'z tajribalari bilan boyitgan. Asklepiod esa o'zidan oldin o'tgan mashhur tabiblarning asarlarini tartibga solgan.

**KORNELIY Tasit (Tacitus)** — milodiy 54–120-yillar orasida yashagan Rim tarixchisi. U o'zining *“Tarix”* kitobida 68–69-yillardagi fuqarolar urushi va Flaviylar sulolasi zamoni tarixini bayon etgan. Uning *“Yilnomalar”* nomli asarida **Avgust** o'limi bilan **Neron** o'limi orasidagi voqealar bayon etilgan.

**KRASS (Crassus) Mark Litsiniy (mil. avv. taxm. 115-yil, Rim – mil. avv. 53-yil 6 may, Karri)** — Rim sarkardasi. *Sulla* tarafdori. *Proskripsiylar* natijasida nihoyatda boyib ketgan va Rimdagi eng badavlat shaxsga aylangan. Bu boylikdan siyosiy maqsadlarda ustamonlik bilan foydalangan. 70 va 55-yillarda konsul etib saylangan. Krass *Sezar* va *Pompey* bilan birga *birinchi triumviratga* kirgan (60-yil). Bu uchlik davlatni amalda egallab olgan. Mil. avv. 71-yilda *Spartak qo'zg'olonini* bostirgan. Krass 55-yilda Suriya viloyatini 5 yilga boshqarish huquqini olgan. Parfyanlar bilan bo'lgan *Karri jangida* mag'lubiyatga uchrab halok bo'lgan. Krass tarjimayi holi *Plutarx* tomonidan bayon etilgan.

**LOTIN** — Troyadan ko'chib kelgan *Eney* boshliq troyaliklarni samimiy kutib olgan Lasiya hukmdori. U o'z qizini Eneyga beradi. Lotin vafotidan keyin Lasiya taxtiga Eney o'tiradi.

**LUKRETSIY, Tit Lukretsiy Kar (Titus Lucretius Carus) (mil. avv. 99–55-yillar)** — Rim shoiri va faylasufi. U *“Buyumlar xislati haqida”* deb atalgan falsafiy kitobida dunyo, odamlar, hayvonlar va narsalarning paydo bo'lishi to'g'risida ko'p ma'lumot yozib qoldirgan. U yunon olimlari *Demokrit* va *Epikurlar* izidan borib, *dunyodagi barcha narsalar atom zarralaridan tuzilgan*, — deb ta'kidlaydi. *Odamlar tabiat hodisalaridan qo'rqib xilma-xil xudolarga e'tiqod qilishni vujudga keltirganlar. Odamlar kashf etgan olov, ma'danlar va ulardan yasalgan qurollar, yozuv, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va boshqa narsalar xudolar in'omi emas, balki odamlar mehnatining natijasidir*, — deb yozgan edi. Lukretsiy o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarni inson tafakkurini jilovlab turadigan yuganga o'xshatadi. U o'z asarida tabiat, jamiyat va kishilar hayotida sodir bo'ladigan voqealarni sodda, ilmiy tilda tushuntirib berishga harakat qilgan.

**LUKUM Mark** — Frakiya sarkardasi. mil. avv. 71-yilda *Spartak qo'zg'oloni* ishtirokchilari Lukoniyada paydo bo'lishi senatni qo'rqitib yuborgan va Mark Lukum boshliq qo'shinlarni Frakiyadan Italiyaga chaqirib olgan. Senat Mark Lukumga mashhur sarkardalar *Pompey* va *Krass* bilan birgalikda Spartak qo'zg'olonini bostirishni topshirgan.

**LUSIY OPIMIY** – Rim konsuli. Demokratik agrar (yer) islohot o'tkazish yo'li bilan dehqonlarning xonavayron bo'lishdan saqlab qolmoqchi bo'lgan **Gay Grakx** (mil. avv. 153–121) va uning tarafdorlari ko'targan qo'zg'olonni bostirgan.

**MAKSIM** – Rim imperatori (235–238-yillar). Rim aslzodalari va senat uning ishidan norozi bo'lganlar. 238-yildagi o'zaro urushlar davrida halok bo'lgan.

**MANSIN** – Karfagen urushining dongdor ishtirokchisi, Ispaniya konsuli. Qadimgi Rimning siyosiy arbobi, xalq tribuni (notig'i) **Tiberiy Grakx** uning bosh xazinachisi bo'lib ishlagan.

**MARIYA** – xristianlikda xudo-ona, **Iso Masih**ning onasi. Injilda aytilishicha, Mariya **Iosif**ning xotini bo'lib, ilohiy homilador bo'lgan va Isoni tuqqan. Xristianlikda Mariyaga sig'inish majusiylikdagi xudo-ona, hosildorlik ma'budasi (**Isida, Astarta**)ga sig'inish ta'sirida shakllangan. 3-Jahon soborida (431-yilda) Mariya xudoning onasi deb rasman tan olingan. Mariyaga sig'inish, ayniqsa, katoliklarda keng tarqalgan. Katolitizmda Mariyaning o'zi ham ilohiy homiladorlik bilan tug'ilganligi haqida (1854-yil), Mariya vafotidan so'ng uning jasadi osmonga ko'tarilib ketganligi haqida (1950-yil) aqidalar qabul qilindi. 1964-yilda papa **Pavel VI** Mariyani **cherkov onasi** deb e'lon qildi. Mariya va uning go'dagi mavzusi o'rta asr san'atida katta o'rin egallaydi. Mariya islom dinida ham ayollar valiysi, homiysi sifatida ilohiy lashtirilgan, uning nomi Qur'onda tilga olingan (**Bibi Maryam**).

**MESANAT** – o'z zamonasining ma'rifatparvar kishisi, **Yuliy Sezarning** do'sti. U o'z davrida yashagan shoir va adiblarga homiylik qilib, ularni qo'llab-quvvatlagan kishi sifatida mashhurdir.

**NERON (Nero) (37-yil 15-dekabr, Antiy – 68-yil 9-iyun, Rim)** tug'ilganidagi to'liq ismi – **Lutsiy Domisiy Agenobarb (Lucius Domitius Ahenobarbus)**, taxtga o'tirganidagi ismi – **Neron Klavdiy Sezar Druz Germanik (Nero Claudius Caesar Drusus Germanicus)** – Rim imperatori (54–68-yillar); **Yuliy-Klavdiy**lar sulolasidan. Rim imperatori **Klavdiyning** o'gay o'g'li. Bag'ritosh, takabbur, maishatboz bo'lgan. 59-yilda **Oktaviyga** onasini o'ldirishni, 62-yilda esa xotinini o'ldirishni buyurgan. 64-yilda Rimning katta qismiga o't qo'ygan, bunda uni qo'li borligida shubha qilishmasligi uchun Rim xristianlarini ta'qib eta boshlagan. Keyinchalik shaharni tiklash uchun provinsiyalar aholisidan olinadigan soliqlarni keskin oshirgan. Bu Neronga qarshi norozilikning kuchayishiga sabab bo'lgan. Neron qatag'on siyosati va aholi mol-mulkini musodara qilish bilan Rim jamiyatining turli qatlamlarini o'ziga qarshi qilib

qo'ygan. Xalq qo'zg'olon ko'tarishidan xavfsirab, Rimdan qochgan va o'zini o'zi o'ldirgan.

**NERVA Mark Koksey (Marcus Cocceius Nerva) (taxm. 30 – 98-yil, yanvar)** – Rim imperatori (96–98-yillar). **Antoninlar sulolasi** asoschisi. **Domisian** o'ldirilgach, imperator deb e'lon qilingan.

**NUMITOR** – Lasiya podshosi **Eneyning** avlodlaridan biri. U ukasi **Amuliy** tomonidan taxtdan ag'darilib tashlangan.

**VIDIY** – mil. avv. I asrda yashagan atoqli Rim shoiri. U **“Qahramon ayollar”, “Ishq san'ati”, “Dard-alamlar”** va **“Pontdan maktublar”** degan asarlar yozgan. U o'zining ushbu asarlarida Avgust davridagi aslzodalar turmushini qattiq tanqid ostiga oladi. Ovidiy o'zining boshqa asarlarida o'sha davr tuzumidan noroziligini, o'z qayg'u-alamini va mehnatkashlarning og'ir turmushini bayon etgan. Shu tufayli imperator g'azabiga uchrab Qora dengizning g'arbiy sohilidagi **Tomi shaharchasiga** surgun qilingan. U o'zga yurtlarda sarson-sargardon bo'lib yurishga majbur bo'lgan.

**PERSEY (mil. avv. 213–168-yillar)** – Makedoniyaning so'nggi hukmdori (179–168-yillar). Persey Makedoniyadagi kuchlarni birlashtirib, rimliklarga qarshi kurash boshlagan. Mil. avv. 168-yilda Persey qo'shinlari bilan rimliklar o'rtasida qattiq jang bo'lib, makedoniyaliklar yengilganlar. Persey rimliklar qo'lga asir tushib halok bo'lgan.

**PIRR (mil. avv. 319–273-yillar)** – Epir podshosi (mil. avv. 307–302 va 296–273). Terent hukmdorlarining yordam so'rab murojaat qilgani bois Terent shahri tomon turib, Rim bilan kurashgan. Mil. avv. 280-yili o'zining saralangan otliq askarlari va jangovar fillaridan iborat katta qo'shinlari bilan Terentga yordamga kelgan va **Gerakliya yaqinida** bo'lgan jangda PIRR qo'shini rimliklarni tor-mor etib, samnitlar yurti va Kampaniya orqali Rim ostonalarigacha yetib borgan. PIRR Italiyadagi yunon shaharlari mustaqil bo'lishi kerakligi haqida rimliklarga sulh taklif qilgan. Ammo Rim senati bu taklifni rad etgan. Mil. avv. 279-yil PIRR qo'shinlari **Auskul shahri yaqinidagi** dahshatli jangda Rim qo'shinlarini tor-mor etgan. Bu jangda PIRR o'zining juda ko'p jangchilaridan ajragan. Shunda PIRR: **“Agar biz rimliklar ustidan yana bir mana shunday g'alaba qilsak, butunlay halok bo'lar ekanmiz”,** – degan edi. Shundan so'ng PIRR Sitsiliya karfagenliklar bilan urush olib borgan. Mil. avv. 275-yili PIRR Italiyaga qaytib kelib, o'zining otliq suvoriylari va jangovar fillarni Rim qo'shinlari ustiga tashlagan. Rim askarlari fillarning oyoqlari ostiga o'tkir mix qoqilgan taxtachalar tashlab olovli kamon o'qlari va nayzalar bilan fil mingan jangchilarga hujum qilganlar. Jangda

Pirr askarlari mag'lubiyatga uchrab Yunonistonga jo'nab ketgan. Pirr esa mil. avv. 272-yil Makedoniya taxti uchun olib borilgan janglar vaqtida halok bo'lgan.

**POMPEY Gney (Gnaeus Pompeius Magnus) (mil. avv. 106–48)** – Rim sarkardasi va siyosat arbobi. Dastlab, *Sulla* tarafdori bo'lgan. Mil. avv. 70, 55 (*Krass* bilan birgalikda) va 52-yillarda *konsul* bo'lgan. *Spartak qo'zg'olonini* bostirgan. 66-yildan *Mitridat VI Eypatorga* qarshi urushda Rim qo'shiniga qo'mondonlik qilgan va g'alabaga erishgan. Mil. avv. 60-yilda senatga qarshi kurash uchun *Krass* va *Sezar* bilan bitim tuzgan (*birinchi triumvirat*). Triumvirat bo'linishidan keyin *Sezarga* qarshi kurashgan. Mil. avv. 48-yilda *Dirraxiy* (Epir) yaqinida uni yengadi, lekin *Farsal* (Fessaliya) yaqinida *Sezardan* mag'lubiyatga uchrab, *Misrga* qochadi. U yerda shoh *Ptolemey XIII Dionis* buyrug'iga ko'ra o'ldirilgan. Pompey madaniyat homiysi ham bo'lgan. U Yunonistonda teatr bilan tanishib, Rimda ham yunon namunasidagi birinchi teatrni qurdirgan.

**POMPEY Sekst (Pompeius) (mil. avv. taxm. 75–35-yillar)** – rimlik mashhur sarkarda *Pompey Gneyning* o'g'li. Sitsiliya, Sardiniya va Korsikada uning orol davlati bo'lgan. Rim imperatori *Oktavian Avgust* hukmronligi davrida uning oroldagi davlati Rimga qo'shib olingan.

**PONTIY Pilat (Pontius Pilatus)** – ruhoniylar tazyiqi ostida *Iso Masihni* Golgof tog'iga chormix qilib xochga tortishni buyurgan Rim noibi.

**PROB (Probus) (232–282-yillar)** – Rim imperatori (276–282-yillar). U Rim saltanatining chegaralarini mudofaa qilishda jonbozlik ko'rsatgan, qo'shinda qattiq intizom o'rnatishga harakat qilgan. Ammo uning faoliyatidan norozi bo'lgan harbiylar 282-yilda o'ldirganlar.

**PUBLIY KORNELIY SSISION** – Rimning mashhur sarkardasi. U mil. avv. 133-yilda Ispaniyani qamal qilib, tashqi aloqalardan mahrum etgan. U boshliq Rim askarlari shaharliklarni holdan toydirib, shaharga bostirib kirganlar va uni ishg'ol qilganlar. Rimliklar avval shaharni talaganlar, so'ng vayron qilib o't qo'rganlar. Numansiyaga qarashli yerlarni rimliklarga bo'lib berganlar. Ispan aholisining katta qismi qul qilib sotib yuborilgan. Shunday qilib, Publiy Korneliy Ssisionning Ispaniyani bosib olishi Rim davlatining chegaralarini Atlantikaning sharqiy sohillarigacha kengaytirgan. Shu davrda Rim Yevropadagi va jahondagi eng yirik va kuchli quldorlik davlatiga aylangan.

**PUBLIY KRASS** – mil. avv. 132–130-yillarda Pergamda ko'tarilgan *Arsitak qo'zg'olonini* bostirgan Rim konsuli.

**PUBLIY SEPTIMIY GETE** – Rim imperatori *Septimiy Severning* o'g'li. Otasi Septimiy Sever vafotidan oldin Rim imperiyasini *Gete* va uning akasi *Karakallga* qoldiradi. Ammo Karakall bunga norozi bo'lgan va ukasi Geteni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'liga olgan.

**REM** – Rim rivoyatiga ko'ra, Rimning birinchi podshosi bo'lgan *Romulning* egizak ukasi. Kohin ayol *Reya Silviya* va urush xudosi *Marsning* nikohidan tug'ilgan. Afsonada aytilishicha, Rem shahar barpo qilish va unga hokim bo'lish masalasida akasi Romul bilan janjallashib qolgan va janjal vaqtida akasi tomonidan o'ldirilgan.

**ROMUL (Romulus)** – Rim rivoyatiga ko'ra, Rim shahri asoschisi va 1-podshosi (mil. avv. 754/753 – 717/716). Afsonaga binoan, kohin ayol *Reya Silviya* va urush xudosi *Mars* nikohidan tug'ilgan Romul va uning egizak ukasi Remni ona bo'ri emizib, cho'pon tarbiya qilgan. Egizaklar katta bo'lishgach, shahar barpo qilish va unga kim hokim bo'lish masalasida janjallashib qoladilar. Janjal vaqtida Romul Remni o'ldirib, taxtni egallaydi. Romul o'zlarini cho'pon topib olgan joy yaqinidagi tepalikda shahar barpo etadi. Shaharga *Rim* (lotincha *Roma*) deb nom qo'yadi va unga podsholik qiladi. U o'z hukmronligi davrida Rim senatini ta'sis etgan va aholini tabaqalarga – *kuriyalarga* bo'lgan, qo'shin tashkil etgan, Rim fuqarolarini *patritsiylarga* va *plebeylarga* ajratgan.

**ROMUL Avgustul (Romulus Augustulus)** – G'arbiy Rim imperiyasining so'nggi hukmdori (475–476-yillar). 476-yilda german yollanma askarlari sardori *Odoakr* tomonidan taxtdan ag'darilgan. U taxtdan ketishi bilan 81 yil yashagan G'arbiy Rim imperiyasi (395–476-yillar) ham qulagan.

**SENEKA (Seneca) Lutsiy Anney (taxm. mil. avv. IV, Kordova, Ispaniya – mil. 65, Rim)** – Rim faylasufi, yozuvchi, davlat arbobi. Rim imperatori *Neronning* tarbiyachisi va maslahatchisi; unga suiqasd qilishda ayblangan va o'zini o'ldirgan. Seneka *stoitsizmning* yirik vakillaridan biri. U tabiat va inson mohiyati haqida keng bilimga ega bo'lgan, adabiy uslubni juda yaxshi egallagan. Senekaning falsafiy qarashlari ziddiyatli. U falsafani hayotda axloqiy-diniy qo'llanma deb bilgan. *“Lutsiliyga xatlar”* falsafiy asari, *“Himmat haqida”*, *“Rahm-shafqat haqida”*, *“Ruhiiy xotirjamlik haqida”* va boshqa risolalarida tarki dunyo qilish, o'lim va taqdirni nazar-pisand qilmaslik, ehtiroslardan xoli bo'lish, kishilarning axloqiy tengligi masalalari yoritilgan.

**SEPTIMIY SEVER (Septimius Severus)** to'liq ismi – *Lusiy Septimiy Sever Pertinaks (Lucius Septimius Severus Pertinax)* [146-yil, Leptis-

**Magna, Tripolitaniya, hozirgi Liviya – 211-yil fevral, Eborakum, Britaniya)]** – Rim imperatori (193-yildan). *Severlar sulolasining* asoschisi. Shimoliy Afrikaning Ulug' Leptis shahridan bo'lgan. U keng ma'lumotli kishi bo'lib, g'ayratli lashkarboshi va mohir davlat arbobi bo'lgan. U taxtga o'tirgach, qo'shinni Frakiya, Reyn va Dunay bo'yi qabilalaridan tuzilgan jangchilar bilan to'ldirgan. Viloyatlardan kelgan quldorlar, aslzodalar Rim qo'shini va idoralarda oliy lavozimlarni egallaganlar. Septimiy Sever davlat boshqaruvi, qo'shin va boshqa sohalarda islohot o'tkazgan. U Britaniyaga bostirib kirib, uning janubiy viloyatlarini bosib oladi. Ammo Britaniyani bosib olishga ulgurmay, 211-yilda o'z ajali bilan vafot etgan.

**SEZAR Gay Yuliy (mil. avv. 102 yoki 100–44-yillar)** – Rim diktatori (49, 48–46, 45; 44-yildan umrbod), sarkarda, yozuvchi. Siyosiy faoliyatini demokratik guruh tarafdori sifatida boshlab, harbiy tribun (73-yil), edil (65-yil), pretor (62-yil) lavozimlarida xizmat qilgan. Konsullikka intilib, 60-yili **Pompey** va **Krass** bilan ittifoq tuzgan (**birinchi triumvirat**). 59-yilda Konsul, so'ngra Galliya noibi bo'lgan. 58–51-yillarda butun Alp orti Galliyasini Rimga bo'ysundirgan. Krass vafotidan keyin 48-yilda armiyaga tayanib, yakka hokimlik uchun kurash boshlagan. Pompey va uning tarafdorlarini 49–45-yillarda tor-mor qilib, hokimiyat tepasiga chiqqan. O'z qo'lida respublikaning eng muhim lavozimlarini (diktator, konsul va b.) jamlab, amalda rasmiy monarx bo'lgan. Rim aslzodalari va senatorlarning bir qismi uning yakka hokimligidan norozi bo'lib, respublika tarafdori edilar. Shuning uchun mil. avv. 44-yilda Sezar Yupiter bayrami kuni senat majlisida Kassiy va Brut boshliq respublikachilar fitnasi natijasida o'ldirilgan. "**Galliya urushi haqida xotiralar**" hamda "**Fuqarolar urushi haqida xotiralar**" asarlari muallifi. O'z nomi bilan yuritiladigan **Yuliy kalendarini** isloh etgan.

**SILVIYA** – **Eney** shohining avlodlaridan biri bo'lgan **Numitorning** qizi. Silviya bilan xudo **Mars** nikohidan ikki o'g'il – **Romul** va **Remlar** dunyoga keladi.

**SIMON** – 132–135-yillarda Quddusda bo'lgan yahudiylar qo'zg'olonining rahbari. Rim imperatori **Adrian** (117–138-yillar) qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirgan. Aholining ko'pchiligi qul qilib sotib yuborilgan. Quddus rimliklarga qaram bo'lib qolgan.

**SPARTAK (Spartacus) (? – mil. avv. 71-yil)** – Qadimgi Rimda ko'tarilgan qullarning yirik qo'zg'oloni (**Spartak qo'zg'oloni** mil. avv. 74 (yoxud 73) – 71-yil) rahbari. Frakiyalik shohlar xonadoniga mansub bo'lgan. Rimliklarga asir tushib,

qul qilib sotib yuborilgan va **Kapuyadagi** gladiatorlar g'amoq-maktabiga olingan. Spartak asirga tushgan jangchilarga "*teatrda hayotni xavf ostiga qo'ygandan ko'ra, bu yerdan qochib ketish yaxshiroq*" deb aytdi. U mil. avv. 73 (yoki 74)-yilda g'amoq-maktab gladiatorlari bilan qochib ketgan va **Vezuviy tog'iga** borib yashiringan. Shu asnoda Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni boshlanadi. Qo'zg'olon dastlab Janubiy Italiyani qamrab olgan va keyinchalik butun Italiyaga yoyilgan. Qo'zg'olonchilar qo'shini taxminan 70 ming kishini tashkil etgan. Mil. avv. 71-yilda Spartak **Krass** boshchiligidagi Rim qo'shini tomonidan mag'lubiyatga uchradi va jangda halok bo'ladi.

**SSIPION (mil. avv. 235–183-yillar)** – **Ikkinchi Puni urushida** Gannibal qo'shinini Zama yonida mil. avv. 202-yilda mag'lubiyatga uchratgan rimlik sarkarda.

**STILIXON** – 402-yilda gotlarning Italiyaga uyushtirgan birinchi hujumini qaytargan vandal sarkardasi. Ammo tez orada o'ldirilgan.

**SURENA** – parfiyaliklar sardori. Mashhur Rim sarkardasi **Krass** u bilan muzokara olib borayotgan paytda xoinlarcha o'ldirilgan.

**TARKVINIY (Tarquinius Superbus)** – Rim rivoyatlariga ko'ra, Qadimgi Rimning so'nggi podshosi (mil. avv. 534/533–510/509-yillar); laqabi "**Mag'rur**". Rim hukmdori **Serviy Tulliy**ni o'ldirib, hokimiyatni egallagan. Bundan xabar topgan aholi qo'zg'olon ko'tarib, Tarkviniy shahardan quvib chiqargan.

**TERENSIY VARRON** – Rim konsuli. Ikkinchi Puni urushi davrida sodir bo'lgan **Kanna jangi** (mil. avv. 216-yil)da **Gannibal** qo'shinlari tomonidan tor-mor qilingan. U omon qolgan qo'shin bilan Rimga qaytgan.

**TETRIK** – Galliya hokimi. U Galliyada ko'tarilgan bagaudlar harakatining kengayib ketishidan qo'rqib Rim imperatori **Avrelian** (270–275-yillar)ga itoat etgan.

**TIBERIY (Tiberius) (mil. avv. 42- mil. 37)** – Rim imperatori (14-yildan). **Yuliyalar-Klavdiyalar** sulolasidan. **Avgustning** o'gay o'g'li. **Pretorianlarga** tayanib avtokratik siyosat yurgizgan. **Provinsiya** (mustamlaka shahar)lardagi soliq tizimini tartibga solishga harakat qilib, o'z mansabini suiste'mol qilgan noiblar va olib-sotarlarini ta'qib ostiga olgan, jamoat binolari qurilishi va turli tomoshalarga sarflanadigan mablag'larni, shuningdek, **plebeylarga** tarqatiladigan pul va g'allani qisqartirgan. Aholi jon boshiga solinadigan soliqni oshirgan. Bunga javoban Shimoliy Afrika, Galliya, Frakiya va Italiyaning ko'p joylarida qo'zg'olonlar bo'lgan, Tiberiy ularning barchasini shafqatsizlik bilan bostirgan. Tiberiy

hukmronligi davrida imperiyaning moliyaviy ahvolini yaxshilanishiga erishgan.

**TIBERIY Grakx (Tiberius Gracchus) (mil. avv. 162 – Rim – 133)** – Qadimgi Rimning siyosiy arbobi, xalq tribuni (notig‘i). Plebeylar naslidan. U Karfagen urushining dongdor ishtirokchisi, Ispaniya konsuli *Mansining* bosh xazinachisi bo‘lib ishlagan. U Rimda katta hurmatga ega shaxs edi. U chet eldan qaytib kelgach, mil. avv. 133-yili *xalq tribuni* lavozimiga saylangan. U jamoat yerlarini ijaraga olish huquqini cheklashni zarur deb hisoblagan. Tiberiy yer to‘g‘risida yangi qonun loyihasini taklif etgan. Bu qonun loyihasiga ko‘ra, har bir erkin dehqon 500 yuger, ikkita o‘g‘li uchun 250 yugerdan yana 500 yuger, bir oila jami bir ming yuger yer ijaraga olishi mumkin deb hisoblangan. Tiberiy katta yer egalarning ortiqcha yerlarini davlat hisobiga o‘tkazib, uni eng kambag‘al dehqonlarga bo‘lib berishni taklif etgan. Islohotga ko‘ra bu yerlarni sotish ma‘n etilgan bo‘lib, ular dehqon bolalariga meros bo‘lib o‘tardi. Tiberiy o‘z loyihasini xalq majlisida tasdiqlatib olgan. Ammo senat Tiberiy loyihasini rad etgan. Tiberiy o‘z loyihasini o‘tkazish va amalga oshirish uchun sabot bilan kurashgan. Senatorlar Tiberiy nutq so‘zlayotgan xalq majlisiga kelib unga hujum qilganlar. Ular Tiberiy va uning sheriklaridan 300 kishini so‘yil tayoqlar bilan urib o‘ldirib, jasadlarini Tibr daryosiga tashlab yuborganlar. Kambag‘allarning jonkuyari Tiberiy kaltaklab o‘ldirilganda endigina 29 yoshga to‘lgan edi.

**TIT FLAVIY Vespasian (Titus Flavius Vespasianus) (39–81-yillar)** – Rim imperatori (79–81-yillar); *Flaviylar sulolasidan*. *Vespasianning* o‘g‘li va vorisi. 73–79-yillarda Vespasianning taxtdoshi sifatida senatdagi *aristokratlar oppozitsiyasi* bilan kurash olib borgan. Imperator bo‘lgach, senat bilan kelishib hokimiyatni boshqargan. 80-yilda Rimda sodir bo‘lgan o‘lat va yong‘in, 79-yil 24-avgustda *Vezuviy vulqonining* otilishi (uning natijasida *Pompey, Gerkulanum* va *Staviy shaharlari* yo‘q bo‘lgan) oqibatlarini tugatish hamda turli maqsadlar uchun tarqatiladigan sovg‘alar, tomoshalar va jamoat binolari qurilishi (*Kolizey, Termalar* qurilishi tugallangan va b.) uchun katta mablag‘ sarflagan.

**TIT LIVIY – Oktavian Avgust** davrining (mil. avv. 44- mil. 14) mashhur tarixchilaridan biri. U 142 jilddan iborat *“Rimning ta‘sis qilingandan keyingi tarixi”* nomli asarini yaratgan.

**TRAYAN (Traianus) (53–117-yillar)** – Rim imperatori (98-yildan). *Antoniylar sulolasidan*. U senat bilan bamaslahat ish olib borib mamlakatda osoyishtalik o‘rnatadi. 101-yilda Trayan Dakiya shohi *Desebal* bilan urush olib borib, uni mag‘lubiyatga

uchratadi. Trayan Desebal bilan sulh tuzib Dakianing ba‘zi joylariga Rim qo‘shinlarini joylashtiradi. Ammo Desebal sulhga xiyonat qilib Rim qo‘shinlari joylashgan istehkomlarga hujum qiladi. 106–107-yillarda Trayan qo‘shinlari Dakiyani qaytadan istilo qiladi. Trayan Dakiyada yangi manzilgozlar ochib, u yerga Italiyadan odamlarni ko‘chirgan va harbiy istehkomlarni mustahkamlagan. Trayan Dakiyadagi g‘alabasiga ba‘g‘ishlab Rimda baland minora qurdiradi. 114-yili Trayan dastlab Armanistonni bosib olib, 115-yilda esa Mesopotamiyaga qo‘shin tortadi. Rim qo‘shinlari Parfiya poytaxti *Ktesifonni* egallab, Mesopotamiyani Rimga qo‘shib oladilar. Keyinchalik *Adrian* davrida Armaniston va Mesopotamiya imperiyadan ajrab chiqqanlar. 116–117-yillarda Sharqiy viloyatlarda Rim zulmiga qarshi qo‘zg‘olon boshlanadi. Parfiyaliklar qo‘zg‘olonchilar bilan birlashib rimliklarni mag‘lubiyatga uchratadilar. Bu mag‘lubiyat Trayanni Italiyaga qaytishga majbur etadi. Trayan Rimga qaytayotib, 117-yilda Kichik Osiyoning Kilikiya viloyatida kasallanib o‘ladi. Trayan davrida Rim va (*Trayan forumi, Trayan ustuni* va b.) provinsiyalarda (yo‘llar, ko‘priklar, kanallar) faol qurilish ishlari olib borilgan. U 123 kun davom etadigan bayram tantanalarini tashkil etgan.

**VALENTIN** – Rim imperatori. 378-yilda uning qo‘shini Adrionopol shahri yaqinida gotlar bilan jang qilgan. Jangda gotlar g‘olib chiqib, imperator Valentin va uning sarkardalari halok bo‘lgan.

**VALERIAN (Valerianus)**, to‘liq ismi **Publiy Lisiniy Avreliy Valerian (Publius Aurelius Licinius Valerianus) (taxm. 193–260-yillar)** – Rim imperatori (253-yildan); hokimiyatni o‘g‘li *Gallilen* (253–268) bilan boshqargan. U Sosoniylar hukmdori *Shopur I* qo‘shinlaridan Edessa yonidagi jangda mag‘lubiyatga uchragan va asirga tushgan.

**VERGILIY (Vergilius) Maron Publiy (mil. avv. 70–19-yillar)** – Rim imperatori *Oktavian Avgust* saroyida ijod qilgan Rim shoiri. U dehqonchilik to‘g‘risida *“Georgiklar”* nomli she‘riy doston yaratgan. Uning Gomer dostonlari mavzusida yozgan asarlaridan biri *“Eneyda”*dir. U bu doston ustida o‘n yil ishlab, yozib tugatmay vafot etgan. Dostonda Troyadagi fojia va shaharning afsonaviy himoyachilaridan biri Eney va uning otasi haqida hikoya qilinadi.

**VESPASIAN (Vespasianus), [9, Reate (Rim yaqinidagi hozirgi Rieti) – 79-yil 24-iyun]** – Rim imperatori (69–79-yillar); to‘liq ismi *Tit Flaviy Sabin Vespasian* (Titus Flavius Sabinus Vespasianus). Rim imperiyasining sharqiy viloyatlari aslzodalari tomonidan imperator etib saylangan. U senatga tayanib, saltanatni biroz mustahkamlashga muvaffaq

bo'lgan. Vespasian Parfiya bilan munosabatni yaxshilagan. Vespasian vafot etgach o'g'li *Tit Flaviy* imperator deb e'lon qilingan.

**VIRIAT (Viriathus) (mil. avv. ?–139-yi)** – mil. avv. 150-yili Periney yarimorolining g'arbidagi Luzitaniya viloyatida rimliklarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari. Qo'zg'olon 9 yildan ortiq davom etib, luzitanlar rimliklarni ko'p marta mag'lubiyatga uchratganlar. Qo'zg'olonni kuch bilan bostira olmagan rimliklar Viriatni *Luzitaniya podshosi* deb e'lon qiladi. Rimliklar xoinlik yo'liga o'tib Variatni o'ldirish payiga tushganlar. Katta boylik evaziga sotilgan xoinlar mil. avv. 139-yilda Viriatni chodirda uxlab yotgan vaqtda o'ldirganlar.

**YEVN** – mil. avv. 138–132-yillarda Sitsiliya orolida ko'tarilgan eng dahshatli va eng uzoq davom etgan qo'zg'olonga *Kleon* bilan birgalikda boshchilik qilgan. Qo'zg'olon olti yil davom etib, *Rutuliy* boshliq Rim qo'shinlari tomonidan katta qiyinchilik bilan bostirilgan. Qo'zg'olon rahbarlaridan Kleon jangda halok bo'lgan, Yevn esa asir olinib zindonda qiynab o'ldirilgan. Yevn va Kleon boshchiligidagi qo'zg'olon Sitsiliyada bo'lib o'tgan eng yirik qo'zg'olonning birinchisi bo'lgan.

**YULIAN OTSTUPNIK (Julianus Apostata) (331–363-yillar)** – Rim imperatori (361-yildan). Sosoniylar davlati bilan bo'lgan 363-yildagi jangda halok bo'lgan.

## ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR

**AKVEDUKLAR** – Qadimgi Rimda vodoprovd quvurlarini jarlar, daralar va vodiylardan o'tkazish uchun qurilgan yuqori qismidan anhorlar o'tkazilgan ko'priklar.

**ALTAR** – Qadimgi Rim ibodatxonalarini joylashgan qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joy.

**AMFITEATR (yunoncha amphitheatron – ikki tomonlama tomosha)** – Qadimgi Yunon va Rim ommaviy tomoshalar, teatr spektakllari ko'rsatiladigan mahobatli bino. Amfiteatr – o'rtasidagi maydoni ellips shaklidagi ulkan inshoot; uning tomoshabinlar uchun mo'ljallangan qator-qator o'rindiqlari pastdan yuqoriga zina shaklida ko'tarilib boradi. Amfiteatrda arklar, ustunlar va ular orasida gumbazli galereyalar bo'lgan. Mil. avv. 70-yillarda qurilgan *Pompey* amfiteatriga 15 ming tomoshabin joylashgan. Milodiy 125-yilda qurilgan Rim (Kolizey) amfiteatriga esa 50 ming kishi siqqan.

**ANTONINLAR SULOLASI** – Rim imperatorlari sulolasi (96–192); sulolaning asoschisi imperator *Nerva* (96–98). *Nerva*, *Trayan* (98–117), *Adrian* (117–138), *Antonin Piy* (138–161), *Mark Avreliy* (161–180), *Lutsiy Ver* (161–169), *Ovidiy Kasiy* (175), *Kommod* (176–192)lar Antoninlar sulolasidan. Antoninlar hukmronligida Italiya tushkunlikka uchradi. Bu davrda qulchilik tanazzulga uchrab, kolonlar mehnatidan keng foydalanildi. Pastki tabaqalarning behad ekspluatatsiya qilinishi viloyatlarda norozilik harakatlarining avj olishiga sabab bo'ladi. Shulardan eng yirigi Bar-Koxba, Bukollar harakatlari edi. Antoninlar davrida imperiya chegarasiga varvarlar bostirib kira boshladi. Kommod hukmronligi davridan boshlab Antoninlar imperiyasi inqirozga uchradi.

**ARENA (lotincha arena – qum)** – Qadimgi

Rim tomoshaxonalarining amfiteatr o'rtasidagi qum sepilgan aylana maydoni. Sport o'yinlari, gladiatorlar urushi, o'limga mahkum etilganlarning yovvoyi hayvonlar bilan jang tomoshasi uchun mo'ljallangan.

**AVGURLAR** – Qadimgi Rimda fol ochuvchi kohinlar. Ular qushlar parvozig, momaqaldiroq, chaqmoq, muqaddas qushlarga sepilgan donlar, aksadoga va hokazolarga qarab fol ochgan. Mabodo alomatlar ko'ngildagidek bo'lmasa, ishlar ma'lum muddatga kechiktirilgan. Biroq mil. avv. I asrga kelib ma'lumotli rimliklar avgurlarning bunday fol ochishlarini masxara qila boshlaganlar va hatto "*avgurlarning tabassumi*", ya'ni "*aldoqchining hiringlashi*" degan qochirig gap ham paydo bo'lgan.

**AVGUST** – mil. avv. 29-yil (yoxud mil. avv. 27-yil)da senat tomonidan Rim imperatori *Oktavianga* berilgan faxriy unvon. Avgust so'zi "*Muqaddas kishi*" degan ma'noni anglatadi.

**AVRORA** – Rim afsonalaridagi tong mabudasi. Avroora pushti rang tanali, pushti rang kiyimda, uzun jingalak sochli va yosh holatda tasvir etiladi. Antik yozuvchilar, rassomlar va haykaltaroshlar Avrooraning xilma-xil obrazini yaratganlar. Yunon afsonalarida Avroora *Eosga* mos keladi.

**BAXUS** – Qadimgi rimliklarda hosildorlik, uzumchilik, may va hursandchilik xudosining nomlaridan biri yoki Bakx Dionis.

**DAKLAR** – qadimgi shimoliy frakiy qabilalari, Dunayning shimolidan Karpat tizma tog'lari etaklarigacha yoyilib yashaganlar. *Desebal* (daklar yo'l boshchisi) davrida daklarning mardona qarshilik ko'rsatishlariga qaramay, 89, 101, 106–107-yillarda ular yashayotgan hududlar rimliklar tomonidan bosib olinib Dakiya provinsiyasiga aylantirilgan.



**DIANA** — Qadimgi rimliklarda ov ma'budasi; yunon mifologiyasida Diana *Artemidaga* to'g'ri keladi.

**DIKTATOR** — Qadimgi Rimda yuqori lavozimdagi shaxs. Urushda va mamlakat ichida davlat uchun katta xavf tug'ilgan, juda mushkul favqulotda vaziyatlar yuzaga kelgan paytlarda tayinlangan. Diktator ayni bir vaqtda oliy fuqarolik, harbiy va sud hokimiyatiga ega bo'lgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ham diktatorning qo'lida bo'lgan, u o'ziga qarshi qaratilgan har qanday, hatto qonuniy xatti-harakatlardan ham qo'rqmagan. Diktatorlik lavozimiga avval faqat *patritsiylar*, mil. avv. 356-yildan esa *plebeylar* ham qo'yilgan. Mil. avv. I asrda muddatsiz diktatura ham bo'lgan (masalan *Sulla*, *Sezar* va boshqalarning diktaturasi).

**ENEYDA DOSTONI** — mashhur Rim shoiri *Vergiliyning* Gomer dostonlari mavzusida yozgan asari. Doston she'riy uslub bilan yozilgan bo'lib, unda qahramonlik, burchga sadoqat va kattalarga hurmat madh etilgan. Dostonda Troyaning yunonlar tomonidan qamal qilinishi va shaharning afsonaviy himoyachilaridan biri ma'budning o'g'li *Eney* haqida hikoya qilinadi. Afsonaga ko'ra, qamal ichida qolgan Troya shahri lovullab yonayotgan edi. Eney yonayotgan shahardan keksayib qolgan otasini yelkasida ko'tarib olib chiqadi. Ular Troyani tark etib, ajoyib va g'aroyib sarguzashtlarni boshidan kechirib Italiyaga kelib qoladilar. Eneyning otasi o'lib ketadi. Eney o'lgan otasi bilan uchrashish uchun marhumlar makoni yer osti podsholigiga tushadi. Bu yerda donishmand otasining arvohi "*Sening avlodlaring Rimga asos soladilar va xalqlarning qudratli hokimi bo'ladilar. Ey, rimlik, sen xalqlarni idora qil! Sening san'ating mag'lublarga shafqat-u, mag'rurlarni urush bilan tinchitishdir*" — deb bashorat qiladi. Dostonda Vulqon xudosi Eney uchun ajoyib qalqon yasab beradi. Qalqonda Rim tarixida bo'ladigan voqealar, *Yuliy Sezarning* kelib chiqishi va *Oktavian Avgustning* tantanalari ko'rsatiladi. Eney yana qalqonda o'zining bo'lg'usi avlodlarini ham ko'radi. Ular orasida *Yuliy Sezar* va *Avgust* ham bor edi. Doston qahramoni Eney Rim patritsiylaridan *Yuliy Sezar* urug'ining afsonaviy asoschisi bo'lib, *Yuliy Sezar* ham o'sha urug'dan chiqqan deb ko'rsatilgan.

**ETRUSKLAR** — mil. avv. I-mingyillikda Apennin yarimorolining shimoli g'arbiydagi *Etruriya* (hozirgi Toskana) viloyatida yashagan qadimgi qabila. O'zlarini *rasenlar* deb atagan etrusklar Rim sivilizatsiyasidan ilgariyoq yuksak sivilizatsiya bunyod etganlar. Mil. avv. VII asrda etrusklarning o'z yozuvlari bo'lgan (yunonlardan o'zlashtirilgan). Yunonlar etrusklarni *tirrenlar* (yoki *tirsenlar*) deb atashgan va ularni Sharqdan kelgan xalq deb hisoblashgan;

Gerodotning fikricha, etrusklar Lidiyadan kelgan; etrusklarni shimoldan kelgan degan fikrlar ham mavjud. Etrusklar yodgorliklaridagi yozuvlarning deyarli o'rganilmaganligi tufayli ularning kelib chiqqan joyi hozirgacha to'la aniqlanmagan. Etrusklar dengizchi va savdogar bo'lishgan, ularning madaniyati yunonlar madaniyati ta'sirida ancha yuksalgan. Mil. avv. VII asr oxirida etrusklarning 12 ta shahar (*Veyi*, *Sere*, *Tarkviniya*, *Volsiniya* va boshqalar) ittifoqi italiyaning yirik siyosiy federatsiyasi hisoblangan. U Shimoliy Italiyaga ham keng ta'sir ko'rsatgan. Etrusklarning Tarkviniylar urug'idan chiqqan podsholari Rimni egallagan. Biroq etrusklar mil. avv. III asrda Rimga bo'ysundirildi. Ular Qadimgi Italiyaning madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Rimliklar etrusklarning siyosatdagi, armiya tuzulishi, uni qurollantirishdagi an'alarini qabul qilganlar.

**FLAVIYLAR SULOLASI** — Rim imperatorlari sulolasi (69–96-yillar). Flaviylarga *Vespasian* (69–79), *Tit* (79–81), *Domisian* (81–96) mansub bo'lgan. Flaviylar Rim va lotin fuqaroligi huquqini viloyatlar aholisiga keng miqyosda berish siyosatini olib borganlar, viloyatlik zodagonlarni senatga qabul qilganlar.

**FORTUNA** — qadimgi rimliklar dinida taqdir ilohasi. Fortunani ko'pincha taqdirar peshvozi sifatida gohida rul bilan, ba'zan esa taqdir qo'nimsizligi ramzi sifatidagi shar bilan birga tasvirlangan.

**FORUM** — Qadimgi Rimda yig'ilish joyi va bozor maydoni bo'lib xizmat qilgan shahar markazi.

**FRESKA** — ho'l suvoqqa chizilgan rasm.

**FURIYALAR** — Qadimgi Rimning qasos va intiqom ilohalari. Ular qasoskor ayollar siymosida tasvirlangan.

**GLADIATORLAR** — Qadimgi Rimda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, o'zaro yoki yovvoyi hayvonlar bilan kurashishga majbur qilingan baquvvat, jasur qullar, harbiy asirlar. Gladiador so'zi o'zbek tilida shamshirdor, nayzabardor va qilich tutgan degan ma'nolarni bildiradi. Bu so'zning tub ma'nosi *gladius* — *shamshir*, *qilich* demakdir. Gladiadorlar *Rim* va *Kapuya* shaharlarida joylashgan maxsus maktablarda jang qilishga o'rgatilgan. Rimda birinchi gladiadorlar jangi mil. avv. 264-yilda bo'lgan. Ular dubulg'a, zirhli kiyim, qalqon va boshqa kiyimlar kiyib, qilich, nayza, tayoq va xanjarlar bilan qurollanib arenaga chiqqanlar. Arenada gladiadorlarning yakkama-yakka olishuvlari, alohida guruhlarning janglari ko'rsatilgan. Gladiadorlar jangi juda shiddatli va ayovsiz o'tgan va bu zodagonlarning ko'ngil ochish tomoshasiga aylangan. Jangda yengilib tirik qolgan gladiadorning taqdiri tomoshabinlar ixtiyoriga havola qilingan. Agar tomoshabinlar qo'llarini baland

ko'tarsalar yengilgan gladiator omon qolgan. Basharti odamlar qo'llarini biroz ko'tarib bosh barmoqlarini pastga qaratsalar g'olib gladiator mag'lubni qilich, nayza yoki xanjar sanchib o'ldirgan. G'olib qamoq-maktabga qaytib keyingi tomoshalar uchun mashq qilishga kirishgan. Jangda o'lgan gladiatorlarni ilgak bilan sudrab tashqariga olib chiqib ko'mib yuborganlar. Mayib bo'lib qolganlarning taqdiri bilan hech kim qiziqmagan. Bunday azob-uqubatlarga chiday olmagan gladiatorlar bir necha bor quldorlarga qarshi bosh ko'targanlar. Gladiator *Spartak* rahbarligidagi qo'zg'olon (*Spartak qo'zg'oloni*) ana shular jumlasidandir. Gladiatorialar jangi V asrdan e'tiboran barham topgan.

**GOTLAR** – milodning boshlarida yashagan sharqiy german qabilalaridan biri. Tarixchi *Iordan* (VI asr) asarida gotlarning asl vatani Skandinaviya bo'lib, keyinchalik Boltiq dengizi bo'ylari, Vislaning quyi oqimidagi yashaganligi ko'rsatilgan. II asr oxirida janubiy-sharqqa siljib, III asr boshlarida Shimoliy Qora dengiz bo'ylarida o'rtnashib qolishgan bu yerda ular yerli skif va sarmat qabilalari bilan aralashganlar. 238-yildan boshlab gotlar boshqa qabilalar bilan ittifoq tuzib, Rim imperiyasi, Bolqon, Kichik Osiyo yarimorollariga harbiy yurishlar uyushtirishgan, 271-yilda germanlar Rim imperiyasining Dakiya viloyatini bosib oladi. Qora dengiz bo'yidagi va Rim imperiyasidagi shaharlarning rivojlangan madaniyati gotlar madaniyatining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Gotlar shu davrda vestgotlar (hozirgi Moldova va Ruminiyaning sharqiy tomonlaridagi yerlarda yashaydigan) ostgotlar (Shimoliy Qora dengiz bo'yi, Dnestrning sharqiy tomonlarida yashovchi) guruhlariga bo'lingan. IV asr o'rtalarida vestgotlar orasida xristianlik tarqala boshladi. IV asrning 70-yillarida gunlar gotlarning yerlariga hujum qilishib, 375-yilda vestgot, ostgot hamda ularga qo'shni dasht qabilalari ittifoqini tor-mor etishadi. Shundan so'ng vestgot va ostgotlarning tarixi alohida-alohida izdan ketadi.

**GRAMMATIKLAR** – Qadimgi Rimda mil. avv. II asrning 60-yillarida vujudga kelgan o'rta maktablar. Milodiy I asrga kelib qizlar uchun ham grammatik maktablar tashkil topgan.

**IMPERATOR** (lotincha *imperator* – *hukmdor*) – Qadimgi Rimda dastlab janglarda g'alaba qozongan lashkarboshilar (masalan, Y.Sezar, O.Avgust)ga berilgan. Rimda respublika tartibi tugatilib, monarxiya o'rnatilgach, davlat tepasiga kelgan har bir merosxo'r imperator deb atalgan.

**IMPERIYA** – imperator boshqargan monarxiya davlatining nomi. Antik davrda Rim imperiyasi, o'rta asrlarda Muqaddas Rim imperiyasi yirik monarxiya davlatlari Imperiyaga misol bo'la oladi.

**ITALIYA** – Qadimgi yunonlar tomonidan Apennin yarimoroliga nisbatan aytilgan nom. Italiya so'zini yunonchadan tarjima qilganda "*Buzoqlar mamlakati*" degan ma'noni bildiradi.

**ITALIYLAR** – Apennin yarimoroli (Qadimgi Rim)da yashagan qabilalarning umumiy nomi.

**KANDIDA** – Qadimgi Rimda konsullikka saylanishga nomzodini qo'yan odamning oq-harir libosi.

**KANNA JANGI** – mil. avv. 216-yilda Gannibal qo'shinlari Janubiy Italiyadagi Kanna qishlog'iga kirib kelganda uning ixtiyorida 40 ming piyoda va 10 ming otliq jangchisi bor edi. Rimliklar Gannibalga qarshi 80 ming piyoda va 6 mingdan iborat otliq qo'shin yuboradilar. Jang maydoni qilib Apuliyaning Kanna qishlog'i yaqinidan oqib o'tadigan *Aufid daryosining* etagi tanlagan. Gannibal o'z qo'shini juda ustalik bilan joylashtirgan. U piyoda qismlarni yarim oysimon shaklda joylashtirib, qabarib turgan tomonni dushman tarafga qaratadi. Shaklning markaziga ishonchsizroq kelt va iberiy qismlarini joylashtiradi. Uning ikki tomoniga esa kafagenliklardan iborat otliq va piyoda askarlarni joylashtiradi. Jangni yengil qurollangan yordamchi qo'shinlar boshlab berishlari kerak edi. Jang Gannibal rejasi asosida boshlandi. Rim qo'shinlari Gannibal qo'shinlarining oldingi qabariq qismiga hujum qildilar. Hujum natijasida qabariq qismining o'rta qismi orqaga chekinib ikki qanotga ajralib rimliklarni o'rab oladi. Shu paytda karfagenliklardan iborat otliq va piyoda qo'shin rimliklarning orqa qismiga o'tib oladi. Rimliklar qurshovda qoladilar. Shiddatli jang boshlanadi. Jangda rimliklarning 8 mingi qiriladi. 18 ming kishi asir tushadi. Rim konsuli *Emiliy Pavel* jangda halok bo'lib, ikkinchi konsul *Terensiy Varron* omon qolgan qo'shinlar bilan Rimga qaytadi. Tarixchilar va kuzatuvchilarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Kanna jangi qadimgi zamon urushlari tarixida eng shiddatli janglarning biri bo'lgan ekan. Kanna jangidan so'ng Italiyaning markaziy va janubiy qismida yashovchi kapulliklar, samnitlar, lukanlar va apullar Gannibal tomonga o'tadilar.

**KARRI JANGI** (*Karra jangi*) – Rim bilan Parfiya qo'shinlari o'rtasidagi jang (mil. avv. 53-yil 9-may). Jang bo'lishiga sabab mil. avv. 55-yilda Rim qo'shinlarining qo'mondoni *Mark Krass* parfiyaliklar bosib olgan yerlarni Rim imperiyasiga qo'shib olish uchun Sharqqa yurish qilganidir. Krassning 7 legioni va 4 ming nafar suvoriydan iborat kuchli armiyasi bo'lgan. Parfiya podshosi *Orod II* (mil. avv. 55–37-yillar) qo'shinlarining sarkardasi *Surena* mil. avv. 53-yil 9-mayda Krass qo'shinlarida qarshi hujumga o'tgan. Shu yili Karri shahri yaqinidagi dahshatli jangda

rimliklar yengilib, sarkarda Krass halok bo'ldi. Bu g'alabadan so'ng parfiyanlar katta o'ljaga ega bo'lib, juda ko'p Rim askarlari asirga tushadi. Asirlar Marg'iyonaga haydab kelinib o'sha yerga joylashtirilgan. Bu g'alaba natijasida Parfiya poytaxti *Gekatompildan* Mesopotamiyadagi *Ktesifonga* ko'chirilgan.

**KATAPULTA** (lotincha *kata* – *yuqoridan pastga* va *pallo* – *uloqtiraman, irg'ataman*) – buralgan tolalar (soch, pay va boshqa)ning qayishqoqlik kuchi ta'sirida harakatga keltiriladigan uloqtirish mashinasi. Yunoniston va Rimda V asr oxirigacha, asosan, qo'rg'onlarni qamal qilshda, jang maydonlarida qo'llanilgan. Katapulta tosh, g'o'lalarni, smola solib yondirilgan bochkalar va nayzalarni bir necha yuz metrga uloqtirgan. O'zbekiston hududida manjaniq va palaxmon deb atalgan.

**KOGORTA** – Qadimgi Rim lashkarida bir necha senturiylar (80 kishidan iborat bo'lgan jangchilar guruhi)dan tashkil topgan qo'shin.

**KOLIZEY** (*kolossey* lotincha *colossus* – *ul-kan*) – Qadimgi Rimdagi me'moriy yodgorlik (mil. avv. 75–80-yillar). Imperator *Tit* qurdirgan. Keyinchalik Flaviy amfiteatri nomi bilan mashhur bo'lgan. Kolizeyning balandligi 57 m, tarhi ellips shaklida (524 m). 4 qatlamli o'rindiqaqa 50 ming tomoshabin joylashgan. Sahna tagida hayvonlar qafasi, omborxonaga bo'lgan. Imperator o'rindig'i sahna bilan teng (balandligi 3,5 m) bo'lgan. 1-qatlamda imperatorning yaqinlari, 2-qatlamda yuqori tabaqali kishilar, 3 va 4-qatlamda oddiy xalq o'tirgan. O'rindiqlar toshdan ishlangan, galeriyalarning konstruksiyalari beton va g'isht bilan mustahkamlangan. Kolizeyning ulug'vor old tomoni 4 qavatli, har biri 80 ta ravoqlar qatori bilan jozibador ishlangan, pastki qismidan tomoshabinlar kirish va chiqishda foydalanganlar. Kolizey markazidagi sahnada bayram marosimlari, qurbonlik, gladiatorlar jangi, teatr tomoshalari o'tkazilgan. Yunonistonda taxminan mil. avv. 300-yilda barpo etilgan Afinadagi *Dionis kolizeyiga* 20000, *Epidavr kolizeyiga* 14000, *Delfa kolizeyiga* 5000 tomoshabin joylashgan. Kolizeyda 8–9 soatda 3 ta tragediya va 1 ta satira asari qo'yilgan.

**KOLONLAR** – Qadimgi Rimda kichik yerlarni quldor yer egalaridan ijaraga olgan dehqonlar. Quldorlik xo'jaligi inqirozga uchragach, yirik yer egalari bilan yersiz va kam yerli dehqonlar o'rtasida ishlab chiqarish munosabatlarining yangicha shakli – kolonat vujudga kelib, kolonlar mehnatidan keng foydalana boshlangan. Kolonlar ijaraga yer olgan va yer egasiga ijara haqini dastlab pul bilan, so'ngra yetishtirilgan hosilning bir qismi shaklida to'laganlar. Shuningdek, ba'zi natural majburiyatlarni o'tashlari lozim bo'lgan. Kolon o'z mehnatidan manfaatdor

bo'lgani uchun, qulga qaraganda yaxshiroq ishlagan. Kolonlar mehnat qurollari, chorva mollarini ehtiyot qilib ishlatib, yerga yaxshi ishlov berganlar. Kambag'allarda ishlatish uchun mehnat qurollari, ish hayvonlari va urug'liklari bo'lmagan. Kolonlar bu narsalarni quldorlardan qarzga olganlar. Qarzdor bo'lib qolgan kolonlar yer-mulkdan keta olmas va katta yer egasiga qaram bo'lib qolar edilar. Ammo hamisha kambag'allar ham ijarachi bo'lishga ko'nishmagan. II–III asrlarda kolonlarning soni tobora o'sib borgan. Endilikda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va xo'jalikning boshqa sohalarida qullar soni kamayib kolonlar soni orta borgan. Bu qulchilikning inqirozidan nishona edi.

**KONSUL** (lotincha *consul* – *maslahatchi*) – Qadimgi Rimda ilk respublika davrida vujudga kelgan oliy mansabdor shaxs. Konsullar 2 kishidan iborat tartibda dastlab 1 yillik muddatga faqat *patritsiylar* tomonidan saylangan. Mil. avv. 367-yildan so'ng konsuldan biri plebeylar orasidan saylangan. Konsul xalq yig'inlari va senatni chaqirgan. Alohida hollarda senat konsulga cheksiz huquqlar bergan. Konsul imperiya davrida o'z amaliy ahamiyatini yo'qotib, faxriy unvonga aylangan.

**KULBALI QULLAR** – Qadimgi Rimda ayrim yer egalari tomonidan chek yerlari berilib, mehnat qurollari, ish hayvonlari, urug'lik va oilasi bilan ozod bo'lishiga ruxsat berilgan qullar. Quldorlar "kulbali qullar"ga uylanib, oilali va bola-chaqali bo'lishga ham ruxsat berganlar. Qul oilasi bilan mehnat qilib yerdan chiqqan hosilning ma'lum qismini quldorga berib, ma'lum qismini esa o'z ixtiyorida olib qolgan. Bu quldor uchun ham foydali bo'lgan. Chunki endi quldor qulni urib-so'kib, majburiy zo'rlab ishlatmaydi. Kulbali qul mehnat qurollarini sindirmay, hayvonlarni mayib qilmay o'z xohishi bilan ishlaydi. Qul egalari qullarga shaharlarda mayda ustaxonalar va do'konchalar qurishga ham ijozat berganlar. Do'kon va ustaxonadan tushgan mablag'ning bir qismi quldorga berilgan bo'lsa, qolgan qismi qulning ixtiyorida qolgan. Chek yerida, ustaxonada va do'konda ishlagan qullar hamisha quldorning nazoratida bo'lishgan.

**LEGION** – Qadimgi Rim armiyasidagi asosiy tashkiliy va taktik birlik (4,5–10 ming kishi); *manipula* va *turmalar*dan, mil. avv. I asr o'rtasidan esa *kogortalardan* tashkil topgan. Legionning uchinchi qatorini hal qiluvchi paytda jangga kiruvchi tajribali jangchilar tashkil etgan.

**LIKTOR** – Qadimgi Rimda konsulni qo'riqlab yuruvchi 12 kishidan iborat faxriy qorovul.

**LOTINIYLAR** (*lotinlar*) – Italiyadagi *Latsiya* (hozirgi Latsio viloyati)da yashagan qadimgi *italiya*

qabilalari. Mil. avv. I-mingyillikning boshlarida Lotin ittifoqiga birlashishgan. Rivoyatlarga ko'ra, *lotinlar* va *sabinlar* Rimga asos solgan (mil. avv. 753-yilda).

**MARS** – Qadimgi Rimda urush xudosi; jangarilik va shon-shuhrat ramzi. Yunonlarda *Aresga* to'g'ri keladi.

**MINERVA** – qadimgi rimliklar dinida do-nishmandlik xudosi.

**MORFEY** – qadimgi rimliklarda uyqu xudosi.

**MOZAIKA** – rangli sopol yoki shisha parchalaridan devorda yoki polda ishlangan suvoqqa qadalgan manzarali rasm.

**NEKTAR** – qadimgi rimliklar e'tiqodiga ko'ra, xudolarning asosiy yeguligi. Nektar xudolarning navqironligi va manguligini ta'minlagan.

**NEPTUN** – qadimgi rimliklarda dengiz xudosi; Neptun yunon mifologiyasida *Poseydonga* to'g'ri keladi.

**OSTRAKON** – Qadimgi Rimda ovoz berish uchun sopol toshtaxta.

**PANTEON** (yunoncha "*barcha xudolar ibodatxonasi*") – Qadimgi Rimda barcha xudolarga bag'ishlab II asrda qurilgan ibodatxona. Panteon yarim doira shaklidagi qirrador gumbazli (diametri 43 m dan oshiq) inshoot. Markazida intererni yoritib turuvchi tuynuk bor (diametri 9 metrga yaqin). Ichki gumbazi hovuzaklarga (kataksimon shaklda) bo'lingan. Kirish tomoni peshtoqli, 16 ta korinf ustunlari (8 tasi peshtoq oldida, qolgani ich-kariroqda) bezab turadi. Bu ibodatxona rimliklar tomonidan ixtiro qilingan betondan bunyod etilgan. Rim imperiyasida yashayotgan har bir kishi Panteonga kelib o'zi e'tiqod qo'yan xudoga sig'inishi imkoni bo'lgan: masalan, misrlik – *Osirisga*, yunonistonlik – *Zevsga*, rimlik – *Yepiterga*.

**PARNLAR** – ko'chmanchi qabilalar bo'lib, ular mil. avv. III asrda Arshak boshchiligida Salavkiylar noibi Andragorning armiyasini tor-mor etganlar hamda Parfiyani bosib olib, ana shu davlat tarixini boshlab berganlar.

**PATRITSIYLAR** (*patricii*, lotincha *pater* – *otadan*) – Qadimgi Rimdagi urug' zodagonlari. Dastlab patritsiylar deb urug' tashkilotiga kirgan va *plebeylarga* qarshi turgan Rimning barcha tub aholisi atalgan bo'lsa kerak. An'anaga ko'ra, patritsiylar dastlab 100, so'ngra 300 ota urug'ini jamlab, Rim xalqini (*Populus Romanus Quiritium*) tashkil etishgan. Mil. avv. VI asr oxiridan, sinfiy tabaqalanish va davlat shakllanayotgan davrda patritsiylar Rim respublikasining hukmron tabaqasiga aylangan. Ular barcha fuqaro va siyosiy huquqlarga, xususan, oliy *magistraturani* almashtirish huquqiga ega bo'lishgan. Bu imtiyozlar patritsiylar bilan *plebeylar* o'rtasidagi kurashga sabab bo'lgan, u mil. avv. V asr boshidan mil. avv. III asr boshigacha davom etgan. Bu kurash

jarayonida Rim respublikasi davlat tizimi tuzilgan, plebeylar *Populus Romanus* tarkibiga kiritilganlar va barcha huquqlarda patritsiylar bilan tenglashganlar. Mil. avv. III asr boshida patritsiylar va plebeylar rahbarlari o'zaro birikib *nobilitetni* tashkil etishgan. Patritsiylardan bo'lgan nobillar orasida *Valeriylar, Klavdiylar, Korneliylar, Fabiylar, Emiliylar, Yuliylar* va boshqa urug' vakillari Qadimgi Rimning siyosiy hayotida alohida rol o'ynashgan. Imperiya davrida yangi patritsiyat vujudga kelib, ular senatorlar tabaqasining imtiyozli qismidan iborat edi; unga imperatorlar tomonidan Italiya va provintsiyalardan chiqqan shaxslar kiritilgan.

**PLEBEYLAR** (lotincha *plebeii* – *oddiy xalq*) – Qadimgi Rimdagi erkin aholi tabaqalaridan biri. Mil. avv. III asrgacha plebeylar jamoa yeridan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan, faqat chek yerlardan shaxsiy mulk sifatida foydalangan. Ular dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan. Plebeylar mil. avv. V–IV asrlarda davlat lavozimlarini egallashlari va *patritsiylar* bilan nikoh tuzishlari mumkin bo'lmagan. Plebeylar patritsiylarga qarshi qattiq kurash olib borgan va natijada Rim fuqarolari tarkibiga kiritilgan, majburiy qullik bekor qilingan. Plebeylarning bu muvaffaqiyatiga ular tarkibida xizmat qilgan armiya katta yordam ko'rsatdi.

**PONTIFIKLAR** – Qadimgi Rimda diniy marosimlarning o'tkazilishi ustidan nazorat qilgan ruhoniylar, kohinlar. Pontifiklar bayramlar taqvimini, marosimlar tantanalari tartibini tuzishgan. 5 nafardan 15 nafargacha ruhoniylarni ifoda etuvchi pontifiklar hay'atiga *Buyuk pontifik* rahbarlik qilgan. Buyuk pontifik xudolar bilan maslahatlashib olib, uzil-kesil xulosa beradi, deb hisoblashgan.

**PRETORIANLAR** – Rim imperatori *Oktavian Avgust* tomonidan tashkil etilgan saylanma qo'shin. Bu qo'shin imperatorni va uning tayanchi bo'lgan hokimiyatni qo'riqlagan. Pretorianlar imperator *Konstantin* hukmronligi davrida tugatilgan.

**PROKONSUL** – provintsiyalar (bosib olingan hududlar)da Rim noibi etib tayinlangan sobiq konsul.

**PROVINSIYA** – rimliklar tomonidan bosib olingan hududlar shu nomda yuritilgan; masalan Sitsiliya, Korsika, Sardiniya, Ispaniya.

**PUNI** – Shimoliy Afrikada mil. avv. IX asrda Finikiyaning Tir shahri hukmdorlari tomonidan barpo etilgan va keyinchalik O'rtayer dengizidagi yirik quldorlik davlatiga aylangan Karfagen shahrining rimliklar tomonidan atalishi. Puni Finikiyaning lotincha nomidir.

**PUNI URUHLARI** – O'rta dengizga hukmronlik qilish uchun Rim va Karfagen o'rtasidagi urushlar: *Birinchi Puni urushi* (mil. avv. 264–241-

yillar), *Ikkinchi Puni urushi* (mil. avv. 218–201-yillar), *Uchunchi Puni urushi* (mil. avv. 149–146-yillar). Eng yirik janglar: *Mila yaqinida* (260-yil) va *Egat orollarida* (241-yil) rimliklar dengiz jangida zafar qozonganlar; *Traziman ko'li* sohilida (217-yil) va *Kanna* (216-yil)da karfagenliklar *Gannibal* boshchiligida g'alaba qilganlar; *Metavra* (207-yil), *Zama jangida* (202-yil) – rimliklar Ssipion Katta rahbarligida g'alaba qozonganlar; 149–146-yillarda rimliklar Karfagen shaharni qamal qilib, uni zabt etganlar. Puni urushlari Rimning g'alabasi bilan tugagan; Karfagen hududining bir qismi Rimning Afrika provintsiyasiga aylantirilgan, bir qismi esa Numidiyaga berilgan.

**QADIMGI RIM** – rivoyatga ko'ra, Rim shahriga aka-uka *Romul* va *Rem* tomonidan mil. avv. 753-yilda asos solingan. Rivoyatlarda VIII–VI asrlarda hukmronlik qilgan 7 podshoh qayd etilgan. So'nggi podshoh *Tarkviniiy Mag'rur* quvilgach, *respublika* tuzumi o'rnatilgan (mil. avv. 509-yil). Mil. avv. III asr o'rtalariga kelib, butun Italiya hududini tobe etgan Rim yirik davlatga aylangan. U O'rta dengiz havzasida gegemon bo'lishga intilgan, bu Rimni *Karfagen* bilan to'qnashuviga sabab bo'lgan. *Puni urushlaridan* so'ng mil. avv. 146-yilda Karfagen ustidan g'alaba qozongan Rim, O'rta dengiz havzasining eng yirik davlatiga aylangan. Yirik yer egaligi va qulchilikning rivojlanishi dehqonlar ommasini xonavayron bo'lishiga, qishloq kambag'allari, qullar qo'zg'olonining avj olishiga (*Spartak qo'zg'oloni*) sabab bo'lgan; Rim shahri ko'chalarida fuqarolar urushi boshlanib ketish xavfi tug'ilgan. Rimning ijtimoiy-siyosiy hayotida mil. avv. I asrda armiya va uning yo'l boshchilari (L. K. Sulla, G. Mariy, G. Pompey va boshqalar) katta rol o'ynay boshlaganlar. Mil. avv. 49–45-yillardagi fuqarolar urushi davrida *Sezar* davlatning mutlaq hukmdoriga aylangan; mil. avv. 44-yilda respublika tarafdorlarining fitnasi natijasida Sezar o'ldirilgan. Fuqarolar urushining yangi davri *Oktavian* g'alabasi bilan tugagan. U mil. avv. 29-yilda senatdan *Avgust* unvonini olgan. Avgust hukmronligi davridan boshlab Rim imperiyaga aylangan. Milodiy II asrda *Trayan* davrida imperiya sarhadlari o'zining yuqori cho'qqisiga yetgan. Bosib olingan yerlarda mahalliy aholining hududiga bostirib kirishlari bir qancha provin-siyalarni mustaqil bo'lib ajralib chiqishiga va imperiyani Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'linib ketishiga (395-yil) olib kelgan. 476-yilda german yollanma askarlari sardori *Odoakr* G'arbiy Rim imperiyasining so'nggi imperatori *Romul Avgustulni*

taxtdan ag'dargan. Sharqiy Rim imperiyasi Vizantiya nomi bilan yana 1000 yilga yaqin mavjud bo'lgan.

**QADIMGI RIM ADABIYOTI** – Qadimgi Rim – Italiya adabiyoti. Rim adabiyoti o'zining uzoq tarixiy o'tmishiga ega. Rim – Italiyada yozma adabiyotning vujudga kelishi mil. avv. VI–V asrlarga borib taqaladi. Bu davr adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari *Andronik*, *Enney*, *Plavt*, *Katull* hisoblanadi. Mil. avv. I asr Rim adabiyotining “Oltin davri” bo'lib, bu davrda *Vergiliy*, *Gorasiy*, *Tibull*, *Ovidiy Sazon* kabi mashhur adib va shoirlar ijod etganlar.

**QADIMGI RIM TARIXCHILARI** – Rimda o'tmish tarixi bilan shug'ullangan tarixchilar. Bu diyorda Tit Liviy, Polibiy, Yuliy Sezar, Galikarnas, Dionisiy, Yusuf Flaviy, Korneliy, Tatsit, Appian, Dion Kassiy Katton, Varron kabi o'z davrining mashhur moziynavislari yashab ijod etishgan.

**QADIMGI RIM TA'LIMI** – qadimgi Rimdagi ta'lim-tarbiya tizimi. Rimda bolalarning maktabda ta'lim olishi ota-onalarning tahsil uchun haq to'lash imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Kambag'al rimliklarning farzandlari xo'jalik ishlarida ota-onalariga yordam berganliklari sababli maktabda o'qimas edilar. Badavlat xonadon farzandlari esa 6 yoshdan maktabga qatnar edilar. O'qish, yozish, hisoblashni o'rganganidan keyin ko'pchilik ta'lim olishni yakunlar edi. Ayrimlar *grammatika* (o'rta maktab)da tahsil olishni davom ettirgan. Tarix, geografiya, geometriya, musiqa va astronomiya o'qitilardi. Yunon tilini o'rganishga alohida ahamiyat qaratilgan, chunki fanning turli tarmoqlariga oid kitoblarning aksariyati yunon tilida yozilgan edi. Siyosiy arbob bo'lishni istagan har bir kishi notiqlik va  *ritorikani* – chiroyli so'zlashni o'zlashtirgan.

**QADIMGI RIM TIBBIYOTI** – Qadimgi Rim-Italiya tabobati. Rimlik aslzodalar tibbiyot ishlari bilan shug'ullanishni o'zlari uchun or, uyat deb bilganliklari sababli tibbiyot ishlari bilan yunon, Kichik Osiyo, Misr va boshqa joylardan kelgan shifokorlar shug'ullanganlar. Ularning eng mashhurlari yunonistonlik Asklepiod, Korneliy Sels va pergallik Klavdiy Galen bo'lgan.

**QADIMGI RIM XUDOLARI** – qadimgi rimliklar diniy e'tiqodiga ko'ra, yer yuzidagi barcha narsalarni boshqarib turuvchi xudolar. Rimliklarning diniy tasavvurida turfa xudolar hayotning turli jihatlarini boshqargan. Shu sababli rimliklar muhim ishni boshlashdan oldin bu ishda madad berishi uchun xudolarga qurbonliklar bag'ishlangan. Rimliklar xudolarining ko'pchiligi yunon xudolarini esga soladi. Masalan, Rimning bosh xudosi, osmon, momaqaldiroq va yashin podshosi *Yupiter* hisob-

langan (yunonlarda *Zevs*). Yupiterga o'z navbatida Rim davlatining homiysi, xalqlar va davlatlar taqdirini boshqarib turadi deb ham e'tiqod qilingan. Shuningdek, rimliklar dengiz (*Neptun*), ov (*Diana*), uyqu (*Morfey*), odil sudlov (*Yustitsiya*), olov va temirchilik (*Vulkan*), bahor va sevgi (*Venera*), sharob (*Baxus*), taqdir (*Fortuna*), qasos va intiqom (*Furiya*) xudolariga sig'inganlar.

**RESPUBLIKA** (*res* – *ish*, *publika* – *xalq*; *umumxalq ishi*) – antik davrda monarxiyaning ziddi sifatida vujudga kelgan davlat boshqaruvi. Qadimgi Rim davlati mil. avv. VI asr oxirida Respublika deb yuritilgan. Qadimgi Rimda Respublika faqat *aristokratlar* qismi manfaatlarini ximoya qilgan.

**RIM RAQAMLARI** – qadimgi rimliklar qo'lagan raqamlar. Rim raqamlari 7 ta: I – 1, X – 10, C – 100, M – 1000, V – 5, L – 50, D – 500. Rim raqamlari bilan hozirda asrlar, asar boblari, oylarning raqamlari, tartib sonlarini belgilashda qo'llaniladi.

**RITOR MAKTABI** – Yunoniston va Rimda keng yoyilgan oliy gumanitar maktab: 3 bosqichli ta'lim tizimining yuqori cho'qqisi. Mil. avv. III asrda Yunonistonda va mil. avv. I asrda Rimda tarqalgan. Antik davr oxirigacha saqlangan. Boshlang'ich o'rta va grammatik maktabdan so'ng, Ritor maktabida chiroyli so'zlash san'ati, notiqlik mahoratini egallash o'rgatilgan. Ularda notiqlik san'atidan tashqari yosh notiqning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradigan turli fanlar, xususan, ritorika, huquqshunoslik, tarix, adabiyot, falsafa o'qitilishiga e'tibor qaratilgan. Mark Tulliy Sitseron va Mark Fabiy Kvintilianlarning "Notiqlik san'ati bo'yicha o'gitlar" kitobi Ritor maktabini boshqarishda foydalaniladigan asosiy qo'llanma hisoblangan. Ular Ritor maktabini rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqdilar va Rimda bu maktablarning davlat tasarrufiga o'tishini ta'minladilar. Rim imperiyasining so'nggi davrlarida, siyosiy tuzumning notiqlik san'atiga bog'liqlik darajasi bir qadar susayganligi sababli Ritor maktabining mavqeyi pasaydi va tortishuvli masalalarni hal etish vositasiga aylanib qoldi.

**RITORIKA** (*yunoncha rhetorike* – *notiqlik*) – notiqlik san'ati; keng ma'noda umuman badiiy nasr haqidagi fan. Mil. avv. V–IV asrlarda Yunonistonda yuzaga kelib, mil. avv. III–II asrlarda tizimli fan shaklini olgan. Mil. avv. I asrda Rimda tarqalgan. 5 qismdan iborat bo'lgan: materialni topish, joylashtirish, so'z bilan ifodalash (3 uslub: yuqori, o'rta, pastki hamda uslub ko'tarinkiligining 3 vositasi: so'z tanlash, so'zlarni birlashtirish va uslubiy figuralar haqidagi ta'limot), yodlash, talaffuz. Qadimgi davrda (*Sitseron*, *Kvintilian* ijodida) ishlab chiqilgan.

**SABINIYLAR** (*sabinlar*) – Tibr, Aternus va Anio daryolari oralig'idagi hududda yashagan italiy qabilalari. Rim tepaliklarida yashagan sabiniylarning bir qismi Rim xalqining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

**SAMNIYLAR** – Apennin yarimorolining markaziy qismida yashagan qadimgi italiy qabilalaridan biri.

**SATURN** – Qadimgi Rim mifologiyasida ekinlar xudosi, dehqonchilik homiysi. Saturn Italiyaning juda qadimgi podshosi hisoblangan, u xalqni dehqonchilikka, sohibkorlikka o'rgatgan. Uning davri yalpi tenglik, ma'murchilik va tinchlik barqaror bo'lgan "oltin asr" zamonasi edi. Saturn sharafiga har yili dekabr oyida dabdabali va quvnoq *saturnaliya* bayrami o'tkazilgan. Saturn uzun soqolli va qo'lida o'rog'i bo'lgan odam shaklida tasvirlangan. Mil. avv. III asr oxiri va II asr boshidan Saturnga sig'inish yunonlar xudosi *Kronosga* sig'inish bilan qo'shilib ketdi.

**SENAT** (lotincha *senatus* – *keksa*) – oqsoqollar kengashi; Qadimgi Rimda respublika davrigacha *patritsiylarning* aslzoda keksalaridan saylangan oqsoqollar kengashi. Respublika davrida senat oliy hokimiyatning davlat organi, hukmron quldor aslzodalarning quroli bo'lgan.

**SENTURIY** – Qadimgi Rim qo'shinlarida 80 kishidan iborat bo'lgan jangchilar guruhi.

**SEZAR DIKTATURASI** – Yuliy Sezarning mustabid hokimiyati.

**SITSILIYA QO'ZG'OLONI** – mil. avv. 138–132-yillarda Sitsiliya orolida ko'tarilgan eng dahshatli va eng uzoq davom etgan qo'zg'olon. Bu qo'zg'olonga *Kleon* va *Yevn* degan kishilar boshchilik qilgan. Qo'zg'olon olti yil davom etib, *Rutuliy* boshliq Rim qo'shinlari tomonidan katta qiyinchilik bilan bostirilgan. Qo'zg'olon rahbarlaridan *Kleon* jangda halok bo'lgan, *Yevn* esa asir olinib zindonda qiynab o'ldirilgan. Bu Sitsiliyada bo'lib o'tgan eng yirik qo'zg'olonning birinchisi bo'lgan.

**SPARTAK QO'ZG'OLONI** – mil. avv. 74–71-yillarda Italiyaning *Kapuya* shahrida boshlangan frakiyalik Spartak boshchiligida qullarning zolim zodagonlarga qarshi qo'zg'oloni. Spartak qo'zg'olonning *Kapuya* shahrida bo'lishiga sabab bu yerda gladiatorlar tayyorlaydigan qamoq-maktab bor edi. Oxiri fojia va o'lim bilan tugaydigan gladiatorlik hamda mashaqqatli hayot tarzi ularning sabr-kosasini to'ldirib yuborgan va mil. avv. 74-yilda qamoq-maktab gladiatorlarining 78 tasi qochib ketgan va *Vezuviy tog'iga* borib yashiringan. Qochoq qullar rimliklarning *Makedoniyadagi* urushlari davrida asir olinib, Italiyadagi gladiatorlik maktabiga berilgan Spartakni o'zlariga

boshliq qilib saylaganlar. Qo'zg'olonchi qullar tayoq, osh pichoq, o'roq, chalg'i va boshqa narsalar bilan qurollanib zolimlarga qarshi kurash boshlaganlar. Vezuviy tog'i qo'zg'olonchilar joylashgan qarargoh bo'lgan. Mil. avv. 73-yil boshlariga kelib qo'zg'olonchilarning soni 10 mingga yetgan. Rim senati qo'zg'olonchilarga qarshi *Klodiy* rahbarligida 3.000 askar yuborgan. Spartakchilar ayovsiz jang natijasida Klodiy boshliq Rim qo'shinini tor-mor etib, juda ko'p o'lja va qurol-yarog'larni qo'lga kiritganlar. Bu spartakchilarning qo'lga kiritgan dastlabki g'alabasi edi. Shundan keyin Spartak o'z qo'shinini Lukoniya va Apuliya tomon boshlagan. Mil. avv. 72-yilda Rim senati spartakchilarga qarshi 2 armiya yuborgan, biroq qo'zg'olonchilar qo'shini ularni tor-mor keltirgan. Rim yana qo'zg'olonchilarga qarshi kurashish uchun 6 ta yangi legion tashkil etgan va qo'mondon etib *Krass* tayinlangan. *Krass* armiyasi qo'zg'olonchilar bilan jangga kirishmay, ularni ta'qib etgan. Spartak Sitsiliyaga o'tib olish uchun kemalar yetkazib berish haqida kilikiyalik qaroqchilar bilan kelishgan. Lekin qaroqchilar Spartakni aldashgan: Spartakchilar armiyasi Messina bo'g'oziga yetib kelganda, u ortidagi Italiyadan ajralib qolgan (*Krass* dengizdan dengizgacha uzunligi 55 km, kengligi va chuqurligi 4,5 m xandaq qazishni, uni devor bilan mustahkamlashni buyurgan). Spartakchilar bu istehkomni yorib o'tganlar, shturm chog'ida qo'zg'olonchilarning taxminan 2/3 qismi halok bo'lgan. Spartak armiyani tezda to'ldirib uning sonini 70 ming kishiga yetkazgan, so'ngra Brundiziya tomon yo'l olgan, maqsadi Gretsiyaga o'tib olish edi. Rim senati qo'zg'olonchilarga qarshi Ispaniyadan *Pompey Gney* va Frakiyadan *Mark Lukull* boshchiligida qo'shin yuborgan. Rim armiyalarini o'zaro qo'shib harakat qilishlaridan xavfsiragan Spartak mil. avv. 71-yil bahorida *Krass* bilan Apuliya va Lukaniya chegarasida hal qiluvchi jang qilishga majbur bo'lgan spartakchilar (taxminan 60 ming kishi) tor-mor keltirilgan, Spartak jangda halok bo'lgan. 6 ming qo'zg'olonchi Rimdan Kapuyaga boradigan yo'l bo'ylab o'rnatilgan dorlarga chormixlab qo'yilgan. Qo'zg'olon taroq holda yana bir necha yil davom etgan. Spartak qo'zg'oloni Rimda hokimiyatni imperatorlik boshqaruvi shakli o'rnatilishini tezlashtirgan.

**TERMLAR** – rimlik qashshoqlar mehrini qozonishga intilgan Rim imperatorlari poytaxt aholi uchun qurdirgan ko'rkam jamoat hammomlari. Arzimas to'lovlar evaziga har bir rimlik termlarga tushish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu yerda suzish uchun basseynlar, boks, kurash, qilichbozlik koptok o'yini bilan shug'ullanish imkoniyati bo'lgan sport

zallari mavjud edi. Termlar qoshida kutubxona hamda ta'lim olish va fanlar bilan shug'ullanish zallari bo'lgan.

**TOGU** – Qadimgi rimlik yigitlarning 14 yoshga to'lgunga qadar kiyib yurgan pushti yo'llik kiyimlari.

**TRIUMF** (lotincha **triumphus**) – Qadimgi Rimda armiya g'alaba qozongan sarkardaning qo'shin bilan poytaxtga (Mars maydonidan Kapitoliydagi Yupiter ibodatxonasigacha) tantanali kirib kelish marosimi. Triumf senat qarori bilan o'tkazilgan va sarkarda uchun eng oliy mukofot sanalgan. Triumf marosimini senatorlar boshlab berishgan, ularning ketidan sozandalar va qo'shiqchilar kuzatuvida 4 ta oq ot qo'shilgan jang aravasida g'olib sarkarda (*triumfator*) borgan. Jangchilar o'lja va badavlat, zodagon asirlarni olib o'tganlar. Triumf Rimning zafarli urushlari davrida (mil. avv. III–I asrlar) 2–3 kun davom etgan. Imperiya davrida triumflik sharafiga imperator va uning eng yaqin qarindoshlarigina sazovor bo'lishgan.

**TRIUMVIRAT** (lotincha **tres** – *uch* va **vir** – *erkak*) – Qadimgi Rimda fuqarolar urushi davrida (mil. avv. I asr) atoqli siyosiy arboblardan va sarkardalarning davlat hokimiyatini egallash uchun tuzgan ittifoqi. Birinchi triumvirat mil. avv. 60 (yoxud 59)–53-yillarda *Yuliy Sezar*, *Pompey Gney* va *Mark Krass* o'rtasida, Ikkinchi triumvirat mil. avv. 43–36-yillargacha (rasman 31-yilgacha) *Oktavian Avgust*, *Mark Antoniy* va *M. Lepid* o'rtasida tuzilgan.

**TRAYAN FORUMI** – Qadimgi Rimning eng mahobatli maydonlaridan biri. Rim tarixchi *Ammian Martsellin* bu inshoot jahonda yagonadir va xudolarning hayratiga loyiqdir deya ta'riflagan. Forum imperator *Trayan*ning *daklar* ustidan qozongan g'alabalari sharafiga bunyod etilgan. Shundan keyin shaharning siyosiy hayoti Rim forumidan *Trayan* forumiga ko'chadi. *Trayan* forumining bunyodkori damashqlik *Apollodordir*. *Trayan* forumi 11695 metr maydonni egallagan va rangli marmar tosh-taxtachalaridan terib chiqilgan. Markaziy bino tevaragida xiyobonlari, gulzorlari, favvorolari va hovuzlari bo'lgan bog' barpo etilgan, yonida maydoni ham bo'lgan.

**VARVARLAR** – yunon va rimliklar tomonidan ularga nisbatan tushunarsiz tilda so'zlovchi va begona madaniyatga mansub barcha o'zga yurtliklar (germanlar va boshqa yerliklar)ga berilgan nom. Antik davrdagi varvarlar tushunchasi xristianlar Vizantiyasi va G'arbiy Yevropada ham o'zlashib ketib, bu yerlarda "xudosiz" degan ma'noni anglatadi. Majoziy ma'noda – qo'pol, madaniyatsiz, bag'ritosh kishilar.

**VENERA** – qadimgi rimliklarda dastlab bahor va hosildorlik, bog', ekin-tikin ma'budasi, keyinchalik go'zallik va sevgi ma'budasi hisoblangan; yunonlarda

*Afrodita*ga to'g'ri keladi. San'atda Venera ideal ayol go'zalligini ifodalaydi.

**VESTACHI KOHINALAR** – Qadimgi Rimda xonadon o'txonasi ilohasi *Vesta ibodatxonasida* muqaddas olovni asragan kohinalar.

**VETO** – taqiq, taqiqlash, man qilish, davlatning biror organi tomonidan boshqa organ qarorlarining amalga oshirilganligiga to'sqinlik qilish uchun tamomila yoki shartli ravishda taqiqlab qo'yish. Veto huquqi kurashuvchi sinflar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida ma'lumot sinf yoki ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ta'minlash uchun o'zaro bitimga kelish lozimligi tufayli vujudga kelgan. Rim quldorlik respublikasida faqatgina xalq tribuni lavozimidagi kishi vetoni qo'llashi mumkin bo'lgan.

**VIKTORIYA** – qadimgi rimliklarda g'alaba ma'budasi. Viktoriya yunon mifologiyasida *Nikaga* to'g'ri keladi.

**VULKAN** - qadimgi rimliklarda olov xudosi va temirchilar homiysi; yunonlarda *Gefestga* mos keladi.

**XALQ MAJLISI** – Rim Respublikasining oliy organi.

**XALQ TRIBUNI** – Qadimgi Rim respublikasida ta'xis etilgan davlat lavozimi bo'lib, u xalqning qabul qilinyotgan qonunlarga "*veto*" (*taqiqalayman*) qo'ya oladigan bo'lgan. Agarda xalq tribuni "*veto*" so'zini aytsa, bunday holda qonun qabul qilinmagan. Xalq tribunlari qashshoq rimliklar manfaatlarini ifoda etgan. Ular majlislarda barcha fuqarolarning teng va yashirin ovozlari bilan saylangan.

**KRISTIAN DINI (*Xristianlik*)** – jahonda keng tarqalgan dinlardan biri. Xristian dinining asosiy g'oyasi *Iisus Xristos (Iso Masih)* haqidagi rivoyatlar bilan bog'liq. Xristian dini ta'limotiga ko'ra, Xudo yagona, lekin u muqaddas uchlik (troitsa)da namoyon bo'ladi. Iso kelajakda tiriklar va o'liklar ustidan hukm chiqarish uchun oxirat kuni yerga qaytib keladi. Uning o'gitlariga, vasiyatlariga amal qilganlar, hayot mashaqqatlariga u kabi bardosh berganlarga narigi dunyoda ajr (mukofot)ga erishadilar. Xristian dinining aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalari, cheklash va taqiqlari *Bibliya* va boshqa muqaddas kitoblarda o'z ifodasini topgan. Xristian dini I asrning 2-yarmida Rim imperiyasining sharqiy qismida yashovchi yahudiylar o'rtasida paydo bo'lgan. Ilk xristian dini dastlab *iudaizmdan* ajralib chiqqan. Sharq dinlariga xos ayrim tasavvurlar ham unda o'z ifodasini topgan. Xristian jamoalarining ijtimoiy tarkibi vaqt o'tishi bilan ruhoniylar (klir) va oddiy jamoa a'zolari (miryan)ga bo'lingan. Ayrim-ayrim jamoalar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi yepiskop boshliq *cherkovning* tarkib

topishiga olib keldi. Cherkov katta boylik to'plab, siyosiy kuchga aylanib borgan. Dastlab xristianlarni ta'qib etgan Rim imperatorlari keyinchalik xristian dini tarafdorlari bo'ldilar. IV asrda xristian dini Rim imperiyasida mavjud ijtimoiy tuzum va uning tartiblarini himoya qiluvchi davlat diniga aylandi.

**YANUS** – Rim mifologiyasida eshik, kirish-chiqish, keyinchalik – har qanday ishning boshi (shu jumladan, inson hayotining ham boshlanishi) hamda bitimlar va ittifoqlar xudosi. Yanus qasri darvozasini urush e'lon qilganda ochishgan (qo'shinlar jangga shu darvozadan chiqqan) va sulh tuzilgandan so'ng yopishgan. Yilning 1-oyi yanvar unga bag'ishlangan (Yanus sharafiga bayram 9 yanvarda nishonlangan). Turli tomonga qarab turgan 2 qiyofada (keksa va yosh ko'rinishida) tasvirlangan. Bunda o'tmishgina emas, balki kelajak ham Yanusga ma'lum, degan fikr o'z ifodasini topgan. Ko'chma ma'noda – "ikki qiyofali Yanus" ikkiyuzlamachi odam.

**YEVANGELIYA, Injil** (yunoncha **euangelion** "*xushxabar*") – Iisus Xristos (Iso Masih) haqida hikoya qiluvchi xristianlik asarlarining umumiy nomi. Bibliyaning bir qismi. Yahudiylarning *Qadimgi ahddan* farq qilish uchun *Yangi ahd* deb nomlangan. Bu rivoyatlar I asr oxiri va II asrda yozib olinib, unda Iso va uning hayoti haqida juda ko'p ma'lumotlar bor. Kitob yunon tilida yaratilgan. IV asr boshida yaxlit holga kelgan va cherkov tomonidan xristianlarning muqaddas kitobi, deb e'lon qilingan. Yevangliyada oddiy kishilarning manfaatini ifoda etuvchi gaplar mujassam bo'lgani uchun bu din xalq orasida keng tarqalib ketgan. Qur'oni karimda Injil ilohiy kitoblar sirasiga kiritiladi va Alloh Iso Masihga yo'llagan kitob, deb ta'riflanadi. Qur'onga ko'ra, Injilda Muhammad (sav)ning tug'ilishi bashorat qilingan, ammo xristianlar Injilning asl matnini buzishgan.

**YUNONA** – rim mifologiyasida nikoh ma'budasi, xotin-qizlar va onalik homiysi. *Yupiterning* xotini, Yunona sharafiga Rimda 1-mart kuni ayollar oilaviy matronaliya bayramini nishonlaganlar. Yunona yunon mifologiyasidagi *Gera* bilan tenglashtirilgan.

**YUPITER** – Qadimgi Rimning bosh xudosi bo'lib, osmon, momaqaldiroq va yashin podshosi hisoblangan. Yupiter Rim davlatining homiysi, xalqlar va davlatlar taqdirini boshqarib turadi deb tushunilgan. Yunon mifologiyasida Yupiter *Zevsga* to'g'ri keladi.

**YUSTITSIYA** – qadimgi rimliklarda odil sudlov ilohasi. Bu iloha odatda ko'zlari bog'langan ayol ko'rinishida tasvirlangan. Yustitsiyaning o'ng qo'lidagi



qilich jazo timsoli sanalgan, chap qo'lidagi tarozi bilan iloha ayb va aybsizlikni taqqoslab o'lgan.

**ZAMA JANGI** — mil. avv. 204-yilda urush harakatlari Shimoliy Afrikaga ko'chiriladi. Urush harakatlari Karfagenga ko'chirilgach, Gannibal Italiyadan chaqirib olinadi. Mil. avv. 202-yilda Karfagenning Zama shahri yaqinida Gannibal boshliq karfagenliklar va Ssipion boshliq Numidiya podshosining qo'shinlari o'rtasida ayovsiz, shiddatli jang boshlanadi. Birinchi va ikkinchi Puni urushlari davrida yengilish nimaligini bilmagan Gannibal vatanini mudofaa qilayotib tor-mor etiladi. Shu bilan mil. avv.

218-yilda boshlangan ikkinchi Puni urushi mil. avv. 201-yilda o'z nihoyasiga yetadi. Karfagen Rim mulkiga taslim bo'lib uning mulkiga aylanadi. U Zana mag'lubiyatidan so'ng Suriyaga ketishga majbur bo'ladi. U yerdan Kichik Osiyoni Vifiniya o'tib o'sha yerda yashaydi. U yerda Vifiniya shohi Rimga Gannibalni tuttirib berishni ahd qilganini eshitib, mil. avv. 183-yilda zahar ichib o'ladi.

**O'N IKKI JADVAL QONUNLARI** — Qadimgi Rimda xususiy mulkni daxlsiz deb e'lon qilgan qonun.

## GEOGRAFIK NOMLAR

**AKVINK** — Rim imperiyasi davridagi (mil. avv. 10 — milodiy 409) shahar, milodiy 107-yildan Rimning Quyi Pannoniya provinsiyasi bosh shahri. Akvink xarobalari Budapesht (Vengriya) yaqinida joylashgan. 1775-yildan qazishma ishlari olib boriladi. Hunarmandlar yashaydigan mahallalar, amfiteatr, mudofaa devori, ibodatxonalar, shuningdek, Quyi Pannoniya noibining sahni naqshinkor saroyi ochilgan.

**GOLGOF TOG'I** — *Iisus Xristos (Iso Masih)* xochga tortilgan tog'.

**KAPITOLIY TEPALIGI** — “*Abadiy shahar*” martabasiga ega bo'lgan Qadimgi Rimning yetti tepaligidan eng pasti va eng kichigi bo'lgan bu tepalik Italiya poytaxtining ilk markazi bo'lgan. Tepalikning nomi esa uning baland joyida *Yupiter ibodatxonasi* qurilayotganda boshchanog'i topilgan “*Toliy*” degan etrusk jangchisining ismidan kelib chiqqan. Qadim zamonlarda Kapitoliy bir mahalda Rim qal'asi, diniy va siyosiy-ma'muriy markazi, ya'ni o'ziga xos Akropoli bo'lgan. Tepalikning qo'shaloq cho'qqisidan birida etrusk podshosi *Mag'rur Tarkviniy* tomonidan mil. avv. IV asr oxirida qurdirilgan *Yupiter ibodatxonasi* savlat to'kib turgan. Ibodatxona etrusk ustasi Bulka terrakotadan yasagan *Yupiter* va *Gerkules* haykallari bilan bezatilgan. Yupiter ibodatxonasidan bizgacha faqat poydevor qoldiqlari yetib kelgan. Bulka Rimning ramziga aylangan mashhur “*Kapitoliy ona bo'risi*” haykalini ham bunyod etgan. Kapitoliy tepaligining boshqa bir cho'qqisida *Yunona Moneta ibodatxonasi* bo'lgan. Rim Respublikasi davrida bu yerda zarbxona bo'lgan, ana shu iloha nomi bilan metall pullar “*moneta*” deb atalgan. Kapitoliy tepaligining ikki cho'qqisi orasida shahar maydoni joylashgan.

**KAPUADA SHAHRI (Kapuya shahri)** — Qadimgi Rimda gladiatorlar tayyorlaydigan maktabi bo'lgan qadimgi shahar. Bu yerga frakiyalik qul — *Spartak* qullar qo'zg'olonini ko'taradi (*Spartak qo'zg'oloni*).

**KARFAGEN** (finikiyacha **Kartadasht** — *Yangi shahar*) — Shimoliy Afrikadagi qadimgi shahar—davlat (hozirgi Tunis shahri atrofi). Finikiylar tomonidan mil. avv. 825-yilda barpo qilingan. Karfagen mil. avv. III asrning boshiga kelib Shimoliy Afrika, Sitsiliya va Janubiy Ispaniyani bosib olgach, O'rta dengiz bo'yidagi qudratli davlatga aylangan, bu esa u bilan Rim o'rtasidagi to'qnashuvni keltirib chiqargan. Puni urushlari (mil. avv. 264—146-yillar)dagi mag'lubiyatdan keyin Karfagen mil. avv. 146-yilda rimliklar tomonidan vayron qilingan, uning asosiy hududi Rimning Afrika viloyati tarkibiga kiritilgan, qolgani Numidiyaga berilgan. Karfagen san'ati va madaniyatiga oid moddiy madaniyat yodgorliklari oz miqdorda saqlanib qolgan.

**KONSTANTINOPOL** — 324—330-yillarda *Konstantin I* asos solgan va imperator sharafiga “*Konstantinopol*” — “*Konstantin shahri*” deb nom qo'yilgan shahar. 330-yilda Konstantin I Rim imperiyasi poytaxtini Konstantinopolga ko'chirishi bilan davlat muassasalari va senat Rimdan ko'chirilib kelgan va Konstantinopol rivojlangan yirik shaharga aylangan.

**KTESIFON (arabcha Taysafun, Madoin)** — Frot daryosi chap qirg'og'idagi qadimgi shahar (hozirgi Bag'dod yaqinida). Ktesifon Parfiyaning harbiy tayanch punkti (mil. avv. III asrdan), keyinchalik parfyan shohlarining qarorgohi bo'lgan. Rim imperatori *Trayandan* boshlab rimliklar bir necha marta Ktesifonni egallashgan. Ktesifon 266-yilda Sosoniylar poytaxti bo'lib, so'nggi antik davrning eng katta va boy shaharlaridan biri sifatida shuhrat qozongan. Sosoniylarning hashamatli saroy xarobalari saqlangan. Ktesifon 637-yilda arablar tomonidan bosib olingan va vayron qilingan. Bag'dod barpo etilganidan keyin (762-yil) uzil-kesil o'z ahamiyatini yo'qotgan.

**NAZARET (Nasro)** — Falastin o'lkasi, Jalila viloyati qishlog'i. Xristian dinining asoschisi *Iusus Xristos* (Iso)ning tavallud topgan shahri.

**NISO** — antik va o'rta asr shahar xarobasi; Ashgoboddan 18 km shimoli g'arbda joylashgan. Niso ikkita tepalik (*Yangi Niso*, maydoni 18 ga va *Eski Niso*, maydoni 14 ga)dan iborat. 1946–1960-yillarda Nisoda professor *M.E. Masson* tomonidan arxeologik qazishmalar olib borilgan. Natijada juda boy va xilma-xil arxeologik materiallar topilgan. Ular orasidagi sopolga bitilgan yozuvlardan birida Eski Niso tepaligi qadimda *Mixridatkirt* deb atalgani ma'lum bo'ldi. Yangi Niso tepaligi esa antik davrda Parfiya podsholigining poytaxti bo'lgan. Nisodan ibodatxona qoldig'i, sopol haykalli hashamatli zal, podsho xazinasi va monumental uy-joy qoldiqlari ochilgan. Xonalardan biri to'rtburchakli san'at koshonasi bo'lib, u ellinizm an'analari asosida qurilgan. Mil. avv. III–I asrlarga oid bu zaldan Parfiya madaniyatiga oid marmar haykal, fil suyagiga jilo berib ishlangan qadah (riton)lar va boshqa buyumlar topilgan. Nisodagi xo'jalik arxividan Parfiya podsholigining mil. avv. I asrga oid iqtisodiy va ma'muriy tuzumini jahonga ma'lum qiluvchi sopol parchalariga bitilgan 200 ta hujjat, shuningdek, harbiy qurollar va bezak buyumlar, terrakota va metaldan ishlangan mayda

haykalchalar, turli jihoz topilgan. O'rta asrlarda Niso Xurosonning muhim markazi bo'lgan.

**PO DARYOSI** — Apennin yarimorolining eng yirik oqar suv manbai.

**POMPEY** — Italiyaning janubidagi shahar, Kampaniya viloyatida. Neapol qo'ltig'i sohilida, Vezuviy vulkani etagida joylashgan. Aholisi 25 ming kishidan ziyod, asosan, turistlarga xizmat ko'rsatish sohasida band. Mayda korxonalar, geofizika rasadxonasi bor. Shahar yaqinida Vezuviy vulqoni otilishi natijasida vayron bo'lgan qadimgi Pompey qoldiqlari saqlangan. XVIII asrdan boshlab bu yerda qazish ishlari olib boriladi. Qazish natijasida shahar devorlari (mil. avv. V–IV asrlar), forumlar (mil. avv. VI–II asrlar), ibodatxonalar, bozorlar, turar joy va villalar (mil. avv. III asr — milodiy I asr) ochilgan. Ular Rim imperiyasining xo'jaligi, turmush tarzi, madaniyati, san'ati to'g'risidagi ma'lumotlarning muhim manbai hisoblanadi.

**TIBR DARYOSI** — Rim shahri shu daryo bo'yida vujudga kelgan.

**VEZUVIY TOG'I** — Qadimgi Rimda *Spartak* boshchiligidagi qo'zg'olon (mil. avv. 74/73–71-yillar) ko'targan qullarning qarorgohi joylashgan tog'. Milodiy 79-yil 24-avgustda Vezuviy tog'idan vulqon otilgan va natijada *Pompey*, *Gerkulanum* va *Staviy* kabi shahar va ko'pgina qishloqlar vayron bo'lgan.

## TARIXIY SANALAR

**Mil. avv. 2-mingyillik oxiri — 1-mingyillikni 1-yarmi** — Apennin yarimorolida *ligur*, *etrusk*, *lotin*, *venet*, *samnit* va boshqa qabilalar yashagan.

**Mil. avv. 1-mingyillik 2-yarmi** — Apennin yarimoroliga janubda yunonlar, shimoldan esa gallar kirib kelgan.

**Mil. avv. XII–VI asrlar** — Italiyada quldorlik davlatlarining vujudga kelishi.

**Mil. avv. XI–X asrlar** — Tibr daryosi bo'yida *lotin* qabilalarining o'z qishloqlariga asos solishi.

**Mil. avv. IX asr** — Italiyada temir davriga o'tildi.

**Mil. avv. IX asr** — Finikiyaning Tir shahri hukmdorlari Shimoliy Afrikadagi kichik yarim orolda o'z manzilgohlarini barpo etish maqsadida shimoliy Afrika sohillarining bir qismini, Sitsiliyaning g'arb tomonini, Malta, Sardiniya, Korsika va Balear orollarini bosib oldilar. Karfagenda savdo-sotiq, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi rivoj topgan.

**Mil. avv. VIII asr** — *etrusklar* Apennin yarimorolining shimoliy va o'rta qismlarida yashaganlar. Ular sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Xo'jalik rivojlanishi natijasida etrusklar o'zlarining shahar-davlatlarini tuzganlar.

Ularning dastlabki davlati 12 shahar-davlatlarining ittifoqidan iborat bo'lgan. Etrusklar davlati quldorlik davlati bo'lgan.

**Mil. avv. VIII–VII asrlar** — Italiyada *etrusk*, *osk* va *lotin* yozuvlari yaratilgan.

**Mil. avv. VIII–VI asrlar** — Italiyada etrusk madaniyatining gullab-yashnashi.

**Mil. avv. VIII–V asrlar** — etrusklar davrida Rimda rassomchilikning rivoj topishi.

**Mil. avv. VII–VI asrlar** — *etrusk* qabilalari kuchayib, Lasiy va uning bosh shahri Rimni bosib olganlar.

**Mil. avv. VII asr** — etrusklar Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun yunon koloniyalari bilan kurash boshladi. Karfagen mamlakati ham ularga qo'shildi. Avvaliga karfagenlar va etrusklar g'alaba qozonishadi, ammo ko'p o'tmay yunon qo'shinlari ularni quruqlik va dengizda tormor qiladi va natijada Italiya hududida mavjud bo'lgan etrusk sivilizatsiyasi barham topadi.

**Mil. avv. VI asr** — karfagenliklar Sitsiliyaning katta qismini zabt etib, Ispaniyani istilo eta boshladilar.

**Mil. avv. VI asr** – Italiyada temirdan yasalgan buyumlarning keng tarqalishi.

**Mil. avv. VI asr** – Rimning Kapitoliy tepaligida dushmanlardan himoyalaniş uchun qal'a bunyod etiladi.

**Mil. avv. VI asr boshlari** – etrusklar Rimga bostirib kirib, uning ba'zi joylarini bosib oldilar.

**Mil. avv. VI asr oxiri** – Rim davlati Respublika deb yuritila boshladi.

**Mil. avv. VI asr oxiri** – shimoldan gallar, janubdan esa yunonlarning hujumlari natijasida *etrusklar* davlati kuchsizlandi. Etrusklarga qarashli yerlarda qo'zg'olonlar ko'tariladi. Ichki va tashqi kuchlarning zarbalari ostida etrusklar davlati yemiriladi.

**Mil. avv. VI–V asrlar** – Italiyaning shimolida gall-kelt qabilalari yashar edilar. Ular urug' jamoasi bosqichini o'z boshlaridan kechirayotgan edilar.

**Mil. avv. VI–V asrlar** – Rimda yozma adabiyot vujudga keldi. O'sha davr adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari *Andronik, Enney, Plavt, Katull* va boshqalar hisoblanadi.

**Mil. avv. VI–III asrlar** – keltlarning Britaniya, Ispaniya, Shimoliy Italiya, Janubiy Germaniya yerlarini bosib olishi.

**Mil. avv. V asr** – Rim lotinlar bilan ittifoq bo'lib etrusklarga qarshi kurash boshlaganlar. Rimliklar etrusklarning *Veyya* shahriga 3 marta hujum qilganlar. Rim qo'shinlari *Lasiyga* bostirib kirib, tog'larda yashovchi *ekv* va *volsk* qabilalarini tor-mor etib, o'zlariga itoat ettirganlar.

**Mil. avv. V–IV asrlar** – *plebeylar* o'z hi-moyachilari – xalq tribunini saylash huquqini qo'lga kiritdilar. Tribunlar “*veto*” – (“*taqiqlash, man etish*”) huquqiga ega bo'lib, u konsullar va senatning plebeylarga zid farmoyishlarini taqiqlab qo'yish huquqini oladilar.

**Mil. avv. V–III asrlar** – Rim quldorlar va aslzodalar respublikasi.

**Mil. avv. IV asr** – Rimda mis tanga zarb qilina boshlandi.

**Mil. avv. IV asr o'rtalari** – Rimning barcha fuqarolari mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilindi.

**Mil. avv. IV asr oxiri va III asr boshlari** – Rimning qullardan boshqa barcha aholisi teng huquqli deb e'lon qilindi. Ularning barchasi lavozim va mansablarga saylanish huquqiga ega bo'ldilar. Bu lavozimlarga badavlat *plebeylar* va *patritsiylar* saylanganlar.

**Mil. avv. III asr** – Karfagen bir oz zaiflashib qoldi. Ilgari Karfagenga tobe bo'lgan joylar mustaqillikka intilganlar.

**Mil. avv. III asr** – rimliklar Periney yarim-

orolining janubida joylashgan Iberiyani bo'ysundirish uchun qonli urushlar olib bordilar.

**Mil. avv. III asr o'rtalari** – Rim sarkardalari mamlakatning shimoliy qismidan tashqari butun Italiyani zabt etishga erishdilar.

**Mil. avv. III asrning 80-yillari** – Apennin yarimorolining janubida yashovchi *lukanlar* yunonlarning Italiyadagi manzilgohi *Furey* – nort shahriga hujum qildilar.

**Mil. avv. III–II asrlar** – Rim qo'shinlarining olib borgan urushlari natijasida O'rtayer dengizi havzasidagi mamlakatlarning ko'pchiligi vayron qilingan. Ularning boyliklari talanib, aholisining bir qismi qirib tashlangan, bir qismi esa qul qilib haydab ketilgan; Rimda qulchilik eng yuqori pog'onasiga ko'tarilgan; Rim jamiyatida tabaqalanish nihoyatda kuchaygan. Bu jamiyatda qullar aholining eng quyi va ezilgan tabaqasini tashkil etgan. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo ishlarida qullar mehnatidan keng foydalanilgan.

**Mil. avv. II asr** – Rimga qarashli viloyatlarda qullar qo'zg'oloni va ozodlik uchun kurash boshlangan.

**Mil. avv. II asr o'rtalari** – Uchinchi *Puniya* urushi bo'ldi. Rimliklar Karfagenni qamal qildilar, ammo aholi uning himoyasiga qo'zg'aldi.

**Mil. avv. II asrning 70-yillari** – Makedoniyada rimliklarga qarshi kurash kuchaydi. Makedoniya podshosi *Persey* mamlakatdagi kuchlarni birlashtirib rimliklarga qarshi kurash boshlaydi.

**Mil. avv. II asr 1-yarmi** – rimliklar Iberiyaga bir necha bor bostirib kirganlar.

**Mil. avv. II–I asrlar** – Italiyada falsafiy asarlar yaratilgan.

**Mil. avv. I asr** – Rimda muntazam yollanma qo'shinlarga tayanuvchi harbiy boshliqlar real kuchga aylandilar. Yollanma askarlarni faqat o'lja qiziqtirgani uchun kimlar bilan jang qilish yoki kimlarni talashning farqi bo'lmagan.

**Mil. avv. I asr** – tarixchi *Galikarnass Dionisiyning* yashagan davri.

**Mil. avv. I asr** – Rim-Italiya adabiyotining “*Oltin davri*”. Bu davrda *Vergiliy, Gorasiy, Tibull, Ovidiy Nazon* kabi mashhur adib va shoirlar ijod etgan.

**Milodiy I asr** – Rim hokimiyati ostida bo'lgan Kichik Osiyo va Falastin yerlarida *Nazaret* shahrida duradgor *Iosif* va rafiqasi *Mariya* xonadonda *Iisus* tug'ilgani haqida rivoyatlar tarqala boshladi.

**Milodiy I asr** – Rim imperiyasida *xristianlikning* tarqalishi.

**Milodiy I asr** – rimliklar turmushida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Badavlat kishilar yashaydigan tepaliklar bag'rida tomoshabog'lar va chor-bog'lar ko'p, havo esa tekis joylardagiga qaraganda sog'lomroq

va tozaroq bo'lgan. Imperatorning yaqin kishilari muhtasham koshonalarga egalik qilar edilar. Badavlat bo'lmagan rimliklar buning aksi edi. Rimlik qashshoqlar mehri qozonishga intilgan imperatorlar poytaxt aholi uchun "termlar" deb atalgan ko'rkam hammomlar qurdirgan edilar.

**Milodiy I asrning 2-yarmi** – tarixchi va qomuschi olim *Kata Pliniyning* yashab ijod etgan davri.

**Milodiy I asr oxiri – II asr** – Iso haqidagi rivoyatlar yozib olinib, bu rivoyatlar yuoncha "Yevangeliye – xushxabar" degan ma'noni bildirgan. Unda Iso va uning hayoti haqida juda ko'p ma'lumotlar bor. Yevangeliyeda oddiy kishilarning manfaatini ifoda etuvchi gaplar mujassam bo'lgani uchun bu din xalq orasida keng tarqalib ketgan.

**Milodiy I–II asrlar** – Rimda qullar mehnati quldorlar uchun foydali emasligi uchun ko'plab quldorlar qullarni yer ijaralariga aylantira boshlashdi. Qullar qo'zg'olonidan qo'rqqan, hosildorlikni oshirishga intilgan zamindorlar o'z dala-hovlilarini kichik-kichik mulklarga bo'lib tashladilar, erkin kambag'allarga ijaraga tarqatib bera boshladilar.

**Milodiy II asr** – Rim imperiyasining "oltin asri", o'zaro urushlar barham topgan hamda xo'jalik va madaniyat rivojlangan palla.

**Milodiy II asr** – Imperator *Trayan* hukmronligi davrida Rimning Parfiya bilan yurushlari ancha muvaffaqiyatli bo'ldi.

**II asr oxiri–III asr boshi** – Rim saltanati tushkunlikka yuz tutdi.

**II asr oxiri–III asr boshi** – qullarning mehnat unumdorligi kamaya boshlagan.

**II–III asrlar** – Rimda qullar ko'p bo'lib, quldorlar ularning mehnatidan xo'jalikning hamma tarmoqlarida keng foydalanganlar; Rimda kolonlarning soni tobora o'sib borgan. Endilikda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va xo'jalikning boshqa sohalarida qullar soni kamayib kolonlar soni orta borgan. Bu qulchilikning inqirozidan nishona edi.

**III asr** – Rim imperiyasining kuch-qudrati zaiflasha boshladi. Imperatorni endilikda armiya saylar, armiyaning o'zida ham turli guruhlar o'rtasida kurash borar edi.

**III asr** – Rim saltanatida qo'zg'olonlar kuchayib ketgan. Shimoliy Afrikadagi *Nuidiya* va *Mavritaniya* aholisining qo'zg'oloni ayniqsa dahshatli tus olgan. Ular quldor va zodagonlarning uylariga o't qo'yganlar.

**III asr** – gotlar Skandinaviyadan Qora dengizning shimolidagi yerlarga kelib joylashdi.

**III asr o'rtalari** – Rimga shimoldan va shimoli-sharqdan *frank*, *german* va *dunay qabilalarining* tazyiqi kuchaygan.

**III asr o'rtalari** – G'arbiy Ispaniya, Galliya va Britaniyani o'z ichiga olgan mustaqil *Galliya davlati* tashkil topdi.

**III asr o'rtalari** – Galliyadagi "bagaudlar" – oddiy dehqonlar, kolonlar va qullar o'z sardorlari *Amand* bilan *Elianni* imperator deb e'lon qilganlar. Dehqonlardan piyoda, podachi – chorvadorlardan otliq qismlar tuzib rimliklarga va mahalliy zodagonlarga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. Bagaudlar mustahkamlangan shaharlarga hujum qilib, ularni bosib olganlar. Ular boy-badavlat kishilarning uylariga o't qo'yib, mol-mulklarini talaganlar, o'zlarini o'ldirganlar. Rimning o'zida va Sitsiliyada ham katta-kichik qo'zg'olonlar boshlangan. Ammo bu qo'zg'olonlarning ba'zilari Rim legionlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan.

**III asr 2-yarmi** – Misr va Palmira Rimdan ajralib chiqib ketgan.

**III asr oxiri** – Rim imperiyasi parchalanib, katta-kichik mulklarga ajralib keta boshlagan.

**III–V asrlar** – Galliyada rimliklarga qarshi qo'zg'olon bo'lib o'tgan. Bu harakat *bagaudlar* nomi bilan mashhur. Bagaudlar rimliklarni yengib, haydab yuborib, mustaqillikka erishganlar.

**IV asr** – Rim imperatorlari, quldorlari, aslzodalari va harbiylarining jabr-zulmi yanada kuchaygan. Bu zulmlarga qarshi, kambag'al dehqonlar, hunarmandlar, kolonlar va qullar g'azabga kelib bosh ko'targanlar. Saltanatda katta-katta qo'zg'olonlar boshlangan. Bunday harakatlar Italiya yoki Rimda emas, balki chekka o'lkalarda ham sodir bo'lgan.

**IV asrning 2-yarmi** – Rim, Konstantinopol, Antioxiya, Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo, Iskandariyada tez-tez g'alayonlar bo'lib turgan. Bu harakatda kolonlar, konchilar, dehqonlar, zodagonlar va aholining keng qatlami ishtirok etganlar. Bu harakatlarning barchasi shafqatsizlik bostirilgan. Harakatlarning bir qismi Rimga qarshi milliy-ozodlik urushi tusini olgan bo'lib, bunday harakatlarda mahalliy aslzodalar ham faol ishtirok etganlar.

**IV asrning 2-yarmi** – Markaziy Osiyodan bo'lgan xunn qabilalari Ra (*Itil–Volga*) va Tanans (*Don*) daryolari quyi qismidagi joylarga bostirib kirganlar. Xunn qabilalari shu yerda yashagan got qabilalarini o'zlariga itoat ettirganlar. Gotlarning bir qismi *sharqiy gotlar* – ya'ni *ostgotlar* nomi bilan shu yerlarda qolib xunnlarga aralashib ketganlar.

**IV asr o'rtalari** – toju-taxt uchun kurash, poraxo'rlik, o'g'rilik va tabaqaviy kurashlar Rimni zaiflashtirib qo'ygan. Rimga tobe o'lkalarda mustaqillik uchun kurash kuchayib, Rimdan ajralib keta boshlaganlar. Bu hollar Rimning mudofaa qobiliyatiga zarar keltirgan. Rimning zaiflashuvidan foydalangan

atrofdagi qabilalar va viloyatlar saltanat hududiga hujum boshlaganlar.

**Milodiy IV–V asrlar** — Butun Rim imperiyasini qullar va kolonlar qo‘zg‘oloni qamrab oldi. Varvarlarning Rim imperiyasiga hujumlari kengayib bordi. Bu davr 150 yildan ko‘proq davom etdi.

**IV–V asrlar** — Rimga qarshi xalq harakatlarida qo‘zg‘olonchilarning varvarlar bilan ittifoqi ko‘zga tashlangan. Ular shu yo‘l bilan Rim davlatidan ajralib chiqishga intilganlar. Rim saltanatidagi bu harakatlar Rimning harbiy kuchlarini zaiflashtirgan.

**IV asrning 30–40 yillari** — Shimoliy Afrikadagi Numidiyada xalq qo‘zg‘oloni ko‘tarilib, Rim legionlari bilan qo‘zg‘olonchilar o‘rtasida ayovsiz jang bo‘lgan, har ikki tomondan odamlar qirilgan va yarador bo‘lgan. Rimliklar bu qo‘zg‘olonni juda qiyinchilik bilan bostirganlar.

**IV asrning 70-yillari** — Mavritaniyada xalq qo‘zg‘oloni ko‘tarilib, Rim legionlari bilan qo‘zg‘olonchilar o‘rtasida ayovsiz jang bo‘lgan, har ikki tomondan odamlar qirilgan va yarador bo‘lgan. Rimliklar bu qo‘zg‘olonni juda qiyinchilik bilan bostirganlar.

**IV asr oxiri** — Zevsga bag‘ishlangan *Olimpiya o‘yinlari* bekor qilingan.

**IV asr oxiri** — varvar qabilalari Rimga hujum boshlaydilar. Rim imperatorlari katta boylik berish hisobiga ular bilan shartnoma tuzib, ulardan yollanma qo‘shin sifatida foydalanadilar.

**V asr o‘rtalari** — Volga daryosi bilan Karpat tog‘lari oralig‘ida joylashgan xunlar davlati ancha kuchaygan. Ular boshqa qabilalar bilan ittifoq tuzib G‘arbiy Yevropaga bostirib kira boshlaganlar.

**V asr oxirlari** — G‘arbiy Rimga tobe bo‘lgan o‘lkalarda mustaqil podsholiklar va davlatlar tashkil topgan.

**Mil. avv. 814-yil** — *Karfagen* shahriga asos solinishi.

**Mil. avv. 753-yil** — Rim shahriga aka-uka *Romul* va *Rem* tomonidan asos solinishi. Rim shahrini barpo bo‘lishi bilan Rim davlati ham tashkil topgan. Rimliklar yil hisobining boshlanishi.

**Mil. avv. 509-yilga qadar** — Rimliklar o‘z hukmdorlarini saylash orqali tayinlashgan. Hukmdorlar ham harbiy boshliq, ham sudya, ham kohin bo‘lishgan.

**Mil. avv. 509-yil** — Rimda podsho hokimiyatining bekor qilinishi va Respublikaning o‘rnatilishi.

**Mil. avv. 449-yil** — *plebeylar* manfaatini himoya qiluvchi 12 mis lavhaga yozilgan qonunlar qabul qilingan. Bu plebeylarning eng katta g‘alabasi edi. Qonunga ko‘ra, yer va mol-mulk xususiy bo‘lib, merosxo‘rga vasiyat qilib qoldirish mumkin edi.

**Mil. avv. 390-yil** — keltlar Rim ustiga qo‘shin tortib, Alliya daryosi boshidagi jangda Italiya qabilalarining birlashgan qo‘shini tor-mor etishgan. Keltlar Markaziy Italiyaga bostirib kirib juda ko‘p qishloq va shaharlarni vayron etganlar. Rimni yondirib yuborganlar. Bu yong‘indan faqatgina *Kapitoliy tepaligidagi* tosh qo‘rg‘on omon qolgan.

**Mil. avv. 343-yil** — *samnitlar* Kampaniyaga bostirib kirishdi. Shundan so‘ng Kampaniya yordam so‘rab Rimga murojaat qilgan. Rim qo‘shinlari samnitlarga qarshi urush boshlagan va Kampaniyani bosib olgan.

**Mil. avv. 343–288-yillar** — *samnit urushlari*.

**Mil. avv. 343–341-yil** — *birinchi samnit urushi*.

**Mil. avv. 341–288-yillar** — Rim qo‘shinlari Shimoliy Italiyani itoat ettirib, Po daryosidan Lukaniyagacha bo‘lgan yerlarni Rim Respublikasi tarkibiga qo‘shib oldi.

**Mil. avv. 340–338-yillar** — lotin ittifoqiga kirgan Italiya shaharlari Rimga qarshi kurash boshladi. Bu kurashlarda rimliklar g‘olib chiqdilar.

**Mil. avv. 334-yil** — keltlar rimliklar bilan sulh shartnomasini tuzdi.

**Mil. avv. 327–304-yillar** — bir qancha Italiya qabilalarini birlashtirgan samnitlar Rimga qarshi kurash olib bordi.

**Mil. avv. 326-yil** — *plebeylar* o‘zlarining yangi qonunlarini qabul qildi. Unda *“qarz uchun qarzdorning tan-joni emas, mol-mulki javobgar bo‘lishi kerak”*, deyilgan. Qonunga ko‘ra qarz uchun Rim fuqarosini qul qilish man etilgan. Yana plebeylar konsullik va boshqa mansab lavozimlarga saylanish, jamoa ekin maydonlaridan yer olish huquqini ham qo‘lga kiritadilar. Shunday qilib, plebeylarning patriitsylarga qarshi 200 yillik kurashi natijasida plebeylar juda katta g‘alabaga erishadilar.

**Mil. avv. 321-yil** — samnit qo‘shinlari *Klavdiy* shahri yaqinidagi tog‘- o‘rmon darasida Rim qo‘shinlarini o‘rab olib tor-mor etdilar. Mag‘lubiyatdan so‘ng rimliklar samnitlar yurtini tashlab chiqishga majbur bo‘ladilar.

**Mil. avv. 321–304-yil** — *ikkinchi samnit urushi*.

**Mil. avv. 304-yil** — rimliklar bilan samnitlar o‘rtasida sulh tuzilishi bilan *ikkinchi samnit urushi* o‘z nihoyasiga yetdi.

**Mil. avv. 298–288-yil** — *uchinchi samnit urushi*.

**Mil. avv. 288-yil** — uchinchi samnit urushi tugadi. Rimliklar Markaziy Italiyani o‘zlariga itoat ettirdi.

**Mil. avv. 281-yil** — Rim *Tarentga* qarshi urush e‘lon qildi.

**Mil. avv. 280-yil** — Gerakliya yonidagi jangda *Pirr* qo‘shini rimliklarni tor-mor etdi. Bu g‘alabadan so‘ng *Pirr* qo‘shini samnitlar yurti va Kampaniya orqali Rim ostonalarigacha yetib bordi.

**Mil. avv. 280-yil** — Epir podshosi *Pirr* o'z qo'shini bilan *Tarentga* keldi.

**Mil. avv. 280-yil** — Axeya davlatida yunon shahar-davlatlarining uyushmasi bo'lgan *Axeya ittifoqi* tuzildi. Ittifoqqa *Korinf*, *Megara*, *Agros* va *Peloponnesdagi* boshqa yunon shahar-davlatlari a'zo bo'lganlar. Bu ittifoq Makedoniyaga qarshi qaratilgan edi.

**Mil. avv. 279-yil** — *Pirr* qo'shinlari *Auskul* shahri yaqinidagi jangda Rim qo'shinlarini tor-mor etdi. Bu jangda *Pirr* o'zining juda ko'p jangchilaridan ajragan.

**Mil. avv. 275-yil** — *Pirr* Italiyaga qaytib kelib, o'zining otliq suvoriylari va jangovar fillarini Rim qo'shinlari ustiga tashladi. Jangda *Pirr* qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Yunonistonga jo'nab ketgan.

**Mil. avv. 272-yil** — *Pirr* Makedoniya taxti uchun olib borilgan janglar vaqtida halok bo'ldi.

**Mil. avv. 270–260-yillar** — rimliklar Janubiy Italiyani bosib oldi.

**Mil. avv. 264–241-yillar** — *Birinchi Puni urushining* bo'lib otishi.

**Mil. avv. 260-yil** — *Mila* burnidagi dengiz jangida rimliklar *Karfagen* ustidan g'alabaga erishdilar. Bu jangdan keyin karfagenliklar Sitsiliyadan surib chiqarilgan.

**Mil. avv. 256-yil** — Rimning 360 harbiy kemasi *Karfagen* tomon yo'l oldi. *Eknom* burnida bo'lgan dengiz jangida rimliklar g'alaba qozonib, *Karfagenda* urush harakatlarini boshlab yubordi. Bu g'alabadan so'ng konsul *Mark Atiliy Regun* boshliq qo'shin *Karfagenda* qolib, qo'shinning boshqa qismi *Rimga* qaytgan.

**Mil. avv. 255-yil** — *Karfagenning* yollanma askarlari Rim qo'shinlariga hujum qilib, ularni tor-mor keltirdilar. Rim konsuli *Mark Atiliy Regun* asir tushib, qamoqxonada o'lgan. Rim flotining qolgan qismi *Rimga* qaytishga majbur bo'lgan.

**Mil. avv. 251-yil** — Egada oroli yaqinidagi dengiz jangida *Karfagen* floti rimliklardan mag'lubiyatga uchradi.

**Mil. avv. 241-yil** — *Karfagen–Rim sulhi* tuzildi. Sulhga ko'ra, *Karfagen* 10 yil davomida *Rimga* har yili 3200 talant miqdorida tovon to'lashi, asirlarni qaytarishi, Apennin orolidagi qabilalardan askar yollamasligi, eng muhimi o'zining Sitsiliyadagi yerlarini Rim ixtiyoriga topshirishi lozim bo'lgan.

**Mil. avv. 238-yil** — rimliklar *Karfagenning* og'ir vaziyatda ekanligidan foydalanib *Sardiniya* va *Korsikani* bo'ysundiradi.

**Mil. avv. 237-yil** — *Gamilkar* o'z qo'shinlari bilan Iberiyaga joylashib, *Yangi Karfagen* shahrini barpo qilgan.

**Mil. avv. 229-yil** — *Karfagen* qo'shinining lashkarboshisi *Gamilkar Barka* halok bo'ldi.

**Mil. avv. 219-yil** — *Gannibal* Rim bilan ittifoqda bo'lgan *Sagnut* shahrini bosib oldi va aholisini qul qilib sotib yubordi.

**Mil. avv. 218-yil** — *Gannibal* o'z qo'shinlari va jangovar fillari bilan Yangi Karfagendan yo'lga chiqib, *Pireney tog'laridan* oshib o'tgan.

**Mil. avv. 218–201-yillar** — *Ikkinchi Puni urushi* bo'lib o'tdi.

**Mil. avv. 216-yil** — *Gannibal* Italiya hududi bostirib kirdi va *Kann* yaqinidagi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etdi. Bu jangda 70 ming rimlik legionlar halok bo'ldi.

**Mil. avv. 206-yil** — rimliklar Iberiya sohillarini egallash uchun yurish qilganlar va mahalliy aholining qattiq qarshiligiga duch kelganlar.

**Mil. avv. 204-yil** — *Puni* urushlari Shimoliy Afrikaga ko'chdi.

**Mil. avv. 202-yil** — *Karfagendagi Zama* shahri yaqinida *Gannibal* boshliq karfagenliklar bilan *Ssipion* boshliq Numidiya podshosining birlashgan qo'shinlari o'rtasidagi shiddatli jangda *Gannibal* qo'shinlari tor-mor etildi.

**Mil. avv. 201-yil** — *Karfagen–Rim sulhi* tuzildi. Sulhga ko'ra, *Karfagen* *Rimga* katta miqdorda tovon to'lagan.

**Mil. avv. 197-yil** — rimliklar ayrim yunon polislari bilan ittifoq tuzib, *Fessaliyaga* qo'shin tushirdilar. Rim qo'shinlari *Fessaliyadan* turib *Makedoniyaga* hujum boshladilar. Qattiq janglardan so'ng Rim qo'shinlari g'alaba qozonib, *Makedoniya* *Rimga* tobe bo'lib qoldi.

**Mil. avv. 190-yil** — rimliklar bilan *Salavka* podsholigi qo'shinlari *Magnesiya* shaharchasi yaqinida to'qnashdilar. Jang rimliklarning g'alabasi bilan tugagan.

**Mil. avv. 188-yil** — Rim va *Salavka* podsholigi o'rtasida sulh tuzildi. Sulh bitimiga muvofiq *Salavka* podshosi *Antiox III* G'arbiy Osiyo va Tavr tog'larining shimolidagi mulklaridan voz kechgan. *Hamma* jangovar fillari va harbiy-dengiz flotini *Rimga* berishi hamda tovon to'lashi lozim bo'lgan.

**Mil. avv. 183-yil** — *Gannibal* Vifiniya shohi uni rimliklarga tutib berishga ahd qilganini eshitib, zahar ichib o'ldi. Rim O'rtayer dengizida mutlaq hokimga aylandi.

**Mil. avv. 171–167-yillar** — *Makedoniyaning* *Rimga* qo'shib olinishi.

**Mil. avv. 168-yil** — *Makedoniya* podshosi *Persey* qo'shinlari va Rim legionlari o'rtasida bo'lgan jangda makedoniyaliklar mag'lubiyatga uchradi. *Persey* rimliklar qo'lga asir tushib halok bo'ldi. Rim legionlari *Makedoniyaning* shahar va qishloqlarini vayron qilib o't qo'yganlar, bayliklarini talaganlar.

**Mil. avv. 162–133-yillar** – *Tiberiy Grakxning* hayot faoliyati.

**Mil. avv. 154-yil** – Iberiyaliklar Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Rimliklarga qarshi qo'zg'olon ikki yil davom etib, so'ng qiyinchilik bilan bostirilgan.

**Mil. avv. 153–121-yillar** – *Gay Grakxning* hayot faoliyati.

**Mil. avv. 153-yil** – Rim senatori va yozuvchisi *Mark Katon* Karfagenga keldi.

**Mil. avv. 150-yil** – Periney yarimorolining g'arbidagi Luzitaniya viloyatida *Viriat* rahbarligida rimliklarga qarshi qo'zg'olon boshlandi.

**Mil. avv. 149–146-yillar** – *Uchinchi Puni urushi*.

**Mil. avv. 146-yil** – *Korinf* va *Karfagen* shaharlarining rimliklar tomonidan vayronaga aylantirilishi.

**Mil. avv. 146-yil** – *Axeya ittifoqi* davlatlari (*Korinf*, *Megara*, *Agros* va *Peloponnes*dagi bir qator davlatlar) rimliklarning jabr-zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonchilar qarzlarni bekor qilinishini, soliqlarni kamaytirilishini va rimliklarning zo'rovonligiga barham berilishini talab qilganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Rim legionlari qo'zg'olon markazi *Korinf*ga hujum qilganlar va uni ishg'ol qilib o't qo'yanlar. Axeya ittifoqi tarqatib yuborilgan. Yunonistonning ko'pgina shahar-davlatlari Rimga itoat ettirilgan.

**Mil. avv. 146-yil** – rimliklar *Karfagen* shahriga uzoq muddatlik qamaldan so'ng yorib kirgan. Olti kecha-kunduz davom etgan jangdan so'ng rimliklar shaharni vayron etgan, boyliklarini talagan va imoratariga o't qo'yan. Karfagenliklardan 50 ming kishi asir olinib, qul qilib sotilgan. Shunday qilib rimliklar Karfageni yo'q qilib, uning o'rnida Rimga tobe bo'lgan Afrika viloyatini tuzganlar. Karfagenliklarning mag'lubiyati bilan uchinchi Puni urushi ham tugagan.

**Mil. avv. 139-yil** – Luzitaniya podshosi *Viriat* fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

**Mil. avv. 138–132-yillar** – *Sitsiliyada* qullarning birinchi qo'zg'oloni. Bu qo'zg'olonga *Kleon* va *Yevn* boshchilik qilgan. Qo'zg'olon *Rutuliy* boshliq Rim qo'shinlari tomonidan katta qiyinchilik bilan bostirilgan. Qo'zg'olon rahbarlaridan *Kleon* jangda halok bo'lgan, *Yevn* esa asir olinib, zindonda qiynab o'ldirilgan.

**Mil. avv. 133-yil** – *Tiberiy Grakx* xalq tribuni lavozimiga saylandi.

**Mil. avv. 133-yil** – Ispaniyaga Rimning mashhur sarkardasi *Publiy Korneliy Ssision* yuborildi. U shaharni qamal qilib, tashqi aloqalardan mahrum etgan. Rim askarlari shaharliklarni holdan toydirib, shaharga bostirib kirganlar va uni ishg'ol qilganlar.

Rimliklar avval shaharni talaganlar, so'ng vayron qilib o't qo'yanlar. Numansiyaga qarashli yerlarni rimliklarga bo'lib berganlar. Ispan aholisining katta qismi qul qilib sotib yuborilgan. Ispaniyani bosib olinishi Rim davlatining chegaralarini Atlantikaning sharqiy sohillarigacha kengaytirgan. Shu davrda Rim Yevropadagi va jahondagi eng yirik va kuchli quldorlik davlatiga aylangan.

**Mil. avv. 133–123-yillar** – Rimda aka-uka *Grakxlar islohoti*.

**Mil. avv. 132–130-yillar** – Pergamda *Aristanik* boshchiligida katta qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Qo'zg'olonida erkin kambag'allar va qullar ishtirok etganlar. Ammo *Aristanik* qo'zg'oloni Rim konsuli *Publiy Krass* boshchiligidagi legionlar tomonidan bostirilgan. *Aristanik* asir olinib, qiynab o'ldirilgan.

**Mil. avv. 123-yil** – *Gay Grakx* xalq tribuni bo'lish uchun o'z nomzodini qo'ydi va bu lavozimga saylandi.

**Mil. avv. 121-yil** – *Gay Grakx* o'z buyrug'iga binoan quli tomonidan o'ldirilgan.

**Mil. avv. 99–55-yillar** – "*Buyumlar xislati haqida*" asari muallifi *Lukretsiy Kar* yashab ijod etgan.

**Mil. avv. 74-yil** – Rimda qurg'oqchilik va ocharchilik boshlandi. Sitsiliya, Kichik Osiyo, Pergam va Shimoliy Afrika kabi viloyatlarda, shuningdek Italiyaning o'zida norozilik kuchayib, qo'zg'olonlar boshlangan.

**Mil. avv. 74–71-yillar** – Italiyaning Kapuya shahrida *Spartak* boshchiligidagi qo'zg'olon.

**Mil. avv. 73-yil boshlari** – *Spartak qo'zg'oloni* ishtirokchilarining soni 10 mingga yetgan.

**Mil. avv. 73-yil** – Vezuviy tog'ida bo'lgan ayovsiz jang natijasida spartakchilar *Klodiy* boshchiligidagi Rim qo'shinini tor-mor etdi va juda ko'p o'lja va qurol-yarog'larni qo'lga tushirdi. Bu *Spartak* boshliq qo'zg'olonchilarning dastlabki g'alabasi edi.

**Mil. avv. 71-yil bahori** – *Burundiziy* shahri yaqinida *Spartak* va Rim sarkardasi *Krass* qo'shinlari to'qnashdi. Jangda *Spartak* halok bo'lgan, qo'zg'olonchilar esa Pompey qo'shinlari tomonidan qirib tashlangan. Bir necha ming asirlar xochlarga mixlab osildi. Qo'zg'olon ko'targanlarning alohida to'dalari yana 10 yil kurashni davom ettirdi.

**Mil. avv. 70–60-yillar** – O'rtayer dengizida qaroqchilik kuchaygan. Qaroqchilar dengizda kema qatnoviga, dengiz savdosiga, ayniqsa Rimga chetdan g'alla va boshqa mahsulotlar keltirilishiga juda katta zarar keltirganlar. *Pompey* dengiz qaroqchilariga qarshi kurash boshlagan va 3 oy ichida qaroqchilarning 120 ta qarorgohini yo'q qilib, 10 mingdan ortiq qaroqchini qilichdan o'tkazgan. O'rtayer dengizi qaroqchilardan tozalanib, osoyishtalik o'rnatilgan.

**Mil. avv. 62-yil** — *Pompey* Kichik Osiyo, Kavkaz, Suriya va boshqa joylardagi g'olibona urushlardan so'ng Rimga qaytib keldi.

**Mil. avv. 60-yil** — *Pompey*, *Krass* va *Sezarlar* uchlik ittifoqi (*birinchi triumvirat*)ni tuzib, Rimni birgalashib boshqarishga kelishib oldilar.

**Mil. avv. 59-yil** — *Pompey* va *Krass*ning tavsiyasi bilan *Sezar* konsulikka saylandi. *Pompey*, *Krass* va *Sezar* o'zaro kelishib, Rim saltanatini uch qismga bo'ldilar. *Krass* Sharqdagi Suriya va unga tutash o'lkalarga, *Pompey* Ispaniyaning ikki viloyatiga, *Sezar* esa Galliya va Illiriya noib etib tayinlandi.

**Mil. avv. 58-yil** — *Sezar* gallarga ustiga yurish qildi va ularni mag'lubiyatga uchratdi.

**Mil. avv. 55-yil** — Rim sarkardasi *Krass* Parfiyaliklar bosib olgan yerlarni Rim imperiyasiga qo'shib olish uchun Sharqqa yurish qildi.

**Mil. avv. 55–54-yillar** — *Sezar* Britaniya oroliga ikki marta yurish qildi.

**Mil. avv. 53-yil** — Rim sarkardasi *Krass* Mesopotamiyada parfiyaliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi.

**Mil. avv. 49-yil** — *Yuliy Sezar* yakkahokimlik uchun oshkora kurashni boshlab yuborib, Rimda hokimiyatni egalladi.

**Mil. avv. 44-yil 15-mart** — *Sezar* Yupiter bayrami kuni senat majlisida *Kassiy* va *Brut* boshliq respublikachilar fitnasi natijasida o'ldirildi.

**Mil. avv. 44-yil — milodiy 14-yil** — Rim imperiyasida *Oktavian Avgust* hukmronligi.

**Mil. avv. 43-yil** — *Oktavian*, *Antoniy* va *Lepidlardan* iborat uchlar ittifoqi (*ikkinchi triumvirat*) tashkil topdi.

**Mil. avv. 40–30-yillar** — imperator tarafdorlari hamda respublikachilar tarafdorlari o'rtasida kurash davom etdi. Bu mamlakatda navbatdagi fuqarolar urushining avj olishiga sabab bo'ldi.

**Mil. avv. 42-yil** — Makedoniyadagi *Filippa* shahri yaqinida *Oktavian–Antoniy* qo'shinlari bilan *Kassiy–Brut* qo'shinlari o'rtasidagi jangda respublikachilar (*Kassiy–Brut*) qo'shinlari tor-mor etildi. Jang vaqtida *Kassiy* o'z chodirida o'ldirildi, *Brut* esa o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'ldi. Shu jangdan so'ng Rim *Oktavian*, *Antoniy* va *Lepidlar* o'rtasida taqsimlanadi. O'rtayer dengizining sharqidagi o'lkalar *Antoniyga*, *Galliya*, *Illiriya* va *Ispaniya Oktavianga*, *Shimoliy Afrika* esa *Lepid* hukmronligiga topshirildi. Italiya uchlik ittifoqi boshqaruvida bo'lsa ham, u yerda *Oktavian* hukmronlik qildi.

**Mil. avv. 36-yil** — Rim sarkardasi *Antoniy* Parfiya podsholigi ustiga muvaffaqiyatsiz yurush qildi. Rim armiyasi og'ir talafotlarga uchradi, *Antoniy* chekinishga majbur bo'ldi.

**Mil. avv. 31-yil** — Yunoniston g'arbidagi *Axsiy* burni yaqinidagi jangda *Oktavian* va *Mark Antoniy* qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi dengiz jangi bo'ldi. Jangda *Oktavian* floti g'alabaga erishdi. *Oktavian* qo'shinlari Suriya va Falastinni ishg'ol qilib, Misrga bostirib kirdi. Misr malikasi *Kleopatra* va *Mark Antoniy* o'z jonlariga qasd qildilar. Misr rimlik qo'shinlar tomonidan bosib olinib, Rimga itoat ettirildi. Shu bilan Rimdagi fuqarolar urushi tugab, *Oktavianing* tanho hukmronligi boshlandi.

**Mil. avv. 30–14-yillar** — *Oktavian Avgustning* hukmronligi davrida Rimda senatorlar soni qisqartirildi, 75 legiondan 28 tasini qoldirdi. Jangchilarning xizmat muddati 20 yil etib belgilandi, Rim imperiyasi armiyasining umumiy adadi 300 mingga yetdi. Ko'plab saroylar va ibodatxonalar bunyod etildi.

**Mil. avv. 29-yil** — *Oktavian* Senatdan imperator unvoni hamda *Avgust* laqabini oldi, Rim imperiyasiga asos soldi.

**Mil. avv. 14-yil** — *Oktavian* Rim yaqinidagi qarorgohi *Nole* shaharchasidagi qarorgohida vafot etdi. Avgustning jasadini unga bag'ishlab qurilgan maxsus maqbaraga dafn etadilar.

**37–41-yil** — Rim imperatori *Gay Sezar-Kaliguli* hukmronligi.

**41-yil** — Rim imperatori *Gay Sezar-Kaliguli* fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Senatning faoliyati kuchayib mamlakatni respublika deb e'lon qilgan bo'lsa-da, Rim taxtiga *Klavdiy* o'tirdi.

**54-yil** — *Neron* Rim imperatori deb e'lon qilindi.

**54–120-yil** — Rim tarixchisi *Korneliy Tasitning* yashagan davri.

**68-yil** — Rim imperatori *Neron* vafot etdi va mamlakatda taxt uchun kurash avjiga chiqdi. Bu kurashda quldorlar, aslzodalar va lashkarboshlar faol ishtirok etib, ular o'z nomzodlarini imperator deb e'lon qilganlar. Mamlakat fuqarolar urushi girdobiga tortilgan.

**69-yil** — sharqiy viloyatlarning aslzodalari *Flaviy Vespasianni* Rim imperatori etib sayladilar.

**70-yil** — *Quddus shahrining* rimliklar tomonidan vayron etilishi.

**79–81-yillar** — Rimda *Tit Flaviy* hukmronligi.

**79-yil 24-avgust** — *Vezuviy* vulqonining otilishi. *Pompey*, *Gerkulanum* va *Staviy* kabi shahar va ko'pgina qishloqlarning vayron bo'lishi.

**96-yil** — Rim imperatori *Dominision* o'ldirildi va senator *Nerva* imperator deb e'lon qilindi.

**96–98-yillar** — Rim imperiyasida *Nerva* hukmronligi.

**98–117-yillar** — Rimda kelib chiqishi ispanlardan bo'lgan *Trayan* hukmronligi.



**101-yil** – Rim imperatori *Trayan* Dakiya shohi *Desebal* bilan kurash olib borib, uni mag'lubiyatga uchratdi. *Trayan Desebal* bilan sulh tuzib Dakiyaning ba'zi joylariga Rim qo'shinlarini joylashtiradi.

**106–107-yillar** – Rim imperatori *Trayan* Dakiyani qaytadan istilo qildi. *Trayan* Dakiyada yangi manzilgohlar ochib, u yerga Italiyadan odamlarni ko'chirgan va harbiy istehkomlarni mustahkamlagan.

**114-yil** – Rim imperatori *Trayan* Armanistonni egalladi.

**115-yil** – Rim imperatori *Trayan* Mesopotamiyaga qo'shin tortdi. Rim qo'shinlari Parfiya poytaxti Ktesifonni egallab, Mesopotamiyani Rimga qo'shib oladilar.

**116–117-yillar** – Sharqiy viloyatlarda Rim zulmiga qarshi qo'zg'olon boshlandi. Parfiyaliklar qo'zg'olonchilar bilan birlashib rimliklarni mag'lubiyatga uchratdilar. Bu mag'lubiyat Rim imperatori *Trayan*ni Italiyaga qaytishga majbur etdi.

**117-yil** – Kichik Osiyoning *Kilikiya* viloyatida *Trayan* kasallanib vafot etdi.

**117–138-yillar** – Rimda *Trayan*ning o'gay o'g'li *Adrianning* hukmronligi.

**132–135-yillar** – Rim imperatori *Adrian* Qudusda bo'lgan Simon boshliq yahudiylar qo'zg'olonini shafqatsizlik bilan bostirgan. Aholining ko'pchiligi qul qilib sotib yuborilgan. Quddus rimliklarga qaram bo'lib qolgan.

**155–235-yillar** – mashhur Italiya tarixchisi *Dion Kassiyning* hayoti va ijodi.

**192-yil** – Rim imperatori *Kommod* fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

**193–211-yillar** – Rim taxtini Shimoliy Afrikaning *Ulug' Leptis* shahridan chiqqan *Septimiy Sever* egalladi.

**215-yil** – Rim imperatori *Karakall* Mesopotamiyaga bostirib kirdi. Parfiya podshosi *Vologiz V* rimliklarning talablarini bajardi va urush to'xtatildi.

**216-yil** – Rim imperatori *Karakall* Parfiyaga yangidan urush e'lon qildi.

**217-yil** – Rim imperatori *Karakallga* suiqasd uyushtirildi va u o'ldirildi.

**222–235-yillar** – Severlar sulolasining so'nggi vakili *Aleksandrning* Rim imperiyasida hukmronligi.

**235–238-yillar** – imperator *Maksimning* Rim imperiyasida hukmronligi.

**238–284-yillar** – Rim taxtiga 19 ta imperator va 30 dan ortiq hukmdor kelib ketdi.

**248-yil** – Rim 1000 yilligi nishonlanishi.

**253–268-yillar** – imperator *Gallienning* Rim imperiyasida hukmronligi.

**270–275-yillar** – Rimda imperatorlik qilgan

*Avrelian* xalq harakatlarini bostirib, saltanat birligini tiklashga urinib ko'rgan.

**273-yil** – Imperator *Avrelian* qo'shinlari Suriyadagi *Palmira* shahrini ishg'ol qilib, uni vayron qilganlar.

**275-yil** – Rim imperatori *Avrelian*ning dushmanlari fitna uyushtirib, uni o'ldirganlar.

**276–282-yillar** – *Prob* Rim imperatori deb e'lon qilindi.

**282-yil** – Rim imperatori *Probn*ing faoliyatidan norozi bo'lgan harbiylar uni o'ldirganlar.

**284–305-yillar** – *Diokletian*ning Rim imperatori deb e'lon qilinishi.

**306–337-yil** – Imperator *Konstantinning* Rim imperiyasida hukmronligi.

**313-yil** – Rim imperatori *Konstantin* xristianlar homiysiga aylandi.

**330-yil** – Imperator *Konstantin* Bosfor bo'g'ozidagi *Vizantiy* shahrini Rim imperiyasining poytaxti deb e'lon qildi.

**333-yil** – Imperator *Konstantin* Rimda *xristianlik*ni davlatning boshqa dinlari bilan teng din deb farmon chiqardi. Farmon xristianlarga ibodatxonalar qurish va ochiq ibodat qilishga ruxsat berdi.

**378-yil** – gotlar *Konstantinopol* tomon yo'l oldilar. *Adriopol* shahri yaqinida Rim imperatori *Valentning* saralangan qo'shini bilan gotlar o'rtasida shiddatli jang bo'lib o'tdi. Jangda gotlar g'olib chiqib, imperator *Valent* va uning sarkardalari halok bo'ldi.

**379–395-yillar** – Rim imperiyasida *Feodosiy* hukmronligi.

**395-yil** – Imperator *Feodesey* Rim imperiyasini ikki o'g'liga, G'arbiy va Sharqiy qismlarga taqsimladi va Rim ikki qismga bo'linib ketdi. Sharqiy Rim imperiyasida imperatorning yagona hokimiyati saqlandi, G'arbiy Rim imperiyasi alohida davlatlarga parchalana boshladi.

**402-yil** – gotlarning Italiyaga birinchi hujumi uyushtirildi. *Vandal* sarkardasi *Stilixon* boshchiligidagi Rim qo'shinlari gotlarning hujumini qaytarganlar.

**408-yil** – *Alarix* boshliq got qo'shinlari Rimga bostirib kirib, uni talab qaytganlar.

**410-yil** – gotlar *Alarix* boshchiligidagi Rimga uchinchi marta bostirib kirib, shaharni 3 kun talab, Italiya janubiga qarab qo'shin tortganlar. Ular o'rta va janubiy Italiyaning shahar va qishloqlarini talaganlar.

**418-yil** – gotlar Ispaniyada *vestgotlar* podsholigini tashkil etganlar.

**429-yil** – Ispaniyani egallagan *vandallar* va *alanlar* Gibraltar bo'g'ozini orqali Shimoliy Afrikaga o'tib joylashganlar.

**439-yil** – alanlar va vandallar poytaxti *Karfagen* bo'lgan *Alan-Vandal* podsholigini tuzganlar.

**451-yil** – rimlik va gall qabilalarining birlashtirgan qo‘shini *Katalaun* yaqinidagi jangda xunnlarni chekintirishdi.

**452-yil** – *Atilla* boshliq *xunn* qo‘shinlari Italiyaga bostirib kirib, uning shimolidagi shahar va qishloqlarini talab, Dunay daryosi orqasiga qaytib ketganlar.

**453-yil** – xunlar hukmdori *Atilla* vafot etdi va unga tobe bo‘lgan qabilalar mustaqil bo‘lish uchun qo‘zg‘olon ko‘targan. Shu bilan xunlar ittifoqi ham tugab, ular mahalliy aholiga qo‘shilib ketganlar.

**455-yil** – germanlarning *vandal* qabilalari Italiyaga bostirib kirib, Rimni ishg‘ol qilib boyliklarini ikki hafta davomida talab, shaharni vayron qilganlar. Aholini shunchalik qirg‘in qilganlarki, vandallar

hujumidan keyin Rimda 7 ming aholi qolgan. Rim o‘z tarixida hech qachon shunchalik vayronagarchilikka uchramagan edi. Rimni vayron qilinishi natijasida “*vandalizm*” so‘zi vujudga kelgan. Bu so‘z insoniyat yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni buzib, yo‘q qilish degan ma‘noni bildiradi.

**476-yil** – german qabilalarining sarkardasi *Odoakr* G‘arbiy Rimning so‘nggi imperatori 15 yoshli *Romul Avgustulni* taxtdan ag‘darib tashlagan. Germanlar o‘z lashkarboshlari *Odoakrni* imperator deb e‘lon qilganlar. Ular imperator unvoni nishonini Sharqiy Rim imperiyasi poytaxti Konstantinopolga yuborganlar. G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan Qadimgi dunyo tarixi ham o‘z nihoyasiga yetgan.

## TESTLAR

### QADIMGI RIM

**1. Qadimgi Italiya aholisining asosiy mashg‘uloti...**

- A) chorvachilik va baliqchilik bo‘lgan
- B) dehqonchilik va chorvachilik bo‘lgan
- S) ovchilik va dehqonchilik bo‘lgan
- D) dehqonchilik va hunarmandchilik bo‘lgan

**2. Qaysi so‘z yunonchadan “buzoqchalar o‘lkasi” deb tarjima qilinadi?**

- A) Iberiya
- B) Italiya
- S) Apennin
- D) Peloponnes

**3. Italiya so‘zi qaysi tildan olingan va u qanday ma‘noni anglatadi?**

- A) yunoncha, “plebeylar o‘lkasi”
- B) lotincha, “buzoqchalar o‘lkasi”
- S) yunoncha, “donishmandlar vatani”
- D) yunoncha, “buzoqchalar o‘lkasi”

**4. Qaysi daryo Apennin yarimorolining eng yirik oqar suv manbai hisoblanadi?**

- A) Po daryosi
- B) Dunay daryosi
- S) Tibr daryosi
- D) Reyn daryosi

**5. Qadimda Apennin yarimorolining barcha qabilalari nima deb nomlangan?**

- A) etrusklar
- B) lotinlar
- S) italiklar
- D) samniylar

**6. Quyidagi javoblardan faqat Apennin yarimorolida istiqomat qilgan qabilalar nomini belgilang.**

**1) lotinlar; 2) amoriylar; 3) kassitlar; 4) sabiniylar; 5) guteylar; 6) lulubeylar; 7) etrusklar; 8) giksoslar; 9) samniylar.**

- A) 2, 4, 5, 7
- B) 1, 3, 5, 6, 8
- S) 1, 4, 7, 9
- D) 1, 2, 6, 7, 9

**7. Qadimda Italiyaning g‘arbiy qismiga Kichik Osiyodan qaysi qabila ko‘chib kelgan?**

- A) sabiniylar
- B) samniylar
- S) lotinlar
- D) etrusklar

**8. Qadimgi Italiyadagi etrusk qabilalarining asosiy mashg‘uloti nima bo‘lgan?**

- A) dehqonchilik
- B) hunarmandchilik
- S) baliqchilik
- D) chorvachilik

**9. Etrusklar kimlar?**

A) Karfagen shahriga asos solgan ko‘chmanchi chorvador qabila  
 B) Rimning tub aholisi  
 S) Senatorlarning avlodlari  
 D) Kichik Osiyodan Italiyaning g‘arbiy qismiga ko‘chib kelgan qabila

**10. Mil. avv. VIII asrga kelib etrusklar ...**

- A) sivilizatsiyasi barham topdi
- B) 12 ta shahar-davlat tuzishdi
- S) Rim Respublikasini barpo etishdi
- D) konsul lavozimi ta‘sis etishdi

**11. Etrusklarning qadimgi Sharq mamlakatlari**

**bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun yunon koloniyalariga qarshi kurashga ittifoqchi bo'lgan davlatni toping.**

- A) Sparta
- B) Karfagen
- S) Miken
- D) Sardiniya

**12. Qachon etrusk qabilalari Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun yunon koloniyalari bilan kurash boshlagan?**

- A) mil. avv. V asr o'rtalarida
- B) mil. avv. VI asr oxirida
- S) mil. avv. VII asrda
- D) mil. avv. IV asrda

**13. Etrusklar davlati qaysi davlat qo'shinlari tomonidan tugatildi?**

- A) Yunoniston
- B) Mesopotamiya
- S) Misr
- D) Xitoy

**14. Apennin yarimorolidagi qaysi qabilalarning kelib chiqishi yunonlarga yaqin qarindosh bo'lgan?**

- A) venetlar, lotinlar, amoriylar
- B) kassitlar, sabiniylar, etrusklar
- S) lotinlar, samniylar, sabiniylar
- D) guteylar, samniylar, lulubeylar

**15. Qadimgi Rim nechta tepalik ustida joylashgan edi?**

- A) 6 ta
- B) 3 ta
- S) 7 ta
- D) 2 ta

**16. Rim shahri qaysi daryo bo'yida tashkil topgan edi?**

- A) Rubikon daryosi
- B) Dnepr daryosi
- S) Reyn daryosi
- D) Tibr daryosi

**17. Mil. avv. 753-yilda...**

- A) Rim shahriga asos solindi
- B) Rim Respublikasi tashkil topdi
- S) Barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ldi
- D) Italiyada 12 ta shahar-davlat tuzildi

**18. Mil. avv. VI asrda yuz bergan voqealarni belgilang.**

A) Rimda gladiatorlar jangi boshlandi; Kolizey amfiteatri bunyod etildi

B) Italiyada 12 ta shahar-davlat tuzildi; etrusklar sivilizatsiyasi gullab-yashnadi

S) Rim shahriga asos solindi; panteon ibodatxonasi bunyod etildi

D) Rim shahri aholisi ko'p shaharga aylandi; Kapitoliy tepaligida dushmanlardan himoyalaniş uchun qal'a bunyod etildi

**19. Qachon Qadimgi Rimdagi Kapitoliy tepaligida dushmanlardan himoyalaniş uchun qal'a bunyod etildi?**

- A) mil. avv. IV asrda
- B) mil. avv. VI asrda
- S) mil. avv. III asrda
- D) mil. avv. V asrda

**20. Rim rivoyatlariga qaraganda, Rim shahriga asos solgan aka-uka dunyoga kelishganida ularni Tibr daryosi bo'yiga tashlab ketishgan. Ana shu aka-ukaning ismi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Sezar va Avgust
- B) Romul va Neron
- S) Morfey va Rem
- D) Romul va Rem

**21. Qaysi hayvon Rim shahrining timsoli hisoblanadi?**

- A) arslon
- B) tovus
- S) burgut
- D) bo'ri

**22. Mil. avv. 509-yilda Rimda hukmronlik qilgan Tarkviniyning laqabini toping.**

- A) "Yengilmas quyosh"
- B) "Dohiy"
- S) "Donishmandlik yo'l boshchisi"
- D) "Mag'ur"

**23. Mil. avv. 509-yilda darg'azab bo'lgan aholi qo'zg'olon ko'tarib, Tarkviniyning shahardan haydab yuboradi. Bunga sabab nima edi?**

A) Tarkviniyning davlat xazinasini o'zlashtirib olishga urinishi

B) Tarkviniyning respublika tuzumini ag'darib tashlashi

S) Tarkviniyning aholiga og'ir soliqlarni joriy qilishi

D) Tarkviniyning saylab qo'yilgan hukmdorni o'ldirib hokimiyatni egallab olishi

**24. Ma'lumki, qadimgi davrda rimliklar o'z hukmdorlarini saylashardi. Hukmdorlar ...**

A) ayni paytda ham sudya edi

B) ayni paytda ham harbiy boshliq edi

S) ayni paytda kohin ham bo'lgan

D) ayni paytda ham harbiy boshliq, sudya va kohin bo'lgan

**25. Qadimgi Rimda faoliyat ko'rsatgan "Xalq majlisi"ning vakolatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

1) urush e'lon qilgan, sulh tuzgan; 2) turli soliqlar va bojlarni joriy qilgan; 3) vakolatlari imperatornikiga teng bo'lgan; 4) qonunlarni qabul va bekor qilgan; 5) barcha muhim mansabdor shaxslarni saylagan; 6) davlat xazinasidan cheksiz foydalangan; 7) zarur hollarda imperator nomidan farmon chiqargan.

- A) 1, 3, 7  
 B) 1, 2, 4, 6  
 S) 2, 3, 5, 7  
 D) 1, 4, 5
- 26. "Senat" so'zining ma'nosi nima?**  
 A) "muqaddas dargoh" degan ma'noni anglatadi  
 B) "donishmandlik yo'lboshchilari" degan ma'noni anglatadi  
 S) "oqsoqollar kengashi" degan ma'noni anglatadi  
 D) "tarbiya maktabi" degan ma'noni anglatadi
- 27. Patritsiylar kimlar?**  
 A) Rimning oddiy xalqi  
 B) Korsika orolida yashagan qabilalar  
 S) senatorlarning avlodlari  
 D) Vesta ibodatxonasidagi muqaddas olovni saqlagan kohinlar
- 28. Qadimgi Rimning oddiy xalqi nima deb nomlangan?**  
 A) patritsiylar  
 B) plebeylar  
 S) kandidalar  
 D) meteklar
- 29. Rim davlati qachon respublika deb yuritila boshlangan?**  
 A) mil. avv. VI asr oxirida  
 B) mil. avv. V asrda  
 S) mil. avv. IV asrning 2-yarmi  
 D) mil. avv. VII asr boshida
- 30. Qadimgi Rim boshqaruvida faqat kimlar ishtirok eta olardi?**  
 A) diktatorlar  
 B) avgurlar  
 S) plebeylar  
 D) patritsiylar
- 31. "Respublika" so'zi qanday ma'noni anglatadi?**  
 A) xalq ishi  
 B) xalq yig'ilishi  
 S) aslzodalar hokimiyati  
 D) oqsoqollar kengashi
- 32. Qadimgi Rimda Xalq majlisining qarorini qaysi organ tasdiqlar edi?**  
 A) Oliy kengash  
 B) Parlament  
 S) Kongress  
 D) Senat
- 33. Rim respublikasi davrini eslang. Uning boshqaruvida faqat kimlar ishtirok eta olardi?**  
 A) Rimning barcha fuqarolari  
 B) harbiy qo'shin qo'mondonlari  
 S) senatorlar  
 D) zadogan quldorlar
- 34. Qadimgi Rimda nima uchun oddiy kishilar konsul bo'la olmasdi?**  
 A) davlat lavozimiga saylanish uchun mablag'liklari bo'lmagani uchun  
 B) davlat ishlarida faqat zodagonlar ishtirok etganliklari sababli  
 S) davlatga xizmat qilish evaziga haq to'lanmaganligi sababli  
 D) konsullikka faqat harbiy boshliqlardan saylanganligi sababli
- 35. "Kandida" nima?**  
 A) Rimda saylov kuni liktorlikka o'z nomzodini qo'yan badavlat quldorlar kiygan libos  
 B) Rimda saylov kuni diktatorlikka o'z nomzodini qo'yan badavlat quldorlar kiygan libos  
 S) Rimda saylov kuni tribunlikka o'z nomzodini qo'yan badavlat quldorlar kiygan libos  
 D) Rimda saylov kuni konsullikka o'z nomzodini qo'yan badavlat quldorlar kiygan libos
- 36. Hozirgi "kandidat", ya'ni qandaydir lavozimni egallashga harakat qiluvchi nomzod shaxs ma'nosini beruvchi so'z qaysi iboradan kelib chiqqan?**  
 A) kandida  
 B) senat  
 S) patritsiy  
 D) plebey
- 37. Qadimgi Rimda konsullikka o'z nomzodini qo'yan badavlat quldorlar qanday rangli libos kiyganlar?**  
 A) qizil  
 B) qora  
 S) sariq  
 D) oq
- 38. Qadimgi Rimda bevosita davlatni boshqargan mansabdor shaxs nima deb atalgan?**  
 A) diktator  
 B) tribun  
 S) konsul  
 D) arxont
- 39. Qadimgi Rimda qonunlar qayerda muhokama etilar edi?**  
 A) xalq sudida  
 B) xalq majlisida  
 S) senatda  
 D) shahar markazida
- 40. Qadimgi Rimda qonunlar qaysi organ tomonidan qabul qilingan?**  
 A) Senat  
 B) Xalq majlisi  
 S) Xalq sudi  
 D) Xalq tribuni
- 41. Qadimgi Rimda urush yoki xalq qo'zg'oloni boshlanganida qaysi lavozimlar tayinlangan?**  
 A) tribun va diktator  
 B) konsul va diktator

S) xalq tribuni va liktor

D) diktator va o'tliq qo'shinlar boshlig'i

**42. Qadimgi Rimda diktator o'zi egallagan cheklanmagan hokimiyatni qancha muddat idora etgan?**

A) 3 oy

B) 6 oy

S) 9 oy

D) 1 yil

**43. Qadimgi Rimda konsulning faxriy qorovuli nima deb atalgan?**

A) goplit

B) metek

S) avgur

D) liktor

**44. Qadimgi Rimda har bir konsulni necha kishidan iborat fahriy qorovul qo'riqlab turar edi?**

A) 10 kishi

B) 14 kishi

S) 12 kishi

D) 8 kishi

**45. Quyidagilardan qaysi biri Qadimgi Rimdagi konsullar faoliyatiga taalluqli emas?**

1) Ikki nafar konsul muhim masalalarda maslahatlashgan; 2) "Veto" huquqidan foydalangan; 3) Rimliklarni sud qilgan; 4) Plebeylar manfaatini himoya qilgan; 5) Harbiy davrlarda qo'shinga qo'mondonlik qilgan; 6) Yil davomida Rim respublikasini boshqargan; 7) Xalq qo'zg'olonlarini bostirishga rahbarlik qilgan; 8) Har yili Xalq majlisiga hisobot berib turgan.

A) 1, 3, 5

B) 2, 4, 7

S) 2, 3, 5, 7

D) 1, 2, 4, 6, 7

**46. Qadimgi Rim konsullarining jinoyatchilarni jazolash imkoniyatiga egaligi alomati sifatida ...**

A) o'z huzurlarida doimo jallod o'z qilichi bilan shay holda turgan

B) o'z huzurlarida ikki jangchi qurol-yaroqlari bilan turgan

S) konsullar doimo xanjar bilan yurgan.

D) liktorlar yelkalariga o'rtasida boltacha sanchilgan qayishqoq arqonchalardan bog'lama taqib yurishgan

**47. Ma'lumki, Qadimgi Rimda konsullar ikki nafar bo'lgan. Ular muhim masalalar yuzasidan qaror qabul qilishdan avval ...**

A) bir-birlari bilan maslahatlashib olishi kerak edi

B) patriysiylar bilan maslahatlashib olishi kerak edi

S) Senat bilan maslahatlashib olishi kerak edi

D) Xalq majlisi bilan maslahatlashib olishi kerak edi

**48. Rim respublikasida qaysi lavozim egasi qashshoq rimliklar manfaatini himoya qilgan?**

A) diktator

B) senator

S) konsul

D) xalq tribuni

**49. Xalq tribunining vazifalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

1) Yil davomida Rim respublikasini boshqargan;

2) Qashshoq rimliklar manfaatlarini himoya qilgan;

3) Harbiy davrlarda qo'shinlarga qo'mondonlik qilgan;

4) "Veto" huquqidan foydalana olgan;

5) Aholini sud qilgan; 6) Har yili Xalq majlisiga hisobot bergan.

A) 1, 5

B) 1, 4

S) 2, 4

D) 3, 6

**50. "Veto" so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

A) roziman

B) boshqaraman

S) hukm qilaman

D) taqiqlayman

**51. Qadimgi Rimda kimlar "veto" huquqidan foydalangan?**

A) liktor

B) konsul

S) diktator

D) xalq tribuni

**52. Qadimgi Rim qonunchiligiga oid asosiy xususiyatni aniqlang.**

A) qonunlar og'zaki bo'lgan

B) qonunlar imperatorning cheksiz hokimiyatini ta'minlar edi

S) qonunlar plebeylar va patriysiylar tomonidan yaratilgan

D) qonunlar pergamentga yozilar edi

**53. Ma'lumki, Qadimgi Rimda Senat qonunlarni o'nta mis plastinada chekib yozgan va hamma ko'rishi uchun uni osib qo'ygan. Ushbu qonunlar kimlarning talabiga binoan yozilgan?**

A) pontifiklar

B) avgurlar

S) plebeylar

D) patriysiylar

**54. Qadimgi Rimda senat tomonidan o'nta mis plastinada chekib yozilgan qonunlar nima sababdan patriysiylarni qanoatlantirmadi?**

A) negaki, ular Yunoniston hukmdori Solonning qonunlariga asoslangan bo'lib, kambag'al aholi manfaatlarini himoya qilar edi

B) chunki, ular Afina arxonti Drakontning qonunlariga asoslangan bo'lib, shaharlik aholi manfaatlarini himoya qilar edi

S) chunki, ular Bobil podshosi Xammurapining qonunlariga asoslangan bo'lib, quli va yeri ko'p bo'lgan zodagonlarning manfaatini himoya qilar edi

D) negaki, ular Ahamoniylar hukmdori Doro I ning qonunlariga asoslangan bo'lib, faqat hukmdorning manfaatlarini himoya qilar edi

**55. Qachon Rimning barcha fuqarolari mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilingan?**

- A) mil. avv. VI asr oxirida
- B) mil. avv. V asr boshida
- S) mil. avv. III asrda
- D) mil. avv. IV asr o'rtalarida

**56. Quyidagi atamalardan faqat Qadimgi Rimga tegishli bo'lganini belgilang.**

1) zikkurat; 2) kandida; 3) goplit; 4) podsho tirsagi; 5) liktor; 6) plebey. 7) diadoh; 8) konsul; 9) veto; 10) ilot

- A) 1, 2, 5, 7, 10
- B) 1, 3, 4, 6, 7
- S) 2, 5, 6, 8, 9
- D) 2, 3, 6, 8, 9

**57. Qadimgi Rimda nima sababdan patritsiyar 12 jadvaldan tashkil topgan yangi qonunlarni qabul qilishga majbur bo'ladilar?**

- A) patritsiylarni avvalgi qonunlar qoniqtirmaganligi sababli
- B) plebeylardan iborat bo'lgan Rim qo'shinlari isyon ko'tarib, o'z qonunlariga ega bo'lgan yangi shahar barpo etish da'vosi bilan chiqanligi sababli
- S) patritsiylar va plebeylar o'zaro kelishuvlari sababli
- D) konsullarning keskin noroziligi sababli

**58. Mozaika – bu ...**

- A) Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik
- B) Rimdagi eng baland tepalik
- S) qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joy
- D) shisha yoki tosh parchalaridan ishlangan rasm

**59. Ho'l suvoqqa ishlangan rasmlar nima deb ataladi?**

- A) metek
- B) ritorika
- S) freska
- D) akveduk

**60. Shisha yoki tosh parchalaridan ishlangan rasm nima deb ataladi?**

- A) freska
- B) akveduk
- S) mozaika
- D) ritorika

**61. Qadimgi Rimda shohona koshona uy-joylar nima deb atalgan?**

- A) akveduk
- B) freska
- S) villa
- D) mozaika

**62. Qadimgi Rimda shahar markazi nima deb atalgan?**

- A) forum
- B) villa
- S) freska
- D) mozaika

**63. Qadimgi Rim forumida nimalar joylashgan edi?**

- A) senat, xalq maydoni va akveduk
- B) yig'ilish joyi, ibodatxona va kolizey
- S) liktor, akveduk va altar
- D) bozor maydoni, yig'ilish joyi va ibodatxona

**64. Qadimgi Rim bozorlarida eng bozori chaqqon tovar nima edi?**

- A) yog'och
- B) togu
- S) qul
- D) zaytun

**65. Qadimgi Rimda qanday qilib odamlarning jamiyatdagi mavqeyini bilib olishgan?**

- A) kiyib yuradigan libosi orqali
- B) istiqomat qilgan uyi orqali
- S) qancha quli borligiga qarab
- D) qancha yeri borligiga qarab

**66. "Togu" nima?**

- A) ho'l suvoqqa ishlangan rasm
- B) Rimning qasos va intiqom ilohasi
- S) qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joy
- D) o'g'il bolalarning 14 yoshigacha kiygan pushti yo'llik libosi

**67. Qadimgi Rimda o'g'il bolalar necha yoshigacha pushti yo'llik "togu" kiyishgan?**

- A) 9 yoshigacha
- B) 7 yoshigacha
- S) 10 yoshigacha
- D) 14 yoshigacha

**68. Qadimgi Rimda kimlar oppoq togu kiyishar edi?**

- A) senatorlar va imperatorlar
- B) konsullar va diktatorlar
- S) patritsiylar va kohinlar
- D) 14 yoshga kirgan o'g'il bolalar hamda senatorlar

**69. Kundalik hayotda madad va homiylik istab ko'proq kimlarga murojaat etishgan?**

- A) kohinlarga
- B) o'z xudolariga

- S) xalq tribunlariga  
D) senatorlarga
- 70. Qadimgi yunonlarning urush xudosi Ares rimliklarning qaysi xudosi to'g'ri keladi?**  
A) Yupiterga  
B) Marsga  
S) Fortunaga  
D) Veneraga
- 71. Qadimgi Rimning bosh xudosi, osmon, momaqaldiroq va yashin podshosi qaysi xudo hisoblanadi?**  
A) Mars  
B) Yupiter  
S) Yustitsiya  
D) Fortuna
- 72. Qadimgi rimliklar qaysi xudoga Rim davlatining homiysi, xalqlar va davlatlar taqdirini boshqarib turadi deb e'tiqod qilishgan?**  
A) Marsni  
B) Fortunani  
S) Venerani  
D) Yupiterni
- 73. Quyidagi qaysi javobda rimliklarning dengiz xudosi to'g'ri ko'rsatilgan?**  
A) Morfey  
B) Baxus  
S) Neptun  
D) Diana
- 74. Morfey – bu ...**  
A) rimliklarning ov xudosi  
B) rimliklarning uyqu xudosi  
S) rimliklarning taqdir ilohasi  
D) rimliklarning olov va temirchilar xudosi
- 75. Qadimgi rimliklar e'tiqodida Diana ...**  
A) ov xudosi hisoblangan  
B) uyqu xudosi hisoblangan  
S) dengiz xudosi hisoblangan  
D) urush xudosi hisoblangan
- 76. Qadimda rimliklar qaysi xudoni olov va temirchilar xudosi deb hisoblashgan?**  
A) Vulkanni  
B) Morfeyni  
S) Baxusni  
D) Dianani
- 77. Qadimgi rimliklarning bahor va sevgi xudosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**  
A) Diana  
B) Yustitsiya  
S) Venera  
D) Morfey
- 78. Quyidagi qaysi javobda rimliklar xudolarining ta'rifi noto'g'ri berilgan?**  
A) Venera – bahor va sevgi xudosi  
B) Neptun – dengiz xudosi  
S) Yustitsiya – odil sudlov ilohasi  
D) Baxus – urush xudosi
- 79. Quyidagi qaysi qatorda rimliklar xudolarining ta'rifi to'g'ri berilgan?**  
A) Morfey – ov xudosi  
B) Mars – dengiz xudosi  
S) Venera – taqdir ilohasi  
D) Yustitsiya – odil sudlov ilohasi
- 80. Qadimgi rimliklar e'tiqod qilgan Yustitsiyaning o'ng qo'lidagi qilich nimani timsoli sanalgan?**  
A) adolat timsoli  
B) g'alaba timsoli  
S) jazo timsoli  
D) ishonch timsoli
- 81. Qadimgi rimliklar e'tiqodiga ko'ra qaysi ilohaning chap qo'lida aybdorlik va aybsizlikni taqqoslab beradigan tarozi bo'lgan?**  
A) Yupiter  
B) Venera  
S) Mars  
D) Yustitsiya
- 82. Odil sudlov ilohasi Yustitsiya qanday ko'rinishda tasvirlangan?**  
A) shippak va shlyapa kiygan jasur yigit ko'rinishida  
B) ko'zlari bog'langan ayol ko'rinishida  
S) yarim yalang'och o'ng qo'lida 3 ayriqliq nayza tutgan holda  
D) yovuz va qasoskor ayol siymosida
- 83. Qadimgi Rimning taqdir ilohasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**  
A) Fortuna  
B) Venera  
S) Baxus  
D) Morfey
- 84. Qadimgi rimliklar Fortunani qay ko'rinishda tasvirlashgan?**  
A) shippak va shlyapa kiygan jasur yigit ko'rinishida  
B) ko'zlari bog'langan ayol ko'rinishida  
S) yarim yalang'och o'ng qo'lida 3 ayriqliq nayza tutgan erkak siymosida  
D) gohida rul bilan, ba'zan esa shar ushlab turgan ayol siymosida
- 85. Qadimgi rimliklar qaysi ilohalarni qasoskor ayollar siymosida tasvirlashgan?**  
A) Fortuna va Yustitsiyani  
B) Diana va Morfeyni  
S) Furiyalarni  
D) Morfey va Fortunani
- 86. Qadimgi rimliklar ibodatxonasida qaysi xudoning haykali o'rnatilgan edi?**

- A) Mars  
B) Yupiter  
S) Yustitsiya  
D) Venera
- 87. Qadimgi rimliklar ibodatxonasining yonida nima bo'lgan?**  
A) imperatorning saroyi  
B) Marsning ulkan haykali  
S) kohinlarning uyi  
D) qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joy
- 88. Altar nima?**  
A) Vesta ibodatxonasining muqaddas olovi  
B) qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joy  
S) yovuz ruhlar va balo-ofatlardan himoya qiluvchi tumor  
D) Rim xudolarining asosiy yeguligi
- 89. Quyidagi ko'rsatilgan qaysi javobda qadimgi rimliklar o'z xudolari uchun keltirishgan qurbonlik ko'rsatilgan?**  
A) qushlarni  
B) hayvonlarni  
S) go'daklarni  
D) o'smirlarni
- 90. Qadimgi Rimda qurbonlik o'tkazish marosimini kimlar o'tkazishga haqli edi?**  
A) avgurlar  
B) vestachilar  
S) senturiylar  
D) pontifiklar
- 91. Ma'lumki, qadimgi rimliklar e'tiqodiga ko'ra hayvonlar go'shtining bir qismi altarga kiydirilgan. Ular nima sababdan shunday qilishgan?**  
A) chorvadorlarning chorva mollarini turli kasalliklardan saqlab qolishi uchun  
B) dehqonlarning mo'l hosil olishi uchun  
S) urushga ketayotgan jangchilarga omad keltirishi uchun  
D) xudo qovurilgan go'sht isini hidlashi uchun
- 92. Qadimgi rimliklar e'tiqodida xudolarining asosiy yeguligi nima bo'lgan?**  
A) asal  
B) meva  
S) nektar  
D) quymoq
- 93. Qadimgi Rimda kimlar diniy marosimlar o'tkazilishi ustidan nazorat qilgan?**  
A) pontifiklar  
B) avgurlar  
S) danaylar  
D) Vestachi kohinalar
- 94. Pontifiklar kimlar?**  
A) fol ochuvchi kohinlar  
B) Vesta ibodatxonasidagi muqaddas olovni saqlovchi kohinalar  
S) diniy marosimlar o'tkazilishi ustidan nazorat qilgan kohinlar  
D) qurbonlik o'tkazishga haqli bo'lmagan kohinlar
- 95. Qadimgi Rimda bayramlar taqvimi hamda marosimlar tantanalari tartibini kimlar tuzgan?**  
A) avgurlar  
B) pontifiklar  
S) Vestachi kohinalar  
D) senturiylar
- 96. Qadimgi rimliklar e'tiqodiga ko'ra kimlar xudolar bilan maslahatlashib uzil-kesil xulosa beradi deb hisoblashgan?**  
A) konsullar  
B) pontifiklar  
S) avgur  
D) buyuk pontifik
- 97. Qadimgi Rimda 5 nafardan 15 nafargacha ruhoniylarni ifoda etuvchi pontifiklar hay'atiga kim rahbarlik qilar edi?**  
A) konsul  
B) akveduk  
S) avgur  
D) buyuk pontifik
- 98. Qadimgi rimliklar barcha muhim ishlarni nimadan boshlashgan?**  
A) qurbonlik keltirishdan  
B) fol ochishdan  
S) xudolarga ibodat qilishdan  
D) Xalq majlisida ishtirok etishdan
- 99. Qadimgi Rimda qushlar parvozig, moma-qaldiroq, chaqmoq, muqaddas qushlarga sepilgan donlar, aks-sadoga qarab fol ochgan kohinlar nima deb nomlangan?**  
A) liktorlar  
B) pontifiklar  
S) furiyalar  
D) avgurlar
- 100. Qadimgi Rimda xonadon o'chog'i ilohasi nima deb atalgan?**  
A) Vesta  
B) Vulkan  
S) Baxus  
D) Morfey
- 101. Qadimgi Rimdagi qaysi ibodatxonada muqaddas olov saqlangan?**  
A) Yupiter ibodatxonasida  
B) Panteon ibodatxonasida  
S) Vesta ibodatxonasida  
D) Yustitsiya ibodatxonasida
- 102. Qadimgi rimliklar davlatning mavjud bo'lishini nimaga bog'liq deb hisoblashgan?**  
A) senat faoliyatiga



- B) imperator hokimiyatiga
- S) Buyuk pontifikning rahbarligiga
- D) muqaddas olovning yonib turishiga

**103. Qadimgi Rimda kimlar qatliga hukm etilganlarni afv etish huquqiga edi?**

- A) avgurlar
- B) pontifiklar
- S) plebeylar
- D) vestachi kohinalar

**104. Vesta ibodatxonasidagi muqaddas olovni saqlaydigan vestachi kohinalar safiga o'tgan ayollar nima to'g'risida qasam ichishi kerak bo'lgan?**

- A) nomahram erkaklar bilan so'zlashmaslik
- B) muqaddas olovni o'chirib qo'ymaslik
- S) nikohlanmaslik
- D) turmush qursa-da, farzand ko'rmaslik

**105. Qadimgi Rimda vestachi kohinalar qaysi qasamini buzsa tiriklayin yerga ko'mib tashlangan?**

- A) nikohlanmaslik
- B) nomahram erkaklar bilan so'zlashmaslik
- S) muqaddas olovga xiyonat qilmaslik
- D) muqaddas olovni o'chirib qo'ymaslik

**106. Quyidagi javoblarning qay birida qadimgi rimliklar xudolarining nomi to'g'ri sanalgan?**

- 1) Morfey; 2) Venera, 3) Geya; 4) Femida;
- 5) Yustitsiya; 6) Gratsiya; 7) Yupiter; 8) Fortuna;
- 9) Anibus; 10) Vulkan; 11) Sina; 12) Baxus.

- A) 1, 3, 4, 6, 7, 9, 10
- B) 1, 2, 5, 7, 8, 10, 12
- S) 2, 3, 5, 7, 9, 10, 11
- D) 1, 2, 4, 5, 8, 9, 10

**107. Qadimgi Rim armiyasida necha yoshga yetgan erkak fuqarolar xizmat qila olardi.**

- A) 17 yoshdan 46 yoshgacha bo'lgan erkaklar
- B) 20 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan erkaklar
- S) 19 yoshdan 36 yoshgacha bo'lgan erkaklar
- D) 16 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan erkaklar

**108. Qadimgi Rim armiyasida xizmat qilgan 80 kishidan iborat bo'lgan jangchilar guruhi nima deb yuritilgan?**

- A) legion
- B) goplit
- S) kogorta
- D) senturiy

**109. Qadimgi Rim qo'shinida 10 ta kogorta guruhdan tashkil topgan qism qanday nomlangan?**

- A) senturiy
- B) falanga
- S) agema
- D) legion

**110. Rim armiyasidagi kogorta kimlardan iborat bo'lgan?**

- A) bir nechta senturiylardan

- B) 80 kishilik jangchilardan
- S) 5 ta falangadan
- D) 10 ta legiondan

**111. Qadimgi Rim armiyasida askarlar necha yillik xizmati evaziga uy-joy, oylik, maosh olish va boshqa o'lkalarni ko'rish imkoniyatlariga ega bo'lgan?**

- A) 26 yil
- B) 14 yil
- S) 32 yil
- D) 25 yil

**112. Qadimgi Rimda bir necha septuriylardan iborat bo'lgan harbiy qism turi qanday atalgan?**

- A) goplitni
- B) kogortani
- S) falangani
- D) agemani

**113. Qadimgi Rimda rimliklar qanday jang olib borish taktikasini ishlab chiqishgan edi?**

A) dushman qo'shinlarining qanotini aylanib o'tib, orqadan hujum qilishni

B) dushman qo'shinlariga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilishni

S) to'rtburchak shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga tiqilib olgan qatorlar bilan jang qilishni

D) avvaliga shaharni qurshab olib, so'ngra katapulta yordamida devorlarni teshib shaharga bostirib kirishni

**114. Quyidagi qaysi qadimgi xalq pishiq metall taxtachalardan tiklangan uzun qamal ko'tarma minoralar yordamida baland devorlardan oshib o'tishgan?**

- A) yunonlar
- B) misliklar
- S) rimliklar
- E) xetlar

**115. Katapulta nima?**

A) devorlarni teshish uchun mo'ljallangan qamal quroli

B) 80 kishidan iborat bo'lgan jangchilar guruhi

S) dastasi uzun jangovar oybolta

D) devorining o'q otadigan pana joyi

**116. Qadimgi Rimda harbiy guruhlar imperiya hududi bo'ylab tezroq harakatlanishi uchun qanday sharoit yaratib berilgan edi?**

A) har bir jangchiga ot taqdim qilingan

B) so'lim joylarda jangchilar uchun ko'plab istehkomlar qurilgan

S) ko'plab yegulik hamda ichimlik berilgan

D) mamlakatda sozgina yo'llar bunyod etilgan

**117. Rim imperiyasida tosh qal'alar qayerlarda bunyod etilar edi?**

- A) shahar markazlarida

- B) imperiya chegaralarida
- S) imperator va zodagonlar saroylarida
- D) shahar va qishloq atroflarida

**118. Qanday hollarda Qadimgi Rimda triumf nishonlangan?**

- A) jangdagi g'alabadan so'ng
- B) taxtga yangi imperator chiqqanidan so'ng
- S) taxt vorisi dunyoga kelganidan so'ng
- D) gladiatorlar jangi boshlanishidan oldin

**119. Qadimgi Rimda armiya g'alaba qozonganligi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram nima deb nomlangan?**

- A) akveduk
- B) avgur
- S) triumf
- D) forum

**120. Qadimgi Rimda lavr gulchambarini kimlar va qachon boshiga qadab olar edi?**

- A) senatorlar, majlisda
- B) imperatorlar, taxtga o'tirganida
- S) konsullar, saylovda
- D) sarkardalar, jangda g'olib chiqqanida

**121. Qadimgi rimliklar qayerda qo'lga kiritilgan g'alaba uchun minnatdorlik tariqasida xudolarga qurbonlik bag'ishlashgan?**

- A) Rim shahrida
- B) Kapitoliy tepaligida
- S) Sardiniya orolida
- D) Vezuviy tog'ida

**122. Qadimgi yunon diniy e'tiqodidagi dengiz xudosi Poseydon rimliklarning qaysi xudosi to'g'ri keladi?**

- A) Neptun
- B) Venera
- S) Fortuna
- D) Morfey

**123. Nechanchi asrda Rim sarkardalari mam-lakatning shimoliy qismidan tashqari butun Italiyani zabt etishga erishgan edilar?**

- A) mil. avv. VII asr boshida
- B) mil. avv. V asrda
- S) mil. avv. III asr o'rtalarida
- D) mil. avv. I asrning ikkinchi yarmida

**124. Mil. avv. III asrda Sitsiliya orolining g'ar-biy qismi kimlar tomonidan egallab olingan?**

- A) Sparta
- B) Karfagen
- S) Bobil
- D) Misr

**125. Rim va Karfagen o'rtasidagi urushlarga sabab bo'lgan hududni aniqlang.**

- A) Korsika
- B) Sardiniya

- S) Sirakuza
- D) Sitsiliya

**126. Harbiy jihatdan Karfagen Rimga qaraganda qanday ustunlikka ega edi?**

- A) og'ir qurollangan goplitlarga ega edi
- B) katta va kuchli flotga ega edi
- S) armiyada yollanma askarlar xizmat qilar edi
- D) 80 kishidan iborat bo'lgan senturiylar xizmat qilardi

**127. Puni urushlarini eslang. Karfagen qo'shin-larining zaif tomoni nimada bo'lgan?**

- A) yollanma askarlarning xizmat qilishi
- B) flotining kamligi
- S) askarlarning dehqonlardan tashkil topganligi
- D) qo'shinga savdogarlarning homiylik qilishi

**128. Karfagen armiyasidagi yollanma askarlarning birdan bir maqsadi nima bo'lgan?**

- A) demokratiya o'rnatish
- B) qul orttirish
- S) harbiy o'lja orttirish
- D) respublika o'rnatish

**129. Qadimda rimliklar Karfagen bilan necha marotaba urush qilganlar?**

- A) 3 marotaba
- B) 5 marotaba
- S) 4 marotaba
- D) 2 marotaba

**130. Qadimda rimliklar tomonidan Karfagen qanday nomlangan?**

- A) Sidon
- B) Iberiya
- S) Bibl
- D) Puna

**131. Nima sababdan Qadimgi Rim bilan Karfagen o'rtasidagi urushlar tarixga "Puni urushlari" nomi bilan kirgan?**

- A) urushga Karfagen podshosi Puna rahbarlik qilgani uchun
- B) Rim va Karfagen o'rtasidagi urushlar asosan Puna shahrida bo'lgani uchun
- S) urushga Rim imperatori Puni rahbarlik qilgani uchun
- D) Rimliklar Karfagenni Puna deb atashgani uchun

**132. Rim va Karfagen o'rtasidagi birinchi urush qanday natija bilan tugadi?**

- A) rimliklar Sitsiliyani bosib oldilar, kar-fagenliklarni xiroj to'lashga majbur qildilar
- B) karfagenlik Rimni bosib oldilar, ammo o'z hukmronligini o'rnata olmadilar
- S) rimliklar Kann yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchradilar
- D) Karfagen quldorlari Rim provinsiyasi bo'lgan Ispaniyani bosib oldilar

**133. Qadimgi Rim davlati qaysi orollarni bosib olganlaridan so'ng O'rtayer dengizi mintaqasida eng kuchli davlatga aylandi?**

- A) Korsika va Sardiniya
- B) Sardiniya va Sitsiliya
- S) Sitsiliya va Krit
- D) Krit va Kipr

**134. "Puni urushlari" davrida Karfagen qo'shinlariga kim boshchilik qilgan?**

- A) Ssipion
- B) Brasid
- S) Gannibal
- D) Pompey

**135. Gannibal qayerdagi yollanma qo'shinlarga qo'mondonlik qilganida biror marta ham mag'lubiyatga uchramagan edi?**

- A) Pergamdagi
- B) Sitsiliyadagi
- S) Shimoliy Italiyadagi
- D) Ispaniyadagi

**136. Puni urushlari davrida qaysi sarkarda rimliklarning karfagenliklarga qarshi ikki tomondan zarba berish rejasini barbod qildi?**

- A) Pirr
- B) Gannibal
- S) Krass
- D) Pompey

**137. Nechanchi yilda rimliklar Kann yaqinidagi jangda karfagenliklardan mag'lub bo'ladi?**

- A) mil. avv. 216-yilda
- B) mil. avv. 215-yilda
- S) mil. avv. 214-yilda
- D) mil. avv. 213-yilda

**138. Karfagen va Rim o'rtasidagi urushlar necha yil davom etgan?**

- A) 19 yil
- B) 18 yil
- S) 17 yil
- D) 15 yil

**139. Karfagen yaqinidagi jangda qancha rimlik legioner halok bo'ldi?**

- A) 60 ming
- B) 70 ming
- S) 80 ming
- D) 75 ming

**140. Nima uchun Italiya aholisi Gannibalni qo'llab-quvvatlamadi?**

A) chunki, Karfagen rimlik erkak aholisini qirish haqida buyuruq bergandi

B) chunki, Karfagen yollanma qo'shinlari Kann yaqinidagi jangda 70 ming rimlik legionerni qirib tashlagandi

S) chunki, Karfagen yollanma qo'shinlari Ispaniyaning katta qismini bosib olgandi

D) chunki, Karfagen yollanma qo'shinlari Rimni talon-taroj qilib tashlagan edi

**141. "Puni urushi" davrida Rim qo'shinlariga kim qo'mondonlik qilgan?**

- A) Gannibal
- B) Ssipion
- S) Mark Kras
- D) Brut

**142. Nechanchi yilda rimliklar Gannibal qo'shinlarini tor-mor etadilar?**

- A) mil. avv. 216-yil
- B) mil. avv. 183-yil
- S) mil. avv. 112-yil
- D) mil. avv. 202-yil

**143. Mil. avv. 183-yilda ...**

A) Gannibal zahar ichib vafot etdi; Rim G'arbiy O'rtayer dengizida mutlaq hokimga aylandi

B) Uchinchi Puni urushi boshlandi; Sardiniya oroli rimliklar tomonidan bosib olindi

S) Rimliklar butun Italiyani zabt etdilar; Sitsiliyada qullar qo'zg'oloni boshlandi

D) Gannibal qo'shinlari rimliklar tomonidan tor-mor etildi; Karfagen butunlay vayronaga aylandi

**144. Nechanchi yilda rimliklar tomonidan Karfagen butunlay vayronaga aylantirildi?**

- A) mil. avv. 149-yil
- B) mil. avv. 153-yil
- S) mil. avv. 146-yil
- D) mil. avv. 189-yil

**145. Uchinchi Puni urushi qachon bo'ldi?**

- A) mil. avv. I asr o'rtasi
- B) mil. avv. V asr o'rtasi
- S) mil. avv. IV asr o'rtasi
- D) mil. avv. II asr o'rtasi

**146. Rim va Karfagen o'rtasida Puni urushlari...**

A) O'rtayer dengizida hukmronlik uchun bo'lib o'tgan

B) Boltiq dengizida hukmronlik uchun bo'lib o'tgan

S) Egey dengizida hukmronlik uchun bo'lib o'tgan

D) Qora dengizida hukmronlik uchun bo'lib o'tgan

**147. Ma'lumki, bosib olingan yerlarni rimliklar provinsiya deb atashgan. Rimda provinsiyalarni boshqaruvchi noiblar nima deb atalgan?**

- A) konsul
- B) diktator
- S) tribun
- D) prokonsul

**148. Quyidagi Rim tasarrufida bo'lgan provinsiyalarni aniqlang.**

- 1) Sitsiliya; 2) Korsika; 3) Sardiniya; 4) Ispania;  
5) Yunoniston; 6) Kichik Osiyo; 7) Old Osiyo;  
8) Misr; 9) Parfiya; 10) Hindiston

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

B) 1, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9

S) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 10

149. Rim provinsiyasi noiblari qanday hokimiyatga ega edilar?

A) faqat boshqaruv huquqiga ega bo'lib, harbiy va sudlov huquqlar markaziy hokimiyatga tegishli edi

B) faqat harbiy va sudlov huquqiga ega bo'lib, boshqaruv huquqlar markaziy hokimiyatga tegishli edi

S) ularning huquqlari senat orqali cheklangan edi

D) cheklanmagan

150. Qadimgi Rimda prokonsullar necha yilga saylanar edi?

A) bir yilga

B) ikki yilga

S) uch yilga

D) to'rt yilga

151. Provinsiyalar Rimga qarshi kurashga birlashmasliklari uchun rimliklar qanday tomoyilga asoslanib ish ko'rishgan?

A) "Birovga qul bo'lgandan ko'pchilikka bo'ysungan yaxshi"

B) "Vataning tinch – sen tinch"

S) "Bo'linganni bo'ri yer"

D) "Bo'lib tashlab, hukmronlik qil"

152. Qadimgi Rim o'z provinsiyalarida o'zaro nizolarni avj oldirish uchun qanday siyosatni qo'llardi?

A) ayrim shaharlarda turli xil soliqlarni bekor qilishar edi

B) ayrim shaharlarga imtiyozlar berishar edi

S) mahalliy aslzodalardan o'z noiblarini tayinlashar edi

D) soliq va majburiyatlarni miqdorini oshirib borar edilar

153. Quyidagi qadimgi davlatlardan qaysi birida qullar soni ko'pchilikni tashkil etardi?

A) Rimda

B) Misrda

S) Xitoyda

D) Yunonistonda

154. Ma'lumki, Qadimgi Rimda qullar xo'jalik ishlarida foydalanilgan. Nechanchi asrlarda qullar mehnati quldorlar uchun foydasiz bo'lib qoldi?

A) mil. avv. III–II asrlar

B) milodiy II–III asrlar

S) mil. avv. IV–III asrlarda

D) milodiy I–II asrlar

155. Qadimgi Rimda ko'plab quldorlarning qullarni yer ijarachilariga aylantira boshlashi nechanchi asrlarda yuz berdi?

A) mil. avv. III–II asrlar

B) mil. avv. II–I asrlar

S) milodiy I–II asrlar

D) mil. avv. IV–III asrlarda

156. Qadimgi Rimda mayda yer ijarachilari – bu ...

A) kulbali qullar

B) pontifiklar

S) kolonlar

D) avgurlar

157. Ma'lumki, Qadimgi Rimda ayrim yer egalari xo'jalikni yuritish uchun qullarga kichik yer egalarni mustaqil yuritishga mehnat qurollari, urug'lik va oilasi bilan birga yashashga ruxsat berishardi. Bunday qullar nima deb nomlangan?

A) "kolonlar"

B) "kulbali qullar"

S) "avgurlar"

D) "plebeylar"

158. Qadimgi Rimda kimlar yerdan foydalanligi uchun yer egasiga o'zlari yetishtirgan mahsulotlar bilan to'lov berishgan?

A) prokonullar va "kulbali qullar"

B) patriitsiyalar va kolonlar

S) avgurlar va pontifiklar

D) kolonlar va "kulbali qullar"

159. Ma'lumki, qadimgi rimliklarning sevimli tomoshalaridan biri gladiatorlar jangi bo'lgan. Undagi aksariyat gladiatorlar kimlar bo'lishgan?

A) qullar va kolonlar

B) qullar va jinoyatchilar

S) avgurlar va plebeylar

D) pontifiklar va jinoyatchilar

160. Qadimgi Rimda maxsus yopiq maktablarda ta'lim berishib, so'ngra bir-birlari bilan olishishga, tomoshabinlar ko'nglini xushlashga majbur qilingan qullar nima deb atalgan?

A) "kulbali qul"

B) kolon

S) gladiator

D) avgur

161. Qadimgi Rimda kurashayotgan gladiatorlarning hayot-mamoti kimlarning xohish-istagiga bog'liq edi?

A) imperatorlarning

B) senatorlarning

S) tomoshabinlarning

D) kohinlarning

**162. Qadimgi Rimda gladiatorlar jangi o'tkaziladigan maydon qanday nomlanadi?**

- A) triumf
- B) oykumena
- S) arena
- D) amfiteatr

**163. Ma'lumki, Qadimgi Rimdagi har bir gladiatorning hayot-mamoti tomoshabinlarning xohish-istagiga bog'liq edi. Tomoshabinlarning yengilgan gladiator tirik qolish-qolmasligini qay tarzda hal qilishardi?**

A) tomoshabinlar o'ng qo'lining bosh barmog'ini pastga qaratishsa yengilgan gladiator tirik qolgan, aksincha, yuqoriga ko'tarsa u o'ldiriladi

B) tomoshabinlar chap qo'lining bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarsa yengilgan gladiator tirik qolgan, aksincha, pastga qaratishsa u o'ldiriladi

S) tomoshabinlar o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'ini yuqoriga ko'tarsa yengilgan gladiator tirik qolgan, aksincha, pastga qaratishsa u o'ldiriladi

D) tomoshabinlar o'ng qo'lining bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarsa yengilgan gladiator tirik qolgan, aksincha, pastga qaratishsa u o'ldiriladi

**164. Amfiteatr – bu ...**

- A) gladiatorlar jangi o'tkaziladigan joy
- B) gladiatorlarga ta'lim berilgan yopiq maktab
- S) gladiator qiroli
- D) turli xil tomoshalar o'tkaziladigan teatr

**165. Qadimgi Rimdagi eng katta amfiteatr nomini aniqlang.**

- A) Delfa amfiteatri
- B) Pompey amfiteatri
- S) Trayan kolonnasi
- D) Kolizey amfiteatri

**166. Qadimda gladiatorlarning changak nomli jang quroli qanday shaklda edi?**

- A) qalqon
- B) to'r
- S) uch ayrili nayza
- D) ikki ayrili nayza

**167. Qadimgi dunyodagi eng ommaviy va uyushgan qo'zg'olon bo'lmish Rimdagi qullar qo'zg'olonchilari yo'l boshchisini aniqlang.**

- A) Gannibal
- B) Spartak
- S) Demosfen
- D) Gamilkar Barka

**168. Qadimgi Rimda sodir bo'lgan Spartak qo'zg'oloni nechanchi yillarda yuz bergan?**

- A) mil. avv. 56–54-yillarda
- B) mil. avv. 67–65-yillarda
- S) mil. avv. 78–73-yillarda
- D) mil. avv. 74–71-yillarda

**169. Spartak qaysi shahardan bo'lgan?**

- A) Frakiya
- B) Kapya
- S) Ankoya
- D) Neapol

**170. Spartak qaysi shahardagi gladiatorlik maktabidan chiqqan edi?**

- A) Neapol
- B) Sirakuza
- S) Frakiya
- D) Kapya

**171. Spartak boshchiligidagi qo'zg'olonchilar qaysi tog'dagi qoyalarga chiqib oladilar?**

- A) Olimp
- B) And
- S) Vezuviy
- D) Himolay

**172. Spartak qo'zg'olonchilari dastlabki davrda necha nafarga yetdi?**

- A) 10 ming
- B) 15 ming
- S) 18 ming
- D) 9 ming

**173. Qaysi mashhur Rim sarkardasi Spartak qo'zg'olonini bostirishga muvaffaq bo'lgan?**

- A) Pompey
- B) Sezar
- S) Mark Lukum
- D) Mark Krass

**174. Qachon Spartak qo'zg'oloni rimlik sarkardalar tomonidan tor-mor etildi?**

- A) mil. avv. 53-yilda
- B) mil. avv. 71-yilda
- S) mil. avv. 68-yilda
- D) mil. avv. 44-yilda

**175. Spartak qo'zg'oloni qachon bo'lib o'tadi?**

- A) mil. avv. 76–72-yillarda
- B) mil. avv. 75–73-yillarda
- S) mil. avv. 74–70-yillarda
- D) mil. avv. 74–71-yillarda

**176. Ma'lumki, Qadimgi Rimda mil. avv. I asrda qullar qo'zg'olonlari quldorlarni qattiq qo'rqvuga solib qo'yadi. Bu davrda mamlakatda qanday hokimiyat zarurligi to'g'risidagi masala turar edi?**

- A) demokratiya
- B) harbiy diktatura
- S) aristokratiya
- D) respublika

**177. Qadimgi Rimda qachon muntazam yollanma qo'shinlarga tayanuvchi harbiy boshliqlar real kuchga aylandilar?**

- A) mil. avv. VI asrdan
- B) mil. avv. IV asrdan

- S) mil. avv. III asrdan  
D) mil. avv. I asrdan
- 178. Qadimgi Rimda Spartak qo'zg'oloni bos-tirilib, tor-mor etilganidan keyin kimlar hokimiyat uchun ancha vaqt kurash olib bordilar?**
- A) Pompey va Antoniy  
B) Sezar va Brut  
S) Pompey va Krass  
D) Mark Antoniy va Oktavian Avgust
- 179. Qadimgi Rimda mashhur sarkarda Sezarning nufuzi va obro'yi qaysi urushdagi g'alabalar tufayli ortgan edi?**
- A) Puni urushlari  
B) Samnit urushlari  
S) Galliya urushlari  
D) Peloponnes urushlari
- 180. Ma'lumki, Qadimgi Rimda mashhur sarkarda Sezarning hokimiyat tepasiga kelishi arafasida kambag'allar ham uni qo'llab-quvvatlashgan. Buning sababi nimada edi?**
- A) o'zaro urushlardan xonavayron bo'lgan rimliklar agar, Sezar hokimiyatni qo'lga olsa, tartib o'rnatadi va tinchlikni barqarorlashtiradi deb umid qilardi  
B) Sezar kambag'allarni davlat ishlaridagi ishtirokini ta'minlashga va'da bergandi  
S) kambag'allar mabodo, Sezar Senat majlisida qatnashsa, bizga yer ajratib beradi va qarzlirimizni bekor qiladi deb umid qilgan edi  
D) Sezar kambag'allarga katta boyliklarni va'da qilgan edi
- 181. Qadimda Galliyadan Rimga boruvchi yo'ldagi daryo nomini aniqlang.**
- A) Tibr daryosi  
B) Rubikon daryosi  
S) Po daryosi  
D) Dunay daryosi
- 182. Qachon Qadimgi Rimda mashhur sarkarda Yuliy Sezar yakka hokimlik uchun oshkora kurashni boshlab yubordi?**
- A) mil. avv. 49-yilda  
B) mil. avv. 55-yilda  
S) mil. avv. 37-yilda  
D) mil. avv. 58-yilda
- 183. Qachon va qaysi sarkarda mashhur "qur'a tashlandi" iborasini ishlatgan?**
- A) Pompey  
B) Krass  
S) Sezar  
D) Brut
- 184. Qadimgi Rimda Yuliy Sezar qaysi mashhur sarkarda ustidan g'alaba qozongach, Rim imperatoriga aylandi?**

- A) Antoniy  
B) Krass  
S) Gasdrubal  
D) Pompey
- 185. Qadimgi Rim imperatori Sezarga qarshi fitna uyushtirgan senatorlarning maqsadi nima edi?**
- A) Brutni hokimiyat tepasiga chiqarish  
B) Xalq majlisining avvalgi mavqeyini qayta tiklash  
S) Senatning avvalgi mavqeyini qayta tiklash  
D) Oktavian Avgustni hokimiyat tepasiga chiqarish
- 186. Quyidagi qaysi voqealar Buyuk Rim imperatori Yuliy Sezar davrida sodir bo'lgan?**
- 1) hech qanday saylovlarsiz mansabdor shaxslar tayinlandi; 2) Rim imperiyasiga asos solindi; 3) mamlakatda Respublika tuzumi o'rnatildi; 4) konsul lavozimi ta'sis etildi; 5) imperator Senat va Xalq majlisiga hisobot bermasdan qo'ydi; 6) imperator fitna tufayli o'ldirildi; 7) Ossuriya va Mesopotamiya hududlari bosib olindi; 8) Parfiya bilan urushlarda muvaffaqiyatlarga erishildi
- A) 1, 2, 4, 7  
B) 1, 5, 6  
S) 2, 3, 5, 7, 8  
D) 1, 2, 4, 6
- 187. Brut kim?**
- A) Rim imperiyasining asoschisi  
B) Misr fir'avni  
S) Sezarga qarshi uyushtirilgan fitna rahbari  
D) Daklar bilan urush olib borgan Rim imperatori
- 188. Qadimgi Rim imperatori Yuliy Sezar nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?**
- A) mil. avv. 58-49-yillarda  
B) mil. avv. 49-44-yillarda  
S) mil. avv. 53-44-yillarda  
D) mil. avv. 44-31-yillarda
- 189. Rim imperiyasi asoschisini aniqlang.**
- A) Yuliy Sezar  
B) Mark Antoniy  
S) Kaligula  
D) Oktavian
- 190. Yuliy Sezar o'ldirilishida ishtirok etgan fitnachilar rahbari Brut va uning tarafdorlari qayerga qochib ketishga majbur bo'ladilar?**
- A) Parfiyaga  
B) Sitsiliyaga  
S) Yunonistonga  
D) Misrga
- 191. Rim imperatori Oktavian davrida sarkarda Mark Antoniy nima sababdan Respublikaning dushmani deb e'lon qilinadi?**
- A) Oktavian hokimiyatiga qarshi chiqqanligi sababli

B) Sezarga qarshi uyushtirilgan fitnada ishtirok etgani sababli

S) mamlakatda demokratiya o'rnatishga harakat qilganligi sababli

D) Misr malikasi Kleopatraga uylanganligi sababli

**192. Qanday voqeadan so'ng Qadimgi Rim imperiyasida Oktavian davlatning G'arbiy qismini, Antoniy esa Sharqiy qismini boshqarishni o'z qo'liga oldi?**

A) Oktavian va Mark Antoniy o'rtasidagi jangning bo'lib o'tishi

B) Antoniy Yunoniston podshosi bilan ittifoq tuzib, Rim qo'shinlarini tor-mor qilishi

S) Antoniy va Misr malikasi Kleopatra qo'shinlari Oktavian qo'shinlarini tor-mor etib tashlashi

D) Oktavian Mark Antoniy bilan ittifoq tuzib, Respublikachilarni tor-mor etib tashlashi

**193. Rim respublikasi tarafdorlarini qo'llab-quvvatlash Rimning qaysi provinsiyasida kuchayib bordi?**

A) Ispaniyada

B) Kichik Osiyoda

S) Misrda

D) Yunonistonda

**194. Ma'lumki, Rim siyosiy arbobi va sarkardasi Antoniy Misr malikasi Kleopatraga uylanadi. Antoniy Kleopatraga nikoh sovg'asi tariqasida nimani taqdim qiladi?**

A) Rimning g'arbiy provinsiyalarini

B) Mesopotamiyaning janubiy qismini

S) 100 ga yaqin harbiy kemalarni

D) Rimning sharqiy provinsiyalarini

**195. Qachon Yunoniston qirg'oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o'rtasida jang bo'lib o'tdi?**

A) mil. avv. 31-yilda

B) mil. avv. 29-yilda

S) mil. avv. 27-yilda

D) mil. avv. 44-yilda

**196. Nima sababdan mil. avv. I asrda Yunoniston qirg'oqlarida Antoniy va Oktavian o'rtasida jang bo'lib o'tdi?**

A) Antoniyning Misr malikasi Kleopatra bilan birgalikda Rimga yurish qilishi

B) Oktavianning Misrni bosib olmoqchiligi

S) Antoniyning nikoh sovg'asi tariqasida Kleopatraga Rimning sharqiy provinsiyalarini berishi

D) Antoniyning nikoh sovg'asi tariqasida Kleopatraga Rimning g'arbiy provinsiyalarini berishi

**197. Ma'lumki, mil. avv. I asrda Yunoniston qirg'oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o'rtasida jang bo'lib o'tgan edi. Jang qizigan pallada Kleopatra va Antoniy qaysi shaharga qochib ketadilar?**

A) Memfisga

B) Fivaga

S) Aleksandriyaga

D) Geliopolisga

**198. Qachon Misr Rim imperiyasi provinsiyasiga aylanadi?**

A) mil. avv. 31-yilda

B) mil. avv. 29-yilda

S) mil. avv. 27-yilda

D) mil. avv. 44-yilda

**199. Rim imperatori Yuliy Sezarning o'limidan 13 yil o'tgach...**

1) Rimliklar O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlarda va Kichik Osiyoda o'z mavqeyini qayta tiklab olishi; 2) Yunoniston qirg'oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o'rtasida jang bo'lib o'tdi; 3) Oktavianning Senatdan imperator unvoni hamda Avgust laqabini olishi; 4) Antoniy va Kleopatraning o'z-o'zini o'ldirishi; 5) Rim imperatori Aleksandr Sever katta qo'shin bilan Shimoliy Mesopotamiyaga kelib tushdi; 6) Misr Rim imperiyasi provinsiyasiga aylanishi; 7) Rim sarkardasi Krass Parfiyaliklar bosib olgan yerlarni Rim imperiyasiga qo'shib olish uchun Sharqqa yurish qildi; 8) Oktavianning butun Rim imperiyasining yakkahokim hukmdori bo'lishi.

A) 1, 3, 5, 7

B) 2, 4, 6, 8

S) 1, 2, 4, 5, 8

D) 2, 3, 5, 6, 7

**200. Rim imperatori Oktavian nechanchi yilda senatdan imperator va Avgust nomini olgan?**

A) mil. avv. 31-yilda

B) mil. avv. 23-yilda

S) mil. avv. 29-yilda

D) mil. avv. 27-yilda

**201. Qaysi voqeadan so'ng Oktavian butun Rim imperiyasining yakka hukmroniga aylandi?**

A) Antoniyning Yunoniston qirg'oqlarida bo'lgan jangda yengilishi natijasida

B) Yuliy Sezarning senatda o'ldirilishi natijasida

S) Spartak qo'zg'olonining bostirilishi natijasida

D) Brut boshchiligidagi respublikachilarning yengilishi natijasida

**202. Quyidagi qaysi voqealar Rim imperatori Oktavian davrida yuz bergan?**

1) Rim imperiyasiga asos solindi; 2) Misr Rim provinsiyasiga aylandi; 3) senatorlar soni qisqartirildi; 4) mamlakatda Respublika tuzumi o'rnatildi; 5) armiyasining umumiy soni 300 mingga yetdi; 6) diktator lavozimi bekor qilindi; 7) Sirakuza Rimga bo'ysundirildi; 8) jangchilar xizmati 20 yil etib belgilandi; 9) Bolqon yarimorlidagi bir necha qabilalar bo'ysundirildi.

- A) 1, 2, 4, 6, 7
- B) 2, 3, 5, 7, 8
- S) 1, 3, 4, 6, 9
- D) 1, 2, 3, 5, 8

**203. Qadimgi Rim imperiyasida Oktavian Avgustning imperatorlik davrini aniqlang.**

- A) mil. avv. 27–14-yillar
- B) mil. avv. 44–14-yillar
- S) mil. avv. 31–14-yillar
- D) mil. avv. 29–14-yillar

**204. Rim imperatori Oktavian Avgustning vorislari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Kaligula va Neron
- B) Trayan va Neron
- S) Avreliy va Kaligula
- D) Trayan va Konstantin

**205. Rim imperiyasining “oltin asri” davrini aniqlang.**

- A) mil. avv. I asr
- B) milodiy III asr
- S) milodiy II asr
- D) mil. avv. IV asr

**206. Milodiy 98-yilda Rim imperiyasi taxtini egallagan hukmdor nomini aniqlang.**

- A) Kaligula
- B) Trayan
- S) Neron
- D) Avreliy

**207. Rim imperatori Trayan davrida yuz bergan voqealarni to‘g‘ri ko‘rsating.**

1) daklar bilan urushlar olib borildi; 2) imperator Senat va Xalq majlisiga hisobot bermasdan qo‘ydi; 3) Ossuriya va Mesopotamiya hududlari bosib olindi; 4) Parfiya bilan bo‘lgan urushda muvaffaqiyatga erishildi; 5) senatorlar soni qisqartirildi; 6) hech qanday saylovlarsiz mansabdor shaxslar tayinlandi; 7) Parfiya bilan tinchlik sulhi tuzildi; 8) yolg‘onchi chaqimchilikka asoslanib qatl etish bekor qilindi

- A) 1, 2, 4, 6
- B) 2, 3, 5, 7, 8
- S) 1, 2, 3, 6, 7
- D) 1, 3, 4, 8

**208. Mashhur Trayan kolonnasida qanday manzara tasvirlangan?**

A) Daklar bilan bo‘lgan urush manzaralari  
B) Mesopotamiya hududining bosib olinishi  
S) Parfiya bilan tinchlik sulhining tuzilishi  
D) Misr elchisining imperator tomonidan kutib olinishi

**209. Ostrakon – bu ...**

- A) ho‘l suvoqqa chizilgan rasm
- B) Qadimgi Rim shahridagi jamoat hammomlari
- S) ovoz berish uchun ishlatilgan sopol toshtaxta

D) bozor maydoni bo‘lib xizmat qilgan shahar markazi

**210. Quyidagi qaysi qadimgi davlat hozirgi Turkmaniston janubida, Eronning shimoli sharqida joylashgan edi?**

- A) Ahamoniylar
- B) Parfiya
- S) Midiya
- D) Sosoniylar

**211. Midiyaliklar mil. avv. VI asrda qayerni bosib olganlar?**

- A) Parfiyani
- B) Elamni
- S) Ossuriyani
- D) Falastinni

**212. Parfiya Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirmasdan oldin u yerda kimlar hukmronlik qilganlar?**

- A) elamliklar
- B) sosoniylar
- S) parnlar
- D) midiyaliklar

**213. Nechanchi asrda Parfiya Salavkiylar saltanatining bir qismiga aylandi?**

- A) mil. avv. IV asrda
- B) mil. avv. VI asrda
- S) mil. avv. V asrda
- D) mil. avv. VII asrda

**214. Mil. avv. III asrning o‘rtalarida ...**

A) Rim G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi mutlaq hokimga aylandi

B) amoriy qabilalarining katta guruhi Shimoliy Suriyaga bostirib kirdi

S) rimliklar Karfagenni butunlay vayrona aylantirdilar

D) Arshak boshchiligidagi parn ko‘chmanchi qabilalari Parfiyani bosib oldi

**215. Salavkiylar noyibi Andragor armiyasini tormor etib, Parfiyani bosib olgan parn ko‘chmanchi qabilalariga kim boshchilik qilgan edi?**

- A) Ardasher
- B) Kashtariti
- S) Arshak
- D) Ardis

**216. Qaysi voqeadan so‘ng Parfiya davlatining tarixi boshlandi?**

A) Parfiya Rim sarkardasi Krass tomonidan bosib olinganidan so‘ng

B) Andragor tomonidan Parfiyaning birlashtirilishidan so‘ng

S) Arshak poytaxtni Gekatompildan Ktesifonga ko‘chirganidan so‘ng

D) parn qabilalari tomonidan Parfiyaning bosib olinishidan so‘ng



**217. Parfiyaning dastlabki podsholari qanday siyosatni yuritdilar?**

- A) tinchliksevar siyosatni
- B) qo'shni xalqlar bilan qalin bo'lib yashash siyosatini
- S) keng bosqinchilik siyosatini
- D) diplomatik munosabatni rivojlantirish siyosatini

**218. Parfiya davlati tashkil topgach dastlab qaysi davlatlarni bosib oladi?**

- A) Suriya va Finikiya
- B) Kushon va Yunon-Baqtriya
- S) Eron va Mesopotamiya
- D) Ossuriya va Kushon

**219. Parfiyaliklar Sharq tomonda qaysi davlatlar bilan raqobat qilganlar?**

- A) Sosoniylar, Midiya
- B) Yunon-Baqtriya, Kushon
- S) Elam, Mitanni
- D) Kushon, Magadxa

**220. Parfiya davlatining sarhadlari G'arb tomonga kengayib borishi nimaga bog'liq bo'lgan?**

- A) uzluksiz urushlarga
- B) savdo-sotiqqa
- S) mahalliy aholi bilan yuritilgan siyosatga
- D) Mesopotamiya va Misr bilan tuzilgan tinchlik sulhiga

**221. Parfiya davlatining G'arb tomon kengayib borishini eslang. Mahalliy aholi bilan ittifoqda qaysi xalq parfiyaliklarga qarshi kurashadi va rimliklarni yordamga chaqiradi?**

- A) misrliklar
- B) xetlar
- S) yunonlar
- D) ossurlar

**222. Qachon Rim sarkardasi Krass Parfiya ustiga yurish qildi?**

- A) mil. avv. 59-yilda
- B) mil. avv. 55-yilda
- S) mil. avv. 57-yilda
- D) mil. avv. 52-yilda

**223. Nima uchun Rim sarkardasi Krass Sharqqa yurish qildi?**

A) parfiyaliklar bosib olgan yerlarni Rim imperiyasiga qo'shib olish uchun

B) Rimning shimoli g'arbiy Osiyodagi mamlakatlarda va Kichik Osiyoda o'z mavqeyini qayta tiklab olishi uchun

S) Salavkiylar davlati kuchsizlanib qolganidan foydalanib uning tasarrufidagi yerlarni Rimga qo'shib olish uchun

D) Parfiyada ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish uchun

**224. Rim sarkardasi Krass Sharqqa yurish qilganida uning qo'shinining soni qancha edi?**

- A) 5 legion va 15 ta harbiy flot
- B) 3 ming nafar suvoriy va 2 ming nafar yollanma jagnchi
- S) 10 legion va 4 ta harbiy flot
- D) 7 legion va 4 ming nafar suvoriy

**225. Parfiyaliklar va Krass boshliq rimliklar o'rtasidagi jang qayerda bo'lib o'tgan edi?**

- A) Arsava shahrida
- B) Misiya shahrida
- S) Karra shahrida
- D) Xalkidika yarimorolida

**226. Mashhur Rim sarkardasi Krass kim bilan muzokara qilayotgan paytida xoinlarcha o'ldirilgan edi?**

- A) Brasid bilan
- B) Simon bilan
- S) Alkiviad bilan
- D) Surena bilan

**227. Quyidagi qaysi javobda Parfiyaga yurish qilgan rimlik sarkardalarning nomi to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Krass, Antoniy, Avgust va Trayan
- B) Pompey, Andrisk va Krass
- S) Antoniy, Gasdrubal va Avgust
- D) Aristanik, Pompey va Yuliy Sezar va Antoniy

**228. Mil. avv. 36-yilda qaysi Rim sarkardasi Parfiya podsholigi ustiga muvaffaqiyatsiz yurish qilgan?**

- A) Krass
- B) Mark Lukum
- S) Pompey
- D) Antoniy

**229. Qaysi Rim imperatori zamonida Parfiya bilan tinchlik sulhi tuzilgan?**

- A) Trayan
- B) Avgust
- S) Mark Antoniy
- D) Feodesey

**230. Qachon Rim imperiyasining Parfiya bilan urushlari ancha muvaffaqiyatli yakunlangan?**

- A) milodiy I asrda
- B) mil. avv II asrda
- S) milodiy II asrda
- D) mil. avv. I asrda

**231. Qaysi Rim imperatori zamonida Rimning Parfiya bilan urushlari ancha muvaffaqiyatli yakunlanadi?**

- A) Feodesey davrida
- B) Avgust davrida
- S) Yuliy Sezar davrida
- D) Trayan davrida

**232. Eron shohi Ardasher qachon Parfiyani bosib oldi?**

- A) mil. avv. 54-yilda
- B) milodiy 117-yilda
- S) milodiy 226-yilda
- D) mil. avv. 36-yilda

**233. Ma'lumki, Qadimgi Parfiya davlatida yuksak madaniy shaharlar juda ko'p bo'lgan. Quyidagi qaysi javobda ularning nomi to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Marv, Niso, Ktesifon
- B) Staxr, Gekatompil, Ekbatan
- S) Zadrakarta, Zariasp, Marv
- D) Geliopolis, Niso, Staxr

**234. Parfiyaliklar quyidagi qaysi xalqlar bilan uzviy madaniy va iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yishgan edi?**

- A) baqtriyaliklar, marg'iyonaliklar, xetlar, hindlar
- B) so'g'diylar, baqtriyaliklar, ossurlar, rimliklar
- S) marg'iyonaliklar, so'g'diylar, baqtriyaliklar
- D) xorazmiylar, so'g'diylar, baqtriyaliklar, hindlar

**235. Parfiya davlati shimoli sharq tomondan qaysi davlatlar bilan chegaradosh bo'lgan?**

- A) Mesopotamiya
- B) Misr va Ossuriya
- S) Kushon va Misr
- D) Kushon, Hind-Parfiya va Hind-Skif podsholiklari

**236. Parfiyaning shimolida qaysi qabila yashagan?**

- A) skiflar
- B) saklar
- S) dahlar
- D) oriylar

**237. Parfiya davlati tashkil topguniga qadar qaysi davlatlarning tarkibida bo'lganini ketma-ketligini to'g'ri ko'rsating.**

- A) Ahamoniylar, Midiya, Salavkiylar
- B) Salavkiylar, Midiy, Ahamoniylar
- S) Midiya, Ahamoniylar, Salavkiylar
- D) Midiya, Ahamoniylar, Rim

**238. Parfiya davlatining faoliyat ko'rsatgan davrini aniqlang.**

- A) mil. avv. III asr o'rtasi – milodiy III asrning birinchi choragi
- B) mil. avv. II asr o'rtasi – milodiy III asrning birinchi choragi
- S) mil. avv. III asr o'rtasi – milodiy II asrning o'rtasi
- D) mil. avv. I asr o'rtasi – milodiy III asrning o'rtasi

**239. Qaysi imperator davrida Rim imperiyasining poytaxti deb Bosfor bo'g'ozidagi Vizantiy shahri e'lon qilindi?**

- A) Oktavian
- B) Sezar
- S) Konstantin
- D) Trayan

**240. Milodiy 330-yili ...**

A) Rim imperiyasining poytaxti Vizantiy shahri deb e'lon qilindi

B) Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga taqsimlandi

S) Alarix boshchiligidagi gotlar Rimni qurshab oldilar

D) Parfiyani Eron shohi Ardasher bosib oldi

**241. Konstantinopol shahriga nechanchi asrda asos solingan?**

- A) mil. avv. IV asr
- B) mil. avv. III asr
- S) milodiy III asr
- D) milodiy IV asr

**242. Vizantiy shahriga asos solingan davrda shaharga qayerlardan keltirilgan haykallar va kolonlar o'rnatilgan?**

1) Rim; 2) Afina; 3) Memfis; 4) Sirakuza; 5) Sardiniya; 6) Korinf.

- A) 1, 3, 6
- B) 2, 4, 5
- S) 1, 2, 6
- D) 3, 5, 6

**243. Quyidagi qaysi voqea Rim imperatori Konstantin davrida yuz bergan?**

A) Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga taqsimlandi

B) Alarix boshchiligidagi gotlar Rimni tor-mor etdi

S) Attila boshchiligidagi xunlar Rimga hujum qildi

D) Vizantiy shahriga asos solindi

**244. Konstantinopol shahri avval qaysi nomda atalib kelingan?**

- A) Ktesifon
- B) Memfis
- S) Sirakuza
- D) Vizantiy

**245. Qaysi imperator zamonida Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga taqsimlandi?**

- A) Feodesiy
- B) Konstantin
- S) Oktavian
- D) Avreliy

**246. Milodiy 395-yili ...**

A) Rim imperiyasining poytaxti Vizantiy shahri deb e'lon qilindi

B) Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga taqsimlandi

S) Alarix boshchiligidagi gotlar Rimni qurshab oldilar

D) Parfiyani Eron shohi Ardasher bosib oldi

**247. Nechanchi asrda Rim imperiyasining kuch-qudrati zaiflasha boshladi?**

A) mil. avv. IV asrda

B) mil. avv. III asrda

S) milodiy III asrda

D) milodiy II asrda

**248. Qachondan boshlab Qadimgi Rimda imperatorni armiya saylaydigan bo'lgan?**

A) milodiy I asrda

B) milodiy IV asrda

S) milodiy III asrda

D) mil. avv. II asrda

**249. Qadimgi Rim imperiyasida qaysi imperator davridan boshlab rimliklar bosqinchilik urushlari olib bormadilar?**

A) Feodesiy

B) Sezar

S) Avreliy

D) Trayan

**250. Ma'lumki, milodiy III asrdan ayni mahalda Rim imperiyasi chegaralarining shimoli g'arb tarafidan ko'chmanchi qabilalar paydo bo'ldilar. Rimliklar ularga qanday laqab berishgan edi?**

A) patriitsiyalar

B) varvarlar

S) plebeylar

D) kolonlar

**251. Qadimgi rimliklar madaniy taraqqiyotning ancha quyi pog'onasida turuvchi xalqlarni qanday nomlashgan?**

A) patriitsiyalar

B) varvarlar

S) plebeylar

D) kolonlar

**252. Yunonlar tillari o'zlari uchun tushunarli bo'lmagan barcha qabila va xalqlarni nima deb atashgan?**

A) ilotlar

B) avgurlar

S) demoslar

D) varvarlar

**253. Nechanchi asrlarda butun Rim imperiyasini qullar va kolonlar qo'zg'olonlari qamrab oldi?**

A) milodiy IV–V asrlarda

B) milodiy III–IV asrlarda

S) mil. avv. V–III asrlarda

D) milodiy II–III asrlarda

**254. Qaysi asrlarda Rim imperiyasiga "varvar"-larning hujumlari kuchayib bordi?**

A) milodiy IV–V asrlarda

B) milodiy III–IV asrlarda

S) mil. avv. V–III asrlarda

D) milodiy II–III asrlarda

**255. Ma'lumki, yerlarni va mo'l-ko'l o'ljalarni qo'lga kiritish maqsadini ko'zlagan varvarlarning Rim imperiyasiga hujumlari kuchaygan. Bu davr necha yil davom etgan?**

A) 55 yil

B) 150 yildan ko'roq

S) 120 yildan ko'proq

D) 100 yilga yaqin

**256. Ma'lumki, milodiy 410-yilda gotlar Rimni qurshab olib tor-mor etadilar. Ularning boschisi kim edi?**

A) Atilla

B) Romul

S) Gasdrubal

D) Alarix

**257. Got qabilalari qaysi xalqdan tashkil topgan edi?**

A) yunonlar

B) ispanlar

S) germanlar

D) misrliklar

**258. Milodiy 410-yilda Rimga hujum qilgan gotlar shaharni necha kun davomida talon-taroj qilib taladilar?**

A) 10 kun

B) 3 kun

S) 5 kun

D) 7 kun

**259. Qadimgi zamon tarixchilaridan biri "Butun Yer yuzini bo'ysundirgan jahon shamchirog'i ham so'ndi" deb qayerni nazarda tutgan?**

A) Misrni

B) Bobilni

S) Rimni

D) Ossuriyani

**260. "Boqiy shahar" deya ta'riflangan shahar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A) Afina

B) Memfis

S) Rim

D) Nineviya

**261. Ma'lumki, milodiy 452-yilda xunn qabilalari Italiyaga bostrib kirdilar. Ularga kim boshchilik qilgan?**

A) Alarix

B) Romul

S) Gasdrubal

D) Atilla

**262. Rim imperiyasiga germanlarning vandal qabilalari qachon hujum qildilar?**

- A) milodiy 452-yil
- B) milodiy 410-yil
- S) milodiy 455-yil
- D) milodiy 476-yil

**263. Quyidagi qaysi javobda Rim imperiyasining so'nggi imperatori to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Attila
- B) Romul
- S) Konstantin
- D) Feodesiy

**264. G'arbiy Rim imperiyasi qachon barham topdi?**

- A) milodiy 452-yil
- B) milodiy 410-yil
- S) milodiy 455-yil
- D) milodiy 476-yil

**265. Milodiy 476-yilda ...**

1) Sharqiy Rim imperiyasi quladi; 2) Rim imperatori Romul saroydan haydab yuborildi; 3) xunlar Italiyaga bostirib kirdi; 4) G'arbiy Rim imperiyasi quladi; 5) Rimga germanlarning vandal qabilalari hujum qildi; 6) Qadimgi dunyo tarixi yakunlandi; 7) Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga taqsimlandi; 8) Konstantinopol shahriga asos solindi

- A) 2, 4, 6
- B) 1, 3, 4, 6
- S) 2, 3, 7, 8
- D) 2, 4, 5

**266. Milodiy V asrda Rim imperiyasiga yurish qilgan qabilalar nomini aniqlang.**

1) gotlar; 2) axeylar; 3) vandallar; 4) ost-gotlar; 5) xunlar; 6) arameylar; 7) doriylar; 8) lotinlar.

- A) 1, 4, 7
- B) 2, 3, 6, 7
- S) 1, 3, 5
- D) 1, 3, 6, 8

**267. Nechanchi asrga kelib rimliklar turmushida keskin o'zgarishlar ro'y berdi?**

- A) mil. avv. II asr
- B) milodiy I asr
- S) milodiy III asr
- D) mil. avv. I asr

**268. Yunoncha "issiq" so'zini anglatuvchi atamani aniqlang.**

- A) term
- B) stil
- S) altar
- D) triumf

**269. Qadimgi Rim shahrida jamoat hammomlari nima deb atalgan?**

- A) termlar
- B) stillar

- S) altarlar
- D) triumflar

**270. Qadimgi Rimda badavlat xonadon farzandlari necha yoshdan boshlab maktabga qatnaganlar?**

- A) 5 yoshdan
- B) 6 yoshdan
- S) 7 yoshdan
- D) 8 yoshdan

**271. Qadimgi Rimda yozuvni o'rganayotgan bolalar nima yordamida harflarni mum qoplagan taxtachalarga o'yib yozishgan?**

- A) akveduk
- B) metek
- S) palestra
- D) stil

**272. Ma'lumki, Qadimgi Rimda yozuvni o'rganib bo'lgan bolalar suv va qurum aralashmasi bilan yozganlar. Bunda ular yozuvni qaysi buyum sirtiga yozishgan?**

- A) pergament
- B) bazalt toshi
- S) Misr papiruslari
- D) qotmagan loy lavhalari

**273. Ayrim rimliklar o'qish, yozish va hisoblashni o'rganganidan keyin tahsil olishni qayerda davom ettirganlar?**

- A) ritorikada
- B) palestrada
- S) grammatikada
- D) litsiumda

**274. Qadimgi Rimda tarix, geografiya, geometriya, musiqa va astronomiya fanlari o'qitilgan o'rta maktab nima deb atalgan?**

- A) litsium
- B) ritorika
- S) panteon
- D) grammatika

**275. Qadimgi dunyoda fanning turli tarmoqlariga oid kitoblarning aksariyati qaysi tilda yozilgan edi?**

- A) misr tilida
- B) yunon tilida
- S) fors tilida
- D) lotin tilida

**276. Qadimgi Rimda siyosiy arbob bo'lishni istagan har bir kishi qaysi sohalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak edi?**

- A) huquq va tarixni
- B) ritorika va huquqni
- S) geografiya va tarixni
- D) notiqlik va ritorikani

**277. Ritorika — bu...**

- A) chiroyli so'zlash
- B) aniq fanlar o'qitilgan o'rta maktab

S) bozor maydoni bo'lib xizmat qilgan shahar markazi

D) selgimagan suvoqqa chizilgan rasm

**278. Qadimgi Rim ta'lim tizimida qaysi tilni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan?**

A) sanskrit

B) misr

S) yunon

D) ingliz

**279. Qadimgi Rim nechanchi asrda eng yirik va aholisi ko'p shaharga aylandi?**

A) mil. avv. II asr

B) milodiy I asr

S) milodiy III asr

D) mil. avv. I asr

**280. Akveduklar nima?**

A) rimliklar tomonidan bosib olingan hududlar

B) Qadimgi Rim shahridagi jamoat hammomlari

S) yuqori qismidan anhorlar o'tkazilgan ko'p-riklar

D) qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joylar

**281. Qadimgi rimliklar qaysi qurilish materialini ixtiro qilganlar?**

A) g'isht

B) beton

S) ohak

D) sement

**282. Rimdagi eng katta inshoot bo'lgan amfiteatr qancha tomoshabinni o'z bag'riga sig'dirgan?**

A) 50 ming

B) 20 ming

S) 40 ming

D) 15 ming

**283. Qadimgi Rimdagi eng katta amfiteatr nomini to'g'ri ko'rsating.**

A) Panteon

B) Pompey

S) Dionis

D) Kolizey

**284. Qadimgi rimliklar qaysi qurilish materialini ixtiro qilganlaridan keyin shiftlar gumbaz shaklida ustunlarsiz quriladigan bo'lgan?**

A) sement

B) g'isht

S) beton

D) mix

**285. Yunoncha "barcha xudolar ibodatxonasi" ma'nosini anglatuvchi atamani belgilang.**

A) Parfenon

B) Kolizey

S) Panteon

D) Apostol

**286. Qadimgi Rimdagi qaysi inshoot ustunlarsiz qurilgan?**

A) Parfenon

B) Kolizey

S) Panteon

D) Apostol

**287. Qadimgi Rimda buyuk g'alabalarni ni-shonlash uchun qanday inshootlar barpo etilgan?**

A) amfiteatrlar

B) arenalar

S) forumlar

D) triumfal arklar

**288. Xristianlik dinining asoschisi Iisus (Iso) qaysi shaharda tavallud topgan?**

A) Nazaretda

B) Dur-Sharrukinda

S) Abidosda

D) Nisoda

**289. Ikki ming yil muqaddam Kichik Osiyo va Falastin yerlarida qanday voqea yuz berdi?**

A) Ierovoam Isroil podsholigini qayta tikladi

B) Iisus (Iso) 33 yoshida payg'ambar deb e'lon qilindi

S) Saul vafot etdi va mamlakatga "dengiz xalqlari" hujum qildi

D) Iisus (Iso) tug'ilgani haqida rivoyatlar tarqala boshladi

**290. Xristianlik dinining asoschisi bo'lgan Iso (Iisus)ning otasining kasbi nima bo'lgan?**

A) duradgor

B) kosib

S) kulol

D) temirchi

**291. Xristianlik dinining asoschisi bo'lgan Iisus (Iso) necha yoshida cho'qintiriladi?**

A) 25 yoshida

B) 30 yoshida

S) 27 yoshida

D) 33 yoshida

**292. Milodiy 30-yilda Iisus (Iso)ni kim Iordan daryosida cho'qintiradi?**

A) Sulaymon

B) Ioann

S) Dovud

D) Iosif

**293. Ma'lumki, Iisus Xristos (Iso Masih) havoriylar bilan Falastin bo'ylab sayohat qilib, Xudo oyatlari haqida ularga hikoya qilib beradi, turli mo'jizalar ko'rsatadi. U bilan birga sayohat qilgan havoriylarning soni necha nafarni tashkil etgan?**

A) 15 nafar

B) 20 nafar

S) 12 nafar

D) 7 nafar

**294. Qaysi din ruhoniylari Iso payg'ambarini**

**mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o'lim jazosiga mahkum etgan?**

- A) buddizm
- B) xristian
- S) hinduiylik
- D) yahudiy

**295. Qaysi Rim noibi ruhoniylar tazyiqi ostida Iso Masihni o'lim jazosiga hukm qiladi?**

- A) Publiy Korneliy
- B) Pontiy Pilat
- S) Arkadiy
- D) Mark Lukum

**296. Ruhoniylar Iisusni o'lim jazosiga mahkum qilishganidan so'ng, uni qayerda xochga tortadilar?**

- A) Korsika orolida
- B) Nazaret shahrida
- S) Golgof tog'ida
- D) Sardiniya orolida

**297. Rivoyatlarda aytilishicha, Yer yuzidagi ilk inson – Odam ato qayerda dafn etilgan?**

- A) Abidos shahrida
- B) Iordan daryosi bo'yida
- S) Nazaret shahrida
- D) Golgof tog'ida

**298. Yunonchadan tarjima qilganda "Xushxabar" ma'nosini anglatuvchi so'zni toping.**

- A) Zabur
- B) Xristian
- S) Yevangeliya
- D) Oykumena

**299. Iso payg'ambar ta'limotining izdoshlari nima deb ataladi?**

- A) xristianlar
- B) apostollar
- S) pontifiklar
- D) avgurlar

**300. Apostollar kimlar?**

- A) Iso haqidagi rivoyatlarni yaratgan din peshvolari
- B) Iso payg'ambar ta'limotining izdoshlari
- S) Iso payg'ambarning qarindosh-urug'lari
- D) Iso payg'ambarning shogirdlari

**301. Xristian jamoalariga kimlar peshvolik qiladilar?**

- A) papa
- B) yepiskop
- S) abbat
- D) arxiyepiskop

**302. Qaysi asrda xristianlik (nasroniylik) vujudga kelgan?**

- A) milodiy III asr
- B) milodiy I asr
- S) milodiy II asr
- D) milodiy V asr

**303. Milodiy 313-yilda qaysi Rim imperatori xristianlik davlatning boshqa dinlari bilan teng bir din deb e'lon qilingan farmon chiqardi?**

- A) Prokopi
- B) Valentinian II
- S) Feodesey
- D) Konstantin

**304. Qadimda hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan davlat nima deb atalgan?**


- A) imperiya
- B) respublika
- S) demokratiya
- D) anarxiya

**305. Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim bu ...**

- A) podsho
- B) imperator
- S) konsul
- D) tribun

## KROSSVORD

(ismlar bo'yicha)




**BO'YIGA:** 2. Mil. avv. V asrdagi Rim imperatori. 3. Rim imperiyasining asoschisi. 4. Parn ko'chmanchi qabilalarining boshchisi. 5. Yirik qullar qo'zg'oloni rahbari. 10. Rimni tor-mor etgan gotlar boshlig'i. 11. Puni urushida Karfagen armiyasi boshlig'i.

**ENIGA:** 1. Vizantiy shahriga asos solgan Rim imperatori. 6. Misr malikasi. 7. Mil. avv. I asrda Rimda hokimiyat uchun kurash olib borgan amaldor. 8. Rim imperatori. 9. Parfiyani bosib olgan Eron shohi. 12. Oktavian Avgust vorisi. 14. Xunn qabilalarining rahbari. 15. Spartak qo'zg'olonini bostirgan Rim sarkardasi.

## KROSSVORD


(atama va geografik nomlar bo'yicha)



**BO'YIGA:** 1. Bir-birlari bilan jang qilib, tomoshabinlar ko'nglini xushlashga majbur qilingan qul. 2. Kichik Osiyodan ko'chib kelgan Italiyaning g'arbiy qismidagi qabila. 4. Dengiz xudosi. 6. Imperator Konstantin davridagi davlat dini. 9. Ustida shaharga suv keladigan anhuri bo'lgan baland ko'prik. 10. Puna davlati. 12. "Buzoqchalar o'lkasi". 13. Rim va Karfagen o'rtasidagi urush.

**ENIGA:** 3. "Barcha xudolar ibodatxonasi". 5. Ma'lum bir lavozimni egallashga harakat qiluvchi nomzod shaxs. 7. Parfiya davlatining asoschisi bo'lgan qabila. 8. "Oqsoqollar kengashi". 10. Rim imperiyasi poytaxti. 11. Apennin yarimoroli barcha qabilalarining umumiy nomi. 13. Senatorlarning avlodi. 14. Qadimgi Rimda bunyod etilgan me'moriy yodgorlik.



**XRONOKROSS****(Yillar bo'yicha)**


**BO'YIGA:** 1. Xunnlarning Italiyaga bostirib kirishi. 2. Gannibalning vafot etishi. 3. Yuliy Sezarning o'ldirilishi. 6. Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy qismga bo'linishi. 7. Gannibal lashkarlarining rimliklar tomonidan tor-mor etilishi. 8. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi. 10. Yunoniston qirg'oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o'rtasidagi jang.

**ENIGA:** 3. Rimga german qabilalarining hujumi. 4. Karfagen shariga asos solinishi. 5. Kann yaqinidagi jang. 6. Imperator Konstantinning xristianlik davlatning boshqa dinlari bilan teng bir din deb e'lon qilishi. 8. Gotlarning Rimni tor-mor qilishi. 9. Rim shahriga asos solinishi. 11. Parfiyani forslar tomonidan bosib olinishi. 12. Karfagenning butunlay vayronaga aylantirilishi.

**XRONOKROSS****(Rim raqami hisobida asrlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 2. Parfiya davlatiga Arshakiylar sulolasining kelishi. 3. Parfiyaning Salavkiylar davlatining bir qismiga aylanishi. 6. Rim imperiyasining zaiflasha boshlashi. 8. Eronning Parfiyani bosib olishi. 9. Midiyaliklar tomonidan Parfiyaning bosib olinishi. 11. Qadimgi Rimda qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi haqida qonunlarning qabul qilinishi. 12. Kapitoliy tepaligida qal'a bunyod etilishi.

**ENIGA:** 1. Parnlar tomonidan Parfiyaning bosib olinishi. 4. Imperator Konstantin davri. 5. Italiyada etrusk sivilizatsiyasining zavolga yuz tutishi. 7. Etrusklarning 12 ta shahar-davlat tuzishi. 9. Rimda respublikaning e'lon qilinishi. 10. Uchinchi Puni urushi. 12. Italiyada etrusk madaniyatining gullab-yashnashi. 13. Etrusklarning yunon koloniyalari bilan kurash boshlashi.



## TEST JAVOBLARI

Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari							Qadimgi Misr			
1-D	26-A	51-D	76-D	101-A	126-A	151-B	1-A	26-D	51-D	76-A
2-B	27-D	52-A	77-A	102-D	127-B	152-A	2-B	27-A	52-D	77-D
3-A	28-D	53-D	78-D	103-D	128-A	153-S	3-A	28-D	53-A	78-A
4-D	29-D	54-A	79-B	104-A	129-D	154-D	4-D	29-D	54-S	79-A
5-A	30-D	55-D	80-D	105-S	130-A	155-B	5-S	30-A	55-A	80-A
6-D	31-D	56-D	81-B	106-S	131-D	156-D	6-B	31-B	56-D	81-S
7-D	32-D	57-B	82-D	107-S	132-S	157-S	7-A	32-B	57-A	82-D
8-A	33-B	58-A	83-D	108-D	133-B	158-A	8-A	33-A	58-S	83-A
9-D	34-B	59-S	84-A	109-B	134-D	159-D	9-D	34-A	59-A	84-A
10-D	35-A	60-B	85-S	110-D	135-D	160-B	10-A	35-B	60-D	85-D
11-B	36-D	61-S	86-A	111-S	136-A	161-A	11-D	36-D	61-S	86-D
12-A	37-A	62-A	87-D	112-D	137-D	162-S	12-A	37-D	62-S	87-S
13-D	38-S	63-S	88-D	113-S	138-B	163-D	13-B	38-A	63-D	88-B
14-B	39-A	64-B	89-D	114-A	139-B	164-B	14-A	39-D	64-S	89-D
15-A	40-D	65-S	90-S	115-D	140-A	165-S	15-A	40-D	65-A	90-S
16-A	41-A	66-D	91-B	116-S	141-S	166-D	16-A	41-S	66-A	91-D
17-S	42-A	67-B	92-A	117-S	142-D	167-D	17-D	42-D	67-B	92-A
18-D	43-D	68-S	93-D	118-D	143-D	168-B	18-A	43-A	68-A	93-B
19-D	44-A	69-D	94-A	119-D	144-S		19-S	44-D	69-A	94-D
20-B	45-S	70-A	95-A	120-B	145-A		20-D	45-A	70-A	95-B
21-A	46-A	71-S	96-A	121-B	146-S		21-B	46-D	71-D	96-S
22-D	47-S	72-S	97-D	122-A	147-D		22-A	47-A	72-A	97-A
23-B	48-D	73-A	98-S	123-D	148-D		23-B	48-D	73-A	98-S
24-B	49-D	74-S	99-B	124-B	149-D		24-D	49-D	74-D	99-A
25-D	50-D	75-D	100-S	125-D	150-S		25-S	50-S	75-A	100-D

Qadimgi Mesopotamiya				Old Osiyo		Ahamoniylar davlati		Qadimgi Hindiston		Qadimgi Xitoy	
1-A	26-D	51-D	76-A	1-A	26-A	1-A	26-D	1-S	26-D	1-A	26-B
2-A	27-D	52-A	77-A	2-D	27-B	2-D	27-A	2-A	27-S	2-D	27-A
3-B	28-D	53-A	78-D	3-A	28-S	3-S	28-D	3-D	28-A	3-S	28-S
4-A	29-A	54-A	79-A	4-A	29-B	4-A	29-A	4-A	29-D	4-A	29-D
5-D	30-D	55-S	80-D	5-A	30-D	5-A	30-B	5-D	30-S	5-B	30-D
6-D	31-A	56-S	81-A	6-A	31-A	6-A	31-D	6-S	31-A	6-D	31-A
7-B	32-S	57-D	82-D	7-B	32-A	7-B	32-D	7-B	32-D	7-S	32-B
8-S	33-D	58-B	83-D	8-S	33-A	8-B	33-D	8-B	33-D	8-D	33-D
9-A	34-B	59-D	84-B	9-S	34-S	9-A	34-A	9-D	34-B	9-B	34-D
10-D	35-D	60-D	85-A	10-B	35-B	10-S		10-D	35-S	10-B	35-B
11-D	36-B	61-D	86-D	11-A	36-D	11-D		11-A	36-D	11-A	36-B
12-A	37-A	62-S	87-B	12-B	37-D	12-A		12-B	37-S	12-D	37-S
13-B	38-B	63-S	88-D	13-A	38-S	13-A		13-S	38-A	13-D	38-S
14-S	39-A	64-A	89-A	14-B	39-S	14-S		14-D	39-D	14-B	39-A
15-D	40-B	65-D	90-S	15-S	40-B	15-S		15-B	40-A	15-S	40-D
16-D	41-D	66-A	91-B	16-A	41-S	16-D		16-S	41-B	16-D	41-S
17-D	42-A	67-B	92-B	17-A	42-S	17-D		17-S	42-S	17-A	42-D
18-D	43-D	68-B		18-A	43-S	18-S		18-A	43-D	18-D	43-B
19-B	44-A	69-D		19-S	44-D	19-D		19-D	44-A	19-A	
20-D	45-S	70-D		20-A	45-D	20-A		20-S	45-D	20-D	
21-A	46-D	71-A		21-A	46-A	21-A		21-D	46-D	21-S	
22-B	47-D	72-D		22-D	47-B	22-B		22-A	47-D	22-B	
23-D	48-B	73-A		23-A		23-S		23-D	48-A	23-A	
24-B	49-B	74-D		24-S		24-B		24-S	49-D	24-D	
25-A	50-B	75-S		25-A		25-D		25-B	50-B	25-D	

TEST JAVOBLARI

O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq	O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar			Zardushtiylik		O'rta Osiyoga ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari		
1-S	1-S	26-A	51-S	1-A	26-A	1-A	26-B	51-B
2-B	2-D	27-D	52-S	2-D	27-D	2-S	27-S	52-A
3-A	3-A	28-A	53-D	3-D	28-S	3-D	28-A	53-B
4-S	4-D	29-D	54-B	4-B	29-D	4-A	29-D	54-S
5-A	5-S	30-A	55-S	5-A	30-D	5-B	30-D	55-B
6-D	6-B	31-B	56-B	6-D	31-S	6-D	31-A	56-D
7-A	7-D	32-S	57-B	7-A	32-D	7-B	32-S	57-S
8-D	8-B	33-D	58-S	8-S	33-A	8-A	33-B	58-A
9-S	9-S	34-S	59-B	9-S	34-A	9-A	34-A	59-S
10-A	10-S	35-A	60-B	10-S		10-S	35-S	60-B
11-D	11-A	36-D	61-D	11-A		11-S	36-A	61-A
12-S	12-B	37-A	62-A	12-D		12-D	37-D	62-D
13-B	13-S	38-B		13-A		13-D	38-A	63-A
14-S	14-B	39-D		14-S		14-D	39-D	64-S
15-B	15-D	40-A		15-D		15-S	40-A	
16-S	16-B	41-D		16-D		16-A	41-D	
17-B	17-S	42-S		17-B		17-D	42-D	
18-A	18-A	43-D		18-B		18-A	43-D	
19-D	19-S	44-D		19-D		19-B	44-D	
20-S	20-B	45-A		20-D		20-S	45-B	
21-A	21-A	46-D		21-A		21-D	46-B	
	22-S	47-D		22-S		22-D	47-D	
	23-D	48-D		23-D		23-A	48-B	
	24-S	49-S		24-A		24-A	49-D	
	25-D	50-D		25-D		25-D	50-D	

O'rta Osiyo aholisining yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi				Qadimgi Xorazm, Qang'ha va Dovon			Kushon podsholigi			Buyuk Ipak yo'li	
1-A	26-A	51-S	76-A	1-D	26-S	51-D	1-A	26-S	51-D	1-A	26-A
2-D	27-S	52-S	77-D	2-A	27-A	52-S	2-D	27-D		2-D	27-D
3-S	28-D	53-A	78-S	3-D	28-B	53-B	3-B	28-D		3-B	28-A
4-A	29-D	54-D	79-A	4-S	29-D	54-B	4-D	29-A		4-D	29-S
5-D	30-A	55-A	80-D	5-B	30-S	55-S	5-S	30-S		5-A	30-A
6-B	31-A	56-D	81-D	6-D	31-A	56-A	6-A	31-S		6-A	31-D
7-A	32-S	57-A	82-B	7-A	32-A		7-D	32-A		7-A	32-A
8-D	33-D	58-B	83-B	8-D	33-D		8-D	33-B		8-D	33-D
9-S	34-D	59-D	84-B	9-D	34-D		9-S	34-D		9-D	34-A
10-D	35-A	60-A	85-A	10-B	35-B		10-D	35-S		10-S	35-S
11-S	36-B	61-S	86-D	11-A	36-A		11-A	36-B		11-S	36-B
12-A	37-S	62-A	87-A	12-D	37-B		12-D	37-D		12-D	37-B
13-S	38-D	63-B	88-D	13-A	38-S		13-D	38-D		13-A	38-D
14-B	39-A	64-A	89-S	14-D	39-D		14-B	39-A		14-B	39-B
15-D	40-S	65-S	90-S	15-S	40-D		15-D	40-A		15-B	
16-B	41-D	66-B	91-D	16-B	41-S		16-B	41-D		16-A	
17-D	42-B	67-D	92-D	17-A	42-D		17-D	42-B		17-B	
18-A	43-A	68-A	93-A	18-D	43-D		18-S	43-A		18-A	
19-D	44-D	69-D	94-A	19-S	44-S		19-D	44-D		19-D	
20-D	45-A	70-B	95-S	20-B	45-A		20-A	45-S		20-D	
21-A	46-S	71-D	96-B	21-A	46-D		21-D	46-D		21-A	
22-B	47-A	72-A	97-B	22-D	47-A		22-A	47-B		22-D	
23-S	48-D	73-A	98-A	23-S	48-D		23-D	48-A		23-B	
24-A	49-A	74-D	99-D	24-D	49-S		24-A	49-D		24-S	
25-B	50-B	75-S	100-S	25-A	50-A		25-B	50-D		25-B	

TEST JAVOBLARI

Qadimgi Yunoniston									
1-A	26-D	51-S	76-D	101-D	126-B	151-S	176-B	201-A	226-D
2-D	27-D	52-D	77-S	102-D	127-D	152-A	177-D	202-B	227-B
3-D	28-B	53-A	78-S	103-S	128-D	153-A	178-A	203-B	228-D
4-B	29-S	54-B	79-D	104-B	129-S	154-B	179-B	204-S	229-A
5-D	30-B	55-S	80-D	105-A	130-B	155-B	180-S	205-D	230-S
6-S	31-D	56-D	81-B	106-D	131-A	156-S	181-D	206-D	231-A
7-A	32-D	57-D	82-D	107-A	132-A	157-S	182-D	207-A	232-B
8-B	33-A	58-B	83-B	108-B	133-D	158-D	183-D	208-B	233-D
9-S	34-D	59-D	84-A	109-S	134-S	159-D	184-S	209-S	234-A
10-S	35-S	60-A	85-D	110-D	135-D	160-D	185-S	210-D	235-D
11-A	36-B	61-B	86-D	111-D	136-B	161-D	186-S	211-D	236-A
12-B	37-A	62-S	87-B	112-A	137-S	162-D	187-S	212-D	237-D
13-D	38-A	63-D	88-S	113-B	138-D	163-B	188-S	213-S	238-A
14-S	39-D	64-D	89-B	114-S	139-D	164-S	189-S	214-A	239-A
15-A	40-A	65-S	90-A	115-D	140-A	165-A	190-A	215-B	240-D
16-A	41-D	66-A	91-D	116-D	141-A	166-A	191-B	216-D	241-B
17-B	42-B	67-D	92-A	117-D	142-D	167-S	192-S	217-D	242-A
18-S	43-D	68-D	93-A	118-D	143-D	168-B	193-D	218-B	243-B
19-S	44-A	69-S	94-A	119-S	144-D	169-D	194-D	219-S	244-D
20-D	45-B	70-B	95-A	120-B	145-D	170-D	195-A	220-A	245-D
21-A	46-S	71-A	96-D	121-A	146-D	171-A	196-A	221-D	246-A
22-D	47-D	72-A	97-B	122-B	147-B	172-A	197-D	222-B	247-B
23-D	48-A	73-B	98-S	123-B	148-S	173-A	198-D	223-D	
24-A	49-D	74-S	99-D	124-B	149-B	174-A	199-D	224-A	
25-S	50-B	75-D	100-D	125-B	150-B	175-A	200-D	225-S	

Qadimgi Rim												
1-B	26-S	51-D	76-A	101-S	126-B	151-D	176-B	201-A	226-D	251-B	276-D	301-B
2-B	27-S	52-A	77-S	102-D	127-A	152-B	177-D	202-D	227-A	252-D	277-A	302-B
3-D	28-B	53-S	78-D	103-D	128-S	153-A	178-S	203-D	228-D	253-A	278-S	303-D
4-A	29-A	54-A	79-D	104-S	129-A	154-D	179-S	204-A	229-B	254-A	279-B	304-A
5-S	30-D	55-D	80-S	105-A	130-D	155-S	180-S	205-S	230-S	255-B	280-S	305-S
6-S	31-A	56-S	81-D	106-B	131-D	156-S	181-B	206-B	231-D	256-D	281-B	
7-D	32-D	57-B	82-B	107-A	132-A	157-B	182-A	207-D	232-S	257-S	282-A	
8-A	33-D	58-D	83-A	108-D	133-A	158-D	183-S	208-A	233-A	258-B	283-D	
9-D	34-S	59-S	84-D	109-D	134-S	159-B	184-D	209-S	234-D	259-S	284-S	
10-B	35-D	60-S	85-S	110-A	135-D	160-S	185-S	210-B	235-D	260-S	285-S	
11-B	36-A	61-S	86-B	111-D	136-B	161-S	186-B	211-A	236-S	261-D	286-S	
12-S	37-D	62-A	87-D	112-B	137-A	162-D	187-S	212-D	237-S	262-S	287-D	
13-A	38-S	63-D	88-B	113-D	138-D	163-D	188-B	213-A	238-A	263-B	288-A	
14-S	39-S	64-S	89-B	114-S	139-B	164-A	189-D	214-D	239-S	264-D	289-D	
15-S	40-B	65-A	90-D	115-A	140-D	165-D	190-S	215-S	240-A	265-A	290-A	
16-D	41-D	66-D	91-D	116-D	141-B	166-S	191-A	216-D	241-D	266-S	291-B	
17-A	42-B	67-D	92-S	117-B	142-D	167-B	192-D	217-S	242-S	267-B	292-B	
18-D	43-D	68-D	93-A	118-A	143-A	168-D	193-D	218-S	243-D	268-A	293-S	
19-B	44-S	69-B	94-S	119-S	144-S	169-A	194-D	219-B	244-D	269-A	294-D	
20-D	45-B	70-B	95-B	120-D	145-D	170-D	195-A	220-A	245-A	270-B	295-B	
21-D	46-D	71-B	96-D	121-B	146-A	171-S	196-S	221-S	246-B	271-D	296-S	
22-D	47-A	72-D	97-D	122-A	147-D	172-A	197-S	222-B	247-S	272-S	297-D	
23-D	48-D	73-S	98-B	123-S	148-S	173-D	198-A	223-A	248-S	273-S	298-S	
24-D	49-S	74-B	99-D	124-B	149-D	174-B	199-B	224-D	249-D	274-D	299-A	
25-D	50-D	75-A	100-A	125-D	150-A	175-D	200-S	225-S	250-B	275-B	300-D	

**ENG QADIMGI TUZUMDAN SIVILIZATSIYA SARI BO'YICHA  
KROSSVORDLAR JAVOBLARI  
KROSSVORD  
(ismlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Gerodot. 2. Tutanxamon. 3. Ksenofont. 5. Ktesiy.

**ENIGA:** 3. Kvint Kursiy Ruf. 4. Strabon. 6. Arrian. 7. Pompey Trog. 8. Sim Szyang.

**KROSSVORD  
(atama va tushunchalar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Namozgoh. 3. Persepol. 4. Mezolit. 5. Numizmatika. 6. Pitekantrop. 7. Zamonbobo.  
9. "Geografiya".

**ENIGA:** 2. Sopollitepa. 4. Moxenjodaro. 8. Mikrolit. 10. Kromanyon. 11. Nmana. 12. Patriarxat.  
13. "Avesto". 14. Paleolit. 15. Altamir.

**XRONOKROSS  
(Rim raqami hisobida asr va mingyilliklar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Mil. avv. 4-mingyillik. 2. Mil. avv. II asr. 3. Mil. avv. XIII asr. 5. Mil. avv. VIII asr.  
6. Mil. avv. VI asr. 8. Mil. avv. IV asr. 11. Mil. avv. 4-mingyillik. 13. Mil. avv. IX asr.

**ENIGA:** 1. Mil. avv. 3-mingyillik. 3. Mil. avv. XIV asr. 4. Mil. avv. 4-mingyillik. 7. Mil. avv. III asr.  
9. Mil. avv. III asr. 10. Mil. avv. VI asr. 12. Mil. avv. 2-mingyillik.

**QADIMGI SHARQ VA O'RTA OSIYO BO'YICHA KROSSVORDLAR JAVOBLARI  
KROSSVORD  
(ismlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Xufu. 2. Chandragupta. 4. Ashoka. 6. Menes. 8. Gilgamish. 9. Kambiz. 10. Yaxmos.  
12. Zardusht.

**ENIGA:** 3. Xafra. 5. Navuxodonosor. 7. Sargon. 9. Kiaksar. 11. Menkaura. 13. Xammurapi.  
14. Shampalyon.

**KROSSVORD  
(atama va geografik nomlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Seysmograf. 2. Ahamoniylar. 5. Sfinks. 6. Maat. 9. Ahuramazda. 12. Fir'avn.

**ENIGA:** 1. Sarkofag. 3. Iyeroglif. 4. Giksos. 6. Memfis. 7. Mesopotamiya. 8. Xattusas. 10. Afrosiyob.  
11. Falastin. 14. Zikkurat. 15. Bobil. 16. Patali putra.



**XRONOKROSS**

**BO'YIGA:** 1. Mil. avv. 1792-yil. 2. Mil. avv. 206-yil. 4. Mil. avv. 538-yil. 7. Mil. avv. 522-yil. 9. Mil. avv. 220-yil. 10. Mil. avv. 605-yil.

**ENIGA:** 1. 1822-yil. 3. Mil. avv. 325-yil. 5. Mil. avv. 627-yil. 6. Mil. avv. 327-yil. 7. Mil. avv. 558-yil. 8. Mil. avv. 722-yil. 10. Mil. avv. 612-yil. 11. Mil. avv. 3000-yil. 12. Mil. avv. 519-yil.

**XRONOKROSS**

**(Rim raqami hisobida asr va mingyilliklar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Mil. avv. XIII asr. 3. Mil. avv. 3-mingyillik. 4. Mil. avv. XX asr. 6. Mil. avv. XVIII asr. 7. Mil. avv. VIII asr. 8. Mil. avv. III asr. 12. Mil. avv. IV asr.

**ENIGA:** 2. Mil. avv. VII asr. 4. Mil. avv. XVIII asr. 5. Mil. avv. IX asr. 7. Mil. avv. VIII asr. 9. Mil. avv. XIV asr. 10. Mil. avv. VII asr. 11. Mil. avv. II asr. 13. Mil. avv. VIII asr.

**QADIMGI YUNONISTON BO'YICHA KROSSVORDLAR JAVOBLARI****KROSSVORD**

**(ismlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Esxil. 2. Arximed. 3. Poliklet. 5. Aleksandr. 6. Demokrit. 8. Miron. 9. Sofokl.

**ENIGA:** 2. Axilles. 4. Solon. 5. Aristotel. 7. Kserks. 8. Minos. 10. Fidiy. 11. Drakont. 12. Aflotun.

**KROSSVORD**

**(atama va tushunchalar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Aristokratiya. 2. Oykumena. 4. Poseydon. 5. Marafon. 8. Koloniya. 9. Xeroneya. 11. Ilot.

**ENIGA:** 1. Akropol. 3. Goplit. 6. Kentavr. 7. Demokratiya. 8. Krit. 10. Polis. 12. Ellada. 13. Falanga.

**XRONOKROSS**

**(miloddan avvalgi yil hisobida)**

**BO'YIGA:** 1. 394-yil. 3. 621-yil. 4. 490-yil. 6. 338-yil. 8. 479-yil. 9. 1450-yil. 11. 480-yil.

**ENIGA:** 1. 337-yil. 2. 776-yil. 4. 449-yil. 5. 443-yil. 7. 1200-yil. 8. 480-yil. 10. 429-yil. 12. 1870-yil.

**XRONOKROSS**

**(Rim raqami hisobida asr va mingyilliklar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Mil. avv. VI asr. 2. Mil. avv. XI asr. 3. Mil. avv. VIII asr. 4. Mil. avv. VII asr. 5. Mil. avv. IX asr. 8. Mil. avv. IV asr. 10. Mil. avv. IV asr.

**ENIGA:** 1. Mil. avv. VIII asr. 3. Mil. avv. VII asr. 4. Mil. avv. VIII asr. 6. Mil. avv. XII asr. 7. Mil. avv. 2-mingyillik. 9. Mil. avv. 2-mingyillik. 11. Mil. avv. VI asr. 12. Mil. avv. VI asr.

**MILODDAN AVVALGI VI – MILODIY IV ASRLARDA O'RTA OSIYO  
KROSSVORD  
(ismlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Kanishka. 4. Aristobul. 5. Spitamen. 7. Demetriy. 10. Shiroq. 13. Doro (I).

**ENIGA:** 2. Rixtgofen. 3. Skunxa. 6. Ravshanak. 8. Antiox. 9. Bess. 11. To'maris. 12. Frada. 13. Diodot. 14. Kir (II).

**KROSSVORD  
(atama va geografik nomlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Satrap. 3. Jonbosqal'a. 4. Aleksandriya Esxata. 5. Xolchayon. 6. Bityan. 8. Qiziltepa. 10. Nautaka.

**ENIGA:** 2. Yuechji. 4. Aqinak. 7. Shoh yo'li. 9. Yunon-Baqtriya. 11. Politimet. 12. Sagaris. 13. Parkana. 14. Zariasp.

**XRONOKROSS**

**BO'YIGA:** 1. Mil. avv. 138-yil. 2. Mil. avv. 167-yil. 3. Mil. avv. 530-yil. 4. Mil. avv. 123-yil. 6. Mil. avv. 293-yil. 8. Mil. avv. 486-yil. 10. Mil. avv. 330-yil.

**ENIGA:** 4. 1877-yil. 5. Mil. avv. 312-yil. 6. Mil. avv. 280-yil. 7. Mil. avv. 334-yil. 9. 323-yil. 11. Mil. avv. 465-yil. 12. Mil. avv. 336-yil. 13. Mil. avv. 250-yil.

**XRONOKROSS  
(asr va mingyilliklar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Mil. avv. VII asr. 2. Mil. avv. III asr. 3. Mil. avv. III asr. 5. Milodiy VII asr. 6. Mil. avv. VIII asr. 10. Milodiy II asr.

**ENIGA:** 1. Mil. avv. VII asr. 3. Mil. avv. III asr. 4. Mil. avv. II asr. 5. Milodiy VI asr. 6. Milodiy III asr. 8. Milodiy XVI asr. 9. Mil. avv. II asr oxirida. 11. Mil. avv. IV asr.

**QADIMGI RIM BO'YICHA KROSSVORDLAR JAVOBLARI  
KROSSVORD  
(ismlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 2. Sezar. 3. Oktavian. 4. Arshak. 5. Spartak. 10. Alarix. 11. Gannibal.

**ENIGA:** 1. Konstantin. 6. Kleopatra. 7. Pompey. 8. Trayan. 9. Ardasher. 12. Kaligula. 14. Attila. 15. Krass.

**KROSSVORD**  
**(atama va geografik nomlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Gladiator. 2. Etrusk. 4. Neptun. 6. Xristianlik. 9. Akveduk. 10. Karfagen. 12. Italiya. 13. Puni.

**ENIGA:** 3. Panteon. 5. Kandidat. 7. Parn. 8. Senat. 10. Konstantinopol. 11. Italik. 13. Patritsiy. 14. Kolizey.

**XRONOKROSS**  
**(yillar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 1. Milodiy 452-yil. 2. Mil. avv. 183-yil. 3. Mil. avv. 44-yil. 6. Milodiy 395-yil. 7. Mil. avv. 202-yil. 8. Milodiy 476-yil. 10. Milodiy 31-yil.

**ENIGA:** 3. Milodiy 455-yil. 4. Mil. avv. 814-yil. 5. mil. avv. 216-yil. 6. Milodiy 313-yil. 8. Milodiy 410-yil. 9. Mil. avv. 753-yil. 11. Milodiy 226-yil. 12. Mil. avv. 146-yil.

**XRONOKROSS**  
**(Rim raqami hisobida asrlar bo'yicha)**

**BO'YIGA:** 2. Mil. avv III asr. 3. Mil. avv. IV asr. 6. Milodiy III asr. 8. Milodiy III asr. 9. Mil. avv. VI asr. 11. Mil. avv. IV asr. 12. Mil. avv. VI asr.

**ENIGA:** 1. Mil. avv. III asr. 4. Milodiy IV asr. 5. Mil. avv. VII asr. 7. Mil. avv. VIII asr. 9. Mil. avv. VI asr. 10. Mil. avv. II asr. 12. Mil. avv. VIII asr. 13. Mil. avv. VII asr.

---

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *B. Ahmedov*. "O'zbekiston tarixi manbalari". Toshkent, "O'qituvchi", 2001.
2. *B. Ahmedov*. "Vatan tarixidan hikoyalar". Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 1999.
3. *A. A. Asqarov*. "O'zbekiston tarixi". Toshkent, "O'qituvchi", 1994.
4. *V. I. Avdiyev*. "Qadimgi Sharq tarixi". Toshkent, O'rta va oliy maktab o'quvchilari uchun, 1964.
5. *C. C. Аверинцев, В. П. Алексеев*. "Древние цивилизации Ансиент Цивилизатионс". Москва, 1989.
6. "Avesto". Toshkent, "Sharq", 2001.
7. *H.Y. Bekmuhammadov*. "Tarix terminlarining izohli lug'ati". Toshkent, "O'qituvchi", 1986.
8. *H. Bobobekov va boshqalar*. "O'zbekiston tarixi". Toshkent, "Sharq", 2000.
9. *M. Q. Boboyeva, R.S. Qurbongaliyeva*. "Qadimgi dunyo tarixidan izohli lug'at". Toshkent, "O'qituvchi", 1992.
10. "Bolalar ensiklopediyasi". Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
11. "Большой справочник История для школьников и поступающих в ВУЗЫ". Москва, Издательский дом "Дрофа", 1999.
12. "Большая энциклопедия Кирилла и Мефодия". Современная универсальная российская мультимедиа-энциклопедия. Москва, ООО "Кирилл и Мефодий", 2006.
13. *F. Boynazarov*. "Antik dunyo". Toshkent, "Mehnat", 1989.
14. *Д. Джон, Клерб Майкл Эдвардс*. "Римская империя". Москва, "Хорт", 1994.
15. "Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf". To'plovchi va tarjimon S. Jo'rayeva. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2002.
16. *G. A. Hidoyatov*. "Mening jonajon tarixim". Toshkent, "O'qituvchi", 1992.
17. *M. Is'hoqov*. "Sug'diyona tarix chorrahasida". Toshkent, "Fan", 1990.
18. *M. Is'hoqov*. "Unutilgan podsholikdan xatlar". Toshkent, "Fan", 1990.
19. *M. Is'hoqova, V. Kontetskiy*. "O'zbekiston xalqlari tarixi". Umumta'lim maktablarining 8-9-sinfi uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, "O'qituvchi", 1992.
20. "История мировой культуры. Справочник школьника". Москва, "Туран", 1997.
21. *S. Jalilov*. "Bobur va Yuliy Sezar". Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2001.
22. *U. Jo'rayev, M. Lafasov, K. Normatov*. "Jahon tarixidan hikoyalar". Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 2000.
23. *A. Kabirov*. "Jahon tarixi". Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun o'quv qo'llanma. Toshkent. "O'qituvchi". 2001.
24. *A. Kabirov, F. Korovkin*. "Jahon tarixi". Umumta'lim maktablarining 5-6-sinfi uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
25. *Sh. Karimov, R. Shamsudinov*. "Vatan tarixi". Birinchi kitob. Toshkent, "O'qituvchi", 1997.
26. *F. P. Korovkin*. "Qadimgi dunyo tarixi". Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 1989.
27. *F. P. Korovkin*. "Qadimgi dunyo tarixi". Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 1993.

28. **“Малая энциклопедия городов”**. Москва, “Топсинг”, 2001.
29. *Г.Н. Мантюшин*. **“Археологический словарь”**. Москва, “Просвещение”, АО “Учебная литература”, 1996.
30. *Н. Muhamedov*. **“Хорijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi”**. Birinchi qism. Toshkent, “Adolat”, 1999.
31. *A.S. Nabiyev*. **“Tarixiy o‘lkashunoslik”**. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.
32. *A.C. Надточайев*. **“Философия и наука в эпоху античности”**. Москва, Издательство Московского университета, 1990.
33. *Q. Nazarov*. **“G‘arb falsafasi”**. Toshkent, “Sharq”, 2004.
34. **“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari”**. Toshkent, “Sharq”, 2001.
35. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 1-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
36. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
37. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 3-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti 2002.
38. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 4-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
39. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 5-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
40. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 6-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
41. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 7-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
42. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 8-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2004.
43. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 9-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
44. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 10-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
45. **“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 11-tom**. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
46. **“O‘zbekiston tarixi”**. Mas‘ul muharrirlar: A.S. Sagdullayev, B. J. Eshov. Toshkent, “Universitet”, 1997.
47. **“O‘zbekiston xalqlari tarixi”**. Birinchi jild. Ahmadali Asqarov tahriri ostida. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining “Fan” nashriyoti, 1992.
48. *D.G. Reder, E.A. Cherkasova*. **“Qadimgi dunyo tarixi”**. Birinchi qism. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1974.
49. *D.G. Reder, E.A. Cherkasova*. **“Qadimgi dunyo tarixi”**. Ikkinchi qism. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1974.
50. *K. Рижов*. **“Все монархи мира. Древний восток”**. Москва, “Вече”, 2001.
51. *A. Sagdullayev*. **“Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda”**. Toshkent, “O‘qituvchi”. 1996.
52. *A. S. Sagdullayev, V. A. Kostetskiy, N. K. Norqulov*. **“O‘zbekiston tarixi”**. Umumta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent, “Sharq”, 1999.

- 
53. *A. Sagdullayev, V. Kostetskiy*. "Tarix". Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. "Qadimgi dunyo". Toshkent, "Sharq", 2005.
54. *T. Saidqulov*. "O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar". Toshkent, "O'qituvchi", 1993.
55. *F. Sulaymonova*. "Sharq va G'arb". Toshkent, "O'zbekiston", 1997.
56. *Q. Usmonov, U. Jo'rayev, B. Ahmedov*. "Tarixdan hikoyalar". Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent, "Cho'lpon", 2005.
57. *A. Ziyoyev*. "O'zbek davlatchiligi tarixi". Toshkent, "Sharq", 2000.
58. *H. Ziyoyev*. "O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi". Toshkent, "Sharq", 2001.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
TARIX INSTITUTI

## **QADIMGI DUNYO TARIXI**

**(maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchilari, abituriyentlar  
va tarix fani o'qituvchilari uchun qo'shimcha qo'llanma)**

Tuzuvchi-muallif **Farhod Sultonov**

Tarix fanlari doktori, professor **D.A. Alimova** ilmiy tahriri ostida

**O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti Ilmiy kengashi, tarixiy adabiyotlarni nashrga tayyorlash va chop etish bo'yicha davlat ekspert guruhi hamda Respublika Ta'lim markazi tarix fani o'quv-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.**

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2011

Muharrir *Ulug' Bek*  
Badiiy muharrir *Tolib Qanoatov*  
Tehnik muharrir *Diana Gabdrahmanova*  
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*  
Musahhihlar: *Jamila Toirova, Nodira Oxunjonova*

Bosishga ruxsat etildi 02.04.2010. Bichimi 60x90<sup>1</sup>/<sub>8</sub>. «TimesUZ» garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 58,0. Nashriyot-hisob tobog'i 53,4. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 759. Bahosi shartnoma asosida.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.